

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI,
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,
OZARBAYJON MILLIY BILIMLAR AKADEMIYASI
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI,
TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV NOMIDAGI
XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI,
TURKIYA JUMHURIYATI KARABUK UNIVERSITETI**

“QO‘QON ADABIY MUHITI VA UCHINCHI RENESSANS”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

2022-yil 28-may

“QO‘QON ADABIY MUHITI VA UCHINCHI RENESSANS”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami / – Farg‘ona. –
2022. – 604 b.

So‘nggi yillarda madaniyatimiz va adabiyotimizga e‘tibor kuchaydi. Ajdodlarimizning badiiy tafakkuri qudrati, teran zakovati, buyuk iste‘dodi bilan yaratilgan bezavol merosni millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan xolis, haqqoniy o‘rganish va keng targ‘ib etish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. Milliy ma‘naviyatimizning rivojlanish bosqichida muhim o‘rin tutgan, mumtoz so‘z tarixida alohida hodisa sanalgan Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari ijodini o‘rganish ham dolzarb masalalardan biridir. Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari mumtoz adabiyot tarixida mavjud an‘analarni o‘z davri sharoitida davom ettiribgina qolmasdan, poetik mazmuni boyitishga ham xizmat qilganlar. Mazkur shoirlarning nafaqat Qo‘qon adabiy muhitidagi balki o‘zbek mumtoz so‘z san‘ati taraqqiyotidagi o‘rnini belgilash, ilmiy va keng jamoatchilikka taqdim etish, yangi ilmiy tadqiqotlar uchun yo‘l ochish, shoirlar ijodiyoti asosida yoshlarda milliy ma‘naviy meros va qadriyatlarga hurmat va milliy g‘ururni yuksaltirish zaruriyatidan Xalqaro anjuman o‘tkazildi va to‘plamda mazkur anjuman materiallari o‘rin olgan.

To‘plam № AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida chop etildi.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.)

Tahrir hay‘ati:

**Ibrohim Haqqul, Boqijon To‘xliyev, Nurboy Jabborov,
Jabbor Eshonqul, Dilnoza Xodjayeva, Iqbol Mirzo,
Olimjon Davlatov, Abdulatif Turdaliyev**

Mas‘ul muharrir:

Zebo Qobilova

Nashrga tayyorlovchilar:

**Dilmurod Asqarov, Lochinbek Ahmadaliyev,
Musharraf Imomaliyeva, Namuna Tursunova,
Shahnoza Jumanova, Hilola Raimova**

ADABIY MEROS - UCHINCHI RENESSANSNING ASOSIY USTUNLARIDAN BIRI SIFATIDA

TUPROG'IDA FOZILLAR YETISHTIRGAN YURT

**Xayrullo BOZOROV,
Farg'ona viloyati hokimi
(O'zbekiston)**

Muhtaram anjuman qatnashchilari! Avvalo, barchangizni ko'hna va hamisha navqiron Ho'qandi latifda bo'lib o'tayotgan yana bir ilm-ma'rifat majlisi – "Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans" mavzusidagi ilmiy konferensiya munosabati bilan chin yurakdan, samimiy muborakbod etaman. Aslida, bunday ilmiy anjumanlarning ko'plab o'tkazilishi ham yurtimizda ilm-ma'rifatga, adabiyotga, ajdodlarimiz boy ma'naviy merosiga ko'rsatilayotgan yuksak ehtiromdan dalolatdir. Biz ushbu kun sharofati bilan adabiy davraga yig'ilgan chet ellik soha mutaxassisleri – ozarbayjonlik, tojikistonlik, turkiyalik olimlarimizga, shuningdek, jonajon O'zbekistonimizning turli shahar va viloyatlarida faoliyat olib borayotgan zahmatkash adabiyotshunoslarimizga "xush kelibsiz" deymiz.

Qadim Turkiston uzoq zamonlardan beri fan va madaniyat rivojiga munosib hissa qo'shib kelgan. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to'qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozir O'zbekiston olimlari uzoq o'tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o'rganib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan jahon fani rivojiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Shuning uchun mazkur jarayonni, ta'bir joiz bo'lsa, Uchinchi Renessans deb atashga to'laqonli haqdormiz! Ajdodlarimiz boy ma'naviy merosida Qo'qon adabiy muhitining zalvorli o'rni bor. Bugungi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning "Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans" deb nomlanishi ham bejiz emas.

Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodini o'rganish uzoq davrlarni talab etadigan mashaqqatli, ammo shuning bilan birgalikda sharafli vazifadir. Zero, bobolarimizning har bir xayrli ishlari ulug' tahsinlarga sazovordir. Qo'qon adabiy muhitining ta'sir maydoni chegara bilmaydi. Qo'qon xoni Amir Umarxon asos solgan mazkur adabiy muhit nafaqat xonlikning shaharlari, balki Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor, Hirot, Qoshg'ar, Yorkent, Ko'lob kabi qadim Turkiston zaminining ko'hna va boy madaniyatga sazovor bo'lgan shaharlaridan ijod ahllarini birlashtirdi. Ularning kamoloti aynan Ho'qandi latifda kamolga yetib, ijod qalamining shuhrati ovozi olamni tutdi.

Qo'qon adabiy muhitining Xorazm adabiy muhitiga ta'siri, ushbu ikki adabiy maktab o'rtasidagi o'zaro ta'sir va izdoshlik masalalari alohida yo'nalish kasb etadi. Zero, adabiyotshunos olimlar e'tiroficha, Qo'qon adabiy muhitidan eng ko'p bahramandlik Xiva shoirlari ijodida kuzatiladi. Haqiqatan ham, Xorazm

muhitning asoschisi Muhammad Rahimxon Feruzdan tortib, Munis, Ogahiy, Komil, Tabibiy, Avaz O'tar singari shoirlar ijodiga Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Fazliy, Mushrif, Xotif kabi ijodkorlar merosining hayotbaxsh ta'siri seziladi.

Amiriy boshliq ijod ahllari nafaqat adabiyot sohasida, balki ilm-fanning turli yo'nalishlarda o'zlarini namoyon eta olgan. Tarixnavislik, tazkiranavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari dunyoga kelgan. Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhfat ut-tavorix", Is'hoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorixi Xavoqin", Mutribning "Shohnomai devona Mutrib", Mushrifning "Shahnomai Nusratpayom" kabi tarixiy asarlari, Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasi mazkur davrda yaratilgan, u haqdagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Umarxon tashabbusi bilan dunyoga kelgan Fazliy tazkirasi tazkiranavislikda yangi yo'nalishni shakllantirdi.

Men bugun shahrimizda davom etadigan anjuman ishiga omadlar tilayman. Barcha olimlarimiz, qadrli mehmonlarimizga sihat-salomatlik, ijodiy, ilmiy ishlarida zafarlar yor bo'lishini istayman. Barchangizning har bir xayrli ishingizda buyuk mutafakkir ajdodlarimizning yozgan asarlari hamisha dasturilamal bo'lsin!

UCHINCHI RENESSANSNING MUSTAHKAM POYDEVORI

**Ma'rufjon USMONOV,
Qo'qon shahar hokimi
(O'zbekiston)**

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari! Barchangizni ushbu adabiy anjuman, adabiyot bayrami bilan tabriklayman!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan yig'ilishda hamda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak",- degan edilar. Bugungi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman ham ana shu ezgu istakning amaliy ifodasidir!

Har sohada islohotlarni amalga oshirib, taraqqiyot sari borar ekanmiz, odamlarimizning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni san'at va adabiyot nurlari yoritgan yo'l sari boshlash muhimdir. Negaki, bilimli va ma'naviyatli xalqgina o'z istiqbolini yarata oladi. Bilimli va ma'naviyatli avlodgina mamlakat ertasini bunyod qila oladi. Mamlakatimiz rahbari ham hamisha birinchi navbatda insonlar qalbiga yo'l topish kerakligi, ular uchun barcha imkoniyatlarni yaratish lozimligini ta'kidlaydilar. Odamlar qalbiga yo'lni esa yuksak ma'naviyat, madaniyat, mutolaa nurlarini olib kirishdan boshlash kerak, fikrimcha. Shu ma'noda bugun vatanimizda madaniy jarayonlarning benihoya ko'tarinki ruhda kechayotganini quvonch bilan ayta olaman.

Shuni alohida ta'kidlashni istar edimki, bundan 200 yil oldin ham shahrimizda katta bir adabiy muhit paydo bo'lgan va gurkirab rivojlangan edi. Bu muhit adabiyotimiz tarixida Qo'qon adabiy muhiti nomi bilan shuhrat topdi. Qo'qon adabiy muhiti vakillarining hayoti va ijodi yurtimiz va jahon filolog olimlari tomonidan tizimli ravishda o'rganilib, bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur adabiy muhitni targ'ib etish masalalariga davlat miqyosidagi e'tibor, nashrlardan g'ururlansak arziydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan tortib, doktoranturagacha bo'lgan barcha bosqichlarda Qo'qon adabiy muhitini o'rganish ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi xalqaro konferensiyamizning asosiy maqsadi ham barkamol avlod qalbida vatanparvarlik, ezgulik va ona-yurtga, xalqiga fidoyilik bilan xizmat qilish tuyg'ularini kuchaytirishga qaratilgan. Dunyo bo'ylab ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy xazinaning yuksak qadrlanayotganligini jahon keng jamoatchiligining ma'naviyatimiz, adabiyotimizga bo'lgan cheksiz e'tibori namunasi, deb hisoblaymiz. Buyuk shoir va mutafakkirlarimiz, atoqli davlat va jamoat arboblarning bebaho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, adabiy-estetik tafakkuri rivojida alohida o'rin tutadi. Ulug' shoirlarimiz o'zlarining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egallay olganlar. Bugun butun jahon nuqtadonlari dunyoning turli nuqtalarida yangrayotgan o'z so'zlarida buyuk o'zbek shoirlari, mutafakkirlari va davlat arboblarning turkiy dunyo ma'naviy-marifiy hayotiga, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, fan, ta'lim, adabiyot, san'at, ijtimoiy sohalaridagi yutuqlar hamda dunyo xalqlari birligi, jahon tinchligini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarini baralla e'tirof etmoqdalar. Ushbu e'tiroflar barcha rivojlangan davlatlar ziyolilari qatlami tomonidan tan olinmoqda hamda ushbu ezgu g'oyaviy maqsadlar to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu o'rinda, ulug' bobolarimizning ilm-fan va badiiy ijod sohasida amalga oshirgan ishlari, jumladan, nazm, nasr, din, tasavvuf, adabiyotshunoslik, tilshunoslik yo'nalishlarida yaratgan durdona asarlari asrlar osha butun bashariyatni hayratga solib kelayotganini alohida ta'kidlash zarur. Qolaversa, bu buyuk bobolarimizning o'z davrida davlat arbobi, qomusiy olim, ma'rifatparvar shaxs sifatida nom qozonib, xalq qalbiga quloq tutib, xalqparvar inson timsolida tarixda qolgani, yurt tinchligi, farovonligi, obodligi yo'lidagi ezgu va hayrli ishlari biz avlodlar uchun ibrat namunasidir, albatta. Ulug' shoirlarimizning asarlari esa, butun jahon adabiyoti xazinasini boyitib kelmoqda. Ularning betakror g'azal, ruboiy, qit'a, fard, muxammas va boshqa janrlardagi asarlari o'z mavzusi, badiiyati bilan insoniyatni o'ziga maftun etadi. Bugun adabiyotimiz tarixida alohida hodisa hisoblangan Qo'qon adabiy muhiti, uning vakillari faoliyati, adabiy merosi haqida gapiriladi, kuzatuvlar va xulosalar o'rta qo'yiladi.

Ushbu konferensiyani tashkil etishda o'zlarining sa'y-harakatlarini ayamagan barcha adabiyotshunosligimiz fidoyilariga o'zining chuqur minnatdorchiligimni izhor qilaman. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning

qatnashchilariga ijodiy barkamollik va kasbiy izlanishlarida omad va zafarlar, mashaqqatli, ammo sharaflı ishlarida ulkan muvafaqqiyatlar tilayman!

HO‘QANDI LATIF – ILM-FAN TAMADDUNI BESHIKLARIDAN BIRI

**Dilnoza XODJAYEVA,
QDPI rektori
(O‘zbekiston)**

Markaziy Osiyo xalqlari azal-azaldan komil inson tarbiyasiga ustuvor ahamiyat qaratgan. Bunga ushbu zaminda tug‘ilib voyaga yetgan buyuk allomalar ijodi-yu jahongir sarkardalarning bunyodkorlik faoliyati yorqin misol.

Markaziy Osiyoda kamolga yetgan allomalar bugungi zamonaviy fanlar – arxitektura, ilohiyot, astronomiya, tibbiyot, falsafa, geometriya, geografiya, huquqshunoslik, tasavvuf fanlari rivojiga katta hissa qo‘shdi. Hududda ko‘plab kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning Markaziy Osiyo xalqlari uchun beqiyos ahamiyatga ega, adolatli boshqaruv haqidagi “Qutadg‘u bilig” kitobi yozildi. Al-Farg‘oniyning astronomiyaga oid kitobi ko‘p yillar mobaynida Yevropa ta‘lim muassasalarida asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Forobiy Aristoteldan so‘ng “Ikkinchi muallim” sifatida e‘tirof etildi. Ibn Sino tibbiyot ilmini, al-Xorazmiy algebra fanini yangi bosqichga olib chiqdi. Forobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi siymolar jahonga tanildi. Quvonarlisi, bugun ham mazkur jarayon davom etmoqda. Adabiyot, tarix, san‘at, ilm-fan va madaniyatni tadqiq etish barqaror rivojlanib bormoqda. Yurtimizda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirib, ilm-fan cho‘qqilarini egallashda bardavom bo‘lishimiz kundalik ehtiyojimizdir. Qolaversa, bu biz, ziyolilarning muqaddas va sharaflı burchimiz hamdir!

Mana shunday ilm-ma‘rifat beshiklaridan biri, shubhasiz, ko‘hna Qo‘qondir. Qo‘qon, ayniqsa, adabiy muhiti bilan mashhur bo‘lgan. Alisher Navoiy davri Hirot adabiy muhitidan keyingi adabiyotimizning “ikkinchi oltin asri” deya nom olganining o‘zi ham mazkur muhit darajasini belgilaydi. Qo‘qon adabiy muhitning asoschisi Qo‘qon hukmdori Umarxon Amiridir. Amiriy – millatimiz tarixidagi betakror siymolardan biri. Uning shaxsiyati millat tarixi, milliy davlatchiligimiz tarixi, tabiiyki, milliy madaniyatimiz va ma‘naviyatimiz tarixi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Bu xususiyatlariga ko‘ra, uning tarix oldidagi xizmatlarini buyuk Alisher Navoiy hamda benazir Zahiriddin Muhammad Boburlar xizmatiga qiyoslash mumkin. Boshqa jihatlarini gapirmagan taqdirda ham, adabiyot va san‘atga oshuftalik, shu sohada iqtidor nishonasini ko‘rsatgan har qanday ijodkorga nisbatan mehr-u muhabbat, homiylik, qo‘llab-quvvatlash, rag‘bat bildirishning o‘zi nihoyatda yuksak darajadagi olqish va e‘tiroflarga munosibdir. Bularning yonida Amiriy hazratlarining badiiy ijod bilan shug‘ullanishlarining o‘zi bir olam. Bu xususiyatlariga ko‘ra u o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadigan zabardast ijodkorlardan biridir.

Amiriy asos solgan Qo‘qon adabiy muhiti va uning vakillari ijodini o‘rganish biz avlodlarning o‘z ajdodlarimiz oldida turgan vorislik burchlarimizdan biridir. Mana shu ezgu maqsadni ado etish yo‘lida yana bir qadam tashlashlik uchun yig‘ilgan barcha adabiyot jonkuyarlariga o‘zinning samimiy minnatdorchiligimni izhor qilaman!

EPIK MATNNING QIYOSIY TADQIQI MASALALARI

Jabbor ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori, professor
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Baxshilarimiz tomonidan kuylanib kelinayotgan dostonlar birinchi navbatda badiiy so‘z san’ati namunasidir. Bu doston namunalari, ya’ni epik matn tadqiqigina uning ma’no-mazmunini, mohiyatini ochib bera oladi. Bugungi kunda epik matn har tomonlama qiyosiy o‘rganishni talab qiladi. Mazkur maqolada baxshilarimiz tomonidan sevib kuylanib kelinayotgandan epik matn, birinchi navbatda, “Alpomish” kabi arxaik epos namunasi bo‘lgan qahramonlik dostonlarini qiyosiy o‘rganish zarurati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Baxshichilik san’ati, epik ijod, epik matn, versiya, variant, motiv, syujet, epik an’ana.

Аннотация

Дастаны в исполнении наших бахши - это, прежде всего, образец искусства художественного выражения. Сравнительное изучения эпоса, то есть, изучение эпического текста, могут раскрыть его смысл и суть. Сегодня эпический текст требует всестороннего сравнительного изучения. В этой статье даётся обзор промлемы сравнительного изучения эпического текста, прежде всего текста героических эпосов как “Алпамиш”.

Ключевые слова: искусство бахши, эпическое творчество, эпический текст, версия, вариант, мотив, сюжет, эпическая традиция.

Annotation

Dastans sung by our bakhshis is an example of artistic expression art. Comparative learning of Epic, specifically learning epic texts can help to open its meaning and essence. Currently, epic text requires comprehensive comparative learning. This article gives the illustration of comparative learning of epic texts, mainly heroic epic of “Alpamish”.

Key words: bakhshi art, epic creativity, epic text, version, variant, motive, plot, epic traditions.

Epos badiiy so‘z san’atining yuksak namunasigina emas, balki har bir xalqning badiiy tarixi hamdir. Shunday ekan, epik asarlar matnini o‘rganish bu xalqning tarixi, urf-odati, madaniyati va tafakkur tarzini ham o‘rganish deganidir.

Epik asarlar boshqa folklor namunalari kabi tabiatiga ko‘ra dunyoviy hodisadir. Atoqli folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy folklor asarlarini qiyosiy aspektida o‘rganish bo‘yicha o‘zining nazariy xulosalarini bayon etib o‘tgan.

Yoxud ustoz To'ra Mirzayev o'z tadqiqotlari bilan epik matnni qiyosiy aspektda o'rganish borasida katta bir maktab yaratib ketdi, deya olishimiz mumkin.

Biroq shu kunga qadar, ustozlar tomonidan e'tirof etilgan fikrlar rivojlantirilmadi, bu borada, ya'ni epik asarlarni qiyosiy o'rganish juda ham oqsab bormoqda desak, to'g'ri bo'ladi. Buning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta.

Birinchidan, bugungi kunda folklor nazariy planda juda kam o'rganilayapti. Shuning uchun, uni qiyosiy o'rganish borasidagi fikrlarda yangilik kuzatilmayapti. Folklorshunoslikdagi eng katta muammolardan biri, xalq og'zaki ijodining spisifik xususiyatlaridan chekinish, folklor asarlarining o'ziga xosligiga urg'u beradigan nazariy tadqiqotlarning kamligidir.

Ikkinchidan, bugungi kunda epik asarlar tarjimasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti. Oqibatda, dunyo xalqlari epik namunalari bilan tanishish, ular ustida tadqiqotlar olib borish borasida dunyo folklorshunosligida ilgari qadam tashlanmadi, aksincha orqaga ketildi.

Bugun dunyo xalqlarining eng nodir namunalari bo'lgan "Mahobhorat", "Ramayana", "Odissey" bilan bir qatorda "Alpomish", "Manas", "Jangar", "Olonxo", "Go'ro'g'li", "Dada Qo'rquq kitobi" kabi ko'plab epos namunalari dunyoning turli tillariga tarjima qilinishi va ular ustida tadqiqotlar olib borilishi zarur.

Nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon folklorining eng nodir namunalariidan biri bo'lgan "Alpomish", "Manas", "Jangar", "Olonxo"dan bugun O'zbekistonda faqat sanoqli folklorshunoslargina xabardor. Yoxud, "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi o'zbek dostonlaridan xorijda sanoqli folklorshunoslargina xabardor. Vaholanki, bu dostonlarning tarjima qilinishi keng ommaga tanishtirish bilan bir qatorda, uni boshqa ko'plab epik ijod namunalari bilan qiyosiy o'rganish eshiklarini ham ochib beradi.

Birgina misol, "Alpomish" dostonini misol tariqasida oladigan bo'lsak, uning "Manas", "Jangar", "Olonxo", "Mahobhorat", "Odissey" kabi epik ijod namunalariidagi motiv va syujetlarida juda ko'p o'xshashliklarni kuzatamiz. Bu birinchi navbatda, qahramonning ilohiy tug'ilishi, ulg'ayishi, safar va sinov motivlarida ko'zga tashlanadi.

"Alpomish" dostoni qahramonning shajarasi va Boybo'ri bilan Boysarining farzandsizlik holati bayoni bilan boshlanadi. **"Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iroq elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri esa shoy edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi"**.¹

Qahramon shajarasi haqida ma'lumot berilishi, ota-onasining farzandsizligi faqatgina "Alpomish" dostoniga xos emas. Garchand, bu motiv dostonning deyarli barcha variantlarida bayon etilgan bo'lsa-da, aynan Fozil Yo'ldosh o'g'li

¹ Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи Тўра Мирзаев. – Тошкент:Фан, 1999. 400 б.

variantida mukammallik kasb etgan. Variantlarni o‘zaro qiyoslayotganda u yoki bu variantning mukammalligina aniqlanib qolmaydi, balki epik matn borasidagi bilimlarimiz ham yangilanadi.

Versiyadagi eng mukammal variantning turli versiya yoxud boshqa epik namunalar bilan qiyoslanishi esa epik san’atning yuzaga kelishi va taraqqiy etishi, strukturasi, badiiyati, tipologik xususiyatlari haqida yangi nazariy xulosalar beradi.

Qahramon tug‘ilishdan oldin shajaraning tilga olinib, ota-onasining farzandsizlik motivi dunyo xaqdari eposining “Manas”, “Mahabhorat”, “Odessiy” kabi eng nodir namunalarining deyarli barchasida uchraydi.

“Manas” Sayakbay Karalaev variantida qahramonning tug‘ilishi epik an’analarga qat’iy rioya etilganini ko‘ramiz. “Manasning tug‘ilishi” deb nomlangan qismda tug‘ilajak qahramonning shajarasi haqida to‘liq ma’lumot beriladi.

Manastin tuula elgindegi babalari

Tup atasi Tugol kan,
Tubunon Kidir daarigan,
Bashki atasi baari kan,
Bashinan Kidir daarigan,
Tunop otkon jerine,
Tuptuu mazar ornogon...
Tup otasi Boyon kan,
Boyon kandan Chayan kan,
Chayan kandan Ogoy kan,
Ogoy kaydan onoydur,
Munu menen bettешken adam jogolgon..
Atasinan babasi,
Arislandin tukumu,
Ichse kanga toymogon,
Ogoy kandan Balakan,
Balakandin baatiri
Kancha jerge taragan.
Balakandan Karakan,
Kayrattuu, miktuu, zaari kuch...²

Yuqoridagi satrlardan shu narsa ma’lum bo‘layaptiki, xuddi “Alpomish” dostonidagi kabi “Manas”da ham Manasning ota avlodi, yana ham to‘g‘rirog‘i uning shajarasi, ota-onasining farzandsizligi haqida ma’lumot berilmoqda.

“Alpomish” ham “Manas” ham qahramonlik epos namunasi bo‘lib, unda qadim inonch-e’tiqodlar, mifologik tasavurlar ustunlik qilgan motivlarga duch kelamiz. Har ikkala eposda ham biz mifologik tafakkurning poetik tafakkurga aylanish hodisasini kuzatamiz.

² Манас. Баатырдык эпос Саякбай Каралаевдин варианты боюнча. Тузгодор: Айнек Жайнакова, Абдылдажан Акматалиев, Мээрим Колбаева. –Бишкек, 2019. –Б.19 – 21.

Alp – qahramonning tug‘ilishi va uning shajarasining ilohlar bilan bog‘lanishi jahon epik ijodiyotida ham ko‘plab uchraydi.

“Gilgamish” dostonida Gilgamish va Enkidu ham yarim odam – yarim iloh: “Sen bir xilqat Enkidu, misoli tangri kabi”³.

“Mahabhorat” dostonida ham pandavilar Pand shohining o‘g‘illari. Biroq, shoh Pand tavqi lan‘atga uchragan, xotinlari tangri inoyati bilan farzand ko‘radi.⁴

“Odissey” dostonida ham Odissey Laertning o‘g‘li. Shuning bilan bir qatorda u Zevsning o‘g‘li ham. “Zevs ato etgan Laertning o‘g‘li”⁵.

Qahramon – alpning ilohiy tug‘ilishi motivida bir tomondan, uning ilohlar bilan bog‘liqligi e‘tirof etilsa, ikkinchi tomondan, u o‘z shajarasining davomchisidir. Shunga ko‘ra Alpomish Boybo‘rining bolasi, Dobonbiy va Alpinbiylarning avlodi. Ikkinchi tomondan, u farzandsizligi tufayli Boybo‘riga Shohimardon pir, ya‘ni Qultoy tomonidan ato etilgan ilohiy farzand. Shuning uchun ham u Qultoyga o‘g‘il hisoblanadi. Shuning uchun ham, yetti yillik zindondan so‘ng aynan Qultoy qiyofasiga kiradi. “Dada Qo‘rqut kitobi” da bu holat ochiqroq bayon qilingan, ya‘ni Bomsu bayrak, o‘ziga ism bergan, o‘ziga homiylik qilgan o‘zon – Qo‘rqut ota qiyofasiga kiradi. “Alpomish” dostonidagi Qultoy ham, “Dada Qo‘rqut kitobi”dagi Qo‘rqut ota ham ajdodlar kultini o‘zida tamsil etgan badiiy obrazlardir.

Dunyo xalqlari eposi namunalarida qahramon tug‘ilishdan oldin aynan farzandsizlikka urg‘u berilishi bejiz emas. Gap bu yerda yangi davr qahramonining dunyoga kelishi haqida so‘z bormoqda. Alpomish, Manas, Odissey bular shunchaki qahramon emas, ular madaniy qahramonlardir. Madaniy qahramon bilan bog‘liq tushunchalarning eposdan joy olishi uning ildizlari qadim tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini urg‘ulaydi.

Epik asarlar matnini qiyosiy planda o‘rganish bilan bog‘liq bugungi kunda mavjud bo‘lgan quyidagi muammolarni sanab o‘tish mumkin:

1. Epik asarlarning versiya va variantlarini qiyosiy o‘rganish. Zero, gap epik ijod haqida ketar ekan, birgina variant yoki versiya bilan chegaralanib, tadqiqot olib borib bo‘lmaydi. Epik asarning ko‘plab variant va versiyalarigina folklor namunalarining yuzaga kelish, yashash va taraqqiy etish qonuniyatlarini ochib beradi.

2. Epik asarlarni qardosh xalqlar miqyosida qiyosan o‘rganish. Bu o‘rinda urg‘u biror eposning versiyalariga emas, balki, ma‘lum bir janrga xos bo‘lgan, biroq turli qardosh xalqlar epik ijod namunasi bo‘lgan asarlarni qiyosan o‘rganishni talab etadi. “Alpomish” dostonining o‘zbek, qoraqalpoq, tatar, oltoy kabi ko‘plab versiyalariga qiyoslash bir qatorda, uni qardosh xalqlarning “Manas”, “Qoblandi botir”, “Olonxo”, “Jangar”, “Madday kara” kabi boshqa epik namunalariga qiyosan o‘rganish zarur.

3. Dunyo xalqlari epik asarlarini qiyosan o‘rganish. Har bir epik asar milliy hodisa bo‘lishi bilan bir qatorda umuminsoniy hodisa hamdir. Har bir milliy

³ Эпос о Гильгамеше. – Москва-Ленинград, 1961. – С. 12.

⁴ Гринцер П. А. Эпос древнего мира. Типология и взаимосвязи литературы древнего мира. – Москва: Наука, 1971. – С. 134–205.

⁵ Одиссея. – Москва, 1985. – С. 133.

eposda biz dunyoning boshqa xalqlari eposi bilan juda ko‘p parallelliklarni kuzatamiz. “Alpomish” dostonini “Odissiy” ga qiyoslab o‘rganishga urinishlar mavjud. Bu borada, V. Jirmunskiyning xizmatlarni alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Biroq, birgina doston bilan cheralanib qolmasdan, dunyo xalqlari eposini qiyosan o‘rganishni talab etadi.

4. Epik asarlarni yozma adabiyotga qiyosan o‘rganish. Yozma adabiyot folklor ta’sirida yuzaga kelganini, uning asosi folklor bilan chambarchas bog‘liq ekani hech kimga sir emas. Biroq, XX asrda yozma adabiyotda yangi bir inqilob yuz berdi. Yozma adabiyot, ayniqsa, nasrda yana miflarga murojat qilish an’anasi yetakchi tamoyilga aylandi. J. Joys, F. Kafka, U. Folkner, G. G. Markes kabi adiblarning asarlari buning misolidir. Epik asarlarni yozma adabiyotga qiyosan o‘rganish, ijodkor asarining mazmun mohiyatini ochib berish uchungina xizmat qilmaydi, balki, epik bilim, xotira va an’analarining, folklor namunalarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish uchun muhim hisoblanadi.

Bugun kun folklorshunosligi epik asarlarni tadqiq etishda rang-barang metodlardan foydalanishni talab qilmoqda. Bu o‘rinda tarixiy qiyosiy metodning ustuvorligini urg‘ulagan holda, so‘nggi davrlarda urf bo‘layotgan ruhiy tahlil, semiotik talqin kabi boshqa metodlardan ham foydalanish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, epik asarlar qaysi doira va miqyosda o‘rganilmasin, bunda qaysi metod va usullardan foydalanilmasin folklor namunalarining yuzaga kelishi, yashashi va taraqqiy etishining o‘z qonuniyatlari mavjudligini aslo unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алпомиш. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи Тўра Мирзаев. –Тошкент:Фан, 1999. 400 б.
2. Гринцер П. А. Эпос древнего мира. Типология и взаимосвязи литературы древнего мира. – Москва: Наука, 1971. – С. 134–205.
3. Манас. Баатырдык эпос Саякбай Каралаевдин варианты боюнча. Тузгодор: Айнек Жайнакова, Абдылдажан Акматалиев, Мээрим Колбаева. –Бишкек, 2019. –Б.19 – 21.
4. Гомер. Одиссея. – Москва, 1985. – С. 133.
5. Эпос о Гильгамеше. – Москва-Ленинград, 1961. – С. 12.

PRINCIPLES TOWARDS INTERETHNIC TOLERANCE FORMATION AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS

Bahodurjon ASHRAPOV,
senior lecturer of the department of English
language SEI “Khujand State University
named after academician B.Gafurov”
(Tajikistan)

Annotation

The article dwells on the issue beset with principles towards interethnic tolerance formation among students of higher educational establishments. It is worth mentioning the theme explored is based on compassion and humanism. It is underscored that the relevant principle is considered to be one of the most important and leading ones aimed at interethnic tolerance formation of future teachers by means of the culture of one`s own native land.

It is concluded that the issue concerned with the principles towards interethnic tolerance formation among students plays a key role in the further development of the educational system.

Keywords: *methods of teaching, principles, interethnic tolerance formation, literary heritage teaching, higher educational establishments.*

Аннотация

В статье рассматривается вопрос о принципах формирования межнациональной толерантности у студентов высших учебных заведений. Стоит отметить, что исследуемая тема основана на сострадании и гуманизме. Подчеркивается, что данный принцип считается одним из важнейших и ведущих, направленных на формирование межнациональной толерантности будущих педагогов к культуре родного края.

Делается вывод, что вопрос о принципах формирования межнациональной толерантности студенческой молодежи играет ключевую роль в дальнейшем развитии системы образования.

Ключевые слова: *методика обучения, принципы, формирование межнациональной толерантности, преподавание литературного наследия, высшие учебные заведения.*

Annotatsiya

Maqolada oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish tamoyillari masalasi ko'rib chiqiladi. Bu tamoyil bo'lajak o'qituvchilarda o'z ona yurti madaniyatiga millatlararo bag'rikenglikni shakllantirishga qaratilgan eng muhim va yetakchi tamoyillardan biri ekanligi ta'kidlandi. Talabalar o'rtasida millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish tamoyillari masalasi ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda asosiy o'rin tutadi, degan xulosaga kelinadi.

Kalit so'zlar: o'qitish usullari, tamoyillari, millatlararo bag'rikenglikni shakllantirish, adabiy merosni o'qitish.

Introduction: Dialectics and the theory of knowledge assert the infinity of connections and relationships of phenomena, processes, things that surround a person and cause him/her to have a specific human attitude. Among the various types of social relations of individual, we are interested in a tolerant attitude towards people of different ethnic groups formed in any individual due to his/her inclusion in various activities for both cultural reality and spiritual values development and the culture of peoples living on a certain territory of a multinational state, in particular.

The object of the corpus of our study is to determine the principles towards

interethnic tolerance formation among students of higher educational establishments and tolerant attitude towards people of different ethnic groups formed in individual due to his/her inclusion in various activities for both cultural reality and spiritual values development.

The subject of the corpus of our study is the sequence of interethnic tolerance formation: consciousness - need - attitude – action differing in cause-and-effect relationships at various levels being enriched by its content as well.

The objective of the corpus of our study are both forms of aesthetic consciousness (perception, emotions, experiences and feelings, taste, needs, assessments and attitudes, views and theories, ideal) and ethno-tolerance (perception of others, certain emotional attitude towards feelings of tolerance or promptitude for conflict, need for contact, acceptance of him/her another person as “I”) need for finding true or false values of social reality and art [1, p.255]. Into the bargain, aesthetic and tolerant relationships develop and exist as independent value relationships. In reference to it, assessment of objective phenomena in the world does not follow directly, from specific criteria of this or that activity, but is given in relation to the entire life activity of a social person, the objective world and its inherent measure, etc. Therefore, the culture of society does not know more capacious and significant values than those that are formed in aesthetic and ethical attitude of a person to the world and to individual objects and phenomena of culture expressed in the well-known categories of aesthetics, including: beautiful, sublime, tragic, comic, and ethics: good, evil, self-sacrifice, etc. While considering the issue beset with interethnic tolerance formation it is necessary to turn, first of all, to pedagogy as a kind of stabilizing factor that offers new forms and methods of education, introduction of student`s consciousness of values not only into the existing social system, but into the inner spiritual world of an individual ones, and a group of people either [2, p.285].

In the light of these considerations it is necessary to reveal certain approaches to interethnic tolerance formation among future teachers by dint of the culture of their native land. In the pedagogical process, knowledge of ethical and aesthetic is categories designed on the premise of deep origins of ontological, epistemological, axiological, culturological and humanistic personality-oriented approaches. Usage of the relevant approaches is a process that is interrelated with different aspects of its study, upon the whole.

It is worth considering the main approaches to interethnic tolerance formation of future teachers by virtue of ethnic culture of the peoples of the region. It is necessary to dwell on the ontological approach in details. Ontology (Greek Ontologie - being, teaching) is a tenet about principles of its structure, laws and forms. It problematizes the social and communicative nature of cognition, complements subject-object interaction. The latter changes the idea targeted at subject-cognitive, subject-practical and communicative activities. Such kinds of aspects towards cognition as understanding and intuition are becoming important, significantly expanding individual`s capabilities. The main task of ontological approach to interethnic tolerance formation of future teachers is to develop methodological positions determining the logic of aesthetic and ethical knowledge

in pedagogy and to identify general patterns of development and self-development of students as well [3].

Therefore, the specificity of the formation of interethnic tolerance in future teachers is characterized from alternative positions which correspond to various spiritual and axiological systems of formation technologies, respectful, tolerant attitude towards objects of the surrounding reality. Let us dwell in more details on the content component of the ontological approach to the formation of interethnic tolerance in future teachers. The ontological approach in pedagogy assumes the form of unity of ontology and epistemology, object and subject, the sensual and the rational relying on various connections of being. For us, it remains very important that in addition to the formation of interethnic tolerance among students in the process of their inclusion in the aesthetic activity of appropriating the foundations of the culture of peoples, different ethnic groups living in a certain region are imbued with aesthetic attitude to the reality reflected in this culture. Moreover, in each culture of an ethnic group the same phenomenon is portrayed in its own way causing different feelings [4, p.150].

An essential ontological position in the content component of interethnic tolerance of future teachers is an integrity of awareness, development and self-development of an individual "I" in the joint creative activity of teacher and student, student's self-expression freedom being formed and caused by the factors enumerated. In conformity with our opinion, the educational process of future teachers should include creative tasks performed in terms of existentialism proceeded from those experiences arising in the process of rethinking subjective-personal experience and establishing reflex connections between them.

In this regard, symbolic function and subjective-personal development which in the pedagogical process are realized in the student's comprehension of the meaning and significance of the studied literary, musical, artistic works take into account their social and national positions acquiring great importance. Thus, the main ideas of existentialists reveal the meaning of ontological approach to ethno-tolerant consciousness formation of future teachers' personality which is associated with the latter's harmonization based on emotional-sensory sphere of development, fantasy and creativity and involves their inclusion into the early stages of civil and aesthetic development of an individual. Principles are self-generated elements manifesting only at a theoretical level and they are based on experience and experiment. "The principles are not applied to nature and human history, but are abstracted from them; there are not nature and humanity that conform to the principles, but on the contrary, the principles are correct only insofar as they correspond to nature and history". They determine how it is possible to achieve the desired result in the process of teaching and upbringing, what normative provisions the teacher should be guided by for this.

Thus, the principles are derived from the history and essence of phenomena realizing:

a) knowledge about the essence and patterns of the relevant phenomenon formation;

b) activity of a child being brought up with in the spirit of interethnic tolerance with the aim of his/her development. Principles are internal standards that should guide a teacher in developing students` abilities.

The principles having much in common with the rules possessing differences, the main of which is their orientation on the present and future development, ensure proceeding from objective possibilities; the rules ensure reproduction of vast experience of human activity. Aesthetic activities for the study of objects and phenomena of the culture of native land in this case is exactly the means that we use in order to form interethnic tolerance of future teachers. Its content, as one of the forms of cognition of reality, objectively provides various beneficial effect on the consciousness and feelings of future teachers it helps him/her realize himself/herself in the surrounding reality and build a system of values and those ones which belong to other for his/her own culture both ethnic groups. In the course of interethnic tolerance formation by means of the culture of the native land, we identified the following principles:

- maintaining interaction between cultures of the region;
- recognition of the importance of different cultures, delicate attitude to a culture of each ethnic group in a given region and prevention from domination, albeit implicit, of any one culture;
- affirmation of mutual solidarity and mutual recognition of each of the ethnic cultures of the region and each individual regardless of ethnicity;
- recognition of the importance of different languages in universities, ability to appreciate their diversity;
- taking into account the role of ethnic culture in interethnic tolerance development.

In addition, defining the principles of interethnic tolerance based on the study of the culture of the native land it is necessary to rely on the principle of local history. The course “Culture of the Native Land” helps effectively use the methods of constructing educational and educational situations, specific conditions in which the pedagogical process is carried out to form interethnic tolerance of future teachers in a secondary school. Unity of the development of aesthetic and ethno-tolerant attitudes of an individual in learning and creative activity, principle of dialogue of cultures, the principle of synthesis of sensual, rational and intuitive; single, special and general, the principle of development of a conscious ontological unity of a child with the world, principle of value-oriented education of an individual, highest spiritual multicultural importance, individualization of upbringing these are main postulates which should be imbued with younglings in the process of education [5, p.300]. Any society that does not have ethnic, social and cultural homogeneity needs tolerance to ensure its stability. Its forms ought to correspond to the character of dominant, mythological, religious, secular or scientific-social consciousness.

All this testifies to the fact that the principle of tolerance implies mutual respect between individuals between societies of different civilizations, between men and women. Respect includes a clear awareness of difference, rejection of superiority over others, and rejection of addiction. Respect means a constant effort

in search of a formula for coexistence, it admits recognition of one's own mistake and achievement of reasonable social harmony. The principle of respect offers a perspective of a balance between rights and obligations. Respect is based on contract, delineated boundaries, and requires responsibility. The principle of tolerance is based on compassion and humanism. The principle of humanization is one of the most important and leading principles of the formation of interethnic tolerance of future teachers by means of the culture of one's own native land, so we pay special attention to it. From the point of view of the provisions of interethnic tolerance, it is believed that a humanist is that one who is sure that every person is lawfully equal to himself being endowed with consciousness, reason, will and ability not to direct all this to the detriment of himself or humanity, of which he is a small integral part each.

Conclusion: The humanistic position in education lies in the thesis that a teacher does not work separately, neither for students, nor for parents, nor for the state, nor for society. He/she sees himself/herself separately and therefore tries to create a community, realizing, however, that the latter is created on the basis of the voluntariness of all people. The humanist teacher stubbornly seeks in reality on whose basis it is possible to create conditions for emergence of a community. Therefore, freedom, voluntariness, respect, acceptance, assistance, cooperation, support are not searchlight goals, they are his real needs.

Reference Literature:

1. Bloneky P.G. Selected Pedagogical and Psychological Works / P.G. Blonekiy. - M.: Pedagogy, 1979. – V.2. – 304 pp.
2. Husserl E. Research on Intellectual Experiences and their Contents / E. Husserl // Problems of Ontology in Modern Bourgeois Philosophy. - Riga: Knowledge, 1988. - pp. 282 - 298.
3. Davydov V.V. Problems of Developing Learning: Theoretical and Experimental Experience Of Psychological Research / V.V. Davydov. - M.: Pedagogy, 1986. - 240 pp.
4. Davydenko T.M. Reflective School Management: Theory and Practice / T.M. Davydenko. -M.-Belgorod, 1995. - 208 pp.
5. Ingarden R. Research in Aesthetics / R. Ingarden - M.: Foreign Literature, 1962. – 572 pp.

СОТРУДНИЧЕСТВО СЕМЬИ, МАХАЛЛИ И ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

**Шахноза Буранова,
преподаватель, Джизакский государственный
педагогический институт
(O‘zbekiston)**

Аннотация

Эта статья посвящена взаимосвязи работы дошкольной образовательной организации, семьи и махалли в воспитании детей третьего

ренессанса по подготовке их к школе, нравственные взгляды великого поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои, разнообразии формы работы с родителями дошколят в содействии махалли, работа с родителями неорганизованных детей

Ключевые слова: Коренное реформирование дошкольных образовательных организаций, работа с родителями неорганизованных детей, качественное обучение

Annotation

This article is devoted to the relationship between the work of a preschool educational organization, the family and the mahalla in raising children of the third renaissance to prepare them for school, the moral views of the great poet and thinker of the Uzbek people Alisher Navoi, the variety of forms of work with parents of preschool children in the assistance of the mahalla, work with parents of unorganized children

Key words: Main reform of kindergarten is the main work of mahalla to bring children, work with parents of unorganized children and activity the family in the life of children

Annotatsiya

Ushbu maqola oila, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorlikda Uchinchi Renessans bolalarini tarbiyalash, bu borada buyuk shoir Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari, maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalar ota-onalari bilan mahalla bilan hamkorlikda ishlash ishlariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etishda mahalla bilan hamkorlik, maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalar ota-onalari bilan hamkorlikdagi ishlar, sifatli maktabgacha ta'lim, bolalarni tarbiyalashda oilaning roli

Вопрос реформирования системы образования сегодня является одной из важнейших сфер, которая находится в центре внимания нашего правительства. В последние годы приняты законы и постановления, направленные на реформирование и развитие системы дошкольного образования. С целью разработки и реализации единой государственной политики в области дошкольного образования Указом Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию управления системой дошкольного образования» от 30 сентября 2017 года создано Министерство дошкольного образования.

Дошкольное образование обеспечивает здоровое, всестороннее развитое поколение, побуждает желание к учёбе в школе, приобретению необходимых знаний. Тесное содружество дошкольной образовательной организации с семьёй способствует её укреплению повышения активности в воспитании детей. Любовь родителей к детям – одно из необходимых и естественных условий семейного воспитания. Для ребёнка семья является естественной воспитывающей средой. Она накладывает свой отпечаток на его характер и поведение. В семье он получает первые уроки и познании мира и знакомится с элементарными законами жизни. Получаемые сведения

постепенно расширяются и усложняются, по мере того как малыш растёт и развивается. Семья во многом определяет отношение ребёнка к трудовой деятельности, культуры его поведения, активность и инициативность, дисциплинированность и целый ряд других качеств личности. Влияние семьи нередко бывает столь сильным, что создаётся впечатление, будто характер родителей полностью передаётся детям по наследству. Бесспорно, окружающая среда, в особенности условия домашнего быта, оказывают огромное влияние на формирование личности ребёнка. Но все же ведущим фактором во всестороннем развитии ребёнка, как об этом уже ранее говорилось, является воспитание. Следовательно, и в семье ребёнок должен получать правильное воспитание.

Профессиональная деятельность воспитателя дошкольного образования включает в себя такое важное направление в работе как проведение специально организованных форм образовательного процесса. Одной из таких форм является взаимосвязанная работа с семьёй, махаллэй. Воспитатель должен познакомиться с условиями воспитания ребёнка в семье ещё до поступления его в дошкольную образовательную организацию. Педагог должен сначала работать с председателем махалли, работать с активистами махалли и иметь конкретную информацию о детях. Работа с махаллэй поможет воспитателю быстрее найти пути педагогического влияния на родителей.

Условием успешного обучения детей дошкольного возраста является знание педагогам и родителям дидактических закономерностей формирования у детей системы знаний, умений и навыков, владение современными методами обучения, стимулирующими их познавательную активность, умение придать познанию поисковый характер, чтобы в основу образовательной работы была положена личная деятельность самого ребёнка. Важную роль играет стимуляция и управление педагогам и родителям активностью ребёнка [1]. При этом освоение детьми знаний, овладение умениями и навыками является лишь средством их развития. Главной же целью воспитателя и родителей в реализации развития образовательных областей по учебной программе дошкольного образования «Первый шаг» формирование способностей, интереса к самостоятельному их приобретению.

В воспитании детей в семье и махалле ведущее место должно занимать нравственное воспитание, развитие у них общественных интересов, дружеских отношений с окружающими. Совершенствование нравственного воспитания в семье и махалле считается одним из его основных вопросов, это всегда отмечалось нашими великими предками. Наследие выдающегося узбекского поэта, мыслителя Алишера Навои, жившего и творившего шесть веков назад, и сегодня не потеряло своей актуальности. Как не странно, сегодня поднимается проблема, в XXI веке не только наша молодёжь или подрастающее поколение, всё человечество нуждается в разностороннем развитии, чему более 600 лет назад Алишер Навои уделял пристальное внимание, в частности овладению наукой и ремеслом, в которых постоянно

надо совершенствоваться, и призывал к этому окружающих. “Знание и мудрость – украшение человека”. Эта истина, произнесённая устами выдающегося поэта и мыслителя узбекского народа Алишера Навои, и сегодня не потеряла своей актуальности. Он мечтал о разностороннем развитии человека, о воплощении в нём лучших качеств.

Усиление нравственного воспитания остается актуальной задачей для каждого периода, в качестве важного фактора нравственного воспитания имеют большое значение семья, махалля и дошкольная образовательная организация. Чаще всего в своей практике мы намечаем конкретные вопросы работы с семьёй и делаем краткие записи о проведённых мероприятиях, это даёт определённый результат ведение дневника. В работе семьёй большое значение имеет учёт, который помогает видеть результаты, а это в свою очередь даёт возможность делать педагогически обоснованные выводы и ставить совместно с родителями определённые задачи по воспитанию ребёнка [2]. Это обязывает воспитателей широко использовать теоретическую литературу, анализировать практическую работу и тесно сотрудничать с семьёй ребёнка, а также махаллинской общественностью. Ничто так не сближает родителей, педагогов и детей, как совместные мероприятия, которые проходят интересно и разнообразно. Для нас родительское собрание в работе с родителями оказалось самым привлекательным, востребованным, полезным, но и самым трудным в организации. Это объясняется тем, что любая совместная работа позволяет родителям: увидеть изнутри проблемы своего ребёнка, трудности во взаимоотношениях, апробировать разные подходы, посмотреть как это делают другие, приобрести опыт взаимодействия не только со своим ребёнком, но и с родительской общественностью в целом. Работая, в этом направлении уже больше 23 лет, была проведена большая работа с родителями. Родителей знакомим с жизнью дошкольной образовательной организации и их ребёнка через родительские собрания, уголки, информационные стенды и газеты, проводим консультации, беседы с показом видеозаписей, развлечения с родителями и наконец, занятия с участием родителей [3]. Убеждаем их о необходимости систематичности этих мероприятий. Для нас досуговое направление в работе с родителями оказалось самым привлекательным, востребованным, полезным, но и самым трудным в организации. На сегодняшний день можно сказать, что у нас сложилась определённая система в работе с родителями и махаллями. Использование разнообразных форм работы дало определённые результаты: родители и махалля стали активными участниками встреч, создана атмосфера взаимоуважения. Опыт работы показал: позиция родителей как воспитателей стала более гибкой. Теперь они ощущают себя более компетентными в воспитании детей. Родители и махалля стали проявлять искренний интерес к жизни дошкольной образовательной организации, научились выражать восхищение результатами и продуктами детской деятельности, эмоционально поддерживать своего ребёнка.

Использованные литературы и учебные пособия

1. Я.И. Ковальчук «Индивидуальный подход в воспитании ребёнка» Пособие для воспитателей детского сада.- 2-е изд., доп.-М.: Просвещение, 1990 г.-112 с.
2. Buranova, S. (2020). The continuity of neighborhood, family and preschool educational organization as a condition of successful adaptation to school life. Архив Научных Публикаций JSPI

YOSHLAR MA'NAVIYATINI OSHIRISH UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHNING ASOSIDIR

**Manzura NORQO'ZIYEVA,
JDPI, Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası
katta o'qituvchisi**

Anotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar ma'naviyatini oshirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asoslari ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kelajak bunyodkori, yosh avlod, jamiyat, ilm, fan, san'at, madaniyat, yuksalish, buyuk siymolar, uchinchi Renessans, milliy, tafakkur, jismoniy, ma'naviy, yosh olimlar, innovatsion faoliyat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются основы поднятия морального духа молодежи - фундамент третьего ренессанса.

Ключевые слова: Строитель будущего, Молодое поколение, Общество, Наука, Искусство, Культура, Взлет, Великие деятели, Третье Возрождение, Национальное, Мышление, Физическое, Духовное, Молодые ученые, Инновационная деятельность.

Annotation

This article discusses the foundations of raising the morale of youth - the foundation of the third renaissance. ta'lim va tarbiya Yoshlar kasbiy mahoratini

Key words: Builder of the future, Young generation, Society, Science, Art, Culture, Rise, Great figures, Third Renaissance, National, Thinking, Physical, Spiritual, Young scientists, Innovative activity.

**“O'zbekistonning eng katta boyligi,
bebaho xazinasi bu shijoatli yoshlarimizdir”.**
Sh.Mirziyoyev.

Har qanday jamiyatning iqboli va istiqboli yosh avlodga bo'lgan e'tiborga bog'liqligi ayon. Prezidentimiz faoliyati va qarashlarining muhim yo'nalishi ham shunga qaratilgani bejiz emas. Kelajakning bunyodkori, ertangi kunning hal qiluvchi kuchi — yoshlarga munosabat masalasi davlatning ustuvor siyosatiga aylangani rost. Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz. 2020-yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi” — deganida qat'iy ishonch va aniq rejalar borligini nazarda

tutayotgani sir emas. Aniq maqsadlar sari intilganda, shunga mos bo'lgan intellektual, salohiyatli yoshlar va barkamol avlod zarur.

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimizning shakllanishi, jamiyatda ilm-u fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi. Matonatli xalqimiz esa azal-azaldan o'zgarish va qiyinchiliklarga tayyor bo'lgan. Bilamizki, jamiyat hech qachon bir joyda turmaydi va doim rivojlanish hamda yangilanishga intiladi. Shu sababli, qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar o'zgaradi. Yoshlar esa, shu taraqqiyot va o'zgarishlarni harakatlantiruvchi kuch – asosi hisoblanadi. Bugun o'z tengdoshlariga ibrat bo'layotgan, jamiyatdagi yangilanishlar jarayonida innovatsion g'oya va loyihalari bilan faol ishtirok etayotgan yoshlar juda ko'pchilikni tashkil qilishi bizni, albatta, quvontiradi.

Ma'mun akademiyasining barpo etilishida xorazmshoh Ma'muniylar sulolasining, Ikkinchi Uyg'onish davrining yuzaga kelishida esa buyuk bobomiz Amir Temurning va temuriy avlodlarning hissasi beqiyosdir. Har ikki sulola hukmdorlari o'z davrining yorqin iste'dodlarini, olimlarini davlat qanoti ostiga to'plagan va g'amxo'rlik qilib, kerakli shart sharoitlarni yaratib bergani uchun tarixan qisqa davr ichida ona yurtimiz dunyo ilm-faniga poydevor bo'lgulik buyuk kashfiyotlarni yaratdilar. Jamiyatda ma'naviy muhitni shakllantirishdagi muhim omil esa mamlakat yoshlarining ta'lim-tarbiya tizimi bo'lib, uning dolzarbligini jadidlarning yetuk namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi quyidagi satrlar ham isbotlaydi: "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir", "Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari, najotidir" degan fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Shunga ko'ra, millatimiz uchun yosh avlod tarbiyasi jarayoni, jumladan, ma'naviy tarbiya nechog'liq muhim, dolzarb va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Davr talablariga javob bermay qolgan ta'lim-tarbiya tizimi tubdan isloh qilinishining zaruriyat ekanligi mamlakatimizning mustaqilligini dastlabki kunlaridanoq yo'lga qo'yilganligi ayni haqiqatdir. Jumladan, ta'lim va tarbiya to'g'risida fikr yuritganda, avvalambor, shu sohaga daxldor tizimlarni isloh etish yangicha yo'nalishlarni kashf etish taqozo etadi va bugungi davr talabi hamdir. Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayotganiga to'xtalib, "Biz keng ko'lamlilik demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak" deb ta'kidlab o'tdilar.

Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda sohada yangicha "Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni loyihasi muhokamaga qo'yildi. Mazkur Farmon loyihasi sohada o'tgan yillar

davomida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning yangilangan tarixiy hujjatdir. Farmonda xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari deputatlariga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, ta'lim oluvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish imkoni bermoqda. Bu borada ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'lim texnologiyalarini yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish, shuningdek ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan paytda, mamlakatimizda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, yoshlar esa, Vatanimizning eng katta kuchi, boyligi, bebaho xazinasidir",- deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Darhaqiqat, mamlakatimizning kelajak ravnaqi va rivojlanishi salohiyatli yoshlarimizning bilimi va ma'naviyatiga bog'liqdir. Shuning uchun biz farzandlarimizning nafaqat bilimi va intellektual salohiyati balki, kiyinish madaniyati va ma'naviy qiyofasiga ham katta e'tibor berishimiz muhimdir. Yurtimizda Uchinchi Renessans g'oyasi ham davlatning, ham yoshlarning, ham ota-onalar va ustozlarning orzu istaklarini birlashtirib, bugun va kelajakni birlashtiruvchi hayotbaxsh g'oya bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Uchinchi Renessans- milliy tafakkur va ma'naviyatimizning asosi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020 yil 30 dekabr. No276. 2-bet
2. Renan "Dialogues fragments philosophiques" – "Falsafiy dialoglar va parchalar". F., 1876, r. VIII-IX.
3. Jahon falsafasi qomusi "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-1916, 2-jild, 510-bet.

4. Адам Мец. Мусульманский Ренессанс. Изд-во “Наука”. Главная редакция Восточной литературы. М., 1966, 144-145-бетлар.
5. Ma’naviyat yulduzlari. Mas’ul muharrir: M.M.Xayrullaev. T.: A.Qodiriy nomilagi xalq merosi nashriyoti, 1999., 321-b.

QO‘QON ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

SHE‘R DARD VA DARDKASHLIKDIR

Ibrohim HAQQUL,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti bosh ilmiy xodimi, professor
(O‘zbekiston)

XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti uzoq asrlik o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida yuzaga chiqqan o‘ziga xos bir ijodiy hodisadir. Badiiy ijod tarixida aynan unga o‘xshash yoki shakl, mazmun va tasvir e‘tibori bilan uni takrorlagan adabiy-ma‘naviy jarayon bo‘lmagan. O‘tmishda adabiyotning hayotga yaqinlashuvi, biri ikkinchisidan faol va jur‘atli iste‘dodlarning maydonga chiqishi nisbatan keng miqyosda xuddi shu adabiy birlikka mansubdir. Bunda Qo‘qon xoni va hassos shoir Umarxonning alohida xizmatlari bo‘lganligi sovet davridagi tadqiqotlarda inkor etilgan bo‘lsa-da, keyingi paytlarda yozilgan ilmiy ishlarda, xususan, filologiya fanlari doktori Zebo Qobilovanning asarlarida mazkur masala xolislik bilan yoritib berildi. Adabiyot, u yoki bu xalqning davlatchiligi, hokimiyat siyosati, mafkura va ma‘naviyatdan ayri bir mavjudlik emas. Qaysi yurtdaki, erkinlik va haqiqat tuyg‘usi jonlanib, to‘g‘rilik va jur‘at mayli kuchaysa, o‘sha yerda yolg‘on va riyodan tiyilgan shoir va adiblar e‘tibor qozona boshlaydi. Bu fikrning yorqin bir dalili XIX asrning ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligida Hoziq, Gulxaniy, Maxmur, Nodira singari ijodkorlarning xalq orasida shuhrat topganidir. Jahon Otin Uvaysiy ham mana shu talant sohiblari davrasidagi otashnafas, zukko va sermahsul shoiralardan. Alloh unga o‘zgacha bir nafas, beqiyos bir shuur va ruhoniyyat in‘om qilganki, buni uning so‘zi, fikri, holat va istak-intilishlari aniq tasdiqlab turadi. Uvaysiy ishq va irfoni taqdir, tafakkur, tiriklik hamda oxirat oftobi darajasiga ko‘targan san‘atkor.

Shu o‘rinda bir munosabatni izohlab o‘taylik. Bulbulni qarg‘adan, otni eshakdan, sherni bo‘ri yoki tulkidan farqlashda hech kim adashmaydi. Chunki tafovut suratda ochiq ko‘rinadi. Ilm va ijod jabhasida ham shunday botiniy ajralishlar mavjud bo‘lsa-da, negadir bu haqda gapirilmaydi. Vaholanki, qumri yoki andalib zog‘dan qancha yiroq bo‘lsa, haqiqiy iste‘dod o‘rtamiyona va talantsiz qalamkashlardan undan ham uzoqdir. Buning birinchi, hatto asosiy alomati dard, g‘amdir. Qalbi qayg‘u va alamga begona ijodkor yog‘siz, piliksiz chiroqqa o‘xshaydiki, uning siyratidan hech vaqt bir nur yoki iztirob yolqini balqib chiqmaydi. Jahon Otin “Qayda dard eli bo‘lsa, oshino Uvaysiyman” deganda, albatta, dardkash, hasratdosh she‘rxonni nazarda tutgan. Zero, dardsiz, qayg‘usiz, o‘quvchiga yuzlanish bir isyon ishidir. Shuning uchun ham Mohlar oyim Nodira insoniylik iqtidorini fahmlashga qodir kishilarga qarata: “Bedardlarning jafolaridan faryod chekib, fig‘on etib, ket”, degan edi. Bunday faryod va dil fig‘oni Uvaysiy she‘riyatida favqulodda keng ko‘lam kasb etganligini ham urg‘ulash joiz. Uvaysiy

ko‘p qirrali iste‘dod sohibasi. Hech shubhasizki, u chin yurakdan she‘r dardi, ijod ilhomi bilan yashagan: ayni paytda ishq va irfonga ko‘ngli tashna shoira shaxsini zuhd-u taqvo bilan poklash, Haq va haqiqat oshiqdari izidan borib nafsni tark: tarki dunyo, tarki uqbo, tarki hasti va ulviy xilvat talablari orqali tarbiyalashga alohida ahamiyat bergan. Ilohiy ishq va komillikning tamali sifatida zuhd hamda zohidlikni yuqori baholaydi.

*Qo‘ydi masjidga qadam sajdai komil zohid,
Ne uchun qiblagohim qoshig‘a moyil zohid.
Ahli olam ani domidin omon topqon emas,
Nafs-u shayton boshini kesguvchi qotil zohid.*

Sho‘ro adabiyotshunosligida shoira zohid talqini va zohid ta‘rifidagi she‘rlarini qoralab, unga ikkita ayb qo‘yishgan: “Birinchisi, jahondan, hayotdan noumidlik... Ikkinchisi, ana shu umidsizlik natijasida zuhd, taqvo, mayi vahdatga intilish”.

Allohni sevish, Unga suyanish hech payt insonni noumidlikka giriftor qilmaydi. Vahdat mayi esa barcha ilohiy farahning o‘zanidir. Muhiyiddin ibn Arabiy yunon falsafasini islomiy shaklga solgan Faxriddin Roziyga yozgan maktubida unga shunday tavsiya beradi: “Bir shayx yo murshidga intisob aylab, tasavvuf yo‘liga kirsang, hech og‘ir zahmat chekmay, Xizrga o‘xshab, ilhom orqali sof bo‘lishga yetishursan. Nazar, fikr, taxmin va gumonga tayangan hech bir ilm ilm emas, faqat ilhom, mushohada va kashfga asoslangan bilimlar ilmdir”.

Uvaysiy tabiatan go‘zallik, nafosat, kashf va ilhom kishisi bo‘lgan. Avvalo, Sharqning buyuk so‘fiy va mutasavvif san‘atkorlari tajribalari ta‘sirida, shuningdek, mushohada, kashf salohiyatining yuqoriligi tufayli tasavvuf va tariqat sir-asrorlarini teran o‘zlashtirgan. Shoira hatto zohidga ham ko‘rsatma berib bir g‘azalida:

*Istasang yor ila o‘zluk, zohido, ko‘p yig‘lag‘il,
O‘zlugung g‘arq etmog‘a Jayhun kerakmazmi sango, –*

deydi. Qo‘qon xonligidagi shoir-u shoirlar orasida o‘zluk muammosiga Uvaysiychalik chuqur kirib borib, yetuk shaxs manfaatiga muvofiq tarzda uni talqin qilgan ikkinchi bir ijodkorni topish qiyin, desak xato bo‘lmaydi. Quyidagi ahdiga u bir umr sodiq yashagan:

*Uvaysiy, yuz jafu ko‘rsang haqiqat yoridin doim,
O‘gurma yuz anga, ham solma ko‘zni o‘zga dildora.*

Orifalik zavqi bilan kun o‘tkazgan shoira:

*Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo‘q ogoh,
Qabih guftor mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi, –*

deya o‘z-o‘zidan oh urmagan.

Xo‘sh, fano mardumlari kimlar? Ularning holi va sirridan voqif kishilar bugun bormi? Ehtimol, bordir. Biroq men fano mohiyatini to‘la anglab, fanovashlik holi talablaridan chetlashmay umr o‘tkazgan zotni uchratgan emasman.

*Yo‘qotib o‘zni fano martabasig‘a eta ko‘r,
Vaysiy nomim mening, ul nomi Jahonimg‘a ivaz.*

Biz mana shu kabi soʻzlarning magʻzini chaqmaguncha Uvaysiyning ishq va irfon olamiga yetdik, deyolmaymiz. Shoira gʻazallaridan birida: “Uvaysiy, ayla hamdamlarni taklifi haqiqatga”,-deydi. Bu haqiqat faqat odamshunoslik emas, balki olamshunoslik, yolgʻiz zohiriy emas, botiniy maʼno-mazmunlarni ham oʻzida mujassamlashtirgandi. Uvaysiy oʻzlashtirgan, sheʼr va dard tilida ifodalagan haqiqatlar koʻngilga qancha taʼsir oʻtkazsa, ruhga undan-da ortiqroq ilhom bagʻishlaydi. Shu maʼnoda jahon sheʼriyatida Uvaysiyga tenglashadigan ruhoniatchi shoirani uchratish dushvordir.

Har bir ijodkor asar yozganda, albatta, ilgʻor omma manfaatini eʼtiborda tutishi lozim. Turk shoiri Nomiq Kamol fikriga koʻra, “xavos, yaʼni xos odamlarga moʻljallab bir adabiyot yaratmoq abasdir”. Chunki undagi ortiqcha pardoz-andoz, har turli soʻz oʻyinlari va mubolagʻali taʼrif-u tasvirlar jamiyatga foyda emas, zarar yetkazishi muqarrar. “Nasr namoyandalarining, – deydi Nomiq Kamol, – fikr va ifodalari tabiiy biror-bir asari yoʻqki, yurakka taʼsir oʻtkazib, axloqni yangilashga xizmat etgan boʻlsin... Mubolagʻoti riyokorona va mashrabi qalandaronadan iborat boʻlgan sheʼriyatimiz esa buzuq, yaroqsiz axloqni rivojlantirish mohiyatidadir”. Shunga monand holatlar bizning oʻtmish adabiyotimizda ham koʻzga tashlangan. Biroq XIX asr Qoʻqon adabiy muhiti ushbu nuqson va xastaliklarning barham topishiga tashabbuskorlik qilgan. Undagi har bir isteʼdodli shoir va yozuvchi adabiy merosini sovet adabiyotshunosligi qonun-qoidalaridan kechib, yangicha nuqtai nazar bilan tadqiq va tahlil etish ilm va adabiyot ahlini kutilmagan yangiliklarga yuzlantirishi shubhasiz.

Oʻtgan asr saksoninchi yillarining boshlarida *“Uvaysiy sheʼriyati”* nomli bir risola yozganman. Ulkan shoiramiz Zulfiyaning himmati bilan u nashr etilgan. Unda Abdulhamid Choʻlpon, Oybek, Toʻxtasin Jalolov, Aziz Qayumov kabi adib va olimlarning Uvaysiy haqidagi fikr-mulohazalariga suyanilgan. Lekin shoira sheʼriyatining tasavvuf bilan aloqasini keng yoritishga erisholmaganman. Qandaydir choʻchish ham boʻlgan. Mustaqillik va oshkoralikdan keyin yoʻl ochilgach, baholi qudrat tasavvufni oʻrgandim. Mana shunda boshqa bir qator ijodkorlar kabi Uvaysiy ham mening koʻz oʻngimda oʻzga bir maʼnaviy-ruhiy qiyofada gavdalandi. Oʻz tajribamdan bildimki, Uvaysiyday shoiraning ijodiyotini tadqiq qilish uchun, avvalo, uning shaxsi mohiyatini tarixan chuqur bilish, keyin sheʼriyati bilan birga yashash kerak. Shunda uvaysiyshunoslik turgʻunlik va zoʻrma-zoʻrakilikdan xalos boʻladi. Shu yoʻlda yosh tadqiqotchilarga omadlar tilayman.

“TAZKIRAI QAYYUMIY”GA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Maqsud ASADOV,
filologiya fanlari doktori
(Oʻzbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Poʻlotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiyy” asari, uning oʻziga xos uslubi, adabiy va ijtimoiy muhit bilan bogʻliq ayrim masalalar yuzasidan bahs yuritilgan.

Kalit soʻzlar: tazkira, uslub, muhit, ijodkor, manba.

Аннотация

В данной статье рассматривается произведение Полотжона Домуллы Кайюмова «Тазкирай Кайюмий», его неповторимый стиль, некоторые вопросы, связанные с литературной и общественной средой.

Ключевые слова: tazkira, стиль, среда, креатив, источник.

Annotation

This article discusses the work of Polotjon Domulla Qayyumov «Tazkirai Qayyumiy», his unique style, some issues related to the literary and social environment.

Keywords: tazkira, style, environment, creative, source.

Maʼlumki, tazkira nafaqat adabiy manba, balki oʻtmish hayoti haqida maʼlumot beruvchi oʻziga xos tarixiy hujjatdir. Tazkira milliy va oʻzaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini oʻrganishda, alohida adabiy siymolar va asarlarni tadqiq etishda adabiyotshunoslikning benazir janri sifatida xizmat qiladi. [1] Sharq adabiyotida tazkiranavislik tarixi ancha olisdan boshlanishi ayon. Jumladan, fors-tojik tilida yaratilgan Avfiy Buxoriyning “Lubob ul-albob”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Hasanhoʻja Nisoriyning “Muzakkir ul-ahbob”, turkiy tazkiraning dastlabki va goʻzal namunasi boʻlgan Alisher Navoiyning “Majolis–un-nafois” asarlarini eslash joiz. Adabiyot ilmining yyetuk bilimdoni, maʼrifatparvar inson Poʻlatjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” kitobi ham ana shu asarlardan ilhomlanib, uzoq yillik mehnat natijasida yuzaga kelgan goʻzal adabiy manbadir. Mazkur maqolada biz “Tazkirai Qayyumiy”dagi ayrim oʻziga xosliklar xususida toʻxtalamiz.

Poʻlatjon domulla Qayyumiy oʻzigacha yaratilgan tazkiralarni sinchiklab oʻrganib, oʻz kitobida ulardagi maʼlumotlardan juda unumli foydalangan. Ammo “Tazkirai Qayyumiy” boshqa tazkiralardan katta tarixiy davrni qamrab olishi, jugʻrofiy miqyosning nihoyat darajada kengligi bilan ham farq qiladi. Toʻgʻri, tazkirada ijodkorlar nomlarini keltirishda muayyan izchillik, tadrijiylikka deyarli rioya qilinmagan, ammo maʼlumotlarning koʻpligi, kitob muallifining sodda va ravon uslubi, shoirlar ijodidan namuna uchun keltirilgan sheʼriy janrlar, adabiy parchalarning daqiq nigoh va eʼtibor bilan tanlangani “Tazkirai Qayyumiy”ning xos jihatlari dalillaydi. Ayniqsa, tazkiraning uslubiy xususiyatlari oʻquvchining diqqatini jalb qiladi. Yaʼni ijodkor haqida maʼlumot beruvchi ixcham maqolalarning deyarli barchasi (Navoiy haqidagi maqoladan tashqari) “bu kishi” jumlasini bilan boshlanadi. Bir qadar mavhumlik maʼnosini anglatuvchi “bu kishi” soʻzi oʻquvchida qiziquvchanlik kayfiyatini uygʻotib, matnning estetik taʼsir quvvatini ham oshiradi. Masalan, Sakkokiy haqidagi maqola quyidagicha boshlangan: “Bu kishi XV asr melodiya Oʻrta Osiyoda boʻlmish shoirlardan boʻlub Navoiy Samarqandda turgan vaqtida Sakkokiyni koʻrmish erdi...”. [2, 35] Maʼlumotlarning ixcham, siqiq va oddiy bayoni tazkiraning oʻqishligini taʼminlaydi.

Tazkira muallifi XIX asr Qoʻqon adabiy muhitida yashab ijod qilgan adabiyot ahli xususida atroflicha toʻxtalganki, bu ham asarning ijodiy

fazilatlaridandir. Jumladan, kitobda Kamiy taxallusi bilan ijod qilgan ikki shoir haqida ma'lumot kelitirilgan: "Kamiy – Bu kishi Toshkand shahridin bo'lub, 1866 nchi yilda beklar oilasida dunyoga kelmishdur. Nomi Abdulkarimbek bo'lub Mulla Sharifbekning o'g'lidir. Muqimiy va Almaiy, Nodim Namangoniylarga zamondosh shoirlardan hisoblanadi. Muqimiyning Karimbek Kamiyga yozgan maktubi bordur. Shoir Kamiyni 1911-yilda Ho'qand shahrida ko'rganim bordur...". [2, 387] Tazkiraning 3-daftarida yana bir Kamiy taxallusli shoir xususida shunday mulohazalar bayon qilingan: "Bu kishi Namanganlidir. "Tuhfat ul-obidin" bayozining egasi Mulla Obidjon o'shal kitobining 1-betida Kamiy Namangoni deb ko'rsatib, 2 dona g'azalidan namna yozubdur. Boshqa biografiyasidan biror ma'lumotga ega emasmiz. Toshkandli Kamiydan boshqadur". [2, 677] Karimbek Kamiyning she'rlarini nashrga tayyorlagan adabiyotshunos O.Oltinbekning bu boradagi fikrlari boshqacha. Olim ikkala Kamiy aslida bir kishi bo'lib, u Toshkentda yashab, ijod qilgan Karimbek Kamiy ekanini, "Tazkirai Qayyumiy"dagi ma'lumotlarda bu borada biroz chalkashlik yuz berganini tarixiy materiallarga tayanib, isbot qilgan. Albatta, bunday chalkashliklarga keyingi ilmiy izlanishlar yana oydinlik kiritadi, deb umid qilamiz.

"Tazkirai Qayyumiy" faqatgina ijodkor biografiyasi va uning adabiy merosi haqida ma'lumot bermaydi, balki shoir yashagan davr, ijtimoiy muhit, mavjud an'analar xususida ham tasavvurimizni boyitadi. Rus sharqshunosi E.E.Bertelsning yozishicha, "keyingi davr so'fiylik adabiyoti, oxir-oqibat, majlislariga borib taqalishi va ulardan kelib chiqishi ayon bo'ladi". [3, 53] Tojik adabiyotshunosi Sh.So'fiyev esa olimning mazkur xulosalariga tayanib, Sharq adabiyotida yaratilgan ko'pgina "soqiynomalar so'fiylik majlislarida o'qilgani yoki kuylangani haqida dalillarni topa olmagan bo'lsak-da, ular hajmi, lug'at tarkibi, obrazlari va badiiy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra ushbu yig'inlarga aloqador", [4, 81-88] degan fikrni o'rtaga tashlaydi. Darhaqiqat, soqiynoma janri namunalari irfoniy ma'no qatlamining o'ziga xosligiga ko'ra so'fiylar, orif kishilar davrasida alohida e'tiborga loyiq janr sanalgan. "Tazkirai Qayyumiy"dagi mana bu ma'lumotga diqqat qaratilsa, haqiqat oydinlashadi: "Majzub soqiynomasi majzubiylar atalmish irfoniy davralarda maxsus ohang bilan kuylangan". [2, 188] Demak, bu Qo'qon adabiy muhitining zabardast vakillaridan bo'lgan Majzub Namangoni shoir manzumasining nafaqat o'zbek, balki Sharq adabiyotida yaratilgan soqiynomalar orasida ham o'ziga xos xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Biz bu ma'lumotga aynan Po'lotjon domullo Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" kitobi orqali ega bo'lamiz.

Ko'rinadiki, "Tazkirai Qayyumiy" o'tmishda yashab ijod qilgan so'z san'atkorlarining tarjimai holi, adabiy merosi, badiiyat sirlarini bilishda muhim ahamiyatga egadir. Uni tadqiq etish esa nafaqat tazkiranavisning maqsad-muddaosi, asarning uslubi, til xususiyatlari, qolaversa, o'tmish hayoti, urf-odatlar, ana'ana va mahorat masalalariga ham baho berishga, shuningdek, adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutgan Qo'qon adabiy muhitining muhim jihatlari bilishga ham keng imkon ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтабоев Х. Туркий тазкираларда Алишер Навоий сиймоси// <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/hamidulla-boltaboev-turkiy-tazkiralarda-alisher-navoiy-siymosi/>

2. Пўлотжон домулло Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент, 1998.

3. Бертельс Е.Э. Происхождение суфизма и зарождение суфийской литературы // Бертельс Е.Э. Избранные труды. III том. Суфизм и суфийская литература. – М.: Восточная литература, 1965. – С. 53.

4. Суфиев Ш.З. Лингвостилистика саки-наме и её роль в формировании смыслов // Иран-наме, 2010. – № 3. – С. 81 – 88.

“USTINA” RADIFLI G‘AZALLARNING QIYOSIY TAHLILI

Ergash OCHILOV,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek mumtoz she‘riyatida eng ko‘p uchraydigan “ustina” radifli g‘azallar bir-biriga asos bo‘lgan va bir-birini taqozo etadigan yaxlit bir silsila sifatida tadqiq doirasiga tortiladi va qiyosiy tahlil asosida ularning mushtarak va farqli jihatlari, g‘azal va tatabbular badiiyati hamda shoirlar mahorati ko‘rsatib beriladi. Tahlil jarayonida adabiy an‘ana, o‘zaro ta‘sir va o‘ziga xoslik borasidagi fikr-u qarashlar davom ettiriladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, tatabbu, vazn, qofiya, radif, an‘ana, ta‘sir, o‘ziga xoslik, mahorat.

Аннотация

В статье рассматриваются наиболее распространенные газели которые закончиться с словом «устина» в узбекской классической поэзии как целостный и взаимообусловленный ряд, и на основе сравнительного анализа показаны их общие черты и различия, искусство газелей и татаббу, а также мастерство поэтов. В процессе анализа продолжают взгляды на литературную традицию, интеракции и оригинальность.

Ключевые слова: газель, татаббу, вес, рифма, радиф, традиция, влияние, оригинальность, мастерство.

Annotation

The article analyses the most common ghazals which end with «ustina» in Uzbek classical poetry as a coherent and interdependent series, and on the basis of comparative analysis shows their commonalities and differences and the art of ghazals and tatabbus, as well as the skills of poets. In the process of analysis, opinions on literary tradition, interactions and originality are continued.

Keywords: ghazal, tatabbu, weight, rhyme, radif, tradition, influence, originality, skill.

O‘zbek mumtoz she‘riyatida “ustina” radifli g‘azallar Lutfiydan boshlanib, Atoiy, Boyqaro, Navoiy, Shayboniy, Amiriy va uning ayni radifdagi g‘azallariga tatabbu qilgan Fazliy, Ado, Xijlat, Oshiq, Mir, Afsus, Xotif, Behjat, Toyib, Muzmar, Foni kabi Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari, so‘ng Munis, Ogahiy, Rojiiy, Avaz singari Xiva adabiy muhiti shoirlari, keyinchalik esa Muhiy, Nodim, Muhayyir, Niyoziiy va boshqalar tomonidan davom ettirilgan hamda bir necha o‘nlab g‘azallar yozilgan. Ogahiy g‘azali ularning oliy cho‘qqisi hisoblanadi. Ya‘ni ungacha yozilgan ayni radifdagi g‘azallar pillapoya, Ogahiy g‘azali esa yuksak cho‘qqi. “Ustina” radifli g‘azallar haqida so‘z borganida barchaning ko‘z oldida Ogahiyning ayni radifdagi:

Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun nas kelturur nun eltibon sod ustina [6,37], –bayti bilan boshlanadigan, hofizlar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan va xalq ko‘ngliga chuqur singib ketgan hassos g‘azali jonlanishi bejiz emas. Holbuki, shoirning:

Majnun ko‘ngulning ishq aro gar yog‘sa yuz tosh ustina,

Der shod o‘lub har toshg‘a kelsang agar bosh ustina [6,36], – bayti bilan boshlanadigan yana bir ayni radifdagi g‘azali mavjud.

Qo‘qon adabiy muhiti asoschisi, homiysi va yetakchisi Amiriyning:

Ey, dudog‘ing rashki kavsar xatti rayhon ustina,

Sabzaedurkim, chiqibtur obi hayvon ustina [2,302], –

bayti bilan boshlanadigan g‘azaliga Fazliy, Ado (2 ta), Xijlat (4 ta), Oshiq (2 ta), Mir, Afsus, Xotif, Behjat, Toyib, Muzmar (3 ta), Foni kabi qator shoirlar tatabbu qilganlaridan so‘ng ayni radifdagi g‘azal yanada shuhrat tutdi va Xiva adabiy muhitida aks sado berdi – bu radifda Munis, Ogahiy, Rojiiy, Avaz kabi shoirlar badiiy barkamol g‘azallar yozdilar.

“Ustina” radifli g‘azallarda radif aynan saqlansa-da, vazn va qofiya o‘zgarib turadi. Chunonchi, ayni radifda g‘azal yozishni boshlab bergan va bu boradagi tatabbunavislikka asos solgan Lutfiy g‘azali ramali musammani maqsur vazni (foilotun foilotun foilotun foilun (– V – – \ – V – – \ – V – – \ – V –) da yozilgan:

Ey qading to‘bo-vu jannat xaddi gulgun ustina,

Ko‘rmadi davron seningdek oy gardun ustina [4,233].

“Ey qading jannatning to‘bo otlig‘ ko‘rkam daraxtiga-yu, yuzing esa uning ustidagi qizil gulga o‘xshaydi. Bu dunyo falak uzra senday suluv oyni hech qachon ko‘rmagan”.

Lutfiy ijodida “ustina” radifli uch g‘azal mavjud bo‘lsa-da, shoir muxlislari asosan shu g‘azalga tatabbu qilganlar – g‘azalda qalamga olingan mavzuni davom ettirib, ilgari surilgan fikrlarni rivojlantirganlar va yangidan-yangi qirralarini ochganlar, timsol-u tashbehlari shodasini ohorli namunalar bilan boyitganlar.

Ma‘lumki, arab harflari asosida so‘z o‘yini qilish Sharq mumtoz she‘riyatida keng tarqalgan. Bunda “alif” harfi (“a”, “o”) tik va to‘g‘riligi jihatidan mahbubaning baland va kelishgan qomatiga nisbat beriladi. “Dol” (“d”) egikligiga ko‘ra egilgan, bukilgan qomatni va ayni sifati bilan go‘zalning gajagini tamsil etadi. “Jim” (“j”) harfi o‘z shakliga ko‘ra egik, bukik, xam qadni bildiradi.

Halqaga, changakka o'xshashligi jihatidan yor zulfini "jim"ga o'xshatish ham mumtoz she'riyatda bir an'ana tusini olgan. "Nun" ("n") harfi egikligi jihatidan oshiqning qaddiga, qayrilmaligi sababidan ma'shuqaning qoshiga qiyoslanadi. "Lom" ("l") ham oshiqning egilgan, bukilgan qaddiga o'xshatiladi. "Mim" ("m") harfi ma'shuqaning og'ziga, "sin" ("s") harfi esa tishiga tashbeh qilinadi. Chunonchi, quyidagi baytda shoir o'ziga xos harf o'yini qilib, mahbubaning anbar hidli qoshi ostidagi ko'zlarining xoldek qora qorachig'ini "nun" harfi ustiga xushbo'y mushkdan qo'yilgan suls nuqtasiga qiyoslaydi:

*Anbarin qoshing xaminda xoldek ko'z mardumi,
Mushki tardin nuqtai sulsedurur "nun" ustina [4,233].*

Ogahiy ham ayni radifdagi mashhur g'azalini aynan harf o'yini bilan boshlaydi:

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibon "sod" ustina [6,37].*

"Sod" – arab alifbosidagi "s" harfi. "Nun" – arab alifbosidagi "n" harfining nomi. "Nun" – yarim oy shaklida bo'lib, o'rtasida nuqtasi bo'ladi. Bu ikki harfning birikishidan "nas" – "hukm" so'zi hosil bo'ladi.

Qur'oni karimning 38-surasi ham "Sod" deb nomlanadi. Bu surada, jumladan, kofirlarning musulmonlarga etkazgan aziyatlari xususida so'z boradi. Keltirilgan baytda shoir ma'shuqaning qoshu ko'zidan etadigan jabrni shunga qiyos qilmoqda. Voqean, mumtoz she'riyatda oshiqning ko'nglini o'rtashi jihatidan ma'shuqaning qoshi va ko'ziga kofir sifati beriladi.

Bayt mazmuni quyidagicha ko'rinish oladi: "Jallod ko'zi ustidagi mushk hidli qoshining vajohati "sod" harfi ustiga "nun" harfini eltib, "nas" so'zini hosil qiladi, ya'ni mening qatlim uchun hukm chiqaradi".

Shu o'rinda "ustina" radifli g'azallarning deyarli barchasi u yoki bu darajadagi harf o'yinlaridan xoli emasligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Sultonxon Adoning Amiriy g'azaliga ikki tatabbusi esa hatto boshdan-oyoq ayni san'at asosiga qurilgan deyish mumkin.

Lutfiyning:

*Necha cheksun xo'blar ilgindin jafo miskin ko'ngul,
Muncha ofat kelturur bir qatrai xun ustina [4,233], –*

degan bayti bilan Ogahiyning:

*Nozu adou g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina? [6,37] –*

bayti aro ham ko'zga ko'rinmas mushtarak nuqtalar mavjud. Lutfiy yurakni bir qatra qonga nisbat berib, bechora ko'ngil go'zallar dastidan qancha jafo chekishi mumkin – bir qatra qon ustiga shuncha ham ofat keltiradilarmi?" – deb fig'onini falakka etkazsa, Ogahiy: "Mahbubaning nozu adoyu g'amzasi har zamon navbatma-navbat menga qasd qiladilar – evoh, bir inson ustiga shunaqa har tomondan ustma-ust hujum bo'ladimi?" – deya jonining ketma-ket bir necha hujum ostida qolganiga ishora qiladi.

Bu baytlar shaklan bir-biridan farqlansa-da, mazumunan "Bir kishining ustida shuncha ofat ham yog'iladimi?" degan hasrat yuzasidan mushtaraklik kasb etadi.

Bundan Xiva adabiy muhitida Lutfiy ijodi ma'lum bo'lgani va Ogahiy ayni g'azaldan xabardorligi ma'lum bo'ladi. Voqean, Ogahiy Lutfiyning qator g'azallariga tatabbu ham qilgan.

Shu o'rinda, ta'kidlash joizki, bu radifdagi g'azallar aksar yorning qoshi, qadi, xoli, zulfi, xati, labi ta'rifi bilan boshlanadi, muayyan darajadagi so'z o'yini asosiga qurilgan bo'ladi, tashbeh, talmeh, mubolag'a, istiora, tazod, irsoli masal san'atlari keng qo'llanadi, dunyoning o'tkinchiligi haqida falsafiy mushohadalarga ulanib ketadi. Jumladan, Lutfiy ijodida "ustina" radifli uch g'azal mavjud: biri – mahbubaning qadi, ikkinchisi – sochi, uchinchisi – surati ta'rifi bilan boshlanadi. Bu g'azallarning uchalasi ham bir vaznda bo'lib, qofiya tartibi uch xil.

Atoiy qalamiga mansub "ustina" radifli g'azal ham Lutfiyning kabi ramali musammani maqsur vaznida, lekin qofiya tizimi butunlay boshqacha:

Yo Rab, ul orazmudur yo lola ar-ar ustina?

Yo shaqoyiq bargidur sarvu sanavbar ustina?[3,251]

"Ey Xudo, u yuzmi yoki shoterak uzra lolami? Yo sarvi sanobar uzra lola bargimi?"

Bu erda: ar-ar – shoterak: tik va balandligi jihatidan teraklarning shohi bo'lgan daraxt. Kelishgan va baland bo'yli mahbubani tamsil etib keladi. Shaqoyiq – lolasimonlar turkumiga mansub gul; lola o'rnida ham qo'llanadi. Sarv – qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan ignabargli go'zal va xushqomat daraxt. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning kelishgan zebo qaddi-qomatini sarvga nisbat beradilar. Sanavbar (Sanobar, Sanubar tarzida ham talaffuz qilinadi) – archasimon tik o'sadigan daraxt; majozan: ma'shuqaning tik, kelishgan qomati.

Baytda mavzun qomatli mahbubaning go'zal chehrasi xushqomat daraxtga payvand qilingan lolaga tashbeh etilmoqda.

Nozikta'b va daqiqdid shoir ham bo'lgan Husayn Boyqaroga bu radif nihoyatda xush kelib, birato'la ayni radifda 5 ta g'azal bitadi va mazkur radifning keng yoyilishi va shuhrat tutishiga o'zining katta hissasini qo'shadi. Bu tatabbularning barchasi ramali musammani maqsur vaznida bitilgan bo'lib, to'rtalasi bir xil qofiya tartibiga ega, bittasi boshqa. Jumladan, tatabbularidan birining quyidagi baytida kelishgan qomating uzra go'zal yuzingni ko'rgan kishi bog'bon sarv daraxti ustiga gulni payvand qilibdi deydi deb lutf etadi va o'zining buyuk salafiga jo'rovoqlik qiladi:

Aytqay sarv uzra gul payvand qilmish bog'bon,

Kimki ko'rsa orazing ul qaddi mavzun ustina [8,125].

Ohorli tashbeh asosiga qurilgan bunday betakror baytlar ko'plab shoirlarga ilhom bag'ishlab, ayni tashbehni rivojlantirib, turli jihatdan boyitib, uning yangidan-yangi qirralarini ochdilar. Ogahiyning mashhur bayti bu jihatdan e'tiborga sazovor:

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,

Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina [6,37].

Bu yerda qofiya taqozosiga ko'ra sarv shamshodga aylanadi. Voqean, shamshod ham xushqomat va ko'rkam daraxt bo'lganligidan har ikkalasi ham

ma'shuqaning baland va kelishgan qomatini tamsil etib keladi. "Gulning shamshod uzra payvand bo'lganini ko'rmagan bo'lsang, husnda tanho mabubaning mavzun qomati bilan go'zal chehrasiga nazar sol".

Tatabbuni o'zi asos bo'lgan g'azalning soyasi deya unga past nazar bilan qarash joiz emas. Ba'zi shoirlar o'zlari g'azaliga tatabbu qilayotgan shoir bilan ijodiy musobaqaga kirishib, uning panjasiga munosib panja uribgina qolmay, ba'zida hatto uni yo'lda qoldirib ham ketganlar. Jumladan, Ogahiyning "ustina" radifli mashhur tatabbusi o'zigacha yaratilgan ayni radifdagi barcha g'azallardan o'zining yuksak darajadagi badiiyati bilan ajralib turadigina emas, keyingi tatabbularga ham o'ziga bo'ylashishga o'rin qoldirmaydi. Ta'bir joiz bo'lsa, u o'zigacha va o'zidan keyin yaratilgan ayni radifdagi g'azallarning cho'qqisi bo'lib, ularning markazida turadi: avvalgi g'azallarni ham, keyingilarini ham unga qiyosan tahlil qilish mumkin.

Bugina emas, u o'zigacha yaratilgan g'azal va tatabbulardagi fikru timsolu tashbehlarni davom ettirib, rivojlantirib, ularni haddi a'losiga etkazadi va undan keyin biror shoir ayni fikru timsolu tashbehlar talqinida unga yaqin ham borolmadi – faqat ularni imkon qadar to'ldirish, boyitish va yangi qirralarini ochish bilan kifoyalandi.

Alisher Navoiy ijodida "ustina" radifli bir g'azal va Lutfiyning ayni radifdagi mashhur g'azaliga bog'langan musaddas mavjud. An'anaga ko'ra, uning ham g'azali ramali musammani maqsur vaznida, ammo qofiya tizimi yangi. Bu g'azal ham ohorli tashbehlar va favqulodda mubolag'alar mujassami. Jumladan, quyidagi baytida: "Quyosh yuzli u go'zal hajrida shunchalik holdan toyib, zaiflashib qoldimki, nogahon bu xasta vujud ustiga soya tushguday bo'lsa ham o'lib qolamanmi deya xavotirdaman", – deya mubolag'a san'atini mo'jiza darajasiga ko'taradi:

*Ul quyosh hajrinda za'fim o'yladurkim o'lgamen
Soya tushsa nogahon bu jismi betob ustina [1,570].*

Mana bu baytda esa betakror tashbeh namunasini ko'ramiz:

*Ko'nglum ichra yoralar chun butti – qo'ydi dog'i ishq,
Xozin ul yanglig'ki bosqay muhr abvob ustina [1,570].*

"Ishq dog'idan yuragimda paydo bo'lgan yaralar xazina sohibi eshikni yopgach, ustidan bosadigan muhrlarga o'xshaydi".

Lutfiy g'azaliga bog'langan musaddasida esa shoir fikrlarini rivojlantirib, tashbehlarni boyitib, baytlarning ma'no doirasini kengaytiradi va ularda ifodalangan fikrlarni sharhlab, yangi qirralarini ochadi.

Shayboniyxon ijodida "ustina" radifli birato'la 4 ta g'azalga duch kelamiz. Ayni radifdagi ilk g'azal rajazi musammani solim vazni (mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun (– – V – \ – – V – \ – – V – \ – – V –) da, binobarin, u vazn jihatidan dastlabki o'zgarish muallifi (Bu vazn keyinchalik Ogahiy tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanildi). G'azalning qofiya tizimi ham butunlay yangi:

*Tushti muanbar sochlaring siymin taningning ustina,
Yo sochti mushki Chin sabo ul gulshaningning ustina [9,246].*

“Kumushday oppoq taningning ustiga muattar sochlaring tushdimi yoki tong eli Chin mushkini bu gulshaning uzra sochdimi?”, – deya o‘ziga xos tashbeh va tajohuli orifona san’atlari asosiga quradi matlani – bunda ma’shuqaning go‘zal vujudi yashnagan chamanga, xushbo‘y sochlari esa hidi dimog‘ni yoradigan Xitoy mushkiga qiyoslangan.

Ikkinchi g‘azal esa ramali musammani maqsur vaznida, lekin qofiya tizimi boshqacha – bu qofiyada Husayn Boyqaro to‘rtta tatabbu bitgan. Chunonchi, maqtada hayotiy tashbeh asosida: “Urushda o‘q tegib, qalqondan sado chiqqanidek, ko‘ksimdagi hijron dog‘lari kamday, ular ustiga ko‘ngil ohu faryodi ham qo‘shildi”, – deb yozadi:

*Ko‘ksima chektim aliflar dog‘i hijron ustina,
O‘ylakim, o‘qlar urushta tegsa qalqon ustina [9,251].*

Shayboniy birinchi bo‘lib ayni radifdagi g‘azallarga savol-javob san‘atini olib kiradi. Shuningdek, shoh-shoir irsoli masal san‘atiga keng murojaat qilib, ayni radifdagi g‘azallarning xalqchilligini oshirganini ham ko‘ramiz. Bu usullarning keyingi tatabbularda ham davom ettirilganidan ma‘lum bo‘ladiki, ayni radifdagi tatabbularda mavzu, fikr, timsollargina emas, hatto badiiy san‘atlar ham bir-birini davom ettirib, to‘ldirib, yangi ma‘no qirralarini namoyon etib keladi.

Uchinchi g‘azal ham ramali musammani maqsur vaznida. Qofiya tizimi yana yangi, lekin bu qofiya tizimi ayni radifdagi keyingi g‘azallarda qo‘llanadi. Bu radifdagi g‘azallarda harf o‘yiniga murojaat qilish Shayboniy ijodida ham uchrashiga guvoh bo‘lamiz:

*Ey Shayboniy, ko‘zuma bir nuqtaliq “nun” ko‘runur,
Mushkso xoliki, tushti anbarin qosh ustina [9,255].*

“Ey Shayboniy, mahbubaning anbar bo‘yli qoshi uzra tushgan mushkday qora xoli “nun” harfi va uning ustidagi nuqtasiga o‘xshab ko‘rinadi”.

Bu radifdagi g‘azallarida asosiy urug‘ ma’shuqaning qayrilma qoshiga tushgani va shunga muvofiq ravishda qoshning timsoli o‘laroq “nun” harfiga ko‘p murojaat qilinganiga guvoh bo‘lamiz.

To‘rtinchi g‘azal ham ramali musammani maqsur vaznida va qofiya tizimi ohorli.

*Vah, ne yonglig‘ zulf tushubtur englari ol ustina,
Nuqtai mushkul tushubtur lablari bol ustina [9,255].*

“Bolday lablari uzra tushgan mushkul nuqta kabi yonib turgan yonoqlari ustiga zulflari qanday qilib tushganini ko‘ring!”

Amiriy ijodida ham “ustina” radifli g‘azal mavjud. Ramali musammani maqsur vaznida. U qo‘llagan qofiya tizimi ham yangi bo‘lmay, Husayniy va Shayboniyxonlarning ayni radifdagi g‘azallaridan birida mavjud.

*Ey, dudog‘ing rashki kavsar xatti rayhon ustina,
Sabzaedurkim, chiqibtur obi hayvon ustina [2,302].*

“Ey, sening ustini rayhonday xat qoplagan dudog‘ing jannatdagi kavsar chashmasi rashkini keltiradi – u xuddi obi hayot chashmasi tegrasini tutgan maysalarga o‘xshaydi”.

Bu erda ma'shuqaning mo'jaz labi ustigi nafis xatlari obi hayot chashmasi atrofida o'sgan maysaga tashbeh etilmoqda.

Amiriy salaflari g'azallaridagi harf o'yinidan foydalanish an'anasini ham o'ziga xos ravishda yangilagan holda davom ettiradi:

*Ul "alif" bo'yli qoshi "nun"i aro xolimudur,
Yo bitilgon nuqtaedurkim, o'lur jon ustina? [2,302]*

"U "alif"day baland va mavzun qomatli sanamning "nun"day qayrilma qoshlari orasidagi qora xolimi yoki "jon" so'zi ustiga qo'yilgan nuqtami?"

Baytda ma'shuqaning go'zal xoli oshiqning jonini olishiga ishora qilinmoqda.

Amiriyning ushbu g'azali o'nlab tatabbular uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ayni radif keng shuhrat tutadi. Bu radifda g'azal bitish ham mahorat mezonlaridan biriga aylanadi. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ham Amiriyning ushbu g'azaliga tatabbu qilar ekanlar, shoh-shoir "panjasiga panja ur"ishga, o'zlarining mahoratlarini namoyon etishga harakat qilganlar. Har bir g'azal o'ziga xos ohorli timsolu tashbehlardan xoli emasligi buning yorqin dalilidir. Jumladan, Mir o'z tatabbusida bir-biridan go'zal tashbehlar silsilasini vujudga keltirgan. Aytaylik, u mana bu baytida hech kimning xayoliga kelmagan betakror tashbeh qo'llaydi:

*Yuz tamanno birla poyandoz etib ko'z pardasin,
Kel, pari, o'tquzmoq istaydur ko'ngul jon ustina [7,258].*

"Ey pari, tashrifingni darig' tutmaki, ko'ngil ming bir orzu bilan ko'z pardasini poyandoz etib, seni jon ustiga o'tirg'izishni istaydi".

Albatta, jonni fido qilish – yangi gap emas, lekin ko'z pardasining ma'shuqaning oyog'i ostiga poyandoz qilib to'shalishi – badiiy kashfiyot.

Afsus tatabbusi ham badiiy san'atlarga boyligi va ayni paytda xalqchilligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, bir baytida talmeh san'atidan mahorat bilan foydalanib, ma'shuqani malohat Misridagi Yusufga nisbat beradi va Kan'onga qaytguday bo'lsa, ko'zlari uning bosgan qadami uchun taxt bo'lishiga ishora qiladi:

*Yusufedursan malohat Misrida, yo'qtur ajab,
Gar qadam qo'ysang, ko'zimdur taxti Kan'on, ustina [7,264].*

Albatta, bu tatabbularning barchasi o'zi asos bo'lgan g'azal kabi ramali musammani maqsur vaznida. Lekin ba'zi shoirlar qofiya tartibini o'zgartirganlar. Hotif tatabbusi shular jumlasidandir. U ham tatabbunavislikda o'zining shoirlik salohiyati nechog'lik baland ekanligini ko'rsata olgan. Misol uchun, bir baytida talmeh san'ati vositasida men tizza ko'zgusida ko'rgan so'z jilvasini na Iskandar o'zi yasatgan ko'zgudayu, na Jamshid o'zt ixtiro qilgan jomda ko'rdi deb yozadi:

*Ne Sikandar ko'rdi ko'zgusinda, ne jomida Jam,
Man ko'ran so'z jilvasin mir'oti zonu ustina [7,266].*

Xijlat tatabbusi ham badiiy barkamolligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi. U qofiya tarzini o'zgartirgan, lekin bunday qofiyalanish tartibi ayni radifdagi g'azallar uchun yangilik emas. Bu holni biz Lutfiy g'azalidayoq ko'rgan edik. Ammo uning matlasida ham yana o'sha mashhur qosh tilga olinadi:

*Go'sha tutgan xol emas, ul qoshi mushkin ustina,
O'g'ridur ul Hind mulkidin kelan Chin ustina [7,266].*

“Mushk isli u qosh ustida makon tutgan xol bo'lmay, balki u Hind mulkidan Chin ustiga kelgan o'g'ridir”.

Chin asl va muattar mushk vatani bo'lsa, Hind qora rangni bildirib, mahbubaning sochi va xolini tamsil etib keladi. Sharq mumtoz she'riyatidagi bu an'anaviy timsolu tashbehlardan shoir o'z bayti badiiyatini ta'minlash maqsadida mahorat bilan istiora san'ati o'laroq istifoda etadi. Bu holni Muzmarning quyidagi baytida ham ko'ramiz:

*Xoli mushkiningmudur ul ko'zu abro' ustina,
Yoki bir hindu chekar tig' ikki jodu ustina [7,276].*

“Ko'zu qoshing ustidagi mushki qoshingmi yoki bir hind ikki jodu uzra qilich yalang'ochlab turibdimi?”

Bu tatabbularda Fuzuliy ta'sirida ozar lahjasidagi so'zlar ko'p qo'llanganiga ham guvoh bo'lamiz.

Ayni paytda, Lutfiy devoni ham Qo'qon adabiy muhitida mashhur bo'lgan. Ikkinchi tatabbusida esa Xijlat qofiya tartibini yangilaydi:

*Sokin o'ldi yor ko'yi uzra Xijlat ko'z bo'lub,
Halqa yanglig' termulur har lahza ul bob ustina [7,267].*

“Eshik zulfini yo'l qarab yotganday, Xijlat ham yor ko'yi uzra ko'z kabi manzil tutdi”.

Uchinchi tatabbusida Xijlat qofiyada Hotif izidan boradi. Tatabbuda Xijlat mubolag'a san'atining ham dodini bergan:

*Ko'kda anjum sonmakim, ulkim ko'rorsen kechalar,
O'tli ohim uchqunidur charxi minu ustina [7,267].*

“Sen kechalar falakka ko'z tashlab, porlab turgan yulduzlar deb xayol qilma – ular aslida moviy osmon uzra chaqnagan mening ohim uchqunlaridir”.

To'rtinchi tatabbuning ham qofiya tartibi boshqacha. To'g'risi, u to'rt tatabbusida to'rt xil qofiya tartibini qo'llagan. Bunday qofiya tarzini biz Shayboniy g'azalida ko'rgan edik.

*Bulhavaslar boshig'a ishqing havosi tushgali,
Bordur andoqkim, tushar xurshid xuffosh ustina [7,268].*

“Havoiiy kimsalarning boshiga ishqing havosining tushishi quyosh nurining ko'rshapalak ustiga tushishiga o'xshaydi”.

Xijlatning ayni g'azali bir paytning o'zida ham Amiriya, ham Fazliya tatabbudir. Chunki u qofiyada Fazliya ergashadi. Ayni paytda malik ushshuaroning ayrim baytlarini rivojlantirib, ayrim baytlari bilan bahsga kirishadi.

Fazliy san'atkor shoir bo'lib, uning qalamiga mansub tatabbuning badiiy barkamolligi ayni fikrning yorqin isbotidir. U tatabbuni, aytish mumkinki, qo'sh matla bilan boshlagan, ya'ni dastlabki ikki bayt boshdan-oyoq to'la qofiyalangan.

Fazliy mahbubaning qizil libosda arg'umoq uzra javlon urganini ko'rib, yuragim laxta-laxta qon bo'lib, boshim ustiga chiqdi”, – deb mubolag'a qilsa:

*Baski gulgun to'n kiyib, raxsh uzra javlon aylading,
Qon o'lub chiqti jiggar pargolasi bosh ustina [7,269], –*

Xijlat bu holga ma'shuqaning la'l kabi qizil lablari hasratida qon yig'laganini sabab qilib ko'rsatadi:

*Nechakim ul sho'x la'ling hasratidin yig'ladim,
"Qon bo'lub chiqti ko'ngul pargolasi bosh ustina" [7,268].*

Fazliy baytining ikkinchi misrasini esa tazmin qilib oladi.

Yoki Fazliy boshqa baytida "Qora ko'ngillarga jamoling shu'lasida yuz xiralik etishadi, zero, quyoshning ko'rshapalak ustiga o'z nurini sochishi hayfdir", – desa:

*Tiyra dillarga jamoling tobidin yuz xiyralik,
Javr o'lur xurshid partav solsa xuffosh ustina [7,269], –*

Xijlat "Ishqing havosining engiltaklar boshiga tushishi quyosh nurining ko'rshapalacka tushganiga o'xshaydi", – deb yozadi:

*Bulhavaslar boshig'a ishqing havosi tushgali,
Bordur andoqkim, tushar xurshid xuffosh ustina [7,268].*

Keltirilgan baytlar o'z navbatida quyosh va xuffosh bilan bog'liq baytlardagi fikru tashbehlarni davom ettiradi va boyitadi.

Fazliy, Xijlat va Muzmarlarning o'z tatabbularidagi baytlaridan ma'lum bo'ladiki, Amir Umarxon Tojikiston hududida joylashgan qadimiy qishloqlardan biri Ko'ktosh atrofiga ov qilgani chiqqan va shu erdagi mushoiralarda mazkur g'azal va unga tatabbular badiha tarzida qog'ozga tushgan.

Ado, Oshiq, Behjat, Toyib, Muzmar, Foniyy kabi shoirlar ham o'z tatabbularida qalamlari qudratini namoyon eta olganlar. Jumladan, Ado har ikki tatabbusida harf o'yinlaridan mahorat bilan foydalanadi. Yoki g'azalidagi badiiy san'atlar silsilasi Oshiqning ancha baland shoir bo'lganligini ko'rsatadi. Muzmar esa ikkinchi tatabbusida Umarxonning dovyurakligiga madhu sanolar ham o'qiydi.

Amiriyning bundan tashqari "ustindadir" radifli ikki g'azali ham bo'lib, zamon shoirlari ularga ham tatabbular qilganlar.

Ogahiy ijodida ham "ustina" radifli ikki g'azal mavjud bo'lib, Munisdan farqli o'laroq, ikkalasi ikki xil qofiya tartibida bitilgan. Ayni paytda ularning ikkalasi ham rajazi musammani solim vaznida. Holbuki, Munis g'azallari an'anaviy ramali musammani maqsurda. Bu g'azallar avvalo Lutfiy, keyin Munis, so'ng esa Amiriy va Qo'qon adabiy muhiti shoirlari g'azallariga tatabbu deyish mumkin. Shu bilan birga, Ogahiy va Rojiyning ayni radifdagi g'azallarini qiyosiy o'rganish ular orasida mushtarak jihatlar ko'pligini ko'rsatadi. Bu ikki shoir bir-birlarining g'azallaridan ta'sirlanib, bir-birlarining fikrlarini davom ettirib, rivojlantirganlar, timsolu tashbehlarning yangi qirrasini ochib, o'ziga xos ohorli baytlar ijod qilganlar. Aytaylik, Ogahiy g'azalining maqtadan oldingi mazmunan teranligi va badiiy barkamolligi jihatidan shohbayt darajasidagi

*Xokiy taning barbod o'lur oxir – jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina [6,37], –*

misralari yetuk zamondoshining "Sulaymon egniga otasi Dovud alayhissalom yasagan o'qo'tmas sovutni kiygan taqdirida ham ajal o'qidan o'zini muhofaza qila olmaydi" mazmunidagi quyidagi baytiga hamohang jaranglaydi:

Hoyil bo'la olmoq emas mumkin ajal paykonig'a,

Dovud qilg'on javshanin kiysa Sulaymon ustina [5,111].

Yoki Rojiyning “Ey shoh, bechora mazlumlar ahvoliga inoyat nazari bilan qaraki, senga o'xshagan ko'p hukmdorlar ularning ustidan hukm yuritib, zulm o'tkazgan” mazmunidagi:

Ey shah, inoyat birla boq aftodalar holig'akim,

Bo'lmish olarning sen kibi ko'p kimsa sulton ustina [5,111], –

bayti ham Ogahiyning “Ey shoh, lutfu ehson qilgan paytingda yaxshi bilan yomonga bir ko'z bilan qara, zero, quyosh nuri obod va vayrona ustiga bir xilda tushadi” mazmunidagi bayti bilan muayyan mushtaraklikka ega:

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini –

Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina [6,37].

Lekin bu ilhom o'zi ta'sirlangan baytdan ko'ra go'zal va teran, badiiy barkamol, aytish mumkinki, shohbaytlar dunyoga kelishiga sabab bo'lgan.

Aytish mumkinki, dunyoning o'tkinchiligi, inson umrining g'animatligi, kishi har qancha ko'kka yuksalmasin, qismati oqibat tuproq qa'riga kirish ekanligi haqidagi teran hayotiy mazmunga yo'g'rilgan hasrat va alam omuxta hikmat darajasidagi falsafiy mushohadalar mujassami bo'lgan baytlar ayni radifdagi g'azallarning maqtadan oldingi baytlari uchun xos bo'lgan, chunki ko'plab tatabbularda ayni holni ko'ramiz.

Biz Ogahiy va Rojiy g'azallaridan qaysi biri avval yaratilganligini bilmaymiz. Lekin Rojiyning yosh jihatidan Ogahiydan kichikligiga qarab, Rojiy Ogahiy g'azalidan ta'sirlangan deyish mumkin. Ayni paytda Ogahiy Rojiyning xuddi shu radifdagi g'azaliga muxammas ham bog'lagan. Bu dalil har ikki g'azalning bir davrda – oldinma-keyin yaratilgan bo'lishi mumkin degan xulosaga olib keladi.

Amiriy devoni va Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasi Xiva adabiy muhitida ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Binobarin, xivalik qalam ahlining “ustina” radifli g'azallarini Qo'qon adabiy muhiti shoirlari g'azallariga qaysidir jihatdan tatabbu deyish mumkin. Bu tatabbular o'rtasidagi mushtarak baytlar, fikru tashbehlar, o'zaro ijodiy musobaqa o'laroq ularda muayyan fikrning davom ettirilgani va rivojlantirilgani, tashbehlar silsilasining boyitilib, timsollarning yangi ma'no qirralari kashf etilgani shundan dalolat beradi.

Keyinchalik Muhiy, Muhayyir, Avaz, Nojiy, Niyoziy kabi shoirlar ham ayni radifda g'azallar bitganlar. Muhiyning “ustina” radifli g'azalida hasbi hol ohanglarini, o'z ahvolidan shikoyat ohanglarni eshitsak, Avaz irsoli masal san'atidan mahorat bilan foydalanib, g'azalining xalqchilligini ta'minlagan. Muhayyir ijodida ham “ustina” radifli ikki g'azal mavjud: biri na't g'azal, ikkinchisi oshiqona. Xususan, oshiqona g'azali o'ziga xos timsolu tashbehlariga boy. Nojiy ijodida ham ikkita “ustina”, bitta “ustindadur” radifli g'azallar mavjud bo'lib, ikkinchi tatabbu hajviy ruhda bo'lib, unda bir munofiqning jirkanch qiyofasi tesha tegmagan obrazli iboralar orqali yorqin va hayotiy tasvirlanadi.

“Ustina” radifli g'azallarga ko'plab tatabbular qilinibgina qolmay, taxmislar ham bog'langan. Jumladan, Navoiy Lutfiyning ayni radifdagi g'azaliga musaddas bog'lagan bo'lsa, Ogahiy o'zining va Rojiyning, o'z navbatida Nojiy Ogahiyning shunday g'azallariga muxammaslar yozganlar. O'z-

o‘zidan, bu musaddas va muxammaslarda g‘azaldagi fikrlar rivojlantirilgan, to‘ldirilgan, kengaytirilgan, timsolu tashbehtar silsilasi boyitilgan, shoirning u yoki bu fikri sharhlanib, ma’no qirralari ochib berilgan – shu tariqa bir asar asosida yangi bir asar dunyoga kelgan. Jumladan, Nojiy “Ey nuridiydam, bu jahonning vafosi yo‘qligini yaxshi angla, Qorun kabi dunyo boyligini to‘plasang ham, bir kuni barchasi savil qoladi, olamning butun ayshu g‘ami shamol kabi boshing uzra elib o‘tadi” mazmunidagi misralari bilan Ogahiyning “Sulaymondek agar taxtingni shamol uzra qurib, jahonda har qancha davron sursang ham oqibat tuproqdan bino bo‘lgan vujuding tuproqqa qorishib ketadi” mazmunidagi teran ma’noli falsafiy mushohada mahsuli bo‘lgan hikmat darajasidagi baytini butun ma’no qirralari bilan idrok etish uchun o‘ziga xos tagzamin bo‘lib xizmat qiladi:

*Yo ‘qtur vafosi dahrni, ey nuridiydam, yaxshi bil,
Qorun kabi zar yig‘nasang bir kun qolur sendin sabil,
Ayshu g‘ami bu dahrni o‘tg‘ay boshingdin hamchu el,
Xokiy taning barbod o‘lur oxir – jahonda necha yil,
Sayr et, Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.*

Mumtoz so‘z san’atkorlari ijodiga ko‘z tashlasa, nafaqat “ustina”, balki “ustida”, “ustindadur” radiflari asosida ham ko‘plab g‘azallar bitilgani va tatabbular qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Bu hol, o‘z-o‘zidan bizni: “Bu so‘zning qanday sehru jozibasi borki, shoirlar uni sevib radif o‘laroq qo‘llaganlar?” – degan savolga javob izlashga undaydi.

Inson bu taloto‘p dunyoda yashar ekan, hamisha boshi uzra ming bir savdo, ko‘nglida oxiri ko‘rinmaydigan g‘amu tashvish, elkasida zalvorini hatto tog‘ ham ko‘tarolmaydigan burch, mas’uliyat yuki – taqdir, dunyo, hayot, zamon, odamlar, ahli oilasi tomonidan yuzlanadigan har turfa bosim ostida yashaydi. O‘zining aybu gunohlari, xato-kamchiliklari, tushunish azobi, anglash iztirobi, ishq dardi, hijron g‘ussasi, ozor alami, adovat qutqusi, nafs xarxashasi, qahru g‘azab to‘lqini, turli-tuman noxush voqea-hodisalar... unga o‘z hukmini o‘tkazadi. Xullas, o‘z ustida hamisha o‘zidan ustun kuchlar, mavhum sir-sinoatlar, teran tuyg‘u-kechinmalarni his qilib yashash dardu zavqi ushbu so‘zning qalam ahli ruhiyatiga yaqin, ko‘ngliga sevimli bo‘lishiga olib kelgan.

“Ustina” radifli g‘azallarda Iskandar va ko‘zgu, Xizr va obi hayot, Jamshid va jom, quyosh va ko‘rshapalak, Sulaymon va shamol, Dovud va sovut, Yusuf va Kan‘on, Yusuf va Misr, Farhod va Shirin, Ko‘hkan va tog‘, Majnun va sahro, Layli va Majnun, Majnun va qushlar kabi obrazlar juftligini ham ko‘ramiz. Ruh ul-amin, Dovud, Sulaymon, Yusuf, Masih, Shayx San‘on, Salmon, Afrosiyob, Rustam, Barzu kabi diniy, tarixiy va afsonaviy shaxslar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq talmeh san’ati asosiga qurilgan baytlar yoki irsoli masal san’ati asosidagi xalqona misralar ko‘p uchraydi. Bu tatabbular orasida biror-bir harf o‘yini qo‘llanmagan g‘azal yo‘q hisobi. Demak, bu ham tatabbu shart va talablaridan biri bo‘lsa kerak.

Umuman, bu gʻazal va tatabbularda tashbeh, tazod, mubolagʻa, istiora, talmeh, irsoli masal, tajohuli orifona kabi badiiy sanʼatlar eng koʻp qoʻllangan. Shuningdek, ularda Chin mushki, Chin naqqoshi, Hind oʻgʻrisi, uchuq (tabxola) kabi timsollar, ot, yakron, samand, it kabi hayvonlar, humo, chugʻz, bulbul, xuffosh, chivin, qumri, javlaha, gʻurvosh, zogʻ, lochin, kalxot kabi qushlar, sarv, shamshod, ar-ar, sanavbar kabi daraxtlar, sunbul, nasrin, gul, lola, savsan, xashxosh (koʻknori) kabi gʻiyohlar obrazlari, Chin, Hind, Misr, Kanʻon, Besutundek shaharlar nomlari ham muallifning badiiy maqsadlari ifodasi uchun keng istifoda etiladi.

Xulosa qilib aytganda, “ustina” radifli gʻazallar yaxlit bir zanjirning halqalariga oʻxshaydi, chunki ularni birlashtirib turuvchi qator jihatlar mavjud:

– “ustina” radifli gʻazallar bir mavzuning turfa talqinlari kabi taassurot qoldiradi, chunki ularda maʼshuqa, xususan, uning yuzi, koʻzi, qoshi, xati, xoli, sochi, labining taʼrifidan boshlangan mavzu dunyoning oʻtkinchiligiga urgʻu berish bilan nihoyasiga yetadi;

– shoirlar bir-birlarining ayni radifdagi gʻazallaridan boxabar boʻlganlar va ulardagi fikrlarni rivojlantirib, tashbehlarining yangi qirrasini ochishga harakat qilganlar;

– xalqona ohanglar, soʻz va iboralardan mahorat bilan foydalanganlar;

– maqtadan oldingi baytlarda shohga murojaat etilishi, dunyoning oʻtkinchiligiga ishora qilinishi va hokozolar bir anʼana tusini olgan;

– bu gʻazal va tatabbularda shoirlar oʻz mahoratlarini namoyon etib, ularning badiiy barkamol chiqishini taʼminlaganlar.

Bu barcha tatabbularning asosida Lutfiy gʻazali turadi. Lekin Qoʻqon adabiy muhiti shoirlari Amiriy gʻazalini asos qilib olgan boʻlsalar, Xiva adabiy muhitidagi tatabbularga, bir tomondan, Lutfiy, Boyqaro va Navoiy, ikkinchi tomondan, Amiriy va Qoʻqon adabiy muhiti shoirlari gʻazallari turtki bergan.

“Ustida” va “ustindadur” radifli gʻazallar ham aslida “ustina” radifli gʻazallarga tatabbu oʻlaroq dunyoga kelgan – ularning qiyosiy tahlili ayni mavzuning davomi, rivoji va yangi qirralari bilan boyishi ekani maʼlum boʻladi.

“Ustina” radifli gʻazallarining aksariyati, garchi ular tatabbu boʻlsa ham, oʻzbek mumtoz sheʼriyatining badiiy barkamol namunalari.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб \ \ Тўла асарлар тўплами, X жилдлик, 2-жилд (Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Сулаймон, И.Ҳаққул). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011.

2. Амирий. Девон. Биринчи жилд (Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). – Тошкент: “Тамaddon”, 2017.

3. Атойи. Жондан азиз жонона (Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: Э.Очилов). – Тошкент: “Шарқ”, 2011.

4. Лутфий. Девон. Гул ва Наврўз (Нашрга тайёрловчи: С.Эркинов). – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1965.

5. Муҳаммад Юсуф Рожий Хоразмий. Жамолнинг гулшанининг булбулиман. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: М.Бердимуродова). – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2008.

6. Огаҳий. Девон \\\ Асарлар, VI жилдлик, 2-жилд (Нашрга тайёрловчи: С.Долимов). – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

7. Фазлий Намангоний. Мажмуаи шоирон (Нашрга тайёрловчи: М.Ҳасаний). – Тошкент: “Тафаккур қанотлари”, 2019.

8. Хусайн Бойқаро. Рисола. Девон (Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов). – Тошкент: “Шарқ”, 1995.

9. Sibani Xan Divani (Inceleme – Metin – Dizin – Tipkibasim). Dr. Yakup Karasoy. – Anqara, 1998.

“SALLAMNO” G‘AZALI: AN’ANA VA O‘ZIGA XOSLIK

Dilshod G‘AYIPOV,
UrDU f.f.d. (DSc)
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Amiriy va Ogahiy she’riyatidagi an’ana va o‘ziga xoslik ularning “Sallamno” radifli g‘azallari misolida ochib beriladi. Shuningdek, bu ijodkorlar badiiy mahoratining ba’zi qirralari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Amiriy, Ogahiy, g‘azal, hamohanglik, o‘ziga xoslik, ishq, ma’shuq, riyokor zohid, mahorat.

Аннотация:

В данной статье раскрывается гармония и своеобразие в поэзии Амира и Огахи на примере их радибийских газелей «Салламно». Также рассматриваются некоторые аспекты художественного мастерства этих поэтов.

Ключевые слова: Амир, Агахи, газель, гармония, самобытность, любовь, любовник, лицемер, отшельник, мастерство.

Annotation:

In this article, the harmony and originality in the poetry of Amir and Ogahi is revealed in the example of their radifi ghazals «Sallamno». It also discusses some aspects of the artistic skills of these artists.

Keywords: Amir, Agahi, ghazal, harmony, originality, love, lover, hypocrite, hermit, skill.

Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyandasi, mashhur davlat arbobi hamda iste’dodli shoir Amir Umarxon – Amiriy (1787 – 1822) o‘zidan boy adabiy meros qoldirgan. Eng muhimi, adabiy muhit tashkil etib, adabiyot rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatgan. Abdurauf Fitrat e’tirof etganidek: “Ashtarxoniylarning so‘nggi davrlarida istiqlol olgan Farg‘onada ham Olimxon va Umarxonlar zamonida adabiyot yangidan bosh ko‘tardi” [1, 15]. Amiriy nafaqat adabiy muhit bunyodkori, balki betakror shoir sifatida ham o‘zbek adabiyoti tarixidan muhim joy oldi. Uning go‘zal she’riyatidan keyingi davr shoirlari ham ilhom oldilar,

xususan, Xorazm adabiy muhitining ulkan namoyandasi, buyuk shoir Muhammad Rizo Ogahiy (1809 – 1874) she'riyatida ham buning isbotini uchratish mumkin. Ogahiyning bir nechta g'azallari Amiriy g'azallariga tatabbu' tarzida bitilgan, qolaversa, Ogahiy Amiriyning ikkita o'zbekcha, bitta forscha g'azallariga muxammaslar bog'lagan.

Amir Umarxon – Amiriy qalamiga mansub “Sallamno” radifli g'azal bor. Xuddi shunday radifli g'azal Ogahiy ijodida ham uchraydi. Bu g'azallarda shoirlarning badiiy mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi, shuningdek, hamohanglik va o'ziga xoslik bo'y ko'rsatib turadi. Amiriy g'azali shunday boshlanadi:

*Dedi Yusuf ko'rib yorimni, jononingga sallamno!
Ani ishqiga toqat aylagon joningga sallamno!*

*Qoshing yoyi uza chin ko'rdi-yu, jon bo'ldi qurboning,
Yangi oyingga yuz taslim-u qurboningga sallamno! [2, 58].*

Shoir bu o'rinda husnda tengsiz Yusuf alayhissalom ham hatto uning yoriga tahsinlar aytganini, u go'zalning ishqiga sabr qila olgan joniga ofarinlar bildirganini bayon qiladi. Keyin esa yorning qoshi ta'rifiga o'tadi shoir. Qoshing yoyida ajin ko'rib, jonim qurbon bo'ldi, yangi oyingga yuz taslim-u qurboningga tasannolar bo'lsin, deydi.

Muhammad Rizo Ogahiy ham “Sallamno” radifli g'azal bitar ekan, ifodada ham, g'oyaviy niyatda ham hamohanglikdan o'ziga xoslik tomon boradi. Shoir ushbu g'azalida yorning har lahzada yuz jon oladigan fatton ko'zlari, har dam ming qon to'kadigan kipriklari, jahon bozorida yoqut va gavharlarning qadrini sindiradigan lab hamda so'zlari, oshiqning parishon qalbini bir joyga jam aylagan sochilgan sochlarining kamandi – o'rimiga tasanno, sallamno aytadi. G'azal baytlari shu qadar ohangdor, bir-biriga uzviy bog'langanki, ularning birortasini tushirib qoldirishning iloji yo'q. Shoir yozadi:

*Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg'a sallamno,
To'kar har damda ming qon tig'i mujgoningg'a sallamno.*

*Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nukta birla la'li xandoningg'a sallamno.*

*Asir aylab kamandig'a parishon ko'nglum etdi jam,
Musalsal halqayi zulfi parishoningg'a sallamno. [3, 50].*

Yana Amiriy g'azaliga qaytadigan bo'lsak, u ham yorning labi, qaddi, zulfi, yuzini madh etadi. Ularning ta'rif- tavsifida betakror ifodalardan foydalanadi. Bir jihatni alohida ta'kidlash o'rinliki, Amiriy labni to'g'ridan to'g'ri g'uncha deb atamaydi, balki labning g'unchasi ifodasini qo'llaydi, kulgan ham labning g'unchasi ekanligini ta'kidlaydi. Keyingi baytda esa ma'shuqa sochlarini anbar sochuvchi, deya ta'riflaydi va unga ham tahsin aytadi.

*Xirom etgach, labingning g'unchasi yuz noz ila kuldi,
Qading naxli bila gulbargi handoningga sallamno!*

Bulutdurmu quyosh o'trusida, ko'rgan zamon aydim:

Banogo 'shingda zulfi anbarafshoningg'a sallamno!

Ogahiy ham "Sallamno" radifli g'azalida yorning yuzi, jamoli, qaddi, labini ta'riflaydi. Amiriydan farqli ravishda har biri tasviriga alohida baytlar bag'ishlaydi. Amiriy yor labini xandon, yuz noz ila kuluvchi; ma'shuqa qaddini go'zal niholga; yuzini xurshidi tobonga qiyoslasa, ularga tahsinlar aytsa, Ogahiy yor lablarini o'likni tirgizguvchiga, suxanvar to'ti kabi shakkaristonga; ma'shuqa yuzini hajr kechasini yoritguvchi mehri raxshonga, qaddini esa tik qomatlilarni qumri kabi ishqida nolon qildiruvchi sarvi xiromonga qiyoslaydi va ularga ofarinlar aytadi. Amiriy ham, Ogahiy ham Yusuf obrazidan talmeh sifatida foydalanadi. Amir Umarxon g'azalida Yusuf jononning o'ziga tahsin aytsa, Ogahiy g'azalida yorning ruxsori toboniga, ya'ni yuziga sallamnolar aytadi:

*Yuzingdin zarracha partav yetishgach tiyra kulbamg'a,
Yorutdi hajr shomin mehri raxshoningg'a sallamno!*

*Sihi qadlarni qumri yanglig' etdi ishqida nolon,
Nazokat bog'ida sarvi xiromoningg'a sallamno!*

*Agar ko'rsa edi Yusuf malohatlig' jamolingni,
Der erdi sidq ila: "Ruxsori toboningg'a sallamno".*

*Labing shirin takallumdin o'lukni turgizib aylar,
Suxanvar to'ti oso shakkaristoningg'a sallamno.*

Amiriy g'azali sakkiz baytli bo'lib, to'laligicha ishqiy mavzuda. Ogahiy g'azali esa o'n bir baytdan iborat.

Muhammad Rizo Ogahiy g'azalning to'qqizinchi, o'ninchi baytlarida riyokor zohid obrazini yaratadi. Ilohiy olam sirlaridan to'lib-toshib so'zlab, imon da'vo qiluvchi zohidning kufr bilan yo'g'rilgan "imon"iga sallamno aytadi. Amiriy g'azalida esa bunday baytlar yo'q, Ogahiy ushbu g'azalda ishq majoziy tasviriga tasavvufiy qarashlarini ham uyg'unlashtirib yuborgan. G'azalning birinchidan yettinchi baytigacha go'zal yorning tashqi qiyofasi-yu so'zlari betakror misralar orqali tasvirlangan bo'lsa, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi baytlarda fikr tasavvufiy mazmun-mohiyat bilan yo'g'rilgan:

*Riyo-u ujb birla bir suruk johilni, ey zohid,
Mute'-yu muxlis etding, makr-u dostoningg'a sallamno.*

*Urib dam g'ayb sirridin ham etkung da'voyi imon,
Bu yanglig' kufr birla turg'an imoningg'a sallamno.*

Har ikkala g'azalning maqtalarida ham farqlar bor. Amiriy so'nggi baytda ma'shuqaning qoshini yangi oyga, yuzini xurshidi tobonga qiyoslab tahsin aytsa, Ogahiy tun-kun go'zal dildorning jabr-u jafosini chekayotganidan shikoyat etib, bu qattiq mehnatlar ichida o'zining chiqmagan joniga ofarinlar aytib, g'azalni nihoyalaydi.

Amiriy:

*Qoshing birla yuzing ko'rgach, Amir insof ila aydi:
Yangi oying bila xurshidi toboningg'a sallamno!*

Ogahiy:

*Chekarsan, Ogahiy, tun-kun ul oy javr-u jafosini,
Bu qattig' mehnat ichra chiqmag'an joningg'a sallamno.*

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Amiriyning "Sallamno" radifli g'azali Ogahiyga ilhom bag'ishlagan. Bu kabi ijodiy ta'sir Ogahiyning yana bir qancha g'azallarida ko'rinadi. Shuningdek, Amiriyning ikkita o'zbekcha, bitta forscha g'azaliga Ogahiy muxammasi har ikkala ulug' shoirlarning fikriy qarashlarida yaqinliklar bor ekanligini isbotlaydi.

"Sallamno" radifli g'azallar tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala g'azalda hamohanglik bor. Biroq badiiy ifodada, tasvirda o'ziga xoslik yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, fikriy qamrovda ham alohidalik bor. Ogahiy tomonidan oshiqona mavzudagi g'azalga riyokor zohid obrazining kiritilishi esa asarning o'ziga xosligini oshirgan.

Xullas, Amiriy va Ogahiy badiiy mahorati yuksak ijodkorlardir. Bu ikkala ulug' ijodkorlarning fikriy olami, iqtidorlari o'xshashki, ushbu holat ular bir-biriga yaqin mavzularda ijod qilganida ham ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Ikkinchi jild (ilmiy asarlar). – Toshkent, 2000.
2. Amiriy. Qoshingga tekkizmagil qalamni. G'azallar (nashrga tayyorlovchilar: Davlatov O., A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova). Toshkent, 2008.
3. Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. Toshkent: "Mumtoz so'z" nashriyoti, 2014.

AMIRIY VA FAZLIY

Zebo QOBILOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc),
Sug'diyona ERGASHEVA, talaba,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Qo'qon adabiy muhitining yetakchischi Amiriyning, mazkur muhitning "malik ush-shuarosi" – Fazliy Namangoniya ijodiy ta'siri masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, ijodiy ta'sir, tatabbu, tavr, g'azal, mahorat, badiiy san'atlar, radif, bayt.

Аннотация

В статье рассматривается творческое влияние лидера кокандской литературной общины Амира на Фазли Намангани, малик уш-шуараси.

Ключевые слова: литературная среда, творческое воздействие, татабу, тавр, газель, мастерство, изобразительное искусство, радиф, байт.

Annotation

The article deals with the creative influence of Amir, the leader of the Kokand literary community, on Fazli Namangani, the malik ush-shuarasi.

Keywords: literary environment, creative influence, tatabbu, tavr, ghazal, skill, fine arts, radif, byte.

Amiriy adabiy merosi o‘zi tartib bergan devon, Fazliy Namangoniyning «Majmuai shoiron» tazkirasini va turli bayozlardagi she‘rlardan iborat. U zullisonayn shoir bo‘lib, devon va bayozlardan o‘zbek tilida bitilgan she‘rlari qatorida, fors-tojik tilidagi shaklan go‘zal, mazmunan teran g‘azal, muxammas, musaddas, tarje‘bandlari ham o‘rin olgan.

Amiriyning ma‘naviy homiyligi, she‘riyati saviyasining balandligi, xalqchilligi va ommaviyligi, shuningdek, o‘z davri adabiy muhiti vakillarini milliy va estetik ruhga ilhomlantira olganligi qalam ahlini o‘z homiylari va ustozlari asarlarini har tomonlama keng va chuqur mutolaa qilib, undan mahorat sirlarini o‘rganib, g‘azallariga tatabbular qilishga, taxmislar bog‘lashga sabab bo‘lgan. Amiriy ta‘sirida bayt-u g‘azallar ijod etganlar. Xususan, davr shoirlari orasida Amiriy g‘azallariga tatabbular qilish ijodiy musobaqa darajasiga ko‘tarilgan. Bu tatabbularda shoirlar Amiriy g‘azalidagi fikrlarni davom ettirib, yangi qirralarini ochishga, timsol-u tashbehtar silsilasini yangidan-yangi badiiy kashfiyotlari bilan boyitishga intilganlar. Fazliy Namangoniyni o‘zi tuzgan “Majmuai shoiron” tazkirasini Qo‘qon adabiy muhiti shoirlarining ana shunday tatabbulari asosida tuzgani ma‘lum. Ma‘lumki, “Majmuai shoiron” uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi zamon shoirlarining Amiriyning 4 qasidasiga bag‘ishlangan 76 qasidalarini o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qismida esa Amiriyning 42 g‘azaliga zamondoshlarining 407ta payrovlari keltiriladi. Uchinchi qismda Amiriyning 16 muxammasiga ergashib yozilgan mazkur ijodkorlarning 88 tatabbu va muxammaslari o‘rin olgan.

Adabiyotshunoslikda “Majmuai shoiron”ning tuzuvchisi – muallifi Fazliy Namangoniyni degan fikr keng tarqalgan bo‘lsa ham, aslida bu tazkirani XIX asrning I choragida Qo‘qonda yashab ijod etgan mualliflar jamoasi tuzganki, Fazliy Namangoniyni ana shu mualliflardan biri va yetakchisi sanalgan. Bu holni Fazliyni o‘zi ham qayd qilib, quyidagicha yozadi:

Manam yak tan az jomei in kitob,

Ki dorad dar in asr Fazliy xitob.

(Mazmuni: Bu kitobni to‘plovchilardan biri men bo‘lib, bu davrda meni Fazliy deb ataydilar)

“Majmuai shoiron”ni tuzishda ishtirok etgan boshqa mualliflardan Fikriy taxallusli Mirzo Qalandar, Mushrif Isfarangiy va Xotif taxallusli Abdunnabi Xo‘jandiylarni ko‘rsatish mumkin. Chunki, “Majmuai shoiron”dagi Umarxon haqidagi, Nola to‘g‘risidagi she‘riy fiqralarning Mushrif Isfarangiy tomonidan; yana Umarxon borasidagi, Hoziq masalasidagi she‘riy fiqralarning Xotif Xo‘jandiy tomonidan yozilganligi ana shu fikrni quvvatlaydi.

“Majmuai shoiron” Qo‘qon xoni Umarxonning topshirig‘i bilan Fazliy rahbarligidagi ana shu mualliflar jamoasi tomonidan 1821-yil yanvarda yozib tugallandi.

Shoh-shoir g‘azallari qo‘ldan-qo‘lga o‘tib o‘qilgan va zamon ijodkorlariga ilhom bag‘ishlagan. Buni “mavzun” radifli g‘azali maqta‘sida Amiriyning o‘zi ham faxr-u iftixor bilan e‘tirof etadi:

*Bu g'azal bo'ldi Xo'jand ahlig'a mashhur, Amir,
Qildi taslim ango Ravnaq-u Mirzo mavzun [1, 278].*

“Odatda, adabiy ta'sir to'g'risida gapirilganda, ikki narsaga jiddiy qaraladi. Bulardan biri – dunyoqarash, ya'ni g'oyaviy munosabatlar. Ikkinchisi va eng muhimi – badiiy mahorat” [2, 17]. Fazliy ham o'z ijodida ana shu ikki me'zonga amal qiladi.

Amiriy va Fazliyni bog'lab turgan rishtalar ko'p. Qo'qon xoni saroyining malik ush-shuarosi bo'lgan bu shoir, avvalo, Amiriy g'azallariga eng ko'p tatabbu qilgan. Ikkinchidan, tatabbularida, xususan, ularning maqtalarida o'z homiysini “ko'p va xo'b” ta'rif-tavsif etgan. Uchinchidan, Qo'qon adabiy muhitida qalam ahli haqida ma'lumot beruvchi “Majmuai shoirin” degan tazkira tuzib, unda zamon shoirlarining asosan Amiriy g'azallariga tatabbularini keltirgan. Beshinchidan, tazkiraning muqaddima qismlarida Amiriyning tatabbu yozilgan har bir g'azalini keltirar ekan, ularda shoh-shoirni ta'rif-tavsif etadi. Oltinchidan, Umarxon hayoti va faoliyati, harbiy yurishlari va mamlakatni rivojlantirish borasidagi ishlari to'g'risida “Umarnoma” dostonini yaratgan.

Fazliy Amiriyning “Ey niholi sarvi qad, vey gulbuni bog'i vafo”, “Dod etarman ko'rsam ani itlari g'avg'osidin”, “Ko'rdi nozaninlardin tugmai giribonlar”, “Chekarman ohi otashnok bedoding g'umuminda” misralari bilan boshlanadigan, “sanga”, “bosh uzra toj”, “talx”, “gapur”, “ustindadur”, “hanuz”, “etmaz”, “etmish”, “evaz”, “na haz”, “tarog'”, “dog'”, “o'ynameq”, “ko'rung”, “qil”, “o'lsun”, “bu”, “ustina”, “ichra”, “biri”, “do'ndurdi” radifli g'azallariga tatabbular qilgan.

Fazliy tatabbulari ko'pincha Amiriy ta'rifidan xoli emasligi, xususan, maqtalari shoh-shoir madhi bilan yakunlanishi bilan ajralib turadi. Jumladan, “Ey, munavvar orazing oyinag'a bermish safo” misrasi bilan boshlanadigan g'azaliga qilgan tatabbusi buning yorqin misolidir. G'azal kabi 7 baytdan iborat va ramali musammani maqsur vaznida bitilgan tatabbu deyarli Umarxon ta'rifi bilan davom etib, mana bunday ko'tarinki vasflar orqali nihoyasiga etadi:

*To abad bo'lg'ay jahon mulkida, Fazliy, jovidon,
Xusravi sohibqiron sulton Umar kishvarkusho [3, 71].*

Lekin Fazliy tatabbulari faqat taqlid va ta'rifdan iborat bo'lmay, ularda betakror tashbehlar, teran va serqirra fikrlar ifodasini ham ko'ramiz. Chunonchi, keltirilgan g'azalning maqtadan oldingi baytida mana bunday hikmat darajasidagi hayotiy xulosalarga duch kelamiz:

*Sinsa ko'ngil shishasi tadbir ila bo'lmas butun,
Ustixon ermaski, oni rost qilmas mo'miyo [3,71].*

“Ko'ngil nozik bir shishaga o'xshaydi. Agar u singuday bo'lsa, biror chora bilan uni asl holiga keltirib bo'lmaydi. Chunki u suyak emaski, singanda mo'miyo bilan but bo'lsa”.

Bu aslida xalq ichida keng tarqalgan, asrlar tajribasidan o'tib kelgan hayotiy hikmatlar bo'lib, Fazliy uni go'zal bir shaklda g'azalga olib kirgan.

Odatda, g'azallarining maqtadan oldingi baytlarida shoirlar o'zlarining chuqur va serqirra hayotiy mushohadalari, turmush tajribalari aosida chiqargan xulosalari, falsafiy o'y va fikrlarini hikmatli so'z tariqasida ifoda etadilar.

“Bosh uzra toj” radifli g‘azaliga qilgan tatabbusida ham talmeh san’atidan foydalanib, go‘zal tashbehga asoslangan badiiy barkamol bayt yaratadi:

*Xasta ko‘nglim mahmili shavqingdin o‘ldi sarfarozi,
Yo‘q ajab Yusufni dalvin qilsa chah bosh uzra toj [3,87].*

Bu erda shoir oshiqning xasta ko‘ngli oti kajavasining yor shavqi tufayli yuksalganini eski quduq Yusuf alayhissalom chelagini boshiga toj qilishga arzishi bilan qiyoslaydi. Baytda o‘gay akalarining Yusufni eski quduqqa tashlab ketganlari, Misr savdogarlarining suv olish uchun unga chelak solganlarida Yusufning chelakka osilib chiqish voqeasiga ishora mavjud.

Amiriy devonida “ustindadur” radifli ikki g‘azal mavjud. Fazliyning bu g‘azallarga yozgan tatabbusida ham betakror tashbehlariga duch kelamiz. Chunonchi, quyidagi baytida ma’shuqaning terlagan yuzidagi niqobini gulob yuzasidagi gul bargiga tashbeh etadi:

*Terlagan ruxsoring uzra lolagun burqa‘mudur,
Yo tarovat birla gul bargi gulob ustindadur [4, 491].*

Bu bayt Amiriy g‘azali maqtasidagi mana bu fikrga hamohanglik kasb etadi:

*La‘lida may sog‘arin gulgun ko‘rub, so‘rdim, Amir:
“Vah, na zebo lola bargi la‘li nob ustindadur?” [1,100]*

“Mahbuba labida qizil may to‘la qadahni ko‘rib, tiniq may ustidagi bu go‘zal lola bargi naqadar nafis”.

Fazliyning ayni g‘azalga tatabbusida esa tashxis san’atining go‘zal namunasi ko‘zga tashlanadi:

*Ikki zolim qoshlaring bosh indirub qatlim uchun,
Ro‘baru o‘lturdilar bir-birga kengosh ustina [3,258].*

Qoshlarning yonma-yon joylashganidan shoir o‘z badiiy maqsadi yo‘lida mahorat bilan foydalanib, ular yuzma-yuz o‘tirib, oshiqni qanday qatl etish ustida o‘zaro maslahatlashmoqda deb lutf qiladi.

Amiriyning “Lab uyur takallung‘a, zulfni parishon qil” misrasi bilan boshlanadigan g‘azali nihoyatda mashhur bo‘gan. Fazliy ham shular jumlasidandir. 7 baytli g‘azalga shu hajmda tatabbu qilgan. Vaznni ham, qofiya tartibini ham, radifni ham saqlab qolgan. Lekin badiiy jihatdan Amiriy g‘azali darajasiga ko‘tarila olmagan. Shunga qaramay, nisbatan sodda uslub va oddiy tilda yozilgani, tushunarli va xalqchilligi tufayli shashmaqom qo‘shiqlari tarkibidan o‘rin olib, xalq orasida mashhur bo‘lgan. Shuning uchun Hamza Amiriy emas, aynan Fazliy g‘azaliga tatabbu qilgan.

Ma‘lumki, “ijodkor tarjimai holi va unga biografik yondashuv masalasi o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi” [6, 6]. Shoirlar qalamiga mansub g‘azal va muxammaslardagi ayrim ishoralarni ular hayotiga oid eng to‘g‘ri ma‘lumotlar sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi. Quyidagi g‘azal maqtasidagi mana bu fikrlarni shoirning tarjimai holi bilan bog‘lashadi: uning shoh bilan bir ora munosabati buzilib, o‘zi tug‘ilib o‘sgan Namanganga ketib qolgan va yana saroyga qaytish umidida yashagan:

*Fazliyo, Umar sulton dargahiga yo‘l tobsang,
Ko‘zlaringg‘a tuprog‘in surmai Sulaymon qil [4, 487].*

She'riyat kechalarida o'zining shoirlik salohiyatidan lof urib yurgan Fazliy shohning bir g'azalini ko'rdi-yu, uyatdan yerga kirib ketay dedi, deb lutf etadi:

*Garchi she'r bazmida lof urar erdi Fazliy,
Ko'rdi bir g'azal shohdin goldi infiol ichra [3,271].*

U o'z tazkirasida ham valine'matining iste'dodi va she'rlarining badiiy saviyasiga yuksak baho berib, gohi haqiqat, gohi majoz yo'lida she'r yozgani, so'zni nozik his qiluvchi shoh-shoir go'zal she'rlari bilan jahonni hayratga solgani, har bayti shohbayt darajasida ekanini ta'rif-tavsif etgan edi:

*Ba uslub she're karda soz,
Gahi az haqiqat, gahi az majoz.
Ba guftori shirin shahi xushkalom,
Jahonro kashida ba silki nizom.
Ki xohi g'azal gufta, xoh bayt,
Buvad har yak abyoti o' shohbayt [3, 60].*

Amiriyning "tarog" radifli tajnis san'ati asosiga qurilgan va tashbeh-u, mubolag'a-yu, istiora bilan ziynat topgan g'azaliga ham zamon shoirlari ijodiy musobaqa asosida bir-biridan go'zal tatabbular qilganlar. Fazliy tatabbusi timsol-u tashbehlarga boyligi, ayni paytda, g'azaldagi fikr-u tashbehlarni davom ettirib, ularning yangi qirrasini ochganligi bilan ajralib turadi. Jumladan, quyidagi baytida Amiriy sarv sunbulini tarashni havas qildi deya istiora yo'li bilan mahbuba sochini tarash havasiga tushdi deb lutf etadi va tashxis asosida buning uchun sanavbar shamshoddan tarog' tilaganini aytadi:

*Chu sarv sunbulin shona qilmoq etti havas,
Sanavbar ayladi shamshoddin so'rog' tarog'. [1,151]*

Fazliy bayti esa go'yo bu baytning asosi bo'lib keladi: bog' go'zalning sochlarini tarashga tarog' yasashi uchun go'yoki bir chekkada shamshod daraxtini parvarish qilyapti. Ma'lumki, shamshod kelishgan daraxt bo'lganligidan ma'shuqaning mavzud qaddiga nisbat beriladi. Shuning barobarida uning yog'ochi qattiq bo'lgani uchun undan taroqqa o'xshagan narsalar yasaladi:

*Chamanni go'shasida tarbiyat qilur shamshod,
Sochining sunbulig'a aylamakka bog' tarog' [5,198].*

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Fazliyning Amiriyga tatabbu va tavr she'rlarida muallifning ta'bi nazmi baland shoir bo'lganligi namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амирий. Девон. I. Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). - Т.: Tamaddun, 2017.
2. Ҳаққул.И. Ибрат ва маҳорат мактаби // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 4-сон. – Б. 17.
3. Мажмуаи шоирон. Нашрга тайёрловчи М.Ҳасаний. – Т.: Фан, 2018.
4. Ўзбек адабиёт. Тўрт жилдлик. 3-жилд. – Т.: ЎзССР Давлат Бадий адабиёт нашриёти, 1959.
5. Шарафиддинов О. Умархон давридаги Фарғона шоирлари / Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II жилд. XV–XIX асрлар. Олий педагогик ўқув юртлари учун (Тузувчи О.Шарафиддинов). – Т.: Ўздавнашр, 1945.

FURQATNING BIR TATABBUSI XUSUSIDA

Zeboxon QOBILOVA,
f.f.d. (DSc)

Dilzodaxon ABDULLAYEVA,
QDPI, talaba
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Alisher Navoiy bir g‘azaliga Furqatning tatabbusi sharhlangan. Har ikkala g‘azalning o‘zaro qiyosiy-tipologik tahlili berilgan. G‘azalning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Furqat, adabiy ta’sir, izdoshlik, qiyosiy-tipologik tahlil, badiiyat.

Аннотация:

В данной статье комментируется приложение Фурката к стихотворению Алишера Навои. Дан сравнительно-типологический анализ обеих газелей. Сделана попытка раскрыть идейно-художественные особенности газели.

Ключевые слова: Алишер Навои, Фуркат, литературное влияние, продолжение, сравнительно-типологический анализ, искусство.

Annotation:

This article comments on Furkat's application to a poem by Alisher Navoi. A comparative-typological analysis of both gazelles is given. An attempt was made to reveal the ideological and artistic features of the gazelle.

Keywords: Alisher Navoi, Furkat, literary influence, follow-up, comparative-typological analysis, art.

Alisher Navoiy zamondoshlari va o‘zidan keyingi ijod ahli uchun ilhom manbai vazifasini o‘tadi, uni hamma o‘zi uchun ustoz deb bildi. Xususan, Qo‘qon adabiy muhiti namoyondalari ham Navoiy an‘analarini davom ettirdi.

Alisher Navoiyni o‘zbek adabiyoti tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining tom ma‘nodagi g‘oyaviy rahnamosi desak sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki shoh-shoir Amiriy boshchiligidagi bu muhitning yuzga yaqin namoyandalaridan birortasining ijodini Alisher Navoiyning boy va serqirra merosining samarali ta’siridan ayri holda tasavvur qilish qiyin. [1, 58] Ular orasida sakkiz yoshida “Mantiq ut-tayr”ni o‘qib chiqqan, to‘qqiz yoshida Navoiyni tushida ko‘rib, she’r mashqiga oq fotiha olgan uvaysiy shoir – Furqat ham bor. Quyida shogirdning ustoz g‘azaliga bog‘lagan tatabbusi bilan tanishamiz.

Tatabbu adabiyotdagi an‘anaviy usullardan biri bo‘lib, zamondosh yoki o‘tgan adib asariga o‘xshatma tarzida izdoshlikni bildirib yoziladi. Bunda tatabbu bog‘layotgan shoir asarning mavzu doirasini rivojlantirishga, yangicha bir qarashlar bilan boyitishga harakat qiladi.

Navoiy o‘zining “aylagach” radifli g‘azalida dastlab birinchi baytni yor go‘zalligini betakror o‘xshatishlar bilan ifodalashdan boshlaydi:

*Husni ortar yuzda zulfin anbarafshon aylagach,
Sham ravshanroq bo‘lur torin parishon aylagach.* [2, 100]

“Yor sochlarini har tarafga sochib tarasa husni yanada ortadi”,-degan shoir ushbu fikriga ikkinchi misrani tamsil sifatida beradi: “xuddiki shamning piligi yoyib qo‘yilganda yanada ravshanroq nur taratganidek”. Furqat ham “aylagach” radifli g‘azalining matla’ qismidan yor go‘zalligini vasf eta boshlaydi:

*Yerga pomol o‘ldi gul sarvi guliston aylagach,
G‘uncha qon yutdi yana la‘lini xandon aylagach.* [3, 26]

Ya‘niki, yor gulistonlar aro sayr etganda, uni ko‘rgan gullar o‘zlarida yo‘q go‘zallikni ko‘rib, yer bilan bir bo‘lishadi, g‘unchaga, qimmatbaho yoqutga qiyoslanuvchi lablari kulganda esa bog‘ qo‘ynidagi g‘unchalar qon yutib, bag‘ri qonga to‘ladi. Mazkur bayt o‘zining tashbeh va mubolag‘alari bilan bir qatorda husni ta‘lilning ham yorqin namunasidir. Gullarning so‘lishi xazonrezgilikdan emas, yorni guliston aro ko‘rib qolganliklaridan. Bu yerda shoir yorni gulistonning eng chiroyli guli deb ham ta‘riflamoqda. G‘unchaning qon yutishi jumlasining o‘zida tashbeh, mubolag‘a san‘atlari ko‘rinib turganidek, ular qatoridan tashxis ham o‘rin olgan. Ayni paytda, ushbu parafraza gulning qizarishi ma‘nosining she‘riy ifodasidir. Shuning o‘zi bilan kifoyalanmagan shoir gulning qizilligiga sabab qilib yor labini xandon qilganligini keltirgan. Bu yerda la‘l so‘zi istiora vazifasini o‘tagan.

Bundan tashqari, ushbu g‘azalning to‘rtinchi baytida ham Navoiy baytiga o‘xshashliklar uchraydi.

*Tutmish olam arsasini sunbul-u rayhon isi,
Xastalar ko‘ngli kabi zulfin parishon aylagach.*[2, 100]

Bu misralarda ham yor sochlarini yoyib tarayotgan holat mavjud va ayni o‘sha vaqtda olam xushbo‘y hidli rayhon va sunbullarning bo‘ylariga ko‘miladi. Demak, har ikki ijodkor tasvirlagan yor go‘zallikda beqiyos. Buni Navoiy tashbeh orqali yor yuzi misolida aks ettirgan. Furqat bo‘lsa, husni ta‘lil yordamida yor go‘zalligini umumiy va har tomonlama ekanligini ifodalashga harakat qilgan.

Navoiy g‘azalining ikkinchi baytida oshiqning qurbon bo‘lishi va yor yuzidagi “gullar”ning paydo bo‘lishi tasvirlangan.

*Yuzni gullardin bezabmu bizni qurbon aylading,
Yo yuzingga tegdi qonlar bizni qurbon aylagach?*[2, 100]

Husningni yanada ortishiga sabab bo‘lgan guldek qizil ikki yuzingni ko‘rib, qurbon bo‘lmadim. Avval sening ko‘yingda qurbon bo‘ldim va mendan oqayotgan qonlar senga sachrab, ikki yuzingda qizillikni paydo qildi. Ushbu baytni tajohul-u orif san‘atini yuzaga keltirgan.

Ayni shu bayt mazmuniga hamohang tarzda Furqat g‘azalining oltinchi baytida ham hilol yanglig‘ qoshlarini ko‘rib qurbon bo‘lgan oshiq qonlarining yor qo‘llarida xinodek qolgani tasvirlanmoqda.

*Chun nigor etmish qo‘lin xun ila iyd o‘lg‘och nigor,
Ko‘rsatib bir yo‘l hilolin elni qurbon aylagach.*[3, 26]

E‘tiborli jihati, Navoiyning g‘azalida tasvirlangan yorga nisbatan, Furqat g‘azalida tasvirlangan ma‘shuqa qattolroq. Nimagaki, Navoiy ijodidagi misralarda oshiq qoni yor yuziga sachraydi. Furqat misralarida esa yor qatl jarayonida bevosita ishtiroki sezilib, qonlar qo‘lida xinodek o‘rnashgani oydinlashadi. Navoiy

baytida qurbon bo‘lish sababi aniq ochiqatlanmagan. Furqat baytida “qoshlarning ko‘rinishi” detali bor.

Navoiyning 3-4-baytlariga diqqat qilamiz.

*Tiyg‘ ila paykonlaring yetti ko‘ngil bo‘lg‘och xarob,
Suv qo‘yub tuxm eking, ul kishvarni vayron aylagach.
Qon emaskim, yopti gulgun hulla Jannat xozini,
Ishq maqtulin shahid aylarda uryon aylagach.* [2, 100]

Ko‘ngil mamlakatini vayron etib, o‘zining tig‘ va paykonlarini urug‘ misol qadagan, sug‘organ yor ishqida xarob bo‘layotgan ko‘ngil tasviri va qatl jarayoni ifodalanmoqda. Qachonki oshiq haqiqiy ishq yo‘lida qurbon bo‘lsa, shahid bo‘ladi. Baytdagi oshiq ham ishq qurboni bo‘lib, qatl etildi va undan oqayotgan, boshqa insonlar ko‘ziga qon bo‘lib ko‘rinayotgan suyuqlik aslida, Jannat xazinaboni tomonidan oshiqning shahidlik martabasini bildiruvchi alvon rangli jannat libosidir.

*Oshkor aylab yuzin ko‘zumni hayron ayladi,
Yoshurun oldi ko‘ngil ko‘zumni hayron aylagach.* [2, 100]

Yuqoridagi Navoiy g‘azalining oltinchi baytida yor yuzining namoyon bo‘lishi ko‘zlarni hayron qoldirdi va ko‘ngilni yashirin zabt etdi tarzida ifodalangan. Endi Furqatning shu mohiyatga aloqador uchinchi baytini taqqoslaylik.

*Aql ila hushim ketib, hayratda qoldim ul dame,
Burqa‘in ochib yuzin andak namoyon aylagach.* [3, 26]

Baytda yor niqobini olib, yuzini oshkor etgan onda, aql bilan hush yo‘qolib, hayratda qolgani tasvirlanmoqda. Furqatning ushbu bayti Navoiy qo‘llagan hayratlanishni haddi a‘losiga olib chiqqan. Navoiy misralarida ko‘z hayron bo‘lsa, Furqat ijodida ham aql, ham ruh hayratda.

*Jong‘a qo‘yg‘ach naqdi ishqing qildi ko‘nglumni halok,
O‘lturur mahramni sulton ganj pinhon aylagach.* [2, 100]

Mahram yordamida shoh xazinani yashirgach, hech zog‘ bilmasligi uchun mahramni ham o‘ldiradi. Demak, mahramni xazinalar halok etdi, xuddiki, haqiqiy ishq inson ko‘nglidagi kirliklarni, g‘uborlarni halok etib, pokizalaganidek.

*Ey Navoiy, ishq agar ko‘nglumni majruh etmadi,
Bas nedurkim, qon kelur og‘zingdin afg‘on aylagach.* [2, 100]

Umuman olganda, Navoiy g‘azalining yuqoridagi maqta‘ qismida shoirning o‘ziga murojaati aks etyapti. Bundan kelib chiqadiki, g‘azaldagi lirik qahramon shoirning o‘zi. “Ishq agar ko‘nglimni majruh etmaganda, bu kabi dard to‘la afg‘onli satrlar tug‘ilmas edi”. Ayni shu vaziyat Furqatning so‘nggi misralarida ham ko‘zga tashlanadi.

*Furqat, ul oshubi davron etmadi bir qatla yod,
Bizni rasvoyi jahon-u zor-u hayron aylagach.* [3, 26]

Furqat o‘zining zamonidagi jarayonlardan kelib chiqib murojaat qiladi. “Rasvoyi jahon bizni xor-u zor qilgach, g‘avg‘oli davr kishilaridan hech kim bir marotaba ham bir qatla yod etmadi”,-demoqda. Mazkur baytda furqat va oshubi davron, yod so‘zlari tazod san‘atini; furqat, rasvoyi jahon, zor-u hayron tanosubni hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik (Amiriy she'riyati misolida). – T.: Turon-Iqbol, 2021, 256 bet.
2. <http://navoi.natlib.uz>
3. Furqat. Muhabbat yo'lida. Toshkent. Yangi asr avlodi, 2009.

HAZINIY IJODIDA NASIMIY OHANGLARI

Zilola AMONOVA,
Buxoro Davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedراسи dotsenti,
filologiya fanlari doktori
(O'zbekiston)

Аннотация

Maqolada ozarning ulug' shoiri Imodiddin Nasimiyning Qo'qon adabiy muhiti vakili Haziniy ijodiga ta'siri masalasi yoritilgan. Haziniyning Nasimiydan ilhomlanib yaratilgan she'rlari g'oyaviy-badiiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Imodiddin Nasimiy, Haziniy, hurufiylik, Mansur Halloj, adabiy ta'sir, badiiy mahorat.

Аннотация

В статье рассматривается влияние великого азербайджанского поэта Имоидиддина Насими на творчество Хазини, представителя литературной среды Коканда. Стихи Хазини, вдохновленные Насими, подвергаются идейно-художественному анализу.

Ключевые слова: Имоидиддин Насими, Хазини, хуруфизм, Мансур Халлодж, литературное влияние, художественное мастерство.

Annotation

The article deals with the influence of the great Azerbaijani poet Imodiddin Nasimi on the work of Hazini, a representative of the literary environment of Kokand. Hazini's poems, inspired by Nasimi, are ideologically and artistically analyzed.

Keywords: Imodiddin Nasimi, Hazini, hurufizm, Mansur Halloj, literary influence, artistic skill.

Ma'lumki, XV asrning birinchi yarmida adabiy aloqalar keng rivojlandi. Zero, adabiyotlararo aloqa va o'zaro adabiy ta'sir adabiy muhit uchun muhim masalalardan biridir. Adabiyot tarixida fors-tojik va o'zbek adabiy aloqalari keng taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, o'zbek va ozar adabiy aloqalari ham ancha uzoq tarixga ega. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, ozar adabiyotining buyuk siymolaridan biri shoir Nizomiy Ganjaviy ijodining katta ta'siriga guvoh bo'lamiz. Masalan, Qutb Xorazmiy Nizomiy ta'sirida "Xusrav va Shirin", Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" asarini yozdi. Qolaversa, Lutfiy, Xorazmiy, Durbek, Gadoyi, Atoyi, Sakkokiylar ijodida Ozarbayjon adabiyotining ta'siri seziladi.

Demak, tili, madaniyati, urf-odati, an'analari bir-biriga yaqin bo'lgan ozar va o'zbek adabiy aloqalari qadimdan shakllangan bo'lib, uzoq tarixni bosib o'tgan.

Ta'kidlash joizki, XV asrning birinchi yarmidan boshlab o'zbek she'riyatida Imodiddin Nasimiy ijodining ta'siri seziladi. Mumtoz adabiyotimizdagi bir qancha shoirlarni ilhomlantirgan Nasimiy ijodi shoir Haziniy nazaridan ham chetda qolmagan. U XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Qo'qon adabiy muhitida Muqimiy, Furqat, Muhayyir, Rojiiy, Nusrat kabi shoirlar bilan bir davrda faoliyat yuritgan iste'dodli shoirlardandir. Xalq orasida katta ixlos va hurmat qozongan shoir "Haziniy to'ra", yoki "Eshon buva" nomlari bilan tilga olingan. Haziniy adabiy merosida tasavvuf g'oyalari ta'siri mavjud. Shoirning kelib chiqishi eshonlardan bo'lib, otasi shayxzodalardan bo'lgan⁶. Hatto Haziniyning nasl-nasabi hazrati payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga borib ulanishini tasdiqlovchi shajaraviy hujjatlar mavjud bo'lib, hozirda shoir avlodlari qo'lida saqlanmoqda. U ham ota tomondan, ham ona tomondan payg'ambarimizga borib taqalishi 74 va 22 muhr bilan tasdiqlangan⁷. Shu bois mazjubiylar peshvosi xalifa Hakimning xonaqosida qatnab, shul joyda navhali she'rlar o'quvchi hofiz bo'lib yurgan. Nihoyat shul kishidan murid tarbiya etarga ruxsat olmishdur⁸. Haziniy tariqat bilan bog'liq bo'lgani uchun ham she'riyatida harf ramzlari, ilohiy ishq talqinlari kuzatiladi. Jumladan, u Nasimiyning harf ramzlariga asoslanib yaratgan she'rlari ta'sirida baytlar bitgan:

Ki o'n sakkiz ming olamni yaratti **kof-u nun** birlan,
Yetarkim qudrati fosiqni qilsa avliyo shoyad⁹.

Haziniyning hamd xarakterida yaratilgan ushbu misralarida **kof-u nun** harflari butun borliqning yaratilish asosi sifatida talqin etilgan. Mazkur harflarning o'n sakkiz ming olamdan oldin mavjudligi, olam-u odam ushbu harflar asosida yaratilganligi Nasimiy va undan ta'sirlangan qator shoirlar ijodida zikr etilgan. Haziniy ushbu an'anaviy mulohazalarni davom ettirdi. Qolaversa, Haq taolo qudratiga baho berib, birgina "Kun" ("Yaral") so'zi orqali borliqni adamdan mavjudlikka aylantirganligini birinchi misrada izohlaydi. Ayni fikrlarni davom ettirib, ikkinchi misrada Alloh taolo qudrati "fosiqni avliyo qilish"ga qodirligiga urg'u beradi. Haziniy ijodida islomiy tafakkur va tasavvufiy axloq masalalari alohida talqin etilgan. Shoir she'rlari Qur'on va Hadislarga muvofiq, ularga hamohang holda bitilgan. Bu bevosita ijodkordan yuksak ma'naviy poklik va ulkan ilmiy salohiyat talab etadigan ijod uslubidir. Haziniy ana shunday ma'rifatli, fozil ijodkor va jo'shqin iste'dod sohibidir¹⁰. Shoirning yana bir hamd xarakterida yaratilgan g'azalida Allohning qudrati va **kof-u nun** harflari bilan bog'liq mushohadalar beriladi:

Yaratting kulli ashyoni o'zing bir **kof-u nun** birlan,
Ki, harna aylamog'lig' qudratingni oldida oson¹¹.

⁶ Пулотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. 3-қисм. – Тошкент. 1998. 562-б.

⁷ Ҳазиний. Девон. – Тошкент: Маънавият, 1999. 3- б.

⁸ Пулотжон Домулла Қайюмов. Ўша асар. 562-б.

⁹ Ҳазиний. Девон. – Тошкент: Маънавият, 1999 й. 24 б.

¹⁰ Ҳазиний. Девон. – Тошкент: Маънавият, 1999 й. 6- б.

¹¹ Ҳазиний. Ўша асар. 148-б.

Shoir kulli ashyo – hamma, barcha narsaning yuzaga kelishiga Allohning **kofu nun** (kun – bo‘l) i sabab bo‘lganligiga urg‘u beradi. Ikkinchi misrada Alloh qudratining cheksizligi va har ne ishki, uning nazdida oson ekanligini ta’kidlaydi.

Haziniy ijodida harflarning ramziy ifodasi bilan birgalikda shoir Nasimiydek Mansur Hallojga muhabbati ufurib turgan she’rlari ham mavjud:

“Haziniy mayparast” deb, muhtasib xabar bersa,
“Anal - Haq” doriga Mansur kabi bo‘lay osilush¹².

Shoir uni muhtasib (shariatga xilof ishlarni tekshiruvchi) “mayparast” deb xabar bersa, jazo sifatida, ya’ni “mayparast”ligi uchun Mansur kabi “Anal - Haq” doriga osilishga tayyor ekanligini zikr etadi. Mazkur bayt shoirning tasavvuf va uning suluklari haqidagi mulohazalarini oydin aks ettirgan. Ya’ni shariat va ayrim shayxlar tomonidan rad etilgan Halloj g‘oyasiga xayrihoxligini ko‘rsatadi. Haziniy talmeh vositasida tasavvufiy-falsafiy qarashlarini badiiy aks ettirgan. Shoir Halloj va u osilgan dor bilan bog‘liq mulohazalarini boshqa g‘azallarida ham davom ettiradi:

Dor aylab Mansur Hallojdek osturmoqqa,
Bu judolik rishtasin dor ettingu rahm etmading¹³.

Shoir nazdida Mansur dori judolik rishtasidan yaralgan edi. Bu rishta Hallojni judolikdan xalos etib, haqqa vosil aylagan. Shunga e’tibor qaratib, Haziniy ayni Mansur Hallojning dorini yor unga munosib ko‘rayotganligini ifodalaydi. Shoir ijodidagi yana bir qancha g‘azallarda “Halloj doriga muhabbat” sezilib turadi:

“Anal - Haq” rishtasi bo‘yniga tushgonda Haziniyning,
Mani Mansur kabi o‘ldurgali dorungni so‘rmassan¹⁴.

Haziniyning lirik qahramoni ishq yo‘lida Halloj kabi “Anal - Haq” rishtasi bo‘yniga tushishiga talabgor. Chunki bu rishta judolikka chek qo‘yib, vaslga etishtiruvchidir. Ayni mavzu shoirning murabba’larida ham davom etadi:

Sham’ o‘tiga kuyub har dam parvonaman,
Vujudlarim yonib, bo‘ldim so‘zonaman.
Mansur kabi man sokini mayxonaman,
May ichmoqqa Haziniydur xummoringiz¹⁵.

Ushbu misralarda orifona she’rlarga xos timsollar tizimi (sham, parvona) orqali ilohiy ishq bilan bog‘liq mulohazalar obrazli yoritilgan. Ayni fikrlar istiora san’ati imkoniyati bilan yanada ta’sirchan ifodalangan. Shoir talmeh (Mansur) vositasida o‘zining “sokini mayxona” ekanligini Hallojga tashbeh qiladi. Chunki Mansur Halloj e’tiqodiga sobit qolgan yuksak jasorat egasi sifatida mashhurdir. Demak, Haziniy ilohiy ishqda va undan sarmastlikda sobit qolmoqchiligini ta’kidlash bilan fikrlarini xulosalaydi. Shoir lirikasida ilohiy ishq o‘ta yuqori pardada kuylangan. Bu o‘rinda haqiqiy muhabbat sohiblari – shayxlarni zikr etadi. Shunday mutasavviflar qatorida, tabiiyki, buyuk jasorat sohibi – Nasimiyni ham tilga oladi:

¹² Хазиний. Ўша асар. 37-б.

¹³ Хазиний. Ўша асар. 54-б.

¹⁴ Хазиний. Ўша асар. 80-б.

¹⁵ Хазиний. Ўша асар. 110-б.

Adham kabi taxt-u baxtim tashlasam,
Nasimiydek man ularni xushlasam,
Go'shtu po'stum judo qilib so'zlasam,
Hajr o'tiga zarra toqat qolmadi¹⁶.

Haziniy talmeh san'ati imkoniyatidan foydalanib, shayx Ibrohim Adham tarixiga ishora qiladi. U asli Balx viloyatining eng shavkatli shohi edi. Ammo Ibrohim Adham taxt-u molini tashlab, tariqat yo'liga kiradi. Buning bir necha sabablari tazkiralarda¹⁷ keltirilgan. Jumladan, tunda uning saroyi tomidan darvesh tuyasini izlaganligi, kunduz Xizr (a.s.) savdogar qiyofasida kelib, dunyoning o'tkinchiligi haqida so'zlaganligi, shikorda kiyik tilga kirib gapirganligi Ibrohim Adhamni junbishga keltiradi va u irshod yo'lini tanlaydi. Shu bois Haziniy: "Adham kabi taxt-u baxtim tashlasam",-deydi. Ikkinchi misradan boshlab, Nasimiy bilan bog'liq fikrlar beriladi. Ya'ni ozar shoirining Ibrohim Adhanga alohida muhabbati bo'lganligi uchun "Nasimiydek man ularni xushlasam", deb ularga xayrihohligini bildiradi. "Go'shtu po'stum judo qilib so'zlasam" satri Nasimiyning fojiali taqdiriga ishoradir. Shoir oxirgi misrada fikrlarini xulosalab, hijron va ayriliq o'tiga zarra toqat qilish dushvor, deydi.

Demak, Haziniy ijodida ilohiy ishq ta'rifi, uning chinakam egalari – so'fiylarga tom e'tiqod aks etgan. Shuningdek, kof-u nun harflari orqali Allohning yaratuvchilik qudratiga urg'u beradi. Ayni jihatlar Haziniy uchun Nasimiy ijodi ilhom manbai bo'lganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нәсими Имадәддин. Сечилмиш әсәрләри. – Бакы, 1973. – 673 сәһ.
2. Насимий И. Асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – 230 б.
3. Насимий. Озарбайжон тилидан Эргаш Очил таржимаси. – Тошкент, Мовароуннахр, 2018. – 91 б.
4. Пўлотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. 3-қисм. – Тошкент. 1998.
5. Ҳазиний. Девон. – Тошкент: Маънавият, 1999 й.

“TAZKIRAI QAYYUMIY” ASARIDA ANDIJON SHOIRLARI HAQIDA

Dildora ABDULLAYEVA
AndDU dotsenti, f.f.d.
(O'zbekiston)

O'zbek adabiyoti tarixida tazkira janri o'tmish shoir va adiblarning hayoti, ijodiy faoliyati haqida aniq va atroflicha ma'lumotlarni qamrab olishi, ularning asarlaridan namunalar berilishi jihatidan alohida muhim o'rin tutadi. Adabiyot tarixi tadqiqotchisi uchun tazkira asarlar ilmiy asos sifatida muhim manba

¹⁶Ҳазиний. Ўша асар. 116-б.

¹⁷ Аттор Ф. Тазкиратул авлиё. – Тошкент. 2013. 108-134бетлар. Алишер Навоий. МАТ. XVII том. – Тошкент, 200. 38-39- бетлар.

hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti tarixidagi so‘nggi tazkira Po‘latjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” asaridir.

Tazkirada Andijon adabiy muhitiga doir shoir va adiblar haqida ham ma‘lumotlar va ularning asarlaridan namunalar berilgan bo‘lib, andijonlik ijodkorlardan 13 ta shoir qayd etiladi. Mazkur qalam sohiblarining yashagan davrlari haqida so‘z yuritilib, ayrim voqea va tafsilotlar hamda asarlaridan namunalar joylashtirilgan. Dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur haqida to‘xtalangan. Zahiriddin Muhammad Boburning shajarasi darj etilgach, uning “farg‘onali bo‘lub Andijon shaharida 888 (1483) nchi hijriyda tug‘ilgan”ligi ta‘kidlanadi. Yosh vaqtida Farg‘ona vodiysining amiri bo‘lgani, 11 yil hukmdorlikdan keyin notinchlik tufayli, ichki va tashqi o‘zbeklar hujumi ostida qolib, ozgina askari bilan Afg‘onistonga ketgani haqida so‘z yuritiladi. Zahiriddin Muhammad Boburning Afg‘oniston va Hindistonni obod etgani, saroylar, bog‘lar, madrasalar, yo‘llar qurgani aytib o‘tiladi. Shoh va shoir Boburning hayotida o‘z qo‘li bilan yozilgan “Boburnoma”ning tarixiy qiymati, til xususiyati jihatidan qadrlı ekani ta‘kidlanadi. “Boburnoma” Akbarshoh tomonidan chig‘atoy tilidan tojik, undan esa ingliz tiliga tarjima qilingani aytiladi. Tazkirada Boburning “Jonimdan o‘zga yori vafodor topmadim” misrasi bilan boshlanuvchi ilk g‘azali, 7 ta ruboiysi keltirilgan.

“Tazkirai Qayyumiy” asarining 1-jildida Boburdan boshqa uchta shoirlar haqida ma‘lumotlar berilgan. Keyingi shoir Kaltatoyi taxallusli bo‘lib, uning ismi Zokirxo‘ja, Andijonning Izboskan tumanidan bo‘lgan. Imom va mudarrislik bilan shug‘ullangan. Tazkira muallifi shoirning tashqi qiyofasini ham tasvirlaydi. Zokirxo‘ja Kaltatoyi Qo‘qon shahrining sharqida shahardan besh kilometr joyda Eshon qishloq degan joyda yashab qoladi. P.Qayyumiy Kaltatoyining Amir Umarxon diqqatiga tushish uchun bir g‘azal yozgani va uni saroyga yuborgani, xonning shoirni chaqirib, unga e‘tibor ko‘rsatgani haqida yozadi. Shoirning gavdasi kichik bo‘lganidan xon uni “Kalta toyim” degani va bu nom unga taxallus bo‘lib qolgani bayon qilinadi. Kaltatoyning “Manam bir go‘shai...” deb boshlanadigan g‘azali tazkirada keltirilgan.

Tazkirada Mohlaroyim – Nodira haqida ham boshqa ijodkorlarga nisbatan keng to‘xtalib o‘tilgan. Uning asli Andijon shahridan bo‘lib, ismi Komila deb ko‘rsatiladi. Yana bir o‘rinda ham tazkira muallifi tomonidan Komila deb yuritilgan. “Mohlar oyim” degan nom haqida: “...titul bo‘lub, o‘rdadagi haram xotunlarni hurmat ila ataydurgan ismdur”,-degan fikr bildirilgan. Nodiraning:

Sayodat xonadoni shohi Bobur nasli pokiman

Xudoyo, rahmat ayla jumla ajdodi izomimni

bayti keltirilib: “xotin kishi bir erkagi uchun avlodi izom so‘zini keltirib tilash Nodiradek olimaga zo‘r mantiqsizlik bo‘lur edi. Albatta, bir tarixiy asosga mabniy bu jur‘atni ayta olgandir”,-deyiladi tazkirada. Nodira aslida bu bayt orqali o‘zining ajdodlari, nasl-nasabi kimlarga borib ulanishini bildirgan edi. Shoira Nodiraning otasi Rahmonqulibiy shohruhiylar sulolasidan bo‘lib, Abdurahimbekning o‘g‘li Shodibekning nabirasidir. Tazkira muallifi Nodiraning Amir Olimxon va Umarxonlarga “nasliy qariblik” (yaqin) ekanini ta‘kidlab o‘tadi. Tazkirada: “Muntahab ut tavorix”da tarixiy voqealar tefasida Nodiraning oddiy so‘z bilan

maqbullab so‘zlagan so‘zi uchramaydi”,-deyiladi. Buning sababi esa “Hakimxon to‘raning otasi shayxulislomlik mansabidan tushirilib shahardan chiqib ketishiga etilgan taklifning Komila xonimning roli”,-deb ko‘rsatiladi. Darhaqiqat, mazkur manbada Nodiraga nisbatan salbiy baho va munosabatlar kuchli sezilib turadi.

Nodiraning hayotlik davrida amalga oshirgan solih ishlari qayd etiladi; “Dahmai Shohon”ni tazmin etdirgani, yaxshi shoir va shoiralarga yaxshi mukofotlar bergani, olimlardan Oxund devonga “Mirzoi zarrin qalam” unvoni bergani, oltun qalam bilan siylagani qayd etiladi. Tazkira muallifi shoirani: “tariximizdagi nomdor shoirlarimiz deb taqdim etmak vazifamiz”,-deydi. Shunday shoira qonxo‘r va zolim Buxoro amiri Nasrullo tomonidan shahid etilgani zikr etiladi. Nodiraning beshta g‘azalidan keltirilgan. Shuningdek, Nodiraning Amir Umarxonga savoliga hozirjavoblik bilan shoirona bergan javobi bilan bog‘liq voqea bayon qilingan.

Keyingi andijonlik shoir Biymiy bo‘lib, tazkirada “Bu shoirning nomi Mulla Abdurazzoq bo‘lub, Ho‘qandlidur. (Bir kishi Andijonli deb edi)” degan ma‘lumot beriladi. So‘ngroq esa “shoir asli andijonli bo‘lub undan Nasriddinbek ila yo ergashib kelmish ekani ehtimolga yaqindur” degan fikrlarni keltirgan [2;200]. Mavjud adabiy va tarixiy manbalarda esa Biymiyning andijonlik bo‘lib, garchi bir muddat Qo‘qonda bo‘lsa-da, asosiy umri Andijonda kechganligini ko‘rsatadi.

Biymiy madrasa tahsilidan so‘ng o‘z qishlog‘iga qaytib qozixonada mirzolik bilan shug‘ullandi. Shuningdek badiiy ijod bilan shug‘ullandi. O‘z she‘rlariga kuy bastalab ijro etar edi. Aytishlaricha, badiha usulida to‘qilgan g‘azaliga shu paytning o‘zida kuy bastalab ijro etgan. Biymiy Qo‘qon shoirlari bilan aloqani uzmay, ular bilan xat orqali xabarlashib turdi. Do‘stlariga o‘z she‘rlaridan yuborib ularning fikridan xabardor bo‘lgan. O‘zi ham ular yuborgan she‘rlarga munosabat bildirgan.

“Tazkirai Qayyumiy” muallifining e‘tiroficha, bir qo‘lyozma kitobning oxirgi sahifasidan birida Biymiyning bir she‘riga ko‘zi tushganini aytadi.

*Bor erdi Abdurazzoq devona xo‘,
Ki devona ermas neku tab’ neku.
Birav topmas aybini atvoridin
Qilur hajv o‘z to‘n dastoridin.
Bo‘lub Ho‘qand oning maskani
Hijo g‘o‘liqdur shioru fani
Bu bahri tavil tarkini qildi raqam
Malikzodadin topdi ul dam karam.*

So‘nggi misradagi “malikzoda” Xudoyorxonning Andijonga hokim etib tayinlangan o‘g‘li Nasriddinbek ekani ma‘lum bo‘ladi. Tazkirada “bekning (Nasriddinbek – D.A.) Biymiyning debochasiga o‘xshatma etib xuddi shul vaznda yozganlari bordur. Aloqasi shundan bilinadur” degan izohi Nasriddinbekning nazira she‘ri bor ekanligidan dalolat beradi. Nasriddinbek Shaxzoda taxallusi bilan g‘azallar yozgan, uning bir namunasi “Tazkirai Qayyumiy”da keltiriladi.

Abdurazzoq Biymiy Nasriddinbekdan bir salla so‘rab bahri tavilda yozadi: “Sayyidim, toji sarim, nukta rasim, ahdi qadim. Bandaga bir salla karam qilg‘an edilar, magaram xotiri ashraflaridin mahf bo‘lub kelgani uchun yodi muborakka

solay deb bu sifat bahri tavil ayladim insho. Maliko, muhtashamo, anglaki, kallamdagi sallam titilib har yeridin turli teshiklar qiymai parcha bo‘lub ilma uloq...” “Bahri tavil” mazmunidan Abdurazzoq Biymiyning qiyinchilik va nochorlikda yashaganini anglaymiz. Uning qachon va qaerda vafot etgani haqida ma’lumot saqlanmagan. Tazkirada keltirilgan

Debochai ishqdin rivoyat

G’am daftaridin bu bir shikoyat

matlali asar parchasi uning masnaviy debochasiga o‘xshashligini ko‘rsatadi.

San ishq o‘tisan ki, man kabobam

O‘t yonida doim iztirobam.

San mahvashi ofati zamona

Man mardum ichinda bir fasona.

Endi netaramki, toqatim yo‘q,

Hajring alaminda mehnatim cho‘x...

Muhibu junun ahli ushshoq,

Biymiyi g‘aribu Abdurazzoq.

Tazkirada shoirning yana bir g‘azali keltirilgan:

Ishq ichra qachon Majnun devona ekan mandek,

Laylini firoqinda afsona ekan mandek.

G’am tog‘ida qon yig‘lab Shirin g‘amida Farhod

Hasratda qachon ashki durdona ekan mandek.

Ovorayi hijronlar sahroyi malomatda

Mushtoqi visoli ul jonona ekan mandek...

Uzroni g‘ami birlan Vomiqni dilu ko‘ngli

Ishq ofatila Biymiy devona ekan mandek.

Shoir Biymiy o‘z g‘azal va boshqa she‘rlarini bir bayoz tarkibida yig‘ib borgan, biroq bu bayoz yo‘qolgan. Uning asarlari adabiyot muxlislarining daftarlari va boshqa bayozlar tarkibida mavjud.

Bimiyning kuy bastalangan g‘azallari yaqin vaqtlargacha to‘y-u tomoshalarda ijro etib kelingan, radio va televideniya ham berilgan. Uning “Bormayman dedi”, “Qayga boray” she‘rlari shular jumlasidandir.

Tazkiraning ikkinchi kitobida Manzur, Muntazir, Xilvatiylar haqida ma’lumot va tafsilotlar keltirilgan. Shuningdek Xudoyorxonning o‘g‘li Nasriddinbek ham Andijonda hokim bo‘lib turganida saroyda adabiy muhit shakllanishida uning o‘rni bo‘lgan. Shu bois Nasriddinbekni ham Andijon adabiy muhiti bilan bog‘liq siymolardan biri sifatida qayd etish mumkin bo‘ladi.

Manzur taxallusli shoir XIX asrda Amir Umarxon saroyida yashagan. Asli Andijon shahrida tug‘ilib, Qo‘qonda yashab ijod qiladi. Fazliyning ta‘rifiga qaraganda, u havaskor, yosh shoir bo‘lgan, degan fikr aytiladi tazkirada. Manzurning:

O‘rtagan mani har dam orazi duraxshonlar

Baxtimi qaro qilg‘an kokili parishonlar

matlali g‘azali misol sifatida keltiriladi.

Tazkirada keltirilgan navbatdagi shoir Yusuf qori Mirzohid o‘g‘li Muntazir(1831-1884) bo‘lib, Qo‘qonda tug‘iladi, keyinchalik Andijonda

Nasriddinbek saroyida xizmat qiladi. Otasining vafotidan so‘ng amakisining qaramog‘ida qoladi, madrasada tahsilni davom ettiradi. O‘sha paytdagi ilm va tahsilni puxta o‘zlashtiradi, so‘ngra o‘zi o‘qigan madrasada mudarris bo‘lib qoladi. Xudoyorxon saroyida munshiylik vazifasida ishlaydi. Muntazir o‘z asarlarini bir bayozga yiqqan, lekin u yo‘qolib ketgan bo‘lib, undan ayrim she‘rlargina qolgan. “Otim”, “Salla” nomli hajviy mazmundagi, “Ko‘rib”, “O‘lg‘il” kabi lirik yo‘nalishdagi she‘rlar, fors tilidagi “Dorad” radifli she‘r yetib kelgan. Xudoyorxonning o‘g‘li Nasriddinbek Andijon viloyatiga hokim qilib tayinlangandan keyin Muntazir unga bek atka sifatida Andijonga yuboriladi. Uning qolgan umri Andijonda o‘tadi. Uning o‘z vazifasidan kelib chiqib, andijonlik shoirlar: Qori Zokir, Biymiy, Pirmqori kabi shoirlarga homiylik qilganligi haqida ham ma‘lumotlar bor. Uning Qo‘qon, Toshkent adabiy muhiti bilan ham bog‘langanligini bilish mumkin. Tarixiy sharoit ziddiyatli bo‘lgan bir paytda Andijon hokimiga bek atkalik qilish katta mas‘uliyatni yuklar edi. Shu bois bo‘lsa kerak shoir Muntazir bu vazifadan ketib Andijon shahridagi “Bobo Sa‘diddin” qabristoni yonidan bir hujra olib umrguzaronlik qiladi. U qolgan umrini badiiy ijodga bag‘ishlab, she‘riy asarlar yozadi. Muntazirning ijtimoiy-tanqidiy she‘rlari uchun ayrim tabaqa vakillari yoqtirmagan.

Andijonlik shoirlardan Xilvatiy haqida uning Andijon viloyatining Jiydakapa qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilib yashagani, xat savodli bo‘lgach, Namangandagi madrasada tahsil olgani, imom bo‘lgani, she‘r yozib mashhur bo‘lgani aytiladi. Xilvatiy mulla Obidning ustoz bo‘lgan ekan. Kichik devon tuzgan, Mavlaviyni arabchadan o‘zbekchaga tarjima qilgani sabab mashhur bo‘lgani ta‘kidlanadi. Tazkira muallifi Xilvatiyni Birdinjiyning tarixiy qasidasini tarjima qilgan, mahorati bor, olim shoir deb ataydi. Xilvatiy 1922-yilda vafot etgan. Tazkirada uning bir g‘azali namuna sifatida keltirilgan.

Tazkirada keltirilgan Shahzoda taxallusli shoir Xudoyorxonning o‘g‘li bo‘lib, ismi Nasriddinbekdir. Andijonda hokim bo‘lib turganida Andijon shayxulislomining adabiy-ilmiiy tarbiyasini oladi. Badiiy ijodda ustozlari isfarali Mir Xudoyor va shoir Muhiiy bo‘lgan. Muhiiy haj safariga ketganda, Abdurazzoq Biymiy bosh dabir bo‘lib turadi. Nasriddinbekning:

Ey mahvashi jon gudoz xunrez

Chashm qadamiga dur guhar rez

matla‘li g‘azal keltirilgan.

“Yana bir andijonlik shoir Pirmqori bo‘lib, uning ismi taxallus qilib olingani, mullo Ibrohim o‘g‘li ekani aytiladi. Bayozlarda ko‘p navhali g‘azal, muxammaslari uchrashi qayd etiladi. “Tavorixi xamsai sharqiy” kitobining muallifi Chugachukli (Sharqiy Turkiston) imom Mulla Qurbonali hoji Xolid o‘g‘li kitobining 638 betida Chugachuk masjidiga imom bo‘lmish kishilarni qator ko‘rsatganda shoir Pirmqori nomi ham aytilgani haqida ma‘lumot beriladi. Shu ma‘lumotlarga asosan 1904-yilda Chugachukda imom bo‘lgan”. Uning “Doim sani g‘aming...” deb boshlanuvchi muxammasi misol tarzida keltirilgan.

“Tazkirai Qayyumiy” asarida andijonlik navbatdagi shoir “Hayratiiy II” deb ko‘rsatilgan. “Bu kishi Shahrixon qasabasida bo‘lub, 1873 nchi yilda tug‘ilmishdur. Nomi mulla Hoshimjon domulla bo‘lub, Soleh o‘g‘lidur. Shoir

Oraziyning shogirdidir” degan ma’lumotlar berilgan [4, 592]. Shoirning otasi usta Solih boyvachcha Qosimhojidan qarzdor bo‘lib, pulni vaqtida to‘lay olmaydi, olingan yuz so‘m qarz sudxo‘r hisobida yil davomida bir yuz qirq so‘mga yetib vaziyat yanada jiddiylashadi. Qiyin holatda qolgan ota Samarqandga bosh olib ketadi. Qosimhoji esa qarz evaziga ularning hovlisini tortib oladi:

*Qarz uchun qochdi otam bir kecha,
Bizga g‘am tushdi mashaqqatdan picha.
Pulning evaziga sotildi joyimiz,
Haydatib uydan chiqardi boyimiz.
Mulla Qosim nomi boy hoji edi,
Har yiliga yuzga qirq so‘mdan yeydi.*

Bo‘lg‘usi shoir yoshligidan maktabdor amakisi mulla Jalil qo‘lida tarbiyalanadi. Mulla Jalil Shahrixonning Namozak guzaridagi masjidda muazzin bo‘lib, maktabdorlik qilardi. Hayratiy amakisi qo‘lida xat-savod chiqaradi. Mulla Jalil zamonasining ilg‘or, ma’rifatli kishilaridan bo‘lib, shogirdlariga Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Fuzuliy kabi shoirlarning asarlarini o‘qitgan. Hayratiy 1903-yillarda ilk she’rlarini yoza boshladi.

1897-1898-yillarda shoir Muqimiy Shahrixonga keladi. Bu yerda Hayratiy va Oraziylar ustoz shoir bilan uchrashadilar. Har ikki ijodkorning shoir bo‘lib yetishuvida mavlono Muqimiy bilan ijodiy uchrashuvlarining ahamiyati katta bo‘ldi. 1904-1905-yillarda Hayratiy va Oraziy Qo‘qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro bo‘ylab safarga chiqadilar. Shahrixonga qaytib kelib adabiy to‘garak tashkil qiladilar. To‘garakka uyushgan yoshlar, ijodkorlar jamiyat voqealariga munosabatlarini bildirganlar, “Sadoi Turkiston”, “Turkiston viloyati gazetasi”, “Sho‘ro”, “Islah” kabi gazetalarni o‘qir edilar.

Tazkirada Asqarali Charxiyning Hayratiy va Oraziyning Qo‘qonga kelganliklari keltiriladi: “Shoir Oraziy bu shogirdi Hayratiyning to‘g‘risida mahorat adabiyasi juda ziyoda bir shoir ekanining istihson etib maqtagan emish. 1926 nchi yilda Oraziy ila birga Ho‘qand shahariga bir sayl munosabati ila har ikki shoir kelgan ekanlar” [4;593]. Hayratiyning tashqi ko‘rinishi ham berilgan: “Hayratiy oq po‘stli to‘laroq gavdali kishi ekan”. Shoirning bir necha vaqt sudya bo‘lib ishlagani, tazkira yozilayotgan vaqtda Hayratiy 85 yoshda ekani va adabiy faoliyatiga 60 yil to‘lishi munosabati bilan Andijonda yubileyga tayyorgarlik ko‘rilayotgani aytib o‘tilgan.

Alixon Mulla oxun o‘g‘li Oraziy (1869-1942) Andijonning Shahrixon tumanining Qashqar mahallasida kulol oilasida tug‘ilgan. Oraziy haqida P.Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: “Bu shoir Farg‘ona vodiysida Shahrixon qasabasinda 1869-yilda sopol idishlar yasovchi kulol oilasida dunyoga kelmishdir”.

Shoirning bobosi Muhammad Karim taxminan 1830/1835-yillarda Qashqardan kelib qolgan uyg‘urlardan edi [1, 12]. Tazkirada ham Qashqarni xitoyliklar bosib olgach, juda ko‘p uyg‘urlar Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelganlari va shoirning bobosi kosib kulol Muhammad Karim ham kelib qolganligi aytiladi.

P.Qayyumiyning eslashicha: “1906-yili Qo‘qonning Kabutarboz masjidida istiqomat qiladigan shahrixonli mulla Nizomiddin peshqadamroq mulla bo‘lib,

ta'bi nazmi bor ekan va she'rlarida Nozim taxallusini qo'llagan ekan. Otasi juda kambag'al bo'lgan ekan. Shu mulla boshqa bir kishiga Oraziy to'g'risida so'zlab, uning madrasai Sultonmurodga kelib edi, degan ekan" [1;13]. Ko'rinadiki, Oraziy ilm-ma'rifat izlab Qo'qonga ham borib turgan. Shoir Charxiy bergan ma'lumotda esa Oraziy Hayratiyning ustoz bo'lganligi ta'kidlanadi. Tazkirada Oraziyning 1924-yildan boshlab o'g'ullari qaramog'ida tura boshlagani ziyoli bolalarga ega ekanligidan, deb ko'rsatiladi. Shuningdek, "qalam xizmati ila ishtig'ol etgani ijodiy ishiga yordam etgani, boshqa shaharlarga ham yurgani fikrini ochilishiga yo'l bergan, boylarni zulm sitam etganlarini anglagan",-degan ma'lumotlar ham ahamiyatli. Tazkira muallifi Oraziyni revolyutsiyadan keyin shuhrati ziyodalashdi, deb yozadi.

Mahjur II haqida tazkirada Andijon atrof qasabalaridan Qo'qonqishloqdan bo'lgani, oilasi o'qimishli, olim insonlardan iborat ekani bayon qilinadi. Shoirning to'liq ismi Mulla Muhammadxon maxdum Mulla Is'hoqxon o'g'lidir. Tazkira yozilayotgan vaqtda hayot bo'lgan va taniqli shoir sifatida shuhrat topgan. San'at va adabiyot ahlidan bo'lib, badihago'y shoirdir. Shoir Charxiyning aytishiga qaraganda, Andijon teatrida suflyorlik va adabiy emakdosh vazifasida ishlagan. Uning

*Nogahon ko'rdim ko'rishdi ilk jono uchrashib
Tortishib bag'rig'a bo'ldi shoduxandon uchrashib*

matlali g'azali keltirilgan. Mahjurning yana bir

*Ko'z uchidda bir qarab kuydirsangiz ham mayliga
G'amza tig'ida meni o'ldursangiz ham mayliga*

deb boshlanuvchi g'azaliga Firoqiy muxammas bog'lagan.

"Tazkirai Qayyumiy"dagi so'nggi andijonlik shoir Habibiy bo'lib, Andijonning Qo'qonqishlog'idanligi, ismi Mulla Muhammad Zokir Xolmuhammad o'g'li ekani aytiladi. Habibiyning Toshkentda yashayotgani, Sobir Abdulla, Kamtar kabi shoirlar qatorida ijod qilayotgani haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, uning "Ko'ngil taronalari" nomli she'rlar to'plami nashr qilinib, xalqqa manzur bo'lgani ta'kidlanadi. Shoirning:

*Sahnada gulgun yonib bir qaddi mavzun o'ynadi,
Bilmadim ko'z tindi yo ko'kdan tushib kun o'ynadi*

g'azali hamda

*Chaman chaman ochilib toza keng fazo chamanim
Bo'lubsan o'zgacha xushbaxra xush havo chamanim*

shuningdek "hushyor bo'l" radifli g'azali va bir ruboiysi berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Po'lotjon domulla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asarida keltirilgan 13 ta andijonlik shoirlar yoki Andijon shahriga kelib qolib, shu yerda yashab ijod qilgan qalam sohiblari Andijon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shganlar. Bu adabiy muhitda ko'plab shoir, fozil, musiqa ustalari, san'at namoyandalari yetishib chiqqanlar. Tazkiradagi andijonlik shoirlar haqida maqola, tafsilotlar, adiblar ijodidan namunalar Andijon adabiy muhiti mavzusini o'rganishda qimmatli manba bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Раззоков Х. Оразий. – Т., АС, 1959. – 55 б.

2. Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. I жилд. – Т., 1998. – 246 б.
3. Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. II жилд. – Т., 1998. – 469 б.
4. Қаюмий П. Тазкирайи Қаюмий. III жилд. – Т., 1998. – 714 б.

**TABIBIYNING “MAJMUAI SI SHUAROI PAYRAVI FERUZSHOHIIY”
FAZLIYNING “MAJMUAI SHOIRON” TAZKIRALARI: IJODIY
MUSHTARAKLIK VA O‘ZIGA XOSLIK**

**Salomat MATKARIMOVA,
UrDU dotsenti, f.f.n.
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Tabibiyning “Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy” hamda Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkiralarda mushtaraklik va o‘ziga xoslik tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: kompozitsion tuzilishi, material tanlash prinsiplari, tazkira, orginallik, Tabibiy, Fazliy.

Аннотация:

В этой статье анализируется сходства и своеобразие между тазкиры «Маджмуаи си шуаро пайрави Фирузшахий» Табиби и «Маджмуаи шоирон» Фазли.

Ключевые слова: композиция, принципы подборке материалов, сходства, своеобразие, тазкире, Табиби, Фазли.

Annotation:

In this article analyzed the similarities and originality between the tezkira “Majmuai si shuaro payrawi Firuzshahiy” by Tabibi and “Majmuai shoiron” by Fazli.

Key words: composition, principles of selection of materials, similarities, originality, tezkire, Tabibi, Fazli.

Ahmad Tabibiy va Fazliy tazkiralari o‘zbek tazkirachiligining mumtoz namunalari bo‘lib, ularning o‘zaro mushtarak va farqli jihatlari, tipologik xususiyatlari, ayniqsa takroriylikdagi betakrorlik adabiyotshunoslikda katta qiziqish uyg‘otib keladi. Bu xususda adabiyotshunos G‘.Karimov shunday yozgan edi: “Muhammad Rahimxonni Soniy XX asr boshlarida saroy shoiri Ahmad Tabibiyga tazkira – “Majmua” tuzishni buyurdi, bu “Majmua”ni XIX asr boshlarida Umarxon hukmronligi davrida Qo‘qonda tuzilgan “Majmua” prinsiplari asosida tartibga solib, unda saroy atrofidagi shoirlarning asarlaridan ma’lum usulda namunalar berishni topshirdi.

Tabibiy kompozitsion tuzilishi, material tanlash prinsiplari, ularni joylashtirish usullari jihatidan Qo‘qon “Majmua”sini namuna qilib olgani holda Xorazm “Majmua”sini tuzib chiqdi” [5, 71]. Garchi biror manbada, na Tabibiy tazkiralarda, na Bayoniyning “Shajarai xorazmshohiy” asarida Tabibiy aynan

Qo‘qon “Majmua”sini namuna qilib olgani holda “Majmua” tuzganligi haqida ma‘lumot uchramasa-da, bu ikkala tazkira o‘rtasidagi o‘zaro mushtarak jihatlar Tabibiyning mazkur tazkira bilan tanish bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har bir tazkira mavjud an‘anaga yondashuvdagi o‘ziga xosligi, muayyan adabiy muhitning yetakchi xususiyatlari, badiiy ijod rivojining darajasi, ijod ahlining mavzu va janrlarga munosabati, shaxsiy salohiyatlari kabi masalalarni aks ettirishdagi o‘zgachaligi bilan betakrordir. Lekin bu hol tazkiralarga xos umumiy jihatlarni inkor etmaydi. Bular tazkiralarning qiyosida yanada oydinlashadi. Avvalo, har ikkalasi ham asar muallifiga zamondosh shoirlar hayoti va ijodidan bahs etuvchi tazkiralarning tipiga kiradi. Agar Tabibiy o‘zi bevosita tanish va birga bir saroyda xizmat qilgan, yagona adabiy muhitda yashab “qalam raxshini surayotgan nazmkeshlar” haqida so‘z yuritsa, “Majmuai shoiron”ning Fazliy yetakchiligidagi mualliflar jamoasi ham o‘z muosirlari haqida she‘riy fiqrlar bitadilar. Shuningdek, ushbu tazkiralarning muayyan bir jug‘rofiy muhitda yashab ijod qilayotgan nazm ahli haqida ma‘lumotlar beradi, ya‘ni Tabibiy tazkirasida Xorazmda umrguzaronlik qilayotgan shoirlar, “Majmuai shoiron”da Qo‘qonda istiqomat etuvchi shoirlar zikr etiladi.

Ikkala tazkira ham bevosita xon saroyi bilan bog‘langan, ularning yaratilishiga ham aynan hukmdor xohish-istagi va farmoni sabab bo‘lgan, ular saroydagi mushoira bayoniga o‘xshab ketadi. Tabibiyda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II qoshida hozir bo‘lgan shoirlarning shoh g‘azallariga payravlik qilib bitgan ash‘orlarini o‘qisak, “Majmuai shoiron”da Qo‘qon xoni Umarxon – Amiriya bag‘ishlangan qasidalar va g‘azallariga yozilgan payravlarni ko‘ramiz. Masalan, Tabibiy „Majmuai si shuaro...“sida yozilishicha, Feruz o‘z g‘azalini shoirlar e‘tiboriga havola qilgach, ular o‘z iqtidori darajasida bir-biridan o‘tkazib payravlar bita boshlaganlar:

*Chu Sultoniy – shahzodai komron,
Ko‘rub bu g‘azalni, bo‘lib shodmon.
Fasohat, balog‘at ila so‘z ochib,
Jahon ahliga dur-u gavhar sochib.
Bu ash‘orni aylamishdur raqam,
Bo‘lib payravi shohi gardunhasham [6, 37].*

Bu jihatdan „Majmuai si shuaro...“ xuddi bir badiiy asar kabi o‘qiladi. Kitobxon o‘zini xon saroyidagi qizg‘in o‘tayotgan she‘r bahsi – dilbar anjumanga tushgandek his qiladi.

“Majmuai shoiron”da ham shu holatning guvohi bo‘lamiz. Fazliy yozadi:

*Bo iqboli sultoni olijanob,
Ba donish Falotuni hikmatmaob.
Ba dargohi o‘zumrai fozilon,
Ba madhi-sanoyash baham tarjimon.
Buvad har g‘azal zodai tab‘i shoh,
Tatabbu‘ namoyand beishtiboh.
Shunidand in yak g‘azal az Amir,
Shudand payrav on xayli farmonpazir [3, 431].*

Bu mushoirada turli ijtimoiy guruh vakillari – shoh va shahzodalar, vazir va saroy amaldorlari, shahar hokimi, madrasa mudarrislari, munshiy, sipohiy talaba va boshqalarni uchratishimiz mumkin.

„Majmuai si shuaro...“ tuzilish jihatdan ham Fazliy tazkirasiga yaqin turadi: she'riy debocha, asosiy qism va xotimadan iborat. Ikkala asar debochasi ham xuddi ko'pchilik mumtoz adabiyot namunalari kabi hamd va na't bilan boshlanadi.

Har ikkala tazkira „Majmuai si shuaro...“ debochasida ham hukmdor madhiga alohida o'rin ajratiladi. Tabibiy „Majmuai si shuaro...“ debochasida ulusdan yodgor qolg'uchi so'z ekanligini uqtirib, shunday yozadi:

*G'azal aytmoqni shior aylali,
Jahonda ulug' yodgor aylali [6, 9].*

Tazkira xotimasida asl maqsadga ko'chib, shoirlar nomlari va asarlaridan nishona, yodgor bo'lib qolishi uchun ushbu asarga qo'l urganligini qayd etadi:

*Debon barcha fazl ahli ash'orini,
Bayon aylabon tavri kirdorini.
Borisini yozdim marotib bila,
Hamasiga madhi munosib bila.
Ilohi, jahon mulki to bordur,
Jahon ahlidin anda osordur [6, 17].*

“Majmuai shoiron” debochasida ham poytaxtda yig'ilgan shoirlarning ash'orlari “nusxai dilfiribi jahon”da mujassam etilib, o'zlari bir-bir ta'rif etilganligi ta'kidlanadi:

*Suxanjo' har ahli irfon buvad,
Ki fayzi suxan fazli inson buvad.
Dili shoir, albatta, beshakku rayb,
Buvad maxzani ganji asrori g'ayb.
Dar in nomai nomii doston,
Kunam vasfi donishvaroni zamon [3, 6].*

Shuningdek, Fazliy qalamiga mansub she'riy fazl-ma'lumotda quyidagi baytlarni o'qiymiz:

*Bu turkiy g'azal ayladim oshkor,
Ki qolg'oy suxan ahliga yodgor [3, 297].*

Ko'rinadiki, har ikkala tazkirada shoirlar nomini tarix zarvaraqlarida qoldirish, ularning she'rlarini kelajak avlodlarga yetkazish maqsadi ko'zlanadi.

Fazliy g'azallarni o'z ichiga oluvchi asosiy qism oldidan yozgan debochasida Amiriyga bag'ishlov yozib, uning iste'dodi va ijodiy salohiyatini yuqori baholaydi:

*Gahi karda bo fathi kishvar jadal,
Gahi sayd karda g'azoli g'azal.
... Ki xohi g'azal gufta o', xoh bayt,
Buvad har yak abyoti o' shoh bayt [3, 512].*

O'z navbatida, Tabibiy ham Feruzga bag'ishlab, mazmuni va ifodalanishi jihatidan yuqorida Fazliydan keltirilgan baytlarga juda yaqin bayt bitadi:

*G'azallar g'izolini qildi shikor,
Solib fikr bozini layl-u nahor [6, 4].*

“Majmuai shoiron” debochasida tazkiraga kiritilgan shoirlarga qisqa-qisqa ta’rif-tavsif beriladi:

*Yakoyak, bigo ‘yam dar in doston,
Ki to monad az nomi eshon nishon* [3, 6].

Xuddi shu kabi Tabibiy tazkirasida ham shoirlar bir-bir ta’riflanadi:

*Batafsil alorni bayon aylasam,
Borisin chu bir-bir ayon aylasam* [6, 5].

Fazliy tazkirasining asosiy qismidan Amiriy she’rlari va ularga bitilgan tatabbu’lar o‘rin olgan bo‘lsa, Tabibiy tazkirasining asosiy qismini Feruz g‘azallari va ularga yozilgan payravlar tashkil etadi.

Har ikkala tazkiradagi namuna she’rlar arab alifbosi tartibida joylashtirilgani ularga xos umumiy jihatlardan biridir. To‘g‘ri, Qo‘qon “Majmua”sida bu tartib qasidalar tartibida saqlanmagan, ammo g‘azallar qismida qo‘llanilgan.

Tazkiralarda har bir namuna-she’rdan oldin uning muallifi haqida masnaviy yo‘lida she’riy ma’lumotlar havola etiladi. Ular aruzning mutaqoribi musammani maqsur (faulun, faulun, faulun, faul) bahrida yozilgan. Har ikkala tazkiradagi ma’lumotlar deyarli bir xil shaklda beriladi. Fazliydagı turkiy tilda bitilgan parchalar bilan Tabibiyning ba’zi masnaviylari juda o‘xshashligini kuzatamiz. Masalan, “Majmuai shoiron”da:

*Erur Foniy ul fozili hushmand,
Oning so‘zlaridur base dilpisand* [3, 405].

Tabibiy tazkiralarda:

*Erur Oqil ul fozili hushmand,
Oning so‘zlaridur base dilpisand* [6, 25].

Ijodkorlarga nisbatan “shoiri xoksor”, “shoiri shirinsuxan”, “sohibi ilm-u fan”, “shoiri bebadal”, “shoiri nuktasanj”, “fozili hushmand” kabi tashbehlarining qo‘llanilishida ham bir xillik ko‘rinadiki, yuqoridagi baytlarda buning guvohi bo‘ldik. Ayni shu misol Tabibiy tazkirasida Fazliydagı ayrim baytlar takrori uchrab turishini ko‘rsatadi. She’riy ma’lumotlarning oxirgi baytlari har ikkala tazkirada bir xil mazmunda tugallanishi, kesimning “erur” to‘liqsiz fe’li bilan ifodalanishi Tabibiyning tazkira tilini “Majmuai shoiron”ga yaqinlashtirishga harakat qilganidan dalolat beradi. Masnaviylar oxirida shoir g‘azalni payrav qilib yozganligi aytiladi. “Majmuai shoiron”da:

*Dedi bu g‘azalni o‘shal nuktadon,
Erur payravi xisravi komron* [3, 301].

Tabibiyda:

*Bo‘lub payravi xisravi komron,
Dedi bu g‘azalni hamul nuktadon* [6, 55].

Tazkiralardagi fazl-ma’lumotlar hajman turlicha. Hukmdorlar va taniqli shoirlar haqida ancha katta she’riy ma’lumotlar bitilsa, yosh qalamkashlar, ayrim shoirlar haqida kichik hajmdagi masnaviylar darj qilinadi.

Shoirlar shaxsiyati va ijodiga munosabat bildirishda ham bu tazkiralarda o‘zaro hamohang. Ularda bir shoirga ikki xil baho berish holati kuzatiladi. Masalan, “Majmuai shoiron”da Gulxaniy bir o‘rinda:

*Erur Gulxaniy ham bu darbor aro,
Suxanvar qatorida ash'or aro.
So'z ahli arosinda dono erur,
Shu bu bir g'azal ondin insho erur [3, 400], -*

deb maqtalsa, boshqa bir joyda tanqid ostiga olinadi:

*Bu Jur'atki, avval edi Gulxaniy,
Erur barcha hazyon demaklik fani.
Xayoli buzuq, diqqati beasos,
Oni fahmini qil bu so'z din qiyos.
Dedi bu g'azalni-yu qo'ydi bino,
Na ma'nisi mahkam, na lafzi bajo [3, 426].*

Shunga o'xshash holni Tabibiy tazkiralarda ham ko'rish mumkin. Avaz haqida bitilgan nazmiy fiqralar bu jihatdan xarakterlidir. Quyidagi baytda shoir ijodiy salohiyati yuqori baholanadi:

*Avazkim erur shoiri dilfirib,
Berur nazmga har nafas zany-u zeb.
Itoat tariqida mohir erur,
Dema shoir oniki, sohir erur [6, 1602].*

Deyarli barcha masnaviyalarda Avaz yaxshi sifatlar bilan ta'riflanib kelsa-da, ba'zan uning shaxs sifatidagi qiyofasi salbiy bo'yoqdor so'zlar bilan chiziladi:

*Avaz shoir o'lmoq qilib muddao,
Qavoid bilan nukta qilmas ado.
Na chorakim, yo'q ilmi hido ango,
Vale bu g'azal keldi da'vo ango [6, 1189].*

Tabibiy tazkirasida "Majmuai shoiron"ga o'xshash jihatlar ancha uchrasa-da, bu asar alohida ijod namunasi sifatida bir qator o'ziga xos farqli tomonlarga ega. Quyida biz ularni sanab o'tishni lozim topdik.

1. Tabibiy tazkirasida o'zbek tilida yozilgan bo'lib, shu tildagi she'rlarni o'z ichiga oladi. "Majmuai shoiron" esa o'zbek va tojik tillarida yozilgan va shu tillarda bitilgan asarlarni o'zida jamlaydi.

2. Fazliy tazkirasida nazm bilan birga, nasriy yo'lda bitilgan o'rinlar bor. Jumladan, xudo hamdi va na't – nasrda bitilgan, Kiromiy qasidasidan oldin shoir va mazkur qasidaning yaratilish tarixi haqida nasriy fazl-ma'lumot beriladi. Unda Umarxonning 1237 (milodiy 1821)-yili sha'bon oyi bahor paytida katta o'ltirish (ziyofat, yig'in) chaqirganligi, bu yig'inga Xorazm va Rum elchilari ham tashrif buyurganligi, Rum mamlakatidan kelgan shoir Abdulqodir Kiromiy ana shu anjumanda bir qasida o'qiganligi va u juda qizg'in ma'qullanganligi hikoya qilinadi. Tabibiy tazkirasida boshdan-oxir nazmda bitilgan.

3. Fazliy tazkirasida janrlar tarkibi rang-barang. Unda dastlab Kiromiy, Mushrif, Fazliy, Mirzo Sharif, Husayn xo'ja, Xijlat, Maxdum, Dabir, Gulxaniy, Ma'dan va boshqa shoirlarning qasidaları berilgan. Ba'zi shoirlar ijodidan 2 tadan ortiq qasida havola etiladi. Masalan, Husayn Xo'janing 3 ta, Fazliyning 7 ta, Mushrifning 4 ta qasidasi berilgan. So'ngra she'riy debocha bilan g'azallar qismi boshlanadi. Unda Amiriy g'azallari va ularga bog'langan tatabbu'lar o'rin olgan. So'ngra Amiriyning 5 ta muxammasidan keyin uning bitta turkiy va fors-tojik

tilida bitilgan gʻazaliga Nola muxammaslari, Ado, Mushrif, Fazliy taxmislari, yana bir fors-tojik tilidagi gʻazaliga Maʼyus, boshqa gʻazallariga Asad, Nusrat, Husayn Xoʻja, Behjat, Mushrif, Vazir, Fazliyning bogʻlagan taxmislari, Xotif va Hoziqning muxammasi qasidalari, Husaynbek amirzoda, Dabir musaddasi, Fazliy tarʼjebandi, Saidgʻozi toʻra, Dabir mustazodlari, ruboiy, muammo va taʼrixlar darj etiladi. Shu oʻrinda yana bir narsani qayd etib oʻtish lozimki, “Majmuai shoiron”da bir mavzuda bir shoir musaddas bitsa, boshqasi tarʼjeband yozgan. Masalan, “Davri bizning davrimizdur, on bizingdur onimiz” musaddaslari Husaynbek amirzoda va Dabir qalamiga mansub boʻlsa, Fazliy tarʼjebandida ham aynan shu bayt takrorini koʻramiz. Fazliy tazkirasida nafaqat Amiriy gʻazallari va ularga tatabbuʼlar, balki unga kiritilgan shoirlarning bir-birlari sheʼrlariga bogʻlagan taxmislari, ruboiy, taʼrix va mushoiralaridan ham namunalar beriladi. Shuningdek, unda shoirlarni joylashtirish va ashʼorlarni keltirishda qatʼiy tartib, izchillik kuzatilmaydi. Turli janrga mansub asarlar aralash holda berilganki, bu hol tazkiranavisning namuna-sheʼrlarni mavzusiga koʻra joylashtirgani bilan izohlanadi. Shuningdek, tazkiraga kiritilgan shoirlar Amiriyning ayni kitobda berilgan barcha sheʼrlariga tatabbuʼ yozmagan koʻrinadilar. Chunonchi, “Majmuai shoiron”da 80 dan ortiq shoir zikr etilgani holda, xonning “xino” radifli gʻazaliga Vazir, Vahshiy, Gulxaniy, Mahzun – forscha, Ramziy, Mahmud Zohid, Mushfiqiy, Foniyy – turkiy, Ado, Nola, Xotif, Xijrat, Afsus, Mushrif, Behjat, Koshif, Fazliy – ham forsiy, ham turkiy tilda – jami 20 nafar shoir tatabbuʼlari berilgan. Tabibiy tazkirasida esa faqat bir janr asarlari – gʻazallar va ularning mualliflaridan bahs qiladi. Unda “Majmuai shoiron”dagi kabi bir gʻazalga ikki tildagi payrav uchramaydi. Unda tilga olingan shoirlarning har birining Feruzdan keltirilgan barcha gʻazallarga payravlari mujassam. Shoirlar haqidagi maʼlumotlar va asarlaridan namunalar ham qatʼiy tartibda joylashtirilgan.

4. «Majmuai shoiron»da zikr qilinganlarning hammasi ham professional shoir boʻlmagan, balki koʻpchiligi shoirlikni oʻziga qoʻshimcha kasb deb bilgan kishilardir [1, 13]. Tabibiy tazkirasida qalamga olinganlarning barchasi sohibi devon shoirlardir. Ularning sheʼrlari oʻz davrida tuzilgan “Bayozi musaddasot”, “Bayozi muxammasot”, “Bayozi ashʼor” va boshqa turdagi bayozlarga kiritilgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda bayozchilikning keng tarqalgani va koʻplab bayozlar tuzilganini hisobga olsak, tazkiradagi shoirlarning qay darajada professionallik kasb etganligi oydinlashadi. Masalan, Muhammad Yusuf Chokar oʻz sheʼrlari bilan 40ta qoʻlyozma bayozda ishtirok etgan. Shunday boʻlsa-da, biz qalamkashlarning barchasi professional shoir boʻlgan degan fikrdan yiroqmiz. Chunki baʼzilarining ijodi yetarli darajada oʻrganilmaganligi uchun ular ijodining yoʻnalishi va ahamiyati toʻgʻrisida qatʼiy xulosa chiqarish mushkul. Ammo ularning koʻpchiligi oʻzbek adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan, adabiyotimiz xazinasini yaxshi asarlar bilan boyita olgan shoirlardir.

5. Fazliy tazkirasida Uvaysiy, Mehrubon, Mahzuna kabi shoirlar ham hurmat va samimiyat bilan tilga olinadi. Masalan, unda Fazliyning Mahzuna bilan mushoirasi haqida maʼlumotlarni, Mahzunaning “Nayam az davri charxi vojgun begonai sahbo” deb boshlanadigan tojik tilidagi gʻazalini oʻqish mumkin. Ammo Tabibiy tazkirasida bu hol kuzatilmaydi. Garchi shu davrda Xorazm adabiy hayotida Xonimjon xalifa Saidamad qizi(1858-1926) ancha faol ishtirok etgan

bo'lsa-da, uning yo'nalishi o'zgacha, ya'ni xalfalik bo'lgan. Tabibiy tazkirasida shoirlar uchramasligi ayni davrda saroydagi she'riy anjumanlar bilan bog'langan, Feruzga hamohang she'rlar yozgan shoirlar bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

6. Qo'qon "Majmua"sining Mushrif Isfaroniy qalamiga mansub debochasida shoirlar 3 guruhga ajratiladi. 1-guruhga hamisha shoh majlisida hozir bo'luvchi ulug'lar, komil, poka'tiqod shoirlar kiritiladi:

*Guruhi buzurgoni olimaqom,
Ki hastand dar majlisi shah mudom.
Haqoyiqshiron-u nek-u xisol,
Maorifshinoson-u sohibkamol.
Hidoyatnigahon-u olinajod,
Sutuda azizon-u pok e'tiqod [3, 6].*

Bu guruhga mansub bo'lgan shoirlar "Sarafrozi sodot" ("Saidlar ulug'I") Maxdumi A'zam Xo'ja Kalon, Said Ahror avlodlaridan bo'lgan, suxan bog'ining xushnavo bulbuli Ado, Xo'jai Komkor va boshqalar "mulki ma'niyda sulton", "so'zi kashfi savti karomat", deb ta'riflanadi.

Ikkinchi guruhga Xudo hamdi bilan mashg'ul, zarifi haqiqat nuktajo'ylar kiritiladi:

*Xujasta guruhi maloik misol,
Ki dorand bo hamdi Haq ishtig'ol.
Zarifi haqiqat hama nuktajo'y,
Zi ilmul yaqin jumla asrorgo'y [3, 6].*

Shayxulislom, Mavlaviy kabi ushbu guruhga kiruvchi shoirlar alohida hurmat-ehtirom bilan tilga olinadi, masnaviy olamining yagonalari (Hama fard dar olami masnaviy) sifatida e'tirof etiladi.

Uchinchi guruhni amir ehsonidan umidvor, uning qoshida doimo farmonpazir, sohibi kamol shoirlar tashkil etadi:

*Guruhi digar zumrai shiron,
Buvad har yake zufununi zamon.
Ba fazl-u hunar jumla komil iyor,
Ki har yak buvad zudai ro'zgor.
Tavorixdononi sohibkamol,
Muammoshikofoni rangin xayol.
Hama bar dari shoh farmonpazir,
Namakxo'ri xoni atoi amir [3, 7].*

Tabibiyda esa shoirlarni bunday guruhlarga ajratish kuzatilmaydi.

7. Tazkiralarga kiritilgan namuna-she'rlarning berilishi jihatidan ular o'zaro farqlanadi. "Majmuai shiron"da "Shoirlar ijodidan namuna sifatida kiritilgan qasida, g'azal, muxammas va boshqa janrdagi asarlar tazkira tuzuvchi mualliflarning badiiy didi asosida tanlangan bo'lib, ularning ko'pchiligi asarning umumiy ruhiga mos tushadi" [7,181]. Tabibiy tazkiralarni tahlil qilish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, u Feruz she'rlarini tanlab kiritmagan. Chunonchi, Bayoniy yozadi: "Xon hazratlari o'z g'azallaridan yuz g'azalni shoirlarg'a berib buyurdilar: "Munga payravlik etib g'azal bitinglar". Shoirlarning har biri onga payravlik etib, yuz g'azal ayttilar" [2, 500^a]. Bundan ko'rinadiki, Tabibiy

Feruzning o‘zi tanlab bergan g‘azallarni va unga bitilgan payravlarni kitobda jamlagan. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, Tabibiyda tatabbu‘larni tanlash imkoniyati bo‘lgan. Agar „Majmuai si shuaro...“ debochasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Tabibiyga tazkira tuzishni topshirar ekan, xon shunday ko‘rsatma beradi:

*Qay-u shoirikim demish kam g‘azal,
Oni bitma bu nuxag‘a bu mahal.
Kim onlarni yozsang so‘z o‘lg‘ay tavil,
Tavil o‘lsa so‘z bo‘lmog‘usi jamil [6, 4].*

Bu esa Tabibiyga payrav g‘azallarni tanlash imkoniyatini bergan. Tazkiranavis payravlarni yig‘ish barobarida ularni ma‘lum darajada saralab, tatabbu‘ talablariga u yoki bu darajada javob beradiganlarini „Majmuai si shuaro...“ga kiritgan.

8. „Majmuai shoiron“da namuna-she‘rlar mavzu jihatdan ajratilmagan. Tabibiy „Majmuai si shuaro...“sida g‘azallar mavzusiga ko‘ra tasnif qilinganligini ko‘ramiz. „Xorazm “Majmuai”sida g‘azallarni tematikasiga qarab klassifikatsiya qilish va shu asosda ularga sarlavhalar qo‘yishga („Sallamno g‘azallari“, „Munojot“ g‘azali) intilish ko‘zga tashlanadi,-deb yozadi B.Valixo‘jayev [7, 21]. Tazkiranavis g‘azallarni guruhlashtirib, quyidagicha sarlavhalar ostida beradi:

1. Hamd g‘azallar. 2. Munojot g‘azallar. 3. Na‘t g‘azallar. 4. Sallamno g‘azallar.

So‘ngra garchi sarlavhaga olib chiqilmagan bo‘lsa-da, oshiqona g‘azallarni joylashtirgan. Shu o‘rinda yana bir e‘tiborli holatni qayd etib o‘tish lozimki, Tabibiy „Majmuai si shuaro...“sida she‘riyatimizda juda kam qo‘llangan o‘lchovlardan biri 16 ruknli muta‘qoribi aslam vaznida bitilgan g‘azallar mavjud. A.Hojjahmedov «O‘zbek aruzi lug‘ati» kitobida «She‘riyatimizda ushbu vazn asosida ikki g‘azal bitilgan bo‘lib, ular Ogahiy va Furqat qalamlariga mansubdir» [4, 101] deyiladi. Vaholanki, bu vaznda Xorazm shoirlarining barchasi o‘z qalamlarini sinab ko‘rganlar. Ular Feruzning quyida sabt etilgan g‘azaliga baholi qudrat tatabbu‘ bitganlar:

*O‘lmakka yetdim hijron g‘amidin, holimg‘a rahm et, ey sarviqomat,
Qadding niholi bodi xazondin bo‘lsun, iloho, doim salomat [6, 260].*

Bundan ko‘rinadiki, Tabibiy tazkirasida adabiy manba sifatida ham alohida qimmatga ega. Xususan, o‘zbek she‘riyati taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

9. «Majmuai shoiron»da «ba tab‘i shoh» – shohning didiga mos keladigan asarlar yozgan shoirlar (Fazliy, Mushrif, Ado, Xijlat va boshqalar) tahsin-u maqtovlarga sazovor bo‘lsa, xalqning og‘ir hayotini tasvirlab, o‘z zamonasiga norozilik bildirgan qalamkashlar ochiqdan-ochiq qoralanadi, turli yo‘llar bilan kamsitiladi. Masalan, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar «xayoli buzuq», «diqqati beasos», (Gulxaniy), «Hichogo‘i g‘aybat qalb oshnost, nayoyad zi af‘oli o‘ g‘ayri bad. Buvad harchi qavli nomo‘tamad» (hajvgo‘yligi g‘iybat, qiladigan ishi yomonlik, barcha so‘ziga ishonib bo‘lmaydi), ko‘sa (Maxmur haqida) deb ta‘riflanadi. Xorazm „Majmuai si shuaro...“sida birorta shoir shaxsiyatiga nisbatan bunday so‘zlar qo‘llanilgan emas. Avaz, Kamoliy, Rog‘ib, Mutrib Xonaxarob kabi shoirlarga nisbatan tanqidiy munosabat uchrasa-da, bu faqat uning ijodiga tegishli

va asosli, uni inson sifatida kamsitishga intilish yo‘q. Vaholanki, uning she‘rlarida ham shoh va saroy manfaatlariga mos kelmaydigan o‘rinlar talaygina.

10. Tazkiralarda tarkibiy tuzilishida ham ayrim farqlar mavjud. «Majmuai shoiron» ning ayrim nusxalari ikki qismdan iborat bo‘lib, bir qismi Mushrif qalamiga mansub debocha bilan boshlanadi va qasidalarni o‘zida jamlaydi. Ikkinchi qismi Fazliyning she‘riy debochasi bilan ochilib, asosan, g‘azallar, shuningdek, boshqa janrlardagi asarlar – muxammas, ruboiy, ta‘rix, muammolarni o‘z ichiga oladi. Xususan, O‘zR FA ShI da inv № 9914 raqami bilan saqlanadigan qo‘lyozma xotima o‘rnida kitob tugallangan sana haqidagi Fazliy ta‘rixi bilan yakunlangan. Tabiiy tazkirasida esa she‘riy debocha, g‘azallarni o‘z ichiga oluvchi asosiy qism hamda xotima masnaviydan iborat.

Shu o‘rinda “Majmuai shoiron”da Mushrif debochasidan so‘ng nasriy tarzda Xudo hamdi, na‘ti rasuli akram, alqobi chahoryori bosifo darj etilib, Fazliy va Mushriflarning bahri tavilda Amir Umarxonga bag‘ishlab yozilgan madhiyalari berilganligini qayd etib o‘tmoq joiz. Asarda shunday yoziladi: “In bahri tavili digar ast, ki Mirzoyi Mushrif dar madhi Amir al-muslimiyn Said Umar Shahriyor tartib doda xaladallohu muluka va sultona” [3, 12]. Xorazm „Majmuai si shuaro...“sida bunday mustaqil asar darajasidagi hamd, na‘t, madhiya berilmagan, debochadagi madh-u sano bilan kifoyalangan.

11. «Majmuai shoiron» Fazliy rahbarligidagi mualliflar jamoasi tomonidan tartib berilgan. Xotimada shunday baytlarni o‘qiydiz:

*Manam yak tan az jome‘i in kitob
Ki dorad dar in asr Fazliy xitob* [3, 196].

Bunda Fazliy o‘zining bu kitobning to‘plovchilaridan biri ekanligini ma‘lum qiladi. Shunday bo‘lsa-da, adabiyotshunoslikda “Majmuai shoiron” Fazliy Namangoniyga nisbat beriladi. Tazkiraning debochasi, Umarxon [3, 413], Nola haqidagi [3, 216] she‘riy ma‘lumotlar esa Mirza Qalandar Mushrif Isfaroniy qalamiga mansub. Debochada shunday yozadi:

*Manam Mushrif az jumlai in zamon,
Ki shud andar-in nusxa yak-yak ayon.
Bo in nusxai dilfiribi jahon,
Buvad nomi «Majmuai shoiron»* [3, 19].
*Topib zohid atvoridan ishtiboh,
Bu turkiy g‘azalni raqam qildi shoh.
... Qay-u til bila vasfin aylay bayon,
Hama yer so‘zi ondin erur osmon* [3, 502].
*Qilib masnaviy Mushrifi notavon,
Kamolini etti bu yerda bayon* [3, 174].

Shuningdek, ayrim lavha-ma‘lumotlar (Umarxon [3, 392] va Hoziq haqidagi [3, 2]) Xotif Xo‘jandiy tomonidan yozilganki, bu ham tazkirada o‘z ifodasini topgan. Masalan, Xotif shoir Junaydullo Hoziqning qasidasidan oldin uni olqishlab masnaviy bitarkan, sabt etilajak qasidada u shunchalik qudrat ko‘rguzdiki, bu ro‘zgorning andishalaridan ham ko‘proqdir, deb Hoziqni tahsin-u ofarinlarga munosib donishmand ijodkor sifatida e‘tirof etadi [3, 92].

Yuqoridagi misollardan ravshan bo‘ladiki, „Majmuai shoiron“ jamoaviy ijod mahsuli. „Majmuai si shuaro...“ni esa Tabibiyning yolg‘iz o‘zi tuzgan.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, „Majmuai shoiron“da amir Umarxon hukmronligi davridagi Qo‘qon adabiy muhiti yoritib berilsa, Tabibiyning „Majmuai si shuaro...“sida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti hamda shu davrda ijod etgan shoirlar haqida qimmatli ma‘lumotlar beriladi. Shuning uchun ham bu tazkiralar alohida adabiy-tarixiy qimmatga ega bo‘lgan yirik asarlar sifatida adabiyotshunosligimizda e‘tiborli o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. K.2.– T.: O‘zdavnashr, 1978.
2. Bayoniy M.Y. Shajarai Xorazmshohiy. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma, inv. №9596.
3. Fazliy. Majmuai shoiron. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma, inv. №9914.
4. Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ti. – T.: „Sharq“, 1998.
5. Karimov G‘. O‘zbek adabiyoti. –T.: „O‘qituvchi“, 1972.
6. Tabibiy Ahmad. Majmuai si shuaro payravi Feruzshohiy. O‘zR FA SHI. Qo‘lyozma, inv. №1152.
7. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixidan. – T.: „O‘zbekiston“, 1993.

AMIRIYNING HAMD G‘AZALI SHARHI

**Mo‘minjon SIDDIQOV,
Qo‘qon DPI dotsenti, Turon FA akademigi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amiriyning bir hamd g‘azali xususida so‘z boradi. Undagi baytlar tegishli manbalar asosida sharh qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, hamd, islom, ruhoniy ilm, tarix, ma‘rifat, payg‘ambarlar, mo‘jizalar, talmeh,

Аннотация

В данное статье речь идёт о хамд-газели Умархана Амири. В статье рассматривается жизни пророков Ислама.

Ключевые слова. газел, хамд (похвал), ислам, история, жизнь пророков, талмех (ономастика ва стихотворенье)

Annotation

This article deals with the a praise ghazal of Amiri. The bytes in it are interpreted on the basis of relevant sources.

Key words: ghazal, praise, islam, clerical science, history, enlightenment, prophets, miracles, talmeh,

Keyingi davrlarda jamiyat hayotining hamma jabhalarida Uchinchi Renesans boshlanib, bardavom bo‘layotganligi haqida gapirilmoqda. Bu, darhaqiqat, to‘g‘ri. Zeroki jamiyatning biror bir jabhasi yo‘qki, u yerda tom ma‘nodagi o‘zgarish, yuksalish bo‘lmasin – hamma sohada tub islohotlar yuz bermoqda. Jumladan, adabiyotshunoslikda ham bu jarayonga mustaqillikning dastlabki yillaridan kirishilgan. O‘tgan uzoq yillik tizim davrida nashrda cheklov bo‘lgan kitoblar

qayta-qayta chop qilindi, qisqartirib bosilgan asarlar to'lig'icha havola etildi, diniy-ma'rifiy asarlar arab va fors-tojik tillaridan tarjima qilinib, ularga sharhlar bitildi. Xullas, o'tgan yillar mobaynida adabiyot tarixi va uni tadqiq qilishda ham tub evrilish yuzaga keldi. Endigi vazifa ularni omma orasida keng targ'ib qilish, eskirgan tadqiq yo'llaridan voz kecharoq, yangicha yo'nalish hamda mazmundagi tadqiqot usullarini ishlab chiqish, bir qator asarlarni baholashda ayrim qo'rquv saltanati vajhidan "tortinib aytilmagan" o'rinlar haqida ham baralla so'z yuritishdan iborat bo'lmog'i kerak. Ayniqsa, devon adabiyotidagi hamd, na't mazmunidagi she'rlar, saroy adabiyotidagi madhlar xususida bo'ladigan tadqiqotlar zudtar amalga oshirilmog'i darkor.

Ayni shu ma'noda Qo'qon adabiy muhitining asoschisi va rahnamosi bo'lgan Umarxon Amiriy she'riyati haqida mazkur bo'lgan fikrlarni aytish maqsadga muvofiqdir. Shoirning A.Madaminov, Z.Qobilova, E.Ochilov, O.Davlatovlar tomonidan tabdil etilib, chop qilingan o'zbekcha devonining dastlabki g'azali hamd mazmunida bo'lib, uni devondagi g'azallar, muxammaslar va boshqa janrlardagi she'rlar uchun bir andoza sifatida qabul qilish o'rinli bo'ladi. Negaki, ushbu she'r agiografik asar¹⁸ singari Islom tarixi, payg'ambarlar mo'jizalari haqida muxtasar ma'lumotlar berishi, muqaddas kalomdan iqtiboslar va aqdlar¹⁹ keltirilishi bilan e'tiborga molikdir. Hamd mazmunidagi ushbu she'r g'azal qurilishi shaklida. Hajmi 21 bayt. "Alif" harfiga yozilgan. Radifsiz. Hazaj bahrida. G'azalning matla' bayti bunday:

Avval ba nomi Xoliqul zuljudi val-ato,
Bir musht xoki tiyradin Odam qilur bino [1, 30].

Matla'da saxovat va ato sohibi bo'lgan Yaratuvchi ulug' zot bir hovuch qora tuproqdan Odamni bino qildi, deydi shoir. "Payg'ambarlar tarixi" atalmish ko'plab kitoblarda "tiyra xok" birikmasi "qora balchiq" deb talqin qilinadi [4].

Odam sahifasin raqam aylardi xomasi,
Tavqini chekdi "kof" ila "nun" ibtido [1,30].

Yaratuvchining qalami Odam vujudi, ruhi va hayotini belgilar ekan, Olamdagi boriki narsalarni "Kun!", ya'ni "Yaral!" amri bilan yaratib, ularni inson manfaatiga hukm qildi. Shu o'rinda hazrat Navoiyning "Hayrat ul-abror"ida kelgan quyidagi baytni eslash kifoya:

Ganjing aro naqd farovon edi.
Lek boridin g'araz inson edi. [3, 15]

Ya'ni: Sening xazinangda bunday boyliklar juda ko'p edi. Lekin ularning barchasini yaratishdan kuzatilgan asosiy maqsad inson edi.

Bundan keyingi baytlar bir nechta payg'ambarlar nomini keltirish, ularning amallari va ato etilgan mo'jizalarini eslash mazmunida bo'lib, avvalda Nuh (a.s.) tilga olinadi. Zero islomiyat tarixida Nuh (a.s.) ikkinchi Odam Ato sifatida ulug'lanadi:

Tufon suyidin ayladi Nuh ahlini xalos,
Qildi halok qavmini g'arqaboyi balo. [I, 30]

¹⁸ Агиографик асар – дин тарихи, пайғамбарлар ҳаёти ва фаолияти ҳақида маълумот берувчи асар.

¹⁹ Иқтибос ва ақд – тасвирий восита бўлиб, бадиий асарда Қуръони карим ва ҳадиси шарифлардан олинган парчалар.

Mazmuni: Yaratganning o‘zi Nuh (a.s.) qavmini To‘fon suvidan saqlab qoldi. Ammo Islomni qabul qilmaganlarni bu baloda g‘arq qildi. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo”da ushbuni quyidagicha sharhlaydi: “...aning zamonida olam xaloyiqi butparast bo‘lub erdilar. To‘quz yuz ellik yil elni o‘z diniga da‘vat qildi. Sekson kishidan ortiq qabul qilmadilar. Kufforidin anga izolar tegar erdi. Ul so‘z aytsa, eshitmoli deb quloqlarin tutar edilar. Haddin o‘tkondan so‘ng, Nuh (a.s.) duo qildi: “Rabbi lo tazar alal arziminal kafirina dayyoro” (“Parvardigorim, Yer yuzida kofirlardan biror hovli-joy egasini qoldirmagin”).²⁰ Ana shundan keyin Yer yuzini to‘fon bosgan. Nuh (a.s.) sakson kishi va uch o‘g‘li, Jabroyil (a.s.) keltirgan urug‘ni yerga ekib, daraxt bo‘lguncha kutib, undan yasagan kemaga olingan vuhushlar bilan to‘fondan tirik qolgan (darvoqe, kemaga turli daraxt va o‘simliklar urug‘idan ham olgan). Afsuski, kemadagi sakson kishi ham keyinchalik vafot etgan. Rivoyatlarga ko‘ra, bugungi bashar Nuh (a.s.)ning uch zurriyodi Yofas, Som va Xomdan tarqalgan.

She‘rning uchinchi baytida Iso (a.s.) va Idris (a.s.) nomlari talmeh qilinadi:

Isoni charx uzra rafi’ makon etib,
Idrisni maqomi bo‘lub jannati ulo.

Mazmuni: Iso (a.s.) ga aylanuvchi ko‘kni makon qildi, ya’ni bu zoti bobarakot tirik hoida Arshga chiqarilgan. Vaqtiki kelib, U ham zaminga tushadi. Iso (a.s.) - bashariyat tarixida yashab o‘tgan payg‘ambarlardan biri; Iso Ruhilloh, Iso Masih, Iso binti Maryam nomlari bilan yuritilgan. Uning qo‘li tekkan – silagan o‘likka jon kirar ekan. Shuning uchun bu zot al-masih – silovchi nomini olgan.

Idris (a.s.)ga esa jannatdan joy berdi. “Ham sha’r ahli qoshida, ham tarix ahli olida aqida budurkim, ul tirikdur va bihishtdadurkim, kalomi olihi ondin xabar berurkim: “Varafa’nohu makonan aliyyan” (“Va biz uni yuksak martabaga ko‘tardik”)²¹ Aytishlaricha, Idris (a.s.) Jabroyil (a.s.) vositasida bir muddatga jannatga kirgan. Keyin Alloh amri bilan jannatdan chiqmagan.

Galdagi baytda Ibrohim (a.s.), Namrudi la’in tomonidan unga qilingan zulmga ishora qilinadi:

O‘tni Xalil maqdamidin guliston qilib,
Namrudga yubordi yarim pashshadin jazo [I,30].

Mazkur bayt mazmunida Ibrohim (a.s.)ni Namrudi la’in tomonidan olovga otilishi, Alloh qudrati bilan bu ulkan olov bir gulistonga aylanganligi, Namrudning kufr ishlari va alal oqibat Alloh tomonidan jazolanishiga ishoralar bor. Bularning dalili ham “Tarixi anbiyo va hukamo”da kelgan: kitobda bitilishicha, munajjimlar fir’avn Namrudning qotili bir o‘g‘il bola bo‘lishi bashorat qilgach, u tug‘iladigan barcha o‘g‘il bolalarni o‘ldirish haqida farmon beradi. Kitobda yozilishicha, “ba’zi etmish ming, ba’zi yuz ming tifl (bola)ni debdurlarkim, ul shumning hukmi bilan o‘lturdilar” [2, 548]. Biroq Ibrohim (a.s.)ni bir g‘orga berkitib asrab qoladilar. Ibrohim (a.s.) voyaga etgach, Namrudning butlarini sindirib, eng kattasining bo‘yniga boltani ilib qo‘yadi. Bu Ibrohim (a.s.)ning ishi ekanini anglagan Namrud munajjimlar xabar bergan kishi ayni shu Ibrohim (a.s.) degan xulosaga keladi va

²⁰ “Нух” сураси, 26-оят.

²¹ “Марям” сураси, 57-оят.

uni olovga tashlashni buyuradi: “Ani mahbus qilib, hukm qildikim, g‘alaba o‘tun yig‘ib, o‘t soldilarkim, Ibrohim (a.s.)ni ul o‘tqa solib o‘rtagaylar. O‘tning yoqiniga kishi bora olmas erdikim, ani o‘tqa solg‘aylar. Oqibat manjaniq bila o‘t ichig‘a otilar” [2,54]. O‘shanda Jabroyil (a.s.) kelib, unga qanday yordam kerakligini so‘raydi. Ibrohim (a.s.) umidi Xudodan ekanligini aytib, uning yordamini rad etadi va Alloh taolo unga olovni bir guliston qilib qo‘yadi. Qaldirg‘ochlar uning tepasida uchib, suv purkab turadilar.

Endi o‘zini xudo deb e‘lon qilgan Namrudi la‘inning taqdiri nima bo‘ldi? Buning javobi ham payg‘ambarlar tarixiga doir manbalarda mavjud. O‘qiymiz: “Ibrohim (a.s.) duosi bila Namrudning sipohin pasha xayli halok qildi. Ellar azob bila ani dag‘i halok qildi. Rivoyatdurkim, ul pasha Narudning mag‘zig‘a (miyasiga) qasd qilsa erdi, aning monglayig‘a aning nima ursalar erdi, taskin topar erdi. Ish bir erga ettikim, to‘qmoq yasatti. Muttasil aning boshig‘a birov urar erdi va aning havosining yaxshiroq xizmati bu erdikim, ul to‘qmoqni aning boshig‘a bir kerak urg‘ay, to bu azob bila jahannamg‘a bordi” [2,550].

Muso sharora ko‘rdi chu Ayman daraxtidin,

Yaldo tunida topdi biyobonda rahnamo [1,30].

Muso (a.s.) Qur‘oni karimda eng ko‘p zikr etilgan payg‘ambarlardan. “Muso sharora (olov, o‘t) ko‘rdi Ayman daraxtidin” va undan keyingi misra “Yaldo tuni” (eng qorong‘u hamda sovuq tun – 21-22-dekabr kechasi) ifodasini Navoiy “Tarixi anbiyo...”sida naql qilgan. Unda yozilishicha, Shu‘ayb (a.s.) Muso (a.s.)ni uyiga chaqirib, “xasab va nasab”ini ma‘lum qilib, sakkiz yil qo‘ylariga qarash sharti bilan Safura ismli qizini unga berishga qaror qiladi. Belgilangan muddat o‘tgach, u Muso (a.s.)ni uylantirib, “molidan bir nima berib”, uni Misrga jo‘natadi. Muso besh kun yurib, Turi Sino tog‘iga etishadi. Oltinchi kun havo sovuq bo‘lib, hamma yoqni bulut qorong‘iligi qoplaydi. Ittifoqo, Safurada tug‘ish to‘lg‘og‘i boshlanadi. O‘tga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Muso(a.s.) olov keltirish uchun tog‘ tomon yo‘l oladi. Yurib-yurib bir daraxtda yorug‘lik ko‘radi. O‘sha daraxtga chiqadi. “Va u daraxt qoshida quyosh tiyra (qop-qora) ko‘rinadi”. O‘t negadir daraxt shohlarini kuydirmaydi. Muso (a.s.) bundan qattiq hayratlanadi. Shunda “Innay Analloh” – Men Allohman, degan nido kelib, uning boshiga “risolat (payg‘ambarlik) toji” qo‘yiladi. [2,562-563]. Amiriy maqsad yuzasidan ana shu talmehni istifoda etadi.

Yaqub diydasin yoruq aylab nasim ila,

Ayyub mehnatiga berib sabr ila davo[I, 30].

Ma‘lumki, akalari Yusuf (a.s.)ni bo‘ri nobud qildi, deya ko‘ylagini qonga bo‘yab Yaqub (a.s.)ga olib keladilar, payg‘ambarzodani esa, arzimagan chaqaga sotib yuboganlaridan so‘ng (bunda ham bir hikmat bor: Yusuf (a.s.) o‘z husniga mahliyo bo‘lib, bir bora kibrga borib qolganlari uchun Alloh uni ana shunday jazolagan), Yaqub (a.s.)ning ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoladi. Oradan ko‘p voqealar kechib, Yusuf (a.s.) o‘z ko‘ylagini Yaxudo orqali otasiga berib yuboradi. Yaxudo “...alarning dimog‘i xifftig‘a haml qilib, ...Yusuf (a.s.)ning hayoti xabarin va salomatlig‘in Yaqub (a.s.)g‘a etkurub, ko‘nglokni aning yuzig‘a soldi, hamul zamon basir bo‘lg‘on ko‘zi bino bo‘lub, shukrlar qildi” [2, 557].

Ayyub (a.s.)ga sabrini sinash va farishtalarni bunga ishontirish uchun Parvardigor unga bir dard yubordi. Ayyub (a.s.)ning badanlarini qurtlar bosib

ketadi. Biroq payg‘ambar bularning barchasiga sabr qilib, ibodatini qo‘ymadi (“...Va Ayyub (a.s.) ul baliyatqa sabr qilib, Tengri taolo toatidin o‘zga nima kechmay. Derlarki, sharif badanidan bir qurt agar tushsa erdi, yana olib o‘rniga qo‘yar erdikim, sizga Haq bu nasib qigan ro‘zidin mahrum bo‘lmang” [2, 559]). Amiriy har ikki payg‘ambar nomini talmeh qilganida ularga tegishli ana shu voqealarga ishora qilgan.

Gah qudrati bilan chiqarur noqa toshdin,
Gohi qilur Kalim asosin ajdaho.

Baytning birinchi misrasidagi toshdan tuya chiqarish mo‘jizasi Solih (a.s.) nomi bilan bog‘liq. Ikkinchi misra esa Muso (a.s.) voqealari to‘g‘risida. Parvardigor Muso (a.s.)ga bir aso (hassa) bergankim, hassani erga tashlasa, ajdarhoga aylanib qoladi. “Fir‘avn mo‘jiza tiladi esa, Muso (a.s.) asoni ilkidan solg‘och, ajdahoe bo‘ldikim, haybatidin necha kishi halok bo‘ldi. Fir‘avn vahmdin behush bo‘lib, o‘z holig‘a keldi” [2,563].

Yunus baliqni qornida toat qilib ango,
Jon berdi arra birla rizosida Zikriyo.

Payg‘ambarlar tarixiga oid kitoblarda naql qilinishicha, Yunus (a.s.)ni baliq yutub yuboganlarida ham “men o‘z-o‘zinga zulm qiluvchilardan bo‘ldim” deya tavbalar qiladi, Alloh zikrini tilidan qo‘ymaydi. Zakariyo (a.s.) esa kofirlardan qochib daraxt ichiga yashirinib olib, Allohni zikri bilan mashg‘ul bo‘lib, tavbatazarrular qilayotganida, kofirlar uni daraxt bilan birga arralab tashlaydilar. Baytda shu voqeaga ishora bor.

Hamd g‘azalning bundan keyingi barcha baytlari ikki olam sarvari Muhammad mustafo (s.a.v.) va sahobalar sifatleri haqida (jami 12 bayt). Chunonchi:

Arzu samou Olamu odamni xalq qilib,
Barcha nabiyg‘a qildi Muhammadni peshvo [1,30].

Ya‘ni: Yeru ko‘k, Olamu odamni yaratgan Tengri taolo Muhammad (s.a.v.)ni o‘tgan barcha payg‘ambarlarga peshvo qilib qo‘ydi. Galdagi baytda shoir avval “lavloka” so‘zini iqtibos qiladi. “Lavloka” – “Ey Muhammad, agar sen bo‘lmaganingda edi, bu olamlarni yaratmas edim” mazmunidagi qudsiy hadisga ishora. Ikkinchi misrada iqtibos etilgan “Laumrika” kalomi “Ey Muhammad, sening hayoting bilan qasam” mazmunidagi qudsiy hadisga ishora:

Shoyista erdi qaddig‘a “Lavloka” hil‘ati,
Toji sari “Laumrika”, manshuri “Hal ato”.²²

Keyingi baytlarda Muhammad (s.a.v.) tufayli yer-u ko‘k nubuvvat nuri bilan munavvar bo‘lgani, me‘roj voqeasi, sahobai kiromlar – yoronlarining bebaholigi, ayniqsa, Abubakr Siddiqning sodiqligi, Umar (r.a.)ning adolatsevarligi, Usmon (r.a.)ning Qur‘oni karimni kitobat qilganligi, sheri Xudo – Hazrat Alining jo‘mardligi (baytda bir aqd berilgan: “lo fato”, ya‘ni “Alidek jo‘mard boshqa topilmas” mazmunidagi hadisdan olingan), Rasulilloh (s.a.v.)ning ahli oilasiga – Fotima onamiz, Hazrat Ali, Shahzoda Hasan va Shahzoda Husayn (Alloh ulardan rozi bo‘lsin)larga ishoralar (“Oli abo, ki zubdayi ashobi ol erur...”[1, 32] mavjud. Maqta’ va undan oldingi baytda Amiriy bu xonadonga ko‘nglida muhabbat

²² “Дахр” сураси, 1-оят.

cheksizligi, bu muhabbat ularning ulug'ligi tufayli ekanligini izhor etib, Mahshar kuni Muhammad Mustafo (s.a.v)dan shifoat tilash bilan g'azalni yakunlaydi.

Xullas, mazkur bo'lgan g'azal Umarxon Amiriyning Islomga va uning payg'ambarlariga muhabbati naqadar teran bo'lganligidan dalolat qiladi va hamd g'azal islomiy ma'rifatdan saboq berishi bilan chandon ahamiyatga molikligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амирий. Девон. I жилд (ўзбекча шеърлар). –Т.: Тамаддун, 2017. – Б. 30-32.
2. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 8-жилд. Т.: Ф.Фулум номидаги НМИУ. – Т.: 2011.- Б.538-602.
3. Алишер Навоий. ТАТ. 10 жилдлик. 6-жилд. Т.: Ф.Фулум номидаги НМИУ. – Т.: 2011.
4. Муҳаммад Саййид Тантовий. Пайғамбарлар тарихи. 1-4-китоблар. –Т.: Шарқ, 2018. – Б.608.

G'AFUR G'ULOMNING MUQIMIY IJODINI O'RGANISHGA QO'SHGAN HISSASI

Nasiba BOZOROVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
dotsenti, f.f.n.
(O'zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodi, xususan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodini o'rganishda G'afur G'ulomning qo'shgan hissasi xususida so'z yuritilgan. Muqimiy an'alariga munosabati masalasi akademik shoirning maktublari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon adabiy muhiti, Muqimiy, G'afur G'ulom, o'zbek adabiyoti, badiiy so'z, she'riy janr, an'ana, adabiy meros, ijodkor, hajviyot, maktub.

Аннотация

В статье рассматривается творчество представителей литературной среды Коканда. В частности, вклад Гафура Гуляма, внесенный в изучение жизни и творчества Мухаммада Аминходжи Мукими. В статье также изучен вопрос отношения к традициям Мукими на примере писем академика, поэта Гафура Гуляма.

Ключевые слова: литературная среда Коканда, Мукимий, Гафур Гулям, узбекская литература, художественное слово, поэтический жанр, традиция, литературное наследие, творец, комедия, письмо.

Annotation

The article deals with the creativity of representatives of the literary environment of Kokand. In particular, the contribution of Gafur Ghulam, made to the study of the life and work of Muhammad Aminkhoji Mukimi. The article also examines the issue of attitude to the traditions of Mukimi on the example of the letters of the academician, poet Gafur Gulyam.

Key words: literary environment of Kokand, Mukimiy, Gafur Gulyam, Uzbek literature, artistic word, poetic genre, tradition, literary heritage, creator, comedy, letters.

O‘zbek adabiyotining rivojida fe’li-xo‘yi qand (*Is’hoqxon Ibrat*) – Qo‘qon ijod ahlining hissasi benihoya katta bo‘lgan. Iskandari Rumiyl hamda Qubod va Afrosiyobdan qolgan shahri nadim Farg‘onaning asosiy markazi sanalgan bu maskandan juda ko‘p ijodkorlar yetishib chiqqan. Ma’rifatparvar olim Po‘latjon Domulla Qayumov o‘zining tazkirasida Qo‘qonda nash’-u namo topgan 40 ga yaqin ijodkorning adabiy salohiyati, ijodi haqida atroflicha ma’lumot bergan²³. Haqiqatda, Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan Amir Umarxon, Ravnaq, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nisbatiy, Muhayyir, Usmonxo‘ja Zoriy kabi ijodkorlar merosi faqat shu hudud emas, balki umumo‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganish, tadqiq etishda alohida qiymat kasb etadi. Yoki shu ijod ahli bilan bir davrda, bir makonda, ulardan zarracha ortda qolmay badiiy ijod, so‘z san’atida yuksak natijalarga erishgan Nodirabegim, Mahzuna, Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Anbar Otin kabi shoiralarning devon, majmua falsafiy-ta’limiy dostonlari o‘zbek adabiyotining alohida sahifalarini tashkil etishini barcha birdek e’tirof etadi. Adabiyotshunoslikda mazkur shoirlar hayoti va ijodini tadqiq etish asosida o‘zbek adabiyoti she’riy janrlari, ayniqsa, sayoxatnoma, muxammas va musaddasning tadriji va takomili, badiiy-tarixiy asarlar, tazkirachilik an’analarning taraqqiyoti, satirik hajviyot va she’riyatning ijtimoiylashuv hodisasi, maktubot va uning ijodkor faoliyatini o‘rganishdagi ahamiyati kabi ilmiy muammolar hal etildi. Izlanishlar asosida “Qo‘qon adabiy muhiti” degan ilmiy istiloh yuzaga keldi.

Adabiyotshunoslikda ta’bi nazmi yuksakligi va ijod ahliga bo‘lgan xayrixohligi, iliq munosabati, ijodiy muhitni shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlash ishlariga nisbatan Qo‘qon xoni Amiriy o‘zbek adabiyoti tarixida “Qo‘qon adabiy muhiti” deb atalgan estetik hodisaning asoschisi sifatida e’tirof etiladi. Bu haq gap. Biroq ilmiy istiloh o‘laroq bu tushunchaning ommalashishi ko‘proq Qo‘qondan yetishib chiqqan ijod ahlining adabiy merosini o‘rgangan, tadqiq etgan zahmatkash olimlarning sa’y-harakati natijasidir. Bunda Sotti Husayn, Hodi Zarif, Xolid Husayn, G‘ulom Karimov, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Abdurashid Abdug‘afurov, Sharif Yusupov, Mahbuba Qodirova kabi ko‘plab olimlarning, shuningdek, bu boradagi izlanishlar debochasida Hamid Olimjon va G‘afur G‘ulom kabi akademik shoirlarimizning zahmatli mehnati borligini e’tirof etmoq joiz. Ularning izlanishlari natijasida qo‘qonlik ijodkorlarning badiiy ijodda o‘z o‘rni va so‘ziga egaligi, adabiy merosining o‘ziga xos xususiyati o‘zbek adabiyotining rivoji, taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi aniqlandi hamda bir makon va zamon, ijodiy hamkorlik, ustoz-shogirdlik, adabiy ta’sir nuqtai nazaridan “Qo‘qon adabiy muhiti” ilmiy istilohi ommalashdi. Olimlarimiz tomonidan davr taloto‘plari, tazyiq, ta’qib va talabi ostida Amiriy asos solgan Qo‘qon adabiy muhitini “saroy

²³ Қаранг: Қаюмов П. Тазкирайи Қаюмий. –Тошкент: Ўз РФА Қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998 (1,2,3 китоб).

adabiyoti” o‘laroq o‘rganilishi ham aslida katta ish bo‘lgan. Chunki shu o‘rganish asosida XVIII-XIX asrga taalluqli ko‘plab adabiy asarlarning nusxalari bir joyga jamlangan, qo‘lyozmalar joriy alifboda nashr etilgan, ba‘zilari tarjima qilingan, badiiylik tamoyillari asosida baholangan, ilmiy iste‘molga olib kirilgan. Qolaversa, amalga oshirilgan o‘sha ishlar hozirga qadar shu bilan bog‘liq tadqiqotlar uchun ham mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Biz bu o‘rinda Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari ijodini o‘rganishda akademik shoir G‘afur G‘ulomning qo‘shgan hissasi hususida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. G‘afur G‘ulomning Qo‘qon adabiy muhiti va qo‘qonliklar hayotiga qiziqishi katta bo‘lgan²⁴. Uning respublikamiz shaharlari orasidan Qo‘qonga ko‘p borgani, maktab o‘quvchilari, mehnatkash xalq vakillari bilan ushrashuvlari, shoir nomiga qo‘qonlik muxlislardan kelgan maktublar, qo‘qon adabiy muhiti vakillarining hayoti va ijodini o‘rganishi, tengqur ijodkorlar bilan o‘tkazilgan adabiy majlis, ijodiy gurunlar – barchasi G‘afur G‘ulom haqidagi xotira kitoblarda, shoirning maktublarida aks etgan. Akademik shoirning Mohlaroyim Nodira ijodiy merosining (xonning rafiqasi bo‘lganligi bois) o‘rganilishiga qarshilik qilganlarga keskin raddiya bildirgani, shoira asarlarining ilmiy tadqiq etilishi va ommalashishi, xalq ma‘naviy mulkiga aylanishidagi xizmatlari, yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlashi tahsinga loyiq. Shuningdek, Furqat, Ajziy Ho‘qandiy kabi ijodkorlarning shaxsi va ijodi haqidagi maqolalari ham G‘afur G‘ulom va Qo‘qon adabiy muhiti mavzusini to‘ldiradi. Akademik shoirning Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ijodini tadqiq etishi esa alohida mavzu. Taniqli adabiyotshunos Aziz Qayumov “Akademik G‘afur G‘ulom” kitobida 1935-1939-yillarda Qo‘qon adabiy muhitida alohida o‘rin tutgan Muqimiyning vafotiga 35 yil to‘lishi munosabati bilan qator ishlar amalga oshirilganini qayd etib shunday yozadi: “G‘afur G‘ulom o‘z ijodiy va ilmiy faoliyatida Muqimiy ijodiy merosini o‘rganish va uni ommalashtirishda katta o‘rin bergan ijodkorlardan biridir. Hozirgi zamon o‘quvchisiga Muqimiyning birinchi she‘rlar to‘plamini taqdim etgan olim G‘afur G‘ulomdir. U 1938-yilda Muqimiyning joriy yozuvdagi birinchi she‘rlar to‘plamini tayyorladi va chop etdi. Bu to‘plam “Muqimiy bayozi” deb ataladi. Shundan so‘ng G‘afur G‘ulom Muqimiyning nisbatan to‘laroq to‘plamini nashrga tayyorlab xalqqa taqdim etdi”²⁵. Adabiyotshunos G‘.Karimov esa 1938-yilda Muqimiy asarlarini to‘plash, o‘rganish, nashr etish ustida qizg‘in va samarali ishlar olib borilgani, gazeta va jurnallarda ko‘plab maqolalar bosilganini aytib, maqolalar ichida G‘afur G‘ulom va Hamid Olimjonning maqolalari diqqatga sazovorligini qayd etadi²⁶. Darhaqiqat, 1938-yilda G‘afur G‘ulom tomonidan tuzilib, Toshkentda nashr etilgan “Muqimiy bayozi”da 800 misradan iborat she‘rlar janr xususiyatiga ko‘ra tartiblashtirilib, izoh va lug‘atlar bilan berilgan. Bundan tashqari, manbalar “Muqimiy tanlangan asarlari”dan to‘rt nashrning uchtasi

²⁴ (Гафур Ғулом уй-музейига борганда, шоир яшаган ҳовлига кирар экансиз, ҳовли саҳнида уйда кираверишдаги айвоннинг ўймакор нақшлари беихтиёр хаёлингизни ўғирлайди. Уй-музей директори атоқли шоирнинг қизлари Олмосхон Аҳмедова бизга бу айвон махсус кўконлик усталар томонидан отаси, яъни куёвлари (оналари Мухаррам ая кўконлик) учун қурилганини айтиб берди. Балки, Гафур Ғулом ижодининг кўп жиҳатлари Кўкон билан боғлиқлигининг туб сабабларидан бири шундандир – Н.Б).

²⁵ Қаюмов А. Академик Гафур Ғулом. –Тошкент: ART FLEX. 2008.– Б.32.

²⁶ Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. –Тошкент: Ўқитувчи. – Б.79.

Gʻafur Gʻulom tomonidan tayyorlanganini tasdiqlaydi. Akademik shoirning mukammal asarlar toʻplamining 11-jildiga shoirning Muqimiy hayoti va ijodiga doir bir nechta adabiy-tanqidiy maqolalari kiritilgan. Toʻplamda 1938-yilda nashr etilgan “Muqimiy bayozi”ning soʻzboshisi ham “Muqimiy” sarlavhasi ostida berilgan. Hajman kichik ushbu maqolada quyidagi masalalar umumiy tarzda yoritib oʻtilgan:

- Muqimiyning yashab oʻtgan davri, qichqacha biografiyasi;
- shoirning hayot tarzi, adabiy qiziqishlari, iqtisodiy ahvoli;
- Muqimiy sheʼrlarining mavzu koʻlami, tili, shoir uslubi;
- shoir ijodining davrga hamohangligi (Bir guruh “faollar”ning Muqimiy jadidchilar namoyandasi boʻlganligi bois uni oʻrganmaslik kerak degan fikrlarini rad etadi va Muqimiy ijodining qimmatini, tarixiy ahamiyatini sobiq shoʻrolar mafkurasiga mos talqin etadi. (Ehtimol, Gʻafur Gʻulom shunday yoʻl bilan Muqimiyning oʻrganilishiga yoʻl ochgandir).

Akademik shoirning “Mulla Muhammad Aminxoʻja Muqimiy”, “Muqimiy maktublari”, “Muqimiy va Muhyi”, “Muqimiyning yangi uch sheʼri”, “Demokrat shoir” kabi maqolalarida ham Muqimiy hayoti va ijodi xususida soʻz yuritilgan. A. Qayumov taʼkidlashicha, Gʻafur Gʻulom Muqimiyning tarjimai holi va sheʼriy maktublariga oid bir maʼlumotni dastlab ilmiy istifoda etgan. Bu yoʻnalish keyinroq Hodi Zarif va Gʻulom Karimovlarning ishlarida davom etib Muqimiy ijodining yangi qirralari kashf etilgan, shoir biografiyasi yangi maʼlumotlar bilan boyitilgan, toʻldirilgan²⁷.

Taʼkidlash kerakki, Gʻafur Gʻulomning shoir Muqimiy haqidagi oʻsha dastlabki izlanishlari, mulohazalari, maqolalaridagi maʼlumotlarni hozir ham adabiyot tarixi kitoblarida uchratamiz, oʻqiymiz. Akademik shoirning Muqimiy ijodini tekshirishga doir qarashlariga metodik jihatdan tayanamiz. Gʻafur Gʻulomning Muqimiy gʻazallaridan:

Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostni,
Soʻzki haq boʻlsa, savolimga javobim kim desun.

Yoki:

Mulki Hindu Marvdin kelsam topardim eʼtibor,
Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi Fargʻonaman²⁸, –

kabi baytlarni tanlab olishi va tahlilda nimalarga eʼtibor qilganini bilish qiziqarli va foydali, deb oʻylaymiz.

Gʻafur Gʻulom Muqimiy ijodini faqat oʻrganibgina qolmay, shoir adabiy harakati, qizgʻin mushoiralarining ham davom etishida xizmat qilgan. Bir paytlar Hazrat madrasasi hujrasida jamuljam boʻlib, tongotar davom etgan sheʼriy munozara, mushoira, mubohasalar 1950-yil oʻrtalariga kelib yangidan jonlandi. Yaʼni Qoʻqon shahridagi oʻsha madrasadagi hujra hukumat qaroriga muvofiq Muqimiy hujra-muzeyiga aylantirilgach, eski sheʼriyat kechalari yangicha fayz bilan qaytalandi. Aziz Qayumov oʻzining xotira kitobida 1940-1941-yillarda Muqimiy hujra-muzeyining tashkil etilish ishlari jadallashgani, bir qator jonkuyar

²⁷ Қаюмов А. Тоға-жиян ёзишмалари// Академик Гафур Фулом. –Тошкент: ART FLEX. 2008.– Б.35.

²⁸ Фулом Ф. Мукаммал асарлар тўплами. 11-том. –Тошкент: Фан, 1989. – Б.34.

ilm ahllari tomonidan muzey eksponatlar bilan to'ldirilgani haqida ma'lumotlar berib, bu joy Qo'qonning amaldagi adabiy dargohiga aylanganini qayd etadi va shunday yozadi: "Toshkentdan yoki boshqa shahardan keluvchi adabiyotchilar ham bu yerda albatta bo'lar, adabiy suhbatlarda qatnashar edilar. Xususan, G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Chustiy kabi mashhur shoirlar hujra-muzeyni ziyorat qilmay ketmas edilar"²⁹.

Haqiqatda ham, Muqimiy hujra-muzeyi G'afur G'ulomning sevimli maskani bo'lgan. Har gal Qo'qon tashrifida, albatta, bu maskanga bir nazar kirish odatga aylangan edi. Buni G'afur G'ulom uy-muzeyi xodimlari tomonidan nashr etilgan "G'afur G'ulomning akademik nashrga kirmagan asarlari hamda maktublari" ham tasdiqlaydi. Kitobda akademik shoirning Qo'qondagi Muqimiy hujra-muzeyida yozgan dastxati keltirilgan. Dastxatda quyidagilar bitilgan:

"1958-yilning 26-, 27-, 28-, 29-iyulida Qo'qonda edik. 29-iyul seshanba edi. Shunda Muqimiy hujrasiga keldik.

"Jilovxona"da issiqdan qochib hiylagina choy ichdik. Mavlono Charxiy qo'qonvor iltifotlar bilan kutib oldilar. Ko'p xursand bo'ldik. Bu ziyoratda men bilan birga kaminaning mahramalari Muharramxon, qizim Olmosxon, Toshxonbeka, o'g'illarim Husanjon, Mirzo Xondamir, kelinim Nafisa, nabiralirim Mirxond, Rustamjon ishtirok qildilar. Mazkur voqea chin ekaniga hujra sahnidagi shoyigul yaprog'ini ezib, barmog'im bosdim. G'afur G'ulom, 29. VII – 1958-yil"³⁰.

Demak, akademik shoir Muqimiyning ijodining tom ma'nodagi o'rganuvchisi, davom ettiruvchisi, ommalashtiruvchisi bo'lgan. Ayniqsa Muqimiyning hajvi, satiralari, achchiq haqiqatni keskir til bilan ifodalashi, sayoxat taassurotlarini tasvirlashdagi mahorati G'afur G'ulomga ma'qul kelgan va bu usuldan u o'z ijodida mahorat bilan foydalangan.

Bu fikrga G'afur G'ulomning Zokirjon Habibiya 17.09.1953-yilda yo'llagan quyidagi maktubini o'qib ham amin bo'lish mumkin:

"Gulxanishin muhabbat, mavyiz sadoqat, g'azalsaroyi qandolat, nash'abaxsh, ulfat, do'stiqadim muhtaram mullo Muhammad Zokirjon Habibiya, salom adosidan so'ngra ma'lum bo'lg'aykim:

Yangi oyda, yaxshi kunda, azm ila aylab safar,
Sa'd soatda Qo'qon qishloqqa yetdik bexatar.
Uchrashib eng ibtidoda mulla Muhammadjon bilan.
Qaysi Muhammadjon Alif tan uyiga jon bilan.
Ulfatu ahboblar birlan qurib bazmu darang,
Sizni yo'qlab, mahfilorolar o'qur erdik o'lang.
Bazm aro aylab muhayyo bizga boda shira choy
Kayf aro sarxush boshga ko'lkalar solib Xumoy.
She'r o'qib yallo qilib, ma'qullashib bay-baylashib,
Pirlikka shayx Abdulla boboni saylashib,
Bazm aro gulxanishinlarning kuyi musqal bo'lib

²⁹ Каюмов А. Муқимий хужра-музейи// Академик Ғафур Ғулум. –Тошкент: ART FLEX. 2008.– Б.30.

³⁰ Ғафур Ғулумнинг академик нашрга кирмаган асарлари ҳамда мактублари. –Тошкент: 2018. – Б. 127.

Qalblar ko'zguvidan Zangi kudurat hal bo'lib.
Ba'zi mofiyho tabiatlar eritgan moy edi,
Adresimiz Sizga mashhur eski Tentaksoy edi".

Mazkur maktub-she'rdagi Muqimiy g'azallarining ohangi yorqin sezilib turibdi. Zukko o'quvchi ushbu she'rdagi Muqimiyning mashhur "Navbahor" g'azalidagi ruh, mazmun va ifoda o'xshashligini darrov ilg'aydi. She'rdagi "azm ila aylab safar", "Qo'qon qishloqqa etdik bexatar", "Ulfatu ahboblar" "qurib bazmu darang", "mahfilorolar" kabi so'z va birikmalar Muqimiy ijodi ta'sirida tug'ilganini inkor etib bo'lmaydi. Bu ta'sir maktubning oxirrog'ida yanada yaqqol bilinadi. Maktub davomida G'afur G'ulom qanday maqsadda Qo'qonga safar qilgani Muqimiy davri adabiy tili va uslubida nasriy bayon etadi. So'ng yana shunday satrlarni bitadi:

"Mullo Muhammad Zokirjon Habibiy Shoshiy Beshog'ochiyga Qo'qonqishlog'ida sayru-sayohat qilib yurguvchi birodaringiz Mirzo Abdulg'afur ibn Mirzo G'ulom, anga may yuda ijjom.

Mullo Muhammad Zokirjon Habibiy, ta'limoti imom,
Eshiting bir hikoya Iqondin, To'y nochor qildi yolg'ondin³¹.

Ko'rinib turibdiki G'afur, G'ulom Muqimiy merosini o'rganish orqali ma'rifatparvar shoir uslubi, tasvir va ohangini-da yaxshi o'zlashtirgan hatto "To'yi Iqon bachcha" satirasiga ham ishorat etib o'tgan.

Umuman, har ikkala ijodkorning asarlari qiyosiy o'rganganda bu kabi misollar ko'plab topiladi. Zero, inson ongu shuuri, qalbi bilan biror ishga mashg'ul bo'lsa, o'z-o'zidan, tafakkurda shu mashg'ullik hosilasi aks etadi va u tilda namoyon bo'ladi.

Xullas, aytish mumkinki, G'afur G'ulom Qo'qon adabiy muhiti vakillari, xususan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodi o'rganish, shoir nomini ommalashtirishda katta hissa qo'shgan. Akademik shoir Muqimiy bilan bog'lik masalalarga kattadir, kichikdir jiddiy yondashgan va ijobiy hal etishga harakat qilgan. Akademik shoirga yozilgan maktublar, ariza, shikoyat xatlari bilan tanishar ekanmiz, Qo'qon bilan bog'liq aksar o'rinlarda Muqimiy haqidagi ma'lumotlarni ham uchratamiz. G'afur G'ulom hatto ma'rifatparvar shoir nomini abadiylashtirish uchun Qo'qondagi "Quvvat" artelining Muqimiy nomi bilan atalishi haqidagi qarorning "Moliyaviy operasiamiz kattalashib ketadi, endi bu nomni rasmiy suratda yanagi yildan o'zgartiramiz" deya shu choqqacha tarafkashlik qilib kelingani haqida maktab o'quvchisining arizasini ham e'tiborga olganiga shohid bo'lamiz. Bu kabi misollar G'afur G'ulomning Muqimiy ijodiga hurmati baland bo'lgani, uning adabiy merosini o'rganish asosida ma'rifatparvar shoirning adabiy mahorati, so'z, tasvir va ifodada undan ilhomlanganini tasdiqlaydi. Shuningdek, akademik shoir Muqimiy hayotini o'rganish orqali, qo'qon adabiy muhitiga xos bo'lgan an'anaviy adabiy gurunqlarning ijobiy natijasini chuqur angladi. Shu asosda shoir ustoz ijodkorlar an'analarini yangi davrda jonlantirish va adabiy bahs, fikr almashuv, ijodiy hamkorlik, o'sib kelayotgan yosh qalamkashlarni tarbiyalash, qo'llab-quvvatlash ishlarida bosh bo'ldi. Shuning natijasida ko'pgina ijodkorlar

³¹ Kўрсатилган асар. – Б.202-203.

Gʻafur Gʻulom darsxonasida yetildi, akademik shoir koʻmaki, qoʻllovi ostida ilm maydonida oʻz oʻrnini topdi.

QOʻQON ADABIY MUHITI SHOIRALARI IJODIDA TARIQAT VA TARIQATCHILIK MASALASI

Zulayho RAHMONOVA,
filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori
(Oʻzbekiston)

Annotatsiya

Qoʻqon adabiy muhiti shoiralari sheʼriyatida tasavvuf taʼlimotining ham oʻziga xos taʼsiri bor. Ular sheʼriyatidagi gʻoya va obrazlar olami bevosita badiiy-irfoniy adabiyotdagi anʼanaviylik bilan belgilanadi. Mazkur maqolada Qoʻqon adabiy muhiti shoiralari ijodida tariqatlarning taʼsiri va ularga munosabat masalasi haqida bahs yuritildi.

Kalit soʻzlar: tasavvuf, tariqat, irfon, ishq, soʻfiy, rind, zohid, tarix, millat.

Annotatsiya

Osoboe vliyanie na poeziyu poetov kokandskoy literaturnoy sredy okazivayut ucheniya mistitsizma. Mir idey i obrazov v ix poezii napryamuyu opredelyaetsya xudojestvennoy traditsiey. V dannoy state rassmatrivaetsya vliyanie sekt na tvorchestvo poetov kokandskoy literaturnoy sredy i otnoshenie k nim.

Ключевые слова: мистицизм, секта, гнозис, любовь, суфий, ринд, подвижник, история, нация.

Annotation

The teachings of mysticism have a special influence on the poetry of poets of the Kokand literary environment. The world of ideas and images in their poetry is directly determined by the tradition in fiction. This article discusses the influence of sects in the work of poets of the Kokand literary environment and the attitude to them.

Keywords: mysticism, sect, gnosis, love, Sufi, rind, ascetic, history, nation.

Ichki bir xotirjamlik, ruhiy bir farogʻatni taʼminlovchi tasavvuf va inson botinidagi sir-asrorni yorituvchi badiiy adabiyot mushtarak bir bayroq ostida nafs tarbiyasiga kirishgan. Shu bois bosh maqsadi inson axloqi va tafakkur kamoli boʻlgan mumtoz adabiyot va komil insonni tarbiyalayotgan tasavvufni ayri-ayri tasavvur etish mumkin emas. Adabiyot tasavvufning keng tarqalishida qanot boʻldi, tasvir va taʼsir kuchining oshishi uchun badiiy mushohada, oʻziga xos ohang va muvozanat baxsh etdi. Biroq tasavvuf ham adabiyotdagi mavzu, gʻoyalarga boqiylik, his-tuygʻu, kechinmalarga hassosiyat, ulugʻvorlik inʼom etdiki, natijada bu mushtaraklikdan Sharqda muhtasham bir *Adabiyot* paydo boʻldi. Adabiyot ruhiyat tasviri boʻlsa-da, u oʻz davrining farzandidir. Shu maʼnoda adabiyot nafaqat inson qalbiga, balki xalq hayoti, ijtimoiy-siyosiy muhit, maʼnaviy-axloqiy dunyoqarash, ona tabiat, xullas – butun borliqqa oyna tutadi. Tarixni gʻoliblar yozadi. Adabiyot esa mana shu “gʻoliblar tarixi”ning saodat

asrini, armonli yillarini soʻz sehri, mushohada quvvati hamda ilhom neʼmati mushtarakligida boʻy-basti bilan gavdalantiradi. Ustoz navoiyshunos Ibrohim Haqqul ham shunday deydi: “Insoniylik shon-sharafiga daxldor har bir maqsad va haqiqat tarixda saralanib boradi. Abadiyat talabi, boqiylik mezonlariga muvofiq kelmaydigan hech bir intilish, hech qanday zafar bu tarixdan oʻrin topolmaydi. Tarixiy qismatning daxlsizligi, ibratli bir tomoni ham mana shunda. Buni anglash va baholashda tarix bilan adabiyot orasida jiddiy farqlanish yoʻq. Lekin tarixga qaraganda adabiyotning imkoniyat va imtiyozi kengroq. Chinakam adabiyot borliq va yoʻqlik oʻrtasidagi bir mavjudlik” [6:71]. Shu bois mumtoz adabiyotning gʻoya va badiiyati bevosita din, tasavvuf taʼlimoti hamda tariqatlarning oʻziga xosligi bilan ham belgilanadi. Qoʻqon adabiy muhiti shoiralari ijodida ham mumtoz adabiyotga xos anʼanaviylik zamirida, albatta, tasavvufning sezilarli taʼsiri bor. Ular ijodidagi irfoniy istiloh, obraz, ramz va timsollarning qoʻllanishi ham fikrimizni quvvatlaydi. Shoirlar sheʼriyatida oshiq, orif, zohid, rind, soqiy, faqr, darvesh kabi mumtoz adabiyotning asosiy obrazlari tasavvufiy mazmun-mohiyat kasb etadi. Zero, bu adabiy muhit ijodkorlarining, deyarli, barchasi irfoniy asarlaridan xabardor boʻlgan. Ayniqsa, bu anʼanaviylik Jahon Otin Uvaysiy ijodidan boshlangan, desak mubolagʻa emas. Uning maslagi, dunyoqarashi, ifoda mahoratini belgilashda, albatta, tasavvufiy bilimlar talab qilinadi. Masalan, bir gʻazalida shoira:

Muyassar boʻlmasa gar toqi abru sajdagohingdin

Na hosil senga, zohid, tashlagʻil boʻyunungni zunnora,– [4:7]

deya, salafilar ijodidagi anʼanaviy qarashning yangi bir talqinini beradi. Zohid tamaʼ va riyoda ayblanib, unga oshiqona talab qoʻyiladi. Uvaysiyda hol va maʼno uygʻun. Shubhasiz, holdagi yuksaklik ifodadagi teranlikni yuzaga keltirgan. U, haqiqatan, oʻzlikni anglash, oʻzlikka yetish iztirobini his etgan va mahorat bilan ifodalay olgan. Tasavvuf oʻzlikni yengib, oʻzlikka yetishdir. Uvaysiy sheʼriyatida bu masala qayta-qayta xotirlanadi:

Istasang yor ila oʻzlik, zohido, koʻp yigʻlagʻil,

Oʻzlugung gʻarq etmagʻa Jayhun kerakmazmi senga.

Albatta, bashariy menlikni tarbiya etib, ilohiy menlikka erishish ranju mashaqqatini bilgan ahli riyozat sohibigina nafs oʻzlugini gʻarq etmoq uchun koʻz yoshidan paydo boʻladigan Jayhun kerakligini anglay oladi. Uvaysiy sheʼriyati mazmun-mohiyatida bir erlik jasorati, ifoda tarzida esa bir injalik bor. Oʻqiyotganingda Haq va haqiqat ovozing yuksakligini taʼminlagan koʻngil torlarining uzilay-uzilay deb turgan bir tarangligini his etasan. Quyidagi misralarga eʼtibor beraylik:

Koʻrub Majnun tan uryonasin taʼn etma Layliga,

Oʻtub oʻzlikni bobidin ki har devonadin kelmas.

Bunday oʻzlikni tanish orzusi, Qoʻqon adabiy muhitidagi barcha shoiralarga xos. Hassos shoira Nodira ham yor vasli oʻzlikdan kechish bilan boʻlishini anglab, bu yoʻlda ishqqa tayanadi:

Ey koʻngul, yor uchun jahondin kech,

Havas bogʻu boʻstondin kech.

Anga oʻzlik bila yetib boʻlmas,

Istasang yor vasli jondin kech [5:49].

Qo‘qon adabiy muhiti shoiralari ijodida tasavvufiy ohanglarning, tariqat g‘oyalarining aks etishi tabiiydir. Zero, ular ilhomlangan, bevosita ta’sirlangan va e’tirof etgan manbalar ma’rifiy adabiyot namunalari sanaladi. Ushbu adabiy muhit shoiralarning ustozlaridan hisoblangan Uvaysiy bir g‘azalida shunday deydi:

*O‘zni qutqarmoq uchun yeldim-yugurdim har sori,
Oh vovayloki, bora-bora oshiq bo‘lmisham.
Manzilu ko‘yu, aloyiq bandidin ozodman,
To tariqi Xojai Ahrora oshiq bo‘lmisham [5:21].*

Uning Haqqa oshiqlik silsilasida naqshbandiya tariqatining mashhur vakili Xoja Ahror valiyning e’tirof etilishishiyiq shoironing ishq va irfoni haqidagi tasavvurlarimizni oydinlashtiradi. Samar bonu esa ma’naviy karvonda ulug‘lar himmatidan imdod kutadi:

*Ilohi sayyidi qul Xoja Ahmad,
Aningdek yaxshilardin bo‘lsa behad.
Ilohi hurmati ul Xoja Hofiz,
Menam bo‘lsam ruboiy ichra mahfuz.
Ilohi hurmati Amir Alisher,
Bahaqqi So‘fi Olloyordek er.
Ilohi hurmati ul Shamsi Tabriz,
Meni bu yerda rasvo qilmagaysiz. [5:106].*

Turk piri Xoja Ahmad Yassaviy, rindi Sheroz Xoja Hofiz, ma’rifat ummoni Mir Alisher, irfon eri So‘fi Olloyor, oshiqlar sultoni Shamsi Tabrizlarning shonli hayoti va hikmatli ijodi bilan tanish hamda ularga ixlosmand bo‘lgan shoironing adabiy-estetik qarashlarini belgilashda ularni inobatga olish zarur. Qo‘qon adabiy muhitida o‘zining erk va haq kuychisi ekanligi bilan alohida hodisa hisoblangan Anbar Otin ham:

*Agar san ustodi adabni istasang, Anbar Otin,
San Navoiy ta’limin doim, mutolaa qil, – [1:35]*

deydi. San’atkorlikda ma’naviy ustozlari kabi mazkur shoiralalar ham she’riyatining bosh mavzusi sifatida ishqni tanlashadi. Bu bandalariga mehr-muhabbatli, shafqatli bo‘lishga, hamisha to‘g‘rilikni yoqlashga undagan Yaratganga bo‘lgan ishqdir. Bir so‘z bilan aytganda bandalik, qullik muhabbatidir. Samar bonuning ushbu misralari bu qarashimizni to‘la oqlaydi:

*Bonuyo, har subhidam ohing Xudog‘a tuhfa et,
Qulki bexizmat kelubdur xo‘jag‘a darkor emas [5:121].*

Ularning ohu faryodi, giryai nolasi qalblar Xojasi – Alloh taologa bo‘lgan. Mana shunday nuri rahmat, fayzi ma’rifat bilan dunyoga nazar solishgan. Bir so‘z bilan aytganda “jahona kelish maqsadi”ni to‘g‘ri anglab, hayot tarzini belgilashga harakat qilishgan. Oshiqlik tarixi ham tasavvufiy adabiyotning bosh mavzusi sanalgan “Miysoq” – “Ahdlashuv” kuni bilan bog‘lanadi:

*Qay kuni ishqing havosi topdi ko‘nglumda haror,
Ul sababdindurki, ahli Marg‘ilona tushdi o‘t.
Vaysiy, suyding ishq, kuymaslig‘ ilojin istama,
Avvalo qolu baloda oshiqona tushdi o‘t [4:24].*

Uvaysiyning ishqda kuyish va o'rtanish olovining sabr-toqat ila o'chirilishiga sabab bu ishqning "balo bazmi" bilan bog'liqligidandir. Ya'ni bu ishqning egasi butun olamlarning Robbisi – Robbul olamiyn ekanligida. Ishqning ta'rif-tavsifi, oshiqlik ta'na-yu malomati har bir shoira ijodida o'ziga xos, rang-barang ifodaga ega. Biroq bu davr she'riyatida tariqatga moyillik qancha bo'lsa, undan uzoq bo'lishga da'vat ham shunchalikdir. Bu fikr-qarashlar, ayniqsa, Dilshodi Barno va uning shogirdi Anbar Otin ijodida yaqqol ko'rinadi. Dilshodi Barno tarjimai holida o'z ijodini baholab shunday deydi: "...Men kamina notavon asar yozishida ko'pincha rind shoirlarga ergashib o'shal vahdat ahli va tasavvufchilarga qarshi hamda hukmron tabaqani maqtashga berilgan maddoh shoirlarga qarshi maydonga ot surdim" [1:9]. Shubhasiz, tasavvufshunos I.Haqqul ta'kidlaganidek: "So'fiylar tanqidi – alohida bir tarix. Uni maxsus o'rganmay, mamlakat va millat o'tmishida so'fiylikdan yetgan foyda, ziyon va zarar nimalardan iboratligini har jihatdan aniq bilmay turib, sufiyparastlikka berilish mahdudlik barobarida xavfliroq harakat hamdir. Har bir tarixiy hodisa qanday bo'lgan bo'lsa, o'sha holda, o'sha mohiyatda o'rganilib, to'g'ri baholanmas ekan, chala haqiqat urchiyveradi" [6:78]. Ammo erkka tashna shoironing rindparastligini tushungan holda uning bu hurlikdan "ahli vahdat" va "tasavvufchi"larni ajratishi ajablanarli. Zero, haqiqiy hurlik din va uning amaliy hayoti bo'lmish tariqat bilan ekanligi haqiqatdir. So'fiylar ozod shaxsiyat ekanligi ham sir emas. Qolaversa, mayxona ahli – rindlar ham mazmun-mohiyatda aslida so'fiylardir. O'sha paytlarda Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida ta'riflangan "soxta mulla", "riyokor shayx"lar ko'paygan, dinning bid'atu xurofot, tariqatning botilu yolg'on bilan aralashuvi avj olgan. Xalq ikki tomonlama zulm ostida ezilgan bu zamonning shiddati, mafkura o'yinlari tafakkurda bir qorong'ulik paydo qilishi tabiiy edi. Xalqning dardu g'ami, millatning kelajagi uchun qayg'urgan shoirlar zamondosh dindoru so'fiylarga bo'lgan nafrati kuchidan yangi davlatni din va tariqatdan yiroq bo'lishini istab, targ'ib-tashviq qiladi: "Podshoh buyurg'on har farmon zulmdin xoli ermas. Agar o'ris shohi darhaqiqat odil bo'lsa va aning xohishi qaram xalqlar ham o'ris misoli ozod bo'lsin va borcha xaloyiq o'ris birla barobar bo'lib, ro'zg'or kechursin desa, amorat va hukmronliq qonunlarini adl birla tahrir qilsun, hukmronliq qonuni din qoidalaridan mustasno vujudg'a keltursin, din ahlini hukumat orasida odil bilib, din ahlini ibodat borasida homiy bilib, davlat va bilimdonliqni xalq ro'zg'oridin kashf qilsin". Anbar Otin "Qarolar falsafasi"da mazkur fikrlarini davom ettirib yana shunday deydi: "Davlat ishini dini islomdan yiroq tuting va fuqarog'a takya qilmoq ila yo'l tutmagan hukmron bod fursatda halokatg'a duchor bo'lmog'i muqarradur. Vaholanki, bu zamona hukmronlarig'a faqat din ahli homiy emas, balki boz mosuvoi naqshbandiy va yassaviy silsilarini shayx va so'filari ham luqma solib, xalq boshig'a og'irroq, zulm solishg'a fatvo bersalar, boz bechora xalqni zolim zulmiga rozi bo'lib, toqat qilmoqqa, faqat Olloh demoqg'a nasifat qilurlar, chunonchi Yassaviy aytur:

Zolim agar zulm aylasa, Olloh degil,

Bosh yorg'uncha kaltaklasa valloh degil" [1:105].

Anbar Otin "Yamon soatda keldim man dunyoga", deganda haq edi. O'sha mudhish davrning farzandi o'laroq qo'liga qalam oldi va millatni ogohlikka

chorladi. U voqelikning faol ishtirokchisi edi. Ammo biz o'tmish haqiqatlarini zakiy tomoshabini o'laroq baho berish imkon va imtiyoziga egamiz. Shu bois bag'rida tarixni yashirgan badiiy asarlar tahlil va talqinida ularni inobatga olishimiz zarur.

Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari ijodi ham badiiy, ham tarixiy jihati bilan qimmatli. Darhaqiqat, ushbu davr tom ma'noda ma'rifatparvarlik adabiyotidir. Bu irfon zamirida tariqatlarning ham sezilarli ta'siri bor. Va aytish mumkinki, millat ozodligi va shaxs erki uchun jon fido qilgan jadid adabiyoti namoyandalarning dunyoga kelishida ma'rifatparvar shoirlar ijodiy merosi muhim ahamiyatga ega. Hatto erksevar shoirlar ijodida baxt va iztirob, ma'sumlik va mahzunlik, himmat va jasoratning o'ziga xos, yangicha bir talqini mavjud. Bunda ayol ishq, irfon va idroki va uning ifoda tarzi bugungi adabiyot uchun ham ibratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anbar Otin. She'rlar. Risola. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
2. Dilshodi Barno. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
3. Nodira-Komila. Devon. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
4. Uvaysiy she'riyatidan. –T.: O'zbekiston KP Markaziy Komitetining nashriyoti, 1980.
5. Sharqning yetti yog'dusi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
6. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. – Toshkent: Fan, 2009.

QO'QON XONLIGIDA ADABIY KECHALAR (Umarxon Amiriy she'riy majlislari misolida)

**Sherxon QORAYEV,
f.f.b.f.d., SamDU tadqiqotchisi
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola Qo'qon xoni Umarxon Amiriy huzurida tashkil etilgan adabiy kechalarga bag'ishlanadi.

Umarxonning bunday yig'inlarida shohlar shoiri o'z she'rlaridan o'qigan va saroy shoirlarini ham unga ergashib she'r aytishga chorlagan.

Maqolamizda mazkur she'riyat kechalarining o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: Ulamo suhbat, kamol ahli, mushoira, she'riy Devon, shuarolar majlisi.

Аннотация

Данная научная статья посвящена литературным вечерам, организованным под эгидой кокандского хана Умархан Амيري.

На таких собраниях Умархана поэт царей читал свои стихи и призывал дворцовых поэтов следовать за ним и читать стихи.

В нашей статье мы анализируем особенности проведения этих поэтических вечеров.

Ключевые слова: Беседа улемов, люди совершенства, мушайра, поэтический девон, собрание поэтов.

Annotation

This scientific article is dedicated to the literary evenings organized under the auspices of Kokand khan Umar Khan Amir.

At such gatherings of Umar Khan, the poet of kings read from his poems and encouraged the poets of the palace to follow him and recite poetry.

In our article we analyze the peculiarities of these poetry evenings.

Keywords: Ulema conversation, people of perfection, mushaira, poetry devon, meeting of poets.

Tarixiy manbalarda Qo‘qon xoni shohlar shoiri Umarxon (1787-1822) saroyida ham Buxoro va Xorazm hukmdorlari huzurida o‘tkazilgani kabi she‘rxonlik majlislari tashkil etilgan. Amiriy taxallusi bilan she‘rlar yozgan Umarxon olimu shoirlar, san‘atkorlar bilan suhbatlashishni, mushoiralar o‘tkazishni xush ko‘rgan. U “Devon”i debochasida bu haqda shunday yozgan: “Gohi ulamo suhbatlarinda o‘lturdim. Oyot va ahodis gavharlari birla quloq sadafin to‘ldurdim. Va gohi fazlu kamol ahli birla majolasat (majlislar) qildim. Ilmu donish nuridin bahra oldim. Fununi maoniy javohirlarin ko‘ngil xazinasig‘a soldim [1, 20]”.

Darhaqiqat, XIX asrning birinchi choragida Qo‘qonda o‘ziga xos adabiy muhit vujudga keldi – uning boshida ma‘rifatparvar hukmdor Amir Umarxon turar edi. Ilmu ijod ahliga homiylik qilganligi tufayli uzoq-yaqindan ko‘plab iste‘dod sohiblari undan panoh izlab kelganlar. O‘zining ham ko‘nglida “ishqu muhabbat zavqi va zamirida oshiqona she‘rlar shavqi g‘olib” bo‘lib, go‘zal va hassos g‘azallar yozgan Amiriy, xususan shoirlarni o‘ziga yaqin tutgan. Uning atrofida 70 dan ziyod shoir to‘plangan. Ular orasida Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Maxmur, Gulxaniy, Ma‘dan, Hoziq, G‘oziy, Fazliy, Ado, Nodir, Mutrib, Miriy, Nola kabi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida katta rol o‘ynagan zabardast so‘z ustalari bo‘lgan [2, 390-391]”. Ibratning “Farg‘ona tarixi” asarida yozilishicha, “Umarxon a‘dal uz-zamon, a‘lam ul-iqron fazl jihatidan baniyi Shohrux jumlasidan foiq, shoir fasih ul-bayon va balig‘ ayon, suxansanji ovon, forsiy va turkiyda behamto o‘lub, ahli balog‘atlar ba‘zi she‘rlarini kutubi ma‘oniyda erod etkan ekanlar...Ul asrda shoirlik rivojda bo‘lib, shuarolar ko‘paygan edi. Chunonchi, xoni borgohi oliylarinda bir kun shuarolar majlisi ekan, Mavlono Fazliyga qarab xon buyurgan ekanki, bul gulruxlarga bir nima so‘z ayting, deganda Mavlono Fazliy Namongoniy bu to‘rt nafar mahramlarga qarab ushbu ruboiyni takallum aylamish:

Zulfiqorxon haqida:

Tilim go‘yo barahna Zulfiqori na‘ti Ahmaddur,

Sayfiddinxonga:

Kesarga rishtai botilni Sayfiddin mushaddaddur.

Sodiqxonga:

Yetushsa munisi Sodiq hama kozib bo‘lur barham,

Qulmuhammadxonga:

Hama olam umid etkuchi yaxshi Qulmuhammadur.

Bu ruboiy Umarxonga manzur bo‘ladi[3, 288-289] va shundan so‘ng majlisda mushoira boshlanadi. Fazliy Namongoniy hukmdor atrofidagi adabiy muhitni shunday ta‘riflaydi:

Ba sehri suxan az fununi kamol,
Guhar rezad az kilki shirin maqol.
Zi har firqa bar dargahash dar huzur,
Ba har majlis az vay nishotu surur.
Bud bar suxan rag‘batash beshtar,
Ki dorad ba ma’no shunoson nazar.
Amiri falak taxt xurshid toj,
Chunon dod bar ahli ma’ni rivoj...
Ba in jumla dod on qadar zebu zayn,
Ki mansux shud davri Sulton Husayn...
Ba avsofi u shoiron az niyoz,
Madoyih guzoru qasoid tiroz.
Ba dargohi u jumlai shoiron,
Ba sehri suxan zufunun soxiron.
Az on shoironi farzonaand,
Havoxohi sultoni Farg‘onaand.
Hama ruzu shab bar dari shahriyor,
Sanoxonu farmon barad jon sipor.
Ba har qofiya shoh guyad g‘azal,
Radifash ba ahli suxan shud masal.
Ba har vazn kilcash kunad zamzama,
Shudandash dar on bahr payrav hama...
Guruhi buzurgoni oliy maqom,
Ki hastand dar majlisi shah mudom...
Suxanho, ki bemuddao go‘ftaand,
Guharhoyi asrori Haq suftaand...
Shabu ro‘z on zumrai e‘tibor,
Guhar rezad dar majlisi shahriyor...

Ya‘ni, saroy shoiri ta‘biri bilan aytganda, o‘zi(Umarxon)ning komil ilmidan so‘z sehri orqali, Shirin qalamidan gavharlar to‘kadi. Uning saroyida har bir firqa huzuru halovatda, Har bir majlisda esa shodlik va surur bor. So‘zga uning rag‘bati ko‘p bo‘lib, Ma’noshunoslar doimo uning e‘tiborida. Osmon taxtli va quyosh tojli Amir, Ahli ma’nilarga shunday rivoj berdiki... Shu jumladan, shu qadar zebu ziynat berdiki, Sulton Husaynning davri hech narsa bo‘lmay qoldi... Shoirlar niyozmandlik yuzasidan uning vasfida, Madhiyalar aytdilar va qasidalar yozdilar. Uning dargohidagi barcha shoirlar, So‘z bobida sehrsoz donolardir...O‘sha mardona tabiatli shoirlar, Farg‘ona sultoni (Umarxon)ning tarafdorlaridir. Ular kecha-kunduz shahriyorning eshigida, Unga sano aytib, farmoniga jonlari bilan amal qiluvchilar. Shoh qaysi qofiyada g‘azal aytsa, Uning radifi so‘z ahliga misol bo‘ladi. Uning qalami qaysi vaznda zamzama qilsa, Ular o‘sha bahrda payrav qiladilar... Oliy maqomga ega bo‘lgan ulug‘lar guruhi, Shoh majlisida doimo hozir edilar...Ular beg‘araz so‘zlar aytishib, Haq sirlaridan gavhar sochuvchidirlar... Bu

e'tiborga ega jamoa shahriyor (Umarxon)ning, Majlisida kecha-kunduz so'z gavharlarini sochadilar[4, 19-23].”

Shoir Mushrif Umarxon adabiy majlislarining doimiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan:

Bud Mushrif az xayli ahli hunar,
Ba ash'or fikrash bud korgar.
Hujum ovaridand ash'oriyon,
Ba dargohi sultoni sohibqiron.
Rasad basta har yak zi guftori xush,
Ba in chand avroq ash'ori xush.

(Mazmuni: Mushrif ahli hunarlar qavmidan bo'lib, Fikri she'r uchun qobil edi. Sohibqiron sulton dargohiga, Shoirlar yig'ilib kela boshladilar. O'zlarining xush she'rlaridan, Bu bir necha xush varaqlarga kiritmoqchi bo'ldilar.)

Bunday mushoira kechalarida odatda (yuqorida ta'kidlanganidek) shohlar shoiri bir g'azal aytar, nazm ahli esa bu she'rga tatabbu' bog'lashardi. “Majmuai shoiron” tili bilan aytganda, (Mushrif) qilib so'zda yozdi fikrin qaviy, O'zin etti sultondin payraviy [4, 282]” Mushrif kabi saroy shoirlari o'z g'azallarida Amir Umarxonni madh etishgan:

Sandek ermas, shahriyoro, barcha sultondin biri,
Qilmadilar jud sandek ahli ehsondir biri.
Ikki bulbuldurki, madhing bog'ida aylar navo,
Isfaroyindin biri, shahri Namangondin biri.
Mushrifo, tinmay duo qil xusravi Jam johini,
Kim, erursan zumrai madhi sanoxondin biri[4, 282].

Shoir Xijlat hukmdor huzuridagi mushoirlarida faol qatnashgan. Bunday she'riyat kechalaridan birida Amir Umarxon Xijlat g'azalidagi “o'kush” so'zini ko'rib, u mazkur so'zni noto'g'ri ishlatganini va “ukush” o'rniga “qamu” ishlatish kerakligini o'qtiradi:

Qamu nozik ado ermasdi Xijlat podshah lutfi,
Ani nozik xayoli fitrati darroka do'ndirdi[4, 290].

Shoir Miriy Amir Umarxonning xos shoirlari safidan o'rin olib, Qo'qon xonining maddohiga aylangan edi. U adabiy majlislarda o'z she'rlarini o'qirdi:

Ey ko'ngil, mumtoz erur xonlar aro xoqonimiz,
Barcha olamni musaxxar aylagan sultonimiz,
Qaysi sulton shohi shohon shohi Turkistonimiz,
Sayyidi olam amir ul-muslimin xoqonimiz,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizni davrimiz, davron bizing davronimiz.
Garchi ko'b kezduk jahonda xoru zoru darbadar,
To yettuk oxiri borgohi hazrat Sulton Umar,
Rishtai ixlos ila xizmatg'a bog'labmiz kamar,
Shukri lillah, bizga qildi lutfu shafqatdin nazar,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizni davrimiz, davron bizing davronimiz.
Yo Ilohiy, davlatu iqbolin afzun aylag'il,

Umr din sarshori barxurdor mamnun aylag‘il,
Saltanat qasrida, yo Rab, oni ma‘mun aylag‘il,
Miriyning tiri duosin zud maqrun aylag‘il,
Shoh bizni shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davr bizni davrimiz, davron bizing davronimiz [4, 305-307].

Umarxonning majlisi olimlar, fozillar, mashoyixlar va mudarrislar bilan gavjum bo‘lgan: “Umarxonning asrida va suhbatida bo‘lgan ulamo, fuzalo va mashoyix va mudarrislardan Zokirxo‘ja eshon Namangoniy va domla Mirzoyi qizikalon va hazrat domla Mo‘minbek va hazrat domla Abdulkarim va hazrat mulloyi Qobiliy va hazrat domla Orif Baskatiy volidi maxdum Hamom va to‘ra Xo‘ja Kalon Maxdum A‘zamiy va Eshonxon va To‘raxon to‘ra va Jahongirxon to‘ra Sayyid Ofoqiylarkim, mazkur amirga doimo hamnishin bo‘lub, har vaqt amirning majlisida ulamoyi muhaqqiqlar bo‘lub, ulamoyi xushomadgo‘ydin parhez qilur ekan.

Bulardan boshqa Umarxon “Majmui ush-shuaro” barpo qilib, zakiiy va zarif shuarolardin jam‘ aylab, hamma shuarolarning aytgan qasoid va g‘azaliyot va ash‘orotlarini jamlab devon qildirgandir. Umarxon asrida Farg‘ona eng obod yurtga aylandi, unda ilm va fazl taraqqiy etdi. Atrof va jonibdagi viloyat va mamlakatlardan Umarxonning avsofi hamidasini eshitgan ulamo va fuzalo va shuarolar Qo‘qonda jam‘ bo‘ldi. Shirinsuxan shoir Umarxonning aytgan she‘rlari Farg‘ona va boshqa viloyatlarda mashhurdir [5, 43-44]”. Bu mashhurlik nazmning badiiy jihatdan barkamolligi bilan belgilanadi. Shuning uchun Umarxon Amiriy g‘azallaridan birida “she‘rlarimning badiiy barkamolligini ko‘rib, hayron bo‘lma, bu nozik tab‘u bu baland iste‘dod Xudovandi karimning marhamati tufaylidir”, degan:

Taajjub qilmag‘il nogah Amir abiyotini ko‘rsang,
Bu tab‘i noziku zehni salim imdodi Rabdandur! [1, 21]

Bu fikrni Niyoz Muhammad Xo‘qandiy ham “Ibrat ul-xavoqin”da tasdiqlaydi: “(Uning muvaffaqiyatiga) ikkinchi sabab-Haq taoloning unga ko‘rsatgan lutfidir. (Umarxonning) muborak vujudini husn va chiroy bilan oro bergan: uning qomati muborakiga guldastadek chiroy berib, yuzi oqpar va xurshidliqo, nur taratuvchi, qora shahlo ko‘zlari ofoqni o‘ziga banda qiluvchi ta‘bi zarif, zehni latif edi. Saxiy va karim edi. Bu hamma fazilat Alloh taoloning unga ko‘rsatgan bag‘oyat lutfi va shafqatining inoyatidan bo‘lib, unga latif nazm va mavzun she‘r yozishni ato qildi” [10, 107].

Amiriy huzuridagi majlislarda mulozimlar tomonidan uning she‘rlari kuy jo‘rligida o‘qilgan, qo‘shiq qilib kuylangan. Bu haqda shoirning o‘zi “Devon”i debochasida yozgan: “Va chun har abiyot gavharlarni xayol dafinasidin terib va har nazm javharlarin andisha xazinasidin chiqorib zohir qilur erdim. Filhol atorud qalam muharrirlar kitobat silkig‘a chekar erdilar. To andak fursatda varaq poralar yuzi to‘ldi. Va ul musavvadalarni jam qilib ag‘yor nazaridin pinhon tutib, juzvdon ganjinasida yoshurur erdim va gohi biror g‘azalkim mulozimlar orasida mashhur bo‘lib qolur erdi. Nohid navo pari tal‘atlar yod olib, nishod majlisida o‘qub surud ohangi birla mutarannum bo‘lur erdilar va ushshoqlar ul navo zam-zamasi siymoidin huzur topib ruh g‘izosi etar erdilar. Ammo ajzolarini jam‘ qilmoq xayolu

xotirimda yo‘q erdi. Bir kun huzur majlisida zakitab’ zufununlarkim, so‘z gavharlarining sarroflari erdilar, iltimos qildilarkim, agar hazratlaridin ruxsati oliy muyassar bo‘lsa, bu shohvor gavharlarkim, ajzolar safhalarida va har qaysi g‘azal o‘z qofiyasi bahrida tartib bila bitilsa lozim bal alzam ko‘runur[1, 22]”. Tab’ ahlining majlisda bildirilgan taklifi qabul etiladi va Amiriy “Devon”i tayyorlanadi. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq og‘zaki ijodida ham keng tarqalgan yengil va o‘ynoqi vaznlarida yozilgan bu she‘rlarning barchasi ishqu muhabbat mavzuida. O‘zbek va tojik tilidagi she‘rlardan iborat devon g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi o‘n ming misradan ortiq she‘rni o‘z ichiga oladi[2, 392]. “Debocha”dagi fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, “Devon”dagi aksariyat she‘rlar adabiy kechalarda o‘qilgan. Jumladan, adabiy majlis tarannum etilgan quyidagi g‘azal ham:

Oldi labiga ul sanami dilnavoz nay,
Bu anjumanda topti zaboni daroz nay.
Dardi dilimni aytar edim yor bazmida,
Gar bo‘lsa erdi nolau zoring‘a soz nay.
Dardim taronasig‘a hamoxang bo‘lmadi,
Kim qilmasun surudig‘a majlisda noz nay.
Shirin g‘azallarim bila bargu navo topib,
Bo‘ldi Amiriy mahfil aro beniyoz nay.

Umarxonning har bir adabiy bazmida she‘rxonlik o‘tkazilgan: “Amirning o‘tirishlari qizil sharobga to‘la oltin, kumush qadahlarini davra bo‘ylab gir aylantiruvchi sarvqadli soqiyulardan xoli bo‘lmasdi. Bu majlislarda goh may ichilar, goh esa she‘rlar o‘qilar, xullas, yig‘inning biror lahza va soati shu ikki narsasiz o‘tmas edi. Davrada Umar Xayyom ruboiylari va Xoja Hofiz Sheroziyning baytlaridan o‘qilardi. Amir, ayniqsa, Xayyomning ushbu ruboiysini ko‘p tilga olardi, ruboiy:

Ezid bihisht va‘da bo mo mekard,
Pas xo‘rdani may harom bo mo kay kard?
Hamza ba arab ush‘uri shaxse pay kard,
Payg‘ambari mo haromii may bo vay kard.

(Xudo bizga jannatni va‘da qildi, Demak, may ichishni qachon harom qilibdi? Hamza arab bilan ush‘ur shaxsin izidan ketdi, Payg‘ambarimiz unga aroqni qachon harom qilibdi?)

Xoja Hofiz Sheroziy bayti ham majlislarda zikr etilardi:

Aybi may jumla bigufti, hunarash niz bigo‘y,
Nafi hikmat makun, az bahri dili omiye chand [6, 452-453].

(Mayning bari aybin aytding, yaxshi xislatin ham ayt, Omiylarga pand deya, faqat shu amri ma‘rufnigina dema.)

Adabiy kechalarda Jomiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy she‘rlari ham o‘qilgan.

Qo‘qon adabiy muhiti vakillari kabi “Malik ush-shuaro” Fazliy Namangoniy ham yig‘inlarda o‘qilgan g‘azallarida ma‘rifatparvar Umarxonni ulug‘lagan:

Zuhd ta‘rifini qil zohidg‘a bo‘lsang hamnishin,
Rindlar bazmida sog‘ar birla minodin gapur.
So‘zla ey Fazliy, Umar Sulton shukuhi adlidin,

Men qachon aydim Skandar birla Dorodin gapur.

Abdulkarim Fazliy Namangoniy Umarxon hukmronligi yillari (1810-1822) boshida Qo‘qonga keladi. Yuksak she‘riy iste‘dodi tufayli xonning nazariga tushib, saroy shoirlarining yetakchisiga aylanadi. U Umarxonning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari, hukmronligi davridagi voqealarni “Umarnoma” dostonida tasvirlagan. Fazliy boshliq shoirlar she‘riyat kechasiga yo‘l olishar ekan, albatta, yig‘inda yangi she‘rlarni, qasidalarni xon e‘tiboriga havola qilishgan:

Soqiyo yuzung aksi qildi bodani gulgun,

Lolarang sog‘ar tut bazmni guluston qil.

Fazliyo, Umar sulton dargohiga yo‘l topsang,

Ko‘zlaringga tufrog‘in surmai Sulaymon qil.

Umarxon va majlis ahli mazkur g‘azallarga o‘z baholarini berishgan. Qo‘qon adabiy muhitida katta mavqega ega bo‘lgan Fazliy Namangoniyning she‘rlariga adabiy majlislarda talab yuqori bo‘lgan:

To abad bo‘lg‘ay muxallad davlati Sulton Umar,

Soya soldi ra‘fati Fazliyi qallosh ustina.

She‘riy majlislarda shoirlar va shoiralar o‘rtasida mushoiralar bo‘lib turgan.

Ayniqsa, o‘z davrida Fazliy va Mahzuna o‘rtasidagi mushoira mashhur bo‘lgan:

Fazliy:

Yuz ofarin so‘zingga, lubbi lubob ko‘rmay,

Arzi jamol etarmu oyina ob ko‘rmay.

Mahzuna:

Kimdin chiqar bu so‘zlar, bag‘rin kabob ko‘rmay,

Ganj o‘lmag‘ay muyassar holin kabob ko‘rmay[7,110-111].

Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘ladiki, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari Sulton Husayn davri adabiy muhitiga taqlid qilishgan. Hatto shoir Sultonxonto‘ra Ado majlislarda mashhur bo‘lgan bir she‘rida o‘zini Navoiy, Amiriyini esa Husayniy bilan tenglashtirgan:

Gar Navoiydin Ado so‘zni o‘tkarsa ne tong,

Shoh Umar afzalmu yo Sulton Husayn Boyqaro.

Ma‘lumotlarga qaraganda, “Umarxonning vaziri Muhammad Abulqosim otaliq, Buxoro hukmdori amir Haydarning ukasi, Qo‘qonga kelgan Muhammad Husaynbek – shoir Afsus, Umarxonning sarkardalari, qozilari va boshqa a‘yonlar shoirlar davrasida majlislar tuzishgan.

Qo‘qonlik saroy shoirlarining ijodida shaklbozlikka zeb berilgan”[8, 81].

Muxtasar qilib aytganda, “70 yildan ziyod vaqt davomida (Sobiq ittifoq davrida) ko‘plab ijodkorlarimizni “diniy-mistik adabiyot vakili”, “saroy tarixchisi”, “saroy maddohi”, “yalong‘och sevgini kuylagan” deb taqirlab, ijodini bir chekkaga surib qo‘ydik. Vaholanki, o‘zbek klassik adabiyotining katta qismi ana shu saroyda yaratildi. Ehtimol tarix maydonida Amir Umarxondek zukko shoir kelib, o‘z saroyida bir adabiy dasta tuzmaganda, “Qo‘qon adabiy muhiti” degan ibora ham paydo bo‘lmasdi. Umarxonning xizmati shundaki, u chor atrofdagi ijodkorlarni – sozanda, bozanda, hofiz, naqqosh, xattot, adiblarni markazga yig‘di, ularga bosh-qosh bo‘ldi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari shaxsan Amiriy tashabbusi bilan yaratilgan. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”si

Umarxonning topshirig'i bilan 300 nusxada ko'chirilib, xalq orasiga tarqatilgan. Uning davrida ko'plab asarlar kitobat etilgan, tarjima qilingan, bitilgan. Birgina Abdulkarim Namangoniy Fazliyning "Majmuat-ush-shuaro"sida Qo'qon xonligida yashab ijod etgan 101 nafar shoir asarlaridan namunalar keltirilgan.

Demak, Amir Umarxon saroyi va uning atrofidagi adabiy doira davr ijodiy jarayonida yetakchi mavqega ega bo'lgan. Shuning uchun ham bu adabiy muhitni Amiriy va saroy shoirlari ijodini puxta o'rganmay turib, mukammal tasavvur qilish mumkin emas [9, 14].

Zotan, Qo'qon adabiy muhiti va Umarxon huzuridagi she'riyat kechalari o'z davri o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotiga bemisl hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amiriy. Devon. O'zbek tilidagi she'rlar. T.: "Fan"-1972.
2. Ochilov Ergash. Barhayot siymolar. T.: O'zbekiston-2012.
3. Ibrat. Farg'ona tarixi. T.: "Kamalak"-1991.
4. Fazliy Namangoniy. "Majmuai shoiron". T.: Fan, 2018.
5. Mulla Olim Mahdum Hoji. "Tarixi Turkiston". Qarshi.: "Nasaf"- 1992.
6. Muhammadhakimxon To'ra. Muntaxab at-tavorix. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
7. G'azal bo'stoni. T.: "Yosh gvardiya" – 1988.
8. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T.: Fan -1993.
9. Homidiy Hamidjon. Ko'hna Sharq darg'alari. T.: Sharq NMAK BT-2004.
10. Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Ibratul xavoqin (Tarixi Shohruxiy). T.: Turon zamin ziyo, 2014.

QO'QON TARIXNAVISLIK MAKTABI

Zohid MADRAHIMOV,

NamDU dotsenti, t.f.n.

Fazliddin MAMASIDIQOV,

NamDU talabasi

(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Qo'qon xonligi hukmdorlari hamda ular davridagi fan, san'at hamda madaniyat sohasidagi islohotlar-u, o'zgarishlar va yutuqlar haqida so'z boradi. Shuningdek, xonlik adiblarining asarlari mazmuni haqida ayrim ma'lumotlar ham ayni quyida yoritib berilgan. Xonlikdagi tarix va adabiyot sohalari bir-biri bilan bog'liqligi, hamda Qo'qon adabiy muhitining shakillanishi ham Qo'qon xonligi madaniyatining yuksakligiga yana bir karra misol bo'la oladi.

Kalit so'zlar. Qo'qon adabiy muhiti, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy, "Zafarnoma", "Shohnomai Umarxoniy", "Tarixiy Shohruxiy", xattotlik, Kalvak qishlog'i, memuarlik, Aliquli amirlashkar.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются правители Кокандского ханства и проведенные в их время реформы, изменения и достижения в науке, искусстве и культуре. Также ниже приведены некоторые сведения о содержании произведений ханских писателей. Взаимосвязанность истории и

литературы в ханстве, а также формирование литературной среды Коканда – еще один пример высокого уровня культуры Кокандского ханства.

Ключевые слова. Кокандская литературная среда, Мирзо Каландар Мушриф Исфарагий, «Зафарнома», «Шохномай Умархони», «Тарихи Шохрухий», каллиграфия, село Калвак, мемуары, Алигули амирлашкар.

Annotation:

This article discusses the rulers of the Kokand khanate and the reforms, changes and achievements in science, art and culture during their time. Also, some information about the content of the works of khanate writers is given below. The interconnectedness of history and literature in the khanate, as well as the formation of the literary environment of Kokand, is another example of the high level of culture of the Kokand khanate.

Keywords. Kokand literary environment, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy, “Zafarnoma”, “Shohnomai Umarchoni”, “Tarihi Shohrukhiy”, calligraphy, Kalvak village, memoir, Aliquli amirlashkar.

Qo‘qon xonligi hukmdorlari Norbo‘tabiy (1763-1798), Olimxon (1798-1810), Umarxon (1810-1822) va Muhammad Alixon (1822-1842) davrida mamlakat O‘rta Osiyoda yetakchi mavqelardan birini egallagan, o‘z navbatida madaniyat ham taraqqiy etgan. Shuningdek, xonlikning qudratli hukmdorlari Umarxon va Muhammad Alixonlar ilm-fanga homiylik qilgani va o‘zi ham ijod qilgani tarixdan ma‘lum.

Qo‘qon xonligining siyosiy jihatdan mavqeining ko‘tarilishi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yuksalishi va madaniy hayotning tarqqiyoti Umarxon (1810-1822) davriga to‘g‘ri keladi. Amir Umarxon nafaqat xon balki o‘zbek adabiyoti tarixida “Qo‘qon adabiy muhiti” deb nomlangan, nihoyatda katta adabiy muhitini asoschisi ham edi. Umarxon xonlik taxtiga ko‘tarilgan so‘ng siyosit bilan birgalikda maorif, fan, adabiyot va ayniqsa, san‘atni rivojlantirshga katta e‘tibor qaratgan.

Bu davrda Qo‘qon xonligida bir qator tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qilingan, yangi tarixiy asarlar yartilgan. Yangi yaratilgan asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor edi. Ularning ayrimlari proza yoki qisman she‘riy usulda yozildi. Bu esa qo‘qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o‘zlari ham she‘riyatda qalam tebratganliklaridan darak beradi. Ayrimlari esa, o‘z davrining mashhur shoirlaridan bo‘lgan. Ba‘zi mualliflar asli qo‘qonlik bo‘lishmasa ham, ko‘p vaqtlar Qo‘qon shahrida yashab, shu yerda o‘z asarlarini yozganlar.

Ular jumlasiga: Junayd Mullo Avaz Muhammad Mullo Ro‘zi Muhammad So‘fi o‘g‘li, Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy, Muhammad Hakimxonto‘ra ibn

Sayid Ma'sumxonto'ra, Mirza Shams Buxoriy, Mullo Niyoz Muhammad Xo'qandiy ibn Mullo Ashur Muhammad Xo'qandiy "Niyoziy", Mahzun, Mirza Aziz ibn Muhammad Rizo Marg'iloniy, Ali Qori Qunduziy yoki Ko'handiziy, Mahmud Hakim Yayfoniy Ho'qandiy, Muhammad Solihxo'ja ibn Qoraxo'ja, Muhammad Yunus Toib Muhammad Amin o'g'li, Shavqiy Namangoniy, Abu Ubaydulloh Muhammad Sultonxo'ja o'g'li Toshkandiy, Mirza Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiy kabi tarixchilarni kiritish mumkin.

Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy – tarixchi va shoir. U Isfara shahrida tug'ilib, Umarxon hukmronlik qilgan davrda Qo'qon shahriga ko'chib kelgan. Mushrif Umarxon saroyida qozi askar lavozimida xizmat qiladi. Umarxonning buyrug'iga binoan Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy Fazliy Namangoniyning "Zafarnoma" asarini nasriy qilib yozadi. Bu asarning nomi "Shohnomai Umarxoniy" bo'lib, xonning vafotidan keyin yozib tugatiladi. Asar she'riy yo'l bilan yozilgan "Umarnoma" (Avaz Muhammad Attorning "Tuhfat at-tavorixi xoni" asarida shunday nomlangan) asariga asoslangan holda yozilgan, chunki muallif Fazliydan ko'plab misollar keltiradi. Asarda juda ko'p qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [1, 174].

Mullo Niyoz Muhammad Xo'qandiy – 1802-1803-yillarda Qo'qonda harbiylar oilasida tug'ilgan. U harbiy xizmatni tahminan XIX asrning boshida tashlab Qo'qonda o'z mahallasida yashay boshladi. Shu yerda o'zining "Tarixiy Shohruxiy" nomli asarini yozdi. Uning "Tarixiy Shohruxiy" kitobi 1885-yili N.Pantusov tomonidan chop ettirilgan. Bu asar Xudoyorxonning topshirig'iga asosan yozilgan bo'lib, Shohruhbiy davridan to 1872-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi [2, 44].

Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy (XVIII asr oxiri – XIX asrning 70-yillari) – o'zbek tarixchisi. U Umarxon, Muhammad Alixon, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxon, Sulton Sayidbeklarga zamondosh bo'lib, ko'p tarixiy voqealar va hodisalarning shohidi bo'lgan. Avaz Muhammad ikki jildlik "Tarixi jahonnamoyi" ("Jahonni ko'rsatuvchi tarix") hamda Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlagan "Tuhfat ut-tavorixi xoniy" ("Tarixning shohona tuhfasini") nomli asarlar muallifidir [3, 43-44]. Ikkinchi asarida u Qo'qon xonligi tashkil topganidan boshlab, XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan tarixini bayon etgan. "Tuhfat ut-tavorixi xoniy" Qo'qon tarixini haqqoniy yoritib beruvchi eng qimmatli asarlardandir. Avaz Muhammad umrining oxirigacha tabiblik va xattotlik bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bizgacha hind tabibi Muhammad Arzaning Avaz Muhammad qo'li bilan ko'chirilgan "Mafriz al-qulib" nomli asarining nusxasi yetib kelgan.

Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy "Tarixi jahonnomai" sharqona usulda yozilgan asardir. Unda "debocha"dan keyin xonlarning shajarasi berilgan. Qo'qon

xonligi tarixi batafsil yozilgan. Shuni eslatib o'tish joizki, asarning kirish qismida muallif ushbu asarini 1822-yil may oxirida boshlagani haqida yozadi [4,–Б.174.].

Shavqiy Namangoniy (1805-1889) – o'zbek tarixchisi va shoiri. “Jome' ul-xavodis”, “Tarixi Xo'qand”, “Pandnomai Xudoyorxon” kabi tarixiy dostonlari Xudoyorxon davridagi ijtimoiy, siyosiy voqealarning o'zaro munosabatlarini o'rganishda ahamiyatlidir. 1805-yilda hozirgi Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumaniga qarashli Kalvak qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Dastlabki ma'lumotni otasi Mulla Hasandan o'rgangan Shavqiy shu tumanga qarashli Shahand qishlog'idagi madrasada o'qigan” [5, 32]. U madrasani tugatgach o'z qishlog'iga qaytadi. Sababi otasi vafot etib, tirikchilik g'amida bo'z to'qib oilani boqadi. Muhammad Alixon shoir Shavqiy she'rlaridan xabar topgach, uni huzuriga chorlab Asaka yaqinidagi Kulla degan joyning qozisiga mirza etib, ishga tayinlatdiradi. Xonlikda toju-taxt uchun kurash va o'zaro urushlar boshlanib ketgach, u yana o'z qishlog'iga qaytadi. Keyinchalik Namanganga kelib, ijodiy ish bilan shug'ullanadi. Shavqiy o'z ijodi davomida 10 ming misradan ortiq she'riy misralarni meros qoldirgan. Uning “Pandnomai Xudoyorxon” va “Jome' ul-Havodis” degan dostonlari, “Qo'qon voqeasining tarixi” nomli asarlari ma'lum. Ilg'or fikrli shoir Shavqiyning odob va ahloqiy qarashlari uning she'rlarida o'z ifodasini topgan [6, 55-56].

Muhammad Hakimxonto'ra (1802-yilda tug'ilgan) – Qo'qon xoni Norbo'tabiyning nabirasi, Olimxon va Umarxonlarning jiyani. Muhammad Hakixonto'raning otasi Ma'sumxonto'ra Olimxon va Umarxonlarning singlisi Oftoboyimga uylangan edi [7, 7].

Qo'qon xoni Muhammad Alixon Muhammad Hakimxonto'rani avval To'raqo'rg'onga, so'ng Namangan va Kosonga hokim etib tayinlaydi. Keyinchalik esa, o'ziga nisbatan xiyonatda ayblab, Qo'qon xonligidan quvg'in qilgan. Muhammad Hakimxonto'ra O'rta Osiyo xonliklaridan tashqari, Afg'oniston, Eron, Misr va boshqa arab mamlakatlarida bo'lgan va umrining oxirida ko'rgan-kechirganlari asosida “Muntaxab at-tavorix” (“Tarixlar to'plami”) asarini yozgan [8, 174-175]. Bu asar Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganishda muhim manbadir.

Hakimxonto'raning “Muntaxab at-tavorix” nomli asari o'zining janri bo'yicha o'ziga xos janrli bo'lib, jahon tarixi, lokal (mahalliy) tarix va memuarlikni mujassamlashtirgan. Asar rejasiga ko'ra tirik jahon tarixidir. Ammo uning hajmi va ahamiyatiga qarab, mazmunan O'rta Osiyo tarixiga oid bo'lganligi tufayli birinchi navbatda unga lokal (mahalliy) tarix sifatida qarash mumkin. “Muntaxab at-tavorix”ning o'zbek va fors tillaridagi variantlari mavjud. Unda payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar, qadimiy Eron, Arab xalifaligi, somoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, mo'g'ullar, temuriylar va boburiylar davri tarixidan

qisqacha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Buxoro va Qo'qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab XIX asrning 40-yillarigacha bo'lgan tarixi to'liqroq tasvirlangan.

Asarda muallifning Rossiya, arab mamlakatlari va Eronga qilgan sayohatlari natijasida olgan taassurotlari va shu jumladan mazkur mamlakatlar xalqlarining turmushi, urf-odatlariga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan.

Mullo Ali Qori Qunduziy (1786-1857) – asli qunduzlik bo'lsa-da Qo'qon xonligida yashab, ijod qilgan. “Tavorixi manzuma” va “Hol ul-Faroid” asarlarini yozgan. “Tavorixi manzuma” Qo'qon–Xitoy munosabatlarini yoritganligi bilan ham e'tiborlidir.

Mahmud Hakim Yayfoniy Xo'qandiy (Mahmud ibn mullo Shodi Muhammad) (1850-1930) – tarixchi, tabib va adib. Hakimiy taxallusi bilan she'rlar yozgan. O'z g'azallarini jamlab devon (“Devoni Hakimiy”) tuzgan. “Tariq ul-iloj” (“Davolash usuli”), “Abu Ali jbn Sino qissasi”, “Ma'dan ul-adviya” (“Dori-darmonlar manbai”), “Qonun ul-iloj” (“Davolash qonuni”), “Mujarraboti Mahmudiy” (“Mahmud tajribalari”), “Xullas at-tavorix” (“Tarixlar sarasi”) kabi asarlar yozgan. Asarlarining ko'pchiligi Qo'qon shahridagi adabiyot muzeyida saqlanmoqda. Hakimiyning “Xullas at-tavorix” asari Qo'qon xonligi tarixiga oid [9, 177-178]. Asarda Shohruhbiy, Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Erdonabiy, Bobobek, Sulaymon, Norbo'tabek, Olimxon, Umarxon, Muhammad Alixon kabi xonlardan to Xudoyorxongacha bo'lgan voqealar bayon etiladi. Asarda madrasalar, masjidlar, ark va Qo'qon shahridagi boshqa me'morchilik qurilishlariga haqidagi ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan.

Mahzun (Ziyovuddin Xo'qandiy) – shoir va tarixchi. Xudoyorxonning farmoniga binoan “Shohnoma” asarini yozgan. Bu noyob va yagona qo'lyozma kitob Turkiyada “Osiyo tarixi” nomi bilan saqlanmodda. Asarda asosan Qo'qon xonligi tarixi bayon etilgan. Muallif o'zini g'azallar va asar matnida “Mahzun” deb atagan [10, 53].

Mirza Aziz bin Muhammad Rizo Marg'iloniy – Muhammad Alixon, Sheralixon, Xudoyorxon va Mallaxon davrlarida Qo'qonda davlat mansablarida xizmat qilgan. Shuning uchun ham u xon saroyidagi kutubxonaning noyob kitoblaridan foydalanib, aniq ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lgan. Muallifning “Tarixi Aziziy” asari Qo'qon xonligiga bag'ishlangan [11, 131-132].

Qo'qon xonligi davrida xonlikning yirik savdo va madaniyat markazi hisoblangan Toshkent shahrida ham bir qancha tarixchilar yashab, ijod qilganlar. Xususan, Abu Ubaydulloh Muhammad Sultonxo'ja o'g'li XIX asrda Toshkentda yashab ijod qilgan muarrix va olim bo'lib, memuar va biografik janrda yozilgan “Xulosat ul-ahvol” asarini yozgan. Asar 148 varaqdan iborat bo'lib, Qo'qon ipak qog'oziga 1864-1865-yillarda muallif tomonidan ko'chirilgan. Tarixiy manba

sifatida ushbu asar Qo‘qon xonligi tarixi, xo‘jalik va madaniy hayotiga oid bo‘lgan dalillarga ega [12, 45].

Asar mazmuni Toshkent mulkida yuz bergan voqealarni o‘z ichiga olib, xonlikning boshqa hududlari haqida ham ma‘lumot beradi. Asarda Toshkentning Rossiya tomonidan bosib olinishi, Aliquli amirlashkarning halok bo‘lishi haqida ham ma‘lumotlar berilgan. Abu Ubaydulloh o‘sha davrdagi Toshkentning madaniy hayotiga oid, olim va domullolar Xalifa Bahodir shayx, eshon Yusufxon va boshqalar haqida ba‘zi ma‘lumotlarni keltiradiki, bular bizga o‘tgan asrning ma‘naviy muhitini yoritishimizda yordam beradi [13, 45].

Muhammad Solihxo‘ja ibn Qoraxo‘ja – toshkentlik tarixchi. Muhammad Solih fors tilida “Tarixi jadidai Toshkand” (“Toshkentning yangi tarixi”) nomli 2 jildlik tarixiy asar yozgan (1862 – 1887). U ushbu asarni 25 yil davomida yozgan. Muhammad Solihning ko‘p ma‘lumotlari Qo‘qon xonligining tarixi va madaniyatiga oid bo‘lib, ba‘zi masalalarni kengroq va aniqroq yoritish uchun yordam beradi.

Asarning ikkinchi jildi Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan. Muhammad Solih tarixiy voqealarning ishtirokchisi sifatida Marg‘ilon, Andijon va Samarqandning Rossiya tomonidan istilo etilishini tasvirlaydi. Jumladan, asarda Muhammad Solihxo‘ja Toshkent bosib olingandan so‘ng, o‘nlab ulamo va fozil kishilarning xonlik hududidan chiqib ketganlarini yozadi. Madaniyat arboblari, amaldor va fozil kishilar Buxoro va Sharqiy Turkistonga ketganlarini alam bilan izohlagan.

“Tarixi jadidayi Toshkand”ning eng oxirgi qismi ushbu tadqiqot ishi uchun nihoyatda qimmatlidir. Bu qismda Toshkent va uning atrofida joylashgan tarixiy obidalar tavsifi, madrasa va mozorlar, shahar dahalari, Toshkentning olimu fozillari, ma‘rifat ahli, hofizu musiqashunoslar, mudarris va domullolari haqida juda qimmatli ma‘lumotlar bor. Bu ma‘lumotlar o‘tmish tarixi va madaniyatini shunday fozillar nomi bilan to‘ldirishga xizmat qiladi [14, 46].

Mirza Olim ibn Mirzo Rahim Toshkandiyning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” (“Sultonlar nasablari va xonlar tarixi”) asari qimmatli manba hisoblanadi. Asar muallifning boshidan kechirgan voqealari tafsiloti va ko‘pgina tarixiy manbalar asosida yozilgan. Uning tarixiy va badiiy manba sifatida quyidagi jihatlari ahamiyatga ega.

Avvalo, bu asar Qo‘qon tarixnavislik maktabida davlat yangi ma‘muriyat itoatiga o‘tganidan so‘ng yozilgan. Muallif yangi hukumatga bo‘lgan salbiy munosabatini bildiradi. Mirza Olim Farg‘ona mulkining Rossiya ma‘muriyati itoatiga o‘tishi bilan zulm va sitam haddan oshib ketgani, jamiyat axloqi inqirozga duch kelganini yozadi [15, 49]. Bu kitobda o‘sha davr siyosiy hayotiga

oid ma'lumotlardan tashqari, Qo'qonda yashab ijod etgan ayrim tarixiy shaxslar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor.

Muhammad Yunus Toib Muhammad Amin o'g'li – bir qancha tarixiy asarlarning muallifi bo'lib, xonlik davrida Aliquli amirlashkarga (1830-1865-yillarda) muovini, ruslar Toshkentni bosib olgandan so'ng Sharqiy Turkistonda Yorkand hokimi, 1877-yildan keyin Qo'qonga qaytib kelib, qozi lavozimlarida ishlagan. Uning “Tuhfayi Toyib”, “Tarixi Aliquli amirlashkar” va “Hadiqat ul-anvor” (“Nurlar bo'stoni”) asarlari Qo'qon tarixnavislik maktabida alohida ahamiyatga egadir [16, 47]. Uning “Tarixi Aliquli amirlashkar” asarining qimmati shundaki, u xalq qahramoni Aliquli amirlashkarning faoliyati haqida zarur ma'lumot beradi. Asarda Toib 1858-yildan 1865-yilgacha bo'lgan Turkiston xalqlari tarixi sahifalarining yoritilmagan joylariga tegishli muhim ma'lumotlarni berib, shu zaminning o'sha davrdagi tarixiy-siyosiy ahvolini batafsil bayon qiladi. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi, har-xil kuchlarning o'zaro munosabat va nizolarini ham yoritib beradi.

Yuqorida keltirilgan qisqa misollardan ko'rinib turibdiki, Qo'qon xonligida tarixshunoslik rivojlangan va ko'plab tarixchilar ijod qilgan. Bu davrda yozilgan tarixiy asarlar shu kunga kelib muhim va qimmatli manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобобеков Ҳ. Н. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996.
2. Воҳидов Ш., Худойкулов Т., Чориева Д. XIX аср Тошкент ҳукмдорлар
3. Исабаева Г. С. XIX асрда Қўқон хонлигида маданий ҳаёт: тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2010.
4. Қаюмов А. П. Қўқон адабий муҳити.–Т.: Ўзб. Фан. Акад., 1961.
5. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1990.
6. Муҳаммад Ҳақимхонтўра. Мунтахаб ат-таворих. – Т.: Янги аср авлоди, 2010.
7. Энвер Хуршут. Амир Умархоннинг канизи // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – №9.

DILSHODI BARNO SHE'RIYATINING AXLOQIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Gulchehra XO'JANOVA,
f.f.n., TDYU qoshidagi akademik litsey
Tillar kafedrasi mudiri.
Fazilat Qosimova,
TDYU qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ma'rifatparvar shoira Dilshodi Barnoning pedagogik faoliyati hamda she'riyatidagi tarbiyaviy ahamiyatga molik o'rinlar haqida fikr-

mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, shoiraning insoniy fazilatlar xususidagi pand-o'g'itlari e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: ma'rifat, maktabdorlik, millat farovonligi, himmat, hayrat, iffat.

Аннотация:

В данной статье комментируется педагогическая деятельность просветительницы Дилшоди Барно и ее воспитательное значение в поэзии. Принимаются во внимание и учения поэта о человеческих качествах.

Ключевые слова: просвещение, школьное образование, благополучие нации, великодушные, чудо, селомудрие.

Annotation:

This article comments on the pedagogical activity of the enlightened poet Dilshodi Barno and its educational significance in poetry. The poet's teachings on human qualities are also taken into account.

Keywords: enlightenment, schooling, well-being of the nation, generosity, wonder, chastity.

Ma'rifatparvar shoira Dilshodi Barno Qo'qon adabiy muhitida o'z o'rniga ega ijodkordir. U umrining asosiy qismini millat farzandlarini bilimli qilish uchun sarfladi. Shoira yashagan muhitda xotin-qizlarning savodli, ma'rifatli bo'lishi kamyob hodisa edi. Shu bois Dilshodi Barno aynan yosh qizlar uchun maktab tashkil qildi. Ta'kidlash o'rinliki, Qo'qon adabiy muhitida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan bir qancha shoiralalar ilk tahsilni shu maktabda olishdi, adabiyot, she'riyatga bo'lgan katta qiziqishlari ayni maskanda shakllandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Dilshodi Barno ham maktabdorlik faoliyati haqida shunday yozadi: "Men sakkiz yoshing'acha oynaksiz xat ko'rub, maktabdorliq qildim. Ellik bir yil maktab tutib, o'rta, avsot hisobida yigirma to'rt toliba tutub, sakkiz yuz to'qson bir qizni bosavod qildim. Alardin qariyb to'rtin bir tab'i nazm erdilar". U "Tarixi muhojiron" asarida Mazluma, Ummida va Xayriniso kabi shogirdlari ulug' shoiralarning safiga qo'shilganini faxr bilan yodga oladi. Ko'rinadiki, Dilshodi Barno ilm-u kamolotda o'rnak bo'lgulik ustoz bo'lgan. Millat farzandlarining, ayniqsa, xotin-qizlar ilmli bo'lishida shoiraning xizmati beqiyos bo'lgan. Bu haqida olim M.Qodirava shunday deydi: "Dilshod o'z maktabida yosh qizlarni tarbiyalar, ularga xat-savod o'rgatar va ularni chuqur balim egasi qilib chiqarishga intilar edi. Shoiraning ustozlari adabiyotimizning klassiklari Nizomiydan Bedilgacha va Navoiydan boshlab Nodiragacha bo'lgan eng yaxshi qalam sohiblari edilar. Dilshod ulug' shoir Alisher Navoiyni o'ziga pir deb biladi. Dilshodning eng yaqki muallimi unipg zamondoshi shoiralalar homiysi Nodira va Uvaysny bo'ldn. Bu haqda shonraing o'zi: "Ulug' otinlar Jahonbibi va Nodiraxonim nazmlari saliqamga quvvat baxsh etadur" deb yozgan edi, U, shoir o'z zamondoshlariningn qalb tarjimoni bo'lishi zarur degan masalani ko'taradi". Darhaqiqat, Dilshodi Barno o'z she'riyati orqali ham axloqiy-tarbiyaviy o'g'itlar beradiki, bu ham shoiraning millat kelajagi, el-yurt farovonligi uchun olib borgan sa'y-harakatlaridan biri edi.

Dilshodi Barno inson botinidagi eng go‘zal fazilatlardan biri deb rostgo‘ylikni tilga oladi. To‘g‘ri so‘z xosiyati nafaqat kishining o‘zi uchun, balki butun jamiyat uchun ham xayrli bo‘lishini shoira yaxshi anglaydi. “Ich-u toshi” bir, to‘g‘riso‘z insonlarni dunyo elining sarkorlari deb ataydi:

*Rostliqg‘a zavol o‘lmas emish, biling,
Xalqingni halok etmag‘il, ey ayyor.
Barno, hama vaqt ichu toshing bir qilako‘r,
Husn ahlig‘a bo‘l ikki jahon ichra sarkor.*

Dilshodi Barno insoniy fazilatlarning eng saralari deb g‘ayrat, himmat, vijdon, iffat kabilarni ko‘rsatadi. Inson komillik tomon intilar ekan, bularning bari unda mujassam bo‘lmog‘i kerak. Barcha odam ham yetuk shaxs nomiga sazovor bo‘la olmaydi. Bu nom tanlanganlarning maqomidir. Agar kimgaki Alloh taolo shu ne‘matlarni ato etgan bo‘lsa, ularni, shubhasiz, xaloyiq xizmati uchun sarf etish farz ekanligini shoira qayd etadi:

*Ayo odam, senga quvvat erur fayz,
Hayotingga yarar qudrat erur farz.
Bu qudrat quvvatu g‘ayratg‘a monand,
Fazilat bo‘lg‘uchi himmat erur farz.
Bular ustiga vijdon ham kerakdur,
Neku raftor ila iffat erur farz.
Sanga shundoq fazilat berganiga,
Xaloyiqlar uchun xizmat erur farz.*

Dilshodi Barno o‘z zamonasining shoirasi, ijtimoiy buhronlar, davr taloto‘plari uning dunyoqarashi, ijodiy faoliyati, umuman, hayot yo‘liga ta‘sirini o‘tkazmasligi mumkin emas. U asli istravshanlik bo‘lib, 17 yoshida Qo‘qonga asir qilib olib kelingan bo‘lsa-da, Farg‘ona uning asl Vataniga aylangan. Shoira endi tom ma‘noda Qo‘qon farzandiga aylangan, uning bu o‘lkaga mehri shu qadar samimiyki, bu mehr-muhabbatni she‘rlari ifodasidagi vatanparvarlik tuyg‘ularidan ham sezish mumkin:

*Jonim tasaddiq Farg‘onajonim,
Ko‘ksingda o‘sdim gulgun Qo‘qonim,
San birla yashnar yer-u jahonim,

Bag‘ringda mavjud mulk-u makonim,
Yuzungga kulsin oxir zamonim.*

Shoiraning mehri qanchalik kuchli bo‘lsa, bu yurtda zulm, zo‘ravonlik kuchayib ketganidan qayg‘usi ham shu qadar ortiq. U Vatani g‘am-g‘ussasiga hamdardligini yaxshi kunlar kelishidan umidini uzmagan, kelajakka katta orzu bilan qarayotgan ma‘rifatparvar ayol siymosida ifoda qilmoqchi bo‘ladi:

*Ey jonajonim, hech bo‘lma diqqat,
Bu jabr-u zulmat albat muvaqqat,
Ketar boshingdin barcha mashaqqat,
Zamona qilg‘ay oxir bir shafqat,
Ko‘nglumda yo‘qdur zarra gumonim.*

Dilshodi Barno butun umrini ta'lim-tarbiya ulashishga bag'ishlab, el farovonligi uchun jon kuydirgan esa-da, o'zining mehnatidan qoniqmaydi, yurt dardiga malham bo'lgisi, zolimlar zulmidan vatanini ozod qilgisi keladi:

*Savoding chiqdi, xat husnin chiqorib olmading, Barno,
Dilingga ilm quvvat berdi olib qolmading, Barno,
Zamonning norasoligin dadil aytolmading, Barno.*

Dilshodi Barno haqgo'y shoira, u vatani, xalqi, ayniqsa, zamondosh ayollari oldida o'ziga bir mas'uliyat, burch yuklagan. Ularning istiqboli uchun qayg'urgan. Mana shu zaylda shoira adabiy-estetik qarashlari ham shakllangan. Nazmda o'zining ustozlari sanagan Nizomiy, Fuzuliyar ijodini ta'rif-tavsif qilgan g'azalida o'z she'riyatiga shunday baho beradi:

*Dilshod agar menimkini kim o'qisa,
O'z asrining borasida xabari cho'x.*

Haqiqatan, shoira ijodiy merosida mumtoz adabiyotga xos an'anaviy oshiqona mavzularda she'rlar uchrasa-da, ijtimoiy-siyosiy mavzu yetakchilik qiladi. Shu bois nafaqat o'z davri, balki bugun ham Dilshodi Barno ijodi orqali tarixiy hodisalar haqida xolis xulosalarga kelinadi. Ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati bugun uchun ahamiyatli va ibratlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

7. Anbar Otin. She'rlar. Risola. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
8. Dilshodi Barno. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1972.
9. Nodira-Komila. Devon. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
10. Uvaysiy she'riyatidan. – Toshkent: O'zbekiston KP Markaziy Komitetining nashriyoti, 1980.
11. Sharqning yetti yog'dusi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.

BADIIY ADABIYOTDA XARAKTER YARATISH VA IJODKOR MAHORATI

**Zokir RAHIMOV,
FarDU dotsenti, f.f.n.**

Annotatsiya:

Maqolada "Ulug'bek xazinasi" romanida xarakter va ruhiyat birligi haqida so'z yuritiladi. Xarakter o'ziga xos voqealar silsilasi ta'sirida shakllanib, unga bog'liq holda qahramon ruhiyatidagi turfa xil qarama-qarshiliklarni yuzaga chiqaradi. Ruhiy iztiroblarda tush tasviri muhim badiiy unsur ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: xarakter, ruhiyat, talqin, tush tasvir, ruhiy iztirob, bog'liqlik, obraz, mahorat, muhit, haqiqat.

Аннотация:

В статье идёт речь о единстве характера и внутреннего мира героев в романе «Улугбек хазинаси» («Сокровищница Улугбека»). Характер персонажей формируется под влиянием потока различных ситуаций, и вместе с ними и выводятся различные противоречивые стороны в характере

героя. Обосновывается роль сна, как основного художественного фактора, влияющего на душевное состояние.

Ключевые слова: характер, внутренний мир, интерпретация, изображение сна, душевное переживание, связь, образ, мастерство, среда, правдивость.

Annotation:

In this article, it is expressed the unity of character and spirit in the novel "The Treasure of Ulugbek". The formation of the character in the novel under the influence of a series of events reveals the various contradictions in the psyche of the protagonist. In the hero's mental anguish, it is proved that the image of a dream is an important artistic element.

Keywords: character, psyche, interpretation, dream image, mental anguish, connection, image, skill, environment, reality.

O'zbek tarixiy romanchiligining tadrijiy taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz, turfa xil mavzudagi asarlar maydonga kelganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, istiqlol yillariga kelib, bu mavzuda o'nlab romanlar yaratildiki, ulardagi o'ziga xos poetik talqin xususiyati, tasvir usuli, tarixiy obraz yaratishdagi ijodkor mahoratini alohida qayd etish lozim. Ammo bu tarixiy romanchilikning turfa xil ohanglarda taraqqiy etishida O'zbekiston xalq yo'zuvchisi Odil Yoqubovning o'rni ham alohida e'tirofga loyiq. Chunki adib sotsial jamiyatning turli qirralini talqin etish bilan birgalikda, tarixiy shaxslar obrazini yaratish jarayonida ham o'z mahoratini namoyon qila oldi.

Davrning yetakchi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan shaxs ham o'z navbatida oila, jamiyat, muhit va tarixiy voqelik ta'sirida shakllanadi, harakat qiladi. O'z davrining yetuk shaxslari har bir voqea-hodisa, muhit va sharoitga o'zining bevosita ta'sirini o'tkazadi. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlarni yaratadi, shu orqali o'z mahoratini namoyon qiladi. Yozuvchi hayot tasvirlari natijasida odamlarning yashash tarzi, xulqi, psixologiyasi, o'y-mushohadalari, orzu-intilishlarini ko'rsatib beradi. Bu esa badiiy asar syujetidan o'rin olgan barcha voqelar silsilasida harakat qiluvchi makon va zamoni namoyon qiladi.

Akademik Izzat Sulton badiiy xarakter haqida so'z yuritib, quyidagi nazariy qarashlarni qayd qilgan: «Xarakter kishilarning ma'lum toifasiga xos xususiyatlarni ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi» [1,103]. Shuning uchun xarakter muallif estetik idealini tashiydi. Badiiy asarda xarakter muayyan psixologik sharoitda harakat etishi natijasida namoyon bo'ladi.

Adabiyotshunos A.Rasulov inson xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlar bilan bir qatorda, xarakter darajasiga ko'tarilgan badiiy qahramon haqida so'z yuritib: «Inson o'sadi, o'zgaradi, shakllanadi, ruhan-ma'nan boyib boradi. Lekin inson tamoman o'zgarib, ikkinchi «men» kasb etmaydi, o'zligini yo'qotmaydi, ya'ni

ijtimoiy munosabatlar majmui inson mohiyati, fitrati mehvarida ro‘y beradi. Aniqroq aytsak, fitrat mavjudki, inson o‘zgaradi, moslashadi, tuslanadi, turlanadi. Demak, betakror, muhim o‘zak ijtimoiy munosabatlarni singdirib boradi. Adabiy xarakter deganda o‘zak (fitrat, tiynat) va ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi tushuniladi» [2, 9].

Darhaqiqat, badiiy adabiyot xarakterlarni yaratar ekan, turfa xil hayot ziddiyatlari zamirida shakllangan qahramonning ruhiy-ma‘naviy olamini, botinidagi qarama-qarshiliklarni asosli tarzda yuzaga chiqaradi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romaniga nazar tashlar ekanmiz, buyuk iste‘dod sohibi adolatli hukmdor va olim Ulug‘bek Mirzoning umrining so‘nggi yillaridagi ziddiyatlarga boy bo‘lgan hayotini mahorat bilan talqin eta olgan. O‘sha davrning murakkab qarama-qarshiliklariga qaramasdan ilm-fanning ravnaqi uchun og‘ir bir sharoitda qat‘iy kurash olib borgan. Buning natijasida hayotiy kurashlar bilan uzviy birlikda, botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar bilan ham kurashadi. Ana shunday bir sharoitda asar qahramonlarining xakteri shakllanib boradi.

Shuning uchun A.Rasulov «Ulug‘bek – romandagi mukammal psixologik xarakter», - deb ta‘riflaganda asar syujetidagi voqealar zamirida shakllangan va xarakter darajasiga ko‘tarilgan shaxs obrazini e‘tirof etganligi bejiz emasdir. Chunki xarakter insonning ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllangan ruhiy va jismoniy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ajralib turadi. Shaxs ijtimoiy muhit ta‘sirida o‘z xarakter qirralarini namoyon qiladi. Hayotda shunday xarakterlar bo‘ladiki, ular o‘z ta‘sirini muhitga o‘tkazadi, yoki o‘sha muhit qurboniga aylanadi. Shu ma‘noda, “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy sharoit zamirida shakllangan xarakter bilan uzviy bog‘liq holda ruhiy talqinning dialektik birligi o‘z ifodasini topgan.

Yozuvchi Odil Yoqubovning «Ulug‘bek xazinasi» romanidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi shaxslar psixologizmi bo‘lib, davr ruhini to‘laqonli ochishga, badiiy xarakterning yaxlit shakllanishiga xizmat qilgan. “...adabiyotda sharoit o‘z mustaqilligiga ega, u odamlarning ongiga bog‘liq emas, obyektiv qonuniyatlarga ko‘ra rivojlanuvchi konkret tarixiy vaziyatning in‘ikosidir. U xarakterni aniqlaydi, qahramonning xatti-harakatiga, hissiyot va kechinmalariga, so‘zlariga o‘z muhrini bosadi” [3, 41].

Darhaqiqat, romanda ushbu tasvir vositasi mahorat bilan talqin etilganligini ko‘ramiz. Masalan: “ - Sulton Muhammad Tarag‘ay! – dermish u, qavog‘i yozilmay. – Men seni o‘n to‘rt yashar chog‘ingda Movarounnahr taxtiga o‘tqazganimda umudim shu edimi? Qani ayt-chi, Movarounnahr sultoni: men bu dashti azimda Xoja Ahmad Yassaviyga bu maqbarai muazzamni nechun qurdirdim? Murodim ne edi manim?... –Bu maqbarai muazzamni qurdirishdan muddaoingiz ul piri murshid Xoja Ahmad Yassaviy hazratlarining pokiza ruhini shod etmoqdur, qiblagoh... –Ha, pokiza ruhlarini shod etmoq!.. Oltin taxtimni senga ishonib topshirg‘animda ne bo‘ldi? Ana, pastga qara! Quzg‘un Baroqbek suvoriylari shaharni zabt etar, bu muqaddas dargohni toptar, xor qilar!.. Mirzo Ulug‘bek qarasa, atrofdagi shahar ko‘chalarida, ikki yoni rasta mavzellarida qalmoqbashara suvoriylar, oysimon egri qilichlarini o‘ynatgan yasavullar suron

solib ot o‘ynatishar, uylarga o‘t qo‘yishar, hamma yoq dud va yong‘in ichida qolgan emish” [4, 48]. Bu o‘rinda oldinda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealar silsilasidan Mirzo Ulug‘bek ogohlantiriladi.

Asardagi tush motivi qismat darakchisi vazifasini ham bajarmoqda. Chunki o‘sha kuni erta tongdayoq o‘n nafar yigit xabar olib keladiki, Baroqxon Yassi va Sig‘noq shaharlarini, atrofdagi qishloqlarni talon-taroj qilib, oddiy xalqqa zulm qilayotganini aytganda, uning sabablarini o‘ylab qoladi. Shuning uchun ham bu tasvirlar qahramon ruhiyatini teran anglashga, davr muhitini his etishga xizmat qiladi, asar voqealari bilan uzviy birlikda rivojlanib boradi. O‘sha kuniyoq Mirzo Ulug‘bek jangga otlanadi, Sig‘noq yonida, Sayhun bo‘ylaridagi suronli jangda qattiq mag‘lubiyatga uchraydi.

Asarda qahramon ruhiyatida kechayotgan qarama-qarshi kechinmalar uning karakter xususiyatlarini, ilm yo‘lida qilgan zahmatlarini, shohlik yo‘lidagi ziddiyatli kurashlarini namoyon qiladi. Shu bilan birga, Mirzo Ulug‘bek qalbida qarama-qarshi ikki qutb – shohlik va olimlikning bir qalbdagi mujassamlashganini, bu yo‘ldagi adolat uchun kurashlarini haqqoniy tasvirlab beradi.

Romanda faqat Mirzo Ulug‘bek ruhiyatini yoritish uchun emas, balki Abdulatif Mirzoning ruhiy, ma‘naviy dunyosini ochishda ham tush tasviridan o‘rinli foydalanadi. Chunki tush qahramonni psixologik jihatdan karakterlovchi vositadir. Tush orqali adib asar qahramonlarining ichki dunyosini, ruhiy olamidagi ziddiyatlarni, kechinmalarini talqin etar ekan, Abdulatif Mirzoning ruhiy qiynoqlarda ziddiyatlarga boy ruhiy olamining azoblanishini tush epizodi orqali yoritadi.

Shuningdek, tush o‘z otasining o‘limiga sababchi bo‘lgan shahzodaning fojiali taqdiridan darak beradi va orzu-umidlarning qurboniga aylanish jarayoni asoslanadi. Mirzo Ulug‘bekning eng ishonchli amirlaridan biri bo‘lgan Amir Jondar unga xiyonat qilib, Abdulatif Mirzo tomonga o‘tgan edi. Ammo u o‘z ishiga keyinchalik afsus qiladi.

Romanda davr muhiti, ijtimoiy ziddiyatlari, inson ruhiyatidagi iztiroblar, qiynoqlar girdobidagi olami haqqoniy yoritiladi. Tanazzul sari ketayotgan hayot jonlantiriladi hamda Abdulatif fojiasining xilma-xil omillari, ruhiy olamidagi evrilishlari yorqin bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

Darhaqiqat, ma‘lum bir davr va muhitni yoritish ijodkordan juda katta mahorat talab qiladi. Bu esa tarixiy davr manbalarini o‘rganish, ulardan xulosalar chiqarish va badiiyatga singdirish imkonini ham beradi. Akademik N.Karimov qayd qilganidek: “Tajriba shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davr manzaralarini tasvirlashga bag‘ishlangan asar ham yozuvchidan hayotiy jarayonni sinchikovlik bilan kuzatishni, hayotdan muayyan badiiy niyatga bo‘ysinuvchi, xalq ommasining ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyasiga xizmat qiluvchi qahramonlar va voqealarni tanlashni, asosiy qahramonlar karakterini yaratish ustida jiddiy ishlashni talab qiladi” [5, 59]. Ta‘kidlanganidek, insonni anglash jarayoni tarixiy yoki zamonaviy mavzuda bo‘ladimi, karakter yaratish ijodkordan hayot va insonni teranroq anglash va his etishni talab qiladi. Shu jihatdan ham, qayd qilingan romandagi obrazlar olamini yaratish ijodkordan katta mahorat talab qilganligi, buni esa adib juda go‘zal tarzda yuzaga chiqara olganligi bilan asoslash mumkin.

Umuman, Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida tarixiy obrazlarning turfa xil ruhiy-ma’naviy olamini yoritishda polifonik talqinlardan unumli foydalana olganligi romanning badiiy mukammalligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Adabiyotlar:

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005. –272 bet.
2. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007. 336 bet.
3. Umurov H. O‘zbek romanchiligida badiiy psixologizm. –Toshkent: O‘qituvchi, 1982. – 227 bet.
4. Yoqubov O. Ulug‘bek xazinasi. Roman. –Toshkent, 1994. – 336 bet.
5. Karimov N. Tarix va adabiy jarayon. Qarang: Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 20006. – 288 bet.

BADIIY ADABIYOTDA DAVR NAFASI

**Munisjon HAKIMOV,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti
(O‘zbekiston)**

She‘r va shoirlik haqidagi suhbatlarda haqiqiy shoir xalq dardining kuychisi bo‘lishi kerakligi qulog‘imizga «ko‘p va xo‘p» chalingan. Bu «o‘lchov»ga Jamol Kamolning nafaqat she‘riyati, balki publisistik maqolalari ham «labbay» deb javob beradi, desak, ayni haqiqatdir. Ijodkorning turli davrlarda yaratilgan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ilmu ma‘rifat rivojiga oid maqolalari, xotiralarini o‘qir ekansiz, beixtiyor muallifning musohibiga aylanasiz. Uning publisistik asarlarida ko‘tarilgan muammolar qaysi davrda yaratilmasin, hamma davrlarga daxldordek, go‘yo.

Jamol Kamol publisistikasida jamiyatni oyoqqa turg‘izish, millatga o‘zligini anglatish, ma’naviyatni yuksaltirish borasida bir qator g‘oyalar ilgari suriladiki, bu g‘oyalarning aksariyati global ahamiyat kasb etadi. «Eshiksiz qo‘rg‘on...», «Jahon tarozisining ikki pallasi», «Til – xalqning nomusi, tarix – uning qomusi», «Dunyoga chiqish kerak», «Toqqa chiqish san‘ati» kabi ijodkor bilan qilingan suhbatlarda ham, publisistning «Eshiksiz qo‘rg‘on», «Dunyoning savollari», «Slovo, slovo, slovo», «Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul!», «Abadiyat ostonasida», «Quyoshdek ravshan haqiqat», «Shakarpariyonda ekilgan chinor», «Amerika chiroqlari», «Yetuk jamiyat orzusi» va boshqa qator maqolalarida ham qayta qurish, jamiyatni isloh qilish – globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlari haqida so‘z boradi.

Masalan, ijodkor jamiyatimizning faol a‘zosi sifatida «Eshiksiz qo‘rg‘on» nomli suhbatda sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi, yangi davlatlarning paydo bo‘lishi, iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishini gapirar ekan, globallashuvning ob‘yektiv tarixiy jarayon ekaligiga ishora qiladi.

Sovet Ittifoqining tarqalishidan zarar ko‘radiganlar hodisaga «buzg‘unchi kuchlar», «separatistlar», millatchilarni aybdor qilib ko‘rsatishdi. Jamol Kamol buni xato deb hisoblaydi: masalaga «*xolis turib javob berish uchun yuksak*

ma'naviy kuch va yuksak madaniyat kerak»³². Putur ketgan jamiyatda esa bular yo'q. Amerika va Yaponiya, Singapur va Kanada o'zaro iqtisodiy aloqalarining rivojida teng huquqlilik asosiy omildir. Ya'ni, globallashuv jarayonida o'zaro tenglik rivojlanish omili sifatida xizmat qiladi. «Yagona xo'jalikka uyushib, yagona bozorga suyangan ana shu dunyo g'oyat ilgarilab ketdi» (19-b.). Sovet Ittifoqi o'z tarkibidagi respublikalarni xorijiy davlatlar bilan ruxsatsiz aloqa qilishga qo'ymasdi, u «eshik qopqalari mixlab-tambalab tashlangan qo'rg'on. Moskvadan ochilgan kichik bir darichadan chiqib, dunyo bilan munosabat qurib bo'lmaydi...» (20-b.) Jamol Kamol jumhuriyatimizning sho'ro tuzumidagi yetmish uch yilini uy-qamoqqa mengzaydi. Turli-tuman siyosiy atamalar o'rnida qo'llangan o'xshatish fikrni oddiy o'quvchi uchun aniq, sodda va ravon qilib tushuntirishga asqotgan.

Dunyo davlatlari bizdan yuzlab yillar ilgarilab ketgan. Kutib turishga fursat yo'q. Tarqqiyot uchun dunyo iqtisodiyotiga qo'shilish kerak. Bu esa globallashuv, xalqona qilib aytganda: «*dunyoning etagidan tutish degan gap...*» (20-b.) Imperiya tutimi globallashuv tamoyillariga zid, chunki Sovet Ittifoqi ancha-muncha ulushdan voz kechishi kerak. Buni istamagan Ittifoq xavfsizlikni qanchalar kuchaytirib, aloqalarni nazoratga olmasin, «*bu yerda yashayotgan xalqlarning ko'zi ko'r, qulog'i kar emas*». Tashqi yangiliklar ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelaveradi. «*Baland devorlar, tambalangan eshiklar pisand bo'lmay qoladi*» (21-b.). Har bir respublika mustaqil bo'lishni – o'z xohishi bilan dunyoga chiqishni istaydi. Jamol Kamolga ko'ra, «*dunyodan uzilgan tarakqiyotdan uziladi. Dunyoga tutashgan taraqqiyotga tutashadi*» (23-b.). Ya'ni, «O'tgan asrning to'qsoninchi yillariga kelib ... globallashuv g'oyasining ommalashuv davri boshlandi»³³. Bu g'oya «tambalangan eshiklar» osha Sovet Ittifoqi hududlariga ham kirib kela boshlagan edi.

Jamol Kamol jamiyatning faol a'zosi sifatida global muammolarni «Jahon tarozisining ikki pallasi» suhbatida ham davom ettiradi. Qayta qurishda kimdir faol ishtirok etdi, kimdir qo'l silkib ketdi. Lekin ijodkor bu davrni shunchaki o'tkazib yubormoqchi emas. «*Dunyoning tonglari kelajakda yorug' bo'ladimi, qorong'i – bizning qayta qurishimizga bog'liq*» (33-b.), – der ekan, Jamol Kamol faqatgina respublikada emas, umumittifoq doirasida qayta qurishni amalga oshirish muammosini o'rta qatga tashlaydi.³⁴ Ozodlikka tomon aylanayotgan tenglik istagi fonida umumittifoq va respublika doirasida bir qator muammolarni tilga oladi:

– atom sinov poligonlarini keskin qisqartirish. Xalqning peshona teri evaziga topilayotgan pullarni insoniyat boshiga xavf-u xatar, qalbiga tahlika solish uchun sarflanishiga ijodkor keskin qarshi turadi;

– Boyqo'ng'ir kosmodromidan kosmik kemalar uchirilishini kamaytirish. Kosmik kemalarning uchirilishi, nafaqat iqtisodiy, balki katta ekologik zararni ham

³² Камол Ж. Сайланма. VI жилдлик. III жилд. – Т.: «Ўзбекистон». 2018. 18-бет (шу манбадан олинган кейинги матний парчалар саҳифаси қавсда кўрсатилади).

³³ Глобаллашув: бадий талқин, замон ва қаҳрамон. – Тошкент: «Фан», 2018. 7-б.

³⁴ Ўша вақтда Ўзбекистон Совет Иттифоқининг бир бўлаги эканлиги инобатга олинса, масала кадрли ўқувчимизга бир қадар аёнлашади.

yuzaga keltirmoqda. «*Shularning «sharofati» bilan bahorda qor, yozda yomg'ir yog'adi» (34-b.);*

– armiyani keskin qisqartirish. Sovet Ittifoqining Armiyasi AQSh, Xitoy va Germaniya armiyalarining umumiy sonidan ham ko'p edi. Ishchi kuchining katta qismi armiyaga jalb etilgan;

– siyosiy o'yinlar maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarga moddiy yordam berishni to'xtatish. Ittifoq hududidagi ayrim hududlarning ahvoli ularnikidan battar bo'lsa ham, rasmiy Moskva buni oshkor etmasdi;

– Respublikada iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash. Hududda yetishtirilayotgan yer osti va usti boyliklari, oziq-ovqat, charvachilik mahsulotlari, paxta, pilla, teri kabilarni Moskva bozor talablari asosida emas, arziyas haq evaziga tortib olmoqda edi va hokazolar.

Yuqoridagi iqtisodiy muammolardan tashqari ijodkor Ittifoqda yuzaga kelgan bir qator ma'naviy muammolarni ham achinish bilan ta'kidlaydi. Jumladan, millat va milliylik masalasi. Sovet Ittifoqi yo'qqa chiqargan millat tushunchasi, aslida, «*insoniyat rivojining oliy cho'qqisi, odamzod kamolining timosoli, mujassami» (36-b.)*. Millatchi esa, uning g'amxo'ri, kelajagini porloq ko'rishni istaydigan inson. Sovetcha mafkuraga ko'ra, uning barcha aholisi «sovet xalqi», millatchilar «xalq dushmani» deya ataldi, hokimiyat esa sovet hokimiyati. Ammo «*oradan yetmish ikki yil o'tsa hamki, sovetlarga hali hokimiyat berilmagan ekan» (37-b.)*. Konstitusiya amal qilinmaydigan soxta hujjat bo'lib qolavergan. Jamol Kamol holatni ayovsiz tanqid ostiga olar ekan, bu SSSR Oliy Kengashi majlislarida bong urilishini istaydi. Bu bong urishlarga tepadan qarshiliklar bo'lishi turgan gap, biroq ba'zi hollarda uni aytadigan deputat ham topilmay qoladi. Aslida deputatlikka nomzodlar saylovlar noto'g'ri va aldov yo'llari bilan o'tkazilganligi bois munosib saylanmagan. Muammo yuzasidan ijodkorning siyosiy qarashlari anchayin asosli: «*Davlatimizning oliy organlariga «falon qadar ishchi, falon nafar kolxozchi» emas, kim bo'lishidan qat'i nazar, xalq dardi bilan yashaydigan, chuqur bilimli, keng tafakkurli, chinakam intellektual shaxslar saylanmog'i darkor» (39-b.)*. Ijodkor fidoyi deputatlarni Chingiz Aytmatov, O'ljas Sulaymon, Tilepbergen Qaipbergenov, Odil Yoqubov, Mirzaali Muhammadjonov, Abdurahim Po'latov kabilar qiyofasida ko'radi. Ba'zilar esa O'zbekiston dotasiyadagi jumhuriyat, u boshqa respublikalar hisobiga kun ko'rmoqda, degan fikrda. Jumhuriyatda mustaqil savdo yuritilmay, paxtaning narxi kartoshka va karamdan ham past narxda sotilganda ahvol haqiqatda shunday edi. «*Xo'jalik hisobiga o'tish, iqtisodiy mustaqillikka erishish – O'zbekiston uchun ham hayot-mamot masalasi» (39-b.)*. Ko'rinib turibdiki, Jamol Kamol millat va uning manfaatlarini himoya qilishda siyosiy va iqtisodiy erkinlikning muhimligini nafaqat anglagan, balki uni qat'iyat bilan ayta olgan.

Globalashuv jarayoni iqtisodiyot, kommunikasiya kabi sohalarda rivojlanishga yetaklasa, ma'naviy jihatdan bu fikrga uncha ham qo'shilib bo'lmaydi. Bu jarayonda ma'naviyatni, milliy o'zlikni asrab qolish katta mashaqqat talab etadi. «*Milliy o'zligini bilmagan millatlar boshqa millatlarga yemish bo'lgay...» (86-b.)*, – deydi Mustafo Kamol Otaturk. Jamol Kamol milliy o'zlikni, ma'naviyatni asrab qoluvchi asosiy vositalardan biri sifatida din va e'tiqodga ham diqqatni qaratadi.

«Din – tarix, din – tajriba, din – tarixiy ma’rifat va donishdir. Yolg’iz bugina emas. Din – mehr va shafqat, insof va diyonatdir, insoniyat o’zi ustidan o’zi o’rnatgan oliy nazoratdir...» (40-b.). O’tmishini yaxshi bilgan, ma’rifatli millat globallashuvning ayovsiz chig’irig’idan omon chiqadi. Aksincha bo’lsa, turli oqimlar, g’oyalar uni o’z maqomida yo’rg’alatib yo’qlikka mahkum etadi. Ma’rifatsizlik, mehirsizlik, vijdotsizlik sabab tanish-bilish u yoqda tursin, inson o’z aka-ukasi, opa-singlisi, ota-onasi, farzandlari bilan mol talashib qirpichoq bo’layotganligi; millatlar va dinlar o’rtasiga nifoq tushayotganligi, «ISHID» kabi insoniyatga ofat bo’layotgan tashkilotlarning faoliyat yuritayotganligi bugungi davrning global muammolari bo’lib qolmoqda. J.Kamolning xalqona falsafasiga ko’ra: «Xudodan qo’rqmagandan qo’rq, deb bekorga aytishmagan» (41-b.).

«MARHABOLAR AFANDIM, BURASI – ISTANBUL»

Jamol Kamol zamon va taraqqiyot bilan hamnafas ijodkor. U qayerga borsa, kim bilandir suhbat qursa, albatta, undan hikmat qidiradi, taassurotlarini qog’ozga to’kadi. Ijodkorning «Marhabolar, afandim, burasi – Istanbul» maqolasi 1989-yilda Turkiyaga safari munosabati bilan yozilgan. Maqola muallifning uzoq yillardan beri Istanbulni ko’rish istagida ekanligi, shaharning xayoliy tasviri bilan boshlanadi. Bu tasvir o’quvchini ham Istanbul tomon orziqtirib qo’yadi. Muallif shu va keyingi ko’rgan-kechirganlari bilan o’quvchini ham betakror Turkiyada sayr qildiradi. «Mana, nihoyat, tayyoramiz eshigi kichik koridorga ochildi. Uning oxirida gumruk – bojxona. Turkiyani kashf etish shu yerdan boshlandi» (80-b.).

Dastlab, Istanbul aeroportidagi qulayliklar: bizda soatlab vaqt talab etadigan ishlarning juda tez hal bo’lishi, avtomatlashtirilgan eshiklar, so’ng uni kutib olgan bastakor do’sti Firof va uning maosh orqasidan kun ko’ruvchi o’ziga to’q oilasi, «Ozodlik» radiosi muxbiri Temur Xo’janing Myunxendan qo’ng’iroq qilishi hamda viza, chipta muammolarisiz ikki soatdan so’ng, olis Germaniyadan yetib kelishi... Har biri dunyoga «eshiklarini tambalab olgan» Sovet Ittifoqi hududidan deyarli chiqmagan ijodkor uchun o’zgacha taassurot bag’ishlaydi. Istanbuldan so’ng Anqaraga borar ekan, Jamol Kamolni u yerda ham hayajonga soluvchi voqealar kutib turardi. Turkiya madaniyat nozirligi, Yozuvchilar birligi bilan kechgan suhbatlar, Mustafo Kamol Otaturk maqbarasi ziyorati, noshirlar, tarjimonlar bilan o’zaro asarlarni almashlab tarjima qilish, Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligini turk qardoshlar bilan birgalikda nishonlab, mutafakkir nomiga barpo etilajak bog’da bobomizning haykalini o’rnatish istagi birodar xalqning uzoq ayriliqdan so’ng bir-biriga chin dildan intiqligiga ishora etsa, turkiyalik rahbarlarning «faqat o’sha haykalni turkistonlik biror haykaltarosh yasab bersa, yomon bo’lmasdi... Bu haykal Turkistondan kelmish, deb faxrlanib yurardik...» (87-b.), – deyishi xalqlar o’rtasidagi tambalangan eshiklarning ochqich kaliti o’laroq qabul qilindi.

Jamol Kamol hali Turkiyada ekan, bir necha gazetalarda u bilan bo’lgan suhbatlar bosilib, butun jumhuriyatda aks-sado beradi. Natijada, Buyuk millat majlisi vakillari uni parlamentga taklif qilishadi. Muallif parlament kutubxonasi bilan tanishadi. Kutubxona kitoblarining o’sha paytlardayoq elektron katalog orqali qidirilishi bu sohaning oldinlab ketganligini ayon qilardi. Jamol Kamol elektron katalogdan Qodiriy, Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor kabi o’zbekning

buyuk adiblari asarlarini qidiradi. Afsuski, yetmish uch yillik Sovet Ittifoqi davridagi uzilgan munosabatlar tufayli, adiblarning biror asarini topa olmaydi. Globallashuv jarayonida millat o'zligini saqlab qolishi uchun o'zining buyuk farzandlarini dunyoga namoyon etishi zarur. Buyuk shaxslar nafaqat o'z millatini, balki butun insoniyatni yo'lchi yulduz kabi kelajakka tomon chorlab boradi. Shulardan biri – Hazrat Navoiy. U *«ipak salla o'rab, zarbof to'ni etaklarini shamolda hilpiratib, bizni yuksaklarga undab, dunyodan hamisha ogoh bo'lishga chorlab, oldinda turibdi...»* (121-b.). Yaxshiki, o'zbek millatining buyuk farzandlarini sanash uchun barmoqlarimiz ozlik qiladi.

Sinchkov muallif hech narsaga befarq emas: yursa yo'lga, tursa yerga munosabat bildirib boraveradi. Anqara va Ko'niyo orasidagi 300 kilometr yo'l chekkasida joylashgan ekinzorlar, yaylovlar, qo'ylar ham bu munosabatlardan benasib emas. Publisist qo'y-qo'zilar haqida so'zlay turib Turkiyada go'sht import qilinmasligi, oziq-ovqat mustaqilligiga ega ekanligi haqida ham to'xtaladi. Bu tasvirlar muallifning keng qamrovli tafakkurida qayta ishlanganligi bois o'quvchini zeriktirmaydi, balki davlat va jamiyatning turli jabhada oyoqqa turishi borasida fikrlashga undaydi. Xuddi shuningdek, Jaloliddin Rumiy, Shams Tabriziy qabrlari ziyorati xotiralari ham buyuk allomalar haqida qiziqarli ma'lumotlar, ularning ijodidan ta'sirlangan Jomiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning Rumiy haqidagi fikrlari bilan boyitilganki, bu ma'naviyatga, ezgulikka tashna o'quvchi qalbida beixtiyor hayajon uyg'otadi. Ziyorat asnosida sayyoh *«ey munavvar zot, mashaqqatlarga botgan xalqimning ruhiga nur, qalbiga quvvat ber!.. Toki egilgan qomatlarimiz tiklansin, toki yorug' kunlar bizga ham nasib etsin!..»* (91-b.), – deya Yaratgandan so'raydi. Anqarada u madaniyat va san'at vakillari, talabalar hamda bir qancha turkistonliklar bilan uchrashadi. Uchrashuv va suhbatlardan ijodkor: *«bu yerda bizning tariximiz va qadriyatlarimizni bizdan ko'ra yaxshiroq bilishadi va qadrlashadi...»* (92-b.), – degan xulosaga keladi. Chunki uzoq hukmronlik yillarida Sovet Ittifoqi bizni o'z tariximiz va qadriyatlarimizni unutishga da'vat etib kelgandi.

Ijodkor olam-olam taassurotlar bilan Anqaradan Istanbulga qaytadi. Sakkiz million aholiga ega Istanbulga har kuni ikki million kishi kelib ketadi. Megapolis shaharni publisist, hali bunday atama qo'llanmagan davrda, shahar-mamlakat deb ataydi. Bizning yurtimizdan borganlar u yerda Turkiston jamiyatini tashkil etishgan. Jamiyatga nafaqat o'zbeklar, balki tojik, turkman, qoraqalpoq, qozoq, qirg'izlar ham a'zo. Chunki ularning hammasi Turkiston farzandlari. Ular o'ziga to'q: o'zlariga machitlar qurib olishgan, farzandlari Turkiya, Saudiya Arabistoni, AQSh va Yevropaning nufuzli oliygohlarida tahsil olishadi. *«Istaklari Turkiya bilan Turkiston o'rtasida madaniy-iqtisodiy aloqalar qurilsa, ona yurtga goh-goh tashrif buyurish nasib etsa...»* (94-b.) Lekin to'g'ridan-to'g'ri qatnovlar yo'lga qo'yilmagan. *«Toshkentdan Moskva orqali Istanbulga ozmas-ko'pmas yetti soat uchasisiz, Toshkent – Boku – Istanbul havo yo'li ochilsa, bu masofa ikki barobarga qisqaradi. Toshkentda Kuba vakolatxonasi bo'lsa-yu Turkiya vakolatxonasi bo'lmasa, kulguli emasmi?»* (95-b.) Iqtibosdan, avvalo, yurtimiz va Turkiya o'rtasidagi aloqalarning g'arazli niyatlar bilan uzib qo'yilganligini, qolaversa,

globalashuv jarayonining O‘zbekistonga ham kirib kelayotganligini anglash mumkin.

Uzoq yillik orzularga yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng erishdik. So‘nggi yillarda Istanbul bilan nafaqat Toshkent, balki Samarqand, Buxoro o‘rtasida samolyot qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Iqtisodiy, tibbiy, madaniy va gumanitar aloqalar rivojlanmoqda.

MUHYI SHE’RIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

**Nodira MATMUSAYEVA,
AnDU O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi vakili shoir Muhyiddin Muhyi o‘zining falsafiyona, tasavvufona she‘rlari bilan o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Shoir she‘riyatida salaflar ijodi poetik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, tasavvufona she‘rlari, salaflar ijodi, irfoniy ma‘no, so‘fiy shoirlar.

Qo‘qon adabiy muhitida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shoir Muhyiddin Muhyining adabiy merosi o‘zbek she‘riyati taraqqiyotiga munosib ulush bo‘lib qo‘shilishi bilan birga mumtoz she‘riyatning chinakam adabiy vorisi va ijodiy davomchisi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Qo‘qon adabiy muhitini chuqur o‘rgangan Po‘latjon domla Qayumiy “Tazkirai Qayumiy”da shoirni “Bu kishi Ho‘qand shoirlaridan sanaladur va shunda nash‘u namo etmishdur. Nomi Hoji Muhiddin bo‘lub, Afg‘onistonli Qandahar shaharidan bo‘lmish Muhammad Rizo oxund nomli kishining o‘g‘lidur” [3.553] deya tanishtiradi. Uning she‘rlarini o‘qib anglanimiz: Muhyiddin Muhyi mumtoz adabiyotni anchayin chuqur bilgan va salaflar ijodiga muhabbati ham kuchli bo‘lgan. Muhyi she‘riyatining aksarida ko‘hna ishq talqini, falsafiy fikrlar ifodasiga yo‘g‘rilgan g‘azallari fikrimizni dalillaydi. Qolaversa, shoirning irfoniy ma‘no va mazmundagi she‘rlari ham talaygina.

Muhyi “ishq dardiga, tabibo, bo‘lmagay aslo iloj”, “Dardi ishq kimda bo‘lsa, anglamang ul sog‘-sog‘” deb yozadi. O‘zi esa mana shu “davosiz dard”ga, aql-u hushdan begona qiladigan kasallikka chalinishni xohlaydi, ko‘nglini yolg‘iz Allohning o‘ziga berishni istaydi:

Meni ishq majoziyga aylama, yo Rab...

Muhyining nafs haqidagi, mol-u dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi qarashlari ham so‘fiy shoirlarniki bilan hamohangdir. Biz ikkilanmasdan Muhyini tasavvuf ta‘limoti bo‘yicha yaxshigina bilimga ega bo‘lgan shoir deb ayta olamiz. Chunki u “Tarixi Muhyi Huqandiy” asarida tasavvuf haqida ma‘lumot berib, bir necha mutasavvuf shoirlar, jumladan, Farididdin Attor, Jomiy, Bahovuddin Naqshbandiy hayoti va ijodlariga to‘xtaladi. U dindorning aybi bilan dinning obro‘sigacha putur yetishidan qo‘rqadi. Din niqobi ostida nopok ishlar qilib yurgan shayxu mullolarni

qoralaydi. Birov o'lsa, ular ovi yurishganidan suyunishini tasvirlab beradi. Biror nima undirish maqsadida murdaga "takalluf aylarlar" deya kuyunadi.

Bu dunyoning shoshqin, o'tkinchi ekanligi bir zum ham shoir xayolini tark etmaydi. Qisqa umrni nopok ishlarga sarf qilmaslikni, mazmunli o'tkazish lozimligini uqtiradi.

Aylama buncha bino bu surati zoxirgakim,

Bo'lg'usi xusning xazon, ey ko'zi cho'lfonlar abas. [1, 24].

Ya'ni vujud, surati zoxir vaqtinchalik, lekin kishi qilgan yaxshiliklari bilan bu dunyoda nomini abadiy qoldirishi mumkin. Shoir hayotning bizga berilgan omonat ekanligini doim his etib turadi, shuning uchun bu jahonga ko'ngil qo'ya olmaydi. Uning fikricha, bu dunyo bir bog', bu bog'ga har firqa kelib qo'nadi va:

Subhtarxi bazmi aylab, shom yig'dilar bisot.

Bu dunyo sinovlar maydoni, kishi boqiy umrga qadam qo'yishdan avval shu darajani bosib o'tishi lozim. Qilgan gunoh-savoblariga, tavba-tazarrulariga qarab vujudi mutlaq uni jannat, do'zax yoki arosatga yuboradi.

Muhyi bir masnaviysiga "Ushbu abyot dunyoning bevafoqligi va umrning bebaqoligiga aytili"- deb izoh beradi, bunda biz ishq o'tida simobday beqaror bo'lib, tunu kunning farqiga bormay qolgan shoirning inson umrining qisqaligiga baribir o'kinayotganligini ko'ramiz. Bu hayotning mazasini bilib ulgurmay ajal sharobini ichishga to'g'ri kelishi uni ajablantiradi va shoirda ritorik savol tug'iladi. Ha, bu ajablanish Hayyomdagidek:

Hech kim tushuntirib bera olmadi

Kelishim, ketishim sababi qayda?

Bu yo'lni o'tdimu, tushunolmadim

Kelagu ketmakdan ne ekan maqsud.

tarzida keskin savol bo'lib, qo'yilmagan bo'lsa-da, o'sha mazmunni beradi. Chunki bu dunyoni kulfatxona, hiylagar nomlari bilan atagan bo'lsa-da, Hayyom ham foniyl dunyoni o'zicha sevardi, inson umri sirlarini bilishga qiziqardi, xoliqning ba'zi ishlarni anglashga intilib:

Hukmidan tashqari emas gunohim,

Ne uchun mahsharda beradi jazo.

kabi shakkokona savollarni qo'yardi. Muhyi ham mana shu jumboqlar sirini bilishga qiziqadi, lekin "taqdir qo'limdama, nima choram bor?" degandek o'zini tinchlantiradi. Ammo shoir qanday holatga tushishidan qat'iy nazar ishqiga, ma'shuqiga hiyonat qilmaydi, ko'nglidagi ikkilanishni quvishga harakat qiladi. Bu dunyoni ham bir oz sevishni, hayot otlig' ne'matning mazasini to'la his qila olmayotganidan o'kinayotganini sezdirib qo'ygan shoir o'zini oqlagandek:

E'tibor etmadim bu dunyoni,

Lojaram e'tibor yo'q manda.

deb yozadi. Muhyi fano yo'lida tufroq bo'lishni istaydi. Shoir, albatta, tufroq deganda pastlik, yo'qlik, xorlikni emas, balki ulug'vorlik, mangulikni tushunadi. Bu masalaga shu tarzda yondashish Shekspirda ham bor. Ma'lumki, inson mavjudotlarning eng a'losi, oliysi deb hisoblanadi. Yozuvchi tufroq insonni jinsdoshi ekanligini qahramonlari tilidan bayon qiladi. Hamletdan Poloniyning

qayerdaligini so‘rashganda, u “ Men uni o‘z jinsdoshiga qo‘shib keldim” deb javob beradi. U Poloniyni o‘ldirib tuproqqa ko‘mib kelgandi.

Umar Hayyom ham tuproqning o‘lmasligiga, butkul yo‘q bo‘lib ketmasligiga ishora qilib bir necha ruboiylar yozadi:

*Bozorda bir kulol ko‘rsatib hunar,
Bir bo‘lak xom loyni tepib pishitar,
Loy ingrab aytadi: Hoy. syekinroq tep,
Men ham kulol edim sendek, birodar.*

U kulolning yasayotgan ko‘zasida doim inson tanasining a‘zolarini ko‘radi, demak, tuproqqa aylangan inson beiz yo‘q bo‘lib ketmaydi, unga Holiq qachondir, qanday shaklga keltirilishidan qat’iy nazar qayta jon baxsh etadi, ustoz prof.I.Haqqulov qayd etganlaridek, mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviyda ham tuproq “buyuklik zamini”, kibr, manmanlikdan poklanish, insoniylik martabasi oldida bo‘lak martabalarni ko‘zga ilmaslik ma’nolarida ishlatiladi:

Tufroq bo‘lgil olam sani bosib o‘tsin...

Muhyining salaflardan ta’sirlangani quyidagi misralarda yaqqol ko‘rinadi. U g‘urur bilan:

*Bandaye ul ostonmankim oni tufrog‘idin,
Istagay har shahriyor zarri kuloh bosh uzra toj,-deydi.*

Ko‘ramizki, irfoniylar she‘rlardagi deyarli har bir so‘z poetik tovlanishlarga ega bo‘lgan obrazlardir. Ularni to‘g‘ri ma’noda qabul qilsak, she‘rning mohiyatini tushunmaymiz.

Muhyi she‘riyatida yo‘qlik, foniylar dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilishlik borasida qarashlar talaygina. Mutasavvif shoirlar kabi Muhyi tasavvuridagi o‘lim ham biz bir umr qo‘rqib yashaydigan, dahshat tuyulgan o‘limdan farq qiladi, chunki ular butun hayotlari davomida shu o‘limni ruhan va jisman qo‘rquvsiz, oddiy hodisa sifatida kutib olmoqqa tayyorlaganlar. Bir necha kunlab kishilik jamiyatidan uzilib yashab ko‘rganlar.

Yer ostiga qochib kirdim nodonlardan (Yassaviy).

Bog‘-u chamandin ortiq albatta, g‘or, hilvat (Muhyi).

Bu narsa boshqa xalqlar tarixidan ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, afinalik faylasuf Suqrot nafaqat ilmiy ishlari bilan, shaxsiy hayoti bilan ham o‘ziga xos maktab yaratib kelgan. Uning ham o‘lim haqidagi mulohazalari bizning mutasavvuf shoirlar qarashlari bilan uyg‘undir. Aflotun Suqrot hayotining so‘nggi kunini shunday xotirlaydi. Bu kunni u o‘z shogirdlari bilan o‘tkazgan. Ularga o‘limdan qo‘rqmasligini, chunki butun umri davomida o‘z falsafasi va turmush tarzi bilan shunga tayyorlanganligini aytadi. Falsafa yuritish, uning fikricha, yerdagi hayot uchun o‘lish va o‘lmas ruhni uning o‘luvchan ruhi qobig‘idan chiqarib, ozod qilishga tayyorlanishdir. Suqrot bir yurtdoshining fitnasi tufayli fuqarolik me‘yorlarini buzganlikda ayblanib, o‘lim jazosiga hukm qilingan va qatl etilgan. Sudda Suqrotning og‘zidan chiqqan so‘nggi so‘zlar shunday bo‘lgan: «Menga o‘lish uchun, sizga esa yashash uchun bu yerni tark etish fursati yetdi. Faqat buning qay biri afzalligi Xudodan o‘zga hech kimga ayon emas». O‘sha davrdagi qoidaga ko‘ra, o‘limga mahkum etilganlarga belgilangan vaqtda zaharli sikuta (zaharli suv o‘simligi, bodiyoni rumi, zangpoya deb ham ataladi) o‘simligini

ezib ichirishgan. ... Suqrot ruhining eson-omon boqiy dunyoga rixlat etishini Tangridan fikran so‘rab, xotirjamlik va osonlik bilan zahar to‘ldirilgan idishni bo‘shatadi. Tegrasidagi do‘stlari yig‘lab yuborishadi. Faylasuf ularni tinchlantirib, sukunatda hayot bilan vidolashishi kerakligini uqtiradi. U bir oz yurib, oyoqlari og‘irlashgach, turma burchagidagi yog‘och chorpoyaga cho‘ziladi. Keyin: «Kriton, biz Asklepiydan xo‘roz qarzmiz. Xo‘rozni qaytaring, yodingizdan chiqmasin», — deydi shogirdiga. Bu Suqrotning so‘nggi so‘zlari edi. Qadimgi yunonlar odatiga ko‘ra, bemorlarning tuzalishi uchun Apollonning o‘g‘li, tabiblar Tangrisi Asklepiyga xo‘roz so‘yib, qurbonlik qilingan. Suqrot o‘z ruhini poklash va xasta jismdan xalos bo‘lishni nazarda tutib, shogirdiga yuqoridagi vasiyatni aytgan. Suqrot bu vasiyati bilan vujudning o‘limi ruhning tuzalib ketishidir (yoki qayta tirilishidir) demoqchi edi.

Garchi Muhyi ham:

*Xotirjam-u tan sihatga shukr ayla mudom,
Nogahon etsa ajal tadbir darmonlar abas.*

dyeb maslahat bersa-da, o‘z qalbini bu dunyoga bera olmaydi. Uni ikki dunyo o‘rtasida chegara bo‘lib turgan o‘lim xavfga solgan bo‘lishi tabiiy. Bu xodisani qo‘rqusiz kutib olmoq uchun Muhyi “etini o‘ldirib” bormoqchi bo‘ladi. Nega bu dunyoga ko‘ngil bera olmayotganining sababini qidira boshlaydi va uni topgandek bo‘ladi.

Muhyi she‘rlaridagi lirik qahramon Haqqa murojaat qilar ekan, tavba-tazarru qilib gunohlaridan o‘tishini so‘raydi. O‘zining ko‘p gunoh qilganligidan va shu tufayli qiyomatda xijil bo‘lishidan qo‘rqadi, aybiga iqror bo‘lib, o‘zini poklashga intiladi.

*Xudovanda , o‘zing lutf et maningdek rasvolarga,
Gunoh daryosiga botgan g‘aribu benavolarga.
Asiri nafsi shaytonman, iloho, menga rahm ayla,
Xavoyi nafs uchun qolgan damo dam yuz balolarga.*

Bu mavzu umuminsoniydir, shu nuqta jahon shoirlarini birlashtiruchi markaz hisoblanadi. Chunki shoir yoki yozuvchining g‘ayrioddiy nigohi olamning, qolaversa, o‘zining gunoh-u fojeasini yaqqolroq ko‘radi. Bu narsa ko‘proq shoir biror voqeadan qattiq ta’sirlanganda, aksariyat salbiy voqeadan, chunki shod vaqtimizda robbimizni ko‘pam eslayvermaymiz, yolg‘iz qolganda insonning o‘z gunohlari, ojizligi ko‘ziga yana ham bo‘rtibroq ko‘rinadi. Gunohga iqror bo‘lish esa ruhni poklashga, mahluqlik sifatlarini kamaytirish uchun harakatga olib keladi.

“Muhyining ishqiy she‘rlaridagi yangicha kechinmalar, ohorli tuyg‘ular, yorning zohiriy surati-yu ma’naviy qiyofasining aksi, bir so‘z bilan aytganda, o‘ziga xos yangi bir ishqning tabiatini ochib berishi shoirning nozik ta’b, hissiyotga oshufta qalb egasi, insoniy fazilatlarini ulug‘lovchi shaxs bo‘lganligiga guvohlik beradi:

*Muncha ham, ey guluzorim, qapqarodur ko‘zlaring,
El gumon aylar muqarrar surmasodir ko‘zlaring,
Qo‘ymagay o‘ldurmayin oshiqni hargiz, ey pari
Qon to‘karga baski doim mubtalodir ko‘zlaring”. [2.57]
Ko‘ringanidek, Muhyi hayot falsafasi haqidagi she‘rlarni mahorat bilan bita*

olgan, tasavvufona g'azallariga chuqur mazmuni joylay olgan, ishqiy she'rlariga ko'ngil kechinmalarini singdirgan iste'dodli shoirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhyi Ho'qandiy. Inv.1046. Devon. Toshkent: Pursuf bosmaxonasi, 1912.
2. Tojiboyeva M. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Andijon, 2007.
3. Qayumiy Po'latjon. Tazkirai Qayumiy.
4. Hayitmetov A. Mavlono Muhyi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 1922, 19.10.

VOHID ABDULLAYEV VA QO'QON ADABIY MUHITI

Dilfuza RAHMATOVA,
SamDU akademik litseyi oliy toifali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada akademik Vohid Abdullayevning Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari: Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy kabi zabardast qalam ahllarining ijodiy merosini keng ommaga taqdim etish, mamlakatimizda adabiyotshunoslik ilmini rivojlantirishga muhim hissa qo'shganligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: zullisonayn, allegorik, traditsiya, zarbulmasal, adabiy muhit, askiya, sharqshunos, tazkira.

Аннотация:

В данной статье отмечается, что академик Вахид Абдуллаев внес важный вклад в развитие литературоведения в нашей стране, в представление общественности творческого наследия кокандского литературного сообщества: Гюльхани, Махмур, Нодира, Увайси.

Ключевые слова: зуллисонайн, аллегория, традиция, перкуссия, литературная среда, аския, востоковед, тазкира.

Annotation:

The article notes that academician Vahid Abdullayev made an important contribution to the development of literary criticism in our country, presenting to the public the creative heritage of the Kokand literary community: Gulkhani, Makhmur, Nodira, Uvaysi.

Keywords: zullisonayn, allegoric, tradition, percussion, literary environment, orientalist, tazkira.

XX asrning 40-yillaridan boshlab V.Abdullayevning diqqat e'tiborini o'zbek adabiyoti tarixining kam yoki mutlaqo o'rganilmagan davr va muammolari o'ziga tortdi. Shunday davrlardan biri XVIII–XIX asrlar o'zbek adabiyoti edi. V. Abdullayev mashhur sharqshunoslar, olim-ijodkorlar (professor Bertels, ustod S.Ayniy kabilari) maslahati bilan turli xil bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan bu davr adabiyotini tadqiq etishga qaratdi.

XVIII–XIX asrning birinchi yarmi adabiy hayotining, progressiv adabiy oqimining ijobiy tendensiyalari Qo'qon adabiy muhiti vakillari:Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy kabi zabardast qalam ahllarining ijodiyotida ravshanroq ko'rinad

i. Bu yozuvchilardan har birining o'ziga xos hayot va ijod yo'li, didi va iste'dodi, uslubi bor. Lekin, shunga qaramay, ularning asarlari insonparvarlik va xalqparvarlik, vatanparvarlik va ma'rifatparvarlik motivlari, feodal-klerikal muhitning ayrim illatlarini tanqid qilish, olijanob insoniy fazilatlarini targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiga va klassik adabiyot traditsiyalariga ijodiy munosabatda bo'lish kabi jihatlari bilan bir-biriga yaqin turadi, biri ikkinchisini to'ldirib beradi. [1,1]

Gulxaniyning bizgacha yetib kelgan adabiy merosidan ma'lum bo'lishicha, u o'zbek, fors-tojik klassiklari asarlarini qunt bilan o'rgangan. Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkirasida Gulxaniyning tojikcha g'azallarining til xususiyatlari, uning g'armlik bo'lganligi, uning "Ko'histon mulkidan" ekanligini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi:

Buvad Gulxani shoiri ko'hsor

Asosi suxanhoi o' bemador.

G'azalho navishta latifu ravon,

Ba dasturi alfozi ko'histo.

(Gulxaniy tog'lik shoirlardandir, uning so'zlarining asosi bo'shdir. Latif va ravon g'azallar bitgan, bu g'azallar tog'liklar tili uslubidadir. [2, 1]

Ammo boshqa tazkiralarning mualliflari uni goh Namangandan, goh Qo'qondan chiqqan deb talqin qiladilar. Qori Rahmatullo Vozeh o'z tazkirasida Gulxaniyning ismi Mullo Muhammad Sharif bo'lib, asli namanganlik ekanini, Umarxonning saroy shoirlaridan bo'lganini uqtiradi. Shuningdek, tazkira muallifi uning dastlab hammomdorlik ishlariga munosabati bo'lgani uchun Gulxaniy taxallusini qabul qilganligini eslatadi va uning shoirlik iste'dodiga baho berib: "she'rlari vazn jihatidan ravon va o'z tengdosh-zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan",-deb aytadi. [3, 1]

Keksa adabiyot o'qituvchilaridan marhum P.Qayyumovning "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" antologiyasida ta'kidlashicha, "Gulxaniy...Qo'qonda tug'ilgan, onasi o'zbek bo'lib, otasi tojik edi. Shohi Qushbegining yuzboshilaridan bo'lib, Qorategindan kelgan va Xo'jandda uylangan. [5, 1]

Umarxon davridagi Qo'qon adabiy muhiti qatnashchilarining ma'lum ma'nodagi biografi Fazliyning "Majmuai shoiron" asarida aks etadi. Gulxaniyning navkarlik davridagi ayanchli ahvolini ko'rsatuvchi avtobiografik xarakterdagi "bideh" (bergil, ber menga) radifli g'azalini keltiradi:

Hazratim ochlikdan o'ldim,yegani non ber menga,

Kofir o'lg'aymen agar desamki,bahmon ber menga.

Egnima yopiq berib qornimni to'yg'iz non bilan,

Senga billohkim demasman dinu imon ber menga. (Muinzoda tarjimasi)

Muhammad Sharif avvallari o'z taxallusini Gulxaniy deb atab kelgan, keyinchalik esa, ma'lum sabablarga ko'ra, uni Jur'at so'zi bilan almashtirgan:

Bu Jur'at ki avval edi Gulxaniy

Erur barcha haz'yon demaklik fani. [2, 2]

Qori Rahmatullo Vozeh Gulxaniyning she'r va qasidalar devoni borligini xabar qilgan bo'lsa ham, ammo u hanuzgacha topilgani yo'q. Bizgacha shoirning 12 g'azali va bir qasidasi Fazliy tazkirasida orqali yetib kelgan, xolos. Bular „Angushtam“, „Az chashmi man“, „Omad burun“, „Ey to'ti“, „Angusht“ radifli

hamda „Lola ko‘ksidek bag‘rim tah-batah, qaro qonlar“ satrlari bilan boshlangan g‘azallari va boshqalardir. Ulardan ayrimlari Umarxon she‘rlariga nazira tariqasida yozilgan. [3, 2]

Vohid Abdullayevning „O‘zbek adabiyoti tarixi“ asarida keltirilishicha, Gulxaniy g‘azallarida o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘a, talmeh kabi badiiy vositalarning qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. „Biri“ radifli g‘azalida shoir Farhod-u Shirin, Layli-yu Majnun qissalariga ishora qilib g‘azalga yangi ruh, yangi ma‘no baxsh etishga erishganki, bu Gulxaniyning talmeh san‘atini muvaffaqiyatli ravishda qo‘llaganini ko‘rsatadi.

Gulxaniy saroy aristokratiyasi bilan kelisha olmadi. Mehnat ahlining og‘ir, mashaqqatli hayoti uning ko‘zini ochdi. Gulxaniy saroy bazmlari va keti uzilmas mayparastliklarning xalqni talash va qiynash hisobiga uyushtirilganini payqadi. Bu hol, o‘z navbatida uning saroy a‘yonlariga zadoganlarga, joylardagi amaldorlar va katta yer egalariga nafratini tobora oshirdi. Lekin shoir hukmron doirlardan noroziligini ochiqdan ochiq ifodalay olmas edi. Shuning uchun u allegorik asar yozishga jazm qildi.

„Zarbulmasal“ shunchaki oddiy bir allegorik asar bo‘lib qolmay, qushlarning xarakteriga, asardagi mavqeyiga mos ravishda ustalik bilan ishlatilgan maqollar va hikmatli so‘zlarga boy bo‘lgan asardir. Asarning ham shakl, ham mazmun, ham badiiy-tasviriy vositalarning qo‘llanishi jihatidan xalq og‘zaki ijodiga, hayotiy-maishiy ertaklarga o‘xshab ketishi uning ko‘zga darhol tashlanuvchi asosi y xususiyatidir. Asar, xalq ertaklari singari, ma‘lum terma bilan boshlanib, „murodlariga yetdilar“ iborasi bilan tugallanadi. Asarning ana shu va shunga o‘xshash boshqa o‘rinlari uning xalqchilligini, kitobxonlar tomonidan sevib o‘qilishini ta‘minlagan. [1, 2]

Vohid Abdullayevning ma‘lumot berishicha, Muhammad Sharif Gulxaniy „Zarbulmasal“ning kompozitsiyasi tili va tasviriy vositalari ustida ancha mehnat qilgan. Asar xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan, shuningdek, Navoiy singari so‘z ustalari tomonidan qo‘llanilgan hikoya ichida hikoya, xalq askiyachiligi priyomida yaratilgan. Bu hol Gulxaniyning „Ming bir kecha“, „Kalila va Dimna“ singari asarlarni, Navoiy ijodini yaxshi o‘zlashtirganidan, o‘tkir askiyachi ham bo‘lganida n dalolat beradi. Ba‘zan muallif biror hikoyani mufassal bayon qilmay, uni mutolaa qilish uchun o‘quvchiga manzilni ko‘rsatadi. Masalan, u Kulang bilan Durroj masalini to‘la keltirmay, „bu so‘zning tafsilini „Silsilat uz-zahab“dan top, deb Jomiy asarini o‘qishga yo‘llaydi. Yoki Yapaloqqush Ko‘rqushga javoban „Sen menga Kulang va Qarchig‘ay voqeasini hikoya qilursan, men ham Bino va Nobino hikoyatin burman...“

Senga gapirsam, bu muhim xayr kechga qolur. Bu hikoyatning bayoni voqeasini istasang, „Kalila va Dimna“din top“, -deb hind masallari to‘plamini mutolaa qilishga rag‘batlantiradi. [1, 3]

Gulxaniy Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Bobur, Zayniddin Mahmud Vosifiylarning asar yozishdagi traditsiyalaridan ijodiy foydalanib, o‘z asarida yozma adabiyot vakillarining she‘rlaridan parchalar ham keltiradi va bu bilan aytmoqchi bo‘lgan fikrni quvvatlaydi. Hofiz, Navoiy asarlaridan olingan ayrim she‘riy parchalar bunga misol bo‘la oladi. [1, 4]

„Zarbulmasal“ning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni yana shu bilan izohlanadiki, unda muallif mehnatkash xalqning og‘ir turmush sharoitini, ekspluatatsiya natijasida vayronagarchilikning avj olganini allegorik obrazlar orqali ko‘rsatdi. Ammo Gulxaniy Boyo‘g‘li talab qilgan ming chordevorning Farg‘ona iqlimida emas, balki Buxoroda mavjudligini ta’kidlaydi. Bu ta’kidlash hammadan oldin kinoya tarzida aytilgan bir haqiqat bo‘lib aslida Buxoroda ham, Farg‘ona iqlimining o‘zida ham juda ko‘p vayronagarchiliklar, xarobazorlar mavjud edi. Bu holni Maxmur Hapalak qishlog‘i misolida, Ma’dan esa Pong‘oz va Shaydaon xarobasi misolida ochiq ko‘rsatgan. [6, 1]

Qo‘qon adabiy muhiti namoyandasi Maxmurning „Hapalak“ g‘azali nihoyatda o‘tkir va real yozilganligi sababli uning ijodiyotida alohida o‘rin tutadi. Bu asarda shoir o‘z zamonasidagi qishloqlarning xarobligini va undagi aholining xon va beklar zulmi ostida ezilib yotganini aks ettirib, xalq manfaatini himoya qiluvchi kishi sifatida bu holga bir tomondan, g‘oyat achinadi, ikkinchi tomondan esa, og‘ir ahvolni yengillashtirish maqsadida xondan iltifot, adolat qilishni talab etadi. Shoir o‘z maqsadini amalga oshirishda – qishloq va uning aholisi ahvolini chizishda shunday ustalik ko‘rsatadiki, buning natijasida she’rni o‘qigan har bir kishi Hapalak deb atalgan qishloq „Bir kapa, ikki kapa, uch olachuq, to‘rt katalak“ dan iboratligini, ular ham:

*Dema uy, balki zaminkandur, agar kirsa kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko‘rshapalak.*

tarzida ekanini, ya’ni qop-qorong‘i yerto‘ladan boshqa narsa emasligini zo‘r achinish bilan anglab oladi. Bu tasvirdan ma’lumki, qachonlardir, ko‘pgina xonadonlardan iborat bo‘lgan Hapalak qishlog‘i XIX asrning birinchi yarmiga kelib, amaldorlarning zolimligi, hokimlarning lak-lak soliqlari tufayli xarobazorga, chordevorga aylanib qolib, aholisi esa:

*Xalqini ko‘rsang, agar o‘lasi-yu qoqi xarob.
Ochligidan egilib qomati misli kamalak –*

bo‘lib qolgan. Chunki xon va amaldorlar tomonidan talon-toroj qilingan bechora aholi:

*Ajirig‘ tomirini o‘g‘urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.*

Shunday qilib, Maxmur Hapalak qishlog‘ining g‘oyat achinarli manzarasini, undagi aholining nihoyatda qashshoqlik bilan azob chekib yashashini, suvsizlikdan qiynalishini tasvirlaydi. [1, 5]

Maxmurning xuddi shu mavzudagi asarlaridan biri „Ta’rifi viloyati Qurama va az dovoni Kandir guzashtan“ nomli muxammasidir. Bu asar o‘ziga xos xarakteri bilan sayohatnoma janri xususiyatiga egadir. Chunki unda muallif o‘zining Qirovchini – Cho‘li Qiyomatni bosib o‘tganini, Kandir dovonidan oshgani va nihoyat, Qurama viloyatiga safar qilganini hamda shu sayohatdan olgan taassurotlarini yozadi.

„Yo‘l azobi-go‘r azobi“, -degan maqol xuddi Maxmur yashagan davrdagi yo‘llarga moslab aytilgandir. Chunki bir tomondan, yo‘llarning juda ham o‘nqir-cho‘nqirligi, ikkinchi tomondan, transport vositalarining ot, eshak va aravadan iborat ekanligi uzoq yo‘lga safarga chiqqan kishini juda qiynar edi.

Maxmur ham xuddi shu transport vositalari bilan Qirovchini, Cho'li Qiyomatni bosib o'tdi. Kandirning xavfli dovonidan oshdi. Bu holni muallifning quyidagi misralari tasdiqlaydi:

*Samado, saqla digar bora Qirovchi yo 'lidin,
Solma yodimga ani Dashti qiyomat cho 'lidin.
Talxkom aylama lutfing bila Achchiq ko 'lidin,
Shikvagor to bo 'lmayin qumi Qaroqchi cho 'lidin,
Bir yurib yo 'lida, ming so 'kma saroyi Qurama.*

Bundan ko'rinadiki, Maxmur Quramagacha yetguncha ko'p joylardan o'tgan. Ammo ularning birortasi ham obod bo'lmagan. Qurama esa xaroba va vayrona, suvsiz va noobod joy bo'lib, u ham Hapalak tipidagi qishloqlardan biri edi. [1, 6]

Maxmurning "Dar sifati amir Olimxon, tarixi o'" nomli g'azalida amir Olimxon hukmronligi davrida aholining nuqul "zori mazlum" ekanini, zulm benihoya kuchayib ketganini, amirning xalqqa kek va adovat bilan qaraganini qayd qilib, Olimxon ana shunday zolimligi tufayli xudoning g'azabiga uchrab o'ldirildi, deb xulosa chiqaradi. Shuning uchun Maxmur amirning o'lgan yili tarixini bayon etishda, Olimxonni "miri mazlum" – "ezilganlar amiri",-deb zaharxanda bilan eslaydi.

Ikkinchi ta'rix she'rda esa uni "zolimi mardud" deb tilga oladi va Olimxon amirligining zulm-vahshatga to'la bo'lganini aytadi.

Vohid Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" asarida ma'lumot berilishicha, Olimxon o'ldirilgandan keyin 1810-yilda Umarxon hokimiyat tepasiga o'tirdi va Nodirani Qo'qonga ko'chirib olib keldi.

Sharq adabiyotida Robiya, Ismati va Oysha (XI asr), Munisa Xo'jandiy, Sittixonim Mutriba (XII asr), Nurjahonbegim, Gulchehrabegim (XIV asr), Nurjahonbegim va Zebuniso (XVI–XVII asrlar), Mahzuna, Notavon va Uvaysiy (XVIII–XIX asrlar), Muazzamxon va Nazmixonim (XIX-XX asrlar), shoira Anbar va boshqa o'nlab shoirlar singari shuhrat topgan Mohloroyim – Nodira XIX asr o'zbek adabiyotida quvonch va g'azabni, visol xursandchiliklari va hijron alamlarini, tinch hamda osoyishta yashash umidlari va bu umidlar qarshisidagi fojiali hollarni o'z ijodida aks ettirganligi bilan mashhurdir. [1, 7]

Nodira eski maktablarda o'qitilishi rasm bo'lib qolgan Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil asarlarini mutolaa qildi. U xon kutubxonasidan istagancha foydalanar va she'r yozishni mashq qilishda, avvalo, Umarxon (Amiriy) va so'ngra uning saroydagi shoirlardan maslahat olar, ularning adabiy munozaralaridan manfaatlanar edi. [8, 1]

Nihoyat, u shoira sifatida kamolga yetib, hammaga ma'qul va manzur asarlar yaratdiki, haqiqatan ham, uning go'zal va sermazmun so'zlarini o'qiganda, "ahli davron marhabo" demay qo'ymas edi:

*Nodira har so 'zki, insho ayladim,
Aydi anga ahli davron marhabo!*

Nodira 30 yoshlarda ekanligida, 1822-yilda Umarxon vafot etdi. Erining vafoti, judolik va yolg'izlik Nodira she'riyatida hijron azobi motivlarini yanada

kuchaytirdi. U umrining so‘nggi yillarigacha yozgan she‘rlarida qayta-qayta ayriliqning yomon oqibatlari haqida so‘zlaydi:

*Har kishining bir munosib yori bor,
Men o‘shal ovoradurman yorsiz... [7, 1]*

Vohid Abdullayevning ma‘lumot berishicha, shoira Muhammad Ali va Sulton Mahmud nomli o‘g‘illari bilan beva qoldi. Umarxonning vorislari yosh edi. Xonlikning idora ishlarini Nodiraning o‘zi boshqara boshladi. U xonlikni qattiq turib idora qilishga, olimi fozil, madrasa, karvonsaroy va yo‘llar qurdirishga qaror berdi. Nodira ana shunday maqsad bilan “Mohloroyim” nomida madrasa qurdirdi, binolar tikladi, she‘riyat va adabiyot ishiga rivoj berishga kirishdi. [1, 8]

Nodiraning hukmronligi zamonida yozilgan “Yetti Gulshan” kitobining muallifi Nodir bu haqda quyidagilarni yozgan edi:

*Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,
Aning ko‘ngli saxovat birla doyim.
Surubon keltirib ahli fazoyil
Yiqildi dargahida har qaboyil.
Barisi she‘r ichra erdi mohir,
G‘azal demoqqa barcha erdi shoir...*

Nodira donishmand ayollarni ko‘proq to‘pladi, ular bilan kengashdi, maslahatlashdi:

*Yig‘ibon har tarafdan necha xotun,
Barisi fazli donish ichra otun,
Bari Zebunisodek erdi shoir
Bari Maryam kibi zuhd ichra mohir.
Barining fahmi bir-birdin fuzunroq,
Barisining ilmi bir-birdin uzunroq. [4, 1]*

Akademik Vohid Abdullayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobida ma‘lumot berishicha, Nodiraning 5000 misradan ko‘proq bo‘lgan 333 she‘rni o‘z ichiga olgan “Majmua” (“Devon”)si hijriy 1329 (milodiy1911)-yilda Muhammad Sahhof tomonidan muqovalanganligi ta‘kidlangan.

Asarda (V.A.) ta‘kidlashicha, Mohlaroyimning yaqinda Namangandan topilgan yangi devoni hijriy 1239 (milodiy 1824)-yilda tuzilgan bo‘lib, unda shoiraning Nodira, Komila, Maknuna taxalluslari bilan bitilgan o‘zbekcha va tojikcha 120 she‘ri keltirilgan. Devonda Xotif, Hoziq, Gulxaniy, Miskin, Dabir, Mushrif, Fazliy she‘rlari bilan birga hozirgacha adabiyotshunosligimizda noma‘lum bo‘lgan shoir Nodirning 111 g‘azali ham borligi, bu devonga Navoiyning “Ko‘ngul jon birla bo‘ldi hamrahing, men dard ila turdum”, Mullo Abduqodir Bedilning “Ilohi pora tamkin deh dami vahshi nigohonro” kabi g‘azallariga shoira tomonidan bog‘langan muxammaslar ilova qilinganligi ko‘rsatib o‘tilgan. [1, 9]

Bu davrda shoira Uvaysiy ham o‘z ijodiy ishini davom ettirib, bir necha dostonlar, jumladan “Voqeoti Muhammad Alixon” manzumasini yoza boshladi. Bu asarda Muhammad Alining tug‘ilishi, uning taxtga o‘tirishi, Qashqarga harbiy yurish qilish voqealari tasvirlangan.

Jahon Otin – Uvaysiy XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Qo‘qon adabiy muhitining iste‘dodli shoirlaridan biridir. Uvaysiy haqidagi ma‘lumotlar uning chevarasi Xoljon otin tomonidan yetib kelgan.

Vohid Abdullayevning ma‘lumot berishicha, Uvaysiyning 403 betlik devoni topilganligi, bu devon Uvaysiyning chevarasi Xoljon otin (Mag‘ziy)dan Andijon pedagogika instituti kutubxonasiga olib borgan bo‘lib, u 1857-1858-yillar orasida Muhammadshoh Yunusxon tomonidan ko‘chirilgandir. Hozirda Beruniy nomidagi institutning qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan bu “Devon”da 269 g‘azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba’ va “Karbalonoma” yoki “Dostoni Hasan va Husayn”, “Voqeoti Muhammad Alixon” nomidagi asarlar borligi ko‘rsatib o‘tilgan. [1, 10]

Shoira Uvaysiydagi jur‘atning muhim tomoni shundaki, o‘tmish adabiyotida, shoirlar ko‘pincha ma‘shuqani maqtab yozar edilar. Uvaysiy esa g‘azalnavislikda an‘naviy bo‘lib qolgan bu odatni buzib, ma‘shuqaning oshiqqa bo‘lgan ishqini vasf etadi, ma‘shuqaning jasorati, pok muhabbati, samimiy va beg‘ubor his-tuyg‘ularini tarannum qiladi, bu tuyg‘ularini go‘zal, ravon va yoqimli bir yo‘sinda ifodalash uchun qalbining nozik torlaridan chiqqan so‘zlarni ishlatadi.

Akademik Vohid Abdullayev Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari: Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiyalar merosining ko‘z ilg‘amas buloqlaridan kichik jilg‘a kabi bahramand bo‘lishga, ularning noyob meroslarini keng ommaga taqdim etish, mamlakatimizda adabiyotshunoslik ilmini rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan buyuk alloma hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Vohid Abdullayev XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida nihon bo‘lib yotgan ma‘naviy xazinalarni ochib, ilm-ijod ahllariga, tolibi ilmlarga taqdim etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.Abdullayev. “O‘zbek adabiyoti tarixi” – T.: O‘qituvchi, 1967.
2. Fazliy Namangoniy. “Majmuai shoiron”. – T.: Il’in tipolitoqrafiyasi. 118-b.
3. Qori Rahmatullo Vozeh Buxoriy. “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as‘hob”. 96-b.
4. Nodir. Yetti Gulshan. – T.: O‘qituvchi, 1960. 60-b.
5. P. Qayyumov. Xo‘qand tarixi va adabiyoti”. – T.1961. 169-b.
6. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T.: O‘qituvchi, 1997. 44-b.
7. Qodirova M. Navoiy va Nodira. Adabiy meros, 1-kitob. – T.: FAN, 1970. 176-b.
8. Muhitdinova N. Navoiy va Qo‘qon adabiy muhiti. – T.: Tamaddun, 2017.

ANBAR OTIN IJODIDA MA‘NAVIY - AXLOQIY HURLIK MASALASI

Nasiba JO‘RAQULOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek shoirasi Anbar Otin ijodining g‘oyaviy yo‘nalishi, mazmun-mohiyati haqida fikr bildirilgan. Anbar Otinning haqsizlik, zulm,

zo‘ravonlik kabi illatlar tanqid qilingan she‘rlari tahlilga tortilgan. Ayniqsa, xotin-qizlar erksizligi, uning yosh avlodga salbiy ta‘siri xususida bildirilgan fikrlariga alohida e‘tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: isyon, hurriyat, axloqiy tarbiya, vatanparvarlik, milliy g‘urur.

Аннотация

В статье посвященной творческому наследию узбекской поэтессы Анбар Отин глубоко осмыслены идеологическое направление и его содержание. Вместе с тем подробно проанализированы её стихотворение, критикующие бесправие, насилие и унижение. Особенно, подвергнуты жесткой критике, такие унижения как бесправие женщин и его отрицательное влияние на молодое поколение.

Ключевые слова: мятеж, свобода, духовное наследие, патриотизм, национальная гордость.

Annotation

In the article devoted to the creative heritage of the Uzbek poetess Anbar Otin, the ideological direction and its content are deeply comprehended. At the same time, her poem, which criticizes lawlessness, violence and humiliation, is analyzed in detail. Especially, such humiliations as the disempowerment of women and its negative impact on the younger generation are subjected to harsh criticism.

Keywords: rebellion, freedom, spiritual heritage, patriotism, national pride.

Ma‘rifatparvar shoira Anbar Otin Qo‘qon adabiy muhitida alohida mavqega ega. Uning ijodida favqulodda dadillik, qaramlikka qarshi oshkora isyon, ruh ozodligiga intilish hislari yetakchilik qiladi. Zero, shoiraning butun umri qayg‘u-hasratda o‘tdi. Bu g‘am, eng avvalo, el-yurt ahvoli, millat fojeasi bilan bog‘liq ediki, Anbar Otin devoni debochasida o‘z holatini shunday ta‘riflaydi: “Zamonani norasoligi va xalq ko‘rgan zulm-u taaddilarni o‘z ko‘zi ilan ko‘rib mushohada etib el va yurt holig‘a yig‘lag‘on va quvvati etganicha nafis til ila munojot qilg‘on kamina zaifai munglig‘ Anbar oy binni Farmonqul Marg‘ilonidurman” [1, 13]. Anbar Otin merosini kuzatish asnosida ko‘rish mumkinki, shoira zulm, haqsizlikka aslo toqat qilolmaydi. Bu, albatta, shoira yashagan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Ma‘lumki, Anbar Otin 1870-1914/1917 yillarda yashab, ijod qildi. XIX asr 2-yarmi Turkiston tarixidagi eng murakkab davr bo‘lganligi ma‘lum. Xonliklardagi siyosiy ziddiyatlar, mazlum xalqning xoru zorlikda yashayotganligi yetmagandek, Rusiya bosqinchilarining yurtni bosib olishi, bir qarashda do‘stdek ko‘ringan istilochilarning mahalliy aholini kamsitish siyosatini qo‘llaganligi, shubhasiz, davr ijodkorlari qarashlarida aks etdi. Anbar Otin bu haqda shunday yozadi:

*Qo‘shulib mulki Farg‘ona o‘rusg‘a bu saro bo‘ldi,
O‘rus o‘zbek elig‘a bir tug‘ushg‘ondek og‘o bo‘ldi.
O‘ruslar ishda pishg‘on vajhidin hushyordur oncha,
Raiyat foydasig‘a so‘zlamog‘a rahnamo bo‘ldi.
Valekin hukmronlik vajhidin og‘ir bo‘lub ishlar,
Yaroqlar ikki xil, zarbidin og‘riq bedavo bo‘ldi.
Oliqlar bir qator erdi, to‘lashga bo‘lmadi darmon,
Soliqlar qo‘shqator o‘lg‘ach el emdi mosuvo bo‘ldi.*

*Quvonib ibtidoda o'yladi el, "zulm ketdi", deb,
Kelib zolim, mulozim birla tezda hampo bo'ldi.
Buni ko'rgach bechora el yana ma'yusu mahzundir,
Sabab shul erdi, el ichra davomi mojaro bo'ldi [1, 27].*

G'azalning kirish qismida shoira mustamlakachilik siyosatining maqtovini keltirayotganday tuyuladi. Rusiya istilochilarining o'zlarini oddiy halq manfaatlarini himoya qilayotgandek ko'rsatganlari, ularni qullikdan ozod qilish uchun kelganday harakat qilganlari manbalarda keltirilgan. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov qaydlarida shunday ma'lumotga duch kelamiz: "Rusiya ma'murlari tomonidan erli savdogarlarni himoya qilish, ilm-ma'rifatni yoyish, o'lkani dunyoga olib chiqish kabi kishilarni o'ziga rom qiladigan va'dalar tez-tez tilga olinib turdi. Aksariyat rus amaldorlari xalqdan o'zlarini baland tutsalar-da, Chernyaev, Ivanov, Kuropatkinlar o'zlarini sharqliklarga moyil ko'rsatib, mahalliy kishilarning suhbat va yig'inlariga aralashib turganlari ma'lum. Lekin g'ayrius millatlarga nopisand munosabat chor hukumatining siyosati darajasiga ko'tarilgan edi" [4, 16]. Anbar Otin shu haqiqatni teran nigoh bilan anglay olgan ijodkor edi. G'azalning keyingi bandlarida shoira asl maqsadi aniq ifoda qilinadi.

Xalq asli og'ir ahvolda edi. Mahalliy hukmron tabaqa zulmidan bezgan aholi istilochilardan adolat kutdi. Poymol bo'lgan haq-huquqlar tiklanishiga umid qildi. Temir yo'l qurilishi, rus-tuzem maktablarining ochilishi va yana bir qancha fan-texnika yangiliklarining olib kirilishi, albatta, istilochilarning "o'zbek elig'a" cheksiz muruvvati bo'lib ko'rinadi, lekin endi ruslashtirish siyosatiga, din, til, milliy qadriyatlar kamsitilishiga ko'nikib yashashdek xorlik boshlanadi. Bu eng og'ir musibat edi. Anbar Otin "Noib to'ra ayoli Yekoterina" she'rida rus amaldorlarining olib borayotgan harakatlariga keskin e'tirozini bildirar ekan, bu yurt ulug' zotlar beshigi ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi:

*Singiljon hamsoya bo'lding, sirni pinhon etmagil,
O'zbeku g'ayriya bu deb, millat isyon etmagil.
Pokiza ustolda o'tirmoq ajab bergay shukuh,
Bu faqat bizlarga xos deb fikri nodon etmagil.
O'zbek ahlidin nechand olim chiqqandir bilsangiz,
Shak kelturub ilmimizga fe'li shayton etmagil [1, 54].*

Anbar Otinning yoshligi qiyinchilik bilan o'tdi. U Dilshodi Barno maktabida tahsil oldi va 14 yoshida majburan turmushga berildi. Maktabdagi tahsil esa o'z-o'zidan to'xtatildi. Lekin Anbar Otin o'qish jarayonida ustozlari e'tiboriga tushib, adabiyot sirlaridan to'liq boxabar bo'lishga ulgurgan edi. Dilshodi Barno unga shunday ta'rif beradi: "Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Bedil nazmig'a oshufta bo'lg'onlardan Anbar oy sakkiz yoshidin o'n to'rt yoshig'acha ta'limi adab mashg'uli erdi. O'z yozg'on nazmlarni ko'rsatur erdi. Ani saliqasig'a tan berur erduk. Ul qiz ulug' shoira bo'lub yetushur, deb umidim bor" [3, 16]. Darhaqiqat, Anbar Otin yyetuk shoira edi. Undagi qat'iyat, millat taqdiri uchun kuyinish hislari shu davrda ijod qilgan shoirlarning ko'pchiligida uchramaydi. Anbar Otin shoirlikni, eng avvalo, xalq dardini tushunish va haq so'zni ayta olishda, deb bildi. U o'z safdoshlariga ham shunday talab qo'ydi. Oddiy xalq zo'rg'a kun ko'rayotgan

davrda ulug‘ insonlarni madh qilib she‘r yozish uning uchun qabul qilib bo‘lmas holat edi:

*She‘r yozsangiz, xaloyiq holidin mavzu eting,
Ko‘p ulug‘larni madh etmoq erur bu isrof.
Avvalo, o‘ylang el ichra zindagi qay xildadur,
Ikki yoqlik zulmni, siz aylang hamesha e‘tirof [1, 48].*

Turkiston tariqat peshvolari, ulug‘ avliyolar, mutafakkir allomalar, arslonkelbat bahodirlar yurti bo‘lgan. Undagi jasur o‘g‘lonlar jur‘ati butun olamga ibrat qilib ko‘rsatsa arzigulik. Bu buyuk zotlarning eng asosiy xislati, shubhasiz, ilmu ma‘rifat sohibi ekanligidir. Xalq rahnamolari, mard himoyachilarning keng tafakkur sohibi bo‘lganlari xalq dostonlarida, ayniqsa, yaqqol ifoda qilinadi. Shu o‘rinda “Alpomish” dostonidagi bir voqeani esga olsak. Hakimbek etti yoshida Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmonli yoyni ko‘tarib, Alpomish nomini olganidan so‘ng otasi bilan suhbat qiladi. Boybo‘ri o‘g‘lidan kishi nimadan baxilu, nimadan saxiy bo‘lishi haqida so‘raydi. Alpomishning javobi esa hayratomuz edi: “Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bor bo‘lsa, ko‘nglini hushlab jo‘natsa, bul ham saxiy; agar joyi bor turib, joy yo‘q deb qo‘ndirmay jo‘natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt kishi bir mozorotning qabatidan o‘tsa, chap oyog‘ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo qilib o‘tsa, bul ham saxiy, agar bunday qilmasa, baxil” [3,12]. Anbar Otin zamon farzandlarining bobolaridek jasorat va ma‘rifat egasi bo‘lishlariga juda orzumand:

*Ey bolam, Xayrullaxon maktab ochibdur, boringiz,
Albatta, shu yangi maktabda o‘qungiz, boringiz.
O‘rgatarmish turk tilida har ilmdin borini,
Kelgusida shu bilimlar birla bo‘lg‘ay koringiz [1, 24].*

Turkiston istilo qilindi, xalq mulki talon-taroj bo‘lmoqda, inson qadr-qimmatini poymol qilingan. Bu qora kunlardan chiqishning birgina yo‘li bor. Millat farzandlarining bilimli bo‘lishi, ilm o‘rganishi. Ma‘rifatli inson erkin, hur fikrli bo‘ladi, muhimi faqat Yaratganga qullik qiladi. Allohga bandaligini anglagan odam hech kimdan qo‘rqmaydi, yurgan yo‘lidan hadiksiramaydi, zulm, zo‘ravonlikka ko‘nib yashamaydi. Anbar Otin shuning uchun ham ilmu irfon sohiblarini behad ulug‘laydi:

*Kimiki ma‘rifatni etsa e‘zoz,
Ani irfon etar, albatta, mumtoz.
O‘zingni elga xizmatkor yetkiz,
Ishing anjomiga yetkuncha yetkiz [1, 74].*

Biroq shoira xalqni ozodlikka boshlab boruvchi, tom ma‘noda elga qalqon bo‘luvchi avlodlar yetishib chiqmayotganligidan cheksiz qayg‘uga tushadi. Uning “Qarolar falsafasi” asarida azaldan mavjud bo‘lgan mukammal tarbiya usullarining yo‘qolib ketganligi aniq ko‘rsatiladi, sabab-oqibatlarini izohlanadi. Anbar Otin, eng avvalo, o‘z davrining ijtimoiy ahvolini bayon qilar ekan, uning xavotiri asosli ekanligiga amin bo‘lamiz: “Davlat va ujburiyot kayfiga mustag‘raq bo‘lg‘on erlar misoli bahoyim faqat o‘z nafs-shahvoniyatini qanoatlantirmoq ilan beparvo va ul gulchehralar ahvolig‘a e‘tibor bermaslar. Ichkarida eru nafs taloshub zulm qilg‘on xon oyim va bek oyimlar esa, hech insofdin bexabar, ablah, vahshiy holig‘a

kirgondurlar” [1, 93]. Oila jamiyat rivoji va kelajak farovonligini ta’minlaydigan eng katta kuch. Farzand ilk tarbiyani ota-ona bag’rida oladi. Millat umidi bo’lgan bu jamiyatda esa ahvol achinarli. Kambag’al, mazlum qatlam tirikchilik g’amidan ortib, bolalarini ilmi qilishga imkon topa olmaydi. O’ziga to’q, oliynasab oila erkaklari maishat yo’lida ovora, ayollari esa mayda muammolar bilan andarmon bo’lib, asosiy vazifani esdan chiqargan. Buning natijasida jamiyatda chirkin illatlar ildiz otib bo’lgan. Asarda bu muammolar keskin tanqid qilinadi, ijtimoiy ahvol juda achinarli ekanligi ta’kidlanadi. Anbar Otin qachondir farovon kunlar kelishiga ishonadi va dorilomon kunlarni shunday tasavvur qiladi: “Bir zamoni bo’lurki, kamina mushtipar kabi mazlumalar olijanob, orzu qilg’ondin ziyoda bo’lur, tamomi mazlumalar yaxshi kun ko’rib, yaxshi libos kiyib, tinch ro’zg’or o’tkazgan sabab alarni avlodi xatarsiz tavallud o’lub, yaxshi parvarish topub, xushro’y va xushxo’y, botamiz va vatando’st, serg’ayratu mehmondo’st bo’lib, kamolg’a yetar. Ul zamonda borcha xalq sohibjamol bo’lur”[1, 94]. Anbar Otin, ayniqsa, xotinqizlarning ma’rifatli bo’lishini muhim hisoblaydi. Onalar farzand kamolotida eng muhim vazifani bajaruvchidir, har bir buyuk shaxsning iqbolida ularning katta xizmati bor. Ona notinch bo’lsa, xorlik va kamsitilishdan boshi chiqmasa, haquhuquqlari poymol qilinsa, u voyaga yetkazadigan bolalar ham qo’rqoq, kaltabin, jur’atsiz bo’lishi kunday ravshan. Anbar Otin zamondosh ayollarning taqdiridan tashvish chekadi. Ularning hech bir erkinlikka ega emasligi, ilm olishga imkoniyati yo’qligi uni xavotirga soladi. Ayollar aslida qanday yashashi kerakligi haqidagi orzu-umidlarini kelajak o’y-xayollari orqali bayon qiladi: “Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig’a muyassar bo’lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug’lar safig’a doxil bo’lurlar, alar g’ayrat va mehnatda erlarg’a hamfo va yovar bo’lib, obro’ topib, hurmat va ikromg’a sazovor bo’lurlar”[1, 95]. Shoira bir umr millat taqdirini o’ylab yashadi. U yashagan davrda shoiralarga salbiy munosabat bildirilgan bo’lsa-da, she’rlari qadr-qimmatini topmasa-da, ijod qilishdan to’xtamadi. Anbar Otin shunchaki yozmadi, u she’rlarini zamondoshlari qalbiga kirib borishini, ularning dardiga malham bo’lishini xohladi. Shoira shu qadar vataniga muhabbatliki, har kungi duolarida ham yurt farovonligini so’rab, iltijo qiladi:

*Saning dargohingga man yolborurman, Rabbano Ollo,
Duo qilsam ijobat qil, Elim haqida har yaldo.
Maning turgan erimMovarounnahrdir ismi,
Xaloyiqni suvingdin benasib etma, Xudovando [1, 40].*

Anbar Otin orzusi, nurli xayollari bugun haqiqatga aylangandek. Shoira ijodini o’rganish, eng avvalo, hozirgi hayotimiz uchun shukrona keltirish lozimligini o’rgatsa, shuningdek har doim farzandlar tarbiyasida hushyor turish shartligini ham uqtiradi. Ommaviy axborotlar kurashi ketayotgan bir davrda milliy g’ururga ega bo’lgan, o’zligini topgan, xalq koriga yaraydigan, eng muhimi, el-yurt erkinligi uchun doimo tirgak bo’ladigan ozod, hur avlod tarbiyasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Tarixni mukammal o’rganmoq, ma’rifatparvar ijodkorlar merosidan bahramand bo’lmoq yoshlar uchun katta tarbiya maktabi bo’ladi. Shu ma’noda, Anbar Otin ijodi ibratomuz va qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анбар Отин. Шеърлар. Рисола. Тўпловчи ва сўзбоши муаллифи: Фотима Хусаинова. -Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. 109 б.
2. Анбар отин. Шеърлар. Нашрга тайёрловчи: Л. Қаюмов, Ф.Хусаинова. -Т.: Ўздабийнашр, 1963. 64 б.
3. Алпомиш. Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зариф, Тўра Мирзаев. -Т.: Янгийўл, 2019.
4. Дилшод. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи: М. Қодирова. -Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 96 б.
5. Б. Қосимов ва б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. -Т.: “Маънавият”, 2004. 298 б.

USULI JADID KUTUBXONALARINING TASHKIL ETILISHIDA QO‘QON ADABIY MUHITINING TA‘SIRI

**Saodat RAHMATULLAYEVA,
QDPI o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o‘zbek xalqining ziyoli bo‘lishishi uchun, ma‘rifatparvar namoyondalar tomonidan yangi jadid maktablari, kutubxona va qiroatxona singari ziyo maskanlarining ochilishi hamda kitob uyi va noshirlik faoliyati kabi masalalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: kutubxona, kitob, jadid, yangi, maktab, harakat, risola, gazeta, mafkura, noshirlik.

Аннотация:

В целях просвещения узбекского народа в данной статье анализируется открытие новых джадидских школ, библиотек и читальных залов, а также книжных магазинов и издательств.

Ключевые слова: библиотека, книга, джадид, яхги, школа, движение, памфлет, газета, идеология, издательство.

Annotation:

In order to enlighten the Uzbek people, this article analyzes the opening of new Jadid schools, libraries and reading rooms, as well as bookstores and publishing houses.

Key words: library, book, jadid, yahgi, school, movement, pamphlet, newspaper, ideology, publishing.

Turon zaminda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotning barcha tomonlarini yangilash harakati ta‘lim, xalqqa madaniy, mafkuraviy va siyosiy bilimlar berishning kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb vazifalarini hal qilishdan boshlandi. Bu harakatga ilg‘or milliy ziyolilar- jadidlar boshchilik qildi, uning mafkurasida jadidchilik degan nom oldi. Arabchadan tarjima qilganda bu so‘zning o‘zagi - “jadid” -yangi, yangilik degan ma‘noni anglatadi. Jadidchilik harakati va uning mafkurasiga tatbiq manoliganda, bu so‘z zamirida bir qancha ma‘nolar,

chunonchi, “yangi tafakkur”, “yahshlik tarafdori”, “yangicha turmush tarzi”, “yangi maorif” degan ma’olar mujassamlashgan.

Samarqand va Buxorodan keyin usuli jadid maktablari 1898-yilda To‘qmoqda, Qo‘qonda (Salohiddin domla tashabbusi bilan), 1899-yilda Toshkentda Mannonqori tomonidan va Andijonda Shamsiddin domla ixtimomi bilan ochildi. 1901-yilda Munavvarqori Abdurashidxonov birinchi usuli jadid maktabini ochdi. Bu maktabdagi yangicha maktab ta’limi ishiga o‘zbek shoiri va dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o‘z hissasini qo‘shdi. O‘zining birinchi usuli jadid maktabini u 1910-yili Toshkentdagi Qashqar mahallasida ochdi. 1911-1914 yillarda u Qo‘qon va Marg‘ilonda yana uch usuli jadid maktabining ishini tashkil etdi. Hamza o‘zi tashkil etgan maktablarda dars beribgina qolmasdan, “O‘qish kitobi”, “Yengil adabiyot”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklar ham yozdi.

Toshkentning yetuk ziyolilaridan biri, taniqli o‘lkashunos va etnograf olim Saidrasul Saidazizov tomonidan 1902-yilda nashr etilgan “Ustodi avval” kitobi yangi avlod darsliklarining birinchisi edi. Garchi bu kitob rus-tuzem maktablari uchun mo‘ljallangan bo‘lsada, u usuli jadid maktablarida qabul qilingan ta’lim qoidalariga muvofiq yozilgan edi. Bu darslik o‘n marta qayta nashr etildi. Turonzaminda jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy usuli jadid maktablari uchun oltita darslik yaratdi.

Bular: “Risoi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risoi jug‘rofiyai umroniy” (“Aholi geografiasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobatul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909). Bu darsliklar ham bir necha marta qayta nashr etildi. Turonzamin jadidchilik harakatining yo‘lboshchisi Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablari uchun “Adibi avval” (1907), “Adib us-soniy” (1907), “Usuli hisob”, “Tarixi qavm turk”, “Tajvid” (1911), “Havoyi jidiniya”, “Tarixi anbiyo”, “Tarixi islomiya” (1912) kabi darslik va xrestomatiyalar, “Qur‘on qiroati”, “Yer yuzi” (1916-17) sIngari qo‘llanmalar tuzib nashr etadi. Bu darsliklar va qo‘llanmalar 1907-1917-yillar oralig‘ida kamida 2-3, ko‘pi bilan 9-10 martagacha alohida holda nashr etilgan.

“Ma’rifat”, “Birlik”, “Madora” va “G‘ayrat” shirkatlari ham kitob noshirligi faoliyati, ham kitob savdosi, ham kugubxonachilik ishi bilan shug‘ullanuvchi Kitob uylari bo‘lgan. Bu shirkatlar qisqa tarixiy davr 1912-1918-yillarda faoliyat ko‘rsatdi. Ularning barchasi Farg‘ona vodiysi madaniy va adabiy hayotining an’anaviy markazi – Qo‘qon shahrida ochildi va ish olib bordi [1, 5-6].

Noshirlik faoliyati, kitob savdosi va kutubxonachilik ishi bilan shug‘ullanuvchi birinchi Kitob uyi – “Ma’rifat” shirkati adabiyot bilimdoni, kitobat madaniyati va ma’rifatdagi yangilik tarafdori, noshir R.Rasulzoda tashabbusi bilan 1912-yilda ochildi.

Ikkinchi kitob uyi – “Madora” 1914-yilda Qo‘qonning Beshariq mahallasida, taniqli o‘zbek ma’rifatchisi, shoiri va publitsisti Ibrohim Davron tomonidan tashkil etildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy qisqa vaqt ichida birvarakay ikkita – “G‘ayrat” (1915) va “Birlik” (1916) kitob uylariga asos soldi. U 1917-yili “Hurriyat” jurnalida bu haqda shunday deb yozadi: “... 1915-yil men majlis

chaqirdim. Unda biz aholi orasida kitob tarqatish maqsadida “G‘ayrat” nomli kutubxona, qiroatxona va nashriyot uyi tashkil etishga qaror qildik. Shu paytgacha men kitoblarimni o‘z pulimga chop etib keldim, ular hajman uncha katta emas edi. Endi men o‘zinning boshqa kigoblarimni mana shunday kitob uyi nomidan nashr etmoqchi bo‘ldim”. “Turkiston viloyatining gazetisi” 1915-yil 5-sonida Hamzaning “Yangi saodat” romani haqida quyidagi xabarni keltiradi: “Yangi saodat” romanining e‘lon qilinishi bizni behad mamnun etdi. Xalqqa ma‘rifat tarqatish g‘oyasini targ‘ib qiluvchi bu roman Turkiston zaminida yozilgan bo‘lib, 46-sahifadan iboratdir. Bu roman muallifi Hamza Hakimzoda Niyoziydir, uning noshiri Qo‘qondagi “Madora” Kitob uyi bo‘lgan. Roman bir nusxasining narxi 25-tiyin” bo‘lgan [2, 162]. Kitob uylari faoliyatiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. O‘sha davrda nashr etilgan kitoblarning titul varaqlari, nashriyot muqaddimasi, debochasi va xotimalarini, nashriyotlar va kitob savdsosi muassasalari tomonidan berilgan reklama-e‘lonlarini, nashr etishgan va sotishga tayyorlangan kitoblarning o‘sha yillardagi davriy nashrlarda va kitoblarning o‘zida keltirilgan ro‘yxatlarini, shuningdek kutubxonalarning fondlaridagi kitoblarni manbashunoslik tahlilidan o‘tkazish va qiyosiy-tarixiy o‘rganish mazkur Kitob uylari nisbatan qisqa vaqt faoliyat ko‘rsatganiga qaramay, hammasi bo‘lib uch yuzdan ortiq nomdagi kitoblarni nashr etganidan, ularning qoshidagi kutubxonalar fondlarida esa minglab nusxada kitoblar jamlanganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimova O.G‘. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1981. 5-12-betlar.
2. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazariyasi va tarixi . – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011. 162-bet.

AMIRIY IJODIDA OYINA TIMSOLI

**Musharrafxon IMOMALIYEVA,
O‘zR FA tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Maqola Amiriy she‘riyatida keng qo‘llangan *oyina* timsolining ma‘no qirralari va badiiy vazifalari tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, istiloh, timsol, ma‘no, oyina, an‘ana, ta‘sir, o‘ziga xoslik, mahorat.

Аннотация

Статья посвящена анализу смысловых аспектов и художественных функций образа зеркала, широко используемого в поэзии Амира.

Ключевые слова: мистицизм, терминология, символ, значение, зеркало, традиция, влияние, оригинальность, мастерство.

Annotation

The article is devoted to the analysis of the semantic aspects and artistic functions of the image of the mirror, which is widely used in Amir's poetry.

Keywords: mysticism, terminology, symbol, meaning, mirror, tradition, influence, originality, skill.

Tasavvuf ta'limoti Sharq xalqlari adabiyotini ko'plab betakror va sayqallangan timsollar bilan boyitgani ma'lum. Lekin ularning hammasi ham o'z mohiyati yoki juda ko'p talqinlarga egaligi nuqtai nazaridan kengroq va chuqurroq tadqiq etilmagan. Holbuki, bu adabiyot uzoq davrda davomli suratda tasavvufdan qabul qilib olgan obrazlarini zamon va makon xususiyatlaridan kelib chiqib takomillashtirib bordi. Bunda, albatta, so'fiylik harakatining turli bosqichlarida maydonga chiqqan ta'limot g'oyalarida vujudga kelgan ayrim o'zgarishlar bilan bir qatorda ijodkorlar imkoniyatlari va estetik tamoyillarda sodir bo'lgan o'zgarishlar ham muhim omil hisoblanadi. Shunga qaramay, tayyor timsoldan yangi sharoitda yoki yangi asarda qanday mahorat bilan foydalanilgani masalasi faqat ijodkor salohiyati va iste'dodiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Tasavvuf muhiti avliyo va shayxlarni eng ko'p etishtirib bergani kabi so'fiylik adabiyotini ham ramziy obrazlar bilan to'ldirib, boyitgan davr vahdat al-vujud nazariyasi ustuvor bo'lgan bosqich hisoblanadi.

Umarxon Amiriy qo'llagan timsollarning aksariyati mumtoz adabiyotga xos bo'lsa-da, ular shoh-shoir talqinida yangi mazmun-mohiyat bilan shu qadar boyitilganki, har bir timsol alohida olinganda ham yirik tadqiqotlarga asos bo'la oladi. Buni birgina oyina timsoli orqali ham isbotlash mumkin.

Avvalo, oyinaning tasavvuf adabiyotidagi o'rni xususida. Bu xususda aytish mumkinki, so'fiy allomalar vujudni yaxlit deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, bu vujudning zohiri va botini bor. Botini bir Nurdur. Bu Nur olamning jonidir; olam shu Nurdan limmo-lim, bu Nur chek-chegarasizdir, poyonsiz va tubsiz bir dengizdir. Mavjudotning hayoti, ilmi, irodasi, qudrati, ko'rish, eshitish, gapirish, ishlash va hokazo xosiyatlari shu Nurdandir. Vujudning zohiri o'sha Nurning tajalliysidir, shu Nur sifatlarining mazhari va ko'zgusidir [6,56–57]

Ko'zguning bunday ma'nolari tasavvuf istilohlari lug'atlarida ham keng izohlangan. Jumladan, Sayyid Ja'far Sajjodiy tomonidan tuzilgan forscha irfoniy istilohlar va ta'birotlar lug'atida oyina va mir'ot tushunchalari keng ko'lamda tavsif va tasnif qilinadi. Ya'ni unda bu istilohlarning boshqa istilohlar bilan birga qo'llanganda bildiradigan ma'nolarigacha sharhlanadi. Olim dastlab oyinani shunday izohlaydi:

“Oyina – maxsus sayqallangan jismdir. Zavq ahlining so'zlariga ko'ra, undan murod mazhariyat (zohir bo'lish makoni va zamoniga tegishlilik) jihati e'tibori bilan komil inson qalbidir. Zero, zotu sifotu asmo'ni oyina deydilar va bunday ma'noning tugal va eng yorqin mazhariyat kasb etishi komil insonda bo'ladi” [5,45–46]. “Mir'ot ul-ushshoq”da keltirilgan izoh mazmuni bunday: Oyina – Haq jamoli tajalliysining a'yoni sobita (sobit bo'lgan narsalar) va akvoni g'aybiyalar (g'aybiy yaratilqlar) suratida zohiriy jilolanishidir.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda oyina bilan barobar uning ko'zgu va mir'ot kabi ma'nodoshlari ham keng qo'llanadi.

“Oyina – mir'oti Haq, oyinai Rahmon ham deyiladi. Chunki Ollah barcha mavjudotlardan ko'ra insonda ko'proq tajalliy etadi, komil insonda esa eng

mukammal tarzda tajalliy etadi. Haqqa nisbatan butun koinot oyina maqomidadir. “Jahonni boshdan-oyoq bir oyina deb bil”, – deydi bu haqda Mahmud Shabustariy. Bu oyining jilvasi esa insondir. Mavjud olam inson jilvasi bilan jilolanmaganda, Haq unda bu qadar mukammal tajalliy etmasdi. Olloh darajasiga ko‘ra nabiy, rasullar, valiylarda mukammal tajalliy etadi” [8,87].

Oyina – ilohiy mazhar bo‘lgan komil inson qalbi. Chunki oyina deganda, Ollohning zoti, sifatlari va ismlariga ishora qilinadiki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi [4,76]. Tasavvuf ahli nazdida, dunyo va nafs g‘uborlaridan poklangan ko‘ngil ko‘zguday musaffo bo‘lib, unda yor – Haq jamoli jilvalanadi. Amiriyning g‘azallridan birida: “Oyinani ko‘rib, dildorning yuziga o‘xshatdim, unda ko‘rgan suratni esa yorga o‘xshatdim”, – deb lutf etishi bejiz emas:

*Bukun oyinani ko‘rdum – ruxi dildora o‘xshattim,
Aning zimnida ko‘rgach aksini, man yora o‘xshattim [1,229].*

Oyina timsoli shoirning ko‘plab g‘azallarida ularning g‘oyaviy-badiiy takomilini ta‘minlashga, mavzuni yanada teranroq va chuqurroq ochishga xizmat qiladi:

*Boqma, ey oyina, ul oy orazig‘a – bo‘lma suv,
Intizori chashmi giryoning kerakmasmu sango? [1,49]*

Ma‘lumki, Xudo bu dunyoni o‘z husnu jamoliga ko‘zgu o‘laroq yaratgan. Binobarin, bu dunyodagi barcha narsalar Olloh jamoli va kamolining muayyan darajada tajalliysidir. Baytda oy – ana shu beqiyos husnni tamsil etib kelayapti va shuning uchun ham unga boqsa. xuddi Olloh taoloning husni nuriga tob berolmay Tur tog‘i parchalanib ketganday, oyining suv bo‘lib oqishi muqarrar. Zero, boshqa bir baytida shoirning o‘zi mubolag‘a qilganiday:

*Ul tajalli lam‘asini ko‘rguzur oyinadek,
Tur barqini yuzi sham‘idin izhor aylagan [1,254].*

“Tur tog‘idagi yashinni yuz shamida namoyon qilgan bu go‘zal oyina kabi o‘zida tajalliy nuri ko‘rsatadi”.

Oyina timsolining ma‘no doirasi keng bo‘lib, u olam bilan birga, ko‘ngil va ko‘z timsoli ham bo‘lib keladi. Oyina qaraganni, ko‘z ko‘ringanni o‘ziga aks ettirishi jihatidan oyina va ko‘zning o‘zaro bir-biriga nisbati bor: oyina ham bir ko‘z bo‘lsa. ko‘z ham bir oyinadir. Sharq mumtoz she‘riyatida lyinning yor yo‘liga intizor oshiq ko‘ziga. O‘z navbatida oshiq ko‘zining yor o‘z aksini soladigan ko‘zguga tashbeh etilishi bejiz emas. Jumladan, Amiriy ham quyidagi baytlarining birinchisida ko‘zi oyina kabi yor yo‘liga mushtoqligiga qaramay diydorga muyassar bo‘lmasligidan shikoyat qilsa, ikkinchisida yor shunday o‘ziga intizor ko‘zni diydoriga mushtoq deb bilmasligidan so‘z ochadi.

*Nigarondur ko‘zum oyina misol,
Nega shoyistai diydor o‘lmas? [1,127]
Ko‘zlarim oyina yanglig‘ intizoridur valek,
Rahm etib, bir yo‘l mani mushtoqi diydorim demas [1,125].*

Forsiy g‘azallaridan birida esa “Mening ko‘nglim allaqachon sayqal topib, diydoringga mushtoq – bu oyinaga qiyo boqmasligingning sababi nima? – deb mahjubaga murojaat qiladi:

Muddate shud, dili man hayrati didori tu dosht,

Nanamudi tu dar in oina ro', ya'ne chi? [2,285]

Zero, Olloh o'zidan boshqa barcha narsaning xayolidan qutulib, nafs gardiyu dunyo g'ubori qolmay shaffof bir holga kelgan ko'ngilgagina tashrif buyuradi. Shuning uchun ham bir forsiy baytida "Yor diydorini ko'rish uchun ham ko'ngillarga – oyinalarga sayqal berish joiz", – deb yozadi:

Az baroi didani ruxsori yor

Boyadam oinaro pardoxtan [2,251].

Bu ko'zgu riyozat chekish, ishq o'tida o'rtanish, yor hajrida oh urish bilan poklanadi:

Mukaddar et ko'ngulni oh ila gar sof istarsan –

Ki, sayqal aylamak oyinaga zangordin keldi [1,348].

O'zi esa ko'nglini dunyo g'uborlaridan poklab, musaffo ko'zguga aylantirgani va mahbuba unga aksini solishidan umidvorligini yashirib o'tirmaydi:

Amir, zangi taalluq zududaam az dil,

Ba bazmi jilva chun oina merasad yoram [2,237].

Zero, go'zal yor jilvasidan uzoq tushgan ko'ngil birovning aksi ko'rinmaydigan xira ko'zguga shxshaydi:

Ul parirol jilvasidin to yiroq tushti ko'ngul,

Ko'rinur bir ko'zgu yanglig'kim, safosi qolmamish [1,134].

Ayni paytda, ko'nglini poklab, yor o'z aksini soladigan tiniq ko'zguga aylantirgan oshiqdari qolib, uning begonalarga diydorini ko'rsatganidan o'zining hayratini ham yashirib o'tirmaydi:

Sofdil ushshoqlardurlar yuzung oyinasi,

Jilva qilding o'zgalarga, bizni hayron aylading [1,201].

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki. shoirning qator she'rlarida oyina istiora sifatida ko'ngil va ko'zni bildirib keladi. Ba'zida ibrat ko'zgusi ma'nosida ham, hatto o'z ma'nosida ham qo'llanadi.

Mo'min mo'minning oyinasidir degan hadisga ko'ra, bandalar bir-birlarining aybu xatolarini bir-birlariga ko'rsatish orqali o'z qusurlaridan poklanadilar. Bir-birlaridan ezgu fazilatlardan boshqalari o'rnak oladilar. Bu tushunchaga ko'ra pir muridning, o'z navbatida, murid purning oyinasidir. Ilohiy kamol avval Haqdan pirga, keyin pirdan muridga o'tadi. Mo'minning qalbi oyina kabi bo'lganligidan, bu oyina qanchalik musaffo bo'lsa, ilohiy fayz va inoyat shunchalik ko'p va yaxshi jilolanadi [4,133].

Amiriy lirikasida o'ziga xos ramziy belgiga ega oyina timsolining badiiy jilvalanishiida Mirzo Abdulqodir Bedil ijodining ta'siri kuchli. Ma'lumki, Bedil – Sharq so'z san'atida uslubi murakkab shoir sifatida mashhur. Uning asarlarini o'qib tushunish, qavat-qavat timsolu tashbehlarga o'ralgan fikrlarining mag'zini chaqishning o'zi qiyin – alohida filologik tayyorgarlikni taqozo qiladi. Teran falsafiy fikrlarni yuksak badiiy usulda talqin etish ehtiyoji shoir uslubining murakkabligi, tilining og'irligini keltirib chiqargan. Bedil asarlarining nafaqat mazmuni teran, balki tili ham og'ir – ramzu tashbehlarga boy. Buning ustiga, Bedil ijodida uning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan va shoir asarlaridagina uchraydigan istiloh va timsollarning butun bir tizimini ko'ramiz ("Masalan, shoir "oyina" so'zi bilan dunyoni va, shuningdek, ilohiy nur in'ikosini, "hayrat" so'zi bilan esa,

insonning dunyo sirlari tagiga etolmasligini ifodalaydi va hokazo”). Fitrat ta’biri bilan aytganda, u “Juda ingichka munosabatlar topib, majozlar, istioralar, jinolar yasaydir. Ingichka, og’ir, bir ozda qorong’u so’ylaydir. Shunisi ham borki, Bedilning majoz, istiora kabi o’yunlari ko‘b shoirlarimizda ko‘rulgandek, jumlani bezatmak, so‘zga adabiy bir tus bermak kabi xizmatlar bilan qolmaydir. Bular Bedilning fikr bildirishlariga yordam qiladir. U 20 so‘z bilan aytaturg‘an fikrni majoz, istiora yordami bilan 10 so‘zda aytib bitiradir” [7,17]. Xususan, Bedilning quyidagi baytida:

*Husnu fayzi qochganidan bexabar bu go‘shani
Oyinamga soldimu dardiga darmon bo‘ldi ko‘p [3,32].*

Bu baytda oyina – qalb, ko‘ngil ramzi sifatida kelyapti.

Amiriy g‘azalidan:

*Magarkim sodadildur oyina varna muhol ermish,
Tamanno aylamak mir‘oti husnungning jilosidin [1,182]*

Amiriy ishq kayfiyatini quyidagi misrada juda jo‘shqin namoyon etadi:

*Man erdim intizori jilvayu bu dog‘ni ko‘rkim,
Ko‘zin oyina ravshan ayladi mohi liqosidin [1,182].*

Forsiy g‘azallaridan birida esa yor o‘z aksini solsa, oyina safo topadi deb yozadi (“Ey zi aksi orazat oina labrezi safo” [2,13]. Zero, beqiyos husn sohibasi bir boqishda yuz oinani hayron qoldirsa, buning sira ajablanadigan joyi yo‘q:

*Ba in xubi ruxi xudro namoyon metavon kardan,
Ba yak nazzora sad oyina hayron metavon kardan [2,263].*

Bedilda esa:

*Oyinam tortti xira, dud ichra yo‘q bo‘ldi chiroq,
Oh, o‘zimga o‘zni ko‘rmak baxti armon bo‘ldi ko‘p [3,33].*

Tasavvuf adabiyotida oyina timsoli turli birikmalarda xilma-xil talqinlarda qo‘llanadi: oinai jon – jon ko‘zgusi (yor yuzi), oinai gul – gul (yuz) ko‘zgusi, oinai dil – ko‘ngil ko‘zgusi, oinai hastiy – borliq ko‘zgusi, oinai getinamo – jahonnamo ko‘zgu, oinai jamol – zuhur martabasi va sifotiy tajalliy, oinai vujud – vujud ko‘zgusi. Shuningdek, mir‘ot ul-hazratayn – zotning (Olloh zoti) barcha sifatleri bilan namoyon bo‘lishi, mir‘ot ul-haq – Haq mazhari bo‘lgan komil inson, mir‘ot ul-kavn – vahdoniy musaffo vujud, mir‘ot ul-vujud – botinning surat bilan bog‘liqligini belgilovchi vujud, chunki u vujud martabasining surat tomonidan belgilovchi ko‘rinishidir. Amiriy ijodida oyina timsolining birikmali holatlariga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

*Yor vasli bu kecha manga muyassardur, Amir,
Ko‘zum oynasini husniga hayron toptim [1,146].*

Oshiq yor vasliga muyassar bo‘lganida uning beqiyos husni nuridan hatto ko‘z ko‘zgusi qamashib qoladi. O‘zi boshqa bir g‘azalida lutf etganiday: “Yuzi oyina ko‘rguzsa, tahayyur oni ta’biri”. Ya’ni ma’shuqa yuzi oinaday jilvalanganida uning ta’biri oshiqning hayrat daryosi ichra g‘arq bo‘lishidan boshqa narsa emas.

*Har ko‘ngul lavhida dog‘ingdin agar bo‘lsa nishon,
Netsun oynayi Iskandar ila sog‘ari Jam [1,156].*

Iskandar Zulqarnayn Nil daryosi bo'yida yasattirgan ko'zguyu Eronning afsonaviy hukmdori Jamshid ixtiro qilgan qadah o'zida butun dunyoda kechgan, kechayotgan va kechadigan jarayonlarni, ya'ni o'ti shu bugun-u kelajakni o'zida aks etirishi jihatidan komil insonning Ollohni va olamni o'zida namoyon etadigan musaffo ko'ngli timsoli bo'lib kelishi ma'lum – bu erda shunga ishora qilinmoqda. Ayni paytda, ilohiy ishqdan ko'ngilga tushgan dard dog'ining o'zi oliy bir ruhoniy va ma'naviy saltanatki, uning oldida Iskanlar oyinasi ham, Jamshid jomi ham hech narsaga arzimaydi:

*Ishq dog'idin ko'rubman saltanat, oning uchun
Sog'ari Jam birla mir'oti Sikandar ko'rmadim [1,241].*

Yoki:

*Har ko'ngul lavhida dog'ingdin agar bo'lsa nishon,
Netsun oyinayi Iskandar ila sog'ari Jam [1,244].*

Bu iboralarning hammasi Amiriy lirikasida to'liq holda qo'llanmasa-da, bu tushunchalar u qo'llagan timsollar mohiyatida ahamiyatga ega.

O'z navbatida, oyina bilan bog'liq va uning atrofida uyushib kelib, mazmun ufqini kengaytiradigan, ma'no dorasini chuqurlashtiradigan timsolu tashbehlar xilma-xil bo'lib, ular o'ziga xos sharhu izohni, tadqiq va tahlilni talab qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, o'z ijodida oyina timsolini “ko'p va xo'b” qo'llagan Amiriy she'riyatida uning ma'no doiralari keng va rang-barang bo'lib, alohida o'rganishni taqozo etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Амирий. Девон. I Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар: А.Мадаминов, Э.Очилов, З.Қобилова, О.Давлатов). – Тошкент: “Тамаддун”, 2017.
2. Амирий. Девон. II Ўзбекча шеърлар (Нашрга тайёрловчилар: О.Давлатов, З.Қобилова). – Тошкент: “Тамаддун”, 2017.
3. Мирзо Абдулқодир Бедил. Хайрат ойинаси (Тўплаб нашрга тайёрловчи: Э.Очилов). – Тошкент: “Ўзбекистоон”, 2011.
4. Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011.
5. Саййид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанги истилоҳот ва таъбироти ирфоний. – Техрон, 1379 ҳижрий-шамсий).
6. Улудоғ С. Тасаввуф теримлери сўзлиги. – Истанбул, 2005.
7. Фитрат. Бедил (Бир мажлисада). – Тошкент, 1996.
8. Шайх Маҳмуд Шабустарий. Гулшани роз (Форсийдан Ж.Камол таржимаси). – Тошкент: “Тамаддун”, 2013

AMIRIY MUXAMMASLARIDA TALMEH SAN'ATI

**Dilmurod ASQAROV,
O'zRFA tayanch doktoranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amiriy muxammaslarida qo'llanilgan talmeh san'ati va uning shoir g'oyaviy niyatidagi o'rni masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: poetika, badiiy san'at, talmeh, muxammas, mahorat, g'oya.

Аннотация

Эта статья посвящена искусству талме, используемому в мухаммах Амира, и его месту в идеологических намерениях поэта.

Ключевые слова: поэтика, изобразительное искусство, талмех, мухаммас, мастерство, идея.

Annotation

This article deals with the art of talmeh used in the Amir's muhammas and its place in the poet's ideological intentions.

Keywords: poetics, fine arts, talmeh, muhammas, skill, idea.

Sharq olamida azaldan adabiyot – so‘z san‘atiga alohida nazar bilan qaralgan. Adabiyot asrlar davomida uch tarkibiy qismga ajratilib, ularning har biri mustaqil fan sifatida chuqur tadqiq etilgan. Ular quyidagilar: ilmi aruz, ilmi bade‘ va ilmi qofiya. Fors ulamolari bu uchlikni — “Ilmhoye segona” (Ilmlar uchligi) deb atashgan. Mumtoz poetikamiz tarixida bu sohalarining har qaysisiga bag‘ishlanib, o‘nlab ilmiy risolalar yaratilgan. She‘riyat ilmi doimo e‘tiborda bo‘lib, nazmga nasrga qaraganda farqliroq hurmat ila qaralgan. Hazrat Navoiy ham nazm (tizma)ning nasr (sochma)dan afzalligi va go‘zalligini — “Hayrat ul-abror” dostonida alohida ta‘kidlaydilar. Maktab-madrasalarda ham she‘r ilmi mustaqil fan tarzida o‘qitilgan.

Ilmi bade‘ – badiiy san‘atlar ham adabiyotning muhim tarmoqlaridan hisoblanib, butun Sharq dunyosi ulamolari tomonidan birgina shu sohaga atalib bir necha nodir risolalar bitilgan. Bu haqdagi eng qimmatli asarlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: Abdulloh ibn Mu‘tazzning - “Kitobu-i-badi”, Nasr binni Hasanning - “Mahosinu-l-kalom” (“Go‘zal so‘zlar”), Qudama ibn Ja‘farning - “Naqdu-sh-she‘r” (“She‘r tanqidi”), Umar Rodiyoning - “Tarjumonu-l-balog‘a” (“Balog‘at tarjimoni”), Rashididdin Vatvot - “Hadoyiqu-s-sehr” (“Sehrlil bog‘lar”), Atoulloh Husayniyning - “Badoe‘ us-sanoe‘” (“San‘at yangiliklari”) risolalari.

Badiiy san‘atlar mumtoz adabiyot va mumtoz she‘riyatning asosi hisoblanadi. Ular nazmiy asarlarning tub mag‘zini yoritib beruvchi, she‘rni go‘zallashtiruvchi, unga chiroyli ma‘no beruvchi va she‘rni she‘r qiluvchi muhim vositalardir. She‘riy san‘atlar she‘rning faqat shakliy bezagi yoki unga kutilmagan ma‘nolar yuklovchi vazifasini bajarmaydi. Balki, ularning misra-yu baytlarda kelishi shoir aytmoqchi bo‘lgan ma‘noni o‘quvchiga yetkazishga ko‘maklashuvchi va muallif yuragidan o‘tkazgan tuyg‘ularni o‘zgalar ham his qilishiga yordamlashuvchi —kalit so‘zlardir.

Mumtoz she‘riyat poetikasi vazn va qofiya bilan bir qatorda, badiiy tasvir vositalari uyg‘unligida shakllanadi [1,2,3,4]. Sharq mumtoz she‘riyatining qator janrlarida o‘z iste‘dodini sinab ko‘rgan Amiriy she‘rlari ham shakl va mazmun jihatidan mukammalligi, badiiy san‘atlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi.

Amiriy ijodida u yoki bu badiiy san‘atdan xoli, shunchaki ifodalangan baytlar yo‘q hisobi. Bu uning adabiyotning asl mohiyati va vazifasini chuqur tushunganligi va o‘z ijodida adabiy-estetik talablarga rioya qilganligidan dalolat beradi [5.94].

Sanoyi‘ (ar. san‘atning ko‘pligi) – nutqni go‘zal qiluvchi badiiy vositalarning jami. Nutqning ma‘no tomoni bilan bog‘liq bo‘lib, uning ma‘no go‘zalligini

ta'minlashga xizmat qiluvchi She'riy san'atlar ma'naviy san'atlar deb yuritiladi. Adabiyotlarda iyhom, tavjih, tajohuli orif, talmeh, irsol ul-masal, husni ta'lil, laffu nashr, mubolag'a, tashbeh, tamsil, istiora kabi o'nlab san'atlar ma'naviy san'atlar sirasiga kiritiladi [6.269].

Amiriy she'riy san'atlarning har biri muayyan g'oyaviy badiiy niyatga xizmat qilishini juda yaxshi anglagan. Shu tufayli ham uning har bitta ishlatgan she'riy san'ati kitobxon ko'z oldida tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaning to'laroq gavdalanishiga xizmat qiladi. She'rga latofat va go'zallik bag'ishlab, kitobxon ko'nglini ham o'sha zavq-shavqqa to'la hissiyotlarga to'ldiradi.

Amiriy muhammaslarida ko'p uchraydigan san'atlardan biri – talmeh.

Talmeh (ar. chaqmoq chaqishi, ko'z qirini tashlash, nazar solmoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, she'rda mashhur tarixiy voqea, shaxslar, badiiy asarlarga ishora qilish. Talmeh shoirni ko'zda tutilgan fikrni batafsil aytish, holatni batafsil tasvirlash zaruratidan xalos etib, ko'zlangan samaraga o'sha fikr yoki holatga mos keladigan boshqa biror hayotiy yoki badiiy faktga ishora qilish bilan oq erishish imkonini beradi. Talmehdagi ishora tarixiy voqea yoki badiiy asar nomini keltirish, ular bilan bog'liq biror lafzni tilga olish orqali ochiq yoki yashirin tarzda amalga oshirilishi mumkin [6.307].

Amiriy she'rlarida Nuh, Xizr, Sulaymon, Yusuf, Idris, Muso, Iso Masih kabi payg'ambarlar, Iskandar, Doro, Jamshid, Mahmud G'aznaviy, Osafdek shoh va vazirlar, Mansur Halloj kabi mutasavviflar, Barbat, Behzod singari Sharqda mashhur sozanda va musavvirlar, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro kabi oshiq-ma'shuqlar obrazi ko'p uchraydi. Bu san'at shoirga "bir ishora bilan chuqur ma'noni ifodalash imkonini" beradi [5. 98].

Amiriy muxammaslarida qo'llangan talmehlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- a) shaxs bilan bog'liq talmehlar (bunga Iso, Muhammad (s.a.v.), Xizr, Farhod, Majnun, Yusufi Kanon, Iskandar, Aflotun, Doro, Jamshid, Shirin, Xusrav v.b.)
- b) joy bilan bog'liq talmehlar (Xo'tan, Hind, Kashmir, Sabzavor, Xito, Totar, Iram v.b.)

Amiriy ta'bi xud muxammasining quyidagi bandida Sharq adabiyotida eng ko'p istifoda etilgan obrazlar Farhod hamda Majnun tilga olinadi. Bandddan anglashiladiki, oshiqning ishq shu darajaga yetganki, endi u faqat yorga muhabbatdan boshqasini ixityor etmaydi. Bu yo'lda devonaligi shunchalikki, endi u Farhod-u Majnundan ham or qiladi, chunki ishq bobida lirik qahramon ulardan ancha baland.

*Necha zohidlig', muhabbat ixtiyor aylay bukun,
Ishq aro devonalig'lar oshkor aylay bukun,
O'zga mahvashlar xayolidin guzor aylay bukun,
Oshiq o'lsam, san kabi dilbarni yor aylay bukun,
Ishq aro Farhod ila Majnundin or aylay bukun [7.415].*

Yoki shu muxammasning oxirgi bandida oshiqning ma'shuqaga muhabbati sababi yanada oydinlashadi. Chunki Oshiq ko'ngil qo'ygan malakning qomati yettinchi osmondagi sidra (kedr) yoki jannatdagi shamshod misoli, go'zallikda

niholdek qaddiga zamin sarvi o'xshamaydi. Davron ofatidirki, xatto dinu iymonda fitna boshlanadi. Hindu, Kashmiru Xo'tanda ham bu go'zaldan o'tadigani yo'q. Oshiq esa go'zal hajrida Sabzavorga bosh olib ketishni ixtiyor etib turibdi:

*Qomatingdur sidra yo shamshodi firdavsi barin,
O'xshamas naxli qadingga sarvi gulzori zamin,
Ofati davronmusan, ey fitnayi oshubi din,
Hindu Kashmiru Xo'tanda yo'q saningdek nozanin,
Bosh olib, hajringda sayri Sabzavor aylay bukun [7. 416].*

Bu o'rinda shoir Hind, Kashmir, Xo'tan, Sabzavor kabi joy nomlarini talmeh qilib keltirar ekan, mazkur shaharlarning go'zallar yashaydigan o'lkalar sifatidagi mashxurligidan ustalik bilan foydalanadi. Sharq mumtoz adabiyotida ma'shuqaning jon oluvchi ko'zlari, qora kamon qoshlari ta'rifida Hind va Kashmir o'lkalari talmeh qilinsa, Xo'tan misolida xushbo'ylik ta'riflanadi.

Amiriy muxammaslarida ko'p uchraydigan talmehlardan yana biri Isodir. Amiriy ham an'analar doirasida ijod qilib, mazkur talmehdan ma'shuqa nafasining o'likka jon baxsh etuvchilik xususiyatini istifoda etadi:

*Qomatig'a jannat ichra banda to'bo go'yiyo,
Bil, Masih anfosidindur sud olib obi baqo,
Bu chaman uzra magarkim peshasi o'lmish hayo,
Egilur gulbun kabi gulshanda ul gulgunbaqo,
Kim, xirom aylarda naxli arg'uvon derlar ani [7.419].*

Keyingi band ma'shuqaning yuzi ta'rifida. Bu o'rinda shoir ham joy nomi talmehidan ham mashxur shaxslar talmehidan ustalik bilan foydalangan:

*Orazingdin zohir o'lmish har zamon fayzi chaman,
Nakhati zulfungdin ermishlar nishon mushki Xo'tan,
Nuqtayi xoling zanahdoningdadur, ey siymtan,
Xizri xatting obi hayvon, lab uza tutmish vatan,
Ham Masihu Xizrga dorul-amon derlar ani [7.419].*

Sen go'zal chehrang go'yoki bir fayzli gulzor. Xo'tan mushku anbarlari ham aslida sening sochlaringdan nishonadir. Ey kumush tanli go'zal, nuqtai xoling iyaging chuqurchasi (zanaxdon)ga joylashib olgan bo'lsa, labing ustidagi mayin tuklar xuddi tiriklik suviga ega chiqqan Xizr kabi lablaringni vatan qilibdi. Bu holatda Isoga ham, Xizrga ham dorul omon bo'libdi.

Ko'rinadiki, Amiriy asrlardan-asrlarga o'tib kelgan an'analar doirasida ijod qilish bilan birga, she'riy san'atlar qo'llash an'anasini rivojlantirib, ularning qator yangi qirralarini ochgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoulloh Husayniy. Badoyi'u-s-sanoyi' (Aruz vazni va badiiy vositalar haqida) forchadan Alibek Rustamov tarjimasini. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. - Toshkent: Zaqalam, 2006.
3. Rahmonov V. She'r san'atlari. –Toshkent: Yozuvchi, 2001.
4. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – Toshkent: Sharq, 2001.
5. Qobilova Z. Amiriy she'riyati. –Toshkent: Fan, 2010.

6. Dilmurod Quronov va boshqalar. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”. T.: Akademnashr, 2014.
7. Amiriy. Devon.. O‘zbekcha She‘rlar (Nashrga tayyorlovchilar A.Madaminov, E.Ochilov, Z.Qobilova, O.Davlatov). - Toshkent: «Tamaddun» 2017.

PO‘LATJON QAYYUMIY ASARLARIDA QO‘QON SHOIRLARI

**Lochinbek AHMADALIYEV,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha uyetuk olim Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” hamda “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asarlarining qiyosiy-tipologik tahlili yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, tazkira, antologiya, devon, qo‘lyozma, manba, qiyosiy-tipologiya, adabiyot, tarix.

Аннотация:

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ произведений ведущего исследователя литературной среды Коканда Полатджона Кайюми «Тазкирай Кайюми» и «История Хоганда и его литературы».

Ключевые слова: кокандская литературная среда, tazkira, антология, devon, рукопись, источник, сравнительно-типология, литература, история.

Annotation:

This article provides a comparative and typological analysis of the works of Polatjon Qayyumi, a leading scholar of the literary environment of Kokand, «Tazkirai Qayyumi» and «History of Khogand and its literature.»

Keywords: Kokand literary environment, tazkira, anthology, devon, manuscript, source, comparative-typology, literature, history.

Ma‘rifatpar va pedagog, tarjimon, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Po‘latjon domullo Qayyumov (1885-1964) adabiyot sohasida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagining yozib olinishi va e‘lon qilinishi, Rahmatullohqori Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as‘hob” asarining tarjima qilinishi, Maxmurning 69ta she‘ridan iborat noyob qo‘lyozma devonining topilishi (1950), Furqat qo‘lyozma devonining tuzilishi (1959) bevosita olim nomi bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, adabiyotshunos “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asarini yozgan. Uch qo‘lyozma daftardan iborat mazkur asar 1957-yilda yozilgan bo‘lsa-da, uning materiallari muaallif tomonidan uzoq yillar davomida yig‘ib borilgan. Bu haqida Aziz Qayyumov shunday deydi: “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” III daftari asl nusxa 56 sahifa. Mening xatimda 79 sahifa bo‘ldi”. [1, 358] 1960-yilda ushbu asar asosida 6ta daftarni o‘z ichiga olgan “Tazkirayi Qayyumiy” yozgan. Undan o‘rin olgan 324 nafar ijodkorning 160 nafari Qo‘qon adabiy muhiti

vakillaridir. Bundan ko‘rinib turadiki, asarning asosiy qismini Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq materiallar tashkil etadi. “Tazkirai Qayyumiy” “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” asosida shakllangan bo‘lsa-da, bu ikki asarning o‘zaro farqli tomonlari ham talaygina.

Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq manbalar Po‘latjon Qayyumiyga qadar ham mavjud edi. Ularning eng mashhuri va kattasi “Majmuai shoironi Umarxoniy” asaridir. Biroq shuni alohida ta’kidlash lozimki, Qo‘qon adabiy muhiti haqidagi farazlar, analitik kuzatishlar, shoirlar va ularning asarlari borasida tazkira-taxlit (antalogik xarakterdagi) materiallar bir yerda jamuljam bo‘lgan birinchi asarni aynan Po‘latjon domla yozdi. Va bu asar ushbu “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” hamda u asosida yozilgan “Tazkirai Qayyumiy”dir. [1, 3-4]

Qolaversa, “Tazkirayi Qayyumiy”da salaf tazkirashunoslar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tuzatilib, izohtalab o‘rinlar to‘ldirib ketilgan. Masalan, “Qori Rahmatullo Hoziqning tarjimai holina bayon etmishda qo‘rqub voqeani sarpushlab o‘tishga majbur bo‘ladur. Hatto Hoziqga xiyonat etib nonko‘rlikda Hoziqning ayblab o‘tush shahid etilgani to‘g‘risida biror ishora ko‘rsatmaslikka o‘z vijdonining ko‘ndira olgani holda Hoziq Buxoroga kelganda Amir Haydar buni ilmiy fazliga binoan hurmat ko‘rsatgani va boshqa ulug‘ olimlar ham hurmat etarlarini yashira olmaydi”. [2, 296] Po‘latjon domla Junaydullo Hoziq va Amir Nasrullo munosabatlarini xolisona mufassal bayon etadi.

Zavqiy borasidagi fikrlar to‘liq va mukammal ishlangan, xususan, shoir vafoti batafsil yoritilgan. [1, 13-17]

Nasriddinbek (Shahzoda)ning adabiy faoliyati, uning Amiriy kabi adabiyot homiysi bo‘lish istagi, Andijonda bir guruh shoirlardan iborat adabiy guruhni shakllantirishi, Xudoyorxonning bunga salbiy munosabati “Xonning hamaqoti” sarlavhasi ostida keng mushohada etilgan. [1, 63]

“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” va “Tazkirai Qayyumiy”dagi ma’lumotlar o‘zining qiziqarliligi va ayrimlari hatto unikalligi bilan ajralib turadi. Mana shu jihatga diqqat qaratsak. Misol uchun, shoir Musoxon haqidagi ma’lumotni olaylik. Po‘latjon domullo 1944-yilda Qo‘qon rayon Kalamush (Galamusht) nomli qishloqda (hozirgi Furqat tumani)da o‘qituvchi bo‘lib yurgan kezlari bir xarob uydin Fuzuliy qo‘lyozma devonini topib oladi. Uning orqasida “g‘azali Musoxon” sarlavhasi ostida “Ozurda emasmu meni ko‘nglum sitamingdan...” deb boshlanuvchi 5baytlik she‘r berilgan edi. Mazkur g‘azalni “Xo‘qand tarixi va adabiyoti”ga kiritadi. [1, 12] Shu kitobning boshqa bir o‘rnida Musoxonni shoir Azimxo‘ja eshon avlodidan bo‘lganini taxmin qiladi. [1, 241]

Shoir Ma’yus Xo‘jandiy haqida ma’lumot berish uchun xo‘jandlik yosh shoir Tojiboyev bilan aloqaga chiqadi va undan Ma’yus haqida ma’lumotlar to‘plab berishini so‘raydi. Shoir Tojiboyev to‘plagan ma’lumotlarini 1957-yil 16-sentyabrda yuboradi va domla o‘z asarlarida Ma’yus to‘g‘risida to‘xtalanganida mana shu manbaga tayanadi.

Musulmonqulning 1845-yillarda Majzub Namangoniyga murid bo‘lgani, keyinroq mingboshining qilmishlaridan koyib, mavlono Majzubning undan yuz o‘girgani, [1, 329] hazrat Namangoniyning o‘zi esa Zokiriyga irshod bo‘lgani,

Zokiriy she'r ta'limida Amiriya ham ustozlik qilgani [1, 333] haqida ma'lumotlar asosida murshid-muridlik zanjirini ko'rsatib beradi.

Shoir Faqiriy haqidagi aniq ma'lumotlarni to'plashda uning faoliyatidan yaxshi xabardor bo'lgan insonlardan biri Muhammadjon muallim Nuriyevga murojaat qiladi. O'rni kelganda aytish lozimki, muallif har qanday ma'lumotga yuzaki yondashib, ishonib ketavermagan. M.Nuriyev aytgan voqeani keltiradi, lekin tarix sanasi to'g'ri tushmaganligini, voqeaning ishonchsizligini bildiradi.

Yuqoridagilar bilan birga, Po'latjon domullo o'zigacha bo'lgan vaqtgacha muallifi noma'lum bo'lgan "Abdullajon hoji Hasanovga" bag'ishlangan g'azal aynan Faqiriy qalamiga mansub ekanini aniqlagan. [1, 144]

Kaltatoiy hayoti va adabiy faoliyati bo'yicha material yig'ish uchun uning avlodlarini qidiradi. 1952-yil 21-iyunda shoirning bir qizidan tug'ilgan nabiralaridan bo'lgan, Buvayda tumani Qumqishloq (Sultonbayoz)da yashovchi Abdullaxon Nasimxonto'ra o'g'lini topadi hamda undan bobosi masalasida ochiq turgan savollarga javob topadi. [1, 170]

Ramziy, Muhayyir, Vola, Akmal II xususida ma'lumotlarni to'plashni Po'latjon domla Mulla Abdullajon Bokiya iltimos qilgan. Boki domulla to'plagan faktlarini yozib muallifga yuborgan. [1, 172; 256; 264-265] Muhayyir to'g'risida Davron mahallalik Foziljon orqali ham manba to'plagan. [1, 256]

Domulla Bokiyning aytishicha, Vola aslida Voleh bo'lib, Samarqand shoiridir. [1, 264]

Muhammad Valiy ijodini o'rganishda olimga omad kulib boqadi. Valiyning qizi muallifning qo'shnisi, Akramjonga turmushga chiqadi. Shoir haqidagi faktlarni, xususan, uning she'rlari kiritilgan bayozni shu kishidan oladi. Po'latjon domulla shu bilan qanoatlanmay, Valiy faoliyati bilan yaxshi tanish bo'lgan Sultonxon bilan ham uchrashadi. Sultonxonning otasi shoir Valiy bilan do'st bo'lganlar. [1, 195]

Sulaymonqul Rojiy bo'yicha uning o'g'li Mulla Abdullaxonni qidirib topgan. O'g'lining aytishicha, "shoir vafotidan 10 kunlar oldin Mulla Ashurali Zohiriy va Nosirjonhoji Ziyoyevlar kelib bir qancha turkiy yozgan asarlarini o'shal zamon puli ila 600 so'm berib sotib olib ketmishlar ekan". [2, 480]

Gulxaniy haqida muallif Boqiy domullaning Hoshim Razzoqqa aytgan "Umarxon Gulxaniyning borib daryoga tashlagan ekanlar" ma'lumotidan xabar topgan. Shundan so'ng domla Qayyumiy tarix kitoblarini varaqlab ko'radi va "shoir Mulla Ernazar domulla birga qo'shub Rajab qushbegi degan bir tojik askari sarkardagi To'raqo'rg'ong'a hokim etib yuborib, Sirdaryoga borganda o'ldirib daryo(ga) tashlab yuborgani ko'rinadur. Magar shunda Gulxaniy ham bo'lishi mumkin, aniq emasdur...Muhammadali davrida Gulxaniy ko'rinmaydur",-deb yozadi. [2, 139]

Nodirabegim haqida to'xtalinar ekan, uning asl ismi Mohlaroyim emas, Komilaxon ekani, "Nihoyat husn-u latofat, odob-axloqlari bilan mashhur bo'lgan bu xonimning sifatlab Mohlaroyim deb ataydilar",-deya ta'kidlaydi. [1, 128] "Mohlaroyim degan titul bo'lub, o'rdadagi haram xotunlarni hurmat ila ataydurgan ismdur. Masalan, Mingoyim, Qazoqoyim, Hokimoyim kabi". [2, 150-151] Keyinroq, Aziz Qayumov Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon" asariga

tayanib, uning “Maknuna” taxallusi ham mavjudligini aniqlagan. Po‘latjon Qayyumiy “Maknuna” taxallusida ijod etgan shoir bo‘lganini bilgan, biroq u Nodirabegim ekanidan bexabar bo‘lgan. “Tazkirai Qayyumiy”da 216-raqam bilan keltirilgan shoir Rojiiy haqida to‘xtaliganda aytgan so‘zlari fikrimiz tasdig‘idir: “Bu kishining qo‘lida Maknuna taxallusli bir shoiraning devoni bor edi, deb o‘g‘li aytadur”. [2, 480-481] Muallif shoiraning xalq o‘rtasidagi obro‘-e‘tibori benihoya katta bo‘lgani haqida ushbu voqeani keltiradi: “Nasrullo bu xotunning o‘ldurganda shahar xalqi nihoyat qizg‘onganligi shundan bilinadiki, shahidlar orasinda sochlari yozilgan holda qonga bo‘yalib yotgan bu shoirani boshqalar nazaridan saqlash uchun darhol xalq ommasi orqasi bilan doiralaniib o‘rab turdi. Janozalar olunguncha bu faxriy qarovulluq davom etadi”. [1, 130]

Boshqa ijodkorlar qatori Furqat avtobiografiyasini o‘rganish uchun ham domla ancha mashaqqat tortgan (Furqatning ismini har ikki asarida Furqat deb bergan). Chunonchi, Furqat bilan bir mahallada yashagan Foziljondan shoirning Xo‘qandni tark etish sabablari, “Sayding qo‘yaber sayyod, sayyora ekan mendek...” musaddasi yozilish sababini aniqlagan: “yaxshi ko‘rgan xotuni hovlisida yog‘ eritib turgan vaqtida etagidan o‘t olib ketgan. Bu voqeadan keyin shoir Xo‘qanddan chiqib ketgan. Isfara tog‘larida sayyodga uchragan. “Sayding qo‘yaber sayyod, sayyora ekan mendek...” degan oltitalik shaklida bo‘lgan she‘rini shul yo‘lda aytgan”. Qayyumiy domulla ushbu ma‘lumotlarni qanchalik haqiqatga yaqin ekanligini aniqlash uchun Furqatning do‘sti va qo‘shnisi Mulla Burhoniddin Muhammad Ibrohim Mirza o‘g‘li va shoir bilan yon do‘kondor bo‘lgan to‘qumdo‘z usta Qurbonali Umarali o‘g‘li bilan uchrashgan. Ular ham yuqoridagilarni tasdiqlashgan. [1, 210] Bundan ko‘rinadiki, domla har qanday faktga ko‘r-ko‘rona yondashmagan.

Abbosxo‘ja Kalonxo‘ja o‘g‘li Furqatning Xudoyorxon tilidan aytgan muxammasi tarixi va oqibatlarini bayon etgan. [2, 228] Po‘latjon domla Furqat vafotini 1909-yil deb bersa, Aziz Qayumov 1913-yil deb ko‘rsatadi. [1, 208]

G‘urbat bo‘yicha manba yig‘ish uchun konibodomlik muallim To‘raxonov bilan uchrashadi. Muallim shoir bilan yaqinligini u haqida bergan ma‘lumotlari tasdiqlaydi. Muallimning qo‘lida shoirga tegishli bir qo‘lyozma bo‘lib, 1937-yili boshlangan “qama-qama”lardan qo‘rqib yoqib yuborgan. [1, 236-237]

Tarixchi Mirza Olim Mushrifning badiiy ijod bilan ham shug‘ullanganligini bilgan domla 1951-yil 4-iyunda uning devonidan xabar topadi hamda uning she‘rlarini ham asariga kiritadi. [1, 262]

Yuqoridagilar misollardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, olim har bir shoir ijodini o‘rganish maqsadida hormay-tolmay, astoydil mehnat qilgan. Jumladan, Maxmur to‘g‘risida aniq ma‘lumotlar to‘plash uchun Abdusattor maxdum, Muxtorxon Muhammadiyev, mirzo Xayrullo [2, 301-302]; Gulxaniy masalasida Mavlaviy Yo‘ldosh domulla [1, 156], Qanoatshoh haqida Mulla Otabek mingboshi [1, 158], Mulla Sulaymonqul to‘g‘risida domulla Rojiiy [2, 138]; Mahzuna borasida Mulla Ergash xalfa [1, 159]; Uvaysiy haqida Mirzoyi Xo‘qandiy, Yunusjonhoji Og‘aliqov [2, 161]; Mulla Mir Mahmud Mulla Shamsuddin o‘g‘li Qoriy bo‘yicha Mulla Abdullajonhoji Hasanov [1,175]; Muqimiy to‘g‘risida Mulla Abdulqodir kotib, Ro‘zi Muhammadhoji, Mulla Ismoil

Jumaboyev, A'zamxo'ja To'raxo'ja o'g'li, Mulla Ihson Xo'jamqul o'g'li, Mulla Husaynixon maxdum [2, 211-218]; Muslimiy masalasida Qori Mahmud [1, 196], shoir Mubtalo borasida Rasuljon Ma'murboyev [1, 199]; G'urbat bo'yicha Mulla Kimyo Nazar [1, 236]; Avliyo Orifiy haqida uning shogirdi, qizilqiyochlik Mulla Hamrohali domulla Muhammadsharif o'g'li [1, 268]; Shahzoda (Nasriddinbek) xususida Mulla Abdusattor maxdum [1, 274]; Berdiyot shum borasida muallif o'z otasi Mulla Abduqayyum [2, 512]; Zamiriy va Eshqul xalifa masalasida Mulla Asg'arali Charxiy [1, 334], o'zganlik G'ofurboy [1, 296] va Manziliy to'g'risida Mulla Yo'ldosh a'lam [2, 591]; Azimiy haqida domulla Abdulqodir hazrat va Azimxoja Toshmuhammadxoja [1, 320]; Majzub Namangoniy masalasida domulla Abdulkarim o'g'li [2, 187]; Abdulkarim Maxmur II xususida Mirzo Iso Kitobdorov [1, 135]; Xalifa Soleh borasida uning Hushyor qishlog'idagi kuyovi [1, 337]; Miroz bobo Kalon bin Muhammad Rizo parvonachi haqida poplik mulla Sulton Muhammadyor [1, 357] kabi adabiyot ahllari bilan uchrashgan va ularning ko'magidan foydalangan.

“Tazkirai Qayyumiy” “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti” asari natijasida maydonga kelgan bo'lsa-da, muallif bir asaridagi ma'lumotlarni aynan takrorlamaydi, balki yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Bir so'z bilan aytganda, “Tazkirai Qayyumiy” “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti”ning aynan ko'chirilgan nusxasi emas. “Tazkirai Qayyumiy”ning yuzaga kelishida “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti”dagi ma'lumotlar xamirturush vazifasini o'tagan desak to'g'riroq bo'ladi.

Mazkur ikki asar o'rtasidagi ma'lumotlarda farqli tomonlar ham talaygina. Birgina shoirlar faoliyatiga oid yillarda chalkashliklar anchagina. Chunonchi, “Tazkirai Qayyumiy”da G'oziy 1817-yilda vafot etgan deyilsa, [2, 94] “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti”da shoirning 1818-yillarda yozgan she'rlarida o'z zamonidan nolib yozgan o'rinlari ko'plab uchrashi aytiladi. [1, 120] Xaziniy vafoti bir o'rinda 1916-yili, [1, 192] boshqa o'rinda 66 yoshda 1926-yilda [2, 562] deb ko'rsatiladi. Valiyning olamdan o'tishi 1901-yil deyilsa [1, 194], 67 yosh yashab, 1896-yili [2, 547] holatida beriladi. Mahjurning umr yillari berilishida ham shu holatni ko'rishimiz mumkin. Shoir 1864-yilda tug'ilib, 1916-yili vafot etgan deyilsa [1, 250-251], tazkirada 1908-yilda 54 yoshda olamdan o'tgani qayd etilgan. [2, 444]

Nodirning bir o'rinda “Umarxonga bir kitob yozib taqdim etgani so'zlanadur” deyilsa, [2, 124] boshqa o'rinda “Umarxondan keyin uning xotuni shoira Komilaxonumga “Haft gulshan” nomida bir poema yozib taqdim etgani” haqida fikr bildiriladi. [1, 131]

Shoir Muhsiniy devoni haqida gap ketganda “Xo'qand tarixi va uning adabiyoti”da: “Buning devoni (Qo'qon) shahar muzesiga berilgani to'g'risida o'g'lining aytgani bor bo'lsa-da, shahar muzey kutubxonasida bu kitob ko'rinmadi, o'g'irlangan bo'lsa kerak”,-deyilgan. [1, 198] “Tazkirai Qayyumiy”da esa, quyidagi jumlar uchraydi: “Forsiy, turkiy nazm devoni ikki tilda bo'lub, o'z o'g'ullaridan hozirda hayot mullo Nuriddinjonning qo'llarida saqlanmoqdadur...Shoir Muhsiniy devonining I jildida nasr ila bir kirish so'zi yozibdur (Abjad hisobi ila 1330-sana 1911-1912-milodiyda bo'lib chiqadur)”. [2,

381.] Qolaversa, ularning birida shoir tug‘ilgan vaqt 1863-yil [1, 197], ikkinchisida 1860-yil [2, 380] etib berilgan.

Mulla Yormuhammad Mulla Ja‘farali o‘g‘li Yoriy haqida berilgan ma‘lumotlarda tafovutlar talaygina. “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”da halvofurush oilasida tug‘ilgani, “18 yoshidan boshlab she‘riyatga qiziqib Navoiy, Fuzuliy, Jomiy singari shoirlarning qunt bilan o‘qiy boshlab, o‘zi ham shularga ergashib g‘azallar yoza boshla”gani, 35 yoshlarida uylanib Oyimcha Qaqir qishlog‘iga kelib shu yerda qolib ketgani, ijod bilan shug‘ullanib, 40 mingdan ortiqroq baytdan ko‘proq she‘r yozgani aytilgan. [1, 212] “Tazkirai Qayyumiy”da esa mahsido‘z kosib oilasida tug‘ilgani, 18 yoshlaridan chala-chulpa she‘rlar yozgani, 22 yoshida Dahana Qaqir qishloqdan bir qizga uylanib, shahardan ko‘chib ketgani, kichik bir bayoz devoni vujudga kelgani bildirilgan. Muallif: “she‘rlari ravon, ohangdor edi. Devoni bosdirilmagandur” deb qayd etgan. Aziz Qayumov 1944-yilda Yoriyning she‘rlar to‘plami Toshkentda bosilib chiqqanini aytgan. Aftidan, ustozning bundan xabari bo‘lmagan. Ta‘kidlash joizki, olim Yoriyning Maxmur qalamiga mansub “Hapalak” she‘riga bog‘lagan muxammasi mavjudligini, 1959-yilda topilganini o‘z asarida keng jamoatchilikka ma‘lum qilgan. Yoriy tarjimai holini o‘rgangan Po‘latjon domla shoirning “Xudoyor(ni) saroyga qandaydir aloqasi bo‘lib, xonning kichik o‘g‘li O‘rmonbek ila birga o‘ynaganining so‘zlagan”ini izohtalab ekanligini bildirib: “O‘rda Xo‘jand dahasida bo‘lub Buzrukxo‘ja mahallasiga yaqinligi yo‘qdur”,-deydi. [2, 318-319]

Afsus borasidagi tafovutlarga diqqat qarataylik: “Xo‘qandda hayot kechirmishdur. (Shu yerda) vafot topdi”. [1, 217] “...To‘raqo‘rg‘onga qozi bo‘lib turgani ila she‘rda taxallus etib Afsus ixtiyor etmishdur. To‘raqo‘rg‘onli Is‘hoqxon qozi va taxallusi Ibrat ham shoir Vasfiyo‘ra Qo‘rqoniy bular Afsusga nabiralardur. Avlodlari hozirda ham shundadurlar”. [2, 283-284] Ikkinchi manbadan oydinlashadiki, shoir To‘raqo‘rg‘onda yashab qolgan.

“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”da Zamiriyning “Voy o‘lay sho‘rim qursin” va “Shuning uchun xotun olgim kelmaydi...” murabba‘lari mavjudligi aytilsa [1, 296], tazkirada “Voy o‘lay sho‘rim qursin shuning uchun xotun olgim keladi” bir butun muxammasligi ta‘kidlangan. [2, 581]

Fazliyning o‘g‘li ham shoir ekanligi aytilib, “Xo‘qand tarixi va adabiyoti”da uning taxallusi “Bandazoda” berilgan bo‘lsa, “Tazkirai Qayyumiy”da “Bandazod” deb aytilgan. Aziz Qayumov uning taxallusini “Bandaiy” deb keltirgan. [3, 115] Xuddi shu tartibda Mushrifning kuyovi Abdunnabi taxallusi “Xotib” – “Xotif”, xarobotiylardan bo‘lgan “Uzlat” – “Izlat”, G‘urbatning ismi Mulla Ubaydullo – Abdulla holatida berilganini ko‘rishimiz mumkin.

Junaydullo Hoziq haqidagi ma‘lumotlar har-xilliga e‘tibor qaratsak. “Tazkirayi Qayyumiy”da Nasrulloxon Qo‘qon istilosidan qaytib, Buxoroga yetib kelgan kun ertasiga a‘yonlar majlisida Hoziqni chaqirib, erishgan zafariga munosib maqto‘v so‘raydi. Shoirning chuqur nafratini ko‘rgan amir rangi oqarib, ichkariga kirib ketgani, Hoziq shu kechayoq Shahrisabzga qochgani aytiladi. [2, 298]

“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”da voqea sal boshqacharoq keltirilgan: “amir Nasrullo Hoziqdan maqto‘vni yo‘lda so‘raydi. Hoziqning munosabatiga bo‘lgan g‘azabini ichiga yutib, Buxoroga birga boradi. Biror oy o‘tadi.

Nasrulloning qarashi, Hoziqqa munosabati o'zgarib boraveradi. Oxirda do'storlari boshqa yerga qochishni maslahat beradilar. [1, 37-38] A. Qayumov Mirza Olimning "Ansob us-salotin va tavorixi xavoqin" asariga tayanib, "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"dagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi. [3, 62]

Hoziqning o'ldirilishi bo'yicha "Tazkirai Qayyumiy"da amir Nasrullo tomonidan yollangan Do'shaboy shoirni himoya qilish uchun Shahrisabz begi Xo'jaquli parvonachi qo'ygan ikki qorovulning yo'q bo'lish paytlarini to'rt sherigi bilan kutib turgani, ular daf bo'lgach, uch yeridan zahm urib, kallasini olib ketganini aytadi. [2, 298] "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"da voqea tafsilotlari o'zgacharoq: "Do'shaboy Shahrisabzda qo'lga tushadi. Revmatizm bahonasida qutulib, shu bahona bilan Hoziqqa uchrab, unga mehmon bo'ladi. Bir kun kechasi hamma uxlagan, odam yo'q paytda muddaosini Hoziqqa bildiradi. Hoziq biror soatga ijozat olib tahorat qilib, eng so'nggi g'azalni yozib, voqeani qisman bayon qilib qo'yib, Masnaviyi Sharifi mavlaviy Rumiyning kitobini qo'yib ishorat qiladi. Qotil kitob ustida shahid etadi. Erta azonda kallani olib, Buxoroga qarab yo'lga tushadi". [1, 38]

Aziz Qayumov Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix" asariga asoslanib aytgan fikrlariga ko'ra, amir Nasrullo Hoziqni o'ldirish yoki qotillarni yuborish qasdiga darrov kelmagan. Shoirning Shahrisabzga qochishi ham birinchi marta emas edi: "Mavlono mazkur... bo chand yillar ilgari amir Nasrulloh zolimni kasrati zulmlaridan tarsi xalos qilib, Shahrisabzga qochib erdi. Ani yo'lda tutib olib erdilar".

"Hoziqning endigi qochishi uning amir Nasrulloh zulmidan qutulishga ikkinchi bor urinishi edi. U cho'l orqali Buxorodan Shahrisabzga yo'l oldi. Ammo bundan xabar topgan amir o'z odamlarini har tomonga yuborib, qay yerda Hoziqni topsalar qo'lga olib kelishni buyuradi. Hatto Qarshidan Shahrisabzga odam yuborib xabar oldiradi; ammo shoirni topa olmadi. Oradan bir necha kun o'tgach, shoir Hoziq o'zining ikki xizmatchisi bilan Shahrisabzga kirib keladi". Shundan so'ng ham amir darrov qotillarni yubormagan. Hoziqning o'g'li Mirza Muhtasham orqali unga xat yozdirgan va Buxoroga chaqirtirgan. Shoir yumshoq, ammo qat'iy rad javobini bergan. [3, 63-64] (Bu ma'lumotlar bilan amir Nasrulloh Hoziqni o'ldirish niyati bo'lmagan degan fikrda emasmiz).

A. Qayumov Mirza Olimning asari bo'yicha, amir Nasrullohning Qo'qondagi qirg'iniga javoban:

"Buridi bar kadi xud az malomat

Libose to ba domoni qiyomat", fardini aytgan degan fikrni bergan. [3, 62]

"Buridi qomatat koni malomat

Bimonad iyn malomat to qiyomat", -deya o'z asarlarida keltirgan P. Qayumov ushbu baytni shoirning "Yusuf va Zulayho" dostonidan olganini ta'kidlaydi. [1, 37]

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"da Nasimiyning Andijon zilzilasi haqidagi nazmi 1898-yilda yozilgan degan ma'lumot mavjud. [1, 270] Andijon zilzilasi 1902-yilda ro'y bergan. Ushbu kamchilikni muallif tazkirada to'g'rilab ketgan: "...hijriy ila 1320-yilda (1903) Andijonda bo'lmish mashhur zilzilada bu kishining "zilzilaga" bag'ishlab yozgan she'ri ila elga tanildi". [2, 565]

Ulfatni bir o‘rinda Olimxon davri shoiri desa [1, 276], boshqa o‘rinda Umarxonni “shohi g‘oziy” deb ulug‘lagani aytiladi. [2, 310] Ikkinchi manbaga asoslanadigan bo‘lsak, Ulfat Amiriy davrida ham ijod etgan bo‘lishi kerak. Muallif ta’kidlaganidek, ushbu shoir hayoti va ijodi chuqur izlanishga muhtoj.

Antalogiyalar asosida Muqimiyni 1850-yilda tug‘ilgan degan Po‘latjon Qayyumiy tavvullud sanasini shoir bilan suhbatdosh bo‘lgan Qo‘qon yaqinidagi O‘rta Afg‘on qishloqlik Mulla Ismoil Jumaboyev fikrlariga tayanib, iyun boshlari, tut pishig‘ida ekanligini aytadi. Bu xususida uning Muqimiy tilidan aytgan so‘zlari: “Men tutni juda yaxshi ko‘raman. Chunki, men o‘zum ham tut pishig‘ida tug‘ilgan ekanman”. “Tazkirai Qayyumiy”da Muqimiy umr yoshi borasida ham o‘zgachalik mavjud: “Muqimiyning jiyanlari Mulla Ro‘zimuhammadjon qorining so‘zicha tog‘asi 53 yoshida vafot etganiga ishonmaydi. 60 dan oshgan emas. 50 yoshdan har holda oshiqdurlar, 55 yoshlar atrofida bo‘lsa kerak”,-deydi.

“Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”dagi ba’zi o‘rinlarda aniqlik yetishmaydi. Dilovar va Uvaysiy, Qoriy, Haziniy, Zaliliy, Maxmur, Nasimiy kabi ijodkorlar haqida berilgan ma’lumotlardagi chalkashliklar f.f.n., dotsent O.R.Jo‘raboyev tomonidan o‘rganilgan. [1, 7-8; 270]

Bundan tashqari, juda ko‘plab o‘rinlarda akademik A.Qayumov tomonidan izoh berib ketilgan. Furqatning vafoti, Maxmurning ot to‘g‘risidagi hajviyasi, Fazliy-Mahzuna mushoirasi manbasi, Kaltatoyining “Kaltatoyingman” hasbi hol muxammasi, Muslimiyning Mir Muslim ekani va 1870-1915-yillarda yashagani, Navoiyning “qilg‘il” radifli g‘azaliga Yoriy muxammasi, Mirza Olim Mushrif Xo‘qandiy fiqrasi kabi o‘rinlarni bunga misol qilishimiz mumkin.

Shoir Muhiy haqida ma’lumot bera turib, “Qandahor shahrida tug‘ilib, Xo‘qandda umr o‘tkazdi, deydi. Yana xuddi shu fiqraning o‘zida “Hirotdan uylangan”,-deya xabar beradi. Sal pastroqda esa “otasi qandahorlik kishi bo‘lib, Hirotdan uylangan”,-deb keltiradi. [1, 219-220] Muhiyga bog‘liq o‘rinlarni “Tazkirai Qayyumiy”da to‘ldirib ketadi: “Nomi Hoji Muhiddin bo‘lub, afg‘onistonli Qandahor shaharidan bo‘lmish Muhammadrizo Oxund nomli kishining o‘g‘lidir. Hoji esa Hirotdan shahrida tug‘ulmish”. [2, 553]

Po‘latjon domullo 1944-yilda Qo‘qon rayon Kalamush nomli qishloqda (hozirgi Furqat tumani)da o‘qituvchi bo‘lib yurgan kezlari bir xarob uydan Fuzuliy qo‘lyozma devonini topib olgani, unda shoir Musoxonning g‘azali mavjudligini aytib, g‘azalni keltiradi. [1, 12] Asarning boshqa bir fiqrasida Qo‘qon rayon Kaldo‘shan nomli qishloqda o‘rtoq Yusupov nomli kolxoz qoshida bo‘lgan maktabda o‘qituvchi bo‘lib yurgan kezlari bir shogirdining buzuq, xaroba holida tashlab qo‘yilgan uydan Fuzuliy qo‘lyozma devonini topib olgani, unda shoir Musoxonning muxammasi mavjudligini aytadi. Biroq, asar boshida berilgan g‘azal qaytarilgan. [1, 241]

Po‘latjon domulla Mir A‘zam Davronning ayol shoiralarga bag‘ishlangan “Ash‘ori nisvon” to‘plamida berilgan Rizvon xonimning “Men shoira o‘ldim g‘am ila...” deb boshlanuvchi (“Ash‘ori nisvon” 54-bet) 9 band murabba’ marsiyasi (1291/1874-1875) [1, 233-234]; Hadya bibining 7 bayt “Afsusnoma” g‘azali (1256/1840-1841 To‘rg‘oq qishloq) (“Ash‘ori nisvon” 55-bet) [1, 234-235];

Zebunnisoning (boburiyzoda malika emas, Xo‘qandlik boshqa shoira) 9 baytlik “Bir yatima qiz” hasbi hol g‘azali (“Ash‘ori nisvon”ning 56-bet, 5-bayt ikkinchi misrasi to‘liq tabdil qilinmagan) [1, 235-236]; shoira Fayzibibining 9 bandlik “Vo hasrato jahondin ketding azimat aylab...” (shoiraning onasiga bag‘ishlangan) muxammasini (1321/1903-1904) ham keltirgan. Ushbu she‘rlarning mazkur ikki manba asosida matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish matnshunoslik va adabiy-manbashunoslik fani oldida turgan vazifalardan biridir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Madhiyning “Tarixi Shohruhiya” asarida tarixiy voqealar orasida she‘rlari ham berilganini aytadi [1, 263-264]. Shuningdek, “Tursam bu sahar olama xush is sochilibdur...” deb boshlanuvchi 9 baytlik g‘azal berilgan. 9-baytning ikkinchi misrasi yo‘q. (II daftar ichida saqlangan, alohida varaqqa yozilgan. Muallifi keltirilmagan). Olim Xalifa Soleh (...-1895) haqida to‘xtalinar ekan Abdulaziz Majzubning xalifasi ekanligi, Soleh taxallusi bilan ijod etganini aytib, [1, 337] baytlaridan namunalar va hayoti haqida qo‘shimcha ma‘lumotlar boshqa o‘rinda, alohida fiqrada berilgan. Aftidan, olim shoir haqida keyinroq qo‘shimcha manbalar topgan. [1, 346-349] Tazkirada esa, Mahzun III (Mir Sayyid Nu‘monxo‘ja)ning “On Solehi zamonki bo Saloh xeshtan” – ta‘rixii Xalifa Soleh eshon Xo‘qandiy (1317/1899-1900) oxirgi bandi berilgan. [2, 373]

Nizomiy Rumiyning Muqimiy qo‘lyozma kitobida shoirning “ustindadir” radifli g‘azalini topgan. Nizomiy Rumiyni ijodi chuqur ilmiy tadqiqotga muhtoj. [1, 357] G‘afur G‘ulomning “Onalar” kitobiga asoslanib, Mahfiyning tarixga bag‘ishlangan “Tarixi Qori Qunduziy” asari mavjudligini aytib, ushbu manbani qidirib topish va uning ustida ishlashga chaqiradi. “Tazkirai Qayyumiy”da 50-raqam ostida Mahfiy haqida ma‘lumot berilgach, “bu g‘azal Qoriyi Qunduziydandur: Nomi Sulton Muhammaddur” deyilgan. Ammo, joy ochiq qoldirilgan, she‘r keltirilmagan. [2, 144] Muallif Fazliyning ismini Fazliddin deb keltiradi. Uning asl ismi Abdulkarim ekani keyin aniqlangan. [1, 160]

Domla Qayyumiy zamondosh shoirlarni ham qidirib topib, ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ham kiritgan. Mulla Bobo Muhammad Ya‘qub o‘g‘li G‘olib (1877-yilda tug‘ilgan) bilan muallif 1951-yil 13-iyun chorshanba kuni uchrashgan. Shoir Hofiz Sheroziyning “mebinam...” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi bilan tanishtirgan. [1, 267] Muhammadfozil Axbariy bilan (1874-yilda Xo‘qandda dunyoga kelgan, Toshkentga ko‘chib ketgan) Po‘latjon domla 1948-yilda ko‘rishgan. Rojiyning “emasmu...” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi haqida xabar bergan. [1, 267]

Po‘lotjon domullo Qayyumiy shoirlar haqida ma‘lumot berish bilan bir qatorda ularning oilalaridan yetishib chiqqan yoki ularga aloqador bo‘lgan ijodkorlarni ham sanab o‘tgan. Muallif ular haqida yo tazkiraning II jildida ma‘lumot bermoqchi bo‘lgan yoki “kelajak avlod o‘rganadi” degan umidda unut bo‘lib ketmasliklari uchun ularning nomlarini keltirgan:

Shoir Eshqul xalifa (1245/1830 – 1289/1872-1873) Azimiy shogirdi; Mirzo bobo Kalon bin Muhammad Rizo parvonachi, “Tazkirai Sultoniy” (1278/1870-1871)ning muallifi [1, 357-358]; Muhammadamin Foiz Xo‘jandiy Ravnaq o‘g‘li (vafoti 1250/1834) [2, 119]; Kashifiy Ravnaq o‘g‘li [2, 119]; Bandazod Fazliy o‘g‘li [2, 129]; Nojib (Vazir – Abulqosim otaliqning inisi) [2, 238] (Boshqa bir

o'rinda Vazirning Naqib ismli shoir ukasi keltirilgan. Naqib va Nojib bir shoirmi yoki alohida-alohida ijodkorlarmi, buni aniqlash kerak); Boisxon Qodirov (Zoriyning qiz tomonidan nabirasi) [2, 315]; Bositxon (Zoriyning qiz tomonidan nabirasi) [2, 315]; Mirzoyi Xo'qandiy [2, 161]; Ramziy (Podshohxoja Xonxoja o'g'li emas, boshqa shoir) [1, 172]; Manziliy [2, 254]; Salohiddin Salohiy ("Nomini ko'rsa har kim Majruh benavoni..." deb boshlanuvchi Majruh bilan 17 baytlik mushoirasi Majruh firqasida berilgan) [2, 502-503]; Abdulhafizxon Nayiriy o'g'li Kavkabi [2, 476]; Mirza, Mirza Xayrulla – Nayiriyning shogirdi [2, 476]; G'ozixon To'rai Mulla Qurbon Vola o'g'li [1, 265]; Mulla Hamrohali domulla Muhammad Sharif o'g'li – shoir Avliyo Orifiyning shogirdi [1, 268]; Mirzo Xayrullo Nosirov [1, 270]; Eshqul xalifa Azimxoja eshon shogirdi. [1, 321]

Yuqoridagilarga qo'shimcha ma'lumot sifatida keltirimiz mumkinki, Ergash Ochilov "Barhayot siymolar" asarida Uvaysiy shajarasidan yetishib chiqqan qalam ahllariga to'xtalgan. Uning otasi zullisonayn shoir bo'lib, Fayziy taxallusi bilan ijod qilgan ("Tazkirai Qayyumiy"da 78-raqam bilan berilgan [2, 247-248]). Onasi ilm-ma'rifatli, akasi Ohunjon hofiz musiqashunos bo'lgan. [4, 380] O'g'li Muhammadxon – Majnun, qizi Quyoshxon – Xokiy, nevarasi – Quyoshxonning qizi Hadicha – Azmiy, Hadichaxonning qizi Xoljonbibi – Mag'ziy taxallusi bilan ijod qilgan. [4, 384] Mazkur asarda Furqat ijodi haqida ma'lumot berish chog'ida sanalgan shoirlar ichida hali tadqiq etilmagan, domla Qayyumiy asarlarida tilga olinmagan Mulla Toshboltu Royiq ham mavjud. [4, 414] Furqatning unga atagan "Yorkand shahridan Toshboltuga xat" she'riy nomasi saqlanib qolgan. [4, 416]

"Tazkirai Qayyumiy"ni yozilishda "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" tayanch manba vazifasini o'tagan. Antologiyada jami 129 nafar ijodkorga alohida fiqra ajratilgan bo'lib, shulardan 114 nafari Qo'qon adabiy muhiti shoirlaridir. Shulardan 75 nafar ijodkor: Zavqiy, Ma'yus, Ulfat, Uzlat, Ravnaq, Mushrif, Behjat, Vazir, Fazliy, Xotib, Ado, Hoziq, Nodim Namangoniy, Akmalxonto'ra, Akmal Xo'qandiy, Maknun, Amiriy, Dilovar, G'oziy, Nodirabegim, Nodir, Zoriy, Xon, Faqiriy, Mahviy (Qoriyi Qunduziy), Maxmur, Nola, Mujrim, Gulxaniy, Mahzuna, Uvaysiy, Kaltatoiy, Ramziy, Oshiq, Muqimiy, Xaziniy, Valiy, Muslimiy, Muhsiniy, Rojiy, Fayziy, Firqat, Yoriy, Afsus, Mahzun (Domulla Abdulxoliq), Muhiy, G'urbat, Mirzo, Davron, Mahjur, Majruh, Nisbatiy, Muhayyir, Vola, Munshiy, Nasimiy, Yusuf, Shahzoda, Niyoziy, Berdiyor, Irfon, Nasriddin, Zamiriy, Charxiy, Bokiy, Firoqiy, Javdat, Manziliy, Ravnaqiy, Nizomiy, Jaloliy, Azimiy, Majzub Namangoniy, Pisandiylar hamda Qo'qon adabiy muhiti bilan bilvosita aloqador bo'lgan 9 nafar ijodkor: Huvaydo, Tajalliy, Kamiy, Partaviy, Mustag'far, Muhibiy, Zokiriy, Soleh, Muslimbibilarga ajratilgan firqalardan "Tazkirai Qayyumiy"ni tuzishda foydalanilgan. Shuni yodda tutish lozimki, Po'latjon domulla Qayyumiy antalogiyadan tazkiraga aynan ko'chirmagan. Antologiyada ko'plab ijodkorlarning nomigina berilib, she'rlaridan namunalar berilgan. Tazkirada ular qayta ishlangan, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan.

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" 1-daftarida keltirilgan 5 nafar ijodkor: Mashrabi soniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Farog'iy, Zaliliy, Xoja Ahmad

Yassaviy – ustoz shoirlar sifatida berilgan. Bir nafar shoir: Nizomiy Rumiy faoliyati, muallif ta'kidlaganidek, o'rganilishga muhtoj.

Shuni unutmashimiz kerakki, "Tazkirai Qayyumiy"da yuqoridagi tilga olingan 75 nafar qo'qonlik ijodkorlardan tashqari, Utojiy, Mahviy, Mansur, Ma'dan, Sharifiy, Biymiy, Muznib, Mushtoq, Muzmar, Komil, Vafoiy, Foni, Kasrat, Zohid, Hijrat, Manzur, Dabir, Gulshaniy, Rindiy, Xislat, Toib, Nusrat, Mir Umid, Cho'bin, Ahror, Qoriy (Mir Mahmud Shamsuddin o'g'li), Rojiy (Xo'jajon xo'ja Nizomiddin o'g'li), Bobo Rojiy, Muntazir, Toib (Yunusxon shig'ovul), Kamina, Zokirxo'ja, Xijlat (Fozilxo'ja Dovudxo'ja o'g'li), Xisrav (Fansurullobek Xudoyorxon o'g'li), Mahzun (Mir Sayyid Nu'monxo'ja), Xomush, Zarra, Faloni, Qoriy (Fazlvahob Sarimsoq o'g'li), Havoiy, Havoyi, Fayziy, Nayiriy, Rashidiy, Fitrat, Devona, Vahhoj, Mulla Hamroqul Xokiy, Mahzun (Rahmatilloqori), Muazzam, Xoniy, Ushshoq, Asiriy, Komiy, Kotib, Shaydo, Xayoliy, Layli, Mashqiy, Amin Umariy, Nihoniy, Sulaymon, G'aribiy, Ravshan, Sobir, Hayratiy (marg'ilonlik), Zarra, Parvona, Davron (Abdusamad Abdussalom o'g'li), Davron (Muhammadamin), Aziziy, Mavzun, Xushyor, Shukriy, Hazin, Nasimiy (marg'ilonlik), Omoniy, Begiy, Mavlaviy oxund, Roiq, Azko, Mulla Bobojon Xokiy, Kotib, Mulla Abdurahmon A'lam Muhammad Qosim o'g'li Hijrat, Mufazzal – "Tazkirai Qayyumiy"da keltirilgan 85 nafar qo'qonlik ijodkorlar "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" antologiyasida uchramaydi. Muallif ularni o'zida mavjud bo'lgan boshqa materiallar asosida kiritgan.

Bundan tashari, "Tazkirai Qayyumiy"da Qo'qon xonligi hududlaridan yetishib chiqqan va Qo'qon adabiy muhiti vakillari bilan doimiy adabiy aloqada bo'lgan shoirlardan 25 nafari: Noseh, Qiyosiy, Rojiy Namangoniy, Shavqiy (kattaqo'rg'onlik emas, Namangandan), Fayyoz, Almaiy, Sadoiy, Zokir, G'urbatiy, Hilvatiy, Nozil, Obid, Nosir, Oshiq O'shiy, Rashidiy, Sirojiy, Soqib, Maxmur Isfarangiy, Shuhrat, Pirmqori, Zululiy, Hayratiy (shahrixonlik), Oraziy, Andijoniy, Habibiylar berilgan bo'lib, ularni antologiyada uchratmaymiz.

Ko'rinadiki, "Tazkirai Qayyumiy"da 160 nafar Qo'qon adabiy muhiti vakillari, shuningdek, ushbu adabiy jarayon bilan bevosita hamkorlikda hamda bilvosita aloqadorlikda bo'lgan 33 nafar ijodkorga to'xtalangan.

"Xo'qand tarixi va uning adabiyoti"da alohida fiqraga munosib ko'rilgan qo'qonlik shoirlardan 39 nafari: Musoxon, Mulla Yunusjon qozi, Mir Xudoyor ("Tazkirai Qayyumiy"da 36-raqam ostida berilgan, Amiriy davridagi Mirza Xudoyor Mahviy emas; Xudoyorxon davri shoiri, Shahzoda (Nasriddinbek)ning hammaslagi), Mirzo Xotam, Mulla Husaynjoja Hijlat, Ojiz ("Tazkirai Qayyumiy"da 205-raqam bilan keltirilgan shoir Ojiz Buxoro amiri Abdulahadxon ibn Muzaffarxon bo'lib, ikkalasi alohida shoirlardir), Dog'iy, Naqib (Vazirning ukasi), Mulla Mir Mahmud Mulla Mir Shamsuddin o'g'li Qoriy, Mubtalo, Rizvonxonim, Hadyabibi, Mulla Jo'raboy Majruh, Nayiriy, Mulla Mirza Olim Mushrif Xo'qandiy, Madhiy, Tojixonto'ra, G'olib, Axbariy, Avliyo Orifiy, Fayzibibi, Fano, Qoriy Xo'handiy Xo'qandiy, Ramziy (Amiriy davridagi Mullajonxo'ja Podshoxo'ja o'g'li emas), Odilxon Sayyidxon o'g'li, Muhammad Amixoja eshon Saodatjoja, Mulla Eshqul xalifa, Maxmur II, Muhammad Soleh xalifa, Husayn Rahmatulla, Ismoilqori Namangoniy A'mo, Bobobek, Akmal

Soniy, Xoja Qobul eshon, Eshon xalifa Safo, Shoh Ahmad Qodir Siyomiy Sirhandiy Shayx Mavlaviy Jabaliy Xo‘qandiy, Mansurxoja, Mavlono Avaz Muhammad Muhammadyor so‘fi o‘g‘li (1816-1918; Charxiyning qaynotasi), Xalifa Abdurrahimlarga “Tazkirai Qayyumiy”da to‘xtalinmagan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Po‘latjon domulla Qayyumiy asarlari juda ko‘plab tadqiqotlar uchun tayanch manba bo‘la oladi. Qolaversa, olim asarlarining o‘zi ham hali chuqur ilmiy o‘rganilishlarga muhtoj.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayyumov P. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi A.Qayumov, mas‘ul muharrir va so‘zboshi muallifi O.Jo‘raboyev). – T.: Tamaddun, 2011. 380 bet.
2. Qayumov P. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi A.Qayumov). – T.: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. 711 bet.
3. Qayumov A. Asarlar (7-jiild, 1-kitob). – T.: Mumtoz so‘z, 2010. 278 bet.
4. Ochilov E. Barhayot siymolar. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2012. 422 bet.

XO‘QANDI LATIF – “SHOIRLAR SHAHRI”

**Lochinbek AHMADALIYEV,
O‘z RFA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo‘qon shahri va uning boy tarixi, ko‘hna madaniyati, jahon sivilizatsiyasida tutgan ahamiyati, Qo‘qon adabiy muhitining shakllanishi hamda taraqqiyoti, o‘zbek va jahon adabiyotida tutgan o‘rni kabi masalalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xon, amir, biy, sulola, rivoyat, g‘azal, antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, o‘lkashunoslik.

Аннотация:

В данной статье рассматривается город Коканд и его богатая история, древняя культура, его роль в мировой цивилизации, становление и развитие литературной среды Коканда, его роль в узбекской и мировой литературе.

Ключевые слова: династия, хана, амир, бий, повествование, газель, антология, тазkira, девон, источник, ономастика, этнография, история, литература, краеведение.

Annotation:

This article discusses the city of Kokand and its rich history, ancient culture, its role in world civilization, the formation and development of the literary environment of Kokand, its role in Uzbek and world literature.

Keywords: khan, amir, biy, dynasty, narration, ghazal, anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.

Xo‘qandi latif o‘zining boy madaniyati, cheksiz o‘tmishi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni, dunyo ilm-fan tamadduniga qo‘shgan hissasi bilan ko‘hna olamning eng qadimiy shaharlari bilan bellasha oladi.

“Tarixiy manbalarda Qo‘qonga oid ma‘lumotlar X asrdan boshlab uchraydi. Qo‘qonning yoshi 2000 yildan ortiqdir. Ma‘lumotlarda „Havoqand“, „Ho‘qand“ degan nomlar bilan qayd etilgan. „Havoqand“ so‘zi – „go‘zal“, „yoqimli“, „xushmanzara“, „shamol shahri“ degan ma‘noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud. Mahalliy aholi o‘z shahrini Ho‘qandi latif yoki Qo‘qon deb aytganlar. Qo‘qon shahri XVIII – XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda, Markaziy Osiyoning yirik shaharlaridan bin edi. Qo‘qon mustahkam devor bilan o‘ralgan. Shaharga 12 darvozadan kirilgan. Bunga sabab – uning ma‘muriy jihatdan 12 dahaga bo‘linganligi edi. Bu davrda shaharda 30000 aholi yashagan. XIX asr o‘rtalarida Qo‘qondagi madrasalar ichida Madalixon, Norbo‘tabiy, Jome, Hokim Oyim, Hoja dodxoh, Mingoyim madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida 38 tadan 100 tagacha hujrasi bo‘lgan. Qo‘qon shahri xonlikning siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi edi”. [1, 126-127] Abdulkarimbiy davrida (1733-1750) Qo‘qon shahri mustahkam devor bilan o‘raladi. [1, 115]

“Xo‘qand shahri Farg‘onada bir katta shahar o‘lub, Islom podshohlarini muqarri saltanati uchun ibtido Xo‘qanddan bayon qilinadur. Vajhi tasmiyai Xo‘qand budurki, xavoqini Xo‘qanddan ul shahar bo‘lmagan vaqtda Xo‘qand o‘rni qamishzor va to‘qay yerlar bo‘lub, ul vaqtda Chodak xojalari – tojiklar so‘rar ekanlar. Ul vaqtda bu to‘qayda har-xil xo‘klar, to‘ng‘uzlar yurar ekan. Alar yerlarni kovlab, har-xil ovqat yer ekanlar, bu jihatdan tojik xojalar kelganda necha yerlar kovlangan ekan. Alar: “Bu chuqurlar nima?“, -degan. “Kim kovlagan?“, -deganda tojik javob berib: “Xo‘k kand“, -deganda, ya‘ni to‘ng‘uz kovlagan deganda ul yerlarni(ng) ismi “Xo‘k kand” bo‘lub, xo‘k kand aytmoqqa qiyin bo‘lub, bizni(ng) turkiyda “qof” harfi qaviy uchun “Xo‘qand” bo‘lgan, forsiy “kof”ni turkiy “qof”ga badal qilganlar, turkiylar lafzidir. Mana endi yana bir badal bo‘ldi, ruscha aymoqda “qof” yo‘q “Ko‘kand” bo‘ldi. Shunga o‘xshash har vaqtda har qabila lisonlari ilan tabodil o‘lub, shevalari o‘zgargan. Muni ba‘zi xo‘qandiy yaxshi ta‘vil ila “xo‘yi qand”, ya‘ni fe‘li-xo‘yi qand, degan emish”. [2, 90-91]

XVIII asr boshlarida Buxoro xonligi ichki kurashlar oqibatida zaiflashadi. Bunday vaziyatdan foydalangan jung‘orlar Farg‘ona vodiysiga tez-tez bostirib kirib, talon-taroj qila boshladilar. Vaziyat ichki kuchlarni birlashishga, mustaqil davlat tuzishga undamoqda edi. Dastlab Chust yaqinidagi Chodak qishlog‘i xo‘jalar jamoasi o‘z mulklarini mustaqil deb e‘lon qildilar. Vodiydagi o‘zbeklarning ming urug‘i oqsoqollari yig‘ilishib, o‘z yo‘lboshchisi Shohruhbiy boshchiligida Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilishgan.

1710-yilda ming urug‘i chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag‘darib, Farg‘ona vodiysida hokimiyatni o‘z qo‘llariga olganlar. Shu tariqa, Markaziy Osiyoda keyinchalik Qo‘qon xonligi deb atalgan yangi davlat vujudga keldi. [1, 115]

Sulola va davlat asoschisi Shohruhbiy davridanoq saroyda shoirlar yig‘ila boshlagan. Bu holat o‘z navbatida, keyinchalik Amir Umarxon asos solgan adabiy muhit uchun zamin tayyorlay boshlagan.

Shohruhbiy davrida (1709-1721/1722) Mirzo Ma‘sum Kosoniy saroy shoiri lavozimida ishlagan. U Shohruhbiy va Abdulkarimbiylarning vafotiga ularni sharaf lab, ta‘rix-marsiya yozgan:

*Agar xohe xusuli soli favti Shohruh sulton,
Shavad ravshan zi naqdi Shohruhbek bekam-u nuqson.
(Agar Shohruh sultonning vafot etgan yilini bilmoqchi bo'lsang,
(U) bekam-u nuqson Shohruhbekdan ma'lum bo'ladi!)*

Bu yerda shoir so'z o'yini qilgan. Birinchidan, u Shohruhbeni hech kamchiliksiz, nuqsonsiz kishi edi, deb ta'riflaydi. Ikkinchidan, "Shohruhbek"dan vafot yili kelib chiqadi. Abdulkarimbiy marsiyasida ta'rix "Hayf az shahanshahi Abdulkarim"ga yashiringan.

Namanganlik ismi noma'lum bir shoir esa, Shohruhbiy vafotiga bag'ishlab xalq tilidan shunday ta'rix-she'r aytgan:

*Zikri ta'rixi favti Shohruhxon,
Onchi gufto ki so'fi: xirs kay murd.
(Shohruhxonning vafoti ta'rixi zikrini
So'fi: ayiq qachon o'ldi, deb chiqardi)*

"Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin" asarining muallifi Mirza Olim Qo'qon xoni Abdulkarimbiy to'g'risida bunday deb yozadi: "Abdulkarimxon... xizmatiga Eshon, So'fi Olloyor, domulla Olim Konibodomiy va domulla Valiy Xo'jandiy va Mashrabi devonai Namangoniy kelib, suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqiniga olim va koshif bo'lib kamolot hosil qildi".

Abdulkarimbiy tuzgan adabiy davra vakillari orasida mumtoz adabiyotimizning, xususan, tasavvuf adabiyotining yorqin vakillari So'fi Ollohyor va Boborahim Mashrablarning mavjudligi bu davr hukmron doiralarning adabiyotga nechog'lik e'tibor bilan qaraganliklari, Abdulkarimbiy adabiy davrasining ichkilik va turli fahshlardan holi bo'lganligini ko'rsatadi. Bu ayni paytda ushbu xonning adabiyotdan siyosat quroli sifatida foydalanish niyati bo'lmaganligini ham ifodalaydi.

"Tuhfat ut-tavorixi xoniy" asarining muallifi Muhammadamin domulloning yozishicha, XVIII asrning eng ko'zga ko'ringan shoirlaridan biri Mirza Sho'xiy edi. Erdonabiy taxtning qonuniy vorisi bo'lgan Abdurahmonbiy (Abdurahimbiyning o'g'li)ni o'ldirganda, shoir ta'rix-marsiya yozib, uni "anisi rizvon" ya'ni, "jannat go'zallarining ulfati" deb nomlagan. Keyinroq xuddi shu shoir Erdonabiy sha'niga maqtoqli ta'rix-she'rlar yozgan.

Erdonabiy hokimiyatni egallagach, O'ratepa ustiga yurish qiladi. Oqsuvda bo'lib o'tgan jangda Qo'qon qo'shinlari g'alaba qozonadi. Erdonabiy ot ustida turib, O'ratepadagi yuz qabilasi boshliqlaridan 18 kishining boshini chopadi. Oxiri qo'li tolib ketganidan o'z otining bo'yniga qilich soladi. Xonning buyrug'i bilan mag'lub tomonning o'lgan va tirik odamlari boshi kesiladi va ulardan minora quriladi. Mirza Sho'xiy mana shu vahshiylik tantanasiga ta'rix-she'r yozgan:

*Tarixi fathi shohro Sho'xi basad farxundagi,
Girandai shahri yuzon Erdonaxon karda raqam.
(Shoh fathining tarixini Sho'xiy yuz xursandlik bilan
Yuzlarning shahrini olgan Erdonaxon, deb yozdi)*

Norbo'tabiy (1770-1798/1799) ning o'g'li Muhammadamin shahzodalikdan tashqari shoir ham bo'lib, o'z atrofiga bir necha shoirlarni yig'gan va adabiy

bazmlar uyushtirgan. Bir kuni bazm vaqtida u shoir Nusratga qarata shunday degan:

*Ba girdi sham chun qo'ng'iz buvad parvona-parvona
(Shamning atrofida qo'ng'iz shunchalik parvona bo'ldi).*

Bunga javoban Nusrat quyidagicha javob bergan:

*Sarat gardam, tariqa dilnavozi yod gir az sham
(Boshingdin aylanay, dilnavozlik yo'lini shamdan o'rgangin).*

Bu hozirjavoblikdan xursand bo'lgan shahzoda Nusratga ellik arava bug'doy in'om etgan.

Akmal 1212/1797-1798-yili Muhammadamin vafotiga bag'ishlab, ta'rix yozgan: *"Farg'ona iqlimidan shoh chiqib ketdi"*.

Yuqoridagilardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Qo'qon adabiy muhitining asoschisi, shubhasiz, Amiriy (Amir Umarxon)dir. Ammo, shuni yodda tutish lozimki, ushbu adabiy muhitning genezisi sulola asoschilari davriga borib ulanadi. Hukmdorlar adabiyotdan qay g'arazda foydalanmasin, shoirlar ne maqsadda ijod qilmasin – bularning barchasi badiiy ijod, xususan, she'riyatning rivojlanishiga zamin hozirlagan. Ayni paytda, adabiyot bilan yonma-yon tarix, musiqa ham kamol topgan. Qolaversa, madrasalar va ular qoshidagi maktablarda diniy fanlar bilan bir qatorda o'ta sust darajada bo'lsa-da xalq dunyoviy ilmlardan (elementar darajada bo'lsa ham) xabardor bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda, Qo'qon xonligining biror-bir hukmdori adabiyotdan uzoq bo'lmagan. [3, 38-42]

Is'hoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona" asarida yuqori tabaqa vakillarining Umarxon saroyi vakillari ham a'yonlik, ham shoirlik bilan shug'ullanganini yozadi: "Bu jannatmakon asrinda hamsuhbat musohib ulamolardan Zokirxo'ja eshon shayxulislom Namangoniy, Mavlaviy Namangoniy, domulla Mirzoi Qozikalon, domulla Mo'minjon hazrat, domulla Abdurrahim, Mavlaviy Kobilii, domulla Piskantiy va umarolardan hamjululari Amir Shohmurodxon marhumning o'g'li va amir Haydar podshohi Buxoroning birodari Is'hoqbekto'ra va Sultonxonto'ra va Mahmudxonto'ra va Eshonxonto'ra va To'raxonto'ra va Jahongirxonto'ra va Said Ofoqiylar bo'lib, podshohlikka taalluq har ish va hukm bo'lsa, bularning fatvolari bilan amal qilur ekanlar".

Muallif Umarxon asrida "hech muqoriba va muqotila bo'lmay..., osoyishta o'tgan ekan",-desa; boshqa bir o'rinda adabiy majlislarning birida Fazliyning aytgan she'ri "...xonga manzur bo'lub, ustida kiyib o'lturgon besh yuz tillolik po'tunni(ng) yengini tutub, Mavloni Fazliyga kiyguzub, yana necha yuz tillo ehson qilgan ekan. Boshidan bir lagand tillo sochgan ekan",-deya ta'kidlaydi. [2, 95-96]

Domulla Niyozmuhammad Attor "Tuhfat ut-tavorix" asarida Amir Umarxon kabi "odil podshoh"ning bo'lmagani va faqat... "Sayyid Muhammad Xudoyorxon"gina unga tenglasha olishi mumkinligi to'g'risida yozadi. [3, 55-56]

Po'latjon domulla Qayyumiy "Tazkirai Qayyumiy" asarida 200ga yaqin Qo'qon adabiy muhiti vakillari, shuningdek, ushbu adabiy jarayon bilan bevosita hamkorlikda, bilvosita aloqadorlikda bo'lgan ijodkorlarga to'xtalgan.

Mazkur shoirlarning adabiy faoliyatlari davomida Xo‘qandi latif adabiy muhitining qay darajada o‘rin tutganligi yuzasidan quyidagi 5 guruhga tasniflashimiz mumkin:

1. Qo‘qonda muqim yashab, badiiy ijod bilan shug‘ullangan shoirlar – 96 nafar: Utojiy, Mahviy, G‘oziy, Nizomiy, Amiriy, Nodir, Mahzuna, Xon, Dilovar, Jaloliy, Azimiy, Vola I, Muqimiy, Muznib, Vazir, Mahzun, Munshiy, Kasrat, Zohid, Nisbatiy, Ma‘yus, Maknun, Mujrim, Gulshaniy, Toib I, Oshiq I, Nusrat, Maxmur I, Cho‘bin, Ulfat, Ahror, Qoriy, Zoriy, Yoriy, Muntazir, Kamina, Xijlat II, Mahzun III, Pisandiy, Muhsiniy, Mirzo II, Xomush, Shahzoda, Zarra, Faloniy, Havoiy, Azko, Havoyi II, Nasriddin I, Fayziy II, Nayiriy, Rashidiy, Rojiy VII, Davron, Zavqiy, G‘urbat, Berdiyoy, Fitrat, Yusuf, Qurbon, Xokiy, Muhayyir, Mahzun II, Muhiy, Haziniy, Nasimiy II, Muazzam, Mulla Bobojon Xokiy, Xoniy, Asiriy, Imomali Qunduziy Komiy, Kotib II, Shaydo, Manziliy, Subhiy, Niyoz, Bobo Rojiy, Mashqiy, Amin Umariy, Muslimiy, Nihoniy, Faqiriy III, Ravnaqiy, Sulaymon, G‘aribiy, Ravshan, Charxiy, Bokiy, Javdat, Parvona II, Davron II, Davron III, Aziziy, Mavzun, Xushyor, Shukriy.

2. Qo‘qondan tug‘ilib ijod etgan, lekin taqdir taqozosi bilan boshqa hududlarga ko‘chib ketgan shoirlar – 8 nafar: Ravnaq, Niyoziy I, Furqat, Mushrif, Xisrav II, Mahjur II, Zamiriy, Sobir Abdulla.

3. Boshqa hududlardan Qo‘qon adabiy muhitiga qo‘shilish va adabiy faoliyatini rivojlantirish maqsadida ko‘chib kelgan hamda umrining oxirigacha Qo‘qonda yashab, ijod etgan shoirlar – 32 nafar: Mansur, Sharifiy, Akmal I, Nola I, Gulxaniy, Mahfiy Qori Qunduziy, Kaltatoyi, Nodira, Uvaysiy, Biymiy, Mushtoq, Muzmar, Fayziy, Komil I, Vafoiy, Foniy, Ramziy, Izlat, Hijrat, Manzur, Dabir, Rindiy, Behjat, Xislat I, Mir Umid, Irfon, Toib II, Devona, Vahhoj, Ushshoq, Zarra, Firoqiy.

4. Taqdir hukmi bilan hayotining ma‘lum davrida Qo‘qonda yashagan va shu muddat ijodiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etgan shoirlar – 11 nafar: Fazliy, Majzub Namangoniy, Sultonxo‘jai Ado, Xotif, Afsus, Hoziq, Zokir, Qoriy, Majruh, Xayoliy, Layli.

5. Qo‘qonda istiqomat qilmagan bo‘lsalar-da, ushbu adabiy muhitga mansub bo‘lgan, Qo‘qon atrof shaharlarda yashab, ijod etgan shoirlar – 18 nafar: Ma‘dan, Rojiy II, Noseh, Sadoiy, Hazin, Nasimiy, Hayratiy, Omoniy, Begiy, Mavlaviy oxund, Roiq, Sirojiy, Soqib, Maxmur II, Shuhrat, Kotib, Mulla Abdurahmon Hijrat, Mufazzal.

6. Qo‘qonda umrguzaronlik qilmasalar ham, adabiy majlislarda qatnashgan, adabiy muhit vakillari bilan doimiy ijodiy aloqada bo‘lgan shoirlar – 27 nafar: Qiyosiy, Nodim Namangoniy, Huvaydo, Rojiy, Shavqiy II, Fayyoz, Muhib, Almaiy, Tajalliy, Zokir, G‘urbatiy, Soleh, Xilvatiy, Kamiy, Nozil, Obid, Nosir, Oshiq II, Rashidiy, Partaviy, Pirmqori, Zululiy, Mustag‘far, Hayratiy, Oraziy, Mulla Muhammadxon maxdum Mahjur, Habibi.

So‘zimizni muxtasar qiladigan bo‘lsak, Qo‘qon adabiy muhiti o‘zining mavzu va shoirlar ko‘lami bilan jahonning turli nuqtalarida vujudga kelgan barcha adabiy muhitlar bilan bellasha oladi. Ushbu adabiy muhitning shakllanish ildizlari esa uzoq asrlarga borib taqaladi. Tadrijiy taraqqiyoti esa hozir ham davom etib

kelmoqda. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi”, akademik Aziz Qayumov aytganlaridek: “Xo‘qandi latifda har bir inson – shoir”. Mazkur adabiy muhit vakillari va ular tomonidan amalga oshirilgan adabiy yutuqlar o‘zbek adabiyotining muhim poydevorlaridan biri bo‘lib qoladi hamda asrlar davomida avlodlardan avlodlarga o‘tib, adabiyotshunoslar uchun yangi-yangi materiallar bazasi bo‘lib xizmat qilishda davom etadi. Bu yo‘lda ushbu adabiy muhitning oldin ko‘z ilg‘amagan yutuqlari, adabiy kashfiyotlari ochilib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Q., Jo‘rayev U., Norqulov N. 8-sinf O‘zbekiston tarixi (XVI–XIX asrning I yarmi). – T.: O‘qituvchi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2014. 160 bet.
2. Is‘hoqxonto‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. – T.: Ma‘naviyat, 2020. 200 bet.
3. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – T.: FAN, 1961. 360 bet.
4. Po‘latjon domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). -T.: O‘z RFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. 713 bet.

BEGALI QOSIMOVNING QO‘QON ADABIY MUHITIGA MUNOSABATI MASALASI

**Gulbahor BEKTASHEVA,
AnDU O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada professor B.Qosimovning milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotidagi Qo‘qon adabiy muhitiga bo‘lgan adabiyotshunos olim sifatidagi qarashlari tadqiq etilgan. Adabiy muhitning o‘ziga xos qirralariga olimning munosabatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, milliy uyg‘onish, jadid, adabiy janr, dostonchilik, she‘riyat.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются взгляды профессора Б. Касимова как литературоведа на литературную среду Коканда в узбекской литературе национального Возрождения. Анализируется отношение ученого к отдельным аспектам литературной среды.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, национальное возрождение, джадид, литературный жанр, эпос, поэзия.

Annotation:

This article examines the views of Professor B. Kasimov as a literary scholar on the literary environment of Kokand in the Uzbek literature of the national renaissance. The scholar's attitude to specific aspects of the literary environment is analyzed.

Keywords: Kokand literary environment, national revival, jadid, literary genre, epic, poetry.

O‘zbek adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhiti va maktabi o‘zining ayricha xususiyatlari bilan ajralib turadi. O‘zbek adabiyotshunoslarining ko‘plari bu mavzuda samarali tadqiqotlar olib borishgan. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining atoqli bilimdoni professor Begali Qosimov ham Qo‘qon adabiy muhiti va undagi ijtimoiy munosabatlarga o‘z tadqiqotlarida alohida urg‘u beradi. Jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nisbatiy, Muhayyir, Qori Yusuf Muntazir, Usmonxo‘ja Zoriy kabi adabiy davrani tashkil etgan ijodkorlarni sanab o‘tar ekan, XIX asning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan Milliy uyg‘onish (jadid) davri o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida Turkistonda paydo bo‘lgan uch adabiy muhit, uch bo‘lakka bo‘lingan ijtimoiy hayot ko‘rinishi adabiyotda qator yangiliklarning yuzaga chiqishiga zamin bo‘ldi. Ayniqsa, ma‘rifatparvarlik yo‘nalishi Qo‘qon adabiy muhitida alohida ahamiyat kasb etadi.

Olim o‘z tadqiqotlarida bu davr adabiyotini yangilanish davri adabiyoti ekanligini ta‘kidlab, sayohatnoma kabi yangi janrlarni kirib kelishini bevosita Qo‘qon adabiy muhitiga bog‘laydi. Qo‘qondagi adabiy suhbatlarda “toji shoiron” deb e‘zozlangan Muhyi, Haziniy, asli pskentlik Said Akmalxon, marg‘ilonlik qozi Xo‘ja Ibrat, andijonlik Abdurazzoq Bimiy, xo‘jandlik Toshxo‘ja Asiriy, sayramlik Yusuf Saryomiy, toshkentlik Karimbek Kamiy ham Qo‘qondagi adabiy suhbatlarning doimiy muxlisi bo‘lganligini qayd etadi.

Olim Qo‘qon adabiy muhitidagi yangi adabiy badiiy xususiyatlarni sanab o‘tadi. She‘riyatdagi o‘ziga xoslik, epik turdagi dostonchilik an‘anasi hamda ayol shoiralarning kamol topishi kabi alohida qirralarini tahlil qiladi. Biz buni quyidagicha ajratdik:

1. An‘anaga ko‘ra she‘riyat rivojlandi. She‘riyatdagi mazmun va shaklni yangilash harakatlari ilk bora Qo‘qon adabiy muhitiga xos ekanini qayd etadi. Xususan, Muqimiyni mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda, ijtimoiy hayotda kechayotgan o‘zgarishlarni adabiyotga olib kirganligini aytib o‘tadi. “Masalan, zavod-fabrikalar ishga tushib, ishchilar sinfining maydonga chiqishi, tili, dini, urf-udumlari, hatto hayot tarsi keskin farq qiluvchi Yevropaning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalqqa, uning turmushiga yetkazgan ta‘siri, yevropalashuv tomon qo‘yilgan dastlabki qadamlarning yaxshi-yomon jihatlari tahlili ilk daf‘a Muqimiy ijodida aks etdi. Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g‘oya va mazmunigagina emas, shakl-u ifodalariga ham ma‘lum yangiliklar kiritdi. Hajvga alohida e‘tibor berdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi.” [1, 31] Muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim G‘ulom Karimov tadqiqotlarida bu haqda keng yoritiladi. Shoirning “Sayohatnoma”, “Navbahor”, “Tanobchilar”, “Tole‘im”, “Saylov” kabi she‘rlari o‘zining shakl va mazmuni bilan o‘zbek adabiyoti tarixida alohida qiymatga ega. [2, 145-157]

Yana bir qo‘qonlik mashhur shoir Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat bo‘lib, professor B. Qosimov uni “ehtiros to‘la g‘azallari, erkka tashna musaddaslari, hijron iztiroblari barq urib turgan she‘riy maktublari bilan o‘zbek adabiyotiga toza va tiniq ohanglar olib kirdi” [1, 31]deya ulug‘laydi. Biroq uning hayoti anchagina murakkab kechadi. U bir umr Vataniga qaytish armoni bilan yashadi. Olim shoirning “Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasini ozodlik

madhiyasiga, “Munojoti musaddas”, “Begim”g‘azallari, “Bo‘ldi” radifli muxammasini rus istibdodiga ochiqdan-ochiq isyon namunasiga muqoyasa qiladi.

2. Epik janrlardan biri dostonchilik rivojlandi. Qo‘qon adabiy maktabi vakillaridan Umidiy-Havoyning “Maktubchayi xon”, “Jangnoma”, “Badavlatnoma yoki tarixi Ho‘qand” kabi tarixiy dostonlarini Begali Qosimov tarixiy dostonlar sirasiga kiritadi. Boisi ularda rus bosqini va uning oqibati bilan bog‘liq voqealarni Vatan va Millat sha‘ni, el-yurt manfaati nuqtayi nazaridan aks ettirganligini qayd qilar ekan, xorazmlik Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi Xorazm bosqini manzaralari bilan Qo‘qon fojialari tasviridagi uslubiy o‘xshashlikni ikki ijodkor qarashlaridagi bir-biriga yaqinlik deya izohlaydi. Bu davr aslida geografik joylashuvidan qat‘iy nazar barcha Turkiston o‘lkalariga birday ta‘sir o‘tkazganligini Qo‘qon, Xiva va Buxoro xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy hayot misolida ham ko‘rish mumkin.

3. B. Qosimov Qo‘qon adabiy muhitining yana bir muhim qirrasini XIX asrning birinchi yarmida shakllangan ayol shoirlar silsilasining davom etganligida deb baholaydi. Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira an‘analari Dilshod-Barno, Anbar Otin kabi iste‘dodli shoirlar ijodi misolida davom etganligini ta‘kidlaydi.

O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotida ayol shoirlar ichida o‘zining nodir iste‘dodi, betakror badiiy-tarixiy asarlari bilan nom qoldirgan Dilshodi Barno hayoti va ijodi haqida Begali Qosimov tadqiqotlarida qator ma‘lumotlarni keltiradi. Uning uzoq umr ko‘rgani, yoshligi ham dramatik voqealarga to‘la bo‘lgani, hayoti ham ijodi ham isyonkorona kechganini qayd etadi. “Muhojirlar tarixi” asarida shoira maktab ochib, qizlarni 51 yil davomida o‘qitganligi va ularning har to‘rttadan bittasi she‘r havaskori bo‘lganligi, ular ichida Anbar Otin kabi taniqli shoirlar yetishib chiqqanini aytib o‘tadi. Demak, bu davr ayol ijodkorlarining maktabdorlik qilib, ayollarni ma‘rifatli qilishga intilishi ham jadid adabiyotining belgilaridan edi. Garchi bu davrni hali jadidchilik deb to‘laqonli atay olmasak ham, jadidchilik kurtaklari ma‘rifatchilik shaklida Qo‘qon adabiy muhiti bag‘rida ildiz ota boshlagan edi. Shoiraning hayoti va merosi XX asrning 60-yillarida qayta kashf qilindi. Uning ijodida zullisonaynlik an‘anasi ham namoyon bo‘lgan. Shoira ham tojik, ham o‘zbek tillarida ijod qilgan. Tojik tarixchisi A. Muxtorov 1969-yili uning ikki qo‘lyozma asarini topib, ular asosida monografiya yozadi. [3, 69] Shoiraning 91ta o‘zbekcha, 51ta tojikcha she‘ri, “Tarixi muhojiron” badiiy-tarixiy asarining o‘zbekcha va tojikcha uch qo‘lyozma nusxasi (“Tazkirayi Barno”, “Sabotul-bashar maa tarixi muhojiron”- “Inson matonati va muhojirlar tarixi”), “Muntaxabul-ash‘ori Barno”- (“Barnoning tanlangan she‘rlari”) kabi asarlari yetib kelgan, bularda o‘zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti, ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘z ifodasini topgan. [1, 33]

B. Qosimov shoira asarlarini tadqiq etar ekan, uning Turkistonni chor Rossiyasi bosib olishiga bo‘lgan munosabatda ko‘pgina zamondoshlaridan ilgarilab ketganligini, shu jihatdan u yaratgan she‘riyat xalq taqdirining badiiy yilnomasi darajasiga ko‘tarilganiga, unda bahtiyor zamon, yaxshi kunlar kelishiga ishonch, Turkiston xalqini do‘st-inoq yashashga chaqiriq, ishqiy she‘rlarida muhabbat va sadoqat mavzui Vatan va xalq ozodligi bilan uyg‘unlashib ketganligini alohida ta‘kidlab o‘tadi.

Olimning tadqiqatlari orasida Zavqiy hayoti va faoliyatiga ham alohida to'xtalganki, uni tahlil qilishda realistik tasvirlash metodidan foydalangan shoirning zamon bilan murosasoz asarlar yozgani, 1-jahon urushi yillarida davr fojialarini aks ettiruvchi "Qahatlik", "Kajdor zamona", "Ajab ermas" she'rlarini tahlil qilar ekan, lirik va hajviy asarlari bilan xalq o'rtasida keng e'tibor qozongan shoirlardan ekanini ta'kidlaydi. 1955 yilda adabiyotshunos H.Razzoqov u haqida "Zavqiy hayoti va ijodi" risolasini yozadi, 1958-60 yillarda 50 ga yaqin she'rlarini to'plab, "Tanlangan asarlar" nomi bilan nashr etdiradi. Shoirning "Ajab zamona" kitobi 2003 yilda A.Madaminov va A.Turdialiyevlar homiyligida nashr etilgan. Bu to'plamda Zavqiyning ijodiy merosi keng qamrovda nashr etilgan.

Olim Zavqiy hajviyalaridagi mavzuning kichik tanqiddan jamiyatning adolatsizlik asosiga qurilgan negizini fosh etishgacha ko'tarilgan "Zamona kimniki?", "Muncha ko'p" kabi she'rlari tahlilida estetik ko'lamning kengayganligini ko'rishimiz mumkin. Yana davr yangiliklarining axloqiy jihatlarini ko'rsatishga urinadi. "Uy puli", "Zolim puli", "Veksel" she'rlarida jamiyatdagi mayda muammolargacha yoritib beradi. Bundan tashqari, lirik shoir sifatida "Kelmasa kelmasun netay", "Ofarin", "Ko'zing", "Aylab keling", "Men kimga dey" kabi xalq qalbida saqlanib kelayotgan bir qator go'zal g'azallar yaratganini, "Yuzingni ko'rsatib avval, o'zingga bandalar qilding" misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ham mumtoz qo'shiqchiligimizning oltin fondidan joy olganligini ta'kidlaydi.

Qo'qonda kamolga yetgan yana bir shuhrat qozongan shoir Ziyovuddin Haziniy bo'lib, u haqda olimning alohida qaydlari mavjud. Shoirning Qo'qon yaqinidagi Katta Kenagas qishlog'ida tug'ilgani, otasining she'rga havasmand ziyolilardan bo'lgani, 1897-yil 30 yoshlarida zamonasining mashhur mutasavvufilaridan Muhammad Hakimxon xalifaga murid bo'lib, tariqatni egallab, el orasida katta e'tibor topganligini aytib o'tadi. Shoirning ijodiy merosidan bizgacha "Bayozi Haziniy" to'plami ma'lum bo'lib, sobiq ittifoq davrida bu to'plam yo'q qilingan. Mustaqillikdan keyin shoir ijodini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib "Tasadduq, yo rasululloh" to'plami, professor Sh.Yusupov so'ngso'zi bilan "Devon"i 1999-yilda nashr etilganini ta'kidlaydi. Haziniy ijodidagi bosh mavzu yuksak islomiy g'oyalar, e'tiqod va ahloq bilan yashash, tasavvufdagi komil inson g'oyalari tarannum etilgan. Olim Haziniyning ilohiy ishqdan boshqa zamon sadolariga ham munosabatini ko'rsatar ekan, bir she'rida "nasoro bizga podshoh"lik qilib, "Honaqohda zikri haq mone", "sharorat oshkor" bo'lganligidan dod solganligini ajratib ko'rsatadi. Chor hukumati davridagi diniy cheklovlarini ma'naviy olamimizga qanchalar yomon ta'siridan bezovta bo'ladi. Hatto bir she'rida:

Voy, xor o'ldi shariat, dinimiz bo'ldi g'arib,

Bu nechuk turfa alomat, dinimiz bo'ldi g'arib, deya kuyunadi. Bu davrda faqatgina zamonaviy mavzular emas, Haziniy kabilar ijodida mumtoz adabiyotimiz an'anelarini ham ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Qo'qon adabiy muhiti milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida alohida yorqin sahifa bo'lib qoladi. Har doim adabiyotshunos olimlar uchun o'rganilishi zarur bo'lgan mavzular bu muhitda

yaratilgan, dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Shu ma'noda, professor B.Qosimovning tadqiqatlari ichida ham Qo'qon adabiy muhiti alohida bob bo'lib, adabiyotshunoslik ilmiy merosida ayricha ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Ma'naviyat, 2004.
2. Karimov G'. Muqimiy hayoti va ijodi. – T.: 1970.
3. Muxtarov A. Дильшод и ее место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX- начале XX вв., Душанбе, 1969.

BADIYLASHTIRILGAN “QO‘QON XONLIGI”

Dilnoza MAMANOVA,
SamDU magistranti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Maqolada Qo'qon xonligi va Xudoyorxon davri tarixi hamda bu davr haqida yozilgan Sa'dixon Mavlavixon o'g'lining “Tanazzul” romani tarixiy va badiiy bo'yoqlarda tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, Xudoyorxon, tarixiy asar, Sa'dixon Mavlavixon o'g'li, “Tanazzul” romani, badiiylik, to'qima mutanosiblik.

Аннотация:

В статье рассматривается история Кокандского ханства и Худойорханского периода, а также роман «Таназзул» Садыхона Мавлавихан оглу, написанный об этом периоде в историко-художественном плане.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Худойорхан, историческое произведение, Садыхон Мавлавихан оглу, роман «Таназзул», искусство, фактура.

Annotation:

The article examines the history of the Kokand Khanate and the Khudoyorkhan period, as well as the novel «Tanazzul» by Sadikhon Mavlavikhan oglu, written about this period in historical and artistic terms.

Keywords: Kokand khanate, Khudoyorkhan, historical work, Sadikhon Mavlavikhan oglu, novel «Tanazzul», art, texture.

Qadim-qadim necha mingyilliklarni bosib o'tgan va o'tayotgan tarix qanchadan-qancha sir-sinoatlarni o'z bag'riga olib barchani lol qoldirib kelmoqda. Ba'zan mavjlanib turgan suvdek noaniq, tinch turgan suvdek aniq namoyon bo'ladi. Yurtimiz tarixi ham juda boy o'tmish voqealariga ega. Bunda Qo'qon xonligi va adabiy muhiti o'ziga xosdir. Qo'qon xonlari shajarasi XVIII asr boshidan ming urug'ining hokimiyatni egallab o'zini xonlik va xon deb e'lon qilishidan boshlanib XIX asr oxirlariga qadar davom etadi. Norbo'tabiydan Xudoyorxongacha bo'lgan hukmronlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, harbiy sohalarda turli o'zgarishlar bo'lishi bilan bir qatorda toj-u taxt talashish, qirg'inbarot urushlar, qo'zg'alon va qon to'kishlarda holi bo'lmadi. Bu

davr yoritilgan badiiy, tarixiy asarlar undan guvohlik beradi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar,” “Mehrobdan chayon” romanlari ham Qo‘qon xonligi tarixini aks ettirar ekan, undan ilhomlangan holda Qo‘qon xonligi haqida yozilgan Sa‘dixon Mavlavixon o‘g‘li Eshonjonovning «Tanazzul» romani ham diqqatga sazovordir. Asar yozuvchining ilk asari bo‘lishiga qaramay badiiyati, tarixiy voqealarning badiiy jihatdan berilishi, tarixiylik tamoyili, estetik jihatlari bilan o‘quvchini jalb etadi. Yaqin yillar ichida yaratilgan bo‘lishiga qaramay o‘z kitobxonlariga ega bo‘lgan asar besh kitobdan iborat pentalogiyadir. Yozuvchining ham ijodiy rejasi pentalogiya yaratish edi va bunga erishdi.

Yozuvchi haqida professor Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Katta hayotiy tajribaga ega, asl kasbi me‘mor bo‘lishiga qaramay, tarixni badiiy jonlantirishga qiziqadigan Sa‘dixon mavlavixon o‘g‘li o‘zining “Tanazzul ” deb nomlangan pentologiya – beshligida millatimiz tarixidagi g‘oyat murakkab, chigal va qora kunlarni aks ettiradi. Qizig‘i shundaki, badiiy asarlar, ayniqsa, tarixiy yo‘nalishdagi ko‘plab bitiklar bilan tanishgan bo‘lsa-da, Sa‘dixon shu vaqtga qadar badiiy asar tugul birorta ham maqola ham yozgan emasdi. Ammo boshlovchi yozuvchi marhum Murodjon Mansurning “Judolik diyori” romanidan keyin o‘zbek adabiyotidagi ikkinchi pentologiyani yaratishga jazm qila bildi” [1,3],-deya e‘tirof bildiradi.

Yozuvchi tarixiy janrga murojat etar ekan, tarixiylik prinsipini buzmagani, undan boshqa bir qolib yaratmagan estetik ideali tarixiy haqiqatga monand bo‘lgandagina yetuk tarixiy asar yarata oladi. Bu esa yozuvchidan katta mahorat talab etadi. “...Shu bois ham, tarixchi bilan ijodkorning tarixiy fakt va materiallarga munosabati turlicha bo‘ladi. To‘g‘ri tarixiy makon zamonda voqeahodisalarni fakt va materiallar asosida sinchiklab batafsil o‘rganish borasida tarixchi ham birdek mashaqqat chekadi, ko‘p mehnat sarflaydi. Ammo ijodkor mehnati tarixchiga nisbattan og‘irroq va mas‘uliyatliroqdir. Chunki, agar tarixchini, asosan, muhim tarixiy voqealarning mohiyati, mazmuni qiziqtirsa, ijodkor har bir kichik detalning haqqoniyligi borasida ham ko‘p tashvish chekadi. Tarixchi ko‘rganlarini, bilganlarini xolis haqqoniylik bilan aks ettirsa, ijodkor esa tarixiy faktlarga tayansa ham, baribir, asarda yangi bir olam yaratadi. Bu olam ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lib, unga o‘z bahosini beradi.”[2, 8];

«Tanazzul» romani yorqinlik bilan yaqin o‘tmish aks etgan, badiiy voqealar, tarixiy shaxslar va makon-zamon, hayot haqiqati hamda tarixiy biografiyani o‘z ichiga oladi. Asarda XIX asr 2-choragida Qo‘qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, harbiy jabhalari, Xudoyorxon davri tarixi uning Musulmonqul mingboshi va qipchoqlar ustidan qozongan g‘alabasi, Qo‘qon-Buxoro, Qo‘qonga Rossiyaning hujumi tarixiy haqiqat badiiy to‘qimaga mutanosib yozilgan.

«Tanazzul» romanida Qo‘qon xoni SHERALIXON (1842-1845) davridan boshlab asosiy voqealar Xudoyorxon (1845-1858, 1863-yil 4 oy 1865-1875), davrini moboynda uch marta taxtga kelishi va ketishi batafsil badiiy bo‘yoqlar bilan yozilgan. Asar tarix, makon-zamon, haqiqat, badiylik o‘rtasidagi mutanosiblikka adabiy badiiy jihatdan tavsif beradi. Naim Karimov tarixiy janr haqida “...Tarixiy mavzuga murojat etishdan maqsad kitobxonni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat uyg‘otish va shu yo‘l bilan

ma'rifatli avlodni tarbiyalash" dek talabni bajaradi. Haqiqatdan ham asardan kelib chiqqan holda va yozuvchi bilan suhbat jarayonida avvalo Vatan tarixini aks ettirish va shu asnoda ajdodlarining Qo'qon xonligiga yaqin aloqada xonlarning pirlar bo'lganligi yoritishni maqsad qilgan. Buni asrning havolasida "Buzrukxon to'ra Shokirxon to'ra o'g'li – otanning bobosi, mening bobokalonim, nasl-nasablari Xo'ja Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. O'ratepa bekligida mushovir lavozimida xizmat qilganlar. Har yili O'ratepa bekligidan Qo'qon xonligiga yillik boj olib borganlar. 1866-yil oktabr oyida fon Kaufman bilan bo'lgan jangda shahid bo'lganlar. Jasadlari O'ratepa shahrining Nayman guzaridagi hovlimizga dafn qilingan. Qabrlari hozirgi kunda ham mavjud." [3,89]; deya o'z ijodiy maqsadni amalga oshirgan holda tarixiy roman yozishga muvaffaq bo'lganlar. Hozirda Farg'ona, Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi viloyatlarni tashkil etuvchi Qo'qon xonligi tarixi haqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Tarixga qarasak ham, bugungi kunga qarasak ham Andijon zaminidan ko'plab sohalar bo'yicha qanday buyuk, fidoiy insonlar yetishib chiqqaniga amin bo'lamiz. Chunki millat, el-yurt taqdiri uchun kuyinish milliy g'urur or-nomus uchun bel bog'lab maydonga chiqish – Andijon xalqiga hos azaliy odat." [4, 8].

Yozuvchining yetakchi g'oyasi, konsepsiyasi, estetik ideali, tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaga mutanosibliigi asarning badiiy estetik jihatdan salmog'ini oshirgan. Buni Xudoyorxon va qipchoqlar qirg'ini, qipchoqlar va qorachopon o'rtasidagi holat, Xudoyorxonning hokimiyat tepasiga kelishi, Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishga bo'lgan harakatlari, Hokimoyim va haram ahli, Saidbek va Oltinoy munosabati, Saidbekning Rossiyada o'qib kelishi va boshqa ko'plab o'rinlarda ko'rish mumkin. Tarixiy va to'qima qahramonlar ularga yondosh hatto, epizidik hamda qistirma obraz vositasida voqealar tizginini ketma ketlikda olib borilgan. Asar kompazitsiyasi ham shunga xizmat qiladi. Roman konfliktik obrazlar vositasida kulminatsion nuqtadan boshlanadi. Unda Xudoyorxonning bir necha urinishlari zoya ketgandan so'ng Toshkent itoatdan bosh tortdi deb Normuhammad qo'shbegi bilan kelishgan holda Toshkentga hujum qilish bahonasida qipchoqlarning peshvosi Musulmonqul mingboshini yoq qilish va qipchoqlar qirig'inini uyushtirishidan boshlanib, ungacha bo'lgan voqea-hodisalar xronologik yoritilib boriladi.

Asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning O'rta Osiyoga hujum boshlashi natijasida chekka hududlar To'ychibek, Qumqo'rg'on, Kattaqo'rg'on qal'alariga hujum qilib egallab, o'z xufyalarini sayohatchi ko'rinishida mamalakat hududiga kirgizib batafsil o'rganadi va bosib olish rejasini tuzadi. Buning ustiga xonlik hukmronligidagi ichki nizolar, Musulmonqul mingboshining o'g'li Abdurahmon yordamida Xudoyorxonga qarshi kurashning avj olishi, Alimqul ponsodning ham xonga qarshi urushi, harbiy salohiyat qurol-yarog'da qaloqlik, orqada qolishi natijasida Rossiya xonlikni bosib oladi. Bularning hammasi xonlikni asta-sekin yemirib borgan va tanazzulga uchrashiga olib kelgan. Yozuvchi ham shundan kelib chiqib asarni "Tanazzul" deb nomlagan. Romanga o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko'rish hayirlik, deydilar" gapi epigraf qilib olingan. Bu tarix undagi xato kechirilmasligi, ba'zi hukmlarni chiqarishda undan o'rnak olgan holda ish

ko‘rishga undaydi. Kelajakdagi voqea-hodisalarga tarixdagi holat ta’sir etmasligi kerak. Lekin afsuski, o‘ylanmay, tezlikda, o‘zgalarning turli fikriga quloq solish, jahl va sarhushlik oqibatida bajarilgan ish hech ham yaxshilikka olib kelmagan. Tarixda qilingan xato albatta zarhal harflar bilan bitilib, insonlar xotirasiga muhirlanib, og‘izdan og‘izga o‘tib avlodlarga yetib keladi va ularning noroziligiga sabab bo‘lmay qolmaydi. Afsuski, uni faqat ijobiy ko‘rishning iloji amrimaholdir.

Romanning voqea-hodisalari unga befarq bo‘lmagan kishilarda o‘ziga nisbatan haqqoniy fikr yuritishga hamda Vatan tarixiga befarq bo‘lmaslikka undaydi. Yozuvchi asarda voqealarni izchil aks ettirib, ma’lum bir voqeani sirli qilib keying olib qo‘yganga o‘xshaydi. Bu ba’zi o‘rinlarda obrazlar tilidan qistirma voqea kabi beriladi. Xususan, Musulmonqul mingboshining Bilqillamada qo‘lga olinishi, Mirzaali o‘nboshi tilidan G‘ofur isimli navkar yordamida hikoya qilib berish orqali mingboshiga qarshi hamma Chirchiq bo‘yida yig‘ilganda saroydagi hayot, qipchoqlarni qamal qilishgacha bo‘lgan voqealar batafsil aks ettirilgan. Go‘yoki, Qodiriy “O‘tkan kunlar”ida usta Alimni qistirma obraz kabi kiritgandek asarda voqeani shunday yoritgan.

Har bir badiiy asar kompazitsiyasida, xarakterida, sujetida, shakl va mazmun, mavzu va g‘oyasida sevgi-muhabbat mavzusi asarning badiiyligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jihat ushbu romanida ham chetda qolmagan. Tarixiy romanlarimizdan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ida Otabek va Kumushbibi, “Mehrobdan chayonda”ida Anvar va Ra’no obrazlari; Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”ida Tohir va Robiya, “Avlodlar dovoni” da Nizom va Hamidabonu singari obrazlar sevgi-muhabbat, sadoqat hikoya qilindi. “Tanazzul”da xonning yaqin yordamchisi, do‘sti sifatida Sheralixon oftobochisi Orifbekning o‘g‘li Saidbek va Xudoyorxon singlisi Oltinoylarning haroratli muhabbati tasviri o‘zgachalik kasb etadi va asar o‘qishliligini ta’minlagan.

Tarixiy janr haqida gapirar ekanmiz, bu juda murakkab jarayonni, yetuk saviyani talab etadi. Hamma ham bu janrda hatto, kichik hikoya ham yoza olaydi va yozishga qiynaladi, negaki bunda be’etiborlik, ilmsizlik yaqqol namoyon bo‘lib, kishini yerga urilishiga sabab bo‘ladi. Zero, bundan farqli lekin bizga kichikdek ko‘ringan ba’zi kamchiliklardan holi bo‘lmagan Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘lining “Tanazzul” pentologik romani o‘z badiiyati bilan diqqatimizni tortdi. Shunday ekan, “Tarixiy janrda asar yozishga kirishayotib, ajdodlarimiz ruhini shod etish bosh maqsadimiz etib belgilab olish, qog‘oz qoralayotib, xayolotning chuqur qanotlarida ucharkanmiz, o‘tkanlar ruhini bexos ranjitib qo‘ymaslik uchun masalaning ikkala tomoniga ham qarab qo‘yishni dilimizga mahkamroq tugib olishimiz shartdir.[5,]” degan jumlalar xayolimizga keldi. Bizningcha, yozuchi o‘z estetik ideali, ijodiyoti, maqsadi nuqtai nazaridan bunga amal qilgan va erishgan.

Asar tiliga e’tibor qaratsak, tarixiy roman bo‘laganligi boisidan va o‘sha davrga o‘quvchini olib kirish maqsadida lahja va shevaga xos so‘zlardan foydalanilgan. Bu haqida Qozoqboy Yo‘ldoshev “Qipchoq lahjasi unsurlarini qo‘llashda ba’zan me’yor buzilganday. Besh jildlik romanning boshdan oxiriga qadar barcha personajlar nutqi shevada berilishi zarur emasdi. O‘tmish davr va muayyan tarixiy hodisa ishtirikchilariga xos koloritni berish, obrazlar minazi hamda nutqidagi individuallikni ko‘rsatish uchun ayrim o‘rinlarda shevadan

foydalanish mumkin. Lekin, butun asarda barcha timsollarni to'liq shevada so'zlashga urinish bitikning o'qishlilikini og'irlashtiradi. Tarixiy roman tarixda o'tib ketgan odamlar uchun emas, balki bugungi o'qirmanlar uchun yoziladi..."deganlar. Bizning fikrimizcha yozuvchining bundan ko'zlagan ijodiy maqsadi borki, shu holatda keltirgan. Asarda qipchoq lahjasi, Toshkent shevasi va hozirgi adabiy tildan foydalanilgan. Yozuvchi bu orqali o'sha davr nafasini berishga harakat qilgan hamda qipchoqlarning til xususiyati yashash joylaridan kelib chiqib shunday ekani ko'rsatib berilgan. Kuzatishlarimizga ko'ra hozirda ham Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlaridagi qishloq va ovullarda, qoroqalpoq tilidagi so'zlarda bu sheva anchagina faol qo'llanilib kelinmoqda. Asarda " – *Ichim qizib borajatir, bilib turippan, shu bugun bir narsa bo'ladiyov, juragim sezib jotir. Xondi hozirdi o'zida jo'q qilish kerak, - ko'zlarini ola-kula qilib biylarga baqirdi, - tur baring', otqa min, ishdi keying'a qoldirib bo'maydi, xon g'imirlab qomasidan, kallasini hozir olish kerak!.. Xondi chodirini hozirdi o'zida bosamiz...*" [6,15]; deya Musulmonqul mingboshi tilidan qipchoq lahjasi shu shaklda keltirilgan. Qolaversa, hozirgi kunda ham Qodiriy asarlari o'z yozilgan paytdagidek nashr qilib kelinishi va Tog'ay Murodning ham o'ziga xos uslub bilan shevada asrlar yozishi hamda bu haqda kitobxonlarda salbiy fikrlar yo'qligi bizning fikrimizni asoslashimizga bir dalil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Badiiyatdan nurlangan tarix. "Tanazzul" romaniga taqriz. T.; "O'qituvchi", 2019. 3-bet.
2. To'ychiyev A. Tarixiy badiiyatda makon-zamon. – T.; "Sharq yulduzi". 2012, 5-son. 8-bet.
3. Mavlavixon S. Tanazzul. II kitob. – T.: "Turon zamin ziyo", 2015. 89-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz, T.; "O'zbekiston", 2017. 8-bet.
5. Haydarova R. Tarixiy haqiqat, badiiy to'qima va uydirma. – T.: "Sharq yulduzi", 2017, 2-son
6. Mavlavixon S. Tanazzul. 1-kitob. – T.: "O'qituvchi" 2019.

AMIRIY „DEVON”I DEBOCHASIDA RUBOIYNING O'RNI

Dilshunosxon INOMOVA,
QDPI o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ruboiy janri va uning genezisi, Amiriy „Devon”i debochasida ruboiyning tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ruboiy, taronayi ruboiy, xosiy ruboiy.

Аннотация:

В данной статье рассматривается жанр рубаи и его генезис, роль рубаи в предисловии Амира Девона.

Ключевые слова: рубаи, таронайи рубаи, хоси рубаи.

Annotation:

This article discusses the rubai genre and its genesis, the role of the rubai in the preface of Amir Devon.

Keywords: rubai, taronayi rubai, hosi rubai.

Sharq mumtoz she'riyatida keng tarqalgan lirik janrlardan biri ruboiy bo'lib, hazaj bahrining ahrab va ahram shajaralarida yozilib, ko'proq a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi to'rt misrali mustaqil lirik asardir. Arabcha nomlanishiga qaramay, ruboiy dastlab fors adabiyotida paydo bo'lib, keyin arab va turkiy adabiyotlarga o'tgan. [1, 261]

Ruboiy Sharq klassik poeziyasining qadimiy, asrlar osha mutaasil rivojlanib kelgan janrlaridandir. Shuning uchun ham ruboiyning lirik janrlar sifatidagi xususiyatlari, poetikasi uzoq asrlardan buyon juda ko'p adabiyot muxlislarining diqqatini o'ziga tortib kelgan. Ruboiyning tarixiga oida birinchi bo'lib fikrlar bayon qilgan olim XIII asrning mashhur adabiyotshunosi Shamsiddin Muhammad binni Qays ar-Roziydir. Uning „Al-mo'jazam fan maosiri ash'or ul-Ajam" asarida ruboiy haqidagi fikr va sharxlar o'z aksini topgan. Ruboiyning janr sifatidagi ta'riflari Qabu Muhammadning „Haft qulzum", Vohid Tabriziyning „Jam'i muxtasar", so'nggi turk adabiyotshunoslaridan Doyi Javodning „Zeboihoi suhan yo ilmi bade' dar zaboni forsizy". Muallim Nojiynig „Istilohoti adabiya", Muhammad Fuod Ko'pruluzodaning „Turk adabiyoti tarixi" asarlarida uchraydi.[2:2]

Qabul Muhammad: „Bilgilku, ruboiy lug'atda ikki baytli she'r. Vazn va qofiyada to'rttala misrasi ham muvofiq kelgan she'r ruboiy deyiladi. Uning ko'pincha birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralari qofiyalandi. Mabodo uchinchi misrasi qofiyalanib kelsa, unda „ruboyi tarona" deb yuritiladi. Ruboiy vazni muxtasar qilib aytganda, „hazaj" bahridadir", - tarzida tarif bergan.[4, 89]

Ruboiyning lug'aviy va istilohiy ma'nolariga doir qiziqarli ma'lumotlarni biz „G'iyos ul-lug'ot"da ham uchratamiz. Muallif „Ruboiy deb... yet yoshlik tuya va qoramolni va otni aytiladi, to'rt yoshlik qo'y va yetti yoshlik tuya shuning uchun ruboiy deb aytiladiki, ularda yetti yoshda to'rtta tish bo'ladi...Ajam shoirlari 1,2,4-misralari qofiyalangan, uchinchi misrasi qofiyasiz kelgan hazaj bahrining ahrab va ahrab shu'balarida yozilgan she'rni ruboiy deb ataydilar. Agar she'r ko'rsatilgan vaznda yozilmagan bo'lsa, uni ruboiy emas, balki qit'a deyilar." [3, 846]

Ruboiy dastlab fors-tojik she'riyatida Rudakiy ijodida paydo bo'lgan. Unga xalq to'rtliklari zamin bo'ldi. Bu janr arab she'riyatida salmoqli o'rin oldi. O'zbek klassik she'riyatida ruboiyning poetik formasiga, bir tomondan, fors-tojik tilidagi ruboiylari, ikkinchi tomondan, o'zbek xalq she'riyati muhim asos bo'ldi. O'zbek xalq og'zaki ijodida ruboiyga o'xshab ketadigan asarlar qadimdan buyon mavjuddir. O'zbek folkloridagi ko'pgina qadimiy lirik she'rlar formal jihatdan ruboiyni eslatadi. Bunga „Devonu lug'otit-turk"dagi to'rtliklar misol bo'ladi. [3,46]

Ruboiy va uning formal-poetik xususiyatlari to'g'risida o'tmish olimlari va hozirgi adabiyotshunoslar qimmatli fikr-mulohazalarni bildirganlar.

Shu fikr-mulohazalar asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Ruboiylar to'rt misradan iborat bo'lib, hazaj bahrining „axram” va „axrab” shajaralarining 24 sho'basida yoziladi.

2. Ruboiy qofiyalanishiga qarab ikki xil bo'ladi:

1) xosiy ruboiy: a-a-b-a shaklida qofiyalanadi;

2) ruboiya yoki taronai ruboiy – hamma misralari qofiyalandi: a-a-a-a;

3. Ruboiy fors-tojik poeziyasidagi „du bayti” (yoki „du baytiy”)dan g'oyaviy-tematik jihatdan farq qiladi. „Du baytiy” vazn jihatidan ham, qofiyalanish jihatidan ham erkinroq bo'ladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy va Bobur ruboiyning eng yaxshi namunalarini yozdilar. Navoiy ruboiylarida mehnatni ulug'lash, do'stlikni yoqlab, munofiqlikni fosh qilish, ezgulikni tarannum etib, yovuzlikka nafrat kabi his-tuyg'ular o'z aksini topgan. [5,154]

Ruboiyning kompozitsion qurilishi ma'lum bir masala yuzasidan fikrni izchil rivojlantirib, ixcham va tugal ifodalashga mos dastlabki ikki misrada g'oya va maqsad, keyingi ikki misrada dalil va xulosa o'z aksini topadi. Shundan kelib kelib chiqib ruboiyning birinchi misrasi tesiz, ikkinchi misrasi antitezis, uchinchi moddai ruboiya (yoki xulosa uchun asos bo'ladigan ko'prik), to'rtinchi misra esa sintez deyiladi. Ya'ni ruboiyning birinchi misrasida juda muhim bir fikr tezis qilib qo'yiladi-da, keyingi uch misra shu fikr talqiniga bag'ishlanadi; yoki birinchi va ikkinchi misradagi fikriy tezisga uchinchi misradagi antitezis qo'yilib, to'rtinchi misrada sintez (xulosa) beriladi. [1, 262]

Amiriy she'riyatida ruboiy janri shoir „Devon”ining debocha qismida uchraydi.

Chun ma'dalat ayvonini bunyod ettim

Ehson ila el xotirin shod ettim.

Bas judu sahou ila dod ettim.

Andoqki jahon mulkin obod ettim. [6, 20]

Amiriyning ushbu ruboiysida to'rtala misra ham o'zaro qofiyalangan („bunyod ettim”, „shod ettim”, „dod ettim”, „obod ettim”). Shuning uchun ham she'r bu janrning taronayi ruboiy turiga kiradi. „D” tovushi raviy, „ettim” so'zi radif bo'lib kelgan. Ushbu ruboiyda shoir o'zining yurt obodligi, xalq turmushining farovon bo'lishi, uning yaxshi yashashi, ilm-ma'rifatga ega bo'lishi uchun qilgan ishlari harakatlarini aks ettirgan. „Ehson ila el xotirin shod ettim”,-deya xalqqa ko'rsatgan xayr-ehsoni, sahovati haqida aytib o'tadi. Insonning xotirasida har doim qilingan yaxshilik o'zgacha bir o'rin egallaydi, ayniqsa xayr-sahovat, shoir ushbu „Ehson ila el xotirin shod ettim” satrlari orqali xalqning yashash sharoitini, turmush tarzini yaxshilaganini emas uning qalb qo'rini shod qilganini, uning xotirasida yaxshi nom bilan muhrlanganini yozadi. „Andoqki jahon mulkin obod ettim” xulosasi qismida esa nafaqat yurt obodonchiligi yo'lida qilgan ishlari, balki jahon mulkining obod bo'lishiga qo'shgan hissasi haqida so'z borgan. Debocha qismida shoir Amiriy shoh sifatida amalga oshirgan ishlari haqida shunday so'zlarni keltiradi: „...Madrasalar va muallimlarg'a ancha ta'id va taqviyat etkurdim andoqkim madorislarda talabai ulum hujumi g'avg'osidin ulum bahsi gufgo'yida alolo va maktabxonalarda sabaq takrori uchun

atfol kasratidin g'avg'o, va gohi ehtimom birla buldon va dayyorlar labtashnalari uchun daryo mavj xezlarig'a sad bog'lab anhorlar chiqordim". [6, 20]

Ushbu so'zlarning o'zidayoq shoh va shoirning ta'limga, tarbiyaga katta e'tibor bergani, o'qituvchilarning bilim berishi, o'quvchilarning ta'lim olishi uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratib berishga intilganligini sezish mumkin. Ushbu so'zlar esa yuqorida keltirgan ruboiydagi ushbu satrlarda o'z aksini topgan „Ehson ila el xotirin shod ettim”

Yuqorida keltirilgan ruboiy orqali Amiriyning xalqparvar hukmdor, sahovatpesha inson sifatida qilgan ishlarining ruboiydagi aksini ko'ramiz.

Amiriy „Devon”ining debochasida yana bir ruboiy berilgan bo'lib, bu ruboiy xosiy ruboiy shaklida yozilgan, a-a-b-a tarizida qofiyalangan:

*Agarchi hush diyorida g'olib o'ldi ko'ngul,
Jununi ishq-u muhabbatg'a rog'ib o'ldi ko'ngul.
Shuhud bazmida paymonai muhabbat ichib,
Mudom sog'ari sahbog'a tolib o'ldi ko'ngul. [6:21]*

Bu ruboiyda 1-2-4-misralar o'zaro qofiyalangan („g'olib”, „rog'ib”, „tolib”). Shunga ko'ra bu she'r ruboiy janrining xosiy ruboiy turiga kiradi, „o'ldi ko'ngul“ so'zlari esa radif sifatida takrorlanmoqda. Ruboiyni so'zlariga e'tibor beradigan bo'lsak birinchi misrada, agar aql-idrok diyorida ko'ngil g'olib bo'ldi, ya'ni aql-hushimdan ko'nglim g'olib bo'ldi, telbalarcha ishq-muhabbatga rag'bat qiluvchi, mayl bildiruvchi bo'ldi ko'ngil, shuhud (g'ayriddinlar fikrimcha) bazmida muhabbatdan paymonasi to'lib, doim may, sharob izlovchi bo'ldi ko'ngil, deydi. Ushbu ruboiyda bir qarashda shoir ko'ngli aqli-hush diyoridandan ko'ngil istaklari, mayli g'olib bo'lganligini, telbalarcha ishq-muhabbatga moyil bo'lganligini, muhabbat mayini xohlovchi, istovchi bo'lganligini ko'rish mumkin. Lekin aslida unday emas, ruboiyda shoirning Alloh ishq bilan to'lgan qalbi hamma narsadan g'olib bo'lganligini, ko'ngli Allohga bo'lgan muhabbat bilan to'lganligini bilish mumkin. Buni Amiriyning quyidagi so'zlari orqali bilishimiz mumkin: „... tab'im to'tisi mushohada hayratgohida shirin ash'orlar birla azal naqqoshining irodati xomasi chekkon bade' naqshlar ofarinanda surud qilur erdilar”.

Amiriy „...azal naqqoshi” deya butun olam va undagi jamiyki mavjudotlarni yaratuvchisi bo'lgan Allohni nazarda tutyapti. „...Azal naqqoshi” shoir qalbini, ko'nglini shunday egallaganki, u es-hushini, aql-idrokni ko'nglining qo'liga topshirgan. Allohga bo'lgan telbalarcha muhabbatga rag'bat qiluvchi, xohish bilduruvchi insonga aylangan.

Amiriy „Devon”i debochasida ruboiy o'z o'rniga ega, shoir ruboiylari orqali o'quvchiga o'zining his-tuyg'ulari, kechinmalarini singdira olgan. She'riyat qalbdagi inja tuyg'ular aksi, kishining qalb so'zlari matn holida keltirilganidan ko'ra she'riy tarzda bayon qilinsa, o'quvchiga tez yetib boradi va estetik zavq uyg'otadi. Amiriy xalq uchun, yurt uchun, aholining yashash tarzining farovon bo'lishi uchun qilgan barcha isharni to'rt satrlik ruboiyga mohirlik bilan joylaganki, uni o'qiga kitobxon Amiriyning nafaqat shoh, balki, ilm-fan homiysi, xalq rahnamosi ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati, Toshkent, Akademiya nashri, 2013
2. Rahmonqul Orzibekov. Lirikada kichik janrlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti, 1976. 52-bet
3. Q.Muhammad. Haft qulzum, XV jildik, Lakhnava, 1230-yil hijriy, 46-bet.
4. Vahid Tabrizi, Jami muxtasar, Moskva, 1959-yil, 89-sahifa.
5. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinov. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1979-yil.154-bet.
6. Amiriyya. Devon. Tamaddun, 2017

QO'QON ADABIY MUHITINING KITOB BOSISH VA KITOBAT SAN'ATI RIVOJIGA TA'SIRI

Nafisa BOBOXO'JAYEVA,
NamDU 1-bosqich magistranti.
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Maqolada Qo'qon xonligidagi adabiy muhit va xonlikdagi kitobat san'ati rivoji to'g'risida fikr yuritiladi. Shuningdek, Qo'qon xonlari Amir Umarxon, Muhammad Alixon va uning onasi Nodirabegimlarning ilm-marifatga homiylik qilganliklari haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: xonlik, kitob, kitobat san'ati, qog'oz, ilm-marifat, madaniyat, xattot, bosma kitob, matbaachilik.

Аннотация:

В статье рассматривается литературная среда Кокандского ханства и развитие книжного искусства в ханстве. Также говорят, что кокандские ханы Амир Умархан, Мухаммад Алихан и его мать Нодирабегим покровительствовали науке.

Ключевые слова: ханство, книга, книжное искусство, бумага, наука, культура, каллиграфия, печатная книга, книгопечатание.

Annotation:

The article discusses the literary environment of the Kokand khanate and the development of book art in the khanate. It is also said that the Kokand khans Amir Umarxon, Muhammad Alixon and his mother Nodirabegim sponsored science.

Key words: khanate, book, book art, paper, science, culture, calligraphy, printed book, printing.

Arab istilosidan keyingi Turon xalqlari ijtimoiy-madaniy hayoti mazmunining sifat o'zgarishi tufayli qog'ozga ehtiyoj kuchayib ketdi. Qog'oz ishlab chiqarish Samarqanddan Turonzaminning boshqa shaharlariga yoyila boshladi. Qog'oz ustaxonalari birinchi galda madaniy hayot qaynagan shaharlarda paydo bo'la boshladi. IX-XIX asrlar orasida qog'oz ustaxonalari Balx, Marv, Termiz, Gurganj, Xiva, Toshkent kabi shaharlarda paydo bo'ldi. Turli vaqtda bu ish shu shaharlarda turli darajalarga yetdi. Goh yuksaldi, goh so'ndi, lekin qog'oz tayyorlash an'anasi saqlanib keldi. Masalan, Buxoroda qog'oz ustaxonasi 1252-yilda paydo bo'ldi. Hirotda qog'oz ishlab chiqarish XV asrda yuksak darajada edi. XVIII asrning boshlarida Qo'qonda dastlabki qog'oz ustaxonalari paydo bo'lgan.

Ularni Samarqanddan Farg‘ona vodiysiga feodal nizolar, xalqni azob-uqubatlarga solgan bitmas-tuganmas jabr-zulm, bosqinlar tufayli qochib kelib joylashgan hunarmandlar tashkil qilishgan edi. XVIII asr oxirida Samarqand va Buxoroda qog‘oz ishlab chiqarish tushkunlikka uchragach, Turonzaminda uning markazi Qo‘qon bo‘lib qoldi. XIX asr davomida va XX asrning boshlarida Qo‘qon Turkiston o‘lkasining hamma joylariga qog‘oz yetkazib berar, Qo‘qon qog‘ozi chet ellarga ham chaqirilar edi. Bu haqda A.A.Semyonov bunday deb yozadi: “Samarqand va Buxoro singari qadimgi markazlarda qog‘oz ishlab chiqarish mutlaqo to‘xtab qolganidan so‘ng Xitoydan Orol dengizigacha sobiq rus Turkistonning barcha markazlarini qog‘oz bilan ta‘minlashda Qo‘qon yakka hokimlik qila boshladi. (Qo‘qon qog‘ozi Qashqarga, hatto Shimoliy Afg‘onistonga ham olib chiqilgan)”.

Qo‘qon shahrida O‘rta Osiyoning boshqa yirik shaharlari singari qog‘oz ishlab chiqarishning rivojlanishiga sabab Qo‘qonda adabiy muhit va ilm-fanning rivojlanganligi edi deyish mumkin. Qo‘qon xonligining ayrim hukmdorlari qo‘lyozma kitoblarga, umuman kutubxonalarga katta qiziqish bilan qarar, shoir va adiblarga homiylik qilar edi. Chunonchi, Muhammad Umarxonning o‘zi shoir va adabiyotni nihoyatda qadrlar, she‘rlarini Amiriy taxallusi bilan bitardi. Uning hukmronlik davrida (1809-1822) Farg‘onada bir guruh iste‘dodli shoirlar davrasi vujudga keldi, ular orasida xonning xotini Nodirabegim ham bor edi. Taxminan 1822-yilda Yusuf Tun qator va xattot Yusuf Muhammad tomonidan 18 shoir asarlari to‘plami tuzib chiqiladi. Bu to‘plam Qo‘qondagi shoirlar asarlari antologiyasi bo‘lib, keyinchalik ozroq nusxada toshbosmada chop etiladi. [1, 67]

Xonlikning so‘nggi hukmdori Xudoyorxon davrida saroy kutubxonasiga xususiy shaxslardan xarid qilingan ko‘pgina qo‘lyozma kitoblar qo‘shildi. Ayniqsa, Shahrizabz mullasi Muhammad Rahimdan tarix bo‘yicha ko‘pgina sharq qo‘lyozmalari olindi. Muhammad Rahimning o‘zi eski qo‘lyozma kitoblarni to‘plashga ishqiboz bo‘lib, yigirma yetti yil mobaynida Hindiston, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlar bo‘ylab sayohat qilar ekan, u yerlarda asosan qimmatli qo‘lyozmalarni topish va qo‘lga kiritish g‘amida bo‘ldi.

Qo‘qon xoni saroyidagi kutubxonadan 103 ta qo‘lyozma olingan bo‘lib, ular asosan arab tilidagi diniy kitoblar (Qur‘on nusxalari, payg‘ambarlar, avliyolarning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan kitoblar, musulmonlar rivoyatlari, to‘plamlari va shu kabilar) edi. Kitoblar orasida falsafa, mantiq, grammatika va notiqlik san‘atiga, tibbi- yotga doir qo‘lyozmalar (masalan, «Bahr al-javohir» yoki Otabib Xorzaning «Marvarid dengizi»), 15 nomdan ortiq fors tilidagi asarlar, musulmon qonunchiligi, tarixiy mazmundagi «Tuhfat ul-xoniy» (Muhammad Rahimxon hukmronligi tarixi), Jigan Lodining «Tarixi Jahongiriy», Shohruh davridan tortib Xudoyorxon davrigacha bo‘lgan Farg‘ona hamda Qo‘qon tarixi va boshqalarga doir kitoblar bo‘lgan.

Qo‘qon xoni Umarxon davridagi mamlakatning har tomonlama yuksalishi, ayniqsa, kitobat san‘atida ham ko‘zga tashlanadi. Xon saroyida xattotlar tomonidan turli xil mavzudagi kitoblar nafis bezaklar bilan ko‘chirilib, ularning chet el hukmdorlariga sovg‘a tariqasida yuborish an‘anasi shakllanib borgan. Misol uchun, Umarxonning Usmonli davlatiga Hoji Mir Qurbon boshchiligidagi ilk

elchilik missiyasida turli qimmatbaho sovg'alar qatori uning turkiy tildagi she'rlar jamlangan "Muhabbatnoma" asari ham bo'lgan. Ushbu antologiya Umarxonning topshirig'i bilan 1818-1819 yillarda sulton Mahmud II ga taqdim etish uchun tuzilganligi qayd etiladi. Shuningdek, 1813-yilda xattot Muhammad Latif tomonidan Alisher Navoiyning "Chor devon"i ham ko'chirilgan, u g'oyatda xushxat, jadvallari ziynatli, zarhal lavhali bo'lgan. Amir Umarxondan keyin taxtga kelgan Muhammad Alixon davrida ham kitobat san'ati, xattotlik va saroyda kitoblarni ko'plab nusxalarda ko'chirish va tarqatish ishlari davom ettirilgan. Muhammad Alixonning o'zi ham mohir xattot bo'lganligi ma'lum. Muhammad Alixon onasi Nodirabegimning maslahati asosida 1838-yilda Muhammad Siddiq Tunqotar zimmasiga Alisher Navoiy "Chor devon" dan 300 nusxa kuchirtirish vazifasini yuklaydi. Olti oy ichida "Chor devon" dan 300 nusxa tayyorlanib, lavvoh va musavvirlar tomonidan kitob holiga keltiriladi. Shuningdek, Muhammad Alixon topshirig'i bilan xattot Mirzo Sharif Dabir 1836-yilda Fuzuliyning devonini nastahliq xatida, 1837-yilda esa saylangan g'azallarini alohida go'zal xat bilan ko'chirgan [2, 5-12]. Muhammad Alixon davrida kitobat va xattotlik ishlariga bunday katta e'tibor qaratilishida uning onasi-shoira Nodirabegimning hissasi bor, albatta.

Yuqorida takidlanganidek, Qo'qon xonligida ilm-fanni rivoji va xonlarning o'zi ilm-ma'rifatga homiylik qilganliklari sababli xonlikda kitob bosish san'ati ham rivoj topdi. Xronologik jihatdan Farg'ona vodiysida milliy kitoblar bosib chiqargan birinchi toshbosma matbaa ustaxonasi Marg'ilon shahrida 1884 yilda Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan ochilgan edi. Muhammad Azim savodxon shaharliklar, o'rtahol odamlar ichidan yetishib chiqqan, o'z davri va o'z davrasiga nisbatan progressiv qarashlarga ega bo'gan bir inson bo'lgan. O'zbek yozuvchisi va o'ttizinchi yil nashriyot xodimi bo'lmish Husayn Shamsning O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan 1936-yilda chop etilgan "Matbaachilik ham uning qisqacha tarixi" kitobi noshir Muhammad Azim tilga olib o'tilgan birdan-bir manba bo'lib qolmoqda. Muallif shunday yozadi: Haj safaridan qayta turib marg'ilonlik Muhammad Azim hoji Hindistonda to'xtaydi va litografiya ustaxonalaridan birida bosma kitob matbaachiligi san'atini o'rganib oladi. 1867 yilda Bombay shahrida litografiya uchun jihozlar sotib oladi. Turkistonga qaytib keladi va toshbosma dastgohlarini Qo'qon shahrida o'rnatadi, bu yerda u hukumatning ruxsatisiz o'g'illari bilan birga maxfiy ravishda ishlaydi. Bir qancha vaqt o'tganidan keyin litografiya butunlay yonib ketadi. Shaharning rus ma'muriyatiga litografiya mavjudligi ma'lum bo'lib qoladi, uning qolgan barcha asbob-uskunalari musodara qilinadi. Muhammad Azimning faoliyati shu taxlit poyoniga etadi. Husayn Shams o'zi bu ma'lumotlarni olgan manbani ko'rsatmagan. Muallif Azim hoji toshbosma ustaxonasida chop etilgan kitoblar to'g'risida ham eslatib o'tmaydi [3, 45-46].

Qo'qon adabiyot muzeyi xodimi, filologiya fanlari nomzodi Ahmadjon Madaminov tomonidan 1980-yillar boshlarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar Azim hoji Marg'iloniy toshbosma matbaasi ish boshlagan aniq bir sanani tayinlash. uning faoliyati xronologiyasini aniqlashga imkon berdi. Uning Muhammad Azim hoji Marg'iloniy tomonidan chop etilgan unutilgan va muqaddam noma'lum

kitoblari topishi va sotib olishi o'zbek eski bosma kitoblari silsilasida mavjud bo'lgan uzilishlarni ma'lum darajada to'ldirdi.

G'afur G'ulom nomidagi Farg'ona viloyat Adabiyot muzeyida raqam ostida saqlangan va noshirning o'zi tomonidan ko'chirilgan "Devoni Hofiz" Azim hoji toshbosma nashri titul varag'ining orqa tarafida keltirilgan annotatsiyadan u 1860-yil boshida haj safariga jo'nab ketgani ma'lum bo'ladi. Qaytib kelayotganida ma'lum vaqt Bombay shahrida to'xtaydi. Bu yerda u "Muzaffariy" toshbosmaa matbaasida u bosma kitob matbaachiligi mahoratini o'rganadi. 1884-yilda u litografiya uchun jihozlar to'liq komplekti bilan birga vatanga qaytib keladi va ularni Marg'ilon shahrida o'rnatadi. Husayn Shams har ehtimolga qarshi bu tafsilotining hammasini ham bilmagan va Azim Hojining toshbosma matbaachilik faoliyati 1887-yilda Qo'qon shahrida boshlangan deb hisoblagan. Shundav qilib, Azim Hoji o'zi yozgan keltirilgan manba, shuningdek, uning mufassil annotatsiyalari bo'lgan boshqa nashrlari Husayn Shams tomonidan ilgari surilgan versiyani barbod qiladi. Bu narsa tarix fanida barqaror tus olgan Farg'ona vodiysida bosma kitob matbaachiligi faqatgina XX asr boshlarida vujudga kelgan edi: degan nuqtai nazarni ham rad etadi [4, 39-40].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qo'qonda adabiy muhitning yuqori darajada shakllanganli xonlikdagi kitobat san'atining rivojiga ham katta turtki bo'lib hizmat qildi. Xonlik kutubxonalari rus bosqini oqibatida talon-taroj qilingan bo'lsada, xonlikdagi kitobat san'ati namunalari mahalliy xalq qo'lida qolganligi yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi. Umuman olganda Qo'qon xonligidagi adabiy muhit xonlikning madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Erkin Axunjanov. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazariyasi va tarixi . "Tafakkur-bostoni" Toshkent. 2011. B –162
2. Qosimova O. G'.. O'zbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1981, 5-12-betlar.
3. Erkin Axunjanov. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazariyasi va tarixi . "Tafakkur-bostoni" Toshkent. 2011. B –163
4. Erkin Axunjanov. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazariyasi va tarixi . "Tafakkur-bostoni" Toshkent. 2011. B –163

AMIRIYNING BIR OSHIQONA G'AZALI XUSUSIDA

**Muzayyana SOBIROVA,
QDPI talabasi,
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Amiriyning bir g'azali misolida shoirning badiiyat olami, g'oyaviy-ma'rifiy, diniy-irfoniy, tasavuffiy ko'lami ochib berishga harakat qilingan. Qolaversa, mumtoz adabiyotda oshiqona g'azallar va ularning turlari, talqinlari xususida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Amiriy, badiiyat, g'oyaviy-ma'rifiy, diniy-irfoniy, tasavuffiy, ishq, oshiq.

Аннотация:

В данной статье делается попытка раскрыть художественный мир поэта идейно-просветительского, религиозно-мистического, мистического масштаба на примере одной из газелей Амира. Кроме того, в классической литературе есть мнения о романтических стихах, их типах и интерпретациях.

Ключевые слова: Амир, искусство, идейно-просветительское, религиозно-мистическое, мистическое.

Annotation:

This article tries to reveal the poet's world of art, ideological-enlightenment, religious-mystical, mystical scale in the example of one of Amir's ghazals. In addition, the classical literature contains opinions about romantic poems and their types and interpretations.

Keywords: Amir, art, ideological-enlightenment, religious-mystical, mystical.

*Kechalar sarxush chiqib, olma jamolingdin niqob
Tushgay oshub olama, gar kecha chiqsa oftob.*

*Boda tobidin yuzung shavqi chamang'a urdi o't
Kuydurub gul shoxi bargin qildi bulbulni kabob.*

*To ko'zum zulfi yuzungdin ayru tushti, ko'rmadim
Gulda obu ranggu sunbul turrasida pechu tob.*

*Qolmadi ko'nglumda la'ling orzusi yoshurin
Ul sifatkim, shishada pinhon emas gulgun sharob.*

*Soqiyo, may tutki, paymon bog'ladim paymonag'a
Gardishi davri falakdin ko'rmadim juz inqilob.*

*Yo ajal, yo mehnati hajring meni o'lturgisi
Qil alardin ilgari jon olmoq istarsen, shitob.*

*Kimki qildi yor ko'yida gadolig' ixtiyor
Saltanat iqlimida derlar Amiri komyob. [1, 72]*

Vazni: ramali musammani mahzuf (foilotun / foilotun / foilotun / foilun).

Notanish so'zlar lug'ati:

1. Oshub – g'avg'o, to'palon.
2. Boda – may.
3. Tob – 1) harorat; 2) o'ram, jingalak.
4. Ob – suv.
5. Turra – kokil, soch o'rirlari.
6. Pech – o'ralish, buralish.
7. Gulgun – qizil.
8. Paymona – may idishi, qadah.
9. Gardish – dunyo.
10. Juz – boshqa, bo'lak.

11. Ko‘y – ko‘cha.

G‘azalning nasriy bayoni:

1-bayt. Kechalari sarxush chiqib, yuzingdagi niqobingni olmagin. Agar olsang kechada ham xuddi oftob chiqqanday olam nurafshon bo‘ladi. Faqat bunda quyosh Osmondan emas, Yerdan turib nur sochadi. Bi holatni ko‘rib hayratga tushgan olomon g‘avg‘o ko‘taradi.

2-bayt. Boda (may) ya‘ni ilohiy ishq haroratidan yuzing shavqi chamanga o‘t soldi. Buning natijasida gul shoxi va bargini (yaprog‘ini) kuydirdi. Bu yonish shu darajada tez va kuchli bo‘ldiki, gul ustida turgan bulbul o‘zini asrab qolish uchun qochish tugul, qanday voqea yuz berayotganini ham sezmay qoldi. Natijada yonib, kabobga aylandi.

3-bayt. Qachonki ko‘zim zulf va yuzingdan ayru (boshqa, o‘zgaga) tushdi. Atrofga boqsam gulda na suv va na bo‘yoq bor edi. Sunbul kokilida unga chiroy baxsh etadigan to‘lg‘onish, o‘ralish qolmadi.

4-bayt. Ko‘nglimda la‘ling, ya‘ni labing orzusi mavjud edi. Uni odamlardan pinhon tutishga intildim. Biroq, har qancha urunmay, zoe ketdi. Ishqimning yashirinligi qolmadi, jumla olamga ovoza bo‘ldi. Buni nihon tutishlikning ham imkoni yo‘q edi. Shishada qizil sharob mavjud bo‘lsa, shisha uni yashirin tuta oladimi?

5-bayt. Ey soqiy, may tutki, mayxonaga ko‘ngil qo‘ydim. Ya‘ni ey murshid ilohiy ishq sirlarini qalbinga joylanishida vosita bo‘lgin, Alloh ishqxonasiga ko‘ngil qo‘ydim. Alloh deya til, qalb, amal zikrini birlashtirgan, uning rizosini istagan, jamoliga oshiq bo‘lganlar yo‘liga kirdim. Falak davrining gardishidan o‘zga narsani ko‘rmadim, ya‘ni Yer yuziga inson qilib yaratilishda bundan o‘zga g‘arazni ko‘rmadim.

6-bayt. Yo ajal, yo hajringda chekayotgan mashaqqatlarim meni bir kun o‘lduradi. Sening ishqing shitobi esa, bu o‘limni yanada tezlatmoqda.

7-bayt. Kimki, yorning ko‘yida gadolik (maqomi)ni ixtiyor qildi, uni saltanat ichida kamyob topiluvchilarning amiri deb ataydilar.

G‘azalning qisqacha mazmuni va sharhi:

G‘azal an‘anaviy 7 baytdan iborat. Amiriy qalamiga mansub ko‘plab g‘azallari aruzning ramali musammani mahzuf (maqsur)da yozilgan. Yuqoridagi g‘azal ham ular sirasidandir. G‘azalda vazn tufayli til qoidalari buzilmagan, uslub va ma‘noga ham nuqson yetgan holatlar yo‘q.

Mazkur she‘r Amiriy devoniga kiritilgan eng go‘zal, oshiqona g‘azallaridan biridir. Bu g‘azalda oshiqonalik bilan orifonalik muayyan ma‘noda qorishib ketgan. “Oshiqona” degani ishq-muhabbat zavqi va iztiroblari, yor jamoli vasfi va bu jamolga yetishishga intiluvchi ko‘ngil kechinmalari hissiyoti, hayajon va talpinishlarini tasvirlovchi lirik asardir. Muhabbat bir vaqtning o‘zida ham olam va odam go‘zalligi, ham ilohiy Yor jamoliga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Garchi orifona falsafada moddiy olamni majoz, Mutlaq ruhni haqiqat (haqiqiy mavjudlik) deb ajratilgan bo‘lsa-da, ammo bu ikki tushuncha bir-biriga zid deb qaralmagan. Aksincha, majoziy olam tasviridan maqsad Haqiqatni chuqurroq anglash, uni insonga yaqinroq qilib tasavvur etish ko‘zda tutilgan. Hazrat Navoiy tili bilan aytganda, “Ayni haqiqatdir majoz”. [2, 48]

Hazrat Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”da ishqni uchga bo‘lgan:

1. Ishqi avom – bir yigit va bir qizning bir-birlariga nisbatan dunyoviy muhabbati bo‘lib, Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, agar bu ishq nikoh bilan yakunlanmasa, u haqida so‘zlamogga qalam siyohi va qog‘oz isrofdir.

2. Ishqi siddiq – sodiqlar ishq. Umrlarini Allohning ibodatiga bag‘ishlagan, uning amriga itoat etishdan zarracha chetga chiqmaydigan chin oshiqlar ishq.

3. Ishqi xos (ko‘pligi ishq xavvos) – xoslar ishq. Allohning qadariga bo‘yin eggan, qazoga rozi, baloga sobir bo‘lgan oshiqlar ishq. Bunday oshiqlarga ikki dunyo mehnati mashaqqatmas, ikki olam rohati Alloh ular bilan birga bo‘lmasa, rohatmas. Ular har bir yaratqida Allohning sunni naqqoshlik qudratini anglaydilar. Boshlariga tushgan har bir ishni Allohning marhamati deb qabul qiladilar. Hayotlaridan yagona maqsad – Alloh rizosi. Ayni paytda, Allohga bo‘lgan muhabbatlarini sir saqlashlikka tanalari dosh bermaydi. Oshkor etishlikdan esa, qablari riyo deb qo‘rqadi. O‘z ishqlarini majozga o‘rab, vositalar ila bayon qilgan oshiqlar yo‘li bo‘lib, mumtoz adabiyot, xususan, tasavvuf mana shu ishqdan, ramzlarga o‘ralgan muhabbat qissalaridan hikoya qiladi. Ushbu qissalarning g‘oyasi, borar manzili bir. Shuning uchun, har bir tasavvuf shoirining ash‘ori ikkinchi shoir nolasiga hamohang. Zero, qalb tug‘yonlari o‘xshashdir.

Mazkur g‘azalda ham ishq xavos talqin etilgan. Oshiq o‘z ma’shuqasiga bo‘lgan muhabbatini birinchi misradanoq kuzatishimiz mumkin:

Kechalar sarxush chiqib, olma jamolingdin niqob

Tushgay oshub olama, gar kecha chiqsa oftob.

Ushbu baytda yuqori tilga olingan mazmun bilan birgalikda quyidagi ma’no nozikligi ham anglashiladi: oshiq ishq shunchalik kuchliki, mahbubasiga hech kimning ko‘zi tushmasligini, u haqida gapirmasligini, barcha begona nazardan yashirmoqni istaydi. Yorini oftobga o‘xshatib, kechada quyosh chiqishi tabiiy hodisa bo‘lmaganiday, yoriga ham o‘zgalarning nazari tushishini shunday hodisa sifatida ko‘radi va bundan olamda g‘avg‘o, to‘polon ko‘tarilishi haqida mumkinligini ta’kidlaydi.

Bu yerda “sarxush” so‘ziga diqqat qaratish zarur. Oshiq ma’shuqaga murojzat etib, “kechalar sarxush chiqib” jumlasini qo‘llaydi. Bayt mazmunidan shu narsa anglashiladiki, ma’shuqa o‘zining qay darajada go‘zalligidan o‘zi ham yaxshi xabardor. Shuning uchun tashqariga chiqib, yuzini ochmaydi. Magaram, sarxush holatda bu ishni amalga oshirib qo‘ymasa! Ko‘rinib turibdiki, g‘azalning faqat botiniy ma’nosining o‘zi emas, balki zohiriy tomonlari ham nihoyatda go‘zaldir. Baytda yor yuzidan niqobning olinishi bilan tun qorong‘uligining yo‘q bo‘lib, osmonda quyosh porlashi o‘zaro mutanosiblikda olinib, betakror badiiyat yuzaga keltirilgan. Mazkur bayt Alisher Navoiyning

“Orazin yopqoch ko‘zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lg‘och quyosh” –

baytini esga soladi. Oshiq bu yerda yor yuzini yopgach, ko‘zimdan shu qadar ko‘p yoshlar to‘kiladiki, bu quyosh botgach, osmonda yulduzlarning paydo bo‘lishiga o‘xshaydi, demoqda.

Ikkinchi bayt to‘laqonli sufiyona ruhda bitilgan. Shoir mayning qizilligi va uning ta’sirida yuzda paydo bo‘ladigan qizillik, maxmurning sarmastlikdan tanasi

qizishi kabi zohiriy tomonlar bilan muridning Alloh ishq qalbga tushgach, qizil cho‘g‘ kabi yonishi, undagi mastlik (jazba) holati kabi botiniy jihatlarni bog‘lay olgan.

Uchinchi bayt lirik qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy olami qay darajadaligi tavsifiga bag‘ishlangan. Oshiq o‘z yoriga shu qadar bog‘langanki, uning xayollari, fikri, orzu-umidlari – butun hayoti faqat ma’shuqasiga bog‘langan. Ko‘z oldida doim uning surati gavdalanadi va uning visolini qumsab yashaydi. Har bir mohiyatga u bilan boqadi. Har bir yaratiq u borligi uchun jozibali. Yorsiz oshiq uchun barcha mavjudot-u maxluqotlar o‘z ahamiyatini yo‘qotgandek tuyuladi.

To‘rtinchi baytda tasavvufda keng tarqalgan xufiyaviylik va jahriylik xususida so‘z boradi. Sufiylar o‘z ishqini pinhon saqlamoqqa intilganlar. Yorning nomini aytishlikka o‘z tillaridan, aytmuqqa quloqlaridan rashk qilib, qalb olamida nihon tutganlar. Natijada ushbu olam sirlar dengiziga aylanib, “olami kubro” bo‘lgan. Insof bilan tan olish kerakki, Yer yuziga, o‘n sakkiz olamga sig‘magan muhabbatni Alloh o‘z uyi bo‘lgan qalbga sig‘dira olgan ekan, bunday olam “olami kubro” bo‘lmay qanday bo‘lsin? Mana shunday ishq tug‘yonini qay chora bilan sir tutish mumkin.

Markaziy Osiyo tariqatlaridan yassaviylik – jahriylikning, naqshbandiylik – xufiyaviylikning yorqin misolidir. Lekin, bir narsani diqqatdan qochirmasligimiz zarurki, jahraviylar ko‘cha-ko‘yda, omma orasida baralla aytib yurganlari holida xufiyaviylar bundan o‘zlarini tiya olgan bo‘lsalar-da, ular o‘z ishqlarini qog‘oz va qalam orqali bayon qilganlar. Shuning uchun jahriylik og‘izdan og‘izga, xalqdan xalqqa, avloddan avlodga og‘zaki tarzda tarqagan bo‘lsa, xufiyaviylik ta’limotlar va ularga dasturulamal bo‘lgan sufiyona ruhdagi asarlar orqali bizgacha yetib kelgan. Har ikkala oqim o‘z shakllanish va taraqqiyot yo‘lida adabiyotga suyangan.

Inson qalbi Allohning uyi, “olami kubro” ekan, uni pok saqlash, boshqalar qalbiga ozor bermaslik insoniylikning eng muhim shartlaridan biridir. Bu haqida hazrat Alisher Navoiy shunday degan:

Kim bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka’ba vayron bo’lsa obod aylagay.

Mana shunday ulug‘ ishlarni amalga oshirish esa faqat jo‘mardlarninggina qo‘lidan keladi. Jaloliddin Rumi buni quyidagicha izohlaydi:

Tavofi bayt ul-Halil kori oson ast,

Tavofi bayt ul-Jalil kori mardon ast.

Beshinchi baytda murshid-muridlik munosabatlari bayon qilingan. Tasavvufda murshid obrazi misolida soqiydan foydalanish an’ana. Oshiq o‘z yori visoliga yetishmoq uchun muhabbat ahllari ostonasiga bosh qo‘ygan, ularga nisbatan o‘z qalbidagi muhabbat paydo qilgan ekan murshid o‘z muridining qalbini ilohiy ishq bilan to‘ldirmog‘i, shavq ummonini to‘g‘ri yo‘naltirmog‘i zarur.

Oltinchi baytda oshiqning ishq yo‘lida chekkan jafolari, mashaqqatli ahvoli aks etgan. Yor hajrida chekilgan azob-uqubatlardan bechora oshiqning yosh umri xazon bo‘lishiga, bevaqt o‘limiga sabab bo‘larlik holatga kelgan. Oshiq o‘z o‘limining ajal hukmi bilan amalga oshadimi yoki undan oldin ma’shuqasi

yo'lida fido bo'ladimi, bilmaydi. Lekin, ishqning shitobi uni kundan-kun yaqinlashtirayotgani ayni haqiqatdir.

Maqta'da shoir lirik qahramon tilidan yor ko'yida gadolik qilishlik har qanday amirlikdan ustunligini aytar ekan, ushbu tashbehi bilan bu yo'ldagi har qanday mashaqqatni oqlaydi. Tazod asosida gadolikni kamyob amirlikka mengzagan shoir bunday gadolarni kam topiluvchi amirlardan deydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Amiriy she'riyati o'zining go'zal badiiyati, g'oyaviy-falsafiy, diniy-irfoniy sarchashmalarining chuqurligi, shoir ijod olamining serqirraligi bilan akademik Aziz Qayumov ta'kidlaganidek, amiriyshunoslik yo'nalishi bo'lishga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amiriy. Qoshingga teguzmagil qalamni. Sharq nashriyot matba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –Toshkent, 2008. 72-bet.
2. Komilov N. Navoiy g'azaliyoti talqinlari. –T.: O'zbekiston, 2018. 48-bet.

IJODKOR MA'NAVIY QIYOFASINING BADIY AKSI (“AMIR” RADIFLI G'AZAL MISOLIDA)

**Ahror Raimjonov,
Qo'qon DPI talaba
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ijodkor ruhiyati, psixologik tahlil metodi Amiriy she'riyati misolida ochib berishga harakat qilingan. Shoirning “Amir” radifli g'azali tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor ruhiyati, psixologik tahlil metodi, fenomen, Qo'qon adabiy muhiti, Amiriy.

Аннотация:

В данной статье делается попытка раскрыть творческую психику методом психологического анализа на примере поэзии Амира. Анализируется светлая газель поэта «Амир».

Ключевые слова: творческая психика, метод психологического анализа, феномен, кокандская литературная среда, Амир.

Annotation:

This article tries to reveal the creative psyche, the method of psychological analysis on the example of Amir's poetry. The poet's radiant ghazal «Amir» is analyzed.

Keywords: creative psyche, method of psychological analysis, phenomenon, Kokand literary environment, Amir.

Badiiy adabiyotda ham har bir davr va davrlar uchun favqulodda istedodli va keng ko'lamdagi ijodkorlar fenomen deyiladi. Fenomen bizga nima beradi? Fenomen kim bo'lishi kerak? O'rinli savol avvalo fenomen nomi aytilishi bilan unga yondosh bo'lgan insonlar, u yashagan muhit, tarixda bo'lgan muhim voqealar ko'z oldimizda gavdalanadi. Qo'qon adabiy muhiti deyish orqali adabiyot fidokorlari ko'z oldiga Sayyid Umarxon yaniki Amiriy kelishi yolg'on emas. Nega aynan Amiriy fenomen deyilmoqda. Avvalo

aytish joizki fenomen har tomonlama adabiyot ravnaqi uchun katta hissa qo'shishi darkordir va o'zidan salmoqli hamda sifatli asar meros qoldirishi darkor. Keling Amiriy bu xislatlarga qanchalik mos kelishini takshirib ko'zramiz. Nodira, Maxmur, Fazliy, Adoiy, Gulxaniy, Muhiy, Uvaysiy, Vazir, Xijlat va boshqa ko'plab ijodkorlarni uyushtirgan va ijod qilishlari uchun sharoit yaratgan ularga homiylik qilgan, hamda yuzdan ortiq shoironing she'rlari keltirilgan "Majmuai shoiron" ning yozilishi va "Zarbulmasal" kabi salmoqli asarning vujudga kelishi uchun zamin yaratgan Amiriy emasmi. Yoki uning merosiga keladigan bo'lsak Amiriyda bizga 10ming misra ijod namunasi qolganligi hech birimizga sir emas. Va yana shuni takidlash kerakki Amiriy o'zidan ikki tildagi devon meros qoldirgan. Bugun biz Amiriy shaxsiyatini yuksak darajada ochib beruvchi "Amir" radifli g'azali bilan tanishamiz. Ga'zal taxliliga o'tishdan oldin Amiriy haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak foydadan xoli bo'lmaydi. Umarxon yoshligidan zehni, aqlli bilimdon, shu bilan birga chopqir dovyurak siyosatli bo'lib ulg'aydi.

Umarxon ustoz Muhammad Yoqubdan diniy va tasavvufiy ilmlarni o'rgandi. Umarxon yoshligidan aqlli va tadbirli av tashkilotchi bo'lganligi sababli saroy ishlariga jalb qilindi, va akasi Olimxon tomonidan Marg'ilonni hokimligiga tayinlandi. Akasining vafotidan so'ng xonlik taxtiga o'tirdi. Umarxon davri Qo'qon xonligi tarixidagi eng har tomonlama eng rivojlangan davr hisoblanadi. Bejiz o'zbek romanchiligining asoschisi A.Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanida Mirzakarim qutidor tilidan aytilgan "Amiri Umarxondek odil poshsho bo'lsa, biz ham o'risdan oshib ketar edik" bu jumlar Umarxonning odil podsho nafaqat odil va taraqqiyot uchun xizmat qiluvchi shoh bo'lganligini ko'rsatib beradi. "Umarxon andak fursatda hamma ahli Farg'onaning ko'nglini o'ziga jalb vamusaxar qilib eski va qadimgi bid'at va zulmlarga, shar'i sharif, man qilgan ishlarga mutlaqo barham beruptur",-deydi Mulla Olim Mahdum Hoji. Bu fakt Mirzakarim qutidor aytgan gaplarni to'la asosda ilmiy tarzda asoslab beradi. Yuqoridagi fikrlar orqali biz Umarxoanni taniga bo'lsak Dilshodi Barnoning quyidagi bayti orqali Amiriy bilan tanishamiz.

She'riyat kishvariga shoh Amir

Hamqalam do'stlarig'a panoh Amir

Keltirilgan baytda Amiriyning shoirlikda shoh ekanligi bilan bir qatorda do'stlari ya'niki shoirlarga panoh ekanligi aytib o'tilmoqda. Tarixiy manbalarda Umarxon davri tinchlik davri deb atalganligi bilishimiz mumkin. Chunonchi Ibrat Umarxon davri haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan. "Bu Umarxon asrida hech muqorab va muqotala bo'lmay, axyon, axyon Istirafshon, O'ratepa umorolari ilan oralarida voqea bo'lib katta muxoraba bo'lmay osoyishta o'tgan ekan",-deb yozadi. Endi bevosita g'azal hamda uning tahliliga o'tsak:

Har nechakim fatxi iqlim jahon ettim, Amir

Andin o'ttim, yor kuyida makon ettim Amir

Ul sanam vasli so'rog'idin nishon topqaymu deb

Har taraf payki xayolingni ravon ettim, Amir

*Jon bila ko'ngulga yetkurdim visoling mujdasin
Bu gadolarni karamdin kamron ettim Amir*

*Etmadim ishqingda, jono, do'stdin dushmani farq
Pand berdi do'stlar, dushman gumon ettim, Amir*

*Ma'siyat mulkin buzub, tarhi binoyi shar ettib
Arsayi ofoqni dorul-omon ettim, Amir*

*Muddao soqiy yuzi erdiyu husni mug'bacha
Dayr arokim xizmati piri mug'on ettim, Amir*

*Har kishigakim vafo qildim, mango qildi jafu
Olam ahlini sarosar imtixon ettim, Amir*

*Lashkari nafsu havoyi hirs tug'yon ayladi
Jur'atim shulkim, alar birla qiron ettim, Amir*

*Baski ko'rguzdim ulusg'a mehribonliq shevasin
Barcha olamni uzumg'a mehribon ettim, Amir*

*Garchi bo'ldum zohir elni shod etorg'a gul kabi
Lek pinhon g'unchadek bag'rimni qon ettim, Amir*

*Lamayi shamshiri himmatdur safobaxshi jahon
Lojaram elga bu javxarni ayon ettim, Amir.*

G'azal 11 baytdan iborat bo'lib, ramali musammani maqsurda yozilgan. G'azalda jahon, makon, ravon, komron, gumon, dorul-omon, mug'on, imtixon, qiron, mehribon, qon, ayon, so'zlari qofiya olingan bo'lsa Amir so'zi radif sifatida qo'llangan. G'azal tarkibida bizga notanish bo'lgan so'zlar:

Fatx- g'alaba, yutuq, zafar

Visol- visol uchrashish, ko'rishish, yuzlanish, yuzma-yuz bo'lish

Payk- elchi, xabarchi, darakchi

Ravon- tez, darxol jo'natmoq, oqizmoq, qimmatbaho, puxta

Mujda- xushxabar, quvonchli darak suyukli xabar

Komron- saodatli, baxtiyor, maqsadga erishgan

Karam- yaxshilik, oliyjnoblik, ehson, marhamat, saxovat, muruvat

Ma'siyat- gunoh

Tarxi binoyi- bino chizmasi

Arsayi ofoq- jahon maydoni

Dorul-omon –osoyish joy bexavotir

Soqiy- may quyuvchi

*Mug'bacha-may tashuvchi
Dayr-butxona majozan mayxona
Sarosar-birma-bir boshdan-oyoq
Lama-tovlanish
Lojaram- shuning uchun
Kuy –makon, huzur, turar joy*

*Har nechakim fatxi iqlim jahon ettim, Amir
Andin o'ttum, yor kuyida makon ettim, Amir*

*Jahon iqlimini ko'p bor egalladim
Ulardin o'ttim, yor huzurin makon ettim*

Amiriyning mazkur Amir radifli g'azalida shoir shaxsiyati bor bo'yi bilan gavdalanadi. Avvalo g'azalning matlasidayoq Amiriyning podshoh ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Dastlabki bayt Amiriyning podshoh ekanligini anglatgani holda tasavvufiy ma'noni ham o'zida aks ettirgan. Chunonchi baytning dastlabki misrasidan Amiriy ko'plab yurtlarni ko'p marotaba fatx etkanligi anglashilgan bo'lsa, ikkinchi misrada alar oqibat yor huzuriga ya'ni Alloh qoshiga kelganligi aytilmoqda. Baytni qisqacha tahlil qiladigan bo'lsak Amiriy ko'plab marotaba dunyoni va undagi moddiy boyliklarni qo'lga kiritdi lek bul narsalar o'tkinchi, aldamchi va yolg'on ekanligini anglagan holda yor (Alloh) huzurini makon ettishini aytib o'tgan. Keyingi bayt yorning diydori va vasli orzusi bilan fikr davom etadi.

*Ul sanam vasli so'rog'idin nishon topqaymu deb
Har taraf payki xayolingni ravon ettim, Amir*

*Ul sanamning vaslidan nishon topamanmu deb
Har tarafga xayoling elchilarini jo'natdim*

Baytda quyidagicha ma'no anglashilgan. Chunonchi sening ya'ni yorning vaslini topamanmi deb har tarafga elchilar jonatdim. Ya'niku Amiriy Alloh rizoligini, vaslini toppish ilinjida o'zini juda ko'p mashaqtlarga duchor qilgan. Yor kuyida ne ish bo'lsa barini qilgan

*Jon bila ko'ngulga yetkurdim visoling mujdasin
Bu gadolarni karamdin kamron ettim, Amir*

*Jon bilan ko'ngulga visoling xushxabarini yetkazdim
Va oliyjanoblik xabari bilan ul ikki gadoni baxtiyor qildim.*

Baytda keltirilgan ikki gado baytning dastlabki misrasidagi jon va ko'nguldir. Har bir inson bolasi iymonga kelishi dastlab til bilan ya'ni iymon kalimasini keltirish bilan bo'ladi. Agarda inson bu yo'lda sobit,

mahkam tura olsa tildagi kalmia asta-sekin ko'ngulga ko'chadi. Baytdan anglashiladiki, Amiriy tilidagi kalimani ko'nliga ko'chiragan, sindara bilgan. Baytdan Amiriyning jur'atli va mo'minligini ko'rishimiz mumkin G'azalning birinchi baytining birinchi misrasida Amiriyning shoh sifatida ko'rgan bo'lsak bu baytda Amiriyning "INSON" ekanligini ko'rishimiz mumkin

*Etmadim ishqingda , jono, do'stdin dushmanni farq
Pand berdi do'stlar, dushman gumon ettim, Amir*

*Ey jonon ishqingda do'stdan dushmanni farqlay olmadim
Do'stlarim pand berdilar va ularni ham dushman deya gumon ettim*

Yuqoridagi bayt hayotning achchiq haqiqati ekanligiga hammamiz amin bo'lganmiz. Amiriy ham bundan mustasno emas. Zero, Amiriy odiiy inson sifatida ham podshoh sifatida ham odamlarga birinchi navbatda ishongan beklarga ishondi lekin ular amiriyga pand berdilar shundan so'ng Amiriy hammaga aql ko'zi ila boqishni boshladi.

*Ma'siyat mulkin buzub tarxi binoyi shar etib
Arsayi ofoqni dorul-omon ettim, Amir*

*Gunoh mamlakatini buzib shariat binosini barpo ettim
Va jahon mamlakatini osoyishta ettim*

Bu bayt o'zidan oldingi baytlarni to'ldirib asoslab to'la holatda yakun bo'lgan. Baytda Umarxong berilgan "Amir ul-muslimin" unvoni bekorga berilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu fikr Amiriy devoning debocha qismida nasriy ko'rinishda bo'y ko'rsatadi. Zero debochada shunday so'zlar keltirilgan "Masiyat va manoki binolarin buzdum buqo va madoris juddu jahd ko'rgazdum" Bir so'z bilan aytganda bu bayt Amiriyning podshoh va mo'min inson sifatida yorqin ifodalab kelgan. Keyingi bayt mavzu mihiyati oldingi baytlardan farq qiladi:

*Muddao soqiy yuzi erdiyu husni mug'bacha
Dayr arokim xizmati piri mug'on ettim, Amir*

Mening maqsadim may quyuvchi yuzi va may tashuvchining husni edi. Shu sabab mayxona aro pir xizmatin afzal bildim.

Bayt tasavvufiy ma'noga egadir. Buni asoslashga yetarli asos mavjud. Baytdagi soqiy Alloh, mug'bacha – Muhammad (s.a.v.), dayr - mayxona manolarini bildirishi fikrimizning asosi bo'la oladi. Baytdan quyidagicha ma'no anglashiladi Mening maqsadim Allohning marhamatiag va Muhammad (s.a.v) shifoatlariga erishish edi Shu sabab bu dunyoda pir yani ustoz xizmatini qilishni afzal bildim.

*Har kishiigakim vafi qildim, mango qildi jafo
Olam ahlini sarosar imtixon ettim, Amir*

*Har kishigakim vafo qildim, menga jafo qilishdi
Va olam ahlin boshdan oyoq imtixon qildim*

Bu baytdagi ma'no boshqa shoirlar, yozuvchilar asarlarida uchratishimiz mumkin, yoinki o'zimizning boshimizdan bunday hodisa o'tgan. Amiriy ham bundan mustasno emas. Chunonchi Amiriy hayotida ham inson sifatida ham podshoh sifatida davlat ishlarida ko'plarga yaxshilik qildi lekin ular buni aksi bilan javob berishdi. Shu sabab Amiriyni o'z tili bilan aytgan holda hammani imtixon qildi deyishimiz mumkin.

*Lashkaru nafsu havoyu hirs tug'yon ayladi
Jur'atim shulkim, alar birla qiron ettim, Amir*

*Nafsi havoyi, hirs bosh ko'tardi
Ular bilan jang qilishda o'zimda jur'at topdim*

Yuqoridagi bayt g'azalning shogbaytlaridan biridir. Shu ikki misrani Amiriyning shiorlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Amiriy jur'atliligi bois o'z nafsi va hirsila kurashishga kuch topa olgan. Bir mamlakat amiri bo'la turib ko'ngliga kelgan barcha ishlarni qilavermagan, nafsi yo'lida turli xil adolatsizliklar qilmagan.

*Baski, ko'rguzdim ulusg'a mehribonliq shevasin
Barcha olamni uzumg'a mehribon ettim, Amir*

*Xalqqa mehribonlik bilan muomala qildim
Shu tariqa olam ahlini o'zimga mehribon ettim*

Baytda Amiriy xalqqa farovonlik osoyishtalik va adolat orqali mehribonlik qilgani va shu tariqa xalq unga mehribonlik yaniki adolatparvar shoh sifatida qarashiga erishganligini anglash mumkin.

*Garchi buldum zohir elni shod etorg'a gul kabi
Lek pinhon g'unchadek bag'rimni qon ettim, Amir*

*Garchi tashqi holim bilan gul kabi elni shod qildim
Lek mening ichim g'unchadek qon edi.*

Yuqoridagi bayt Amiriyning aslida qanday hayot kechirgani ifodalab kelgan. Baytda zimdan ommaga murojat qiladi, ya'niki men tashqi ko'rinishim holim bilan ochilgan gulag o'xshasamda mening yurak bag'rim g'uncha yaproqlari kabi qavat-qavat laxta qondan ibortatdir. Tarixiy asarlarga murojat

qiladigan bo‘lsak Amiriy akasi Olimxon va jiyani Shohruxning vafot etishida o‘zini aybdor sanaydi va umrini oxirigacha o‘zini kechira olmaydi.

*Lamayi shamshiri himmatdur safobaxshi jahon
Lojaram elga bu javharni ayon ettim, Amir*

*Himmat shamshirining tovlanishi ila jahonga yorug‘lik berdim
Shuning uchun bu javharni elga oshkor ettim*

Amiriy davlat ishlarida nafaqat davlat ishlarida balki butun hayoti davomida himmatli bo‘lganligi va himmat orqali olamga yorug‘lik baxs etgani va hammaga himmatli bo‘lish kerakligini aytgan desak adashmaymiz. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Agarda Amiriy haqida hech bir ma‘lumot bo‘lmaganda va faqat “Amir” radifli g‘azal bo‘lganda ham biz Amiriy shaxsini tula va mufassal gavdalanitira olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po‘latjon domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). – Toshkent: O‘z RFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. 713 bet.
2. Qayyumov P. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. 377 bet.
3. Qayyumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – Toshkent: FAN, 1961. 360 bet.
4. Amiriy. Devon (I jild, o‘zbekcha she‘rlar). –T.:Tamaddun, 2017. 451 bet.

NODIRANING “BO‘L MASUN” VA “AYLAR ORZU” RADIFLI TAZMIN G‘AZALLARI TAHLILI

**Mohigul DANABAYEVA,
JDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada atoqli shoira, mumtoz g‘azaliyot sohibasi Mohlaroyim – Nodiraning oshiqona “Bo‘l masun” va “Aylar orzu” radifli nazira g‘azallari tahlil etilib, oshiqona mazmunning, shoira ruhiy olamining badiiy talqini, lafziy-ma‘naviy san’atlarning g‘azal poetikasidagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: oshiqona g‘azal, nazira, radifli g‘azal, lirik qahramon, bayt, matla’, maqta’, qofiya, she‘riy san’atlar, tasavvuf ta‘limoti, diniy istiloh, islomiy aqida, ilohiy ishq.

Аннотация:

В данной статье анализируются газели известной поэтессы Мохлароим – Нодиры “Булмасун” и “Айлар орзу” исследуется романтическое содержание, поэтическая ялар интерпретация духовного мира, значение риторического и духовного искусства в поэтике газелей.

Ключевые слова: романтическая газель, назира, газель с редифом, лирический герой, стих, матла, макта, рифма, поэтическое искусство, мистическое учение, религиозная терминология, исламское вероучение, божественная любовь.

Annotation:

This article analyzes the romantic poems of the famous poet, the master of the classical ghazals Mohlaroyim - Nodira. Her lovely lyrics with radiif «Bo‘lmasun» and «Aylar orzu» has been studied as the amorous maintaince, an artistic interpretation of the spiritual world and the importance of verbal- spiritual arts in ghazal poetics.

Keywords: romantic ghazal, nazira, ghazal with radiif, lyrical hero, bayt, matla', maqta', rhyme, poetic arts, mystical teachings, religious terminology, Islamic creed, divine love .

Xonliklar davri adabiyotining yetuk taraqqiyida Qo‘qon adabiy muhiti har jihatdan yetuk ahamiyat kasb etgani holda uning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu muhitda ayol ijodkorlarning qalam tebratganidir. Nazarimizda, bu, avvalo, shoir va xon sifatida nom qozongan Amiriyning yuksak madaniyatiga bog‘liq bo‘lsa, ikkilamchi, bu borada malikayi zamon Mohlaroyim – Nodiraning ham ta’bi nazmi bilan aloqador. Shoiraga ustoz maqomida turgan Uvaysiy, Dilshodi Barno, Mahzuna kabilar fikrimizga dalildir. Ayniqsa, Qo‘qon adabiy muhitida shoiralar orasida har jihatdan: adabiy meros ko‘lami jihatidan ham, badiiyat nuqtayi nazaridan ham Nodiraning o‘rni beqiyosdir. Uning nazmi *“inson qalbini ilitadi, unda go‘zallik va nafosatga nisbatan muhabbat uyg‘otadi, aqli, xulqi va badiiy didini boyitadi. Shu ma’noda, uni pok muhabbat, sadoqat va vafodorlik kuychisi sifatida qadrlaymiz”* [1, 5]. Shoiraning ta’bi xud g‘azallaridan tashqari tazmin asarlarida ham uning asos g‘azal va uning mazmunini yangicha ruh bilan boyitgani va badiiy asar tilidan mahorat bilan foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Quyida uning xuddi shu yo‘sin yaratilgan ikki g‘azali: Navoiy va Fuzuliy g‘azallariga naziralarini tahlilga tortamiz:

Nodiraning *“Bo‘lmasun”* radifli g‘azali Navoiyning *“Yoridin hech kim meningdek zoru hayron o‘lmasun”* deb boshlanuvchi *“O‘lmasun”* radifli g‘azaliga nazira tarzida bitilgan. Alisher Navoiyning g‘azali *“oshiqona ruhda, oshiqning chekilgan jabr-u jafolardan hasrat va oshiqning o‘zgalarga pandi uning pafosini belgilaydi. Har kimning yori boshqa-boshqa emas. Zero, yor – yakka-yu yagona. Har kimning yori boshqa-boshqa emas. Ana shu nuqtayi nazardan yondashsak, Navoiyning talqinicha, bu tengsiz yor ishqida hech kim men kabi zor va hijronzada bo‘lmasin”* [1, 4], men ishqim haqida har qancha aytib, ovorayi sarson bo‘lsam bo‘lay, ammo uning nomi har kimning tiliga tushavermasin, deya yor, ya’ni Allohning nomini tilga olishdan avval tahorat yangilab, so‘ngra zikr etilganligi haqidagi naql yodga tushadi. Nodiraning mazkur g‘azalida ham ishq dardiga muhtalo bo‘lgan oshiq sevikli yorisiz bir zum ham o‘zini mavjudlikda his qila olmaydi.

Shoiraning ushbu g‘azali jami 5 bayt, ya’ni 10 misradan iborat. Baytlarning qofiyalanish tartibi: a-a, b-a, d-a, e-a, f-a tarzida. Qofiyadosh so‘zlar: “*xurram*”, “*odam*”, “*bardam*”, “*musallam*”, “*xam*”, “*kam*”. “M” tovushi – raviy.

*Sensizin olam bahori sabzu xurram bo‘lmasin,
Qaysi olam, balki olam ichra odam bo‘lmasin.*

Matla’da shunday mazmun bor: sensiz men uchun bu bahoriy go‘zalliklar ham, butun olam va undagi jamiki odamlar ham ko‘zimga ko‘rinmaydi. Sen yo‘q ekansan, ularning men uchun hech qanday ahamiyati ham yo‘q, degan ma’no kelib chiqadi. Bunda haqiqiy oshiq faqatgina o‘z yori bilan birga bo‘lsagina o‘zini baxtiyor sezadi, usiz oshiqqa bu dunyolarning keragi yo‘q. Sensizlikda olamni yashillikka burkovchi bahor fasli ham shod bo‘lmasin, nainki olam, balki odam ham bo‘lmasin.

*Bulbula gulzorsiz ermas tamannoi navo,
Fursate changu navo bir lahza bardam bo‘lmasin.*

Ikkinchi baytda oshiq o‘zini bulbulga qiyoslab, so‘fiyona ma’noda gulzor bu – yorning, ya’ni Allohning ishq bilan yashnagan oshiq ko‘ngli bo‘lsa, uning fikricha, bulbulga gulzorsiz kuylash istagi amalga oshmaganidek, yor (gulzor)siz bulbul kabi shodmonlikda baxtdan sarmast xonish qilish, ya’niki bu hayot go‘zalliklaridan huzurlanish ko‘ngliga sig‘maydi, bunday paytda changdan taraluvchi navo ham u qadar yoqimli emas. Lirik qahramon nazarida, har qanday quloqqa xush yoquvchi ohanglar ham yorsiz unga hech biri tatimaydi. Bulbul gulzorsiz kuylashni orzu qilmaganidek, bunday vaqtda chang (musiqa asbobi) va undan yaraluvchi navo bir lahza quloqqa xush yoquvchi bo‘la olmaydi.

*Davri lutfu ra’yati iqbol sendin o‘zgag‘a
Gardishi davron aro bo‘yla musallam bo‘lmasin.*

Uchinchi baytda oshiq lirik qahramon yaxshilik ulashuvchi zamonda iqbol bayrog‘i, ya’ni baxtning eng go‘zali butun olam ichra faqat senga nasib qilsin, sendan o‘zgaga ma’qul ko‘rilmasin, deya sevgan yoriga dunyodagi eng chiroyli, hech kim, hatto o‘zi yetmagan baxtni tilamoqda. Bu bayt orqali inson chin sevgi ko‘yida suyuklisi uchun har narsaga tayyor turishi, unga bu hayotdagi eng yaxshilarini ilinuvchi ekanligini isbotlamoqda. Tasavvufiy g‘azallarda, odatda, yor timsoli doim eng go‘zal, har jihatdan mukammal va benuqson ko‘rinishda ta’riflanadi. Demakki, bu kabi xislatlar yolg‘iz Allohgagina xos. Yaxshiliklar vaqtida iqbol bayrog‘i butun olam aro sendan boshqaga noil bo‘lmasin, deya niyat bildiradi u.

*Sendin oldi gardani taslim sarafrozliq,
O‘zgalarg‘a gardani taslimimiz xam bo‘lmasin.*

To‘rtinchi baytda islomiy aqidalarga ko‘ra, ibodat vaqtida inson gavdasining egilib sajdaga bosh qo‘yishi, Allohga iymon keltirishi va o‘zining bu qilayotgan ezgu amali barobarida o‘zini ham ruhan yengil sezib, baxtiyorlikni his qilishi haqida gap ketmoqda. Oshiq nazdida, biz yolg‘iz Alloh, ya’ni faqatgina Sening qarshingda egilishni ma’qul topdik, senga bo‘ysundik, iymon keltirdik, sendan o‘zgalar oldida boshimiz egilmasin, deya o‘zini sadoqatli oshiq – majozan esa e’tiqodda sobit turuvchi muslim kabi ta’riflamoqda. Taslim bo‘lgan gardan, ya’ni

bo‘yin, umuman gavda ham baxtiyorlikni sendan o‘rgandi. Shunday ekan, bu gavdamiz sendan boshqalar oldida egilib, xam bo‘lmasin.

*Komila, to sarvdur sarsabz bu gulzor aro,
Boshimizdin naxli qadding soyasi kam bo‘lmasin.*

Va nihoyat g‘azalning maqta’ qismida shoira o‘ziga murojaat etish asnosida “Komila” ismdan tashqari kichik harf bilan yozilsa, “kom ila”, ya’ni “umid bilan” degan ma’noda bu Yorga qarata: men bu gulzor (ko‘ngilning ishqdan yashnashi) aro yashnab turgan sarvman, mening bu darajaga yetishim bevosita senga, sening ko‘rsatadigan iltifotlaring bilan bog‘liq. Shunday ekan, boshimizdan sening niholi qadding kam bo‘lmasin. Bu yerda Yor, ya’ni Alloh nazar qilsagina insonning bu dunyoda kamolotga erishuvi, o‘zgalar tomonidan ehtiromga loyiq ko‘rilishi va boshqalar tomonidan e’tirof etilishi nazarda tutilmoqda. Komila toki bu gulzor aro yashnab turgan yam-yashil sarvdir, biroq boshimizdan sening niholday qaddingning soyasi kam bo‘lmasin.

Nodira mazkur tazmin g‘azalda badiiy san’atlarni mohirlik bilan istifoda etgan. Jumladan, g‘azalning birinchi baytida “*olam bahori*” – tashbeh, “*olam bahorining sabzu xurram bo‘lishi*” esa tashxis, shuningdek, “*qaysi olam, balki olam ichra odam bo‘lmasin*” deya ruju’ san’atini yuzaga keltirgan. Ikkinchi baytdagi “*bulbul*”, “*gulzor*” va “*navo*” so‘zlari – tanosub, “*navo*” so‘zining har ikki misrada takrori natijasida takrir san’ati namoyon bo‘lgan. Uchinchi baytdagi “*ra’yati iqbol*” – tashbeh, to‘rtinchi baytdagi “*gardan*” va “*taslim*” so‘zlari takrir, “*sen*” va “*o‘zga*” so‘zlari bevosita matniy tazod san’atini hosil qilmoqda. Beshinchi baytning birinchi misrasida lirik qahramonning “*gulzor aro sarv*” daraxtiga o‘xshatilishi tashbeh, “*naxl qad*” so‘z birikmasi orqali istiora, “*sarv*”, “*gulzor*”, “*sarsabz*”, “*naxl*”, “*soya*” so‘zlari asosida tanosub san’atidan foydalanilgan.

Nodiraning “*Aylar orzu*” radifli g‘azali Fuzuliy g‘azaliga nazira tarzida bitilgan bo‘lib, u 7 baytdan iborat. G‘azalning har bir bayti oxirida “*aylar orzu*”, ya’ni yoyiq radif qo‘llangan. Qofiyadosh so‘zlar “*gulzoring*”, “*shakkarboring*”, “*bemoring*”, “*raftoring*”, “*ruxsoring*”, “*gulnoring*” kabilardir. Mutlaq qofiyaga ega. Qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi r tovushi raviy bo‘lib kelgan, o tovushi ridf, ta’sisli ridf, i tovushi esa vasl harf hisoblanadi. uchinchi va beshinchi baytdagi misralar boshiga siljigan qofiyadosh so‘zlarni ham uchratishimiz mumkin: “*Lol bo‘lmay*”, “*xok bo‘lmay*”, “*To‘kmayin*”, “*yutmayin*”.

Shoiraning ushbu g‘azali oshiqona mavzuda bitilgan bo‘lib, tasavvuf ta’limotidagi ilohiy ishq tarannum etilgan. G‘azalda oshiq (lirik qahramon)ning o‘z yori (Alloh, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom, komil inson) ta’rifi, uning vasliga yetishmoq orzusida yashayotgani, ya’ni insonning Allohga bo‘lgan ishq tasviri berilgan.

*Bulbuli dil g‘unchayi gulzoring aylar orzu,
To‘tii jon la‘li shakkarboring aylar orzu.*

Matla’da “*jon qushi*” ko‘ngil ma’nosida kelgan. “*Ko‘ngil*” istilohi tasavvuf adabiyotida “*Allohning inson bag‘ridagi uyi*” deya ta’riflanadi, *gulzor* esa ko‘ngilning ilohiy muhabbatdan yashnashi, *lab* – komil va orif kishining, haqiqiy yor (Alloh)ning kalomi, ko‘rsatmalari, purma’no so‘zlari. Demak, lirik qahramon

dil bulbuli o‘z yori gulzoridagi bog‘ni orzu qilganidek, jon qushi yorning kalomi, shirin so‘zlarini eshitish orzusida. Shundagina uning qalbi suyukli yor, ya‘ni Allohning ishq bilan to‘yinib, ilohiy muhabbatdan yashnaydi.

*Kim qilur umid qon yutmay labingni sharbatin,
O‘lmayin, kim nargisi bemoring aylar orzu.*

Ikkinchi bayt orqali shoira lirik qahramon misolida suyukli yor – Alloh vasliga yetish uchun odamzodning bu dunyodagi qiyinchiliklarga bardosh berishi, mashaqqatlar chekib, bu yo‘lda hattoki qon yutib, yor ishqida o‘lmasdan oldin uning bemori bo‘lishni orzu qiladi, Unga yetishmoq istagi bilan yashashga undaydi.

*Lol bo‘lmay, kim takallum ayladi ko‘rgach seni,
Xok bo‘lmay, kim seni raftoring aylar orzu.*

Uchinchi baytda yor (Alloh) jamoli orzusidagi xoksor banda o‘ziga shu darajada quyi pog‘onani ravo ko‘rmoqdaki, ma‘shuqaning oyog‘i ostidagi tuproq bo‘lsa-yu, ul yor oshig‘iga marhamat ko‘rguzib, shu tuproq ustidan yurib o‘tsa, uning orzusi – shu. Inson ham o‘zini qancha xoksor tutsa, kamtar bo‘lsa, uning ishq yo‘lidagi harakatlari besamar ketmaydi, ya‘ni visol onlari shunchalar yaqinlashadi.

*Boqmag‘ay kavsar labida hurning ruxsorig‘a,
Kim labi la‘li mahi ruxsoring aylar orzu.*

To‘rtinchi bayt orqali insonning o‘tkinchi dunyo hoy-u havaslariga berilmasligi, kishini o‘ziga tortuvchi yaltiroq narsalarga hirs qo‘ymasligi, bu narsalardan o‘zini tiyish va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi yo‘lida sobitqadamlik bilan og‘ishmay harakat qilishi lozimligi haqida gap ketmoqda.

*To‘kmayin kim ashk topmas la‘li serobing seni,
Yutmayin qon kim ruhi gulnoring aylar orzu.*

Beshinchi baytning birinchi misrasida yor (Alloh) vasliga yetishishda oshiqning jisman yaqin bo‘lishi nazarda tutilsa, ikkinchi misrasida lirik qahramon uning botiniy go‘zalligi, butun jism-u joniga ham yetishmoqni, uni to‘la anglab yetmoqni orzu qilmoqda.

*Chehra o‘ldi za‘faroniy ishtiyoqi bodadin,
Soqiyo, ko‘nglum mayi gulzoring aylar orzu.*

Oltinchi baytdagi “boda” so‘zi asl ma‘nosida kishini mast qiluvchi ichimlik, tasavvuf adabiyotida esa *iymon* ma‘nosida talqin qilinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, oshiq yor vasliga yetishmoq istagida unga *iymon* keltirib, hatto o‘zini ham ayamadi, yuzlari sarg‘aydi va *Soqiy*, ya‘ni ma‘naviy ustoz, pirga murojaat qilib, ko‘ngli – Allohning inson bag‘ridagi uyi faqat O‘zigagina bo‘lgan pokiza ishq bilan qanoat hosil qilib, bu go‘zal ilohiy muhabbatdan bir umr yashnab yurajagini orzu qiladi.

*Foxta shamshod izlar, gul visoli andalib,
Komila miskin qadu ruxsoring aylar orzu.*

Maqta‘da shoira chiroyli o‘xshatishlar keltiradi. Masalan, qushlar orasida qumri o‘z sevgan daraxti shamshodga yoki bulbul o‘z sevgan guli visoliga intilgani, unga bog‘lanib qolgani kabi lirik qahramon ham ikkinchi misrada o‘ziga murojaat qiladi (Nodira o‘zbekcha she‘rlarida Komila taxallusini ham qo‘llaydi,

jumladan, 19 ta she'ri shu taxallus bilan yozilgan. Bu yerda komil, yetuk, har jihatdan mukammallikka intilgan inson ma'nosida bo'lishi ham mumkin). O'zini yorning ko'yida ojiza, notavon hisoblab, uning butun bo'y-bastiga erishmoqlikni, shundagina haqiqiy ishqqa yetishmoqni orzu qilmoqda.

Mazkur g'azalda ma'naviy va lafziy san'at turlaridan ham ayrim namunalarni uchratamiz. Masalan, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi baytlarda shoira tajohuli orifona san'atidan mahorat bilan foydalangan: "kim" so'roq olmoshi yordamida so'roq ohangi va ritorik so'roq gapni hosil qila olgan. Tasavvuf adabiyotiga oid atamalar: "ko'ngil", "may", "boda", "soqiy", "gulzor", "lab" kabilar. Shuningdek, diniy istilohlar: "kavsar", "foxta", "shamshod", "hur" kabi so'zlar: "gul", "bulbul", "g'uncha", "gulzor" so'zlari tanosub san'atini yuzaga chiqargan. Ikkinchi, uchinchi va beshinchi baytlardagi "kim" so'zi, to'rtinchi baytdagi "ruxsor" va "lab" so'zi, uchinchi baytdagi "seni" so'zi ikki martadan takrorlanib, takrir san'atini keltirib chiqargan. To'rtinchi baytdagi "lab" so'zi ham ikki marta qo'llangan bo'lib, birinchi misrasida "hovuzning labi", ikkinchi misrasida inson yuzidagi a'zosi – labi ma'nosida kelgan va tajnis san'ati namunasini yarata olgan. "La'li serobing" va "la'li shakkarboring" – istiora, oltinchi misradagi "Soqiyo" murojaati nido, oxirgi – maqta' qismidagi bayt husni ta'lil san'ati namunasidir.

Muxtasar qilib aytganda, benazir shoira Nodiraning yuqorida tahlil etganimiz – ikki nazira g'azali uning yuksak badiiy nafosati, chuqur ma'no-mohiyati va diniy va dunyoviy mazmunning mustahkam ichki uyg'unligi bilan adabiyot muhoblari uchun qadrlil va sevimlidir. Zero, shoira ijodi, xususan, g'azaliyoti o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk namunalari sifatida doim diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nodira – Komila. Devon (*Tuzuvchi-muallif: M. Qodirova*). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. –352 bet.
2. Mumtoz asarlar lug'ati, –Toshkent: "Akademnashr", 2019.
3. <https://kh-davron.uz> Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. 4 jildlik – Xurshid davron kutubxonasi.
4. <https://kh-davron.uz> / Alisher Navoiy. O'lmasun. Alisher Navoiy g'azallariga sharhlar.
5. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

AMIRIY IJODIDA TALMEH SAN'ATI

Muxtasar MUSAYEVA,
Qo'qon DPI talabasi
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada talmeh san'ati va uning ko'rinishlari, Amiriy she'riyatida tutga o'rni, shoir ijodida talmeh san'atining an'ana va o'ziga xos tomonlarini yoritishga harakat qilingan. Keltirilgan fikrlar misollar asosida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: talmeh, nazm, nasr, tarixiy voqealar, afsona, qissa, sheʼr, masal, maqol, adabiyot.

Аннотация:

Данная статья призвана пролить свет на искусство талме и его проявления, его место в поэзии Амира, а также традиции и особенности искусства талме в творчестве поэта. Были предприняты попытки проиллюстрировать сделанные выводы на основе примеров.

Ключевые слова: талме, назм, проза, исторические события, легенда, новелла, поэма, притча, пословица, литература.

Annotation:

This article seeks to shed light on the art of talmeh and its manifestations, its place in Amir's poetry, and the traditions and peculiarities of the art of talmeh in the poet's work. Attempts have been made to illustrate the points made on the basis of examples.

Keywords: talmeh, nazm, prose, historical events, legend, short story, poem, parable, proverb, literature.

Talmeh – lugʻaviy maʼnosi arabcha “chaqmoq chaqishi”, “bir nazar tashlash” degan maʼnolarni anglatadi. Istilohiy maʼnoda – nazm yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, qissalar, sheʼr, masal yoxud maqollarga ishora qilishga asoslangan sheʼriy sanʼat [1.270]. “Al-moʻjam fi maʼoir-ul-ashor-ul-Ajam” asarida: “Shoir ozgina soʻz bilan koʻp maʼnoni ifodalasa, ana shunga talmeh deyiladi. Bu sanʼat balogʻat egalari nazarida itnob(gapni choʻzish) dan koʻra maqbulroq,”-deb aytib oʻtilsa, “Ilmi bade dar zaboni forsiy”da quyidagicha taʼrif beriladi:” Talmeh shuki, soʻzlovchi(yaʼni yozuvchi, bayon qiluvchi) nazm yoki nasrda oʻz matlabining isboti uchun mashhur qissaga yo oyatga, yo hadisga, yo maʼlum masal va shu kabilarga ishorat qiladi. Sheʼrda baʼzi ilmiy istilohlarni ishlatishni ham sanʼat doirasiga kiritganlar, ”- deya maʼlumot beriladi [2.69].

Bir soʻz bilan aytganda, talmeh - ijodkorga bir ishora orqali chuqur maʼno ifodalash, butun bir kitobga jo boʻladigan fikrni bir baytda ayta olish imkonini beruvchi, mumtoz sheʼriyatda keng qoʻllanilgan maʼnaviy sanʼat. Lugʻaviy maʼnosidan kelib chiqib aytadigan boʻlsak, chaqmoq chaqqan paytda qorongʻu osmon yorishib, barcha narsalar koʻzga yaqqol tashlangani kabi talmeh orqali ham aytilmoqchi boʻlgan fikr yanada yaqqol koʻzga tashlanadi, quvvatlanadi. Fikrni aniq va jonli ifodalashga yordam beradi.

Talmeh uch koʻrinishda namoyon boʻladi: a) ejoz; b) musovat; d) bast.

Ejoz - oz soʻz bilan koʻp maʼnoni ifodalash. Musovatda soʻz va maʼno teng. Bast esa maʼnoni koʻp soʻz bilan ifodalash. Istiora va tashbeh ejoz jumlasidan boʻlib, ortiqcha bayon va shubhani bartaraf etish uchun batafsil maʼlumot keltirish bilan bogʻliq sanʼat bast hisoblanadi. Bulardan eng koʻp qoʻllaniladigani – ejoz [3.68].

Talmeh oʻz ichida nimani ifodalab kelishiga koʻra bir necha guruhlar: joy nomlari talmehi, mashhur asar qahramonlari talmehi, paygʻambarlar talmehi, mamlakatlar talmehi, osmon jismlari talmehi, tarixiy shaxslar va voqealarga ishora qiluvchi talmehlar va boshqalarga boʻlish mumkin. Buni Amiriyning turkiy devoni tarkibidagi talmehlar misolida koʻrib chiqamiz.

Devonda 318 ta g'azal, 39 ta turli muxammaslar, 2 ta musaddas, 2 musaddasi tarje'band va 16 tuyuq o'rin olgan. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, devonda talmehlar o'rni erkin. Amiriy goh matla goh maqtada ham o'z talmehini baytga ustalik bilan joylashtiradi. Mumtoz she'riyatda biz ko'proq begona baytda talmeh kelishini kuzatamiz. Devonda ba'zi bir tuyuqlarda ham talmehli.

T/r	Talmehlar guruhi	Talmehlar nomi	O'rni	Variantdosh holatlar
1	Payg'ambarlar	Iso a.s	38	19 o'rinda Masih, 2 o'rinda Isiy, 14 o'rinda Masiho
		Xizr a.s	29	-
		Yusuf a.s	19	1o'rinda Yusufi misriy, 5 o'rinda Yusufi Ka'non
		Sulaymon a.s	9	-
		Idris a.s	1	-
		Ya'qub a.s	1	-
		Jabroil a.s	1	-
2	Farishtalar nomlari			-
3	Podsholar	Jamshid	17	5 o'rinda Jam, 5o'rinda Jomi Jam
		Iskandar	21	7 o'rinda Sikandar
		Doro	10	
		Xoqon	7	-
		Fag'fur	5	-
		Qaysar	4	-
		Faridun	2	1 o'rinda Afridun
		No'shervon (Anushervon)	1	-
		A.Temur	1	-
		Chingizxon	1	-
		Qubod	1	-

		Majnun	76	2 o‘rinda Qays
4	Asar qahramonlari	Layli	23	2o‘rinda Laylo
		Farhod	45	4 o‘rinda Ko‘hkan
		Shirin	11	-
		Vomiq	7	-
		Xusrav	4	1 o‘rinda Parviz
		Bahrom	1	-
		Uzro	1	-
		Chin	20	-
5	Mamlakat va joy nomlari	Xito	13	-
		Xo‘tan	13	-
		Rum	10	-
		Badaxshon	5	-
		Kashmir	2	-
		Totor	5	-
		Misr	5	-
		Mochin	3	-
		Halab	3	-
		Shohimardon	2	-
		Farangiston	2	-
		Karbalo	2	-
		Hindiston	2	1 o‘rinda Hind
		Sabzavor	1	-
		Bobil	1	-
		Yaman	1	-
Turon	1	-		
Xuroson	1	-		

		Iroq	1	-
		Isfahon	3	1 o‘rinda Sifahon
		Nahovand	2	-
		Ajam	1	-
		Arab	1	-
		Ayman	1	-
		Kobul	1	-
		Xo‘jand	1	-
		Shom	1	-
		Bangola	1	-
		Xaybar	1	-
		Sidra	1	-
		Gurjiston	1	-
		Farg‘ona	1	-
		Turkiston	1	-
		Adan	1	-
		Mozondaron	1	-
		Tabriz	1	-
		Buxor(o)	1	-
		Mansur	3	-
6	Tarixiy shaxslar	Navoiy	1	-
		Fuzuliy	1	-
		Lutfiy	1	-
		Aflotun		-
		Kayxusrav	1	-
		Sulton Sutuqi Bug‘roxon	1	-
		Ravnaqi Mirzo	1	-

		Mushtariy	5	-
7	Osmon jismlari	Zuhra	1	
		Surayyo	2	-
		Utorud	1	-
		Shams	1	-
8	Diniy talmehlar	Ka'ba	5	-
		Bog'i Iram	4	-
		Arofat	1	-
		Kavsar suvi	3	-
		Zulayho	2	-
		Axraman	2	-
		Rizvon	2	-
		Bilqis	1	-
		Xorut	1	-
		Bilol	1	-
		Amru Zayd	1	-
		Arsh	1	-
		Ismi A'zam	1	-
		Barahman	1	-
		Jinon	1	-
		Vays ul- Qaran	1	-
		Qurbon hayit	1	-
		Firdavs	1	-
		Anqo	1	-
9	Tog' nomlari	Ko'hi tur	1	-
		Besutun	1	-
10	Daryo nomlari	Jayxun	1	-

		Sayxun	1	-
		Qulzum	1	-
		Mahmudi ayoz	1	
11	Shaxs nomlari	Hotam	1	-
		Xudo(y)dod	1	-
		Sanjar	1	
		Rost	1	-
12	Kuy nomlari	Ushshoq	1	-
		Navo	1	-
		Rok	1	-
		Shamsiya	1	-
13	Kitob nomlari	Sharhi mullo	1	-

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan jadvalda Amiriy devonida qo‘llangan talmehnlarni guruhlashtirilgan holda berib o‘tdik. Keyingi ishlarimizda barcha talmehnlarni qamrab olib, birma-bir tahlil qilish niyatimiz bor. Bu maqola doirasida eng ko‘p qollanilgan – Majnun obraziga to‘xtalamiz.

Majnun – fors va turkiy adabiyotda keng tarqalgan romantik doston qahramoni. Majnun obrazi o‘zi sevgan va yetisha olmagan qiz Layli bilan birgalikda badiiy adabiyotda uchraydi. Dastlab, bu qahramonlar Firdavfsiyning “Shohnoma” asrida uchraydi. Keyinchalik, Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” dostonida, Navoiyning shu nomdagi dostonida uchraydi. Bu obrazlarga yana ko‘plab shoirlar murojaat qilgan. Navoiyning “Xamsa”sida Qays ibn al-Mulavvo ismli arab yigitining Layli ismli qiz bilan ishqiy munosabatlari yoritiladi. “Layli va Majnun” turkumidagi dostonlar xalq og‘zaki ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmagan. Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she’r va shuaro”, Abul Faroj al-Isfahoniyning “Kitob ul-ag‘oni” asarida Layli va Majnun tarixiy shaxslar deb qaraladi. Boshqa manbalar buni inkor etadi. Majnun o‘z qabiladoshi Layli ismli qizga oshiq bo‘ladi, lekin yetisha olmagach, sevgisi va hijron alamlarini kuylab qayg‘uli she’rlar bitgan.

Tasavvuf adabiyotida Majnun obrazi - Layli qiyofasida Alloh go‘zalligini ko‘rgan, ma’naviy ishq sohibi, tug‘ma oshiq. Bilamizki, tasavvuf vakillari haqiqiy ishq Allohga bo‘ladi, oshiq yori timsolida bu go‘zallikni yaratgan ul Zotga oshiq bo‘ladi, deb hisoblashadi va Majnun shunday ishq sohibi. Ammo yaqinlari, ya’ni Haqdan bexabar kishilar uning muhabbatini tushunmaydilar. U ishqidan voz kechishdan ko‘ra darbadar sahro kezishni afzal ko‘radi va shunday qiladi ham. Bu oddiy dasht emas - fano ya’ni yo‘qlik dashti, nafs dashti, oshiqning o‘z

mashuqasiga yetishish yo'lida bosib o'tadigan bir yo'l edi. Badiiy adabiyotda aynan ishqqa sadoqati, pok muhabbati va tug'ma oshiqligiga alohida urg'u beriladi. Biz tubanda Amiriyning bu obrazga nima uchun murojaat qilgani va unga qanday ma'nolarni singdirgani, qay maqsadda qo'llagani-yu buni qay darajada uddasidan chiqqanini ko'rib o'tamiz.

*Muhabbat vodiysida men kabi Farhod ila Majnun,
Balo tog'ida, g'am dashtida qolg'on zorlardurlar. [4.90]*

Baytning nasriy bayoni: Muhabbat vodiysida Farhod bilan Majnun balo tog'ida, g'am dashtida qolgan zorlardir.

Ko'ngliga ishq uchquni tushgan har bir inson – muhabbat vodiysi fuqarolaridir. Bu vodiya har kimning o'z vazifasi – topshirig'i bor. Kimdir balo tog'ini parchalashi, kimdir esa g'am dashtini kezib chiqishi lozim. Shundagina oliy mukofot – mashuqa jamoliga yetishish mumkin. Amiriy mazmunni ajoyib o'zanga solidi. Go'yoki, Amiriy bu vodiyning azaliy fuqarosi, Farhod va Majnun esa bu vodiya u kabi kelib qolgan oshiqlar ekan.

*Va'dalar aylab, agarchi qilmading birga vafo,
Lek bu Majnun burung'i ahdu paymonidadur. [4.96]*

Nasriy bayoni: Agarchi va'dalar qilib, biriga vafo qilmading. Lekin bu Majnun avvalgi ahd-u paymonidadir.

Bu baytda Majnun shoirning o'ziga ko'chadi. Ko'ramizki, va'da bu yerda ko'plikda, vafo birlikda. Demak, ko'p va'dalar berilgan, ammo biriga ham vafo qilinmagan. Sharq she'riyatida mashuqa va'dada turmasligi bilan, oshiq esa vafodorligi bilan mashhur. Amiriy yoriga murojaat qilar ekan, garchi sen va'dangga bir bor vafo qilmagan bo'lsang-da, men hali ham avvalgi ahd-u paymonga sodiqman, deya zorlanadi. Yoridan vafo kutadi. Mashuqaning muruvvatidan esa darak yo'q.

*Garchi Majnun olam ichra ishqda afsonadur,
Ko'rsa guldek orazing, Laylini dildorim demas. [4.125]*

Bayt sof oshiqona. Mahbubasiga murojaat qilar ekan, ishq ahli ichra garchi Majnunning o'z muhabbati va mashuqasiga sodiqligi madh etiladi, lekin sening gul kabi go'zal yuzingni ko'rsa, Laylini dildorim demagan bo'lar edi, deydi. Baytda so'fiyona mazmun ham singdirilgan. Chindan-da, Alloh go'zalligi oldida dunyodagi har qanday go'zallik hech.

*Ishq vodiysi bag'oyat muhlik ermish, ey rafiq,
Kezgoni bu dashtni Majnuni beparvo kerak. [4.176]*

Nasriy bayoni: Ey do'st, ishq vodiysi juda halokatlidir. Bu dashtni kezgani Majnuni beparvo kerak.

Chindan ham oshiq uchun ishq vodiysi halokatli. "Oliy maqsad"ga erishish uchun juda ko'p to'siqlarni yengib o'tmoq kerak. Qanchadan-qancha yo'qotishlar beriladi, nimalardir boy beriladi. Bularning barchasi chin oshiqlar uchun. Soxta sevgi egalari oshiqlar deb atalmaydi. Ular bu vodiya daxldor emaslar.

Keltirilgan ushbu bayt ham sof tasavvufiy g'oyalarga yo'g'rilgan. Majnunning bu o'rinda boshqa bir xislati – sabri aks etgan. Beparvolik bu yerda loqaydlik emas, aksincha, azob va turli xorliklarga chidash berish ma'nosida kelgan. Majnun singari to'siqlarni mardonavor yengish kerakligiga ishora bor.

*Manu ovora Majnun hajr vodiysida yor erduk,
Ul o'z Laylosini yod etti, man yorimni sog'indim. [4.235]*

Yuqoridagi baytlarda Amiriy Majnun deya o'zini ataganini ko'rgan edik. Endigi misralarda U bilan hajr vodiysida do'st tutinib, o'z yorini yod etayotgani tasvirlanyapti. Bir qaraganda g'azalda botiniy muhabbat kuylanayotgandek ko'rinadi. Hajr bu – ayriliq. Majnun sevgilisi Laylidan ayrilib, uni yodi bilan ovunyapti, lirik qahramon esa o'z yorini so'g'inib oh-u zor chekyapti. Aslida esa Majnun Layli siymosida ko'rgan Allohni yod etmoqda. Jismi va ruhi bir bo'lgan qahramon ham chin go'zallik sohibini sog'ingan. Unga qaytish, u bilan uchrashish vaqtini kutmoqda.

Yana bir baytda Majnun lirik qahramonga chin oshiqligini olqishlab, tahsin o'qiydi:

*Balo dashtida Majnun aydi, ishq ichra sango so'z yo'q,
Bale Laylinasab nozofarin yoring erur ahsan. [4.261]*

Boshqa bir baytda esa junun dashtida ko'tarilgan qum bo'roni bo'ron emas, Majnun qadamlaridan chiqqan chach to'zon deya aytadi.

*Junun dashti aro har yon ko'rungon girdbod emas,
Bu Majnun po'yasining gardi sargardon quyun bo'ldi. [4.317]*

*Dema Majnun ila Farhod ishq ichra musallamdur,
Bihamdillahki, mandurman muhabbat xayli yaktosi. [4.331]*

Nasriy bayoni: Majnun va Farhod ishq ichra ta'n olingan demagin, Allohga shukurki, men muhabbat guruhining o'xshashi, deydi.

*Xaridor o'lsa Majnun Laylig'a, man sanga oshiqman,
Ki, bordur ishq bozori aro har kimga bir bobo. [4.351]*

Ushbu baytda esa majoziy ishq kuylangan. Dunyodagi har bir narsa jufti bilan yaralgan. Majnun Laylining oshig'i, men esa senga xaridorman.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, Amiriy ijodi bilan tanishar ekanmiz shoirning so'z qo'llash mahorati, badiiy san'atlardan ustalik bilan foydalanish, aytilmoqchi bo'lgan fikrni dalillar bilan isbotlashdagi mahoratini ko'rib o'tdik. Har bir jumladagi ma'no nozikliklariga alohida e'tibor qaratgan. Talmehnlarni o'z o'rnida va jo'yali qo'llay olgan. Bir talmehni turli ma'no nozikliklarida tovlantira olgan. Eng muhimi sodda, tushunarli, takrorlanmas usulda yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Yusupova. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. –T.:Akademnashr, 2020.
2. Y.Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi.
3. O'zMU. – Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005. –T harfi
4. Amiriy. Devon. – Toshkent:Tamaddun, 2017.
5. Navoiy asrlari izohli lug'ati. – Toshkent:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

QO'QON ADABIY MUHITIDA HUKMDOR SHOIRLARNING O'RNI
Buvixon TOSHPOLATOVA,
Qo'qon DPI talabasi
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan shoirlar, xususan hukmronlikni o‘z qo‘llariga minglar sulolasi vakillari orasida mavjud bo‘lgan ijodkorlarga to‘xtalangan. Ularning asarlaridan namunalar keltirilib, sharhlashga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, tarix, adabiyot, tazkira, she‘riyat, badiiyat, xrestomatiya.

Аннотация:

В данной статье речь пойдет о поэтах, выросших в литературной среде Коканда, в частности о творцах, правивших тысячами династий. Приводились образцы их работ и делались попытки их комментировать.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, история, литература, tazkira, поэзия, искусство, хрестоматия.

Annotation:

This article focuses on the poets who grew up in the literary environment of Kokand, in particular, the creators who ruled over thousands of dynasties. Samples of their works were cited and attempts were made to comment.

Keywords: Kokand literary environment, history, literature, tazkira, poetry, art, chrestomathy.

Adabiy muhit – ijodiy muhit. Muayyan joyda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta‘sirida yuzaga keladi. Adabiy muhit yuzaga kelishi uchun, eng avvalo, shoir va adiblarni bir joyga yig‘uvchi, muhitni qo‘llab-quvvatlovchi va uning rivoji uchun mas‘ul shaxs bo‘lishi kerak. Shu mas‘ul shaxs qolgan adiblarga o‘rnak bo‘lgani holda ijoddan yaxshigina xabardor bo‘lmog‘i zarur. Ana o‘shandagina vujudga kelajak adabiy muhit “vaqtinchalik” bo‘lib qolmasdan, yillar oshsa ham o‘z faoliyatidan to‘xtamaydi. Uning natijasida paydo bo‘lgan boy adabiy meros bo‘lajak avlodlarga ham yetib boradi.

Tarixchi Mirzo Olim Toshkandiy o‘zining “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” (“Sultonlar shajarasi va xoqonlar tarixi”) asarida shunday yozadi: “... Abdukarimxon shijoatlik, sipoh va fuqarog‘a shafqatlik, xudovandi taologa ibodatlik erdi. Xizmatig‘a eshon so‘fi Olloyor va domlo Olim Konibodomiy va domlo Vali Xo‘jandiy va Mashrabi devonayi Namangoniy kelib suhbat topib, necha ulum kashfliqig‘a olim va koshif bo‘lub, kamolot hosil qildi”. [1. 17-a, 18-b]

Toshkandiy keltirgan ma‘lumotlar Qo‘qon xonligidagi adabiy jarayonning vujudga kelishi Abdukarimbiy hukmronlik qilgan davrdan boshlanadi deyishimiz uchun dalil bo‘la oladi. Shunday ekan, XVIII asr boshidayoq kurtak yoza boshlagan bu jarayon XIX asr boshlariga kelib hukmdor Amir Umarxon davrida o‘zining eng gullagan va taraqqiy topgan davriga aylandi.

Qo‘qon adabiy muhiti vakillari va ularning ijodlari haqida bizga xabar beruvchi kitoblardan biri bu Po‘latjon Domullo Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” asaridir. Ushbu tazkirani o‘qish jarayonida Qo‘qondagi ijodiy jarayon qatnashchilarini diqqat bilan o‘qir ekanmiz, Amiriy boshchiligidagi ijodkorlarning ijod mahsullari bilan yaqindan tanishamiz. Agar e‘tibor berib o‘qisak, tazkirada keltirilgan shoir va adiblar nafaqat saroy shoirlari, balki oddiy xalq ichidan ham,

hunarmand-kosiblar orasidan ham ijod bilan shug‘ullanib, yozgan asarlari bilan xon Umarxon nazariga tushganlari kam emas.

Ham davlat boshqaruvini, ham ijodni birdek olib borib, bir qancha she‘rlar bitgan hukmdor shoirlar Qo‘qon adabiy muhitida salmoqli o‘rinni egallaydi. Bunday hukmdor shoirlar qatorining eng boshiga izohlarsiz hukmdor Umarxonni qo‘yamiz. Amiriyning boy adabiy merosi hamda o‘zining davrida yuksalgan adabiy jarayon vakillariga homiylik qilgani ko‘pchiligimizga ayon. “Tazkirayi Qayyumiy”da Amiriyning shoir ma‘rifatparvarligi sifatida qilgan ishlari haqida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari bir necha hukmdor shoirlar haqida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Xususan, Xon taxallusi bilan ijod qilgan Umarxon va Nodiradek ikki buyuk siymolarning farzandi Muhammad Ali bo‘lib, Umarxonning katta o‘g‘lidir.

Muhammad Alixon “Xon”ning adabiy merosiga hozirgi adabiyotshunoslik biro z befarq qarab keldi. Uning she‘rlaridan namunalar Ozod Sharofiddinovning “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”da (T.1945) va Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy“ kitobida (T.1998) bosilgan xolos. 1998-yili Qo‘qondagi ilmiy anjumanda Aftondil Erkinov Xon ijodiy merosi to‘g‘risida doklad bilan chiqdi. Ammo bu ish o‘z davomini topmadi. [2. 236]

Po‘latjon Domullo Qayyumiy Madalixon tog‘risida tazkirada ijodi bilan bog‘liq quyidagilarni yozadi: “Bu shoir Fuzuliyga ergashib yozmishdur. Bu tubandagi g‘azal va muxammaslar Xonning tab‘idandur:

*Yuzu qadingga ermas bu chamanning sarv ra‘nosi
Suv hayvon chashmasiga bo‘lsa bil Isoning anfosi
Jununum har dam afzun o‘lsa ey, xush ahli ayb etmang
Ajab muhlik emasmu Olloh-Olloh ishq sahrosi
Qorarsa ro‘zg‘orim hajr shomidek tong ermaskim,
Qiy boqmas menga ul surma tortgan chashm shahlosi
Muzayyan aylagan aflok taxti sori boqsam kim,
Mukammal obi qasri zangoridur ul mahvashni ma‘vosi
Manga kim har zamon yuz qatla javringni ravo ko‘rma
Surrayodan oshar Xoningni ohi charx paymonasi” [3.170-171]*

*Bag‘rining qon o‘ldug‘un qabolardin so‘rung,
Ashkimni xunobasin ilgi xinolardin so‘rung.
Nakxati anbarshamim zulfi mushkafshonini,
Lahza-lahza kelturan bodi sabolardin so‘rung
Lola yanglig‘ bag‘rima har sori qo‘ymish dog‘lar,
Dog‘oni loladek bag‘ri qarolardin so‘rung.
Dam badam qonim dukub har lahza qurbon aylamak,
Tiyri mujgonin chekarni qoshi yolardin so‘rung.
Charxa chekkumdur fig‘on-u oh ishq shevasi,
Nozi istig‘no tariqin mahliqolardin so‘rung.
Zor ko‘nglim turrai totoriga band o‘ldug‘in,
Husn mulki tojin olg‘on podsholardin so‘rung.*

*Dedim ishqin oshkor etma har begonag'a,
Ishq avtorini Xondek oshnolardin so'rung.*

Madalixon qalamiga mansub yangi tabdil qilingan ushbu g'azal an'anaviy 7 baytdan iborat. Mavzu ko'lamiga ko'ra oshiqona g'azallar sirasiga kiradi. Radifi – so'rung. Qofiydosh so'zlari *qabolardin, xinolardin, sabolardin, qarolardin, yolardin, mahliqolardin, podsholardin, oshnolardin*. Qofiyasi – mutlaq qofiya. Raviy tovush – o.

Shoir qanchalar mahorat bilan g'azal bitganini bir necha baytlarni tahlil qilish bilan ko'rib o'tamiz. Eng, avvalo, g'azal matlasiga e'tibor bersak, shoir 1-baytda qonli ko'z yoshlarim xabarini qo'li xinolardan – xina qo'yganlardan so'rang. Ularning qo'llariga qo'ygan xinalarini qanchalik qizil bo'lib uchgan bo'lsa mening qon yoshim rangi ham xuddi o'shandek alvon. Ko'zimdan oqqan qon yoshlarim butun vujudimga tushdi, bag'rim ham qon. Bag'rimning qon bo'lganini qabolardimdan (qabo bu yerda erkaklarning uzun kiyimi) so'rang. Ular aytsin mening qanchalik azoblanganimni, qanchalik yor ko'yida ko'z yosh to'kkanimni demoqchi. Oshiq shunchalar yig'layaptiki, uning yoshlari qonga aylanyapti. Odatda, ko'z yoshlar rangsiz suyuqlikdan iborat bo'ladi, ammo judayam ko'p yig'lash natijasida ko'zdagi qon tomirlar yorilib shaffof rangli suyuqlik qon bilan belanib, ko'zdan ransiz suyuqlik emas qon oqa boshlaydi. Demak, oshiq haddan ortiq darajada ko'p yig'lagan, shuning uchun ham uning ko'zlaridan qon oqmoqda.

3-baytda ham shoir juda chiroyli o'xshatish qilgan. Ya'ni, ma'shuqa oshiqning bag'rini dog'layapti. Oshiq bag'ri xuddi lola singari bo'lib ketgan. Bilamizki, lolaning ichki o'rta qismi qora bo'ladi, xuddi o'shani bag'riga yor qo'ygan dog'ga muqoyasa qilmoqda. Bu dog'ni men kabi lola bag'irli, ya'ni yor ko'yida bag'ri qaro dog'li bo'lganlarda so'rang demoqda.

Shoir umuman har bir baytning 1-misrasida yor ishqida, uning hajrida qanday ahvolga tushayotganini bayon etib, 2 –misrada o'z holiga o'xshash boshqa o'rinlarni misol qilib keltirgani holda ana o'shalardan mening ahvolimni so'rang deya, ba'zi o'rinlarda o'zining holiga tushganlarni, ba'zi o'rinlarda o'sha holatda bo'lgan narsalarni kletirib o'tmoqda. Madalixon g'azalda o'z badiiy mahoratini ko'proq o'xshatish, mubolag'a kabi badiiy san'atlarda foydalangan holda namoyon etgan.

Keyingi ko'rib o'tadigan hukmdorimiz Xusrav II taxallusini qo'llagan ijodkor hukmdor Fansrullobekdur. "Bu shoir nomi Fansrullo bekdur. Farg'onaning sobiq xoni bo'lmish Xudoyorbek Sherali o'g'lining 16 o'g'lidan uchinchisidir. Ho'qand shahrida tug'ilsa ham, Toshkandda o'qib ilm-ma'rifat tehsil etmish va unda nash'u namo etmishdur. Bug'doy rangli, sog'lom vujudli kishi bo'lub, ilmi adabiyot, shaxmat va cholg'uda shoshmaqomning mashhur cholg'uchisi va kuychisi bazmi havas nafis san'atga ega bir kishi bo'lub ul bir she'rida bunday deydi:

*Xisravo ko'nglingni xush tut aysha mashg'ul o'l mudom
Chunki bu dunyo uyining oxiri vayronadur*

...Navoiyga ergashuvchi nuktaomez ash'orlari mavjuddir." [3.367-368]
Tazkirada shoir Muhyi bilan yozishmalar olib borilganli hamda Muhyiga atab bir qasida yozgani haqida ham ma'lumotlar beriladi. [3.370]

Yana bir o'rinda Xisrav II musiqa bobida ancha qobiliyatli ekanini Ho'qandlik mashhur maqomchi Shodmon hoji Toshkentga borib Xisravga mehmon bo'lagani haqida Shodmon hojining o'zi shunday aytadi: "... Asosiy maqomlardan turli tarmoqlarga boshlab ko'rdim, adashtira olmadim. To'xtab dam olib qaydan boshlasam shundan ketdi." [3.368] Bundan ko'rishimiz mumkinki, Fansrullo bek Xudoyorxon avlodlarining eng yetuk hukmdorlaridan biri sifatida ham siyosiy jarayonni, ham adabiy jarayonni, ham musiqa ilmini teng va mukammal olib borishga uringan.

Navbatdagi hukmdor shoirimiz Shahzoda taxallusi bilan ijod qilgan Nasriddinbek bo'lib, Andijonda hokim bo'lib turganida Andijon shayxulislomining adabiy-ilmiy tarbiyasida bo'lgani va adabiy ijodga o'rgatishda boshda Isfarali Mir Xudoyor, shoir Muhiy va Muntazirlar uning saroyida bo'lmishlari haqida "Tazkirayi Qayyumiy" ma'lumot beradi. Yana Mavlono Biymiyning debochasiga nazira bitgani haqida ham aytib o'tiladi. [3.390-391] U quyidagi edi:

*Ey mahvashi jon gudoz xunrez
Chashm qadamiga dur guhar rez
Oshiqlara aylagil tarahhum
Jon olmog'a qilmag'il tiling tez
Soching girihin kamand etibsen
Jonim qushin aylamoqqa ovez
Mujgon o'qi birla, ey jafujo'sh
Qonimni to'karg'a qilma angez.
Shavqing o'ti kuydurub dilimni
Ohim shararidn ayla parhez
Men senga chunon asir o'lubman
Shiringa nechukkim o'ldi Parvez
To tushti labingni shavqi bo'ldi
Dil jomi sharobi g'amga labrez.
Ne xush kun erdi yeturdi andin
Qosidni payomi lutf omez
Shahzodani aylabon giriftor
Ul nargisi sohiri baloxez. [3.391]*

Ushbu keltirilgan g'azal mavzu ko'lamiga ko'ra oshiqona ruhda yozilgan bo'lib, oshiqning azoblanishiga sabab bo'lgan ma'shuqaning husn-u jamoli, yorning har bir tana a'zosi oshiqni qiynaganligi g'azalda o'z badiiy ifodasini topgan. Baytlararo keltirilgan so'zlarga diqqat bilan e'tibor bersak, g'azalda arabiy, forsiy va turkiy so'zlardan ustalik bilan foydalanilgan, ayniqsa, forsiy so'zlardan.

G'azaldagi qofiyadosh so'zlar: xunrez, rez, tez, ovez, angez, parhez, Parvez, labrez, omez, baloxez. Qofiyaga olingan barcha so'zlar forsha so'zlardir. Qofiya – muqayyad, tirgak tovush - z. G'azalning bir necha baytlarini sharhlashga harakat qilamiz:

*Ey mahvashi jon gudoz xunrez,
Chashm qadamiga dur guhar rez.*

Shoir yorga birgina soʻz yoki soʻz birikmasi bilan emas butun misradagi soʻzlar bilan murojaat etmoqda. Bular: mahvash – oy yuzli, jon gudoz – jonni qinovchi hamda xunrez – qon toʻkuvchi, berahm maʼnosida. 1-baytning 1-misrasida toʻliq yorga murojaat qilib nido sanʼatidan foydalangan: *ey oy yuzli jonni qiynovchi berahm*, Bu shoirning soʻz qoʻllash mahoratidan darak beradi. Baytning 2-misrasida dur-u gavhar soʻzlarini oʻz maʼnosida emas koʻchma maʼnoda deb olsak, toʻgʻri boʻladi. Bu oʻrinda ular koʻz yoshlar maʼnosida kelyapti: *koʻzlar sening qadamingga dur-u gavharlarni sochyapti*. Oshiq shunchalar azobdalanishdan yigʻlayaptiki, uning yoshlari xuddi durlar kabi yorning oyoq ostiga toʻkilyapti.

*Soching girihin kamand etibsen,
Jonim qushin aylamoqqa ovez.*

3-baytda jonim qushi birikmasida istiora sanʼatidan foydalanmoqda. Jonim qushini sochingga osmoq uchun soching tugunidan sirtmoq qilibsani.

*Men senga chunon asir oʻlubman
Shiringa nechukkim oʻldi Parvez*

6-bayt bizga shoir shaxsiyati haqida anchayin ishoraviy maʼlumotlarni taqdim etadi. Ushbu baytda shoir – oshiq maʼshuqaga chunonam asir boʻldiki, buni xuddi Parvezning Shiringa oshiqligiga tenglashtirsa boʻladi. Nimaga Shiringa Parvezning oshiq boʻlgani talmeh sifatida olinib, uni oʻrniga Farhod tilga olinmayotganini shunday izohladik:

Birinchidan, Navoiy “Xamsa”si dunyoga kelguniga qadar “Farhod va Shirin” dostonida bosh obraz Xusrav Parvez edi. Alisher Navoiy Farhod obrazini bosh obraz sifatida olgan. Demak, shoir Navoiydan avvalgi davrlarda yozilgan “Xamsa” asarlaridan boxabar boʻlgan.

Ikkinchidan, shoirning hukmdorlardan boʻlgani. Shoirning oshiqligi hukmdorlarga xos boʻlgan ishq. Chunki Parvez ham tarixiy shaxs boʻlib, baʼzi tarixiy manbalarda shohlik qilgani haqida maʼlumotlar mavjud. Bundan tashqari badiiy asarlarda ham biz uni hukmdor sifatida taniymiz.

Uchinchidan, gʻazalda yetakchilik qilayotgan til fors tili ekanidan kelib chiqib, Navoiygacha boʻlgan “Xamsa”lar aynan fors tilida bitilganidan hamda gʻazalda qofiyaga olingan soʻzlar forsiy soʻzlar ekanidan kelib chiqib bu oʻringa Parvez tanlanganini izohlash mumkin.

*Shahzodani aylabon giriftor,
Ul nargisi sohiri baloxez.*

Ul balolar keltiruvchi yorning sehrgar koʻzlari Shahzodani asir olgan deya gʻazalga yakun yasamoqda. Butun gʻazal davomida nido, istiora, tanosub, talmeh kabi badiiy sanʼatlardan foydalanilgan.

Ushbu birgina gʻazal orqali biz Shahzoda – Nasriddinbek haqida ancha maʼlumotlar oldik. Sheʼr shoirning qay darajada bilimga egaligi, havaskor shoirlardan farqli oʻlaroq adabiyot hamda sheʼriyatdan yaxshigina xabardor ekanini koʻrsatmoqda. Uning qolgan asarlari ham qoʻlyozma manbalardan topib

o'rganilsa, ham keng ommaga taqdim etilsa, nafaqat amir Umarxon balki uning izdoshlari ham siyosiy va adabiy jarayonni birdek mohirlik bilan boshqarganini bilishga imkoniyat tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzo Olim Toshkandiy. Ansob us-salotin. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995
2. Aziz Qayumov. Asarlar. Qo'qon adabiy muhiti. 7-jild. 1-kitob. Toshkent. "Mumtoz so'z" 2010
3. Po'latjon Qayyumiy. Tazkirayi Qayyumiy. II kitob. Toshkent. 1998.

HUVAYDO SHE'RIYATIDA ISHQ MASALALARI

**Azimjon RAHMONOV,
TDSHI Mumtoz filologiya va
adabiy manbashunoslik kafedrasini
2-kurs magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Maqolada XVIII asr Qo'qon adabiy muhitida faoliyat olib borgan o'zbek adabiyotining vakili, ijodi shu kungacha kam o'rganilgan shoir Xo'jamazar Huvaydoning mazkur adabiy muhitga ta'siri o'rganilgan. Muallif shoir ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyatini aniqlaydi, she'rlarining yuksak badiiyati hamda keyingi davr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim rol tutganini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: ijod, adabiy doira, adabiy an'analar, she'rning stilistik xususiyatlari.

Аннотация:

В статье исследуется роль известного, но до сих пор малоизученного творчества Ходжамназара Хувайдо – представителя узбекской литературы, который относится к Кокандской литературной среде XVIII века. Автор статьи выявляет значение творчества поэта в узбекской литературе, особо подчеркивая высокое художественное мастерство и значимость его стихотворений, сыгравших значительную роль в дальнейшем развитии узбекской литературы в целом.

Ключевые слова: творчество, литературный круг, литературные традиции, стилистические особенности поэзии.

Annotation:

Article is devoted to definition of a place and beaters of creativity known, but still insufficiently studied representative of Uzbek literature of the XVIII centuries Hodzhamnazara Huvaydo living and creating in due time in Kokand literary environment. The place and value of creativity of the poet in Uzbek literature are defined, great art skills and the importance of creativity of the poet, played a significant role for further development of Uzbek literature as a whole are especially emphasized.

Key words: creativity, literary circle, literary traditions, stylistic statement of poetry.

“Devoni Huvaydo” “Rohati dil” va “Ibrohim Adham” kabi asarlarni o‘z ichiga olgan Huvaydo ijodida Qo‘qon adabiy muhitidagi insonparvarlik ruhi o‘z ifodasini topgan. Shoir ijodining asosiy mazmunini xalqchilik, hayotiylik, ma‘naviy-axloqiy tubanlikka qarshi nafrat, diniy mutaassiblikdan yiroqlashishga da‘vat g‘oyalari tashkil etadi.

Mumtoz she‘riyatning yirik vakillaridan biri Huvaydo g‘azallari, mustazodlari, muxammaslari va ruboiylari o‘quvchida zavq-shavq uyg‘otadi, oliy insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. [5, 2] “Huvaydo g‘azallari hayotiy shavq-zavq bilan, insoniy bir armon – o‘kinch bilan yo‘g‘rilgan. Shoir ishq majoziy hayotda ham, ishq haqiqiy hayotda ham ajib ehtiros bilan, najib dardmandlik bilan qalam tebratadi. Shoir she‘riyatida didaktik ohanglar ham qariyb yetakchi o‘rin tutadi. Lekin, ular shunchaki quruq pandu nasihatlar emas, ularning g‘amdan, nochorlikdan yaralgan donolikni anglaymiz. Shoirning qator g‘azallarida isyonkorona ruh shu qadar yolqinlik, beixtiyor otash haroratini his etamiz. Tasavvufiy g‘azallarda esa e‘tiqodda ustuvorlik, imonda poklik tarannum qilinadi, ruhiyatni haq sari izchil yo‘naltirishga da‘vat etiladi”, [2, 3] -deb yozadi professor Suyima G‘aniyeva.

Shoir lirikasidagi “g‘amdan, nochorlikdan yaralgan donolik” mohiyatini anglash, qaysi g‘am va qanday nochorlikdan bu donolik vujudga kelganligi haqida mulohaza yuritish, fikr bildirish, shubhasiz, bugungi adabiyotshunoslikning vazifalaridandir. Shu kunga qadar yaratilgan tadqiqotlar, shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan nomzodlik dissertasiyasi bu sohada mavjud ilmiy muammolarni to‘liq qamrab ololmagan. Shoir ijodiy uslubi, g‘oyaviy qarashlari haqida aniq tushuntirib berilmagan, ilmiy asoslanmagan fikrlar ayrim tadqiqotlarda ko‘zga tashlanadi.

Huvaydo she‘riyatining orifona mohiyati hanuz to‘la ochilmagan. O‘tgan mustabid tuzum va mafkuraning bu masalaga munosabati ayon. Istiqloq davri fani esa har qanday hukmron mafkura tazyiqidan xoli, xolisona ilmiy tadqiqotlar olib borish yo‘liga o‘tdi. Keyingi tadqiqotlarda Huvaydoning orifona qarashlari dunyoqarashi va she‘riyatining irfoniy mohiyati chuqurroq o‘rganilishi tayin. Ammo, mavjud ilmiy tadqiqotlardagi noaniqliklarga munosabat bildirish, xato fikrlarni rad etish keyingi tadqiqotlarning ob‘yektivligi, ilmiyligi uchun foydadan xoli bo‘lmaydi.

O‘tgan asr o‘rtalarida shoir haqida aytilgan fikrlarda “Huvaydo dunyoqarashi va g‘oyaviy pozitsiyasida qarama-qarshiliklar bo‘lgan” mazmunidagi g‘oyalar ustunlik qilardi. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomligining III jildida “Huvaydo” deb nomlangan mavzu kiritilgan. Unda sevimli shoir hayoti va ijodi muxtasar, ammo barcha mavjud ma‘lumotlarni qamragan, mualliflar tomonidan izohlanib, shoir ijodi mohiyati siyosiy mahdudlik sharoitida imkon darajasida yoritilgan. Ijodi qariyb hamd va munojotlardan iborat bo‘lgan sufiy shoir nomini dahriy mustamlakachi “ko‘zini pardalab” fanga, o‘quv adabiyotiga kiritish, ijodini targ‘ib qilish uchun fidoyi, zakiy, vatanparvar o‘zbek olimlari qanchalik katta jasorat ko‘rsatganliklarini tasavvur qilish mumkin. Buni vatanparvarlik va millatsevarlikning yuksak namunasi, haqiqiy qahramonlik desa bo‘ladi. Ammo, albatta siyosiy mulohazalar nuqtai nazaridan bo‘lsa kerak, “Huvaydo adabiy

merosining sosial mohiyatiga kelganda shuni qayd qilmoq lozimki, u XVIII asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan, dunyoqarashi va ijodi qarama-qarshi qutblardan iborat shoirlardan biri sanaladi”, [3, 370] -deb yozilgan.

Dunyoqarashi barqaror, qalbi imon nuriga to‘la insonlar oilasida dunyoga kelgan Huvaydo, ulg‘aya borgan sari dunyoni, insonning olamga kelishi va ketishi hikmatlarini o‘ylagan, bu sohadagi falsafiy qiziqishlari orta borgan. Ammo, ana shu ongli hayotining boshidayoq uni turli mazmundagi noto‘g‘ri fikrlardan, ikkilanishlardan asrab, haqiqat yo‘liga yo‘naltirib turuvchi kuch bor edi. Bu uning qon-qoniga singib ketgan ma‘rifatdir. U qiynoq, azoblardan shikoyat qilgan bo‘lsa, ma‘rifatni, go‘zal xulqni kamolga yetkazish yo‘lidagi mashaqqatlarini ifodalagan edi. Bu yo‘l shoir uchun tariqat yo‘li edi. Shu bois u mutafakkir shaxs bo‘lib yetishdi, ma‘naviy komillikni o‘zi yashayotgan jamiyatdagi kishilarda ham ko‘rishni istadi:

*Talab qil ma‘naviy ganj, ey birodar,
Vagarna sandin avlo gov ila xar.
Talab qil bo‘lsa ganji beziyoni,
Sanga bo‘lg‘ay chu umri jovidoni.
Kishi bo‘lmasa ma‘nidin xabardor,
Ani odam dema, de naqshi devor. [1, 38]*

Shoir ilmi irfondan xabardor kishini ma‘naviy yetuk kishi deb hisoblaydi:

*Bilmagay o‘z qadrini, na bilg‘usi so‘z qadrini,
Hayfdir dono demak nodoni beirfonga so‘z. [1, 26]*

Xo‘janazar Huvaydo ijodining ma‘rifiy mazmun-mohiyati bor bo‘y-basti bilan lirikasida namoyon bo‘ladi. Huvaydo she‘riyatidan namunalarni “Ko‘ngil dardi” nomi bilan kitob holida nashr ettirgan olimo Suyima G‘aniyeva bu haqda shunday yozadi: “Juda oz bo‘lsa ham Huvaydoda may mavzusida she‘rlar bor. May Alloh jamoliga bo‘lgan ishqning g‘alaboti deyiladi. Huvaydodagi may madhi, uni yigitlikda ichishga chorlashni, qarigan chog‘da emas, yoshlikdan ishq haqiqiy mayidan mast bo‘lishlikni, xudovand ishq omonatini bandasiga mayxonada beradi, degan tasavvufiy aqidani uqtirishlik, deb anglash kerak. Bu mayxona shunday bir mayxonaki, unda dunyoviy g‘am-tashvishlardan xoli bo‘lib, yolg‘iz Alloh ishq bilan yoniladi” [2, 4]. Olimo Huvaydo she‘riyati vujud [shakl] va ruh [mazmun]dan iborat ikki asosiy tushunchadan tashkil topib, ularning organik ravishda birlashuvi natijasida shoir uslubi va mahoratini namoyon etuvchi yuksak bir badiiy asar yuzaga kelganligini ta‘kidlaydi: “Mumtoz adabiyotimizga xos bo‘lgan zulma‘naynlik hodisasi – zohiriy va botiniy ma‘nolar chatishuvi Huvaydo qalamiga mansub aksar g‘azallarning muhim xususiyatidir. Shoirning g‘inoiy – lirik she‘riyatida zohiriy – majoziy ma‘nolar zamirida yuksak mahorat bilan botiniy orifona tafakkur va irfoni falsafa yashiringan” [2, 4-5].

Irfon, falsafa shoir she‘riyatida inson va olam go‘zalligidan hayratga tushish tufayli sodir bo‘ladigan may zavqi, bu zavqdan mutlaq ishq tug‘ilishi, ishqdan dard yuzaga kelishi kabi mazmunda ko‘zga tashlanadi.

Shu nuqtai nazardan olimo haqli ravishda ta‘qidlaganidek, “Huvaydo she‘riyatidagi “dard”, “g‘am” ayni chog‘da Allohga bo‘lgan ishqning riyozatlarini ham anglatadi:

*Dardi yo 'q bedard kishilar dard qadri na bilur,
Dunyada nomard ko 'pdur, mard qadri na bilur"* [2, 6]

Shoir bu dard muqaddas ekanligini, uni qalbi irfon ne'matidan bahramand kishilargina idrok va his eta olishi mumkinligini ta'kidlaydi:

*Sanamni dardini daftar qilib, xatga bitib bo 'lmas,
Ani asrorini befahmlarga sharh etib bo 'lmas.* [1, 41]

Yana:

*Sani dardingni aytib yig 'lasam jonu jahon kuygay,
Fig 'onimdin fig 'on aylab, zaminu osmon kuygay.*

Shoirning lirik qahramoni uning o'zi o'laroq, u bu dunyoda hayrat, zavqu shavq, pok may jo'shishidan mastonalik, ishq, dardu g'am ne'matlaridan benasib emasligini qayd etadi. "Oqibat" radifli g'azalida u shunday yozadi:

*Ey jamoling shavqi birlan g'am sharobidan ichib,
Bilmadim jonu jahon mastona bo 'ldim oqibat.* [1, 29]

G'azal matla'sida shoir an'anaviy sham va parvona timsollari misolida o'zining buyuk ishq ne'matidan bahramand ekanligini ta'kidlar ekan, bu ishq va dard ne'mati bahosi butun olamlardan, borliqdan kechmoqlikdir deydi:

*Ey sani ishqing bilan devona bo 'ldim oqibat,
Sham 'i husning ustida parvona bo 'ldim oqibat.
Tushti ko 'nglum ichra darding tebalardek, ey pari,
Kulli olamdin kechib, begona bo 'ldum oqibat.* [1, 107]

Sufiylarning e'tiqodiga ko'ra, dinning mohiyatida ham ishq bor, – muhabbat bor. Ma'lumki, majoziy ishq atamasi insonning insonga muhabbati va olam go'zalligiga oshiqlikini bildiradi. Ammo majoziy muhabbat o'tkinchidir. Hech qachon so'nmaydigan haqiqiy muhabbat – bu Allohni jon-dildan sevishdir. "Chunki undan boshqa barcha narsa – soxta, ya'ni yasalgan yoxud yaratilgan. Hatto inson ham. Shuning uchun eng buyuk go'zallik – Tangrining o'zi. Go'zallikda undan o'tadigan hech narsa yo'q bu olamda va bo'lishi ham mumkin emas"[6].

Huvaydo lirikasidagi ishq – ana shu mazmundagi ishqdir. Yuqorida keltirilgan g'azalda ilohiy ishq o'tidan tug'ilgan dard ko'zga tashlanadi:

*Telbai ishqing bo 'lib aybu qabohat so 'zladim,
Elga kulgu bozii tiflona bo 'ldum oqibat.
Qay kuni sevdim seni ketti ko 'nguldin shodlik,
Tunu kun g'am xaylig 'a hamxona bo 'ldum oqibat.
Elu yurtimdin kechib, uzlatnishinlik xo ' qilib,
Chug 'z yanglig ' sohibi vayrona bo 'ldum oqibat...*

Ishq masalasida shoir o'zining katta zamondoshi Mashrabga hamfikr:

"Ishqsiz, ham bodasiz azmi Ka 'ba na hojat?".

Huvaydo devonida

*"Hech kim ishq o 'ti ichra man kabi kuygoni yo 'q,
Ushbu o 'tg 'a, do 'stlar, kuymakligimni soni yo 'q"* [1,13]

matla'si bilan boshlanuvchi bir g'azal joy olgan. G'azalning har baytida shoir ishq va ishq o'tining bittadan sharhini keltiradi. Uning o'zi g'azalning lirik qahramoni ekan, ishq o'tini ko'nglida yashirin saqlaydi, hech kimga zarracha oshkor qilmaydi.

Ammo, pinhon tutish ham g'oyat mushkul. Agar oshiqning joni bir uy bo'lsa, ishq g'am bulutlaridan yashin kabi bu uyga tushgan. Yurak bu barqdan kuyib ketgan, qaro ko'z yoshga to'lgan, dard tufayli nolayu afg'on haddan oshgan. Ammo, shoir shu holatlar uchun shukr qiladi, chunki:

*Bo'lmasa ul tan aro ishq muhabbat zarraye,
Surati devor erur, bilgilu tanni joni yo'q.*

Shu bois oshiq "nigori nozanini" ishqida har safar "diyda giryon" va komil ishonch bilan: "Ko'r bo'lsun ul kishiki diyda giryon yo'q", – deb aytadi.

Shoir g'azallarida "yor", "may", "boda", "jom" kabi tasavvufiy ramz va timsollar vositasida ishq ilohiy mazmunini sharh etishga harakat qiladi, qalbida qaynab turgan ishq jazbasi beixtiyor uning tiliga ko'chadi. Quyidagi g'azal mazmunan sharhi hol bo'lsa-da, shoir unda faqat o'z holini sharhlashni maqsad qilib olmaydi. Uning she'riyati yuragidan qaynab chiqib tiliga ko'chgan, qalbi devorlarini yorib chiqqan dard yolqini. She'r shakli, vazni, qofiyasi, radifi shoir uchun birlamchi unsur emas, balki uning "ahli tab'"dan ekanligi, fitratida go'zallikka moyilligi natijasidir.

Huvaydo g'azallarini o'qigan she'rxon she'rdagi go'zal shakl va turli badiiy san'atlarni nazardan qochiradi. Uning qalbini ham dard ishg'ol etadi:

*Vah mani boshimg'a tushti, na qilay, savdoi ishq,
Ayta bersam zarrasig'a toqat etmas Ko'hiqof.
Behudu mastona yurmishman o'zumni bilmayin,
Kimni ko'rsam Xizr deb, ilgin tutub qildim tavof.
Bir sado chiqdi qadahdin: "Yorni ko'r mayda", deb,
"Ko'ra olmassan – dedi, – to etmaguncha mayni sof".
Ayta bersam Qof to Qofi jahonga sig'magay,
Ey Huvaydo, ishq so'zi "ayn"u, "alif"u, "shin"u, "qof". [1,17]*

Shu tariqa, Huvaydo sodda va ravon, xalqona iboralar bilan ziynatlangan she'riyatida ko'hna sharq she'riyatidagi "ishq" va "dard" g'oyasi, tasavvufiy ramz va istilohlar, an'anaviy timsollar istifoda etilsa-da, g'oyaviy maqsad ifodasi va betizgin tuyg'ular taqozosi bilan ularning yangi- yangi qirralari kashf etiladi, shoirning betakror, o'ziga xos ma'rifiy kamoloti va badiiy salohiyati namoyon bo'ladi.

Shoir ijodining insonparvar mohiyati, estetik boyligini anglagan qalamkashlar Nodira, Sadoiy, Akmal va G'oziydan tortib, keyingi asr ijodkorlari Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy va Furqatgacha bu noyob merosdan bahramand bo'ldilar, ijodiy foydalandilar. Huvaydo she'riyati bu shoirlar tab'i kamolining shakllanishi uchun puxta zamin vazifasini ham o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huvaydo. Devoni Huvaydo. O'zR FA SHI, № 11513. – V. 185,
2. Huvaydo. Ko'ngil dardi. – Toshkent: Meriyus, 2009. – 52 b.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik, 3-tom. – T.: Fan, 1978.
4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. 7- jild, – T.: Mumtoz so'z, 2010.
5. Muhitdinova Nazmiya. Xo'janazar huvaydo ijodining qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rni. Adabiyot va madaniyat. № 3 [11] / 2016
6. Sultonmurod Olim. Majozdan maqsad – Haqiqat//O'zAS, 1993, 10 sentyabr.

AMIRIYNING BADIY MAHORATI

Dilzoda ABDULLAYEVA,
Qo‘qon DPI, talaba
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Amiriy she‘riyatining betakror badiiyati, g‘oyaviy-falsafiy, diniy-irfoniy sarchashmalarining chuqurligi, shoir ijod olamining serqirraligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, she‘riyat, badiiyat, g‘oyaviy-falsafiy, diniy-irfoniy, an‘ana, spetsifika, Amiriy.

Аннотация:

В данной статье рассматривается уникальное искусство поэзии Амира, глубина ее идейно-философских, религиозно-мистических истоков, многогранность творческого мира поэта.

Ключевые слова: литературная среда Коканда, поэзия, искусство, идейно-философское, религиозно-мистическое, традиция, специфика, Амир.

Annotation:

This article discusses the unique art of Amir's poetry, the depth of its ideological, philosophical, religious and mystical sources, and the diversity of the poet's creative world.

Keywords: Kokand literary environment, poetry, art, ideological-philosophical, religious-mystical, tradition, specificity, Amir.

Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining har biri stilistik spetsifikaga egaligi bilan xarakterlidir. Boshqacha qilib aytganda, Boyqaro-yu Navoiylar ijod qilgan Hirot adabiy muhiti, Feruz-u Ogahiyilar qalam tebratgan Xiva adabiy muhiti, Umarxon Amiriy-u Nodiralalar ash‘or bitgan Qo‘qon adabiy muhiti uslublari va har qaysi muhitdagi har bir ijodkor boshqa shoirlarga o‘xshamaydigan o‘ziga xos uslublari orqali farqlanadi. “Uslub shaxs bilan bog‘liq kategoriya sanalib, uning ijodiy individualligini belgilaydi”. [1, 339]

Fitrat uslubni umumiy va xususiy hollarga bo‘ladi. Qo‘qon adabiy muhitining podshosi, o‘zbek davlatchiligining “shoh va shoir”laridan biri –Amiriy ham davlat ishlaridan ortib, she‘riyat bo‘stonida o‘z uslubi va yo‘nalishlariga ega bo‘lgan sohirnafas ijodkorlardan sanaladi. Biz quyida Amiriy merosidagi uslublarning xususiy jihatlari haqida so‘z yuritamiz. Uslubning xususiy hollari degani, bir so‘z bilan aytganda, asarda shoirning o‘ziga xos badiiyatni qamrab olishidir. Amiriy she‘riyati bu borada salmoqli o‘rinlarni egallaydi. Amiriy g‘azallarini o‘qir ekanmiz, beixtiyor undagi shohlik shavkatini, yor oldida o‘zini ko‘plab ijodkorlardek mavqe jihatdan quyi olmay, Amirdek tutishini, kamdan-kam hollarda maqomining pasayishini kuzatamiz. Jumladan, ko‘plab g‘azallari maqta‘sida o‘zini “dil, husn mulkinging sultoni”, ishq mulkinging amiri”, “ishq shohi”, “iqlimi vafo amiri”, “mulki dil amiri”, “ko‘ngil taxti amiri”, “junun shahri amiri” singari tashbehlar bilan ataydi. Quyidagi maqta‘da o‘zini yor ko‘yida qolgan devonaga o‘xshatishlarini kiritib o‘tgan:

*Agarchandeki ishqing borgohining Amiriman,
Junun ko 'yida majnuni saribozor dermishlar.*

Yana bir boshqa baytida Muhabbat yurtining amiri ekanligini va borgan sayin yuqorilayotganini inkorsiz aytib shunday deydi:

*Muhabbat kishvari ichra Amiram,
Maningdek bor ekanmi toli 'i soz?!*

“Amiriy lirikasi Sharq mumtoz adabiyotining an’anaviy obraz va timsollari asosida shakllangan. Qolaversa mavjud an’analar asosida o‘z so‘zini ayta olish, timsollarning yangi qirralarini ochish juda murakkab jarayon bo‘lib, hamma ham buning uddasidan chiqavermaydi. Hofiz Sheroziy, Movlono Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Tabriziy, Bedil kabi Sharq she‘riyatining ulug‘ darg‘alariga ergashgan Amiriy salaflarining ta‘sirida yangi obraz va badiiy topilmalar, ohorli istiora va tashbehlar topish va muvaffaqiyatli qo‘llashga harakat qilgan va ko‘p hollarda bunga erishgan”. [2, 17] Chunonchi, “Gar ko‘torsang yuzdin, ey, sho‘xi pari-paykar niqob” g‘azalining bir baytida yor yuzidagi niqobni ko‘tarib, husnidan bir qismini namoyon qilgan vaqtdagi oshiq ko‘zining rashkdin qon yig‘lashi, osmonda chaqmoq chaqqan paytdagi bulutlarning ko‘z yosh to‘kishi (yomg‘ir)ga o‘xshatilgan:

*Lam 'ayi husnung namoyon bo 'lsa, qon yig 'lar ko 'zim,
Uyladurkim barq kulg 'an chog 'da giryondir sahob [2, 58]*

Mazkur baytda guvohi bo‘lganimizdek, shoir tamsilning bebaho namunasini qo‘llagan. Bu bevosita hazrat Alisher Navoiyning quyidagi mashhur baytini yodga soladi:

*“Orazin yopqoch ko 'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo 'ylakim, paydo bo 'lur yulduz nihon bo 'lg 'och quyosh”.*

Amiriyning hazrat Alisher Navoiyga ergashib she‘rlar yoozgani borasida Po‘latjon domulla Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarida shunday deyilgan: “Bu kishi Ho‘qand shahridan bo‘lub, nomi Umarbek bo‘lub, shohruhiylardan Norbo‘tabiyning o‘g‘lidur... She‘rda taxallusi Amirdur... Ustoz Muhammad Ya‘qubdan tahsili irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo‘lub, bir devonga egadir. Badiiy tomondan raso shoir ekani yozgan ash‘ori obdoridan ma‘lumdir. Bu kishining xonlig‘idan qat‘iy nazar ho‘qandli buyuk shoir sifatida hurmat etamiz. Tabiat bu shoir shohruhiylar sulolasidan o‘zbek elining ming urug‘idan yetishtirmishdir. O‘z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-ma‘rifat kishilari uchun ochiq bo‘lub panoh topdilar. O‘shal vaqt Ho‘qandga atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar va hurmat ko‘rdilar. Adabiy nashidalar bilan serob etdilar. Ma‘rifat ahllari ziyodalashdi...” [3, 107]

Yana bir boshqa g‘azal baytida ma‘shuqa husnining tengsizligini chiroyli dalillaydi. Ya‘ni, “Go‘zallikdan tovlanib, o‘zini maqtab turgan ko‘zgu ma‘shuqa jamolini ko‘rdi-yu, shu on qotib qoldi”.

*G 'oyibona lofurar erdi safodin oyina,
Ro 'baro ' bo 'lg 'och yuzingga, oni suv qildi hayo. [2, 42]*

Mazkur bayt husni ta‘lilning betakror namunasidir. Shoir borliqda mavjud bo‘lgan moddiy qonuniyatga hayotiy bo‘lmagan shoirona misolni keltirmoqda. Oynaning harakatsiz, qattiq jism hoida turishiga yor yuzini ko‘rgach, hayratdan

qotib qolganligini misol qilmoqda. Qolaversa, oynaning safodan g'oyibona lof urib, maqtanib turgani hoida yor yuzini ko'rgach, o'zini ushbu go'zallik oldida past ko'rishi mubolag'a bo'lsa, insonlarga xos so'zlashi (*g'oyibona lof urar erdi*) intoq, hayo qilishi – tashbeh she'riy san'atlarini yuzaga keltirgan.

Bundan tashqari, quyidagi baytda yorning qor kabi oppoq yuzidagi ikki qora zulfining tebranishi qor ustida qanotini ochib o'ynayotgan qora qarg'aga qiyoslangan. Birinchi misradagi fikrning tasdig'i o'laroq yuzaga kelgan bu badiiyat she'riyatimizda tamsil san'atini shakllantirgan bo'lsa, “qor” va “qarg'a”, “yuz” va “zulf” so'zlari o'zaro kontekstda shoir tomonidan zidlantirilib, kontekstual antitezani namoyon etgan:

*Ikki zulfingni banogo 'shingda tebratmish sabo,
O'ylakim, ochib qanotin, qor uza o'ynar g'urob.* [2, 59]

Ushbu baytda folklorga oid material ham mavjud bo'lib, o'zbek ayollarining sochlarining ikki zulfini ikki quloqlari orqasidan o'tkazib, banogo'shidan pastga tushirib yurishgan. Shoir bu o'rinda shunga ishora qilmoqda.

Mumtoz adabiyotimizda yor qaddini sarvga, “alif”ga o'xshatish an'anaga tusiga kirib qolgan. Bu hol Amiriy she'riyatida ham rivojlanib borib, quyidagi baytda “*tik qomatli yorni ko'rgan sarv qurbon bo'ldi, malohatini ko'rgan chaman gullarini to'kdi*” deya husni ta'lil bilan lutf etadi:

*Qaddini sarv ko'rub, bandalik etti izhor,
Yuziga boqdi chaman, qildi nisori gulnor.* [2, 93]

Mazkur bayt o'zining go'zal o'xshatishlari bilan ahamiyatli. Go'yoki, yorning qaddini ko'rgan sarv bandalik izhor etgan. “Banda”ning lug'aviy ma'nosi – “qul” degani. Bu yerda shoirona mengzash shundan dalolat berib turibdiki, xuddi yor o'z qaddi bilan podshohdek, uning oldida sarv o'zini quldek tutyapti. Shuningdek, ushbu holat tashxisga ham misol bo'la oladi. Chunki, bandalikning izhor qilinishi ta'zim bajo etish bilan bo'ladi. Ta'zim (sajda) qilishlik ikki xil bo'ladi: 1) ibodat sajdasi; 2) hurmat izhor etishlik sajdasi. Ibodat sajdasi faqat Alloh uchun ado qilinadi. Ikkinchi sajda hurmatli zotlar, aziz avliyolarga qilinadi. Odam (a.s.) yaratilganda farishtalarning unga qilgan sajdasi ibodat sajdasi emas, balki hurmat sajdasi edi. Bu yerda ham hurmat sajdasi haqida gap ketmoqda. Bu esa, insonga xos xususiyat. Shaxsga tegishli fazilatlarining jonsiz predmetlarga ko'chisi esa tashxisdir.

Gullarning o'z barglarini to'kishi xazonrezgilikdan emas, balki chamanda yor yuzini ko'rgach, hayrat va xijolatdan amalga oshganligi husni ta'lilni yuzaga chiqargan. Bu yerda Amiriy ijodining o'ziga xos tomoni shunda ko'rinadiki, shu vaqtgacha chamanda gular yor yuzini ko'rgach, uning chiroyidan xijolat bo'lib, qizarishi, g'unchaning o'z yanog'ini yirtishi, ochilib ketishi an'ana edi. Mazkur o'rinda esa yor yuzini ko'rganda gullar ushbu pog'onlardan o'tib birato'la o'z gullarini to'kib yubormoqda. Ushbu o'xshatish, o'z navbatida, mubolag'aning ham betakror ko'rinishidir.

Ma'shuqaning kipriklarini ta'riflaganda esa, o'ziga xos tashbeh bilan bir qatorda, badiiy san'atlardan ham mohirona foydalanlanadi:

*Xush yarashur obnusi kiprigi ruxsor uza,
Bog' aro etgon kabi gul tebrasida xor xush.* [2, 135]

Kiprikni qalin qora daraxtga o'xshatadi (Demak, kipriklari misli o'rmon ekan). Kipriklarning yuziga yarashib turishi, insonlarning atirgulni tikan bilan ham yaxshi ko'rishlariga dalillab ifodalangan, ya'ni birinchi misrada aytilgan fikr uchun ikkinchi misra tamsil vazifasini o'tagan. Bundan tashqari, bu bayt "xush" so'zi bilan boshlanib, shu so'z bilan yakunlangan. Bu hol o'z navbatida, radd us-sadr il-al ajuz (sadrning ajuzda takrorlanishi) badiiy san'atini aks ettirgan. "Ushbu san'at tasdir (ar.qaytish) deb ham ataladi" [4, 255].

E'tibor beradigan bo'lsak, juda ko'p g'azallarda yor madhi, ta'rif-u tavsifi beriladi. Uning husni, oshiq'larni nazarga ilmasligi, bevafo-yu dimog'dorligi chuqur aks ettiriladi. Bechora oshiq'lar ming yorni maqtasa-da, ko'yida junun ahli vakiliga aylansa-da, baribir bag'ri tosh mahbubalar oshiq'larning nolalarini eshitmaydi. Ayni shu tasvirlar Amiriy she'riyatida ham go'zal baytlar shakllanishiga turtki bo'lgan. "Oldi ko'nglumni yigitlik chog'ida bir tifli yosh..." deb boshlanuvchi g'azali baytida yorning bag'ritoshligidan norozilangan oshiq: "Hatto toshlardan qad ko'tarilgan tog'lar ham mening fig'onlarimni eshitib, erib suvga aylandi, lekin sen hali hanuz meni eshitmassan" deya xafa bo'ladi:

Otashi farqi fig'onimdin suv o'ldi tog'lar,

Nolai zorim eshitmassan hanuz, ey bag'ri tosh! [2, 139]

Ushbu bayt ham tashbehning, ham mubolag'aning, ham tashxisning namunasi bo'la oladi. Oshiqning yordan norozilik kayfiyati saqlanib qolgan quyidagi baytiga diqqat qilsak:

Ey nazokat gulshani, ko'p qilma mandin ehtiroz,

Bog' aro gul vaslidin mahrum etmasdur xor-u xas. [2, 129]

Oshiq: "Mendan ko'p xazar qilaverma", - deya bog' aro gulning tanasidagi tikan va atrofidagi begona o'tlarni misol keltiradi. Ya'ni, "sen meni bir xas kabi ko'rib, nazaringga ilmaysan, lekin gullar tikan va atrofidagi turli xil o'tlar bilan birga bo'ladi", demoqchi. Mana shu satrlarning o'zi ham shoirning hukmdor bo'lish bilan bir qatorda oddiy inson sifatida nekbin tuyg'ularni his eta oladigan, she'riyat ummonidan g'avvos kabi injularni tera oladigan o'tkir qalam egasi ekanligidan dalolatdir.

Amiriy uslubiga xos go'zal badiiyatlar o'z zamondoshlari va keyingi avlod shoirlari ijodida ham ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Qo'qon adabiy muhitining yana bir ko'zga ko'ringan vakili Muqimiy bo'stonida ham bu holni uchratish mumkin. Amiriy "Kulbam sori gar kelsangi jon naqdidir podoshingiz..." deb boshlanuvchi g'azalida oshiq uyiga yor keladigan bo'lsa, jonini mukofot tariqasida berishini, ko'zlari suv sepib kipriklari xizmatida turishini ta'kidlagan:

Kulbam sori gar kelsangiz, jon naqdidir podoshingiz,

Ko'z ashki birla suv sepib, mijgon bo'lur farroshingiz. [2,119]

Muqimiy esa "etmay keling" radifli g'azalida oshiqning yor kulbasiga kelish yo'llarini tozalab qo'yganligini Amiriy o'xshatishi bilan ifodalaydi:

Suv sepib ko'z yoshidin, qo'ydim yo'lingiz tozalab,

To kelur vaqtida domanni g'ubor etmay keling. [5, 62]

Bundan tashqari, Amiriy yorning latofatini tasvirlashda, xina o'simligidan foydalanib, "guldek nozik oyoqlaringni o'pish orzusida xinolar tuproqdan bosh ko'taradi" deya husni ta'lildan mohirona foydalangan bo'lsa, Muqimiy ijodida ham

shu mazmunda har bahor yor poyiga yetish umidida bog'larda xinolar bosh ko'tarishi tasvirlangan:

*Gul kabi nozik ayog'ing panjasini o'pgali,
Bosh chekar tufrog'din yuz orzu birla xino. [5, 43]*

Ushbu bayt ham husni ta'lil, tashbeh va tashxisning betakror namunasidir. Umuman, g'azal boshdan-oyoq tashbeh, mubolag'a, tashxis, husni ta'lil san'atlari bilan o'rangan. Buni Muqimiyning yuqoridagi mazmuni o'zida saqlagan holda yozilgan quyidagi bayti ham tasdiqlaydi:

*Yetmak umidida tufroqdin chekar bosh har bahor,
Shavqlar birlan kafi poyingga bog'larda xino. [5, 7]*

Amiriy ijodida yorqin ko'zga tashlanadigan adabiy ta'sir va izdoshlik masalasi f.f.d. Zeboxon Qobilova tomonidan mufassal o'rganilgan: "Sharq mumtoz she'riyatining ulkan so'z ustalari ta'sirida balog'at ilmi va fasohat sirlarini egallagan Amiriyning o'zi ham san'atkorona hassos g'azallari bilan nafaqat Qo'qon adabiy muhiti, balki Xiva adabiy muhitida yashab ijod qilgan shoirlarga, umuman, o'zidan keyingi o'zbek qalam ahliga kuchli ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Bu ta'sir izlarini biz Nodira, Uvaysiy, Fazliy, Ado, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Ravnaq kabi o'z davri shoirlaridan tortib to Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz, Niyoziy, Hamza kabi hassos shoirlar ijodida ko'rishimiz mumkin". [6, 153]

Amiriy ijodiga nafaqat o'z davri shoirlari yoxud hozirgi kun amiriyshunos olimlar, balki o'zidan keyin qalam tebratgan shoirlar ham yuksak baho bergan. Chunonchi, Po'latjon domullo Qayyumiy o'zining "Tazkirai Qayyumiy" asarida Muqimiyning Amiriy haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltiradi: "Haqiqatan Umarxon tomonidan yaratilgan nashidalardan zavqlangan adabiyotshunoslar g'azallariga qoyil qolmaygina bo'lmadi. Jumladan, Muqimiy tahsin maqomida tubandagicha hamd etadur:

*Ko'rub diydori Haq bo'lsun maqoming jannat ul-a'lo
Nazokat gul qilur har misraingdin ey, shahi volo
Bu bahr ichra sadaf yanglig' Muqimiy, san durri yakto.*

Muqimiy o'zini sadafga tashbeh etib, uni qiymatining durga o'xshatadur..."

Amiriyning nozik ta'b bilan bitilgan she'rlari, ohori to'kilmagan betakror badiiyat ila yo'g'rilgan bebaho asarlari ko'ngillardan ko'ngillarga jo bo'lib o'taveradi. Shoir ijodi, nafaqat o'zbek adabiyotida, balki butun turkiy adabiyotda salmoqli o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonova Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akadernashr, 2010.
2. Amiriy. Devon. – T.: Tamaddun (nashrga tayyorlovchilar: Qobilova Z., Davlatov O., Madaminov A., Ergashev O.). 2017.
3. Po'latjon domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). -T.: O'z RFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi, 1998. 713 bet.
4. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akadernashr, 2020.
5. Muqimiy. Bog' aro. – T.: Akadernashr, 2010.

6. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik (Amiriy she'riyati misolida).
– T.: Turon-Iqbol, 2021, 256 bet.

QO‘QON ADABIY MUHITI VA MILLIY UYG‘ONISH DAVRI ADABIYOTI

QADIMGI TURKIY OBIDALAR VA QO‘QON ADABIY MUHITI NAMUNALARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILLARI MUAMMOLARIGA DOIR

(Yusuf Xos Hojib, Mavlono Muqimiy hamda Zokirjon Furqat ijodlari
misolida)

Boqijon TO‘XLIYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
professori, filologiya fanlari doktori
(O‘zbekiston)

Yusuf Xos Hojib XI asrda, asosan, Qashqarda yashab ijod etgan mutafakkir adibdir. Uning “Qutadg‘u bilig” dostoni qomusiy tabiati bilan e‘tiborga molik. Asarda bahor fasli tavsifiga bag‘ishlangan qism ham mavjud. Qo‘qon adabiy muhitida ham bahor tavsifi bilan mashg‘ul bo‘lgan ijodkorlar oz emas. Ularning sardorlari, tabiiyki, Mavlono Muqimiy bilan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatdir. Ularning har ikkisi ham XIX asrning ikkinchi yarmidan –XX asrning boshlarigacha bo‘lgan davrda yashab ijod etishgan.

Yusuf Xos Hojib hamda bu ikki ijodkor o‘rtasidagi ayirma makon nuqtai nazaridan ham, zamon nuqtai nazaridan ham juda katta oraliqni tashkil etadi. Shunga qaramasdan, ular orasida ko‘plab mushtarak jihatlar ham mavjud. Quyida mana shu yo‘nalishdagi ayrim mulohazalar bilan o‘rtoqlashmoqchimiz.

Yusuf Xos Hojib bahor tasvirini asarning muqaddima qismida keltiradi. U masnaviy shakliga ega. Ayni paytda uning qasida janriga yaqinligi ham kuzatiladi. Matn Q.Karimov nashrida 58 baytdan iborat. Ayrim tushib qolgan baytlar qo‘shilsa, uning hamjmi 61 baytdan iborat ekanligi ayonlashadi. Tavsif o‘lkaga bahor faslining kiritilishi haqidagi “axborot” bilan boshlanadi:

Tug‘ardyn esə keldi o‘hdyn yeli
Ajun etgykə achty ushtmah yoli
(Sharqdan avval (bahor) nasimi esib keldi,
Olamni bezash uchun jannat yo‘lini ochdi) [4.72-73].

Shundan keyin yer yuzidagi o‘zgarishlar: qahraton qish o‘rniga nurli bahorning kelishi, Quyoshning Baliq burjidan Qo‘zi burjiga o‘tishi, yalang‘och daraxtlarning turli ranglardagi “liboslar”ga burkanishi, yer yuzasini to‘liq o‘t-o‘lanlar bilan qoplanishi qayd etiladi. Ko‘plab qushlar (o‘rdak, g‘oz, oqqush, qilquyruq...)ning qaytib kelishi, turna, ularqush, kaklik, qora chumchuq (qarg‘a), sanvach (bulbul) kabi qushlar, bug‘u va kiyik turlariga oid hayvonlarning o‘ziga xos sanoqlari go‘zal she‘riy misralarda aksini topadi.

Adib e‘tboridan bahor yomg‘iri ham chetda qolmaydi:

Qalbyq qashy tygdi kəzi yash sachar
Chechək yazdy yyz kər kylər qatg‘urar

Mazmuni:

*Osmon qovog'ini soldi, ko'zidan yosh sochmoqda,
Gul(lar) yuz ochdi, boq, kulmoqda, qah-qahlamoqda [4.74-75].*

Shundan keyin olamning jonlantirilgan qiyofasi chizila boshlaydi. Shu tarzda muallif Bug'raxon madhiga o'tadi. Parcha duo va olqishlar bilan yakun topadi:

Yag'a tursu yag'mur yazılsu chechak

Qurumyish uyig'achдын salınsu kərək

(Mazmuni:

Yomg'ir yog'avyersin, gullar ochilsin,

Qurigan [ya'ni yalang'och] daraxtlardan yaproq chiqsin...) [4.78-79]

O'quvchi (tinglovchiga qulay bo'lishi uchun biz asar tarkibini soddaroq bo'lsa-da, eslatishni joiz deb bildik. Zero, busiz asosiy maqsad va muddaolarni tushuntirish qiyin kechgan bo'lar edi. Endi ayni mana shu kompozisiyaning nihoyatda ixcham va mo'jaz shaklda Muqimiy va Furqatlar ijodida namoyon bo'lishini kuzatish mumkin bo'ladi. Buning uchun Muqimiyning "Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar!" hamda Furqatning "Fasli navbahor o'ldi..." g'azallariga murojaat etamiz.

E'tibor berilsa, har ikki g'azalning matla'sida ham asosiy urg'uni yangi faslning kirib kelishi haqidagi mulohaza oladi:

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,

Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtoq'lar [2 .78-79].

Fasli navbahor o'ldi, kechibon zimistonlar,

Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar [3 .78-79]

Ko'tarinki ruh har ikki matla' uchun ham xos. Bu juda ochiq ko'zga tashlanadi. Ko'tarinkilikning sababi tabiatdagi o'zgarish, ya'ni bahorning kelishidir. U yuqori pafos bilan boshlanadi. O'rni kelganida aytish lozimki, Muqimiy ayni mana shu o'rinda atov gapdan juda o'rinli foydalangan. Ayni mana shu atov gap adib qalbidagi his va hayajonlar po'rtanasini aniq, ixcham va ta'sirchan tarzda ko'rsatib bera olgan. Afsuski, nashrlarda bu hodisa e'tibordan chetda qolgan. Keyingi nashrlarda, misraning: "Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar!" tarzida berilishi maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Ayni kayfiyat tasviri Furqat uchun ham xos. Bu jihatdan har uchala manbada ham bahorning kelishi tasvirida uyg'unlik mavjudligini his etish qiyin kechmaydi. Furqat ham bahorning kelishini qishning ketishi bilan zid qo'ygan holda tasvirlab berishni ma'qul ko'radi. Olam go'zalligiga boshqalar e'tiborini tortish (bevosita do'stlarga murojaat) she'rning ilk misralaridagi asosiy ko'zga tashlanadigan unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda, unda bevosita butun insoniyatga da'vat ruhi ham ochiq seziladi.

Tabiatdagi ko'tarinkilikni Yusuf Xos Hojib ayrim qushlar va hayvonlar tasviri orqali bo'rttirib berishga rag'bat sezsa, Muqimiy va Furqat ayni shu kayfiyatni bevosita atrofdagilarga murojaat, ularni ham shu kayfiyatni baham ko'rishga chorlov bilan amalga oshirganlari kuzatiladi:

Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila,

Uynashib, gohe tabiatni qilaylik chog'lar.

Rux ochib ko'zdin nihon bo'lsa paridek, naylayin,

Ayrilib hushu aqlidin telba bo'lmay sog'lar [2.].

Bahor chog'ida bunday manzildagi hayot o'z-o'zicha emas, balki yaqinlar (*"ulfatu ahbob ila"*) davrasidagina munosib va manzur bo'ladi. Shoirning "tabiat" so'zi orqali amalga oshirgan so'z o'yini – iychom san'atidan foydalanishi bahor haqidagi tasavvur va tushunchalarni aks etirishda ham o'ziga xos qo'shimcha imkon va samarani yuzaga keltirgan. Bir qarashda "tabiat" inson va hayvonotdan o'zga olam", "o't-o'lan, o'simlik va boshqa narsalar band etgan tevarak-atrof" haqida gap borayotgandek bo'ladi. Uni ham inkor etmagan holda asosiy mulohazaning "inson ruhiyatiga xos asosiy, turg'un xususiyatlar majmui; xarakter" borasida ekani ham ayni haqiqatdir.

She'rdagi "qadimiy ohanglar", milliy-ma'naviy ruhning berilishii "pari" obrazi tasviri orqali reallashgan. Parining "ko'zdan nihon bo'lishi", uni ko'rgan "sog'larning aql-u hushdan ayrilib telba bo'lishi" tasavvur yaxlitligi uchun munosib zamin bo'lgan.

Furqat mayin va bosiq ohanglarda bahoriy o'zgarishlarni qayd etib boradi:

*Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar.
Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzub o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.
Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, yig'ladi biyobonlar.
Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar ohu afg'onlar [3.198].*

Olamda, tabiatda o'zgarish yuzaga kela boshlagan. Buni batafsil holda emas, vaqtning juda qisqa muddatdagi oralig'ida – sahar chog'idagi manzarasi vositasida ko'rsatishga maylurag'bai o't-o'lanlarning umumiy holati (sabzalar xurram), butun tabiatning faol harakatga kirishgani esa shabnam, bahor yomg'irining bilinar-bilinmas holda gul yaproqlariga tusha boshlashi vositasida ko'rsatiladi.

Tabiat go'zalligi va insoniy hayot nomutanosibligi har ikki adibda ustuvorroq tarzda namoyon bo'ladi:

*Bulbul o'qig'och yig'lab subhidm xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.
Kechtilar vafo ahli qolmayin tutb savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.
Kuymasun bu vodiya ne uchun dimog'imkim,
Ranju g'ussada dono, kechsa shod nodonlar [3.198].*

Shoir xalqi hamma vaqt ijtimoiy faol bo'lib kelgan. Shuning uchun ham ular eng kichik imkoniyatdan ham juda ustalik bilan foydalanishga harakat qiladi. Furqat ham ayni mana shu imkonni mazkur baytda ko'rsata olgan. U "dononing ranju g'ussada yashab, nodonlarning shod yurishlari o'rtasidagi mantiqsizlikdan "dimog'i kuyishini" iztirob bilan qayd etadi.

Yuqorida Yusuf Xos Hojibning o'simlik, qush va hayvonot olamiga murojaatidagi batafsillikni kuzatdik. Ayni detallar Muqimiy va Furqatda ham bir oz tafovutlar bilan bo'lsa-da, yana qo'llangan. Albatta, bu adiblarning poetik

maqsadlari bilan ham, ularning hayot tarzidagi o'ziga xosliklar bilan ham, g'azal janrining o'ziga xos talab va me'yorlari bilan ham izohlanadi.

Aslida bu yerda ham tabiat go'zalligini tasvirlashdagi poetik ishtiyoq hamda shaxsiy hayotdagi – taqdiridagi nomutanosiblik ham takrorlanmas poetik shaklda namoyon bo'lgan. Bulbul va gul bu faslda shodu xurram bo'lishi lozim edi. Aslida esa – hayotda bulbul subhidamda, hayotning boshlanishidayoq xazon fasli alomatlarini ko'radi, shuning chun ham u yig'lab faryod chekadi, bu holni ko'rgan bulbulning yoqasini yirtib, qon yutishi bejiz emas.

Ayni holatning Muqimiy g'azalidagi tasviri ham e'tiborga molik:

*Hayfkim ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.*

*Marham pstab kimsadii, zaxmi dil izhor aylasang,
Chorae qilmoqdii o'zga, ustig'a tirnog'lar [2.].*

Lirik kayfiyat ijtimoiy mavzularga daxl qilishni ham inkor etmaydi. Zero, olamning, tabiatning go'zalligi bilan ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi nosozlik, jamiyat va shaxs munosabatlaridagi tengsizlik shunday ohanglarga ham yo'l ochib beradi. Bu yerda "ahli tamiz" va nomi ko'rsatilmagan "ahli tamiz bo'lmaganlar" o'rtasidagi ziddiyatlar hamma uchun juda sodda va tushunarli bo'lgan "bulbul" va "zog'" timsollari vositasida yoritib berilmoqda. "Zog'lar" bilan "tirnog'lar" she'rda qofiya vazifasini ado etish bilan kifoyalanib qolayotgani yo'q. Shoirning mahorati shundaki, "tirnash"ning "zog'" uchun xosligidan foydalanib ijtimoiy adolatsizlik haqidagi mulohazalarini ham oshkor qilishning yo'rig'ini topa bilgan.

Yusuf xos Hojib qo'llagan tilak va duo motivlari bahor haqida Qo'qonda yozilgan she'rda ham takrorlanadi:

*Tobakay mundog' malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko'z tutgin emdn senga bo'lsun tog'lar [2.].*

Yakundagi umumiylik shundan iboratki, bir tomondan asarning nihoyaga etganini bildirib tursa, ikkinchi tomondan, muallif shaxsiyatiga oid yana bir xislat, zamonaning umumiy ahvoliga tegishli baho berib, kelgusi hayotga umidvorlik ohanglarini ham singdirib yuborgan. Muqimiy ko'zda tutgan "tog'lar"ning "suyanch tog'lari" ekanini ilg'ash qiyin emas.

Bularning barchasi mashhur nazariyotchi olim A.N.Veselovskiyning quyidagi mulohazalarini yodga soladi: "Faktlar qatorini o'rganish asosida, ularning izchilligini, ularning o'zidan keyingi va oldingilari bilan munosabatlarini his qila boramiz; agar bu munosabatlar takrorlansa, ular orasidagi ma'lum qonuniyatlar mavjudligini taxmin qila boshlaymiz, agar bu takrorlar tez-tez yuz berayotgan bo'lsa, biz oldingi va keyingi hodisalar haqida gapirishdan to'xtab, ularni sabab va oqibat ifodalari bilan almashtiramiz. Biz yanada chuqurroq ketishga mayl sezamiz hamda ushbu sababiylik tushunchasini oraliq faktlar doirasiga o'tkazish uchun rag'bat sezamiz: ular yo sababni yuzaga keltiradi yoki natijaning aks-sadolari bo'lib chiqadi" [1.37].

Shunga ko'ra, bunday qiyoslarni yana davom ettirish mumkin. Mavzu va muammo talqinining yaqinligi, adabiy an'analar izchilligi, milliy-ma'naviy qadriyatlar mushtarakligi ko'plab umumiy jihatlarni namoyon etadi. Ular orasidagi

mushtarak jihatlar esa bu hodisalar zamirida nihoyatda qadimiy, mustahkam va barqaror adabiy qonuniyatlar mavjudligini ham tasdiqlaydi.

Ayniqsa, milliy-ma'naviy ruh va kayfiyat, millat taqdiri va tarixiga bog'liq bo'lgan tafakkur tarzining asrlar osha o'z izlarini saqlab qolishi mumkinligi e'tiroflarga sazovor darajada namoyon bo'ladi.

Ayirmalar esa, birinchidan, makon (Qashqar va Qo'qon), ikkinchidan juda katta vaqt oralig'i (XI asr hamda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) bilan belgilanadi. Qolavyersa, bu asarlarning turli janr (masnaviy, qasida, g'azal) va uslubda yaratilgani ham ular o'rtasidagi ayirmalarning kengayib borishida yetakchi omillar bo'lgan.

Eng muhimi, adabiy hodisalarning alohida ijodkor shaxsiyati, uning qobiliyat va iste'dodi bilan ham belgilanishi yana bir marta o'z isbotini topadi.

Bularning barchasi qadimgi turkiy adabiy muhitida yaratilgan asarlar bilan Qo'qon adabiy muhitiga daxldor bo'lgan namunalarning qiyosiy-tipologik tahlillari adabiyotshunoslik uchun boy material berishi mumkinligidan dalolat beradi. Ayniqsa, real hayot va uning adabiy-estetik ifodasi o'rtasidagi mushtarak hamda takrorlanmas jihatlarini sinchiklab o'rganish adabiy hodisalar tarixi va nazariyasini o'rganishda o'ziga xos qonuniyatlarning inkishof etilishi uchun ham boy materiallar bera olishini ko'rsatib turibdi. Bu boradagi tadqiqotlar istiqboldagi dolzarb muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва, Высшая школа, 1989. – С. 406.
2. Муқимий. Асарлар. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Ғ.Каримов. – Тошкент, Ғафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974, – Б.480.
3. Фурқат шеърятидан. Тузувчи Холид Расул. – Тошкент, 1960. – Б.232.
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билг (Саодатга элтувчи билим). транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент, Фан, 1972. – Б. 964.

QO'QON ADABIY MUHITINING JAHONIY E'TIROFI

Nurboy JABBOROV,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti kafedra mudiri, filologiya
fanlari doktori, professor
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Maqolada Qo'qon adabiy muhitining xorijda o'rganilishi masalasi Furqat adabiy merosiga doir tadqiqotlar misolida tahlil etilgan. Amerikalik Edvard Ollvort, boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy, major olimi Yanosh Ekman hamda Germaniyada 1965-yili nashr etilgan "Turkiy filologiya asoslari" to'plami mualliflarining Furqat ijodi va Qo'qon adabiy muhitiga doir ilmiy qarashlari o'rganilgan.

Sharqiy Turkistonda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ikki guruhga bo'lib tahlil etilgan: 1) shoir asarlarining nashrlari; 2) ilmiy maqolalar.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, adabiy muhit, she'riyat, badiiy-estetik qonuniyatlar, poetik tafakkur, xorijlik olimlar tadqiqotlari, turkologiya, ilmiy talqin.

Аннотация

В статье анализируется изучение кокандской литературной среды за рубежом на примере исследования литературного наследия Фурката. Изучены научные взгляды касательно творчества Фурката и литературной среды Коканда американского ученого Эдварда Оллворта, башкирдского ученого Ахмада Заки Валиди, венгерского исследователя Яноша Экмана и авторов сборника «Основы турецкой филологии», изданного в 1965 году в Германии.

Научные исследования, созданные в Восточном Туркестане разделены на две группы: 1) издания произведений поэта; 2) научные статьи.

Ключевые слова: узбекская литература, литературная среда, поэзия, художественно-эстетические законы, поэтическое мышление, исследования зарубежных ученых, тюркология, научная интерпретация.

Annotation

The article analyzes the research of the Kokand literary ambiance abroad on the example of the study of the literary heritage of Furkat. The scientific views are analyzed on the work of Furkat and the literary ambiance of Kokand by the American scientist Edward Allworth, the Bashkird scientist Ahmad Zaki Validi, the Hungarian researcher Janos Ekman and the authors of the collection "Fundamentals of Turkish Philology", published in 1965 in Germany.

Scientific research were created in East Turkestan is divided into two groups: 1) publications of the poet's works; 2) scientific articles.

Key words: Uzbek literature, literary ambiance, poetry, artistic and aesthetic laws, poetic thinking, research by foreign scientists, Turkology, scientific interpretation.

Kirish

O'zbek adabiyoti muazzam tarixiy takomil bosqichlariga va umrboqiy ijodiy an'analarga ega ekani jihatidan jahon adabiy-estetik tafakkuri rivojiga munosib hissa qo'shgan ma'lum. Milliy adabiyotimiz o'ziga xos ijodiy an'analarga ega turli adabiy muhitlarni birlashtirganiga ko'ra ham dunyo adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoro va Xiva adabiy muhitlari mumtoz she'riyat an'analari muttasil ravishda yangilanib, takomillashtirilib borilgani, bir-birini takrorlamaydigan ijodiy kashfiyotlarga boy ekani bilan umumbashariy poetik tafakkur takomilida yuksak mavqega ega ekani buning isbotidir. Ushbu adabiy muhitlarning xos xususiyatlari va atoqli namoyandalari merosini o'rganish har doim Sharq va G'arb, yaqin va olis xorijiy mamlakatlar olimlarining diqqat markazida turgani va bu masalaga bugungi kunda ham alohida e'tibor qaratib kelinayotgani sababi shunda.

Amerikalik olim e'tirofi

Dunyo adabiyotshunosligida Qo‘qon adabiy muhiti ko‘p va xo‘b o‘rganilgan va bu jarayon izchil davom etib kelayotir. Amerikalik taniqli adabiyotshunos, Kolumbiya universiteti professori Edvard Ollvortning 1964-yili chop etilgan “Uzbek literary politics” (“O‘zbek adabiy siyosati”) nomli yirik tadqiqotida ushbu adabiy muhit namoyandalaridan Furqat, Muqimiy va Zavqiy adabiy merosiga salmoqli o‘rin ajratilgan. Olimning mazkur tadqiqoti XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari hamda sho‘rolar hukmronligi davri o‘zbek adabiyoti tadqiqiga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda Furqat ijodi uch yo‘nalishda tekshirilgan: 1) shoir yashab ijod etgan muhit; 2) ijodkorning Rusiyaga munosabati; 3) shoir adabiy merosi tadqiqi. Qaysi mavzuda fikr yuritmasin, Edvard Ollvort masalani mufassal o‘rganishga harakat qiladi.

Shoir yashab ijod etgan muhit tahlili. Olim Furqat adabiy merosini uning davradoshlari Muqimiy va Zavqiy ijodi bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganadi, Qo‘qon adabiy muhitiga yuksak baho beradi. Uning: “Zokirjon Furqatning tarjimai holi bizni XIX asr so‘ngidagi butun bir adabiy qatlam bilan tanishtirishi mumkin. Shoir tarjimai holida faqatgina o‘zining shaxsiy hayoti va Qo‘qon adabiy muhiti to‘g‘risida emas, balki ruslarning qiziquvchan olami, hayoti, faoliyati, adabiyoti va san‘ati haqida foydali ma‘lumotlar beradi” [3, 27].

Edvard Ollvort Furqatning tarjimai holi, yoshligidanoq Qur‘oni karim va “Chor kitob” mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘lgani, 8 yoshida “Mantiq ut-tayr”ni o‘qib chiqqani, 9 ga to‘lganda Alisher Navoiy, Hofiz, Fuzuliy kabi Sharq she‘riyati darg‘alari ijodidan bahra olgani, “Chor darvesh”ni fors tilidan tarjima qilgani xususida yozadi.

N.P.Ostroumovning “Сарты” asari asosida Furqatning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “Xo‘qand viloyatidagi fozilu rasotab’ kishilar birla ittihad aylab, alarning suhbatidin ko‘p bahralar toptim va asr shuarolarikim, chunonchi mavlono Muhyi va mavlono Muqiyim va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tab‘larimizdin mushoira qilur erduk va bir g‘azalda tatabbu’ ko‘rguzub, bir mazmun har nav’ ifoda topar erdi. Goho hamda gushanidin gul uzub, gohi na’t naxlistonidin samarchin o‘lur erduk va ba’zi vaqt ishq tavsifi va husn ta’rifida g‘azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho‘x g‘azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog‘lar erduk. Digar she’r arboblari bizlar suhbatimizni orzu aylab kelur erdilar” [3, 31].

Ijodkorning Rusiyaga munosabati talqini. Furqat Marg‘ilonda yashagan paytida “Rusiya rasmlarini mutlaqo bilmagan” bo‘lsa, Toshkentga kelgach, “...biz xalqg‘a Rusiya xalqi bilan bir yerda turmoq Haq taolo irodasi birlan bo‘ldi. Aning uchun alarning rasmlarini yaxshi bilmoq bizlarga zarur, chunki aromizda savdo va boshqa taaluq robitalar ko‘bdur. O‘z naf‘imiz uchun Rusiya xalqi umurig‘a mulohaza qilsoq lozimdur”, degan xulosaga kelishi bilan bog‘liq fikrlar olimning shoir tarjimai holi va dunyoqarashini chuqur o‘rgangani isbotidir.

Edvard Ollvort Markaziy Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi masalasiga to‘xtalib: “Ruslar savodli sartlar (o‘zbeklarni u shunday ataydi-N.J.)ga oddiy xalqqa o‘tkazganchalik ta’sir o‘tkaza olgan emas. Chunki ular

mahalliy aholining dunyoqarashi rivojlangan tabaqasi vakillari bo'lgan", – deb yozadi [3,29].

Lekin, olim mana shunday xolis nuqtai nazarni har doim ham saqlab qola olgan emas. Uning ayrim mulohazalari va talqinlari milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining asl mohiyatiga muvofiq emas. Masalan, olim mana bunday yozadi: "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida, Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinganidan so'ng taraqqiy etgan rus madaniyati o'zbek demokratik adabiyoti va uning atoqli namoyandalari san'at asarlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li, Hamza va boshqalar shular jumlasidandir. Zerikarli xarakterga ega bo'lgan diniy-ilohiy adabiyot (Haziniy, Nisbatiy, Ulfat, Mirza va boshqalar) va saroy-feodal adabiyoti (Feruz, Tabibiy, Almaiy, Kamiy va boshqalar)ga qarshi o'laroq demokratik adabiyot o'zining ilg'or namoyandalari an'analarini davom ettirdi" [3.257].

Ko'rinib turibdiki, olimning mazkur fikrlari kommunistik dahriylikka asoslangan mulohazalardan unchalik farq qilmaydi. Edvard Ollvort o'zbek adabiyotini "zerikarli xarakterga ega bo'lgan diniy-ilohiy, saroy-feodal va demokratik adabiyot" kabi qismlarga bo'ladi. Tabiiyki, bunday talqin adabiyotning asl mohiyatiga zid va o'zini oqlamaydi. Olim tadqiqotida qimmatli ilmiy kuzatishlar bilan bir qatorda shu kabi G'arb tafakkuriga asoslangan yondashuv ham kuzatiladi.

Shoir adabiy merosi tadqiqi. Ostroumovning "Сарты" asarida Furqatning "Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida" manzumasining "Turkiston viloyatining gazetisi"da e'lon qilinish vaqtida tushirib qoldirilgan quyidagi qismi rus tiliga so'zma-so'z tarjima qilinib keltirilgan:

Однако наши стихи русским людям не понятны,
Потому что они читают и хорошо знают
своих поэтов-Пушкина, Лермонтова, Некрасова.
Эти три поэта писали своеобразно и показали
стихотворство в своих сочинениях.
Наши стихи не похожи на те и образы
наши не похожи на ихние.
Не удивительно, если и не понравятся
(наши стихи).
Не удивительно, если они не будут
брать их в руки.
Это недовольства не без причины-
Если (наши стихи) не нравятся, то
не удивительно.
Потому что, что бы не было, мы пишем
соответственно своим склонностям [9, 125-126].

Bu haqda Abdurashid Abdug'afurov [1,178] va Sharif Yusupov [18,147-150] tadqiqotlarida ham fikr yuritilgan. Ushbu parcha, birinchidan, Furqat she'rining to'liq matni bilan tanishtirishi, ikkinchidan, shoirning rus adabiyotining uyutuk vakillari Pushkin, Lermontov va Nekrasov she'riyatini ancha chuqur bilishi,

uchinchidan, Furqatning ijod konsepsiyasi ifodalangani jihatidan alohida ahamiyatga ega.

Umuman, Edvard Ollvort tadqiqoti o‘zbek adabiyoti, xususan, Qo‘qon adabiy muhiti taraqqiyot tendensiyalari, atoqli ijodkorlar adabiy merosi tadqiq qilingani, amerikalik o‘quvchilarni milliy adabiyotimizning o‘zga xos xususiyatlari bilan tanishtirishi jihatidan qimmatlidir.

Ahmad Zaki Validiy tadqiqoti

Qo‘qon adabiy muhiti va uning yetuk namoyandasi Zokirjon Furqat ijodi Turkiya, Majoriston va Sharqiy Turkistonda ham muttasil o‘rganib kelinayotir. Jadidchilik harakati rahnamolaridan bo‘lgan boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning Turkiyada yashagan davrida yaratilgan “Bugunku Turkili: Turkistan ve yakin tarihi” tadqiqoti shular jumlasidandir. Olim XIX asr boshlarida Qo‘qonda Amir Umarxon va Xivada Muhammad Rahimxon davrlarida xuddi Alisher Navoiy zamonasidagi kabi shoirlar muhiti mavjud bo‘lgani xususida yozib, bu adabiy hayot Farg‘onada Rusiya hukmronligi paytida ham yashaganini ta’kidlaydi: “Qo‘qonda Mavlono Muhyi, Muqimiy, Zavqiy va Zokirjon Furqat 1890-yildayoq adabiy bir muhitni vujudga keltirdilar” [2,501].

Zaki Validiy N.P.Ostroumovning ruslar bilan aloqada bo‘lgan, Rusiya va Ovrupoga sayohat qilgan o‘zbeklarning tarjimai hollarini gazetada muntazam berib borganini ta’kidlaydi. Jumladan, 1887-yili Xarkovda o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazma ishtirokchisi Mirza Buxoriyning Boku-Xarkov-Moskva-Peterburg yo‘nalishidagi sayohati xotiralari, toshkentlik mashhur savdogar Toji Muhammad Isomahmudovnin 1900-yildagi Boku-Istanbul yo‘li orqali Parij sayohati taassurotlari, gazeta muharrirlaridan Zokirjon Furqat, Sattorxon Abdug‘afforov, Xudoyorxonning kichik o‘g‘li Ibn Yaminbek kabi ziyolilarning o‘z qo‘llari bilan yozilgan tarjimai hollari, ularning rus madaniyati bilan aloqalari xususidagi mulohazalari “Turkiston viloyatining gazetasi”da e’lon qilingani haqida yozadi.

“Turkiston viloyatining gazetasi” materiallari va missioner N.P.Ostroumov faoliyatiga baho berar ekan, olim masalaning asl mohiyatiga nazar tashlaydi, tahlil etadi, umumlashma xulosalar chiqaradi. Masalaga atroflicha yondashadi, ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga xolis ilmiy baho beradi. Jumladan, N.P.Ostroumovning mazkur sayohatnomalarni gazetada nashr etishdan qanday maqsadni ko‘zlagani haqida mana bunday yozadi: “Bu kabi sayohatnomalarda Ostroumov, albatta rus madaniyatini maqtattirdi. Hatto Ovrupo sayohatnomalarini ham rus siyosati manfaatlariga muvofiqlashtirdi” [2,502]. Lekin, bu fikrlardan zinhor-bazinhor nomlari zikr etilgan ma’rifatparvarlar chorizm manfaatlariga xizmat qilgan ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Buni Ahmad Zaki Validiyning o‘zi ham alohida ta’kidlaydi: “Lekin, (ushbu sayohatnomalarda-N.J.) milliy manfaatlariga uyg‘un ahamiyatli fikrlar berildi. Masalan, shoir Furqat tarjimai holidagi Alisher Navoiy adabiy an‘anasining Xo‘qandda qay darajada quvvatli davom ettirilgani va uning yangi adabiyotga ta’siri masalalari benihoya samimiy aks etgan” [2,502].

Olim ushbu fikriga Furqat tarjimai holidan dalil keltirgani, ayniqsa, ahamiyatlidir. Tabiiyki, mazkur mulohazasida Zaki Validiy Alisher Navoiy adabiy an'anasining quvvatli davom etishi milliy ma'rifat yuksalishiga nechog'lik katta ta'sir ko'rsatishini nazarda tutgan. Umuman, Furqat va unga zamondosh ziyolilar matbuotdan, hatto general-gubernatorlik nashri hisoblangan "Turkiston viloyatining gazetasi" minbaridan milliy manfaatlarda foydalandi [8,168]. Buni shu davr adabiyoti bilan shug'ullangan olimlar G'ulom Karimov [7,112] va Sharif Yusupov [18, 134] ham alohida ta'kidlaydi.

Zaki Validiyning ta'kidlashicha, Ostroumov va uning safdoshlari 35 yillik faoliyatlari davomida o'zlari istagan muhitni shakllantira olmadi: "Gazetaga mushtariy bo'lmoq musulmon ma'murlar uchun majburiy bo'lsa-da, 1890-yili 600, 1896-yilda esa 700 nusxa chop etilmishdir" [2, 503].

Demak, millat ziyolilari "Turkiston viloyatining gazetasi"da faol ishtirok etsalar-da, uni milliy gazeta deb hisoblamagan. Ko'p o'tmay, o'lkada milliy gazetalar chiqqa boshlagani ham ushbu fikrni quvvatlaydi. Lekin o'zbek milliy matbuoti yuzaga kelishi va rivojlanishida, shubhasiz, ziyolilarning mazkur gazetada orttirgan tajribalari o'ziga xos maktab vazifasini bajardi.

Umuman, Ahmad Zaki Validiyning mazkur tadqiqoti faqat Furqat hayoti va faoliyatiga munosabat bildirilgani jihatidagina emas, shoir va uning zamondoshlari asos solgan "Yangi o'zbek adabiyoti" (Zaki Validiy iborasi) xususiyatlarining o'ziga xos tahlil etilgani, uning yuzaga kelish jarayonidagi tarixiy vaziyatga xolis ilmiy baho berilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Qo'qon adabiy muhiti major olimi nigohida

Major turkshunos olimi Yandosh Ekmanning "Harezm, kipeak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar" ("Xorazm, qipchoq va chig'atoy turkchasiga oid tadqiqotlar") asari o'zbek adabiyotiga doir muhim ilmiy asar ekani ma'lum. Monografiyaning "Chig'atoy adabiyotining so'ng davri (1800-1920)" nomli maxsus bobida XIX asr o'zbek adabiyoti namoyandalari ijodi tahlil etilgan.

Olimning fikricha, Turkistonning Rossiya mustamlakasiga aylanish sabablari, birinchidan, har bir xonlikning o'z ichida bo'lgan fitna-fasodlar, ikkinchidan, ular o'rtasidagi o'zaro adovat va kurashlar, uchinchidan, xonlar yurtni ko'tara oladigan, zamon talablariga mos islohotlarni o'tkaza olmagan va parchalanib ketgan Turkistonni birlashtira bilmagan, to'rtinchidan, XIX asrda Turkiston madaniy hayotida yangilanish bo'lmay, o'lkaning madaniy saviyasi past darajada qolib ketgani, ko'plab madrasalar ochilsa-da, ularning o'quv dasturlari va uslublari o'zgarmagan, beshinchidan, Turkistonni bosib olgan Rusiya yerli xalqni madaniy hayotdan uzoqda saqlashga intilgani. Muallifning yozishicha: "XIX yuz yillikda Buxoro amirligi hududida bironta ham diqqatga sazovor chig'atoycha asar yaratilmadi. Buning aksi o'laroq Xiva va Xo'qandda chig'atoy tilida jonli bir adabiy muhit bor edi. Ishq, sharob va zamonadan shikoyat kabi eski mavzularga oid, Navoiy va Fuzuliy an'alariga muvofiq juda ko'p she'rlar yozildi" [4,209]. Tabiiyki, tadqiqotchining "XIX yuz yillikda Buxoro amirligi hududida bironta ham diqqatga sazovor chig'atoycha asar yaratilmadi", degan so'zlariga qo'shilib bo'lmaydi. Holbuki, bu davrda mazkur hududdan Mujrim Obid, Olim Devona,

Shavqiy Kattaqo'rg'oniy kabi zabardast shoirlar yetishib chiqdi va ayni "chig'atoy tili" deb yuritilgan klassik o'zbek tilida ko'plab nodir asarlar yaratdi.

Yanosh Ekman XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiyotida rus va g'arb madaniyati ta'sirida yangi mavzularga qo'l urilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim bu davr adabiyotida ham avvalgidek she'riyat ustun bir mavqeda ekani, tarixiy asarlarni hisobga olmaganda, nasrda kam yozilganini zikr etadi.

Tadqiqotda Furqat biografiyasiga, Qo'qon madrasasida o'qishi, tog'asining taklifi bilan Yangi Marg'ilonga borishi, u yerda do'kon ochib, savdo bilan shug'ullangani-yu, yana Qo'qonga qaytib kelishi, 1889-1891-yillar mobaynida Toshkentda yashagan shoirning gimnaziya, teatr, nashriyot kabi rus madaniy muassasalarini borib ko'rgani, rus adabiyoti bilan yaqindan tanishgani to'g'risidagi ma'lumotlarga, shoir asarlari tahliliga alohida o'rin ajratilgan. Olim fikricha: "O'sha paytda Qo'qonda modern tushunishli bir shoirlar guruhi bor edi. Furqat ham ular safiga qo'shildi va u guruhda bo'lgan Muqimiy bilan yaqindan do'st bo'ldi" [4, 232].

Shuningdek, tadqiqotchi shoirning Toshkentda rus missioneri, "Turkiston viloyatining gazetisi" muharriri N.P.Ostroumov bilan tanishgani xususida yozadi. Tadqiqotda professor G'ulom Karimov tomonidan Ostroumov fondidan Furqatning xorijdan yo'llagan 18 maktubi topilgani, ulardan to'rttasi "Turkiston viloyatining gazetisi"da chop etilgani, mazkur fondga, bulardan tashqari, shoirning do'sti Muqimiyga va rus turkologi V.P.Nalivkinga yo'llagan she'riy maktublari ham saqlanishi, bular Furqat hayotini o'rganishda muhim manbalar ekani alohida ta'kidlanadi. Shu fikrlarning o'ziyiq major olimining Furqat hayoti va ijodiy faoliyatiga oid o'zgacha yaratilgan tadqiqotlardan yaxshi xabardor bo'lganini ko'rsatadi.

Yanosh Ekman Furqatning xorijga ketish sababi haqidagi yangi bir versiyani ilgari suradi. Uning yozishicha: shoir "Granduk Nikolayni hajv qilgan va Ruslarning Turkistondagi siyosatini tanqid etgan bir she'ri sababli o'z yurtini tark etmoqqa majbur bo'lgan. Bir muddat Istanbulda yashagach, Misr, Arabiston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Kashmir yo'li bilan 1893-yilda Yorkentga keladi hamda erlashadi. 1909-yili shu erda vafot etadi" [4, 233]. Olim Granduk Nikolay deganda Nikolay II ni nazarda tutadi. Lekin, Furqatning Nikolay II ni tanqid qilgan she'ri borligi ma'lum emas. Ushbu versiyaning ikkinchi qismi, ya'ni, Furqatning Turkistondagi Rusiya mustamlaka siyosatini qoralagani esa ayni haqiqatdir.

Furqatning xorijda "o'z yurtini hech bir zamon unutmagan"i, uni sog'inib ko'pgina asarlar yozganini ta'kidlagan olim ushbu fikr dalili sifatida shoirning quyidagi misralarini keltiradi:

Kelib bu shahrga ko'p oyu yillar o'tdi darvoqe,
Na keldi oshnodin xat, na xeshu aqrabolardin...
Vatanning ishtiyoqin tortaram g'urbat g'ami birla,
Turubdurman qutulmay g'ussa-yu ranju inolardin.

Olim Furqat asarlarining manbalari to'g'risida ham mulohaza yuritadi. Xususan, u "Furqat she'rlarining yaxlit devon holda to'planmagani"ni, ularning zamonamizga qadar qo'lyozma bayoz va majmualar, "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalari orqali etib kelganini ta'kidlaydi. Bundan Furqatning devon

tuzgani haqidagi ma'lumotlardan uning xabardor emasligi ma'lum bo'ladi. Aks holda u "Furqat she'rlarining yaxlit devon holda to'planmagani" haqida emas, shoir devonining hozircha topilmagani hususida bahs yuritgan bo'lardi.

Yanosh Ekman Furqatning eng avvalo lirik shoir ekanligini ta'kidlar ekan, uning juda ko'p g'azallar, bir necha muxammas, musaddas, murabba va bir mustazod yozganini qayd etadi. "Klassik tarzda, arabcha va forscha so'zlar bilan qorishiq bir tilda yozilgan bu she'rlarning bosh mavzui ishqdir" [4, 234,] – deb yozadi olim va fikrining dalili sifatida Furqatning:

Bir qamarsiymoni ko'rdum baldai Kashmirda,

Ko'zlari masxuru yuz jodu erur tasxirda, –

matla'li g'azali matnini to'liq keltiradi.

Shundan keyin Furqatning nisbatan sodda uslubda ham she'rlar yozgani, "anglatish boqimidan avvalgilardan farqli she'rlari" ham mavjud ekani xususida bahs yuritadi. Bunga dalil sifatida shoirning "Ikkimi" radifli g'azalining matni havola etiladi. "Sayding qo'yaber sayyod" musaddasi "shoirning eng ko'p tanilgan lirik she'rlaridan biri" sifatida talqin etiladi. Etti banddan iborat bu she'rning allegorik uslubda yozilgani, unda shoirning hurriyat orzusi ifoda etilgani ta'kidlanadi. Musaddasning birinchi bandi namuna sifatida beriladi.

Yanosh Ekman Furqatning 1957-yili qo'lyozma manbalardan aniqlanib, "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan mustazodini "tahlilga arziqli asar", deya talqin etadi va mana bunday yozadi: "Shoir bu she'rini mustazod yoziladigan an'anaviy vaznda emas, hazaj va muzore vaznlarini birlashtiruv orqali o'zi yaratgan yangi bir vazn (maf'ulu foilotun mafoiylun foilotun // maf'ulu fa'lun)da yozgan. Ayricha uzun misrani besh hijoli so'zlarga bo'lib, so'zlarni bir-biri bilan qofiyalantirgan" [4, 235. Shundan keyin olim "g'oyat ohangli bo'lgan" bu muxammasdan ikki baytini namuna sifatida beradi.

Tadqiqotchi Furqatning bir qancha hajviy she'rlar ham yozganini qayd etadi va misol tariqasida "Tuf" radifli she'rni keltiradi. Ta'kidlash joizki, Sayfiyning Furqat haqidagi dostonidan olingan ushbu she'rning shoir ijodiyotiga aloqasi yo'q. She'rning 1958-yilgi Furqat "Tanlangan asarlar"iga kiritilishi, nazarimizda, shoirni hajviy asarlar ham yozgan ijodkor ekanini "isbot etish"ga urinish natijasi bo'lgan. She'r Furqat "Tanlangan asarlar"ining keyingi nashrlariga kiritilmagani ham ushbu fikrni quvvatlaydi. Qolaversa, bu she'r Furqat asarlarining bizga ma'lum bo'lgan qo'lyozma va toshbosma manbalaridan birortasida ham uchramaydi. Xorijlik tadqiqotchilar, jumladan, Yanosh Ekman ham 1958 yilgi "Tanlangan asarlar"ga tayangan ko'rinadi.

Olim Furqatning Ovrupo madaniyati bilan ruslar vositasida tanishgani va undan hayratlangani haqida yozadi. Toshkentdagi rus gimnaziyasi, o'zi ishtirok etgan rus bali, pianino, telegraf kabi uning uchun yangilik hisoblangan hodisalar to'g'risida jo'shqin g'azal va masnaviylar bitganini ta'kidlaydi. "Gimnaziya" va "Nag'ma bazmi xususida" manzumalaridan parchalar keltiradi. Uning fikricha: "Ko'z o'ngida sodir bo'layotgan yangiliklar shoirni ilmning beqiyos ahamiyati va zarurligi to'g'risidagi muhim xulosaga olib keladi" [4, 237].

Tadqiqotda Furqatning ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullangani ta'kidlanadi. Uning ilmiy asarlaridan bir qismi, xususan, "Ilmi she'rning qoidai avzonini

bayoni” nomli o‘zbek mumtoz adabiyotida eng ko‘p qo‘llangan 55 vazn haqidagi risolasi, “Gapning tavsifi”, “Aza tavsifi”, “To‘y tavsifi” kabi etnografik asarlari Ostroumov fondida saqlanayotgani xususida ma‘lumot beradi. “Ilmi she‘rning qoidai avzonini bayoni” mustaqil asar bo‘lmay, hazrat Navoiy “Mezonu-l-avzon”idan konspekt ekani olim e‘tiboridan chetda qolgan.

Umuman, ushbu monografiya nainki Furqat ijodiy merosi, balki Qo‘qon adabiy muhiti tadqiqiga bag‘ishlangan teran tadqiqot ekani bilan alohida ajralib turadi.

Tarjima tadqiqotning Ovrupadagi nashri

1965-yili Olmoniyaning Visbaden shahrida “Turkiy filologiya asoslari” nomi bilan tadqiqot e‘lon qilingan. Tadqiqotni yaratishda Luis Bazin, Alessio Bombaji, Jean Don, Toyiy Cho‘xbilgin, Fahir Iz, Helmut Shellar kabi nemis, fransuz, italyan hamda turk olimlari ishtirok etgan. Mazkur tadqiqot Sharq durdonalarini o‘rganish Xalqaro ittifoqi ruxsati bilan Yagona milliy, madaniy, ilmiy, ta‘limiy uyushma yordamida amalga oshirilgan. Nashr ilmiy izohlar va indekslar bilan ta‘minlangan. Xalqaro miqyosda ekani, turli millat olimlari ishtirok etgani bois bo‘lsa kerak, tadqiqot nomi lotin tilidan olingan. Bu esa, mazkur tadqiqotning nechog‘lik ahamiyatli ekani isbotidir. Mazkur e‘tiborli tadqiqotda Furqat ijodiga alohida o‘rin ajratilgani, shoir hayoti va adabiy merosi haqida maxsus fikr yuritilgani, ayniqsa, diqqatga sazovordir [13, 400-402].

Tadqiqotdagi Furqat hayoti va ijodiga doir ma‘lumotlar major olimi Yanosh Ekmanning yuqorida ta‘kidlangan asaridan olingan. “Turk filologiyasi asoslari”ni nashrga tayyorlovchilar olimning Furqat haqidagi tadqiqotini nemis tiliga tarjima qilgan. Bu esa, o‘z navbatida, nemis o‘quvchilarining boshqa ijodkorlar qatori Furqatning qisqacha tarjimai holi, ijodining janr xususiyatlari va mavzu ko‘lami, g‘azallaridan ayrim namunalar bilan tanishuvlariga sabab bo‘lgan.

Sharqiy Turkiston olimlarining izlanishlari

Furqat hayoti va ijodiy faoliyatining o‘n olti yili Sharqiy Turkistonda, Yorkent shahrida kechgani ma‘lum. Shinjongda shoir merosi namunalarini to‘plash, ilmiy o‘rganish va nashr etish borasida bir qancha e‘tiborli ishlar amalga oshirilgan. 1989-yili “Qashqar uyg‘ur nashriyoti” tomonidan chop etilgan. 12,6 b.t. hajmidagi “Furqat tanlanma asarlari” buning yorqin dalilidir. Shinjong avtonomiyasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti instituti hamda Millatlar qadimgi asarlarni to‘plash ishxonasi ilmiy xodimlarining Furqat hayoti va ijodi bo‘yicha 1981-yildan boshlab olib borgan izlanishlari natijasi o‘laroq yuzaga kelgan mazkur nashr furqatshunoslikda muhim voqea bo‘lgani ayon. To‘plamni nashrga tayyorlovchilar: Ne‘matullo Ubaydullohoji va Fayzullaxon Is‘hoqhoji. Muharrir-Qodir Akbar. Adadi – 3000.

Nashr muharriri adabiyotshunos Qodir Akbarning ta‘kidlashicha, izlanishlar natijasida “Furqat hayot vaqtida ishlatgan va hozirgacha saqlanib kelgan moddiy buyumlar, Furqat asarlaridan (246 g‘azal, 2 murabba‘, 25 muxammas, 4 musaddas, 1 musabba‘, 1 tarji‘band, 4 she‘riy xat, 1 mustazod, 1 dostonni o‘z ichiga olg‘on masnaviy, qasida va boshqa turdagi she‘rlar) 7806 misraliq adabiy meros hozir Shinjong o‘zbek adabiyotining qimmatlik boyligi sifatida saqlanmoqta” [15.11].

Izlanishlar ancha samarali bo'lgan. Lekin, mazkur nashrga ushbu to'plangan asarlarning hammasi ham kirgan emas. Jumladan, "Tanlanma asarlar"ga Shinjong olimlari qo'lida bo'lgan 246 g'azaldan 202 tasi, 25 muxammasdan 17 tasi, 4 musaddasdan 3 tasi kirgan. Qolgan 44 g'azal, 8 muxammas, 1 musabba' nashrga kirmagan. Ular orasida Furqatning shu paytgacha mutaxassislariga ma'lum bo'lmagan asarlari ham bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. To'plamdagi she'rlar arab imlosi asosidagi uyg'ur yozuvida, devon tartibida joylashtirilgan. Uyg'ur yozuvining o'ziga xos jihati shundaki, unda arab imlosidagi to'rt xil "z", uch xil "s", ikki xil "t" kabilar yagona holga keltirilgan. Qisqa unlilar ham yozuvda ifodalanadi.

To'plamni tayyorlashda "Tuhfat ul-obidin", "Armug'oni Xislat", "Bayozi Muhallo", "Bayozi gulshani ash'or", "Bayozi Dilkash" kabi manbalar, shuningdek, "Furqatning Yakanda saqlang'on qisman qo'lyozmalari, masjid peshayvonig'a o'yib yozilg'on she'r uzundilari, shuningdek, chet ellardagi o'zbek muhojirlarining xotiralarida saqlang'on namunalar asosida tayyorlandi. To'plamdagi she'rlar O'zbekistonda nashr qiling'on uch xil nusxa bilanmu solishtirib chiqildi. Asarlarning asli variantini saqlab qolish uchun bir qadar qadimiyroq bo'lg'on variant o'lcham qilindi" [15.12].

To'plamning 1989-yili nashr etilgani hisobga olinsa, haqiqatan, unda bizdagi nashrlarga kirmagan bir qancha asarlar mavjud. Xususan, shoirning "Mening bir Laylivash ishqida Majnunlig' shiorimdur" misrasi bilan boshlanuvchi hamda "Yo Rab", "Makaylik" radifli g'azallari, "Hajnoma"si shular jumlasidandir. Lekin ta'kidlash joizki, qolgan barcha asarlar bizdagi nashrlarda ham mavjud. Shu ma'noda, so'zboshi muallifining "To'plamdagi asarlarning uchtin ikki qismi hozirg'acha e'lon qilinmagan asarlar" degan fikri bizdagi nashrlarga tegishli emas. To'plamdagi ilmiy izohlar ko'rsatib turibdiki, nashrga tayyorlovchilar shoir asarlarining qo'lyozma va toshbosma manbalariga ham murojaat qilishgan. Shuning barobarida, mazkur nashrda Xolid Rasul tomonidan nashrga tayyorlanib chop etilgan Furqat "Tanlangan asarlar"idan ham unumli foydalanilgan. Quyidagi dalillar ushbu fikrni quvvatlaydi.

Birinchidan, to'plamda va Xolid Rasul tayyorlagan nashrlarda she'rlarga qo'yilgan sarlavhalar aynan takrorlangan [14]. Ikkinchidan, ma'lumki, Furqat asarlarining bizdagi nashrlari sho'ro zamonida yuzaga chiqqan va she'rlardagi kommunistik dahriylik siyosatiga muvofiq kelmaydigan baytlar, bandlar qisqartirilgan. Natijada shoirning aksar asarlari qaychilanib, tanib bo'lmas darajaga keltirilgan. Xususan, Xolid Rasul tomonidan bir necha marta nashr etilgan "Tanlangan asarlar"da Furqatning 140 baytdan iborat "Sabog'a xitob" asarining 100 bayti e'lon qilingan, xolos. Manzumaning uyg'ur olimlari tomonidan chop etilgan to'plamdagi varianti sho'ro davridagi mazkur nashrlar bilan bir xil.

Lekin ushbu fikrlardan Shinjongda chop etilgan "Tanlanma asarlar" Toshkent nashrlarining aynan ko'chirmasi ekan, degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmasligi kerak. Mazkur to'plamda bizdagi nashrlarni to'ldiradigan, mukammallashtiradigan bir qator fazilatlar ham borki, ularni e'tirof etmaslik insofdan bo'lmaydi. Xususan, "El ichra ishq dog'in ifsho qilib bo'lurmu" misrasi bilan boshlangan g'azal bizdagi nashrlarda 8 bayt, Shinjong nashrida esa 9 bayt.

Shinjong nashrida va qo'lyozma manbalarda bo'lgan muhim 7-bayt bizdagi nashrlardan tushirib qoldirilgan:

Bo'yla jahondin o'tsang, isyon xijlatidin,

Tongla boshingni erdin bolo qilib bo'lurmu [15,143-144].

Shinjong nashrida berilgan izohga ko'ra, ushbu g'azal ikki toshbosma manba: "Bayoz maa gulshani ash'or" va Sidqiy-Xondayliqiy nashr ettirgan bayozdagi nusxalar muqoyasasi asosida tayyorlangan. Ushbu baytning Furqat dunyoqarashini belgilashdagi muhim ahamiyati nazarda tutilsa, uning mavjud nashrlardan tushirib qoldirilgani achinarlidir. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Nashrning yutug'i faqat bular bilangina cheklanmaydi. Unda, yuqorida ta'kidlanganidek, Furqatning diniy-ma'rifiy mavzuidagi "Yo rab" radifli g'azali, "Hajnoma"si birinchi marta e'lon etilgani nashrning ahamiyatini oshirgan. Lekin, mazkur nashrdan "Hajnoma"ning ikki bayti tushib qolgan. Bu baytlardan biri 11-tarji'da:

Erur hasni hasin a'doi dinga,

Mudavvar ko'hi boloyi Madina [20, 234^a].

Ikkinchisi esa 12-tarji'da:

Harom o'lsun manga guldek ochilmoq,

Sazodur g'uncha yanglig' qong'a to'lsam [20, 235^a].

Uyg'ur olimlari nashridagi ilmiy izohlar Furqat asarlarining yozilish tarixi bildan tanishtirishi hamda ularning manbalari haqida ancha mufassal ma'lumot berishi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Jumladan, to'plamda "Chiroylik" radifli ikki g'azal berilgan va ular quyidagicha izohlangan: "Yakan nohiyalik madaniyat-maorif idorasi va Yakan nohiyalik madaniyat yurtining 1957-yili Furqat asarlari va hayoti to'g'risida olib borgan tekshirishlarining natijasiga qarag'onda bu g'azal 1900-yillari Yakan shahrining Monjugul besha mahallasidagi bir uyda yozilg'on. Furqat o'z odati bo'yicha har hafta chorshanba kuni ulfatlari bilan yig'ilishib, shahar ichidagi biror uy yoki do'sti Umar hojining shahar sirtidagi bog'ida o'zaro barovat qilishib, dutor-tanbur chalishib, she'r o'qishib, ko'ngul ochib o'tirishgan. Shunday suhbatlardan birida Furqat do'stlari Bobojon hojim, Mahmud qori hoji, Zaynulobidinxon, Soli a'lam, Umar hoji qatorliq kishilar bilan billa shahar ichida Monjugul besha mahallasidagi bir uyda ko'ngul ochib o'tirishadi. Kech kirganda uy egasi bir laganda uvutulg'on anor donalarini solib, lagan atrofiga bir necha sham yoqadi. Anor donalari sham nurini qaytarib, uy ichi qip-qizil nurga cho'miladi. Shu chog'da Mahmud qori hoji tanbur chaladi. Uy egasi usul o'ynab beradi. Ana shu manzaradan ilhomlangan Furqat shu erning o'zida-la "Chiroylik" degan mashhur she'rini yozadi. Bu she'rning yuqorig'i vaziyatda yozilg'onlig'ini Furqatning do'sti Bobojon hojim isbotlag'on. Bu g'azal ayni vaqtning o'zida-la qo'ldin-qo'lg'a o'tib, ko'chirilib, xalq ichiga keng tarqalg'on. Furqat hayot vaqtida-la ohanga solinib o'qulg'on. Har xil o'tirishlar va yig'inlarda aytilg'on. Hozir ham xalq ichida aytilib kelinadi" [15, 306-308].

Izoh mualliflari bu g'azalning o'sha kezda savdogarlar vositasi bilan O'zbekistonda ham shuhrat topgani, Muqimiy va Xislatning bu g'azalga muxammas bog'lagani, Shevan (Sidqiy-Xondayliqiy) tuzgan "Bayoz" da alohida g'azal holida, "Bayoz maa gulshani ash'or"da Muqimiy muxammasi bilan

bosilgani, Xislat muxammasi esa “Armug‘oni Xislat”da, shuningdek, “Bayozi Haziniy” da chop etilgani aytiladi. Mualliflar Muqimiy muxammas yozgan g‘azal bilan Shevan bayozida bosilgan g‘azal so‘zlari bir-biridan keskin farq qilishini aytib, bu “Furqatning bir qofiya, bir radif bilan yozg‘on ikki she‘ri bo‘lishi, shu ikki variant bo‘yicha tarqalgan bo‘lishi mumkin” [15, 308] degan xulosaga keladi. Shu bois to‘plamda g‘azalning har ikkala varianti berilgan. Mazkur g‘azal izohi, birinchidan, Furqatning yorqentlik do‘stlari, shoir faoliyat ko‘rsatgan adabiy muhit haqida muayyan tasavur bersa, ikkinchidan, uning eng mashhur g‘azallaridan birining yaratilish tarixi, manbalari bilan mufassal tanishtiradi.

Umuman, Sharqiy Turkistonlik hamkasblarimiz tomonidan “Furqat tanlanma asarlari”ga yozilgan izohlarda shoir asarlarining yaratilish tarixi, manbalari bilan bog‘liq yana bir qancha ahamiyatli mulohazalar bayon qilingan. To‘g‘ri, ayrim o‘rinlarda ular bilan bahslashish, munozaraga kirishish ham mumkin. Lekin, bu mazkur nashrning, unga yozilgan ilmiy izohlarning ahamiyatini zarracha kamaytirmaydi.

Uyg‘ur avtonomiyasi Ijtimoiy fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti instituti tomonidan nashrga tayyorlanib, 1989-yili nashr etilgan “Shinjong o‘zbek adiblari” antologiyasida ham Furqat asarlariga salmoqli o‘rin ajratilgan [16, 141-176]. Antologiyaga Alisher Navoiy, Mashrab, Huvaydo, Furqat kabi taniqli shoirlar qatori, Dilafgor, Zarif Qori Toshkandiy, Pirmqul Qori Andijoniy, Turg‘unjon Tululiy, Nasrullo Qori Farhadiy, Shavkat Yolqin, Bilol Aziziy, Barqiy, Visoliy, Nurmuhammad Erkiy, Yolg‘uz, Baxtiyor, Najmiddin Siddiq, Tal‘at Nosiriy kabi nomlari ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lmagan ijodkorlar asarlaridan ham namunalar kiritilgan. Nashrga tayyorlovchilarning yozishicha: “Bu to‘plamg‘a to hozirg‘acha ayon bo‘lmay kelgan va asarlari jamoatchilik bilan yuz ko‘rushmagan xeyli ko‘p adabiyot vakillari kirguzuldi” [16, 2].

Antologiyada har bir shoir haqida qisqacha ma‘lumot va asarlaridan namunalar berilgan. Tuzuvchilar Furqatni “...o‘zbek demokratik adabiyotining mashhur vakillaridan biri, Shinjong o‘zbek klassik adabiyotida muhim namoyanda, shundoq-la, uyg‘ur madaniyati tarixida belgilik rol o‘ynag‘on, ikki el xalqlari do‘stluquni qadrlag‘on” [16, 141] shoir sifatida ta‘riflaydi. Ular fikricha, shoirning “Shinjongda (Yakanda) o‘tkazgan o‘n etti yilliq hayoti mo‘l adabiy ijodiyot va qizg‘in ma‘naviy paoliyat bilan o‘tgan” [16, 142], Tajalli, Xasta kabi shoirlar bilan yaqin do‘stona munosabatda bo‘lgan.

To‘plamda yana bir muhim ma‘lumot berilgan. Tuzuvchilarning qayd etishlaricha: “Furqat o‘zining Yakanda ijod qilgan hamma asarlaridin mukammal ikki devon tuzgan. Bu devonlar qo‘lyozma holatida 1955-yilg‘acha xalq qo‘lida saqlanib kelgan bo‘lsamu, keyin yo‘qolib ketgan” [16, 142]. Furqatning o‘z she‘rlaridan devon tuzgani boshqa manbalarda ham zikr etilgan [10, 45] Lekin, afsuski, ushbu devon hanuzgacha topilgan emas.

Antologiya noshirlarining ta‘kidlashlaricha, Shinjongda Furqatning turli tema va janrlardagi 8193 misradan iborat merosi saqlanadi. Shuningdek, “Aptunum royunluq Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Millatlar adabiyoti instituti Furqat asarlarini davomliq tekshurub, to‘plab, tadqiq qilmoqda” [16, 143]. To‘plamga Furqatning 10 g‘azal, 4 muxammas, “Sayding qo‘ya ber sayyod”, “Uch

xarobotiy” musaddaslari, 2 she’riy (Muqimiyga va Toshboltuga yozgan) maktubi kiritilgan. Shuningdek, “Porcha” sarlavhasi bilan quyidagi to’rtlik ham to’plamdan o’rin olgan:

Muazzam Rusu Chin hamkoru hamdast,
Azaldin erlari bir-birg’a payvast.
Alar ijmoidin osoyish o’lg’ay,
Shukuhi dunyog’a oroyish o’lg’ay [16, 174]

Ta’kidlash kerakki, mazkur parcha shu paytgacha mutaxassislarga ma’lum bo’lgan Furqat asarlari kiritilgan birorta ham qo’lyozma yoki toshbosma manbada uchramadi. Shoir ijodining manbalari bilan shug’ullangan boshqa olimlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Fikrimizcha, bu asar Furqat qalamiga mansub emas.

Furqatning “Sayding qo’ya ber sayyod...” musaddasi shoir nazmiy merosining eng sara namunalaridan. Shuning uchun ham asar ko’pchilik mutaxassislar e’tiborini tortgan. U haqda turlicha mulohazalar bildirilgan. Musaddas Hodi Zarif [5, 90-97], Z.Tolipova [11, 153], K.Qurambaev [22, 25], Abdurashid Abdug’afurov [1, 130-134], Sharif Yusupov [17, 88-89], Aziz Qayumov [21, 142] kabi olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Musaddas haqida uyg’ur olimi Arshiddin Totliq ham maxsus maqola yozgan bo’lib, olim musaddasda nomi zikr etilgan Sa’dulla uyg’ur shoiri Sa’dulla Hayroniy ekani, u Furqat bilan Hindistonda tanishib, qalin do’st bo’lishgani haqida yozadi. Sa’dulla Hayroniy she’rlaridan namunalar keltirib, uning shoir sifatida Furqat darajasida emasligini ta’kidlaydi. She’r Sa’dulla ismli shoir tomonidan yozilgan bo’lishi mumkin, degan farazlar o’rinsiz ekanini aytib, uning muallifi Furqat ekanini ta’kidlaydi [12, 85-86].

“Shinjong o’zbek adiblari” antologiyasida Furqatning “Sayding qo’ya ber sayyod...” musaddasi va “shu qatorliq lirik she’rlarining Shinjongdagi har qoysi millat tillarig’a tarjima qiling’on”i [16, 142] aytiladi. Jumladan, 1989 yili Furqat “Tanlangan asarlar”i xitoy tiliga tarjima qilinib, nashr etilgani ma’lum. Umuman, Furqat asarlarining “Shinjong o’zbek adiblari” antologiyasiga kirgani Sharqiy Turkistondagi she’riyat ixlosmandalarini shoir asarlari bilan tanishtirishda alohida ahamiyatga ega bo’lganini e’tirof etish kerak.

Xulosa

Qo’qon adabiy muhiti va uning atoqli namoyandasi Zokirjon Furqat asarlarining Amerika Qo’shma Shtatlari, Germaniya, Turkiya, Majoriston kabi davlatlarda o’rganilayotgani milliy adabiyotimiz tarixiga jahon adabiyotshunosligida qiziqish katta ekani dalili sifatida qimmatlidir Shoir asarlarining Sharqiy Turkiston va o’zbek olimlari tomonidan amalga oshirilgan nashrlari bilan tanishuv, birinchidan, ular matnining to’liq va ishonchli emasligini ko’rsatsa, ikkinchidan, ishonchli va mo’tabar qo’lyozma manbalar asosida Furqat asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish masalasini kun tartibiga qo’yadi. XIX asr va XX asr boshlari Qo’qon adabiy muhitining xorijlik olimlar tomonidan XV asrdagi Hirot adabiy hayotiga qiyoslanishi esa ushbu muhit namoyandalari ijodiy merosining millat adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyotida alohi o’rin tutishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуғафуров, Абдурашид. Зокиржон Фурқат. - Тошкент: Фан, 1977.
2. Ahmad Zeki Velidi Togan. Bugunku Turkili: Turkistan ve yakin tarihi. - Istanbul, 1981.
3. Allworth, Edward Uzbek literary politics. London-Paris, 1964.
4. Eckmann, Janos Harezmi, kipcak ve sagatay turkcesi uzerine arastirmalar. - Ankara, 1996.
5. Зариф, Ҳоди. Фурқатнинг “Сайдинг қўя бер сайёд...” шеъри ҳақида. /Зокиржон Фурқат (Мақолалар тўплами). – Тошкент: Бадий адабиёт, 1959.
6. Зокиржон Фурқат. -Тошкент: Фан, 1977.
7. Каримов, Ғулум. Халқ, тарих, адабиёт. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977
8. Мўминов, Иброҳим. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. -Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960
9. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Издание второе, дополненное. – Ташкент, 1896.
10. Солиҳов, Миён Бузрук. Ўзбек театр тарихи учун материаллар. - Тошкент: ЎзССР Давлат нашриёти, 1935.
11. Толипова, З. Бир мусаддас тарихи. //Шарқ юлдузи, 1966, 3-сон.
12. Тотлик, Аршиддин Фурқат ва Саъдулло ҳақида. //Шинжонг ўзбеклари, 1988, июль.
13. Philologiae turcicae fundamenta. - Wisbaden, Tomum secundum, 1965.
14. Фурқат. Танланган асарлар. Икки томлик. Т. 1-2., - Тошкент: Бадий адабиёт, 1959.
15. Фурқат танланма асарлари. Қашқар уйғур нашриёти, 1989
16. Шинжонг ўзбек адиблари. Шинжонг халқ нашриёти. 1989.
17. Юсупов Ш. Мусаддаснинг абадияти. /Фурқат йўлларида. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984.
18. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Ф.ф.д...диссертация. - Тошкент, 1990.
19. Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Инв. 1821.
20. Ўзбекистон ФА ШИ Ҳамид Сулаймонов фонди. Инв. 2492.
21. Қаюмов, Азиз. Шоир Фурқат. //Шарқ юлдузи, 1986, 4-сон.
22. Қурамбоев, Каримбой. Андалиб ва Фурқат. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 2-сон.

HAMZA IJODIDA “VATAN” VA “MILLAT” BADIY KONSEPTLARI

Dilmurod QURONOV,

ADU, Filologiya fanlari doktori, professor.

Akram XUDAYBERDIYEV,

AnDU, tayanch doktorant.

О‘zbek adabiyotida XX asr boshidagi ijtimoiy o‘zgarishlar sezgisi bilan tug‘ilib shakllangan va shakllanayotgan yangi bir avlodning adabiy maydondagi faoliyati milliy badiiy tafakkur rivojiga o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shildi va yangi

davr “yangi tafakkur”ining shakllanishi hamda tushuncha va qarashlarning yangilanishiga ham asos bo‘lib xizmat qildi. Xuddi shu narsa adabiyotning “bilish” funksiyasini oldingi planga chiqardi. Ma’lumki, adabiyotshunoslikda keng ommalasha borayotgan kognitiv yondashuv markazida dunyoni anglash masalasi markaziy o‘rin tutadi. Zero, kognitiv fanlar insonni “eng avvalo anglovchi mavjudot” sifatida tushunadi, ya’ni uning dunyoni qanday anglayotganini o‘rganishni maqsad qiladi. Shu ma’noda, bizningcha, milliy tafakkurda tub o‘zgarishlar yuz bergan XX asr boshlari adabiyotini – jadid adabiyotini kognitiv nuqtai nazardan o‘rganish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Davr matbuotida milliy she’rlarga, milliy turmushni aks ettirishga qaratilgan nasriy va dramatik, ijtimoiy-iqtisodiy hayot masalalariga bag‘ishlangan publisistik asarlarga rag‘bat kuchaydi. Bu millatni uyg‘otish, uning dunyodagi o‘rni va ertangi istiqbolini anglash ehtiyoji bilan bog‘liq edi. Anglash jarayoni esa, tabiiyki, shunga mos tushunchalar tizimini taqozo etadi. Shuning natijasi o‘laroq, jadid matbuoti va adabiyotida “vatan” va “millat” tushunchalarining faollashuvi, ularning mazmun-mohiyatini aniq belgilab olishga intilish kuchaygani kuzatildi. Jadid adabiyotining yorqin vakillaridan biri – Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida “vatan” va “millat” konseptlarining turli badiiy talqinlari misolida ham buni ko‘rishimiz mumkin. Uning 1915-1917-yillarda yozilgan “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” tarkibidagi to‘plamlardan joy olgan she’rlari bizni qiziqtirgan masalada fikr yuritish uchun boy material beradi.

Majmuaning birinchi bo‘limidagi “Ko‘zni oching, qardoshlar” she’ri mana bu band bilan boshlanadi:

*Ko‘zni oching, qardoshlar, ibratlashaylik,
Uyqu bitsun, dindoshlar, g‘ayratlashayluk.
Ijlos etib har yerda hasratlashayluk,
Milliy xizmatlar uchun himmatlashaylik.*

Bunda murojaat ko‘proq “dindoshlar”ga qaratilgani (bu “qardoshlar”ga nisbatan umumiy) va “milliy xizmatlar”ga da’vat etilayotgani, bizningcha, Hamzaning “millat” konseptida an’anaviylik ustuvorligini ko‘rsatadi. Zero, bizda an’anaga ko‘ra “millat” deganda jami musulmonlar – “Ibrohim alayhissalom millati” tushunilgan. She’rning oxirgi bandi ham “millat” ayni shu yo‘sin tushunilayotganini tasdiqlaydi:

*Tashlab Nihon ko‘ngilda bo‘lgan illatni,
Kinu bug‘zu adovat, fisqu g‘iybatni,
Sunnii, shiiy so‘zlarni barbodlashaylik,
Millat yo‘lin ko‘plashub obodlashaylik.*

Ko‘rib turganimizdek, shoir muammolar ildizi millat – musulmonlar orasidagi bo‘linishda deb biladi, ularni firqalarga bo‘linmay, birlikda harakat qilishga chaqiradi, chunki musulmonlarning hammasi uchun “millat yo‘li” bitta, ularning hammasi bitta millat deb hisoblaydi.

Birinchi bo‘limdan joy olgan “Darmon istariz” nomli she’r ham musulmonlarga murojaat bilan boshlangan. Biroq bundagi “millat” konseptining ma’no ko‘lami birmuncha torroq:

Ey musulmonlar, qachon biz darda darmon istariz,

*Bu qorong‘u kechamizga mohi tobon istariz,
Biz vatan avlodina ilm ila urfon istariz,
Yodgori qolg‘udek isloma unvon istariz.*

*Ey musulmonlar, kelinglar xatmi qur‘on istariz?
Millata shavkat, taraqqiy, sha‘nu davron istraiz?*

Murojaat obyektini bo‘lmish “musulmonlar” matnda “vatan” va “millat” konseptlari bilan bog‘liq holda qo‘llangani ma‘noning konkretlashuviga xizmat qiladi. Gap “vatan avlodi” haqida borgani uchun murojaat muayyan hududda – Turkistonda yashovchi musulmonlarga qaratilgan deyishga asos beradi. Modomiki, turkistonlik musulmonlar “millata shavkat, taraqqiy” istarga targ‘ib qilinayotgan ekan, bundan shoir millat tushunchasini hududiy jihatdan chegaralayotgani, “millat” va “vatan” konseptlarini bir-biri bilan uzviy bog‘liq talqin qilayotgani anglashiladi. Biroq bu hali to‘la yangilangan konsept emas, u o‘rni bilan an‘anaviy konsept bilan almashinib turadi. Jumladan, “Bizni Qur‘ondan taraqqiyga yetushdi g‘ayrilar, Bizni mullolar xurofot ila umr o‘tkardilar” tarzidagi misralar zidligida yana “musulmon millati” bilan “g‘ayrilar” haqida gap boradiki, bu yerda hududiy chegaralar olib tashlanadi. Keyingi banddagi “Bizcha millatlar ichida bemaorif zod yo‘q” misrasida “millatlar” deyish bilan yana millatlardan biri – Turkiston haqida so‘z borayotgani ma‘lum bo‘ladi. Bir she‘r doirasida “millat” va “vatan” konseptlarining ham an‘anaviy, ham yangicha talqinlari mavjud ekanligi Hamzaning bu masaladagi izlanishlari yakuniga yetmaganini ko‘rsatadi. XX asr boshida “yangi tafakkur” shakllana boshlaganini yuqorida aytgandikki, kuzatganimiz shuning konkret ijodkor ongidagi zuhurotidir.

Hamzaning “Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston” she‘rida “vatan” konsepti mazmunan boyigani, to‘lishgani kuzatiladi:

*Esiz, esiz, Turksiton, qani avvalgi holi?
Olamga ziyo bergan ul xurshidi iqboli?
Abri g‘aflat qurshadi, tun bo‘ldi istiqboli,
Xo‘r bo‘lsa millatimiz, tutmasmukin uvoli.*

Band mazmunidan kelib chiqilsa, bu erda Turkiston muayyan hudud sifatidagi “vatan” ma‘nosini beradi va shu hududda yashovchilar – “millat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq talqin etilayotgani anglashiladi. Buni she‘r kontekstida “Turkiston” bilan “vatan” so‘zlari kontekstual sinonim o‘laroq ishlatilgani ham tasdiqlaydi. Eng muhimi, bu erda “vatan” konsepti Turkistonning avvalgi holi – “o‘tmish” tushunchasini ham qamrab olayotir. Bu bilan shoir “vatan”ning bugungi ahvoli uchun o‘tmish – ajdodlar oldida javobgarlik borligini ta‘kidlaydi. Qaysiki, mana bu ahvol uchun:

*Og‘la, og‘la, Nihoniy, kecha bo‘ldi kunduzlar,
Falakda ko‘rinmayur mohtob ila yulduzlar.
Vatanga molik bo‘ldi nobakoru to‘ng‘izlar,
Oyog‘ ostida qoldi necha sandek dilso‘zlar?*

Hamza “nobakoru to‘ng‘izlar” qo‘lida qolib, kunduzlari kechaga aylangan vatan – Turkiston uchun javobgarlikdan ogoh etadi. Harakatga da‘vat etarkan, milliy ozodlik va taraqqiyini sog‘inarkan shoir vatani ertasining qayg‘usini qilayotgani ham ravshan. Ma‘lum bo‘layaptiki, “vatan” konsepti endi muayyan

“hudud”, shu hududda yashovchi “xalq”, shu xalq “o‘tmishi” va ertangi “istiqboli” tushunchalarini qamrab olayotir.

Jadidlar ko‘zlagan milliy istiqlol va taraqqiy maqsadlariga “millat” va “vatan” konseptlarining an’anaviy talqinlari muvofiq emas, ularni shu maqsadlarga mos yangilash zarurati yuzaga kelgan edi. Hamza she’riyatida kuzatilgan yuqoridagicha izlanishlar shu zaruratni teran his qilishdan turtki oladi. Eng muhimi, jadidlar oldida bu konseptlarni yangicha anglashgina emas, ommaga yangicha anglatish vazifasi ham ko‘ndalang bo‘lgan, bu mazkur maqsadga erishishning muhim shartlaridan edi. Hamzaning “Jonlarni jononi Vatan” she’ri boshdan-oyoq anglatish maqsadiga safarbar etilgan, Vatan tavsifiga bag‘ishlangan she’rdir:

*Vatan, vatan der edilar, na der erdim bilmay ani,
Endi bilsam Vatan erkon bu tanlaring shirin joni.*

deb yozadi. Bizningcha, bu izhor she’r (avtopsixologik) bo‘lmay, balki ma’lum ma’noda ijroviy lirika namunasi hamdir. Zero, undagi o‘y-kechinmalar egasi – lirik qahramon shoirning o‘zigina emas, balki endi ma’rifat yo‘liga kirayotgan, Vatan neligini tanib boshlagan yoshlarning hammasi – “biz”dir. Lirik qahramon – Vatanning “chin tug‘mish ona” ekanligini, tirik bo‘lsa boqadigan, o‘lganda-da bag‘riga oladigan ma’voligini kechikib bo‘lsa-da anglagan odam. U endi Vatanni tanimay o‘tgan vaqtlarini “ko‘rlik” deb baholaydi. Shu ko‘rlik tufayli ham noqobil farzandlar uning “ko‘z yumib o‘q otib”, “qo‘lin bog‘lab yovuzlarga sotdilar”. Ular “buning evaziga nima oldilar?” degan savol qo‘yadi shoir va bu bilan hech narsaga erishmaganlarini ta’kidlaydi, ya’ni “sotish” manfaat uchun emas, “ko‘rlik” anglamaslik sabab sodir bo‘lgan. Hamzaga ko‘ra, Vatanni tanitishga mas’ullar “tonutmadi”, “nelargadir aldanib tangri buyruqin tutmadi”. Vatanni tanitmoq tangrining buyrug‘i edi, deyilishidan shoir buning uchun ulamolar mas’ul deb bilgan ko‘rinadiki, ummatga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish olimlarga meros qilingani yodga olinsa, shunday hisoblashga asos borligi ayon bo‘ladi. Xullas, Hamza Vatan-onaning ohu vohiga quloq solinmagani sababini “bilimsizlik”dan degan xulosaga olib keladi. Tabiiyki, “bilimsizlik” uchun yoshlarning o‘zi aybdor, she’r yakunida shoirning Vatan-onadan kechirim so‘rashi shundan:

*Nihon yig‘lab qon yutunur, kechmog‘lig‘ingni o‘tunur,
Mundin buyon o‘g‘lonlaring chandon tonurg‘a tutunur.*

Hamzaning mazkur so‘zlari faqat uzrxohlik emas, ular ayni paytda va birinchi navbatda Vatanni tanimoqqa, uni qutultirmoq va xizmatiga shay bo‘lmoqqa da’vat hamdir. Shu bilan birga, ular Hamzaga hamfikir yosh bo‘g‘in – jadidchilik g‘oyalari ta’siridagi “yosh sartlar” Vatanni tanishga qat’iy jahd qilganlaridan ham dalolat beradi.

Hamza “Dardiga darmon istamas” she’rida yuqoridagi she’rlarida “Turkiston xalqi”ni ifoda etish uchun qo‘llagan “millat” so‘zini tilga olmaydi, uning o‘rniga “Turkiston eli”, “o‘zbek eli” atamalarini ishlatadi.

*Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.*

Mazkur ikka atama orasida butun-qism munosabati yotadi: “Turkiston eli” – hududda barcha ellar, “o‘zbek eli” – shu ellardan biri. Quyiroqda shoir “bizni ellar” birikmasini hududdagi barcha ellar ma’nosida ishlatadi:

*O‘zga millat uchsalar hikmat topub so‘yi samo,
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida.*

Ya’ni shoir Turkistondagi barcha ellar ham nafaqat samo, “loaqal er uzra davron istamas” demoqda. Tushunchalarni bu tarzda qo‘llash Hamzaning hamon “millat” konseptini aniqlashtirish yo‘lida izlanayotganidan darak beradi. Ya’ni Turkiston xalqini bir so‘z bilan “millat” deb atash kerakmi yo har birini alohida “el”, millat deb bilgan to‘g‘riroqmi degan masalada hali tugal fikrga kelmagan, qarashlarida chalkashlik bor. Bunday chalkashlik Turkistonning mustamlaka ekanligi bilan bog‘liq holda yana kuchayadi. Buni Hamzaning “Podsho hazratlarini duo” she’rida yaqqol kuzatish mumkin:

*Shohimizni qo‘llari bo‘lsun yuqori,
Bizni dushmanlar talof topsun ming bori.
Ko‘rsataylik sadoqat qadrlik kunda,
So‘ng‘ilarni torixi bo‘lsun yodgori.
Vatan uchun jon bering, oling o‘rnaklar,
Zafar toping, o‘rdular, qoplon yuraklar,
Yashasun millat, yashasun shahanshohimiz.*

Bu parchadagi “vatan” va “millat” konseptlari yuqorida keltirilgan she’rlardagidan tubdan farq qiladi. Qo‘li baland bo‘lishini tilab duo qilinayotgan shahanshoh – Rusiya imperatori; Rusiya dushmanlari “bizning dushman” deb atalyapti; “Vatan uchun jon bering” deganda esa Rus imperiyasi uchun kurashga da’vat etilyapti. Ya’ni bu she’rdagi “vatan” – Rus imperiyasi va u mana bu tarzda ta’riflanmoqda:

*Vatan bizni jism ichra shirin jonimiz,
Vatan bizni yurakda issig‘ qonimiz,
Vatan bizga qimmatdur gavhar injudan,
Vatan bizni har shaydan chin suygonimiz.
Vatan uchun jon bering, oling o‘rnaklar,
Zafar toping, o‘rdular, qoplon yuraklar,
Yashasun millat, yashasun shahanshohimiz.*

“Yashasun!” deya alqanayotgan “millat” bu o‘rinda butun Rus imperiyasi xalqi ma’nosidadir. Hamzaning “Yashasun chun Vatan o‘g‘li” she’rida ham shu kabi ifodalar bor. She’r “Podshohimizga sadoqat ko‘rsating ahli vatan” misrasi bilan boshlanadiki, bu erda “ahli vatan” jumlasini butun Rus imperiyasi aholisini ifodalaydi. Yoki “Bu vatan-chun oqsa-oqsun tomchi-tomchi qonimiz” misrasidagi “vatan” ham butun chor Rusiyasini anglatadi. Albatta, bu ruhdagi she’rlarning yozilishi urush sharoitidagi “ijtimoiy buyurtma” bosimi bilan izohlanishi, “Hamza ularni murosas uchun, boshqa she’rlari dunyo yuzini ko‘rsin uchun yozgan” deyilishi ham mumkin. Bunday qarash ham asossiz emas, sirasi. Biroq, bizningcha, u davrda Turkiston uchun mustaqillik emas, avtonomiya ma’qul degan qarashlar

ham bo'lgani e'tiborga olinsa, bu satrlar shoir o'yidagilar ifodasi deb tushunilishi ham mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarimizdan ma'lum bo'ladiki, XX asr boshlari o'zbek jadid adabiyotida, xususan, Hamza ijodida "vatan" va "millat" konseptlarini qayta idrok etish, ularning mazmun-mohiyatini zamonaga mos talqin qilish yo'lida jiddiy izlanishlar kechgan. Bu jarayon, avvalo, shu choqqacha milliy tafakkurda mavjud bo'lgan an'anaviy islomiy konseptlar; ikkinchi yoqdan, Turkistonning mustamlaka sharoitida ekanligi va nihoyat, uchinchidan, jadidchilik g'oyalarining bevosita ta'sirida kechgandir. Ushbu masalaning maxsus o'rganilishi XX asr o'zbek she'riyatidagi eng faol badiiy konseptlardan birining genezisi va takomili haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2001 y.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T.: 1998 y.
3. Qosimov Begali. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. "Ma'naviyat". Toshkent. 2002 y.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. 5 tomlik. 2-tom. "Fan" nashriyoti. T.: 1988 y.
5. O'zbekim. "Vatan" seriyasi. "Sharq", – T.: 1992 y.

FURQAT IJODINING HOZIRGI ADABIY JARAYONDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Abduhamid XOLMURODOV,
NavDPI professori, f.f.d.
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Maqolada ma'rifatparvar shoir Furqatning ijodiy faoliyati, Qo'qon adabiy muhitining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangiliklar, o'zgarishlarga munosabati, ilm-ma'rifatni targ'ib etishdagi fidoyiliklarini ochib berishga harakat qilingan. Furqat va uning zamondoshlari bo'lgan ma'rifatparvarlar ijodining bugungi kundagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, mustamlakachilik, gimnaziya, vistavka, Rusiya, Turkiston, ma'rifatparvar, publisistika, gazeta, jadidchilik.

Аннотация:

В статье ставится задача раскрыть творческую деятельность поэта-просветителя Фурката, новации кокандской литературной среды в общественно-политической жизни, ее отношение к переменам, ее приверженность делу пропаганды науки и просвещения. В ней рассматривается роль и значение Фурката и его современников в творчестве просветителей современности.

Ключевые слова: социальный, колониальный, гимназия, выставка, Россия, Туркестан, просвещение, публицистика, газета, джадидизм.

Annotation:

The article seeks to reveal the creative activity of the enlightened poet Furkat, the innovations of the Kokand literary environment in socio-political life, its attitude to change, and its dedication to the promotion of science and enlightenment. It discusses the role and significance of Furkat and his contemporaries in the work of enlighteners today.

Keywords: social, colonial, gymnasium, exhibition, Russia, Turkestan, enlightenment, journalism, newspaper, jadidism

XIX asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalarini yetishtirdi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Jahon siyosiy maydonida mustamlakachilik siyosatining avj olishi Osiyo qit‘asiga ham yoyila boshladi. Qit‘aning markazida, qulay geografik hududda joylashgan Turkiston o‘lkasiga ko‘z tikkan mustamlakachilar tezroq bu o‘lkani o‘zlariga bo‘ysundirishga intila boshladilar. XVIII asr boshidayoq janubiy sarhadlarini kengaytirishni orzu qilgan Rusiya davlati raqobatchilaridan ilgarilab ketdi va 1864-yilda Toshkentni, 1873-1877-yillarda Buxoro amirligi va Xiva xonligini bosib oldi. 1876-yilda Qo‘qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi vujudga keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi Rusiyaning vassaliga aylandi. Rus bosqini ijtimoiy, madaniy, maishiy hayotga kuchli ta’sir o‘tkazdi. Milliy va diniy qadriyatlar kamsitildi, yot axloqiy qadriyatlarning millat genofoniga salbiy ta’siri kuchaydi. Bu esa xalqning madaniy qatlami vakillarida norozilik kuchayishiga, mavjud ijtimoiy tuzumga nafrat, mustamlakachilik zulmiga qarshi isyon tuyg‘ularining paydo bo‘lishiga olib keldi. Xonlik tuzumi davrida Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Fazliy singari shoirlar yetishib chiqqan Qo‘qon adabiy muhiti yangi davrga qadam qo‘ydi. Bu davrda yetishib chiqqan shoirlar ijodida mavjud tuzumdan norozilik, xalq va millatning erksizligidan iztirob chekish, haq va adolatga intilish motivlari etakchilik qiladi. Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Anbar otin, Dilshodi Barno va boshqa shu davr adabiyoti namoyandalari ijodida haqsizlikka qarshi isyon, millat holiga achinish, ilm-ma’rifatdan bexabarlik barcha fojealarning sababchisi ekanligi kuylandi. Bu shoirlar ijodidagi ma’rifatparvarlik g‘oyasi jadidchilik harakati namoyandalari ijodida yanada rivojlantirildi va milliy uyg‘onish davri adabiyotining tamal toshi bo‘ldi. “XX asr O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida ta’kidlanganidek, “... milliy uyg‘onish harakatining kelib chiqish manbalari to‘g‘risida so‘z borganda, bu harakatning manbaida Furqat, Muqimiy, Avaz O‘tar, Komil Xorazmiy kabi shoirlar, Sattorxon, Ibrat kabi ma’rifatparvarlarning turganligini ham unutmazlik lozim. Ular ijodi va faoliyatidagi ilg‘or g‘oyalar dastlabki o‘zbek jadidlarining maydonga kelishida milliy zamin bo‘lib xizmat etdi” [1, 14]

Qo‘qon adabiy muhitining XIX asr ikkinchi yarmida etishib chiqqan eng yirik vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatdir. Furqat hayoti va ijodiy faoliyati o‘zbek adabiyotshunosligida har tomonlama chuqur o‘rganilgan,

ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda yaratilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" akademik nashrining uchinchi jildida Furqat ijodiga shunday baho berilgan: "O'rta Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy ong tarixining muhim taraqqiyot bosqichi sifatida maydonga kelgan bu progressiv madaniy-adabiy oqim(Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olgandan keyingi davr nazarda tutilgan-ta'kid bizniki. A.X.) qoloqlikka, nodonlikka, o'rta asr jaholatining har qanday ko'rinishlariga qarshi kurash ochdi, zamonaviy ilm-ma'rifatni, madaniyatni, taraqqiyotni targ'ib etdi. Furqat o'z bilimi va butun qobiliyatini xalq xizmatiga bag'ishlab, maorif, erkinlik va baxt kuyini kuylagan ma'rifatparvar demokrat shoirdir.[2,144]

Sho'ro davrida o'tmish adabiy-madaniy merosga hukmron mafkura talablari, mezonlari, metodologik qoliplar asosida baho berilar edi. Shunga ko'ra rus istilosi progressiv tarixiy voqea sifatida talqin etib kelindi. Mustamlakachilik zulmi xalqqa behisob azob, g'am, kulfat keltirgan bo'lishiga qaramay rus adabiyoti, madaniyati, u orqali dunyo madaniyati namunalari kirib kelganligi eng muhim tarixiy voqelik sifatida talqin etildi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tmishdagi adabiy-madaniy merosimizga bir tomonlama baho berishlarga chek qo'yildi. Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar, Komil Xorazmiy va shu davrda yashab, ijod qilgan boshqa shoirlarga nisbatan "demokrat shoir" degan sifatlash iste'moldan chiqdi. Aslida ham bu ijodkorlar ma'rifatparvarlikni targ'ib etishdi, xalqni jaholatdan, ilmsizlikdan qutqarishga harakat qilishdi. Bu jihatdan Furqat ijodi zamondoshlariga o'rnak bo'ldi. Uning ijtimoiy hayotda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangiliklardan ilhomlanib yaratgan asarlarida ilm-ma'rifat ulug'landi, xalqni qoloqlikdan chiqarishning birdan-bir yo'li ilm-ma'rifatli bo'lish ekanligini ta'kidladi. Ilmli, ma'rifatli xalq dunyoga yuz tutadi, dunyo ilm-fani yutuqlari bilan qurollanib, o'z hayotini yaxshilaydi, qullikdan xalos bo'ladi deb ishondi. Bu fikrlarini dalillash uchun rus fani yutuqlarini namoyish etuvchi ko'rgazmani tomosha qiladi va ko'rganlari haqiqiy mo'jiza ekanligini badiiy tasvirlaydi. Rus xalqi madaniyati, fani va texnikasi erishgan yutuqlarni maqtash orqali o'zbek tili leksikasiga juda ko'p ruscha va boshqa tillardagi so'zlarni olib kirdi. Biz gazeta, telegraf, teatr, konsert, bal, royal, vistavka, fotografiya, medal, akt, zal kabi so'zlarni ilk bor Furqat asarlarida uchratamiz. Bu xususiyat unga zamondosh bo'lgan ma'rifatparvar shoirlar ijodida ham namoyon bo'ladi. Muqimiy "Maskovchi boy ta'rifida" asarida sanoat korxonalarini qurgan mahalliy kapitalistlarning ishchilarga nisbatan adolatsizliklarini hajv yo'li bilan fosh etadi. She'rda kupes(kupes), seychas, pajalista(pojaluysta), net, zovut(zavod), durrak, poshyol kabi ruscha so'zlar ishlatilgan. Furqat ruscha so'zlarning o'zbek tilida muqobili bo'lmaganlarini aynan rus tilidagi talaffuziga binoan keltirishi diqqatga sazovor. Umuman, Furqatning lirik she'rlari, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlari uning yuksak iste'dod egasi bo'lganligidan dalolatdir. Buni Furqat "Tanlangan asarlari"ning ikki jildligini nashrga tayyorlagan Xolid Rasul ham "Furqat" sarlavhali maqolada alohida ta'kidlagan:

"Furqat she'rlarininig chuqur mazmunga ega bo'lishi, she'riy texnikasining go'zalligi, badiiy yuksakligi, ohangdorligi, musiqiyliigi ularning keng tarqalishiga va bir qanchalarining xalq og'zida ashula bo'lib ketishiga sabab bo'ldi".[3, 14]

Furqat o‘z davrining farzandi sifatida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘zgarishlar va yangiliklarga faol munosabatda bo‘ldi, o‘zi ko‘rgan, bilgan voqealarga bag‘ishlab she‘rlar yozdi. “Vistavka xususida”, “Toshkand shaharidagi vistavka xususida”, “Gimnaziya”, “Akt majlisi xususida”, “Nag‘ma bazmi xususida”, “Nag‘ma va nag‘magar va aning asbobi va ul nag‘ma ta’siri xususida” kabi she‘rlari shoirning taassurotlari asosida dunyoga kelgan. Bu asarlarida u rus xalqi erishgan yutuqlar ilm-fan rivoji tufayli ekanligini ta’kidlaydi. Masalan, “Ilm xosiyati” she‘rida savdogarlar bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga mol eltib, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishlari uchun o‘sha erdagi narx-navoni oldindan bilishlari muhim. Shoir ayni paytda buning imkoni borligini, Toshkentda turib, Maskov yo boshqa erdagi narx-navoni bilib olish mumkin. Buning uchun telegramdan foydalanishni bilish lozim. Shoir buni juda sodda qilib tushuntiradi:

*Necha ish ilm ila bunyod qildi,
Xususan telegrom ijod qildi.
Ki bir soatda ul sohib hunarlar,
Uch oylik erdin olg‘aylar xabarlar.
...Xususan narxiga ahli tijorat,
Yiroq erdin berur anga bashorat.
Masalkim, Toshkanddin olsalar mol,
Bilish lozimki, Maskovda na minvol.
...Bo‘lurlar telegrom ila xabardor,
Bilurlar naf‘ yoinki zarar bor.
Bu hikmat Rusiyaning davlatidin,
Bo‘lubdur ilmni xosiyatidin. [4, 9]*

Furqat ijodiga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berganda u yashagan davr, tarixiy sharoit, hayot murakkabliklarini e’tibordan qochirmaslik lozim. Furqatning rus fani, madaniyati va texnika yutuqlaridan hayratga tushib, ularni olqishlagani, ko‘rgan yangiliklarini zavq-shavq bilan tasvirlagani to‘g‘risida gap ketganda, ayrimlar keskin qoralash yo‘lini tutadilar. Ammo shoir bir necha marta Toshkentda tashkil etilgan ko‘rgazmani borib tomosha qiladi. Uni o‘z hukmronliklarini o‘rnatgan ruslar ataylab ilm-fanda qanday yutuqlarga erishganliklarini ko‘z-ko‘z qilish uchun, o‘zlarini Turkiston xalqlaridan dono, qudratli ekanliklaridan maqtanish uchun tashkil etgan edilar. Bu bilan ham kifoyalanib qolmasdan, mahalliy aholining ziyolilari orasidan o‘z siyosatlariga xayrixohlarni izlashdi, ularni har xil yo‘llar bilan o‘z manfaatlariga xizmat qildirishga urindilar. Turkistonda ilk gazeta–“Turkestanskije vedemosti”ni tashkil etgan N.Ostroumov degan shaxs Furqatdagi qiziquvchanlik, shoir sifatida xalq orasida katta hurmat-e’tiborga egaligidan ustalik bilan foydalandi. U Furqatni teatr tomoshasiga olib bordi, gimnaziyani ko‘rsatdi, balga taklif qildi. Rus musiqasi, raqslarini tomosha qilgan Furqat zavqlandi, gimnaziya-dagi o‘qitish usullari, tartib va intizomni milliy maktablarda ham joriy etilishini orzu qildi. N.Ostroumov uni ilg‘or fikrlaydigan ziyoli sifatida rag‘batlantirib turdi, uni ijod qilishga ilhomlantirdi, she‘rlarini “Turkiston viloyati gazetasi”da muntazam e’lon qilib borilishini ta’minladi. Furqat gazetada birmuncha vaqt faoliyat olib bordi, matbaa ishini o‘rgandi, publisistik maqolalarini e’lon qildi. Taqdir taqozosi bilan

Toshkentdan ketib, xorij mamlakatlarida yurganida ham, so‘nggi manzili–Yorkentda muqim yashab qolganida ham gazeta bilan aloqasini uzmad, she‘rlari, maktublari va maqolalarini muntazam yuborib turdi. Toshkentda teatr tomoshasidan ta‘sir lanib, "Suvorov" dostonini yaratdi. Xorijda yashab yurganida 1905-yilda "Rus askarlari ta‘rifida" she‘rini yozdi va bu asarlar gazetada bosildi. "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1890-yil 11-apreldagi 14-sonida bosilgan "Bir xo‘qandlik tolibul ilmning xati" maqolasida Toshkentdagi gimnaziyaning boshlig‘i ijazati tufayli sherigi Hoji Zuhur bilan birgalikda tomosha qilgani haqida yozgan. Gimnaziya da to‘qqizta o‘qitish xonalari bo‘lib, ularning har birida turli tillarda dars olib borilayotganligini ko‘rishadi. Asbob va ashyolarning qanday vazifa bajarishini tushuntirganliklarini, ammo barcha asboblar sirlarini batafsil so‘rab bilib olishga uyalganliklarini ham bildiradi. Maqola so‘ngida "Bu xususda afsus qilduqki, bizni (ng) o‘tgon xonlarimiz bu tariqa ilm va nizomg‘a qo‘shish qildursalar erdi, to bu dam xalqimiz ko‘p ilmdin bahramand bo‘lur erdi"[4, 123], deydi. Furqatning rus fani, madaniyati va texnika yutuqlarini maqtashi mustamlakachilik siyosatini qo‘llab-quvvatlash emas, balki ilm-fanda orqada qolgan xalqimiz qismatiga achinish, chinakam millatparvarlik, vatanparvarlik edi. Mustamlaka zulmidan xalqni qoloqlik, nodonlik botqog‘idan xalos etish orqali qutilish mumkinligini Furqat o‘sha paytdayoq chuqur anglab etgan edi. Ammo uning bu jonkuyarligi mahalliy amaldorlarga yoqmaydi, uni o‘risparstlikda, g‘ayridinlarga xayrixohlikda ayblashadi, ta‘qib va tazyiqlar uyushtirishadi. Balki mana shunday shoirni tushunmaslik uning chet el safariga jo‘nab ketishi va umrining oxiriga qadar Vatan sog‘inchi bilan yashashga majbur qilgandir. Nima bo‘lganda ham Furqatning ma‘rifatparvarlik faoliyati, o‘z asarlarida, publisistik maqolalari va maktublarida ilm-ma‘rifatni targ‘ib etishi, bu borada rus xalqidan ibrat olishga chaqirishi o‘z vaqtida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. XX asr boshlarida keng quloch yoygan milliy uyg‘onish harakati ayni mana shu ma‘rifatchilik zaminida tug‘ildi. Jadid shoir va adiblari buni chuqur tushunib etdilar va xalqni jaholat va nodonlikdan qutqarish uchun uni yoppasiga savodxon qilish, ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirib, zamonaviy maktablar bunyod etish, dunyoning ilg‘or mamlakatlari tajribasini o‘rganish bilan dunyo bilan bo‘ylashishga intildilar.

Bugungi adabiy jarayonda ham Furqat ijodining o‘rni va ahamiyati katta. Misli ko‘rilmagan taraqqiyotga erishilgan robototexnika, murakkab texnologiyalar asrida Furqatning har qanday ilmni o‘rganish va uni amalda tatbiq etish sirlaridan boxabar bo‘lish zarurligi haqidagi qarashlari, ma‘rifatsevarlikka da‘vati nihoyatda qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов Н. ва бошқалар, XX аср ўзбек адабиёти тарихи, Тошкент, "Ўқитувчи" нашриёти, 1999 й. 146.
2. Каримов Ф. Ўзбек адабиёти тарихи, III жилд, Тошкент, 1976 й. 144 б.
3. Холид Расул, Фурқат. Фурқат, Танланган асарлар, I жилд, Тошкент, 1960 й. 14 б.
4. Фурқат, Танланган асарлар, II жилд, Тошкент, 1960 й. 9, 123 б.

HAMZANING ILK ROMANI VA SO‘ZBOSHISI XUSUSIDA

Shoira AXMEDOVA,
BuxDU professori, f.f.doktori
(O‘zbekiston)

Аннотация

Maqolada Hamzaning o‘zbek adabiyotida ilk roman yozishga urinish yo‘lidagi izlanishlari va unga yozgan so‘zboshisi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: adabiy tanqid, roman, milliy roman, so‘zboshi, ma’rifatparvarlik, maqola, xat.

Аннотация

В статье рассматриваются исследования Хамзы в попытке написать первый роман в узбекской литературе и его предисловие.

Ключевые слова: литературоведение, роман, национальный роман, предисловие, просвещение, статья, письмо.

Annotation

The article discusses Hamza's research in an attempt to write the first novel in Uzbek literature and his preface.

Keywords: literary criticism, novel, national novel, preface, enlightenment, article, letter.

Ma'lumki, Hamza Hakimzoda Niyoziy shoir, dramaturg, bastakor, publisist, nosir va h.k. serqirra ijodkor, o‘z davrida noshir sifatida jurnallar tashkil etib, turli xarakterdagi maqolalar yozgan, O‘zi aytganidek, "...bir tomondan, rejissyorlik, suflyorlik, ikkinchi tomondan, muallimlik, tashviqotchilik, muharrirlik..." qilgan, o‘sha davr adabiy jarayonini kuzatib borgan tanqidchi hamdir. Hamza o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib, roman janrida qalamini sinab ko‘rgan, garchand adibning yozganlari janr talabiga javob bera olmasa-da, "muvaffaqiyatlari va zaif tomonlari bilan barobar o‘zbek adabiyoti tarixida romanning (to‘la ma’noda bo‘lmasa ham) birinchi namunasi, shu termin, shu janr, shu tushunchaning birinchi marta kirib kelishi edi. Hamza roman janrida yozishni boshlab bergan kishiga bo‘lmay, keyinchalik uni yanada davom ettirgan romanist hamdir" [Qayumov, 1980, 389]. Shu bilan birga Hamza o‘z romaniga so‘zboshi yozgan munaqqid sifatida ham ko‘rinadi.

Adabiy tanqidchilikdagi so‘zboshi biror bir adib yoki shoir, munaqqidning yangi kitobi munosabati bilan yoziladi. So‘zboshilar ko‘pincha, nashr etilayotgan asar muallifi ijodini yaxshi bilgan adiblar, olimlar tomonidan yoziladi. So‘zboshi o‘rnida kitobning mazmun - mundarijasi haqida fikr yuritgan holatlar ham bo‘ladi. Ba’zida bu vazifani muallifning o‘zi bajaradi. Xuddi shunday holatni Hamza ijodida ko‘ramiz.

Hamzaning birinchi romani "Haqiqat kimda?" deb atalgan bo‘lib, 1909-1910 yillarda yozilgan, ammo o‘sha vaqtdayoq yo‘qolgan. 1915-yilda yozilgan "Yangi saodat yoxud milliy roman" asari Hamzaning so‘zboshisi bilan Qo‘qonda "Madora" kutuxonasi orqali nashr ettirgan. Bu haqda "Al-Isloh" jurnali shunday axborot bergan: "Yangi saodat" ismli qirq olti sahifali turkiy va Turkiston shevasinda bir milliy ro‘monning yangidan tab’ bo‘lub nashr qilinuvchi bizni ko‘p masrur etdi. Xalqni o‘quv va yozuv tarfig‘a targ‘ib qilmoq uchun hozirg‘acha

Turkiston viloyatida alalxusus Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli ro'mon nashr o'linmamish desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Bu ro'monning muharriri Hamza Hakimzoda Niyoziy janoblari va noshiri Xo'qandda "Madora" kutubxonasi [Qayumov, 1989, 20].

"Milliy roman" deb qo'yilgan sarlavhadan keyin quyidagi she'riy parcha keltiriladi:

O'qib tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,
Tilingni jahldin qutqor, g'ami millat bila o'tgil.

So'zboshida Hamza tanqidchi sifatida o'z davri adabiyotiga baho berishga harakat qiladi. U "Jamshid", "Zarqum", "Bayoz", "Dallai Muxtor" kabi xurofotga asoslangan, axloqni buzadigan bema'ni kitoblarning xalq orasiga keng tarqalganligini tanqid qiladi. Ayni shu holat Hamzani qo'lga qalam olishga va o'z asari bilan xurofotdan iborat kitoblarni siqib chiqarish uchun harakat qilishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun adib bu asarini oldingi asarlaridek yosh kitobxonlar, o'quvchilar uchun emas, keng kitobxonlar ommasiga uchun yozilganligini so'zboshida alohida ta'kidlaydi: "Bu risola – maktabga maxsus o'lmay, balki xalqimizni... er-u xotinlari orasida o'qilib turgan...asossiz kitoblar o'rniga istifodalik bir qiroat risolasi bo'larmikin, degan xayol bilan yozilgan".

Bundan tashqari Hamza keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan o'z asarining mazmuni va shaklini ham o'quvchi saviyasini ko'zda tutgan holda tanlaganiga ham urg'u beradi.

"Bizim Turkistonda eru xotinlarimizni 20 yoshdan yuqorida bo'lib, o'quganlarini aksari emas, balki hammalari, eski maktablarda, eski imlo va usulda xat va savodlari chiqq'on uchun hozirgi matubotda bosilib chiqib turg'on maktab kitoblariga, jarida va risolalarga tezdan tushuna qolib, o'qiy olmaganlari har birimizga ravshandir...Alarni o'qib, tushunmoqlariga shoyad-oston bo'lur edi,- deb, butun eski imlo va eski uslubda tartib berildi hamda soddaroq yozildi"[ziyouz.com]. Hamza o'z davrining ma'rifatparvari sifatida adabiy tilda jonli xalq tilining o'rni, o'z romani uchun til va uslub masalasiga katta e'tibor bilan qaraydi. Shu bilan birga birinchi roman yozish mashaqqatini yaxshi tushungan Hamza o'z asarida xato va kamchiliklar bo'lishini bilgan va biror tanqidchining yordamiga muhtojligini quyidagi so'zlari yaqqol ko'rsatadi: "Matbuot oshnolari bo'lg'on fikrdosh, millatdosh sohibut tahrir valqalam qor'inlarimizdan bu risolani imlo va tahriridagi kelushmagan bir xil joylarni aybg'a sanamay tarahhum yuzasidan ovf qilmoq barobarida, lutf-shafqat yuzasidan xususiy maktublar ila ogoh qilmoqlarni o'tinaman. Chunki bu risolani ikkinchi tablarinda yoxud qo'limda yozilib turgan va yozilgan risolalarimni nuqssiz o'lmog'iga shoyad sabab o'lur edilar..."

Hamza milliy roman o'z davri uchun nihoyatda muhimligini yaxshi tushungan va uni yaratish yo'lida izlanganini asarga muallif tomonidan yozilgan so'zboshi ham yaqqol ko'rsatib bera oladi.

Adib so'zboshisining ahamiyati shuki, u birinchidan, kitobxonda ulkan ijodkor va ma'rifatparvar ijodi haqida yaxlit taassurot uyg'ota oladi, ikkinchidan, kitobxonlarni adib ijodi laboratoriyasi, asarlarining yozilish jarayoni, shu bilan birga adabiy tanqidning sirlari bilan oshno eta oladi, uchinchidan, fidoyi shoir va

adib Hamzaning uslubi bilan tanishtira oladi. Uning nafaqat badiiy adabiyotda, balki tanqidchilik sohasida ham yetuk munaqqidlardan qolishmaydigan qarashlari, mulohazalari bilan tanishadi. Shuning uchun Hamzaning publisistik, estetik qarashlarini o‘zida jam etgan maqolalari, xatlarini mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tadqiq etish adabiyotshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. Тошкент. “Фан”, 2008.
2. [https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Hamza_Hakimzoda_Niyoziy.Yangi_saodat\(roman\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Hamza_Hakimzoda_Niyoziy.Yangi_saodat(roman).pdf).
3. Қаяумов Л. Ҳамза. Тошкент. ”Ёш гвардия”, 1989, 20-бет.
4. Қаяумов Л. Ҳамза Ҳақимзода Ниёзий. Китобда: Ўзбек адабиёти тарихи. 5-том. Тошкент. “Фан”, 1980, 392-бет.

MUQIMIYNING XALQONA RUHDAGI SHE’RIYATI XUSUSIDA

Muqaddas TOJIBOYEVA,
Andijon davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Muqimiy ijodining muhim fazilatlaridan biri – uning o‘z uslubi va ruhi bilan xalqqa juda yaqinligida. Muqimiy lirikasidagi xalqonalik va hayotiylik uning g‘azal va murabba’larida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Maqolada shoirning xalq dili va ruhiga mos g‘azal va murabba’si tahlilga tortilgan.

Tayanch so‘zlar: lirik qahramon, murabba’, g‘azal, oshiq, mahbuba, hijron, badiiy tasvir vositalar, an’anaviylik.

Аннотация

Одной из важнейших особенностей творчества Мукими является то, что он очень близок людям своим стилем и духом. Интернационализм и жизненность лирики Мукими очевидны в его стихах и поэмах. В статье анализируются газели и мураббы поэта в соответствии с языком и духом народа.

Ключевые слова: лирический герой, мурабба, газель, ашук, махбуба, хиджран, художественные средства, традиция.

Annotation

One of the most important features of Muqimi's work is that he is very close to the people with his style and spirit. The internationalism and vitality of Muqimi's lyrics are evident in his poems and poems. The article analyzes the poet's ghazals and murabbas in accordance with the language and spirit of the people.

Keywords: lyrical hero, murabba, ghazal, ashik, mahbuba, hijran, artistic means, tradition.

Muqimiy lirikasi mumtoz adabiyotimiz xazinasida saqlanayotgan adabiy manbalar orasida o‘zining soddaligi, samimiyligi, xalqqa yaqin bo‘lganligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, mehnatkash xalq uning asarlarini g‘oyat sevgan va qadrlagan, hatto qo‘shiq qilib kuylagan. Shoir she‘rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzinxon, Ismoil naychi kabi ismlar uchraydiki, ular o‘z davrining dovrug‘dor san‘atkorlari bo‘lgan. Demak, Muqimiyning ular bilan munosabati samimiyligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Bundan tashqari, vaqti-vaqti bilan uning oldiga dehqonlar ham kelib, yangi g‘azallarni so‘rab turishgani, qovun sayli va bog‘ sayliga taklif qilib turganliklari ma‘lum.

Muqimiy lirikasining asosiy xususiyatlaridan biri xalqonalik va hayotiylikdir [1.62]. Bu narsa she‘rga qanot baxsh etadi. Shoir o‘z lirikasida keng ma‘nodagi va haqiqiy muhabbatni kuyladi. Uning qahramoni g‘oyat samimiy shaxs. Ammo u o‘ta kuchli va haroratli ishq bilan yorni sevadi. Bu borada quyidagi bayt diqqatga sazovordir:

*Muqimiy so‘zidan bo‘yi muhabbat kelgay, ey ahhob,
Tarannum qilsa, mahfillarda hofizlarni xushxoni.*

Darhaqiqat, Muqimiy she‘riyatidagi xalqona ruh g‘azallarida ayri-ayri o‘rin topgan. Uning she‘rlarida kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan o‘zbekona ifodalarni uchratishimiz mumkin. Akademik G‘.G‘ulom ta‘biri bilan aytganda, “u (Muqimiy – M.T) xalq tilidan yorqin va o‘tkir iboralarni tanlab ola biladi”. Masalan, og‘zaki nutqda, ko‘proq so‘zlashuv jarayonida erkalash, iltifot, ba‘zan minnatdorlikning o‘zbekona shakli sifatida “o‘rgulay”, “aylanay”, “tasadduq”, “esonmisiz?”, “omonmisiz?” so‘zlari ko‘p uchraydi. Ma‘lum nutq vaziyatida ishlatiladigan bu so‘z shoir ijodida quyidagicha shaklda qo‘llanadi:

*Ol pardani yuzungdan, yur, o‘rgulay ko‘zungdan,
O‘ynayliku kulaylik, eson-omon bo‘laylik*

Oshiqning yumshoq, o‘ynoqi ohangda, mayin erkalash bilan aytgan so‘zlaridan uning qarshisida mumtoz she‘riyatimizda tasvir etiladigan nozik, latif qiyofadagi mahbuba turganligi ko‘z oldingizga keladi.

Yoki quyidagi baytga e‘tibor bering. Bayt to‘laligicha sof so‘zlashuv uslubiga yo‘g‘rilgan:

Ol xabar ul sarvinoz uyqusidan turganmikan?

Nogah turgan bo‘lsa, tush-mush ham so‘rang, ko‘rganmikan?

Baytni o‘qigan kishining qulog‘i ostida “anavi sarvinoz (qiz)dan xabar olchi, uyqudan turdimikan?! Agar turgan bo‘lsa, tush-push ko‘rdimikan?!”, degan ovoz jaranglaganday bo‘ladi, go‘yo. Chunki bayt sof so‘zlashuv uslubida. Unda og‘zaki nutqda ko‘p foydalanadigan “tush-push” takroriy otning qo‘llanishi, gumon, shubha, ba‘zan so‘rov ma‘nolarida ishlatiladigan “-mikan” yuklamasining ifodalanishi she‘r tilini yanada soddalashtiradi, o‘quvchiga yaqin va tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Yana bir g‘azalida qofiya sifatida tanlagan *mahro‘gina, diljo‘gina, suvgina, badxo‘gina, gesugina, “hu”gina, mo‘gina, bo‘gina* so‘zlarga “-gina” erkalash, kichraytirish qo‘shimchasini qo‘shish bilan xalq she‘riyati va qo‘shiqlariga yaqin bo‘lgan erkalatmoq ruhidagi o‘ynoqi, xalqchil she‘rni vujudga keltiradi:

Uchradi nogah manga bir dilbari mahro‘gina,

Xandasi shirin, kalomi jonfizo diljo'gina.

Muqimiy she'riyatida lirik qahramonning oshiqona kechinmalari xalqona, o'zbekona ohanglarda goh o'ynoqi, goho xazin uslubda bayon etiladi. Shoir yor go'zalligi, husn chizgilarini berishda boshqa ijodkorlarda uchramaydigan o'zgacha yo'sin topa biladi:

Ey o'shal xurshid yanglig' tal'atingdan o'rgulay,

Zulfi rayhoning bilan xolu xatingdin o'rgulay

yoki

Shom – subhim, sensiz, ey shirin zabon tokayg'acha,

Loladek bag'rim bo'lur hajringda qon tokayg'acha

Shoir tuyg'ular g'alayonini she'rda radif bo'lib kelgan, so'zlashuv uslubda ko'p qo'llanadigan "o'rgulay", "tokaygacha" so'zlariga yuklaydi va ularga alohida urg'u beradi. Bu esa hissiyotlarni junbushga keltiradi, ularni o'qiyotganda ichki ovoz o'z-o'zidan ko'tarilib ketadi. Bu yerda fikr, tasvir yangi emas, lekin shakl va ifoda o'ziga xos. Qolaversa, keltirilgan tashbihlar (xurshid yanglig', zulfi rayhoning, loladek bag'r) yorga go'zallik baxshida etayotgan jihatlariga o'ziga xos izoh berishda qo'l keladi. Shoir Muqimiy oshiq tuyg'ularini, kechinmalarini obrazli aks ettirishda milliy tilimiz boyligidan, imkoniyatlaridan unumli ravishda foydalanadi, eng muhimi, o'z o'rnida, zarur joyda qo'llay oladi. Bu esa she'rning emotsionalligini saqlab qoladi.

Shoir she'riyatidagi xalqona ohang uning murabba'larida ham bo'y ko'rsatadi. Ma'lumki, "murabba' – musammat turlaridan biri, to'rt misrali bandlardan tarkib topuvchi she'r shakli" [2. 191]. Bu shakldagi asar qofiyasi a a a a, b b b a, c c c a .. tarzida tuziladi. Muqimiyning shu shakldagi she'rlari 20 dan ortadi. Muqimiy murabba'lari o'zining shakli bilangina emas, balki mazmun va g'oyasi bilan, ohangdor va ravonligi bilan xalq she'riyatiga yaqin turadi. Shoirning "Ko'nglum sandadur" murabba'sining mazmuni va ruhiyatidan ayonki, murabba'da boshdan oyoq muhabbat kechinmalari tasvirlanadi. Shuningdek, she'rning birinchi bandiyoyq o'tli nigoh, vafo, sadoqat, fidoyilik kabi olijanob insoniy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan. Birinchi bandning oxirgi *O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur* misrasining keyingi bandlar oxirida tarje' sifatida aynan takrorlanib kelganligi she'rga o'zgacha ruh bag'ishlaydi :

Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,

Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,

Saqlay ishqing toki jonim tandadur.

O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Murabba' boshlanmasidanoq oshiq kechinmalari va tuyumlarining badiiy ifodasi zarofat bilan tasvirlanadi, ya'ni poetik ifodaning xalqona tarzi yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan samimiyat, soddalikning qabariq holdagi ifodasi o'quvchini o'ziga tortadi. Milliy til va xalq ruhining uyg'unlashuvidan badiiyatning go'zal namunasi dunyoga kelgan.

Xalqimizda xurliqo go'zal qizlarga nisbatan "jonon ekan" ta'biri ko'p uchraydi. She'rda muhibning mahbubani jonon deb sifatlashi, xalq tilida mavjud ibora va o'xshatishlar ("gul yuzing")lardan unumli foydalanishi she'r badiiyatini kuchaytiradi.

Yagona inson muhabbati bilan yashash, unga sadoqatli bo'lish, har bir zamonning ijtimoiy-axloqiy muammosi bo'lganidek, Muqimiy davrida ham, bugungi kunda ham eng asosiysi – oilaviy muammo. Muqimiy har qanday sharoitda, turmushning alamli va shodlik kunlarida ham “xonumonlar”ga parvo qilmaydigan chin sevgini orzu qiladi. Shoir shunday oshiqona qat'iyat va ahamiyatni ardoqlaydi va bu insoniyatning eng asosiy shartlaridan ekanligini alohida uqtiradi:

*Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur,*

Ko'rinadiki, murabba'ning barcha baytlari bir-biri bilan mustahkam bog'liq, bir-birini to'ldiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, voqealar davomi uchun zamin yaratadi. Yuqoridagi bandeda yetakchi mavzu ochib berilgan, ya'ni lirik qahramon bir “jonon”ga oshiq bo'ldi, ishq o'tida o'rtangan oshiqning ko'ngli mahv etildi. Keyingi bandeda esa mahv etilgan ko'ngul kechinmalari izhor etiladi, oshufta qalbning dil rozlari yuqoridagi ma'yus ta'kidni yanada qat'iylashtiradi, tuyg'ularini bo'rttirib ifodalaydi. Shu bilan birga, mahbubaning bag'ritoshligiga nisbatan biroz kinoya ham qiladi:

*Ertayu kech fikru zikrim xayoling,
Bir so'rmading: “Nalar kechdi ahvoling?”
Eslaringa tushib shirin maqoling,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.*

Yana oshiq bechora iztirobli kechinmalar qurshovida. Muhib mahbubani hech kim va hech narsaga mengzay olmaydi, uning taxayyulida “balki aql bovar qilmaydigan darajadagi bu husn sohibining nasl-u nasabi parilardan”. Oshiq ko'zda tutgan ana shunday estetik ideal vaslidan judolik qahramonimizni shunday tushkun kayfiyatga olib keldi:

*Voqif ermas kishi sening aslingdin,
Tokim desam man sening naslingdin,
Vodarig'o, judo bo'ldim vaslingdin,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.*

Murabba'da xalq tilida ko'p ishlatiladigan *asl, nasl, vasl* so'zlari o'zining yuksak ifodasini topgandek ko'rinadi. Shoir har bir satr ichiga jamlangan so'zni o'z o'rniga qo'ya olgan, masalan, *vodarig'o* so'zi yor vaslidan mosuvo bo'lgan oshiq tilidan joyida aytilganligi shoirning badiiy-estetik niyati, poetik tafakkur tarzining kengligiga ishora beradi.

Keyingi bandlarda birinchi banddagi g'oyaviy mazmun va tuyg'ular tadrijiy takomillashadi hamda mahbuba go'zalligining muayyan qirralari va go'zallik shavqidagi muhib kechinmalari yanada ayonlashadi:

*Yo'q san kabi malohatlik yagona,
Ko'rganmukan misolingni zamona,
Bolib xalq ichida mundog' afsona,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.*

Nazarimizda, yuqoridagi bu satrlar – shoir Muqimiy san’atkorligining avj nuqtasi. Voqean, she’r ta’rif-tavsif tarzida yaratilgan va bu ta’rif-tavsif baravar me’yorda, uyg’un aks etgan. Shoir misralardagi mazmuni rivojlantirishda tadrij usuli bilan nazarda tutilgan muayyan siymo malohatini vasf etar ekan, hayratomuz go’zallikni ko’z oldingizda gavdalantiradi:

*Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,
Raftoringga shaydo jumla yoronlar,
Qolib har dam o’z ishimga hayronlar,
O’zim har joydaman, ko’nghum sandadur.*

Ko’ringanidek, tasvir doirasiga mahbubaga doir yuz va raftor, muhibga doir ko’ngul obrazlari tortilgan. Ularning ta’rifida va jonli tasvirida mubolag’a, tashxis san’ati ko’maklashgan.

Murabba’ning yettinchi bandida lirik mazmun va maqsad badiiy nihoyasiga etib boradi. She’r naqadar samimiy, zukko mushohada bilan boshlangan bo’lsa, shunchalik teran hayotiy o’git va murosa bilan yakunlanadi. Shu yo’sinda oshiq muhib qalbining muddaosi nazokatli tarzda anglatiladi, ya’ni mahbubani ko’rib oshiq bo’lgan va uning vasliga vosil bo’lolmay, subhu shom hajr iztirobida yongan muhib duogo’y bo’lib turishga rozi, hech bo’lmasa, qaerda bo’lmasun, shundan oshufta ko’ngli taskin topgusi, duolari muhabbat izhori sifatida sog’inchlarga xumor bosdi bo’lgusi. Demak, murabba’ning badiiy tugallanmasi shunday:

*Sultonisan, barcha xo’blar nadiming,
Doyim erdim duogo’yi, qadiming,
Bovujudi so’rmay o’tting Muqiming,
O’zim har joydaman, ko’nghum sandadur.*

Murabba’ ulkan badiiy mahorat mahsuli sifatida Muqimiy hayotligidayoq shuhrat topdi, xalqqa sevilib, tildan tilga, dildan dilga ko’chdi, nash’u namo topdi. Murabba’ning muvaffaqiyatini ta’minlagan omillardan biri, avvalo, uslubdagi soddalik, qolaversa, ifodadagi xalqonalikdir, qolaversa, shaklan go’zal, jonli, tasviriy vositalari rang-barang hamda tabiiy. She’r satrlari pishiq, chertib ishlatilgan so’zlar misralarni o’quvchi yodida tez saqlanib qolishligini ta’minlaydi,

Muqimiy ijodining muhim fazilatlaridan biri – uning o’z uslubi va ruhi bilan xalqqa juda yaqinligida. Muqimiy oddiy xalq ichidan yetishib chiqdi, uning uchun yozdi, mumtoz she’rlarga xalqona ruh va milliy o’zgachalik baxsh eta oldi, shuning uchun ham el-yurt tomonidan sevib qabul qilindi, ardoqlandi va saqlandi. Muqimiy chin ma’noda xalq shoiridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муқимий. Асарлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.
2. Тожибоева М. Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti. O’quv qo’llanma. – Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2017.
3. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akadernashr, 2013.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY IJODIGA XOSLIKLAR

Laylo SHARIPOVA,
BuxDU o‘zbek tili va
adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.d.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Qo‘qon adabiy muhiti vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi sho‘ro davrida keng tadqiq etilgan, ammo biroz soxtalashtirib o‘rganilgan. Shoir, dramaturg, pedagog Hamza ijodiy merosining o‘rganiladigan jihati talaygina. Maqolada shu haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tanazzul, taraqqiyot, g‘oya, syujet, darslik, voqeaband she‘r, barmoq she‘riy tizimi, qo‘shiq, vatanparvar.

Abstract:

The work of Hamza Hakimzoda Niyazi, a representative of the Kokand literary community, was widely studied during the Soviet era, but with some falsification. Hamza's creative heritage as a poet, a playwright, a teacher has many aspects to study. The article discusses this.

Keywords: decline, development, idea, plot, textbook, “voqeaband” poem, “barmoq” poetry system, song, patriot.

XIX asrning oxirida uchga bo‘lib boshqarilayotgan Turkistonda tanazzul kuchaydi. Bir paytlar dunyoni lol qoldirgan, o‘z renessansi bilan dunyo tamadduniga muhim iz solgan ulug‘ tuproqda taraqqiyot susaydi. Bu og‘riqni eng birinchi bo‘lib so‘z sohiblari, ijodkorlar angladilar. Shoirlar nafaqat she‘r, balki ilmiy asarlar yoza boshladilar. Yangicha tipdagi darsliklar yuzaga keldi. Jahon taraqqiyotidan orqada qolganimizni anglatish, ma‘naviyatni yuksaltirish, ma‘rifat orqali o‘zi bilan o‘zi ovora xalq farzandlari orasidan ulug‘ iste‘dodlarni qayta topishni istash shoirlarni olimga, pedagogga aylantirdi. Shunday shoirlar orasida dunyo kezib, yurt ravnaqi istagida vatanga qaytgan Hamza Hakimzoda Niyoziy bor edi.

Qo‘qon adabiy muhiti vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy vafotidan biroz vaqt o‘tib sho‘roga xizmat qilishi zarur bo‘lgan yangi o‘zbek adabiyotining asoschisi sanaldi. Negaki Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy singari ulug‘ ijodkorlarimiz sho‘ro tomonidan qoralab, o‘limga hukm qilingan edi. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan Uchinchi Renessans kuch ishlatib to‘xtatilgan edi. Endi elni ergashtirib ketadigan adabiyot, uning vakillariga o‘rnak bo‘ladigan yangi davr iste‘dodi zarur edi. Hamzani dindorlar toshbo‘ron qilib o‘ldirdi, degan xulosa bu nomni o‘zbek sovet adabiyoti asoschisi deb atashga yo‘l ochardi. Shunday qilindi. Aslida toshbo‘ronni uyushtirgan, qatag‘onni Hamzadan boshlagan sho‘ro hukumati shoir ijodini soxtalashtirishdan toymadi. Shoirning ayrim asarlarini qayta ishlashdi, “Yasha, Turon” deganini “Yasha, Sho‘ro”ga aylantirishdi. Qayta ishlangan, g‘oyasi, syujeti butkul o‘zgargan “Boy ila xizmatchi” sahnadan tushmay qoldi, darsliklardan darsliklarga ko‘chdi. Biz Hamza yaratmagan Jamilaning monologini ijro qilib talaba bo‘ldik. Sho‘ro hukumati Hamzaning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatib qo‘yadigan gul to‘plamlarini, darsliklarini targ‘ib qilmadi.

Aslida Hamza Hakimzoda Niyoziy Yangi o'zbek adabiyotning asoschisi emas-ku, ammo iste'dodli, jonkuyar vakillaridan biri bo'lgan. O'ldirib yuborilmaganda asrdan asrga oshib o'tadigan asarlar yozarmidi?! Shu hoida ham shoir, dramaturg, pedagog, teatr bunyodkorlaridan biri sifatida o'rganilishga loyiq ijodkor.

Uning hayoti va ijodi ko'p bor o'rganilgan, ayniqsa, sho'ro davrida keng tahlil va talqin qilingan. "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" darsligida aytilishicha, Sotti Husayn 1940-yilda "Hamza Hakimzoda Niyoziy" asarini yozgan va hamzashunoslikni boshlab berdi [1.96-97.], XX asrning 50-yillari ikkinchi yarmidan boshlab adabiyotshunos olim L.Qayumov "deyarli butun umrini, ilmiy-ijodiy faoliyatini Hamza hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishladi"[1.121.]. Hamzashunoslikda bunday tadqiqotlar yetarlicha yaratilgan bo'lib, ularda Hamza ijodining turli qirralari tadqiq etilgan.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning ikki xizmatini alohida ta'kidlashni istadik.

1.Hamza pedagog sifatida darsliklar yaratdi. Uning darsliklaridan "Yengil adabiyot" bugungi "Alifbe"ga, "O'qish kitobi" va "Qiroat kitobi bugungi "O'qish kitobi"ga poydevor bo'lgan darsliklardan. Bu darsliklarni ko'zdan kechirsangiz, quyidagi tamoyillarga amal qilinganini ko'rasiz: a) soddalikdan murakkablikka qarab borish. Masalan, barmoq she'riy tizimidagi she'rlar hijolar soni orttirib borilgan holda (aytaylik, avval 7, so'ng 9 hijoli she'rlar) keltirilgan. "Yengil adabiyot"da olimlik xosiyati, johillik kasofati haqida fikr yuritar ekan, Hamza dunyo qanday taraqqiyot yo'lidan ketayotganini chuqur idrok qilib, yosh avlodni ilm olishga chorlaydi. XX asr boshida bunday fikrlash uchun yyetuk tafakkur sohibi bo'lish lozim edi:

Olim bo'lsak dunyoda
Har ish bo'lar bunyoda.
Biz ham suv ostin kezib,
Ham ucharmiz havoda.

Keyin aruz she'riy tizimidagi she'rlarga o'tilgan, voqeaband she'rlar, so'ng nasriy asarlar berilgan; b) darsliklarda ham ta'lim, ham tarbiya berish nazarda tutilgan; v) berilgan badiiy asarlarning tili boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunarli bo'lishi inobatga olingan. Bu o'z davri uchun jiddiy yangilik edi.

2.Xalqqa eng ko'p ta'sir qiladigan vosita qo'shiq ekanini anglagan shoir el tinglaydigan qo'shiqlar matnini yangilash yo'lidan boradi. U o'z she'rlarida xalq qo'shiqlari ohangini saqlab, matniga vatanparvarlik, elparvarlik g'oyalarini singdiradi.

Shoir she'rlar qaysi qo'shiqlar ohangida yozilganini yozib qoldirgan. Aytaylik, «Jonlarni jononi Vatan» she'ri «Ho'qondda marsiya edarak aytilmish ashulaning ohangida» yozilgan. Hamzaning «marsiya» degani asli yo'qlov bo'lib, xalq og'zaki ijodiga mansubdir:

Qamchinbegim uv dediyo, bir piyola suv dediyo,
Dor tagiga olib borganda ichmay turib «huv» dediyo[2.45.].

Hamza shu yo'qlov ohangini vaznni saqlash yo'li bilan o'zlashtirib, Vatan haqida chiroyli she'r yaratdi. She'rni teatrlarda xor tarzida aytish mumkinligini ta'kidladi. Shu bois quyidagi misralarni har baytdan so'ng naqarot kabi keltirdi:

Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan [2.46.].

Hamza tazmin bog‘lamadi. Ammo yaratayotgan she‘rlari qaysi xalq kuyiga mos kelishini yozib qoldirdi. Bu xalq qo‘shiqlari ohangini o‘zlashtirganini isbotlovchi rad etib bo‘lmas dalildir. Xalq yo‘qlovi barmoq she‘riy tizimining 16 hijoli vaznida yozilgan bo‘lib, 8:8 turoqdan tashkil topgan «Jonlarni jononi, Vatan» she‘ri ham shunday vazn va turoqda bitilgan. She‘rdagi ohangni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalar vazn va turoqdir. Agar xalq she‘ri va Hamza she‘rining vazni bir xil bo‘lsa-yu, turog‘i ikki xil bo‘lganida bir xil ohang yuzaga kelmasdi.

Hamza xalq qo‘shiqlari matnini almashtirdi. Qo‘shiqlarning kuylari asrlar sinovidan o‘tgan, boqiy kuylar edi. Ammo matnlar xalq ma‘naviyatini yuksaltiradigan, ruhini tarbiyalaydigan she‘rlardan tashkil topmagandi. Hamza ana shu kemtiklikni to‘ldirdi. Xalq qo‘shiqlarini g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksaltirish bilan bir qatorda boy va rang-barang folklor ohanglarini yozma adabiyotga muhrladi. Shu ikki xizmatining o‘ziyoq Qo‘qon adabiy muhiti vakili bo‘lmish Hamzaning ijodi hali o‘rganilishi lozimligini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2012. – 396 б.
2. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.45.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI QO‘QON ADABIY MUHITI VA MUQIMIY IJODINI O‘RGANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Quldosh PARDAYEV,
filologiya fanlari doktori,
dotsent, TDO‘TAU
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti va Muqimiy ijodi nazariy-metodologik tamoyillar asosida tadqiq qilingan. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy asarlarining nashrlari matnini shoir dastxat bayozlari bilan qiyoslaganda, aksariyat she‘riy asarlar matni asliyatga muvofiq emasligi aniqlangan. Chunki sho‘ro davri mafkurasida talabidan kelib chiqib, shoirning diniy-tasavvufiy mavzudagi she‘rlari tahrirga uchrab, qisqartirilgani, hajviy asarlar matnidagi kuchli ijtimoiy tanqidiy bayt va bandlar ham tushirib qoldirilgani, natijada, tahrir qilingan asarlar mazmun-mohiyatga zid talqin qilini dalillangan.

Kalit so‘zlar: Satira, nashr, shoir, misra, bayt, adabiy muhit, uslub, talqin, tahrir, qo‘lyozma, g‘azal, she‘r.

Аннотация

Кокандская литературная среда конца XIX - начала XX веков и творчество Муками изучены на основе теоретико-методологических положений. Сравнение в произведениях Мухамада Аминходжа Мукимий с его рукописный и с реальной работе наблюдался несоответствия. Потому что времена советского союза по идеологическом вопросам написана была

писателем стихотворение пришлось отредактировать. В сатирических произведениях была указана писателем отрицательное моментом пришлось сократить. В результате отредактированное произведение непервильное в общих смыслах.

Ключевые слова: Сатира, редактирование, интерпретация, рукопись, газел, редакция, поэт, строка, строфа, литература, стихотворение, стил

Abstract

The Kokand literary environment of the late 19th - early 20th centuries and Mukimi's work are studied on the basis of theoretical and methodological provisions. Comparing the current text of the works of Mohammad Aminkhoja Mukimi with handwriting bayaz of poet do not correspond to the original. Because of the ideology of Soviet Union poet's poems on the religious and mystical nature have been amended and shortened. Strong social critical verses in the texts of comedic works of poet were also dropped down. As a result, the edited work was interpreted against the essence.

Key words: poet, interpretation, line, gazelle, stophe, editing, literary environment, edition, manuscript, poems, satirical, style.

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari adabiy merosi alohida ahamiyatga ega. Ushbu adabiy muhit namoyandalari ijodini o‘zbek matnshunosligi mezonlari asosida xolis va ilmiy asosda o‘rganish dolzarb vazifalaridandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilanganidek: “...tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o‘rganish, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va sivilizasiyasi rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasini targ‘ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma’naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish” yechimini kutayotgan muammolardandir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo‘qon adabiy muhiti va Muqimiy ijodini o‘rganish maqsadini amalga oshirishda metodologik asos vazifasini o‘tovchi tamoyillarni quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz:

1. Ijodkor va u yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitning o‘zaro munosabatini haqqoniy belgilash.

2. Adabiy merosi o‘rganilayotgan ijodkor dunyoqarashini baholashda mezonning to‘g‘ri tanlanishi.

3. Adabiy manbadagi talqinlarning asliyatga muvofiqligi.

4. Ijodkor asarlarining bugungi globallashuv davridagi adabiy-estetik tafakkur takomiliga ta’siri.

Tabiiyki, ushbu tamoyillar nisbiy xarakterga ega va ilmiy haqiqatni to‘liq qamrab olishni da’vo qilmaydi. Agar muayyan yangi ilmiy xulosalarga olib kela olsa, ular o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani ado etgan bo‘ladi. Ularni birma-bir tahlil etishga harakat qilamiz.

Ijodkor va u yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitning o'zaro munosabatini haqqoniy belgilash. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy va XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon ijtimoiy-tarixiy muhiti masalasi shu paytgacha xolis va mufassal o'rganilgan, deyish qiyin. Sho'ro davridagi tadqiqotlarda bu mavzuga o'sha davr hukmron mafkurasi talablari asosida yondashilgan va Muqimiy demokratik adabiyot vakili sifatida isyonkor shoir o'laroq talqin etilgan. Uning hajviy asarlari ham adabiy-estetik qonuniyatlar asosida emas, sinfiy-mafkuraviy asosda baholangan. Mustaqillik zamonida yaratilgan “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” darsligida shoir adabiy merosi nisbatan xolis ilmiy yoritilgan, deyish mumkin. Professor Begali Qosimov shoir va ijtimoiy muhit munosabatlari masalasiga quyidagicha munosabat bildiradi: “Shoirlardan Muqimiy, bir tomondan, mumtoz adabiyotimizdagi eng yaxshi an'analarni davom ettirdi. Ikkinchi yoqdan, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirdi. Masalan, zavod-fabrikalar ishga tushib, ishchilar sinfining maydonga chiqishi, tili, dini, urf-udumlari, hatto hayot tarzi keskin farq qiluvchi Yevropaning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalqqa, uning turmushiga etkazgan ta'siri, yevropalashuv tomon qo'yilgan qadamlarning yaxshiyomon jihatlari tahlili ilk daf'a Muqimiy ijodida aks etdi. Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g'oya va mazmunigagina emas, shaklu ifodalariga ham ma'lum yangiliklar kiritdi. Hajvga alohida e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi”[1, 31]. Shunga qaramay, darslik mualliflari: “Shoir bosib o'tgan murakkab ijodi yo'l va uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlarini nuqtai nazaridan qayta ko'zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor”ligini alohida ta'kidlaydi. Bunday deyilishi zamirida etarli asoslar bor. Negaki, Muqimiy asarlarining matnlari ustida maxsus tadqiqotlar olib borilishi zarurligi, asliyatga muvofiq matnga ega bo'lmay turib, ishonchli ilmiy xulosalar chiqarish imkonsiz ekani ham bu fikrni tasdiqlaydi. “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti” darsligining ancha puxta yozilganini ta'kidlagan professor Muhammadjon Imomnazarov: “Ammo, to'g'risini aytganda, kitobdagi “Muqimiy” maqolasi “Furqat” va “Muhyi Xo'qandiy” maqolalariga nisbatan ancha “vazni yengilroq” tuyuladi. Mazmun jihatdan ham Muqimiy haqidagi maqolada biror yangilik sezilmaydi” [2, 131], deya munosabat bildiradi. Bu munozaralar shunchaki paydo bo'lgan emas. Haqiqatan, Muqimiy adabiy merosi, shoir shaxsi va u yashagan ijtimoiy-tarixiy muhit munosabatlari yangicha asoslarda yoritilishi – zamon talabi.

Bu davr adabiyotining sho'rolar davridagi noxolis talqinlari xususida professor Sh.Yusupov bunday yozgan edi: “...XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti tarixini yoritishda ham shu boshi berk ko'chaga kirib qolindi. Bu davr adabiyotidan hajv yozgan (demokrat), rus fan texnika madaniyatiga xayrixohlik bilan qaragan (ma'rifatparvar) bir necha qalam sohibi g'arazli maqsadlar bilan ajratib olinib, hammaga ko'z-ko'z qiladigan yuksaklikka chiqarib qo'yildi. ...Ular bilan bir davrda yashab, birgalikda ijod qilgan, fikr ko'lami va badiiy mahorati jihatidan ulardan aslo kam bo'lmagan Muhyi, Qoriy Xo'qandiy, Nisbatiy, Havoiy-Umidiy, Haziniy, Qunduziy kabi... nihoyatda boy

adabiy xazinamizni shunaqangi chalakam-chatti qilib ko'rsatish bu xazina haqida o'quvchilarda qanday chalkash taassurot qoldirgani o'z-o'zidan ayon" [3, 68].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar ham ijodkor va u yashagan ijtimoiy-tarixiy muhitning o'zaro munosabatini haqqoniy belgilash nechog'liq zarur ekanini ko'rsatib turibdi. Zero, Muqimiy o'z asarlarida o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol munosabat bildirdi. Turkistonda Rusiya joriy etgan saylov tizimi jamiyat hayotini izdan chiqargani, poraxo'rlikni avj oldirgani haqida yozdi. Ta'rix janriga oid "Tarixi favti noibi Toshkandiy" asarida asli xo'qandlik bo'lsa-da, Toshkentning ko'zga ko'ringan oqsoqollaridan sanalgan, biroq mustamlakachilarga qarshi bosh ko'targani uchun sudlanib, surgun qilingan In'omxo'ja Umryoxo'jayevning o'limini shahidlik deya baholaydi. Hajviy asarlarida o'z shaxsiy manfaatini Vatan va millat taqdiridan ustun qo'yan mahalliy amaldorlarning kirdikorlarini ayovsiz fosh etadi. Shu bois Muqimiydek o'z davrining atoqli namoyandasi adabiy merosini tadqiq qilishda shoirning o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti bilan munosabatlarini haqqoniy belgilash muhim ilmiy xulosalarga olib kelishi tayin.

Adabiy merosi o'rganilayotgan ijodkor dunyoqarashini baholashda mezonning to'g'ri tanlanishi. Metodologik ahamiyatga ega bo'lgan bu masala XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan barcha ma'rifatparvarlar adabiy merosini tadqiq etishda muhim o'rin tutadi. Muqimiy dunyoqarashi zamondosh shoiru adiblar tomonidan munosib baholangan. Husaynquli Muhsiniyning "Qasida hozo bajihati Muhammad Aminxo'ja Muqimiy" sarlavhali qasidasi, Kamina, Yoriy, Mavlaviy Yo'ldosh, Sulaymonquli Rojiy va Oshiq Maxdum O'shiyning qasida, marsiya, ta'rix janrlaridagi she'rlarida Muqimiy dunyoqarashi badiiy lavhalarda yoritilgan. Zufarxon Javhariyning "Guzorishi holi Muqimiy Farg'oniy" manzumi ham shoirga berilgan munosib baho, deyish mumkin. "Ayniqsa, Muhsiniyning qasidasi shoir hayotligi davrida bitilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. U Muhsiniyning 1897-yilda tasnif etilgan "Ilk devon"ining 80^{ab}-varaqlaridan o'rin olgan. Zamonasidagi ahli donish va ahli fazl orasida Muqimiy qanchalik hurmat-e'tibor qozongani qasidaning quyidagi misralarida yaqqol bayon qilingan:

*Zubdai davron Xo'qand ichra xud yakto Muqim,
Ahli donishlar ichinda rutbasi a'lo Muqim.
Fitratu fazlu balog'at bo'lg'usidur shunchalar,
Ko'rmadi gardun seningdek shoire aslo, Muqim"* [4, 86].

Kamina taxallusli shoir ham Farg'ona shuarosini ta'rif-tavsif eta turib, Muqimiyning ilmu ma'rifatdagi darajasi xususida mana bunday yozadi:

*Muqimiy ilmi holda, ham yona ilmi qolda,
Maskanlari Xo'qandda Hazratning madrasasi...* [5, 66].

Oshiq Maxdum Muqimiyning "Qil" radifli g'azaliga nazira qilib, yetti baytli g'azalida, Oллоhdan Muqimiy oxiratini obod etishni so'raydi:

*Muqimiy turbatini o'z tajalling birla tobon qil,
Jamoling ko'rsatib, jannat ichinda shodu xandon qil.
Bahaqqi surai "Yosin"u "Toho", hurmati "Qur'on",
Sochib boroni rahmat ravzai pokin gulsiton qil.*

*Hamisha hamdu na't aytur edi ummidi jannatda,
Ko'rarman deb jamolingni, anga husnung namoyon qil.
Duoyi Oshiqingni ayla maqbuling, Xudovando,
Muqimiy hamdamin mahshar kunida Shohimardon qil...* [6, 26].

Ma'lumki, N.Ostroumov Muqimiy biografiyasini to'ldirgan holda 1907-yilda "Devoni Muqimiy" nomli kichik bir to'plam nashr ettirgan[7]. To'plamda Muqimiyning turli janrlarga oid she'riy asarlari va N.Ostroumov so'ngso'zi berilgan. Unda shoir shaxsiyati va faoliyati borasida quyidagicha ma'lumot uchraydi:

"Mulla Muhammad Aminxo'ja – taxallusi Muqimiy, xo'qandlik shoir. To'rt yil muqaddam ya'ni 1321-chi tarixi hijriyda 27-chi safar oyida vafot qilgan... Muqimiy shoir tavallud topib, janob hazrati Kalonning nazari kimyo asarlarig'a manzur qilinib, ul janob anga Muhammad Amin nom qo'yubdurlar. Ul nazari kimyo asarning xosiyati barakatidin ul farzand haddi bulug'ga etib, tahsili ilmg'a mashg'ul bo'lub, bir necha vaqt Buxoroi sharifga borib, madrasada istiqomat aylab, xatmi kutub qilib, andin so'ngra... o'z vatani Xo'qandg'a kelib, aqron va amsollari nazdida qadri manzilat paydo qilib, otasi vafot qilganda ham aning matruka (qoldirgan) meroslarig'a manzuri nazar qilmay, qalandarona janob hazratning madrasai mutabarrakalaridin (Qo'qondagi "Sohibzoda hazrat madrasasi") bir hujra olib, umrini o'shal madrasada o'tkarmoqni o'zig'a lozim fahmlab, kechalarni uch taqsim qilib, bir taqsimda Kalomi Rabboniy (Qur'oni karim) tilovat aylab, ikkinchi taqsimda juz'iyotdan tab'i nazm ishlarig'a mashg'ul bo'lub, qasida va g'azaliyot, muxammas va muvashshahlar aytib, va bir qismiga, anga inson noilojdur, xobi istirohatga mashg'ul bo'lur ekan. Aksar vaqt mozorotlarga borib, azizlarning ruhi purfutuhlaridin madad va isti'onat (yordam) tilab va ba'zi vaqt xarobotxonalardagi parrixta (ojiz, umidsiz) va gulxannishinlar ilan hamsuhbat bo'lub, va gohi ulamo va fuzalo va mashoyixlar majlisig'a borib, alarning suhbatlaridin bahramand bo'lur ekan..." [8, 29].

Ta'kidlash joizki, bu maqoladagi shoir biografiyasiga oid ma'lumot 1910-yilda Toshkentda Porsev litografiyasida "Devoni Muqimiy ma'a hajviyot" nomi bilan nashr etilgan to'plamda ham berilgan. Shundan so'ng barcha muqimiyshunos olimlar o'z tadqiqotlarida bu ma'lumotdan ishonchli manba sifatida foydalanib kelgan. Professor G'ulom Karimov mazkur maqoladagi fikrlarga davr taqozosi bilan quyidagicha mulohaza bildiradi: "...N.Ostroumovning bergan bahosiga qaraganda, Muqimiy "Qalandarona umrini o'tkarmoqni lozim" topib, tarki dunyo qilgan, darveshlik tariqatini qabul etgan kishidir... Bunday biryoqlama, ochiqdan-ochiq uydirmadan iborat bo'lgan xarakteristika, shubhasiz, N.Ostroumov singari burjua olimlarning kayfiyatiga juda mos, hukmron doiralarining manfaatiga esa muvofiq edi" [9, 12].

Aslida esa N.Ostroumov maqolasidagi mulohazalar haqiqatga yaqin edi. Buni ikki asosga ko'ra izohlash mumkin: birinchidan, Muqimiy Qo'qondagi "Hazrat" madrasasida umrining oxirigacha yashab, u erda shar'iy ilmlarni komil darajada egallagan. Bundan tashqari, yuqoridagi xabarda uning tasavvufda maqomga erishgani borasida ham ishora uchraydi. Ikkinchidan, keyingi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shoir dunyoparastlikdan parhez qilgan. Dunyo

hoy-u havaslariga berilmaslik g'oyalari bilan sug'orilgan diniy-tasavvufiy asarlar yozgan. Manbalardan shoirning ushbu yo'nalishdagi asarlari topilishi ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Shoirning o'z asarlari va u haqdagi yuqorida tilga olingan maqolalar shoirning dunyoqarashi haqida yaqqol tasavvur beradi. Muqimiy dunyoqarashini belgilashda mezonni to'g'ri tanlash, bunda ijodkorning islomiy-tasavvufiy hayot tarziga doir manbalarga tayanish ilmiy zaruriyatdir.

Shoir dunyoqarashi va tarjimai holi bilan bog'liq ushbu fikrlar Muqimiy asarlarining mohiyatini chuqurroq o'rganish, ijodkor dunyoqarashini xolis ilmiy baholash zaruratidan kelib chiqadi. Shoirning turli janrlardagi she'rlari qatori nazmiy va nasriy maktublari ham uning dunyoqarashini belgilashda alohida o'rin tutadi. Muqimiy Moskvadagi jiyani Ro'zimuhammad Do'stmatovga yozgan bir maktubida bunday yozadi: "Bechorachilik, podsholik madrasalarning vaqfini olib qo'ygan, hech bir tarafdin daromad – daxl yo'q, qashshoqliq". Shu sababli xijolat birlan xatlarimiz shundog' quruqdan-quruq boradur, aybga qo'shmang" [10, 23]. Podsholik tomonidan madrasalar vaqflarining olib qo'yilishi – islom shariatiga asoslangan boshqaruvning ildiziga bolta urish bilan barobar edi. Muqimiy Turkiston aholisining qashshoqligi haqida so'z yuritar ekan, masalaning ayni e'tiqod bilan bog'liq ana shu jihatiga alohida urg'u beradi.

Adabiy manbadagi talqinlarning asliyatga muvofiqligi. Adabiy matn va uning asliyati masalasi matnshunoslikda o'rganilishi muhim bo'lgan ilmiy muammolardandir. Mumtoz ijodkorlar asarlari matnining asliyatga muvofiqligi ilmiy tekshiruv xulosalarining haqqoniyligini, nazariy jihatdan asosli bo'lishini ta'minlaydi. Jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Hamza singari shoirlar asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra tahrir va qisqarishlarga uchragan. Natijada noqis matnlar asosida turlicha biryoqlama talqinlar yuzaga kelgan. Bunday holni Muhammad Aminxo'ja Muqimiy adabiy merosi tadqiqi jarayonida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki, shoir ijod namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Aksar hollarda ulardagi talqinlarda asliyatdan uzib olingan matnlarga tayanilgan. Bu esa, shoir asarlarining bir tomonlama, ilmiy asosga ega bo'lmagan talqinlari yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Natijada shoir nazmiy merosi o'zining asl mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ijodkor asarlari g'oyaviy tahrirga uchradi, qisqartirildi, hukmron mafkuraga muvofiq kelmaydigan aksar she'rlari manbalarda qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, shoir adabiy merosini birlamchi manbalar asosida xolis va haqqoniy o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yadi.

Bunday holni Muqimiyning "Dar mazammati zamona" sarlavhali ijtimoiy-siyosiy mavzudagi she'ri misolida ham kuzatish mumkin. O'n yetti baytdan tarkib topgan she'r matni Muqimiy asarlari nashrlarida o'n baytga keltirilgan bo'lib, etti bayti qisqartirilgan. Bu esa shoirning chor mustamlakasiga bo'lgan tanqidiy qarashi yashirilishiga olib kelgan. Nashrlardan tushirib qoldirilgan she'rning ikkinchi bayti Muqimiyning 1325 raqamli dastxat bayozida (120^a – sahifa) quyidagicha keladi:

*To'lib cherkas, qizilbosh, armanilar shahrimiz ichra,
Musulmonlar tahipo, yaxshilar ko'zdin nihon bo'ldi.*

Xuddi shunday holni shoirning “Toleim” radifli she’ri misolida ham ko‘rish mumkin. G‘azal Muqimiy asarlar to‘plamining eng so‘nggi nashrida (138-sahifa) 5 bayt bo‘lib kelsa, 7521 raqamli Muqimiy dastxat bayozining 51^a-sahifasida esa 6 bayt. Tushirib qoldirilgan misralar quyidagicha:

*Sog‘inib Hazrat afandin ko‘rgali borsam agar,
Soate, suhbatlarin qilmas muyassar toleim.*

Bu baytda Muqimiy Sohibzoda Hazrat afandini ko‘zda tutgan. Ma’lumki, shoir yashagan Qo‘qondagi “Hazrat” madrasasi shu kishi nomiga qurilgan. Shoir ijodini dinga qarshi qo‘yib talqin qilinganini e’tiborga olsak, bu baytning tushirib qoldirilishi sababi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi.

Umuman, shoirning lirik va ijtimoiy-siyosiy mavzularidagi aksariyat asarlari matni asliyatga muvofiq emas.

Adabiy-estetik tafakkurning bugungi globallashuv davridagi takomiliga ijodkor asarlari ta’siri. Muqimiyning manbalardan yangi aniqlangan aksar g‘azal va muxammaslari mohiyatan diniy-tasavvufiy g‘oyalarning badiiy talqiniga bag‘ishlangan. Ularda shoir she’rlar mazmuniga zulm va bid’atning jamiyat uchun ofat manbai ekani, adolatni ulug‘lash kabi g‘oyalarini singdirib yuborgan.

Hajv jamiyatdagi illatlarni fosh etish orqali ularni muolaja etishga qaratilgani bilan alohida ajralib turishi isbot talab qilmaydi. Boshqacha aytganda, hajv – jamiyat uchun oyna. Bu oynada yutuqlar ham, nuqsonlar ham ochiq-oydin aks etadi. Muqimiy ijodida hajvning etakchi o‘rin tutishi sababi shunda. Shoir hajviy asarlarining asosiy g‘oyasi zamonasidagi adolatsizliklarni, chor hukumatining milliy davlatchiligimizga, azaliy qadriyatlarimizga zid siyosati mohiyatini ochib ko‘rsatish, bu orqali millatga o‘zligini anglatishdan iborat edi. Bu turdagi asarlarida Muqimiy shariat qoidalarining mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning ma’naviy-axloqiy ildizlaridan tobora uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga tushib qolgani sabablarini butun mohiyati bilan badiiy talqin etadi. Jumladan, muxammas janridagi “Darig‘o mulkimiz” sarlavhali she’r Muqimiy asarlar to‘plamining sovet davridagi eng so‘nggi nashrida [11, 356]. 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band hukmron mafkura qolipiga muvofiq kelmagani uchun tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so‘nggina joriy nashrlarga kiritilgan. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga nisbatan tanqidiy qarashlari o‘quvchi e’tiboridan chetda qolgan. Muxammasning birinchi bandida ayni hol kuzatiladi.

Joriy nashrlarda:

*Darig‘o, mulkimizning sohibi ahli sharor o‘lmish,
Shariat hukmi qozilar qo‘lida purg‘ubor o‘lmish,
Ba joyi amri ma’ruf, kori munkar oshkor o‘lmish,
Hakimu olimu sohibfasohat xoru zor o‘lmish,
Bu kunda kimki iymonin sotar ul e’tibor o‘lmish.*

Asliyatdan joriy imloga tabdil qilganda: [12, 16].

*Darig‘o, dini islom hokimi ahli kifor o‘lmish,
Shariat ko‘z gusikim kufr gardidin g‘ubor o‘lmish,
Ba joyi amri ma’ruf nahyi munkar oshkor o‘lmish,*

*Sayid, sodotlar behurmat-u, ko'p xoru zor o'lmish,
Bu kunda kimki iymonin sotibdur, e'tibor o'lmish.*

Ko'rinadiki, she'r butunlay teskari tahrir qilingan. Natijada shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo'lib qolgan. Aslida, shoirning maqsadi bunday bo'lmagani ma'lum. Bu misralarda shoir "Shariat ko'zhusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish" – deya sayid, sodotlar behurmat ekanidan iztirob chekadi. Muxammasning keyingi bandlari ham g'oyaviy tahrirdan o'tkazilgan.

Umuman, muxammasning barcha bandlaridagi fikrlar zamon adolatsizliklari haqida. Shoir dunyoparast bo'lmay, oxirat – uqbo g'ami bilan yashagan komil musulmon edi. Lekin bu fikr uning tarkidunyochilikka moyil ekanini anglatmaydi. Muqimiy dunyoni emas, dunyoga muhabbatni tark etish haqida yozgan. Zero, dunyoparastlik odamni asl mohiyatidan uzoqlashtiradi. Dunyo matohiga bo'lgan hirs insonni jinoyatga, har qanday yo'l bilan bo'lsin, boylik to'plashga intilish tuyg'usini paydo qiladi. Bugungi globallashuv zamonida yosh avlod qalbida molidunyoga emas, insoniy kamolotga bo'lgan muhabbat tuyg'usini uyg'otish jamiyat ravnaqiga to'siq bo'layotgan aksar illatlarning oldini olishi aniq. Bu hol adabiy merosning, Muqimiy singari faylasuf shoirlar asarlarining bugungi kun uchun ahamiyatiga dalil bo'la oladi.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti va Muqimiy ijodini yuqoridagi tamoyillar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Muqimiy hayoti va ijodi haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Afsuski, sho'rolar davrida bajarilgani bois talqinlar biryoqlama va tendensioz xarakter kasb etdi. Shoir asarlari aksar hollarda davr mafkurasiga moslab tahrir etildi, ayrim asarlari manbalarda qolib ketdi. Shu bois Muqimiy adabiy merosi tadqiqidan avval uning shaxs sifatidagi dunyoqarashini o'rganishda ilk ma'lumot beruvchi manbalar tahlili muhim ilmiy qimmatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти дарслиги. –Т.: Маънавият, 2004. -Б. 31.
2. Имомназаров М. Академик Азизхон Қаюмов мактаби. – Т.: Mumtoz so'z, 2010. -Б.131.
3. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003. -Б. 68.
4. Жўрабоев О. Фитрату фазлу балоғат бўлғусидур шунчалар. //Тафаккур. 2003, 3-сон.-Б.86.
5. Муқимий ҳаёти ва ижоди. (Монография) – Т.: Адабиёт ва санъат, 1970.-Б.96.
6. Жўрабоев О. Ошиқ Махдум ким? // Соғлом авлод учун, 2010.№8 .-Б.26.
7. “Дивани Муқимий”. Из дивана Муқими, Ферганского поэта. Издал Н.Остроумов. Т.: 1907 г.
8. Ўз ФАШИ, №10119 рақамли тошбосма баёз, -Б.29 -30.
9. Каримов Ғ. Муқимий ҳаёти ва ижодини ўрганиш тарихидан. Ўрта Осиё Давлат университетининг илмий асарлари. Ўзбек адабиёти. Янги серия, 15 китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1957. – Б.12.

10. Каримов Ғ. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т.: Ғафу Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974.-Б.23.

11. Каримов Ғ. Муқимий. (Асарлар тўплами). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1974. – Б.356.

12. Мадаминов А. Янги баёз, Т.: 1997, 16-бет. Бу шеър матни А.Турдиалиев хизмати билан нашр этилган “Боғ аро” номли тўпламда тузатилган (Т.: Akademnashr, 2010. – Б.243).

CHARXIY IJODIDA MUXAMMASNAVISLIK AN'ANALARI

Akbarali SABIRDINOV,
Far DU professori, f.f.d.,
Gulhayo HAYDAROVA,
Qo'qon DPI tadqiqotchisi
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotida mavjud muxammasnavislik an'anasining qo'qonlik shoir Asqarali Hamroali o'g'li Charxiy ijodidagi in'ikosi o'rganilgan. Shu bilan birga, an'anaviylik va o'ziga xoslik qirralari, bir necha mualliflar tomonidan hamkorlikda yaratilgan muxammaslarning badiiy xususiyatlari nazariy tahlil etildi.

Kalit so'zlar: mumtoz an'ana va o'ziga xoslik, muxammasnavislik, tab'i xud(mustaqil) muxammas, taxmis, orifona va oshiqona g'azal, ko'ngil hayrati, mushoira, ustoz-shogird an'analari.

Аннотация

В данной статье рассматривается отражение сложившейся традиции мухаммаснави в узбекской классической литературе в творчестве кокандского поэта Аскарали Хамроали оглы Чархи. При этом теоретически анализировались аспекты традиционности и оригинальности, художественные особенности мухаммасов, созданных совместно несколькими авторами.

Ключевые слова: классическая традиция и самобытность, мухаммаснавислик, таби худ (самостоятельный), тахмыс, орифона и романтическая газель, восхищение, мушайра, традиции учитель-ученик.

Annotation

This article examines the reflection of the existing tradition of muhammasnavis in the Uzbek classical literature in the works of the poet Askarali Hamroali ogli Charkhi who was from Kokand. At the same time, the aspects of tradition and originality, the artistic features of muhammas created jointly by several authors were theoretically analyzed.

Key words: classical tradition and originality, mukhammasnavislik, tabi xud (independent) mukhammas, takhmis, orifona and romantic ghazals, admiration, mushaira, teacher-student traditions.

O'zbek adabiyoti tarixida muxammasnavislik rivojlangan – ijodkorlar o'tmish so'z san'atkorlarining badiiy jihatdan yuksak va o'zlarini to'ldirantirgan ko'plab

gʻazallariga muxammas bogʻlashga uringanlar. Ayni damda, zamondosh qalam ahlari oʻzaro musobaqalashib, muayyan shoirlarning yoki bir-birlarining gʻazallariga muxammaslar yozganlar. Ushbu janr uzoq davrlardan buyon faol qoʻllanilgan va ijodkorning fikri-yu tuygʻularini ifodalashning qulay hisoblanib, gʻazal va ruboiydek mahsuldor janrlar sifatida takomillashgan. Hattoki, adabiy xazinamiz tarkibida faqat muxammaslardan tashkil topgan devonlar ham mavjud. Ayniqsa, Qoʻqon adabiy muhitida muxammasnavislik anʻanasining keng tarqalgani keyingi davr ijod ahli uchun taʼsir manbasi boʻldi.

“Alisher Navoiyga boʻlgan cheksiz hurmat va eʼtibor, uni oʻziga ustod deb bilish, tajribalaridan oʻrganib, navoiyvor misralar bitishga urinish keyingi asrlar ijodkorlari tomonidan ulugʻ shoir gʻazallariga son-sanoqsiz taxmislar yaratilishiga olib keldi. Natijada “Xazoyin ul-maoniy” devonidan oʻrin olgan juda koʻp gʻazallarga necha yuzlab taxmislar yuzaga keldi”[2,76].

Muxammas (arabcha – beshlik) musammat turlaridan biri boʻlib, besh misrali bandlardan tashkil topgan sheʼr shakli hisoblanadi, har bandi besh misradan iborat sheʼr hisoblanadi va a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a koʻrinishida qofiyalanadi. Ushbu janr yaratilish xususiyatiga koʻra ikki xil boʻladi: 1. Tabʼi xud(mustaqil) muxammas; 2. Taxmis.

Maʼlumki, muxammas – taʼsir va ilhom samarasi. Har qanday shoir hamkasbining oʻzida kuchli tassurot qoldirgan, fikrlarini uygʻotgan, tuygʻularini joʻshtirgan gʻazaliga muxammas bogʻlab, undagi fikrni rivojlantiradi va toʻldiradi. Natijada ikki muallifning fikr-u tuygʻulari oʻzaro uygʻunlashib, yaxlit bir butunlikni hosil qiladi. Ayni jihatdan muxammasni hamohang koʻngillar sadosi deyish mumkin.[6,124]

XX asr oʻzbek gʻazaliyotida oʻziga xos oʻringa ega Asqarali Hamroali oʻgʻli Charxiy ijodida ham Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Uvaysiy, Huvaydo, Muqimiy, Maʼdan; zamondosh ijodkorlardan Habibiy, Sobir Abdulla, Anisiy va Uygʻun kabilarning gʻazallariga bogʻlangan muxammaslar talaygina boʻlib, ular mavzu doirasi jihatidan ham badiiyat jihatidan ham rang-barangdir. Bularning ichida Navoiyning gʻazallari asosida yozilgan muxammaslar alohida ahamiyatga ega:

*Zor koʻnglim naylayin bir mahliqogʻa muhtalo,
Koʻzuning husnigʻa-yu, koʻksim yarogʻa muhtalo,
Tong emaskim, nay kabi boʻlsam navogʻa muhtalo,
Vahki, boʻldim ishq aro bir bevafoqʻa muhtalo,
Boʻlmasin ahli vafu bundoq balogʻa muhtalo.* [3,128]

Mazkur muxammas Charxiyning “Devon”iga kiritilgan boʻlib, 128-129-sahifalarda aks etgan. Alisher Navoiyning gʻazali esa “Favoyid ul-kibar” devonida 32-raqam bilan qayd etilgan. Charxiy ushbu muxammasda gʻazalning vaznini (ramali musammani mahzuf (- V - -/- V - -/- V - -/- V -)saqlab qolgan boʻlsa-da, muxammas sakkiz baytdan tashkil topgan. Navoiyning gʻazali esa toʻqqiz baytdan iborat. Gʻazal orifona mavzuda yozilgan, muxammasda ham xuddi shu mavzu davom ettirilgan. Odatda, taxmis bogʻlovchi ijodkor oʻzga shoir gʻazali baytlarining hamma qismiga misralar bilan ishlov beradi. Lekin Charxiy yangicha yondashgan holda, muxammas bogʻlash jarayonida yo ayrim baytlarni tushirib

qoldiradi yoki ayrim misralar tarkibidagi jummalarni soddalashtirishga intiladi. Quyidagi muxammas matnini to‘liq holda ko‘rib chiqamiz:

Taxmis uchun asos bo‘lgan g‘azal	G‘azal baytlarining muxammasda aks etishi holati	Muxammas matni
Vahki, bo‘ldum ishq aro bir befavog‘a mubtalo, Bo‘lmasun ahli vafo mundoq balog‘a mubtalo.	Muxammasda mavjud	Zor ko‘nglim naylayin bir mahliqog‘a mubtalo, Ko‘zuning husnig‘a-yu, ko‘ksim yarog‘a mubtalo, Tong emaskim, nay kabi bo‘lsam navog‘a mubtalo, Vahki, bo‘ldim ishq aro bir befavog‘a mubtalo, Bo‘lmasin ahli vafo bundoq balog‘a mubtalo.
Anglag‘ay majnunlug‘u bedillig‘imni har kishi, Kim, bo‘luptur bir pariyvash dilrabog‘a mubtalo.	Muxammasda mavjud	Bilmagaymu ko‘yida tanholig‘imni har kishi, G‘am chekib ming dard ila oshnolig‘im har kishi, Hajrida paydou nopaydolog‘imni har kishi, Anglag‘ay majnunlig‘u shaydolog‘imni har kishi, Kim bo‘libdur bir parivash dilrabog‘a mubtalo.
	G‘azalning to‘rtinchi baytiga shu o‘rinda murojaat qilingan	Mayli, el afsona ahvolimg‘a kulsa ne ajab, G‘am yuki birlan qadi dolimg‘a kulsa ne ajab, Gohi ibdor, gohi iqbolimg‘a kulsa ne ajab, Podsho birla gado holimga kulsa ne ajab, Bo‘lsa men yanglig‘ gado bir podshog‘a mubtalo.
Bo‘lmayin begona yoru oshnodin chora yo‘q, Xoh bo‘l begonag‘a, xoh oshnog‘a mubtalo.	Muxammasda ushbu baytning o‘rni almashtirilgan. Ya‘ni, asos g‘azalda uchinchi bayt o‘rnida tursa, muxammasning oltinchi bandiga olingan. G‘azal birinchi misrasidagi so‘zlar	Ayb emas, bo‘lma ulus mastona ko‘zumdan malul, Do‘st bo‘lsun xoli ul begona, ko‘nglumdan malul, Shami husnida yonar parvona ko‘nglumdan malul, Bo‘lmish ul kofir g‘ami devona ko‘nglumdan malul, Hech kofir bo‘lmasin men

	tartibi o'zgartirilsa-da umumiy ma'noga putur etmagan.	mubtalog'a mubtalo.
Podsho birla gado holig'a kulsa, ne ajab, Bo'lsa men yanglig' gadoe podshog'a mubtalo.	Muxammasning uchinchi bandida mavjud	Shayx bo'lsang, kel karomatingni bir naqd aylakim, Tarki tasbexu rido birlan o'zining mard aylakim, Toki ishq atvorini bilmak uchun ahd aylakim, Zohido, rasvolig'im tan aylading jaxd aylakim, Bo'lmag'aysan ul ko'zu qoshi qorag'a mubtalo.
Bo'lmish ul kofir g'ami devona ko'nglumdin malul, Hech kofir bo'lmasun men mubtalog'a mubtalo.	Muxammasda ushbu bayt to'rtinchi bandga joylashtirilgan.	Dema ko'nglim, ul qaro ko'zdin menga nazora yo'q, Ori-ori sen kabi sargashta-yu ovora yo'q. Bunda baxti qoralig'dan o'zga senga qora yo'q, Bu balodin oshno begonag'a chun chora yo'q, Xohi bo'l begonag'a, xoh oshnog'a mubtalo.
Soqiyo, may tutki, dardining davosi bodadur, Hajrdin kim bo'lsa dardi bedavog'a mubtalo.	Muxammasda aks etmagan	
Kir xarobot ichrayu bo'l rindlar vobastasi, Xonaqahda bo'lg'ucha ahli riyog'a mubtalo.	Muxammasda mavjud	Nosiho, dayr ichra bo'l mayxo'rlar dil xastasi, Qo'y riyoli toatingni, bo'lma g'am payvastasi, Ishq ila kelgay qo'lingga maqsading guldastasi, Kir xarobot ichra, bo'lg'in rindlar vobastasi, Xonaqo bo'lguncha ahli riyog'a mubtalo.
Ey Navoiy, yona ul badahddin bo'lsam xalos, Ahd qildimkim, yona bo'lmay	Muxammasda mavjud	Ul jafajo' hasratidin dilda dardim beqiyos, Bu edi ahdim, shunchalar yolbordim, etdim iltimos, Charx jabr etdimu menga yoki

yonag‘a mubtalo.[1,27]		baxti beasos, Ey Navoiy, yona ul badahddin bo‘lsam xalos, Ahd qildimki, yona bo‘lmay yonag‘a mubtalo. [3,128]
---------------------------	--	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Ushbu jadvalda Charxiy muxammas yaratishda asos g‘azalga ijodiy yondashgani ko‘rinadi. Ya’ni, ayrim baytlar muxammasning har xil o‘rinlariga joylashtirilgan va begona baytdan oldingi oltinchi baytga muxammasda umuman murojaat qilinmagan. Fikrimizcha, muxammasning to‘rtinchi bandida esa asos g‘azalning birinchi misrasi biroz o‘zgartirilgan bo‘lsa-da, umumiy mazmun va asar vazniga ta’sir qilmagan:

Alisher Navoiy g‘azali quyidagicha:

*Bo‘lmayin begona yoru oshnodin chora yo‘q,
Xoh bo‘l begonag‘a, xoh oshnog‘a mubtalo.*

Charxiy muxammasida esa:

*Bu balodin oshno begonag‘a chun chora yo‘q,
Xohi bo‘l begonag‘a, xoh oshnog‘a mubtalo.*

tarzida ifodalangan.

Charxiy Hazrat Navoiyning mashhur “O‘n sakiz ming olam oshubi agar boshindadir” misralari bilan boshlanuvchi yetti baytdan iborat g‘azaliga ham muxammas bog‘lagan. Charxiy bog‘lagan muxammas to‘rt bandidan iborat bo‘lib, Navoiy g‘azalining dastlabki uch baytidan hamda maqta’sidan foydalangan. Muxammasning ilk bandida g‘azal matlasidagi misralar o‘rnini almashtirgan, ikkinchi baytning birinchi misrasiga biroz o‘zgartirish kiritgan. G‘azal mavzusi oshiqona va bu muxammasda ham davom ettirilgan:

*Baxtu tole to abad bu dilbarim qoshindadir,
Ko‘zu ko‘ngil hayrati ham husnu naqqoshindadir,
Yor vasli istamak ishq ahli bardoshindadir,
Ne ajabkim sarvinozim o‘n sakkiz yoshindadir,
O‘n sakkiz ming olam oshubi aning boshindadir.*

Ushbu muxammas “Bardoshindadir” sarlavhasi bilan shoirning “Devon”idan o‘rin olgan. Keyinchalik nashr etilgan “Beshigingda yotmayman” va mustaqillik yillarida yaratilgan “Qiyolab o‘tdi” to‘plamlariga kiritilmagan. Muxammasning dastlabki bandida shoir yorni vafq etadi. Charxiy qalamiga mansub uch misrada baxt va omad bu dilbarga abadiy yor ekanligini, uning go‘zalligidan ko‘z ham ko‘ngil ham hayratda ekanligi, yor vasliga etmoq uchun ishq ahli bardoshli bo‘lishini tilaydi. Shoir misralar o‘rnini bejizga almashtirib qo‘llamagan. Ne ajabki, go‘zal sarvinoz o‘n sakkiz yoshda va yosh bo‘lishiga qaramay o‘n sakkiz ming olam g‘avg‘olari haqida tasavvurga ega ekanligi shoirni hayratga solmoqda.

Muxammasning yakunlovchi baytida rashkdan ko‘zga to‘lgan qahr yoshi dard-g‘am selobidan go‘yo daryoga aylanishini lirik qahramon kuyib-pishib tushuntirishga urinadi:

*Rashkdan ko‘z kosasiga to‘lsa avval qahr ashk,
Dard-u g‘am selobasidan erdi go‘yo nahr ashk,*

*To 'xtagay Charxiy bu davron ahli hargiz zahr ashk,
To Navoiy to 'kdi ul oy furqatidan bahr ashk,
Har qachon boqsam quyosh aksi aning yoshindadir.*

Ushbu band Alisher Navoiy g'azalining maqta'sini yanada to'ldiradi, boyitadi va ikki ijodkor mehnati samarasi sifatida dunyoga kelgan bu taxmis muhabbat lirikasining bir namunasi sifatida kitobxonni hayratga solishda davom etaveradi.

Charxiyning muxammaslarining o'ziga xos jihatlaridan biri faqat birgina muallifga tegishli bo'lmay hamkorlikda bitilgan muxammaslar ham talaygina. Uning ijodida "Qiyolab o'tdi" to'plamiga kiritilgan, shoira Surmaniso g'azaliga bog'langan "Kechasi" sarlavhali muxammas alohida o'ringa ega. Ushbu muxammas ustoz-shogird an'alariga muvofiq tarzda Charxiy hamda uning eng yaqin shogirdlaridan biri Komil Jo'raning ijodiy hamkorligi mahsulidir. Ikki ijodkor qalamidan to'kilgan misralar Surmaniso g'azaliga singib ketadi go'yo:

*Tun qorong'usidan o'tgay shomi hijron kechasi,
Yor vaslin topmagan oshiqqa armon kechasi,
Partavi husningni tashlab lutfu ehson kechasi,
Bazmdin beparda chiq zinhor jonon kechasi,
Orazingdin burqa och ey, mohitobon kechasi. [4,82]*

Muxammasning ilk misrasidayoq uch ijodkorning fikriy yaqinligi o'quvchiga ayon bo'ladi. Ya'ni, Charxiy va Komil Jo'ra: hijron shomi tun qorong'usidan ham qararoq, aslida, shom payti kunning tugash qismi bo'lib, u darajada zimiston bo'lmaydi. Oshiq nazdida biroz yorug' bo'lgan shom payti ham o'ta qorong'u seziladi. Sabab, yor vaslini topmagan oshiq hijron shomi tunning qorong'usidan ham ham qora ekanligidan yozg'iradi.

Ushbu muxammas andijonlik adabiyotshunos Urfon Otajonning "Mushoara yoxud she'r bahsi" nomli tadqiqotida alohida e'tirof etilgan. Muallifning ta'kidlashicha, muxammasga asos g'azal muallifi Surmanisoning nomi hech qaysi manbada uchratilmagan. Shunday bo'lsa-da, g'azal va unga yozilgan ikki shoirning muxammasi mushoiraning eng yaxshi namunalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. [5,57]

Muxammas bog'lanayotgan g'azalga qo'shilayotgan misralar bayt avvalidan keltirilishi jihatidan unda ifoda etilayotgan fikrlarni tushunishni yanada aniqlashtirishi, uni sharhlab, yanada boyitib, rivojlantirib kelishi taqozo qilinadi. Charxiy va Komil Jo'ra tomonidan yozilgan misralar haqida ham shunday deyish mumkin:

*Qilgusi qarshingda ta'zim u fazo Zuhrosi ham,
Har dam el aqlini olmish qomating zebosi ham,
Egma qoshing xanjari ham, ko'zlaring shahlosi ham,
Ko'nglimi oshiftahol aylar soching savdosi ham,
Sunbulingni qilmagil ey, gul parishon kechasi. [4,82]*

Chindan ham Charxiy va Komil Jo'ralarning misralari go'yo Surmaniso qurgan binoning poydevori sifatida uni yanada yorqinroq ko'rinishini ta'minlab bergan, ya'ni asos g'azalning ma'no doirasini ochgan va kengaytirgan. Muxammasning navbatdagi baytlarida *kechasi* radifi yorning zulfi, qahr va

parishon dillar kabi birliklar bilan tasvirni yanada boyitmoqda. Surmaniso yorning yuziga niqob tutib turgan holatini quyosh yuzini to'sib turgan tun pardasi bilan parallel qo'yib, oshiq qalb iztirobini yanada kuchaytirsa, Charxiy hamda Komil Jo'ra tavsifida oshiq ahli go'yo saboq oluvchi o'quvchilaru yorning qora zulfi ularga dars beruvchi kitob (bizningcha Charxiy va Komil Jo'ra ustozni nazarda tutgan) dir. Ayonki, ustoz tolibi ilmlar o'zlashtirishda sustlikka yo'l qo'ysa, ularga xitob qilishi tabiiydir. Yor zulfi ham oshiqning nazarida xuddi shunday qila oladi. Ko'ngliga zulfning xitobi va inqilobi orqali qahr etmasin deya oshiq dillar parishondir:

*Dars olur ushshoq eli har dam kitobi zulfidan,
Etmasin deb qahr ko'nglimga itobi zulfidan,
Shul sabab dillar parishon inqilobi zulfidan,
Lam'ayi ruxsori zohirdir niqobi zulfidan,
Garchi bo'lmaydir quyosh chiqmoqqa imkon kechasi.*

Xulosa o'rnida aytish joizki, XX asrda Qo'qon adabiy muhitining taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha olgan, mamlakat sho'rolar tuzumi qo'l ostida bo'lib, aruz vazni va unda yaratilgan asarlardan birmuncha uzoqlashilgan ijtimoiy vaziyatda qo'qonlik shoir Asqarali Hamroali o'g'li Charxiy mumtoz an'analarni davom ettirib, keyingi avlodga ushbu an'analarni etkazishda o'ziga xos ko'prik vazifasini bajara olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. Favoyid ul-kibar. –Toshkent: Fan, 1990.
2. Abdug'afurov A. Topilmagan g'azallar // Buyuk beshlik saboqlari (Maqolalar to'plami). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
3. Charxiy. Devon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
4. Charxiy. Qiyolab o'tdi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
5. Otajon Urfon. Mushoara. –Toshkent: Meriyus, 2009.
6. Qobilova Z. Navoiy va Amiriy. Monografiya. – Toshkent, 2019.

MUQIMIYSHUNOSLIKDA YANGI SAHIFA

Gulnoz SATTOROVA,
Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti katta
ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi,
Abdurasul ESHONBOBOYEV,
Alisher Navoiy nomidagi davlat
Adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi
(O'zbekiston)

O'zbek mumtoz adabiyoti uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida jahon adabiy jarayoniining uzviy, tarkibiy qismi sifatida murakkab yo'lni bosib o'tdi. Ijtimoiy hayotda muntazam sodir bo'ladigan tub o'zgarishlar oxir-oqibat adabiyotda ham bo'y ko'rsatdi. Bu borada XIX asrning ikkinchi yarmi o'zbek

adabiyoti tarixi alohida o‘rin tutadi. Ushbu davr bir tomondan chor Rossiyasining istilosi natijasida ko‘hna Turkiston hayotining ostin-ustun qilingani, o‘lka xalqlarning asoratga solingani bilan, boshqa tarafdin esa, avval real voqelikda mavjud bo‘lmagan qator ijtimoiy-siyosiy, moliyaviy, madaniy hodisalarni kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Shoir Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning (1850-1903) adabiy faoliyati ayni davrga to‘g‘ri keladi.

Yaqindan bosmadan chiqqan **“Muqimiy to‘la asarlar to‘plami”** ga (2021) shoirning lirikasi, hajviyoti, sayohatnomalari, she‘riy va nasriy maktublari kiritilgan. Shuningdek, “yangi aniqlangan she‘rlari va maktublari ham mazkur to‘plamdan o‘rin olgan”. Nashrga tayyorlovchi adabiyotshunos Abdulatif Turdialiyev, mas‘ul muharrir filologiya fanlari doktori Zebo Qobilova. Kitob Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan hamkorlikda hamda homiyligida chop qilingan.

So‘zboshi muallifi filologiya fanlari nomzodi A.Turdialiyev shoir hayoti va ijodi, asarlarining o‘tgan asrdagi nashri, amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida mulohaza yuritib yutuq va kamchiliklarini vazmin tahlil qiladi. Shuningdek, joriy nashrning maqsadi yuzasidan quyidagilarni yozadi: **“Muqimiy tavalludining 170 yilligi munosabati** bilan biz shoirning to‘la asarlar to‘plamini nashrga tayyorladik. Ushbu kitobni nashrga tayyorlashda shoir asarlarining 1960-yilda chop etilgan ikki tomlik, 1974-yilda chop etilgan bir tomlik hamda 2010-yilda nashr etilgan “Bog‘ aro” kitobini asos qilib oldik. Shuningdek, bu majmuaga 2020-yilda chop etilgan “Biz bilmagan Muqimiy” to‘plamidagi she‘rlar ham kiritildi. Kitobga kiritilgan she‘rlarning manbalari "izohlar" qismida ko‘rsatib o‘tildi”.

Muallif o‘rinli ta‘kidlaganidek: “ Muqimiy she‘rlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX **asrning boshlarida tuzilgan deyarli barcha bayozlar tarkibiga kiritilgan.** 1912-yildan boshlab uning “Devoni Muqimiy” nomli she‘rlar majmuasi Toshkentda toshbosma usulida ikki marta chop etildi.1910-1917-yillar *davomida chop etilgan yigirmaga yaqin toshbosma bayozlarda Muqimiy ijodidan ko‘plab namunalar berilgan*”. Ma‘lum bo‘ladiki, shoir davr adabiy muhitida muhim o‘rin egallagan, she‘rlari “deyarli barcha bayozlar tarkibiga kiritilgan” va bu Muqimiy adabiy merosiga qiziqish hamda ehtiyoj yuksak daraja bo‘lganidan dalolatdir.

So‘zboshi muallifi o‘tgan davr muqimiyshunoslikning yutuq va kamchiliklari borasida so‘z yuritganda ulkan ishlar amalga oshgani, asarlari joriy alifboga tabdil qilinib qayta-qayta chop bo‘lgani, shoir ijodiy merosi maktab va oliy o‘quv yurti darsliklaridan muntazam joy olganini to‘g‘ri ta‘kidlab, shu bilan birga, hukmron mafkura bosimi ostida bir yoqlama talqinlarga yo‘l qo‘yilganini ham o‘rinli ko‘rsatadi: “ Ayni paytda, shuni ham afsus bilan ta‘kidlash lozimki, sovet davridagi hukmron mafkura tazyiqi ostida Muqimiyning ba‘zi she‘rlari tahrir etilib, tuzumga moslandi, ayrim she‘rlari esa qisqartirildi. Ilmiy tadqiqotlarda Muqimiy boylar va din ahllarining dushmani sifatida talqin etildi. Muqimiy va Muhiyini bir-biriga zid sinf vakillari qilib ko‘rsatildi”. Mustaqillik yillarida esa ijodkor merosini mafkuraviy bosimdan xoli, keng ko‘lamda emin-erkin tadqiq etish boshlangani, salmoqli yutuqlar qo‘lga qiritilgani ta‘kidlangan. Bundan tashqari, shoirning o‘zbek adabiyoti tarixida yangilik-- she‘riy “Sayohatnoma” yozgani asar xalqchil janr murabba’ shaklida bitilgani to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

“Sayohatnoma”ning “Isfara sayohatidan” qismidan yangi topilgan parcha ham kitobdan o‘rin olgan.

Asar qator fazilatlariga ega va bu haqda muqimiyshunoslikda “ko‘p” hamda “xo‘b” yozilgan, ayrim baytlari esa bugun ham xuddi bir hikmatli so‘zdek jaranglaydi: **“Bo‘lma halovatga kasal, Olamda kam benish asal”**.

Shuningdek, shoir ijodida hajviy yo‘nalish ustuvor bo‘lib, Muqimiy davrning o‘tkir muammolarini ayovsiz tanqid ostiga olgani qator misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Darhaqiqat, Muqimiy zamonasining ijtimoiy, ayrim moliyaviy muammolariga befarq bo‘lmagan, uning “Saylov”, “Tanobchilar”, “Hajvi Bektur boy”, “Hajvi Viktor”, “Dar shikoyati Laxtin” kabi hajviyalari fikrimizga dalildir. Qizig‘i, so‘zboshi muallifi o‘rinli ta‘kidlaganidek, bu yo‘nalish keyinchalik Zavqiy, Pisandiy, Qoriy, Rojiy kabi shoirlar ijodida izchil davom etdi.

Asarni o‘qigan bugungi o‘quvchisi ayrim so‘zlarning ma‘nosini anglashda qiynalishi tabiiy, buni hisobga olgan noshir kitob so‘ngida lug‘at ham ilova qilgan. Bundan tashqari, izohlarda turli janrda yozilgan she‘rlar yuzasidan berilgan ilmiy ma‘lumotlar bemalol aytish mumkinki mustaqil tadqiqotdir. Chunki unda keyingi davrda Muqimiy she‘rlari joy olgan manbalar, avvalgi nashrlarda yo‘l qo‘yilgan matniy noqisliklar, matn “tahriri”, baytlarning o‘rin almashinuvi, farqli jihatlar, ba‘zi she‘rlarning yozilish tarixi va eng muhimi, shoirning u yoki bu g‘azal yoxud muxammasini qo‘lyozmadan aniqlagan olimlarning ishlari birma-bir ko‘rsatilgan, e‘tirof etilgan.

Muqimiyning hozgacha 16 ta nasriy maktubi e‘lon qilingan edi. Mazkur nashrga shoirning o‘zbek va fors tillarida yozilgan 19 ta maktubi kiritilgan bo‘lib, mazkur maktublarning 3 tasi Muqimiy asarlar to‘plamidan ilk bor o‘rin olganligi ham tahsinga loyiq.

O‘zbek adabiyoti namunalari orasida muallif dastxatining (avtograf) bizgacha yetib kelishi nihoyatda noyob hodisa hisoblanadi. Quvonarli tomoni shundaki, Muqimiyning bir necha dasxat bayozlari saqlanib qolgan. Shunday ekan, kitobda ulardan namunalar berish hamda zarur izohlar ta‘minlash nashrning ilmiy va estetik qiymatini bir karra oshirgan bo‘lur edi. Bundan tashqari, Qo‘qon shahrida Muqimiy bilan bog‘liq tarixiy joylar, xususan, hayotining so‘ngi kunlari yashagan madrasa saqlanib qolgan va bu kabi obidalarning suratini berish kitobxonga davr ruhiyatini his etishda yaqindan yordam beradi.

Qisqasi, biz shoir asarlarining to‘liq nashri bilan mumtoz adabiyotimiz muhiblarini qutlaymiz hamda bu ezgu ishning barqaror bo‘lishini tilaymiz.

QO‘QON ADABIY MUHITI AN‘ANALARINING CHO‘LPON IJODIDA YANGILANISHI

Shahlo HOJIYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining yetakchi vakillari Jahon otin Uvaysiy va Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat nazmiy an‘analarining Abdulhamid Cho‘lpon she‘riyatida yangilanishi masalasi tahlil etilgan. Cho‘lpon

salafarlari ijodidagi an'anaviy obraz va timsollarga yangi poetik mazmun yuklagani, yangi poetik shakllarni inkishof etgani haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy muhit, ijodiy an'ana, milliy she'riyat, obraz, timsol, poetik mazmun, poetik shakl, an'ananing yangilanishi.

Аннотация

В данной статье анализируется вопрос обновления поэтических традиций ведущих представителей кокандской литературной среды Джахана Отина Увайси и Закиржона Холмухаммад углы Фурката в поэзии Абдулхамид Чулпана. Исследуется добавление Чулпаном нового поэтического содержания традиционным образам и символам в произведениях своих предшественников и выработка новых поэтических форм.

Ключевые слова: литературная среда, творческая традиция, национальная поэзия, образ, фигура, поэтическое содержание, поэтическая форма, обновление традиции.

Annotation

This article analyzes the issue of updating the poetic traditions of the leading representatives of the Kokand literary environment Jahan Otin Uvaisi and Zakirjon Kholmuhammad Furkat in the poetry of Abdulhamid Chulpan. Investigated is Chulpan's addition of new poetic content to traditional images and symbols in the works of his predecessors and the development of new poetic forms.

Key words: literary environment, creative tradition, national poetry, image, figure, poetic content, poetic form, renewal of tradition.

Abdulhamid Cho'lpon yangi o'zbek she'riyatining tamal toshini qo'ygan shoirlardan. Biroq bu yangilanish o'z-o'zidan bo'lmagan. Shoir she'riyatda poetik mazmunni, poetik obrazni, vaznni va lirik ruhni yangilar ekan, uch adabiy-estetik omilga tayangan: 1) xalq og'zaki ijodining boy an'anasi; 2) mumtoz she'riyat; 3) rus va G'arb adabiyoti.

Cho'lpon hazrat Alisher Navoiyning nazmiy an'alarini munosib davom ettirish, yangilash barobarida Qo'qon adabiy muhiti namoyandalari adabiy merosini ham mukammal o'rgandi. Ular asarlaridan ilhomlandi, she'rlaridagi poetik obrazlarni takomilga yetkazdi. Shoirning Jahon otin Uvaysiy she'riyatiga munosabati, bu jihatdan, alohida e'tiborga loyiqdir. Uning "Uvaysiy" sarlavhali maqolasi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ushbu maqolani shoir 1936-yilda "Yorqin turmush" jurnalining 4-5-qo'shma sonida "Cho'lpon" imzosi bilan e'lon qilgan, keyinchalik maqola "Adabiyot nadir" maqolalar to'plamiga kiritilgani ma'lum [5. 285].

Maqolada shoir dastlab Uvaysiyning

Zaboningni keturgil, ey shakarlab, to'ti guftora,

Nechikkim, marhamat bo'lsun necha mendek dilafgora –

matla'li g'azali "Halima" dramasida "Iroq" kuyi ohanglariga solib kuylanganidan so'z ochadi. Bu hol Uvaysiyning musiqani nozik his etganidan dalolat beradi. Shoiraning musiqaga bo'lgan qiziqishi haqida akademik Naim Karimov quyidagi fikrlarni yozadi: "Cho'lponning musiqaga munosabati to'g'risida so'z borganda, buyuk Halima Nosirovaning kaminaga aytgan quyidagi so'zlari yodimga keladi:

“...Men Cho‘lpon domlaning oila a‘zosidek edim. Shul sababli ularnikiga tortinmay kirib boraverardim. Ustozning ko‘p she‘rlarini ashula qilib aytardim... “Galdir” degan qadimiy xalq kuyiga solinib, bir devonaning nomidan aytilgan g‘oyat go‘zal she‘rni ham ashula qilib kuylardim... Bu qo‘shiq albatta, faqat devonaning emas, balki Cho‘lpon domlaning ham yurak tuyg‘ularini teran ifodalardi. Musiqani, ashulani, san‘atni adabiyotdan ham yaxshi ko‘rardi u kishi, degan tushuncha chuqur o‘rnashib qolgan mening ongimda. Bu ulug‘ inson shunchalar san‘atsevar, san‘atparvar edilar” [3.246]

Cho‘lpon, bundan tashqari, shoironing “Evaz” radifli g‘azalida o‘z taxallusi va ismini quyidagicha talqin etgani xususida fikr yuritadi:

Yo‘qotib o‘zni fano martabasiga eta ko‘r,

Vaysiy nomim mening ul nomi Jahonimga evaz.

Cho‘lpon maqolada Uvaysiyning “Karbonoma”si, “Devoni” hamda Muhammadalixonga bag‘ishlangan “Xitoy safari” nomli asarlari ro‘yxatini keltiradi. Anorga bag‘ishlangan mashhur chistoni yozilish tarixi haqida ma‘lumot beradi. Maqola muallifining qayd etishicha: “Jahon otinga bir kun dasturxon ustida anorni ko‘rsatib, shu to‘g‘rida bir narsa demakni iltimos qilg‘anlar. Jahon otin o‘sha minutning o‘zida anor to‘g‘risida to‘rt yo‘llik bir she‘r yozgan. Badehago‘ylik (eksrompt) yo‘li bilan yozilgan bu to‘rt yo‘llik bayt anorni qanday go‘zal va san‘atkorona tasvir qiladi:

Bul na gumbazdir, eshigi, tuynugidin yo‘q nishon,

Necha gulgunpo‘sh qizlar anda aylabdir makon.

Sindirib gumbazni qizlar holidan olsam xabar:

Yuzlariga parda tortig‘liq, turarlar bag‘ri qon.

“Yuzlariga parda tortilgan “qizlarning” bag‘irlari qon” bo‘lganini aytgan, saroy cho‘ri qizlarining ohi-zorini tasvirlab bergan” [5.47]

Maqola Cho‘lponning boshiga balolar yog‘ilayotgan 1936-yilda yozilgani nazarga olinsa, muallif talqinidagi sho‘ro mafkurasiga uyg‘un yondashuv sababi oydinlashadi. Bundan tashqari, “bag‘ri qon”lik ruhiyati shoir kayfiyatiga mos kelishini ham ta‘kidlash zarur.

Mustamlaka zulmini *kishan*, *bulut* poetik ramzlari orqali ifodalagan Cho‘lpon istibdod iskanjasidagi Vatan va millat tasvirini berishda ulug‘ zamondoshi Zokirjon Furqat an‘analarini davom ettirgan, deyish mumkin. Jumladan, Furqat 1879-yili yozilgan “Munojoti musaddas” asarida ona Turkistonning o‘sha kezdagi ayanchli ahvolini quyidagicha ifodalagan edi:

Zulmatni girdbodi tegdi, quyunda qolduk,

To‘foni hayrat, eyki, g‘arqi jununda qolduk,

G‘aflat ila o‘tub umr, kulgu, o‘yunda qolduk,

Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk,

Rahm aylag‘il, Xudoyo, bechora, xastalarga,

Ranjuru zoru mahzun, ko‘ngli shikastalarga [4.261]

Furqat mustamlaka girdobida qolgan yurt ahvoli nechog‘liq og‘ir ekanini tasvirlashda “zulmatni girdbodi”, “to‘foni hayrat”, “g‘arqi junun” singari metaforalarni qo‘llaydi. “Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk” deya erk va ozodlikning barham topganidan taassuf chekadi. Furqat musaddasidagi “zulmatni

girdbodi” obrazi Cho‘lpon she‘rlaridagi “quyuq bulut”, “ko‘lanka” obrazlariga, “sonsiz tugun” ramzi “kishan” ramziga juda yaqin ekanini sezish qiyin emas. Mana, Cho‘lpon qanday yozgan edi:

Ey, tog‘lari ko‘klarga salom bergan zo‘r o‘lka,
Nima uchun boshingda quyuq bulut, ko‘lanka?

Ikki shoir she‘rlarining yozilish sanasi bir qancha yillarga farqlansa-da, ona Vatan boshiga tushgan musibat haqidagi fikrlarida o‘zaro hamohanglik, uyg‘unlik borligi yaqqol seziladi. Furqatning yuqoridagi satrlarini tahlil etgan professor Nurboy Jabborovning fikricha: “Zero, bu istibdod siyosati millat hayotining barcha jabhalarini birday asoratga olgani, milliy istiqbolga, nurli istiqbolga eltadigan barcha yo‘llarning batamom to‘silgani bugun hech kimga sir emas [1. 23].

Ma‘lumki, o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida mumtoz she‘riyatimizdagi poetik obrazlar tabiati yangilana bordi. Mumtoz adabiyotda *gul* va *bulbul* obrazlari ma‘shuqa va oshiqni anglatgan bo‘lsa, Furqatning mana bu satrlarida ushbu an‘anaviy obrazlarga ijtimoiy ma‘no yuklangani kuzatiladi:

Bahor ayyomi o‘tti, na gulu sarvu suman qoldi –
Ki, bulbul birla qumri o‘rniga zog‘u zag‘an qoldi,
Na jomi marg ichmay lolai xunin, kafan qoldi,
Chamanlardin nishon hech qolmadi, illo tikan qoldi,
Zimistoni ajalni bodidin bori xazon bo‘ldi [4. 243]

Bu misralarda *gul* va *bulbul* – erk va ozodlik ramzi. *Bulbul* va *qumri* o‘rnini *zog‘u zag‘an* egallagan, hech bir nishonasi qolmagan *chaman* o‘z joyini *tikanga* bo‘shatib bergan. “Bahor — taraqqiyot ramzi. Shoirning yozishicha, u o‘tib bo‘lgan. Shuning uchun ham bulbul birla qumri o‘rnini *zog‘u zag‘an* egallagan. Bu – milliy davlatchilik o‘rnini Rusiya mustamlakasi zabt etganiga ishora. Ajal zimistoni – istibdod timsoli. U bor mavjudlikni xazonga aylantirgan. Binobarin, istibdod bois milliy an‘analar toptaldi. Millatning boshiga qora kunlar tushdi, uning huquqi, erki poymol etildi” [1.28].

Cho‘lpon she‘riyatida ham *gulzor*, *bulbul* obrazlari Furqat nazmiy asarlaridagi kabi o‘zgacha – ijtimoiy ma‘no tashiydi. Shoirning mashhur g‘azalidan olingan mana bu bayt ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Uning *gulzor*ida *bulbul* o‘qib qon ayladi bag‘rim,
Ko‘zimdan yoshni jo‘ aylab alamlar ichra botdim-ku.

She‘rning 1920 yili shoir Bokuda ekanida yozilgani e‘tiborga olinsa, zohiran ishqiy tuyulgan ushbu g‘azaldagi *gulzor*, *bulbul* obrazlari zamirida millatning zabun holati, uning gullari bo‘lgan ma‘rifatparvar ziyolilarning g‘addor sho‘rolar siyosatiga aldangani bilan bog‘liq tuyg‘ulari ifodalangani ayon bo‘ladi. Cho‘lponshunos Normat Yo‘dloshev fikricha ham: “Gulning oshig‘i – bulbul obrazida Cho‘lpon ozodlik, erkinlik haqidagi konsepsiyasini ilgari suradi” [2.45].

“Suygan choqlarda” she‘ridan olingan mana bu satrlarda shoirning ozodlik orzusi bilan bog‘liq o‘ylari yanada ta‘sirchan talqin etilgan:

Gunafshalar qulog‘imga madhingni
So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi...
Alamzada bulbul yig‘lab kechalar
Alamingning so‘ngin tamom etmadi.

Ushbu misralardagi *alamzada bulbul* xonishidan so‘ngi tamom etib bo‘lmaydigan alam yog‘iladi. Nega? Gunafshalar kimning (yoki nimaning) madhini so‘zlab-so‘zlab charchadilar? Bu satrar zamirida ham shoirning istiqloq haqidagi orzulari kuylangani shubhasiz.

Milliy uyg‘onish she‘riyatining xos xususiyatlaridan biri millat ma‘rifatini yuksak darajada ko‘rish orzusining badiiy talqinida yaqqolroq ko‘rinadi. Furqat “jahon basti kushodi” – jahondagi barcha tugunlarning yechimi ilmda, barcha dillarning murodi ham ilmda, uni egallamoq zarurligi haqda mana bunday yozadi:

Jahon basti kushodi ilm birla,
Nadur dilni murodi ilm birla.

Ko‘ngullarni sururi ilmdandur,
Ko‘rar ko‘zlarni nuri ilmdandur.

“Turkistonli qardoshlarimizga” she‘rida Cho‘lpon ilm-ma‘rifatdan mahrum qolishning fojiali oqibatlaridan so‘z ochib, baloga yo‘liqish deya ta‘riflaydi:

Ilm-ma‘rifat ham hunardin qoldi mahrum bizni xalq,
Ma‘rifatsizlik balosiga yo‘liqq‘on bizni xalq.

Maktab o‘rniga ochildi har mahalda mayxona,
Nafrat etmak nari tursun, shodu xandon bizni xalq.

Boshqa millatlar solurlar har mahalda madrasa,
Onlaring aksiga solg‘on choyxonalar bizni xalq.

Cho‘lponning va barcha ma‘rifatparvar jadidlarning armonu iztiroblari bayon etilgan bu she‘rda. Maktab o‘rniga mayxona, madrasa o‘rniga choyxona solishga ruju qo‘yishning oqibati xorlik ekani haqda yozadi shoir. Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning fikricha: “Cho‘lpon fojeiy ahvol ildizlarini johillikda, o‘z foydasini anglamasligi-yu istiqbol haqida qayg‘urmasligida ko‘radi. Farzandlarini ma‘rifatli qilish o‘rniga koni isrof to‘y-hashamlarga, bema‘ni ayshu ishratga berilgan, maktab o‘rniga choyxona-yu mayxonalar bino qilayotgan xalq turmushini mutaraqiy millatlar turmushiga qiyoslab o‘rtanadi” [6.7]. Ana shu kabi armonlarning poetik talqini she‘riyatni ijtimoiy-siyosiy hayotga yaqinlashtirdi. She‘riyat hatto ijtimoiy hayotning o‘ziga xos oynasiga aylandi. Cho‘lpon Turkistonning o‘sha davrdagi murakkab va ziddiyatli muhitini badiiy obraz va timsollarga ko‘chirdi. Vatan va millat dardini kuyladi. She‘rlarida istibdodni qoraladi, istiqloq haqidagi orzularini badiiy talqin etdi.

Cho‘lpon milliy she‘riyatimizni shakl va mazmun jihatdan yangilashga kirishar ekan, mumtoz adabiyotdan, ayniqsa, Alisher Navoiy, Jahon otin Uvaysiy, Zokirjon Furqat kabi ijodkorlar nazm dorulfununidan ilhom va saboq oldi. Mavjud an‘anaviy obraz va timsollarga yangi poetik mazmun yukladi, yangi poetik shakllarni inkishof etdi. Shoir she‘riyati takomilida mumtoz badiiyat an‘analari asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Ф.ф.док. диссертация. – Т, 2004.

2. Йўлдошев Н. Чўлпон шеърлярида пейзаж. Ф.ф.н. дисс. – Т, 1994.
3. Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2019.
4. Фурқат. Муҳаббат йўлида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
5. Чўлпон. Асарлар. 4 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2016.
6. Қуроноф Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. –Т.: Ўқитувчи, 1997.

AHMAD TABIBIYNING QO‘QON ADABIY MUHITI VAKILLARI G‘AZALLARIGA YOZGAN MUXAMMASLARI

Shermuhammad AMONOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va dabiyoti universiteti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Ahmad Tabibiy ijodida nafaqat Xorazm adabiy muhitining, balki Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining ijodi ham ta‘sir ko‘rsatgan.

Ushbu maqolada Ahmad Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Tabibiy, Qo‘qon adabiy muhiti, tazkira, qo‘lyozma, shoir, devon, “Munisu-l-ushshoq”, “Hayratu-l-ushshoq”, g‘azal, muxammas, manba, matn.

Аннотация

На творчество Ахмада Табиби повлияли не только литературная среда Хорезма, но и литературная среда Коканда.

В данной статье представлены сведения о мухаммасах Ахмада Табиби, которые он создал на газельях Кокандской литературной среды.

Ключевые слова: Ахмад Табиби, Кокандская литературная среда, tazkira, рукопись, поэт, диван, “Мунису-л-ушшак”, “Хайрату-л-ашикин”, газел, мухаммас, источник, текст.

Annatation

The work of Ahmad Tabibi was influenced not only by the literary environment of Khorezm, but also by the literary environment of Kokand.

This article presents information about the mukhammas of Ahmad Tabibi, which he created on the gazelles of the Kokand literary environment.

Key words: Akhmad Tabibi, Kokand literary environment, manuscript, poet, divan, “Munisu-l-ushshak”, “Khayratu-l-oshikin”, gazel, mukhammas, source, text.

XIX asr boshi – XX asr boshlari adabiy muhitlar orasida adabiy hamkorlik yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu davr shoirlari ijodida adabiy ta‘sir masalasi yaqqol sezilib turadi. Bu holni Qo‘qon va Xiva adabiy muhiti vakillari ijodida ham kuzatish mumkin.

Qo‘qon va Xorazm adabiy muhiti (XIX asr boshidan to XX asr boshigacha bo‘lgan davr)ga alohida e‘tibor qaratgan Abdurauf Fitrat quyidagilarni yozadi: “...

Lekin, shuni aytish kerakki, Farg‘onada o‘sg‘an adabiy hayot Xorazmniki kabi fayzli va keng bo‘lmadi. Xorazmda qurilgan muhim asarlarni tarjima qilish, ahamiyatli tarixlar yozish harakati Farg‘ona davrida yo‘q kabi. Shunday bo‘lsa ham Farg‘ona shoirlarining Xorazm shoirlari ustida katta ta’sirlari bo‘lg‘anini inkor etib bo‘lmaydi, Farg‘ona “Majmuat ush-shuaro” sig‘a o‘xshatib, Xorazmda ham bir “Majmuat ush-shuaro” tuzumi buni ko‘rsatadir” [4.59.]. Darhaqiqat, Ahmad Tabibiy Feruz ko‘rsatmasiga binoan tazkira tuzgan. Garchi shoh ko‘rsatmasiga ko‘ra “Majmuayi si shuaroysi payravi Feruzshohiy” tazkirasida tuzilgan bo‘lsa-da, majmuani yozilishiga ilhom baxsh etgan manba, avvalo, “Majolisun-nafois” ekanini, shuning barobarida, boshqa tazkira asralar qatorida Fazliyning “Majmuayi shoiron” tazkirasida ekanini ta’kidlash kerak.

Ma’lumotlarga qaraganda, “Majmuai shoiron” tazkirasida Qo‘qon adabiy muhitida ijod qiluvchi shoirlar bilan birga Xuroson, Buxoro, Samarqand, Xorazm va Qoshg‘ardan kelgan ijodkorlar haqida ham ma’lumot berilgan. Asarning tadqiqidan ko‘rindaki, u faqat Qo‘qon adabiy muhitigina emas, balki Markaziy Osiyo xalqlari madaniy va ma’naviy hayotidan ma’lumot beruvchi xolis manba ekanligi ayon bo‘ladi [6.15.]. Albatta, Fazliy va Tabibiy tazkiralari tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Biroq Ahmad Tabibiy tazkira tuzishda Fazliy tazkirasida va, umuman, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodi bilan yaxshi tanish bo‘lgan. Tabibiy lirik merosi tadqiqi ana shunday xulosaga kelishimizga asos beradi.

Ahmad Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonida 53 ta, “Hayratu-l-ushshoq” devonida esa 114 ta muxammas she’ri bo‘lib, ularning ayrimlari XIX asr birinchi yarimi Qo‘qon adabiy muhitida yashab, ijod etgan shoirlarning g‘azallariga bog‘langan. Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devoni 175^a-sahifasidan shoirning muxammaslari ko‘chirilgan.

Bundan tashqari Fazliy o‘z tazkirasida bir mutassa’ she’r yozgan bo‘lib, u:

*Durdkashlarmiz, erur paymonaga paymonamiz;
Boda nobidin mudom obod erur vayronamiz;
Roygondur ayshimiz, soqiy o‘la mehmonimiz;
Jonimiz jononimiz, jononimizdur jonimiz;
Borchadin ortuq xarobot ichra izzu shonimiz;
Shoh lutfidin yetar sarmoyai somonimiz;
Sham‘dek har anjumanda bu erur burhonimiz;
Shoh bizni shohimiz, Sulton bizin sultonimiz;
Davri bizni davrimiz, davron bizin davronimiz, –
tarzida boshlanadi [5.126.].*

“Munisu-l-ushshoq” devonida Ahmad Tabibiyning bir musabba’ she’ri bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

*Ey ko‘ngul, doim tuzar rasmi adolat xonimiz,
Qilg‘amiz qurbon onga har dam dil ila jonimiz,
Kim oni tutsun g‘ariqi bazl ila ehsonimiz,
Qolmadi bir zarra asrida oning armonimiz,
Fikri ash‘or aylabon sidq ila midhat xonimiz,
Shoh bizning shohimiz, sulton bizing sultonimiz,
Davri bizning davrimiz, davron bizing davronimiz.*

Demak, Ahmad Tabibiyning ushbu musabba' she'ri Fazliy mutassa'si bitilgan ramali musammani mahzuf (maqsur), foilotun, foilotun, foilotun, foilon (foilon) vaznida yozilgan.

Tabibiyning "Munisu-l-ushshoq" devonda Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Sultoniy, Mirzo, Ravnaq, Rojiy, Xayoliy, G'ulomiy, Adliy, Fyuzot, Maoliy, Nadimiy, Balig'o kabi ijodkorlar qatorida Qo'qon adabiy muhiti vakillari bo'lmish Amir (Amiriy) va Xon (Muhammad Alixon) g'azallariga bog'langan uchta muxammas mavjud. Ularning ikkitasi Amir g'azallariga va bittasi Xon g'azaliga bog'langan.

Ahmad Tabibiy "Munisu-l-ushshoq" devonidagi Amir g'azaliga bog'langan birinchi muxammas quyidagi band bilan boshlanadi:

*Man xastadurman ko'yingiz sahnida bir avboshingiz,
Balkim hama avboshlar ichra kamin qalloshingiz,
Ne bo'lg'ay emdi lutfingiz bir kun bo'lub yo'ldoshingiz,
Kulbam sori gar kelsangiz jon naqdidur podoshingiz,
Ko'z ashki birla suv sepib mujgon bo'lur farroshingiz.*

Ishqiy mavzudagi mazkur muxammas jami olti band bo'lib, quyidagicha yakunlanadi:

*Tokim Tabibiy zordek ko'rdi jamoli olingiz,
Ishq ichra Majnundek bo'lub tun-kun parishon holingiz,
Nazzora qilmoq istabon har dam xat ila xolingiz,
Ey sarvqadlar sarvari, istar Amir iqbolingiz,
Boshimg'a savdo soldingiz bo'lsun salomat boshingiz.*

Tabibiy "Munisu-l-ushshoq" devonidagi Amir g'azaliga yozilgan ikkinchi muxammas, 9 band bo'lib, u:

*Kim sanga ayta olurkim huru g'ilmondur evaz,
Ko'yiga deb bo'lmag'ay Firdavsi rizvondur evaz,
Vaslinga topilmoq, ey dilbar, ne imkondur evaz,
Bazm aro har dam labing maxmurig'a qondur evaz,
Kechalar tong otg'uncha xunobi hijrondur evaz, – bandi bilan*

boshlanib:

*To shuoyi orazing qildi jahon mulkin munir,
Ayladi jahd ishqing ichra bo'lg'ali mehnat pazir,
Chun Tabibiydek bo'lub jonu dili g'amg'a asir,
Kokuling savdosida jam'iyat istaydur Amir,
Xotiri oshuftavu tab'i parishondur evaz, – tarzida yakunlangan.*

Tabibiy devonidagi Xon g'azaliga bog'langan muxammas:

*Mani oyru etib ul sarvi xiromonimdin,
Qumrini munfail aylab dili nolonimdin,
Hazar etmay nafase nolavu afg'onimdin,
Ohkim do'kdi falak qonimi mijgonimdin,
Qilmadi bok damodam do'kulon qonimdin, – deb boshlanadi. Ushbu*

muxammas to'qqiz banddan tarkib topgan bo'lib, u:

*Ey Tabibiy, ichibon boda ko'ngil shod edaram,
Ki xayoli bila g'amdin o'zim ozod edaram,*

*Nazm fikrini qayu vaqtki, bunyod edaram,
Xon kibi mohvashim sham 'i ruxin yod edaram,
Yonajakdur falak ohi dili so 'zonimdin, – tarzida tugaydi.*

Amiriy g'azali ifoda usuli ham g'azal tarkibidagi so'zlar ham tushunarli, o'sha davr adabiy tiliga xos, biroq Xon g'azali negadir, o'g'uz lahjasiga xos uslubda bitilgani bilan taajjub uyg'otadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Ahmad Tabibiyning turkiy tilda tartib bergan ikkinchi devoni bo'lmish "Hayratu-l-ushshoq"da ham shoirning ko'plab muxammaslari kiritilgan. Mazkur muxammaslarning aksariyati Fazliy tazkirasida nomlari tilga olingan ijodkorlar g'azallariga bog'langanini ta'kidlash kerak. Jumladan, shoirning mazkur devonida Vazir, G'oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Amiriy kabi Qo'qon adabiy muhiti vakillari g'azallariga yozgan muxammaslari kiritilgan. Tabibiy mazkur devonida Vazirning:

La'ling orzusida ko'zlarim to'kub qonlar,

Bo'ldi shox marjondek hasratda marjonlar, – deb boshlanuvchi 7 baytli g'azaliga, G'oziyning esa:

Ko'ngul ko'rgoch yuzungni mayli gulzororam qilmas,

Ne gulzororam yodi guli Firdavs ham qilmas, - tarzida

boshlanuvchi 7 baytli g'azallariga muxammas bog'lagan.

Mushrif g'azaliga bog'langan Tabibiy muxammasi devonin 170^b-sahifasida ko'chirilgan bo'lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

Ko'rmangiz tong o'lmakim jodu ayyorin ko'rung,

Ne ajab jon toza topsam shahdi guftorin ko'rung,

Holima qilmay tamasxur husni ruxsorin ko'rung,

Ey ko'zum mardumlar, oyina asrorin ko'rung,

Hasrat aylang ixtiyor yor diydorin ko'rung.

Tabibiyning navbatdagi muxammasi 7 banddan iborat bo'lib, u Oshiqning:

Mani Oshiqni bas pinhon g'ami hijroning o'lturdi,

Visol ichra tarahhum aylagilkim oshkor o'ltur, - deb yakunlanadigan

g'azaliga bog'langan. Keyingi muxammas she'r qo'lyozmaning 172^a -sahifasida keladigan Adoning:

Ko'rsun ul nur allida zulfi parishon o'ynamoq,

Ulki hargiz ko'rmamish kufr ila iymon o'ynamoq, – deya

boshlanuvchi g'azaliga, undan keyingisi Hoziqning "etmas" radifli g'azaliga taxmis qilingan.

Devonning 172^a - sahifasida Tabibiyning Fazliyning "hanuz" radifli g'azaliga yozgan muxammasi ko'chirilgan bo'lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

Rahm qilkim firoqingda zoru giryonman hanuz,

Ro'zu shab tinmay ishi faryodu afg'onman hanuz,

Lek bu nukta bila doim xush alxonman hanuz,

Shom sen birla may ichsam subh xandonman hanuz,

Subhu shom furqat o'ldi masti hayronman hanuz.

Devonning 173^b - sahifasida Nolaning "tamosho qil" radifli g'azaliga yozilgan Tabibiy muxammasi ko'chirilgan bo'lib, u olti banddan tarkib topgan.

Afsus g‘azaliga bog‘langan muxammas devonning 174^a - sahifasidagi:

Man nechuk bo‘lmay g‘ami ishqing‘a zoru muhtalo,

Kim bori kimsa saning husningg‘adur angushtxo,

Bu so‘zimni tinglag‘il, ey mahvash shirinliqo,

Ey, boshingdin aylanib xurshid, subh ila maso,

Dargahing tufrog‘idin kasb etgusi nuri ziyo, – deb boshlanuvchi

taxmis bo‘lsa, keyingisi Xijlat g‘azaliga yozilgan 7 baytli muxammasdir. Mazkur muxammas devonning 174^b - sahifasida ko‘chirilgan bo‘lib, u quyidagi band bilan boshlanadi:

Man nechuk bo‘lmay g‘ami ishqing‘a zoru muhtalo,

Kim bori kimsa saning husningg‘adur angushtxo,

Bu so‘zimni tinglag‘il, ey mahvash shirinliqo,

Ey, boshingdin aylanib xurshid, subh ila maso,

Dargahing tufrog‘idin kasb etgusi nuri ziyo.

Tabibiyning mazkur devonida Qo‘qon adabiy muhiti bilan bog‘liq so‘nggi muxammasi Amariy g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, ushbu muxammas devonning 156^b va 157^a - sahifalari hoshiyasida ko‘chirilgan. Tabibiyning mazkur muxammas she‘ri jami 6 banb bo‘lib, u:

Tushub ishq ichra ahvolimg‘a hayrondurman, ey soqiy,

Tunu kun muhtaloyi dardi hijrondurman, ey soqiy,

Bukun mayxona sorig‘a shitobondurman, ey soqiy,

Qo‘limda sog‘ari sarshor giryondurman, ey soqiy,

Xumoru oludai ul la‘li xandondurman, ey soqiy, – tarzida boshlanadi.

E‘tibor berilsa, Ahmad Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga yozilgan muxammaslari tartib bilan ketma-ketlikda ko‘chirilgan. Qolaversa, yuqorida nomlari qayd etilgan Qo‘qon muhiti vakillari Fazliyning tazkirasida ham tilga olinadi. Ularning ijod namunalari Fazliyning tazkirasidan ham o‘rin olgan. Bundan ayon bo‘ladiki, Ahmad Tabibiy ham o‘z tazkirasini tartib berishda Fazliy tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” bilan yaqindan tanish bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak, shoir o‘zining ko‘plab lirik asarlarini yozishda Qo‘qon muhiti vakillari ijodidan ilhomlangan.

Xulosa qilib aytganda, so‘z san‘atkorlarining ijodiy hamkorlikda qalam tebratishi adabiy muhitlarga xos bo‘lgan xususiyatlardandir. Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari g‘azallariga bog‘lagan yuqoridagi muxammaslari ham ana shunday hamkorlik samarasidir. Mazkur maqolada Ahmad Tabibiyning Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijod namunalari bog‘lagan muxammaslari haqida ma‘lumot berish barobarida, shoir devonidagi lirik asarlar matnlaridan namunalar ilk bor joriy alifboda berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондидаги 6226, 3461 инвентар рақамли қўлёзмалар.
2. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондидаги 8989 инвентар рақамли тошбосма.
3. ЎзФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондидаги 3460, 1122 инвентар рақамли қўлёзмалар.

4. Абдурауф Фитрат. XVI асрдан сўнгра ўзбек адабиётига умумий бир қараш. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: Маънавият, 2000.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: “O‘zbekiston”, 2014.
6. Шониёзов М. “Мажмуаи шоирон” асарининг матнини тайёрлаш принциплари ва матний тадқиқи. Фил.ф.ном.дисс. – Тошкент. 2009.
7. Аҳмад Табибийнинг “Ҳайрату-л-ушшоқ” девони қўлёзмаси ЎзФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фондида 3460 рақами билан сақланади.

MUHYI VA QO‘QON ADABIY MUHITI

**Ahadjon MUHAMMADIYEV,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
QarDUPI Tillar fakulteti dekani
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitining tarixiy va adabiy faoliyati haqida so‘z boradi. Mazkur adabiy muhit faoliyati mustahkam axloqiy, falsafiy, estetik qarashlari shakllangan, o‘z e‘tiqodida sobit, ijodda o‘z yo‘liga ega, Xo‘qandi latifda etarlicha shuhrat qozona olgan shoir Muhyi ijodi misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, xonliklar, milliy uyg‘onish, jadidchilik, adabiy maktablar, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Tarixi Muhyi Xo‘qandiy, Majmu‘oti ash‘ori Muhyi, bayoz.

Аннотация

В статье рассматривается историко-литературная деятельность кокандской литературной среды во второй половине XIX - начале XX века. Деятельность этой литературной среды исследуется на примере творчества поэта Мухьи, сформировавшего прочные нравственные, философские и эстетические взгляды, непоколебимого в своей вере, имевшего свой путь в творчестве, снискавшего достаточную известность в хокандийском латифе.

Ключевые слова. Кокандская литературная среда, ханства, национальное пробуждение, джадидизм, литературные школы, Мукимий, Фуркат, Завкий, Мухы, Хива, Бухара, Самарканд, Ташкент, Девон, Исторический Мухьи Хоканди, Маджмуоти аш'ори Мухы, баёз.

Annotation

The article deals with the historical and literary activity of the Kokand literary environment in the second half of the XIX century - the beginning of the XX century. The activity of this literary environment is studied on the example of the work of the poet Muhyi, who formed strong moral, philosophical and aesthetic views, was steadfast in his faith, had his own way in creativity, and gained enough fame in Khokandi latif.

Keywords. Kokand literary environment, khanates, national awakening, jadidism, literary schools, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Khiva, Bukhara,

Samarkand, Tashkent, devon, Historical Muhyi Khokandi, Majmuoti ash'ori Muhyi, bayoz.

Ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasini tiklash, o'tmish adabiyotining noayon, e'tibordan chetda qolgan jarayonlarida ishtirok etgan adiblar, shoirlar ijodini o'rganish, milliy so'z san'ati tarixidagi kemtiklarni to'ldirish va uni yaxlit holga keltirish – istiqlol davri adabiyotshunoslari, xususan, mumtoz adabiyot tadqiqotchilari oldida turgan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Milliy uyg'onish davri Vatanimizda jadidchilik harakati shaklida namoyon bo'ldi. U 1865-yildan boshlanib 1929-yilda harakat namoyandalarini jismoniy tugatishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib, uning shakllanish davri 1865-1905-yillar bilan belgilanadi. Adabiy harakat an'anaga ko'ra ko'proq Qo'qon, Xiva, Buxoro, Samarqandda rivoj topdi. Toshkent ham general-gubernatorlikning poytaxti sifatida tez rivojlandi, adabiy-madaniy markazga aylanib bordi.

Bu davrga kelib sobiq Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududidagi saroylar atrofida uyushgan yirik adabiy markazlar faoliyati to'xtagan bo'lsada, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Andijon, Toshkent, Samarqand, Kattaqo'rg'on kabi qadimiy madaniyatga ega bo'lgan shaharlarda turli tarkibda bir-biri bilan aloqa qilib turuvchi ijodkorlar davralari bor edi. Qo'qonda – Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Nisbatiy; Toshkentda – Kamiy, Xolis, Hislat; Samarqandda – Sayid Ahmad Vasliy, Spandiy, Pisandiy, Ajziy, Tug'ral Ahroriy, Mir Sarvar Urgutiy; Kattaqo'rg'onda – Miriy, Noqis, Ahqar, Nojiy, Xitoiy kabi shoirlar ma'rifiy g'oyalar tarkibiga bag'ishlangan asarlar yaratdilar, real turmush haqiqatlarini hayotiy obrazlar vositasida aks ettirdilar.

XIX asr o'zining murakkabligi, chigal voqea-hodisalari, ayancli yillari va shuning bilan birga taraqqiyparvar g'oyalarning kuchli ta'sirida o'tgan bir davr sifatida o'zbek adabiyoti tarixida muhrlanib qoldi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga bosqini, hududimizda mavjud boshqaruv tuzilmalarining o'zaro kelishmovchiligi, siyosiy-ijtimoiy hodisalarni tahlil eta olmasligi fojiaiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Natijada, xalqimiz istibdod iskanjasiga tushdi. Ana shunday alamli mag'lubiyatlar, mutlaqo yangi ko'rinishdagi voqelik va siyosiy-ijtimoiy munosabatlar jarayoni deyarli harakatsiz yotgan ma'naviy-madaniy qarashlarni uyg'otib yubordi. Chunonchi, o'zbek adabiyotining tadrijiy bosqichi sanalgan Qo'qon adabiy muhiti ushbu murakkab davrning ko'zgusi sifatida maydonga chiqdi. Shaxsni va u yashayotgan jamiyatni barqaror etadigan komil inson g'oyasini tadqiq etdi, uni rivojlantirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Qo'qon adabiy muhitida Muqimiy, Furqat, Zavqiylar qatorida xalqimiz tomonidan ardoqlab kelingan ko'plab shoirlarga “diniy-mistik adabiyot namoyandalari”, shuningdek, “saroy shoirlari” degan aqidaviy tamg'alar urildi, shu tariqa ular sun'iy ravishda reaktion shoirlar ro'yxatiga kiritildi. Holbuki, bu ijodkorlar o'z zamonasi vakili edi, ular ijodida ham progressiv jihatlar, ajoyib badiiyat jilolari mavjud edi. Ammo bunga bir yoqlama qaraldi. Davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligida turli-tuman fikrlar,

mulohazalar, mushohadalar asosida yuzaga kelgan ilg'or qarashlarni tadrijiy ravishda o'zlashtirishning yo'li to'sildi.

Mazkur adabiy maktabning yorqin namoyandalari Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Qoriy, Zoriy, Muhayyir, Rojii, Muhsiniy, Tamkin, Nisbatiy, Yoriy, Mavlaviy Yo'ldosh, Nusrat, Nayyiriy, Shaydoiy, Umidiy-Havoiiy, Roiq, Sipandiy, G'aribiy kabi o'nlab shoirlar o'z ijodlari bilan ziyolining jamiyatdagi o'rni va vazifasini bir qadar aniqlab berishga muvaffaq bo'ldilar. Xususan, davr mushkulotlari ildizini tashqaridan emas, ichkaridan axtarishga da'vat etdilar. Shaxsning ma'rifati naqadar yuksak bo'lsa, u shu qadar mustahkam yengillik mohiyat kasb etishini isbotlashga urindilar.

Muhyiddin Muhammad Rizo Oxund o'g'li Muhyi ham Qo'qon adabiy muhitining aynan tang'a urilgan, mutaraqqiy ijodkorlar ro'yxatidan o'chirilgan shoirlardan biri edi. Holbuki, Muhyi mustahkam axloqiy, falsafiy, estetik qarashlari shakllangan, o'z e'tiqodida sobit, ijodda o'z yo'liga ega, Xo'qandi latifda yetarlicha shuhrat qozona olgan qalamkash edi.

Shuning uchun bugungi kunda uning rang-barang badiiy merosini o'rganish hayotiy zarurat yanglig' ahamiyatli.

Bu shoir hayoti va ijodini o'rganish XIX asr zulmatida porlashdan to'xtamagan o'zbek ziyolisining ichki qudratini anglash, his etish, davr va shaxs ziddiyatlarida olijanoblik martabasini yo'qotmaslik, ruhan sinmaslik siru asrorlarini oydinlashtiradi. Eng muhimi, ana shu murakkab va muhim voqelikning iztiroblari qalb ostonasidan o'tib, badiiy obidalarga aylangani Muhyining ijod yo'lini yaqqol aks ettirishga, Qo'qon adabiy muhitini esa yaxlit holga keltirishga xizmat qiladi.

Muhyining hayoti va ijodi bilan qiziqish dastlab shoirning zamondoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Shoir she'rlarining XX asr boshlarida chop etilgan o'ndan ortiq bayozlarga [1,2,3,4,5] kiritilgani hamda 1911 yili uning o'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlari devon holida nashrdan chiqarilib, muxlislar e'tiboriga havola etilgani ham fikrimizning isbotidir. Biroq sobiq sho'ro tuzumi mafkurasi Muhyi va u kabi qalam sohiblari ijodini o'rganishga yo'l qo'ymadi. Natijada, o'zbek adabiyoti tarixi haqida yozilgan asarlarda Muhyi ijodi tadqiqot mavzulari qatoridan o'chirildi.

Muhyi ijodiga e'tibor, asosan, mustaqillik yillarida boshlandi [19]. Bu davrda Muhyi hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan A.Hayitmetov, I.Abdullayev, Sh.Yusupov, A.Madaminov, S.Sotvoldiyev, R.Tojiboyev, N.Zohidov, A.Turdialiyevlarning qator maqolalari e'lon qilindi. Ularda shoirning tarjimai holi muxtasar bayon etildi, uning shaxs va shoir sifatida shakllanishi bosqichlarini belgilab berishga harakat qilindi. Jumladan, Sh.Yusupov Muhyi hayoti va ijodiga bag'ishlangan maqolasiga Po'latxon Qayumov tazkirasidagi Muhyiga oid ba'zi xotiralarni kiritadi. "Faqirlikda Muhyi Muqimiyga nisbatan juda faqir edi. Hovli-joyi, ro'zg'or, xotun-bola va qarindoshi butunlay bo'lmagandur. Mol, pul to'g'risida so'zlashga hojat ham yo'q" [23. 114-b.].

Shu o'rinda, Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyning "Faqirlik faxrimdir" degan mashhur shiori baayni siyratda oddiylik, tiynatda badavlatlik mazmunini ham bildirishidan kelib chiqsak, shaxs va shoir sifatida Muhyi tom ma'noda shu

aqidaga amal qilgani anglashiladi. Taassufki, Muhyi ijodiga bag'ishlangan mana shunday teran kuzatuvlarga asoslangan tahlillar etarli darajada emas. Qolaversa, Muhyi nomi tilga olingan tadqiqotlarning aksariyati noma'lum shoirni tanishtirish nuqtai nazari asosida yozilgan.

Vaholanki, Muhyi – chinakamiga san'atkor shoir, haqiqiy ma'noda fozil zot edi. Uning iste'dodi zamondoshlari, iste'dodli shoirlar Furqat va Muqimiylarni hayratga solgan. Asarlari xalq tomonidan ham birdek sevib o'qilgan, o'z davrida haqli ravishda tahsinlarga sazovor bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Kattaqo'rg'on adabiy maktabi namoyandalari singari, Qo'qon adabiy muhiti vakillari ham o'zbek adabiyotining barhayot an'alarini muvaffaqiyatli davom ettirishdi. Shubhasiz, bu jarayonlar Muhyi ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Muhyi sohibdevon, zullisonayn ijodkor edi. U fors-tojik va o'zbek tillarida betakror asarlar ijod qildi. Buning natijasi o'laroq turkiy va forsiy devonlarini tuzdi. Muhyi mumtoz she'riyatning qariyb o'nga yaqin janrida qalam tebratdi. G'azalnavislik uning ijodida asosiy o'rin tutdi. G'azaliyoti, mazmun va shakliga ko'ra, Navoiy, Fuzuliy she'rlariga yaqin turadi. Muhyining deyarli barcha janrlardagi asarlarida ham an'analar ta'siri aks etdi. Biroq shoir o'z salafлари ta'sirida, an'ana qobig'ida qolib ketmadi, ulkan iste'dod sohibi sifatida tashbeh-u timsollarga boy badiiy barkamol asarlar yarata oldi. U asarlarida o'z davridagi mavjud ijtimoiy muammolarni ham aks ettirdi. Ushbu muammolarning bosh sababini ilmsizlik va johillikda deb bilgan shoir unga qarshi o'zining purma'no she'rlari bilan kurashdi.

Manbalarda keltirilishicha, Muhyi G'azna shahridagi madrasada mudarris bo'lgan otasi qo'lida xat-savod chiqaradi. So'ng Hirotdagi ta'lim darajasidan ko'ngli to'lmagan Muhyi, ko'p o'tmay Buxoro madrasalaridan biriga kelib o'qiy boshlaydi. Bu yerda u arab tilini mukammal o'rganadi. 1850-yillarning o'rtalarida Buxoro madrasasini tugatib, dastlab Farg'onaga, so'ngra Andijonga keladi. 1850-yillar oxiriga borib Qo'qon madaniy muhitiga kelib qo'shiladi, tez orada shoir va alloma sifatida shuhrat qozonadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni Qo'qondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olishadi. Muhyi bu yerda ham obro'-e'tibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalb qilinadi. U 1859-1861-yillar orasida xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afg'oniston va Hindistonga boradi. Yo'l-yo'lakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni ko'rishga muvaffaq bo'ladi. E'tiborli jihati, u safar chog'ida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat quradi. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuyg'ulari, kuzatuvlari aks etgan she'rlar ham bitadi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri ta'rifi xususidagi "Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur" sarlavhali she'ridir³⁵.

Mallaxondan keyin taxtni egallagan Xudoyorxon hukmronligining uchinchi davrida ham Muhyi saroyning e'tiborli kishilaridan biri edi. Xonning valiahd farzandi Nasriddinbek Andijon viloyatiga hokim etib tayinlangach, Xudoyorxon

³⁵ Маъноси: Лоҳур шаҳрининг сифатида бадихатан айтилди. Лоҳур шаҳрида

o'g'liga nazm va nasrdan ta'lim berishni Muhyiga topshiradi. Yillar o'tib, Nasriddinbek Muhyi saboqlari natijasida nozikta'b shoir va nosir bo'lib etishadi.

XIX asrning 70-yillardan boshlab Qo'qon xonligida o'zaro nizolar, qo'zg'olonlar avjiga chiqadi. Shunday bir tahlikali vaziyatda, 1874-yil o'rtalarida Muhyi hajga jo'naydi va 1875-yil yanvar oyida haj marosimini ado etib, qaytishida bir necha Sharq mamlakatlarini ko'rib, yil oxirida yana Qo'qonga qaytib keladi. Bu paytda, ya'ni 1875-yilning yozida Xudoyorxon Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning hiylasi bilan Orenburgda uy qamog'ida ushlab turilgan edi. Xondan so'ng taxtni egallagan valiahd shahzoda Nasriddinxonni soxta Po'latxon yenggan va u Mahram qal'asida jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Shogirdi tang ahvolda ekanini eshitgan Muhyi darhol Nasriddinxon huzuriga boradi va uni saroydagi obro'li kishilar bilan aloqa o'rnatishga hamda 1876-yil yanvar oyida Qo'qonga taklif etib, taxtni qayta egallashiga ko'maklashadi.

Kaufman boshliq chor qo'shinlari asta-sekin Qo'qonni ham, xonlikning boshqa hududlarini ham zabt etadilar. Rossiya imperatori Aleksandr II ning farmoniga ko'ra 1876-yil 19-fevralda Qo'qon xonligi tugatilib, uning hududida Turkiston general gubernatorligi tarkibida yangi Farg'ona viloyati tuziladi.

Xonlik tugatilganidan so'ng yana 35 yil Muhyi Qo'qonda yashadi. Shu yillar davomida Muhyining istiqomatgohi Qo'qondagi Sohib Hazrat madrasasining hujralaridan biri bo'lib qoldi. Shuning bilan birga, Muhyi Andijon shahrini o'zining ikkinchi vatani sifatida ardoqlar, benihoya yaxshi ko'rar edi. Balki shu bois ham umri Andijonda poyoniga etgani bejiz emasdir. 1911-yil bahorida Andijonga, do'stlari va qadrdonlari suhbatini qo'msab borgan Muhyining betoblighi kuchayib, 4 may kuni (Kamiyning ma'lumotiga qaraganda [11. 52-b.] robi'ul-axir oyining seshanba kuni) olamdan o'tdi. Uning vafoti o'z davrining ijod ahli qalbini larzaga soldi. Kamiy, Shavkat Iskandariy, Abdullajon Nasimiy, Mavlaviy Yo'ldosh kabi shoirlar uning vafotiga bag'ishlab marsiya-tarixlar bitdilar.

Shoir Muhyidan bizgacha bir turkiy va bir forsiy [14, 15] devon, "Tarix"(Tarixi Muhyi Xo'qandiy) [16] nomli bir nasriy asar, "Majmu'oti ash'ori Muhyi" [17], "G'azaliyoti Muhyi" [18] nomli she'riy to'plamlar va shoir tomonidan tuzilgan bayozlar [6, 7] yetib kelgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Muhyi qalamiga mansub ko'pgina she'rlar XIX asrning oxiri XX asr boshlarida turli shoirlar tomonidan tuzilgan bayozlarda [1. 2, 3, 4, 5, 8, 9, 10] ham uchraydi.

Muhyi faol ishtirok etgan Qo'qon adabiy muhitida u yoki bu ma'noda she'riy majlislar haqida so'z borganda, aksariyat hollarda dastlab Muhyi nomi tilga olinadi. Akademik Ko'r o'g'li "Узбекская литература" asarida Muhyi, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nisbatiylarning tez-tez majlislar o'tkazib turishganini, unda qizg'in bahsu munozaralar avj olganini ta'kidlab o'tadi [13. 115str.].

Haqiqatan, Muhyi tevaragida zamonasining peshqadam shoirlari to'plangan edilar. Muhyi bular orasida eng nuqtadoni, she'riy ilmlar allomasi bo'lganini e'tiborga olsak, u bu davralarda ma'lum ma'noda xolis hakamlik vazifasini ham o'tagani ayonlashadi.

Qo'qon adabiy maktabining betakror va hassos shoiri Furqat 24 yoshida Xo'qandning fozil kishilari davrasiga qo'shilganini xotirlab, shunday yozadi: «...Chun yoshim umr shabu ro'zida yigirma to'rt shumoriga etdi, ul vaqt Xo'qand

viloyatidagi fozil va rasotab' kishilar birlan ittihad aylab, alarning suhbatidin ko'p bahralar topdim va asr shuarolarikim, chunonchi Mavloni Muhyi va Mavloni Muqimiy va Mavloni Nisbatiydurlar, hamisha majlis bunyod aylab zodai tab'larimizdin mushoira qilur erdik va bir g'azalda tatabbu' kurguzub bir mazmun har nav' ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, gohi na't naxlistonidin samarchin bo'lur erduk. Va ba'zi vaqt ishq tavsifi va husn ta'rifida g'azal mashq aylab va gohi qadimiy shu'arolar devonlaridin bir sho'x g'azalni tofif, anga har qaysimiz alohida muxammas bog'lar erduk» [24. 36-bet].

Ta'kidlash lozimki, Furqat Muhyi ijodiga doimo alohida ehtirom va e'tiborli munosabat ko'rsatib kelgan. Ko'p o'rinlarda unga ijodiy ergashgan ham. Tadqiqot jarayonida Muhyi va Furqat ijodida ruhan yaqinlik borligiga amin bo'ldik. Qolaversa, Muhyi va Furqatning bir-birlariga qilgan tatabbu'lari ijodkor do'stlarning nafis majlislarida yaratilgan bo'lishi ham mumkin.

Muhyi qadrdonlarining davrasi faqatgina Muqimiy, Furqat, Nisbatiylar bilan chegaralanib qolgani yo'q. U Haziniy, Tajalliy, Kamiy, Muhayyir, Xilvatiylar bilan ham mustahkam ijodiy va do'stona rishtalar bilan bog'langan. Qolaversa, ijod ahlining ko'pi Muhyi bilan yaqin bo'lishga intilganlar va bu haqda alohida ta'kidlar yozib qoldirganlar. Ana shunday ta'kidlardan biri Kamiyda uchraydi:

*“O'zgalardan Kamiy muxlisina,
Erdi bisyor mehribon, Muhyi”* [1.].

Boshqa bir ta'kid Muhayyirga taalluqli:

*“Ishq sirridin har dam Zavqiy birla deb Ramziy,
Bas erur Muhayyirga Muhyi oshno bo'lsa”* [12. 46-bet].

Qo'qon adabiy muhitida Xilvatiy shaxsiyati Muhyi hayoti va ijodiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etganini unutmaslik lozim. Xilvatiy va Muhyining o'zaro munosabatlari nafaqat iliqlik va takallufdan iborat, balki ijodiy jo'shqinligi, qiziqarli tafsilotlarga boyligi bilan ham jiddiy e'tiborga molik. Buni biz Muhyining Namanganga borishi bilan bog'liq voqealarda ham ko'rishimiz mumkin.

Muhyining yoshlik yillari Xudoyorxon va uning avlodlari tufayli o'ziga xos saodatli va farahli yillarga aylangan edi desak, xato qilmaymiz. Muhyi hayotining so'nggi kunlariga qadar Xudoyorxon avlodlari yaxshiliklarini qalbida saqladi, ularga nisbatan o'z hurmati, iltifoti, mehru muhabbatini ulug' tutdi. Xudoyorxon, Nasriddinxon va O'rmonbeklarning vafotidan so'ng shoir Xudoyorxonning eng kenja farzandi Fansurullohbekka qattiq bog'lanib qoldi. Muhyini Fansurullohbekka yaqinlashtirgan yana bir jihat uning Xisrav taxallusi bilan yozgan she'rlarini Muhyi e'tiboridan o'tkazishga bo'lgan kuchli ishtiyoqi edi.

Umuman olganda, Muhyining hayoti va ijodiy faoliyatini ikki qismga bo'lib o'rganish va har bir qismda o'ziga xos tarixiy, siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqib xulosa chiqarish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shoir hayoti va ijodiy faoliyatining birinchi qismi shoirning Hirot va Buxoro madrasalarida tahsil olishi, Qo'qonga kelishi, olgan ilmlari, she'riy iste'dodini bu yerdagi boy adabiy muhit ta'sirida kamolga yetkazishi, saroy xizmatiga kirishi, turli mamlakatlarga safarga borishi – chorizm istilosiga qadar bo'lgan davrni qamrab olsa, ikkinchi qism

istibdod iskanjasida, 35 yil Qo‘qondagi Sohib Hazrat madrasasining hujralarida yashab, faol ijodiy faoliyat yuritgan davrni o‘z ichiga oladi.

Bu davrlarni esa quyidagicha izohlar bilan belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Muhyi murakkab va chigal ijtimoiy-siyosiy muhitda yashadi. Arbob sifatida ushbu muhitning barcha voqea va hodisalarida faol ishtirok etdi.

2. Muhyi shoir sifatida Qo‘qon adabiy muhitiga kelib qo‘shilganidan so‘ng tanildi. Yyetuk ilmiy salohiyati, shoirlik iste‘dodi bilan Qo‘qon ziyolilari orasida obro‘ qozondi.

3. Davrning mohiyati uning qalb ko‘zgisida aks etdi. Xalq boshiga tushgan ko‘rguliklar – zulm, sitam, a‘yonlarning nobakorligi, yurtning inqirozga yuz tutishi, mustamlakaga aylantirilishi, o‘kinch, nadomat, qayg‘uga to‘la asarlarning yozilishiga turtki berdi.

4. Muhyi jamiyatni va xalqni kamolotga eltuvchi yagona yo‘l – ma‘rifat ekanini anglab etdi. Qo‘qon adabiy muhitining ma‘rifatparvar shoiri va ziyolisi sifatida hayoti va faoliyati davomida ushbu g‘oyani el ichiga yoyishga, ommalashtirishga xizmat qildi.

5. Muhyi Qo‘qon adabiy muhitining nafis majlislarini uyushtirishda, tashkillashtirishda bosh-qosh bo‘ldi. Natijada Muhyi, Furqat, Zavqiy, Muqimiy kabi boshqa shoirlarni o‘z tevaragiga birlashtirgan ijodkorlarning ushbu guruhi ma‘lum bir bosqichda milliy adabiyot taraqqiyoti mezonlarini belgilab berdi.

6. Muhyi Qo‘qon adabiy muhitida ikki tilda (fors-tojik, o‘zbek) devon yarata olgan yagona ijodkor bo‘lib qoldi. Uning bu devonlari Qo‘qon adabiy muhitining yuksak yutuqlari sirasidan o‘rin oldi.

7. U o‘z shaxsiyati bilan xalq orasida e‘tibor topdi. Xususan, go‘zal axloqiy sifatlari (kamtarligi, olijanoblighi, odobi, andishasi) zamondoshlarini u bilan do‘stlashishga, undan ibrat olishga undadi.

8. Muhyi o‘z zamonasining iste‘dodli shoiri edi. Shu bois uning ijodi shaxs va zamon munosabatlarining san‘atkorona ifodasiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Баёзи янги. Тузувчи Абдукарим Камий. Типо.-лит. – Тошкент: Г.Я.Яковлев, ҳижрий – 1329 йил (ЎзФАШИнинг тошбосма асарлар фондида 2080 рақами билан сақланаётган нусха).

2. Баёзи Муҳалло. Типо.-лит. – Тошкент: Г.Я.Яковлев, ҳижрий – 1330 йил (ЎзФАШИда 321 рақами билан сақланаётган нусха).

3. Баёзи Муҳалло. Типо.-лит. – Тошкент: Ғ.Орифжонов матбааси, ҳижрий 1235 (м. 1916). Муқоваси жигарранг, гулдор – 144 с., 13x23. (ЎзФА қўлёзмалар институтида 1977 рақами билан сақланаётган нусха).

4. Баёзи Ҳазиний. Типо.-лит. – Тошкент: Г.Я.Яковлев, ҳижрий 1331 йил (ЎзФАШИ хазинасида 317 рақами билан сақланаётган нусха).

5. Баёзи Ҳазиний. Типо.-лит. – Тошкент: Ғ.Орифжонов матбааси, ҳижрий 1328 (м. 1610), (ЎзФА қўлёзмалар институтида 1977 рақами билан сақланаётган нусха).

6. Баёзи Муҳйи. Қўлёзма. Ғафур Ғулом номидаги Фарғона вилоят адабиёт музейи жамғармасида №101 инвентар рақами билан сақланаётган нусха.

7. Баёзи Мухйи. ЎзФАШИ кўлёзма асарлар бўлимида №9874 инвентар рақами билан сақланаётган нусха (ушбу асар 1286 ҳижрий йилда Мухйи томонидан ним шкаста хатида кўчирилган. Ўлчами: 10,5x17 см).
8. Баёзи Ҳазиний. Тошбосма. – Тошкент: Ғ.Орифжонов матбааси, 1328/х., 1910/м. Ношир – Мирзо Аҳмад бин Мирзо Карим, котиб – Сирожиддин Махдум Мулла Мирза Охунд. ЎзФА кўлёмалар институти фондида №1977-ў, №406-у, №3924-ў рақамлари билан сақланаётган нусхалар.
9. Баёз. ЎзФА кўлёмалар институти фондида №2407-у ва №3929-у инвентар рақамлари билан сақланаётган нусха (изоҳ: асарнинг ношири, нашр этилган йили, котиби ва матбааси номаълум).
- 10.Баёзи Гулшани асрор. ЎзФА кўлёмалар институти фондида №170-ў инвентар рақами билан сақланаётган нусха.
- 11.Гулшани адаб. Намунаҳои назм. Иборат аз панҷ чилд. (Тарт: Афсаҳзод А., Сулаймонова Л., Дадалишоев Ҷ. ва дигарон... Мухаррир Киром Қ.). – Душанбе: Ирфон, 1980. – 464 с., 52-бет.
- 12.Зоҳидов Н. Муҳиддин Муҳаммад Ризо охунд ўғли Мухйи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. № 3. – Б. 46-48.
- 13.Кор-Оғлы Х.Г. Узбекская литература. – Москва: Высшая школа, 1968. – 292 ст. 115-стр.
- 14.Мухйиддин Мухйи. Девони Мухйи. Кўлёзма. ЎзФАШИ кўлёмалар бўлимида №1303 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. 161 варақдан иборат. Бу асар ўзбек тилида ёзилган бўлиб, 1320/1902 йилда настаълиқ хатида кўчирилган. Ўлчами: 13x20,5 см.
- 15.Мухйиддин Мухйи. Девони Мухйи. – Тошкент: Ҳожи Абдуррауф нашри, 1911/м. (ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади.
- 16.Мухйиддин Мухйи. Тарих. Тожикча насрий асар. ЎзФАШИ кўлёзма асарлар бўлимида №604 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. Асар 1318/1900 йилда ёзилган ва муаллиф томонидан шу йилнинг ўзида мусаввада қилинган. Ўлчами 17x21,5 см (Асар муаллифнинг мусаввадаси (қоралама нусхаси).
- 17.Мухйиддин Мухйи. Мажмуоти ашъори Мухйи. Кўлёзма. ЎзФАШИ кўлёзма асарлар бўлимида №11126 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. 69 варақдан иборат. Ўзбек ва форс-тожик тилларидаги ушбу асар 1305 йилда Қўқонда Мухйи томонидан настаълиқ хатида кўчирилган. Ўлчами: 11x17 см.
- 18.Мухйиддин Мухйи. Ғазалиёти Мухйи. Кўлёзма. ЎзФАШИ кўлёзма асарлар бўлимида №11683 инвентар рақами билан сақланаётган нусха. Асарда шоирнинг форс-тожикча ғазаллари киритилган.
19. Пўлатжон Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. III жилдлик, 3-жилд, Тошкент, 1998. – 554-б.
20. Р.Орзибеков. Ўзбек адабиёти тарихи (миллий уйғониш даври).– Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – 238 б.
21. Сотводиев С. Муштарак шоир Мавлоно Мухйиддин Мухйи Хўқандий

- Қандаҳорий ал-асл // Газетай Анис. Афғонистон, соли 1370 х/ш, 27 далв.
22. Турдиалиев А. Мухйи ва Худоёрхон авлодлари // Қўқон садоси газетаси. – Фарғона, 2005 йил, 31 март.
23. Юсупов Ш. Мухйи Хўқандий // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2002. № 1.– Б. 111-120.
24. Юсупов Ш. Худоёрхон ва Фурқат. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 96 б. 36-бет.

МОҲИЯТ VA TASVIR

Sofiya JUMAYEVA,
f.f.n., dotsent
(O‘zbekiston)

Аннотация

Ushbu maqolada ikki raqami, uning mohiyati, diniy va falsafiy qarashlarda tutgan o‘rni va mohiyati, sharq she’riyatida ikki raqamiga murojaat va uning asoslari yoritilgan. Maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillari, jumladan Amiriy, Muqimiy, Furqat singari shoirlar she’riyatida qo‘llanilgan ikki raqami bilan bog‘liq jihatlar tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: raqam, ikki, din, mifologiya, falsafa, dualistik qarash, she’riyat, badiiy san’at, haydar, fatton.

Аннотация

В данной статье рассматриваются числа два, их сущность, место и значение в религиозно-философских воззрениях, упоминание о числах два в восточной поэзии и их основания. В статье анализируются употребление этого числа в поэзии поэтов кокандской литературной среды, в том числе Амира, Мукими, Фуркат.

Ключевые слова: число, два, религия, мифология, философия, дуалистический взгляд, поэзия, изобразительное искусство, хайдар, фаттон.

Annotation

This article discusses the number two, their essence, place and significance in religious and philosophical views, the mention of the numbers two in Eastern poetry and their foundations. The article analyzes the use of this number in the poetry of the poets of the Kokand literary environment, including Amir, Mukimi, Furkat.

Key words: number, two, religion, mythology, philosophy, dualistic view, poetry, visual arts, haidar, fatton.

Inson tafakkuri, uning ijtimoiy, diniy, badiiy, falsafiy ishonch va tushunchalari raqamlarni o‘ziga xos haqiqat manbaiga aylantirgan. Shuning uchun ham raqamlarga bir-biridan sirli ma’no va mazmun singdirilgan, har turli fikr-qarashlarni ifodalashda ulardan foydalanilgan. Mifologik tasavvur, din va tasavvuf falsafasida raqam va raqam ramzlari keng o‘rin ishg‘ol etganidek, u badiiy ijodda, xususan, mumtoz she’riyatimizda ham e’tiborli mavqega erishgan.

Sharq xalqlari orasida raqamlarga bo‘lgan munosabat va ularning mohiyatini yoritish masalasi olamning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlarga aloqadordir. Odatda, diniy mifologiya bilan bog‘liq rivoyatlarda tabiat va tirik jonzotlarning

paydo bo'lishi va shu asosda hayot jarayonining boshlanishi turli asoslarda talqin qilingan. Bu haqda fikr yuritar ekan, N.Nizomiddinov shunday deydi: "Xitoy mifologiyasida "Butun borliq"ning vujudga kelishi quyidagi tarkibda ro'y bergan. Ya'ni, borliq xuddi qadimgi yunon afsonalaridagi tushunchaga o'xshash "xaos – tuman" va qorong'ulikdan iborat "tubsizlik"ning ikki unsuriga bo'linishidan so'ng zuhur etgan yorug'lik "yan" hamda qorong'ulik "in"dan yaralgan. Bunda yerlik ibtidosi **Yan** quyosh yorug'ligi, kuch-qudrat va umuman ijobiylik ma'nosida tushunilsa, ayollik ibtidosi **In** esa oy va qorong'ulik, ma'yuslik hamda zaiflik timsolida qabul qilingan" [3.138]. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bunda asosiy mohiyat ikki raqami orqali yoritib berilgan. Xitoyda bu raqam erkak va ayol o'rtasidagi muvofiqlik ramzi sanaladi. Ayniqsa, nikoh marosimlarida ko'p uchratish mumkin bo'lgan ikki raqami qo'shaloq baxt ma'nosini anglatadi. Xitoyliklarda "Baxt qo'shaloq keladi", degan ma'noni beruvchi maqolning borligi ham shu vajdandir, ehtimol.

Qadimgi xitoyliklar tushunchasiga ko'ra, insonning ikki qalbi bo'lgan: tana va aql qalbi. Binobarin, inson vafot etganida birinchi – tana qalbi o'ladi, ikkinchisi – aql qalbi Osmonga uchib ketadi [3.139]. Xitoy diniy mifologiyasi bo'yicha inson hayoti jarayonida asosan ikki unsur faoliyat ko'rsatadi. Biri – tabiiy ofatlar tufayli inson boshiga yog'iluvchi kulfatlar, ikkinchisi, ayni holatda odamlarni qutqarishga bel bog'lagan qahramonlar madadi. O'z o'rnida tabiatda sodir bo'ladigan sirli hodisalar majmui ham asosan ikki turga bo'linadi: suv toshqini va qurg'oqchilik. Odamlar uchun kutilmagan bunday voqealar mifologik tasavvurlarga ko'ra, yana ikki toifaga bo'linadi. Masalan, suv toshqinining azaliyligi yoki uning Osmon tomonidan jazo sifatida yuborilishi. Qurg'oqchilik – bu bir vaqtning o'zida o'nlab quyoshlarning balqib chiqib, olamni qizitishi oqibati yoxud gunohkorlarning Osmon qahriga duchor bo'lishi tufayli. Va shunda toshqin vaqtida g'arq bo'lganlarni "ulug' YUY" qutqarsa, qurg'oqchilikda nochor qolganlarning joniga "mergan I" oro kiradi.

Ikki raqamining eng muhim fazilati shundaki, yuqorida aytilganidek, u juftlik ramzidir. O'ng va chap, baland va past, ibtido' va intiho, ezgulik va yovuzlik, hayot va o'lim. Bularni uzoq davom ettirish mumkin. Bu qarama-qarshi tushunchalarning barchasini ikki raqami birlashtirib turadi. Daosizm ta'limoti bo'yicha ikki raqami bir-birini to'ldirish va birlashish ramzidir. Shuning uchun Osmon va Yer, erkak va ayol Yan va In, Quyosh va Oy, yorug'lik va zulmat, oq va qora juftliklarida ikki raqamining o'ziga xos o'rni bor.

Islom dinida ham dualistik qarashlar anchagina mustahkam o'rin egallagan bo'lib, Qur'oni karimning bir qancha oyatlarida Olloh juftliklarni yaratgan zot ekanligi aytiladi [5. 528,582]. Juftliklar nafaqat insonlar, balki o'simliklar va hayvonot olami uchun ham xosdir. To'fon vaqtida Nuh (a.s.)ga insonlardan va yerdagi barcha jonzotlardan juft-juft olib qutqarish buyurilgan. Qur'onda inson bilgan va bilmagan barcha narsalar juft-juft qilib yaratilganligi ta'kidlanadi. Bunday ta'kidlar keyinchalik insoniyat keyinchalik kashf etildi. Masalan, 1933-yilda britaniyalik Pol Dirak fizika sohasida Nobel mukofotini qo'lga kiritadi. Uning ixtirosi shundan iborat ediki, materiyaning aksi qilib yaratilgan antimateriya juftligini kashf etgan edi. Yoki yaratilishda ikkilikka asoslangan yana bir mavjudot

o‘simliklardir. 100 yillar oldin botaniklar o‘simliklarda jins jihatdan farqlar borligini kashf qilishdi. Biroq o‘simliklarning juft qilib yaratilganligi Qur‘on oyatlarida 1400 yil ilgari vahiy qilingan edi [6.156-160]. Qur‘oni karimda ikki raqami bilan bog‘liq yana bir muhim ma‘lumot berilgan. Unda aytilishicha, Odam ato farzandlari uchun bu hayotda ikkita yo‘l bor. 6-suraning 10-oyati va 76-suraning 3-oyatlarida ta‘kidlangandek, ular shukur qiluvchilar va noshukurlar, qalb ko‘zi bilan ko‘ruvchilar va ko‘zi ko‘rlar yo‘lidir. Shuningdek, Qur‘oni karimda ikki raqami bilan bog‘liq bir qancha ko‘rsatmalar bor. “Ollah Yerni ikki kunda yaratdi” [5.477], - deyiladi, “Onalar bolalarini to‘la ikki yil emizadilar” [5.37] – deb ta‘lim beradi Qur‘oni karim. Inson farzandlari qilgan yaxshi amallar, xatti-harakatlar unga kamida ikki marta ko‘paytirilib qaytarilishi xususidagi ta‘kidlar, shuningdek, Muhammad (s.a.v.)ning me‘roj voqeasi bilan bog‘liq bo‘lgan. “Bas, (Muhammadga) ikki yoy oralig‘ida (undan ham) yaqin bo‘ldi” [5.526] oyatidagi ikki raqami bu raqam mavqeyining mustahkamlanishiga asos bo‘lgan.

Sharq shoirlari poetik ma‘no va mantiq talablariga asoslanib, raqamlarga murojaat qilganda, bevosita u yoki bu raqam “chegara”sida an‘anaviylashgan haqiqatlarni ham inobatga olganlar. Buni ikki raqamidan foydalanishda ham kuzatish mumkin. Dunyo va oxirat xususidagi fikr-mulohazalar “ikki dunyo”, “ikki jahon” iboralari vositasida ifodalangan va ular o‘zaro tazodiy xarakter kasb etgan.

She‘riyatda ikki raqami ko‘pgina o‘rinlarda “dunyo”, “olam”, “dahr”, “jahon”, “kavn” so‘zlari bilan birga qo‘llanilib, ikki dunyo – foniy (o‘tkinchi) va boqiy (abadiy) dunyo mazmunida ishlatilgan. Mumtoz shoirlar, jumladan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida “ikki olam” (dahr, jahon, dunyo, kavn) birikmasi ishlatilgan. Masalan, Amiriyning quyidagi baytida “ikki jahon” birikmasi qo‘llanilsa, boshqa birida esa ikki raqami “olam” so‘zi bilan birga ishlatilgan:

Kechib ikki jahondin, ishq sahrosig‘a azm ettim,

Kel, ey, majnuni ko‘ngul, bo‘lg‘il mango bu yo‘lda hamrohim. [1.233]

Yoki

Dahr taxti uzra oning soyasi ermish, Amir,

Ikki olam shavkati bir husn sultonidadur. [1.95]

Badiiy asarda biror so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda qo‘llash san‘ati – istiorada ikki raqami faol ishlatilgan. Quyidagi baytda “ikki mayparast nargis” ko‘z ma‘nosida qo‘llanilgan:

Ul ikki mayparast nargislarkim, bir nigah birla,

Jahon ahlig‘a hosil nash‘ai xummi sharob aylar. [4.158]

Shuningdek, Amiriy, Muqimiy va Furqat singari shoirlar ijodida ko‘z ma‘nosida ishlatilgan “ikki zolim”, “ikki ayyor”, “ikki fatton” (fatton – maftun qiluvchi, maftunkor), “ikki chashmi ashkbor”, “ikki jodu”, “ikki jodu xunxor”, “ikki kofir”, “ikki turki kofir”, “ikki ohu” singari istioralarda ikki raqami ko‘z ma‘nosida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma‘shuqaning tashqi ko‘rinishi, ko‘zi, yuzi bilan birga uning sochi tarannum etilgan o‘rinlarda ham ikki raqami asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunisi e‘tiborliki, XIX asr ijodkorlarida sochga nisbatan “haydar” sifatlashi qo‘llanilganligiga duch kelamiz. Haydar kokil – chiroyli qilib o‘rilgan soch, kokillar. Folklorda bu istioradan unumli foydalanilganini xalq qo‘shiqlari misolida ko‘ramiz. Masalan,

*Haydar kokiling uzun,
Yuvib taragin, jonim.*

Yoki

*Qirqta haydar kokilim,
Rayhon qo 'shib tarayman.*

Yana

*Orqam to 'la haydarim,
Har joyda xaridorim.*

Xalq og'zaki ijodi ko'p qo'llanilgan bu istiora yozma adabiyotga ham ko'chib, chiroyli tashbehlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Masalan, Furqat ijodiga mansub bo'lgan quyidagi baytda oshiqning xayoliga ma'shuqaning "haydar kokili" kelishi vayronaga ikki ajdar kirganga qiyos qilinadi:

*Ikki haydar kokulin keldi xayoli ko 'nglima,
Tushti go 'yo ikki ajdar kulbai vayronag 'a. [4.33]*

Yoki

*Telba oshiqlarga zanjir ikki haydar kokuling,
Dom etgan sunbuli dolingdin aylansun qulung. [4.64]*

Muqimiyda esa ma'shuqaning "haydar kokili" jon rishtasiga qiyos qilinmoqdaki, uning tebranishi oshiq uchun mahshar boshlanishiga ishoradir:

*Rishtai jonlarmi yokim ikki haydar kokiling,
Har taraf qo 'zg 'atmakim, qo 'zg 'aldi mahshar kokiling. [2.81]*

Shuningdek, "ikki la'l", "ikki ruxsor", "ikki hilol", "ikki mushkin qosh", "ikki moh", "ikki ajdar" singari birikmalarda ham ma'shuqaning yuzi, qoshi, sochi kabilar ta'rif-tavsif qilinib, go'zal tasvirlarni yaratishga asos bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амирий. Девон. Т.1. Тошкент, 2017.
2. Муқимий. Асарлар тўплами. 2 томлик. 1-том. Тошкент, 1960.
3. Низомиддинов Н.Ф. Қадимги Хитой тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. Тошкент, 2014.
4. Фурқат. Танланган асарлар. Тошкент, 1975.
5. Қуръони карим. Тошкент, 2001.
6. Ҳорун Яхё. Аллоҳнинг Қуръондаги мўъжизалари. Тошкент, 2006.

FURQAT VA G'ARIBIY

**Durdona ZOHIDOVA,
Qo'qon DPI dotsenti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Maqola o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasi Furqat she'riyati an'alarining Qo'qon adabiy muhitining iste'dodli vakillaridan bo'lgan G'aribiy ijodidagi talqini masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Tayanch so'zlar: an'ana, ijodiy ta'sir, tatabbu', g'azal, musaddas, gumanizm.

Аннотация:

Статья посвящена изучению интерпретации традиций поэзии известного представителя узбекской классической литературы Фурката в творчестве Гариби, одного из талантливых представителей кокандской литературной среды.

Ключевые слова: традиция, творческое влияние, татаббу, газель, мусаддас, гуманизм.

Annotation:

The article is devoted to the study of the interpretation of the traditions of Furkat poetry in the work of Garibi, one of the most talented representatives of the Kokand literary environment, a well-known representative of Uzbek classical literature.

Key words: tradition, creative influence, tatabbu, ghazal, musadds, humanism.

O‘zbek adabiyoti tarixida Alisher Navoiy va Bobur, Munis va Ogahiy, shuningdek, Muqimiy va Furqat kabi o‘z adabiy maktablarida shogird-izdoshlarga ijod yo‘llanmasini bergan yorqin siymolar ko‘pdir. Xususan, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Muqimiy va Furqatlarga izdoshlik yo‘lini tutib, o‘z iste’dodlari bilan devon sohibi darajasigacha ko‘tarilgan shoirlar anchaginadir. Qo‘qon adabiy muhitining vakillaridan bo‘lgan Mulla Umrzoq Abduvali o‘g‘li G‘aribiy (Shuhrat)³⁶ (1877-1961) davr adabiyotining shunday namoyandalaridandir. Mazkur shoir istiqlol tufayli nomi va ijodi qayta kashf etilgan adabiy siymodir.

Bir xil tarixiy sharoitda yashab, maslak, saviya, istaklari mushtarak jihatlarga ega bo‘lgan ijodkorlarda hayotiy munosabatlar ham ko‘pincha o‘xshash bo‘ladi. Buni bir adabiy muhitning vakillari bo‘lgan Furqat va G‘aribiylar ijodi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Har ikkala shoir she‘riyati o‘rtasidagi umumiylik, avvalo, ular ijodiga xos g‘oyaviy yo‘nalishga tegishli. Ularning asarlarida quyidagilar jihatlar uyg‘un holda aks etgan:

-Sharq mumtoz nazmiyotining eng yaxshi an‘analarini davom ettirib, rivojlantirish;

-XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish va ma‘rifatparvarlik tamoyilining o‘ziga xos badiiy ifodasi;

-Dunyoqarashning falsafiy-axloqiy zamini sifatida tasavvufga suyanish;

-Vatanga muhabbatni ardoq va e‘tibordagi mavzu sifatida talqin etish;

Furqatning kichik zamondoshi bo‘lgan G‘aribiy she‘rlarida ham uning ijodida kuzatilgani kabi «yaxshi–yomon», «oqil–johil», «dono–nodon», «mo‘tabar–muflis» kabi qarama-qarshiliklarni juftlashtirish orqali ijtimoiy adolatsizliklar ochib tashlanadi. Uning

Mo‘tabar el ichra bo‘lmishlar munofiqro‘ylar,

Bo‘ldi kizb ahli baland, pastda qolib haqgo‘ylar.

Bu jahon oqillara motamsarodur doimo,

Ahmuq nodonlarga har soate ming to‘ylar. [1, 22b]

³⁶ Мулла Умрзоқ Абдували ўғли Ғарибий 1926 йилдан кейин Шуҳрат тахаллуси билан ижод этган.

kabi misralari Furqat qalami bilan bitilgan

*Charxi kajraftorning bir shevasidin dog‘men,
Ayshni nodon surib, kulfatni nodon tortadur*

baytiga mazmunan hamohangdir.

G‘aribiy she‘rlari orasida ruhi, yo‘nalishiga ko‘ra Furqatning mashhur “Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasiga yaqin turuvchi bir asar bor. U shoir Kamiyning qumriga murojaat tarzida yozilgan g‘azaliga bog‘langan muxammasdir. Unda lirik qahramon qafasdagi qumriga shunday murojaat etadi:

*Degil mango, nedin aftodaholu notavon bo‘lding?
Niholin bog‘idin bo‘lgon judo gullar kabi so‘lding?
Tamasxur birla yo bir ahli dard holin ko‘rub kuldung?
Qafas zindoniga, bo‘yningda g‘ul, nedin asir o‘lding?
Magar bir jurm ila hukm o‘ldi jononingdin, ey qumri.*

*Chekildi safhai gardunga ashking obidin marqum,
Vujuding iztirob birla turar, ko‘nglung aromu bum?
Bayoni holi dil et ne sababdin bo‘ldug‘ing mag‘mum,
Ki, bir sarvi sihi qad intizorin chekdug‘ing ma‘lum
Sinuq ranging bila bu chashmi hayroningdin, ey qumri. [1, 81a]*

Keltirilgan parchada G‘aribiy va Kamiyning qumriga tuyg‘udosh bo‘lib, uning hol-ahvolini so‘roqlashlari faqat fikr ta‘sirini orttirish maqsadida qo‘llangan bir usul emas. To‘g‘ri, she‘rda qumri badiiy timsol, unga qilingan xitob lirik qahramon kechinmalarining yorqinroq ifodasi uchun vosita bo‘lganini inkor etib bo‘lmaydi. Lekin she‘rning ta‘sirini oshirgan jihat faqat bugina emas. Unga alohida ta‘sir va shukuh bergan jihat lirik qahramonning tabiatning o‘zi kabi tirik bir xilqati – qumriga nisbatan chuqur mehr, shafqat, g‘amxo‘rlikka egaligi. Qahramoniga shoir qalbidan ko‘chib o‘tgan bu kechinmalar agar uning hayotiy munosabatlaridan tug‘ilmaganida, she‘rda bu qadar samimiyat ta‘min etilmagan bo‘lardi. Furqatning musaddasidagi “sayd”ga ham erksizlik timsoli sifatida ramziy ma‘no joylangan bo‘lsa-da, shoirning tutqunlik va ayriliq haqidagi fikrlarini qoralov ostida umumlashtirishiga bunday ozorli va shafqatsiz vaziyatni faqat insonga emas, jonivorga ham ravo ko‘rmasligi turtki bo‘lgan. Manbashunos olim N.Jabborov musaddasning yozilish tarixi bilan bog‘liq dalillar qatorida o‘zi aniqlagan bir hujjat mazmunini keltiradi. Unda aytilishicha, Furqat she‘rining yaratilishiga hind sayyodining tuzog‘iga ilingan kiyik voqeasi sabab bo‘lgan. [2, 7] Furqat musaddasining ham, G‘aribiy taxmisining ham yaratilishida shafqat hissi butun kengligi, to‘liqligi bilan tuyilgani haqiqat.

An‘analarga munosabat va adabiy ta‘sirning muhim ko‘rinishlaridan biri muxammas bog‘lashdir. G‘aribiy Hofiz Sheroziy, Navoiy, Mashrab, Fuzuliy, Huvaydo, Hoziq, Amiriy, Nodira, Muqimiy kabi ustoz shoirlar qatorida Furqatning ham ikki g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Furqatning tasavvufiy yo‘nalishdagi “bo‘lurmu” radifli g‘azaliga bog‘langan muxammasda g‘oyaviy-badiiy yaxlitlik saqlab qolingani bo‘lib, unda ustoz ijodkorning an‘analari G‘aribiy qalamida munosib davom ettirilgan:

Yuz o‘gurib jahondin, xo‘blarga o‘zni qotmay,

*Sar pobaraxna yillar komilga xizmat etmay,
Sangi qanoat ila nafs gardanin ushotmay,
Yetmish ikki marotib bu yo'lda o'zni sotmay,
Ishqini Boyaziddek da'vo qilib bo'lurmu?*

*Tiyg'i havoyi birla jismingni qilma ranjur,
To tonumay o'zingni, ey bandadur ishing g'o'r,
Lof urma sirri ishqdin, ko'nglingda ming havasdur,
Chiltan sharobin ichmay, bosh o'ynamay chu Mansur,
Dor uzra deb "anal-haq", g'avg'o qilib bo'lurmu?*

*Dunyo bevafoining havosidin kechinglar,
Ag'yordin yumub ko'z, xaq soriga kochinglar,
Dil mazra'iga toat tuxmin, ayo sochinglar,
G'ofilni suhbatidin jon boricha qochinglar,
Do'zax aro, chunonchi, ma'vo qilib bo'lurmu?*

Furqat ta'sirining badiiy ifodasi sifatida yaratilgan G'aribiy she'rlaridan biri "Tamannoi sayohat" deb nomlanadi. U Furqatning "Istar ko'ngul" muxammasiga o'xshatma tarzida bitgan. G'azal Furqat muxammasi kabi fasli bahorda tabiat go'zalliklariga oshuftalik istagan ko'ngul haqida. G'aribiy g'azali Furqat she'ridan janr e'tibori bilan farqlansa-da, radif, qofiya, vazn jihatlari bilan unga monand. Badiiy tasvir usullari ham muxammasnikiga hamohang:

*G'ussadin o'n ikki oy fasli bahor istar ko'ngul,
Har tarafda sabza birla lolazor istar ko'ngul.*

***Mohi mazkurdin bir oy ixroj etib, vaqti qimiz
Ulfati soz ila kabki ko'hsor istar ko'ngul.***

Bo'lsa sodiq mahrame dil sirridin ogah agar,

Daf'i savdolar uchun sayri mazor istar ko'ngul. [1, 56a]

G'aribiy g'azalining yakunlovchi baytlari Furqatning so'nggi

Muncha qilgon orzulardin muyassar bo'lmasa,

Furqatiy uzlat uchun bir kunji g'or istar ko'ngul, –

misralaridan mazmunan batamom yangichadir. Zero, taxmis yoki nazira yozishda mavzu yo'nalishini saqlagan holda uning doirasini yangi g'oyalar bilan boyitish mahorat belgisi hisoblanadi. G'aribiy g'azalining oxirgi baytlari ko'ngilda tug'ilgan istaklarning sababini izohlaydi: o'z diyorida sargashtalik tufayli shoir o'zga ma'vo haqidagi orzularga berilgan edi. Lekin shunga qaramay, uning uchun ona yurt ishq har qanday istak-xohishlardan ustun. Shuning uchun ko'ngil qayerda bo'lmasin, vatanga qarab talpinadi:

Turfa sargashta bo'lubman o'z diyorida netay,

Kecha-kunduz bul'ajab o'zga diyori istar ko'ngul.

Bosh olib ketsam, G'aribiy, har qayon hijrat qilib,

Goh-goh "hubbul-vatan" deb Yormazor istar ko'ngul.

Aytish kerakki, bu shunchaki shoirona ta'bir emas, balki ko'p yillarini safarlarda kechirib, vatandan tashqarida uning haqiqiy qadrini anglab etish barobarida iymoni chiniquqan G'aribiyning chin iqrori edi.

Namunalari ko‘rib o‘tilgan she‘rlar misolida G‘aribiyning Furqatdek ustoz so‘z san‘atkoridan mazmuni boy va teran mundarijada, insoniy hissiyotlarni nozik va jozib shakllarda berish kabi muhim jihatlaridan o‘rganganligini kuzatish mumkin.

Quyida G‘aribiy(Shuhrat)ning Furqatning mashhur “Surmadin ko‘zlar qaro” deb boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammasi taqdim etilmoqda.

FURQAT G‘AZALIGA SHUHRAT MUXAMMASI

*Bir parivash qomatin ko‘rgach, bo‘lubman hangu mang,
Lol aqlim, hush uchub, tahsinida boshlar garang,
Sharh qilsam vasfidin, ahboblar, manga qarang:
Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar hinodin lolarang,
G‘ozadin yuzlarda tobu vo‘smadin qoshlar tarang.*

*Bilmadim, kim? Nasli odam yo farishta yoki hur,
Turfakim, boshdin ayog‘i dilraboning g‘arqi nur,
Qomati ul sho‘xshangning muncha ham zebandadur,
Za‘faroniy ko‘ylak uzra arg‘avoniy kamzuhur,
Ro‘ymol og‘ushidan peshonaning ahvoli tang.*

*Bog‘i husn ichra kishi ko‘rgon emas mundog‘ nihol,
Qaddidin sarve xijolat, ko‘z qarosidin g‘azol,
Lola bag‘rin dog‘ etib lab osti, oraz uzra xol,
Bori nozuk panjalar oltin uzukdin zebi nol,
Qo‘l bilarzukdin muzayyan, nuqradin og‘izda chang.*

*Topsa jon, ne tong, o‘luk, qilsa takallum, no‘shxand,
Huri jannat husnining oldida ermasdur pisand,
Zebu oroyish yuzida, desa bo‘lmas chunu chand,
Gavhar osqon halqalar siymi banogo‘shida band,
Ko‘rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.*

*Nimnigah birla necha oshiqni betiyg‘ o‘ldurur,
Noz birla yig‘latib, lutfi-la gohi kuldurur,
O‘t solib olamga yuzdin goh, yaksar kuydurur,
G‘amza birla o‘lturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir nozofarin, purishva, tannozu satang.*

*Kinga derman hasratimni ul sitamgar dastidin,
Bosh olib ketmoqqa yo‘l topmay balandu pastidin,
Jon berurdin o‘zga chora yo‘qki dabbi shastidin,
Yo‘q qutulmog‘liq mango ul ofati jon qasdidin,
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mijgonlar xadang.*

*Soqiyo, maxmurman, ta'xirsiz bergil ayog',
Ko'z boqardin, qo'l tutar, raftordin qoldi ayog',
No'sh etay to o'zni bilmay, qurtulay g'amdin bu chog',
Ul parivash ishqidin gah telbadurman, gohi sog',
Chunki bordur o'rtamizda gohi sulhu goh jang.*

*Zulmu bedodeki, Shuhrat, manga badxo' ayladi,
Qilgonin ul raxnagarning qaysi hindu ayladi,
Lutfi xo'bin borho badmehr har so' ayladi,
Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafajo' ayladi,
Muncha bedodu sitam qilmas musulmonga farang.*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғарибий. Девон: ҚАМ қўлёзмаси, сақл. р. 373
2. Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари: Филолог. фанлари номзоди... дис. автореф.- Т., 1994.

“O‘SHA SHONMAN...”

**Iqbol Mirzo,
O‘zbekiston xalq shoiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Maqolada jadidchilik harakatining asosiy maqsad-vazifalari haqida fikr bildirilib, xususan, otashqalb shoir Usmon Nosir she'riyati mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, millatparvar fidoyilar, adabiy muhit, isyon, ilm, najot.

Аннотация

В статье рассматриваются основные цели и задачи джадидского движения, в частности сущность поэзии пламенного поэта Османа Насира.

Ключевые слова: джадидское движение, национальное служение, литературная среда, бунт, наука, спасение.

Annotation

The article discusses the main goals and objectives of the Jadid movement, in particular, the essence of the poetry of the fiery poet Osman Nasir.

Keywords: Jadid movement, nationalist devotion, literary environment, rebellion, science, salvation.

Yigirmanchi asrning boshlariga kelib, turkiy dunyoda keng quloch yoygan jadidlik harakati Qo'qon muhitida ham bo'y ko'rsata boshladi. Po'latjon Qayyumiy, Ashurali Zohiriy, Hamza Hakimzoda va boshqa ko'plab ma'rifatparvar millat fidoyilari Ismoil Gaspirali da'vatlarini mahkam tutib, yangi usulda maktablar ochishdi, darsliklar yaratib, el-ulusni jaholat botqog'idan chiqarmoqqa bel bog'ladilar.

Chor istibdodi oqibatida qoʻrquv va karaxtlik iskanjasiga tushgan xalqqa oktabr inqilobi bir muddat umid bergan boʻlsa, 1918-yilgi Qoʻqon muxtoriyati muvaqqat hukumatining qisqa, lekin chaqmoqdek umri el zehnini yoritdi, mazlum xalqda istiqlol va ozodlik umidi uchqunlay boshladi. Tabiiyki, bu siyosiy buxronlar adabiy muhitga taʼsir qilmay qolmadi. Buyuk oʻzgarishlar davrida katta isteʼdodlar yaralishi bor gap. Qoʻqon adabiy muhiti yana jonlandi. Endi butunlay yangi qarashlar, Ovroʻpa falsafasi bilan oziqlangan, lekin oyogʻi sharqdan uzilmagan yangi ijod ahli etishib kela boshladi.

Qoʻqonda Poʻlatxon Qayumiy tomonidan ochilgan “Yangi hayot” internat-maktabi zamonaning ilgʻor fikrli ziyolilarini muallimlikka jalb qilgan holda dunyoviy bilimlarni asosiy saboq sifatida joriy etdi. Shuningdek, Ozarbayjon jadidlaridan Qorashoh Rizo kabi millatparvar fidoyilarning maktabda maʼruza oʻqishi yoshlar ongida turkiy birlik, xurofotga nafrat tuygʻularini shakllantirib, “najot ilmda” degan aqidani mustahkamladi. Ana shunday hur fikrli yoshlar orasida millatning boʻlajak yorqin yulduzi Usmon Nosir ham bor edi. Avvalo Usmonning bu maktabga qay tariqa kelib qolganini eslab oʻtamiz.

Yangi turmush qurib, Qoʻqonga koʻchib kelgan Xolambibi toʻrt yashar Usmonjonni yer-u koʻkka ishonmas, suyib-sevib ardoqlar edi. Lekin eri Nosirhojidan qator farzandlar koʻrgach, hojining Usmonga boʻlgan munosabati tamomila oʻzgaradi. Unga kun bermay qoʻyadi. Oʻgaylik iskanjasiga olib urib-kaltaklaydi, xoʻrlaydi. Keyinchalik Usmon Nosir ushbu qaygʻuli kunlarini quyidagicha eslaydi:

*Otam oʻldi, men sarson boʻldim,
“Shum yetim”, — deb soʻkdilar meni.
Ajab kunga muhtalo boʻldim,
Koʻchalarga kuvdilar meni...
Oʻsha kunlar dilimda hayot
(Ogʻir damni unutib boʻlmas!).
“Tur! — dedilar. — Tur, etimcha zot!”
Ilojim yoʻq — turaman birpas.
Soʻngra oʻzim oʻzim oldimdan
Qaramasdan kulib oʻtamen.
U eski “men” faqat yodimda,
Endi menda yashar boshqa “men!”*

Shu tariqa Usmonjon uyga sigʻmay qoldi. Uning bolalik doʻsti Moʻydinjon Burhonovning eslashicha, ular Qoʻqonsoyda choʻmilayotgan payti “Yangi hayot” maktabi asoschisi Poʻlatxon Qayumov oʻtib qoladi. Tabiatan shinavanda boʻlgan alloma toʻxtab, qotma, koʻzlari chaqnoq bolani gapga soladi. Oʻsha maktab oʻquvchisi boʻlgan Moʻydinjon domlaning savollariga Usmonning javobini toʻldirib, u yaqinda koʻchib kelganini, oilaviy ahvolini soʻzlab beradi. Yosh Usmondagi tiyraklikni ilgʻagan Qayyumiy uni maktabiga oʻqishga daʼvat etadi va shu tariqa Usmon xonaki zulmdan qutulib, yangi hayot ostonasiga ilk qadam qoʻyadi. Ha, shoirni muhit yaratadi, chin shoirlar zulmdan bunyod boʻladi.

Usmon Nosir maktabni tamomlar ekan, dunyoviy fanlar qatori “Sanoyi nafisa” toʻgaragida adabiyot sanʼatini puxta egallagan, sheʼrlari “Koʻzgi” devoriy

gazetasida muntazam chop etilib, sahnalarda ijro qilinadigan rasida shoir edi. Shu bilan birga, ilk ruscha-o‘zbekcha lug‘at yaratgan olimlardan biri Ashurali Zohiriy unga ham rus tilini puxta o‘rgatgan ediki, bu yosh shoir dunyo adabiyotidan bahra olishiga keng darvoza ochdi.

Usmon Nosirni tarbiyalagan yangi Qo‘qon adabiy muhiti o‘sha davrda Sobir Abdulla, Abdulla Qahhor, Amin Umariy, Nasrullo Davron kabi o‘nlab taniqli qalam ahlini voyaga etkazdi. Ular orasida Usmon Nosirning shaxsiyati va ijodi alohida o‘rin tutadi. U keyinchalik Samarqand va Moskovda ta‘lim olgan esa-da, dunyoqarashi Qo‘qonda shakllangan, iste‘dodi mazkur adabiy maktabda kurtak bog‘lagan edi.

Uning “Monolog” nomli she‘rini ijodining gultoji deyish mumkin. Shu birgina she‘rda shoir asriy shakl va ma‘no qoliplarini batamom yangilaydi, bir qator tarixiy va badiiy shaxslar — obrazlarga murojaat qilarkan, mantiqning oltin chizig‘ini mustahkam tutadi. “Seni yaxshi bilaman dilbar, Petrarkani o‘qiganim bor...” deydi shoir. Darhaqiqat, Usmon Nosir yosh zehni bilan zamonaga ma‘lum bo‘lgan g‘arbu sharq daholari ijodini yaxshi bilgan, bahra olgan va adabiy ta‘sirlagan xassos adib edi. Tarix adabiyotning ozuqa manbayi, tarixda ham ibrat, ham hikmat mavjud. Shoirning “Nil va Rim” dostoni aqlni shoshiradigan darajada falsafiy xulosalarga, mardona chaqiriqlarga to‘la.

*Qullar... Menman u qullarning o‘lmas avlodi,
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi.
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,
Otalarim boshidan poydevor uyib,
Ozodligim obidasin qurgan insonman.
O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!*

Shoir sho‘ro hukumatining munofiqligi, qattoligi, ko‘pyuzlamaligini allaqachon anglab idrok yetgan, uning qalbida tuzumga nisbatan cheksiz nafrat borgan sari alanganib borardi. Ha, bu saltanatning poydevori “otalarning boshidan” yaralgan, ya‘ni daho otalarning joni evaziga qurilgan, qon ustida barpo bo‘lgan. Usmon Nosir milliy kulfatni jahoniy fojialarga bog‘laydi, adolatsiz dunyoda isyonkor Spartak bilan Farg‘ona qo‘rboshilarining taqdiri bir, degan xulosaga keladi. Uning isyonkor faryodi, nohaqlik hukmron bo‘lgan jahon ayvonida qaldiraq kabi barq uradi: “O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!”

G‘ULOM G‘OFUR - HAJVIY HIKOYALAR USTASI (XX asrning 30-40-yillari Qo‘qon adabiy muhiti)

Gulbahor SAIDG‘ANIYEVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

O‘tgan asrning 30-40-yillari Qo‘qon adabiy muhiti adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan kam o‘rganilgan. Maqolada ana shu davr ijodkorlari faoliyati, xususan,

G‘ulom G‘ofur ijodi qisqacha tahlil qilingan. Uning hajviy hikoya janri taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi 30-40-yillar manbalari asosida tadqiq qilindi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, Yangi Farg‘ona, G‘ulom G‘ofur, hajviy hikoya, mafkura, obraz.

Аннотация

Кокандская литературная среда 30-х-40-х годов прошлого века мало изучено с точки зрения литературоведения. В данной статье проанализировано литературная деятельность писателей этого периода, в частности, творчество Гуляма Гафура. Его вклад в развитие жанра сатирических рассказов исследован на основе источников 30-40-х годов.

Ключевые слова: Кокандская литературная среда, Янги Фаргона, Гулям Гафур, сатирический рассказ, идеология, образ.

Annotation

The Kokand literary environment of the 30-40s of the last century has been little studied from the focus of literary criticism. This article analyzes the literary activity of the writers of this period, in particular, the work of Gulyam Gafur. His contribution to the development of the genre of satirical stories has been studied on the basis of sources from the 30s and 40s.

Key words: Kokand literary environment, Yangi Fargona, Gulyam Gafur, satirical story, ideology, image.

XX asr Qo‘qon adabiy muhitining Milliy uyg‘onish davri va 30-40-yillari adabiyoti davri o‘ziga xos manzaralarga ega. Bu davr adabiyotida yangi janrlar taraqqiyoti, yangi obrazlar kirib kelishi bilan birga, mafkuralar xilma-xilligiga ham duch kelamiz. Aynan shu davr Qo‘qon adabiyoti vakillarining ijodi tarix sahifalarida unchalik ko‘zga tashlanmaydi. Qo‘qon Adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan “Yangi Farg‘ona” gazetasi manbalari asosida o‘rganishlar ko‘rsatadiki, o‘tgan asr birinchi yarmida adabiy muhit o‘ziga xos tarzda rivojlangan.

30-yillar Qo‘qon adabiy muhitida G‘ulom G‘ofur (G‘ulomnazir G‘ofurov – 1909-1944) ning hajviy proza rivojidagi o‘rni alohida salmoqqa egadir. U, asosan, felyeton hamda hajviy hikoyalar ustasi sifatida tanildi. U “Qozixona komediyasi”, “Sho‘rva”, “Yo‘l suhbati”, “Ochilgan sirlar” kabi to‘plamlar muallifidir [1,106]. “Ochilgan sirlar” - hajviy hikoyalar (kulgi hikoyalar) to‘plamidan iborat [2] (Bu to‘plamning 1932-yilda Bakida nashr etilgan nusxasi Qo‘qon Adabiyot muzeyi fondida saqlanadi).

“Yangi Farg‘ona” gazetasida ham yozuvchining ko‘plab asarlari nashr qilingan, gazetaning “Chig‘irliq” hajviy bo‘limida tajriba orttirgan, keyin esa Toshkentga “Mushtum” jurnaliga ishga taklif qilingan. Uning felyeton janrida shuhrat qozongani haqida Orif Saidovning kitobida yaxshi ma‘lumot berilganini K.Olimova ta’kidlab o‘tadi [1,106]. G‘ulom G‘ofur ochiq imzosidan tashqari, “Shalpangquloq”, “Shapaloq” kabi taxalluslardan foydalangan. Uning “Qo‘ying endi imom bo‘lmayman”, “Yo‘l suhbati”, “Kampir bilan suhbat”, “Ofarin senga”, “Ozib yozib ko‘rishganda”, “Qanday ko‘r bo‘lganlar”, “Orzumiz ushaldi”,

“To‘yxona muridxona” asarlari shular jumlasidandir [1,106]. Yozuvchining felyeton, hajviy she‘rlar, hajviy hikoyalar yozganligi ma‘lum.

G‘ulom G‘afur haqidagi xotiralardan ma‘lum bo‘lishicha, u urushda bomba tagida qolib halok bo‘lgan. “O‘tkir edi qalami...” nomli kitobga kiritilgan xotiralarda uning shaxsi, iqtidori, taqdiri haqida so‘z boradi. Kitob urushda halok bo‘lgan jurnalist-yozuvchilar haqidagi xotiralardan iborat. Unda G‘ulom G‘afurov, Obidjon Abdurahmonov, Nikolay Zvezdin, Zifo Shamsiddinova, Saidg‘ani Valiyev, Sulton Jo‘ra, Hasan Izzatliy, Mixail Suvinskiy, Abdulla Sharafutdinov, Ne‘mat Abdullayev, Safar Orzumetov, Rahimjon G‘afurov, Burhon Tursunovlar haqida urushda birga qatnashgan yozuvchilarning xotiralari berilgan [3].

“Ochilgan sirlar” to‘plamiga uning “Sirli o‘lik”, “Ayirbosh”, “Sayyoh”, “Pirzodaning nikoh to‘yi”, “Talvasa” hikoyalari kiritilgan. Bu hikoyalar hayotning real manzaralarini aks ettiradi. O‘sha davr hayotiga kirib kelgan yangi tartib-qoidalar va eski turmush o‘rtasidagi ziddiyatlar fonida voqealarni bayon etadi. To‘plam nomi ostida garchi “Kulgi hikoyalar” deb yozilgan bo‘lsa-da, aslida xalq boshiga tushgan fojialardan hikoya qiladi. “Sirli o‘lik”da Suyarqulboyning mol-mulkini sho‘rodan yashirish uchun o‘g‘lini o‘ldiga chiqarib, uni mol-mulk bilan chetga chiqarib yuborgani va bu fosh bo‘lgani tasvirlansa, “Ayirbosh”da Jaynoqboyning solig‘ini kambag‘al Jaynoqqa o‘tkazib firibgarlik qilgan sarkotibning fosh bo‘lishi, Jaynoqboyning kambag‘alning ho‘kizini o‘g‘irlagani siri ochiladi. Shu bilan birga, o‘sha davrdagi sho‘ro siyosatining qattiqligi, birovning mulkini birovga tortib olib bergani, soliq siyosati ham qattiqqo‘llik bilan olib borilganligi haqidagi achchiq haqiqat hikoyada aks etgan.

“Sayyoh” hikoyasida esa Turon-Turkiston ozodligi g‘oyasini ham o‘zi yaratgan Xo‘jazoda tilidan aytadi: “Millatim urfoni yo‘lida qon ag‘lamisham, biroq, biroq ko‘rirsizki Turkistanin, Turanin, af‘oli deyer kun o‘lmish...” [3,36]. Bu so‘zlarning 30-yillar sharoitida aytilishi katta jasorat edi.

G‘ulom G‘ofurning 1935 yilda “Yangi Farg‘ona” gazetasida nashr etilgan “Otboqar” hikoyasini tahlilga tortsak [4]. Hikoya 30-yillar hayotini aks ettiruvchi zamonaviy asardir. Kolxozlashtirish siyosati olib borilgan, odamlarning xususiy mulklari tortib olingan bir davr uchun bu hikoya nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi va bu mavzudan so‘zlovchi boshqa hikoyalari ichida ajralib turadi. Asar qahramoni Soli kuyuk obrazida bor-budini kolxozga berib yupun ahvolda qolgan, hurriyat deb aldangan xalq obrazi aniq-ravshan ifodalab berilgan. Qahramonning ismi ham ramziy ifoda etilgan. Soli kuyuk garchi hikoyada qumg‘ondagi dog‘ suvdan kuygan deb aytilsa-da, asli zamona zayli bilan o‘zgargan tuzumdan kuygan kishilarning umumlashma obrazidir. Uning puliga kuyib qolishi bozordan ot sotib olish epizodi bilan juda ta‘sirli beriladi. Asarda ot detalidan o‘rinli foydalanilgan (Kommuna Olimovanning dissertasiyasiga ko‘ra, Muqimiy “ot” obrazi orqali o‘z davridagi sotsial tengsizliklar haqida fikr yuritsa, G‘afur G‘ulom “ot” obrazida mamlakatni qo‘riqlashga qodir katta kuchni ko‘radi. Bizningcha esa G‘ulom G‘afur ham shu obrazdan foydalangan, ammo undan asar g‘oyasini ochishda bechora xalq obrazi sifatida foydalangan). Hikoyaning boshida berilgan Soli kuyukning umidlari va bozordan ot olib aldangandagi holati yangi tuzum

o'zgarishlaridan ko'p narsa umid qilib hech narsaga erishmagan kishilar taqdirini bildiradi. Hikoyadan parcha keltiramiz:

“Eri-xotin ertalab choy ustida, yana o'sha eski bahsdan so'z ochdilar.

Er qo'lidagi choyni puflab bir ho'fladi-da xotiniga qaradi:

- Ming qilsa ham soddaligingga borasan, axir, non yopish nima-yu, ot boqish nima...?

- Men qaydan bilay, nonga zuvala yasash bilan, otga xashak solishning farqi bor, diymanda.

- Xo'sh, nima qil diysan endi?

- Kolxozga chiqqaningizda ham, men ot boqishdan ko'ra, non yopishni yaxshi bilaman desangiz...

- Nima uchun, tentak!

- Chunonchi otni sug'orishg'a uquvingiz yo'q...

- Nega, nega!

- Avvalo shuki, otni sug'org'anda, hushtak chalish uchun olding'i tishlaringiz yo'q va...

Erining jahli chiqdi, labi pirpirab ketdi:

- Axir, nodon, kolxozga kirib olsam, biror oyda to'rtala tishimni oltundan qilamanda!”

Bu parchadan ko'rinadiki, Soli kuyukning (umuman o'sha davrdagi u kabi toifa kishilarining) kolxozdan umidi katta bo'lgan. Soli kuyukning (umuman o'sha davrdagi u kabi toifa kishilarining) kolxozdan umidi katta bo'lgan. Asarda berilgan ayrim o'rinlar uning taqdiri ayanchli ekanidan dalolat beradi. Bu gaplardan yozuvchining tuzumga munosabati aniq ko'rinib turadi: “...bundan 5 yil burun ham devkor nonvoy, shaharda ko'zga ko'ringan katta boy edi” [4]. Demak, 5 yilning badalida Soli kuyuk kambag'allashib ketgan. Yangi tuzum uning mulkidan ayrilishiga sabab bo'lgan. Bungacha boy bo'lgan Solining otboqarlikka rozi bo'lishi uning noilojligidandir. Buni yozuvchining “nima qilsin, o'ylab-o'yiga etolmay yurib” degan so'zlari isbotlab turibdi.

Xotini ot yoniga bormagansiz, deya ta'na qilaverganidan keyin bozordan ot olgani voqeasi beriladi. Uni aldab puliga “na go'shti, na kuchi” bo'lmagan otni berishadi. Bozordan uyga kelgunicha ataylab shishirilgan ot o'lar holatga keladi. Buni yozuvchi ta'kidlaganidek, “ko'zidan olaqaroq dardlari yuzaga chiqqan” holati aytib turadi. Bozordan yaxshi narsa oldim deb, oqibatda puch umidlar bilan qolishi yangi tuzumga ishonch bildirgan odamlarning aldanib qo'yni puch yong'oqqa to'lishiga ishoradir.

Kolxozga kelib semiz otlarni ko'rganda ularni ham puflab shishirilgan deb o'ylaydi. Ya'ni hamma narsa bu jamiyatda puflab shishirib ko'rsatilishiga ishora qiladi. Soli kuyuk otlarni yaxshi qaramay bir ahvolga solganidan keyin rais uni so'kib sudga beraman deb dag'dag'a qiladi.

Hikoya “Biroq Soli bu ishlarni jo'rtaga qilganini o'z yuragida saqlab qolishga tirishar edi” degan so'zlar bilan yakunlanadi. Hikoyaning butun mohiyati, g'oyasi ana shu so'zlardan keyin ochiladi. Demak, Soli obrazida bolshevik tuzumidan norozi, mulkidan ayrilgan alamzada kishilar obrazi tasvirlangan ekan. Hikoya nomida ramziylik kuchli. Asarning “Otboqar” deb nomlanishi bilan, ham kinoya

aralash Solining ot boqishni bilmay turib, bu ishga kirganiga ishora qilinsa, ham tuppa-tuzuk hunari, tadbirkorligi orqasidan pul orttirib yashayotgan kishilarning otboqarga aylantirilishiga ishora bor. Yana buning ustiga Solining xotini aytgan soʻzlar bilan shu narsa taʼkidlanadiki, “non yopishdan ot boqish qiyin!” Bu soʻzlardan kolxozning otini boqib, odamning biri ikki boʻlishi qiyin degan maʼno anglashilib turadi. Umuman olganda, hikoya oʻz davrining manzarasini real chizib berganligi bilan ahamiyatga ega. Unda tasvirlangan obrazlar haqqoniy, ishonarli.

Xulosa qiladigan boʻlsak, yuqoridagi kabi hikoyalar oʻsha davrda yaratilgan hamma asarlar ham yangi turmushni maqtayvermaganligini koʻrsatib berganligi jihatidan, zimdan shoʻro davri mafkurasi, siyosatiga qarshi fikrni ayta olganligi bilan ham qimmatlidir, shu bilan birga, bu kabi hikoyalar oʻzbek prozasining kuchini belgilagan. “Otboqar” hikoyasi mazmun va gʻoya jihatidan 1930-yillar oʻzbek adabiyotida koʻrilmagan yangi hodisa sanaladi, chunki u eski turmushni qoralab, yangi turmushni maqtash yoʻlidan borilmaganligi bilan, oʻsha davr kishilarining dardini ifoda etganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Ikkinchidan, ocherk, felʼeton va boshqa janrlardagi materiallarning bosilishi, jurnalistika janrlarining shakllanish jarayonlarida “Yangi Fargʻona” gazetasi muhim ahamiyatga ega boʻlganligini koʻrsatadi.

Uchinchidan, “Yangi Fargʻona” “Sadoi Fargʻona” ning uzviy davomchisi sifatida hozirgi Qoʻqon matbuotining, umuman, oʻzbek matbuotining, Fargʻona matbuotining rivojida, ijtimoiy fikr taraqqiyotida muhim rol oʻynadi. Yuqorida oʻrganilgan holatlar Qoʻqon adabiy muhiti davr bilan hamnafas yashaganligini, ayniqsa, matbuot oʻz vazifasini oʻrinli bajarganligini maʼlum qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimova K. “Oʻzbek sovet adabiyoti taraqqiyoti ilk davrining baʼzi xususiyatlari” (“Yangi Fargʻona” gazetasi materiallari asosida). – filol.fan nom.diss..., Toshkent: 1977.
2. Gʻulom Gʻofur. Ochilgan sirlar. – Toshkent-Baku: Oʻznashr, 1932.
3. Oʻtkir edi qalami... (Toʻplam). – Toshkent: Oʻzbekiston, 1965. – 148 b.
4. Gʻulom Gʻofur. Otboqar. – Yangi Fargʻona, Qoʻqon: 1935 yil, 10 avgust.

SHOʻRO QATAGʻONI YOXUD OPA-SINGIL DADAMUHAMMEDOVALARNING ACHCHIQ QISMATI

**Bahrom IRZAYEV,
“Qatagʻon qurbonlari” muzeyi
katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
(Oʻzbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Nurmuhammad Dadaboyevning jadidchilik faoliyati va uning ikki nafar fidoyi qizlari: Mahbubaxon Dadamuhammedova hamda Matlubaxon Dadamuhammedovalarning Vatan va millat oldidagi xizmatlari, ayanchli taqdirlari oʻz aksini topgan.

Kalit soʻzlar: jadidchilik harakati, qatagʻon, ilm-maʼrifat, xotin-qizlar maktabi, millat, Vatan, ziyoli.

Аннотация:

В данной статье отражена деятельность джадидизма Нурмухаммада Дадабоева и трагическая судьба двух его преданных дочерей: Махбубахон Дадамухаммедовой и Матлубахон Дадамухаммедовой за их служение Родине и народу.

Ключевые слова: джадидское движение, репрессии, образование, женская школа, нация, родина, интеллигенция.

Annotation:

This article reflects the activities of Nurmuhammad Dadaboyev's Jadidism and the tragic fate of his two devoted daughters: Mahbubahon Dadamuhammedova and Matlubahon Dadamuhammedova for the Motherland and the nation.

Keywords: Jadid movement, repression, education, women's school, nation, homeland, intellectuals.

Asli toshkentlik mudarris Nurmuhammad Dadamuhammedov taqdir taqozosi bilan Margʻilonga borib, jadid maktabi ochadi va bolalarga xat savod, ilm-fan sirlarini oʻrgata boshlaydi. Uning turmush oʻrtogʻi Marhamatxonim ham savodxon, oqila ayollardan edi. Nurmuhammad Dadamuhammedov xonadonida birin-ketin Mahbubaxon (1908), Matlubaxon (1911), Fatxulla (1914) va Maqsudaxon (1918) lar dunyoga keldilar. Margʻilonning mashhur jadid muallimi Nurmuhammad Dadamuhammedov farzandlarining tarbiyasiga alohida eʼtibor bilan qaradi. Ilk savodni uyida oʻzlashtirgan qizlar jadid maktabining eng oldi oʻquvchilari boʻlib taʼlim oldilar.

Mahbuba Dadamuhammedova, avval, Toshkentdagi xotin-qizlar bilim yurtida tahsil oldi. 1925-yil Moskva shahriga borib, oʻzbek maorif institutiga oʻqishga kiradi. 1931-yil Mahbuba Muhammedova Germaniyada tahsil olib qaytgan taniqli kimyogar olim Sattor Jabbor bilan oila quradi. Bu xonadonda ham birin-ketin farzandlar: Oʻzxon, Oʻrxon va Dilbarxonlar dunyoga keladi. Mahbubaxon Sattor Jabborning taklifi bilan Texnika institutining tekstil muhandisi yoʻnalishiga oʻqishga kirib, ilmiy izlanishlarni ham boshlab yuboradi. Oila mehnatidan xushvaqt, baxtidan sarmast yashayotgan bir vaqtda shoʻro tuzumining mashʼum “Katta qirgʻin” kompaniyasi eshik qoqdi.

1937-yil 8-yanvar kuni ToshMI dotsenti Sattor Jabbor qamoqqa olinib, uzoq davom etgan qiynoq va tahqirlardan soʻng, 1938-yil 9-oktyabr kuni otib tashlanadi. Turmush oʻrtogʻi Mahbuba Muhammedova ham 1938- 1939-yillarni biror aybini anglamagan holda qamoqda oʻtkazdi. Mahbuba Muhammedova deyarli soʻroqqa chaqirilmagan, uning shaxsiy anketasida oila aʼzolari sifatida otasi 62 yoshli Dadamuhammad Nurmuhamedov, onasi 46 yoshli Marhamatxonim, qaynonasi Komila Jabborova va farzandlarining nomlari keltirilgan. Mahbuba turmadan chiqishi bilan farzandlarini topib, tarbiyasiga kirishdi. Xatto, urush yillarida Toshkent tekstil kombinatida direktor oʻrinbosari darajasiga qadar koʻtarildi. Tunni tun, kunni kun demay mehnat qildi. Ammo, insoniy qiyofasini yoʻqotgan mundirli malʼunlar tez-tez mushtipar onani bezovta qilib turishar edi. Xatto, 1959-yil Sattor

Jabbor oqlanganidan keyin ham sho‘ro tuzumining ishonchini qozona olmadi. Mahbuba Muhammedova turmush qiyinchiliklari tufayli kasallikka chalinib, 1978-yil 28-sentyabrda vafot etdi. Shunga qaramay u o‘zbek millatiga professor O‘zxon Jabbordek, texnika fanlari nomzodi O‘rxon Jabbordek zabardast olimlarni tarbiyalab kamolga yetkazdi. Ularning xizmatlari, ixtirolari esa keyingi maqolalarimizga mavzu bo‘larlik...

Mahbuba Dadamammedovaning singlisi Matluba ham o‘z zamonasining iqtidorli yoshlaridan edi. Matluba 1926-yilgacha Qo‘qon bilim yurtida tahsil oldi. 1927-yil o‘qishini Toshkentdagi ayollar bilim yurtiga ko‘chirib, so‘ng opasining izidan Moskva shahriga o‘qishga yo‘l oldi. Matluba Moskvadagi o‘zbek maorif institutiga o‘qishga kiradi. U yerda mashhur shoir Cho‘lpon, Botu, Shokir Sulaymonlardan she‘riyat sirlarini o‘rgandi. Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, Abdulhay Tojiyevlar muloqotidan bahramand bo‘ldi. Matluba ayniqsa, o‘zbek talabalarning ma‘rifiy kechalarida Cho‘lponning vatanparvarlik mavzusidagi otashin she‘rlarini o‘qib, o‘zi ham shu mavzuda she‘rlar yozib juda mashhur bo‘lib ketadi. Uning bu shuhrati SSSR chegaralaridan chiqib Yevropa matbuotigacha borib yetdi. Berlinda tahsil olgan o‘zbek talabasi Sattor Jabbor 1929-yil yozgan “Kurtulish yo‘lunda” asarida “... yoshlarning Cho‘lpon ta‘sirida ekanligini va Moskva tarbiyasining muvaffaqiyatsizligini 17 yoshli yosh kommunist Matluba Muhammad xonimning shu she‘rindan o‘qib bilamiz:

XALQIMGA!

Mudom Chorning qo‘l ostida ko‘p ezilgan Millatim!

Ozodlik yo‘linda vayron bo‘lgan Millatim!

Chor bilan qonli urushda yiqqan Millatim!

Chor o‘rniga boshqa zulmlar kelgani chog‘da,

Nega sen qo‘zg‘olmayсан Millatim?!...

Qo‘zg‘ol, hozir, marhamatsiz qo‘l ostida ezilma!

Qoningni zahar qilib soch! Bosh ko‘tar Millatim!

Rusiyadan surulib kelgan chet ruslar

Qachongacha bizni ezar, MILLATIM!....

Matluba Muhammad Xonimning, bu qahramon turk qizining bu go‘zal she‘ri Ovro‘poda bir necha karra qayta qayta bosildi... Bu voqea sovet davlatini shu qadar qizdirdi-ki, bir necha hafta o‘tib Moskvadagi O‘zbek o‘rta maktabini yopdilar!

FURQAT LIRIKASIDA IJTIMOIIY MAVZULAR IFODASI

Obidaxon FAYZULLAYEVA,
GulDU O‘zbek adabiyotshunosligi
kafedrası dotsenti, f.f.n.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Furqat ijodida ijtimoiy mavzuning aks ettirilishi masalasi ayrim she‘rlar tahlili misolida ko‘rib chiqilgan. Ushbu mavzu tavsifida she‘rlar badiiyati va obrazlilik masalalariga ham e‘tibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: mavzu, ijtimoiy lirika, gʻazallar, lirik qahramon, ilm-maʼrifatga daʼvat, kechinma tavsifi, poetik obrazlar, lirik meros.

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос отражения социальной темы в творчестве Фурката на примере анализа некоторых стихотворений. Описание этой темы также сосредоточено на искусстве и образности поэзии.

Ключевые слова: тема, социальная лирика, стихотворения, лирический герой, призыв к познанию, описание опыта, поэтические образы, лирическое наследие.

Annotation

In this article, the issue of reflecting the social theme in Furkat's work is discussed in the example of the analysis of some poems. The description of this topic also focuses on the art and imagery of poetry.

Keywords: theme, social lyrics, poems, lyrical hero, call to knowledge, description of experience, poetic images, lyrical heritage.

Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat XIX asr oxiri – XX boshlaridagi Qoʻqon maʼrifatchilik adabiyotining namoyondalaridan biridir. Furqatning bizgacha yetib kelgan adabiy va ilmiy merosidan shu narsa maʼlumki, shoir ijodi janrlar hamda mavzu jihatdan rang-barang. Ijodkorning bizgacha etib kelgan devoniga kiritilgan gʻazallar, masnaviylar, muxammaslar, musaddaslar, musabbaʼlar, maktublar, mustazod va munojotlar turfa mavzuda. Ularda ilgari surilgan ilohiy va dunyoviy ishq mavzusi, ijtimoiy hayotdagi turli muammolar, oʻsha davr iqtisodiy va siyosiy muhitining bir qator yutuqlari va kamchiliklari kabilar Furqat lirikasining bugungi kundagi ahamiyatini yaqqol namoyon qilgan.

Furqat XIX asrning uchinchi choragida ijod maydonga kirib keldi va Qoʻqon adabiy muhitida tezda shuhrat qozondi. Uning ustozlari oʻz mahalladoshi shoir Nisbatiy edi. Furqat u orqali koʻplab ijodkorlar, xususan, Muqimiy bilan ham tanishadi, ular oʻrtasida doʻstlik oʻrnatiladi va bu tanishuv ham Furqat ijodida ijtimoiy mavzuning oʻziga xos tarzda shakllanishiga turtki boʻldi.

Shoir ijodining dastlabki davrida uning gʻazallari mumtoz adabiyot namunalariga xos latif lirik lavhalardan aks ettirildi. Unda yor goʻzalligi, uning nafosatli suvrati, dilni maftun etuvchi fusunkor chiroyi oʻz aksini topdi. Furqat ijodiga oʻtgan saloqlarning, xususan, ulugʻ ozar shoiri Fuzuliyning taʼsirida ham boʻlganligi ushbu nazira sheʼridan ham maʼlum:

Surmadin koʻzlar qaro, qoʻllar xinodin lolalarng,

Gʻozadin yuzlarda tobu oʻsmadin qoshlar tarang.

Zaʼfaroniy koʻylak uzra argʻuvoniy kamzihul,

Roʻymol ogʻushidin peshonaning ahvoli tang. [1, 205]

Ammo 1875-1876-yillarda Qoʻqon xonligida yuz bergan algʻov-dalgʻovlar, qonli urushlar, xalq qoʻzgʻolonlari, Fargʻona vodiysining chor Rossiyasi tomonidan mustamlaka mintaqaga aylantirilishi, mamlakatda yuz bergan moddiy va maʼnaviy inqiroz Furqat ijodiga ijtimoiy-siyosiy yoʻnalishni boshlab berdi. Shoirning oʻzi xabar berishicha, bu voqealarni tasvir etuvchi bir tarix kitobi yozgan. Ammo, bu kitob haligacha bizga etib kelmagan.

Furqat ijtimoiy lirikasi turfa kichik mavzularni qamragan. She'rlaridan birida, taxtdan ag'darilgan, Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan surgun etilgan va rus podshosi tayinlagan Qo'qon xoni Xudoyorxon tilidan so'zlanadi. Ushbu muxammasda shoir saroy ahlining xoinlik va manfaatparastlik illatlarini keskin qoralaydi:

*Boshingga tushsa ish bir bosh beray deb lof urganlar,
O'zim birga hama davlatni ham, rohatni ham ko'rganlar,
Shukuhu shavkatimni balki mendan yaxshi surganlar,
Buzib ahdin yomonlig' kunda mendin yuz o'girganlar,
Bugun ul ko'rnamaklar, ahdi yalg'onlar qayon qoldi. [1, 212]*

Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati xalq hayotini yanada og'irlashtirganligini tarixdan ma'lum. Xalqparvar shoirning qalbi el-u yurt boshiga tushgan balolardan: bozordagi qimmatchilik, hunarmand ustalarning ishi yurishmay sinayotganligi, nomunosib kimsalarning yomonlik bilan ish tutib boyib borayotgani, el-u yurt g'amini chekuvchilarning dil ko'zgidagi dog'larni alam bilan tasvirlab yozadi:

*Ne jurm o'tdiki, bizdan bunchalik Farg'ona tang bo'ldi,
Yana boziri yo'qdin xalqimiz necha garang bo'ldi,
Ketib dastmoya qo'ldin ustakor ahli sarang bo'ldi,
Necha parvosi yo'qlar bazmida qonun-u chang bo'ldi,
Aningchun yaxshilarning dillarini ko'zgusi zang bo'ldi. [1, 221]*

Furqat hayotida Toshkentda yashagan davri alohida ahamiyatga ega. Furqat o'z xalqining zamonaviy turmush tarziga erishmog'ini tilar edi. Buning uchun ilm-ma'rifat egasi bo'lmoq kerakligini yaxshi bilgan shoir Toshkentda chiqadigan "Turkiston viloyatining gazetisi" bosh muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishib, Turkiston o'lkasi va unga yaqin hududlar hayotidagi yangiliklardan, shuningdek, chet o'lkalarda olib borilayotgan ta'lim islohotlaridan boxabar bo'lib turadi. Shuning ta'sirida ilm-ma'rifat olishga chaqiruvchi she'rlar ham yarata boshlaydi:

*Jahon bastu kushodi ilm birla,
Nadur dilning murodi ish birla.
Ko'ngullarning sururi ilmdandur,
Ko'rar ko'zlarini nuri ilmdandur... [1, 225]*

Furqat yana bir muxammasini hasbi hol tarzida yozsa-da, unda davr muammolari, xususan, xatarli zamonaga yarasha insonlarning mehr-muruvvatsiz va manfaatparast ekanligi yana bir bor eslatiladi:

*Birodarlar, mani boshimg'a tushdi bu nechuk savdo?
Qarorim yo'q, quyun yanglig' na manda manzilu, ma'vo,
Biyoboni tahayyurda qolib man volayu tanho,
Na yoru hamdamim bordur, na qo'lda hosili dunyo,
Zamona purxatar, dushman adadsiz, do'st beparvo. [1, 227]*

Ushbu satrlarda lirik qahramonning boshiga tushgan savdolar tufayli uning beqarorligi, quyun kabi na bir manzil, na bir ma'vosi yo'qligi aytilmoqda. Bu uning Vatandan ayrilish jarayoni tavsifi ham bo'lishi mumkin. Uchinchi misradagi "biyoboni tahayyur" (sarosima sahrosi, taajjub biyoboni) so'zida o'sha davr talotumlariga hayrat ma'nosi nazarda tutilgan deb qaralsa, keyingi satrlardagi

ma'noni to'liq anglash mumkin. Lirik qahramonning bu notinch yurt va zamonda hamdami ham, mol-davlati ham yo'qligi, bil'aks, dushmanning adadsiz, zamonning xatarli va do'st-birodarlarning beparvoligi aytiladi. Furqat yashagan davridagi Turkiston avholotini anglash mushkul emas. Shoir she'riyatida xalq dardini chuqur anglash, unga davo istab yozilgan misralar ko'plab topiladi.

*Ko'paydi ilm ila hikmat jahonda,
Ko'rung o'tgan zamondin bu zamonda.*

*Sikandarkim jahong'a shoh erdi,
Sipah anjum, falak xirgoh erdi. [1, 229]*

Furqat bu masnaviyda talmeh badiiy san'atini ishlatib, Qur'oni Karimda nomi zikr etilgan podshoh Iskandar Zulqarnaynni keltiradi. Bu bilan u podshoh misolida hozirgi davr kishilarini ilm-ma'rifatga chorlaydi. Chunki Iskandar dunyoni harbiy kuchdan ham avval ilm va hikmat bilan zabt etgan edi, turli sehrarlar jodusini ham ilm bilan fosh etgandi, ya'juj va ma'juj balosini ulkan devor qurish yo'li bilan daf qilishga muvaffaq bo'lgan edi. Ilm tufayli Iskandarning hikmati ham oshib borib, dunyodagi jamiki sirlardan voqif bo'lgan.

“Ilm talab qilish – har bir musulmon uchun farz”. Bu haqida Qur'oni karim va Hadisi sharifda ham ilohiy amrlar bilan buyurilganligi sir emas. Furqat ana shunday dolzarb ijtimoiy mavzuni she'rlariga olib kirib, yuksak badiiyat bilan taqdim etgan, xalq dardini kuylab, Vatanining ilm-u urfon tufayli qudratli yurt bo'lishini istagan ijodkorlardan biri edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Furqat she'riyatidan. (Tuzuvchi – Xolid Rasul). – T.: O'zbekiston, 1980.
2. Furqat. Muhabbat yo'lida. – T., Yangi asr avlodi. 2009. -304 b.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: Sharq, 2004.

MAVLONO MUQIMIY AN'ANALARINING XX ASR ADABIYOTIDA DAVOM ETTIRILISHI

**Gulchehra QO'YLIYEVA,
GulDU dotsenti,
f.f.b.f.d. (PhD)
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

O'zbek xalq og'zaki ijodida qorxat yozish an'anasini Muqimiy she'rga solgan. Undan ilhomlangan keyingi uch-to'rt avlod shoirlari ham bu she'r usulini o'zlashtirib, go'zal san'at namunalarini yozib qoldirdilar.

Kalit so'zlar: qorxat, an'ana, xalq og'zaki ijodi, mumtoz, lirika, she'riyat, hajviyot.

Аннотация

В узбекском фольклоре Мукими продолжил традицию написания снежных писем. Вдохновленные им, поэты следующих трех или четырех поколений также приняли этот стиль поэзии и написали прекрасные произведения искусства.

Ключевые слова: снежные письма, традиция, устное народное творчество, классика, лирика, стихотворение, сатира.

Annotation

In the Uzbek folklore, Muqimi put the tradition of writing “qorxat” into poetry. Inspired by him, poets of the next three or four generations also adopted this style of poetry and wrote beautiful works of art.

Key words: qorxat, tradition, folklore, classics, lyrics, poetry, comedy.

“Asarlari xalq o‘rtasida keng va chuqur tomir otganligi xususida o‘zbek klassik adabiyotida ulug‘ Alisher Navoiydan so‘ng Muqimiy turadi...Uzoq muddat Turkistonda xizmat qilgan Nikolay Ostroumovdan boy fond qolgan...qisman o‘zbek adabiyoti, ...shu jumladan, Muqimiy asalaridan ba‘zilarini matbuotda nashr etgan”. [1, 168]

Uzoq tarix sahifalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘lkamizdagi xonlik va amirliklar davri adabiy muhiti hozirgi o‘zbek adabiyotining rivoj topishida o‘z ta‘sirini o‘tkazish bilan birga taraqqiyot cho‘qqisiga olib chiqishiga hissa qo‘shgan. Ayniqsa, Qo‘qon adabiy muhitida yashab ijod etgan bir qator ko‘zga ko‘ringan ilg‘or vakillari Umaxon, Gulxaniy, Furqat, Zavqiylar bilan bir qatorda Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy faoliyati alohida maktab sifatida e‘tiborlidir. Uning goh jo‘shqin goh mahzun lirikasi chuqur hayotiylik bulog‘i bilan sug‘orilganligi, insonning real muhabbati, ichki kechinmalarini, sevinch va alamini, orzu-armonlarini jo‘shib kuylaganligi bilan ajralib turadi. U mumtoz shoirgina bo‘lib qolmay, satira va yumor mavzularida ham qalam tebratib, ijtimoiy hayotning og‘riqli nuqtalarini tanqid ostiga oladi. Shuningdek, insoniy do‘stlikni, sadoqatni, samimiyatni, vafoni, sabru bardoshni ulug‘ladi. Tushkun kayfiyat, umidsizlik uning ruhini sindirolmadi, kelajakdan umid uzmadi, oldinda yaxshi kunlar kelishiga ishonadi. Sermahsul ijodida sevgi va muhabbat bosh mavzu bo‘lib jarangladi:

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada.

Zohid istar Ka‘balarda, barhaman butxona. [2, 9]

Bu o‘tli satrlar she‘riyatga ixlosmand xalq ichida yonib turgan oshiq yuraklarning o‘tashini so‘ndiruvchi malham sifatida gimnga aylanib ulgurdi.

Oshnosidin kechib, begonalgarga yor yor,

Bu alamlarga chidolmay, ko‘zda yoshim shashqator,

Hech dushman bo‘lmasun ko‘yida mendek xor-u zor,

Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,

Lahzaye yo‘q kechalar ko‘zlarda xobim kim desun? [2, 115]

Avvalo, Muqimiy ijodi rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Uning lirik ga‘zallaridagi vafo timsoli Oshiq, bevafolik timsoli Ma‘shuqadan zorlanish, unga yetolmaslik, uning kuyida devonaga aylanish, “maskani mayxona”lardan joy egallash, g‘amga dosh berish va yana qayta-qayta umidvorlik hissi kitobxonni oshiq kuyiga tushiradi, uning chor-nochor ahvolidan kuyuntiradi, qalblarini larzaga soladi. Bu xalqona ohang, jozibali misralar insonni o‘ziga sehrlab, beixtiyor, qo‘shiq bo‘lib quyilib keladi:

O‘rtoqlaring, oshnolaring, ulfatlaring,

Shum raqiblar yo'l ko'rsatib, begonaman.

Ma'shuqa vaslidan umidorlik, begona raqiblarga rashk, ma'shuqaning beparvoligi uni jonidan to'ydirib, dunyoni ko'ziga qorong'i qiladi, nola chekkan oshiq o'z dardiga davo izlaydi, chora topishga harakat qiladi. Muhabbat mavzusi shoir ijodida o'zgacha betakrorligi bilan ajralib, ko'ngillarga yaqin turishi shundan bo'lsa ajab emas. Shoir asarlari ichida hajviy, yumor she'rlar bilan birga o'ynoqi misralardan iborat mashxur "Sayohatnoma"si, she'riy va nasriy maktublari va masnaviylari qatorida xalqona usulda yozilgan "Qorxat" she'ri bor:

*Qor yog'di ba amri xoliqi hay,
Soqiyo, tut qadahni pay-darpay.*

*Qor xat xalq ichida rasmi qadim,
Bilki, xotir pisandi shohu nadim.*

*Bo'lsa sizga bu ro'q'amiz manzur,
Bazm tarhin `uring bilo ma`zur.*

*Bazmi shohonalar qiling ijod,
Qilmagan bo'lsalar biyik Bekzod.*

*Ikki yorni taraddidida bo'ling,
Daf'atan katta doshqozonni quring.*

*Aylayub bor oshnoga xabar,
O'tquzing hammasin qilib par-par.*

*G'ijjaku, changgu, nay, navozanda,
Topturing jo'ra-jo'ra sozanda.*

*Dunbalik bosh kesing semiz qo'yni,
Yasating bir alohida uyni.*

*Hofiz ovozidin maloyikalar,
Osmonda qulog'i bo'lsun kar.*

*Oqil odamga bir ishorat bas,
Kiyduring shol, beqasam, adras.*

*Bu sifat qil ziyofat ayshu tarab,
Bot bo'lg'ilu emdi turma qarab.*

*Tashladi xat Muqim xasta nihon,
Topg'il-u ushlag'il haloling bod! [2, 155-156]*

Qadimiy millatimizning an'alaridan hisoblangan qorxat yozish odati azal-azaldan borligini ma'lum. Ilgarigi paytlarda hozirgidek televideniye, radio va

telefonlar yoʻqligini bunga sabab qiladigan boʻlsak, bu ham bir yaxshi anʼana tusini olganini tushunsak boʻladi. Xonadonga yigʻilganlar yuzma-yuz oʻtirishib, yaqindan suhbat qurishgan. Guppilatib oppoq qor yogʻib turgan uzun qish kechalari zerikmaslik uchun, „...Qorxat xalq ichida rasmi qadim“ deya taʼkidlanganidek, xat joʻnatayotgan tomon qorxatning ziyofat shartlarini bir-bir sanab, yana kimlar qatnashishini, dasturxonga qanday tansiq taomlar qoʻyilishigacha, qoʻshiqchi va navozandalargacha kimlar qatnashishini bildiradi. Eng qiziq tomoni shuki, „...Tashladi xat Muqim xasta nihon, Topgʻilu ushlagʻil haloling bod!“ deyilganidek, agar xatni olib borgan tomon ustalik bilan berib, sezdirmasdan, tutqich bermay qochib qolsa marra uniki, aks holda, qorxat keltirilganini bilib qolgan tomon xat egasini mahkam ushlab olib, xatni qaytarib betib yuborishi va xatdagi barcha shartlar oʻzining zimmasiga tushishini ham yaxshi biladi. Bunday anʼanani davom ettirish, qorxatlar yozib, davralarni qizdirish, sheʼrxonlik, gʻazalxonlik, kuyga kuy ulangan kechalar tong otguncha davom etgan. Hozirgi til bilan aytganda, maʼnaviyat kechasi oʻrnini bosgan, kuy-qoʻshiqqa, sheʼrxonlikka va sanʼatga boʻlgan muhabbatini va ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan ekan.

Akademik shoir Gʻafur Gʻulom shoir S.Abdulla bilan birgalikda chiroyli qorxat bitib joʻnatishadi. Bu voqea Ushbu she'r 1945-yil 16-noyabrda roʻzi juma kuni yuborilgan:

*Qoʻliyizda yiltirab turgan bu – X, ukam,
Qoʻlga tushdingiz belni bogʻlaysiz mahkam. ...*

*Issiq uyda siz mulozim, biz tarallo qilgʻumiz
Miyani qoʻlga qoqib berguncha yallo qilgʻumiz. ...*

*Kim kelur desangiz saqlabon eski udum,
Men boʻlurman, mavlavi Shayx, mulla Uygʻuni farum.*

She'r oxirida shoir oʻzining javobgar boʻlish ehtimolini ham taʼkidlab ketgan. Shoir asarlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat qilgan. Mashhur “Shum bola” asarida ham Omon tilidan Xoji boboga zaruratini ayta olmagan Shum bola istaklarini qorxat orqali izhor qiladi:

“Kechasi birinchi shirava qor yogʻib chiqdi. Juda sovqotib javrab chiqdim. Azonlab turib, yettinchi lampaning yorugʻida Hoji bobodan telpak bilan guppi soʻrab, “Kuznesov” choydan boʻshagan, Hoji bobo xufiya taryokilarga afyun oʻrab beradigan qogʻozning orqasiga ushbu qorxatni yozdim:

*“Qorxat bu turur Qorni yogʻdirgan Xudoyimning oʻzi,
Xat borib tegsin, kiyim-boshning soʻzi.
Hoji bobo, bilasiz, egnimda yoʻq,
Oʻz pulimga olgali qoʻynimda yoʻq.
Guppisizlik, qoʻl-oyogʻim boʻldi lang,*

*Piltasiz doʻppi kiyibman, bosh yalang.
Xizmatimgizdan mudom ayrilmadim,
Buyrugʻingizdan qiyo qayrilmadim.*

*Tong sahardan kechgacha izg'iyman,
Xuddi cho'ltoq bir shipirg'i – to'zg'iyman.*

*Jon bobo, rahm aylangiz ahvolima,
Qolmangiz o'lsam qotib, uvolima.
Bir ilojini qiling, Hoji bobo,
Yetti marta haj ato qilsin Xudo,
– deb yozdim, yetim shogirdingiz”.*

Hoji bobo uyidan takyaga chiqqanda xatni unga berdim. – Buning nimasi, bolam? – Bilmadim, bir kishi berib ketdi... – Buni o'qib bering-chi, mulla usta Mirsalim, do'stimdan ekan.... Mulla usta Mirsalim xatni olib o'qiy boshladi: “Qorxat bu turur” – Hi, shunaqa, – dedi Hoji bobo ko'zi qinidan chiqib ketgunday bo'lib, – hoy, haromi, buni senga kim berdi, shartta ushlamaysanmi, eshakka teskari mindirib, yuziga qora surtib Chorsu aylantirmaymizmi? Iya, muni qarang-a, keksaygan holimda menga hazilkashlik qilib ziyofat yutguvchi kim bo'ldi ekan? ...“Yetti marta haj ato qilsin Xudo”ni eshitganda ko'ziga yosh oldi. “Yetim shogirdingiz” degan imzoga kelganda iyib ketdi. – Buni sen yozdingmi, bachchag'ar, tab'i nazming ham bor ekan-ku, to'xta, ey, jigarimni ezib yubordin...Menga chorakam bir gazcha uzun kelgani uchun etagidan qirqib tashladim. Oyog'imda oporka, boshimda “namozlik” qalpoq, egnimda ustidan qayish bilan bog'langan keng hindcha to'n – abo, oshqovoq polizning go'ngqarg'a tegishidan qo'rqib o'tkazilgan qo'riqchisi kabi ahli takya xizmatini astoydil qila boshladim... ”.

Asardagi Shum bola obrazining sho'x bola tilidan chiroyli nazmda, xazil so'zlar, maqtovlar bilan qorxat bitishi ziqna Hojiboboni ham eritib yuborgani, ayniqsa, “Yetti marta haj ato qilsin Xudo” deya tilak bildirishi Hoji boboday qattiqqo'l kishi ko'nglini yumshatib, ko'ziga yosh keltirishgacha borishi va so'ralgan barcha narsalarni undirishi “ta'bi nazm” inson dilning tub-tubigacha yo'l topib borishi mumkinligini mahorat bilan ko'rsata olgan.

60-70-yillar o'zbek she'riyatining gultojlari hisoblangan Erkin Vohidov, Ablulla Oripov, Pauf Parfi kabi mashxur shoirlari ham ular bilan yonma-yon she'riyat chamaninini sara she'rlari bilan atir-iforga to'ldirayotgan E'tibor Ohunova, Oydin Hojiyeva, Gulchehra Nurullayeva, Gulchehra Jo'rayeva, Nilufar, Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlariga qorxat bitishib, ularni beg'ubor ko'ngil misoli birinchi qor bilan qutlab, shartlarni sanab, xat topshirishni eplolmay qolgan taqdirda unda sanalgan barcha shartlarni o'zlari bajarishlarini yozishgan.

Chiroyli she'riy yo'nalishni boshlab bergan mavlono Muqimiy bo'lgan bo'lsa, uning ortida esa qo'shiq va she'rga oshno qalbli necha-necha shogirdlari bu o'lmas an'anani davom ettirib kelmoqdalar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Muqimiy. II tomlik asarlar to'plami, II tom. –T.: O'zSSRDBAN, 1960.
2. Muqimiy. Furqat “Ey chehrasi tobonim” .– T.: O'zbekiston, 2010.

EPIK OBRAZ VA RAMZ MUSHTARAKLIGI (Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Uchrashuv” romani misolida)

Nodira XOLIKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
doktoranti, f.f.n.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Hamzaning yurtni ilm-ma’rifatli qilishga qaratilgan, o‘zbek adabiyotida roman yozishga ilk urinish hisoblangan “Uchrashuv” asari tahlil qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: realizm tendensiyalari, roman, drama, dunyoqarashi, ma’naviy-ruhiy olami, obraz, qahramon.

Аннотация

В данной статье анализируется «Встреча» Хамзы, первая в узбекской литературе попытка написать роман, направленный на просвещение страны.

Ключевые слова и фразы: направления реализма, роман, драма, мировоззрение, духовный мир, образ, герой.

Annotation

This article analyzes Hamza's "Meeting", the first attempt to write a novel in Uzbek literature, aimed at enlightening the country.

Keywords and phrases: realism trends, novel, drama, worldview, spiritual world, image, hero.

XX asr yangi o‘zbek adabiyoti shakllanishi Yevropadan realizm tendensiyalari, roman, drama singari yangi janrlarning kirib kelishi bilan chambarchas bog‘liq. Ayni shu zamonda xalqimiz ilm-u ma’rifatli, millatparvar, fidoyi yoshlarga har doimgidan ham ko‘ra ko‘proq ehtiyoj sezayotgan edi. Bu davrda Turkiston zaminida jadid ziyolilari etishib chiqdi. Bular orasida Qo‘qon adabiy muhiti vakillaridan ta’sirlangan, ilk saboqlarini olgan Hamza Hakimzoda Niyoziy nomini keltirish adolatli bo‘lar edi. Uning kuyunchaklik bilan aytgan mana bu so‘zlari ahamiyatli: “Har bir boylik va taraqqiy ilm va ma’rifatning soyasindadur. Ko‘rasizmi, boshqa millatlardagi xalq ilm uchun yoshgina o‘g‘ul va qizlarni Ovro‘podan Amriqoga, Osiyodan Ovro‘pog‘a, demak, to‘rt-besh yil musofur qilib yuboralar. Loaqal siz ko‘z oldingizda bo‘lgan tuzemnicheskiy maktablarina bering! Shoyad kelajakdagi og‘irliklardan sizning tarbiyangiz soyasinda salomat qutqorulsun”, degoningda lablarni burub, ajablar qilurlar...”, - deb yozadi Hamza” [1, 38].

Ilmni targ‘ib qilib, jaholatni qoralasa-da, afsuski, o‘zi ham jaholat qurboni bo‘lgan Hamza davr, siyosat, mafkura tazyiqiga uchragan edi. Prof. Nurboy Jabborov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “...sho‘rolarning qatag‘on qilichi millatning ne-ne zakiy farzandlari joniga xatar solgan murakkab va ziddiyatli davrlarda Hamza ijodida murosaga moyillik, komfirqa mafkurasi ta’siriga yon berish tendensiyasi sezilib turadi. Biroq u jisman va ruhan millatparvar jadidlar safida turgani, ona-Vatanini dunyoning rivojlangan davlatlari, jondan aziz millatini jahonning mutaraqiy xalqlari qatorida ko‘rish orzusida yashagani ham haq rost” [2, 117].

Hamza o‘z ijodi bilan yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan va jadidchilik g‘oyalarini ilgari surishda jonbozlik ko‘rsatgan millatparvar adiblardan biri bo‘lib, ilk milliy romanchiligimizga tamal toshi qo‘yganlardan edi. U roman janriga qo‘l urarkan, uni “Uchrashuv” deya nomladi. Roman atigi 15 betdan iborat nasriy asar. Bu asar bizgacha to‘liq etib kelmagan. Hamza ilk romanini “Uchrashuv” deb nomlashida muayyan ramziy talqin bor. 16 yoshga kirgan yosh, beg‘ubor, ma’suma qiz Shirin avval Abror, so‘ngra Yusuf bilan ilk bor uchrashganida ikkita yigitning ikki xil tabiati, dunyoqarashi, ma’naviy-ruhiy olamiga duch keladi. Bu uchlikning hissiy kechinmalari, o‘ylari va o‘zaro suhbatlariga e’tibor qaratsak, shu narsa oydinlashadiki, Yusuf chinakam sevgi sohibi, Abror haqida esa bunday deb bo‘lmaydi. Bu ikkala yigitni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy farq shundaki, Yusuf xat-savodi chiqqan yigit, u Shiringa o‘z muhabbatini maktub orqali ifoda qiladi. Abror esa, aksincha, o‘qimagan, savodi chiqmagan yigit. Uning rafiqasi va Jamila ismli qizi bor. Yusuf timsolida gavalangan ilm-u fasohat, axloq va odob, nozik iltifot va sevgi izhorlari Shirinni o‘ziga rom etmay qo‘ymaydi. Abror qiyofasida esa 19 asr oxiri–20 asr boshlaridagi asosiy omma, xususan, o‘qimagan yosh yigit va qizlar timsolini ko‘ramiz. Uning tabiatida nafs degan baloyi azim hukmron. U sevgini jismoniy xohish-istakni qondirishda, deb tushunadi. O‘zining sadoqatli, mehribon rafiqasini o‘ldirib, Shiringa egalik qilish xayoliga borgan bu yigitning jaholat botqog‘iga botganiga hech shubha qolmaydi. Bu asardan o‘rin olgan Saidxon, Haydarboy degan obrazlardan biri Yusufning, ikkinchisi Abrorning tipiga mansub insonlar toifasidir.

Yusuf: “Kitoblarin bir tosh ustina qo‘yub bog‘chaning har bir manzaralik erlarin aylana, qushlarning munqlarına quloq solub, bir oz to‘xtiy. Yana haligi gullarning yonina kela, uzasi kelsa, qo‘lin uzotub ohista ushliy, burnin oborub iskar. Yetib ochilmaganga hali toza ochilmagan bu g‘unchani uzuvdan na foyda, ko‘z bo‘lsa ko‘rub tura, deb qizg‘ona-da, uzmay qo‘yub yubora”. Yusufga berilgan bu ta’rif uning nechog‘li nozikta‘b, hatto gulga ham ozor bermaydigan olijanob, xushfe‘l va ilmu fasohatli yigit ekanini namoyon qiladi. Yusuf juda kamtarin, yuvosh, qalbi biroz o‘ksik yigit edi. U singlisi Halimaxonum bilan o‘gay ona qo‘lida katta bo‘ladi. Otasi tirik bo‘lsa-da, o‘gay ona oldida aka-singil o‘zlarini juda ko‘p narsadan cheklashga majbur edi.

Abror esa “Hamon o‘zining shiringina rafiqasi bo‘la turub, fasod xayollarda” yuradi. Uning uchun oila, farzandi, rafiqasining hech qancha qadri yo‘q. Abror tabiati uchun engiltaklik xosdir. Shirin ko‘chada hech kim bo‘lmagani uchun yuzini ochib, chimmatini ko‘tarib ketayotganda oldidan Abror chiqib, unga “Jonim Shirin, men sizni suyam” deyishi, Shirinni quchoqlab, majburlab yuzidan o‘pib olishi Abror shaxsining o‘z nafsoniyati yo‘lida hech narsadan tap tortmasligidan, uning aql emas, his-tuyg‘u, hirs va nafsga quloq tutib ish ko‘rishidan nishonadir. Shirin ham endigina 16 yoshga to‘lgan qiz bo‘lgani bois bunday vaziyatdan juda hayajonlanib, yuragida bir tuyg‘u uyg‘ongandek bo‘ladi.

Daraxtga suyanib, xayol surib qolgan Yusufni ko‘rib qolgan Shirin atrofida sochilib yotgan maktublardan birini o‘qiydi. Yusufning maktubida shunday so‘zlar bor edi: “...Agar bu asiringni armon ila o‘lub ketmasin desang, yuzingni ko‘rsatmasang ham, bir parcha qog‘ozga hech so‘z o‘lmasa-da, qora surtibgina

yuborsang, zero ko‘zlarimga surtib o‘lsam, go‘rimda tinch yotar edim. Bechora g‘aribing Yusuf”. Bu so‘zlarni o‘qigan Shirinning qalbiga o‘zgacha tuyg‘ular o‘rnashadi.

O‘z o‘rnida Yusuf esa, kutilmaganda oldida paydo bo‘lgan Shirinni ko‘rib o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Chunki, bir-ikki daqiqa oldin Shirinni na ko‘rish, na u bilan gaplashish, na unga etishish uning uchun faqatgina orzu bo‘lishi mumkinligini o‘ylab turgan yigitga bunday tasodifiy uchrashuv kuchli zarba kabi ta‘sir qiladi. Yusuf es-hushidan ayrilgudek bo‘ladi. Chunki u judayam nozikqalb va ta‘sirchan yigit bo‘ladi. U Shiringa shunchalar oshiq bo‘ladiki, kechayu kunduz uni o‘ylab ranglari butkul sarg‘ayib, hastalangan holga keladi.

Abror esa Shirinning “siz ani (rafiqangizni) bir taraf qiling-da, so‘ngra menga so‘z qotushturung” deb aytgan so‘zlaridan umidlanib, xotini Solihaga “Seni menga avvaldan-da keraging yo‘q edi, hozirda ham shundog‘, men sendan ajralsam, hech o‘kunmayman, balki shodlanaman. Shul kunni hamisha kutarman!” – der edi. Soliha esa “Jonim Abror, men senga umrlik ipdosh, sirdoshmen. Men seni sendan ortuq suyam. Suyuvchiga suyukluni qottiq so‘zi o‘tmidir. Balki shakar kabi totlandurur. Sen bo‘sh xayol qilma. Men hech vaqt sendan ajralmam. Mayli, seni mendan boshqa suyukluving bo‘lsa, men oni bir-da qizg‘onmiyman. Xohlasang keltur. Men xizmatdan-da qo‘l tortmiymen” – der edi. Lekin bu so‘zlar johil Abrorning qalbini tinchlantirmasdi va uning xayoliga Solihaning joniga suiqasd qilish ham kelgan edi.

Tun-u kun Shirinni ko‘rish ishtiyoqida tomda, ko‘chada poylab yurgan Abror o‘ziga-o‘zi: “Hoy. Badbaxt Abror, yoshlikda otang o‘qutgan vaqtda o‘qimay, yo‘q bahonalarni qilub qochding, bir harf-da bilolmay qoldung! Mana bugun o‘quv-yozuv qadri bilindi. Agar xat bilsang edi, mundog‘ sargardon bo‘lub yurmay, bir xat yozar eding. Andin shirin-shirin javob chiqar edi, o‘qub rohatlar qilur eding. Iloji bo‘lsa, biror domla topub, hozirdan-da o‘qish kerak, na uchun, boshqa odamga xat yozdursang, bu ish oshkora bo‘ladi. Undan ko‘ra bir g‘ayrat qilub o‘qish kerak”, der edi. Lekin u xat-savodini chiqaraman deguncha Shiringa kimlardir egalik qilib olishi mumkin edi, shu bois vaqtdan yutqizmaslik uchun Abror madrasadagi mullabachchalardan birorta musofir qashshoqini topib, yurakdagi bor muddaosini yozdirib, Shiringa yubormoqchi bo‘ladi.

Bu yerda yozuvchi, avvalo, ikki yigit timsolida ilm-u ma‘rifat foydasi va jaholatning zarari haqidagi g‘oyani ilgari suradi. An‘anaviy mumtoz adabiyotda sevishganlar har doim nomalar yozib, dil izhorlarini xatlar orqali bildirishgan. Abror yozish ilmidan bexabarligi, savodsizligi sababli sevgan qiziga maktubni birovning qo‘li bilan yozdirmoqchi bo‘ladi. Yusuf esa sevgi izhori bitilgan shunday go‘zal maktub yozadiki, Shirin uning so‘zlarini o‘qigach, beixtiyor ko‘ngli erib, Yusufga oshiqqa boshlaydi.

Asarda, shuningdek, Yusufning oila a‘zolari ham keltiriladi. Otasi Aburahmon, singlisi Halimaxonum, onasi Salima va o‘gay onasi Sora, Yusufning birodari Saidxon, Halimaxonumga qo‘pollik ko‘rsatgan kishi Haydarboy kabi obrazlar. Ular haqida keng tasavvurga ega bo‘lish imkoni mavjud emas. Chunki asarning oxirgi ikki betidagina ularning nomlari keltiriladi.

Bu asarda Yusuf, Shirin kabi tarixiy-badiiy shaxslarning nomi kelishi bejiz emas. Yusuf go‘zallik ramzi, u diniy-tariiy shaxs. “Qur’oni Karim” nozil bo‘lishi bilan Yusuf obrazi musulmon xalqlari orasida, xalq og‘zaki ijodida va adabiyotida bir necha talqinlarda ishlanib, sayqallanib bordi. IX asrdan boshlab Sharqda 150 dan ortiq “Yusuf va Zulayxo” doston va qissalari vujudga kelgani ma’lum. Faqat turkiy adabiyotda “Yusuf va Zulayxo” haqida 50 ga yaqin asar yaratilgan. Jumladan, Qul Ali, Nosiriddin Rabg‘uziy, Durbek, Haydar Xorazmiy, Mulla Yusuf Yorkandiy, Nozim Hiraviy, Sayqaliy, Xiromiy, Salohiy, Andalib, Hozziq kabi ijodkorlar qissa va dostonlar bitganlar” [3] (Nafas Shodmonov. “Ilohiynoma”da Yusuf obrazi).

Shirin obrazi esa Nizomiy “Xamsa”sidan ham ilgari yozma va og‘zaki adabiyotda uchraydigan tarixiy shaxs. Asarlarda Shirin obraziga munosabat har xil. Ayrim asarlarda Shiringa biroz tanqidiy, salbiy munosabatni ham uchratamiz. Lekin Alisher Navoiy ijodiga kelganda Shirinning sadoqatli, ilmu ma’rifatli va oqila qiz timsolida tasvirlanganining guvohi bo‘lamiz. Bu obrazlar bosh qahramon qilib olinishida muayyan ramziy belgi bor. Yusuf ham, Shirin ham xalqimizga necha asrlardan beri tanish bo‘lgan qahramonlar. Ularning nomlari zamonaviy qahramonlarda kelsa-da, ma’naviy-ruhiy olami asl sohiblariga muvofiqdir. Asardagi Yusuf obrazi ham go‘zal axloqli va ilmli shaxs.

Shirin timsolida o‘rta asrlar Sharq ayoliga xos bo‘lgan barcha go‘zal fazilatlar mujassam. U xalq dardi bilan, insonlarning g‘ami bilan yashaydi. Navoiy Shirini ammasi Mehinbonu bilan hammaslak bo‘lgan, tog‘dan suv yo‘li qazish ishlariga boshchilik qilgan fidoyi qiz. Undagi tengsiz go‘zallikka yanada chiroy qo‘shgan xalqparvarlik, fidoyilik fazilatlarini Sharq xotin-qizlarining so‘nmas shijoati, mardligi va vatanparvarligidan dalolatdir.

Ijodkor barcha yoshlarga Yusufni va Shirinni ibrat qilib ko‘rsatishni istaydi. Uning birdan-bir yagona istagi xalqning ko‘zini ochish edi. “Millatni ma’rifatli ko‘rish Hamzaning deyarli barcha asarlaridagi asosiy fikr hisoblanadi. Ilmsizlik tufayli qoloqlik botqog‘iga botgan Turkistonga, ona Vataniga shoir dard bilan murojaat qiladi:

Turgil, darddan jismingni sog‘la, Turkiston,
Donish o‘tiga bag‘ring dog‘la, Turkiston” [4, 27].

“Uchrashuv”da ijodkor yoshlarning, xalqning, millatning ilmu ziyo, ma’rifat bilan uchrashuvini nazarda tutgani ehtimoldan holi emas.

Asar hajman kichik bo‘lsa-da, u orqali ilm-ma’rifat targ‘ibi, pok muhabbat, sevgida vafo, oilaga sadoqat, erlik va ayollik burchi, farzand tarbiyasida onaning muhim o‘rin egallashi, qolaversa, yoshlarning hoy-u havaslarga, his-tuyg‘ularga berilgan “uchrashuv”lari umri juda qisqa bo‘lishi, nafsini, hirsini tiygan va oxirini o‘ylab qilingan munosabatlar kelajakda kutilgan samarani berishi haqidagi fikr anglashiladi. Yozuvchi o‘z asarini “Uchrashuv” deb nomlashi aynan yuqoridagi uchta qahramonning uchrashuvi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan yoshlarning ilmu ma’rifat bilan uchrashuvi nazarda tutilgan ehtimoldan holi emas. Ikki xil dunyoqarash, ikki xil tabiat, ikki xil maqsad va niyatlarga ega qahramonlarning keyingi hayoti asar davomida ularning xatti-harakatlariga muvofiq ravishda kechgan bo‘lishi tayin. Asar bizgacha to‘liq holda yetib kelganda

undan yanada yorqinroq badiiy-estetik zavq olish, qahramonlarning kelgusi taqdiri bilan tanishish va ijodkor konsepsiyasini batafsil anglash imkoni bo'lar edi. Bizgacha etib kelgan sahifalardan anglashiladigan g'oya – ilmning foydasi va jaholatning fojiasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Hamza Hakimzoda Niyoziyning XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati // Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti. Maqolalar to'plami. Nashrga tayyorlovchi Zebo Qobilova. – Farg'ona, 2019.
2. Jabborov N. Hamza va jadidchilik // Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti. Maqolalar to'plami. Nashrga tayyorlovchi Zebo Qobilova. – Farg'ona, 2019.
3. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/nafas-shodmonov-ilohiynoma-daiyusuf-obrazi/>
4. Qosimov B. Otashin ma'rifatparvar // Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti. Maqolalar to'plami. Nashrga tayyorlovchi Zebo Qobilova. – Farg'ona, 2019.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY – IJODKOR VA MAHORATLI O'ZBEK PEDAGOGI

**Sanobar ROMANOVA,
Ajiniyoz nomidagi NDPI**

**Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi, p.f.n.
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning har tomonlama ijodkorlik qobiliyati va ma'rifatparvar olim, dramaturg, shoir va yozuvchi, shu bilan bir qatorda jadidlik faoliyati yuzasidan amalga oshirgan amaliy ishlariga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: Hamza, Muallim, dirijyor, paranji, turkiston, kompozitor, rejissyor, jurnalist, pedagog, o'zbek she'riyati, dramaturgiya.

Annotatsiya:

V state rech idet o vsestoronnem tvorchestve Xamzy Xakimzoda Niyazi i o tom, chto on yavlyaetsya sovremennym prosveщенным uchitelem, a takje intellektualным deyatelem.

Klyuchevye slova: Xamza, uchitel, dirijer, parandji, Turkestan, kompozitor, rejisser, jurnalist, pedagog, uzbekskaya poeziya, dramaturgiya.

Annotation:

The article deals with the comprehensive work of Khamza Hakimzoda Niyazi and the fact that he is a modern enlightened teacher, as well as an intellectual figure.

Key words: Khamza, teacher, conductor, veil, Turkestan, composer, director, journalist, teacher, Uzbek poetry, dramaturgy.

Hamza Hakimzoda Niyoziy XX asr o'zbek adabiyotiga tamal toshini qo'ygan shoir, dramaturg, dirijyor, muallim va ma'rifatparvar [1, 5].

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek madaniyatining eng yirik namoyandalaridan, faol ma'rifatparvar shoir, o'qituvchi, jamoat arbobi bo'lib, uning she'riyati, qo'shiqlari, pyesalari hayotdagi bo'lgan bor voqealardan olgan. O'sha davrning og'ir kunlari, boy va kambag'al turmushi, mulla eshonman deya niqob ostida yurgan g'alamislarga ko'z yuma olmagan va haqiqatni o'z asarlarida oshkor qilgan Hamza o'sha zamon qurboni bo'lganligini XX asr ta'limda o'rganganmiz.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotini qaror topdirish, drama, komediya, tragediya yaratish bobida va teatr san'atini rivojlantirishda ulkan izlanishlar va kashfiyotlar qilgan san'atkordir. Hamza kompozitor, rejissor, jurnalist, pedagog va darsliklar muallifi sifatida ham keng ma'lumdir. Bugungi kun so'zi bilan aytganda, universal, intellektual inson bo'lgan va o'sha davr oddiy xalq uni tushunmagan.

Uning O'zbekiston bo'ylab ma'rifat ulashib o'zbek dramaturgiyasiga katta hissa qo'shib, yetim bolalarga Mehribonlik uyini Xo'jayli tumanidan ochgan. Men ham shu Bolalar uyi yonida o'rta maktabda o'qiganman. Onam ona tili va adabiyoti o'qituvchisi edi, menga adabiyotni terang tushuntirib berardi va men uning Hamza haqidagi hayoti va ijodini eshitib, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga mehr qo'yganman. Bolaligimda "Olovli yo'llar" kinofilmi bo'lardi, u kinodan ham uning bu filmdagi tengsizliklarni, uning tosh bo'ron qilinishidan ham juda ta'sirlanganman. Institutda ham ustozlarimdan Hamzaning asarlarini kuylashni so'rab repertuarimga qo'shardim. Uning "Hoy ishchilar" qo'shig'i juda ta'sirchan bo'lib, eshituvchi va ijrochiga teng ta'sir qiluvchi notalari bor. [2, 78]

Hamzaning "Maysaraning ishi" (1926) dramasi Sulaymon Yudakov tomonidan ishlangan ajoyib asardir. Uni siyosiy qoralashlar bo'lsa ham asarlari yashnayverdi va operachilar tomonidan aytilib kelinmoqda. Unda Hoji darg'a, Xidoyatxon, Mullado'st obrazlari gavdalantirgan. Sulaymon Yudakov asarga musiqa bastalash bobida juda katta iste'dod egasidir.

Hamza tabib oilasidan bo'lsa-da, turli tillarni o'zlashtirib, Fuzuliy, Navoiy, Beruniy, Furqat, Tagor, Muqimiy asarlari ustida mustaqil mutolaa qildi, ulardan o'rgandi, ilhomlandi va ular ta'sirida ijod qila boshladi.

U asarlari bilan oddiy savodsiz xalqni ma'rifatga chaqirdi, u o'zining pedagogik faoliyati bilan Toshkentda, Qo'qonda, Marg'ilonda, Xo'jaylida maktablari ochib, bolalarni o'qitishdan boshladi. Pedagog bu maktablarda dars berish jarayonida "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar ham yozdi. U darsliklarini Rossiyada va Suriyada chop qildirgan, sababi unga ko'p to'sqinliklar bo'lgan. Hamzani maktab yaratgan joydan quvsalar, bu joyga borib ma'rifat sochavergan ustozdir. Shuningdek, u ishchilar uchun ham savod ochishlariga beminnat ko'mak bergan. Hamza maorif ishlarida musulmonchilik bilan sovet tuzimi asosida saboq bergan, sababi u ham islom dini ham kommunistik ruhda tarbiya topgan. Qur'on oyatlari va Hadisi sharif namunalarini o'rgangan, haj ziyoratini amalga oshirgan. Bu voqealar haqida ham o'z asarlarida yozib o'tgan. Shuning bilan u hazil-mutoyiba qo'shiqlar ham yozgan.

Hamza chet ellarda Afg'oniston, Hindiston, Suriya, Turkiya mamlakatlarida, Makkada sayohatda bo'ldi, u mamlakatlar hayotini o'rganib turmushlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan tanishib o'z asarlarini boyitib bordi. Bu asarlarda xalq turmushi, xalq orzu-umidlari, xalqni ilm-ma'rifatga boshlash g'oyalari ilgari surilgan. Shu yerlarda ham u spektakllar qo'yishga harakat qilgan. Uning ma'rifatparvarlik g'oyalarini ommalashtirishda teatrdan ham unumli foydalandi. "Feruzaxonim", "Ilm hidoyati", "Loshman fojiasi", "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" kabi qator drama va komediyalar yozib, ba'zilarini o'zi tuzgan "Havaskor truppa" sida sahnalashtirdi, bu truppani ham din peshvolaridan zo'rg'a pana qilib oddiy xalq orasidan havaskor aktyorlar tanlagan. [3, 36] Hamza dramalari o'zbek adabiyotiga yangilik bo'lib kirdi. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" asari rosmana fojia, ya'ni tragediyadir. Bu asar bilan haqiqiy yovuzlikni oshkor qiladi.

"Hamza o'z asarlarida hurriyat, baxt-saodatga birlashish, o'qish-o'rganish, mehnat va kurash orqali erishish mumkinligini ta'kidlab: "Birlashsun endi boshimiz, maslakda qarshi yoshimiz", "Birlashing, Turkiston!", "Haq yo'lida jon bersak, bo'lsak millat qurboni",-deydi. Uning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ning ijodidagina emas, balki umuman, XIX asr oxiri – XX asr boshidagi o'zbek she'riyatida olg'a tashlangan katta bir qadamdir. Hamza bu realistik turkumda Turkiston xalqining haqqoniy ahvolini, o'z so'zi bilan aytganda Turkiston voqeasini ko'rsatib beradi". [1, 57]

To'plamidagi she'rlar sodda tilda va xalq qo'shiqlari pardasida, yo'li va ohangida yozadi, har bir she'r boshida xalq orasida mashhur bo'lgan biror ashulani ko'rsatib, undan parcha keltirib o'tadi. Uning "Yangi saodat" povesti ham yangicha proza asarlari yaratish sohasida qo'yilgan muhim qadamdir. [1, 2]

Hamzaning ma'rifatchilik faoliyati Turkistonda XX asrning boshidagi umumiy ma'naviy o'zgarishlar, ilg'or pedagogik va ijtimoiy-falsafiy fikrlar, jadidchilik harakati rivojiga muhim ta'sir ko'rsatdi. U o'z ijodi bilan o'zbek milliy adabiyotining taraqqiyoti, undagi realistik yo'nalishning borgan sari rivoj topib borishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, u o'zbek ayollari erkinligi uchun kurashdi va shu jonkuyarlik xarakteri qurboniga aylandi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zini qurbon qilgan xalq ma'rifatparvari bo'lib, xalqni har tomonlama ma'rifatli qilishga undagan, ularga arab, fors, rus tillarida birlamchi saboqlar bergan.

Bugungi kunda pedagogik mahoratli, zamonaviy pedagog qanaqa bo'lish kerak bo'lsa, Hamza shu davrning zamonaviy, haqiqiy mahoratli pedagogdir. U esa o'zbek muallimi, ma'rifatparvar, sozanda, dirijyor, dramaturg, rejissyor, aktyor, shoir va intellektual o'zbek o'g'loni bo'lgan va biz bu o'zbek ijodkoridan g'ururlanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamajonov C. Manaviyat yulduzlari.1989.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. 5 jildlik. 1-jild: Devon. – Toshkent: FAH, 1988.

3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. 5 jildlik. 2-jild: Sherlar, pedagogik risolalar, nasriy asarlar. – Toshkent: FAH, 1988.

YANGI USUL MAKTABLARIDA BOLA TARBIYASI HAQIDA

Muqaddas SAIDAKBAROVA,
Qo‘qon DPI o‘zbek adabiyoti
kafedrası o‘qituvchisi, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (Phd).
Husnida MAMAJONOVA,
Qo‘qon DPI talabasi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada qo‘qonlik ilm ahllaridan biri Ashurali Zohiriy ilmiy dunyoqarashi, tarbiya masalasiga doir qarashlari, fazrand tarbiyasida nimalarga e‘tibor berish kerakligi yuzasidan fikr-mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: ilm, tarbiya, adabiyotshunos, tilshunos, lug‘atshunos olim, jadidchilik, sharqshunos, matnshunos va manbashunos

Аннотация

В данной статье анализируются взгляды Ашуралы Захири, одного из ученых Коканда, на научное мировоззрение, взгляды на вопрос образования, на что обратить внимание в воспитании Фазранда.

Ключевые слова: наука, образование, литература, лингвист, лексикограф, джадид, востоковед, текстолог и источниковед.

Annotation


This article analyzes the views of Ashurali Zahiri, one of the scholars of Kokand, on the scientific worldview, views on the issue of education, what to look for in the upbringing of Fazrand.

Keywords: science, education, literature, linguist, lexicographer, jadid, orientalist, textologist and source scholar

Qo‘qonning asl farzandi, o‘zining butun ilmiy-ma‘naviy imkoniyatlarini Vatan kelajagi va uning ijtimoiy-siyosiy va ta‘limiy tadriji uchun bag‘ishlagan ma‘rifatparvar adabiyotshunos, tilshunos, lug‘atshunos olim, jadidchilik harakatining ilg‘or vakilaridan biri Ashurali Zohiriy shaxsi, olib borgan faoliyati bu kungacha keng jamoatchilikka u qadar ma‘lum emas edi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar, Uchinchi Rennensans poydevorini qurish borasidagi chora va tadbirlar jadidchilik harakati vakillari shaxsi va faoliyatini qaytadan baholash vazifasini ham nazarda tutadi. Shular qatorida Ashurali Zohiriy faoliyatini, uning o‘zidan qoldirgan ma‘naviy merosini o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Ma‘lumki, Ashurali Zohiriy Farg‘ona vodiysida dastlabki pedagog kadrlar etishtirish va yosh avlodga ta‘lim berish sohasida salmoqli ishlar olib borgan.

Maktab o‘quvchilari uchun “Turkiy xrestomatiya va yohud terma kitob”, “Imlo” kitoblarini tuzgan. Qo‘qon shahar “Allomalar muzeyi” fondida № 6723 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Turkiy xrestomatiya va yoxud terma kitob”i va Ashurali Zohiriy she‘rlari, publisistik maqolalari jamlangan to‘plam-kitob arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvida toshbosma nusxada chop etilgan. Kitobga she‘rlar va maqolalar majmui bilan birga o‘quvchilar uchun turli fanlarni o‘qitishda foydalaniladigan o‘quv materiallari alohida nomlar bilan maxsus fasllarda kiritilgan. Kitobning 154-181 sahifalaridan o‘rin olgan “Bola tarbiyasi haqida” faslining tabdil ishlari boshlab yuborildi. Ushbu bo‘lim 31 sahifa, 39 mavzudagi bola tarbiyasiga bog‘liq ko‘rsatma-ilmilardan iboratdir.



Ko‘rinib turibdiki, majmuaga kiritilgan “Bola tarbiyasi haqida” faslining muallifi doktor F.Vidol (Fernan Vidol. 1862-1929. Fransuz doktori. Mashhur nemis adabiyotshunosi Sharl Ogyustinning jiyani. Yuqumli kasalliklar bo‘yicha qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan va ilmiy asarlar yaratgan) bo‘lib, ushbu qo‘llanma o‘quv darsligi tarkibiga Ashurali Zohiriy tomonidan kiritilgan. Mahalliy madrasalar va rus-tuzem maktabida ta‘lim olgan Zohiriy ta‘lim berish tizimida asosan nimalarga e‘tibor qaratilishi lozimligini aniq bilgan. Sifatli ta‘lim tarbiyasiz amalga oshmasligi masalasi XX asr boshida maktablar va pedagog kadrlar tayyorlashdagi ta‘lim me‘yorlariga “Bola tarbiyasi haqida”gi fanning kiritilgani bilan yorqin dalillanadi. Ashurali Zohiriyning o‘ziga xosligi Yevropa olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarni tarjima qilib, Turkiston ta‘lim tizimiga olib kirganligi bilan yuksak e‘tiborga loyiqdir. Ushbu qo‘llanmada, asosan, bola tarbiyasidagi gigiyena va tibbiyot masalalari haqida batafsil ma‘lumot beradi.

“Bola tarbiyasi haqida”gi bo‘limdan joy olgan mavzular:

1. Bola uchun onaning kerakligi.

2. Bolaning avval kunlari to'g'risida.
3. Bolaning kindigini bog'lamoq xususida.
4. Bolaning suvga cho'mildirmoq yo'li.
5. Bolaning kiyumi, ham o'ziga maxsus lattalari.
6. Bola yotadurg'on uyning havosi.
7. Avvalgi kunlarida bolani to'ydurmoq tariqasi.
8. Bolani emizmak xususida.
9. Bolaning qorunini to'ltirudin ehtiyot.
10. Yangi tuqg'on bolaning og'riqlari xususida.
11. Bolaning og'irliqi ortuy xususida.
12. Bolaning tishlari chiquv tartiblari.
13. Bolaning his qilmoq asrlari.
14. Emchak bolalarining to'ydurmoq yo'li.
15. Bola emizguchi xotin xususida.
16. Bolani emchakdin ajratu xususida.
17. Bolani ona sutidin bo'lak narsa bilan to'ydurushning shartlari.
18. Hayvon suti to'g'risida.
19. Hayvon sutidagi odamga yug'ushlik kasallarni bitirmak xususida.
20. Sut qaynatmoq yo'li.
21. Rezinka emizukning tarbiyasi.
22. Emizukdin emizmak xususida.
23. Sut unining fazilatlari.
24. "Nestle" unining foydalari.
25. "Nestle" unining zararsizlig'i xususida.
26. Bolaning to'ydirish tartibi.
27. Yosh bolalarning og'irliq o'lchovi ortmoqi.
28. Bolag'a tarbiyaning zarurati.
29. Bolaning uyqusi to'g'risida.
30. Bolaning suvga cho'mildirmoq yo'llari.
31. Bolani yotquzub yurutur uchun kichik aroba.
32. Bolaning harakatlariga ihtiyor bermak xususida.
33. Bolaning kiyumlari.
34. Bolaga oftobning foydasi ham zarari xususida.
35. Bolaning tishlari chiqq'onda bo'ladurg'on ovrulari (og'riqlari).
36. Bolaning me'dasi ham ichaklarining buzulishi.
37. Bolaning nafas yo'llari buzulishi (katarar).
38. "Moluchniysa" ya'ni bolaning og'zi og'rishi.
39. Bolag'a paydo bo'ladurg'on har xil og'riqlar xususida.

Yuqoridagi mavzular bayonida ma'lumotlarni yanada aniq va tartibli bo'lishi uchun 5 ta jadvallar ham kiritilgan.

Jadvallardan namunalar.

1-jadval. "Necha oy ichida har haftada ortmog'i".

2-jadval. "Bolaning tishlari chiqish tartiblari".

3-jadval. "Er bolalarning ortmog'i". "Qiz bolalarning ortmog'i".

Qo‘llanma o‘zi alohida Rossiya Federasiyasi Turkiston Respublikasi Farg‘ona shahrida joylashgan “Turkiston jumhuriyatining hukumat nashriyoti”da 1920-yilda chop etilgan. № 6723 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Turkiy xrestomatiya va yoxud terma kitob”i va Ashurali Zohiriy she‘rlari, publisistik maqolalari jamlangan to‘plam-kitob to‘liq ko‘rinishda Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasida sharqshunos, matnshunos va manbashunos professor –o‘qituvchilari tomonidan lotin yozuviga tabdil qilinmoqda. Tez orada bu bebaho ma‘naviy me‘ros nashr ettirilib, ilm ahli e‘tiboriga havola etiladi.

O‘ylaymizki, qizg‘in boshlangan va olib borilayotgan ishlar millatning ziyoli, vatanparvar, zahmatkash va dovyurak fidoyilarini tanish va tanitishdagi dolzarb tadqiqotlarning ibtidosidir.

FURQAT IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI

Feruza MAMATQULOVA,
f.f.b.f.d. (Phd).

Marhabo MELIBOYEVA,
Qo‘qon DPI o‘qituvchi
(O‘zbekiston)

Adabiyot-millat ruhi, inson qalbi kechinmalarining ifodachisi, qalb hislari ila sayqallanib turuvchi ko‘ngil oyinasi, yaralangan, majruh ko‘ngillarga da‘vo bo‘luvchi ma‘naviy xazinadir. Atoqli adibimiz A.Qahhor ta‘biri bilan aytganda: “Adabiyot – ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Ilhomsiz, tuyg‘usiz asar – changlanmagan gulga o‘xshaydi – meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi.”

Darhaqiqat, adabiyot boshqa san‘at turlaridan inson, xalq ko‘ngliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Adabiyotni shunday darajaga olib chiqish uchun esa yozuvchi va shoirlarimizdan tug‘ma talant, yuksak dunyoqarash, Oloh bergan iste‘dod, insoniy burch va tizimli mehnat faoliyati talab qilinadi. Haqiqiy ijodkorga xos bo‘lgan yuqoridagi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan adib qalam bilan butun dunyoni larzaga solgan novator ijodkor, Vatani, xalqi deya yashagan shoir, boshqacha qilib aytganda o‘zbek adabiyoti uchun alohida yo‘l va yo‘nalish yaratib bera olgan buyuk shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy hisoblanadi. Navoiy o‘zidan tunganmas ma‘naviy boylik, xazina qoldirib ketgan. Navoiy xazinadan bahra olgan bir qancha adiblar uning davomchilari hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotida eskirmaydigan, zamon sinovlari ta‘sir qilmaydigan, barhayot, ilg‘or Navoiy an‘analarining munosib davom ettira olgan otashnafas shoirlarimizdan biri – Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatdir. Shoirlar ijodidagi o‘xshashliklar ularning qiziqishlari, mayllari mutanosibligidan kelib chiqadi. Navoiy va Furqatning Fariduddin Attor asarlarining shaydosi bo‘lganligi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi. Har ikki shoir ijodidagi o‘xshatishlar orasida ham yaqinlikni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Furqat qalamiga mansub ushbu baytga diqqatimizni qaratsak:

*“Naylayki, Haq yaratmish , Furqat, meni siyahro‘z,
Shomimda bor uzun tun, lekin anga sahar yo‘q.”*

Bilamizki, Furqat Vatandan ayriliqda, Vatan sog'inchi, ayriliq istirobi bilan umr kechirgan. Uning taxallusi ham aynan shunga ishora qiladi. Shuning uchun ham Furqat: "Nima qilay?, Haq meni siyahro'z qilib yaratdi", - deydi.

Siyah – qora, ro'z – kun demakdir, ya'ni kunini qorong'u qilib, boshqacha qilib aytganda, baxtsiz qilib yaratdi. Ikkinchi misrada esa shoir o'z hayotini uzun va qorong'u kechaga o'xshatib, unda sahar yo'q ya'ni hech qachon tong otmaydi degan ma'noda afsus chekadi.

Aynan "subh" va "shom" ramziy obrazlari Navoiy ijodining ta'siri natijasidir, deyishimiz mumkin. Ustoz shoirning g'azallaridan birida shunday obrazlar, xuddi shu ma'noda qo'llanganini guvohi bo'lamiz:

*"Shomi hijron ro'zg'oring tiyra nebchun qildi?, - deb,
So'rmagil mendan. Bu so'zni subhi yo'q shominga ayt."*

Bunday misollar Furqat ijodida yorga ta'rif berishdagi o'xshatishlarda ham ko'zga tashlanadi. Navoiy "O'ynar" radifli g'azalida yorning zulfini ta'riflashda ularni "hindu bachaga" o'xshatish o'rinlari bor:

*"Zulfig ochilib, orazi diljo' bilan o'ynar,
Hindu bachaye sho'xdurur, su bila o'ynar."*

Mumtoz adabiyotda zulf deganda, yorning uzun, qora, ikki yoniga tushurib o'rilgan sochi nazarda tutiladi. Navoiy yorning zulfini yoyilgandagi holatini tasvirlab, uni dilrabo yuz bilan o'ynaganligini aytadi, ya'ni soch yoyilgandagi, sochning yuzdagi tartibsiz holatining badiiy tasvirini yaratadi hamda zulfning yuz bilan o'ynashini sho'x hindu bacha bilan suvning o'ynaganligiga o'xshatadi. Bu yerda zulfning o'ynoqi bo'lib yoyilgani hindu bachaning sho'xligiga qiyoslanadi, yorning yuzi esa tiniqligi sabab zillol suvga o'xshatilmoqda.

Xuddi shu "hindu bacha" obrazi Furqat ijodida ham o'z aksini topgan. Furqat Navoiydan ilhomlangan holda o'zining "Tortadur" radifli g'azalida "hindu bacha" iborasini qo'shish orqali istiora san'atining ajoyib namunasi yaratadi:

*"Qoshlari ostida go'yo ikki fatton ko'zlari,
Ikki hindu bachchadurkim, yondoshib yo tortadur."*

Furqat ushbu misralarda yorning qosh va ko'zlarini keltirib, ajoyib o'xshatish yarata olgan. Yorning ko'zlarini "fatton" ya'ni, "fitna qiluvchi", - deb ta'riflaydi. Yor o'z oshiqclarini mana shu fitnakor, ohu ko'zlari bilan asir qiladi. Ikkinchi misrada mana shu holat ikki "hindu bacha"ning yonma-yon turib, yoy tortib turgan holatiga qiyoslanadi. Ta'riflanayotgan ko'zlar bejizga hind bachaga qiyoslanmayapti. Ko'zlar ham xuddi hind bolalaridek, sho'x, o'ynoqi. Yorning qoshlarini yangi chiqqan oy – hilolga, mehrobgga, yoyga o'xshatish an'anaviy uslub bo'lsa-da, yorning egma qoshini bolalarning yoy tortishayotgan holatiga o'xshatish Furqat ijodidagi o'ziga xoslikdir.

Furqat o'tmish yozuvchilarining ijod tajribasida sinalgan, estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik, uslubdagi rang-baranglik kabilarini puhta o'rganib, ularni o'z ijod uslubiga ko'ra qayta ishlab, ijodiy rivojlantirgan adiblarimizdandir. Uning: "G'amzang o'qini otkim, jonim nishona o'lsun", - deb boshlanuvchi g'azalida ham an'anaviy tasvirlar, badiiy o'xshatishlar barobarida uning o'ziga xos tomonlarini ham uchratamiz. Furqatning ushbu g'azali olti baytdan iborat bo'lib, chin oshiqona muhabbat bilan yorga bag'ishlab yozilgan

g‘azal hisoblanadi. G‘azal aruzning muzorei musammani axrab vaznida yaratilgan. Ruknlari:

- - v/ - v - -/ - - v /- v - -

maf‘uvlu/ foilotun/ maf‘uvlu/ foilotun.

Furqat dastlab g‘azalning matla’ qismidan boshlab yorga murojaat qiladi va yordan oshig‘iga nazar solishini so‘raydi:

*G‘amzang o‘qini otkim, jonim nishona o‘lsun,
Paykonidin ichib suv bu tashna qona o‘lsun!*

G‘amza – “nazar solmoq, qaramoq” degan ma’nolarni anglatib, mumtoz adabiyotda kiprik ya’ni mujgon va g‘amza o‘qqa qiyoslanadi. O‘q otilish va qandaydir nishonga borib sanchilib uni jarohatlash xususiyatiga ega. Bu misrada yor nazari o‘qqa, joni nishonga o‘xshatilyapti. Yor bir nazar tashlashi bilan hattoki oshiqni holdan to‘ydirish, o‘zini bilmay qolarlik darajasigacha olib mumkin. Bu tasvir Navoiy ijodida ko‘p uchraydi. Masalan, Farhod Shirinni ko‘rishi bilan bir necha marta hushidan ketadi.

Ikkinchi misrada oshiq o‘z fikrini davom ettirib, paykon (kamon o‘qi) oshiq ko‘ngliga otlsa, uning ko‘ngil tashnaligi qonadi. Ya’ni oshiq hamisha ma’shuqaning o‘ziga nazar solishidan umidvor, xuddi suvga tashna bo‘lgan kabi. Agar yor unga bir bor qiyo boqsa, qalblar tashnalikdan qutuladi.

*Mavzun qadingga shamshod qilsa chamanda da‘vo,
Jismi hamma tilinsun, zulfingga shona o‘lsun.*

Mavzun – kelishgan, chiroyli, shamshod – tik o‘svuchi daraxt, shona – taroq.

Bu baytda tasvir yorning qaddi-qomatiga o‘tyapti. Oshiq yorning qomatini ta’riflab shunday deydi: “Sening shunday chiroyli qaddi-qomatingga agar shamshod chamanda da’vo qiladigan bo‘lsa, butun jismi tilinib sening sochingga taroq bo‘lsin”. Yorning qomati shu darajada chiroyli, tik, kelishganki, xatto unga chamanzordagi tik o‘svuchi daraxt – shamshod ham da’vo qilishga arzimaydi. Agar shunday qiladigan bo‘lsa, u tilinib yorning sochlariga taroq bo‘ladi.

*La‘ling g‘amida yig‘lab ashk o‘rnig‘a nigoro,
Tokay ikki ko‘zimdin qonlar ravona o‘lsun?*

La‘l – qizil, tovlanib turuvchi qimmatbaxo tosh, ashk – ko‘z yosh.

Oshiq yori la‘li ya’ni hayot baxsh etuvchi qizil labi ga’mida ko‘z yosh o‘rniga qonli ko‘z yosh to‘kadi va yoriga murojaat qilib bu g‘amlar qachongacha davom etishini so‘raydi.

Oshiq murojaat san’atidan foydalangan holda yorini nigoro deya chaqiradi. Yorning labi qizilligi uchun uni la’lga qiyoslaydi. Oshiq yorning la‘li g‘amida, ya’ni, visol orzusida shunchaki oddiy yosh emas, qonli ko‘z yoshlar to‘kadi. Oshiq bag‘ri g‘amning og‘irligidan, yorning jabr-u jafolaridan, istiroblarning selidan qonga to‘lgan. Shuning uchun, oshiqning ko‘zlaridan oddiy emas, balki qonli yoshlar oqadi. Ammo bu istiroblarning oxiri qachongachaligi noma’lum. Bu kabi tasvirlar va o‘xshashliklar Navoiy va boshqa shoirlar ijodida ham ko‘p uchraydi.

*Ag‘yorkim, visoling bo‘g‘ida shukr qilmas,
Yo rab, o‘shal firoqing o‘tida yona o‘lsun.*

Furqat ushbu misrada yangi bir obrazni kiritadi. Bu ag‘yor obrazidir. Mumtoz adabiyot namunalarida oshiqning raqibi sifatida ag‘yor, raqib obrazlari

beriladi. Aksariyat hollarda, raqib va ag‘yor oshiqning butun o‘y-hayollarini qamrab olgan, visolga yetishgan, yori bilan ko‘rishish, u bilan suhbatlashish baxtiga erishgan obrazlar sifatida tasvirlanadi. Navoiy ham g‘azallaridan birida “Menga nomehribon yor-o‘zgalarga yor ekan” misrasida ham aynan ag‘yor haqida gap boradi. Furqatning lirik qahramoni ham Ollohga murojaat qilib, visol bog‘ida bo‘lishiga qaramay unga shukr qilmayotgan, bu visolning lazzatini his qilolmagan, yuragida haqiqiy ishq bo‘lmagan ag‘yorni firoq ya’ni ayriliq o‘tida yonib o‘lishini so‘raydi.

Keyingi bayt begona bayt hisoblanib, bu baytda oshiqning yorga murojaati yana davom ettiriladi:

*Ortiqcha davrdin may tortayki, sargaronlik,
Bosh qo‘yg‘oli tizingga tokim bahona o‘lsun.*

Oldingi baytda ag‘yorni yorning visol bog‘ida ekanini hisoga olib, oshiq o‘zini bu davrda, zamonda ortiqcha deb biladi, zamon uni ortiqcha deb bilgani bois u “shu qadar ko‘p may ichayki, natijada mastlikdagi dovdirashim sening tizzangga boshimni qo‘yishga bahona bo‘ladi” demoqchi bo‘lgan.

May – ishq ramzi. Oshiq yordan qancha jabr ko‘rsada u ishqidan voz kechmaydi, aksincha, uning ishq kuchayib boraveradi. Masalan, Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni qahramoni Majnunning otasi bilan Ka‘badagi holatini, so‘zlarini yodga oladigan bo‘lsak, u Ollohdan qalbidagi ishqni bundan ham ziyoda qilishini so‘raydi. Uning ko‘nglida ishq shu qadar kuchli ediki, hattoki u Majnun darajasiga yetib boradi va u uchun ishqdan boshqa narsaning ahamiyati qolmaydi. Yuqoridagi oshiq ham o‘zini shunday holatda tasavvur etadi.

G‘azalning so‘ngi maqta’ qismida Furqat oshiq tilidan yorga atab, uning nomiga ziynat, bezak sifatida ushbu she‘rini insho aylaganini aytadi. Bu yoriga bag‘ishlangan g‘azali shahar ichra shunday shuhrat topadiki, xuddi zamon to‘s-to‘polon bo‘larlik darajada.

Ustoz shoirlarimiz Lutfiy, Navoiylar ijodini kuzatish jarayonida ko‘rishimiz mumkinki, oshiq bir ohi bilan kul bo‘la oladi, uning birgina ohi jahonga o‘t yoqib yuborish darajasigacha ko‘tariladi yoki aksincha atrofni muzlatib qo‘yish darajasida: hatto quyoshning issig‘i ta’sir qilmaydigan sovuq ohi tasvirlanadi. Furqatning lirik qahramoni bo‘lgan oshiq esa yorini shunday ta’riflaydiki, uning shuhrati zamoni larzaga solishga qodir.

Yuqoridagi g‘azalni tahlil qilish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, Furqat chin hayotiy his-tuyg‘ularni, otashin muhabbatni haqqoniy tasvirlash mahoratiga ega. U o‘z asari bilan o‘zgalar qalbini rom qila oladi, qablarga otash, harorat bera oladi. Adabiyotshunoslar ta’biri bilan aytganda, u asar adibning farzandi maqomiga erishadi. Chunki, adibning har bir asarida Furqatning ruhiyati yashirin. Furqatdagi bunday mahorat yozuvchi iste’dodi va Navoiy singari ustoz adiblar ta’siri natijasidir. Atoqli adibimiz Furqat buyuk shoir Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan va uning ijodiyotidan bahra olgan. Furqat ijodi bilan tanishish natijasida shuni faxr bilan aytish mumkinki, u nafaqat Navoiyga shogird, Navoiy an’analarning munosib davomchisidir.

YANGI O‘ZBEK SHE‘RIYATI SHAKLLANISHIDA XALQ OG‘ZAKI IJODINING O‘RNI

Latofat TAJIBAYEVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)

Rezyume:

Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining yangi o‘zbek she‘riyati shakllanishiga ta‘siri masalasi o‘rganilgan bo‘lib, ma‘rifatparvalik davri adabiyoti vakillari Muqimiy va Zavqiy ijodi misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, ma‘rifatparvarlik, hajviya, maqol, matal, satira, obraz, ohang, ijod.

Резюме:

В данной статье рассматривается влияние фольклора на формирование новой узбекской поэзии, которое раскрывается в творчестве представителей просветительской литературы Мукими и Завки.

Ключевые слова: Фольклор, просветительство, комедия, поговорка, поговорка, сатира, образ, мелодия, творчество.

Summary:

This article examines the impact of folklore on the formation of new Uzbek poetry, which is revealed in the works of Muqimi and Zavqi, representatives of the literature of the Enlightenment.

Keywords: Folklore, enlightenment, comedy, proverb, proverb, satire, image, melody, creativity.

Folklor hamma davrda, barcha xalqlarda eng ilg‘or adabiyot hisoblangan. Faylasuflar ta‘biri bilan aytganimizda, “birinchi shoir va birinchi faylasuf bo‘lgan xalq” o‘z ijodida unutilmas badiiy obrazlar, bitmas-tuganmas fikriy xazina yaratdi. Shuning uchun jahon adabiyotining eng mashhur obrazlari folklor zaminida tug‘ildi, eng ulkan siymolar o‘z ijodiy faoliyatlarida undan bahramand bo‘ldilar. Bu tarixiy haqiqatni o‘zbek adabiyoti misolida ham ko‘rish mumkin. Ulug‘ Alisher Navoiy ijodining qimmatbaho durdonalari bo‘lgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” va boshqa dostonlarida folklor elementlari yaqqol ko‘rinib turadi. Adabiyot tarixida Navoiydan keyin yetishgan mashhur siymolar, jumladan, XIX asr oxirida yashab ijod qilgan ijodkorlar ham xalq og‘zaki ijodining barkali ta‘siridan chetda qolmadilar. Folklorning yangi o‘zbek adabiyotiga ko‘rsatgan kuchli ta‘sirini 4 bosqichga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin: 1) Satira janri xususiyatlarining lirik turda aks etishi. 2) Maqol va matallardan unumli foydalanish. 3) Xalqaro ohang va to‘rtlik uslubidagi she‘rlarning paydo bo‘lishi. XIX asr oxirida maydonga kelgan satira hajviyot, satirik she‘rlar aytuvchi shoir esa hajvgo‘y deb yuritilar edi. Bu davr adabiyotida, hajvchilik har qachongidan ko‘ra kuchliroq rivojlangan edi. Satiraning rivojlanishini ta‘min etgan madaniy-adabiy omillar ichida o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi hajvchilik an‘analari alohida o‘rin tutadi. O‘zbek folklorida hajv xalq ijodiy boyligining katta qismini tashkil qiladi. Hajv folklorining ko‘p turlariga – ertak, latifa, lapar va maqollarga singib ketgan. Ma‘rifatparvar shoirlar folkloridagi hajvchilik boyligini diqqat bilan

o‘rganib, ijodiy o‘zlashtirdilar. Muqimiy, Zavqiy yaratgan satirik obrazlarda, shuningdek, Muqimiy ijodiga xos bo‘lgan askiyachilik elementlarida folklordagi hajvchilikning ta‘siri yaqqol ko‘rinib turadi.

Masalan, Muqimiyning “Asrorqul” satirasi, xususan, undagi:

*Sadqai odam ket-u yuz hayfsan, Asrorqul,
Zahr-ichkan, kiygoning bo‘lsun kafan, Asrorqul –*

bayti o‘zining leksik tarkibi, sintaktik qurilishi, umumiy uslubi bilan xalq jonli so‘zlashuv tiliga juda yaqindir. Shuningdek, Xonlikda yuz berayotgan ma‘naviy va iqtisodiy tanglikka befarq qarab tura olmagan ma‘rifatpavar adabiyot namoyandalari - Muqimiy o‘z hajviyalarida veksels va pul islohati masalalarining barcha illatlarini realistik ravishda tasvirlab berdilar.

*Har ishki xalqimizg‘a hokimlar etsa farmon,
Qilmay iloji yo‘qtur dushvoru xohi oson,
Nuqra-kumushlaridin boylar hijil, pushaymon,
Yuz dod qilmasunmu bechorai musulmon,
Har tangada miridin yaqqol ziyoni chiqdi.*

Muqimiy ijodining g‘oyaviy mazmunini yoritib beruvchi bu muxammas xalqparvar shoirning ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nechog‘lik hozirjavoblik, sinchkovlik va ziyraklik bilan yondashganidan, mavjud tuzumdan nafratlaganidan dalolat beradi. Zavqiy ijodida ham bunday misollarni tez-tez uchratib turish mumkin. Chunonchi, shoir bir xasis mingboshi ta‘rifini Muqimiy Sayohatnomasi uslubida yozadi:

*Hamdam topib, toshib to‘lib,
Bordik uzoq charchab o‘lib,
Eshak tarafdori bo‘lb,
Bizga qarab hangror ekan.*

Xalq og‘zaki ijodiyoti namunalariga xos samimiyatning ochiq ifodasi, soddalik va tabiiy ohangdorlik yoki ranginlikdan ilhomlanmagan san‘atkorning topish mushkuldir. Shuning uchun og‘zaki ijodiyot barcha zamon va davrlarda ham yozma adabiyotning rivojini belgilaydigan bosh manbalardan biri bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Ma‘rifatparvar shoirlar o‘zlari qo‘llagan badiiy tasvir usullarining ta‘sir kuchini oshirish maqsadida xalq maqollaridan, hikmatli so‘zlardan unumli foydalanishga harakat qildilar. Bu xolni ma‘rifatparvar shoirlarning deyarli hammasida uchratish mumkin:

*Ishni sen qilding, balog‘a qoldilar bechora xalq,
G‘o‘zani san eb, kesildi bo‘zchi engi, yo eshon.*

Tabiatan hozirjavob Zavqiy ijodda o‘ziga xos uslubda yuksak mahorat bilan yozilgan she‘rlar talaygina. Shoir o‘z g‘oyalarini ifodalashda xalq og‘zaki ijodidan o‘rinli va unumli foydalangan. Bu davr ijodkorlari uslubining soddaligini, ravonligini va samimiyatini ta‘min etgan xususiyat, shubhasiz, shoirlarning xalq og‘zaki ijodiga yaqin bo‘lishi va undan samarali foydalanishidir. Bu davr ijodkorlari xalq donishmandlarining ibratli so‘zlarini, xalq maqollarini ijodiy o‘zlashtirib, ularni o‘z she‘rlarida juda keng va o‘rinli qo‘llaydi.

XX asr boshlaridagi ijtimoiy muhitda qalam tebratgan aksariyat yozuvchi-shoirlar asarlarida voqelikka kinoyaviy munosabatni ustuvorlikka ko‘tardilar.

Bunga esa xalqning hukmdorlar yurgizayotgan siyosatdan noroziliklari sabab bo'ldi... Bunda kinoya badiiy asarning til sathida namoyon bo'ladi"[1,18]. Ma'rifatparvar shoirlarning o'z ijodlarida xalq maqollari va hikmatli so'zlarini ko'plab ishlatishlari, ular uslubida realizmga intilish borligini yana bir marta isbotlaydi. Zavqiyga zamondosh va hamnafas bo'lgan Muqimiy ham ezilgan mehnatkash xalqning chinakam g'amxo'ri va kuychisi edi. Shuning uchun ham shoir ijodida folklorizmlar salmoqli o'rinni egallaydi.

*Ko'rmadim, bo'lmasa boshida mushkul har kishi,
Qadri ranji xor bu bog'din uzar gul har kishi.
Teshani chopqay o'ziga, rasmdur shul, har kishi,
O'z qumochig'a, masalkim, tortadur kul har kishi,
Bas, kuyib ishqida chekkan iztirobim kim desun!*

Xalqona ohang va xalq og'zaki ijodi ruhida yozilgan bunday misralar, baytlar, hatto, butun she'rlar Muqimiy ijodida talaygina. Masalan: - "Darig'oki, baxtim qaro bo'lmasa, Senga tushmas erdim, xudo urmasa"(Maskovchi boy ta'rifida), Gado qo'lida ko'rsa nogoh non, Degay: -"bergan odam emas musulmon!" (Voqiai Viktor), "Har kishiki ko'rpassiga poy uzatmaydur qarab" (gap to'g'risida gap), "Sadqai odam ket-u yuz hayfisan, Asrorqul, Zaxar ichkan, kiygoning bo'lsun kafan, Asrorqul"(Asrorqul), "Bu padar la'nat harom o'lgur otim, Har qachon kim man minar bo'lsam kasal" (Otim) va hako'zolar.

Folkloriga xos janr, motiv, obraz, ohang, tasviriy vositalardan yozma adabiyotda foydalanish, ularga "qayta ijodiy ishlov berish" hodisasi adabiyotshunoslar tomonidan "folklorizm" deb yuritilishi B.Sarimsoqov, G'.Mo'minov, I.Y.Ormatov, L.SHaripova, D.Xoliqova, S.Hamdama, U.Amonov kabi o'zbek olimlarining tadqiqotlari orqali ham ma'lum. Ma'rifatparvar shoirlar, ayniqsa Muqimiy, o'z g'azallarini yaratishda xalq qo'shiqlaridan ham juda ko'p narsani o'rgandilar, mazmun va badiiylik jihatidan bu qo'shiqlarga yaqinlashishga harakat qildilar. Masalan, ma'rifatparvarik adabiyotda:

*Arzimni aytay bodi sabog'a,
Bizdan duo deng ul bevafoga*

misralari bilan boshlanadigan mashhur xalq qo'shig'iga o'xshatma qilib, ko'p she'rlar yozilgan. Shuning uchun Muqimiy va Furqat yozgan g'azallar o'zining ravshan mazmuni, yuksak san'ati, ravon va yetuk tili, tugallangan kompozitsiyasi bilan xalq qo'shiqlariga juda yaqin turadi. Ma'rifatparvar shoirlar yaratgan ko'pgina lirik asarlarning xalq o'rtasida keng tarqalib, sevib kuylanishining siri ham shundadir. Masalaning eng muhim tomoni shundaki, ma'rifatparvarik adabiyot mehnatkash xalq yaratgan og'zaki ijodning g'oyaviy boyligini to'la o'zlashtirdi. Mehnatkash ommaning zolimlarga qarshi g'azab-nafrati, uning juda ta'sirli va o'tkir badiiy shakllarda ifodalanishi bu adabiyot uchun muhim ibrat manbai bo'ldi. Xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan an'analar yangi o'zbek adabiyotning g'oyaviy va badiiy takomiliga katta yordam berdi. Ma'lumki, ma'rifatparvar shoirlar xalq og'zaki ijodiga alohida e'tibor berdilar va undan muhim xazina sifatida foydalandilar.

"Adabiyot folklor orqali mifogiyaga borib taqaladi" - deb yozganida

Belinskiy haq edi. “Ertak va qahramonlik eposini saqlab qolgan qadimiy mifologiya an’analari badiiy-adabiy hamda she’riy tafakkurning shakllanishida katta rol o‘ynadi.” [2,24].

Folklor va yozma adabiyot munosabati benihoya keng bo‘lib, bu muammo milliy adabiyotning shakllanish va rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining roli, unga xos tasviriy vositalar, badiiy shakllardan foydalanishning muhim tomonlari, folklorizmlarning yuzaga kelishi kabi masalalarni qamrab oladi. O‘zbek she’riyatida folklorizmlardan badiiy matnni qurishda, uning ritmini shakllantirishda, g‘oyaviyligini oshirishda, xalqchilligi va ta’sirchanligini kuchaytirishda eng muhim vosita sifatida foydalanilgan. Folklor ta’siri ijodkorning xalq og‘zaki ijodiga xos syujet motivlaridan, epik obrazlardan, badiiy shakl va ifoda vositalarini asarlarida qo‘llashi folklor materiallariga murojaat qilishi undan ijodiy o‘rganishidir. Shoir va adiblar folklordan uning mavzu va g‘oyalarida, syujet va obrazlaridan, badiiy til vositalaridan, sodda ifoda uslubidan ijodiy foydalanib, o‘z asarlarining xalqchil bo‘lishiga intiladilar. O‘zbek mumtoz adabiyoti ham azal-azaldan xalq og‘zaki ijodidan ilhomlangan holda buyuk asarlar yaratishgan, ammo biz nazarda tutayotgan davr ijodkorlari nafaqat syujet va obrazlarni, balki ifoda uslubini ham xalq og‘zaki ijodidan olishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘raeva D. Fitrat dramalarida kinoya. “Istiqlol va Fitrat” mavzusidagi an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2018 yil, 16-17 may.
- 2.Jo‘raev M. Miflarning yozma adabiyotga ta’siri// Uzbek tili va adabiyoti. – 1980. № 6.
3. Afaqova N. O‘zbek jadid adabiyotida she’riy shakllar taraqqiyot tamoyillari: Filol. fanlari doktori ... dis. – T.: 2006.
- 4.Hamdammov U.Yangi o‘zbek shariyati.-T.: Adib, 2012.
- 5.Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. T.: Yangi asr avlodi. 2006.

JADIDCHILIK HARAKATI ULUG‘ NAMOYANDALARINING IJODIY FAOLIYATI

**E‘zozxon QOBILOVA,
Musiqqa ta’limi kafedrasida dotsenti**

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakati ulug‘ namoyandalarining ijodiy faoliyatiga olib borgan samarali ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar : Tarix, musiqa, jadidchilik harakati, gastrol, ma’naviyat, madaniyat, san’at, arxeologiya, davr, folklor, musiqiy teatr, klassik musiqa, drama, spektakl, musiqali drama, risola, musiqiy risola, sozanda, xonanda, bastakor, mumtoz musiqa, kompozitor, kompozitorlik ijodi.

XX asr umuminsoniyat tarixida eng murakkab ijtimoiy siyosiy voqealarga boy, ilm-fan va texnikaviy taraqqiyotning keskin rivojlanish asri sifatida tarixga muhurlandi. Turkiston XIX asrda Rus aholisi va harbiylarining ma’naviy va madaniy talablarini qondirish uchun Yevropa, Rossiya va Kavkazdan turli teatr, ijrochi jamoalar, mashhur xonanda va sozandalar tez-tez gastrol safarlariga kelib

turadigan bo'ldilar. 1884-yilda tashkil etilgan “Туркистанское музыкально - театральное общество” jamiyati bunga bevosita o'z faoliyatini bag'ishladi va Yevropa, rus musiqa va teatr san'atlarini O'rta Osiyoda keng targ'ib qilishda muhim rol o'ynadi.

Shu bilan birga, rus ziyolilarining orasida turli musiqiy va teatr badiiy havaskorlar va professional jamoalarining paydo bo'lishiga ko'maklashdi. Respublikamizda turli san'at jamoalari, kutubxona va muzeylar ochildi, Madaniy hayotda ham ayrim siljishlar yuz bera boshladi. Mana shunday tarixiy muhitda O'rta Osiyo xalqlari XX asrga qadam qo'ydi.

Garchand XX asrning boshlarida ham O'rta Osiyo xalqlarining taqdiri Rus imperiyasi va boshqa davlatlar tarixida sodir bo'lgan voqealar, harakatlar, o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lsada, xalq hayotida o'zgarishlar ozodlik uchun kurashlar olib borilganligi tarixdan ma'lumdir. Shoirlar ijodida adolatsizlikka qarshi, kirdikorlarni fosh etuvchi hamda ozodlik nafasi barq uruvchi adabiy asarlar yaratila boshlandi. Bu albatta mudroq xalqni milliy-ma'naviy o'yg'otish, erk va ozodliklari uchun intilishlarini kuchaytirish yo'lida ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

XX asrning boshida boshlangan Turkistonda milliy ozodlik harakati 1905-yildagi voqealardan so'ng jonlanadi. Eng muhim masala, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik g'oyalarni xalq ongiga singdirish, ma'rifat va ma'naviyat ishlarini yo'lga qo'yish zarariyati edi. Bu o'rinda ma'rifatparvar shoirlarning ijodiy faoliyatida shakllangan “Jadidchilik” (arabchadan “yangilik”) harakati alohida ahamiyat kasb etdi. O'rta Osiyoda jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy (1874 - 1919), jamiyat a'zolari bo'lgan shoirlar: Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Shakuriy va boshqalar bilan birgalikda jadidchilik harakatini oldiga qo'ygan maqsadi hamda vazifalar masalasi to'g'risida bir to'xtamga kelindi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsadi va dasturi xususida N.Karimov o'zining “Jadidchilik nima?” maqolasida batafsil bayon qiladi. Xususan, jadidchilik harakatining to'rt asosiy maqsadini keltiradi. Jadidchilik g'oya va harakati yildan-yilga avj oldi va mahalliy xalqlar orasida ommalasha bordi. Chunki, ular chorizm siyosatining xalq erkinligiga, milliy o'yg'onishiga qarshi qaratilgan mohiyatini fosh qilar edilar.

Ma'rifatparvar shoirlarning qalami o'tkir, eng muhimi xalq ozodligini kuylovchi she'riy va badiiy asarlari, sahnaviy namoyishlari, oddiy xalqqa ozodlik kurashi qanchalar zarur ekanligi va uning mohiyati xususida oddiy va sodda ma'lumotlar bilan ta'minlar edi. Jadidchilik harakatining asosiy maqsad va vazifalari O'rta asr maktablari o'rniga, ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish jadidchilik g'oyalarni xalq ommasiga singdirish, matbuot hurriyati uchun kurash, xalq uchun tushunarli adabiyot va teatrni yaratish; Xotin - qizlarni paranjidan chiqarish, jadid maktablariga qatnashishlarini ta'minlash orqali taqdirlarini o'zgartirish;

Jadidchilik harakati namoyandalari: Ma'rifat nurini va vatan tuyg'usini targ'ibot etishda va amalda joriy qilishda, jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri shoir, dramaturg va adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat (1886 - 1938)ning ijodini alohida e'tirof etish lozimdir. U jadidchilik harakatining asoschilari va

rahbaridan biri edi. O'rta Osiyoda eski maktabni va maorifni isloh etish, yangi usulli jadid maktabini hayotga joriy etish g'oyalarini ilgari surdi, jamiyatni, xususan Buxorodagi tuzumni keskin tanqid ostiga olib, turli omma harakatlarida faol qatnashdi. Uning dunyoqarashida ma'rifatparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari yetakchilik qildi. Xususan, Abdurauf Fitratning musiqa san'atiga qo'shgan hissasi alohida e'tirofga loyiqdir. 1921-yili Buxoroda Sharq musiqa maktabini tashkil etib, uning birinchi rahbari bo'lgan. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda va xonandalar) bilan birga Viktor Aleksandrovich Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etgan. U shu vaqtdan boshlab "Shashmaqom" kuylarini to'plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitrat tashabbusi bilan Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'anilarda.n Buxoro Shashmaqomi Viktor Uspenskiy tomonidan ilk bor notaga olinib, nashr etildi (1924). Bundan tashqari, Fitrat "Shashmaqom", "O'zbek musiqasi to'g'risida" deb nomlangan maqolalari hamda "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1927) risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi. Atoqli shoir, dramaturg, bastakor va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889 - 1929) ham ijodiy faoliyatining ilk davrida Nihoniy taxallusi bilan turli mavzu va shakllarda she'rlar yozdi.

Hamza 1913-yilda Toshkentning Qashqar mahallasida yangi "Jadid" maktabini ochdi. 1915 — 1917-yillar orasida muallif "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" nomli majmuani yaratdi. "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Savsar gul", "Sariq gul", "Yashil gul" va "Atir gul" nomlari bilan to'plamga kiritgan she'riy turkumlari omma o'rtasida keng tarqaldi. Hamzaning mazkur "Milliy she'rlar"ida ilgari surilgan g'oya O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritib, taraqqiyot uchun kurashayotgan bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega".

Xullas, jadidchilik harakati paydo bo'lishi bilan chor Rossiya ma'muriyati va mahalliy muttasiblar va "qadimiy"larning qattiq qarshiligiga duch keldi. Shunga qaramay, jadidchilikning g'oya va harakatlari yildan-yilga avj ola boshladi va mahalliy xalqlar orasida ommalasha bordi.

Ayniqsa, jadidchilar harakati va uning namoyandalari adabiyot va san'at an'analari davom etish bilan yangi uslubli milliy teatrni barpo etishga ham katta ahamiyat berdilar. Yevropa uslubidagi milliy teatrning ravnaq topishida O'rta Osiyo jadidchilar harakatining tashkilotchisi, Mahmudxo'ja Behbudiy birinchilardan bo'lib, 1911-yilda "Padarkush" nomli pyesani yozdi. 1914-yili Samarqandda o'zi tashkil qilgan havaskorlar teatrida, bu fojiali asarni ozarbayjonlik rejissyor Aliasqar Asqarov sahnalashtirdi. "Padarkush"ning sahnada ko'rsatilishi katta madaniy voqeaga aylanib ketdi. Spektakl tez orada Toshkent, Kattaqo'rg'on, Qo'qon, Andijon, Namangan, Farg'ona, Buxoro shaharlarida namoyish qilindi. Shuni aytib o'tish joizki, XX asrning boshlarida Turkistonda yangi usulli ustoznavozlik milliy teatrining barpo etilishida, rus teatridan tashqari, ayniqsa qozon, tatar va ozarbayjon teatrlarining o'lkamizga 1910-yillardan boshlab drama, 1914-yildan esa Ozarbayjon musiqali teatrlarining gastrolga safari ulkan madaniy voqeaga aylanar edi va o'zbek ziyolilariga katta taassurot qoldirardi. Ular ham milliy teatrni barpo etishni orzu qildilar. Ozarbayjon musiqali teatrining gastrollari davrida ulug' kompozitor Uzeir Gadjibekovning "Layli va Majnun",

“Asli va Karim” operalari, “Arshin Molchi” hamda “U o‘lmasin, bu o‘lsin” kabi musiqali komediyalarini o‘zbek tomoshabinlari zavq bilan tomosha qildilar. M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi dan keyin Turkistonda o‘zbek yozuvchilari birin-ketin turli mavzularda pyesalar yoza boshladilar va ko‘p mahalliy havaskorlik teatr jamoalarini tuzdilar. O‘lkamizda 1911-yildan to 1917-yilga qadar o‘zbek shoir, dramaturglari tomonidan quyidagi pyesalar yozildi va sahnalashtirilgan edi: Sh.Xurshidning “Bezori”, “Terakxo‘r”, “Qora xotin”, “Orif va Maruf”; A.Samadovning “Mahramlar”; Xoji Muin Shukralloning “Mazluma xotin», “Juvonbozlik qurboni”, “Qozi ila mulla”, “Eski maktab, yangi maktab”; Abdulla Badriyning “Juvonmarg”, “O‘gay ota”, “Boyvachcha”, “Saodat bitdi”; Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi”, “Pinak”; Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”; Hamzaning “Zaharli hayot”, “Feruzaxonim”, “Ilm hidoyati”, “Mulla Normuhammad domlaning muf xatosi”, “Loshmon fojiasi”; Abdurauf Fitratning “Begi jon” va boshqa asarlar yaqqol misol bo‘la oladi.

Xullas, Turkistonning yirik shaharlarida bunyodga kelgan havaskorlik teatrlari va ayniqsa, Toshkentda Mannon Uyg‘ur tashkil qilgan “Turon” teatrining faoliyati olqishga sazovor bo‘ldi. Kundan-kunga, yildan-yilga teatrlar ijodiy faoliyati saviya jihatidan yuksala bordi va kelgusida juda ko‘p iste‘dodli yoshlar o‘zlarining hayot taqdirini teatr va musiqiy san‘atlar bilan bog‘ladilar. O‘zbek xalqining musiqa merosi boy an‘analarga va qadimiy tarixga egadir. Uning davrlar osha rivoji, xalq musiqasi va mumtoz musiqasi negizida rivoj topib kelganligi amaliyotdan ma‘lumdir, Musiqa san‘ati insoniyatning ma‘naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak kamolotini belgilovchi mezonlardan biri sifatida ardoqlanib kelinadi. Unda har bir xalqning milliy an‘analari, urf-odatlar, marosim va qadriyatlari munosib o‘rin olgan. Musiqa ijrochiligi, xalq musiqa madaniyatining shakllanib, rivoj topuvchi jonli jarayoni ekanligi hammaga ma‘lum. Uning namoyandalari bo‘lmish sozanda, xonanda va bastakorlar xalq madaniyatining o‘ziga xos mutasaddilari sifatida e‘zozga loyiq ko‘rilgan. O‘zbek musiqasining XX asr jarayonida, zamon talabi doirasida keskin rivojlanganligi tuzumning o‘zgarishi, yangi munosabatlarni yuzaga kelganligi bilan bog‘liqdir. Buning zaminida, eng avvalo, Yevropa madaniyatining kirib kelishi va unga asoslangan holda turmush tarzini shakllanganligi hamda musiqa ijodkorlarining yangi avlodi tarbiyalanganligi bilan bog‘liqdir. XX asr o‘zbek musiqa ijodiyoti yangi avlod shakllanishi bilan bog‘liqdir. Uning shakllanish mezonlari va rivojlanish yo‘lining o‘zbek kompozitorlik ijodi hamda zamonaviy musiqa san‘atining ommalashishi bilan bog‘liq bir qator omillari mavjuddir. Shunga ko‘ra, XX asr o‘zbek musiqasi rivojlanish jarayonini uch bosqichga bo‘lib tahlil qilish o‘rinlidir. Har bir davr o‘zining musiqiy an‘analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o‘z aksini topgan. Insoniyat esa o‘z ma‘naviyati darajasida o‘zining ma‘naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantirib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o‘z samarasini namoyon etib kelgan. Musiqa va adabiyot hamma zamonlarda ham bir biri bilan uzviy chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular insonlarda ezgulik va insoniylik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi (elektron versiyasi).
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: 2002.
4. История музыки народов Средней Азии и Казахстана. - М.: 1994.
5. O‘zbek musiqasi tarixi. -T.: 1981.
6. XX asr O‘zbek adabiyoti. Darslik. T.: 1995.
7. Karimov N.“Jadidchilik nima” //San’at. -T.: 1990, №. 12. 1991, №1

MILLIY RUH IFODASIDA MUMTOZ POETIK USLUBNING O‘RNI

**Halima YULDASHEVA,
QDPI mustaqil izlanuvchisi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida an’anaviylik, adabiy izdoshlik masalalari Alisher Navoiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat ijodi misolida tahlil qilingan. Shuningdek, Erkin Vohidov she’riyatida an’anaviylikning o‘ziga xos tarzda shaxs va jamiyat aloqadorligida qalamga olingani shoir ijodi va mumtoz she’riyat asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: she’r, an’anaviylik, Alisher Navoiy an’analari, fazilatlar, illatlar tanqidi, badiiy talqin.

Аннотация:

В статье анализируются вопросы традиции литературной преемственности в узбекской классической литературе на примере Алишера Навои, Огахи, Муқими, Фурката. В поэзии Эркина Вахидова традиционализм личности и общества исследуется на основе творчества поэта и классической поэзии.

Ключевые слова: поэзия, традиция, традиции Алишера Навои, достоинства, критика пороков, художественная интерпретация.

Annotation:

The article analyzes the issues of tradition and literary succession in Uzbek classical literature on the example of Alisher Navoi, Ogahi, Muqimi, Furkat. In Erkin Vahidov’s poetry, the traditionalism of the individual and society is studied on the basis of the poet’s work and classical poetry.

Keywords: poetry, national spirit, traditions of Alisher Navoi, criticism of virtues, vices, artistic interpretation.

Har qanday ijodkor shakllanishi, adabiy iste’dodining yuksalishi undagi muayyan adabiy-estetik omillar bilan bog‘liq holda yuz beradi. Erkin Vohidov ijodida bunday ta’sir kuchi yaqqol sezilib turadi. Shoir mumtoz adabiyot obihayotidan sipqorib, musaffo havosidan bahra olib yaratgan manzumalarda

betakror manzaralar chizadi. Erkin Vohidov “g‘azal bo‘stoni”ga bejiz kirmaganini o‘zining adabiy o‘ylari aks etgan dastlabki toplamlaridan birida shunday ifoda etgandi: “G‘azal – murakkab va ancha qiyin janr. G‘azalnavisdan oz so‘zda ko‘p ma’no berish, fikr durdonalarini badiiy tashbeh sadaflari ichida taqdim etishni talab etuvchi janr...Aruz adabiyotning, umuman, san’atning hamma turlari kabi talant va mahorat, teran xayol va ehtiros talab qiladi”. [2, 21]

Shoir mumtoz janrlarga qo‘l urar ekan, xuddi ana shu tamoyillarga asoslanadi. Ustoz shoirlar ijodxonasidan ilhomlangan E.Vohidov bir-biridan go‘zal, latif g‘azallar yaratadi. Shoirning “Kechir, yo Rab” g‘azalida mumtoz adabiyotimiz darg‘alari Alisher Navoiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat an‘analari ta’sirini sezish mumkin. Adabiyotshunoslikda she’riy san’atlar mavzusi - alohida tadqiqot obyekti bo‘la oladigan keng mavzu. Biz she’riy san’atlardan ayrimlarining ijodkor asarlarida qay darajada aks etganiga diqqatni qaratmoqchimiz, xolos.

Professor Anvar Hojiahmedov “She’riy san’atlar” kitobida “She’riyatimizda juda keng qo‘llangan nido usuli lirik qahramonning boshqa shaxslarga, narsalarga xitob qilishi, ularga murojaat etgan holda o‘zining ichki kechinmalari, tuyg‘ulari, tilaklari, mulohazalarini bayon qilishini nazarda tutadi. Bu xil tasvir asardagi timsollarning ma’naviy qiyofalarini jonliroq, ta’sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi” [3,110], – deb yozadi. Kelib chiqadiki, tilshunoslikda undalma vazifasidagi so‘zlar lirik janrga oid badiiy matnda nido san’atini yuzaga keltiradi.

Nido usuli hamd, na’t, munojot va boshqalarda Oллоhga munojot, payg‘ambar alayhissalom vasfi tarzida qo‘llansa, ishqiy she’riyatda mahbubaga, do‘stlarga, ko‘ngilga, saboga, boshqa jonli va jonsiz narsalarga xitob, murojaat ko‘rinishida aks etadi [3, 11] Erkin Vohidov she’riyatida nido san’ati asosida g‘azalning mazmun-mohiyati ham yangilanganini ko‘rish mumkin. Hazrat Alisher Navoiy asarlarida nido san’atiga ko‘plab misollar topish mumkin. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning o‘limi oldida otasi, onasi, Bahromga, tog‘ga, teshasiga murojaati, “Layli va Majnun” dostonida Qaysning bog‘dagi xilma-xil gullarga, sahrodagi hayvonlarga nidosi ushbu qahramonlarning ichki olami, qalb tug‘yonlarini g‘oyat jozibali ifodalashga imkon bergan. Hazrat Navoiy asarlarida Oллоhga munojot shoir ijodiy niyatini ifodalash shakli, balki badiiy konsepsiya darajasiga ko‘tarilgani kuzatiladi:

*Bu egasiz it bo‘lib erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasin, yo **Rabki**, hargiz banda sultondin judo.* [1, 21]

Yoki

*Garchi sabrim uyi yanglig‘, aylading vayron meni,
Doimo, yo **Rabki**, husning mulkidek obod bo‘l* [8, 42]

Yoki

*Ul oying gulshani husnun xazondin asrag‘il, yo **Rab**,
Gul-u shamshodin osebi zamondin asrag‘il, yo **Rab**.* [8, 96]

Yoki mashhur tuyuqlaridan birida shunday nido mavjud:

***Yo Rab**, ul shahd-u shakar yo labdurur?
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur?
Jonima payvasta novak otqali,
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabdurur?*

O‘zbek mumtoz adabiyotining hazrat Alisher Navoiydan keyingi eng ulug‘ namoyandalaridan biri, buyuk shor va mutafakkir, tarixchi va tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy lirik she‘rlari rang-barangligi, hayot falsafasining betakror badiiy talqini, milliy ruh va umumbashariy g‘oyalar uyg‘unligi jihatidan alohida ahamiyatga ega [4.2]. “Yo Rab” radifi bilan yozilgan g‘azalida Ogahiy “ishq zavqi, nafs komi, rohi haqiqat, jon qushi, fano ahli, dahr xalqi, pushaymonlig‘ lashkari” kabi tasavvufiy mohiyatni ifodalagan istioralar vositasida Ollohga munojot qiladi:

*Ishq zavqini yetkur jong‘a har nafas, yo Rab,
Nafs komini bir dam qilma dastras, yo Rab...
Jon qushin parafshon qil, tanni aylabon foni –
Kim, qilibdur afsurda oni bul qafas, yo Rab.* [5, 8]

Ayni usuldagi nido Muqimiyda va Furqat lirikasida ham mavjud bo‘lib, bu an’anaviy tarzda badiiy ijodda o‘ziga xos izdoshlikni hosil qilgan. Muqimiy o‘zining ayni radifli o‘z g‘azaliga bog‘lagan muxammasida shunday yozadi:

*Kuyub ishqing o‘tig‘a doimo bo‘ldim fano, yo Rab,
Dutunimdin qaro to‘n kiymish ul sab‘a samo, yo Rab,
Na qildim sangakim, etding mani andin judo, yo Rab,
Yutarman zahri hajring ishqida nozik ado, yo Rab,
Bu yanglig‘ talx komim, bormu dardimg‘a davo, yo Rab.* [6, 67]

Jami 45 misradan iborat bo‘lgan ushbu muxammas ilohiy ishq mavzusida yozilgan eng go‘zal manzumalardan hisoblanadi. Ayrim o‘rinlardagina shoir o‘z holining zabunligini, yozuqlari bisyorligini “Tuzuk ishlarni tashlab, doimo isyon sari qochtim” misralarida nadomatlarini pushaymonlik bilan ifoda etadi.

Zokirjon Furqat qalamiga mansub “Yo Rab” radifli she‘r g‘azal janrida yozilgan. Shoir chin qalbdan Yaratganga iltijo qilib, “qorong‘u dilg‘a nuri pokingdan ziyo bergil, zangi gunah ketib, oyinadek jilo topsin” deya, inoyat qilishini so‘raydi.

*Zamon ahli hama begonadur rohi haqiqatda,
O‘zungdin o‘zga yo‘qdur qo‘l tutarg‘a oshno, yo Rab.*

Har baytning so‘ngida “yo Rab” radifi nido sifatida yangrab, g‘azalning ta’sir kuchini yanada oshiradi.

*Xaloyiq ichra tongla qilmag‘aysan xasta Furqatni,
Habibing hurmati, sharmandai Ro‘zi jazo, yo Rab.* [7, 8]

Erkin Vohidovning “Kechir, yo Rab” she‘ri ham g‘azal janrida yaratilgan bo‘lib, mazmun ijtimoiy-biografik asoskarga ega ekani bilan alohida ajralib turadi. Shoir har bandning so‘nggi ruknini “Kechir, yo Rab, kechirdim men” tarzida yakunlaydi.

*Menga tosh otdi bir johil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men.
U quldur, bandayi g‘ofil,
Kechir, yo Rab, kechirdim men.*

Shoir o‘ziga otilgan “tosh”larni aql-hushi joyida bo‘lmagan, jahl otiga mingan kimsaning johillik, g‘ofillik paytida qilgan xatosi, shu bois uni kechirish odamiylikka yarashiq ish bo‘lishini, Yaratgandan uni kechirishini so‘rab iltijo qiladi. Ijodkor shunday samimiy, pok qalb bilan munojot qiladiki, undagi

beg‘uborlik, ma‘sumlikka tan bermay iloj yo‘q. Shoir bu olamdagi fitna, fisq-fujur qarshisida “adolat atalmish mezon ham gohi nochor qolishini” bayon qiladi.

Jahonda fitnalar bordir,

Adolat gohi nochordir.

Adolat qil, o‘zing odil,

Kechir, yo Rab, kechirdim men.

Hattoki, “xato qilgan qotil emas-ku”, kimlardir uning xato o‘qiga nishon bo‘lgan esa-da, o‘zida uni kechirishga kuch topa oladigan darajadagi olijanob inson ekanini anglash mumkin. Zero, u “so‘ziga kirdi shaytonning”, “ko‘ngil aldamog‘a moyil” bo‘lishi uning aybi emasligini uqtiradi va iymoni but, komillik yo‘lidagi shaxs sifatida o‘sha “iymoni siniq odamga motam tutayotganini” bildiradi va dilidagi e‘tiqodni mustahkam qilishini so‘rab yolvoradi.

Kechir, yanglishmagan kim bor,

Mening ham ko‘p gunohim bor,

Odamzod asli nokomil,

Kechir, yo Rab, kechir, yo Rab! [8, 3]

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodi orqali kelajak avlod mumtoz adabiyot an‘analarining go‘zal qirralarini ochaveradi. O‘z navbatida, shoir asarlarini tadqiq etish jarayonida bobolarimizning ruhiyati, falsafasi ongimizga singib, yana va yana go‘zal an‘analar davom ettirilaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. Xazoyin ul-maoniy. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Vohidov E. Shoiru she‘ru shuur. – T.: “Yosh gvardiya”, 1987.
3. Hojiahmedov A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq 1998.
4. Jabborov N. Muhammad Rizo Ogahiy. Mulk-u millatg‘a emin o‘lsa agar ogohlar...(So‘zboshi) – T.: Adabiyot, 2022.
5. Muqimiy. O‘zim har joydaman, ko‘nglim sandadur... (She‘rlar). – T.: Adabiyot, 2022.
6. Furqat Zokirjon. Ishqingda kuyub, jono... (She‘rlar). – T.: Adabiyot, 2021.
7. Vohidov E. To‘la asarlar to‘plami. 3-jild. – T.: 2016.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING MUSIQA VA MADANIYAT RIVOJLANISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Nfsimxon MADAMINOV,
Qo‘qon DPI Musiqa ta‘limi
kafedrası katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa va madaniyat rivojlanishi tarixiga bir nazar hamda musiqa madaniyati rivojiga xissa qo‘shgan o‘zbek musiqa madaniyati namoyondalarining olib brogan ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: san‘at, ijod, bilim, tashabbus, metod, ma‘naviyat, tarix, meros, musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, falsafa.

Annotation

This article looks at the history of music and culture, and discusses the work of Uzbek musicians who have contributed to the development of music culture.

Key words: art, creativity, knowledge, initiative, method, spirituality, history, heritage, music theory, music history, philosophy.

Аннотация

В данной статье рассматривается история музыки и культуры, а также рассматривается творчество узбекских музыкантов, внесших свой вклад в развитие музыкальной культуры.

Ключевые слова: искусство, творчество, познание, инициатива, метод, духовность, история, наследие, теория музыки, история музыки, философия.

Insonlarni ma'naviy jihatdan boy, sof barkamollik darajasiga yetkazadi. Nazm va musiqa doimo yonma-yon yashaydi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalardagi go'zallikni idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma'naviy olamni kengaytiradi. Shu bois, musiqani "tilsiz falsafa" deb bejiz aytishmagan. Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlari yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ - 4038 sonli qarori ham muhim ahamiyatga egadir. Milliy ma'naviyatimiz rivojida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Milliy musiqa san'atining eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ommasiga keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalaridan biridir. Musiqa ham real voqelikni aks ettiradi. Musiqaning milliy ma'naviyatimizga ta'sir kuchi shu qadar kattaki, uning yordamida bemorlarni davolash mumkinligini fan allaqachon isbot qilgan. Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta'sir kuchiga katta ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin, degan fikrni ilgari surgan edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy esa rus inqilobiy harakatlari va qo'shiqlaridan ilhomlanib, o'zining qo'shiqlarini rus qo'shiqlari yo'nalishlarida ijod etgan. Masalan: "Hoy ishchilar", "Yasha Sho'ro", "Biz ishchimiz", "Ishchilar uyg'on", "Kecham tong otdi", "Keldi ochilur chog'ing" qo'shiqlari. XIX asrning II yarmidan boshlab rus san'atining o'zbek san'ati rivojiga katta turtki bo'lganligini guvohi bo'lamiz. Musiqa-qo'shiqchilik ijodi, musiqa nazariyasi namoyandalari xayoti davomida o'zbek musiqa san'ati rivojiga katta xissa qo'shgan. Xonliklarda sozandalik va musiqa san'ati ham yaxshi rivojlangan. Shu o'rinda madaniyatning bu sohasiga o'qituvchi alohida to'xtalsa va misollar keltirsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy "Katta musiqa" kitobida musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma'naviy, ruhiy ta'siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan. Forobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo'libgina qolmay, amaliyotchi ham bo'lgan. Uning o'zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa asbobi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo'jizakor ta'siri haqida fikr yuritib, Forobiy "Ilmlarning kelib chiqishi to'g'risida" asarida shunday yozadi: "Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamni tartibga

keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi”.

Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg‘ular, zavq - shavqli g‘oyalar olamini ochib beradi.

Ma’lumki tarixga bir nazar tashlasak O‘rta Osiyo xalqlarining boshqa xalqlar bilan aloqalari mustahkam bo‘lgan. Jumladan, rus san’atkorlari Turkiston o‘lkasida o‘z mahoratlarini o‘zbek xalqiga ko‘rsatganlar va o‘zbek san’ati va madaniyati bilan yaqindan tanishganlar. Ma’lumki, boshqa millat ijodkorlari o‘zbek musiqa va san’atiga qiziqish bilan qaragan. Bular birinchi marotaba Toshkentda 1890-yilda Turkiston ko‘rgazmasida ijro etilgan. [7, 12] Lekin yuqoridagi barcha rus kompozitorlarining asarlari bizgacha yetib kelmagan, chunki asosiy musiqiy merosini o‘rganish, yozib olish va ular asosida katta-katta milliy asarlar ijod qilish XX asrning boshlarida boshlanib ketadi. Ana shu davr davomida milliy o‘zbek mutaxassislari, bastakor va kompozitorlar voyaga yetadilar va musiqa san’atining barcha janrlariga asarlar yarata boshlaydilar. O‘zbek madaniyatini, san’atini va xalq folklorini o‘rganishlariga qiziqish hosil bo‘ladi.

O‘zbek xalqi boy tarixiy o‘tmishga ega. Uzoq davom etgan rivojlanish jarayonida u boshqa O‘rta Osiyo xalqlari kabi insoniyatga fan va san’at sohasida buyuk siymolarini yetkazib berdi. Asrlar mobaynida uning boy va o‘ziga xos musiqa madaniyati ham vujudga keldi. O‘rta Osiyo hududiga ko‘p istilo qilinganligi tufayli uning o‘tmish obidalarida qadimgi yunon, hind, Eron, arab madaniyatining ta’siri seziladi. Ammo, bu ta’sir o‘zbek musiqasi o‘ziga xosligiga putur yetkazmadi, balki boyidi. O‘zbek xalqining musiqa san’ati o‘zining badiiy an’analari, mahorat qonunlari, tasviriy vositalariga ega bo‘ldi. Xalq musiqa ijodiyotining rang-barang janrlarini yaratdi. Obrazlarga boyligi, mazmunan tuzilishi va shakllanishining mukammalligi bilan hayratda qoldirgan og‘zaki an’anadagi professional san’at maqomlar sistemasini yaratib, uni asrlar osha olib kelayotgan bastakorlar san’ati g‘oyatda rivoj topdi.

Yoshlarni boy ma’naviy meros hisoblangan o‘zbek musiqa san’ati tarixini puxta biladigan yyetuk mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash masalasi bugungi kunning muxim, ustivor vazifalaridan hisoblanadi. Birinchi navbatda yoshlar milliy g‘urur va yuksak madaniyat egasi bo‘lishlari uchun xam musiqa san’atiga oshno bo‘lishlari kerak bu vazifalarni amalga oshirishda musiqa fani o‘qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2017-yil
- Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017-yil
- Mirziyoyev Sh. Xalq so‘zi, 2017-yil, 16-yanvar
- Darvesh Ali Changiy. Risolayi musiqiy. O‘zR FA ShI
- Alaviya. M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. T. 1974-y.
- Solomonova T.Y. “O‘zbek musiqasi tarixi”. –T.: O‘qituvchi, 1981.
- S.M.Veksler. Ocherki istorii o'zbekskoy muz'kal'noy kul'turi. –T.,1965.

QO‘QON ADABIY MUHITI SHOIRLARI IJODIDA MUVASHSHAHCHILIK AN‘ANASI

Arofatoy MUYDINOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika instituti O‘zbek
adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)

Аннотация

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotidagi, xususan, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodidagi muvashshah asarlar haqida so‘z boradi. Muvashshah o‘zbek mumtoz she‘riyatida keng tarqalgan she‘riy san‘atlardandir. Ijodi o‘rganilayotgan shoirning adabiy davrasi, yaqin do‘stlari kim bo‘lganini o‘rganishda muvashshahlar muhim manba bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: she‘r, she‘riy san‘at, muvashshah, tavshih, g‘azal, qit‘a, muxammas, tazmin.

Аннотация

В статье девятнадцатого века рассматривалась научная литература, в частности, литературная среда Конкади, которая является параллельной работой. Мувашшах - одно из самых распространенных поэтических искусств в узбекской классической поэзии. В изучении литературных связей поэта, кто был его близкими друзьями, мувашшах может стать важным ресурсом.

Ключевые слова: поэзия, поэтическое искусство, мувашшах, тавших, газел, мухаммас, тазмин.

Annotation

The article of the nineteenth century examined scientific literature, in particular, the Kokan literary environment, which is a parallel work. Muvashshah is one of the most common poetic arts in Uzbek classical poetry. In the study of the poet's literary ties, who his close friends were, the muvashshah can become an important resource.

Key words: poetry, poetry art, muvashah, tavhish, gazelle, muhammas, tazmin.

O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyoti vakillari yaratgan muvashshahlar adabiyotshunoslikda deyarli tadqiq etilgan emas. Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, Qo‘ldosh Pardayev singari olimlarning bu mavzuga oid tadqiqotlari muvashshahning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritgani, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgani jihatidan ahamiyatlidir. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida Feruz, Kamiy, Miskin, Haziniy, Muqimiy, Furqat kabi ulug‘ shoirlar muvashshahchilikda shuhrat qozonishgan.

Muvashshah she‘riy san‘ati arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “bezamoq”, “ziynatlamoq” ma‘nolarini ifodalaydi. Muvashshah janr emas, she‘riy san‘atlardan biri, shuning uchun g‘azal, muxammas, murabba‘, musamman, mustahzod, masnaviy, qit‘a, ruboiy, fard kabi janrlarda yaratilishi mumkin. Muvashshahning

har bir misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan biror kishining ismi kelib chiqadi. Ba'zan, ism misralar tarkibidagi so'zlar orasiga yashiringan bo'ladi. Bunday holda muvashshah muammo usulida yechiladi.

Muvashshahning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiyning yozishicha, muvashshah, uning shakli va muayyan tartibda tuzilishi borasidagi fikrlar X asrda Arabistonda yashab ijod etgan shoir Muqaddam ibn Mu'afa al-Kabriy qalamiga mansub. O'zbek adabiyotida esa muvashshahlarning dastlabki namunalari qachon yaratilgani hozircha ma'lum emas, lekin XVIII-XIX asrlarda ijod ahli orasida bu san'at ancha keng tarqalgan[2,123]. Ayniqsa, XIX asrda muvashshahchilik an'anasi shu darajada ommalashganki, hatto, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorati bilan o'lchangani manbalarda ta'kidlanadi [6,91].

Muvashshahlar, asosan, ishqiy mavzuga bag'ishlanadi. Garchi ularda ma'shuqaning ta'rif-u tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo'ladi. Shuning uchun ham "...muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa, o'sha g'azalda ta'rif etilgan obraz ham aynan mazkur kishining o'zidir deb o'ylash xatodir, – deb yozadi M.Shayxzoda Furqat muvashshahlari munosabati bilan yozgan maqolasida, – muvashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo'lishi mumkin. Masalan, Furqatning "Maqsudjon" ismiga bag'ishlangan g'azalida ... sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi "Maqsudjon" emas, balki go'zal bir ayoldir"[6,92]. Furqat muvashshahlari haqida aytilgan bu mulohazalar boshqa ijodkorlar yaratgan muvashshahlarga ham taalluqli. Muqimiyning Jamolxon nomiga bag'ishlangan muvashshah-g'azalidan olingan quyidagi satrlar buni tasdiqlaydi:

Jumlai Ho'qand mavzun qadlarini sarvari,

Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.

Mahv o'lub mardum xiromini ko'rub bozor aro,

Deydilar ba'zi "malak", ba'zi "bashar", ba'zi "pari"[5,20].

Oydek ravshanki, g'azalda ta'rif-tavsif qilingan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari bo'lgan, ko'rganlar "malak"mikan, "bashar"mikan, yo "pari"mikan, deb mahliyo bo'lgan go'zal, albatta, Jamolxon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir mahbuba, yor.

Muvashshahlar bilan tanishar ekanmiz, ismlariga muvashshah bitilgan shaxslarning kimligi, ularning shoirga qanday aloqasi borligi va she'r nima munosabat bilan yozilganligi qiziqish uyg'otishi, tabiiy. Shunday ekan, muvashshahlar ijodi o'rganilayotgan shoirning adabiy davrasi, yaqin do'stlari kim bo'lganini o'rganishda asosli manba bo'lishi mumkin[4,174].

Qo'qon adabiy muhitining zabardast vakillaridan Muqimiy ijodining katta qismini muvashshah-g'azallar tashkil etadi. Jumladan, shoir ijodini o'rgangan adabiyotshunos olim Q.Pardayev Muqimiy ijodiy merosida 75 ta muvashshah-g'azal mavjudligini aniqlaydi. "Shoirning Muhsinxon nomiga muvashshah bitilgan 7 baytli:

Mahvasho, hech kim sango mendek" giriftor o'lmasun,

Kecha-kunduz sog'inib mushtoqi diydor o'lmasun, -

matla'li g'azali Alisher Navoiyning "Kimsa mendek dahr aro besabru orom o'lmasun" misrasi bilab boshlanuvchi g'azaliga nazira qilingan"[4,172]. Shoirning Rashidxon, Asrorxon, Yusufxon, Qo'zixon, Usmonjon, Muhammadjon, Komilxon, Tillaxon, Mullajon, Nazirxon, Namozxon, Solihjon, Jabborxon, Hoshimjon, Norsaxon, Adolxon, Siddiqjon, Mansurxon, Abdullaxon, Nizomxon, Sul-tonxon, Qurbonxon, Qosimjon, Akbarxon, Toshpo'latxon kabi yaqinlari nomiga bitilgan muvashshah-g'azallari shunchaki bitilmay, ko'pincha biror voqea sabab yozilganini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir muvashshah o'ziga xos yozilish tarixiga ega ekanligi ayon bo'ladi.

Shuningdek, olim Muqimiyning "Topti husning ko'zgusi xatting g'uboridin safo" matla'li muvashshah - g'azali Tojixon ismiga bitilganini aniqlaydi. Tojixon kim, uning shoirga qanday aloqasi bo'lgan? Shoirning jiyani Ro'zimuhammad Do'smatovga yozgan maktubida quyidagilarni o'qiy-miz: "... Ba'da janobi hurmatli boylaringizni xonadonlarini haqlariga faqirdin xolis duoyi xayr aytingiz. Mullo Azimjon va mullo Tojixon mazkurlarni ko'rsangiz salom ayting" Maktubda tilga olingan Mullo Azimjon va mullo Tojixon o'sha paytda Moskvaga qatnab savdogarchilik qilgan qo'qonlik boylardir. Shoir jiyaniga yozgan maktublarini shular orqali Moskvaga jo'natib turgan[4,173].

Bu davr adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan, Qo'qon adabiy muhitining peshqadam vakillaridan biri Ziyovuddinxon Kattaxoja o'g'li Haziniy Xo'qandiy ijodini o'rgangan adabiyotshunos O.Jo'raboyev shoirning davr an'anasiga ko'ra muvashshahchilikda ham barakali ijod qilganini, she'rlarining 25 tasida muvashshah san'ati aks etganini, shulardan to'rttasi murabba', bittasi muxammasda, qolgani esa g'azallarda ekanini ta'kidlaydi[3,86]. Yuqorida muvashshahlar turli janrlarda yaratilishi mumkinligini aytib o'tgan edik. Demak, Haziniy muvashshahlarini nafaqat g'azal va muxammaslarda, balki murabba'larda ham qo'llagan. Jumladan, To'tixon-To'ti nomiga 3 murabba', Ibrohimxon nomiga 1 murabba' bog'lagan. Shoirlar, asosan ishqi majoziy aks etgan she'rlarini muvashshah qilishgan. Prof. Sh.Yusupov ishqi haqiqiyga bag'ishlangan g'azalni muvashshah tarzida yaratilganiga mumtoz shoirlar orasida faqatgina Haziniy to'ra merosida duch kelganini yozadi[7,147]. Shoirning ishqi ilohiy kuylangan "Firoq" radifli g'azali Qo'ldoshxon nomiga muvashshah qilingan. G'azal quyidagi maqta' bilan yakunlanadi:

Naqdi umringni dilingga olgucha toatda bo'l,

Ey Haziniy, aytasan zikr-u sanolarni firoq.

Shuningdek, muvashshahlar ko'pincha erkaklar nomiga bog'langan, juda kam shoirlargina ayol nomlariga muvashshah bog'laganlar. Haziniy to'ra ijodida To'faxon, Ashuroyxon, Oyshaxon, Nazirxon, Hamrahxon, To'tixon-To'ti kabi bir necha ayollar nomlariga muvashshah bog'laganligini kuzatish mumkin. Bular esa Haziniy muvashshahlarining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Shoir muvashshah bog'lagan shaxslarning kimligini aniqlash mushkul bo'lsa-da, ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni O.Jo'raboyevning ilmiy tadqiqotlarida uchratish mumkin. Jumladan, nomiga to'qqizta g'azalda muvashshah bog'langan Qo'ldoshxon shoirning

Qumbosdi qishlog'ilik yaqin do'sti, hofiz bo'lganligi u bilan bog'liq xotira-hikoya orqali ayon bo'ladi[3,87].

Xullas, muvashshahlarni o'rganish shoirlar adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ularni ilmiy asosda o'rganish adabiyot tarixining qorong'i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atoullloh Husainiy. Badoyi'u-s-sanoyi'. – Toshkent, “G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti”, 1981.
2. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov., G'oziev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi – T.: “Ijod” nashriyot uyi, 2006, 123-bet.
3. Jo'raboyev O. Haziniy to'ra. – Toshkent, “Fan”, 2007.
4. Pardayev Q. Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – Toshkent, “Muharrir” nashriyoti, 2019.
5. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiy. Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar. – Toshkent, “Muharrir”, 2019.
6. Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – T.: Adabiyot va san'at, 1972, 91-92 betlar.
7. Yusupov Sh. Tarix va adab bo'stoni. – Toshkent, “Ma'naviyat”, 2003.
8. Qayumov A. She'riyat jilolari. – T.: O'qituvchi, 1997. 45-bet.

MAJZUBIYLIK VA QO'QON ADABIY MUHITI

**Naima ALIQULOVA,
O'ZRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti mustaqil tadqiqotchisi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
akademik litseyi o'qituvchisi
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

XVIII –XIX asrlarda dastlab Farg'onada, so'ngra Turkistonda keng yoyilgan majzubiylik tasavvufiy oqimining etakchisi shayx va shoir Abdulaziz Majzub Namangoniydir. Manbalarda majzubiylikning paydo bo'lish tarixi ilk o'rta asrlar deb ta'kidlansa-da, uning XIX asrda tasavvufiy oqim sifatida kuchayishi Majzub Namangoniy nomi bilan bog'liq. Shu ma'noda, maqolada shoirning tarjimai holi, adabiy merosi haqidagi ma'lumotlardan tashqari Abdulaziz Majzubning shayx sifatidagi tasavvufiy faoliyatiga ko'proq urg'u beriladi. Qo'qon adabiy muhitiga mansub Soleh, Abdulkarim Maxmur, Mirmahmud Qoriy, Haziniy kabi bir necha shoirlarning Abdulaziz Majzubga tariqatda izdosh bo'lganligi, ularning majzubiylik oqimiga mansub ekanligi qo'lyozma manbalardan keltirilgan misollar orqali dalillanadi.

Kalit so'zlar: Abdulaziz Majzub, majzubiylik oqimi, Qo'qon adabiy muhiti, Sharqiy Turkiston, shoir Soleh, Abdulkarim Maxmur, Mirmahmud Qoriy, Haziniy, devon.

Аннотация

В статье проанализированы влияния поэта и шейха Меджзуба Намангани на узбекскую поэзию и мистическую жизнь, который жил XIX веке. Жизнь и творчество поэтов и их связь с мистической доктриной принадлежащих к секте «межзуби» основанной самим Абдулазизом Меджзуба доказывается на основе рукописных источников дошедших до наших времен. Тот факт, что некоторые поэты Кокандской литературной среды, такие как Салих, Абдулкарим Махмур, Мирмахмуд Кори, Хазини были последователями Абдулазиза Меджзуба в секте, доказывают на примерах из рукописных источников.

Ключевые слова. Межзуб Намангани, мистическая доктрина «межзуби», рукопис, мюрид, суфи, поэт Кори, Салих, Махмур, Хазини, мистика, диван

Annotation

The article analyzes the influence of the poet and sheikh Medjzub Namangani on Uzbek poetry and mystical life, who lived in the 19th century. He was the leader of the mystical sect "medjzubi", which was widespread in the 19th century first in Fergana and then in Turkistan. The fact that several poets of the Kokand, such as Solekh, Abdulkarim Makhmur, Mirmakhmud Kori, Khazini, were followers of Abdulaziz Medjzub in the sect, together with belonging to the current of medjzubism, is proven by examples from manuscript sources.

Key words. Medjzub Namangani, mystical doctrine "mejdzubi", divan, manuscript, founder, Kokand, sufi poet, poet Solekh, Abdulkarim Makhmur, Mirmakhmud Kori, Khazini, mystic.

Ma'lumki, XVIII asr oxiri – XIX asrlarda kechgan geosiyosiy jarayonlar xalqaro miqyosdagi, xususan, Markaziy Osiyodagi siyosiy vaziyatga ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Mintaqada yuzaga kelgan bu holat esa o'z o'rnida turli ijtimoiy qatlam vakillarining jamiyatdagi faoliyati o'zgarishiga sabab bo'lgan. Jumladan, diniy ulamolarning jamiyatdagi roli yanada kuchaygan. Buni o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda turli diniy-tasavvufiy oqimlarning yuzaga kelganligi va ularning hududda kechgan jarayonlarga ko'rsatgan ta'siridan ham bilish mumkin. Mintaqada o'sha davrda faoliyat ko'rsatgan bunday diniy oqimlarni xarakteriga ko'ra ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi siyosiy va ikkinchisi sof ma'rifiy xarakterga ega bo'lgan oqimlar. Ilk o'rta asrlardayoq mavjud bo'lgan va XIX asrga kelib butun Turkistonda keng yoyilgan majzubiylik ko'proq ma'rifiy xarakterga ega bo'lib, uning tarqalishi Abdulaziz Majzub Namangoni nomi bilan uzviy bog'liq. [4,I,6]

O'zbek adabiyotshunosligi Majzub Namangoni shaxsi, ijodi va hayoti haqida u qadar to'liq ma'lumotga ega emas. Ba'zi manbalar, shoirning o'z asarlari hamda ijodkorning izdoshlari bergan ma'lumotlarga tayaniladigan bo'lsa, yirik shayx va shoir Abdulaziz Namangoni Namanganning Degrezlik mahallasida

tugʻilgan, 1857-yilda vafot etgan³⁷ va Namangan shahridagi Mavlaviy Sharif qabristoniga dafn qilingan³⁸.

Abdulaziz Mulla Hasan Koʻchak oʻgʻli Majzub Namangoniy XIX asr naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining yirik peshvosi boʻlib, mumtoz adabiyotimiz xazinasini turkiy va forsiy tillardagi sheʼrlarni oʻz ichiga olgan “Devon”, “Tazkirat-ul avliyo” (“Manoqibi ahli suluk”) nomli tazkira hamda “Dar tavzeh” (“Izohlash haqida”) nomli tasavvuf ilmiga doir asarlar bilan boyitgan.³⁹ Shoir devonining oʻttizdan ortiq qoʻlyozma va toshbosma nusxalari OʻzRFASHI qoʻlyozmalar fondi, Qoʻqon Adabiyot muzeyi hamda baʼzi avlodlari va muxlislarining shaxsiy kutubxonalarida saqlanadi. Devoni XX asr boshlarida uch marta toshbosma usulida nashr qilingan.

Shoir «Devon»iga turli janrdagi sheʼrlar kiritilgan boʻlib, ularning asosiy qismini tasavvufiy-irfoniy ruhdagi masnaviylar, gʻazallar, muxammas va murabbaʼlar tashkil etadi. Hamd va naʼtlar hamda shoirning tariqat silsilasi bayon etilgan masnaviy bilan boshlangan “Devon”, 334 misralik “Soqiynoma” bilan xotima topadi. Shoir oʻz sheʼrlarini xalqona til va uslubda yozgan. Shuning uchun ham shoirning murabbaʼ va gʻazallari, ayniqsa, soqiynomasi majzubiylarning zikr majlislarida oʻziga xos ohang bilan ijro etilgan.[7,225]

Majzub Namangoniyning “Tazkirat-ul avliyo” asari XVII-XIX asr tasavvufiy va tarixiy muhiti haqida maʼlumotlar beruvchi muhim manbadir.⁴⁰ Tazkirada hindistonlik Shayx Ahmad Sirhindiy sarhalqa boʻlgan naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Dahbid tasavvuf maktabi etakchisi Musoxon Dahbidiy va uning xalifalari, izdoshlari zikri asosiy oʻrin egallaydi. “Tazkirai Majzub Namangoniy” asarini tadqiq etish XVIII-XIX asr oʻzbek adabiyoti tarixini yoritishga, naqshbandiya-mujaddidiya tariqatining Turkistondagi rivoji va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini oydinlashtirishga, tasavvufshunoslik fanini yangi ilmiy maʼlumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Abdulaziz Majzub Namangoniy shoir sifatida nafaqat koʻlamli ijodiy meros qoldirdi, balki tasavvuf arbobi oʻlaroq XIX asrda butun Turkistonda keng yoyilgan majzubiylilik oqimiga yangidan jon bagʻishladi. Shoirning oʻz sheʼrlari maxsus maqom bilan oʻqiladigan majzubxonlik zikr majlislari mazkur oqimning vujudga kelishiga turtki boʻldi. Shayxga ergashuvchilar oʻzlarini “majzubiylar” deb atashgan. Ular orasida “korxonai pir”da yetuklikka erishgan eshonlar, pirlar, xalifalar, devonalar bilan bir qatorda Majzubga muxlis boʻlgan oddiy xalq vakillari ham bor edi.

Soʻfiy shoir Buxoroda tariqat tahsilini tamomlagach, dastlab Qoʻqonda yashaydi. Manbalarda Qoʻqon xonligining mashhur siyosiy iqtidorlaridan biri Musulmonqulning ham Majzubga qoʻl bergani bilan bogʻliq maʼlumotlar bor.

³⁷ Tugʻilgan hamda vafot etgan sanasi aniq emas. Manbalarda turlicha keltirilgan.

³⁸ Qabri ustiga keyinchalik majzubiylar eshonlardan boʻlgan Ibrohim Oqqoʻrgʻoniy tomonidan maqbara qurilgan boʻlib, hozirda bu joy katta ziyoratgohga aylangan.

³⁹ Manbalarda muallifning “Dar tavzeh” nomida soʻfiylik atamaları sharhiga bagʻishlangan risola yozganligi haqida maʼlumotlar boʻlsa-da, asar hali topilgan emas.

⁴⁰ “Tazkirai Eshoni Majzub Namangoniy” nomi bilan ham shuhrat topgan mazkur asarning №1337, №2662, №10169 raqami ostidagi nusxalari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qoʻlyozmalar fondida saqlanadi.

[6,564] Shu ma'noda majzubiylk tasavvufiy oqimining dastlabki vatani Qo'qon bo'lganini e'tirof etish mumkin. Eshon Majzubning aksariyat xalifalari aynan farg'onalik bo'lgani fikrimizni dalillaydi. Yana bir jihat: manbalarda majzublarning aksariyati badiiy ijod bilan shug'ullangani qayd etiladi. Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining "Ishq va komillik jazbasi" nomli maqolasida: "Majzublik zavqi bilan shoirlk zavqi o'rtasida ma'lum bir yaqinlik borligi uchun ba'zi majzublari she'r ham yozishgan", - deb ta'kidlaydi.[10,8] Shu ma'noda Abdulaziz Namangoniy Qo'qon adabiy muhitini majzubiylk maktabiga mansub bir nechta iste'dodli shoirlar bilan boyitdi. Izlanishlar asnosida, Xalifa Soleh, isfaralik Maxmur taxallusli shoirlar shayx Majzubning tariqatdagi xalifalari bo'lganligi oydinlashdi. Qo'qonlik xattot va sohibdevon shoir Mirmahmud Qoriy, shuningdek, mutasavvif shoir Ziyovuddin Haziniylar ham o'z misralarida majzubxonlik davralaridan olgan ilohiy fayzlariga ishoralar qilganlar. [4,II,48]

Shoir Soleh haqidagi ma'lumotlar Po'lotjon Domullo Qayyumovning "Tazkirayi Qayyumiy" hamda "Ho'qand tarixi va uning adabiyoti" asarlarida keladi: "Bu shoir Andijonli bo'lub, majzublardandur. Shoir xalifa Abdulaziz Majzubning xulafolaridandur... Andijonda nash'u namo etmishdur... Nomi ham Muhammad Soleh bo'lmishdur... Bayozlarda navhali she'rlari ko'p uchraydi. Axloqg'a doirdur..." [8,375] Olim ushbu ma'lumotlardan keyin Solehning "Sagi Ashobi Kahfdek yaxshilarni suhbatin izla..." deb boshlanuvchi didaktik g'azalini ilova qiladi.

"Ho'qand tarixi va uning adabiyoti"da esa olim o'z qo'lida Solehning 25 tacha she'rlarini o'z ichiga olgan qo'lyozma bayoz borligini, she'rlari tasavvufga doiriligini ta'kidlab, Solehning Majzubga xalifa ekanini isboti bo'lgan mustazodidan mana bu parchani keltiradi:

Yo'l boshla tariqatga shariat yo'li birlan

Toliblari Soleh

Majzubi Namangoniy sanga berdi ijozat hay-hay,

Na xalofat [9,347]

"Yana shul bayozdagi o'n bir baytli bir g'azalini tubandagicha so'zlar bilan tugatadi:

Bu nadamlk notavon Solehni holin so'rsangiz,

Shukrililloh, qutbi Haq Majzubga qo'l bergan manam - deydi " [8,506]

Ko'rinadiki, Xalifa Soleh ham Majzub Namangoniyga bay'at qilib xalifasi darajasiga ko'tarilgan va uning she'rlari g'oyasi yo'sinida ijod qilgan mutasavvuf hamda ijodkor ekan.

Majzub Namangoniyning yana bir xalifasi isfaralik Maxmur taxallusli shoirdir. Uning Majzubga murid ekanini isbotlovchi manbalar va ma'lumotlar nisbatan ko'proq. U kishi xususida ham Po'lotjon Domla Qayyumov kitoblarida bir-birini to'ldiradigan ma'lumotlar uchraydi: "Bu kishi Isfaradan yuqorida nash'u namo etmishdur. Majzubiylardan bo'lib, nomi Mulla Abdulkarimdir. Namanganli shayx Abdulaziz Majzubni xalifasidir". [8,506] Muallif "Ho'qand tarixi va uning adabiyoti" kitobida bu ma'lumotlarni yana to'ldiradi: "Suluki majzubiyaning pirlaridan bo'lib, xalifa Abdulkarim atalgandur. Buning o'ziga maxsus xonaqohi

bor ekan. She'rdagi taxallusi Maxmurdur.⁴¹ "Devoni Majzub"da bu kishining Shayx Abdulazizga atab aytgan bir marsiyasi birga qo'shib bosdirilgandur..." [9,335]

Darhaqiqat, Majzubning deyarli barcha devonlari va uning she'rlari o'rin olgan ko'p bayozlarda Xalifa Maxmurning Majzub vafoti munosabati bilan yozgan "Dar bayoni manoqibi Eshoni Majzub" nomli manoqib-marsiyasi berilgan. Marsiya bayoz va devonlarda "G'azali Maxmur rahmatullohi alayh" boshlanmasi bilan keladi:

*Ma'ni durining koni Majzubi Namangoniy,
Oshiq elini joni Majzubi Namangoniy.
Olam elig'a sarvar, ham murshidu ham rahbar,
Beshak valiy erdilar Majzubi Namangoniy
Ilmi hamadin oshgon, daryo bo'libon toshgon
Sonsiz kishi ergoshgon Majzubi Namangoniy ... [1,84:5,143]*

Hajmi 21 baytdan iborat bu marsiya Majzub Namangoniyning deyarli barcha devonlari xotimasidan va ko'plab bayozlardan o'rin olgan. Bundan tashqari, majzubxonlar zikr halqalarida "Zikri sultoni" ohangi bilan kuylab kelingan.⁴²

Majzubiylar halqasiga oid yana bir ijodkor qo'qonlik shoir Mirmahmud Qoriydir. Qo'qon adabiy muhiti bilimdoni Po'lotjon Domulla Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy" kitobida Mirmahmud Qoriy haqida keltirgan quyidagi ma'lumotlari e'tiborimizni tortdi: "...Boshda Navoiyga ergashmish shoirlardan bo'lub tanilsa ham, majzubiylardan bo'lub tasavvuf ruhida she'rlar yozar edi..."[8,313] Ustoz olim o'zining "Ho'qand tarixi va uning adabiyoti" kitobida bu masalaga yanada aniqroq to'xtaladi: "... Ahli tasavvuf so'fiylaridan bo'lub, suluki naqshbandiyaning majzubiylar yo'liga kirgan. Shaharda, Marg'ilon dahasida, Mirzo Yodgor mahalladagi majzubiylar xonaqohining sajjada nishiyni xalifa Mulla Abdulkarim⁴³ga murid bo'lganligini kitobida yozib ko'rsatib o'tadi..." [9,175]. XIX asrda tuzilgan ba'zi bayozlarni tekshirganimizda Qoriyning o'zini majzubiylar xalqasiga aloqadorligini tasdiqlagan bir necha baytlarini uchratdik. Jumladan, "Raqqos" radifli g'azali

*O'z vaqtin komilidur Abdulaziz Majzub
Sarhalqai muhabbat durdona bo'ldi raqqos.
Oning qulig'a quldur, maqsud asli shuldur
Shoyad ochilsa qalbi Qoriyni bo'ldi raqqos -*

baytlari bilan yakunlanadi. [2,72] Bundan tashqari, shoir "G'animat" radifli g'azalida ham majzublar yo'liga kirgani Haqdan in'om ekanini ayta turib shunday yozadi:

*Tutubsan domani g'avsi zamone,
Etor, Qoriy, sanga shafqat g'animat .[3,10]*

Ko'rinadiki, ushbu 9 baytli g'azalda ham Qoriy o'zini majzubiylar halqasidan ekanini ta'kidlab, Majzub Namangoniyini "g'avsi zamon" deb ta'riflaydi.

⁴¹ Muallif u kishini darsliklarga kirgan qo'qonlik Maxmurdan farqlash uchun Maxmur II deb beradi.

⁴² Hozirgi kunda Namangan shahridagi majzubxonlik davrasini Abdulboqi Muhammadsiddiq o'g'li boshqaradi. Ma'lumot shu kishiniki.

⁴³ Mulla Abdulkarim Maxmurning Majzub Namangoniy xalifasi bo'lgani haqida yuqorida yozdik.

O‘z asarlarida majzubxonlik davralarining ilohiy fayzlaridan nasibadorligini e‘tirof etgan yana bir shoir Haziniy Ho‘qandiydir. Haziniy hayoti va ijodi bilan bog‘liq ko‘plab tadqiqotlar e‘lon qilingan, devoni joriy alifboda nashr qilingan. Biz uning majzubiylarga aloqadorligi bilan bog‘liq dalillar haqida fikr yuritmoqchimiz. Bu haqda bizni yana P.Qayyumov kitoblari ogoh qiladi: “...boshlang‘ich maktabni bitirib madrasai Jome‘da o‘qidi. Juda tamom etmay tasavvuf shayxlaridan Majzubiy xalifalaridan Xalifa Abdulhakimning xizmatida shul kishiga murid va xushxon hofiz bo‘lib turdi. Oxirda bul kishidan murid tarbiya qilish uchun irshod oldi...” [8,562: 9,192] Haziniyning piri Xalifa Abdulhakim vafotiga bag‘ishlab yozgan “Hajrida” radifli muxammas-marsiyasida bu ma‘lumotlar o‘z tasdig‘ini topadi:

*Necha yil pir xizmatini aylagon ochu nahor,
Pobarahna, egni luch, bosgon zimistonlarda qor,
Pir rizosin istagon, arqoga tashlab sharmu or,
Dargahi Majzubda xizmatlaridur oshkor,
Yig‘laram uch yil pirimga qabri foniy hajrida [11,129]*

Yoki “Xudoning toati, zikru samosidin adashganman” deb boshlanuvchi boshdan oxir malomatiya g‘oyasi bilan sug‘orilgan g‘azalida:

*Pirimning amrini tutmayki, man yo‘ldin ozib holo,
Ki, Majzubxonligu raqsu samosidin adashganman, - [11,78]*

deya o‘zini malomat qilish barobarida, Adulhakim xalifa boshchiligidagi majzubiylar zikr halqasiga mansubligini bildiradi.

Manbalarda yana “majzubiya pirlari”, “majzubiya shoirlari” degan atamalarning uchrashi hamda majzubiylarning “naqshbandiyaning bir yo‘li” deya e‘tirof etilishi Majzub Namangoniy asos solgan majzubiylar oqimining o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos adabiy-ma‘rifiy davra, tasavvufiy yo‘nalish sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. Namangan, Andijon, Qo‘qon va Qoshg‘arda majzubiylarning hozir ham mavjudligi shayx va shoir Abdulaziz Namangoniyning XIX asr diniy-tasavvufiy va adabiy muhitida yuksak martaba qozonganligini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayoz. Qo‘lyozma. Qo‘qon Adabiyot muzeyi. № 255.
2. Bayoz. Qo‘lyozma. Qo‘qon O‘lkashunoslik muzeyi. № 520.
3. Devoni Qoriy. O‘zR FA ShI fondi. Dastxat devon. № 9843.
4. Jo‘raboev O. I. Majzubni bilasizmi yoxud majzubiylar nima? // O‘zAS gazetasi, 2004 yil 25-son. II. Majzub Namangoniy va uning adabiy merosi manbalari xususida. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari to‘plami. T.:Fan, 2005.
5. M. Namangoniy. She‘rlar. Toshbosma. – T.: G.L.Yakovlev matbaasi, 1903
6. Muhammad Yahyoxon. Xo‘qandi latif manoqibi. –T.:Movarounnahr, 2018.
7. Ostonaqulov I. Avliyolar sultoni. Turonlik valiyilar.T.: Yangi asr avlodi, 2004.
8. Po‘lotjon Domullo Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiy. T.:1998 yil. 2-daftar.
9. Qayyumov P. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti. – T.: Tamaddun, 2011.
10. Haqqul I. Ishq va komillik jazbasi. // O‘zbek tili va adabiyoti,2002, 1-son.
11. Haziniy. Devon (nashrga tayyorlovchilar: f.f.n. A. Madaminov va O. Jo‘raboevlar) . T.: Ma‘naviyat, 1999.

MUQIMIYNING RADIF QO‘LLASH MAHORATI

Namuna TURSUNOVA,
FarDU tayanch-doktoranti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Muqimiyning g‘azal, murabba va muxammaslarida qo‘llangan an’anaviy va ohorli radiflar tahlili asosida uning she’rlari badiiyati va shoir mahoratining ayrim qirralari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mazmun, shakl, radif, g‘azal, murabba, muxammas, o‘ziga xoslik, badiiyat, ta’sirchanlik, mahorat.

Аннотация

В статье анализируются традиционные и сложные радифы, используемые в газелях, мураббах и мухаммах Мукими, раскрываются некоторые аспекты его поэзии и поэтического мастерства.

Ключевые слова: содержание, форма, радиф, газел, мурабба, мухаммас, оригинальность, искусство, впечатление, мастерство.

Annotation

The article analyzes the traditional and difficult radifs used in Muqimi’s ghazals, murabbas and muhammas and reveals some aspects of his poetry and poetic skills.

Keywords: content, form, radif, ghazal, murabba, muhammas, originality, art, impression, skill.

Badiiy asarning mukammalligi mazmun va shaklning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq ekanligi ma’lum. Binobarin, mazmunning go‘zal va ta’sirchan tarzda yuzaga chiqishida shaklning ham o‘rni oz emas. Vazn, qofiya, radif, badiiy san’at va usullar ana shunday mazmunni kelinchakday yasatib, o‘quvchi hukmiga havola etadigan va uning hayrat va tahsiniga sazovor qiladigan shakliy unsurlar sirasiga kiradi.

Badiiy tasvir vositalari ichida radifning alohida o‘rni bor. Radifni ba’zilar badiiy takror ko‘rinishlaridan biri sifatida baholasalar, ba’zilar she’riy san’atlar jumlasidan hisoblaydilar. Masalan, Sharq poetikasi bilimdonlaridan Vahob Rahmonov: “Radif shuning uchun ham san’atki, misralar oxirida so‘z takrori sifatida kelar ekan, u she’rdagi asosiy fikr ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilganidek, xushohanglik, xushjaranglik yaratuvchi unsur hamdir” [6,91], – deb yozadi. Taniqli adabiyotshunos Sultonmurod Olim ham radifni Sharq she’riyatining uslubiy unsurlaridan biri sifatida qarab, uni she’riy san’at sirasiga kiritgani holda, “radif san’atiga she’riy takrorning bir ko‘rinishi sifatida qarash kerak bo‘ladi” [4,134], – degan qarashni ilgari suradi. Bu boradagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, radif takrorga asoslangan she’riy san’at ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham V.Rahmonov radifni lafziy san’atlar guruhida keltiradi [6,91].

“Qofiyaga mingashgan radif nazmda oddiygina takror emas. Soʻzlarning misralardagi parallel qaytarigʻi talaffuzda qofiyaning uzviy qismi, uning davomiday jaranglaydi, ohangdoshlikni quyushtiradi, intonatsiyani kuchaytiradi. Natijada sheʼriy uygʻunlik darajasi orta boradi. Agar sheʼr aruz vaznida bitilgan boʻlsa, muraddaf misralar yanada oʻzgacha bir musiqiylik kasb etadi. Bu musiqiylik, bu kuy kishiga huzur bagʻishlaydi.

Bundan tashqari, radifning sheʼriy asarda juda muhim vazifasi bor – u maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi. Koʻpincha baytdagi fikrning asosiy yuki shu poetik element zimmasiga tushadi, shoirlar fikrda nimaga koʻproq urgʻu bermoqchi boʻlsalar, oʻsha soʻzni radifga oladilar” [4,133].

“Radif koʻp hollarda shoirning asosiy muddaosini bildirib, takrorlanib kelish natijasida fikrni taʼkidlab, toʻplab, kuchaytirib beradi. Qofiya bir juft misrani kompozitsion bogʻlasa, radif butun gʻazal baytlarini bir ipga tizishga yordam beradi. Shunga koʻra ohang, ritmni roʻyobga chiqarishda ham radif faol ishtirok etadi. Shoirlar radif tanlashdan oldin bu soʻzning oʻz maqsadlariga muvofiq kelishiga eʼtibor berganlar. Radif-soʻzning chiroyli jaranglashi, vaznga tushadigan boʻlishi ham hisobga olingan” [7,211].

Radif bir, ikki, uch, toʻrt, besh soʻzli, baʼzida hatto gapdan yoki kelishik va egalik qoʻshimchalaridan ham iborat boʻlishi mumkin. “Bu hol radif sanʼatining sheʼriyatdagi faol unsurligini yaqqol koʻrsatadi” [6,91]. Ravonlik va jarangdorlik asosiy xususiyati hisoblangan Muqimiy gʻazal, murabba va muxammaslarining aksariyati radif bilan ziynatlangan. Shoir ijodida asosan bir, ikki va uch soʻzli, baʼzida esa hatto toʻrt soʻzli radiflar uchraydi. Uning sheʼrlari orasida misraning teng yarmini tashkil etadigan gap koʻrinishiga ega uzun radiflarni koʻrmaymiz.

Bir soʻzdan iborat radif:

*Surmasiz ham, qoʻyima, jono, oʻzi shahlo koʻzlaring,
Shoʻxligʻda har biri ohuyin sahro koʻzlaring [3,91].*

Ikki soʻzdan iborat radif:

*Tavqдорing sarvi qumridor aylansun quling,
Beqaroring kabki xushraftor aylansun quling [3,92].*

Uch soʻzdan iborat radif:

*Jahon bogʻida ham gulgun qabolar bor ekan mundogʻ,
Olib koʻnglungni soʻrmas, dilrabolar bor ekan mundogʻ [3,215].*

Toʻrt soʻzdan iborat radif:

*To jilva qildi, ul pari, men muhtalo qayda boray?
Emdi degaykim, bor nari, men muhtalo qayda boray?[3,89]*

“Sharq sheʼriyatida radif alohida oʻrin tutadi. Bu sheʼriyatda radifsiz sheʼrlardan radifli sheʼrlar koʻp. Radif sheʼrning ohangdorligi, jarangdorligi, taʼsirchanligini taʼminlabgina qolmay, fikrni bir nuqtaga jamlab, unga urgʻu berib, maʼnoni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Baytlarni gavhar shodasidek oʻzaro bir-biriga bogʻlab, yagona ritmning yuzaga chiqishini taʼminlaydi. Shuning uchun ham sheʼrning maʼnosini chuqurlashtirib, taʼsirchanligini oshiradigan, taʼbir joiz boʻlsa, uning husnini ochadigan radif topish shoirona mahorat belgisi sanaladi” [5,73]. Sharq poetikasi bilimdonlari va tazkiranavislar shoirlar mahoratiga baho berganda

ularning topib qoʻllagan ohorli radiflariga ham alohida eʼtibor qaratganlari bejiz emas. “Adabiyot tarixida bitta yangi soʻz-radif topib ishlatish voqea boʻlgan” [2,141]. Jumladan, Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining Husayn Boyqaro ijodiga bagʻishlangan sakkizinchi majlisida shoh-shoirning oʻziga xos topildiqlari boʻlgan yangi radiflarni uning badiiy kashfiyotlari sifatida koʻrsatadi. [1,421–445].

Chin maʼnodagi xalq shoiri boʻlgan Muqimiy anʼanaviy radiflarda ham koʻplab sheʼrlar ijod qilishi bilan birga xalqona soʻz va soʻz birikmalari asosida qator goʻzal va jarangdor, yarq etib oʻquvchining eʼtiborini tortadigan va uning koʻngliga kuchli taʼsir qiladigan yangi va ohorli radiflar topadi. Jumladan, “qilma koʻp”, “xayriyat”, “shunchalar”, “etsang netar”, “qilmogʻliq nadur”, “gapur”, “kelmas hanuz”, “siz ekansiz”, “mehringiz”, “bila boramiz”, “boʻlmasam boʻlmas”, “darkor emas”, “xushlamas”, “qolishmas”, “indamas”, “bor ekan mundogʻ”, “kel ertaroq”, “aylading-ketding”, “aylar koʻzing”, “etmay keling”, “aylansun quling”, “oʻrgulsun qulung”, “hormang”, “qilmay qoʻymading”, “uchchalang”, “deb axtaring”, “chiqdi deng”, “boʻldi gul”, “aylay desam”, “sen ham”, “afandim”, “qilgʻil karim”, “toleim”, “taslim”, “deb keldim”, “kim desun”, “bormikin”, “qilolmay dogʻman”, “ham qilmasun”, “bir kelib ketsun”, “qiron kelsun”, “sen uchun”, “uchun”, “oʻldigʻin bilmas”, “oʻldi, bir menmu”, “boʻldimu”, “chorsu”, “uyquda”, “yana”, “kelur mastona-mastona”, “tokaygʻacha”, “qachongacha”, “ohista-ohista”, “uchradi nogah”, “men muftalo qayda boray”, “tasadduqing ketay”, “qilib ketdi”, “oʻtmadi”, “uchramadi”, “etdi meni”, “san kabi”, “koʻrgan kishi” singari radiflar aynan Muqimiy izlab topgan hamda gʻazal va murabbarlarda mahorat bilan qoʻllagan shoirning oʻziga xos radiflari hisoblanadi. Muxammaslarida esa “boʻlurmu muncha ham”, “koʻrmagan jonim”, “kesang-chi”, “aralash”, “Hojim”, “ekan tar mevalar”, “kal qiziq”, “oʻlsun bu ot” kabi oʻziga xos radiflarni qoʻllaydi.

Muqimiy radiflari asosan xalqona oddiy va sodda soʻzlar va soʻz birikmalarini mahorat bilan qoʻllash asosida yaratilgan. Ularda “bor ekan mundogʻ”, “aylansun quling”, “oʻrgulsun qulung”, “oxunim”, “boʻlsun omon”, kabi erkalash ohangidagi, “afandim”, “toleim”, “qiron kelsun”, “aroba qursin”, “aralash”, “qalay”, “oʻlsun bu ot” kabi kinoya yoʻsinidagi radiflarga ham duch kelamiz. Chunonchi, “boʻlsun omon” radifli gʻazalida “Agarda dildorim meni biror marta soʻrab kelmasa ham, yoʻliga nigoron boʻlib koʻzim teshilsa ham, mayli, oʻz kuniga omon boʻlsin”, – deb kinoya qiladi:

Garchi bir kelmaydi dildorim soʻrab, boʻlsun omon.

Koʻz teshildi yoʻllarida ham qarab, boʻlsun omon [3,161].

Gʻazal shu tariqa, sevganining ahvoliga beparvo, unga vaʼda qilib, vaʼdasiga vafu qilmaydigan, muruvvat oʻrniga zulmu sitam oʻtkazadigan, mehr-u muhabbatni unutib, jabru jafu koʻrsatadigan, bilʼaks boshqalarga lutf-u iltifot qilgani holda oshigʻini hatto qahru gʻazal bilan ham yoʻqlamaydigan, raqiblar bilan visol nashʼasini surib, doʻstini hijron azobida kuydiradigan maʼshuqaning bu barcha yomonliklari evaziga oshiqning duo qilishi asosiga qurilgan.

“Qiron kelsun” radifli gʻazalida aksincha engil qargʻish ohangini koʻramiz:

Iloho jumla tuxmi bevafolargʻa qiron kelsun,

Jafojo ‘, siflaxo ‘, baxti qarolarg‘a qiron kelsun [3,170].

“Iloho, barcha bevafo zotining urug‘ig‘a qiron kelsin, ishi jafo, kasbi tubanlik bo‘lgan baxti qoralarga qiron kelsin!”

Bu g‘azalda ham yaxshilikni bilmaydigan, fidoyilikni qadrlamaydigan yaramas kimsalar, ko‘yida qon yutgan oshig‘ini xor qiladigan beqaror go‘zallar, to‘rt kunlik davru davroniga bosar-tusarini bilmay qolgan kibru havo bandalari, bozorlarni to‘ldirib yurgan engiltak juvonlaru qadamida oyog‘ingga o‘ralashidagan shilqim gadolar, pastkashu nokas do‘stu yaqinlar qarg‘ish kamoniga solib otiladi.

“Tasadduqing ketay” radifli g‘azalda esa erkalash ohangini ko‘ramiz:

Ey yori g‘amgusor, tasadduqing ketay,

Ko‘p qilma intizor, tasadduqing ketay [3,214].

“Tasadduqing ketay” degani “saddqang bo‘lay”, “jonim tasadduq”, “o‘rgilay”, “aylanay” kabi ma‘nolarda kelishi ma‘lum [8,4,7]. Binobarin baytni “Ey mehribon yor, jonim senga sadqa bo‘lsin! Meni ko‘p yo‘lingga intizor qilma, jonim senga sadqa bo‘lsin” tarzida talqin qilish mumkin.

Shoir she‘rlarida “Makaylik”, “To‘xtaxon”, “Asrorqul”, “Bekturboy”, “Viktor”, “Laxtin” kabi kishilar ismi ham radif bo‘lib keladi.

Gar ado bo‘lmas, desam vasfi jamoling, To‘xtaxon,

Voqe‘an Farg‘onada yo‘qtur misoling, To‘xtaxon [3,164].

Hajviy g‘azal va muxammaslarida esa mana bunday kundalik hayotdan olingan yangi va o‘ziga xos radiflarni ko‘ramiz: “saylov”, “bachchag‘ar”, “sandali”, “ko‘samem”, “devonamen”, “o‘lgan otim”, “ekan bu otingiz”, “otim”, “deng uloqchilar”, “qiyg‘irchilar”, “ustalar”, “aravang”, “qildi loy”, “iskab topar”, “bezgak”, “fonus”, “shamol”, “bo‘qoq”, “sovuq”, “qurbaqalar”, “pashshalar”, “sartarosh”, “urug‘”, “jo‘jam”, “burun”. Shoir hajviy she‘rlarida ham kimni yoki nimani tanqid qilish va fosh etish uchun nishon qilib olgan bo‘lsa, o‘shaning nomini radifga chiqaradi hamda uning barcha ta‘na-mazammatlari va kinoya-qochirimlari uning atrofida aylanadi. Jumladan, bachchag‘ar deganda nafrat, qahru g‘azab, norozilik nishoniga aylangan kimsa tushuniladi [8,1,183] va Muqimiy ayni radifli hajviy g‘azalida bir yaramasning jirkanch qiyofasini shu nom ostida fosh qiladi:

Ko‘r madim olamda sandek turfa nodon bachchag‘ar,

Suratingni ko‘rgan odam derki, shayton bachchag‘ar [3,380].

Xalq dardu g‘ami, muammo-tashvishlari, orzu-umidlarini yaxshi bilgan, odamlarning yurak yurishlari va qalb tebranishlarini chuqur his qilgan xalqchil shoir bo‘lmish Muqimiy ko‘pincha xalqning dili va tilidagi so‘zlarni topib radifga chiqaradi va bunday radiflar asosida bitilgan she‘rlar o‘z navbatida xalq ko‘nglida aks sado berib, tildan-tilga o‘tadi va hofizlar soziga tushadi. U yigirma-yigirma besh yoshlaridayoq aynan xalqona va jarangdor she‘rlari bilan el ichida shuhrat qozonib, she‘rlari tilga tushgani bejiz emas. Aytaylik, oshiq holati va kayfiyatini yorqin ochib ko‘rsatish maqsadida g‘azallaridan birida “men muhtalo qayga boray” birikmasini radif qilib oladi:

To jilva qildi, ul pari, men muhtalo qayda boray?

Emdi degaykim, bor nari, men muhtalo qayda boray?[3,210]

Bu radif oshiq ahvoliga qoyimmaqom bo‘libgina qolmay, boshiga biror savdo tushib yoki g‘amu tashvishga botib, nima qilishini bilmay qolgan kishining ruhiyatiga ham mos keladi. “Men dardimni kimga aytaman?”, “Mehr qolur, muhabbat qolur” kabi xalq ko‘nglidagi gaplarni topib, naqaratga chiqargani uchun ham Muhammad Yusufning ayni she‘rlari qo‘shiqqa aylanib, mashhur bo‘lib ketgani bejiz emas.

Yoki mana bu oddiy, lekin xalqona radifning qofiya bilan uyg‘unlashib, qanchalik ta’sirchanlik kasb etganini ko‘ring:

Sho‘xi parivasheg‘a giriformen yana,

Vaslin ko‘rarga shomu sahar zormen yana [3,191].

Xalq ichida ba’zilar tarafkashlik qilib aytadigan “Faqat menmi?”, “Yolg‘iz menmi?”, “Hamma narsa faqat mengami?”, “Hammasiga men balogardonmi?” kabi iboralar mashhur. Muqimiy ayni ma’nodagi “Bir menmu?” degan iboradan o‘zining badiiy maqsadi yo‘lida mahorat bilan foydalanib, go‘zal va ta’sirchan g‘azal yaratadi:

Asiri chashming ohuyi biyobon o‘ldi, bir menmu?

Ko‘rib oyina ham husningga hayron o‘ldi, bir menmu?[3,186]

Mana bu xalqona radif ham shoirning nozik did bilan uzukka qo‘yilgan ko‘zdek topib qo‘llagan radiflari sirasiga kiradi:

Ey pari, ko‘nglum olib, qon o‘ldig‘in bilmasmusan?

Dard berding menga darmon o‘ldig‘in bilmasmusan?[3,176]

Albatta, bu so‘z va so‘z birikmalarining aksari xalq tilida, jonli nutqda faol qo‘llanadi. Bunday so‘zlar oz emas, lekin ularni tanlab, saralab, radif o‘rnida qo‘llash va o‘zi ilgari surgan fikr ifodasi uchun she‘rning mehvariga aylantirib, yer o‘z o‘qi atrofida charx urganidek, maqsad-muddaosini unga olib borib bog‘lash uchun yuksak did, nozik mahorat, katta malaka kerak. Chunonchi, “bo‘lmasam bo‘lmas”, “qilmog‘liq nadur?”, “xayriyat”, “qilma ko‘p”, “siz ekansiz”, “kelmas hanuz”, “aylay desam”, “darkor emas” kabi so‘z va iboralarning barchasi xalqona bo‘lib, radif o‘laroq she‘r matniga olib kirilganda u endi poetik so‘zga aylanadi. Jumladan, “qilmog‘liq nadur?” radifi orqali mahbubaning oshiq holiga parvo qilmasligi, uning sevgisiga loqaydligi, jafokorligi, sitamgarligi, bevafoqligi kabilar birma-bir ochib beriladi:

Dilrabo, kelsang netar ta‘xir qilmog‘liq nadur?

Noshto o‘rniga jondin ser qilmog‘liq nadur?[3,37]

“Ey dilrabo, kelsang bo‘lmaydimi – kechikib toqatimni toq qilganing nimasi? Nonushta o‘rniga jonimdan to‘ydirganing nimasi?”

O‘z-o‘zidan, shoir radiflari radif uchun bo‘lmay, bil’aks teran mazmun, ohorli timsolu tashbehlarni ajratib ko‘rsatish, ularga urg‘u berish va ularning ta’sir doirasini kengaytirish maqsadiga bo‘ysundiriladi. Chunonchi, “bo‘lmasam bo‘lmas” radifli g‘azali betakror tashbehtar asosiga qurilgan bo‘lib, “Bahor keldi – endi men ham bulut kabi yig‘lamasam bo‘lmaydi, chiqib kelgan g‘uncha kabi ko‘ksimni chok etmasam bo‘lmaydi”, – deya oshiq ahvolini bo‘rttirib ko‘rsatishga yo‘naltirilgan:

Bahor ayyomidur, chun abri giryon bo‘lmasam bo‘lmas,

Ki man ham g‘unchadek choki giribon bo‘lmasam bo‘lmas [3,63].

Ma'lumki, Sharq mumtoz she'riyatida shoirlar ayni bir radifda bir necha g'azal va ruboiy yozish bilan radif bo'lib kelgan so'z yoki so'z birikmasining ma'no doirasini kengaytirganlar, ularning yangidan-yangi qirralarini kashf etganlar. Muqimiy ham ayni bir radifda bir necha g'azal yoki murabba yaratadi. Chunonchi, "aylading" radifi bilan 6 ta, "yodimga tushdi" radifi bilan esa 4 ta murabba yaratgan. G'azallarida bu yanada keng ko'lam kasb etadi: "o'rgulay" (5 ta), "kelur" (4 ta), "qil" (4 ta), "sog'inib" (3 ta), "bordur" (3 ta), "aylading" (3 ta), "kelding" (3 ta), "ko'rub" (2 ta), "bor" (2 ta), "shunchalar" (2 ta), "ayladingketding" (2 ta), "kelding" (3 ta), "etmay keling" (2 ta), "kokulung" (2 ta), "aylab keling" (2 ta), "ko'zlarining" (2 ta), "hormang" (2 ta), "o'shal" (2 ta), "kel" (2 ta), "kam" (2 ta), "afandim" (2 ta), "sog'indim" (2 ta), "bormikin" (2 ta), "o'lmasun" (2 ta), "kim desun" (2 ta), "aylansun" (2 ta), "tokayg'acha" (2 ta), "uchradi nogah" (3 ta), "salom" (3 ta), "assalom" (2 ta), "men muftalo qayda boray" (2 ta), "qilib ketdi" (2 ta), "bachchag'ar" (2 ta), "ko'samen" (3 ta), "devonamen" (2 ta), "otim" (2 ta), "qildi loy" (2 ta), "bezgak" (2 ta), "shamol" (2 ta) radiflarida ikkitadan beshtagacha g'azal bitgan.

Ma'lum bo'ladiki, Muqimiy mumtoz she'riyatda keng qo'llanilib kelgan an'anaviy radiflardan mahorat bilan foydalanib, ularning yangidan-yangi ma'no qirralarini ochish, o'zining badiiy maqsadi yo'lida xizmat qildirish bilan kifoyalanibgina qolmay, xalqona so'z va iboralar asosida ko'plab ohorli radiflar kashf etib, ularni betakror va ta'sirchan poetik so'zlarga aylantiradi. Bu radiflarning aksariyati Muqimiyning o'zigagina xos bo'lib, shoirning ijodiy qiyofasini yorqin ko'rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar \ \ To'la asarlar to'plami, 10 jildlik, 9-jild. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014.
3. Muqimiy. To'la asarlar to'plami. Tuzuvchi: Turdaliyev A.—Toshkent: Iqtisodiyot. 2021
4. Olim S. Masnaviy tarjimasida radif \ \ Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 6-kitob. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, 132–153-betlar.
5. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014.
6. Rahmonov V. She'r san'atlari. – Toshkent: "SHarq", 2020.
7. Salomov G'., Komilov N. Do'stlik ko'priklari (Poeziya va tarjima). – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979
8. O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildli (Tuzatilgan 2-nashri). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MA'RIFATPARVAR SHOIRLAR IJODINING AHAMIYATI (FURQAT, MUQIMIY, GULXANIY ASARLARI MISOLIDA)

**Dilnoza AHMEDOVA,
Toshkent shahar Bektemir
tumanidagi 290 - maktabning
ijodiy-madaniy masalalari
bo'yicha targ'ibotchisi
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalari: Furqat, Muqimiy, Gulxaniy ijodining tarbiyaviy ahamiyati va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi roli borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativ, ma'rifiy, g'azal, astronomiya, xattot, noshir, masal, hikoyat, intellectual, ta'limiy.

Аннотация:

В данной статье рассматривается воспитательное значение произведений великих представителей узбекской классической литературы: Фурката, Мукими, Гулхани и их рол в поднятии морального духа молодежи.

Ключевые слова: творческий, просветительский, газел, астрономия, каллиграф, издатель, притча, рассказ, интеллектуальный, познавательный.

Abstract:

This article discusses the educational significance of the works of the great representatives of Uzbek classical literature: Furkat, Muqimi, Gulkhani and their role in raising the morale of young people.

Key words: creative, enlightening, ghazal, astronomy, calligrapher, publisher, parable, story, intellectual, educational.

Azal – azaldan bizning ota-bobolarimiz ma'naviyat va ma'rifatga juda katta e'tibor berib kelishgan. Shu bois, bizda allomalar ham ko'plab yetishib chiqqan.

“Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu ilmsizlikdir”,-deydilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. [1, 3]

Darhaqiqat, ma'rifat insonni kamolot sari yuksaltiruvchi eng to'g'ri va sharafli yo'l. Ish faoliyatim umumiy o'rta ta'lim maktabida bo'lib, men, asosan, ommaviy tadbirlar, turli xil tanlovlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularda ijodkorlik, kreativ fikrlarni o'stirishga harakat qilaman. Ayniqsa, ma'rifatparvarlardan Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Gulxaniyning ijodini yaxshi o'rganish orqali o'quvchilarning tafakkuri o'sadi.

Masalan, Furqatning ilm o'rganish borasidagi, tabiatga munosabat borasidagi g'azallari o'quvchilarni dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini o'stirish barobarida uning tarbiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatning g'azallari ham ana shunday ta'sirchan asarlardandir.

Mening maktab aro uldur murodim,

Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim. [2, 173]

Ya'ni maktabda ta'lim olib, savod chiqarish uchun borish, hayot davomida bilimga intilish har bir insonning eng oliy maqsadi bo'lishi lozim. Furqat umri davomida dunyo kezdi, sayohat qildi, ilmning turli yo'nalishlarida

ijod qildi. Masalan, tibbiyot, yulduzlar ilmi, ya'ni astronomiya kabi sohalarni ham puxta egalladi. Bu jihatlari bilan ham shoir ijodi yoshlarimiz uchun o'rnak bo'la oladi.

Shoirning tabiatga munosabati masalasi ham bugungi kun yoshlari uchun juda ahamiyatli:

*Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.* [2, 175]

Shoir inson hayotini tabiatning bir qismi sifatda ardoqlaydi. Shuningdek, iste'dodli shoir va xattot Muqimiy ijodining ham yoshlar tarbiyasida o'rni beqiyos. Maktablarda shoirning "Sayohatnoma" hamda "Tanobchilar" asarlari o'qitilsa-da, shoirning g'azallari ham o'quvchilar badiiy tafakkurini o'stirishda muhim manbaa hisoblanadi:

*Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.* [2, 176]

Har bir faslning o'z tarovati bor. Bahor ham ana shu yurtda sayllari, bazmlari bilan o'zaro do'stlik rishtalarini bog'laydi. Inson tabiatga oshno bo'lib, undan kuch oladi.

Bu ijodkorlar qatorida Muhammad Sharif Gulxaniyning ham alohida o'rni bor. "Zarbulmasal" asarining tarixiy, badiiy va tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ayniqsa, asarda 400 dan ortiq maqol va o'ndan ortiq masallar xalq o'g'zaki ijodining eng go'zal namunalari hisoblanib, ulardan chiqariladigan ibratli xulosalar esa o'quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Gulxaniy har bir fikrini asar davomida xulosa o'rnida bittadan ibratli hikoyatlar, ya'ni masallar bilan boyitib boradi. "Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi", - degan xalq iborasi bor tilimizda.

Gulxaniy ham har bir fikr mavzusini o'quvchilarga yaxshi tushunishlari uchun masallardan unumli foydalanadi.

Ahamiyatlisi shundaki, ana shu masallar orqali u insonlarga xos bo'lgan salbiy yoki ijobiy jihatlarni mahorat bilan, obrazli tarzda ko'rsatib bera olgan.

Masalan, "Maymun bilan najjor"da har kim qo'lidan kelgan ishni qilishi kerakligi aytilsa, "Toshbaqa bilan chayon"da do'st va unga bo'lgan sadoqat, yaxshilikka yomonlik qilmaslik borasidagi fikrlar va g'oyalarni ilgari suradi.

Bu kabi ibratli asarlar asosida men ish faoliyatim davomida tadbirlar uyushtirib, sahna ko'rinishlari va "Zakovat" intellektual o'yinlarini tashkil etib kelyapman.

Shu asnod, o'quvchi yoshlarning dunyoqarashi, tarbiyasi, idroki yanada rivojlanadi. Ayniqsa, iste'dodli yoshlar o'rtasida "Bahr-u baytlar", "Mushoiralar" tashkil etaman. Bu esa ularning xotiralari rivojlanishiga yordam beradi.

Umuman olganda, o'zbek mumtoz adabiyotidagi barcha ijodkorlarning asarlarini puxta o'rganish nafaqat dars mashg'ulotlarida, balki darslardan keyingi ommaviy tadbirlarda ham ijodiy tarzda davom ettirilsa, bu

o'quvchilarning ma'naviyatini boyitib, ma'rifat yo'llariga yetaklaydi, deb o'ylayman.

Yoshlar tarbiyasida, ularni komil inson sifatida kamol toptirishda bizning milliy adabiy merosimiz muhim o'rin egallaydi. Shu bois, ayniqsa, ma'rifatparvar shoirning asarlaridagi g'oyaviy jihatlar bu borada katta maktab vazifasini o'taydi.

Ilmga bo'lgan muhabbat, o'zaro hurmat-e'tibor, kattalarni e'zozlash, kichiklarga mehr-muhabbat ko'rsatish kabi qadriyatlarimiz mazkur asarlarning tub mohiyatini belgilaydi. Adabiyotga oshno bo'lgan qalb doim ezgulik tarafida bo'ladi va ezgulikni yoqlaydi. Shuning uchun ommaviy tadbirlar, adabiy kechalar tashkil etish asnosida mutafakkirlarimiz ijodini targ'ib etib borishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tarbiya. 9-sinf uchun darslik. Toshkent, 2020.
2. To'xliyev B. Adabiyot. Majmua. II tom. Toshkent, 2014.

MAKTUBLARDA AKS ETGAN DO'STLIK (MUQIMIY VA FURQAT MAKTUBLARI ASOSIDA)

**Mo'minaxon SOLIJONOVA,
QDPI magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktub janri, Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari ham bu janrga qo'l urib maktubning betakror namunalarini yaratganligi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktub janri, Alisher Navoiy, "Munshaot", Qo'qon adabiy muhiti, Muqimiy, Furqat, badiiy san'atlar.

Maktub yozma ravishda bayon qilingan murojaat hisoblanib, ushbu janrdan jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham unumli foydalanib kelingan va foydalanilmoqda. Alisher Navoiyning ustozlari-yu do'stlariga yo'llagan maktubotlari, Boburning farzandlariga nasihat tarzida yozgan bitiklari barcha kitobxonlarga tanish. Abdulla Qahhordek adib tomonidan kelgan maktubning esa O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayevlarning ijod sahniga chiqishlariga turki bo'lganligi ham ko'plarga ma'lum.

Maktub janrida ijodkor o'z ruhiy olamini to'laroq yoritishga harakat qiladi. Chunki, maktub adabiyotda ijodkor kechinmalarini, uning ijodiy olamini anglashga xizmat qiladigan muhim manbadir. Yozuvchi yoki asar qahramonining muayyan shaxslarga yozgan maktublari ijtimoiy, tarixiy va adabiy qimmatga ega bo'lib, u o'zidagi qisqa satrlarda katta ma'noni qamrab olganligi bilan ham ajralib turadi. Adabiyotimizda maktub janrining shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq ekanligini shoirning maktublari jamlangan asari "Munshaot" ning muqaddimasida keltirilgan fikrlardan bilib olish mumkin. Unda Alisher Navoiy forsiyda yaratilgan maktublar shakllangan yuksak uslubga ega ekanini, turkiy adabiyotda bu uslubda hali biror ish qilinmaganini va o'zi maktub janriga birinchi bo'lib qo'l urganini yozadi.

Ulug' shoirimizdan so'ng ko'plab ijodkorlar ham maktub janriga murojaat qila boshladi. Jumladan, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ham maktub janrining go'zal namunalarini yaratishdi. Ayniqsa, Muqimiy va Furqat kabi shoirlarning bir-biriga yo'llagan maktubi o'zining pishiq shakli, badiiy lafzi bilan alohida e'tiborga loyiq. Bu maktublar orqali kitobxonga chinakam do'stlikning nozik rishtasi har ikki ijodkor o'rtasida mustahkam bog'langani ma'lum bo'ladi. Dastlab, Furqatning Muqimiyga yozgan maktubidagi parchalarga e'tibor beraylik:

*Shukurkim, Xo'qand aro sog'-u salomat borman,
Davlat-u xursandlig'lar birla barxurdorman.
Yozib erkansiz yaqinda mulla Ahmadjonga xat,
Nechadin so'ng, xayriyat, xat oxirida borman.*

Kinoya ustiga qurilgan bu misralar orqali Furqat do'sti va ustozidan go'yo, o'zini ko'p xotirlamagani uchungina qilgandek ham bo'ladi. Maktubdan Furqatning do'st-u qadrdonlari, o'sha kezlardagi ahvoloti haqida ham ma'lumot olamiz:

*Muddati bir oy erurkim, munda Maxdumxon bila,
Kecha-kunduz hamdam-u hamroh, hamraftorman...*

Maktubda Furqat tomonidan nafaqat Muqimiyning ichki olami, tabiati, balki o'zining ham ruhiyat olamini tasvirlab ketganligini kuzatamiz:

*...Boz aytdim:ul kishi az sidqi dil oshiq edi,
Toqatim yo'qdur meni,men og'zaki xushtorman.
Bu tariqa guft-go'yi hazli birla oqibat,
Shahrg'a keldim olib qo'ymasdin oxir korman.
Men uchun xat qilsangiz ayting dedilar ko'p duo,
Shul sababdin muncha so'z qildim siza izhor man...*

Jami 28 satrdan iborat ushbu maktubga iste'dodli shoir Muqimiyning javob yozishi kutilgan hol edi. Darhaqiqat, Muqimiy 1887-1888-yillarda Toshkentda bo'lgan chog'ida Furqatning yuqoridagi maktubiga javob yo'llaydi. Ushbu maktub hassos shoirning hozirjavobligini, sohir so'z ustasi ekanligini yana bir bor isbot etdi.

*Ne qilay sizlarga yo'q bo'lsa gul-u gulzorman,
Muddao topishmog'-u,man tolibi diydorman.
Har nafas some' bo'linglar toki, ey ahiboblar,
Aylayin kayfiyati ahvolni izhorman...*

Muqimiyning hayot yo'li oson kechmaganligi, shoirning hayoti mashaqqatlarga to'la o'tganligini ijodkorning tarjimayi holi bilan tanishganda guvoh bo'lganmiz. Darhaqiqat, maktub davomida Muqimiy o'zining "kayfiyati ahvoli"ni bayon qilar ekan, uning ham moddiy, ham ma'naviy dunyosida siqqlik sodir bo'lib qiynalayotganini o'z og'zidan "eshitamiz" go'yo. Bu maktubni do'stiga xuddi "yurak yozishi"dek qabul qilarkanmiz, shoirning ruhiyatida tushkun holatlar ko'p kuzatilganini payqaymiz.

*Do'st bo'lib har kishig'a,ko'rdim andin ming jafu,
Topmadim, dunyoni kezdin,munis-u g'amxorman.
Ro'zg'orimdir parishon,zohir-u botin xarob,
Charx davridin jigar xun, siynasi afgorman...*

Muqimiy o‘zining barcha she’rlarida badiiy san’atning go‘zal namunalarini qo‘llaydi. Ijodkorning bu an‘anasi maktublarda ham davom etgan:

Har sahar g‘am yeb tutarman bu mahallar ro‘zani,

Shom bo‘lsa aylaram mehnat bilan iftorman.

Topdi dil oynasi sayqal g‘uboridin xating,

Yo‘qsa sar to po edim anduh ila zangorman.

Ushbu misralarda tashbeh, tanosub, tazod san’ati shunchalik mohirlik bilan qo‘llanganiki, Muqimiyning bejiz Qo‘qon adabiy muhitidagi yorqin siymo bo‘lib qolmaganligiga isbotdek tuyuladi.

Maktub davomida shoir Furqatga o‘ziga yo‘llangan maktub uchun minnatdor bo‘lganini aytar ekan, ba’zi qadrdonlarining umuman hol so‘rab xat yozmaganidan ranjiganligini, shuning uchun ham ularni koyib maktub yozmoqchi bo‘lganligi-yu, keyin jahldan tushib bunday qilmaganini ham ta’kidlab o‘tadi. 20 bayt atrofida bitilgan ushbu she’riy maktub quyidagicha yakunlanadi:

Hasbi hol aylab qilibdur xat, so‘rab holin, Muqim,

To qiyomat Furqatidydin emdi minnatdorman.

Ko‘ngilhollik dinimizda savobli ish sanaladi. Bejiz Alisher Navoiy:

“Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay”.

misralarini bitmagan. Furqat do‘stidan hol so‘rab, Muqimiyning “xotirin shod aylagan”i, o‘z o‘rnida, Muqimiyning ham unga munosib tarzda javob yo‘llab ko‘ngil olgani bu ijodkorlarning nafaqat adabiyot, she’riyat gulshanida, balki chin insoniyat dunyosida ham benazir ekanidan dalolatdir. O‘ylaymanki, bugungi kun ijodkorlari ham ijtimoiy tarmoqlardagi ba’zi ma’nosiz tortishuvlarga aralashmasdan, bir-biriga do‘stona muloqotini mustahkamlasa, badiiy adabiyotimiz ham o‘zining yuksak cho‘qqisini zabt etardi. Chunki biz shogirdining, do‘stining kamoli uchun jon kuydirib yashagan daho shoirlar: Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, qolaversa, Muqimiy-u Furqatlarning avlodi, ularning davomchilarimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muqimiy. Bog‘ aro. –T.:Akademnashr, 2010.
2. Furqat. Saylanma. –T.:Ma’naviyat, 2009.
3. Furqat. Muhabbat yo‘lida. –T.:Yangi asr avlodi, 2009.
4. Quronov D. va b. M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.:Akademnashr, 2010.

30-50-YILLARDA QO‘QON ADABIY MUHITIDA MUSHOIRA JANRI AN‘ANALARI

Mohinur ABDURAHMONOVA,
AndU O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mushoira janri mumtoz adabiy janrlar qatorida o‘zining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichi hamda yozilish jihatdan muayyan qonun-qoidalarga ega bo‘lgan janr hisoblanadi. Maqolada Qo‘qon adabiy muhitining vakillaridan

bo‘lmish Sulaymon Oshiq hamda shoira Qambarnisolar ijodidagi mushoara ilmiy va badiiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, mumtoz poetika, oshiq va ma‘shuqa, xoki rah, jafujo‘, salaflar.

“XX asr boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab tarqalgan jadid adabiyoti, shuningdek, 30-50-yillar o‘zbek she‘riyati ma‘rifatparvarlik va milliyatparvarlik ruhida rivoj topishi uchun mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan she‘riy janrlarni istifoda etish bilan birga mumtoz janrlar imkoniyatini kengaytirishga, yangi zamon adabiyot oldiga qo‘ygan mazmun va mavzularni aks ettirishda adabiy janrlarni ichdan yangilashga harakat qildilar” [3.32]. Mushoara janri ham bundan mustasno emas, albatta. Davr shoirlari qaysi adabiy tur va janrda ijod qilmasin, ularning yaratilishida mumtoz adabiy an‘analarga suyangan. 20-asrning boshi va o‘rtalaridagi o‘zbek she‘riyatida muhabbat, insoniylik, ezgulik, hayotiylik, xalqchilik an‘anaviy mavzular g‘azal janri bilan bir qatorda mushoara janrida ham o‘ziga xos tarzda davom ettirildi. Mushoara janridagi she‘rlarning adadi nisbatan oz bo‘lsa-da, ularda mumtoz g‘azalga, mumtoz she‘riyatga xos sifatlarning akslanganini kuzatamiz.

Mumtoz she‘riy janrlar tabiatiga oid ilmiy manbalarda qayd etilganidek, “XX asr she‘riyatida hech bir ijodkor yo‘qki, u g‘azal kabi ko‘hna va jozibali poetik janrning imkoniyatlari doirasida o‘zini sinab ko‘rmagan bo‘lsin. G‘azal o‘zbek shoirlari murojaat etgan eng faol janr bo‘lish bilan birga shoirlar shuurini yangi zamonaviy she‘riyatni qabul qilishga tayyorladi. Aytish mumkinki, shoirlar iste‘dodini o‘ziga xos tarzda imtihon qilib, uni davrning ijtimoiy mavzuni ham aks ettirish sari yo‘naltirdi [4.75]. Shu bilan birga g‘azal janrining mushoara shaklida qo‘llanilishi keyingi davr she‘riyati uchun adabiy zamin hozirladi.

Yozma adabiyotlarda, asosan, g‘azal janridagi mushoaralar yozilgan. G‘azal mushoara mumtoz poeziyamizning ilk davrlarida paydo bo‘lgan. Mushooralarning rivojlanishida san‘at va adabiyotga mehr qo‘ygan podshohlar huzurida o‘tkazilgan adabiy yig‘inlar sabab bo‘lgan. Bunday adabiy kechalarda shoirlar yangidan yangi mushoaralar yozganlar. Xususan, ana shunday yig‘inlar Husayn Boyqaro saroyida Alisher Navoiy boshchiligida o‘tkazilib turilgan. Shu qatori Qo‘qon adabiy muhitida Umarxon saroyida, Xiva adabiy muhitida esa Muhammad Rahimxon Feruz saroylarida ham o‘tkazilgan. “Mumtoz adabiyotimizning keyingi davrlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida goh “Ko‘kaldosh”, goh “Beklarbegi” madrasalarida, Kamiy, Sidqiy, Tavallo, Toshqin, Sadoiy, Miskin va Xislat kabi shoirlar ishtirokida mushoaralar bo‘lib o‘tgan” [5.197].

Qo‘qon adabiy muhitining zabardast vakillari Muqumiy, Zavqiy, Nisbatiy kabi shoirlar Amiriy va Nodira boshlab bergan mushoaronlik an‘anasini saqlab, uni munosib davom ettirgan bo‘lsalar, keyingi davr bosqichida Sulaymon Oshiq, Qambarniso, Chustiy, Charxiy, Komil Jo‘ra va Javdat Abdulla singari shoirlar adabiy muhitdagi mushoara janrining taraqqiyotiga sezilarli ravishda o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Quyidagi Sulaymon Oshiq va Qambarniso o'rtasidagi mushoara ishqiy-aytishuv shaklida yozilgan bo'lib, uning yozilish tarixi haqida Urfon Otajon o'zining "Mushoara" kitobida to'liq ma'lumot berib o'tgan [2. 37].

Oshiq:

Oshiqning muddaosi Qambar pari nisodur,
Orazlari qizil gul, kokillari qarodur.

Oshiq o'z maqsadini ochiq, ravon va tez ifoda etadi. Uning muddaosi yorning visoli. Birinchi misrada o'zining niyatini yashirmagan oshiq ikkinchi misrada yorga sifat berishga chog'lanadi: yorning go'zal yuzi - misoli qizil gul kabi yonib, nur taratib, oshiqni tobora o'ziga jalb etmoqda. Kokillarning qaroligi esa yorning chiroyiga-chiroy, husniga-husn ulashmoqda. Sulaymon Oshiq mushoarani bevosita mumtoz poetika an'anasiga binoan boshlaydi: yorning go'zal ta'rifi-yu, oshiqning muddaosi ila.

Qambarniso:

Kokulga qo'l uzatma, ey Oshiqi balokash,
Ishq ahliga bu kokul go'yoki ajdahodur.

Mushoaraning lirik qahramoni mahbuba muhibning muhabbatini to'g'ridan to'g'ri rad etmoqda. Ya'ni: "Ey Oshiq, menga erishmoqqa behuda urinma, ovvora bo'lma, yo'qsa balolarga qolursan. Ishqimda yurgan barcha oshiqlarni bu kokullar ajdaho misol yondiradi, kuyduradi" deya o'zbekona noz-firoq aylaydi. Bu o'rinda mumtoz she'riyatda ko'p uchraydigan kokul detali mahbubani tashqi ko'rinishi bilan bir qatorda ruhiy holatini ham izchil yoritishda qo'l keladi.

Oshiq:

Zulfig qarolig'idin kasb etdi layli yaldo,
Zulfin havosi birlan tandin bu jon borodur.

Oshiq yorga nisbat berishda davom etib, qaro tun o'z rangining qoraligini yorning zulfidan olganligiga ishora qiladi. Yor zulfining xushbo'y ifori oshiqni mast etadi. Hattoki, yurak tanaga bo'ysunmas darajaga yetib, yor tomon oshiqib boradi. She'riy mushoara davomida lirik qahramon ma'shuqaning berahmligidan shikoyat qilar ekan, uning mehri va lutfiga umid qiladi. Zora, ma'shuqa unga rahm aylasa?! Lekin yor har galgidek oshiq holiga achinmas, bil'aks, uni hijron azobida qiynashda davom etaveradi:

Qambarniso:

Soyamdin istirohat olmoq umid qilma,
Ummidi istirohat Oshiqqa noravodur.

Yor oshiqning muhabbatini rad etdi, uning orzu-umidlarini armonga aylantirdi:

"Mening visolimga yetmoqni umid qilma. Bunday orzuni Oshiqqa ravo ko'rmasman"- deya nozlanish bilan ziynatlanadi. U qanchalik noz qilgani sayin oshiq oldida qadr-qimmati oshib borardi. Oshiq unga yanada kuchli muhabbat bilan bog'lanadi.

Oshiq:

Jon birla mol hadya bo'lsun senga nigoro,
Xoki rahing ko'zumga bas bo'lsa to'tiyodur.

Ko‘rinadiki, ishqiy mushoarada ma‘shuqa jafosi, oshiq vafosi anchayin jonli tasvirlangan. Nolakor va alamzada oshiq yor visoliga oshiqar ekan, go‘zal yorga bor mol-mulkini va hatto jonini hadya qilishga ham tayyor. U: “Sen bosib o‘tgan yo‘llarni ko‘zimga to‘tiyo aylayman”- deya yorga murojaat qilib o‘z sevgisini isbotlamoqchi bo‘ladi.

Oshiq uchun yorning har bosgan izi tabarruk. Uning ko‘ngliga yo‘l topish uchun har nega tayyor oshiq ishq yo‘lida sobitqadam tashlamoqda. Taslim bo‘lish niyati yo‘q.

Qambarniso:

Mol ila jonni netkum, hosilsiz bo‘lsa maqsad,
kechdim alar baridin, bu barcha bebaqodur.

“Ey Oshiq, maqsadingni natijasi bo‘lmasa mol va joningni ne qilaman. Men bularning baridan vos kechaman”-deb hukm tarzida qat‘iy fikr bildiradi.

Yor oshiqqa ro‘yxushlik bermaydi. Oshiq yor uchun nelarni va‘da qilmasin o‘z jonidan kechsa hamki, yorning muz yuragi aslo erimaydi.

Bechora oshiq axiri yorga yalina boshladi:

Oshiq:

Oshiqg‘a rahm qilg‘il, ey rahmsiz, jafajo‘,
Qolma uvolimizg‘a, ishqing biza balodur.

“Ey rahmsiz, jafajo‘ aylaguvchi yor, bizdek Oshiqqa rahm qilg‘il. Bekorga uvolimizga qolmagin. Sening ishqing boshimga bitgan balo yanlig‘ meni xarob ayladi”.

Oshiqning taslim bo‘lishdan, yordan rahm-shafqat so‘rashdan ortiq biron iloji qolmadi. U chunonam harakat qildi. Ma‘shuqasining ko‘ngliga yo‘l topishga urindi, lekin yor bu urinishlarnida bekor ayladi:

Qambarniso:

Allomai zamonga andisha ziynat ermish,
Behuda harsa aytmoq, bir tavri norasodur.

Shoiraning lirik qahramoni sharqona odob-axloqni qadrlaydi. Ilm ahliga andishali bo‘lishlik ziynat bag‘ishlaydi. Bekordan - bekor nolish, arz qilish bilginki, to‘g‘ri ish emas,-deya uqtirishdan charchamaydi.

Ochilsa g‘uncha kelmish sochilmog‘i muqarrar,
Ortiqcha lab ochmoq endi Qambarniso xatodur.

Shoira mushoara yakunida g‘unchaning ochilishi va kun kelib to‘kilib, sochilishini misol qiladi, bu bilan har narsaning o‘z nihoyasi borligiga ishora etadi. Mushoarani ortiq davom ettirmasligini, u uchun keragidan ortiq so‘zalash xato ekanligini ta‘kidlab: “Har narsaning ozi shirin”- degan naqlga amal qilishini ko‘rsatib o‘tadi.

Ma‘lumki, mushoara janri alohida mustaqil asar hisoblanadi. XX asr she‘riyatining shakllanishi va taraqqiy etishida, janrlar takomilida mumtoz adabiyot an‘analarining ta‘siri yaqqol seziladi. Bu esa o‘zbek she‘riyati shoirlari ijod mundarijasini kengayishiga sabab bo‘lgan. Salafar an‘anasi shoirlar ijodining keng qamrovli tus olishini ham ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. –T: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashri, 1972.
2. Otajon U. Mushoara yoxud she‘r baxsi. –T: Meriyus, 2009.
3. Tojiboyeva Muqaddas. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an‘analari va mahorat masalalari. –T.: Mumtoz so‘z, 2017. -260 b.
4. Tojiboyeva Muqaddas. Jadid adabiyot va mumtoz an‘analar –T.: Mumtoz so‘z, 2011. -142 b.
5. Quronov D., Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T: Akademnashr, 2010.

MUQIMIY VA ZAMONDOSH SHOIRLAR IJODIDA HAYOT NAFASI

Shahnoza RAYIMOVA,
QDPI 3-bosqich talabasi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon adabiy muhitidagi hayotning shoirlar ijodidagi tarannumi, Muqimiy hamda zamondosh shoirlar ijodining qisqacha talqini, Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimiga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, ma‘rifatchilik, tanqid, satirik yo‘nalish, qahramon, ramz, adabiy meros, sayohatnoma.

Аннотация

В статье представлены описание жизни в литературной среде Коканда в произведениях поэтов, краткая интерпретация творчества Мукими и современных поэтов, проблемы, связанные с изучением творчества представителей кокандской литературной среды и предложения по их решение.

Ключевые слова: литература, просвещение, критика, сатира, герой, символ, литературное наследие, путеводител.

Annotation

The article presents the songs of life in the literary environment of Kokand in the works of poets, a brief interpretation of the works of Muqimi and contemporary poets, problems related to the study of the works of representatives of the Kokand literary environment and suggestions for their solution.

Keywords: literature, enlightenment, criticism, satire, hero, symbol, literary heritage, travelogue.

O‘zbek adabiyoti tarixida salmoqli o‘rin egallagan milliy uyg‘onish davri adabiyoti o‘zining boy tarixi va dolzarbligiga ko‘ra muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, bu davr rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shgan, Qo‘qon adabiy muhitida yuzaga kelgan asarlarning mazmun-mohiyati, nazariy asoslari bugungi avlod ta‘lim-tarbiyasiga ham birdek taalluqli ekani adabiyotimizning ulkan yutug‘idir. XIX asr birinchi yarmi, xususan, Qo‘qon xonligi boshqaruvida Amir Umarxon (Amiriy) ning taxtga o‘tirishi bilan barobar shakllana boshlagan adabiy muhit o‘z

doirasida qator shoir va ulamolarni, ma'rifatparvar ziyolilarni kashf etdiki, bu davrda Qo'qon adabiy muhitini boyitgan yetakchi qalam sohiblari bir makon va bir zamonda yashab, ijod etsalar ham janr, mavzu, talqin bo'yicha bir-birini takrorlamas asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Ular qalamiga mansub asarlar bilan tanishar ekanmiz, asarlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ularni bog'lab turgan umumiy mushtaraklik borligini ham sezishimiz mumkin. Bu bir vaqtning o'zida shakllangan, milliy adabiyot negizida yuzaga kelgan ma'rifatchilik adabiyoti nafasidir. Shu o'rinda ma'rifatchilik adabiyoti mohiyatiga to'xtalib o'tsak: Ma'rifatchilik adabiyoti kishilarni o'qish va bilim olishga da'vat etuvchi adabiyotdir. O'zbek adabiyotida ma'rifatchilik yo'nalishi dastlab Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshodi Barno, Anbar Otin singari ijodkorlar faoliyatida ko'ringan. Ma'rifatchilik adabiyoti ommaga mo'ljallangan bo'lib, uning ifoda yo'sinida soddalik, tushunarlik ustuvorlik qilardi. Agar mumtoz adabiyotning qahramoni **komil inson** bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni **ma'rifatli shaxs** edi. Ma'rifatchilik adabiyotiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Xalq hayoti badiiy adabiyot manbasi bo'ldi.
2. Oddiy odamlar badiiy asar qahramoni bo'ldi.
3. Badiiy asar tili jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashdi.
4. Xalq turmushi, o'y-xayollarini aks ettirish uchun oldingi mubolag'ador tasvir usulidan ko'ra realistik yondashuv maqbulroq ekani anglab etildi.

Ma'lumki, Qo'qon adabiy muhitida erkin ijod qilish bir qadar oson bo'lmagan. Bu davrning ham barcha zamonlarda bo'lgani kabi murakkabliklari mavjud edi. Oddiy kasb-kor foydasidan to'kinlikka yetish, bekam-u ko'st yashashning sirini ham, yo'lini ham o'z holiga qo'yganча, umri faqat ijod, halol mehnat, yo'qchilikka sabr, shukr va qanoat bilan o'tgan, xonlik hayotidan tashqari, kamtarin hayot kechirgan qo'qonlik ma'rifatparvarlarning ijodi bil'aks yuqori saviyada, yuksak ma'no-mazmun bilan yuksaklik kasb etgandi. Bu davrda Qo'qon adabiy muhitida ikkita janr paydo bo'lib, o'zbek adabiy merosi yangi yo'nalishlar, yangi asarlar bilan boyidi: XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan qo'qonlik mumtoz shoir Muhammadsharif Gulxaniy o'zining xalq og'zaki ijodi asosida yaratgan "Zarbulmasal" asari bilan masalnavislik janri rivojiga yorqin hissa qo'shgan bo'lsa, XIX asr o'rtalariga kelib Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'zbek adabiyotini o'zining "Sayohatnoma"si bilan boyitdi. Ushbu asar ta'sirida Furqat tomonidan yaratilgan "Sarguzashtnoma" asari, Zavqiy qalamiga mansub "Shohimardon xotirasi" ham keng qamrovli mazmun-mohiyati, dolzarbligi bilan o'z davri adabiy hayotida o'ziga xos yangilik bo'ldi. Umuman, qaysi janr yoki shaklda bo'lmasin, Qo'qon adabiy muhitida yaratilgan asarlar to'la-to'kis ma'rifatparvarlik tarannumiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Chunonchi, "Zarbulmasal" asarida kishilarni turli jonzotlar timsolida gavdalantirish bilan zamon muammolarini ko'tarib chiqa olgan Gulxaniy mazkur asari zamirida ilmsizlik, tarbiyasizlik masalasini yoritish barobarida, turmushni faqat boylig-u, dabdabada deb bilguchi nodon boylar xizmatida bel bukib turgan ilmi kishilarning turmush nochorliginidan ham hikoya qiladi. Qo'qon adabiy hayoti vakillari o'z davridagi hayot, turmush sharoiti, kishilar o'rtasidagi muomala-munosabatlarni

shunchaki kuzatuvchi emas, aynan ishtirokchi bo'lib, ba'zi o'rinlarda ravon va sodda, ba'zi nuqtalarda esa badiiy bo'yoqdorliklarda ifoda etadi.

Chindan ham, Qo'qon adabiy muhitida yetishib chiqqan shoirlar lirikasida yetakchi mazmun – ma'rifatchilik bo'lsa, o'z asarlaridagi yetakchi qahramon shoirning o'zi ekanini ko'rishimiz mumkin. Lirik shoirlarimiz zamonga, xonlik boshqaruviga o'z munosabati, taqdir sinovlaridan ko'rgan kulfatlarini hasb-u hol, murojaat, shikoyat, noma tarzida kuylab, “dardlari”ni ko'ngil sadolariga oshufta etganlarki, bunday uyg'unlikka, ayniqsa, Muqimiy, Zavqiy, Mahmud, Furqat qalamiga mansub g'azal, muxammas, musaddas, masnaviy, hajviy she'rlar, qit'a, sayohatnoma va maktublari bilan tanishish asnosida guvoh bo'lishimiz mumkin. Shoir Zavqiy “Dar mazammati zamona” hajviy she'rida shunday deydi:

*“...Bevayu bechora kosiblarga hurmat qolmadi,
O'g'rilar atlas kiyib, boy bo'ldi ko'p to'ng'uzlar...”*

Yoki Muqimiyning “To'yi Iqonbachcha” she'ridagi parchani olaylik:

*“Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring,
Tutmangiz hargiz nomini, baxti qaro deb axtaring”*

Ushbu ikki shoir baytlaridagi mushtarak ma'no – xokisorlik Furqatning “Bir qamar siymoni ko'rdim baldai Kashmirda” g'azalida ham nido beradi:

“Aydi: “Ey bechora, qildi na uchun tarki vatan?”

Men dedim: “G'urbatda Furqat bor ekan taqdira...”

Ko'rinadiki, Qo'qon adabiy muhitida yashab, ijod etgan lirik shoirlarning deyarli barchasi zamonga murojaat ruhida qalam tebratgan, o'z yozmishlarini hasbu hol tarzida ifoda etgan. Qo'qon adabiy hayoti vakillari, jumladan, Muqimiy, Zavqiy, Maxmurlar o'z asarlarida realizmni ochiq talqin etgan holda, tanqidiy-satirik yo'nalishining yetakchilari qatorida edi. Davr ruhiyati Qo'qon adabiy hayoti yetakchisi o'laroq maydonga chiqqan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodida muammolarga nisbatan salbiy baho berishga turtki bo'lgan edi. Shu ma'noda u va zamondosh shoirlar ijodiga kirib borgan hajv, satira, tanqidiy munosabat ifodalari bora-bora bir-biriga o'xshamas, pirovardida muhim masalalar yukini ortgan asarlar yaratilishiga asosiy mezon bo'lib xizmat qildi.

Ma'rifatparvarlik davriadabiyoti yumoristik yo'nalishining rivojlanishida ham Muqimiyning ijodiy faoliyati juda katta bo'ldi. Shoir qo'lida kulgi qo'pol qahqaha yoki shunchaki xushchaqchaqlik, bachkana mutoyiba emas, balki, hayotdagi qoloq, taraqqiyotga to'siq g'ovlarni, shaxslar ongi va tabiatidagi ojizlik va salbiy belgilarni, xunuk fe'l-atvor va o'rinsiz xatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, ogohlantirish vazifasini o'tagan.⁵ Biroq bu o'rinda Muqimiy va unga zamondosh shoirlar qalamiga mansub barcha asarlarni jabr-u sitam, ozor va tashvishlar, o'kinch, alam va qayg'u bilan bog'liq, deyishdan yiroqmiz. Vaholanki, har bir ijodkor bisotida o'z davrining muhitining aks etib borishi adabiyot, adabiy asarlar talqinini ochuvchi yo'nalishlardan, mavzuviy g'oyalardan biridir. Yorni sevish, muhabbat va sadoqat, vatanparvarlik, halollik, do'stlik, mehr-oqibat kabi yuksak insoniy tuyg'ular tarannumi ular ijodini boyitib turgan eng sara durdonalardir. Muqimiy qalamiga mansub “Navbahor”, “Surating”; Zavqiy ijodidagi “Shod qildilar ko'ngulni kecha bir mehmon kelib”, “Ishq ahli bukun

ma'shuqi jonona etushtuk", "Aylab keling", "Kel", "To'yning muboraklaridin", Furqatning "Fasli navbahor bo'ldi...", "Surating" g'azallari shular jumlasidan.

Qo'qon adabiy muhitida tanilgan qalam ahlining milliy, ma'rifatchilik adabiyotiga qo'shgan hissasi hasbu hol tarzidagi she'rlar bilan cheklanmaydi, albatta. Bu o'rinda o'z davri uchun ijodiy yangilik, o'zgacha yondashuv isboti bo'lgan va hozirga qadar o'z mohiyatini saqlab kelayotgan sarguzasht talqinining mustaqil adabiy janr qiymatini olishi ham Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Maxmur ijodini yana bir pog'ona ko'tarishga xizmat qilgan. Bevosita shoirlarning ishtiroki, kuzatuv asosida yuzaga kelgan "Sayohatnoma", "Sarguzashtnoma", "Shohimardon xotirasi" kabilar Qo'qon xonligi hududidan to Farg'onagacha bo'lgan shahar-u qishloqlar, shuningdek, Shohimardon quchog'iga ham yo'l ochadi. XIX asrda yaratilgan sayohatnomalar o'sha davrga hos muhit, sharoit, tabiat, tubjoy aholisi turmushi, ba'zi o'rinlarda kishilar fe'l-atvoridagi ayrim "sir"larni ham "ochadi"ki, bu ochiqliklar o'quvchini bir manzildan ikkinchi manzilga engil bog'liklik, chalg'itishdan yiroq tarzda eltadi. Masalan, Muqimiyning "Qo'qondan Farg'onaga" sayohatnomasida shunday misralar bor:

"Chun shahrdin chiqdim Qudash,

Ko'ngil bo'lib mahzunu g'ash,

Majnunsifat, devonavash,

Serchashmayu, kam chang ekan..."

Bunday tasvir Zavqiyning "Shohimardon xotirasi"da ham uchraydi:

Sahni ajoyib xushhavo,

Ham ruhparvar, jonfizo,

Xushbo'y ko'ringan har giyoh,

Jambil bilan rayhon ekan..."

Ko'rinadiki, kitobxon asarlar bilan tanishish asnosida ko'plab manzillarga chin ma'noda sayohat qiladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy: nega qo'qonlik ijodkorlar asarlari sirasida sayohatnoma asarlari talaygina va ularning yaratilish tarixi qaysi manba yoki voqelikka borib taqaladi?

Sir emas, Qo'qon adabiy muhiti vakillariga hayot deb atalmish tortiq bir vaqtning o'zida ham ijod, ham tirikchilik tashvishi bilan kun kechirish yo'lini ravo etgandi. Turmushdagi moddiy qiyinchiliklar, qolaversa, Xiva xonligi, Buxoro amirligidagi qalam ahllari bilan tanishuvga qiziqish, o'zaro fikr, xat-xabar almashinuv, u yerdagi adabiy jarayonlarni ko'rish istagi lirik shoirlarimizni bir-biriga yaqin bo'lishga, bunda esa albatta, sayohat asnosida kechadigan voqeliklarni qarshi olishga sabab bo'lgan edi. Qator manba va adabiyotlarning ayonlik berishicha, aksar qo'qonlik shoir va adiblar hayoti sarguzasht va sayohatlar, jahongashtalik bilan kechgan. Hayot charxpalagi turfa mashaqqat, sinov va sitamlarni hozirlagan esa-da, Qo'qon adabiy muhiti vakillari bir nafas bo'lsin o'zlari tanlagan ma'rifatchilik yo'li, ilm yo'lidan qaytish fikridan yiroq, faqat va faqat izlanish va ijod ummonida kezishni maqsad qilgan edi. Demak, yuqorida keltirilgan savolga javob bir qadar ayonlik kasb etdi, deya olamiz.

Shu o'rinda aytish joizki, o'z davrida matbuot va maorif madaniyati sohasida ham ijodini namoyon eta olgan, ma'rifatparvarlik harakatlarining faol ishtirokchisi sifatida maydonga chiqqan, o'z ilmi, ijodi, bilim va dunyoqarashi, boy

ma'naviy bisoti bilan xalq ko'ngli, o'quvchilar qalbi, zamon tolibi ilmlariga yo'lchi yulduz bo'la olgan lirik shoirlarimiz, aynan Qo'qon adabiy muhitining etakchi ijodkor vakillari ijodini o'rganish va tadqiq qilish davomli jarayon. Ular ijodini o'rganishdagi yutuqlar qatorida bu yo'ldagi mavjud muammolarni tahlil etish, o'z o'rnida echimini topa olish ham dolzarb vazifalardan biridir. Zotan, milliy adabiy merosimiz va ular yaratuvchilarining ijod yo'lini xalqqa, keng kitobxonlar e'tiboriga havola qilishning o'zi ham yuksak ma'naviy tafakkur shakllanishida muhim qadamlardan biri bo'la oladi. Shulardan kelib chiqib, lirik shoirlarimiz ijodini o'rganish bilan bog'liq ayrim muammo va uning yechimlariga doir yo'nalishlarni quyidagi tartibda ko'rishimiz mumkin:

1. Qo'qon adabiy hayoti vakillari asarlari asosidagi sahna asarlarining kamligi. Bu borada shoirlar hayoti va ijodidan hikoya qiluvchi dramatik asarlar yaratish ko'lamining kengaytirilishi;
2. Shoirlar ijodini o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalari tizimida "Adabiy meros yog'dusi", "Milliy yuksalishning sarbaland yo'li" kabi mavzularda yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan adabiy gurung va yig'inlarning o'tkazib borilishi;
3. Milliy qo'shiqchilikning lirik shoirlarimiz asarlari bilan yanada boyitilishi;
4. Oliy ta'lim muassasalari tizimida adabiyotshunos olimlar va aynan Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan ziyolilar ishtirokida turkum uchrashuv va adabiy kechalarning tashkillab borilishi.
5. Qo'qon adabiy muhitining yetakchi vakillari – Amiriy, Nodirabegim, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Gulxaniy ijodining matniy, mazmuniy tahliliga doir risola, qo'llanma va adabiyotlarning chop etilishi.

Umuman olganda, lirik shoirlarimiz ijodini o'rganish, tadqiq etish muammolari va ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar yuqoridagilar bilan cheklanib qolmaydi, albatta. O'zbek adabiyotida o'ziga xos, yaxlit hamda yuksak maqomga ega bo'lgan, millat ma'naviy hayotini chin ma'noda o'z ijodi bilan boyita olgan, o'z asarlarida hayot nafasini ulug'lagan Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodini yanada ko'proq o'rganish ishtiyoqi sarbaland ekan, milliy adabiyotimiz rivoji muhtashamlik kasb etib boraveradi.

Foydalanilgan ajdabiyotlar:

1. S.Matchonov, Sh.Sariyev. Adabiyot. 211, 216, 218, 221-b.
2. Zavqiy. Ajab zamona: She'rlar (To'plovchilar: Madaminov A., Turdialiev A.). – T.: Sharq, 2003. 110-b.
3. Ma'naviyat yulduzlari. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –T, 1999.

MUQIMIY VA ZAVQIY HAJVIYOTIDAGI MAVZUVIY O'XSHASHLIKLAR

**Akbar KAROMATOV,
CHDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti, 2-kurs.
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Qo'qon adabiy muhitining taniqli hajvchilari – Muqimiy va Zavqiy ijodi namunalarining mavzuviy o'xshashligi. Hajvchi shoir Muqimiy va Zavqiy qarashlari va ijodlarining mavzuviy maqsadlari haqida.

Kalit soʻzlar: Adabiy muhit, ijtimoiy nochorlik, oʻtkir hajv, qoʻrchi, mingboshi, qozi, badiiy yumor.

Аннотация:

Известные юмористы кокандской литературной среды находят тематическое сходство между произведениями Муқими и Завқи. О тематических целях поэта-комика Муқими и взглядов и произведений Завқи.

Ключевые слова: Литературная среда, социальная беспомощность, острый юмор, хулиган, командир, судья, художественный юмор.

Annotation:

Well-known comedians of the Kokand literary environment are thematic similarities between the works of Muqimi and Zavqi. About the thematic goals of Muqimi and Zavqi's views and works of the comedian poet.

Keywords: Literary environment, social helplessness, sharp humor, bully, commander, judge, artistic humor.

XIX asr Qoʻqon adabiy muhitining vakillari – Nodira (Maknuna, Komila), Jahon Otin Uvaysiy, Dilshodi Barno, Muhammad Sharif Gulxaniy, Maxmur, Gʻaribiy, Nasimiy, Mavlaviy, Zavqiy, Muqimiy va boshqalar edilar. Ularning ijodi oʻzbek adabiyotining alohida bir sahifasi sifatida yangicha bayon uslubi, teran ijtimoiylik va ijtimoiy mavzularning yuqori oʻringa koʻtarilganligi, badiiy yumar va satiralarga boyligi holida qoʻshildi. Qoʻqon adabiy muhotida oʻzbek mumtoz adabiyotining yana bir oʻzgachalik kasb etganligi shunda ediki, shoiralarning ham mumtoz adabiyotda salmoqli ijod namunalarini yaratganliklari edi. Bulardan Nodiraning gʻazallarida turfa ranglarda jilolangan ishq va shu bilan birga xalq ahvolidan ogohlik, Uvaysiy gʻazallaridagi teran anglanuvchi “Hasbi hollik”, ichki kechinmalarning bayonidagi sodda oʻxshatishlar, Dilshodi Barno ijodining esa masnaviy, muhammas, musaddas, murabbalari tahsinga sazovordir. Ularning qalamga olgan mavzulari esa oʻzbek mumtoz adabiyotining XIX asar davri mavzularini ancha kengaytirib, mavzularda zamonga hamohanglik kasb etdi. Ammo, zamonning turli suronlari xalq boshiga ocharchilik, turmush qiyinchiliklari, nochorlik kabi koʻrguliklarni soldi. Xalqning boshidagi bu koʻrguliklar ustiga baʼzi poraxoʻr, qoʻli egri, insof bilmas amaldorlarning qilmishlari ham tushdi. Xalqning ahvoli chunon abgor boʻldi. Shoirlar esa bu holatga qarab turolmadi. Maxmur qalamiga mansub “Hapalak” nomli 12 baytdan iborat sheʼri shu davr aholisining hayotini toʻlaqonli yoritadi. Unda qalamga olingan Hapalak qishlogʻi aholisining turish-turmushi oʻtkir fikr va oʻxshatishlar bilan beriladi. Unda qishloq va qishloq ahli shunday taʼriflanadi:

*Turfa qishloq gʻazab kardaki parrandalari,
Tovugʻi ignachi-yu, oʻrdag-u gʻozi kapalak.*

*Bor-u yoʻq uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, toʻrt katalak.*

*Dema uy, balki zamin, Kunduz agar kirsak kishi,
Har taraf betiga urgaylar ani(ng) koʻrshapalak. (1,15-bet)*

Maxmur yuqoridagi she’rda xonlikning hayotida kechgan ocharchilik va ijtimoiy nochorliklarni ta’riflar ekan she’r oxirida Maxmur shohdan kechishni zor talab qilishini keltirib o’tadi. Akademik Aziz Qayumov Maxmur ijodiga to’xtalib o’tar ekan shunday deydi: “Maxmur ijodiyotida uning mashhur “Hapalak” she’ri markaziy o’rinni egallaydi. Bu she’rda shoir feodalizm hukumronligi davridagi dehqonlarning og’ir va mashaqqatli hayotini real bo‘yoqlar bilan tasvirlab, ularning xon, feodallarga qarshi noroziligini kuylaydi”.(2,10-bet). Bu tavsif esa albatta, Maxmur ijodining asosiy mavzularida xalqning ahvoli turganligi va unga befarq bo‘lmagan hislari mavjudligi ayonlashadi. Bu ocharchilik yillari Muhammad Sharif Gulxaniy va Dilshodi Barno ijodida ham aks etgan. Muhammad Sharif Gulxaniy “Bideh” g’azalida ocharchilik azobidan xonga murojaat etadi. Dilshodi Barno ham tojik tilida yozilgan g’azalida shunday deydi:

*Zamona podshosisan, raiyatlarga sen non ber,
Faqirga non uchun un g’amlashib, omboriga don ber.*

*Oliy vaqf egasining qo’lidan bir qism yerlarni,
Haqiqiy egasi – dehqonga topshirmoqqa farmon ber.*

*Umid ko’zi bilan senga faqir ellar qarab turgay,
Ularni noumid qilma, yashashga yaxshi imkon ber.*

*Faqir bo’ynidagi sirtmoq ipi bir yo’la yo’q bo’lsin,
Tiriklik chog’larida sen uning jismi aro jon ber.*

*Dema sardor-u, mansabdor, ularga ham suyanma ko’p,
Hamisha kambag’allar haq-huquqin farovon ber.*

*Umidim shul erur: Sulton karam qilsin faqirlarga,
Ularga bu g’azalxon hurmati erk birla darmon ber.*

Manam Dilshod amir oliyjanoblik aylasa derman.

Kerakki yaxshi nom qolsin, yozishga unga devon ber. (3,93-bet)

Yuqoridagi g’azal ham xonga murojat tarzida yozilgan bo‘lib, xonga turli shavqatsiz amaldorlar va mansabdorlarning qilmishlarini ham ayon qiladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan namunalarning barchasida xonga murojat bilan birga xalq ahvoli bilan hisoblashmas amaldorlarning tilga olinishi bu xalqning boshidagi qora bulutlardan biri ekanligidan bizga xabar beradi. Shu boisdan ham Maxmur, Muqimiy va Zavqiy ijodining kattagina qismini hajviyalar tashkil etsa ajab emas. Qo‘qon adabiy muhitining iste’dodli vakillaridan biri Zavqiy ijodiga e’tibor beradigan bo‘lsak: “Qahatlik” (masnaviy), “Pashshalar” (Muqimiyning “Qurbaqalar” she’riga javob), “Tarifi kalish”, “Rohsan Ergash”, “G’udaslik boy haqida hajv”, “Abdurahmon shayton”, “Hajvi Ahmadxo‘ja qozi va tariqa tarix”, “Obid Mingboshi haqida hajv”, “Dar hajvi shoh inoyat qo‘rboshi”, “Talading baring!”, “Hajvi ahli rasta”, “Afandilar”, “Hajvi yikchi eshon”, “Quloq soling, yoronlar”, “Suv janjali”, “Muncha ko‘p”, hajvlarning mazulari – amaldorlar.

Zavqiy ijodi hajvlarining nomidan ham ma'lumki, xalqchillikka yo'g'rilgan. Muqimiy ijodi ham xuddi shunday xalqchillik kasb etishi bilan o'xshashdir. Muqimiy ijodiga nazar soladigan bo'lsak: "Tanobchilar", "Maskovchi boy ta'rifda", "Hapalak qishlog'i to'g'risida" (Maxmur g'azaliga muxammas), "Hajvi Viktor boy", "Hajvi Viktor", "Voqeai Viktor", "Voqeai qur ashurboy hoji", "Turfa nodon bachchag'ar", "Turfa nodon bachchag'ar", "Dar mazamati qurbaqa", "Tarifi pech" kabi hajvlari uchraydi va ular mavzu va ahamiyatlik darajasi nuqtai nazaridan Zavqiy hajvlariga mos. Hajvlarning ahamiyatlik darajasi deyilganda, xalq boshidagi amaldorlarni nazarda tutsak ikki hajvchi adib ham bu amaldorlarning kirdikor va nodonliklarini fosh etadi. Hajvlarning barchasida ular hajv qilinadi, ba'zi hajvlarda esa ismlari ham keltiriladi. Bunga dalil sifatida hajvlarning mavzusida ham uchrovchi hajvga olingan qahramonlar va ularning mansablari – qo'rchi, mingboshoshi, qozi kabilar ham isbotlab turibdi. Ularda hajvga olingan mansabdorlarning adolatsizliklari, poraxo'rliklari hajvga olinadi. Bu jabhada Zavqiyning hajvlari ayovsizdir.

"Hajv ahli rasta" (1905-06-yillarda yozilgan) she'rida Qori, Jalilboy, Shokir qora, Nazirbek, boyvachcha, Ahmadjon, a'lam, Olimjon, Muhiddin, Fozilxo'ja, Qosim, Usmoncha, Mavlon, Fozil, Umarjon, Jalolxon, Mirhamza, Kichkinajon, Iqonbachcha, Bulbul, Nusrat, So'fi, Abduqodir, Xoji, Qosim shamol, Ortiqbachcha, Ortiqning akasi, Xo'jabachcha, Yo'ldosh, Qribachcha, Farzinbachcha, Abdulla xoji, Meli, Mo'minshoh, Fayzi shayton, Odil, Ellikboshi va uning o'g'li kabi obrazlarni keltirar ekan hajvi oxirida 46 kishini hajv qilganini keltirib o'tadi. Uning hajvi ostiga olingan insonlar bir qadar xalqning ahvoliga mas'ul bo'lganlar va bir qancha beadab ziyolilarning xalq bilan ishi yo'qligi yoki xalqqa odilona so'zlab yurguvchilarning farzandlari noma'qulchiliklarda ekanligini tilga oladi. Bu bilan iste'dodli shoir Zavqiy asl, halol mehnat qiluvchi insonlarning qo'lida yurtini ko'rgisi keladi. Bu g'oya shoirning hajvlari tub zamirida yotsa, g'azal va muxammaslarida yurtining holidan kuyinib uning kelajagi haqida afsusnadamat qilib shunday deydi:

"Bu kunlar boshimizda bir sahob o'lsa ajab ermas,..

Bu davlat suv yuzinda bir hubbob o'lsa ajab ermas". [4, 87]

Zavqiyning yuqoridagi "Ajab ermas" muxammasi shoir ijodining maqsad va qarashlarini to'laqonli ochib beradi. Shoirning ijodi xalqchil kinoya va so'zlar bilan bitiluvchi hajvlardan iborat deb qaralsada, ammo uning g'azal va muxammaslarida surgan g'oyalari uning yurti uchun qayg'uruvchi asl shoirlardan ekanligi haqida xabar beradi. Hajv esa uning bu yo'ldagi maqsadiga yetishishi uchun bir qurol. Muqimiy hajvlari bu jabhada qolishmagan holda Zavqiy kabi qalamga olingan mavzulari kuchli, mavzuning yoritilish ko'lami keng. Muqimiyning "Hajv ahli rasta" hajviga o'xshash bo'lgan "Tanobchilar" satirasi o'tkir hajv ostiga olinib Zavqiy kabi amaldorlarning pora xo'rliklari tilga olingan. Muqimiy ijodidagi hajvlarda ham mansabdorlar lavozimi yoki aniq ismi bilan keltiriladi. Shu bilan birga ularning barchasi sifatlash, tashbeh, qarshilantirish kabi she'riy san'atlar bilan o'tkir hajv ostiga olinadi. Zavqiy va Muqimiy ijodining mavzu ko'lami va mavzyviy o'xshashliklari ko'rinib turibdiki, xalqchillik, xalq tashvishlariga xoslikka yo'g'rilgan ozodlik, adolat kabi tub zamirli

mafkrualardadir. Ikki hajvchi ijodida ham yumar ma'lum mavzular va maqsadlarga yo'naltiradi. Masalan: Zavqiyning yumorga boy "Tarifi kalish", Muqimiyning esa "Tarifi pech" hajvlari xalqning ahvolidan chuqur xulosa beradi bizga. Zavqiy va Muqimiyning bir adabiy davr va zamonda istiqomat qilganliklarining o'zi ularning mavzularini o'xshashlik jihatlarini shakllantirmagan. Aksincha, asosiy sifat bilan xalq ahvolidan ogohlik va hurriyatga tomon yo'l bosish bo'lganligidir. Ikki shoirning adabiy mavzulari zamirida xalqning ahvoli, zamon amaldorlari, kaltafahm boylar, noqobil dindorlarning bir yoqlama zamonga qarashlari yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maxmur tanlangan asarlar". – Toshkent, 1951. O'zbek adabiyoti klassiklari kutubxonasi. www.ziyouz.com kutubxonasi materiallaridan.
2. "Dilshod tanlangan asarlar". G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyoti. – Toshkent, 1972. www.ziyouz.com kutubxonasi materiallaridan.
3. "Zavqiy tanlangan asarlar". O'zbek klassiklari kutubxonasi. ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти – Тошкент, 1960. II нашр. www.ziyouz.com kutubxonasi materiallaridan.

MUQIMIY, HAMZA VA SO'FIZODA IJODIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR UYG'UNLIGI

**Gulnavoz MAMADALIYEVA,
NamDU magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Muqimiy, Hamza va So'fizodaning satirik ijod namunalaridagi o'xshash va farqli jihatlari muqoyasa qilingan. Asarlarida aks etgan davr muammolarining achchiq satira orqali tasvirlash mushtarakligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Muhammadsharif So'fizoda, Muqimiy, Hamza, satira, adabiy-estetik mushtaraklik, amaldorlar, boylar, din peshvolari, tanqidiy tahlil, mutaassiblik, jaholat, ilm-ma'rifat.

Аннотация:

В данной статье сравниваются сходства и различия Мукими, Хамзы и Мухаммадшарифа Софизоды в их сатирических произведениях. Анализируется общность сатирического изображения проблем периода, отраженная в его произведениях.

Ключевые слова: Мухаммадшариф Софизода, Мукими, Хамза, сатира, литературно-эстетическая общность, чиновники, богачи, религиозные деятели, критический анализ, фанатизм, невежество, просвещение.

Annotation:

This article compares the similarities and differences between Muqimi, Hamza and Muhammadsharif Sofizoda's satirical works. The commonality of the satirical depiction of the problems of the period reflected in his works is analyzed.

Keywords: Muhammadsharif Sofizoda, Muqimi, Hamza, satire, literary-aesthetic commonality, officials, rich people, religious leaders, critical analysis, bigotry, ignorance, enlightenment.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Muqimiy, Soʻfizoda va Hamza kabi shoirlarning satirik janrdagi asarlari mavzu jihatdan mushtaraklik kasb etsa-da, xarakter yaratish mahorati, uslub va poetik tasvir jihatidan oʻziga xos badiiy jihatlarga ega. Muqimiy jamiyatning ikki qutbga ajralganligi, unda ijtimoiy tengsizlik hukm surishini koʻra oldi. U oʻzi yashab ijod etayotgan hayotda boylar va kambagʻallar, toʻqlar va ochlar, katta yer egalari va bechora dehqonlar, zavod-fabrika egalari va ular qoʻlida ezilib ishlovchilar mavjudligini angladi hamda ularni oʻz asarlarida aks ettirdi. Misol uchun, “Maskovchi boy taʼrifida” sheʼrida Hodixoʻja va uning korxonasidagi ishlar, “Voqeai koʻr Ashurboy hoji” asarida axloqiy-maishiy buzuvchi Ashurboy hojining ogʻir jinoyati haqida soʻzlaydi.

Qoravul, istarshi-yu, mingboshilar,

Chopib keldilar deb: “Nachuk, kor-zor?”

Bosib kirdilar: “Bu nachuk dod?” – deb,

Qoravulning uyiga beixiyor.

Koʻrib dedilar: “Boy ekan, qochiring!” [2, 124].

Muqimiy satirada hukmron sinflarning bu zoʻravonliklariga norozilik bildiradi, adolatsizlikni qattiq qoralaydi. Baytda shoir “boy”ning “zoʻr eʼtibor” topishining asl sabablaridan biriga — pul, oltinning u tuzumda hal qiluvchi kuchiga ishora qiladi.

Shuningdek, Muqimiy satiralari mazmun jihatidan boy, mavzu jihatdan rang-barangdir. Aytish mumkinki, Muqimiy satiralari jamiyat hayotining hamma asosiy tamoyillarini, past-balandlarini qamrab oladi. U oʻz satiralari orqali yovuzlarning kulgili, jirkanch tashqi qiyofalarini ochib tashladi. Uning “Tanobchilar”, “Dodxohim”, “Axtaring”, “Saylov” asarlari mahalliy amaldorlar zulmini koʻrsatishga, ularning jirkanch basharalarini ochiq-oydin fosh etishga qaratilgan. Mahalliy boylarning kirdikorlarini koʻrsatib beruvchi “Maskovchi boy taʼrifida”, “Hajvi Viktorboy”, “Toʻyi Iqonbachcha”, “Hoji qadoqchi”, “Gap toʻgʻrisida gap” kabi satiralarida jamiyatdagi salbiy xarakterlar ochib berilgan. “Avliyo” nomli satirik asarida ham shoir jamiyatda tekinxoʻrlik bilan kun koʻruvchi din ahllarini tanqid qiladi, ularning feʼl-atvorlaridagi iflosliklarni, kulgili hollarni tasvirlaydi.

Muhammadsharif Soʻfizoda (Vahshiy) 1870-yil 29-yanvarda Chust shahrida dunyoga keldi. U oʻz savodini yoshligidan Manzura otindan chiqarishga urindi. Keyingi taʼlimini esa oʻz mahallasidagi eski maktabda davom ettirdi. U bolalik chogʻlarida Manzura otindan xalq qoʻshiqlari va dostonlarini maroq bilan tinglagan edi. Ayniqsa, bu xushovoz ayolning gʻazal oʻqishdagi sanʼati boʻlajak shoirni qattiq hayajonlantirgan, adabiyotga qiziqishini kuchaytirgan. Muqimiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Furqat singari demokratik fikrdagi qalam ahllarining ijodini qunt bilan oʻrgangan, oʻzi ham sheʼr yozishni mashq qilgan, hatto, ularning ijod yoʻnalishiga oʻxshash qalam tebratib, satiralar yarata olgan.

1893-1898-yillarda Soʻfizoda Qoʻqonda yashaydi. Bu yerda u Muqimiy, Zavqiy hamda Furqatlar bilan tanishadi va ular taʼsirida ijod qila boshlaydi. Uning “Vahshiy” taxallusi bilan yozilgan “Ayting bu soʻzimni”, “Dakaning”, “Bedanang”, “Burgalar” kabi betakror satiralari, “Gʻubor dard-u alam”, “Oʻpay” singari lirik gʻazallari Muqimiy anʼanalari asosida shakllangan. Masalan:

*Kirib vahdad xumiga nosovodliqni ranglanglar,
Ki qilmoq, oshnolig' boridin g'ayr ila tanglanglar.
Qayu mas'habda ahli ishqni qatli zarur vojib,
Musulmonlig' agar shul bo'lsa, mo'minlar paranglanglar [1,44].*

Shoir So'fizodaning mavjud ijtimoiy tuzum homiylariga qarshi bunday ochiq harakati, o'sha paytlarda Muqimiy satiralarning qaqshatqich zarbalaridan qutula olmayotgan eski tuzum tarafdorlari uchun yanada kattaroq tashvish bo'ldi.

*Muallimni quvib maktabni yopgan chustilar bizlar,
Berib pora pristavlarni topgan chustiylar bizlar.
Duo qilsun deduk yosh qizni sotdik oqsoqollarga,
Va lekin qilg'uchi olamni vayron chustiylar bizlar. [1,54].*

Shoirning bu satirasida boy va ruhoniylarning jirkanch basharasi ularning o'z tili orqali fosh etiladi. Albatta, shiori: "Yesun to'qlar, eshik oldida tursun termulib ochlar" bo'lgan "ochlarga bojmonlar" o'zlarining butun razilliklarini yashirib turgan niqobning bu taxlitda ayovsiz yirtib tashlanishiga befarq qaragan emaslar. Shoirning satirik merosi zamirida mehnatkash xalqqa, kambag'al dehqonlarga samimiy xayrixohlik, tekinxo'r tabaqa vakillariga qarshi kuchli nafrat singib ketgan. U haqiqat uchun kurashdan qaytmagan.

Shuningdek, So'fizoda zamondosh qalam ahllari ijodidan ilhomlanib satiralar yozgan. Shoir 1926-yilda "Qalaysizlar?" she'rini yozdi. Ushbu she'r yer islohotiga bag'ishlangan bo'lib, yozilishi jihatidan Hamza Hakimzodaning shu haqda yaratgan satiraloriga hamohangdir. She'r ikki sinf tilidan yozilgan bo'lib, har bir sinf fikri o'z tilidan ifodalanadi. So'fizoda bu she'rida "Quturgan bo'ri boylar, tulki eshonlar", "Ulus boshiga kulfat, elga tovonlar" bo'lmish tekinxo'rlar bilan yuzma-yuz olishadi. Ularning sharmandali mag'lubiyatidan ayovsiz kuladi:

*Biz:
Ajab bo'ldi, adabsiz mutahhamlar sizga shul ham kam,
Butun dunyoda batrak sinfi ushbu shevadan xurram,
Osharsiz, emdidan so'ng tushda sabzi, kechqurun shalg'am.
Icharsiz balki xovar jomidan suv o'rniga shabnam.
Quturgan bo'ri boylar, tulki eshonlar qalaysizlar?
Jahon chodir xayoli, ro'chi shaytonlar qalaysizlar?*

*Ular:
O'lib qoldik, birodar, holimizdan qilma istifisor,
Xususiy mulkimizni mahv qildi firqai abror,
Maishat bodasidan mast eduk, qildilar hushyor,
Jigarlar sharxa-sharxa, bag'rimiz qon, ko'nghimiz afkor.
Darig'o qo'shchilar bizlarni rohatdan ayirdilar,
Iloji qildilar yerdan, ziroatdan ayirdilar [1, 57].*

Savol-javob tarzida yozilgan mazkur dialog shaklidagi she'r 12 banddan iborat. Shoir qishloq mehnatkashlari tushunchasiga tarjimon bo'lish maqsadida ushbu shakldan juda unumli foydalangan. Satiraning har bir bandi o'ziga xos va takrorlanib keluvchi misralarga ega.

So'fizoda qarashlariga hamohang tanqidiy satiralarni, ya'ni xuddi shu tasvirlarni Hamza ijodida ham uchratish mumkin:

*Hoy, boy!
Ichi g'irch-g'irch moy!
Beti dovul, burni surnay.*

Bugun sendan qimmatliroqdir bir zambar loy [2,94].

Yozuvchi ushbu parchada boylarning axloqi buzuvchiligi, xudbinligi va birovlarining mehnati mahsulini o'zlashtirib oluvchi kabi xususiyatlarini achchiq satira orqali ochib tashlaydi.

Davr boylarning malayi bo'lgan ruhoniylarning xalq oldida kulgili ahvolga tushib qolganini, shuningdek, xalqni jaholatda saqlab, uni talash hisobiga kun kechirishga uringanliklarini ochib tashlaydi. Eshon tilidan shunday yozadi:

*Ro'za tutdim or uchun,
Har kuni iftor uchun,
Chunki har iftorchining
Bir choponi bor uchun... [2,94]*

Hamza Hakimzoda Niyoziy "Quzg'unlar" nomli satirik asar yozib, unda boy, eshon, qozi, a'lam, mufti, hakim, folbin, o'g'ri, sudxo'r va shu kabi tekinxo'rlarni, mehnatkashlar qonini so'ruvchilarni birma-bir ko'rsatib, ularning kirdikorlarini ochib tashlaydi va ularni el boshiga bitgan quzg'unlar deydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Hamzani ba'zan shariat-din peshvolarining ayrim nojo'ya harakatlarini fosh etgani uchun dinsiz, ateist sifatida baholab keldilar. Aslida u dinni emas, mutaassiblikni, mutaassiblarni fosh etadi. O'z davrining sohib qalam egalari Muqimiy, Hamza, So'fizoda satiralarini muqoyasa qilar ekanmiz, ularda tekinxo'r boylar, adolatsiz amaldorlar, soxta din peshvolarining kirdikorlari ayovsiz tanqidiy ruhda yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Ana shu xususiyat ular ijodida adabiy mushtaraklik kasb etgan. Buyuk iste'dod egalari haqiqat tarafdori bo'lganligi sababli, butun hayoti davomida quvg'in va ta'qibda yurishga majbur bo'lishgan. Lekin, o'z maqsadi yo'lida chekinmagan, maslagiga sodiq qolib, ijodi orqali Ona Vatan ravnaqi uchun kurash olib borgan ushbu millatparvar, erksevar, adolatpesha shoirlarimiz xotirasi qalblarimizda mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orifiy H. Muhammadsharif So'fizoda. –N.: Namangan, 2007. 167 bet.
2. Qosimov.B., Yusupov.Sh., Dolimov.U., Rizayev.Sh., Ahmedov.S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004. – 340 b.
3. Sulstonov Y., Imomov B. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: Fan, 1993. – 357 b.

HAMZA IJODIDA MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI TALQINI

**Fazilat MAMADALIYEVA,
NamDU, filologiya fakulteti o'zbek
adabiyotshunosligi yo'nalishi magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ma'rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ilm-ma'rifatning ulug'lanishi, ilmiy xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi tutgan o'rni shoir she'rlari misolida tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: shoir, yozuvchi, dramaturg, mohir pedagog, jadid, jaholat, maqola, oila va jamiyat, tanazzul, xurofot, bidʼat, ilm-maʼriat.

Аннотация:

В данной статье анализируется прославление науки в творчестве поэта-просвещенца Хамзы Хакимзода Ниязи, рол образованной женщины в семе и обществе на примере стихотворений поэта.

Ключевые слова: поэт, писатель, драматург, искусный просветитель, джадид, невежество, статья, семья и общество, упадок, суеверие, ерес, наука.

Annotation:

This article analyzes the glorification of science in the works of the enlightened poet Hamza Hakimzoda Niyazi, the role of educated women in the family and society on the example of the poet's poems.

Keywords: poet, writer, playwright, skilled educator, jadid, ignorance, article, family and society, decline, superstition, heresy, science.

Maʼrifatparvar shoir, yozuvchi, dramaturg va mohir pedagog Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodi milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti rivojida muhim oʻrin tutadi. Oʻzbek xalqi oʻtgan asrlarda bir necha yillar oʻz mustaqilligidan, oʻzligidan ayro yashadi. Qaramlik va jaholat xalqni tanazzulga yetakladi, rivojlanishdan ortda qoldirdi. Bu esa oʻzlikni anglash hamda oʻzbeklar orasidan ziyolilarning yetishib chiqishiga maʼlum darajada toʻsqinlik qildi. Ammo bu uzoqqa choʻzilmadi. Xalqimizning buyuk farzandlari yetishib chiqdiki, ular millatimizning “koʻzini ochish”ga, oʻzligini anglatishga qattiq bel bogʻladilar.

Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat va Choʻlpon singari ulugʻ maʼrifatparvarlar yangicha oʻqitish usullari, yangicha qarashlari bilan bu yoʻlda jonbozlik koʻrsatdilar. Ular tomonidan yozilgan barcha asarlarda maʼrifatparvarlik gʻoyalari yetakchilik qildi. Ayniqsa, Hamza Hakimzoda Niyoziy mehnatlari tahsinga sazovor. U hayoti davomida bir qator maktablar ochgan, hatto bolalarning savodini chiqarish uchun mutaxassis oʻqituvchilarni ham oʻzi qidirib topgan. Millatni maʼrifatli qilish uchun juda koʻp ishlarni amalga oshirgan, xususan, darsliklar yaratib, sheʼriy guldastalar tuzgan. Oʻzining bilimi, taraqqiyparvar gʻoyalari, isteʼdodi va salohiyatini millatning maʼnaviy-maʼrifiy yuksalishi, jipslashishi yoʻliga bagʻishlagan. Fidoyi maʼrifatparvar shaxs Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ilm-maʼrifat jaholat botqogʻidan olib chiqishi qayta-qayta taʼkidlangan. Uning asarlarida maʼrifat soʻzi ilm-u urfon maʼnosida ham ishlatiladi. Maʼrifat tushunchasi madaniyat, maʼnaviyat tushunchalari bilan bogʻliq. Maʼrifat maʼnaviy qaramlikni bartaraf etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi. Maʼrifat insonlarni yaxshi xulq va odob egasi boʻlishga chaqiradi. Haqiqatan ham, maʼrifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq boʻladi. Zero, adabiyotning muhim gʻoyaviy asoslaridan biri ham maʼrifatparvarlik gʻoyasidir. Bu gʻoya xalqning taraqqiyotga boʻlgan intilishi zamirida tugiladi. Hamzaning “Yengil adabiyot” kitobidan olingan Maktab xususidagi sheʼri katta ahamiyatga ega:

Maktab millat quyoshi, maktab millat saroyi,

*Balki ko‘z ila qoshi, ilm-u adabning joyi .
Ko‘zsiz, qoqsiz kishining qanday xunukdir boshi,
Dunyoda eng saodat axtarganlarning joyi... [1, 234]*

Mazkur she‘r maktab yoshidagi bolalarga yodlatilar ekan, ularning maktab haqidagi ilk tasavvurlari boyiydi, ulg‘ayishga, maktabga borishga, ilm olishga intilishlari ortadi.

Zotan, ta‘limning asl manbai, avvalo, maktab-maorif, ta‘lim-tarbiya bo‘lib, bu insoniyat tafakkurining deyarli barcha ma‘naviy sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan g‘oyat keng ko‘lamli tushunchadir. Ya‘ni, inson ongini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi barcha ishlar maktab – maorif vositasida amalga oshiriladi va tabora yuksalib borib, oxir-oqibat jamiyat taraqqiyotini ta‘minlaydi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Biz o‘z oldimizga mamalakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi xorazmiylar, beruniylar, ibn sinolar, ulug‘beklar, navoiy va boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta‘lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror topshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”, zero “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta‘lim –tarbiya tizimidan boshlanadi”.

Hamza ijodining negizi – xalqni jaholatdan qutqarish va uni ma‘rifatli qilish.

*Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur‘onda farmon.
Ma‘rifatsiz topulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytilmas komil musulmon [1, 234].*

Darhaqiqat, ilm olish farz ekanligi hadis-u shariflarda ham aytib o‘tilgan. Komillikka erishishning yo‘li ma‘rifatga ega bo‘lishdir. Yetuklik esa ilm olishdan boshlanadi. Imon, insof, diyonat kabi tushunchalarni ham ilm orqali anglaymiz. A.Avloniy tili bilan aytganda: “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir”.

Hamza darsliklar yaratishda juda ko‘p jihatlarga o‘z e‘tiborini qaratgan. Bolalarga tushunarli bo‘lishi uchun oddiy tilda ibratli hikoyalar ham keltiradi. Bu esa o‘quvchini fanga qiziqishini yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Hamza bolalarga nechanchi sinfda qanday ma‘lumotlar berish zarurligi va haftada nechta dars o‘tilishi haqida fikt yuritgan. She‘rlarida maktabni millatning ota-onasi sifatida tilga olgan:

*Maktab millat atosi,
Ham suyukli onosi.
Ota-onasiz qolsa,
Qandoq yashar balosi.
Maktab millatga yo‘lbosh,
Ham ko‘z-u qosh, oyoq, bosh.
Bu a‘zodan ayrilsa,
Millat yashar nechuk yosh? [1, 240].*

Darhaqiqat, maktab g‘aflat bosgan ko‘zlarni ochuvchi, harom-halolni ajratishni o‘rgatuvchi, xalq ichida yuzimizni yorug‘ qiluvchi muqaddas dargohdir. Zero, u shaxsni hayotga tayyorlovchi yo‘ldoshdir:

*Muncha uyqu bosdi sizi, onalar,
Fikr etingiz o‘ylab u peshonalar,*

*Ilm, maorif bila begonalar,
Bo'ldingiz olamga siz afsonalar.
Mazlumalar, jonlarga jononalar,
Qizlaringizni o'qiting, onalar [1, 240].*

Ushbu she'r orqali shoir onalarga murojaat etib, ularning g'afolat uyqusidan uyg'onishlariga, ilm-maorif yo'liga kirishlariga, qizlarining ta'lim olishlariga ham xayrixoh bo'lishga undaydi. Binobarin, qiz tarbiyasida onaning o'rni beqiyos.

*Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil.
Maktab anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-fan tig'i tig' birla jahl bag'ringni qon qil.
Soyalarda sarg'aygan yuzlaring qilib gulgun,
Sen ham ahli donishlar bazmini guliston qil.
Cho'rilikni mullolar senga qildilar taqdir,
Kel, bugun bu zahmingga ma'rifatni darmon qil [1, 200].*

Shoir bu she'ri orqali xotin-qizlarga murojaat etib, ularning maktabga borishlari, ilm o'rganib, "kishan"lardan xalos bo'lishlariga chaqiradi. Shu bilan birga, hayot faqat cho'rilikdan iborat emasligi, xotin-qizlarning ham ilm egallab, donishlar bazmini guliston etishligi haqida fikr yuritadi. Zero, farzand tarbiyasi, oilaning hamjihat va totuvligi ayolning zehni va farosatiga ko'p jihatdan bog'liq.

Hamza yashagan davrlarga e'tibor bersak, ilmsizlik natijasida xurofot va bid'atlar shunchalik avj olganki, natijada chala savod din peshvolari turli xil uydurmalar o'ylab topib, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini paymol qilish holatlari ham uchragan. Bu kabi holatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, kuzatgan shoir quyidagi maqolani yozadi:

"O'zbek xotin-qizlarining XX asr boshlaridagi taqdiri haqidagi lavhaga e'tibor bersak: "Mundin bir necha yil muqaddam o'z aqrabolarim orasida shunday yuz ochuv rasmi bo'lib o'tmish edi. O'shal rasm bo'laturgan kuni ham bir uyning derazasidan qarab turgan edimki, ko'zlari yoshla bir necha xotinlar ko'rpaga o'ralgan bir narsani go'shanga (chodir) tortilgan uydan ko'plashub olib chiqdilar. Ko'z oldimni xotinlar to'suvi sababli eshikni yopub, yorug'idan ohistagina diqqatlab qarab turdim. O'choqda zo'r o't yoqub, qozon osdilar. Qozonda bir qadoq chamasi zig'ir moyi soldilar. Bir tarafdin o'choq boshiga bir sufra yozub, ichiga biror taboq un soldilar. Darrov besh-o'n dona cho'bchirog' hozirlab, ikki-uch dona shag'amlar ila cho'bchirog'larni yondurib, sufradagi unga suqub qo'ydilar. Shul ishlar qilingandan so'ng otinoyim kitobini qo'ltug'lab sufra boshiga o'turub, boyagi ko'rpaga o'ralgan narsani yerga kelturdi va o'z qo'li ila ko'rpani ochdi. Ba'zi xotunlar ohista-ohista ho'ngrab yig'lab yubordilar va ko'rpa ichidagi harakatsiz gavdaning boshini ko'tarub qo'ydilar. Shu holda bildimki, bechora kelinning navnihol g'uncha hayoti xazoni marg'ga mubaddal bo'lub, o'lum yo'ldoshi bo'lgan ekan. Badanim seskanib ketub, ko'zimni zulmat qopladi. Haqiqatni bilmak uchun yana qarab turdim. Alhosil, u jasadning qo'llari ila undan changallatub qozonga soldular va o'choqqa ta'zim qildilar. Otinoyim jasadga qarab "Eringiz haq-xizmati bo'yningizdan soqit bo'ldi. Sizdan qaynota, qaynonalaringiz

ham rozi bo'ldi", – dedi. Bundan so'ng ul bechoraning jonsiz jasadini yana ko'rpaga o'rab go'shangalik uyiga olib kirdilar" [1, 37].

Bu dahshatli hikoya Hamzaning "Bid'atmi? Majusiyatmi?" degan maqolasidan olindi. Bu lavhaga nisbatan hikoya so'zini ishlatgan bo'lsak-da, Hamza uni xalqimiz orasida o'zi ko'rgan bid'at va majusiyat ko'rinishlaridan biri, deb atagan va shunday talqin qilgan. Agar bu maqolaning 1914-yili "Sadoi Turkiston" gazetasida chop etilganini nazarda tutsak, demak, xotin-qizlarga nisbatan shunday haqoratli munosabat o'sha davrda mavjud bo'lgan.

Hamza maqolasida tasvirlangan xotin-qizlarga nisbatan nodonlarcha munosabatning yuzaga kelishi, ularning erkaklar bilan teng huquqli emasligi xususida kuyunib qalam tebratadi. Bu esa o'quvchining diqqatini tortmasdan qolmaydi. Bundan ko'rinadiki, mazlumalarga bo'lgan munosabatning ijobiy o'zgarishida jadidlarning o'rni beqiyos [2, 18].

Hamza millatning ma'naviy yuksalishida oilani muhim taraqqiyot maskani deb bildi va farzand tarbiyasida dastlabki mas'ul shaxs ota-ona ekanini uqtirdi. Ota-ona, nafaqat o'z oilalari, balki butun jamiyat oldida ham mas'ul ekanini asarlarida aks ettira oldi. Ilm-ma'rifat jaholatga qarshi eng yaxshi vosita ekani shoir she'rlarida o'ziga xos tashbehtar bilan izohlendi. Ma'rifatparvar shoir Hamza ijodi bugungi yoshlarimiz qalbida ilm maskanlarini qadrlash, xurofot va bid'atlarga qarshi kurashish, vatanparvarlik hissini uyg'otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar to'plami. Besh jildlik. 4-jild. –Toshkent: Fan, 1989. – 460 b.
2. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. – Toshkent, 2020-yil, 3-son. – B. 18.
3. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. – Toshkent, 2021-yil, 3-son. – B. 21.

HAMZASHUNOSLIKKA MUHIM BIR ULUSH

**Abdulaziz QODIROV,
QDPI magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronovning Hamza ijodiga bag'ishlangan "Hamzaning poetik izlanishlari xususida" maqolasining tahlili qisqacha yoritilgan, olimning o'zbek she'riyatida mumtoz an'analardan zamonaviy she'riy yo'nalishlarga o'tishda Hamza ijodidagi janrlar xususiyati borasidagi qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aruz, erkin she'r, eksperiment, musallas, masnaviy, bo'g'in.

Аннотация:

В данной статье кратко анализируется статья доктора филологических наук, профессора Дилмурода Куронова о творчестве Хамзы «О поэтических исследованиях Хамзы», а также анализируются взгляды ученого на жанровую характеристику узбекской поэзии при переходе от классической поэзии к современной.

Ключевые слова: аруз, свободное стихотворение, эксперимент, слог мусаллас, маснави.

Annotation:

This article summarizes the analysis of Hamza's work by Doctor of Philology, Professor Dilmurod Quronov, and analyzes the scholar's views on the characteristics of genres in Uzbek poetry in the transition from classical to modern poetry.

Keywords: aruz, free poetry, experiment, musallas, masnavi, syllable.

Mumtoz adabiyotimizda azaldan erkin she'r tizimi barmoq she'r tizimidan kelib chiqqan, degan qarash o'rinlashib qolgan. Bu xususida filologiya fanlari doktori, professor Dilmurod Quronov o'zining „Hamzaning poetik izlanishlari xususida“ maqolasida o'z fikrlarini bildirib o'tadi: „Ilmiy anjumanlardan birida ma'ruzachi „Devoni Nihoniy“da mumtoz adabiyot an'analari davom ettirilgan deb qoldi. Bir qarashda to'g'ri fikr. Ammo nihoyatda bahsli. Negaki, „Devoni Nihoniy“ da mumtoz adabiyot an'analari davom ettirilmagan“.

Haqiqatdan ham, Hamza ijodini kuzatar ekanmiz, shoir ijodida faqatgina mumtoz adabiyot namunalarini emas, ijodkorning erkin ijodiy eksperimentlarini, milliy adabiyotimiz uchun yangilik bo'lgan janrlardagi misralarini ko'rishimiz mumkin. Domla Quronov Hamzaning „Boybuchchalar semiring“ nomli she'rini tahlilga tortish orqali yuqoridagi fikrlarni asoslashga harakat qiladi:

*Boybachchalar semiring, beshni o'n beshga bering,
Yaxudlarni boy qilg'och, yorib kesak kemiring.
O'qutmang o'g'ullarni yetar ushbu tijorat,
Bechoralar to'y bering, elga oshu to'n bering.
Hovli-joydan ajralgach ko'cha-ko'yda cho'p tering,
Azizlar qilurlar bu kun sizni nazorat.*

Ko'rinib turganidek, shoir ushbu satrlar orqali yangicha bir ko'rinishdagi she'rni yaratgan. Ushbu uch misradan iborat she'r mumtoz adabiyotimizdagi musallaslarga o'xshab ketsa-da, musammat tizimida yozilmagan. Masnaviyilarga yana bir misra qo'shish orqali yangicha ohangdagi she'r yuzaga keladi. Shoir birinchi va ikkinchi misralarda fikrlarni bayon qilar ekan, asosiy zarb nuqtasini uchinchi misraga yuklaydi.

Ma'lumki, Hamza yangilikka intiluvchan, go'zallikka oshno qalb sohibi bo'lgan. Shoir she'riyatimiz mumtoz an'alarini mahorat bilan davom ettirib, o'zining devonini tuzdi. Bundan tashqari, u yangi davr she'riyatini boshlab beruvchilar qatorida bo'ldi. Xususan, o'zbek she'riyatida birinchilardan bo'lib erkin she'r yozdi. Hamza rus tilini yaxshi bilganligi uchun rus adabiyoti bilan yaxshi tanish bo'lgan. Uning erkin vaznda yozilgan she'rlari ham aynan rus adabiyoti ta'siri hisoblanadi. Buni shoirning o'zi ham e'tirof etganini shoir Sobir Abdulla hikoya qiladi. Uning eslashicha, Hamza „Qutlug' bo'lsin“ she'rining bosilmaslik sababini bilgani, „Yangi Farg'ona“ gazetasining redaksiyasiga kirganida muharrir, she'r o'zbek adabiyotida uchramagan vaznda yozilganligi... ahli dinga qattiq tegadigan satrlar bilan to'ldirilganligi sababli bosilmaganini aytgan. Shunda Hamza: „She'rning uzunligi to'g'ri, vazni siz uchun g'alati, yot

ko‘ringan bo‘lsa ham, men bu vazni Vladimir Mayakovskiydan o‘rganganman...” deb javob beradi. Shoir Sobir Abdullaning yuqoridagi fikrlaridan kelib chiqqan holda, Dilmurod Quronovning Hamza ijodi borasidagi qarashlari to‘g‘riligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, domlaning Hamza borasidagi mulohazalari zamiridan yana bir ma‘lumotni ilg‘ab olsak bo‘ladi. O‘zbek adabiyotidagi erkin she‘r vazni barmoq vaznidan kelib chiqmagan. Aksincha, erkin she‘r vazniga aruz orqali o‘tilgan. Dilmurod Quronov ushbu fikrni Hamza ijodi bilan asoslaydi. Hamzaning yuqori tabaqaga mansub, “ustida malla, boshida katta salla, qo‘lida tasbeh” o‘girib yuradigan, ma‘naviy qashshoq shaxslar fosh etilgan “She‘ri mansur”ida band qurilishi erkin emas. Uning har bandi musallas janrida yozilgan asarlardagiday uch misradan tashkil topgan:

*Ayoz, har qancha bilsang ham oz,
Qish g‘amini yeganing ila boqarmudi,
Seni o‘z yonidan yoz.
“Al qasos ul haq”ga munkirmusan,
Belang oldingda turub birov bolasiga,
Belingni qilasan xo‘roz.*

She‘rning hamma bandlari (jami 10 band)dagi misralar hijolar va turoqlar miqdori jihatidan xilma-xildir. Masalan, uning bir bandining birinchi misrasi 9 bo‘g‘indan, ikkinchisi 13 bo‘g‘indan, uchinchisi 7 bo‘g‘indan iborat bo‘lsa, boshqasining birinchi misrasi 15, ikkinchisi 14, uchinchisi esa 13 bo‘g‘indan iborat va hokazo. Lekin bandlardagi ma‘nolarni, mazmunni, asardagi umumiy ritmni bir-biri bilan bog‘lab turish vazifasini qofiya bajaradi. She‘rning birinchi bandining uchinchi misrasi “yoz” so‘zi bilan qofiyalanganini yuqorida ko‘rdik. Shu so‘zga hamma bandlar uchinchi misralarining so‘nggi so‘zlari qofiyadoshdir: “yoz – xo‘roz – piyoz – joynamoz – niyoz – oz – andoz – daroz – oz – moz – darboz”. she‘rlarni shu xilda qofiyalash Hamzaning ko‘plab she‘rlariga xos xususiyatdir.

Xulosa qilib aytganda, mafkuralar, tuzumlar o‘zgargani sari Hamza ijodini o‘rganish ham o‘zgarib boraverdi. Har bir hukmron mafkura shoirni o‘z g‘oyalarining jarchisi deb ko‘rsatishga indildi. Ammo, haqiqatni aslo sindirib bo‘lmaganidek, Hamzaning nekbin tuyg‘ular singdirilgan she‘rlarini, betakror asarlarini ham xalq qalbidan o‘chirib bo‘lmadi. Uning she‘rlarini takror-takror o‘quvchi insonlar, ijodini adabiyot qoidalari asosida sinchiklab o‘rganuvchi olimlar har zamonda bo‘ldi. Mana shunday fidoiy olimlardan biri Dilmurod Quronovdir. O‘ylaymizki, ustozning qarashlari Hamza ijodini o‘rganishda va adabiy davr chiziqlarini belgilashda muhimdir.

ADABIY TA'SIR, TALQIN VA TADQIQ MASALASI (XORIJDAGI MANBAALAR VA TARJIMALAR)

NADİRƏ

(1792 - 1842)

Almaz ÜLVİ (BİNNATOVA)

Filologiya elmləri doktoru, professor,
AMEA Nizami adına Ədəbiyyat İnstitutunun
“Azərbaycan-Türkmənistan-Özbəkistan ədəbi
(Ozarbayjon)

Həyatı: XIX əsrin I yarısında Kokandda yaşayıb-yaradan istedadlı qələm sahibi Nadirəni özbək alimləri ədəbiyyat səhifələrində “o, yüksək bədii istedad sahibi Üveysi, Məhzunə, Dilşad, Ənbər Atin kimi məşhur şairələr səfinin sərdarı olmuşdur”, – deyər təqdim ediblər. Güzəl, eyni zamanda dövrünün yazar qadınları sırasında yeri bəlli edilən bir təqdimatdır.

Nadirə 1792-ci ildə Əndican şəhərində Əndican hakimi Rəhmanqulu quşbəyi ailəsində dünyaya göz açmışdır. Atası Kokand hökmdarı Narbuta bəyin (1770-1800) yaxınlarından olub, əslisi isə özbəklərin Min sülaləsindəndir. Anası, Zahirəddin Məhəmməd Babur nəslindən olan Ayişəbəyim xanım da dövrünün təhsilli, ziyalı xanımlarından biri olmuşdur.

Rəhmanqulu bəyin bu istedadlı şairə qızı dövrünün yüksək təhsilinə yiyələnmiş, xüsusi mütaliə ilə biliyini, dünyagörüşünü artırmış, Şərqi ədəbiyyatını dərinlən mənimsəmiş incə ruhlu şeirlər müəllifi kimi ad-san qazanmışdır.

Onun əsil adı Kamilə, ədəbi təxəllüsü isə Nadirə olmuşdur. Bu gözəl qız ədəb-ərkanı, ağılı-fərasəti, istedad və qabiliyyəti ilə də səs-soraq salmışdı. Zadəgan əsilli Nadirənin səsi-sorağı Kokand xanlığına da gedib çatır. Kokand xanının oğlu onun haqqında deyilən, yayılan xoş sözlərin təsiri ilə Nadirəyə aşiq olur və elçi düşür. Əslində o, – Ömərhan Əmiri Nadirənin bibisi oğludur. 1808-ci ildə Kokand xanı Narbuta bəyin olan oğlu, Mərgilan valisi Məhəmməd Ömərhan Nadirə ilə ailə həyatı qurur.

Hələ Mərgilanda yaşadıkları zaman Nadirə orada olan ədəbi mühitlə maraqlanmış, elm, sənət adamları ilə yaxından tanış olmuşdur. Xüsusən orada yaşayıb-yaradan Cahan Atın Üveysi ilə dostluq münasibətləri qurur. Bütün bu əlaqələr təbii ki, onun yaradıcılığına ciddi təsir göstərmiş və həm də öz üzərində daha çox çalışmağa, şair məsuliyyətini artırmağa vəsilə olmuşdur.

Özbəkçə “Divan”ının dibaçəsində Nadirə yazır: “Qısa müddətdə tamamilə şeirə hakim oldum; nəzmdə mahir, mənalar aləminin sehrində oldum. Həzrət (Ömərhan) bəzən yeni mənalar haqqında bir misra ilə sual verərdi. Mən də dərhal cavabını bir misra ilə verməklə onları məmnun edərdim. Bunlardan birini xatırlayaraq deyim: “Bir gün, “*Niyə ərbab-ı hirad əhli-i cünündin arı var?*” misrası ilə sual verərkən o saat, “*Kim olar üryan, alarınq çübbe vü dastan var*”, – misrası ilə cavab verdim”. Elə buradan da bir daha aydın olur ki, şairənin ömür-gün

yoldaşı Ömər xan Əmiri də yazıb-yaradanlardan olub və aralarında tez-tez şeir mübahisələri, muzakirələri olurmuş.

Nadirə 1810-cu ilə qədər Mərgilanda, sonra isə ömrünün sonuna qədər Kokandda yaşamışdır. İki övladı olmuşdur: Məhəmməd Əlixan (Mərgilanda doğulmuşdur) və Sultan Mahmudxan.

Nadirə ictimai-siyasi fəaliyyəti ilə də tanınmış bir dövlət xadimi olub. Xüsusən əri Məhəmməd Ömər xanın (1809-1822) vəfatından sonra, atasının yerinə Kokandda taxta çıxan 12 yaşlı oğlu Məhəmməd Əlixan hakimiyyət başında (1822-1842) çox gənc yaşlarında olduğundan oğluna yaxından dəstək üçün (qəyyum olaraq) ictimai-siyasi fəallığını artırmış, vaxtının çoxunu dövlət işlərinə ayırmağa məcbur olmuşdur. Məhəmməd Ömər xan vəfat edəndə Nadirə 30 yaşında idi. Tərcümeyi-halına daxil olan bu kimi ciddi faktları Nadirə “Divan”ının dibaçəsində də yazmışdır. Kokand ədəbi mühitində Nadirənin yaradıcılıq üfüqləri genişlənir, təkmilləşir. Onun şeirlərinin – qəzəllərinin əsas məzmunu milli və bəşəri motivlərə söykənib: insanpərvərlik, eşq, məhəbbət, xalq, Vətən mənfəətini uca tutmaq, sədaqət, gözəllik, haqq, ədalət, insaf və s. kimi.

Hər kimdəvar isə əcari məhəbbət,

Söylər ona məhəbublər izhari məhəbbət...

Xalqın qayğılarına, dərd-sərinə yaxın olan Nadirə el arasında Mahlar Ayim adını – titulu qazanmışdı. Hakimiyyətləri çərçivəsində olan ərazilərində onun təşəbbüsü ilə bazar və dükanların, məscid və mədrəsələrin, karvansarayların genişlənməsinə, tikintisinə diqqət yetirilirdi. Kokandda tikdirib istifadəyə verdiyi mədrəsəni yerli əhali “Mahlar Ayim mədrəsəsi” adlandırmışdı. Gənclərin təlim-tərbiyəsində bu mədrəsənin böyük təsir olmuşdur. Bu misaldan böyük özbək şairi Pisandi Əvəzməhəmməd Yarməhəmməd oğlu (1816-1918), Rəji Süleymanqul usta Suyarqul oğlu (1871-1924), Zakirjan Molla Xalmahalışad oğlu (1859 -1909) və başqalarının adlarını çəkə bilərik. Nadirə əsərlərini xəttatlara yazdırarkən gözəl və xətasız yazılmasına birbaşa özü nəzarət edər və sonda bütünlüklə gözdən keçirər, sonra cildlənməsinə və bəzək verilməsinə, yayılmasına izn verərmiş. Bu mənada gözəl xəttatlıq qabiliyyəti olan katiblərə qızıl qələm və gümüş qələmdan verib, onları “Qızıl qələm” fəxri rütbəsinə yüksəldərmiş.

Feodal adlı sosial sistemin – tarixi formasiyanın tədricən ləğvi, əmirələr – xanlıqlar arasındakı çəkişmələr, bir sözlə, dərəcəliliklər, müharibələr bitmək bilmirdi. 1842-ci ildə Buxara əmirliyi ilə Kokand xanlığı arasında zülmə nəticələnən qarşılaşma baş verir. Buxara Əmiri Nəsrullahın qoşunu şəhərə daxil olub, qanlı faciələr törədərək elin-xalqın mal-dövlətini talan etdilər. Kokandda hakimiyyəti ələ keçirən Əmir Nəsrullahın qəddar hökmü ilə şəhərin hakimi Məhəmməd Əlixan və qardaşı Sultan Mahmudxan, Xoşhalbibi, Narbibi, Ayişəbibi adlı məhrəmləri dar ağacında edam edildilər. Bu zülmə dözə bilməyən Nadirə azyaşlı nəvəsi – 14 yaşlı Məhəmməd Əminxanı gizləyərək əmirə xitab edir ki, “atasını öldürdün, bu məsum körpənin günahı nədir, onu nə üçün öldürürsən, ay zalım”. Vəhşiləmiş Buxara əmiri şairənin bu müraciətinə cavab olaraq onun özünü də nəvəsi ilə bərabər dar ağacından asdırır (Aziz Kayumov).

Beləliklə, özbək xalqının istedadlı və sevimli qızı Nadirə – Kamilə 1842-ci ildə faciəli şəkildə 50 yaşında həyata vida etmişdi.

Övladları ilə birgə dar ağacına çəkilən Xanqızı Nadirənin (1792-1822) həyatını vərəqlərkən övlad acısı ilə mənən yanıb-yanıb kül olan Xan qızı Xurşidbanu Natəvanın (1832-1897) taleyi göz önünə gəlir. Bu talelər arasında bir-cə fərq var. Xanqızı Natəvan ağılar, mərsiyyələr yazaraq ününü uca Allaha yetirdi, Xanqızı Nadirə isə cismən bu ağrını çəkə bilməyəcəyini anlayıb elə o andaca ruhunu Uca Allahın dərgahına təslim etdi. Sözüünü deyə bilməyəcək gücünü, ağrı-acısını dilə gətirəcək söz tapmayacağından ehtiyat edirmiş kimi. Eyni taleyi yaşamaq eyni əsrin, eyni dövrün, eyni ictimai-siyasi proseslərin cəfasımı?! Xurafat, mövhumat bataqlığı insan düşüncəsini əsir aldığı zamanlar hələ öz dəyirmanında çox ziyalıları beləcə məhv edəcəkdə. Belə bir hikmət də var ki, dünya həmin dünyadır, onu əzablarla, qanla, dərdlə, xoşbəxtliklə naxışlayan insanların düşüncə tərzi, dünyagörüşüdür.

Yaradıcılığı: Nadirə klassik poeziya ənənəsinə söykənərək şeirlərini iki dildə – özbək və fars-tacik dillərində yazmışdır. Bu mənada Əndican və Kokand ədəbi mühitlərinin bu istedadlı yetirməsi ikidilli şairə kimi ad-san çıxarmışdı. “Kamilə” və “Nadirə” təxəllüsləri ilə özbək, “Məknunə” təxəllüsü ilə fars dilində şeirləri yaşadığı dövrdə də geniş yayılmışdır.

(Kamilə sözünün mənası – yetkin, bitkin; mükəmməl, Nadirə sözünün mənası – az tapılan, Məknunə – ərəb sözü olub, mənası gizli, sirli deməkdir. Şəxs adında isə yaradıcı, düşüncəli, təvazökar kimi şərh edilə bilər).

XIX əsr özbək klassik poeziyasının ən gözəl nümunələrini yaradan Nadirənin ədəbi irsi ideya-bədii əhəmiyyətinə görə qiymətli mənəvi xəzinə hesab olunur. Onun Özbəkistan EA Əbu Reyhan Biruni adına Şərqsünaslıq İnstitutunun fondunda saxlanan özbək dilində olan natamam “Divan”ında 109 qəzəli (və ya 1704 misra) vardır. “Divan”a şairənin dibaçəsi də daxil edilmişdir.

Özbəkistan EA Şərqsünaslıq İnstitutunun fondunda “Məknunə” təxəllüsü ilə yazdığı 333 qəzəldən ibarət başqa bir divanı da mövcuddur.

Özbəkistan EA Tarix Muzeyinin arxivində XIX əsrdə üzü köçürülən başqa bir divanında “Kamilə” təxəllüsü ilə yazdığı 373 (7000 misradan artıq)⁴⁴ aşkar edilmişdir. Bu divanın 1962-ci ildə Namanqanda tapıldığı qeyd olunur.

Özbəkistan EA Əlişir Nəvai adına Dövlət Ədəbiyyat Muzeyində saxlanılan başqa bir “Divan” isə şairin bütün irsini əhatə edir. “Divan”ın dibaçəsində müəllif haqqında mükəmməl məlumat xüsusi ilə diqqətəlayiqdir. “Nadirə” təxəllüsü ilə yazılmış bu divanda 180 şeir (onlardan 136-sı özbək, 44-ü fars-tacik) - 11 müxəmməs, 2 müsəddəs, 1 müsəmmən, 1 tərçibbənd, 1 tərkiqbənd və 1 fəraqnamə vardır, qalan 163 əsər isə qəzəllərdir. Beləliklə, bu gün əlimizdə Nadirənin özbək və fars-tacik dillərində yazdığı 10 minə yaxın misradan ibarət lirik irsi vardır.

Şairənin müxtəlif janrları əhatə edən poetik nümunələri – məzmun və qayəsinə görə sevilərək, geniş yayılaraq ötən əsrin bir çox əlyazma fondlarına daxil edilib. Nadirənin yaradıcılığını sevdirən əsas xüsusiyyətlərdən biri onun klassik mövzulara müraciət etməsi idi. O, klassik poeziyanı da dərinləndirən bilməklə yanaşı, yaradıcılığında da bunların təsirini, izini görməmək, sezməmək mümkün

⁴⁴Nodira – Komila. Devon / masul muxarrir Azizxon Kayumov; nəşrə tayyorlovçi va sozbaşı muallifi M.Kodirova. – T, 2001, 345 bet (b.11) Моҳларойим Нодира. www.ziyouz.com кутубхонаси <file:///C:/Users/Admin/Downloads/Nodira.%20G'azallar.pdf>. səh.17

deyil. Nadirəşünas alim Məhbubə Qədirovanın da tədqiq etdiyi kimi, Hafiz, Lütfi, Nəvai, Füzuli, Bedil kimi Şərq ədəbiyyatının dahi sənətkarların yaradıcılıq ənənələri onun poeziyasının ilham mənbəyi olmuşdur.

Nadirə yaradıcılığında xalq ədəbiyyatının təsiri də çox olmuşdur. Xalq ədəbiyyatının ən gözəl nümunələrinin təsiri ilə insan qəlbinin dərinliklərinə hakim olan məhəbbət duyğularının tərənnümü uğurlu alınmışdır. Hətta mahnılar qanadında məclislərə yol açmışdır.

Nadirənin şeirləri özbək ədəbiyyatında, 19-cu əsrin birinci yarısı üçün xarakterik olan mütərəqqi meyllərlə seçilir. Nadirə müasirləri⁴⁵ – Cahan Üveysi (1771-1845), Munis Xarəzmi (1778-1829), Dilşad Bərna (1800-1905/06), Səadət Müştəri (1810 - vəfat tarixi məlum deyil), Mehriban Məhzunə (1811-?), Ənbər Atin (1870-1906), Zibanisə (XIX əsr), Məksudə Bəyim (XIX əsr), Molla Başman qızı Məhzuna (XIX əsr) – ilə birlikdə dövrünün poeziyasının inkişafında və zənginləşməsində xidmətləri olan görkəmli şairədir. Onun yaradıcılığı XIX əsr özbək poeziyasında mütərəqqi istiqamətin formalaşmasına zəmin yaratmışdır. Nadirənin müasirləri və davamçıları onun poeziyasının təsiri ilə gözəl bədii yaradıcılıq nümunələri yaratmışlar.

Nadirə, qeyd etdiyimiz kimi, genetik kodlarla Zahirəddin Məhəmməd Babur (ana nəslə təvəllül) nəslindən olsa da, yaradıcılığında Əmir Əlişir Nəvaini özünə ustad seçmişdir. Yaradıcılığında o dövrün digər şairləri kimi Nadirə də özbək ədəbiyyatının banisi Əlişir Nəvainin humanist irsinə əsaslanmışdır. Dahi söz sahibinin ədəbi irsindən faydalandığı elm-mərifət, haqq-ədalət, dilə-dinə xidmət, xalqa-torpağa məhəbbət, insanlığı ali mərtəbədə görmək, onu vəsf etmək kimi hikmət və estetikası yaradıcılığının ana xəttinə çevirmişdir.

XIX əsr klassik özbək qadın şairlərinin imzasında qadın sevgi lirikaları peyda oldu:

*Düri aşqı aqiqi, xuni dilni,
Kəlu yerin ayağına nisar et.
Quyib, ey Nadirə, aləm eliğa
Məhəbbət şevasini aşkar et.*⁴⁶

Nadirə eşq şairi kimi sevilir. Təsədüfi deyil ki, onun və müasiri olan gözəl şairələrin imzasında ilk dəfə sevgi, eşq lirikası ədəbiyyat səhifələrinə yazıldı. Mövhumatın, xurafatın baş alıb getdiyi zamanda qadın imzalı sevgi şeirləri cəsarət və hünər tələb edirdi. Bu, özünəgüvən, özünüdərk milli qürurdan doğan yaşantılardır. Nadirə yaradıcılığında bunları ustalıqla qələmə almışdır.

*Buldi yar sevdası, aşiq ersanq, ey könlüm,
Naqd can müxayye qıl, yer xatirini şad et.
Ey, könül, fəğanından tiyradur fələk qəsri,
Bu binanı viran qıl, eşq evini abad et.*⁴⁷

⁴⁵Хайдарбек Назирбекович Бобобеков. Қўқон тарихи. – Т, «Фан», 1996

<file:///C:/Users/Admin/Desktop/Haydarbek%20Bobobekov.%20Qo'qon%20tarixi.pdf> səh.163-171

⁴⁶Нодира. Ғазаллар. – ЎзССР давлат бадий адабиёт нашриёти, Т.: 1958, Нашрга тайёрловчи Азиз Қаюмов. Моҳларойим Нодира. www.ziyouz.com кутубхонаси <file:///C:/Users/Admin/Downloads/Nodira.%20G'azallar.pdf> səh.17

⁴⁷Ҳенә орда, səh.18.

Nadirə uca Allaha, qəlbinin səsinə, könlünün sahibinə, ürəyinin döyüntüsünə aşıq idi.

*Ey könül, yar üçün cahandan keç,
Havası bağı-bostanından keç.
Anqa üzlük bila yetib bulmas,
İstəsən yar vəsli candan keç.
Aləm əhlində çün vəfa yoxdur,
Bir yolu yaxşı, ya yamandan keç.
Bulğil anka kafi istiğna,
Ey xuma, müştü ustixandan keç.⁴⁸*

Nadirə ailəsinə - əcdadlarına, valideynlərinə, şair təbiətli ömür-gün yoldaşına, övladlarına aşıq idi. O, ali insanlığa, hər şeyə aşıq idi.

*Məhəbbətsiz kişi adam deyildir,
Gər adamsan, məhəbbət ixtiyar et.⁴⁹*

Nadirə Vətənin təbiətinə, təbiət möcüzələri – ağaca, ota, quşlara, dağındaşına, bərəkətli torpağına, sıldırımlı qayalarına, təbiəti çox zaman dumanla-çənlə örpəkli Kokandın havasına-suyuna aşıq idi.

*Bahar gəldi gözümlə gülə baxmadı əsla,
Nadinki, gülşən apo gülruhum emas paydo,
Üzümə buldi üzünün maxtarin, bu həmdullah,
Açıldı mehri vəfa bağında gülü rəna.⁵⁰*

Və ya

*Qoyudurdu çəmən güllərini raşk öti birlə,
Ol qönçeyi xandan ilə ol nərgizi şəhla.⁵¹*

Könlü coşqu ilə dolu olan kəslər bu aşıqlıyın dadını-duzunu gözəl bilər, Nadirə poeziyasının fəlsəfi-estetik anlamını dərk edərlər.

*Nə Şirin qaldı aləmdə, nə Fərhad,
Hanı Yusif, hara getdi Züleyxa?
Könül, eşq icrə bulma be təhəmmül,
Ki, vəsli hicr ilə qılğıl madara
Mənə, ey Kamilə, qismət bu erkan,
Əzəl gündən olubdur eşqi paydo.*

Nadirə vəfa və sədaqət aşıqı idi.

*Aləm elində vəfa tapılmaz,
Bu gövhər erur cahanda noyob...*

Nadirə üçün ar-namus, həya-ismət, əhdə vəfəlilik kimi hiss və duyğular qadın gözəlliyinin atributlarıdır, qadın gözəlliyinin pünhan sirləridir, qadın gözəlliyinin möcüzələridir. Nadirə poeziyasının, xüsusən klassik şeirin nəzəri imkanlar çərçivəsində onun nəzəriyyəçi alim kimi dəyərləndirmək heç şübhəsiz mübaligə olmaz.

⁴⁸Yenə orada, səh.28

⁴⁹Yenə orada, səh.1

⁵⁰Yenə orada, səh.4

⁵¹Yenə orada, səh.5

Nadirə poeziyası insanı yaşamağa ruhlandırır, yaşam sevincini çoxaldan misralarla doludur. Qadın gözəlliyi Şərq poeziyasında geniş yayılmış mövzulardandır.

*Jahanda, Nadirə, yerin pəri misal idi,
Bulurmu, hüsnünə ayınaya düçar qılıb.*

Müstəqillik illərindən sonra Nadirənin həyatının, ədəbi irsinin tədqiqi və nəşri istiqamətində daha ciddi mühüm işlər görülüb. Şeirləri “Əsərləri” adlı iki cildə çap olunub: birinci cildə onun özbək dilində yazdığı qəzəlləri, iki kitabdan ibarət ikinci cildə isə Məknunə təxəllüsü ilə fars-tacik dilində yazdığı şeirlərinin özbəkçə nəşri tərcümələri (şair A.Enisiy ilə birlikdə) verilmişdir.

Nadirə yaradıcılığını ilk dəfə tədqiqata cəlb edən, özbək elminin böyük alimi, akademik Əzizxan Qəyumov (Azizxan Kayumov) redaktorluğu və nadirəşünas alim Məhbubə Qədirovanın (Maxbubaxan Kodirova) ön sözü ilə 2001-ci ildə nəşr olunan “Nadirə-Kamilə” (Nodira – Komila) “Divan”ı 345 səhifəlik kitabın (PDF formatda) titul səhifəsində oxuyuruq: “Mahlar Ayim klassik özbək ədəbiyyatının görkəmli nümayəndəsi, maarifpərvər şairidir. Nadirə və Məknunə divanlarının özbək və tacik dillərində bir sıra nəşrləri mövcuddur. Şairənin Kamilə təxəllüsü ilə yazılan bir çox şeirləri indiyədək məlum olmayıb və bu divanda ilk dəfə oxuculara təqdim edilir. Bu əsər elm xadimləri, ali məktəb müəllimləri, tələbələri və geniş oxucu kütləsi üçün nəzərdə tutulub”. Bu mənada, “Nadirə-Kamilə” “Divan”ında (2001) Məknunə imzalı 90 ədəd fars-tacik dilində olan şeirlərinin 37-si təkrar nəşr olsa da, 53-ü ilk dəfə oxuculara təqdim edilmişdir.

“Nadirə-Kamilə” “Divan”ı belə bir epigrafla başlayır: Nadirə dövrümüzün kamala dolmuş zehni, sayıqlığı ilə məmləkətini gözəl təsvir etmiş, səxavəti ilə xalqını sevindirmişdir. Fərqanə mülkünü abad etmişdi. O – Zöhrəsifət Nadirə heç vaxt var-dövləti, səltənəti ilə fəxr etməyib. Gözəl ağıl – zəkası, intellekti, təbii və fitrətən istedadı ilə gecə-gündüz rəngarəng ahəngdə qəzəllər yazar və oxumaqla məşğul olardı”. Qələmə alınan bu iki-üç cümlə onun əqidəsi, ruh fəlsəfəsi haqqında mükəmməl təqdimatdır.

Nadirəyə öz dövründə el məhəbbəti ilə Mahlar Ayim, Zöhrəsifət deyə də əzizləyərək müraciət ediblər. Burada isə Mahlar Ayim – Aylar ayı, yəni Ayüzlü, Aya bənzər anlamını; Zöhrəsifət – Eşq ilahəsi, Dan ulduzuna bənzər anlamını ifadə edir.

Daha sonra Nadirənin əjdadını, Vətəninin, onun bənzərsiz lirikasının məziyyətlərini özündə əks etdirən üç beytlik “kamil sətirləri” təqdim edilib:

*Siyadət xanədanı, şahı Babur nəslə pakimən,
İlahi, rəhmət elə, bütün əcdadlarıma.*

*Kamilə, mehri məhəbbət mülkünün sultanıyam,
Dövlətimdən bəhrə verir Fərğanə övladları*

*Mən də səxavətlə el xatirini şad edim,
Viranə mülkləri ədalətlə abad edim.*

Bu hikmətli kəlalarda – beytlərdə Nadirənin həyat tablosu cızılıb, xarakteri əks olunub.

Seçilmiş poetik nümunələrdə insan övladının izzəti-nəfsindən, onun şərəf və ləyaqətindən, yaxşılığın insan qəlbində, ruhunda yandırdığı çıraqdan bəhs edir. “Yaxşılıq etmək nər kişinin işidir, dünyada qalan da məhz yaxşılıqdır, yaxşı addır”. Necə ki, indi şairənin tərcümeyi-halında yaxşılıqlara dolu naxışları görürük.

O, şairə kimi tanınmaqla yanaşı, yuxarıda da qeyd etdiyimiz kimi, həm də dövlət xadimi olmuşdur. Demək, allahın ona verdiyi vəzifədən, uca taxtından istifadə edərək insanlara qarşı xeyirxah, onların dərd-sərinə canı-dildən şərik olmaq fürsətini qazanmışdır. Xalqı üçün gördüyü işlər onu bu günə qədər yaşatmaq, əbədi ömürlük haqqı qazanmışdır. Nadirənin həyatı və yaradıcılığının tədqiqi istiqamətində ən böyük işlər Vahid Abdullayev, Vahid Zahidov, Əziz Qəyumov (Aziz Kayumov), Toxtasin Cəlalov, H.Rəzzaqov, Məhbubə Qədirova kimi alimlər tərəfindən görülmüşdür. Bu məqalədə də adları çəkilən alimlərin tədqiqatından istifadə olunmuşdur. Nadirə iki dildə - özbək və farsdillərində şeirlər yazdığını qeyd etmişdik. Bu mənada iki məsələni xüsusilə diqqətə yetirmək lazımdır ki, əslində özbək və tacik xalqları yaxın qonşu olmaqla yanaşı, həm də bir-birinə çox qaynayıb-qarışıblar. Biri-biri ilə qız verib, qız alıblar, bir ailə olacaq qədər doğmalaşıblar. Eyni zamanda həm də aralarında hələ də çözə bilmədikləri bir narahatçılıq var. Nadirənin iki dildə şeir yazması hər iki xalq arasındakı əzəli və əbədi dostluq ənənələrini yaşatmaqla yanaşı, həm də bu xalqların adət-ənənəsindəki Şərqi oxşarlığı, ədəbiyyatlarının, mədəniyyətlərinin nə qədər yaxın olmasını dərk etmək anlamını ortaya qoymuşdur. Tarixi ənənə, qardaşlıq, torpaq qonşuluğu, Şərqi doğmalığı, milli ruh yaxınlığı Nadirə şeirlərində gözəl əks olunmuşdur.

*Güli savsan açıldı, binəvalıq qılma, ey bülbül,
Çəməndə Nadirə şeiri ilə birgə naleyi zar et⁵².*

* * *

*Bulmagil Fərhadı Məcnundək Cahən əfsanəsi,
Eşq apo, ey Nadirə, ayini nanqu nam tut.*

* * *

*Aşiq oldun, ey könül, emdi roxi meyxana tutu
Məst olub, saqi ayağını öpüb peymanə tut⁵³.*

* * *

*Cahanda, Nadirə, yarın pəri misal idi,
Bulurmu, hüsnünə ayınaya düçar qılıb⁵⁴*

* * *

*Nadirə, bülbül kimi ta nalə inşa eylədim,
Novbahar ötdü, xəzan oldu gülüstan aqibəti.*

⁵²Yenə orada, səh.16

⁵³Yenə orada, səh.19

⁵⁴Yenə orada, səh.15

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ДИЛЬШОД БАРНО

Матлуба Мирзоюнус,
доктор филологических наук,
профессор ГОУ Худжандского государственного
университета им. академика Б.Гафурова
(Тоjikiston)

Аннотация

Статья посвящена исследованию творчества Дильшод Барно, поэтессы и прозаика, родившейся в г. Истаравшане и прожившей почти всю свою сознательную жизнь в г.Коканде. Тематический анализ стихов Дильшод убеждает в том, что большинство ее стихов посвящено социально-философской и дидактической теме, а также пропаганде просвещения и книги. Большой историко-литературный материал представляют ее мемуары “История переселенцев”. Дильшод можно назвать первой женщиной в Центральной Азии, написавшей историко-мемуарное прозаическое произведение.

Ключевые слова: Дильшод Барно, двуязычие, социально-философская тематика, мемуары, литературная среда, “История переселенцев”

Annotation

The article is devoted to the study of the work of Dilshod Barno, a poetess and prose writer, who was born in the city of Istaravshan and lived almost all her childhood in the city of Kokand. The thematic analysis of Dilshod's poems convinces us that most of her poems are devoted to socio-philosophical and didactic topics, as well as to the promotion of education and the book. A large historical and literary material is presented by her memoirs "History of immigrants". Dilshod can be called the first woman in Central Asia who wrote a historical and memoir prose work.

Keywords: Dilshod Barno, bilingualism, socio-philosophical themes, memoirs, literary environment, “History of immigrants”

О Дильшод Барно (1800-1907) имеется ряд исследований как в Таджикистане, так и в Узбекистане, и оба народа этих стран могут претендовать на ее литературное наследие, написанном на двух языках - таджикском и узбекском. Ее творчество привлекло внимание известных ученых А.Мухтарова, М.Кодировой, С.Султона, труды которых указаны в библиографии настоящей статьи.

В настоящей статье речь пойдет о социально-философских, просветительских мотивах и биографическом материале, вошедшем как в поэтическое, так и в прозаическое творчество двуязычного автора Дильшод Барно, до семнадцати лет прожившей в родном городе Истаравшане и после нападения эмира Умархана на Истаравшан, взятой в плен и увезенной в Коканд. В Коканде поэтесса попадает в узбекскую среду, изучает этот язык, преподает в школе для девочек и пишет свои

произведения, как на родном, так и узбекском языке. Тексты ее стихов на таджикском языке, подготовлены к печати академиком А.Мухтаровым, а узбекские стихи изданы доктором филологических наук М.Кодировой. Стихи Дильшод убеждают в том, что стиль поэтессы отличается простотой и ясностью. Однако о ее поэтическом мастерстве нет возможности вести серьезное исследование, потому что при всем врожденном таланте, поэтесса была лишена возможности изучать теорию и технику стиха, поэтому часть ее стихов страдает нарушениями в размере аруза и отсутствием средств художественной выразительности. Тем не менее, привлекают в них социально-просветительские взгляды женщины-таджички XIX века. Ее поэзия и проза насыщена биографическим и историческим материалом. Литературное наследие Дильшод составляет около 100 газалей, историко-мемуарное произведение “История переселенцев”, автобиографическое месневи и ряд мухаммасов, созданные на двух языках.

В стихах Дильшод очень сильны социальные мотивы. Она пишет о тяжелой доле тружеников:

Чаро халки Ватан инхела мўнтоль,
Чаро пиру лавону бева мўхтоль? [4, с.58]
*(Почему народ нашей страны живет в такой нужде,
Почему старцы, молодые и вдовы живут в такой нужде?)*

Поэтесса безбоязненно обвиняет в тяжелой жизни народа правителя. Притеснения и жестокость по отношению к простому народу – все исходит от него. Редиф “эй воъ” способствует более проникновенной передаче всей боли и эмоции лирического героя:

Замона кальраву золим бувад шоъи замон, эй воъ!
Халоик аз укубат хель намеъбад амон, эй воъ! [4, с.84]
*(Время несправедливо, правитель эпохи жесток, ох,
Народ никак не может освободиться от гнета, ох!*

В ряде стихов Дильшод пишет о судьбах женщин и призывает их к свободе. Она открыто зовет их освободиться от чадры:

Эй духтарак, аз рўи ыазин ыильоб бигир,
Аз маъкадаат лылва намо, никоб бигир. [4, с.65]
*(О девушка, с печального лица сними свой хиджаб,
Выходи с пристанища луны, сними свой хиджаб)*

Дильшод считает, что главный путь для освобождения – это путь просвещения. Именно поэтому она так переживает, что нет хороших школ:

Диёр асту дабистон нест, афсўс,
Дабистони фанистон нест, афсўс. (4, с.69)
*Есть у нас родина, но нет школ, к сожалению,
Нет школы, где учат всем наукам, к сожалению.*

По мнению Дильшод для просвещения народа нужны школы и книги. В мухаммасае, посвященной роли книги, она говорит:

Энг якин, дўсти азиз, ыамдарду дармондур китоб,
Ыамдаим ыамсўнбатиму ыамкадирдондур китоб [1, с. 59]

В автобиографическом месневи Дильшод пишет о своем родном городе Истаравшане, о военных событиях, о пленниках, о встрече с ханом, о своем интересе к учебе, к поэзии. Немало стихов посвящены ею родному городу Истаравшану, его красоте. В стихах Дильшод немало строк написано о Хафизе, Навои, Нодире, Умархане, Анбар-отун.

Дильшод Барно обладала не только поэтическим, но и прозаическим даром. Ее перу принадлежит историко-мемуарный труд “История переселенцев”(“Таърихи муъольирон”). В истории литератур Центральной Азии, по всей вероятности, Дильшод была первой женщиной, написавшей исторический труд. Конечно, в истории стран Востока до XX века кроме нее были еще женщины-историографы, в числе которых можно назвать Гульбаданбегим и ее “Хумаюн-намэ”(XV в.), а также поэтессу Мастуру Курдистани –Мохшарафбегим, автора исторических мемуаров “Дом Ардалона”(XIX в.).

Мемуары Дильшод Барно написаны в конце 80-х годов XIX века, о чем свидетельствуют слова самой Дильшод: “до восьмидесяти восьми лет читала без очков и занималась шитьем”. Поэтесса прожила долгую жизнь, на что намекает в одном из своих стихотворений: “Синнам расида ба як аср қариб...” (“Мой возраст достиг почти одного века...”)

Текст “Истории переселенцев” состоит из 68 страниц, 38 из которых не сохранилось. Мемуары начинаются со страницы шестой, и как сообщает академик А.Мухторов, “страницы 8-11, 14-15, 18-22, 25-26, 29-32, 35-36, 39-40, 45-48, 53-54., 57-58, 61-62 отсутствуют”, поэтому из 68 страниц сохранилось тридцать страниц”[3, 27]

В начале произведения речь идет об истории нападения Кокандского хана на Истаравшан, о том, что из числа пленных были повешены сотни людей, о том, что тринадцать тысяч женщин и мужчин были изгнаны из Истаравшана в Коканд. Дильшод с глубокой болью пишет о тяжелом положении пленных, о мучительном длинном пути, полном камней и колючих кустарников и босых окровавленных ногах пленников. Страшную картину казни своих земляков Дильшод описывает с кровью в сердце: “... по знаку эмира всех виновных (провинившихся) повели в сторону широкого сая (оврага) на восток от Чорсу. А в том сая стояли виселицы для казни людей. Они имели вид подставок (кронштейнов) для светильников или для повешивания (клеток) с перепелками. С позднего утра до предзакатного намаза людей одного за другим вешали; убивали и припасенные переносчики мертвых на носилках, на арбах увозили трупы подальше” [3, с.297]. Поэтому в тяжелой доле пленников она обвиняет именно его: “Плачущие, стонущие, падая и поднимаясь, мы шли по степям Навганда и Бекат, Куркат и Махрам, имена которых называли пленные и которые остались в моей памяти. В степи я шла, спотыкаясь о камни и кочки, и ноги мои, как у остальных, покрывались на подошвах волдырями, из пальцев шла кровь, ногти отрывались. Не было ни сил ни мочи пройти (далее хоть) шаг ...”(3, с. 297). Дильшод далеко не равнодушна к дальнейшей судьбе пленников. Она узнает о том, что они

получили приказ семь лет жить жить в шатрах и не имели право построить дом. Только по истечению этого срока они обратились к эмиру с письмом и получили разрешение построить дома и обосновать город, в дальнейшем названный именем Хана – Шахрихон.

Отношение Дильшод к хану совершенно негативное. Она презирует его за то, что столько людей страдает из-за него, что в нем нет человечности: “...эмир Ферганы, т.е. эмир Умар-хан, несмотря на то, что был ученым и крупным поэтом, не смилостивился ни над одним ученым и поэтом этого угнетенного города” [3, 296] Хан при всей внешней красоте и молодости кажется ему кровопийцей. “Хан был высокий ростом, почтенного вида, с открытым лицом и после ответа на приветствие, он стал со мной обходительно разговаривать. Несмотря на приветливое обхождение свое, эмир показался мне жестоким и кровожадным царем на площади казни” [8, с.299].

Именно эта ненависть становится причиной того, чтобы Дильшод грубила эмиру в ответ и в стихотворении посвященном гранату, назвать его жестоким кровопийцей. Эта встреча и эти стихи стали поводом к тому, что Дильшод навсегда была изгнана из дворца и в дальнейшем никогда не пользовалась милостью хана.

Одной из особенностей этого произведения является его автобиографический характер. Уже в начале произведения автор сообщает, что ее отец и мать умерли от холеры, голова отца была поставлена на Калламанора как комок глины. Дильшод жила вместе с девяностолетней бабушкой, которая занималась пряжей ниток. После переселения в Коканд и изгнания из дворца, поэтесса спасается с помощью своего земляка, попадает в дом некоего Тошмахдума, за которого выходит замуж и до конца жизни остается в его доме. От этого брака она рождает восьмерых детей, однако выжили только двое. Мать Тошмахдума содержала школу, в этой школе четыре года обучалась и Дильшод, которая после смерти свекрови становится учительницей. Дильшод во время переселения не знала узбекского языка и только после обучения в школе стала говорить и писать на этом языке. В годы проживания в Коканде многие свои стихи она писала на узбекском языке. 51 год она учила девочек и, по ее словам, воспитала и обучила 891 девочек, почти четверть которых обладала поэтическим даром. Автор отмечает, что на полях она отметила имена двадцати четырех поэтесс, однако, эта страница не сохранилась. “Лучшими моими ученицами были Хайринисо, Бахринисо, Анбарой и Тутикыз и они были влюбленными последователями Хафиза, Навои, Бедиля и Фузули” [3, с.302].

Среди них она особо отмечает Анбарой, о внешней и внутренней красоте которой Дильшод отзывается лучшими словами. Она посвящает ей свою газель, которая начинается следующими строками:

Анбарой отунчай чакконакак, нушёракак,
Тундхуйиё надорад дар адаб як боракак [8, с.76].
Анбарой грамотная, ловкая и трезвая девочка,

В ее нравах ни разу не заметили раздражительность.

Из этого стихотворения можно узнать, что Дильшод высоко ценит вдумчивость своей ученицы, ее взгляды о жизни народа и о недостатках в правлении государством. Однако поэтесса понимает, что стараниями отдельных людей невозможно добиться желаемого результата. Надо объединяться.

Из числа кокандских поэтов-риндов Дильшод называет имена Махджуба, Мунтазира, Маджзуба и Гулхани и считает их своими единомышленниками.

О поэтессе Нодире она пишет, что в Коканде “жила царица Ферганского владения и обладательница вкуса и поэтических способностей и песен, т.е. Нодира, знаменитая и выдающаяся поэтесса эпохи. Я очень старалась встретиться с ней, но не удалось...” [3, с. 46].

Дильшод в своих мемуарах называет группу кокандских поэтов, к числу которых относились Махзани, Туроби, Бахори, Низоми, Сабухи, Садои и Девона Кори. Некоторые из них названы и в тазкире Фазли, где приведены образцы их стихов. Однако в связи с тем, что они были представителями противоположного правлению взглядов, многие из них остались не включенными в тезкиру.

После завоевания Центральной Азии Россией, появления заводов и фабрик, открытия железной дороги, Дильшод удалось дважды выехать в родной город Истаравшан и встретиться там с известными современными поэтами Шахди Сепулаги и молодым Зуфархоном. О Шахди автор думает, что “этот поэт обладает высоким талантом и дарованием и создал стихотворные газели на темы о бытии и содержательные и не теряющие значения стихотворения” [3, с.304]. Талантливым считает она и Зуфархона: “Обладает также вкусом слагания газелей и хорошо пишет молодой барин (тўрачаи лавон) Зуфархан” [3, с.304].

Как уже было отмечено, Дильшод на полях своих мемуаров перечисляет уратюбинских поэтов, но эта страница отсутствует в тексте. На другой же странице среди поэтов этой местности названы поэтессы Саида-Бону, Мастураой, Фазилат-бону и Кароматой, которых считает способными.

В целом, в этих мемуарах Дильшод называет имена четырнадцати одаренных поэтесс, из числа которых четыре названных поэтесс являются выходцами Истаравшана, а остальные десять Нодира, Фидоия, Махин-бону, Хафиза-отун, Увайси, Бахринисо, Хайринисо, Тутикыз, Каттахон, Анбар-отун происходят из Коканда. Из названного числа о четырех из них, в том числе о Нодире, Увайси, Анбар-отун и Тутикыз имеются сведения в литературных и исторических источниках, однако о других поэтессах до сих пор отсутствует информация по той причине, что их стихи не были никде зафиксированы. Стихи Нодире дошли до нас на двух языках, однако стихи Увайси, Анбар-отун и Тутикыз в основном написаны на узбекском. Стихи самой Дильшод также сохранились на двух языках – таджикском и узбекском. Из сохранившегося литературного

наследия выясняется, что Дильшод не имела специального литературного профессионального образования и сталкивалась с трудностями в размере и художественном украшении стиха. Большинство ее стихов написано на социальные и дидактические темы.

Об “Истории переселенцев” можно отметить, что ее автор как дочь своей эпохи и просвещенная личность чувствовала необходимость запечатления исторических событий и поэтому написала свои мемуары. По ее мнению, “история захвата (завоевания) продолжалась очень долго, о ней есть и известия, заслуживающие удивления”, нашедшие частичное отражение в книгах и тазкире, в том числе в “Исламской тазкире” (“Тазкираи Исломия”), “Тазкире о войсках” (“Тазкираи муъориба”), “Тазкире Истаравшана” (“Тазкираи Истаравшан”), и в дастане поэта Шахди и в “В военной летописи Ходжа калона” (“Љангнома”-и Хоља Калон)”[3, с.295]. Автор мемуаров берет на себя задачу как живой свидетель событий.

Как уже было отмечено, более половины произведения утеряно, но то, что сохранилось, передает нам удивительно интересные сведения и культурных и исторических событиях в двух крупных городах Истаравшане и Коканде. Язык произведения прост и доступен, в нем нет излишних художественных украшений.

Автор не многословна, ее рассказ отличается краткостью. Только в двух местах текста встречается диалог: при встрече Дильшод с Умархоном и при беседе с приближенным хана.

Достоинством мемуаров Дильшод Барно является то, что “История переселенцев” является первым, и возможно, единственным историко-мемуарным трудом, написанном до XX века женщиной-прозаиком на таджикском языке. В нем даётся описание интересных историко-культурных событий, происходивших в двух древних городах Центральной Азии – Истаравшане и Коканде.

Литература:

1. Дилшод. Анбар Отин. Узбек шоиралар баёзи. (Тузувчи ва сўз боши муаллифи: ф.ф.д. М.Кодирова). – Т.: Фан, 1994. – 142 с.
2. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент, 1970. – 344 с.
3. Мухтаров А. Дильшод и ее место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX- начале XX вв. – Душанбе: Дониш, 1969. – 372 с.
4. Мухторов А. Д. Барно ва мероси адабии ў. – Д.: Ирфон, 1970. – 166 с.
5. Саидумари Султон. Таърихи доираи адабии Истаравшан дар нимаи дувуми асри XVIII ва аввали асри XIX. – Душанбе: Сурушан, 2002. – 232 с.
6. Саидумари Султони Кавкабӣ. Тазкираи суханварони Истаравшан (шеърно). – Душанбе: Адиб, 2012. – 260 с.
7. Султонов С. Дилшоди Барно. Энциклопедияи адабиёт ва санъати тоҷик. – Душанбе, т. 1, 1988.- с. 404-405

QO‘QON ADABIY MUHITIDA TATABBUNAVISLIK

Baxtiyor FAYZULLOYEV,
f.f.n., akademik Bobojon G‘afurov nomidagi
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti
(Tojikiston)

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon adabiy muhitidagi tatabbunavislik taraqqiyoti xususida fikr yuritilgan.

Tayanch sez va iboralar: an‘ana, ta‘sir, o‘ziga xoslik, mahorat, g‘azal, tatabbu, talqin, vazn, qofiya, radif.

Аннотация

В статье рассматривается развитие татаббунавизма в Кокандской литературной среде.

Ключевые слова и выражения: традиция, влияние, своеобразие, талант, газель, татаббу, сравнение, размер, рифма, редиф.

Annotation

The article discusses the development of tatabbunavism in the Kokand literary environment.

Key words and phrases: tradition, follower, influence originality skill, ghazal, tatabbu, vazn, rhyme, radif ,interpretation, emulate, comparative analysis

An‘anaviylik badiiy adabiyotning muhim belgilaridan. Chunki adabiyot taraqqiyotining o‘zak nuqtalaridan birini an‘analar tashkil etadi. Bu hol mumtoz adabiyotda ayniqsa ravshan ko‘zga tashlanadi. Buni birgina tatabbunavislik an‘analarida ham ko‘rish mumkin. Tatabbunavislik butun Sharq mumtoz adabiyotida, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida ayniqsa Qo‘qon adabiy muhitida ham chuqur tomir otgan bo‘lib, mustahkam va boy an‘analarga ega ekanligi ko‘zga tashlanadi.

XIX asr boshlariga kelib, Markaziy Osiyodagi uchta davlat- Buxoro xonligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi to‘la markazlashdi. Qayd etish lozimki, xonliklar madaniy hayotidagi rivojlangan tomon adabiy muhit edi. Chunki adabiy muhit rivojiga bevosita xon va uning atrofidagi yirik amaldorlar e‘tibor qaratgan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi shoirlardan iborat edi. Umuman olganda esa, XIX asrning birinchi yarimi adabiyoti badiiy ijodkorlarining ko‘pligi va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Avvalo shu narsani maxsus qayd etish lozimki, bu davrda zullisonaynlik nihoyatda keng tus oldi va tatabbunavislik yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Shu tufayli hatto boshdan – oxir tatabbularidan tuzilgan tazkiralalar paydo bo‘ldi. Qayd etish lozimki, bu davr tatabbunavisligi ikki yo‘nalishda rivojlandi. Avvalo, bu jarayon oldin o‘tgan shoirlarning asarlariga tatabbu bog‘lash, soniyan esa, zamondosh ijodkorlarning o‘zaro bir-birlarining she‘rlariga tatabbu bog‘lash shaklida yuz berdi Bu usul ko‘proq shoh shoir she‘rlariga tatabbu bog‘lash tarzida amalga oshdi. Bu fikrni Fazliy Namangoniy tuzgan “Majmuai shoiron” tazkirasidagi tatabbular tartibi ham tasdiqlaydi.

XIX asrning birinchi yarmida tatabunavislik eng rivojlangan adabiy muhit Qo‘qonda bo‘lib, unga Qo‘qon xonlari, shoirlar Amiriy, undan so‘ng o‘g‘li Xon bevosita rahbarlik qilishardi. Masnu’ tatabunavislik ham u erda kuchli edi. Masnu’ she‘rlarda turli so‘z o‘yinlari, she‘riy san‘atlar va, umuman, shakl unsurlarini qo‘llash ustunlik qiladi. Garchi adabiy jarayonni boshqarishda malikush-shuaro darajasiga ko‘tarilgan shoirlardan avval Ado, so‘ng Fazliy ham faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar-da, lekin asosiy rahnamo shoh shoirlarning o‘zlari edi. Buning ifodasini “Majmuai shoiron” da ham ko‘rish mumkin. Voqean, tazkiraning birinchi qismidagi Xotif, Nola, Nuzhat, Ma‘yus, Mushrif va boshqalarning qalamiga mansub tatabbular malikush shuaro Sultonxon to‘ra Ado qasidasiga tatabbu bo‘lib, ular Umarxon Amiriya bag‘ishlangan. Ikkinchi qismda esa tatabbu g‘azallar berilgan bo‘lib, ular Amiriyning she‘rlariga bog‘langan. Ular uch xil shaklda berilgan. Avval, Amiriyning bitta tojikcha va bitta o‘zbekcha yozilgan ikki g‘azaliga shoirlarning ikki tildagi bittadan tatabbusi, keyin, uning tojikcha g‘azallariga va, nihoyat, o‘zbekcha g‘azallariga bog‘langan tatabbular berilgan. Chunonchi, “Majmuai shoiron” ning 163 betida Amiriyning quyidagi misralar bilan boshlangan tojikcha g‘azali keltirilgan:

*Ey z-fikrat shohidi dil hamchu gul rangin qabo,
Az kafi poyat tarovat kune megirad hino* ⁵⁵.

Undan keyin esa quyidagi misralar bilan boshlangan o‘zbekcha g‘azali berilgan:

*Ey niholi sarvqaddi gulbuni bog‘i vafo,
Qomatingg‘a sarv ila shamshod der, yuz marhabo* ⁵⁶.

Amiriyning bu ikki g‘azaliga Ado, Vazir, Nola, Ma‘yus, Ramziy, Afsus, Xotif, Xijlat, Mushrif, Koshif, Rosix, Fazliy, Behjat, Zohir, Kasratiy, Foniyy, Vahshiy, Gulxaniy, Mahzuna, Akmal, Hoziq, Roziy, Muzmar tatabbu bog‘lashgan.

Amiriyning o‘zbekcha g‘azali ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda an‘anaviy muhabbat mavzui qalamga olingan. She‘rda yor go‘zalligi ulug‘lanadi. Bunda shoir mumtoz she‘riyatdagi an‘anaviy tashbehlardan foydalanib, yuzni oyga, qomatni sarv va shamshodga, yorning yoshligini niholga, rahmsizligini kofirga, labini qizil bodaga o‘xshatgan holda an‘anaviy go‘zal qiyofasini chizadi. Biroq, shu bilan birga, she‘rda shoir badiiy mahorati ham namoyon bo‘lgan. Avvalo, aytish lozimki, g‘azaldagi tasvirda izchillik bor. Voqean, birinchi baytda nozanin go‘zalligi ulug‘lanadi. Ikkinchi baytda lirik qahramon go‘zalning beqiyos chiroyidan yuzaga kelgan hayratini izhor etadi. Uchinchi baytda oshiqning visoldan umidi, ma‘shuqaning esa umid qilganga zulmi tasvirga tortiladi. To‘rtinchi baytda uchinchi baytdagi ma‘shuqa zulmi tasvirining natijasi chizilgan. Ya‘ni ma‘shuqa zulmi shu darajada etkazganki, oshiq “buzuq ko‘ngul” holiga tushib qolgan.

Beshinchi baytda to‘rtinchi baytdagi fikr yanada izchillik bilan davom ettirilgan. Yor labi gulgu bodaga o‘xshaydi. Shu sabali boda kabi u ham huzur

1 . فضلی نمنگانی. مجموعه شاعران. – تاشکند، 1902. 143 ب
2 . فضلی نمنگانی. مجموعه شاعران. – تاشکند، 1902. 143 ب

bag'ishlash qudratiga ega. Shoir shu o'rinda yana husn shohini mamlakat shohiga qiyoslaydi. Ya'ni husn shohi labidan oshiq huzur topsa, mamlakat shohi og'zidan chiqqan adolatli so'z va hukm elga huzur, baxt-saodat, farovonlik bag'ishlashi mumkin. Bu-birinchidan. Ikkinchidan esa, yor jamolidan sog'ar – may qadahi ham, sahbo-qip-qizil may ham safo, ya'ni soflik poklik topganidek, shoh adolatidan ham mamlakat va xalq farovonlik, shodlik, obodlik, baxt-saodat ko'rishi mumkin. Ijtimoiy va ishqiy masala tasvirini yonma-yon qo'yib ifodalaganini shoir oxirgi baytdagi "ishq mulkining Amiriman" jumlasida maxsus ishora qiladi. Lirik qahramon yetuk oshiq. Shu sababli u o'zini ishq amiri deb hisoblaydi. Bugina emas, shunisi borki, u mulk amiri hamdir. Shoir amir so'zida ittifoq san'atini qo'llab, unda ham amr etuvchi, mamlakat shohi ma'nosini, ham o'zining taxallusini qayd etadi. Bu o'rinda birinchi ma'no asosiy bo'lib, shoir u orqali yuqoridagi ijtimoiy fikrlarga ishora qiladi. Muhimi shundaki, shoir muhabbat mavzuidagi bu g'azalida xalq va mamlakatni obod va farovon qilish haqidagi fikrlarini ham izchil tasvirlash orqali o'zi shunga amal qilibgina qolmay, o'z vorislariga ham pand- nasihat qilayotganday, ularni ham shu yo'ldan ketishga chorlayotganday bo'ladi. G'azalning so'nggi misrasidagi istakda shunday fikrga ishora sezilib turadi.

Xullas, Amiriyning olti baytli bu g'azali katta mahorat bilan yaratilgan bo'lib, u tatabbu bog'lashga darhaqiqat munosib ijod namunasi bo'lganligi uchun ham unga yigirmadan ortiq tatabbu bog'landi. Biroq, shunisi ham borki, Amiriyni g'azaliga bog'langan tatabbularning hammasini bir xil yuksak saviyada yaratilgan asarlar deb bo'lmaydi. Ular orasida oddiy taqlid va maddohlikdan iborat bo'lgan namunalar ham anchagina. Shu bilan birga, tatabbular orasida badiiy jihatdan yuksak darajada yaratilganlari yo'q emas

XIX asr Qo'qon adabiy muhiti eng katta va jo'shqin adabiy jarayon sifatida shakllandi hamda faoliyat ko'rsatdi. Undagi rang-barang ijodiy faoliyat jarayonining markazida tatabbunavislik turgani va u o'zbek mumtoz she'riyatiga katta mahsul bergani hamda adabiyotimiz taraqqiyotidagi muhim ulush qo'shgani g'oyat ahamiyatlidir

Bu davr adabiy jarayonida salaflar she'riyatiga tatabbunavislik uch yo'nalishda rivojlandi. Uning birinchisi, o'zbek mumtoz shoirlari, xususan, Navoiy, Bobur va Huvaydo she'rlariga tatabbu bog'lash. Ikkinchisi, fors-tojik shoirlari, xususan, Hofiz, Jomiy va Bedil she'rlariga tatabbunavislik. Uchinchisi, ozarbayjon shoiri Fuzuliy she'riyatiga tatabbu bog'lash shaklida rivoju ravnaq topdi. Bu uch yo'nalishdagi tatabbunavislik Qo'qon adabiy muhitida ham, shuningdek, Xiva va Buxoro adabiy muhitlarida ham izchil davom ettrildi. Biroq, alohida qayd etish lozimki, bu davrda ham barcha adabiy muhitlarda Alisher Navoiy g'azallariga tatabbu bog'lash g'oyatda faol bo'ldi. Buni barcha shoirlar va hatto shoirlar ijodida ham yaqqol kuzatish mumkin. SHulardan biri, bu davrda faol ijod etgan va hatto shoira Mohlaroyim Nodiraga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiydir.

Uvaysiy ijodida Navoiy, Fuzuliy va Mashrab an'analari izchil davom ettirildi. Shoira ijodida, xususan, Navoiy she'rlariga tatabbu va taxmislar ko'pdir. Uvaysiyning "Gila", "Kokuling", "Tushdi o't", "Isi" singari tatabbulari Navoiy g'azallariga bog'langan. Ularda Uvaysiy Navoiyning mazmun va shaklga doir

an'analarini ijodiylik bilan rivojlantirgan. Chunonchi, shoiraning "Isi" radifli tatabbusida Navoiyning shu radifda yozilgan g'azalidagi mavzu, vazn, qofiya va obrazga doir an'analar rivojlantirilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Navoiy g'azali ramali musammani mahzuf vaznida bo'lib, muhabbat mavzuidadir. Uvaysiy tatabbusi ham Navoiy g'azali vaznida va o'sha mavzuda bitilgan. Tatabbuda Navoiy g'azalidagi qofiyaga ohangdoshlik ham mavjud. Uvaysiy o'z tatabbusida hatto Navoiy she'ridagi rayhon va Kan'on singari qofiya so'zlarni takroran qo'llaydi. Biroq shoira ularga yangi ma'no yuklaydi. Voqean, Navoiy lirik qahramoni hijrona jonsiz holatga kelgan paytda, ma'shuqaning yuz va labi ustidagi xat-mayin tuklardan esgan nasim unga yangidan jon bag'ishlar ekan, endi u gul va rayhon isini rad etsa, Uvaysiy lirik qahramonini esa sahar payti rayhon isi uyg'otadi. Zero, unda yor isi jilva qilardi. Yoki Navoiy lirik qahramoni yor hajrida yig'layverib ko'zdan ajralgach, gulning o'zi va isidan bahra olib, ko'zi ochiladi. Shoir tasviricha, bu narsa farzandi Yusuf hajrida yig'layverib, ko'zidan ajralgan Ya'qub payg'ambarning Kan'onga yuborilgan ko'ylakni ko'ziga surtgach va undan o'g'li isini tuygach ko'zlari ochilganga o'xshaydi.

Shu tarzda Navoiy tashbih va talmeh san'atidan foydalanib qo'llagan adabiy timsollarining yangi qirralarini ochsa, Uvaysiy ham Navoiy fikrlarini takrorlamagan holda an'anaviy timsollarga yangi ma'nolar yuklab, mavzuning chuqur ochilishida ulardan mohirona foydalanadi.

Qayd etish lozimki, garchi Navoiy she'rida ham, Uvaysiy tatabbusida ham muhabbat mavzui tasvirga tortilgan bo'lsa-da, ularda farq bor. Navoiy she'ridagi muhabbat tasvirida so'fiyona mazmun kuchli. Uvaysiy tatabbusida dunyoviy muhabbat tasviriga ko'proq urg'u berilgan.

Shoira lirik qahramon ishq, hijron azoblari, vasl lazzati va undan keyingi mashaqqatlarni tazod san'ati orqali hayotiy tasvirlaydi. Shoir talqinicha, vasl bor joyda, hijron bor. Axir tabassumdan keyin ko'z yoshi keladiku! Biroq har qanday holatda ham ishq yuksakdir. Ishq oshiqni ma'shuq, ma'shuqni oshiq qilishi mumkin. She'r lirik qahramoni ayol. Lekin ishq uni Majnun qilgan. Ishq tufayli u ham Zulayho holiga tushgan. O'ngida ko'rolmagan sevgilisi va hatto uning isiga tushida etishni orzu qiladi. Ishq azoblaridan bemor holga kelgan lirik qahramon ishqning o'zidan davo istaydi. Bu davo visoldandir. Lirik qahramon uchun visol Luqmoni hakimdir. Xayriyatki, uning isi etishyapti:

*Yusufi soniy firoqidin ne tong topsam xabar,
Uyqu ichra chun Zulayhoga etib Kan'on isi.
Za'fedi jismim muhabbat ranjidan bir necha kun,
Shukrilillah, keldi tandin ushbu dam Luqmon isi* ⁵⁷.

Shoira har ikkala baytda ham talmeh san'atini qo'llab, lirik qahramonning ishqiy kechinmalarini yorqin aks ettirishga erisha olgan. Shoira talqinicha, ishq qudratli kuchga ega. Buni shoira "Kerakmazmi sango?" radifli ikkita tatabbusida ham mahorat bilan chizgan. Ular Fuzuliyning shu radifdagi g'azaliga bog'langan bo'lib, mazmunan biri ikkinchisini to'ldiradi.

3. Увайсий. Кўнгил гулзори. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 84-бет.

Uvaysiy Fuzuliy fikrlarini turli tashbehtar vositasida sodda va hayotiy tarzda rivojlantiradi:

Yozma tummoringni, umr ey gul, kerakmazmi sango?
Verma ko'p xotiringg'a yo'l, bulbul kerakmazmi sango?...
G'o'ta ur bahri tavakkul ichra, ey g'avvos dil,
*Ishq baxti ichra aqli kull kerakmazmi sango?*⁵⁸.

Tumor – maktub, uzun xat. Majozan umr oxiridagi vasiyatnoma. Birinchi misrada esa u azob-uqubat, hijron nomasi sifatida kelyapti. Umr-orzu-umid yo'li. Umr – sevguvchi ko'ngil. Gul – ma'shuqa. Bulbul – oshiq. Majozan gul – Haq, Bulbul – solik. Gul tikansiz bo'lmaydi. Demak, bulbulning gul vasliga etishi tikanli, ya'ni azoblidir. Solik uchun Haq vasliga etish ham shunday mashaqqatlidir. Zotan, bu tabiiy holat. Chunki mashaqqatsiz visol yo'li, manzili yo'q. SHunday ekan, nima qilmoq kerak? Mashaqqatlardan qo'rqib ortga qaytish kerakmi? Bordiyu mashaqqatlardan qo'rqmay oldinga intilganda visolga etish kafilligi bormi? Bunga aniq javob aytish qiyin. Shu bois qanday yo'l tutgan ma'qul? Birinchi baytdan so'ng ikkinchi baytgacha bo'lgan oraliqda shunday fikr – mulohazalar paydo bo'ladi. Shundan so'ng shoira tavakkul maqomini tavsiya etadi. Tavakkul – Haqqa ishonch va e'tiqod, uning inoyatiga umid bog'lash. Tavakkul solikni poklab, qalbiga xotirjamlik beradi. Shoira talqinicha, ishq ummondir. Ishqda kamolga etish uchun ana shu ummonda g'avvos kabi sho'ng'imoq lozim. Bu esa turli andishalarni emas, balki tavakkulni taqozo etadi. Zero, tavakkul ham vasl zinalaridan biridir. Shunday ekan, ishq yo'lida vasl masnadiga etish uchun tavakkul zarur. Ammo tavakkulning o'zi o'zlik fanosini taqozo etadi. Chunki dunyoviylikdan butunlay ozod bo'lmay turib, tavakkulga erishib bo'lmaganidek, tavakkul qilmay vasl poyasiga ham etib bo'lmaydi.

Uvaysiyning “Kokuling”, “Tushti o't” singari Navoiy g'azallariga bog'lagan tatabbularida ham ishqning shunday so'fiyona badiiy talqinlarini ko'rish mumkin.

Bu davr she'riyatida Muqimiy ham Navoiy she'riga javobiy tarzida “Bor” radifli tatabbu yozgan. Ammo u Navoiyning boshqa she'riga, aniqrog'i, “Badoe' ul-vasat” devonidagi 145- raqamli g'azalga tatabbudir⁵⁹. Unda Navoiy she'ridagi vazn – ramali musammani maqsur, radif, mavzu va qofiya hamohangligi saqlangan. Muqimiy hatto Navoiy qo'llagan uchta qofiya-ori, nori va zunnori so'zlarini aynan takrorlagan. Navoiy she'ri o'z gulruxsoriga ega bo'lgan oshiq endi har qanday sarvu gul hamda bog' sayridan voz kechsa arzishini ta'kidlash bilan boshlanadi. Keyingi baytlarda bu fikrning turli qirralari ochilgan, so'ngi ikki baytda so'fiyona qarash olg'a suriladi. Ya'ni faqr yo'lini tanlagan soliq uchun bu dunyoga bog'liqlik og'irlik qiladi. Shu sababli barcha bog'lanishlardan uzilib, “Ul sori”, ya'ni poklik manzilining shohi Haq sari bormoq lozim. Faqr yo'lga kirish uchun vobastalikdan uzilgach esa, tuproq kabi xoksorlikni ham egallash lozim bo'ladi. Ulug' shoir shu tarzda tasavvufning muhim nazariy masalasidan birini badiiy talqin qiladiki, shu bilan g'azal boshidagi ma'shuqning Haq, oshiqning esa solik ekanligi ma'lum bo'ladi. Muqimiy tatabbusi esa bunday emas. U dunyoviy

4. Қаранг: Увайсий. Кўнги́л гулзо́ри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. 155-бет.

5. Навоий А. Хазойин ул – маоний. Учинчи девон. Бадоеъ ул - васат. -Тошкент: “TAMADDUN”, 2011. – 151 -бет.

mazmundagi she'r. Tatabbuda boshdan – oxir hayot mahbubasi, uning g'oyatda go'zalligi, shu sababli oshiqlarining ko'pligi va turli-tumanligi, kim agar shunday go'zalga erishsa, har qanday pariga ko'ngil qo'yishdan or etsa arzishi g'oyat ishonarli tarzda tasvirlangan. Lirik qahramon ham hayotiy shaxs. Uningcha, "SHam beparvona, gul bebulbulu bequmri sarv bo'lmas".

Shunday ekan, hayotdagi har bir inson ham xayoliy mahbubga emas, hayot go'zaliga ko'ngil qo'yib, u bilan bo'lgani ma'qul. Lirik qahramon ishq, oshiqlik va ma'shuqlikni ana shunday hayotiy tushunadi. Bunday tasvir ko'rinishi umuman Muqimiy ijodiga va, shuningdek, bu davr ijodkorlarining aksariyatiga xos edi.

Muqimiy tatabbusidagi ma'shuqa siymosi g'oyatda jonli tasvirlangan. U g'oyatda go'zal, shu bilan birga, nihoyatda sho'x va hozirjavob hamdir. O'z oshig'i bilan emin - erkin gaplashadi. Uning oshiqona iltimoslariga hazil bilan ko'p ma'noli javob beradi. Uning o'zining tutishi, noz va so'zlari g'oyatda yoqimli va hayotiydir. U oshiqqa azob beruvchi, hijronda uni qiynovchi, ag'yorga iltifot qilib, haqiqiy oshig'ini g'amga duchor etuvchi an'anaviy ma'shuqa timsoliga o'xshamaydi. Aksincha, oshig'iga muhabbat bilan javob qaytaruvchi, sevilganidan shod, biroq yoqimli nozlar qilib, ham o'zi rohatlanuvchi, ham oshig'ini zavqlantiruvchi hayotiy go'zaldir. Shoir oshiq va ma'shuq uchrashuvi va munosabatining bir lahzasini shunday chizadi:

Bog'i vaslidin uzarga olma qilsang iltimos

Nozlar birla degaykim: -Olma yo'qtur, nori bor ⁶⁰.

Baytda ma'shuqa bog'bon qiz sifatida chizilgandek taassurot qoldiradi. U o'z oshig'i bilan bog'da uchrashgan. Shoir "Bog'i vasi" iborasida ham uchrashuv joyini, ham yorning go'zal siymosini chizgan. Baytning ikkinchi misrasidagi "olma yo'qtur" iborasida ihom, "nori bor" iborasida esa lutf san'ati qo'llangan. Olma yo'qtur iborasi avvalo, olma yo'q, ya'ni olma mevasi yo'q ma'nosida kelgan bo'lsa, soniyan, ol ma deyish yo'q, ya'ni yor visoliga engilgina erishish yo'q, unga erishish yo'lida ham ko'p mashaqqatlar mavjud ma'nosida berilgan. Nori bor iborasi esa avvalo nari bor, ya'ni olma so'ragan oshiqqa yorning yo'q, bor ket degan munosabati ma'nosida bo'lsa, ikkinchidan, olma yo'q, ammo anor bor degan javobi tarzida ham berilgan. Oshiq va ma'shuqaning visol bog'idagi uchrashuvi, o'zaro samimiy va hazilga yo'g'rilgan munosabatlari g'oyatda hayotiy chizilgan. Biroq Muqimiy tatabbularining hammasi ham muvaffaqiyatli chiqqan deb bo'lmaydi. Masalan, shoirning "Ko'rmay" radifli tatabbusi haqida shunday deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, Muqimiy ijodida ham shakllanish davrining nisbatan xomroq namunalari bo'ishi tabiiy. Ammo shoirning Navoiy g'azallariga bog'langan "Bo edi", "Kim desun", Amiriy g'azaliga bog'langan "Qil" radifli va boshqa ko'plab tatabbulari mahorat bilan yozilgan.

Shunday shoirona mahorat sirlari Furqat tatabbularida ham ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan shoirning "Kelinchak" nomi bilan mashhur bo'lgan tazmin tatabbusi diqqatga sazovor. U ozar shoiri Fuzuliy g'aaliga bog'langan bo'lib, Furqat hatto salaf g'azalining birinchi misrasini tazmin sifatida keltiradi. Furqat ham Fuzuliy g'azali vaznida – ramali musammani mahzufda yozilgan bo'lib, u

6. Муқимий. Танланган асарлар. 2 томлик. 1 – том. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960.-185-бет.

ham ozar shoiri kabi yor go‘zalligini ulug‘laydi. Fuzuliy she‘rida an‘anaviy mahbubning go‘zal siymosi chizilgan. Uning qaysi xalq yoki hududga mansub ekanligi yaqqol sezilmaydi. Zero, u Sharq she‘riyatidagi an‘anaviy go‘zal sifatida tasvirlangan bo‘lib, uning oshig‘i ham an‘anaviy tarzda fikrlovchi lirik qahramon holida berilgan. Furqat tatabbusida esa bunday emas. Unda muayyan hudud va o‘sha erdagi xalqqa mansub go‘zal siymosi chizib berilgan. Furqat tatabbusiga jiddiy nazar tashlansa, unda aniq Farg‘ona go‘zali, aniqrog‘i, kelinchagi siymosi chizilganini sezish mumkin. To‘g‘ri, barcha go‘zallr ham ko‘ziga surma, qo‘liga xina, yuziga g‘oza, qoshiga o‘sma tortishi, sirg‘a, uzuk, bilaguzuk taqishi mumkin. Bular go‘zallar pardoqidagi umumiy xususiyatlar. Endi tatabbudagi go‘zalning kiyimlariga e‘tibor qarataylik:

*Za‘faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzihul,
Ro‘ymol og‘ushidin peshonani(ng) ahvoli tang.
Bori nozik panjalar oltin uzukdin zebnok,
Qo‘l bilagzukdin muzayyan, nuqradin og‘izda chang*⁶¹.

Yor za‘faroniy, ya‘ni tillarang, yaltiroq sariq ko‘ylak ustidan arg‘uvoniy kamzihul, ya‘ni engsiz, yoqasiz, kalta qizil kamzul kiyib olgan. Ro‘ymolini esa umuman ayollar kabi iyagi ostidan aylantirib bog‘lamay, peshonasiga tang‘ib qo‘ygan. Ingichka bamog‘laridagi tilla uzuklarni yaltiratgan holda, bilagidagi bilaguzuklarini shiqirlatib chang chaladi. G‘oyat go‘zal tasvir. Shu tarzda kiyinish va uning ustiga chang ham chalish o‘tmishdagi o‘zbek qizlari, xususan, Farg‘ona vodiysi go‘zallariga xos edi. Tatabbuda yor mahorat bilan jonli insondek tasvirlangan. U nihoyatda erka, sho‘x. O‘z latofatidan o‘zi ham zavqlanadi. Shu sababli bir nafas tinch turmaydi. Goh “g‘amza birla o‘lturur, goh jilvalar birla yurur”. Xullas, sho‘xligi va noz-karashmalarini bir nafas to‘xtatmaydi. Lirik qahramon uning harakatlaridan, noz, g‘amza va sho‘xliklaridan hayratga tushadi. Uning oldida o‘zini unitib, aqlini yo‘qotar darajaga etadi. Lekin bularning hammasi unga huzur bag‘ishlaydi. U o‘z oldida xayoliy go‘zal emas, balki hayot go‘zali turganligini, bu go‘zal paridan ham ustunligini his etadi. Yor oshig‘ining o‘ziga bo‘lgan muhabbatini chuqur his etadi. Shu sababli erkalgini ba‘zan haddan oshiradi, oshiqni qiynaydi. Natijada, ular orasida tez-tez jang va sulh holati yuz berib turadi. Bunday holat barcha chin oshiq va ma‘shuqlar orasida yuz beruvchi hol bo‘lib, shoir tatabbu qahraonlari munosabatlari misolida bu manzaralarni g‘oyat go‘zal, hayajonli va ta‘sirli chizib bergan. Furqatning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan “Isi”, “O‘lturgusi” va “Aylagach” radifli tatabbulari ham shunday mahorat bilan yaratilgan.

Bularning hammasi XIX asr birinchi yarmi she‘riyati o‘zbek, tojik va ozarbayjon mumtoz adabiyotlarining boy va yuksak badiiy an‘analari asosida rivojlanganini ko‘rsatadi. Muhimi shundaki, bu adabiy an‘analar rivojida tatabbunavislik alohida o‘rin tutadi. Chunki bu davrda tatabbunavislik boshqa davrlarga nisbatan g‘oyat keng qirrali bo‘ldi. O‘zbek she‘riyatida Alisher Navoiy birinchi bo‘lib tatabbunavislikni maxsus adabiy yo‘nalish darajasiga ko‘tarib, tatabbulardan devon tuzgan bo‘lsa, undan keyin ham bu an‘ana davom etdi.

7. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiёт va san‘at, 1975. – 47-bet.

Voqean, XIX asr va XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitida tatabbunavislik adabiy yo‘nalishi g‘oyat keng rivojlandi. Shuning natijasida, 1821-yilda Qo‘qonda Fazliy Namangoniy tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” tazkirasi boshdan-oxir tatabbulardan iborat bo‘ldi.

Agar XVII-XVIII asrlarda tazmin tatabbu, mazmunda pand-nasihah kuchli bo‘lgan mav‘iza tatabbular yozish keng tus olgan bo‘lsa, XIX birinchi yarmi tatabbunavisligida so‘z o‘yinlari, she‘riy san‘atlar va, umuman, shakl unsurlari ustunlik qiluvchi masnu‘ tatabbular yozish avj oldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida esa, ma‘noga e‘tibor berish kuchayishi tufayli mazmun va shakl birligi aks etuvchi matbu‘ tatabbular yaratish ommalashdi.

Shunday qilib, XVII-XIX asrlar va XX asr boshlari tatabbunavisligi jarayonida o‘zbek she‘riyati ham mazmunan, ham shaklan boyidi. Tatabbunavislik natijasida boshqa xalqlar adabiyotidagi badiiy-g‘oyaviy yetuk asarlar bilan bellashadigan va hatto ko‘p jihatdan ulardan ustunlik qiluvchi mumtoz asarlar paydo bo‘ldi. She‘riyatimiz, ayniqsa, g‘azalchilik borasidagi tatabbunavislik yuksak muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu borada yaratilgan mumtoz lirik asarlar o‘z davrida va keyingi davrlarda ham badiiy ijodning yuksak namunalari sifatida e‘tirof etilib, barcha zamonlarda hamma ijodkorlar uchun adabiy ilhom manbai bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шодиев э. Навоий татаббуъларига оид баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1997, 2 сон, 7-13 б.
2. Абдуқодиров А. Навоийнинг татаббуънавислик маҳорати // Ўзбек адабиётшунослиги масалалари, 6 – китоб. – Хўжанд: Раҳим Жалил номидаги Давлат нашриёти, 1997, 17-21 б.
3. Жумахўжа Н. Миллий мустақиллик мафкураси ва адабий мерос // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 1-сон, 3-6 б.
4. Раҳмонов В. Йирик революцион-демократ шоир // Аваз Ўтар ўғли. Девон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976.
5. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. - Тошкент:Фан,1979.
6. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб. – Тошкент: ЎСЕ, 2008.
7. Низомии Ганҷавӣ. Хамса. Махзану-л- асрор, Хусраву Ширин. Ҳаятҳои мушовара ва таҳририяи 50-чилдаи осори классикон ва муосирон аз силсилаи “*Ахтарони адаб*”, 19. – Душанбе: “Адиб”, 2012, С. 133- 445.
8. Шайх Фаридуддин Аттор. Мантиқут тайр(Қуш тили).Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол КАМОЛ таржимаси. - Тошкент: Фан, 2006 , 400 б.
9. Фаридуддин Аттор. Мантиқ ут – тайр. Насрий баён. Форсийдан Нажмиддин Комилов ва Маҳкам Маҳмудов таржимаси.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2006, 248 б.
10. Навоий А. МАТ (Мукаммал асарлар тўплами) 20 томлик, 12 том. (“Лисонут тайр”) -Тошкент: Фан, 1996, 327 б.
11. Навоий А. Лисонут тайр. (Насрий баёни билан) – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Нашриёт –матбаа бирлашмаси, 1991,463 б.

12. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърлятида татаббу тарихи ва маҳорат масалалари (XVIII- XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида). (Монография) - Тошкент: “Тамаддун”, 2021, 172 б.

ЯК ХУСУСИЯТИ БАДЕИИ ДОСТОНИ “ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО”-И ЧУНАЙДУЛЛОИ ҲОЗИҚ

Мавчуда ЎРУНОВА,

номзади илмҳои филологӣ, дотсент,
мудири кафедраи адабиёти классики
тоҷики Донишгоҳи давлатии Хучанд
ба номи академик Б.Ғафуров» (Тоҷикистон, Хучанд)

Дар таърихи адабиёти тоҷик ҳавзаи адабии Хўқанд ҷойгоҳи муҳим дошта, бо ҳузури шуарои зуллисонайни худ шўҳрати хоса касб намудааст. Дар ин ҳавзаи адабӣ, бино ба маълумоти Фазли Намангонӣ, 76 тан аҳли сухан ғаъолият доштанд, ки қисме аз онон шоирони соҳибдевон маҳсуб меёфтанд. Дар саромади ин ҳавзаи адабӣ Амир Умархон қарор дошт, ки соҳиби таъби баланди шоирӣ буда, аз зумраи шоирони соҳибдевон ба шумор меомад.

Дар ин ҳавзаи адабӣ аҳли адаб беҳтарин суннатҳои адабиёти форсу тоҷикро идома мебахшиданд. Доираи мавҷӯти ашъори шуарои ҳавзаи адабии Хўқанд бисёр фарох буда, дар он тараннуми ишқу муҳаббат, васфи табиату ахлоқи ҳамида, баёни афкори фалсафиву ирфонӣ, ақидаҳои иҷтимоӣ, ҳаҷву мутояба ва ғайра ба таври равшан зухур намудааст.

Дар ҳавзаи адабии Хўқанд ба мисли давраҳои гузашта суханварон асосан дар жанрҳои адабии ғазал, мухаммас, рубоӣ, қитъа ва маснавӣ қаламфарсой менамуданд. Шуарои ҳавзаи мазбур дар ғазалсароӣ назар ба гуфтани дигар жанрҳои лирикӣ пешрав буда, байни худ сабақҳои эҷодӣ анҷом медоданд. Суханварон умдатарин мухтассоти ин навъи адабӣ ва анъанаҳои ғазалсароӣ, мисли барҷастагии матлаъ ва мақтаъ, радифу қофия, интиҳоби калимаҳои хушоҳангу рўҳнавоз ва ғайраро риоя намуданд.

Дар эҷодиёти шоирони пешқадами ин ҳавзаи адабӣ бисёр масъалаҳои муҳими иҷтимоӣ сиёсии давраи инқирози феодалӣ бо тарзу усулҳои гуногуни бадеӣ ба миён гузашта шудаанд. “Ин шоирон, сарфи назар ба маҳдудиятҳои маълуми таърихӣ дар ашъори худ тавонистаанд, ки нуқсонҳои касофат ва беадолатии иҷтимоӣ феодалиро фош намоянд. Бо ҳамин онҳо анъанаҳои бузургони гузаштаро мувофиқи руҳия, завқу салиқа ва орзуҳои умедҳои замони худ идома бахшидаанд”(10,97).

Чунайдуллои Ҳозик аз маъруфтарин намояндагони ин ҳавзаи адабӣ маҳсуб меёбад, ҳарчанд дар доираи адабии Бухоро низ ғаъолияти пурсамар дошт. Ҳозик аз худ мероси гаронбаҳое ба пасояндагон гузоштааст, ки дар байни онҳо рубоиву ғазал, қасидаву дoston афзалияти бештар доранд. Мазмуну мундариҷаи ашъори Ҳозик ба мисли ашъори гузаштагонӣ ў гуногунтарҳ аст. Дар як силсила ашъори Ҳозик симои шоир ҳамчун як шахси ошиқи беқарори ҳаёт, дилбохтаи хубрўён ва мафтунӣ манзараҳои зебои табиат намудор мегардад. Қаҳрамони лирикӣ дар як қисми шеърҳои

шоир рӯзҳои гузаштаи боҳаловат, висоли ёр, қаноат аз май ва дигар хурсандиҳои хешро бо як ҷаҳон дарду алам ба ёд оварда, аз гардиши даврон, ки ўро ба ҳолати ногуворе расондааст, шикоятҳо менамояд.

Дар байни мероси адабии суханвар достони «Юсуф ва Зулайхо» мақоми шоиста дошта, қуллаи эҷодиёти ўро муаррифӣ менамояд. Ҳозик достони худро дар пайравии достонҳои ҳамном, хосатан, достони Мавлоно Абдурраҳмони Ҷомӣ гуфтааст. Ҳозик низ кӯшиш кардааст, ки ба воситаи қиссаи ишқи ба Юсуф варзидаи Зулайхо мулоҳизаҳои худро ҷиҳати давру муҳит ба тариқи нав, ба таври тозаю ҷудогона баён созад:

*Ба дӯши қиссаи Юсуф, Зулайхо,
Муассаъ хилъати дигар биоро.
Либоси тозаву ушшоқи тоза,
Баҳори тозаву авроҳи тоза.*

Зотан, Ҳозик ба мақсадаш ноил гардидааст. Зеро достони ӯ чи дар ҳатти сужет ва чи шарҳу тафсири амалиёти қаҳрамонҳо нуқтаҳои муҳими ҳосе дошта, бештар мазмуни дунявиро ҳаётӣ касб кардаанд.

Достони мазбур аз шаст боб иборат буда, дар вазни ҳазачи мусаддаси маҳзуф таълиф ёфтааст. Сужети асар, пас аз бобҳои анъанавӣ, бевосита аз боби дувоздахум «...Таваллуд ёфтани Юсуф» оғоз ёфта, то боби панҷохунӯҳум «Ком ёфтани Зулайхо...» идома мекунад. Ҳозик дар ин достон, чунонки зикраш рафт, афкори иҷтимоии хешро равшан ба намоиш гузошта, доир ба вазъи замон мулоҳизоти хуб ироа намудааст, ки таҳқиқи ҷудогоноро тақозо дорад.

Достони “Юсуф ва Зулайхо” аз ҳайси перояи бадеӣ басо ҷолиб буда, дар баёни андешаҳои суханвар қулли воситаҳои тасвири бадеӣ, аз қабилӣ ташбеҳ, тазод, ташҳис, талмех, тарсеъ, маҷоз, киноя, муболиға, таҷнис ва ғайра хидмат кардаанд. Як хусусияти умдаи достони Ҳозик дар қорбурди санъати тавсиф зоҳир гардидааст. Тавсифоти суханвар аз оғоз то анҷоми достон хело равшан, барҷаста ва ҷашмиро дилрас буда, барои таъмини шаҳомати тимсолоти асар, хоса образҳои Юсуфу Зулайхо хизмати шоистаро ба ҷо овардаанд.

Бино ба маълумоти Т.Зехнӣ “нависанда барои тасвир кардани ягон воқеа, касе ё чизе гоҳо сифатеро меорад, ки яке аз муҳимтарин хусусиятҳои он воқеа, он касе ё чизеро хеле барҷаста нишон медиҳад. Ҳамин гуна муайянкунандаи бадеӣ, ки муҳимтарин хусусияти ҳодисаро таъкид менамояд, тавсиф номида мешавад”(7,67).

Ҷунаидуллои Ҳозик дар достони “Юсуф ва Зулайхо” дар қорбурди санъатҳои бадеӣ, аз қабилӣ ташбеҳу таҷнис, маҷозу киноя, талмеху тазод, ташҳису суолу ҷавоб ва ғайра аз санъати тавсиф низ фаровон истифода кардааст. Аз оғози достон то интиҳои он ин воситаи тасвири бадеӣ барои таъмини перояи бадеии сухани шоир хизмат карда, тасвиротро равшан ва тимсолоти асарро барҷаста ба намоиш гузоштааст.

Аз нахустбайтҳои достон суханвар ин санъати тавсифро хеле моҳирона ба қор бурда, суханаширо пуртаъсир намудааст. Чунончи:

Илоҳӣ , синаамро соз қонун,

Зи оҳаш банд тори **ноламазмун** (14,17).

Баҳор аз абри лутфаш гул ба доман,
Хазон аз боди қаҳраш **барқхирман** (14,18)

Бидеҳ ишқе, ки **чонафрӯз** бошад,
Чу барқи оҳ **оламсӯз** бошад (14,22).

Ин абёт баргирифта аз бобҳои анъанавии дoston буда, дар он тавсифоти «ноламазмун», «барқхирман», «чонафрӯз» ва «оламсӯз» бо андешаҳои шоир мутаносиб афтада, тасвири таъсирбахш намудаанд.

Ё худ дар боби «Љӯшидани саҳбои сухан аз хумхонаи кайфияти ишқ» суханвар лаб аз сифати ишқ во карда мефармояд:

Амири кишвари лоҳут ишқ аст,

Фақири кулбаи носут ишқ аст.

Ки аз сози **ғинооҳанги** парвоз,

Даме бар бӯрӯи **фақр** дам соз.

Гаҳе **ҳамчу шарор аз санг часта,**

Даме **бар пой меҳнат санг баста.**

Гаҳе гардида **атри шишаи гул,**

Даме **фарёд дар минқори булбул.**

Шаробу шишаву майхона ишқ аст,

Чароғи маҳфили парвона ишқ аст (14,48-49).

Дар ин порча калимаву ибора ва таркибу мисраъҳое, ки ишора шудаанд, ҳамагӣ тавсиф буда, байни онҳо тавсифоти мусбату манфӣ чой доранд, ки ҳамагон сифати ишқро ифода намудаанд.

Суханвар дар боби «Шукуфтани ғунҷаи забон ба насими субҳи сухан» забон ба тавсифи сухан во карда мегӯяд:

Сухан **бурҷест**, маънӣ **офтобаш**,

Сабоҳи файз авроқи китобаш.

Чу соқӣ дар азал он бодаи **соф**

Ба **чоми «нун»** кашид аз **шишаи «коф»**.

Зи **минои фалак** то **чоми хуршед**,

Ҳама аз **файзи ӯ саршор** гардид.

Паризодест, дилҳо **шишаи ӯ**,

Гули завқи забонҳо решаи ӯ.

Бувад **маъҷуни таъби бенишотон**,

Фараҳбахши дили беинбисотон (14,55).

Дар ин порча шоир бо камоли шавқ сифати сухан карда, онро бо тавсифоти басо зебо қаламдод кардааст, ки аз ишораҳо мусалламанд. Чунайдуллои Ҳозик, маҳсусан, дар тасвири чехраи Юсуф ва Зулайхо, ки қаҳрамонони марказии дoston ҳастанд, санъати тавсифро басо равшану ҷаззоб истифода карда, ин тимсолоти наҷибро хело зебо ва завқбахш инъикос намудааст. Чунончи, дар боби «Камол ёфтани сухан аз тавсифи камоли Юсуф(а)» шоир фармудааст:

Чу Юсуфро баҳори хусн орошт,

Қадаш бар ростї чун нахл перост.
 Ниҳолаш дам ба дам нашї дигар ёфт,
 Гулаш ҳар лаҳза ранги тозатар ёфт.
 Зад аз ҳар ғунчааш сад барги гул сар,
 Дамид аз ҳар гулаш сад ранги дигар.
 Зи тори кокулаш сунбул мушавваш,
 Зи тоби ранги рўяш гул дар оташ.
 Љигархун аз лаби рангини ў лаъл,
 Дар оташ сурхии ёкутро наъл.
 Зи рўяш як чаман фирдавси хубї,
 Зи сарваш сояе афтода Тўбї.
 Зи танвини ду абрўяш ишорат,
 Чунон равшан, ки маънї аз иборат.
 Чї абрў? Қиблаи оини ушшоқ,
 Ба сурат чуфт, дар хубї вале тоқ.
 Назар бо чашми ў наргис чунон буд,
 Ки шахло наргису ў ҳалқаи дуд.
 Зи рўи шарм чашм ар боз мекард,
 Нигоҳи ў ба мижгон ноз мекард.
 Даҳоне тунги шаккар аз такаллум,
 Лаби лаъле намакдон аз табассум.
 Хиромаш дид товусу саропо,
 Ба ҳар мў дида шуд маҳви тамошо.
 Гаҳи хоб аз назокат бар тани ў,
 Нишастї нақш аз пероҳани ў.
 Зи хусни он парипайкар чї гўям,
 Зи хуршед аст равшантар, чї гўям? (14,67-68).

Аз ин порча маълум мегардад, ки шоир тавсиф андар тавсиф намуда, симои қаҳрамони марказии асар – Юсуфро бо тамоми қузъиёташ васф карда, дар дили хонанда нисбат ба вай таваччуҳи хоса пайдо кунонидааст.

Ё худ порчаи зерин, ки «Гул кардани сухан дар сифати дарахте, ки Тўбон фирдавсулмаъвои Яъқуб(а) буд» унвон ёфтааст, саршор аз тавсифот буда, низ ба сифати Юсуф равона гардидааст:

Шунидам, буд ҳамчун оҳи Яъқуб,
 Дарахте дар нишемангоҳи Яъқуб.
 Ба гардун гар кашидї шохсораш,
 Ба Кавсар об додї чўйбораш.
 Шукуфа гар шаб аз шавқаш намудї,
 Зи анчум дар назар фарқаш набудї.
 Зи бас чўши тароват буд дар бар,
 Зи хоки соя мезад сабзааш сар.
 Давондї то ба шоҳи гов реша,
 Шикастї решааш чун шиша теша.
 Дарахте аслу фаръаш чун шарият,
 Шудї равшан зи авроқаш ҳақиқат.

Ба ҳар шохаш малоик ҳамчу мурғон,
Нишастӣ рӯзу шаб тасбеҳгӯён (14,69).

Ҳар як мисраи ин порчаи дoston тавсифоти хос мебошанд, ки аз таъби баланди сухангустарии Ҳозик дарак додаанд.

Қунайдуллои Ҳозик на танҳо дар таърифи Юсуф, ҳамчунин дар сифати Зулайхо низ маҳорати сухангустарии хешро ба намоиш гузошта, образи Зулайхоро шаҳомати хос бахшида тавонистааст. Чунончи, суханвар дар боби «Музайян сохтани арӯси сухан ба қиссаи таваллуди Зулайхо ва гавҳари нисбаташ бар силки назм овардан» тавсифоти зиёди назаррасро чунин истифода кардааст:

... Чу пур шуд моҳи мавъудаш, пас он гоҳ
Баромад духтаре аз парда чун моҳ.
Зи сар то пой шустанд аз гулобаш,
Ғалат гуфтам, зи оби офтобаш.
Чу доя он суманандом бардошт,
Ба ишқи лаъли Юсуф ком бардошт...
Баҳораш ранг бар ранги дигар гашт,
Рухаш гул-гул шукуфту тозатар гашт.
Маҳи ӯ дар ҳилоле меҳр бар дӯш,
Гулаш дар ғунчае гулшандароғӯш.
Ғуломаш Юсуфи Мисри сабоҳат,
Намакпарвардаш кони малоҳат (14,79-80).

Қунайдуллои Ҳозик дар ин порча тавсифи тифли навзод – Зулайхоро овардааст, ки дар ҳамбастагӣ бо санъатҳои бадеии ташбеҳ, ташбеҳи баргашта, истиораву маҷоз ва ғайра басо дилнишин афтодаанд. Зулайҳои навзодро ба моҳ монанд кардан, ӯро нахуст бо гулоб шустан ва баргашта аз ин бо оби офтоб шустан, суманандом номидан, баҳораш, яъне ҳуснаш ранги тоза ба тоза гирифтани, маҳаш, яъне чехрааш бо офтоб ҳамоғӯш будан, гулаш, яъне боз ҳам чехрааш гулшандароғӯш будан, кони малоҳат будан ҳама аз тавсифоти ин шоири шаҳиранд.

Гузашта аз ин, Ҳозик боз ҳам амиқтар тараннум кардани ҳусни Зулайхо худ дар ин боби асараш чунин ишора менамояд:

Биё, Ҳозик, чу гул рангин саропо
Либосе бар қади васфаш биёро (14,81).

Баъди зикри байти болоӣ суханвар боз ҳам бо завқи хоса ба тавсифи зебоиву карашмаҳои Зулайхо мепардозад ва аз ҷумла менависад:

Љабин чун офтоби партавафкан,
К-аз ӯ нури саодат буд равшан.
Ду абрӯ сар ба сар ҳамчун камонаш,
Ба тир охир дили Юсуф нишонаш...
Аҷаб тире, ки бошад пур зи миҷгон,
Зи нози шӯхияш хунрез пайкон.
Камони ҳуснро тир инчунин аст,
Пару пайкону зеҳир инчунин аст (14,81).

Суханвар баъд аз зикри ин тавсифот ба васфи чузъиёти зебоиҳои Зулайхо мегузарад ва аз рӯю мӯи вай то нохуни по ин тимсоли марказии асарашро бо тавсифоти қашангу дилрабо ба тасвир меорад, ки бо зикри чанд намуна иктифо меварзем. Чунончи:

Чӣ рӯ, чоми шароби ноз бинӣ,
Хубобаш он ду чашми боз бинӣ.
Ду субҳеро кӣ дида шаб дар оғӯш,
Ба чуз ду зулф бар он ду баногӯш...
Чӣ гӯям худ зи тангии даҳонаш,
Магар орад табассум дар баёнаш?!
Ба ғунча қофия осон тавон ёфт,
Вале мушкил тавон бо он тавон ёфт (14,82).

Ҳамин тавр, метавон натиҷагирӣ кард, ки Чунайдуллои Ҳозик аз сухансароёни хушсалиқа ва хушбаёни адабиёти тоҷик маҳсуб ёфта, тавонистааст дар радифи воситаҳои мухталифи тасвири бадеӣ, аз санъати тавсиф фаровон истифода намояд ва бо сеҳри қалами худ хонандагони достонашро мафтун созад. Маҳз корбурди санъати тавсиф дар достони «Юсуф ва Зулайхо» асари Чунайдуллои Ҳозикро аз дигар достонҳои ҳамномаш тафовут ва имтиёз бахшида тавонистааст.

Чунайдуллои Ҳозик тавассути осори гаронмоя ва мухтассоти баёнаш байни шуарои ҳавзаии адабии Хӯқанд соҳиббэхтиром гардида, дар тавсеаи хунари сухангустарии намояндагони ҳавзаии адабии мазбур нақши вофир гузоштааст.

Адабиёт:

1. Айнӣ Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик. – М., 1926
2. Амиркулов С. Жунайдуллои Ҳозик ва достони ӯ «Юсуф ва Зулайхо». - Душанбе: Ирфон, 1967
3. Амиркулов С. Адабиёти тоҷик дар нимаи якуми асри XIX. Душанбе: Ирфон, 1980
4. Амиркулов С. Нигоҳе ба инкишофи таърихии адабиёти тоҷик дар Мовароуннаҳр (қарни XIX). - Душанбе: Ирфон, 2010
5. Гулшани адаб. Ҷилди 4. Тартибдихандагон: Афсаҳзод А., ва диг. – Душанбе: Ирфон, 1970
6. Гулшани адаб. Ҷилди 5. Тартибдихандагон Афсаҳзод А. ва диг. - Душанбе: Ирфон, 1980
7. Зеҳнӣ Т. Санъати сухан. – Душанбе: Маориф, 1979
8. Зухуриддинов А. Муқоисаи достони «Юсуф ва Зулайхо»-и Ҷомӣ бо «Юсуф ва Зулайхо»-и Ҷомӣ дар китоби «Абдурахмони Ҷомӣ». - Душанбе: Ирфон, 1969
9. Каримов У. Мирзо Содиқи Муншӣ. - Душанбе: Дониш, 1972
10. Каримов У. Адабиёти тоҷик дар нимаи дувуми асри XVIII ва аввали асри XIX. - Душанбе: Дониш, 1974
11. Маъсумӣ Н. Адабиёти тоҷик дар асри XVIII ва нимаи аввали асри XIX. Душанбе, Нашр.дав.тож.1962
13. Мусулмонқулов Р. Назарияи адабиёт. - Душанбе: Маориф, 1990.

14. Чунайдуллои Ҳозиқ. Юсуф ва Зулайхо. Таҳия ва тавзеҳи Нурулоева Мухлиса. – Хучанд: Ношир, 2019.

ОСОБЕННОСТИ ТЕМЫ И СОДЕРЖАНИЯ СТИХОВ АМИРА УМАРХАНА

Нурихон ОХУНДЖАНОВА,

к.фил.н., доцент

Директор издательства «Дабир», ТГУПБП

(Таджикистан, Худжанд)

Аннотация

Статья посвящена исследованию применения художественных образов в поэзии на примере творчества известного поэта XIX века, представителя кокандского литературного круга Амира Умархана, обогатившего литературу новой палитрой красочных образов и понятий. Рассмотрены вопросы использования известных традиционных классических художественных образов, уподобления, сравнения, реминисценции, особой лексики, художественных средств выразительности: эпитета, истиара, уподобления, антитезы для выражения внутреннего психологического состояния. Исследовано новое, особое применение Амиром Умарханом сложных, в целом несочетаемых понятий и слов, что свидетельствует о его большом поэтическом мастерстве.

Ключевые слова: *Литература XVIII-XIX вв., кокандский литературный круг, Амир Умархан, художественный образ, художественный приём, фразеологическая единица.*

В истории классической таджикской литературы неизменный инструмент выражения – слово, незримыми нитями создающее орнаменты и узоры полотна литературы с присущими ему красками и уникальными оттенками, - использовалось мастерами слова в различных формах и интерпретациях. Слова и словосочетания в ходе многолетнего существования претерпевают многочисленные трансформации, обретая различные, неизвестные доселе, смысловые значения. Иногда слово утрачивает свое исконное значение и может означать понятие, для осмысления которого требуется высокий уровень культурного и религиозного просвещения, изысканный поэтический вкус. Опираясь на лексику, мастера слова, действуя очень осторожно и внимательно, по тонкому поэтическому наитию создают новые слова и словосочетания, придают некоторой устаревшей лексике новый смысл и значение, смешивая реальность и абстрактное мышление, создают суфийскую и мистическую терминологию и обогащают литературу новой палитрой красочных образов и понятий. В частности, в XVII веке литераторы Мавераннахра, Хорасана и Индии довели до абсолютного совершенства искусство иносказания и аллегорий, тайных смыслов, оказавшее несомненное влияние на последующие литературные периоды. В

XIX веке данная традиция была продолжена большинством литераторов, в числе которых можно упомянуть и Амира Умархана. В творчестве поэтов данного периода явно чувствуется влияние поэтов индийского стиля, который иногда называют по имени основателя данного стиля “стилем Бедиля”, с присущей ему трудностью изложения и понимания, в большинстве случаев отражающего духовное и моральное состояние человека. Однако это не свидетельствует о том, что Амир Умархан или другие поэты данного периода следовали только индийскому стилю. Индийский стиль оказал несомненное влияние на творчество ряда литераторов XIX века, но все же большинство из них были приверженцами хорасанского и иракского стилей.

Особенности творчества Амира Умархана и его поэтического мастерства были исследованы С. Айни и некоторыми учеными-языковедами в контексте других литературных проблем, однако творчество Амира Умархана еще не становилось предметом отдельного всестороннего и глубокого изучения. Подробно исследовав таджикский диван поэзии Амира Умархана, можно прийти к заключению, что он обладал подлинным поэтическим даром, являлся мастером высокого слога, истинным знатоком тонкостей персидской поэзии.

В числе характерных особенностей поэзии Амира Умархана, свидетельствующих о его высокой нравственности и поэтическом мастерстве, можно назвать трепетное отношение и изящное использование слов и словосочетаний. Содержание таджикского поэтического дивана говорит о тонком поэтическом вкусе Амира Умархана, его неистощимом таланте, неистовой мощи в создании новых слов и оборотов.

В таджикской поэзии Амира Умархана можно найти множество примеров поэтической лексики и изысканных оборотов, отражающих характерные особенности творчества поэта. В качестве примера можно привести слова “гул” (цветок), “сарв” (кипарис), “оина” (зеркало), “таъалло” (сверкание, блистание), “наво” (звук, плач, рыдание, крик), “шамъ” (свеча), “парвона” (мотылек), “нафас” (дыхание), “нарчис” (глаза, очи), “шабнам” (предраассветная роса), “гулшан” (цветник) и др., использованные поэтом достаточно часто.

К примеру, слово “наво” в творчестве Амира Умархана использовано довольно часто, поэт даже написал отдельную газель, редифом которой является слово “наво”. Следует отметить, что указанное слово в упомянутой газели в каждом бейте имеет отдельное значение и данная особенность присуща стихам многих поэтов индийского стиля. Так, в первой строке слово “наво” приведено в значении “крик, стенание”, во второй строке оно приводится в значении “путь, способ”:

Бошад ба ёди лаъли ту ушшоқ дар наво,

Парварда найситон ба умеди шакар наво... [3]

/В мыслях об устах твоих возлюбленный в стенаниях,

Растя тростник, в надежде сладость как-то получить/

В другой строке слово “наво” означает “крик”:

*Дорам ба ёди зулфи баногӯшат изтироб,
Дар шом нола дораму ваќти саъар наво [3].
/Охвачен нетерпеньем я, о локоне твоём вздыхая,
Ночами я плачу, а по утрам я в неистовом крике/*

В другой строке слово «наво» приводится в значении «рыдание»:

*То чанд аз дилам зи ғамат нола сар кашад,
То кай кашам ба ёди қадаат аз љигар наво [3].
/Доколь из сердца моего крик от тоски по тебе,
Доколь о стане твоём из души рыданья/.*

Таким образом, в каждой последующей строке слово «наво» приводится в новом значении, открывая неизведанные, неизвестные грани слова. В поэзии Амира Умархана наблюдается использование такого художественного образа, как названия птиц, и следует отметить, что поэт сочинил несколько интересных газелей с редирами «эй кумри», «эй тўти»:

*Ту хокистар шав, эй булбул, баровар шеван, эй кумри,
Агар ояд ба боғ он сарви гулпироъан, эй кумри.
Ту бо тавќи вафо нозию ман бо дидаи гирён,
Туро гул дар гиребону маро дар доман, эй кумри [3,237].
/Ты пеплом стань, о соловей, кричи, о горлинка,
Если заглянет в сад кипарис розоподобный, о горлинка.
Ты горда кольцом верности, а я - своими слезами,
Цветы на воротнике у тебя, а у меня в подоле, о горлинка/*

В творчестве Амира Умархана особое место занимают повторы, ставшие характерной особенностью его поэзии и придающие его стихам неповторимый, удивительный колорит и привлекательность.

В творчестве Амира Умархана также отразились политическая и социальная обстановка эпохи, события, происходившие в окружавшем его мире, захватнические войны, а также сражения, в которых участвовал поэт. Часто в газелях Амира Умархана можно встретить лексику, связанную с военной тематикой, слова и словосочетания, термины, относящиеся к военной терминологии, к примеру, слово «майдон» (поле битвы), «шаъодатгоъ» (место смерти), «шамшер» (сабля), «теѓ» (кинжал), «асир» (пленник). Например:

*Њар нафас чун шамъ сар дорам ба савдои ғамат,
Њакќи шамшери ту аз гардан намегардад адо.
Бо шаъидон теѓи абрўи ту шодоб дар ситам,
Бо асирон наргиси масти ту сариори љафо [3,14].
/С каждым вздохом горю, подобно свече, от тоски по тебе,
Право твоего меча никогда не спадёт с моих плеч.
Над убитыми клинок бровей твоих радуется их мукам,
Над пленниками пьяные очи твои полны насилия.*

В той же газели словосочетания “шаъодатгоҳи умед” (место гибели надежды) и “хуни бисмил” (кровь жертвы), соединившись, образовали новое, красивое значение:

Дар шаъодатгоњи уммедат њаё парвардаам,

Ранг мехезад зи хуни бисмилам љои садо [3].

/На поле гибели надежды взрастил я стыд,

Вместо голоса вскипает кровь мёртвого тела моего/.

В первом бейте поэт создал изящный образ, используя слово шамшер (меч) и оборот «чун шамъ ба савдои ғами ёр сар доштан» (гореть, как свеча, от тоски по возлюбленной), а во втором бейте слово «клинок» отражает глубину поэтического иносказания, то есть возлюбленная кокетством и надменностью изводит влюблённого, однако это непросто проследить и понять читателю: «Ты убиваешь влюблённых клинком своих бровей и жестокостью своих очей пленишь влюблённых». В данном случае «убитые» и «пленённые» есть образное олицетворение поэтом жестокости возлюбленной.

Амир Умархан прославился как талантливый поэт, имевший определенный авторитет в поэтических кругах того времени. Судя по его творчеству, он был весьма горд собственным незаурядным талантом и поэтическими достижениями, в связи с этим в поэзии Амира Умархана можно встретить немалое количество хвалебных стихов, посвящённых собственной персоне. К примеру:

Дар мулки сухан ёфтам икбол, Амири,

Љуз хомаи ман кист, дар ин давр накӯ, гӯ [3,221].

/В краю поэзии нашёл я счастье, Амири,

Скажи, есть тот, кто (пишет) лучше моего пера/.

Љаъон каламрави теғи забони ман бошад,

Амири олами маънӣ шудам, зи лаб сухан боис [3,48].

/Мир этот стал местом правления моего острого языка,

Стал правителем мира тайного, лишь с губ моих сорвались строки/.

Из приведенных примеров прослеживается, что Амир Умархан гордится тем, что он признанный поэт.

В лирической поэзии Амира Умархана широко использованы традиционные классические художественные образы, такие как шамъу парвона (свеча и мотылёк), зулфу шона (локон и гребень), гулу булбул (цветок и соловей), љоми маю сабӯ (кубок вина и кувшин), чашму абрӯ (глаза и брови), каду боло (стать и стан), которые служат для выражения его внутреннего эмоционального состояния.

Амир Умархан с большим благоговением относился к человеческим чувствам, таким как любовь и преданность, и считал людей, в сердцах которых отсутствует данное чувство, людьми не этого мира. К примеру, можно привести бейт, в котором Амир Умархан укоряет подобных людей в том, что они считают легенду о Меджнуне и Лейли просто выдумкой, хотя это истинная, непререкаемая правда:

Касе, к-у тай накарда кӯни њомуни муъаббатро

Њамон афсона донад киссаи Маънуну Фаръодаш [3].

/Кто не преодолел ещё пустынных насыпей любви,

Всё еще думает, что это сказка про Меджнуну и Фархада/

Таким образом, Амир Умархан обладал поэтическим даром, украсившим классическую литературу тонкими, драгоценными вкраплениями изящного слова и жемчужными нитями глубокой мысли, выразившимися в уникальных оборотах и словосочетаниях. Уподобления, сравнения, реминисценции, особая лексика и полет его поэтической фантазии дают возможность поставить его в один ряд с известными поэтами и литераторами поэтического круга Коканда XIX века.

Список использованной литературы:

1. Айни, Садриддин. Мирзо Абдукодир Бедил. - Сталинабад: Таджгос-издат, 1954.
2. Айни, Садриддин. Образцы таджикской литературы. [Перевод на кириллицу и корр. Мубашира Акбарзода]. - Душанбе, Адиб, 2010. - 438 с.
3. Амири. Диван. [Рукопись Национальной библиотеки Республики Таджикистан]. Номер 11/92. (на перс. языке).
4. Арберри А. Персидская классическая литература. /Перевод Асадуллаха Озода. -Тегеран, 1374. -369 с. (на перс. языке).
5. Возех, Кори Рахматуллох. Тухфат-ул-ахбаб фи тазкират-ил-асхаб [Критический текст с введением и корр. Асагара Чонфидо. Под руководством Абдулгани Мирзоева]. -Душанбе: Дониш, 1977. -227 с.
6. Матлуба Мирзоюнус. Национальная литература и диалог культур: Сборник статей по литературоведению. - Худжанд:Ношир, 2015. -516 с.
7. Маъсуми, Носирджон. Таджикская литература в конце XVIII века и начале XIX века. - Душанбе, 1962. -368 с.
8. Маъсуми, Носирджон. Таджикская литература в конце XVIII века и в начале XIX века. [Избранные труды]. Том 1. -Душанбе: Ирфон, 1977. -364 с.
9. Мухтарам, Ходжи Нёматуллах. Тазкирату-и-шуара. [с корр. и введением Асгара Чонфидо. Под руководством К. Айни]. - Душанбе: Дониш, 1975. - 369 с.
10. Намангони, Фазли. Маджмуат-уш-шуару. - Ташкент, 1900. - 502 с. (на перс. языке).
11. Ширинов Наджмудин. Развитие газели в XII веке. //Вестник ТГУПБП. - Худжанд: Ношир, №2. -2014. - С. 229-237.

ИЗУЧЕНИЯ КОКАНДСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО КРУГА В ТАДЖИКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Рухсора ДАВЛАТЗОДА

кандидат филологических наук, проректор
по международным делам ГОУ «ХГУ имени
акад.Б.Гафурова»
(Tajikiston)

Ключевые слова: Коканд, литературный круг, исследования, развития литературы, художественные значимость, тазкире. Фазлии Намангони.

Аннотация

На основе изучения и обобщения большого фактологического материала, определен общий объем произведений Амири, их жанровое разнообразие, тематический диапазон и художественное своеобразие, выявлены основные факторы динамики развития литературного круга исследуемого периода. В диссертации уделяется пристальное внимание исследованию текстологических особенностей трех литографических изданий Дивана Амира Умархана и указывается на необходимость создания научно-критического текста дивана поэта.

Key words: Kokand, literary circle, research, development of literature, artistic significance, tezkire. Fazlia Namangoni.

Annotation

Based on the study and generalization of a large factual material, the total volume of Amiri's works, their genre diversity, thematic range and artistic originality were determined, and the main factors in the dynamics of the development of the literary circle of the period under study were identified. The dissertation pays close attention to the study of the textological features of the three lithographic editions of Amir Umarchan's Divan and points out the need to create a scientific-critical text of the poet's divan.

Изучение и научное осмысление таджикской литературы Кокандского литературного круга относится к числу актуальных вопросов современного таджикского литературоведения, имеющее особое теоретическое и прикладное значение, поскольку новое видение истории развития таджикской литературы способствует познанию ее роли и значения в общем потоке развития литературы.

Исследование периодов развития и художественной значимости литературы Коканда, выявление ранее неизвестных фактов из жизни выдающихся представителей науки и литературы этого круга, определение специфических особенностей их литературного наследия, изучение литературных взаимосвязей поэтов, мировоззренческих противоречий придворных и народных поэтов, определение места социальной поэзии этого периода в таджикской литературе, влияния литературной школы Бедиля на развитие таджикской литературы, своеобразия двуязычной литературы кокандского литературного круга считается одним из значимых и своевременных начинаний для литературоведов. Несмотря на то, что жизненный путь и творческое наследие отдельных писателей этого периода были рассмотрены в целом ряде научно-исследовательских работ, однако поэтика творчества писателей Кокандского литературного круга до сих пор не подвергалось всестороннему исследованию.

Таджикская литература начала XIX подвергалась исследованию такими известными учеными как Е. Э. Бертельс, И. С. Брагинский, Абдулгани Мирзоев, Носирджон Ма'суми, Холик Мирзозоде, Расул Ходизода, Садри Са'диев, Усмон Каримов, Субхон Амиркулов, Эргашали Шодиев, Саидумар Султон и др.

Следует отметить, что в советский период литература этого круга расценивалась критиками как реакционное феодально-религиозное творчество, ввиду этого отношение некоторых таджикских литературоведов к сочинениям многих придворных поэтов было предвзятым.

Особенности развития литературы в Коканде во второй половине XIX века. Известно, что в XVIII–XIX вв. Коканд был признан значительным центром культуры и литературы, куда в надежде на покровительство царствующим особ стекались многие представители искусства и литературы. В эти годы наблюдается особый интерес представителей литературы и культуры к романтическим и сатирическим сценкам и постановкам, которые привлекали внимание правителей.

В развитии литературы исследуемого периода значительна роль Амира Умархана, поскольку эмиру не только удалось собрать вокруг себя истинных художников слова, но и создать благоприятную обстановку для развития литературы и художественного слова. Здесь оттачивали свое художественное мастерство такие известные поэты как Махмур, Гулхани, Махзуна, Мушриф, Музниб, Вазир, Махзун, Мунши, Зохид, Муджрим, Гулшани, Тоиб, Ошик, Нусрат, Ахрор, Нодир, Диловар, Джалоли, Азими, Вафои, Ма’дан, Гози, Рамзи, Шарифи, Увайси Маргилони, Фазли, Ринди и другие. Многие из них, продолжая лучшие традиции выдающихся художников слова персидско-таджикской литературы, смогли достичь успехов на литературном поприще.

В тазкире Фазли Намангони поэты литературного круга Коканда подразделяются на две группы. В первую группу он относит поэтов, тяготеющих к суфизму и вследствие того к уединению. О таких поэтах-мистиках автор тазкире сочиняет множество панегирических стихотворений. Другую группу стихотворцев объединяют поэты, в творчестве которых наблюдается усиление реалистичного отображения действительности. Эти поэты придерживались отношения с придворными литераторами.

Развитие двуязычия в литературном круге Коканда связанные с изучением своеобразия художественного стиля поэтов, сочиняющих свои произведения на двух языках – таджикском и узбекском. Занимаясь творческой деятельностью под предводительством самого Амира Умархана, они смогли прославиться и достичь высот в культурном центре в начале XIX века по образцу литературного круга Герата, основателями которого были Абдурахман Джамии и Алишер Наваи. Известно, что в этом культурном центре наравне с персидской литературой нашло свое развитие и тюркская литература, что свидетельствует о значимости традиции зуллисонайн-двуязычия в этот период.

Вместе с тем в кокандском литературном круге большинство поэтов были двуязычными, о чем свидетельствует тазкире “Маджмуат-уш-шуаро” (1822 г.) Фазли Намангани. Он сообщает о 88 поэтах, сочиняющих на двух языках, и приводит образцы их стихотворных подражаний - назира и татаббу. О двуязычных поэтах Коканда и об их взаимоотношениях более подробные сведения можно получить из исследования Э.Раджабова “Маджмуат-уш-

шуаро” Фазли Намангони и традиции составления тазкира в таджикской литературе XIX – начала XX вв.”.

Несмотря на национальную принадлежность, многие поэты достаточно успешно сочиняли свои стихотворения на двух языках, что способствовало развитию литературы Коканда в двух направлениях, как на таджикском, так и на тюркском языках.

На основе изучения и обобщения большого фактологического материала, определен общий объем произведений Амири, их жанровое разнообразие, тематический диапазон и художественное своеобразие, выявлены основные факторы динамики развития литературного круга исследуемого периода. В диссертации уделяется пристальное внимание исследованию текстологических особенностей трех литографических изданий Дивана Амира Умархана и указывается на необходимость создания научно-критического текста дивана поэта.

Цитируемая литература

1. Айни, Садриддин. Намунаи адабиёти тоҷик /С.Айни/. Подготовка к печати Мубашшири Акбарзод. – Душанбе: Адиб. – 2010. – 438 с.
2. Намангони, Фазли. Маджмуат-уш-шуаро /Фазли Намагони/. – Ташкент. – 1900. – 502с.
3. Пирмасти, Афзалмахдум. Афзалу-т-тазкор фи зикри-ш-шуаро вал ашъор./ Афзалмахдум Пирмасти /. – Ташкент, № 1336. – 178стр.
4. Садри Зиё, Шарифчон-махдум. Тазкори ашъор/ Шарифчон-махдум Садри Зиё /. Редактирование Сахобиддина Сиддика. Подготовка к печати Мухаммаджона Шакури Бухорои. – Тегеран: Суруш. – 1380/2001 – 28 с.
5. Охунджонова Н. Р. Некоторые вопросы написание татаббу’ и назира в литературном круге Коканда. / Н. Р. Охунджонова // Вестник ТГУПБП. Серия гуманитарные науки. №4 (65). – Худжанд, 2015.- С. 105-111.

ИСТОЧНИКИ И ПРИНЦИПЫ СОЗДАНИЯ «ТАБАКОТУ-С-СУФИЯ»

Шарипова М.З. – кандидат филологических наук, доцент, зав.кафедрой таджикского языка и литературы ГОУ «Худжандский государственный университет имени академика Б.Гафурова»

Ключевые слова: анализ, «Табакоту-с-суфия», Ходжи Абдаллаха Ансори, стиль, рассказ, суфизм, классификация, принципы, Гератский старец.

Аннотация

Тематический и структурный анализ «Табакоту-с-суфия» убеждает, что в книге особое место занимают вопросы истории суфизма, принципы подачи и размещения материала о жизни и деяниях шейхов, толкование основополагающих теоретических положений суфизма, комментирование

проблем, связанных с формированием и развитием суфизма, принципы классификации этих проблем и т.п.

Стили цитаты, изречения и рассказы, толкование значения высказываний шейхов, вопросы суфизма и основания первых дервишеских монастырей, комментирование противоположных точек зрения представителей различных течений и направлений мусульманства и суфизма, классификация членов сулюка и т.п. Эти научные изыскания подтверждают, что Ходжа Абдаллах Ансори в истории изучения и комментирования теоретической мысли суфизма признан как один из ведущих авторов и его «Табакоту-с-суфия» является наиболее совершенным жизнеописанием суфиев, положившим начало развитию суфийской прозы.

Keywords: analysis, "Tabakotu-s-Sufi", Khoja Abdallah Ansori, style, story, Sufism, classification, principles, Herat elder.

ANNOTATION

The thematic and structural analysis of "Tabakotu-s-Sufi" convinces that the book has a special place in the history of Sufism, the principles of presenting and distributing material about the life and deeds of the sheikhs, the interpretation of the fundamental theoretical provisions of Sufism, commenting on the problems associated with the formation and development of Sufism, principles for classifying these problems, etc.

Styles of quotation, sayings and stories, interpretation of the meaning of the sheikhs' sayings, questions of Sufism and the founding of the first dervish monasteries, commenting on the opposite points of view of representatives of various movements and directions of Islam and Sufism, classification of members of the Suluk, etc. These scientific studies confirm that Khoja Abdallah Ansori is recognized as one of the leading authors in the history of studying and commenting on the theoretical thought of Sufism, and his "Tabakotu-s-Sufi" is the most perfect biography of the Sufis, which marked the beginning of the development of Sufi prose.

Ходжа Абдаллах Ансори в истории персидско-таджикской литературы известен как поэт, писатель, знаток хадисов, комментатор, оратор, суфий, учитель, написавший ряд значительных произведений и положивший начало прозе мусаджжа'. Его заслуги неимоверно велики в теоретической и практической систематизации учений мусульманского мистицизма, комментариев, выработке критериев и периодизации духовных ступеней суфизма. Продолжая последовательно учиться, он все время путешествовал, дискутировал с оппонентами своих воззрений и в то же время являлся основателем дервишеских монастырей, специальных школ по обучению Корану, хадисам, а также сулюка, т.е. аскетического образа жизни суфиев.

По словам академика Н.Салимова, «Для определения заслуг Ансори в истории персидской прозы и особенно художественной прозы можно провести отдельное исследование, ибо его место в развитии персидской

прозы также значительно, как и в мистике. Ансори является автором многочисленных произведений, часть которых написана им самим, а другая часть – его учениками». (4,289)

История формирования и развития мистической персидско-таджикской литературы, в частности жизнеописания суфиев, связаны с научно-литературной деятельностью автора «Кашфу-л-махджуба» Абулхасаном Али ибн Усмон Джуллоби Худжвири Газнави, переводчиком и комментатором на фарси сводного трактата Абубакра Мухаммада ибн Иброхима Бухорои Калободи (ум.385/995) «Китобу-т-таарруф ли мазхаби-т-тасаввуф», Абуиброхимом ибн Исмоил ибн Мухаммад ибн Абдаллах ал-Мустамли Бухорои (ум. 434/1042), переводчика «ар-Рисолату-л-Кушайрия» Абдулкарима ибн Хавозин Кушайри и др. Благодаря им позже появились «Тазкирату-л-авлиё» Шейха Фаридудудина Атгара Нишапури, «Нафахоту-л-унс мин хазароти-л-кудс» Нуриддина Абдуррахмана Джамии, «Сафинату-л-авлиё» Мухаммада Дорошукуха и другие сочинения. Духовное наследие этих литераторов и мистиков открыло путь к широкому развитию теоретических положений исламского мистицизма.

Среди произведений Ходжи Абдаллаха Ансори «Табакоту-с-суфия» занимает особое место. Это сочинение декламировалось и комментировалось на собраниях и заседаниях его учеников и последователей. Богатая информация, точность фактов и сведений, духовное совершенство автора, его эрудиция, мировоззрение, мысли, сочинения и учения, сведения о наставниках и учениках, приведенные в «Табакоту-с-суфия», свидетельствуют о том, что шейх Ходжа Абдаллах Ансори признан как один из первых авторов персидской суфийской прозы. Эти особенности сочинений Ходжи Абдаллаха Ансори отмечены и его современниками, а также его великим последователем Абдуррахманом Джамии и другими авторами тезкире.

Современные востоковеды - Е.Э.Бертельс, В. А. Жуковский, Генри Массе, Серж де Ложье де Биюркуейль, афганский ученый Равон Фарходи, иранские исследователи - Маликушшуаро Бахор, Забехулло Сафо, Алиасгар Башир Хирави, Хусайн Хатиби, Сирус Шамисо, Абдулхусайн Зарринкуб, Баде'уззамон Фурузонфар, Хусайн Размджу, Джа'фар Субхони, таджикские литературоведы - Расул Ходизода, Усмон Каримов, Садри Саъдиев, Аълохон Афсахзод, Худои Шарифов, Амрияздон Алимардонов, Джобулко Додалишоев, Кароматулло Олимов, Абдулманнон Насриддинов, Носирджон Салимов, Умеда Гафарова, ученые, подготовившие издание сочинений Ходжи Абдаллаха Ансори - Абулхай Хабиби, Алиасгар Халаби, Мухаммадсарвар Мавлои, Ходжа Султонхусайн Гунободи и другие высказывали свою точку зрения о структуре, содержании, художественном мастерстве, языке и стиле его произведений.

Исследование и выявление литературного значения «Табакоту-с-суфия» Ходжи Абдаллаха Ансори как шедевра суфийской персидско-таджикской литературы считается крайне важным для современного литературоведения. Такое исследование позволит глубже изучить биографию шейха, его

идеологическую и творческую деятельность, личность его наставников и последователей, особенности его художественного пера, и наконец, определить его место в истории литературы и суфизма.

Ходжа Абдаллах Ансори в своей книге упоминает названия сотни сочинений как на персидском, так и на арабском языках. Поэтому становится очевидным, что наряду с «Кашфу-л-махджуб» Худжвири им были использованы перевод и персидские комментарии сводного трактата Абубакра Мухаммада ибн Иброхима Бухорои Калободи (ум.385/995) «Китобу-т-таарруф ли мазхаби-т-тасаввуф», комментарии которого написаны Мустамли Бухорои (ум. 434/1042), перевод «ар-Рисолату-л-Кушайрия» Абдулкарима ибн Хавозини Кушайри, принадлежащий перу Абуали Хасана ибн Ахмада Усмони.

В этом разделе также рассмотрен вопрос о сходстве книги “Табакоту-с-суфия” Ходжи Абдаллаха Ансори и Абуабдурахмана Сулами.

Прежде всего следует отметить, что личность Сулами, его слава как великого шейха в Нишапуре, его мастерство в толкованиях, богословии, хадисе и разных науках, его известность как автора сотен сочинений, стали причиной того, что Ансори стал его поклонником. Сулами был наставником великих суфиев Абусаида Абулхайра и Абулкосима Кушайри, что было немаловажно для Гератского Старца.

Источниками “Табакоту-с-суфия” Ансори, в том числе «Та’риху-с-суфия» и “Китоб-и само”, о существовании которых свидетельствует Худжвири (8,122).

Ходжа Абдаллах Ансори неоднократно упоминает об Абуабдурахмане Сулами и его книге «Та’риху-с-суфия», подтверждая свои слова рассказами о жизнеописании великих шейхов Абуали Сирвони, Абулхасана Хусри, Абуабдуллаха Мукри, Абумухаммада Росибии, Абулхасана Сирвони Кехин и др.

Сходство и различие в композиции и структуре «Табакоту-с-суфия» Абуабдурахмана Сулами и Ходжи Абдаллаха Ансори, а также сопоставление последнего с «Кашфу-л-махджуб» Абулхасана Али ибн Усмона Джуллоби Худжвири Гезневи аргументировано множеством примеров из названных произведений.

Стиль изложения Абдаллаха Ансори проявляется в принципах подачи и компоновки материала, его толковании, критическом подходе и сопоставлении мыслей шейхов. Ансори не только дополняет книгу Сулами новыми сведениями о своих современниках, но и представляет свое сочинение как учебное пособие. В своих меджлисах он упоминает десятки имен, однако поскольку эти имена были общеизвестны его ученикам, при написании книги они ограничивались лишь рассказами, не ссылаясь на их авторов.

Вопрос о дате сочинения «Табакоту-с-суфия», которая сводится к 481-520 хиджри, предполагается, что во время ее создания Ходжа Абдаллах Ансори был еще жив. Однако при последнем редактировании он уже

скончался, о чем свидетельствуют многочисленные молитвенные выражения за упокой его души.

В «Табакоту-с-суфия» автор приводит жизнеописание каждого шейха с упоминанием имени его отца и других предков, сообщает о месте его рождения и смерти. После биографических сведений приводятся их изречения и рассказы. Теоретические вопросы суфизма отражены в книге в небольших параграфах.

В «Табакоту-с-суфия» Сулами приводится жизнеописание суфиев с самого начала и до времени создания книги. Книга разделена на 5 частей и в каждой из них (за исключением одной) дается описание 25, в целом 123 представителей суфизма.

«Табакоту-с-суфия» Ходжи Абдаллаха Ансори включает жизнеописание 276 шейхов и состоит из 6 разделов. В издании Мухаммада Сарвара Мавлои, не соблюдено соотношение между разделами. Так, во втором и третьем разделах приведены сведения, относящиеся к четвертому, пятому и шестому разделам.

По принципам изложения содержание книги можно разделить на три группы:

1. Жизнеописания шейхов, их мысли и изречения
2. Муноджоты.
3. Отдельные разделы о суфизме и суфийском мировосприятии.

Жизнеописания шейхов в книге не всегда приводятся подробно. При описании их состояния и неземных способностей, реальных и духовных путешествий писарь всегда ссылается на слова Гератского Старца, ничего не добавляя и не убавляя. Эту мысль можно проследить и в исследовании Забехулла Сафо (6,912-913).

В «Табакоту-с-суфия» можно наблюдать следующие стилевые особенности. Одна из них - внесение в нее имен суфиев. Каждое сообщение подкрепляется именами суфиев, посредством которых по цепочке сведение дошло до нас.

В тексте книги очень часто встречаются стихотворные отрывки, преобладающее большинство которых, за исключением одного стихотворного бейта на фарси, приведены на арабском языке (1,612). Содержание книги проанализировано на основе трех ее разделов: жизнеописания шейхов, их речей и высказываний, муноджотов, а также отдельных разделов по проблемам суфизма и суфийского мировосприятия, что дало основание определить место как Ходжи Абдаллаха Ансори, так и принципов работы его ученика и последователя, переложившего речь и беседы своего наставника.

Большинство рассказов, приведенных в «Табакоту-с-суфия», чрезвычайно краткие и, это свидетельствует о своеобразии стиля изложения и писательского мастерства Ходжи Абдаллаха Ансори. Эти рассказы в основном посвящены толкованию чудодейственных сил и духовного могущества суфиев, их рассказов друг о друге, разъяснению теоретических

вопросов суфизма. Смысл этих рассказов по завершению вопросов и ответов иногда высказывается четко и ясно, а в некоторых случаях – завуалировано.

«Табакоту-с-суфия» можно назвать наилучшим образцом сохранения информации об истории таджикского языка. Лингвистические особенности этой книги, в частности такие явления, как сокращение и видоизменение, своеобразие использования некоторых глаголов и других частей речи, а также ряда грамматических элементов убеждают в особенности языка и стиля этого старинного текста.

В языке «Табакоту-с-суфия» имеются ссылки на Коран и хадисы Пророка. В тексте встречается множество арабских стихов, способствовавших украсить язык книги. Использование коранических аятов и хадисов, арабских стихов, предложений и фраз свидетельствует о широте взглядов Гератского Старца и других его соратников.

Цитируемая литература:

1. Ансори, Ходжа Абдуллох. Табакоту-с-суфия / Подготовка к изданию Мухаммада Сарвара Мавлои. – Тегеран, 1362. - 968 с.
2. Окилова М. «Тазкирату-л-авлиё»-и Шайх Фаридуд-дини Аттор (нусхашиноси, сарчашмахо ва хусусиятҳои услубию бадеи). Дисс. канд. фил. наук. - Худжанд, 2009. -152с.
3. Олимов К. Чахонбинии Абдуллохи Ансори.-Д.: Дониш, 1991.-160 с.
4. Салимов Н. Мархалаҳои услуби ва таҳаввули анвои наср дар адабиёти форсу тоҷик. - Хучанд: Нури маърифат, 2002. -398 с.
5. Салимов Ф. «Кашфу-л-махчуб»-аввалин рисолаи ирфони ба забони форс б. - Дисс. канд. филол. наук. - Худжанд, 2008.-160 с.
6. Сафо, Забехуллох. Таърихи адабиёт дар Эрон ва дар каламрави забони форси. Т.2. Тегеран: Фирдавс, 1336. -1128 с.
7. Ходизода Расул. Тасаввуф дар адабиёти форс-тоҷик.-Душанбе: Адиб, 1990.-188 с.
8. Хучвири Али ибни Усмон. Кашфу-л-махчуб / Предисловие и подготовка к изданию Махмуди Обиди.-Тегеран: Суруш, 1383.-1154 с.
9. Шамисо Сирус. Сабкшиносии наср. –Тегеран, Митро, 1377.-319 с.
10. Шарипова М. Художественные и стилистические особенности «Мунодждотнаме» Ходжа Абдаллаха Ансори. Автореф. канд. филол. наук. - Худжанд, 2007.-154 с.

АДАБИЁТШУНОС ЭРГАШАЛИ ШОДИЕВ АСАРЛАРИДА ҚЎҚОН АДАБИЙ МУҲИТИ ВАКИЛЛАРИ ИЖОДИНИ ЎРГАНИШ

**Феруза ҚАЮМОВА,
Ф.ф.н., Хўжанд давлат университети, гуманитар
ва жамиятшунослик фанлари кафедраси мудири
(Тоҷикистон)**

Аннотация

Мазкур мақолада Қўқон адабий муҳити вакиллари ижодини ўрганиш юзасидан амалга оширилган ишлар, хусусан, адабиётшунос

олим Эргашали Шодиев тадқиқотлари бўйича фикр-мулоҳазалар баён қилинган.

Калид сўзлар: Қўқон адабий муҳити, профессор Эргашали Шодиев тадқиқотлари, Фазлий Намангоний, Нозили Хўжандий, Муқимий, Фуркат, Ҳозик ижодини ўрганиш.

Аннотация:

В данной статье описывается работа, проделанная по изучению творчества кокандского литературного сообщества, в частности исследования литературоведа Ергашали Шодиева.

Ключевые слова: литературная среда Коканда, исследования профессора Эргашали Шодиева, Фазлий Намангани, Нозили Ходжандий, Муқими, Фуркат, Ҳазик.

Annotation:

This article describes the work done to study the work of the Kokand literary community, in particular, the research of literary scholar Ergashali Shodiev.

Keywords: Kokand literary environment, research of professor Ergashali Shodiyev, Fazliy Namangani, Nozili Khojandiy, Muqimi, Furkat, Haziq.

Қўқон адабий муҳити, унинг шаклланиш ва ривожланиш босқичлари, шунингдек, кенг қамровли бу муҳит вакиллари ҳаёти ва ижоди, бу давр адабиёти хусусиятлари кўпчилик ўзбекистонлик, қисман тожикистонлик ва айрим бошқа мамлакат олимлари томонидан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Айниқса, бу ҳавзанинг етук вакиллари Амирий, Нодира, Увайсий, Ҳозик, Фуркат, Завқий, Муқимий ва бошқаларнинг ижодлари нисбатан тўлиқроқ ва батафсилроқ ўрганилган. Биз эса ушбу мухтасар мақолада Хужанд илмий муҳитининг кўзга кўринган вакилларида, адабиётшинос олим, тадқиқотларидаги мавзулари баъзан жуда мухтасар бўлса-да, кенг қамровли, сермахсул олим Эргашали Шодиев тадқиқотларида Қўқон адабий муҳити вакиллари ижодини ўрганиш масалалари, олимнинг бу тадқиқотлардан чиқарган хулосаси, таҳлиллари ва у келтирган маълумотлар билан қизиқдик. Айтиб ўтиш лозимки, Эргашали Шодиев Хўжанд давлат университети профессори, адабиётшунос олим сифатида жуда кўп мавзуларга доир мақолалар эълон қилган. Э. Шодиевнинг мақолалари ва илмий рисоаларини кузатар эканмиз, унинг қўлида жуда кўп қўлёзмалар, адабий ва илмий материаллар бўлганлигининг гувоҳи бўламиз. Э.Шодиев тадқиқотларининг асосий қисми зуллисонайлик, адабий алоқалар, ижодий таъсир масалаларига бағишланиб, олимнинг икки тилдан ва жуда кўп манбалардан баҳрамандлиги туфайли турли йўналишлар ва мавзуларга қўл урган. Биз ҳозирча бу мақолаларга баҳо бериш, уларни саралаш, ёки таърифлаш фикридан йироқмиз. Бироқ шуни айтиб ўтиш лозимки, Э.Шодиев тадқиқотларидан жуда кўп маълумотларга эга бўлиш, манбалар билан танишиш, кўплаб матнларни қўлга киритиш ва шу билан бирга, манбалар манзилдан огоҳ бўлиш мумкин. Афсуски, Э. Шодиевнинг асарлари ўтган асрнинг 90-йилларида жуда сифатсиз ва кам тиражда чоп этилган ва

уларнинг кўпчилиги бугунги кун адабиётшинослиги, айниқса ёш адабиётшунослар кўлига етиб бормаган.

Айтиб ўтиш лозимки, олимнинг жуда кўп мақола ва рисолаларида Кўкон адабий муҳити, унинг вакиллари ижодининг хусусиятлари, адибларнинг Хўжанд адабий ҳавзаси билан алоқалари ёритилган бўлиб, улар ҳақида маълумотга эга бўлиш бу мавзуга кўл урадиган ҳар бир ёш адабиётшунос учун жуда муҳимдир. Бу мақола маълумотнома мақомидаги бир материал бўлиб, унда Э.Шодиевнинг Кўкон адабий муҳитини ўрганиш, унинг вакиллари ижодини ёритиш тўғрисида қилган ҳаракатлари, алоҳида мақола ва рисолалари, мақолалар тўпламлари ва бошқа шу масала билан боғлиқ тадқиқотлари тўғрисида хабар берилади.

Бу мавзуда Э.Шодиевнинг энг муҳим тадқиқоти “Ўзбек адабий алоқалари тарихидан” (1973), “Адабиётда зуллисонайнлик анъаналари” (1994), “Фазлий Намангоний ва Хўжанд шоирлари”, “Хўжанд шоирлари ва ўзбек адабиёти” бўлиб, бундан ташқари шу минтақа шоирлари ҳаёти ва ижодига бағишланган бир нечта мақолаларини қайд этиш мумкин.

“Адабиётда зуллисонайнлик анъаналари” китоби шаклан ихчам бўлса-да, унда зуллисонайнлик анъанаси ва XIX аср адабиётига доир кўплаб маълумотлар ва фикрлар берилган. Жумладан, “Ўзбек шоирлари ва тожик адабиёти” деб номланган фаслида Муқимий ва унинг тожик шоирлари, айниқса, хўжандлик шоирлар Тошхўжа Асирий ва Фахрий Рўмоний билан адабий алоқалари ва шахсий дўстликлари ҳақида ёритилади. Шунингдек, бу мақола орқали биз Фахрий Рўмоний кўли билан битилган баёздаги Муқимий, Завқий ва Фахрий Рўмонийнинг мушоираларда битилган янги шеърларининг матни келтирилади. Шунингдек Муқимийнинг Тошхўжа Асирий билан адабий ҳамкорликлари, ижодий эргашишлар ва таъсирланишлари, шунингдек Муқимийнинг тожик тилидаги шеърларининг бадий хусусиятлари тўғрисида маълумот берилади.

Шунингдек, бу фасл давомида Фурқат ва унинг тожик шоирлари билан адабий алоқалари, махсус, Хўжанд билан боғлиқ сафар ва ҳамкорликлари, Тошхўжа Асирий билан мактублари, жавобиялари, Фурқатнинг Хўжанд шахрига бўлган муҳаббати ва бошқа масалалар батафсил ва мисоллар билан таҳлил қилинган. Ушбу мақоланинг қамрови кенг бўлиб, унинг давомида тошкентлик зуллисонайн шоир Юсуф Сайёмий ва Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг тожик шоирлари билан алоқалари ва икки тилдаги ижодларининг хусусиятлари ёритилади.

Китобнинг иккинчи қисми “Тожик шоирлари ва ўзбек адабиёти” деб номланиб, унда Асирий, Возех, Фахрий Рўмоний, Зуфархон Жавҳарий, Файёз Хўжандий, Бузрукхўжа Хокий (ижоди яхши ўрганилмаган конибодомлик шоир) каби тожик шоирларининг кўконлик ўзбек шоирлари Фурқат, Муқимий, Завқий ва Мухаййир шоирлари билан дўстлик алоқалари, ижодий ҳамкорликлари, мушоиралар натижасида туғилган шеърлар матни сингари муҳим маълумотлар берилган.

Эргашали Шодиевнинг Кўкон адабий муҳити билан боғлиқ яна бир муҳим тадқиқоти “Адабиётда зуллисонайнлик анъаналари” (1994) номли

китобидир. Бу китобда маълум даражада зуллисонайнлик тарихи, унинг ривожланиш боскичлари, зуллисонайн шоирлар ижоди тўрисида маълумот берилиб, бу масаланинг Камол Хўжандий, Алишер Навоий, Бобур боғлиқ томонлари, Машрабга оид янги материаллар ёритилади, шунингдек, ундан Кўқон адабий муҳити ва унинг намояндалари билан боғлиқ алоҳида мақолалар ҳам ўрин олганки, улар тўғрисида қисқача тўхталиб ўтамиз.

Бу китобда мушим ўрин тутган мақолалардан бири “Фазлий Намангоний ва Нозил Хўжандий” деб номланади. Бу мақолада Нозил Хўжандийнинг Фазлий билан яқиндан таниш ва Кўқон адабий муҳитининг таниқли намояндаси бўла туриб, нега тазкирага киритилмаганлиги, Фазлий ва Нозилга тегишли умумий жиҳатлар, ҳамда Нозилнинг Амир Умархон саройидан қувилиши, зиндонда ўтган умрининг сабаблари ёритилади. Шу билан бирга, Амир Умархоннинг “Аваз” радифли (Нозилнинг исми Мираваз бўлган – Ф.Қ.) Нозил Хўжандийнинг ҳолига кулиб ёзган ғазали ва Фазлийнинг “итоат юзасидан” унга ёзган жавобиясининг матни ҳам келтирилади.

Саройдан Нозил билан бирга қувилган Фазлий “Умарнома” асарини ёзиб, иккинчи маротаба саройга қайтган бўлса-да, Нозил саройга қайтмаган ва жуда оғир ҳаёт кечирган. Фазлий ҳам Амир Умархон вафотидан кейин ғарибликда умр кечиради. Нозил ва Фазлий ҳаёти ва ижодининг шу каби умумий ва фарқли томонлари ушбу мақолада батафсил таҳлил этилган.

Мазкур китобдаги кейинги бир мақола Гулханий ва Нозил ҳақида бўлиб, унда Нозилнинг Кўқонда яратган “Зарбулмасал” асари, унинг янги топилган қўлёзмаси, Гулханийнинг “Зарбулмасал”-и билан фарқли ва ўхшаш томонлари ҳақида сўз юритилади. Нозилнинг ўз асарида келтирган икки тилдаги мақол ва зарбулмасаллардан таркиб топган шеърий парчалардан намуналар ҳам мақолада кўрсатилган.

Жунайдулло Ҳозик ҳам Кўқон адабий муҳитининг етук намояндаларидан саналиб, ўзининг баракали ижоди билан, айниқса “Юсуф ва Зулайхо” асари билан икки халқ орасида шуҳрат қозонган машҳур шоир саналади. Э.Шодиев навбатдаги икки мақоласи Ҳозик тўғрисида бўлиб, унинг биринчисида Ҳозик куллиётининг қўлёзмасини Конибодом шаҳридан қўлга киритганлиги, унинг тўрт қисмдан иборатлиги маълум қилиниб, шоир ижодидан баъзи намуналар таҳлил этилади. Иккинчи мақолада эса олим Ҳозикқа оид қўлга киритилган янги маълумотларни биз билан ўртоқлашади, яъни Ҳозикнинг янги топилган куллиёти таркибида бугунги кунга қадар адабиётшунослигимизга маълум бўлмаган икки рисола “Воқеоти исломий” (тожик тилида) ва “Авлодлар силсиласи тарихи” (шартли равишда номланган) ҳақида, бу рисолаларнинг мазмун моҳияти, мундарижаси тўғрисида берилиб, шунингдек, мақола бир нечта манбалар асосида Ҳозик ҳаёти ва ижодига боғлиқ янги далиллар билан бойитилган.

Профессор Э.Шодиев кейинги бир мақолада Кўқон адабий муҳитининг забардаст намояндаларидан бири бўлган Муҳаммадшариф Гулханийнинг туғилган ватани тўғрисида маълумотларнинг хилма-хиллиги, уларнинг қай бири ҳақиқатга яқинлиги, шунингдек, Фазлий тазкирасидаги Гулханийнинг

туғилган ерига ишора қилувчи далиллар ўрганилиб, мақола сўнгида Э.Шодиевнинг манбалар асосидаги тахмин ва хулосалари қайд этилган.

Олимнинг “Фазлий Намангоний ва Хўжанд шоирлари” китобида эса Амир Умархон саройининг машхур намояндаларидан бири Фазлий Намангонийнинг “Мажмўат-уш-шуаро” тазкираси ва шу тазкирага киритилган Қўқон адабий муҳити вакиллари бўлган хўжандлик шоирлар, Фазлийнинг уларга муносабати, улар ҳақида берган маълумотлари тўғрисида фикр юритилади. Маълумки, ҳар бир даврда Қўқон ва Хўжанд шаҳарлари орасида ижтимоий, иқтисодий, маданий, илмий ва адабий алоқалар барқарор бўлган. Айниқса, Қўқон хонлиги даврида, ўзи ҳам ижодкор бўлган Амир Умархон ҳукмронлигида бу алоқалар яна-да мустаҳкамланиб, шоирларнинг бу хонлик ва бу адабий муҳитга интилишлари кучайганининг гувоҳи бўламиз. Шу сабабли ҳам Фазлийнинг тазкирасида кўпгина хўжандлик шоирлар, жумладан, Нузҳат Хўжандий, Росих Хўжандий, Маъюс Хўжандий, Кошиф Хўжандий, Ҳотиф Хўжандий, Равнақ Хўжандий, Мутриб Хўжандий, Зиннат Хўжандийлар киритилган ва уларнинг ҳар биридан ижодий намуналар келтирилган. Шу сабабли ҳам Э.Шодиев бу масалани ўрганиб, ўз фикрларини ихчам бир рисола шаклида нашр эттиради.

Э.Шодиевнинг Қўқон адабий муҳити билан боғлиқ алоҳида мақолалари ҳам давр матбуоти ва турли мақолалар тўпламларида кўплаб эълон қилинган бўлиб, улар Дилшоди Барно, Анбар отин, Муаззамхон, Нозимахоним каби зуллисонайн шоиралар, Завқий, Муқимий, Фазлий ва бошқа шоирлар ҳаёти ва ижодига бағишланади.

Шундай қилиб, профессор Э.Шодиев илмий асарларини ўрганиш, унинг тадқиқ этган мавзулари билан танишиш, уларнинг мазмун ва моҳияти, илмий аҳамиятини баҳолаш, энг муҳими, олимнинг кам тиражда чоп этилган асарларини қайтадан нашр қилиш, нафақат Қўқон адабий муҳитини ўрганиш, балки ўзбек ва тожик адабий алоқалари тарихи, бу икки адабиёт орасидаги таъсирланиш, таржима, татаббуъ масалаларини тадқиқ этишда жуда қўл келади. Айтиш лозимки, Э.Шодиевнинг айрим мақолалари жуда қисқа ва лўнда берилган бўлиб, уларнинг кўпчилиги библиографик хусусиятга эгадир. Бироқ, энг қисқа мақола ҳам келажакда шу мавзуга қўл урадиган ёш тадқиқотчи учун муҳим манба вазифасини ўташи мумкин. Шу сабабли биз бу мақолада олимнинг Қўқон шоирларига оид энг муҳим тадқиқотларнинг мухтасар маълумотномасини тайёрладик. Ўйлаймизки, бу маълумотлар икки адабиётшунослик учун ҳам муҳим аҳамиятга эга бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шодиев Э. Хўжанд шоирлари ва ўзбек адабиёти. – Душанбе: Ирфон, 1986. – 166 б.
2. Шодиев Э. Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 120 б.
3. Шодиев Э. Адабиётда зуллисонайнлик анъаналари. – Хўжанд: Раҳим Жалил, 1994. – 168 сах.
4. Шодиев Э. Камол Хўжандий. – Хўжанд: Раҳим Жалил, 1996. – 40 сах.

5. Шодиев Э. Шоираҳои тоинкилобии Хучанд. – Душанбе: Ирфон, 1986. – 62 сах.
6. Шодиев Э. Завқӣи Хўҷандда/Завқӣи иҷоди(мақолалар тўплами). – Фарғона, 2008. – 6 б.
7. Шодиев Э. Фазлий Намангонӣи ва Хўҷанд шоирлари.-Хўҷанд, 1993. -71 б.

РЕДКИЙ ИСТОЧНИК В КОКАНДОВЕДЕНИИ

Нумондҷон НИГМАТОВ,
доктор философии (Phd),
Худжандского государственного
университета имени Б.Гафурова,
(Таджикистан)

Калит сўзлар: Қўқон, манба, тарих, Қўқон хонлари, Амир Умархон, Муҳаммад Алихон, "Бухоро, Қўқон ва Қошғар тарихи", таржимон.

Мақола Мирзо Шамс Бухорийнинг "Бухоро, Қўқон ва Қошғар тарихи" асарини ҳар томонлама ўрганишга бағишланган. Муаллиф бугунгача жуда кам ўрганилган қўқоншуносликдаги муҳим манбалардан бири ҳақида сўз юритган. Шунингдек, мақолада "Бухоро, Қўқон ва Қошғар тарихи"нинг ёзилиш тарихи, асарнинг тузилиши ва мундарижаси, воқеа-ҳодисаларни шарҳлаш усули, китобнинг илмий аҳамияти ва бошқа масалалар батафсил таҳлил қилинган.

Ключевые слова: Коканд, источник, история, Кокандское ханство, Эмир Умархан, Мухаммад Алихан, «История Бухары, Коканда и Кашгара», переводчик.

Статья посвящена рассмотрению особенностей историко-литературного сочинения Мирзы Шамс Бухари – «История Бухары, Коканда и Кашгара» и его значения, как важнейшего исторического источника в познании истории Кокандского ханства. В статье подвергаются исследованию вопросы, связанные с историей создания произведения, с его структурными особенностями, идейным содержанием, способами интерпретации фактов самим Бухари и др. Автор статьи также уделяет пристальное внимание анализу составных частей этого историко-литературного источника, на основе которого приходит к важным результатам.

Keywords: Khukhand, source, history, khans of Kokand, Amir Umarkhan, Muhammad Alikhon, "The History of Bukhara, Kokand and Kashghar", translator.

Designing on the premise of the comprehensive presentation beset with "The History of Bukhara, Kokand and Kashghar" by Mirzo Shamsi Bukhara the author of the article wrote the given article. In his article the author presents one of the most important sources targeted at the theme explored, which is still scanty-known. Later on, the author of the article considers the issues concerned with the

history of writing, structure, content, and methods of interpretation of the former and scientific status of the book under study and others in details. In particular, the author of the article canvasses the book consisting of two parts.

Письменные источники, содержащие сведения исторического характера для изучения и научной интерпретации литературно-исторического, художественного, политического и социального положения того или иного региона или страны, представляют большую ценность для освещения малоизученных страниц истории и культурогенеза народов и народностей. К числу таких авторитетных источников относятся историко-литературные сочинения Наршахи – «История Бухары», Абдулгаффара ибн Исмаила – «История Нишапура», «История Систана» неизвестного автора, Васе' аль-Ймени – «История Йемена», Хатиба аль-Багдади – «История Багдада», «История Медины», «История Мекки», «История Дамаска» и десятки других памятников письменности, ставшие бесценным источником изучения истории и культуры городов.

Среди ценностных источников изучения истории таджикского народа историко-литературное сочинение Мирзы Шамс Бухари – «История Бухары, Коканда и Кашгара», написанное на персидском языке, относится к числу авторитетных источников изучения материальной культуры Кокандского ханства.

Согласно сведениям французского востоковеда Шарль Анри Огюст Шефера историческая хроника «История Бухары, Коканда и Кашгара», написанная Мирза Шамс Бухари по просьбе В.В. Григорьева и переведенная с персидского на русский язык, впервые была опубликована в 1860 году в Казани. Впоследствии по велению Мас'уда Мирзо сына шаха Насир-уд-дина книга Бухари была переведена с русского на персидский язык Мухаммедом Хасанханом 14-го числа месяца сафар 1321 года.

К сожалению, оригинальный текст этой книги, написанный на персидском языке, не был в то время издан.

Следует отметить, что в 1784 году историк поступил на службу ко двору Амира Шахмурада (1784-1800), где и стал вести записи событий, произошедших в Бухаре, Коканде и Кашгаре в 1859 году н.э., во полномерном описании которых ему помогало знакомство и беседы со служителями двора и очевидцами событий.

Таким образом Бухари удалось запечатлеть в письменной форме и сохранить хронику социально-политических, религиозных и общественных событий ханства этого периода, и в этой связи показать роль некоторых ученых, поэтов и общественных деятелей в описанных событиях, в чем и заключается художественно-эстетическая ценность данной книги.

Книга состоит из двух частей, каждая из которых датируется 1859 годом.

Первая часть книги начинается с описания событий периода правления Амира Хайдара и заканчивается летописью правителей Кашгара.

Во второй части книги, которая начинается с описания биографии Амира Шахмурада (1784-1800), освещаются события, связанные с именем Джахонгир -ходжи.

Вне всякого сомнения, первая часть книги принадлежит перу самого Бухари, однако в отношении авторства второй части, существуют некоторые сомнения и, вероятно, эта часть является дополнением издателя книги – В.В. Григорьева.

В первой части своей исторической книги Мирза Шамс Бухари повествует о событиях бухарского двора, в частности о сражениях и столкновениях, произошедших в то время. Однако писатель, как и другие летописцы того времени, не дает детальное описание каждого события. Вместе с тем эта часть книги представляет большую ценность, поскольку сам автор был очевидцем этих событий, о чем свидетельствуют слова самого Бухари, который отмечает: «Как бы то ни было, ваш покорный слуга – Мирза Шамс все видел своими глазами и сохранил как свидетельство на этом листе» [1, 108].

Во второй части книги, которая, по всей видимости, является дополнением самого В.В. Григорьева, приводятся сведения о городах, и правителях и эмирах этих городов, однако сведения о деятелях науки, культуры, литературы и искусства достаточно скудны. Вместе с тем, названия некоторых древних городов Мавераннахра и Средней Азии, упомянутые в этой части книги, сегодня претерпели изменения, и с этой точки зрения представляют большую ценность для историографии, поскольку позволяют получить сведения об исконных и древних названиях того времени.

Однако во второй части книги в ряде случаев не соблюдается хронологический порядок событий Бухарского ханства. В этой связи автор книги –Мухаммадакбар Ашик предпринимает попытку устранения этих недостатков и, по мере возможности, пытается восстановить хронологический порядок событий. Следует отметить, что в этой части книги с точки зрения языка и стиля изложения, порой, трудно отличить слова переводчика книги– В.В, Григорьева от слов самого автора - Мирзы Шамс Бухари, причиной чему, на наш взгляд, является способы передачи реалий оригинала, избранные переводчиком. Для достоверной оценки адекватности перевода необходима рукопись, то есть оригинал текста самого Бухари или же русский перевод книги, которыми, к сожалению, мы не располагаем. Наблюдения показывают, что некоторые несоответствия в названиях

отдельных городов и селений и изменения в именах правителей и эмиров, обусловлены отсутствием в русском языке фонем некоторых персидских букв, в результате чего в текст перевода были введены ряд новых лексем.

Следует отметить, что в ходе подготовки книги Мухаммадакбар Ашик стремился не вносить изменения в текст перевода и сохранить ее исконную форму. Например, там где дата, год или же слово приведены с ошибками, переводчик приводит их в той же форме, а исправления вносит лишь в своих примечаниях и комментариях.

Изучение структурных особенностей книги Бухари показывает, что комментарии и указания сочинения также представляют собой весьма важную и обширную часть, в которую входят указатели аятов, хадисов, стихов, поэтических терминов, имен, географических названий, сочинений, племен и народностей. Также в книге приводятся сноски, содержащие заслуживающие внимания сведения.

В некоторых случаях автор использован поэтический стиль изложения, примером чему может послужить следующий стихотворный отрывок, заимствованный из первой главы «Гулистана» Саади [6, 25]:

Сари чашма бояд гирифтан ба бел,
Чу пур шуд нашояд гузаштан ба пил [1, 70].
Источник засыпать лопатой — не труд,
Рекой полноводной слоны не пройдут.

Или же по случаю болезни Амира Умархана, которого посещает Мухаммад Алихан вместе со своим лечащим врачом, автор приводит следующие бейты из «Маснавий ма'нави» Мавлана:

Њарҷи карданд аз илољу аз даво,
Гашт ранљ афзуну иллат нораво [1, 97].
Все, что применили они из лекарств и из снадобья,
обернулось страдания ростом и крушением надежд.

Или же другой пример. О завоевании Амиром Насрулло Бухары и его жестоком обращении с жителями этого города автор отмечает:

Бар ман аст имрӯзу фардо бар вай аст,
Хуни мазлумон чунин зоеъ кай аст.
Постигло меня сегодня, а завтра постигнет его.
Кровь, угнетенных, когда так пропадет?

Текстологический анализ бейтов показал, что эти строки заимствованы из «Маснавий ма'нави» Мавлана, однако второй бейт приведен с некоторыми изменениями, поскольку в сочинении Мавлана последняя строка приводится иначе:

Хуни чун ман кас чунин зоеъ кай аст [5, 11].
Чья же кровь, подобная моей, когда так пропадет?

Следует отметить, что автор, используя строки из Мавлана, не упоминает его имени, однако это не опровергает тот факт, что писатель

хорошо знаком с наследием великих поэтов таджикской литературы – Мавлана и Саади.

В некоторых случаях автор использованы также аллюзии на Коранические аяты, что свидетельствует о многогранности творчества этого литератора. Описывая кончину Хусайнходжи – эмира Кашгара, писатель пишет: «После свидания с братом в ту же ночь наступила смерть Хусейнходжи и тогда был зачитан аят «Когда же наступает их срок, они не могут отдалить или приблизить его даже на час» (Сура аль-А'раф, 34–Н.Н.) [1, 99].

В другом месте, где Амир Хусейн прощает одного из министров, автор цитирует: «Амир прочитав аят «Тех, кто расходует в достатке и в нужде, Кто, сдерживая гнев, прощает людям», зачеркнул пером прощения прегрешения в прошедших деяниях» (Сура Семейство Имрана, 134) [1, 86].

Таким образом, в книге запечатлены важнейшие исторические события, произошедшее во времена правления бухарских и кашгарских эмиров, что удостоверяет ее значимость как ценного литературного, научного и исторического источника древности. В целом в исследуемом сочинении нашли отражение важнейшие события произошедшие в таких домах Кокандского ханства как династия – Шохруха, Рахима, Абдулкарима, Сулеймона, Шохрух-и Сони, Бузбута, Алимхана, Мухаммад Умархана, Мухаммед Али, Шерали, Муродхона, Худоярхана, Мулло, Сайидсултана, Носируддина.

Историко-литературное сочинение Мирзы Шамс Бухари – «История Бухары, Коканда и Кашгара» признано одним из ценностных источников изучения социально-политического и культурного положения Кокандского ханства и содержит редчайшие свидетельства литературных кругах и центрах этого периода, оказавших глубокое влияние на литературную и социальную жизнь таджикского народа в этот и последующие периоды.

Литература:

1. Бухари, Шамс. История Бухары, Коканда и Кашгара. Введение, комментарии и исследование Мухаммадакбара Ашика. – Тегеран: Наследие писем, 1377. – 340 с.
2. Гафуров, Бободжон. Таджики. Древняя, древняя, средневековая и современная история. – Душанбе: Ирфон, 2010. – 870 с.
3. Дехудо, Алиакбар. Словарь. – Т.7. - Тегеран: Фирдоуси, 1335.
4. Каюмов А. Кокандская литературная среда. – Ташкент: ФАН Узбекской ССР, 1961. – 359 с.
5. Мавлана, Джалал ад-Дин Мухаммад. Маснавий ма'нави / Под редакцией доктора Тауфика Субхани. – Тегеран, 1373. – 1005 с.
6. Саади Шерози. Гулистон / Под редакцией Сахобиддина Сиддикова. Подготовил Мубашшир Акбарзод. – Душанбе: Просвещение, 2014. – 248 с.

РОЛЬ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУРРАХМАНА ДЖАМИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЕЖИ

Замира КАЮМОВА

соискатель кафедры таджикского языка
и литературы факультета восточных
языков ГОУ «ХГУ имени
акад.Б.Гафурова»
(Tojikiston)

Ключевые слова: молодежь, Абурахман Джами, взгляды, гуманизм, литературоведение, произведения, учебный процесс.

Аннотация

Было бы неверным ограничивать использование гуманистических идей средневековых мыслителей таджикского народа только при изучении гуманитарных дисциплин (родной язык, родная литература, история, подобному) в учебно-методическом процессе, хотя, конечно, здесь их изучение, анализ и применение более эффективно и уместно, по крайней мере, при традиционном подходе к их востребованию в школьной жизни. Однако, на наш взгляд, потенциал воздействия их воззрений можно расширить, используя эти идеи, цитируя великих мыслителей при наглядной агитации (при оформлении школы, учебных классов), оформлении утренних линеек, утренников в школе (в детском саду), проведения вечеров вопросов и ответов, диспутов, олимпиад, кружковой работы молодых защитников прав и свобод личности, молодых гуманистов, защитников природы и т. д.

Keywords: youth, Abdurakhman Jami, views, humanism, literature, works, educational process.

Annotation

It would be wrong to limit the use of the humanistic ideas of medieval thinkers of the Tajik people only when studying the humanities (native language, native literature, history, etc.) in the educational process, although, of course, here their study, analysis and application is more effective and appropriate, according to at least with the traditional approach to their demand in school life. However, in our opinion, the impact potential of their views can be expanded by using these ideas, citing great thinkers in visual agitation (when designing a school, classrooms), designing morning rulers, matinees at school (in kindergarten), holding question and answer evenings, disputes, competitions, group work of young defenders of the rights and freedoms of the individual, young humanists, environmentalists, etc.

В современных условиях понимание своеобразия национальной культуры, целостное восприятие богатства духовных ценностей мусульманского педагогического наследия невозможно без глубокого изучения проблем образования и педагогической мысли прошлого, в особенности, просветителей. Происходящие в настоящее время в Республике Таджикистан социально-культурные, экономические перемены направлены

на совершенствование качества учебно-воспитательной работы среди подрастающего поколения и определение наиболее эффективных путей решения данного процесса.

Возрастающий интерес к педагогическому наследию прошлого в Таджикистане обусловлен вполне осознанной необходимостью восполнить пробел в объективном, научном исследовании особого пласта национальной культуры, концептуальном осмыслении того, что было внесено выдающимися персидско-таджикскими поэтами-просветителями в развитие истории, теории и практики педагогической науки.

Великий таджикско-персидский поэт-мыслитель Востока А. Джами, являющийся завершителем литературы XV века, внес неоценимый вклад в становлении и развитии педагогической науки. Золотая осень классической поэзии, синтез всех её идейных художественных достижений отразились в творчестве великого мыслителя А. Джами.

Осуждая ложь и обман, он восхваляет порядочность, честность и правдивость в человеке и заявляет: правда спасает этот и потусторонний мир; правда, это святилище мира; кто говорит правду того любить и лжец; безбожник, говорящий правду, лучше чем лжец-мусульманин и т. д.

Джами осуждает вероломство и предательство как отрицательные нравственные пороки человеческого общества, советует подрастающему поколению, что: «если хочешь, чтобы твои ноги не попали в яму, держи свои руки в чистоте» или «чужую вещь считай как горящий огонь и не тронь её».

Джами нравственность считает основным стержнем воспитания человека и призывает людей творить добро, предостерегает от дурных поступков. Например, не держи зла на человека, зло это отрицательное качество людей; если я творю добро, то это приносит пользу мне; если я совершаю плохие поступки, то это наносит мне вред.

Он пронёс гуманистическую эстафету, переходившую от поэта к поэту, начиная с Рудаки, воспевал идеал свободной человеческой личности:

**Сталь закалённую разгрызть зубами,
Путь процарапать сквозь гранит ногтями,
Нырнуть вниз головой в очаг горящий,
Жар собирать ресниц своих совками,
Взвалить на спину ста верблюдов ношу,
Восток и Запад измерять шагами —
Ведь это для Джами гораздо легче,
Чем голову склонить пред подлецами.**

(пер. В. Державина – 1, 28)

Идеал Джами — совершенный человек, эстетика Джами — эстетика уравновешенного синтеза, сохранения тех достижений поэзии, которые были так блестяще добыты его предшественниками.

Джами, как выдающийся просветитель гуманистической направленности, в центр всех своих произведений ставит человека, с его жизненными проблемами, утверждающую чистоту и непорочность человеческой природы, которую надо сохранить воспитанием и

самовоспитанием. Им выделяются, прежде всего: умение честно трудиться, творить добро, приносить пользу людям, быть сдержанным. Он призывает воспитывать в людях честность и правдивость, скромность и щедрость, любовь к знанию, презрение ко лжи, высокомерию и несправедливости. Как и другие просветители, он ставит развитие способностей человека в зависимость от воспитания.

«Если в центре сўфийско-пантеистической концепции Джами стоял бог, то в центре его гуманистической концепции стоит человек». Здесь вместо религиозно-аскетических идей о греховности плоти и земной жизни провозглашается право человека на удовлетворение его земных потребностей, наслаждение, выдвигается идея свободной личности и справедливого общественного устройства.

Продолжая древние традиции, Джами создаёт увлекательные притчи с мистическим толкованием. Гуманистический смысл некоторых притч, например, о двух соколах, служат ярким примером формирования просветительско-педагогической концепции Джами:

**Сокол соколу сказал однажды:
Стоит ли томиться нам от жажды?
В этой скучной, золотой да синей,
С детства опостылевшей пустыне?
В дальние края бы нам подняться,
На руках у хана красоваться!
Отвечает старый сокол молодому:
«Глупый, затоскуешь ты по дому.
Лучше нам ютиться в этих скалах,
С голоду клевать верблюдов палых,
С холоду дрожать озябшим телом,
Спать от суховея поседелым.
Чем на лоне в царственном покое,
Чувствовать колечко золотое».**

(пер. И. Сельвинского – 1, 67).

Важнейшее требование, которое предъявляет Джами к просвещённому и добродетельному монарху — это справедливость. Джами призывал людей к справедливости, к доброй деятельности. Его обращения к царям и вельможам, беспощадно эксплуатировавшим народ, имели целью повлиять на угнетателей, направить их на путь добра и этим самым освободить народ от насилия. Он пишет:

**О ты, обративший лицо к престолу и перстню,
Доколе будут существовать престол и перстень,
Всё царство бытия будет свергнуто,
Ии времени, ни земли не останется.
Пока можешь, в мире твори благо,
Ибо от всего мира только это у тебя останется [1, 21].**

Джами считает очень важным фактом в жизни молодого поколения овладение знаниями. С точки зрения Джами, знание освещает человеку путь

в жизни и помогает ему преодолеть все трудности и препятствия, встречающиеся на пути к достижению цели. Джамии не отрицает важной роли воспитания в формировании личности ребёнка. Он уверен, что при помощи воспитания можно выработать у детей лучшие человеческие качества: чувство дружбы и товарищества, скромность, правдивость, щедрость, трудолюбие.

Джамии продолжал гуманистические традиции своих предшественников. В этом вопросе он испытывал на себе благотворное влияние Рудаки, призывающего творить «добрые дела:

**О, юноша, духу величья учись,
У опытных в жизни отличью учись.
От сердца злодейский совет отклоняй,
От уст своих речи клевет отклоняй.
Добром отвечай постоянно на зло,
Врагу оно пользу едва ль принесло.
Когда же ты доброе дело творишь,
К тебе возвратится то добро лишь [1, 23].**

Если творение добра — цель человеческой жизни, значит, достигает своей цели в жизни тот, кто питает радостью и счастьем других и оставляет после себя добрую память.

**«Весь мир,— сказал мудрец,—
земных страстей свидетель,—
Народной жизни чистая тетрадь,
Блажен, кто добрые слова, кто добродетель
Сумел в тетради чисто начертать» [1, 30].**

Джамии считает жизнь наставником молодёжи и призывает учиться у неё творить добро:

**Наукой жизни избери доброй
Иди путём добра, твори добро!
Дороже золота и серебра
И выше власти — знание добра.
Жизнь человеческая коротка,
Но имя доброе живёт века.
Под этим грозным куполом плыви
По вечным звёздам правды и любви [1, 35].**

Из этих высказываний мы видим, что человек бессмертен только своими добрыми делами: если он умирает, то его доброе имя живёт века. Поэтому Джамии призывает молодёжь учиться добру у всех людей, независимо от их положения в обществе:

**Добру учись у всех, и у тех, кто ничтожнее тебя,
что за беда,
Если прямизна линейки золотых дел мастера
происходит от линейки деревянной.
Ценность высокого и низкого зависит от меры
добродетели,**

В шаховском замке страж на крыше, а привратник у ворот [1, 36].

Здесь, по мнению М. Арипова, содержится намёк на моральный облик господствующих классов. У Джами гуманизм включает в себя не только любовь к человеку, но и ненависть к его угнетателям.

Е. Э. Бертельс. в своей монографии приводит отрывки из книги «Саламон и Абсаль», где Джами, обращаясь к правителям, требует не грабить угнетённых и не давать угнетателям присваивать их имущество. Чтобы первые не «попали в «жуткую нищету» и последние не тратили собранные за счёт ограбления угнетённых средств на «разврат и насилие», чтобы правители наподобие того, как пастух, охраняет стадо от волков, охраняли своих подчинённых от внешних врагов и внутренних угнетателей, не забывали, что пёс, предназначенный для охраны стада, ещё опаснее, если он сдружится с волком» [2, 6].

«Отсюда, – как замечает Е. Э. Бертельс, – Джами делает дальнейший вывод. Любовь к человеку не будет полной, если она не будет в нужное время сочетаться с ненавистью ко всем тем, кто эту любовь хочет нарушить, нужно быть беспощадным, нужно бороться со всеми теми, кто унижает и притесняет человека» [2, 7]. Однако, противореча себе, Джами, вместе с тем, призывая к борьбе против зла, иногда склонен на зло отвечать добром;

Любит добрых всякий, кто есть в мире,

Если ты злых любишь, то ты всех победил.

На наш взгляд, здесь Джами зло считает болезнью человека, а лекарством от такого зла является добро и надо быть доброму человеку выше земных притязаний и победить зло только добром, т. е. божественным даром, ибо доброта — божественное начало в человеке.

Знаменательно то, что согласно воззрению Джами, все злодеяния исходят от сильных мира сего, от правителей и власть имущих, а мудрецы и люди, наделённые знаниями и живущие честным созидательным трудом, как правило, добрые, потому что их труд сам по себе добро. И это добро направлено против зла и когда говорит, что зло надо победить добром, имеет в виду именно эту философскую грань труда, что до сих пор некоторыми исследователями истолковывается как наивное противоречие, берущее начало от учения Корана, что в корне неверно.

Таким образом, мы убеждены, что великий Джами в своих гуманистических воззрениях впервые труд квалифицировал как Добро, а тунеядство, эксплуатацию, беспечность как Зло. Иначе говоря, добро, являясь созидующим началом, созидает человека, его нравственный мир, моральный облик, доброе имя, материальные блага, мирную жизнь, процветания городов и сёл и т.д., что является первой вершиной гуманистических идей Джами. Зло наоборот, являясь противоположностью добра, разрушает человека, человеческое счастье, порождает войны, кровопролития, противостояния, лишения, нищету и разруху. Вот почему Джами призывает, допускает и даже в некоторых произведениях настаивает добром победить зло, т.е. этим трудом облагородиться, победить зло в себе, а

потом в других. К сожалению, эти глубокие гуманистические идеи Джами, которые берут начало в древнейшей культуре и философских воззрениях Востока, до сих пор исследователями европейской науки и культуры не поняты и истолкованы поверхностно, сводя это только лишь к религиозной ограниченности мыслителя.

Ещё важнее то, что Джами настаивает на том, чтобы молодёжь училась добру, чтобы в жизни успешно могла противостоять злу. Добро — это свет, а Зло — это тьма. Из этого следует, что гуманизм Джами является ядром его педагогических воззрений. Это, на наш, взгляд, является второй вершиной гуманистических идей Джами. Он впервые внедряет добро, т. е. гуманистические отношения в школу, её учебный процесс. Он восклицает:

**Урок учителя, если воспет любовью,
Даже пятница привлекает прогульщика в школу.
Он непосредственно обращается к детям:
О юноша, духу величья учись,
У опытных в жизни отличью учись...**

(подстрочник наш)

Эти и многие другие примеры в многочисленных произведениях Джами свидетельствует о том, что великий мыслитель свои гуманистические идеи, хотя, казалось бы, и посвящал правителям, но сознательно и целенаправленно посвящал в основном юношам и молодёжи. Поэтому не случайно его произведения изучались в мусульманской школе и медресе, высших учебных заведениях Республики Таджикистан.

Это объясняется тем, что великий мыслитель в своих произведениях придавал значение роли воспитания с детского возраста, обращая особое внимание именно на доброту, щедрость, сопереживание, справедливость, дружбу, трудолюбие, скромность, честность, что является, по мнению Джами, главными человеческими качествами и компонентами гуманного отношения к себе подобным.

Было бы неверным ограничивать использование гуманистических идей средневековых мыслителей таджикского народа только при изучении гуманитарных дисциплин (родной язык, родная литература, история, подобному) в учебно-методическом процессе, хотя, конечно, здесь их изучение, анализ и применение более эффективно и уместно, по крайней мере, при традиционном подходе к их востребованию в школьной жизни. Однако, на наш взгляд, потенциал воздействия их воззрений можно расширить, используя эти идеи, цитируя великих мыслителей при наглядной агитации (при оформлении школы, учебных классов), оформлении утренних линеек, утренников в школе (в детском саду), проведения вечеров вопросов и ответов, диспутов, олимпиад, кружковой работы молодых защитников прав и свобод личности, молодых гуманистов, защитников природы и т. д.

Литература:

1. Джами А. Лирика о слове и поэтах.—Душанбе: Ирфон, 1964.
2. Афсахзод А. Абдурахман Джами, его время и творчество Джами.—Избранные произведения.—Ленинград, 1978.

3. Брагинский И. С. Из истории таджикско-персидской литературы.– Москва: Наука, 1970.
4. Бертельс Е. Э. Джами.–Сталинабад: Таджикгосиздат, 1949.
5. Каримова И. Х. Гуманистические воззрения средневековых мыслителей таджикского народа: воспитательный потенциал и трансформация в современную жизнь.–Душанбе, 2000.

ЭККУРС ПО ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОЙ АНТОЛОГИИ КОНЦА XIX- СЕРЕДИНЫ XX

Мархабо КАСЫМОВА,

кандидат филологических наук, доцент,
зав.кафедрой персидского и китайского
языков ГОУ «ХГУ имени акад Б.Гафурова»
(Tojikiston)

Аннотация

На сегодняшний день отсутствует всестороннее монографическое исследование, посвященное тезкире ученых конца XIX и начала XX веков. Поэтому при изучении важнейших особенностей традиции составления тезкире второй половины XIX и начала XX вв. возникает необходимость исследования тезкире и выявления их литературной и исторической ценности.

Ключевые слова: экскурс, литература, антология, Мавераннахр, тезкире, традиция, литературоведение.

Annotation

To date, there is no comprehensive monographic study on the tezkira of scientists of the late 19th and early 20th centuries. Therefore, when studying the most important features of the tradition of compiling tezkire in the second half of the 19th and early 20th centuries. there is a need to study tezkire and identify their literary and historical value.

Key words: digression, literature, anthology, Transoxiana, tezkire, tradition, literary criticism.

В истории персидско-таджикской литературы Мавераннахра с древнейших времен до наших дней в различных отраслях литературных наук созданы ценные труды, среди которых особое место занимает тезкире. Отражение жизни и творчества поэтов, состояния литературных кругов, стиля и манеры изложения литераторов в тезкире, как важном научном источнике, имеют большое исследовательское значение.

Традиции составления персидских тезкире получили особое развитие и распространение в Бухарском эмирате. Здесь были составлены многочисленные тезкире, авторы которых пользуются большим авторитетом в персидско-таджикской литературе. Анализ истории составления тезкире показывает, что этот процесс осуществлялся особым, присущим только ему

стилем, имел свои течения. Как свидетельствуют источники, ныне общее количество тезкире, по подсчетам исследователей, доходит до 250 единиц.

В Мавераннахре конца XIX- середины XX веков наблюдается бурное развитие составления тазкире, важнейшими из которых являются: «Тухфату-л-ахбоб фи тазкирати-л-асхоб» Кори Рахматуллоха Возеха, «Афзалу-т-тазкор фи зикри-ш-шуаро ва-л-ашъор» Афзал-махдума Пирмасти, «Тазкирату-ш-шуаро» Мирсиддикхона Хашмата Бухорои, «Тазкирату-ш-шуаро» Абдуллохходжи Абди, «Тазкирату-ш-шуаро» Ходжи Неъматуллоха Мухтарамы, «Тазкори ашъор» Шарифджон-махдума Садри Зиё, «Тазкираи Фахми» Фахми, «Армугони Саббок» Шайха Абдулкодира Кароматуллоха Саббока Бухорои, «Намунаи адабиёти тоҷик» Садриддина Айни.

Никогда ранее в Центральной Азии не наблюдалось такого расцвета составления тезкире, как в XIX-XX веках. Отличительными чертами тезкире рассматриваемой эпохи является то, что большинство составителей получает материалы и сведения непосредственно у самих поэтов или у их близких. В указанных тезкире в основном отражаются сведения о литераторах Мавераннахра. Упоминания о поэтах других персидских литературных кругов редкий в основном это те поэты, которые приехали в Мавераннахр и знакомы с составителями тезкире.

Целью нашего краткого экскурса в историю традиции составления тезкире в Мавераннахре является выявление места и роли составителей тезкире XIX-XX вв. персидско-таджикской литературы методом сравнения и сопоставления. Выявление стилиевых особенностей, принципов и методов составления тезкире, специфики цитирования стихотворных отрывков, их сопоставление и сравнение, особенно тезкире которые составляли в Бухаре, свойствам которого в нашем литературоведении не уделено должного внимания.

Исследование особенностей тезкире, языка и стиля изложения, сопоставление и сравнение тезкире конца XIX и начала XX веков являются одной из важнейших задач литературоведения. Большинство рукописных списков тезкире, составленных в этот период, хранится в рукописных фондах научно-исследовательских институтов бывшего Советского Союза и Центральной Азии. Критические тексты некоторых тезкире изданы благодаря усилиям таджикских ученых - Абдулгани Мирзоева, Сахобиддина Сиддикова, Асгара Джонфидо, Джабулко Додалишоева и других.

На наш взгляд, в таджикском литературоведении по сравнению с другими литературными произведениями, тезкире недостаточно становились объектами изучения и исследования. И хотя о тезкире и традициях их составления есть научные статьи, высказывания и соображения таких ученых, как А. Мирзоев, А. Афсахзод, Р. Ходизода, У. Каримов, Т. Неъматзода, С. Амиркулов, А. Гаффоров, С. Вохидов, Б. Валиходжаев, Р. Мукимов, З. Гаффорова, М. Мирзоюнус, А. Набави, Н. Норов, Х.Каландаров, С. Аъзамзод и другие, на сегодняшний день отсутствует всестороннее монографическое исследование, посвященное тезкире ученых конца XIX и начала XX веков. Поэтому при изучении важнейших особенностей традиции

составления тезкире второй половины XIX и начала XX вв. возникает необходимость исследования тезкире и выявления их литературной и исторической ценности.

Цитированная литература:

1. Бухорои, Шайх Абдулкодир Кароматуллох. Тазкираи Сибог.- Тошканд: Фан, 2007.- 199 с.
2. Вохидов, Шодмон. Из истории частных библиотек в Бухарском эмирате конца XIX- начала XX вв. (опыт реконструкции).- Ташкент: 2008.- 60 с.
3. Вохидов, Шодмон, Чориев Зоир. Садр-и Зия и его библиотека. (Из истории книги и книжной культуры в Бухаре в начале XX века).- Ташкент: Янги аср авлоди, 2007.-182 с.
4. Насриддин, Абдулманнон. Матншиноси осори адаб.- Хуханд: Ношир, 2009.- 392 с.
5. Саййид Мухаммад Носир ибн Музаффар. Тахкикоти арки Бухоро.- (Форс тилидан таржима, сезбоши, изхорлар ва керсаткичлар Ф. Каримовники).- Тошкент: Тафаккур, 2009.-106 с.
6. Ходизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти тоҷик (Асрҳои XVI-XIX ва ибтидои асри XX).- Душанбе: Маориф, 1988.- 414с.

NODIRA BEGIMIN VƏ XURŞİDBANU NATƏVANIN ŞEİRLƏRİNDƏ GİLEY MOTİVİ

Prof. Konul Hajiyeva

Xulosa

Maqolamizda Qo‘qon adabiy muhitida tarbiyalangan Nodira Begim va Qorabog‘ adabiy muhitida tarbiyalangan Hurshitbanu Natevan haqida so‘z yuritimiz. Nodira Begim she‘rlarida dunyoviy ishq, sof muhabbat badiiy tilda ta‘riflangan. Natevan ham kechgan ishq iztiroblari, sog‘inch va qayg‘u tuyg‘ularini nozik ranglar, o‘ziga xos til bilan tasvirlaydi. Har ikki shoir ijodida shikoyat motivlari keng qo‘llanganini ko‘ramiz. Bir-biriga yaqin yashab ijod qilgan bu shoirlar ijodidagi mavzu va motivlar ularni qiyoslash orqali tekshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Nodira Begim, Xurshidbanu Natevan, shikoyat motivi, Qo‘qon, Qorabog‘, shoira.

Summary

In our article, we will talk about Nodira Begim, who was raised by the literary environment of Kokand, and Hurshitbanu Natevan, who was brought up in the literary environment of Karabakh. Worldly love and pure love are defined in an artistic language in Nodira Begim's poems. Natevan also describes the agony of love, the feelings of longing and sadness experienced in delicate colors and in a unique language. In the works of both poets, we see that the motifs of complaint are widely used. The themes and motifs in the works of these poets, who lived and worked in close proximity to each other, make it possible to examine them by comparing them.

Keywords: Nodira Begim, Khurshidbanu Natevan, motif of complaint, Kokand, Karabakh, poetess

Аннотация

В нашей статье речь пойдет о Нодире Бегим, воспитанной в литературной среде Коканда, и Хуршидбану Натеван, воспитанной в литературной среде Карабаха. Мирская и чистая любовь определены художественным языком в стихах Нодире Бегим. Натеван также описывает агонию любви, чувства тоски и печали, переживаемые в нежных красках и уникальным языком. В творчестве обоих поэтов мы видим широкое использование мотивов жалобы. Темы и мотивы в творчестве этих поэтов, живших и творивших в непосредственной близости друг от друга, позволяют рассмотреть их, сопоставив.

Ключевые слова: Нодира Бегим, Хуршидбану Натеван, мотив жалобы, Коканд, Карабах, поэтесса

Tarix boyu Şərqdən, xüsusilə də türk dünyasından görkəmli qadın şəxsiyyətlər çıxmışdır. Onların arasında dövlət xadimləri, mütəfəkkirlər və şairlər vardır. Bir çox hallarda isə bu üç məslək, üç kimlik birlikdə, bir şəxsiyyətdə birləşərək özünü göstərmişdir. Başqa sözlə, təhsilli, ağıllı, istedadlı qadınlar eyni zamanda həm yaxşı diplomat, həm müdrik şəxsiyyət, həm də qüdrətli söz ustası kimi tanınırdılar. İstər Orta Asiyada, istərsə də Qafqazda bu cür hərtərəfli yetişmiş zərif cinsin nümayəndələri kifayət qədərdir. Teymuri nəslindən olan çox sayda cəsur və sənət qabiliyyətinə malik xanımlardan bəhs etmək olar. Azərbaycan tarixinin də Şirvanşahlar, Ağqoyunlu, Səfəvi kimi xanədanlara mənsub cəsarət və istedad sahibi qadın simaları olmuşdur. Türk qızı, türk qadını hər zaman həm incə şair ruhu ilə seçilmiş, həm də ağıl və fərasəti ilə hər kəsi heyran qoymuşdur. Bu il yubiley tarixini qeyd etdiyimiz iki türksöylü qadın sənətkarımız da belə şəxsiyyətlərdəndirlər.

Məqələmizdə Kokand ədəbi mühitinin yetirməsi Nodira Begim və Qarabağ ədəbi mühitinin yetişdirdiyi Xurşidbanu Natəvanın bəhs edəcəyik. Nodira Begim Kokand xanlığının mədəni inkişafı, ədəbi dirçəliş və çiçəklənmə dövründə yazıb-yaratmış bir özbək şairəsidir. Dövlətə bağlı oxuyuruq: “Özellikle XIX. asırda Hive ve Hokand hanlıklarında siyasi ve askeri alandaki kalkınma hareketleriyle birlikte oldukça parlak bir edebi gelişme göze çarpar. Kendileri de şiir söyleyen hanların etrafında şairlerin kümelenmeye başladığı görülür. [4, 465] Məhz belə bir şəraitdə fəaliyyət göstərən Nodira Begimin müasir azərbaycanlı oxucu üçün də çox asan anlaşılacaq, sadə dildə yazılmış duyğulu, yüksək poetik səciyyəsi ilə seçilən şeirləri vardır. XIX yüzillikdə ədəbi məclislərin təşkil olunduğu, bir çox istedadlı ədibin yetişdiyi Qarabağ xanlığında isə xalq arasında “Dürri-yekta” adlandırılan şairəmiz Xurşidbanu Natəvanın şeirləri məşhur idi. XIX əsr müəllifi Mir Möhsün Nəvvab təzki-rəsində şairə haqqında yazır: “Xurşidbanu bəyim rəhmətlik Mehdiqulu xan ibn İbrahim Xəlil xan ibn Pənah xan Cavanşirin qızıdır. Qarabağın Şuşa şəhərində anadan olubdur...O, həmişə səxavət və xeyriyyə mənbəyi olan, hörmətli nəslə və əcdadı kimi ehsanlar vermişdir”. [3, 175] Təzki-rə müəllifi bunları yazarkən Natəvanın 1872-ci ildə Şuşa şəhərinə böyük xərc və əziyyət bahasına uzaq məsafədən su çəkdiyini də xüsusi olaraq vurğulamışdır.

Qeyd etməliyik ki, bu il tanınmış özbək şairəsi, maarifpərvəri və dövlət xadimi Nodira Begimin 230, məşhur azərbaycanlı söz ustası və maarifçisi Xan qızı Natəvanın isə 190 yaşı tamam olur. Onların arasında zaman baxımından təxminən yarım əsr fərq vardır. Belə deyə bilərik ki, bu qadın sənətkarlar eyni epoxada, bənzər ictimai-ədəbi şəraitlərdə yetişib formalaşmışlar. Hər ikisi xanlıq quruluşunun yaratdığı sosial-siyasi mühitdə təhsil alıb fəaliyyət göstərmişlər. Həm Nodira Begim, həm də Natəvan yenilikçi, xeyriyyəçi işlərlə məşğul olmuş, gənclərin təhsilinə, bölgənin inkişafına töhfələr vermişlər. Onların hər ikisinin fəaliyyəti barədə qaynaqlarda yetərincə məlumat vardır. Bizim diqqətimizi bu şairələrin sənət dünyası, yaradıcı keyfiyyətləri, şeirlərindəki başlıca motivlər cəlb etdiyi üçün araşdırmamızda onların məhz şairlik məziyyətlərinə nəzər yetirib, zəngin daxili aləmlərinə işıq tutmağa çalışmışıq.

Nodira Begimin şeirlərində dünyəvi eşq, saf sevgi olduqca bədii dillə tərənnüm olunur. Şair məhəbbət yolunda çəkilən əzab-əziyyəti, sevgi uğrunda edilən fədakarlıqları yüksək sənətkarlıqla qələmə alır. Natəvan da eşq izzirablarını, yar yolunda həsrət və möhnət duyğularını zərif boyalarla, orijinal tərzdə təsvir edir. Nodira Begimin məhəbbət haqqında dediyi bu beyt əsrlərdir dillər əzbəridir:

Muhabbatsız kishi odam emasdur,

Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et![5]

Təbii ki, burada şair məhəbbət məfhumunu geniş anlamda götürmüş, qəlbində, ruhunda, fitrətində sevgi olmayan kəsin adam sayılmadığını söyləmişdir. Şair qənaətində haqlıdır. Bəşər övladı insana, təbiətə, həyata eşq-məhəbbət bəsləmədən var ola bilməz. Olsa da Abbas Səhhətin dediyi kimi, “ol şəxsə vicdan olmaz.” Xurşidbanu Natəvan da həyatı, insanları, hər gülünə, çiçəyinə şeir həsr etdiyi Qarabağ təbiətini qəlbən sevir və bunu şeirlərində dönə-dönə vurğulayırdı. Şairə eşq və onun əzabı haqqında düşüncələrini isə bu cür ifadə edir:

Deyirlər: dərdi-eşqin adəm öldürməz, - dürüstdür bu

Və lakin əmr elər, mən kimi zarü Natəvan eylər[2, 19]

Natəvan eşqin aşıqı aciz və gücsüz etdiyini nəzərə çatdırır. Başqa bir qəzəlində “Bu müşəxxəsdi ki, eşq ağıqə qovğa gətirir” deyən şairin eşq əlindən gileyləndiyini də görürük. Lakin bu qövğadan aşıq məmnundur. Ona şeir yazdıran, ilham pərisini vəcdə gətirən elə eşqin özüdür.

Hər iki şairin əsərlərində geniş bir şəkildə giley motivlərinin yer aldığını görürük. Bir-birinə yaxın dövrlərdə yaşayıb yaratmış sənətkarların əsərlərindəki mövzu və motivlər onlar arasında müqayisə aparmaq imkanı yaradır. Nodira Begimin qüdrətli qələmindən bir tərcibəndə diqqət edək:

Oxkim, bexad menga javr-u jafo aylar falak,

Furkat içra kismatim dard-u balo aylar falak,

Yordin ayru menga kup mojaro aylar falak,

Ğam bila guldek yuzumni kaxrabo aylar falak.[7]

Gördüyümüz kimi, şair fələyin ona etdiklərindən gileylənir, cövrü-cəfaya, dərdü-bələyə düçar olmasından şikayətlənir. Gül tək üzünün saraldığını deyən sənətkar “gül” və “kəhrəba” sözlərini təşbeh olaraq işlətməmişdir. Şair bunları deyərək ritorik sualla “fələyin kimə vəfa etdiyini” deyərək bu yolla bir qədər kinayəli şəkildə fələyin vəfasızlığını vurğulayır. Həmin misraları oxuyuruq:

Bevafodur, okibat kimga vafo aylar falak,
Xasrat-u dard-u alamga muftalo aylar falak,
Yorni, albatta, yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebarq-u navo aylar falak.[7]

Amansız fələyin yarı yardan ayırdığını, gülü yarpaqsız, bülbülü nəğməsiz qoyduğunu obrazlı dillə ifadə edən şairin bu şeirdə giley motivinə geniş yer verdiyini görürük. Ruzigardan şikayət böyük şairəmiz Xurşudbanu Natəvanın dilində də bir başqa cila tapır. Xan qızının ayrılıq dərđini, möhnət acısını sətirlərə köçürdüyü şeirindən bir parçaya nəzər salaq:

Bilən bu dərđimi yoxdur bu hələtdə, bu halətdə
Tutubdur könlümü möhnət bu firqətdə, bu firqətdə.
Neçün əhvalımı bilməz o mahi-mehriban, ya rəb?!
Nədən heç dadıma yetməz bu müddətdə, bu müddətdə?![1, 81]

Bu nümunələrdə hər iki şairin giley hədəfi fələklə yanaşı həm də amansız firqətdir. Nodira Begim qismətinin “firqət içrə” dərđü-bəla olduğunu yazırsa, Natəvan “bu firqətdə” könlünü möhnət tutduğunundan danışır.

Bu şeirlərdə iki zərif ruhun diqtəsi, iki həssas qəlbin harayı vardır. Onları oxuduqca insanın beyninə, könlünün dərinliklərinə nüfuz edən sətirlərin sanki tək bir şairin köksündən qopan hiss və emosiyalar olduğunu düşünürsən. Halbuki, bu misralar qadının daxili dünyasının, sonsuz sevgisinin iki müxtəlif yerdə və zamanda ən gözəl şəkildə vücut tapmış halıdır. Şairələrdən biri deyir:

Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz.
Ul parivash vaslidin bo'ldim judo,
Rohati dil qolmadi dildorsiz.

Yor uchun ag'yor dardin tortaman,
Ko'rmadim bir yorni ag'yorsiz.
Tan buzuldi, endi rohat qolmadi,
Soya paydo bo'lmadi devorsiz.[6]

Bu misralarda yarından ayrı düşmüş aşiqə aid hər şey var. Bu giley dolu səslənişdəki ayrılıq, həsrət, hicran notları yanıqlı musiqi kimi oxucunun qəlbinin dərinliklərinə sirayət edir. Xarsız, yəni, tikansız gül görmədiyini, əğyara uymayan, vəfalı bir yara rast gəlmədiyini deyən şairin bu haqlı etirafına və etirazına laqeyd qalmaq olmur. Nodira Begim burada həm sevgilinin vəfasızlığını, həm də ümumiyyətlə, insanların etibarsızlığını vurğulamışdır. Şeirinin davamında oxuyuruq:

Berma nisbat qaddiga, ey bog'bon,
Sarvdur bu bog' aro raftorsiz.
Nodira ahvolidin ogoh bo'ling,
Ey musohiblarki, qolmish yorsiz.[6]

Sətirlərdən şairin müsahibinin kimliyi məlum olur. Şeirlərində əsasən gülə, çiçəyə, bağçaya və bağbana müraciət edən Natəvan kimi o da üzünü gülşəndəki gülə və bülbülə yaxşı bələd olan bağbana tutur. Bağban burada bir növ mücərrəd obyekt, ümumiləşdirilmiş obraz kimi çıxış edir. Xurşidbanu Natəvanın aşağıdakı

misraları isə sanki bir neçə onilliyin arxasından Nodira Begimin səsinə səs verir. Natəvanın qəzəlində oxuyuruq:

Mənə bədtərdi duzəxdən, əzizim, gülüstan sənsiz!
Odur hər sünbülü-susən gözümdə bir tikan sənsiz!
Vəfasız dəhri-dun içrə əgər şəkkər qəzam olsa,
Olur zəhri-hələhil, tutiyi-şirinzəban sənsiz! [2, 8]

Gördüyümüz kimi, Natəvan da bağdan, gülüstandan bəhs edir. Yarsız hər çiçəyin tikan olub batdığını deyir. Əgər Nodira Begim “pərivəş vəslindən boldim cüda”, yəni, “pəri üzlüdən ayrı düşdüm, rahatı-dilim qalmadı” deyib fəryad edirsə, Natəvan “gülüstan sənsiz mənə cəhənnəmdir” deyir. Nodira Begimin yarını “sarvdir” deyib təsvir etdiyi kimi, Natəvan da “qəmxarın”ın sərv qəddindən söz açır.

Xoş ol günlər ki, vəslindən edərdim kami-dil hasil,
Olunca mübtəla hicrə, çıxaydı kaş can sənsiz!
Əlif tək sərv qəddin, can içində getdi, qəmxarım,
Necə aram tutsun, bilməzəm, cism içrə can sənsiz? [2, 8]

Hər iki şair ayrılıq nisgilini yüksək bədiiliklə, qəblərə nüfuz edəcək bir poetik dillə qələmə almışdır. Məlum olduğu kimi, Natəvanın poetik irsinin əhəmiyyətli bir qismi onun həyatındakı faciəvi və hüznü hadisələri əks etdirən şeirlərdən ibarətdir. Xan qızının 1885-1886-cı illər arasında qələmə aldığı əsərlər məhz qəm və kədər məzmunlu şeirlərdir. Həmin şeir nümunələrində Natəvanın incə sənətkar ruhunu əzən, şair qəlbini incidən iztirablar qabarıq ifadəsini tapmışdır. Bu iztirabların onun qəzəllərindəki təcəssümü zaman-zaman cəfakeş aşiqin çəkdiyi əziyyətlər, gördüyü haqsızlıqlar fonunda gözə çarpır ki, bunlar da hissi, duyğusu olan hər bir bəşər övladının təbiətinə, daxili aləminə xas ola biləcək məqamlardır.

Şairlərin əsərləri arasında diqqətimizi çəkən daha iki şeiri də qarşılaşdırmağı lazım bilirik. Bu şeirləri müəlliflər təsirli bir müraciət, bir çağırış kimi qələmə almışlar. Nodira Begim qarşıdakı həmsöhbətinə yaxud şikayətinin ünvanına üzünü tutub “eşit” deyərək giley-məzəmmət dolu ürək sözlərini belə səsləndirir:

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,
Sen shohu, men benavo, lutf ayla, faryodim eshit.
Dudi ohim shu’lasi husning dabiristonida
Misra’i barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

Sarvinozim, sendin ayru naxli ohim bo’ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.
Har nechakim, sabr ta’mirini bunyod ayladim,
Ashk selobida vayron o’ldi obodim, eshit. [5]

Şair böyük bir qəlb yangısı ilə içindən gələn fəryadı ifadə etməyə çalışır. Ayrılığın onu məzlum, çarəsiz hala saldığını yara çatdırmaq, onu öz halından xəbərdar etmək istəyir. Bu zaman onun çox sayda təzad işlətdiyini görürük ki, bu da hiss və həyəcanın qarşı tərəfə çatdırılmasında qüvvətləndirici rol oynayır. Şair “sən şah, mənə binəva” deyərək qarşılaşdırma edir. Daha sonra sevgiliyə “sərvnaz” deməklə onun sərv ağacı kimi uca boyuna işarə edərək özünün isə

hicran dərindən əyildiyini, büküldüyünü diqqətə çatdırır. Digər beytdə isə səbr sarayını nə qədər möhkəm qursa da, selə dönən göz yaşının onu dağıdıb viran qoyduğunu deməklə təzadə yer vermiş olur. Sonda isə istedadlı şairinin klassik şeirdə çox işlənən badi-səba obrazından istifadə etdiyini, sözünü yara yetirmək üçün ona xitab edərək kömək umduğunu görürük.

Nodira bodi sabodin senga irsol etgali

Qildi insho bu g'azalni tab'I noshodim, eshit.[5]

Xan qızı Natəvan da bədii xitabdan istifadə edərək şeirinin təsir gücünü artırmağa nail olmuşdur. Şairin “Ey dust” rədifli qəzəlində oxuyuruq:

Rəqib töhməti etdi məni cüda, ey dust!

Bu zülmü gördü rəva, görməsin səfa, ey dust!

Əgər ki, tiğ çəkib öz əlinlə öldürəsən,

Deyil mənə bu cəfa, bilməzəm cəfa, ey dust![2, 25]

Misralardan ayrılığa rəqibin səbəb olduğu məlum olur. Ayrılıq dərini zülüm hesab edən şair bu zülmü ona rəva görən rəqibə lənətlər yağdırır. Şairin sevgisi ölümü yarın əlindən olsa belə, bunu xoş qəbul edəcək qədər böyük, sarsılmazdır. Hər iki şeirdəki axıcı, rəvan ifadə tərzini onlara bir musiqi cazibəsi, xoş ahəngli əsər səciyyəsi qazandırmışdır, desək yanılmazıq. Qeyd etmək lazımdır ki, Həm Nodira Begimin, həm də Xurşidbanu Natəvanı yaradıcılığında Türk dünyasının böyük şairləri Nəsimi, Nəvai və Füzulinin güclü təsiri hiss olunur. Füzuli təsiri daha çox məhz giley motivli şeirlərdə nəzərə çarpır. Füzuli kədəri öz lirik siqləti ilə bu incə ruhlu şairələrimizin də sənət dünyasına sirayət etmiş, bir çox hallarda poetik ifadə baxımından da əhəmiyyətli təsirini göstərmişdir. Nodira Begimin “Mərhəbə” rədifli şeirinin isə Nəsiminin eyni rədifli qəzəlindən təsirlənərək yazıldığı şübhə doğurmur. Ümumtürk ədəbiyyatında bu anlaşılan haldır.

Nəsimi,

Nəvai və Füzuli sənətinə bəslənən sevgi çox şairləri müsbət mənada belə bir təsirə məruz qoymuşdur.

Məqaləmizdə XVIII əsrin sonlarında Kokənd ədəbi mühitində yetişən maarifpərvər dövlət xadimi, şairə Nodira Begimin sənəti ilə XIX yüzillik Qarabağ ədəbi mühitinin yetirməsi, xeyriyyəçi şair Xan qızı Xurşidbanu Natəvanın sənətini qarşılaşdırmağa çalışdıq. Şairlərin əsərlərindəki bənzər xüsusiyyətləri, diqqət çəkən mühüm cəhətləri, bədii ifadə nöqtəyi-nəzərindən maraqlı kəsb edən özəllikləri qeyd etdik. Fikrimizcə, bu cür qarşılaşdırılmalı araşdırmalar ümumtürk ədəbiyyatında qadın sənətkarların yeri və rolunun tədqiqi baxımından əhəmiyyətlidir.

Ədəbiyyat siyahısı:

1. Azərbaycan qadın şairləri antologiyası. Bakı, 2005
2. Natəvan Xurşidbanu. 33 qəzəl. “Gənclik”. Bakı, 1981
3. Nəvvab Mir Möhsün. Təzkireyi-Nəvvab. Bakı, 1995
4. Şentürk Ahmet, Kartal Ahmet. Eski Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul, 2004
5. <https://tafakkur.net/doda-keldim-ey-salotin-sarvari-dodim-eshit/nodirabegim.uz>
6. <http://uzsmart.ru/kutubxona/asarlar/2261-g'azallar-nodira.html>
7. <https://ilmlar.uz/nodira-gazallari-va-sherlar-toplami/>

ZƏHİRƏDDİN MƏHƏMMƏD BABUR YARADICILIĞINDA EŞQİN TƏRƏNNÜMÜ

Bəxtiyar MƏMMƏDOV,
*AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat
İstitutunun “Azərbaycan - Türkmənistan –
Özbəkistan ədəbi əlaqələr” şöbəsinin böyük
elmi işçisi və doktorantı – ferhad.memmedli@mail.ru*

İnsan qəlbinin ən səmimi və ən təsirli duyğularından birinin bədii ifadəsi olan eşq-məhəbbət mövzusu dünya poeziyasının ən qədim və ən yaygın mövzularından sayılır. İstər Şərq ədəbiyyatında, istərsə Qərb poeziyasında bu mövzuya biganə qalan və ya sevgi tərənnümündən yan keçən hər hansı şairi təsəvvür eləmək belə çox çətindir. Xüsusən, azad məhəbbətin daha çox təqib olunduğu ictimai mühitin qadağaları ilə üzləşən klassik Şərq poeziyasında sevgi mövzusu əsrlər ərzində yalnız fərdi intim yaşantıların deyil, eyni zamanda, dərin ictimai mətləblərin, ədalətsiz cəmiyyətlərdə insan azadlığı və hüquqlarının, insan arzu və istəklərinin ifadəçisi və daşıyıcısı rolunu oynamışdır.

Şərq klassik lirikasının Nizami Gəncəvi, Əmir Xosrov Dəhləvi, Sədi Şirazi, Hafiz Şirazi, Mövlana Lütfi, Əlişir Nəvai, Şah İsmayıl Xətayi, Məhəmməd Füzuli kimi məşhur nümayəndələrinin yaradıcılığında sevgi mövzusu və eşq-məhəbbət tərənnümü məhz bu cür geniş miqyasa və dərin mahiyyətə malikdir.

Divan ədəbiyyatının müxtəlif janrlarında və sevgi mövzusunda yazdığı gözəl və özünəməxsus şeirləri ilə adını Şərqin böyük liriklərinin sırasında ədəbiləşdirən özbək klassiklərindən biri də Zəhirəddin Məhəmməd Baburdur (1483-1530). Şairin özünün hər hansı şəkildə iştirakı ilə tərtib olunmuş divanı bizə qədər gəlib çatmasa da, onun dünyadakı müxtəlif əlyazmaları fondlarında qorunub saxlanan divanlarının çeşidli nüsxələrində klassik divan ənənəsinin tələblərinə uyğun olaraq, yüzdən artıq qəzəlləri, çoxsaylı rübailəri, tuyuqları, məsnəviləri, müəmmaları, fərdləri və s. örnəkləri mövcuddur (3, 164-175; 4, 349-353; 6, 69-75).

Klassik poeziyanın başqa görkəmli nümayəndələri kimi, Babur lirikasında da sevgi-məhəbbət mövzusunun yeri aparıcı mövqeyə malikdir. Tanınmış ədəbiyyatşünas, filologiya elmləri doktoru Yaşar Qasımbəyli yazır:

“Z.M.Baburun lirikası formaca və şəkildə müxtəlif olduğu kimi, estetik mündəricəsinə və məzmununa, poetik hədəf və mövzularına görə də rəngbərəngdir. Şairin lirikasını bu nöqtəyi- nəzərdən aşağıdakı kimi təsnif etmək məqsədə müvafiqdir: 1. Sevgi lirikası. 2. Aftobioqrafik məzmunlu lirika. 3. Fəlsəfi məzmunlu və ümuminsani duyğular lirikası. 4. Təbiət və dünya gözəlliklərinin tərənnümü. 5. Şahanə duyğular şeiriyyəti (7, 102).

Bizim bu araşdırmada əsas mövzumuz olan eşq-məhəbbət tərənnümünə gəlsək, bu tərənnümün özünəməxsus təzahür formalarını nəinki Babur lirikasının ayrı-ayrı janrlarında (qəzəl, rubai, tuyuq və s.), hətta müxtəlif münasibətlərlə “Baburnamə” dən yer almış şeir parçalarında da müşahidə etmək mümkündür və bunlar bir çox tədqiqatçıların diqqətini yaxından cəlb etmişdir (2, 29-37; 5, 5; 6, 69-75; 7, 100-109; 8, 124-131; 9, 38-46; 10, 161-172).

Amma biz burada Baburun ən ənənəvi mövzuda belə yüksək poetik məharətini diqqət mərkəzinə çəkmək üçün fikir və mülahizələrimizi Şərq lirik poeziyasının, o cümlədən, Babur lirikasının əsas janrı olan qəzəl nümunələri əsasında davam etdirməyi daha məqsədəuyğun sayırıq və orijinalın əsas xüsusiyyətlərini(vəzn, qafiyə, bədii sənətlər və s.) qoruyub saxlamaq üçün onları tərcümə etmədən yalnız azərbaycanca tələffüzə və əlifbaya uyğun şəkildə təqdim edirik.

Birinci nümunə:

Camalın vəsfini, ey ay, neçə eldən eşitgəymən,
Nə gün bolğay, vüsalına məni dilxəstə yetgəymən?

Tərəhhüm üzüdən üzünü görməyə buyurgəysən,
Xoş olki, arizini görgəmən, sözün eşitgəymən.

İtindirmən, saçın zəncirini boynuma möhkəm qıl,
Ki, vadiyi fərağın içrə qorxuram ki, itgəymən.

Tərəhhüm qılmasan ya baxmay istiğna bilə ötsən,
Təzərrü qılğaman ya ağlağayman, özgə netgəymən?

Müəssər bolmasa başımı qoymaqlıq ayağına,
Başımı alıb, ey Babur, ayaq yetincə getgəymən(1).

Göründüyü kimi, bu beş beytlik qəzəl nümunəsi, hər şeydən öncə, əks etdirdiyi sevgi yaşantısının səmimiliyi və təbiiliyi ilə diqqəti çəkir. Ümumən, məhəbbət tərənnümündə həyatı cizgilərin bolluğu ilə müşayiət olunan xəlqi ifadə tərzii Babur lirikasının əsas xüsusiyyətlərindən hesab olunur. Şərq klassik poeziyasının, o cümlədən, Babur lirikasının əsas yaradıcılıq metodu ənənəvi romantizm sayılsa da, şairin bir sıra qəzəllərində müşahidə olunan realizm ünsürləri, bir tərəfdən, bu örnəklərdəki yaşantıların müəyyən mənada lirik “mən”in keşməkeşli taleyi ilə bağlılığından qaynaqlanırsa, başqa tərəfdən, onun lirikasının heç kiminkinə oxşamayan özünəməxsus təbiətini müəyyənləşdirir. O cümlədən, bu özünəməxsusluq bədii məharət sahəsində də özünü aşkar şəkildə biruzə verir. Məsələn, nəzərdən keçirdiyimiz yuxarıdakı qəzəldə əgər bəzi istiarə və təşbehlər (məşuqəyə ay kimi müraciət olunması, onun hörüyünün zəncirə bənzədilməsi və s.) ənənəvi təsir bağışlayırsa, sonuncu beytdə “ayaq” sözünün hər iki misrada, eyni zamanda, “qədəh” mənasında da işlədilməsi ilə yaranan eyham sənəti həqiqi baburanə məharətin parlaq misallarından biri kimi həssas oxucunu heyratə gətirir.

Böyük şairin lirik yaşantılarında bu cür söz oyunlarına tez-tez müraciət olunmasının poetik məharəti nümayiş etdirməklə yanaşı, başqa bir ciddi səbəbi də var. Dahi sələfi Əlişir Nəvainin ardınca Babur da öz ana dilinin zənginliyini göstərmək üçün onun mənalar xəzinəsini, xüsusən, omonim və sinonim tükənməzliyini sərgiləyən bədii sənət və üsullara ayrıca üstünlük verirdi. Bu nöqtəyi-nəzərdən həssas şairin dillər əzbəri olmuş aşağıdakı şahənə beytinə dərindən diqqət yetirmək kifayətdir:

Ləbin bağrımı qan qıldı, gözümdən qan rəvan qıldı,

Neçün halım yaman qıldı, mən ondan bir sorarım var(1).

Burada da, yuxarıda müşahidə etdiyimiz kimi, əgər daxili qafiyələr (qan,rəvan,yaman) hesabına misraların axıcılıq kəsb etməsi klassik ənənədən qaynaqlanırsa, birinci misrada biri-birinə uyğun söz və anlamların (ləb, qan, bağır, qanlı göz yaşı) işlədilməsi ilə yaranan tənəsüb sənəti və ikinci misradakı “bir sorarım var” ifadəsinin iki mənası (“bir sualım var” və “bir busə almağım var”) ilə üzə çıxan eyham sənəti böyük sənətkar məharətinin bənzərsiz örnəyi kimi oxucunu məftun edir.

İkinci nümunə:

Bahar əyyamıdır, dəxi yigitliyin əvanıdır,
Gətir, saqi, şərabi-nab ki, işrət zamanıdır.

Gəhi səhra üzarı lələ şəkli-dən erur gülgün,
Gəhi səhni-çəmən gül çöhrəsindən ərgüvanıdır.

Yenə səhni-çəmən boldu münəqqəş rəng güllərdən,
Məgərki sünnin nəqqaşına rəng imtahanıdır.

Üzün, ey sərv, canım gülşəninin təzə gülzarı,
Qədin, ey gül, həyatım bağının sərv-i-rəvanıdır.

Nə yerdə bolsan, ey gül, əndədir çün canı Baburun,
Qəribinə tərəhhüm eyləgil ki, Əndicanıdır (1).

Bu gözəl nümunədən də bəlli olduğu kimi, Baburun məhəbbət lirikasının özünəməxsus tərəflərindən biri də ondan ibarətdir ki, onun müxtəlif janrlarda yaranmış, bir sıra lirik dürdanələrində eşq-məhəbbət tərənnümü Vətən həsrəti və qürbət iztirabı ilə birlikdə ifadə olunur. Bu da yuxarıda vurğuladığımız kimi, ilk növbədə böyük şairin erkən gəncliyindən tutmuş ömrünün sonuna qədər həyatda üzləşdiyi çətinliklərdən və çeşidli sərgüzəştlərdən qaynaqlanır.

Baburun məhəbbət yaşantısını təsirli və səmimi ifadə etmək baxımından misilsiz məharət sahibi olduğuna ikinci qəzəl nümunəsində bir daha heyret edirik. Qəzəlin bütün başqa beytlərində rast gəlinən və az-çox özündən əvvəlki klassik ənənələrlə səsleşən istiarə və bənzətmələrdən (sərv, gül, gülzar, qırmızı şərab, lələ və s.) sonra axırncı beytdə, dərin və təsirli lirik yaşantının yekununda yenidən baburanə yüksək bədii məharətin şahidi oluruq. Şair böyük həssaslıqla “əndə can” və “Əndican” sözlərinin səsleşməsindən istifadə edərək, qəzəlin məqtəsində eyham sənətinin bənzərsiz örnəyini yaratmağa müvəffəq olur.

Babur yaradıcılığında sevgi və məhəbbət tərənnümünün daha bir özünəməxsus təzahür forması sözügedən yaşantıların başqa həyatsevər hissələr və duyğularla (gözəllik, səfa, dostluq, həmdəmlik, həmdərdlik və s.) birlikdə vəsf olunması və aşılmasıdır. Bu nöqtəyi-nəzərdən şairin məşhur qəzəllərindən daha bir örnəyi diqqətlə nəzərdən keçirmək məqsədəuyğun olardı.

Üçüncü nümunə:

Yaz fəsli, yar vəsli, dostlarının söhbəti,

Şeir bəhsi, eşq dərdi, badənin keyfiyyəti.

Yaz fəslində çaxır içməyin özgə halı var,
Kimə bu nəşə müyəssər bolsa, vardır dövləti.

Eşq dərini çəkib hər kim ki tapsa vəsli-yar,
Ol zaman bolğay unut yüz ilki hicran şiddəti.

Dostlarının söhbətində nə xoş olğay bəhsi-şeyr,
Ta bilingəy hər kişinin təbi ilə haləti.

Kim bu üç işi müvafiq tapsa ol üç vaxt ilə,
Bundan artıq bolmağay, Babur, cahanın işrəti (1).

Bu bənzərsiz qəzəl nümunəsi isə, hər şeydən öncə, öz nikbinliyi və həyatsevərliyi ilə diqqətəlayiqdir. Onda insan həyatının arzu-istək və ümid mənbəyi olan duyğu və yaşantıların bu qədər üzvi vəhdətdə və biri-biri ilə qırılmaz əlaqədə verilməsi oxucunu dərindən təsirləndirməklə bərabər, onu bir daha inandırır ki, belə nikbinlik və həyatsevərlik aşılaman bir nümunə yalnız Zəhirəddin Məhəmməd Babur kimi həyatın hər üzünü görmüş, o cümlədən, məhəbbətin acı-şirinini dadmış, ən başlıcası, öz iradəsi ilə həmin çətinliklərin hamısından qalib ayrılmış bir şair-hökmdarın və öz mətanəti ilə artıq hicran iztirablarını geridə qoymuş bir aşiq-şairin qələmindən çıxma bilərdi.

Açar sözlər: Babur, lirika, qəzəl, eşq-məhəbbət, tərənnüm, hicran, vüsəl, yaşantı, məharət, eyham.

Xülasə (Rezyüme)

Zəhirəddin Məhəmməd Babur (1483-1530) sevgi və məhəbbət mövzusunda lirik şeirləri, xüsusən, qəzəlləri ilə, bir tərəfdən, klassik Şərq ədəbiyyatının, o cümlədən, özbək mümtaz poeziyasının çoxəsrlik yaşarı ənənələrini özünəməxsus şəkildə davam etdirmiş və zənginləşdirmişdirsə, digər tərəfdən, öz keşməkeşli taleyinin və həyatının səmimi və təsirli bədii ifadəsi olan bir çox bənzərsiz lirik dürdanələrlə sözügedən mövzuda və sahədə öz poetik üslubunu və bədii məharət məktəbini yaratmağa nail olmuşdur.

Ədəbiyyat:

1. Babur Z.M. Əsərlər, üç cildlik, I cild, Daşkənd, Bədii ədəbiyyat nəşriyyatı, 1965.
2. Baltabayev H. Babur şah və Baburilər dövrünü əks etdirən türk ədiblərinin təzkirələri, -Zəhirəddin Məhəmməd Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə keçirilən Beynəlxalq Elmi Konfransın materialları, Bakı, "Optimist" MMC, 2022, s.29-37.
3. Binnətova A.(Almaz Ülvi). Özbək ədəbiyyatı, Bakı, "Elm və təhsil", 2016, 314səh.
4. Corabayev A. Cahan əlyazma fondlarında Nəvai və Babur əsərləri,-"Özbək mümtaz və çağdaş ədəbiyyatının dünya miqyasında öyrənilməsi və təbliğinin aktual məsələləri" mövzusunda Beynəlxalq Konfrans materialları, Daşkənd, "Məşhur-press", 2018, s.349-353.

5. Həbibbəyli İ. Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan,- Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, 2018.
6. Kərimov P. Babur rübailəri,- Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, "Optimist" MMC, 2022, s.69-75.
7. Qasımbəyli Y.Z.M.Babur və Azərbaycan klassikləri,- Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, "Optimist" MMC, 2022, s.100-109.
8. Rəhmanov V. Babur daşbitikləri,- Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, "Optimist" MMC, 2022, s.124-131.
9. Səlahiy D. Şeyx N. Gəncəvi və Z.M.Babur icadında ədəbi-estetik təmayüllər müştərəkliyi, - Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, "Optimist"MMC, 2022, s.38-46.
10. Zəhirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan, Beynəlxalq Elmi Konfrans materialları, Bakı, "Optimist" MMC, 2022, 208 səh.

МАТЛАЪ ВА УНИНГ ҒАЗАЛДАГИ ВАЗИФАСИ

**Мавлонберди СУЮНОВ,
ф.ф.н., доцент академик Бобожон Ғафуров
номидаги Хўжанд давлат университети ДТМ
(Тожикистон)**

Аннотация:

Мақолада мумтоз шеърятда матлаъ ва унинг ғазлда тутган ўрни ҳамда поэтик вазифаси хусусида фикр юритилган.

Таянч сўз ва иборалар: анъана, таъсир, маҳорат, ғазал, татаббу, вазн, қофия, матлаъ.

Аннотация:

В статье рассматривается предмет в классической поэзии и его место в стихотворении, а также его поэтическая функция.

Ключевые слова и выражения: традиция, влияние, талант, газель, татаббу, размер, рифма, матла.

Annotation:

The article deals with the subject in classical poetry and its place in the poem, as well as its poetic function.

Key words and phrases: tradition, follower, ghazal, tatabbu, vazn, rhyme, interpretation, emulate.

*Гурбатқа солди чарх мени юз жафо била,
Ёд айла мен гарибни гоҳи дуо била.*

*Беҳад вафою меҳр санга кўрсатию эдим,
Сен согингасен мени меҳру вафо била.*

*Чун қилди мени ул бути Чин зору мубтало,
Ишим менинг қолибтурур эмди Худо била.*

Кўрмон фараҳни бир дам агар андин айрумен,

Билмон аламни, бормен анинг бирла то била.

*Ул сарвга карам қилибон еткур, эй сабо,
Бобур ниёзини ер ўпуб хўб адо била [1, 30].*

Беш байтдан иборат ушбу ғазалда Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ички руҳий ҳолати ифодалangan. Буни биз ғазал матлаъсини ўқиган заҳотиёқ англаш мумкин. Ўз-ўзидан унинг давомини эшитиш истаги пайдо бўлади. Чунки ғазал матлаъси юксак бадиият билан битилган. Ғазал жанрининг ўзига хос хусусиятларидан бири унинг биринчи байти матлаъ деб юритилишидир. Шунингдек, ” ...шоирлар иккинчи байтни ҳам қофиялаштирганлар” [11, 50]. Ҳар иккала байт қофияланган бўлса, у «хусни матлаъ» деб юритилган. У маълум даражада шеърдаги қофия, радиф функциясини ҳам ўз зиммасига олиб,, ғазални таъсилли, оҳангдор ҳамда равон бўлишини таъминлаган.

Ғазал муаллифи матланинг нозик маъноли, дилкаш бўлишини хоҳлаган. Ўзаро суҳбат ва анжуманларда, шеър оқшомларида доимо аввал ғазаллардаги машҳур матлаъни айтиш анъанага айланган. Унга эргашиб, жавобиялар ва назиралар ёзилган. Матлаъни эшитган ихлосманд ёки ижодкор унинг давомини эшитишга ошиққан. Ундан бутун ғазалнинг умумий мазмуни ҳамда бадииятини англаш имконияти вужудга келган. Ижодкорлар бирор ҳолат, воқеа ёки кайфиятни ифодалаш учун бир байт, яъни ғазал матласини келтирган. Ҳатто уни давом эттирмаган ҳолатлар ҳам бўлиши мумкин.

Бобур «Бобурнома»да шундай ёзган эди: “...Ушбу Масчода эканимизда. шоир Мулло Ҳижрий Ҳисор тарафидан келиб мулозимат қилди. Бу матлаъни ўша пайтлари битган эдим: айёмда айтиб эдим:

Такуллуф ҳар неча суратта бўлса, ондин ортуқсен,

Сени жон дерлар, аммо бетакаллуф жондин ортиқсен” [13, 86].

Эҳтимол, Бобур бу матлаъни тугатмаган, лекин матлаъдан аён бўлмоқдаки, Бобур ўша ҳолатни жуда юксак маҳорат ва воқеан тугал ифода эта олган. Шунинг учун бу матлаъ одамлар орасида жуда машҳур бўлиб кетган. Атоқли бадешунос олим Ёқубжон Исоқов матлаъ ҳақида жуда ўринли фикрларни билдирган: Матла (арабча-чиқиш жойи, ой, қуёш, юлдузларнинг чиқиш жойи)-ғазал ва қасиданинг биринчи бошланғич байти. Масалан, Навоийнинг «Ғаройиб ус-сиғар» девони «Ашрақат мин...» деб бошланувчи матлаъ билан бошланади. «Муножот» куйида ижро этиладиган ғазалнинг матлаъси куйидаги байтдан иборат:

Қаро кўзум, келу мардумлиг эмди фан қилгил,

Кўзум қаросида мардум киби ватан қилгил [2, 33].

Навоийнинг ўзбек тилидаги девонида 2600та ғазал бўлиб, матлаълар сони ҳам шунча миқдорда. Ғазалда матлаънинг мазмун ва бадиий жиҳатдан пухта ва такрорланмас бўлишига катта аҳамият берилган. Ёш Алишернинг бир матлаъи (*Оразин ёпғоч кўзимдин сочилур ҳар лаҳза ёш, Бўйлаким пайдо бўлур, юлдуз ниҳон бўлғоч қуёш*) устоз Лутфийни ҳаяжонга солиб, ўн икки минг мисра шеърини шу байтга алмаштиришга тайёр эканлигини тарихчи Хондамир ўзининг асарида алоҳида таъкидлаб ўтган.

Малик ул калом шоир Лутфий умрининг охирида тожик тилида “Афтад” радифдаги ғазалининг матлаъсини ёзади ва уни давом эттиришни Жомий ҳазратларига васият қилади. Жомий бу вазифани бажонидил адо этганки, бу икки халқ ўртасидаги устоз ва шогирдликнинг ўзига хос намунаси дейишга арзигуликдир.

Навоий «Мажолис ун-нафоис»да келтирган мисолларнинг кўпи шоирларнинг энг яхши ва характерли, бадий мукамал ёзилган матлаъларидан олинганлигини кўриш мумкин. Масалан (Лутфий ҳақида): «Мутааззирул-жавоб (жавоб қилиш қийин) матлалари ҳам бор, ул жумладан бири будурким...» Навоий Ҳусайний девонидаги ғазалларнинг характерли матлаъларини тартиб билан келтириб, уларнинг поэтикасига хос бўлган оригинал жиҳатларни изоҳлаб берган. («Девон ибтидосидан бунёд қилинди ва ҳар ғазалдин бир матлаъ ёзилди»). Навоий фикрича, матлаъда шоирнинг анъаналарга муносабати (татаббуъ, назира ва ҳ.қ.) ва ўзига хос бадий кашфиётни кўриш мумкин.

Алишер Навоий ўзининг «Мажолис-ун нафоис» асарида бир қанча шоирларни ижоди ҳақида маълумотларни келтирганда, уларнинг ғазалларидаги матлаъларга тўхталиб, уларни намуна сифатида келтиради: “Мавлоно Хокий-Кусавиндур, Хожа Кусавий (қуддиса сирруху) хизматида бўлур эрди. Дарвеш киши эрди. Шеър ҳам айтур эрди. Бу матлаъ анингдурким:

*Ниёзманди туем, эй ба ноз парварда,
Туро замона ажаб дилнавоз парварда [3, 61].*

Мазмуни: Эй ноз қилишга ўрганган, биз сенга ёлборувчилармиз. Сени замона ажойиб кўнгил олувчи қилиб яратган (экан).

Мавлоно Лутфий (алайҳирраҳма)-ўз замонининг малик ул-каломи эрди, форсий ва туркийда назирини йўқ эрди, аммо туркийда шуҳрати кўпрак эрди ва туркча девони ҳам машҳурдур ва мутааззир ул-жавоб матлалари бор, ул жумладин бири будурким:

*Нозулик ичра белича йўқ тори гисуйи,
Ўз ҳаддини билиб, белидин ўлтирур қуйи [3, 61].*

Яна бири буким:

*Сайд этти дилбарим мени ошуфта сочдин,
Солди каманд бўйнума икки қулочдин.*

“ Мирзобек-инсоният ва хуш ахлоқликда Хуросон ва Самарқанд мулкида ягона эрди. Табъ ва фаҳм ва отару тутарда бу икки мулк йигитлари орасида саромади замона бу навъ таърифлардин мустағний. Бу матлаъ анингдурким:

*Кўзунг не бало қаро бўлубтур,
Ким жонга қаро бало бўлубтур” [3, 67].*

«Малаик ул-калом» шоир Лутфий «умрининг охирида «офтоб» радифли бир ғазал айтади, замон шоирларинг барчаси унга татаббу қилдилар, лекин уларнинг ҳеч қайсиси матлаъни онча айта олмадилар...», - деб яна тожик тилида битилган «офтоб» радифидаги матлаъни келтириб ўтади [3, 62].

Айрим шоирларнинг баржаста, гўзал етук матлаъларига шоирлар давом эттира олмаган. Бундан шу нарса аён буладики, ғазал матлаъси ғазалнинг энг етук, бадиий жиҳатдан етук мисраларидан иборат бўлади. Ҳофиз, Саъдий, Навоий, Бедил кабиларнинг ғазалларидаги матлаъларини кишилар халқ мақолларидек ҳозирга қадар ёддан айтиб юрадилар. Алишер Навоийнинг форс – тожик шоирлари асарларига боғлаган татаббу ғазалларида ҳам гўзал матлаълар билан бошланиб, ғазалларига ўзига хос бадиий жозиба бахш этган байтлари ҳам талайгина. Бундай байтлар Навоий (Фоний)нинг татаббу ғазаллари бадииятини янада мукамаллигини таъминлашга хизмат қилган. Жумладан, унинг Абдурахмон Жомий ғазалига боғлаган татаббуларидан бири шундай матлаъ билан бошланган:

Нигори турки точикам кунад сад хона вайрона,

Бад-он мицғони точиконаву чашмони туркона [12, 125].

Мазмуни: Менинг гўзал тожик нигорим тожикларникига хос киприклари ва туркларникига ўхшаш кўзлари билан юзларча уй (қалб уйи) ни вайрон қилади.

Мутафаккир шоирнинг маҳорати шундаки, байтдаги «турки точикам» бирикмаси турк ва тожигим эмас, балки тожик гўзалим маъносида бўлса, иккинчи мисрада такрорланган тожик ва турк сўзлари эса миллат, халқ маъносида келганлигига эътибор қаратиш жоиз. Демак, «турк» сўзи биринчи мисрада «гўзал» маъносида ишлатилган бўлса, иккинчи мисрада эса, миллат, халқ маъносида келиши *тажнис* бадиий санъатининг кўрсаткичи ҳисобланади. Ёки бир халқни киприкка, иккинчисини эса кўзга нисбат берилиши *ташбеҳ* (ўхшатиш) деб аталган бадиий санъатининг гўзал намунаси дир. Навоий қўллаган *ташбеҳ* шунчаки бир воситасигина бўлиб қолмасдан, балки рамзий образлар билан асосланганлиги, икки халқнинг эт билан тирноқ каби бир-бирига яқинлиги кўз ва киприк орқали бадиий далилланганки, бу мантиқан теуридир. «*Гўзал тожик нигорим*» (нигори турки точикам) бирикмасидаги «*гўзал*» сўзи сифатловчи вазифасида мисрага зеб берган. Бадиият илмида агар шеър матнида ибора мавжуд бўлса, бу *таъбир* санъатининг юзага келишига асос бўлишини таъкидлаш мумкин. Байтдаги «*сад хона вайрона*» мазкур санъатнинг мавжудлигини кўрсатиб турибди. Шоир асосий эътиборни лирик қаҳрамонга, яъни «*нигорим*» га қаратганини эътиборга олсак, бу *истиора* санъатининг ўзига хос кўриниши эканлиги маълум бўлади. Шу биргина далилнинг ўзиёқ Навоий (Фоний) нинг беназир зуллисонайн шоир сифатида тожик тилида ўам гўзал асарлар ярата олганлигини тасдиқлаб турибди.

Бундан ташқари, ушбу татаббуъ ғазал устоз Жомий асари каби каби арузнинг ўйноқи вазнларидан бири - ҳазажи мусамман солим (*мафойилун мафойилун мафойилун мафойилун V - - -, V - - -, V - - -, V - - -*) вазнида яратилган бўлиб, бу шоирнинг аруз илмидан ҳам чуқур билимга эга эканлигини яна бир бор намоиш қилганлигини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Навоий етук адабиётшунос сифатида ҳам шоирлар асарларига баҳо берганда ўзига хос мезонлар билан ёндашганлигини Атоий ижодига берган биргина баҳосидан ҳам билиб олиш мумкин. Унда Атоийнинг Балх

шаҳрида яшаб ижод этгани, Исмоил ота авлодига мансублиги, дарвешваш (*хоксор, фақир, художўй*) ҳамда хушхулқ (*феъл-атвори яхши*), мунбасит (*очиқ чехрали*) киши эканлигини эҳтиром билан тилга олиб, шоир фақат ўзбек тилида асарлар ёзганлигини алоҳида таъкидлаб ўтади. Ва ниҳоят, «Ул санамки...» деб бошланувчи ғазалининг қуйидаги матлаъни келтиради:

Ул санамким, сув қирғоғинда паридек ўлтурур,

Ғояти нозуклугидин сув била ютса бўлур.

Келтирилган матлаънинг «*қофиясида айбгинаси бор*» дея ўз муносабатини билдиради [3,63]. Дарҳақиқат, байтда оҳангдошлик қофиядош сўзлар ўзагидаги равий ҳарфларнинг бир хил эмаслиги туфайли қофияда «*айбгина*»си юзага келганлигини Навоий олимона зукколик билан қайд этганки, бу муҳим илмий қимматга эга назарий фикр ҳисобланади.

Қисқача қилиб айтганда, матлаъ мумтоз ғазалчилик тараққиётида ўзига хос ўринга эга бўлиб, шеърини матнда муҳим поэтик вазифани бажариш билан бирга шеър ихлосмандларни доимо фикрий ҳайратига сабаб бўлиб келган. Муҳими, уларда сўзни тушуниш ва ҳис этиш билан боғлиқ бадиий диди ҳамда тафаккурини шакллантиришда ўзига хос ўринга эга.

Адабиётлар:

1. Бобур З. М. «Сочининг савдоси тушти». – Т.: «Шарқ», 2007, 30-б.
2. Исоқов Ё. «Сўз санъати сўзлиги». Тошкент: 2006 йил, 33 б.
3. Навоий А. МАТ (Мукаммал асарлар тўплами) 20 томлик. 13-том. – Тошкент: Фан, 1997 йил, 61- 67 б.
4. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар.-Тошкент: «Ўзбекистон». 2012, 308- б.
5. Шарқ мумтоз поэтикаси. Биринчи китоб. – Т.: «ЎСЭ», 2008.
6. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. (Тўлдирилган ва тuzатилган иккинчи наشري). – Тошкент: “O‘ZBEKISTON”, 2014.
7. Абдураҳмонов А.,Файзуллоев Б. ва бошқалар. Поэтика илми таълими. - Тошкент:«MUMTOZ SO‘Z» , 2014.
8. Ваҳоб Раҳмон. Мумтоз сўз сеҳри. – Тошкент: “O‘zbekiston“, 2015.
9. Ваҳоб Раҳмон. Шеър саъатлари. – Тошкент: «SHARQ», 2020.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 2-жилд. –Т.: ”ЎСЭ”, 2006.
11. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусамат. –Т.:Фан. 1976.
12. Навоий А. «Девони Фоний» дан. Форс тилидан Ҳабибулло Саид Ғани таржималари. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2006.-125 б.
13. Бобур З.М. Бобурнома. (Ҳозирги ўзбек тилига Ваҳоб Раҳмонов ва Каромат Муллохўжаева табдил қилган).- Тошкент: “O‘qituvchi”, 2008.

ЕВРОПАДАГИ МИЛЛИЙ МУМТОЗ ДУРДОНАЛАРИМИЗ

Гулноз ХАЛЛИЕВА,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети профессори,

Тошкент давлат шарқшунослик университети

инновацион лойиҳа бош илмий ходими, филология фанлари доктори

Сўнгги йилларда қадим тарихимиз ва бой маданиятимизни тиклаш,

буюк алломаларимиз қолдирган маънавий меросни чуқур ўрганиш ва тарғиб

килиш, ёш авлодни шу эзгу анъаналар руҳида тарбиялаш бўйича кўп хайрли ишлар қилинди. Навбат бу йўналишдаги ишларни сифат жиҳатидан янги босқичга кўтаришга етиб келди. Айниқса, олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари олдида қадим қўлёзмаларимиз хазинасини бойитиш, хорижда сақланаётган илмий меросимизни, буюк мутафаккирларимизнинг жаҳон илм-фани ва цивилизацияси ривожига қўшган беқиёс ҳиссасини тарғиб этиш каби долзарб вазифалар турибди.

Ҳар бир миллат адабиёти бадиий тафаккурнинг ажралмас қисмини ташкил этади. Жаҳон халқларининг қизиқиши ва ўқиши бадиий адабиёт аҳамиятини белгиловчи асосий мезонлардан ҳисобланади. У ёки бу халқнинг жаҳонда танилиши, энг аввало, ўша халқ маданияти, санъати ва адабиётининг қандай миқёсда тарқалиши ва тан олинishiга боғлиқдир.

Президентимизнинг 2017 йил 24 майдаги “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳам ана шу вазифаларни бажаришга қаратилган ва бунинг учун мустаҳкам ҳуқуқий асосларни яратиб бериши билан аҳамиятлидир. Айни дамда бу вазифалар инновацион лойиҳалар доирасида амалга оширилмоқда

Тошкент давлат шарқшунослик университетиде бажарилаётган “Европа фондларида сақланаётган, Ўзбекистонда мавжуд бўлмаган туркий қўлёзмаларнинг маълумотлар базасини ва “Yevroturcologica.uz” электрон платформасини яратиш” деб номланган инновацион лойиҳа доирасида бир қанча профессор олимлар фаолият юритади. Мазкур лойиҳа объекти — Европа фондларида сақланаётган, Ўзбекистонда мавжуд бўлмаган туркий қўлёзмалар бўлиб, илмий мақсад — улар ҳақидаги маълумотлар базасини яратиш.

Ушбу янгиликларни аниқлаш мақсадида 2021 йил декабрь ойида Германия, 2022 йил март ойида Франция, Венгрия кутубхоналарига илмий сафар уюштирилди. Натижада Ўзбекистонда мавжуд бўлмаган бир қанча қўлёзмалар аниқланди, айримларининг фотонусхалари олиб келинди.

Германияда туркий қўлёзмаларни тўплаш ва ўрганиш XVII асрнинг охириги чорагидан бошланган. Сиёсий арбоб Фридрих Вельгельм ташаббуси билан 1661 йилда барча хусусий кутубхоналар бирлаштирилиб, Берлинда йирик кутубхона ташкил этилади. Бу маскан ҳозирда Берлин давлат кутубхонаси деб номланади. Унда шарқ бўлими мавжуд бўлиб, фондида 41 минг 600 та арабий, форсий, туркий, япон, корейс каби шарқ қўлёзмалари, жумладан, ўзбек адабиётининг назмий ва насрий дурдоналари сақланади. Бу кутубхонадан ташқари Гота, Мюнхен, Дрезден шаҳарларидаги кутубхоналар фондида ҳам туркий қўлёзмалар мавжудлиги маълум бўлди. Хусусан, Ўзбекистонда йўқ жами 19 та қўлёзма аниқланди. Уларни ўрганиш баробарида немис олимлари билан тажриба алмашилди.

Умуман олганда Германия кутубхоналарида жами 239 та туркий қўлёзма кўздан кечирилди. Шундан 43 таси Навоий асарлари, қолганлари тарих, фалсафа, тил, адабиётга оид асарлар эди. Улар орасида Бобожон Санойининг

Хоразм тарихига оид асари ҳам бўлиб, у бошқа кўлёзма фондларида мавжуд эмаслиги, **асл нусхалиги билан ажралиб туради.**

Бобожон Санойй бу асарини “Маъориф ун-насаб” деб номлаган. Унда Хоразм тарихига оид мулоҳазалар насрий ва назмий усулда ёзилган бўлиб, тарих ва адабиёт фани учун қимматли аҳамият касб этади, тарихий фактлар баёнида турли хил ривоятлар, шеърлардан фойдаланилган.

Бу асарни шарқшунос олим Василий Бартольд 1929 йилда Германия кутубхоналарига илмий сафари чоғида кўради ва илм-фанга биринчи бўлиб ахборот беради. Олим асарнинг умумий хусусиятлари ҳақида ўз фикрини билдирар экан, Бобожон Санойй катта иқтидор эгасилигини, унинг кўлёзма асари Германияда эмас, ўз юртида ёки Ленинградда сақланиши кераклигини таъкидлаган эди.

Ўзбекистонда Бобожон Саноййнинг адабий-ирфоний мероси маълум даражада ўрганилган, аммо айнан бу асари тадқиқ қилинмаган. Ўзбек адабиётшунослигидаги дастлабки маълумотларни Нажмиддин Комилов ёзиб қолдирган. **Шоҳида** Шакирова тадқиқотида Бобожон Саноййнинг “Канз ул-маориф” ва “Ҳадиқаи азҳор” асарлари матншунослик ва адабий манбашунослик йўналишида тадқиқ этилган.

Хуллас, Германияга сафаримиз чоғида Хоразм тарихининг ноёб дурдонаси — 400 бетдан иборат кўлёмани топишимиз осон бўлмади. Чунки **Василий Бартольд** асар номини “Таворихи Хоразмшоҳия” деб келтирган. Аммо Берлин кутубхонаси каталогига асар номи “Маъориф ун-насаб” деб ёзилган. Бу фарқнинг сабабини кўлёмани ўзимиз кўргач аниқлаштиришга муваффақ бўлдик. Ҳақиқатда кўлёмани бошида муаллиф асар номини “Маъориф ун-насаб” деб атаган, асар охирида эса тарихий тафсилотлар характеридан келиб чиқиб “Таворихи Хоразмшоҳия” деб ёзилган.

Асар ва унинг муаллифи ҳақидаги барча маълумотлар: яратилиш тарихи, таркиби, тили, ибтидоси ва интиҳоси хусусида кўлёманинг ўзидан билиб олиш мумкин. Масалан, муаллиф ўзи ва тахаллуси ҳақида шундай ёзади: “*Чун бу фақир Мулло Бобожон ибн Худойбердибек манқит Эшбуға қабиласидин, маъно аҳли эшикларининг гадоийи, ал-мутахаллус бил Санойй гафараллоҳу таъоло...*”. Демак, асар муаллифининг исми Бобожон, тахаллуси Санойй бўлган.

Мазкур асаргача ҳам Хоразм тарихига оид асарлар бўлган. Масалан, Абулғози Баҳодирхоннинг “Шажараи турк”, Мунис ва Огаҳийнинг “Фирдавс ул иқбол” асарлари шулар жумласидандир. Бобожон Саноййнинг бу асари ўзигача бўлган тарихга оид асарлардан кўра содда, тушунарли тилда ёзилган. Сабаби асарни ёзишга ундаган, ўша даврда вазир бўлган Ҳасанмурод Қушбеги (1864) бу асарнинг тили оддий халқ учун ҳам тушунарли бўлиши кераклиги талабини қўяди: “*....Лекин кўб-кўб иъборатда фасоҳат ва балоғат изҳор этиб сўзга татвил ва такмил бериб ҳикоятини эл фаҳмидин узоқ қилибдурлар. Ондоким, бу замон аҳлининг зехлари ул маъонийлар вақтидин қосир ва ожиздур. Ул сабабдин сан бир торих жамъ этгилким, сўзи мувхабар ва ўзи мухтасар бўлсун. Ул тариқадаким, замон аҳлининг ҳушлари*

етушгудек, балким авом аҳли тушгудек нусха ёзгил, токим сандин ва бизлардин ёдгор бўлсун”.

Асар анъанавий ҳамду сано билан бошланган, муқаддима, бешта бобдан иборат. Муаллиф ёзган кўйидаги изоҳдан маълум бўлишича, асар сўнггида хотима ёзиш ҳам режалаштирилган, аммо бу қисм кўлёзмада ўз аксини топмаган. *“Энди, бу китоби мустатоб бир муқаддима бирла беш боб ва бир хотимага тақсим топди. Муқаддима Ҳазрати Соҳибқирон Элтузархони жаннатмаконнинг хонлиг замонларидаги баъзи ўзлариға хос бўлгон воқеалар баёнидадурким, соҳибқиронлиг иқболнинг осори эрди. Аввалги боб Ҳазрати Одам алайҳиссаломдин то Нуҳ алайҳиссаломгача баён топар. Иккиланжи боб Ёфас бин Нуҳ алайҳимуссаломдин то Кўнгирот жамоасининг зикри ва магул подшоҳларининг воқеаларининг баёни турур. Учланжи боб Қурлос авлодидин подшоҳ бўлгонларнинг маротиблари баёнида турур. Тўртланжи боб Ҳазрати подшоҳ соҳибқирон яъни Элтузархоннинг обову аждод ва ато боболарининг баёнида турур. Бешланжи боб Элтузархоннинг анодин бўлгонларидин то бу замонгача ва бу китоб ёзилгон вақтға тегру ҳар не ишлар, бу Хевақ ва Хоразм дорус-салтанасида пайдо бўлубдур, онинг баёнида турур. Хотимаи китоб ҳар авлиёи иъзом ва уламои киром ва умарои заввал эҳтиром ва соҳиби давлат беклар ва покиза табиъат табиъат шоирлар ва донишманд фозиллар ва фалотун фикрат ҳақимлар ва яна бир нечта ажойиб ва гаройиб ишларким, Элтузархоннинг вақтида ва ондин сўнгра то бу кунгача бўлуб ўтубдур, борчаси мужмалан ҳикоят этилур ишсааллоҳу таъоло ваҳидиҳал аъзиз”.*

Хоразм тарихига оид “Маъориф ун-насаб” кўлёзмасини ўқиш ва ўрганиш жараёнида Бобожон Санойининг ҳақиқатда ҳам иқтидор эгаси эканлигига амин бўлдик. Асарда тарихий воқеалар баёни баробарида минг мисрадан ортиқ шеърӣ парчалар ҳам берилган. Галдаги изланишлар ушбу кўлёзмани тўлиқ табдил, таҳлил ва талқин қилишни тақозо этади.

Юқорида таъкидлаганимиздек, илмий сафаримиз давомида Германия кутубхоналарида Алишер Навоий асарларининг 43 та кўлёзма нусхаси борлигини аниқладик. Уларнинг энг кўпи (35 та) Берлин давлат кутубхонасида сақланади. Улар орасида шоирнинг “Хамса”, “Лисон ут тайр”, “Мажолис ун нафоис”, “Хамсат ул мутаҳаййирин”, “Маҳбуб ул қулуб” каби асарлари, девонлари мавжуд бўлиб, турли даврларда кўчирилган кўлёзма нусхалар саналади. Кўлёзмалар орасида “Маҳбуб ул қулуб” асарининг 1238 ҳижрий йилда кўчирилган ноёб нусхаси ҳам мавжуд. Германиянинг Мюнхен шаҳридаги кутубхонада Навоийнинг 4 та кўлёзма асари борлиги маълум бўлди. Улар шоирнинг “Мажолис ун нафоис”, “Тарихи мулки аҷам” асарлари ва 2 та шеърӣ девонидан иборат.

Париж миллий кутубхонаси ҳам Шарқ кўлёзмалари бўйича йирик фондлардан бири саналади. У ерда жами 2010 та туркий кўлёзма борлиги аниқланди. Улар орасида қадим ўзбек (чиғатой), турк, қозоқ, қирғиз, туркман ва боша туркий халқларга оид кўлёзмалар бор. Кўлёзмаларнинг энг қадимийси XIII асрга тааллуқли. Биз кутубхонада кузатган асарлар тарихий, бадий, диний, тилшунослик, этнография, мусиқа ва ҳоказаларга оид туркий

қўлёзмалардир. 229 та туркий қўлёзма орасидан, жами 22 та Ўзбекистонда йўқ қўлёзмалар аниқланди. Уларни ўрганиш асносида Сорбонна университети шарқшунос устозлари, талабалари билан учрашилди, тажриба алмашилди ва академик ҳамкорлик масалалари келишиб олинди.

Париж миллий кутбхонасида топилган энг ноёб қўлёзмалардан бири Камолиддин Ҳусайн Хоразмийнинг (1466-1551) “Насиҳатномаи Шоҳий” асаридир.

Ҳусайн Хоразмий Кубравия тариқатининг Ҳусайния силсиласи асосчиси, ўз даврининг олиму уламози, шоири даврони бўлган. Огаҳий Ҳусайн Хоразмий ҳақидаги “Мифтоҳут толибин” “асарини форсчадан туркийга ўгирган.

Самарқандда бир муддат яшаб ижод этган Ҳусайн Хоразмий шарафига “Махдуми Хоразмий” (2002) жамғармаси ташкил этилган. Ҳусайн Хоразмийнинг ибратли ҳаёти ва ижоди дунё тасаввуфшунос олимлари томонидан кўп бор эътироф этилган, аммо ўзбек филологиясида адиб ижоди деярли ўрганилмаган. Ҳозирда шогирдларимиз билан Ҳусайн Хоразмийнинг Франциядан олиб келинган “Насиҳатномаи Шоҳий” асарини табдил қилишни бошладик. Яқин орада бу асар мазмун-моҳиятидан халқимизни баҳрамнд қилиш ниятидамиз.

Бу ҳали катта ишларнинг бошланиши. Биз “Европа фондларида сақланаётган, Ўзбекистонда мавжуд бўлмаган туркий қўлёзмаларнинг маълумотлар базасини ва “Yevroturcologica.uz” электрон платформасини яратиш” лойиҳаси асосида Финляндия, Австрия, Нидерландия, Италия каби Европа давлатларида сақланаётган туркий қўлёзмаларни ўрганишни ҳам режалаштирганмиз.

Лойиҳанинг илмий аҳамияти шундаки, хорижий фондлардаги туркий қўлёзмаларнинг илмий истифодага олиб киритилиши билан қадимий ва бой тарихга эга ўзбек тили ва адабиётининг теран илдизларини, мумтоз тафаккур оламида аждодларимиз кўтарилган чўққиларни XXI аср заминида реал хис қилиш имкони пайдо бўлади.

Лойиҳа доирасида Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 18 майдаги “Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2017 йил 14 августдаги “Интернет жаҳон ахборот тармоғида миллий контентни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарорларида ҳамда китобхонлик маданиятини оширишга қаратилган барча меъерий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш имкони мавжуд.

Европада сақланаётган қўлёзма асарларни ўрганиш баробарида ва энг янги технологик методлар асосида Ўзбекистонда мавжуд бўлмаган туркий қўлёзмаларнинг маълумотлар базаси ва “Yevroturcologica.uz” электрон платформаси яратилади.

QO‘QON ADABIY MUHITINING G‘OYAVIY RAHNAMOSI HAQIDAGI ASAR

Hilola RAIMOVA,
Qo‘qon DPI mustaqil tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillari o‘zlari uchun g‘oyaviy rahnamo sifatida bilgan hazrat Alisher Navoiy haqida hozirgi o‘zbek adabiy jarayonining eng so‘nggi mahsullaridan biri, nosir Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, adabiy jarayon, Alisher Navoiy, Amiri, tazkira, an‘ana, spetsifika.

Аннотация:

Эта статья об Алишере Навои, одном из последних продуктов современного узбекского литературного процесса, романе Исаджона Султана «Алишер Навои».

Ключевые слова: литературная среда Коканда, литературный процесс, Алишер Навои, Амир, тазkira, традиция, специфика.

Annotation:

This article is about Alisher Navoi, one of the latest products of the modern Uzbek literary process, the novel "Alisher Navoi" by Isajon Sultan.

Keywords: Kokand literary environment, literary process, Alisher Navoi, Amir, tazkira, tradition, specifics.

Bugungi kunda adabiyotimiz barcha tur va janrlarida kuzatilayotganidek, romachilikda ham sifat jihatdan o‘zgarish va yangilanish jarayoni kechmoqda. Bu narsa birinchi galda qahramonlarning ma‘naviy-intellektual faoliyatida, ruhiy hayotida namoyon bo‘lmoqda. Ma‘naviy qadriyatlarini bashariy mezonlar bilan o‘rganish va baholash, o‘zlikni anglashning o‘sishi, xalqimizning ma‘naviy sarchashmalar ildizlariga qaytishi asosida mustaqillik mafkurasining poydevorini mustahkamlashga intilish ma‘lum darajada hozirgi davr milliy nasrida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbek romanchiligini yaxlit xolda olib ko‘zdan kechirsak, shunga amin bo‘lamizki, tarixiy mavzudagi asarlar qaysidir ma‘noda ularning o‘zagini, zamonaviy asarlarga nisbatan salmoqliroq, yuksakroq va mumtozroq bo‘lagini tashkil etadi.

Alisher Navoiyni o‘zbek adabiyoti tarixida alohida hodisa bo‘lgan Qo‘qon adabiy muhitining tom ma‘nodagi g‘oyaviy rahnamosi desak sira mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki shoh-shoir Amiri boshchiligidagi bu muhitning yuzga yaqin namoyandalaridan birortasining ijodini Alisher Navoiyning boy va serqirra merosining samarali ta‘siridan ayri holda tasavvur qilish qiyin. [1, 58]

Xususan, adabiy muhit asoschisi Amiriyning o‘zi ham ijodda hazrat Alisher Navoiyni o‘ziga g‘oyaviy rahnamo sifatida bilib, unga ergashib she‘rlar yozgan. Bu haqida Po‘latjon domullo Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarida shunday deyilgan: “Bu kishi Ho‘qand shahridan bo‘lub, nomi Umarbek bo‘lub, shohruhiylardan Norbo‘tabiyning o‘g‘lidur... She‘rda taxallusi Amirdur... Ustoz

Muhammad Ya'qubdan tahsili irfon olmish. Navoiyga ergashuvchi shoirlardan bo'lub, bir devonga egadir. Badiiy tomondan raso shoir ekani yozgan ash'ori obdoridan ma'lumdir. Bu kishining xonlig'idan qat'iy nazar ho'qandli buyuk shoir sifatida hurmat etamiz. Tabiat bu shoir shohruhiylar sulolasidan o'zbek elining ming urug'idan yetishtirmishdir. O'z davrida uning saroyi adabiyot ahli, ilm-ma'rifat kishilari uchun ochiq bo'lub panoh topdilar. O'shal vaqt Ho'qandga atrofdan adabiyot ahllari kela boshladilar va hurmat ko'rdilar. Adabiy nashidalari bilan serob etdilar. Ma'rifat ahllari ziyodalashdi..." [2, 107]

Turkiy adabiyotning eng ulug' dohiysi bo'lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hazratlarining sermazmun hayoti va boy adabiy faoliyatiga bag'ishlab jahon, xususan, o'zbek adabiyotida ham ko'plab asarlar yozib kelinmoqda. Mana shunday asarlardan biri Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanidir.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o'laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to'qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to'qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzudagi asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari asosida o'rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o'sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Badiiy nasrning g'aroyib qoidasi bor: yozuvchi birinchi jumlaning qog'ozga tushurishga uzoq tayyorgarlik ko'radi [3, 298] Isajon Sulton ham mana shu tayyorlanish, uzoq va mashaqqatli tayyorlanish jarayonini boshdan o'tkazgan. Yozuvchining tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o'tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o'z xalqining tarixiy o'tmishiga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otish va shu yo'l bilan ma'rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o'tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o'tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir.

O'tmishni va bugunni yaxshi biladigan, hayotiy saboqlarni o'qigan va uqqan, ma'naviy yuksak, ijodiy fantaziyasi boy yozuvchining hamma vaqt o'quvchisiga aytadigan gap bo'ladi. Qator asarlari bilan o'quvchilar qalbidan joy olgan yozuvchi Isajon Sulton bu safar ham o'z o'quvchisiga yangi gap aytish, ma'naviy ozuqaga muhtoj qatlamni ehtiyojini qondirish maqsadida kata bir ishga qo'l urdi. Yozuvchi Isajon Sulton shu zarur gapga mos keladigan shakl, ijodiy yo'sin, tasvir va talqin topmaguncha, uni mukammallikka yertkazmaguncha orom olmaydi, tinib-tinchimaydiganlardan. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor: "kitobni badiiy qilib mahorat bilan yozish ijodiy jasorat ko'rsatish demakdir. Biz ijodiy jasorat degan gapni juda kam va tortinib tilga olamiz. Bu to'g'risida tortinmasdan, baland ovoz bilan gapirish kerak. Chinakam badiiy asar yaratish -

bor kuchini, butun ilhom va qobiliyatini sarf qilish demakdir. San'atning temir qonuni, kasb-korining talabi shudir", - degan edi.

Inson adabiyotning tasvir predmeti ekan, insonning ruhiyatisiz uni yaxlit, bir butun holatda to'liq tasavvur qilish mumkin emas. Demak, har qanday badiiy asarda, u qachon va qaysi janr, metodda yaratilgan bo'lmasin, inson psixologiyasi u yoki bu tarzda aks etishi tabiiydir. U hatto tarixiy mavzudagi asar bo'lsa ham. Tarixiylik tamoyilining o'zbek romanlarining asosiy mezonlaridan biriga aylanishida tarixiy qahramon, tarixiy muhit va tarixiy-badiiy talqin "uchligi" muhim omil sifatida ko'zga tashlanadi. Zero, tarixiy asar xalq va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan mashhur shaxslar hayoti asosida yaratiladi, o'z prototipiga ega bo'lgan tarixiy shaxs hayoti va faoliyatining yozuvchi estetik ideali bilan bog'liq qirralari asarda aks etgan bo'ladi. Bunday romanlarda to'qima obrazlar yoki tarixda o'z prototipiga ega bo'lgan personajlar xarakterini yaratish jarayonida tarixiy voqealarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantirish, ularga milliy ruh bag'ishlash va tarixiy shaxslarni millat qahramoni darajasiga ko'rsatish tamoyili ustuvorlik qiladi. "Alisher Navoiy" romanida yozuvchi ana shu tamoyilni yorqin ifodalay olgan. Ya'ni Navoiyni anglash yo'lida mashaqqat orqali qator faydali xulosalarga kelgan va aynan shu xulosalarni o'quvchi bilan bo'lishishni istaydi. Zero, Ibrohim Haqqul aytganlaridek, "Navoiyni anglash "maqomi"ga yetish tom ma'nosi ila bir saodat. Faqat bunga g'oyatda sekinlik bilan, nihoyatda ko'p mutolaa va mushohada ila, ma'lum bir hayot tajribasiga ega bo'lish bilan erishiladi." [4,122]

Aziziddin Nasafiy "Komil inson" nomli kitobida yozadi: "Bilgilki, komil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so'z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go'zal axloq, to'rtinchisi ilm. [4,114] Isajon Sulton Aliusher Navoiyni ana shu to'rt sifatga ega holda tasvirlaydi. "Farhod va Shirin"da Navoiy Farhodni tasvirlaganidek. Alisher Navoiyni o'qigan inson o'zining ma'naviy va ruhiy muammolariga albatta javob topqusidir. Yozuvchi Alisher Navoiy haqida asar yozar ekan bu daho iste'dodning ana shu jihatlariga ham e'tibor qaratgan. Zotan Navoiy har bir davr uchun zamon kishisi, u bizning donishmand zamondoshimizdir. [3, 3] Asarning asosiy g'oyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, Isajon Sulton avvalgi ijodkorlardan farqli ravishda o'z ijod mahsulini 4 qismga, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining devonlari nomi ila ataydi. Alisher Navoiyning bolalik va yigitlik davridagi aqli teranlik, o'tkir mulohazakorligi, ilmi va zehni ila kattalarni ham shoshirib qo'yishi, asarlarining dunyoga kelishi ham hazratning kichik yosh vaqtlaridan xayolida bo'lgani va yoshi ulg'ayganda ularni hayotida yozganini batafsil tasvir etadi.

Asarda ko'nglida zarra g'ubori bo'lmagan, kichik obraz sanalsa-da, lekin ko'nglimdan chuqur o'rin egallagan Qutb ham Navoiyning yuksak shaxs sifatida voyaga yetishida muhim rol o'ynaydi va umrining oxirida ko'zining oq-u qorasi bo'lgan Alisherning vafot etganini eshitib haddan ko'p qayg'urgan va odatiga ko'ra bir yil motam tutgan.

Husayn Boyqaro, Kamol Turbatiy, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Fayzulloh Abullays Samarqandiylarning qiyinchiliklar chog'ida

Navoiyni har dam qo‘llab-quvvatlaganliklari buyuk iste‘dod sohibining kamolotga yetishuvida muhim rol o‘ynagani asarda alohida ta‘kidlanadi. Asarda do‘stlikning eng oliy namunasini ham ko‘rishimiz mumkin. do‘sti uchun o‘zi rohatidan kechishi, ya‘ni Abu Said Mirzo huzuriga bormay dam Mashhadda, dam Samarqandda xor-u zorlikda tentirab yurishi ham do‘stiga nisbatan chuqur ehtirom va sadoqat timsoli edi.

Yozuvchi ko‘p yillar mobaynida dilining tub-tubiga joylab qo‘ygan orzusining go‘zal bir ravishda ro‘yobga chiqayotgani haqida mulohazalarini bayon etgandek bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Isajon Sulton o‘zining boshqa romanlari bilan mistik tafakkur sohibi sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, bus safar tarix bilimdoni sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Ijodkor “Alisher Navoiy” romanida ko‘rkam so‘zning jozibasini ko‘rsata oladi. Tarixiy shaxslarga, voqealarga, Navoiyning nazm bo‘stoniga o‘zining soddalik va falsafiylik ohanglarini uyg‘unlashtira oladi.

Asar yaratadigan ijodkorning qo‘sh qanoti bor: biri yozuvchilik, biri o‘quvchilik. [5, 94] Boshqa ayrim yozuvchilardan farqli o‘laroq Isajon Sultonda har ikki qanot ham faol ishlaydi va aynan shuning o‘quvchiga yoqadigan, suyumli bo‘ladigan asarlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta‘sir va izdoshlik (Amiriy she‘riyati misolida). – T.: Turon-Iqbol, 2021, 256 bet.
2. Po‘latjon domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). -T.: O‘z RFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. 713 bet.
3. Isajon Sulton. Alisher Navoiy.Roman. – T.: Adabiyot nashriyoti, 2021.
4. Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007.
5. Rasulov A. Badiiylik bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007.

MANBALARNI MATNIY TADQIQ ETISH MUAMMOLARI

MUHYI HO‘QANDIYNING BIR QO‘LYOZMA BAYOZI XUSUSIDA

**Abdullatif TURDIALIYEV,
G‘.G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot
muzeyi mudiri, f.f.n., dotsent**

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshidagi Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyandaliridan biri shoir, muarrix va xattot Muhyi Xo‘qandiy (1836-1911) ning hayoti hamda ijodiy merosi faqat Mustaqillik yilliridagina o‘rganila boshladi¹. Bu borada A.Hayitmatev, Sh.Yusupov, A.Madaminov, S.Sotvoldiyev, N.Zohidov kabi olim va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari hamda vaqtli matbuot sahifasida e‘lon qilingan maqolalari va shoir ijodidan namunalar bu serqirra ijodkor nomini jamoatchilikka tanishtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Tadqiqotchi A.Muhammadiyevning Muhyi she‘riyatining poetikasini tadqiq etishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertasiyasi bu yo‘ldagi ilk yirik qadam bo‘ldi. Biroq Muhyi Ho‘qandiyning ko‘plab lirik va hajviy she‘rlari, hamda “Tarim Muhyi Xo‘qandiy”, “Riyoz ul-firdavs” asarlari hali to‘liq o‘rganilib ilmiy baholangan emas. Jumladan, G‘.G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida ham Muhyining bir necha qo‘lyozma to‘plamlari saqlanadi. Shulardan biri 226-invertar raqami qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma 78 varaqdan iborat bo‘lib sarg‘ishrang Qo‘qon qog‘ozi nasta‘liq xatida qora siyoh bilan kitobat qilingan. Ayrim she‘rlarga qo‘yilgan sanalarga qaraganda ushbu qo‘lyozma 1900-1903-yillarda ko‘chirilgan. Kotib – muallifning o‘zi. Qo‘lyozmaning keyingi davrda tayyorlangan qog‘oz muqavasining old tarafiga nasta‘liq xatida “Muhyi” so‘zi yirik harflar bilan yozib qo‘yilgan. Muqovaning orqa tarafiga mayda nasta‘liq xatida qalam va sharikli ruchkada quyidagi jumlar yozilgan: “G‘azal, muxammas, murabba‘, she‘riy maktub va hajvlar. Muhyining o‘z qo‘li bilan yozilgan. Ushbu qo‘lyozma Muhyining o‘z dastnavisidir.

Tasdiqlovchi: kamina Charxiy Xo‘qandiy”. Demak, bu qo‘lyozma bayoz O‘zbekiston xalq shoiri Charxiyning guvohlik berishicha, Muhyining o‘z dastxati bilan ko‘chirilgan. Bayozning boshlanishi (1^a varaq) da quyidagi o‘zbekcha qit‘a yirik va chiroyli nasta‘liq xatida husnixat bilan yozilgan.

Hammom emish nishonai mahsharg‘a, ey birodar,

Azbaski xalq uryon, barcha erur barobar.

Ilmu amaldin o‘zga yo‘qdur farq anda.

Muhyi so‘zida yo‘q shak albatta, bil muqarrar.

Qolgan sahifalardagi she‘rlar oddiy xat bilan yozilgan. Bayozga kiritilgan she‘rlar o‘zbek va fors tillarida bo‘lib, ularning jami 54 tadir. She‘rlar g‘azal va

¹ Бу ҳақда қаранг: Ҳайтметов А. Тақдир ва таҳсинга лойиқ. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992 й 9 октябр, Зоҳидов Н. Муҳйиддин Муҳаммад Ризо Охунд ўғли Муҳйи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1994 йил, 3-сон; Юсупов Ш, Муҳйи Хўқандий.// Шарқ юлдузи. 2002. 1-фасл; Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Т: Маънавият. 2004. Б.144-166. Муҳаммадиев.А. Муҳйининг туркий ва форсий девони поэтикаси. Филол. фан. номз. дисс. автореф. Т. 2008; Турдиалиев А. “Муҳйи ҳаёти ва ижодини ўрганилиш тарихи.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009. №1. Б. 71-74.

murabba', muxammas, qit'a janrlarida yozilgan. Bayozdagi o'zbekcha she'rlarning miqdori 21 ta bo'lib jami 945 misrani tashkil etadi. Bayozda Muhyi she'rlaridan tashqari, boshqa ijodkorlarning Muhyiga bag'ishlangan she'rlari ham o'rin olgan.

Jumladan, bayozning 42^b – 45^a varaqlarida Muhyining so'zboshisi bilan Fansurullobek Xusrav (Xudoyorxonning kichik o'g'li) ning Muhyiga bag'ishlangan 2 ta she'ri (bir qalam va bir g'azal) keltirilgan. Bu she'rlar 1318-hijriy (1900- milodiy) yilda yozilgan bo'lib, bir tomondan zamondoshlarining Muhyiga bo'lgan munosabatini bildirs, ikkinchidan Fansurullobek Xusravning shoirlik qobilyati qay darajada ekanligidan darak beradi. Misol tariqasida Xusravning qasidasidan ikki baytni iqtibos keltiramiz:

**Maoniy kishvarining fathiga sohibqiron Muhyi,
G'azal birla qasoid jismig'a go'yoki jon Muhyi.**

**Bo'lur har lahza ming mazmundin rangin tab'idin sodir,
Magarkim gavhari mazmuni ranginlarga kon Muhyi**

Bayozda lirik she'rlar bilan bir qatorda shoirning ijtimoiy maqomlikka bo'lgan munosabatini ko'rsatuvchi hajviy she'rlar ham mavjud. Shulardan biri "Saylov manzumasi" sarlavhali muxammas shaklidagi she'rdir. She'r boshlanishidan oldin Muhyining quyidagi izhori berilgan: **"Sana 1310- hijriy hamal avvalida saylov voqe' bo'lg'onda ikki nafar zolimtabiat bexaradki insoniyat ko'chasidin yuz farsax dur, o'z havoyi nafsig'a mag'rur Xo'qand shahrida kalla talashib mingboshilig' to'g'risig'a noinsof ellikboshilarg'a ikki taraf barobar ishva uchun aqcha berib necha vaqtlar ikki taraf jangu jidal qildilar va ushbu fitna va jidollarni sabab Xo'qanddagi Tog'lig' mahallasida mashhur Shokir qaro degan fitna boshi bo'ldi, ba darojai sharmanda va rasvolikg'a aylandiki, yozib tamom qilib bo'lmasdur. Oqibat sho'rish ziyoda bo'lg'on jihatidin Xo'qand hokimi mazkur Shokir qaroning mahbus bo'lmoqlig'iga amir qildi. Shokir qaro necha muddatlar avoxte bo'ldi. Andin so'ng ikki muddaiy axmaqlarni birisi mingboshi bo'lib qoldi. O'shal mahalda faqir hoji Muhyig'a necha boe'tibor odamlar balki azizlari iltimos qildilar: "Shul voqeani manzuma qilsunlar" deb. Faqir ham qabul aylab ushbu tariqa naml aylab pandu nasoyihlar qilsam ham bu dunyo parast bediyonatlarg'a ta'sir qilmaydur. Dinig'a ishlari yo'q, dunyoni deb o'larlar"**²

Ushbu 22 betdan iborat muxammas manzumasidan bir bandni misol tariqasida keltiramiz:

**Farg'ona kishvarig'a saylov emas, balodur,
Qilmang gumonki rohat, mo'minlarga jafodur,
Sahro-u shahr xalqi kulfatig'a mubtalodur,
Garchand bo'lsa Qorun, har qaysi bir gadodur,
Dini uchun ishi yo'q, dunyo uchun adodur.**³

² Мухйи баёз. Қўлёзма. Ғ.Ғулом номидаги Қўқон адабиёт музейи фонди. Инв №226. 21^к варақ

³ М уҳйи баёз. Қўлёзма. Инв№226. в 21^б

Yuqoridagilardan tashqari, ushbu bayozda isfaralik mullo Olim, qo‘qonlik hoji Zohid va Qobil sartarosh singari turli ijtimoiy tabaqa vakillariga atalgan pand nasihat mazmunidagi qit‘a, g‘azal, muxammas, shaklidagi she‘rlar ham mavjud. Mazkur she‘rlar Muhyining 1912-yilda chop etilgan toshbosma devoni tartibga kiritilmagan.

Xulosa qilib aytganda, Muhyi Xo‘qandiyni G‘.G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida 226-raqam ostida saqlanayotgan noyob dastxati bayozi nafaqat Muhyi ijodiy merosini o‘rganishda, balki XIX asrning ikkinchi yarimi va XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhiti tarixini tadqiq etishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, Muhyi asarlarini chop etishda ushbu bayozdagi she‘rlarga ham alohida e‘tibor qaratish zarur.

QO‘QONDA SAQLANAYOTGAN “DEVONI HIKMAT”NING AYRIM NUSXALARI HAQIDA

**Nodirxon HASAN,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti f.f.d.
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Turkiy tasavvuf she‘riyatining asoschisi, hikmat an‘anasining boshlovchisi, yassaviylik tariqatining piri bo‘lgan Xoja Ahmad Yassaviy ma‘naviyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan bir siymodir. Dunyoning ko‘plab kutubxonalarida uning hikmatlari bitilgan “Devoni hikmat” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari avjud. Turkistonning qadimgi ilm, madaniyat, ma‘rifat va adabiyot markazlaridan biri bo‘lib bo‘lgan Xo‘qandi latifda ko‘plab ilmiy, tarixiy, adabiy manbalar saqlanadi. Ular orasida "Devoni hikmat" qo‘lyozmalari ham talaygina uchraydi. Ushbu maqolada shu kitoblardan ba‘zilari haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, “Devoni hikmat”, adabiyot, tasavvuf, qo‘lyozma, nusxa.

Аннотация:

Ходжа Ахмад Яссави, основатель турецкой мистической поэзии, лидер традиции мудрости, пионер секты Яссави, является иконой, оставившей неизгладимый след в истории нашей духовности. Во многих библиотеках мира есть рукописи и литографии его работ Девони Хикмат. Хоканди латиф, один из древних центров науки, культуры, просвещения и литературы Туркестана, хранит множество научных, исторических и литературных источников. Среди них рукописи «Девони Хикмат». В этой статье мы хотим поговорить о некоторых из этих книг.

Ключевые слова: Ходжа Ахмад Яссави, «Девони Хикмат», литература, мистика, рукопись, копия.

Annotation:

Khoja Ahmad Yassavi, the founder of Turkish mystical poetry, the leader of the tradition of wisdom, the pioneer of the Yassavi sect, is an icon who has left an indelible mark on the history of our spirituality. Many libraries around the world have manuscripts and lithographs of his work, Devoni Hikmat. Hoqandi latif, one of the ancient centers of science, culture, enlightenment and literature of

Turkestan, preserves many scientific, historical and literary sources. Among them are the manuscripts of "Devoni Hikmat". In this article, we want to talk about some of these books.

Keywords: Khoja Ahmad Yassavi, "Devoni Hikmat", literature, mysticism, manuscript, copy.

"Devoni hikmat"ning Qo'qonda saqlanayotgan nusxalaridan biri – hijriy 1295- yil, Rajab oyida ko'chirilgan bo'lib, u mavjud "Devoni hikmat"lar orasida e'tiborli va hajm jihatidan yirik nusxalardan hisoblanadi.

392 varaqli bu qo'lyozmaning hikmatlar qismida (144-390 v) 7380 misradan iborat 160 dan ortiq hikmat o'rin olgan. Ular orasida 135 tasi Ahmad Yassaviyning, qolganlari esa Azim Xoja Eshon, Miskin Jome', Qul Sulaymon Hakim ota, Shams, Jaloliddin Eshon, Qul Temuriy, Xolis, Nizomiy, Xudoydod kabi Yassaviy izdoshlariga tegishli hikmatlardir.

Boshlanishi: *Yo'l boshlamay yalg'uzsiz(in) yo'lga kirgon,
Karvon boshi bo'lur Makka yo'lin ko'rgon.*

Oxiri: *Bildim do'stlar bu aqlimga emdi yettim,
Saharlarda qo'pub toat qilg'um kelur.*

Novvotrang, shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan hikmatlar matni qora, sarlavhalar qizil siyohda yozilgan. Xati bir xil. She'rlar har sahifada 15 yo'ldan bir ustunga joylashtirilgan. Poygirlari bor. Sarlavhalarda «hikmati hazrati sulton ul-orifin» deya yozilgan. Hikmatlarning ilk sahifalari tushirib qoldirilgan. Ba'zi varaqlar shikastlangani sababli ayrim so'zlarni o'qib bo'lmaydi. Shunga qaramay, bu nusxa o'zining bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, unda boshqa "Devoni hikmat" nusxalarida uchramaydigan bir qancha hikmatlar o'rin olgan. «*Ishq dardini oshiqlarg'a tuhfa berdi*», «*Alloh, Alloh, subhanalloh qayon ketay*», «*Ayo do'stlar, tun-kun tinmay zikrin oyting*», «*Orif uldur Haq amrini pos aylasa*», «*Ishq tajalli qilsa kimni vujudinda*», «*Keling do'stlar pir xizmatin bayon aylay*», «*Yo Ahmadu, abdi degon Subhon izim*», «*Qayon pirim nazar qilsa ko'ngli yoruq*», «*Qaro otiga minmaguncha qaro ko'rmas*», «*Subhi sodiq dushanba kun me'roj chiqti*» kabi misralar bilan boshlanuvchi hikmatlar shular sirasiga kiradi.

"Devoni hikmat"ning uchta nusxasi Qo'qonning ilg'or ziyolilaridan Ahmadxon hoji shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Shulardan ***birinchisi***, «Sulton ul-orifin Qul Xoja Ahmad Yassaviy Turkistoniy hikmatlari» deya nomlangan bo'lib, uning o'lchovi 31,5x18,5, matn o'lchovi esa 21x9,5. «Hikmat» sarlavhalari qizil siyohda, ba'zi o'rinlarda bo'sh qolgan. Hijriy 1261-yil Mirzo Foziljon bin Abulqosim Maxsum Shahrizabziy tomonidan ko'chirilgan bu nusxa ikki qismdan iborat: birinchi qismda (1-73 varaqlar) Ahmad Yassaviy va izdoshlari hikmatlari; ikkinchi qismda Shams Tabriziy (Jaloliddin Rumi) she'rlari o'rin olgan.

Qo'lyozmaning Ahmad Yassaviy hikmatlari o'rin olgan birinchi qismida 4790 misradan iborat 128 ta hikmatning 106 tasi Ahmad Yassaviyga, qolganlari uning izdoshlari – Qul Sulaymon, Miskin Habi, Qul Naziriy, Qul Temuriy, Xudoydod kabi yassaviya maktabi vakillariga tegishlidir.

Novvotrang, shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan hikmatlar har sahifada 17 yo'ldan ikki ustunga joylashtirilgan. Poygir qo'yilgan. Xati bir xil. Matn qora siyohda, «hikmat», «hikmati hazrati sulton», «hazrati sulton», «hikmat hazrati

sulton Xoja Ahmad Yassaviy» kabi sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan, ba'zi o'rinlarda sarlavha o'rni bo'sh qolgan. Hikmatlar mayda, o'rta hol nasta'liq xatida bitilgan. Kataba qo'yilgan. Qo'lyozma yaxshi saqlangan. Muqovasi kartondan. Ayrim varaqlarda so'zlar ustiga qora dog'lar tushgan. Birinchi qismning boshi:

*Bismillohdin bayon aylab hikmat aytib,
Toliblarga durru guhar sochtim mano.*

Oxiri: *Faqiru haqir Mirzo Foziljon ibn Abulqosim Maxsum Shahrisabziy.*

Shahrisabziy nusxasining o'ziga xos jihatlardan biri, unda «Qul Xoja Ahmad» taxallusli «*Haqni tobgon devonalar behush so'zlar*» va «*Bihamdilloh rabbil olamin shukri sango*» deya boshlanadigan hikmatlar o'rin olganki, ular "Devoni hikmat"ning boshqa nusxalarida hozircha uchragani yo'q. «*Ko'runq na banda uzlat tutub o'turdi g'or ichra*» misrasi bilan boshlangan she'rga «Xoja Ahmad Yassaviy» taxallusi qo'yilgan (boshqa bir qator nusxalarda ham shunday), lekin bu hikmat "Devoni hikmat"ning boshqa bir nusxasida Shams qalamiga mansub. Qul Xoja Ahmadning «*Ko'nglum qushi doim uchor qanot to'qub*» deb boshlanadigan hikmati esa bu nusxada «Qul Naziriy» taxallusi bilan o'rin olgan. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Rahmatli Ahmadxon hoji shaxsiy kutubxonasiidagi **ikkinchi** "Devoni hikmat" e'tiborli nusxa bo'lib, unda Ahmad Yassaviyning ko'plab izdoshlari hikmatlariga o'rin berilgandir.

Qo'lyozma hajmi 15x26, matn hajmi esa 21x9,5 karton muqova, och novvotrang Qo'qon qog'ozi. Boshi tushib qolgan. Yaxshi saqlanmagan, ilk varog'ini biroz qurt yegan. 14 ba'zan 12 va 16 yo'lli she'rlar bir ustunga, ba'zan esa ikki ustunga joylashtirilgan. Xati ham har xil. Poygir qo'yilgan. «Hikmat» sarlavhalari qizil ba'zan qora, matn ham qora siyohda yozilgan. 337 varaqdan iborat bu nusxada 9324 misra she'r o'rin olgan.

Qo'lyozmada Ahmad Yassaviy hikmatlari 3 b varaqdagi «*Qutb ul-aqtob va sarvari mashoyix sulton ul-avliyo va burhon ul-atqiyo, ya'ni ba nomi zoti bob barakot hazrat sulton ul-orifin Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh quddisa sirruh ul-aziz*» so'zlari bilan boshlangan.

Oxiri: *Yilda bir qizg'a Zaliliy aylag'il joning fido,
Yoshim yetsun desang Nuhi nabiyni yoshig'a.*

300 ga yaqin she'rning 50 tasi Ahmad Yassaviyga, qolganlari esa Miskin G'arib (Qul G'aribiy), Qul Sulaymon (Hakim ota), Shahidiy, Xolis, Iqoniy, Qul Umuriy, Jaloliddin (Jaloliy), Miskin Azim (Azim Xoja Eshon), Ne'matulloh, Shams, Naziriy, Qul Foziliy, Tolib, Qul Temuriy, Qul Ubaydiy, Nizomiy kabi yassaviya izdoshlariga, shuningdek, Huvaydo, Zaliliy, Majzub, Solih, Mashrab, Xoja Homid, Sayqaliy, Anvari, Gulshan, Imlo, G'iyosiy, Qalandar, Himmatiy, Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Voiz, Nisoriy, Bedil, Mahviy, Eshoni Muhyi, Shaydo, Qoriy, Mavlaviy Jomiy, Fuzuliy, Jazbiy, Shams Tabriziy (Jaloliddin Rumiy), Nizomiy, Ravnaq, Muiniy, Gumroh, Xarobotiy, Domla G'oziy, Osaf, Abdiy, Shoh Qosim Anvor, Jurmiy, Mutrib, Majruh, Haziniy, Valixon, Shavqiy kabi adiblarga mansubdir.

Turkiy va forsiyda bitilgan g'azal, masnaviy, marsiya va muxammaslar orasida hamd, na't, munojot, avliyolarga bag'ishlangan madhiyalar ham bor.

Qo'lyozmada yassaviy izdoshlariga mansub qator hikmatlar borki, ular boshqa devon nusxalarida Ahmad Yassaviy nomi bilan o'rin olgan. Masalan, Miskin G'arib taxallusi qo'yilgan «Ko'rung xoliq qudratin Haq Mustafo ummatin» misrai bilan boshlanadigan hikmat boshqa bir nusxada Miskin Ahmad qalamiga mansub. «Ayo do'stlar qiyomat kun bo'lg'oninda» (Qul Umuriy), «Yo ilohim tavfiq bergil jondin o'toy» (Jozib), «O'n sakkiz ming olamni Haq yaratti» (G'arib), «Alloh, Alloh desam Alloh zarra yozuq qolmas valloh» (Qul Sulaymon), «Chekmaguncha bu yo'lni oncha mehnat ranjini» (Qul Umuriy), «Ishq jomini tugolguncha ichgon kishi» (Qul Ubaydiy) kabi hikmatlar "Devoni hikmat"ning boshqa nusxalarida «Qul Xoja Ahmad»ga nisbat berilgan. «Kimki qo'rqa oxiratning azobidin» hikmati esa (Qul Sulaymon) boshqa nusxalarda Soil qalamiga tegishlidir.

Nusxa o'zining bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, unda:

- Ahmad Yassaviyga mansub «Sharob ichgon oshiqlar molu jondin kechorlar» (Qul Xoja Ahmad), «Qorong'uluq shahristondin tog'lab oshib» (Qul Xoja Ahmad), «Tavba qilib g'ofil bo'lmang mo'min qullar» (Qul Xoja Ahmad), «Erta saharlar turubon zor» (Ahmad Miskin), «Yo ilohim ishqing solib parvona qil» (Qul Xoja Ahmad), «Man bexabar aylab gunoh tinmay yurub» (Qul Xoja Ahmad), «Besh vaqt namoz, bir oy ro'za - Haq buyrug'i» (Qul Xoja Ahmad), «Ayo g'ofil nechuk sani qildi mavjud» (Qul Xoja Ahmad), «Zamona oxirina qolduq do'stlar» (Qul Xoja Ahmad), «G'ofillarni ko'nglidin hirsu havo ketmadi» (Qul Xoja Ahmad), «Oshiqlarni ushbu kun shohi sultoni keldi» (Qul Xoja Ahmad) kabi yangi hikmatlar o'rin olgan;

- Jozib, Qul Mujrim, Qul Ziyoyi, Qul Homidiy kabi yangi izdoshlarining hikmatlari mavjud;

- Qo'lyozma oxirida tariqat odob arkoniga bag'ishlangan «Risolai jahriya», «Tariqati xatmi xojagon muazzam» va «Tariqati xatmi hazrati g'avz ul-a'zam» nomli kichik hajmdagi risolalar ilova qilingan.

Ahmadxon hoji shaxsiy kutubxonasidagi *uchinchi* nusxa ham shildiroq Qo'qon qog'oziga ko'chirilgan bo'lib, u qayta ta'mirlangandir. Undagi hikmatlar 11 va 13 yo'l, bir ustunda joylashtirilgan. Poygilar bor, matn qora siyohda, qo'lyozma o'lchovi 16,4x26,5 matn o'lchovi 9x17.

Boshi: *Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib,*

Toliblarga durru guhar sochtim mano.

Oxiri: *Agar yer ostig'a tushsa churumas,*

Yana mansux bo'lub ul xor bo'lmas.

2531 misradan iborat 103 varaqli bu nusxadagi 48 ta hikmatning 28 tasi Ahmad Yassaviyga nisbat berilgan (qolgan hikmatlar Qul Sulaymon Hakim ota, Azim Xoja, Maqsadiy, Zaliliy, Qul Ubaydiy, Mujrim, Jazbiy, Huvaydo, Mashrab va Shamsga mansub). Shulardan Ahmad Yassaviyning «Burun o'tgon zamondin, payg'ambarlar so'ngidin» (hikoyati Imomi A'zam)⁶², «Oshiqlig'ni shevasi, guftugudur mevasi» misralari bilan boshlanadigan ikkita hikmati, Shamsga oid

⁶² Бу ҳикмат «Боқирғон китоби»дан ҳам ўрин олган, лекин унда тахаллус қўйилмаган.

Ahmad Yassaviyga bag'ishlangan «Zikri Haqdur tilida Xojam Ahmad Yassaviy» madhiyasi o'rin olgan.

Qo'qonda saqlanayotgan "Devoni hikmat"lardan *yana biri* Hojibek madrasasi me'moriy yodgorligi xodimi Ibrohimjon domlaning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan nusxadir. Hijriy 1211- yil ko'chirilgan bu nusxa novvotrang, shildiroq Qo'qon qog'oziga nast'aliq xatida bitilgan bo'lib, muqova o'lchovi 15x25, matn o'lchovi 16x8,5 bir ustunga 13 yo'l joylashtirilgan, poygir qo'yilgan. Matn va «hikmat» sarlavhalari qora siyohda. 241 varaqdan iborat nusxada jami 6030 misra she'r o'rin olgan.

Boshi: «...ermas karomat yo'q. Qiyomat kun holimiz nechuk o'lg'oy»

Oxiri: «Aqling ketibon hushing og'ib qolmay fahm,

Til lol bo'lub so'zlayolmay turor ermish».

Boshqa mavjud nusxalarga nisbatan qadimiyroq hisoblangan bu nusxa bir qator afzalliklarga ega. Chunonchi:

- Nusxadagi 146 ta hikmatning 134 tasi Ahmad Yassaviyga (qolgan 8 ta she'r Qul Sulaymon Hakim ota, Qul Sharif, Shams va Mashrab kabi izdoshlarga oid) mansub bo'lib, ular orasida «Vale tinmay ibodat qil jamolini ko'ray desang» (Yassaviy) va «Muhabbatning bozorinda javlon qilib, Oshiqdari savdo qilib yurur bo'lg'oy» (Qul Xoja Ahmad) misralari bilan boshlanadigan ikkita yangi hikmat;

- Hakim otaning «Ul oshiqi xosi Xudo Sulton Xoja Ahmad Yassaviy» misrasi bilan boshlangan Ahmad Yassaviy madhiyasi;

- Boshqa nusxalarda kamyob uchraydigan Qul Sharif qalamiga mansub Er Xubbi dostoni;

- Boshqa "Devoni hikmat" nusxalarida uchramaydigan «Faqirnoma» risolasi o'rin olgan.

Ma'lumki, «Devoni hikmat»ning ba'zi toshbosma nusxalaridan joy olgan «Faqirnoma» risolasi Yassaviy dunyoqarashi, yassaviylik qoidalari to'g'risidagi tushunchamizni boyitishi jihatidan muhim o'rin tutadi. Chunki «Faqirnoma»da ulug' purning tariqat odobi, shayxlik maqomlari, so'fiylik talablariga doir qimmatli so'zlari bayon etilgan. Ba'zi tadqiqotchilar «Faqirnoma»ni Yassaviy qalamiga mansub desalar⁶³, ba'zilari uni muridlari tomonidan yozilgan deydi⁶⁴, boshqa

⁶³ Проф. Махмуд Ас'ад Жўшон узоқ тадқиқотлар натижасида «Фақрнома»нинг Яссавий қаламига мансуб асар эканини қатъий баён этиб, бундай дейди: («Фақрнома») муқаддимасида... сифатлардаги Аҳмад Яссавий ҳазратлари бундай дедилар, деб ёзилган: «Аммо билгилким бу рисола кутбул ақтоб... Хожан Аҳмади Яссавий андоғ айтубдирларким» дея очик-ойдин бу «Фақрнома»ни Аҳмад Яссавий айтган, дейилиши «Фақрнома»нинг Яссавий қаламига мансублигини тасдиқламоқда» (қ-нг: *Coşan M. Es'ad. Haci Bektaş-i Veli. Makalat. Doktora tezi. S.XXXIV, XLII, -Ist.: 1973*); *Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirlari. S.46; Prof. Dr. Coşan M. Es'ad. Haci Bektaş-i Veli. -Ist.: 1995. S. 86-87*; Проф. А.Гўзал ҳам ўзининг «Аҳмад Яссавий «Фақрнома»си билан Ҳожи Бектоши Валиининг «Мақолот»и орасидаги ўхшашликлар» номли тадқиқоти натижасида «Фақрнома»ни Яссавий қаламига мансуб дейди (қ-нг: *Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirlari, 335-351*); қозоқ олими Муҳаммадраҳим Жармуҳаммад ўғли ҳам шу фикрда, лекин у «Фақрнома»нинг номини «Рисола» ва «Мирьот ул-қулуб» деб атаб, ўз тадқиқотига таянган ҳолда асарнинг ҳажмини 175 бетдан иборат дейди (қ-нг: *Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirlari, s.321-333*). Док. А.Йилмаз ҳам мазкур олимларнинг фикрига қўшилади (*Milletlerarasi Hoca Ahmet Yesevi Sempozyumu Bildirileri. Kayseri: 1993.S. 397*).

⁶⁴ Ф.Купрули эса «Фақрнома» Яссавийники эмас, балки XVI асрда ёзилган Ҳазинийнинг «Жавохирул аброр»идан олиниб «Девони ҳикмат»га киритилган дейди. Бу фикрга жавобан М.А Жўшон дейди: «Олимлар бу масалада «Фақрнома»га ўхшаш бошқа бир асар - Ҳожи Бектоши Валиининг «Маноқибнома»сини назардан четда қолдирганлар. (Ҳазинийдан III аср олдин, яъни XIII асрда яшаган Ҳожи Бектоши Валиининг

tadqiqotchilar esa uni Yassaviy qalamiga mansub mustaqil bir asardir, deydilar⁶⁵. "Devoni hikmat"ning mazkur nusxasidan o‘rin olgan «Faqirnoma»ning xotimasidagi «Tammam ar-risolai sharif hazrati Sulton Xoja Ahmad Yassaviy rahmatullohi alayh» so‘zlari ham «Faqirnoma»ning Ahmad Yassaviyga oidligini bildiruvchi dalil bo‘la oladi.

Ma‘lumki, "Devoni hikmat" nusxalarida Yassaviy hikmatlari «Qul Xoja Ahmad Yassaviy», «Qul Xoja Ahmad», «Qul Ahmad», «Sulton Xoja Ahmad Yassaviy», «Miskin Ahmad Yassaviy», «Yassaviy» kabi taxalluslar bilan o‘rin olgan. Yassaviy hikmatlari bilan maxsus shug‘ullangan Fuod Kupruli va Abdurauf Fitratlarning yozishicha, «Qul Xoja Ahmad», «Xoja Ahmad Yassaviy», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxallusli hikmatlar Ahmad Yassaviyga mansubdir⁶⁶. Mazkur nusxalarda ham «Qul Xoja Ahmad Yassaviy», «Qul Xoja Ahmad», «Qul Ahmad», «Miskin Ahmad» kabi taxalluslar bilan o‘rin olgan hikmatlar juda ko‘p.

<i>Nusxalar</i>	<i>jami hikmatlar</i>	<i>Ahmad Yassaviyga oid hikmatlar</i>
Q 1 nusxa (7069)	160	135
Q 2 nusxa (A.hoji)	128	106
Q 3 nusxa (A.hoji)	300	50
Q 4 n. (A.hoji)	76	48
Q 5 nusxa (I)	146	134
jami 5 ta nusxa	jami 810	jami 473

Xullas, "Devoni hikmat" nusxalarini chuqur o‘rganish va Ahmad Yassaviy ijodiy merosini xalqqa yetkazishda Qo‘qon va boshqa shaharlardagi kutubxonalar

- Н.Х) «Маноқибнома» рисоласининг таркибида «Фақрнома»га ўхшаш бир боб бўлиб, унда «солик тўрт босқич орқали Ҳаққа етишди: Шариат, Тарикат, Маърифат, Ҳақиқат. Ҳар босқичда ўн мақом бор» дейилади. «Фақрнома»да ҳам худди шундай дейилган» (*Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirleri. S.47*); Проф. Исмоил Ёқит ва доктор И.Кундуз ҳам М.А.Жўшоннинг фикрига қўшилиб ёздилар: «Хожа Аҳмад Яссавийнинг «Фақрнома»си билан Ҳожи Бектоши Валийнинг «Маноқибнома»сини қиёслаганда ҳар икки асарнинг тузилиши айнан бир хил экани, (яссавийликнинг одобига кўра хузури илоҳийга кириладиган - Н.Х.) тўрт эшик, қирқ мақом каби асосларга таяниши маълум бўлади. Зеро, яссавийликнинг Ғоялари Ҳожи Бектоши Валий ва Юнус Эмро илоҳийлари ёрдамида ўша ифодалар (тўрт эшик, қирқ мақом - Н.Х.) ила давом этиб келган (*Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirleri, s.79,293*) Проф.К.Эраслон: «Фақрнома» Яссавийдан кейин келган издошлари томонидан ёзилиб, «Девони Ҳикмат»га киритилган... «Жавоҳирул аброр» билан «Фақрнома» ўзаро қиёсланганда, «Фақрнома» «Жавоҳирул аброр»га моҳиятан яқин бўлса-да, тартиби жиҳатидан тамоман фарқлидир», дейди (қ-нг: *Eraslan K.Yesevinin Fakr-name'si. -Ist.:1977, S.45*)

⁶⁵ Бу ҳақда М.А.Жўшон ёзади: «Баъзи олимлар «Фақрнома»ни Яссавий қаламига мансуб эмас демоқдалар. Ваҳоланки, «Фақрнома» «Девони Ҳикмат»нинг бир қисми эмас, балки Яссавийнинг алоҳида мустақил бошқа бир асаридир... «Фақрнома» «Девони Ҳикмат»нинг фақатгина XIX -XX асрлардаги нусхаларидан ўрин олган холос, деб ҳам айта олмаимиз. Чунки Онадўлида Яссавий дарवेशи ҳисобланган Ҳожи Бектоши Валий асарида Яссавий асос солган қирқ мақом ўрин олгани ва бу мақомларнинг бир-бирларини тўлдириш фикрининг Яссавий томонидан айтилганлиги бундай дейишга монелик қилади. Боз устига бу фикрни Ҳожи Бектоши Валий ҳам ўз «Мақолот»ида илгари сурган. Демак, «Фақрнома» «Девони хикмат»га XIX асрда кириб қолмаган. Шунга кўра «Фақрнома»ни XII асрда ёзилган асар деб қабул қиламиз. Зеро, Яссавий дунёқараши унинг издоши ўлароқ Онадўлига жўнатилган Ҳожи Бектоши Валийда ҳам ўз аксини топган. (қ-нг: *Ahmed-i Yesevi: hayati, eserleri, tesirleri. S. 47-48*)

⁶⁶ Яссавий ким эди? 35-бет; Ф.Купрули. Турк адабиётида илк мутасаввифлар, 122, 124-бетлар.

hamda Yassaviy muxlislari qo'lida saqlanayotgan "Devoni hikmat" qo'lyozmalarining ahamiyati beqiyosdir.

MUHAMMAD ALIXON ADABIY MEROSIGA DOIR BIR NODIR MANBA XUSUSIDA

**Otabek JO'RABOYEV,
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari,
f.f.n., dotsent
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Maqolada "Xon" taxallusi bilan she'rlar yozgan Qo'qon xoni Muhammad Alixon merosiga doir kuzatishlar berilgan. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanuvchi noyob g'azaliyot to'plami haqida batafsil to'xtanilgan. Unda Fuzuliy va Xon she'rlari ket-ketlikda berilgan bo'lib, o'ziga xos nodir manba ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Muhammad Alixon, qo'lyozma, Fuzuliy, g'azal, devon.

Аннотация:

В этой статье речь идёт о Кокандском хане Мухаммад Алихан, который творил стихи под псевдонимом "Хан". Особенно говорится о уникальном рукописе сборника газелей которые хранятся в фонде Государственного музея литературы им. Алишер Навои. В этом уникальном сборнике собраны стихи Фузули и Хана.

Ключевые слова: Мухаммад Алихан, рукопись, Фузули, газел, диван.

"Xon" taxallusi bilan ijod qilgan Qo'qon xoni Sayyid Muhammad Alixon ibn Amir Umarxon (1808-1842) ijodiyoti haqida ko'p ma'lumot bor emas. Biroq, uning asarlari badiiyatiga diqqat etilsa, tom ma'nodagi hassos lirik shoir ko'z o'ngimizda gavdalanadi.

Biz avvalgi chiqishlarimizda uning adabiy merosi aks etgan asosiy manbalar haqida to'xtalgan edik [1]. Quyida ana shu kam sonli manbalardan biri, o'ziga xos unikal qo'lyozma haqida to'xtalamiz.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi, 157 raqamli qo'lyozma, "**Ash'ori Fuzuliy maa Xon**".

Qo'lyozma katta emas. Bor-yo'g'i 33 varaq.

Lekin u o'ziga xos ravishdagi nodir manba hisoblanadi.


Avvalo, biroz qo'lyozma haqida.

Qo'lyozma Qo'qonning novvotrang, nafis qog'oziga qora siyoh bilan chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan. Har sahifaga jadval ishlangan. Jadval lojuvard, yashil va oltin rangda. Poygir bor.

Boshlanishi:



Oxiri:



Muqovasi asl teridan ishlangan noyob muqova. Lekin juda kam uchraydigan qizil rangli shoyi bilan o'ralgan. Muqovada tamg'alar va naqshlar mavjud. Ularning qismida Usmonli-turk saltanatining tug'ro belgisi bor.



Qo'lyozmaning o'zi taxminimizcha, 1835-1840-yillar oralig'ida ko'chirilgan. Kotibi juda malakali xattotlardan biri bo'lishi ehtimol. (Fikrimizcha, Muhammad Sharif Dabir).

To'plamda Muhammad Fuzuliy Bag'dodiy va Xon she'rlaridan namunalari o'rin olgan. Aniqroq qilib aytganda, 87 ta g'azal kiritilgan.

Fuzuliyning 50 g'azali, Xonning 37 ta o'zbekcha g'azali berilgan.

Manbaning o'ziga xosligi shundaki, bundagi Fuzuliy g'azallariga Xon tatabbu' (yoki javobiya)lari ketma-ket joylashtirilgan.

Masalan, qo'lyozaning dastlabki 1-5 varqlarida Fuzuliyning o'n g'azali o'rin olgan. 5^a varaqdan esa Xonning "Dizma mujgona chashmim guhari serobi vor..." deya g'azali boshlanadi. Shu tariqa bir necha Fuzuliy, so'ngra Xon g'azallari o'rin olgan. ularning tematikasi va badiiyati bir-biriga uyg'un bo'lib, Xon o'ziga ustoz va ijoddagi ilhom manbai o'laroq Fuzuliy she'rlarini tanlagani seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.Jo'raboyev. Xon adabiy merosiga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 2017 yil, 6-son. 124-133-betlar.
2. O'zR FA Davlat adabiyot muzeyi qo'lyozmalar fondi, 157 raqamli qo'lyozma. Ash'ori Fuzuliy maa Xon.

MUQIMIY ASARLARI MATNIY MUAMMOLARI

**Vahob RAHMONOV,
GulDu dotsenti**

Kalit so'zlar: matn, sahih, nuqson, xato, g'alat, muallif, Muqimiy, matnshunos, noshir, G'. Karimov, atributsiya, asliyat, qo'lyozma, toshbosma, versiya.

Mavloni Muqimiy asarlari nashrlarining yetmish yillik matn saviyasini matnshunoslik nuqtai nazaridan mulohaza qiladigan bo'lsak, bir qator muammolar ko'z o'ngimizda tiziladi:

- atributsiya masalasi Muqimiyga nisbat berilgan bir necha she'r muallifi Sobir Abdulla ekanligi;

- begona soʻz va baytlarining nashrga tayyorlovchining gʻoyaviy badhiyati tufayli shoir sheʼrlari tarkibiga kiritilishi, yaʼni soʻzlarning nashr tomonidan zoʻrlanish;

- sheʼr sarlavhalari orqali gʻoyaviy yomon niyatlarni amalga oshirishga urinishlar;

- diniy soʻz va atamalarni matn buzish evaziga boʻlsada dunyoviy soʻzlar bilan almashtirish (haq-xalq; kalima (i shahodat) – kalla, kelma);

- eng koʻp va eng muhim nuqsonlar nashrga tayyorlovchining matnini notoʻgʻri oʻqishi, mazmunni uqmasligi, soʻzni tushunmasligi tufayli sodir etilgan;

- ilmda muallif –ega , nashrga tayyorlovchi –quldir. Muqimiy asarlari nashrida shu mantiq goho teskari amal qiladi- noshir shoirni mensimay, unga “koʻmaklashadi” va matnini buzadi.

Mumtoz shoirlarimizdan birortasining ijodi Muqimiy asarlarichalik koʻp tomonlama buzilishlarga uchramagan. Toʻgʻri, Mashrab asarlari qismatida bundan koʻp nuqsonlar kotiblar tomonidan bilmasdan sodir etilgan. Ammo Muqimiy sheʼrlarining chorak qismi atayin, bilib turib tuzatilgan, yaʼni buzilgan.

Ushbu ishlarning asosiy ijrochisi taniqli muqimiyshunos, professor Gʻulom Karimov boʻlgan. Qizigʻi shundaki, Toshkent davlat universitetining kafedra mudiri ekanligida Gʻ. Karimov shunday ishlarni qilgan. Undan ham qizigʻi shundaki, shu kafedraning hozirgi mudiri professor Hamidulla Boltaboyev Gʻ.Karimovning bu sohadagi matn buzgʻunchiligini “ Yollanma adabiyot “ nomli koʻplab maqolalarida fosh qildi. Bizni koʻproq matn buzilishdagi Gʻulom Karimovning oʻzlari bilmay, oʻqiy olmay, tushuna olmay sodir etgan nuqsonlari qiziqtiradi. Chunki bu achchiq tajribalar bugungi matnshunoslarga umuman, yoshlarga matnshunoslik saboqlari boʻlib xizmat qiladi, degan sobit fikrdamiz.

Muqimiy asarlarini eng koʻp nashrga tayyorlagan mavlono Muqimiy haqida yaxshi monografik ocherk yaratgan hamda “ Oʻzbek adabiyoti tarixi” (Oliy oʻquv yurtlari uchun) uchinchi qism darsligini yozgan olim professor Gʻulom Karimovdir. Bu taniqli olimning koʻzga koʻringan ishlari Muqimiy hayoti va ijodi haqida doktorlik dissertatsiyasini yozish va yoqlashdan boshlangan. Gʻ.Karimov 40-yillardanoq Alisher Navoiy asarlarini nashr ettirgan. Xususan, sheʼriyati va “ Layli va Majnun “ dostonini ilmiy matnini yaratgan olim. Toshkent davlat universiteti filolog olimlarining faxri edi desak, lof boʻlmaydi. Oʻta sermahsul, oʻta gʻoyaviy zamon adabiy mafkurachisi edi u kishi.

Biz mavzumizga qaytamiz. Oʻsha katta matn tayyorlash maktabini oʻtagan professor Gʻulom Karimovning Muqimiy asarlari nashrlaridagi koʻplab nuqsonlarni kuzatar ekanmiz, Navoiy asarlari nashri va dostoni ilmiy nashrini amalga oshirgan matnshunos mutaxassis bilan solishtirib, fikr mantigʻini topolmaymiz. Qiyin ishni tuzuk bajargan-u oson ishda har qadamda oqsagan. Mantiq yoʻq.

Mantiqsiz ish boʻlmaydi. Har narsada mantiq bor. Qanaqasiga mantiq bor: oʻz zamondoshi asarini toʻgʻri oʻqishda oqsasa?

Mantiq shundaki, bu olimning lugʻat zaxirasi oz. Jamoat boʻlib ishlaganda bu holat sezilmagan. Hamkori tuzatavergan. Muqimiyga kelganda maydonda yakka oʻzi qolgan.

Bu kishining lug‘at bo‘lmasligi, misradan mazmun chiqarolmaslik quvvsizligi bilan qo‘shilgach quyidagidek baytlar nashr etilavergan:

Ey bek, banda arzlarin ul sharhi yora de,
Majruh ko‘ngli, bormu anga hech chora de,
Berahmliq‘da ko‘ngli oni sangxora de.
(Muqimiy “ Asarlar “ 1974, 264-bet)

Ushbu matn bungacha Muqimiy kitoblarining barchasida shu holatda (versiyada) bosilgan.

O‘zbek mumtoz adabiyotida “ bek “ so‘zining quyidagicha ma‘nodoshlari bor: “Hokim, vazir, amir, mir”

Birinchi misra mazmuni : Ey bek, men qul arzini yorimning izohiga aytgin.

Bunda Muqimiy mumtoz shoir emas, idroksiz, betamiz sifatida vaysamoqda.

Nega, chunki salomni bek (amir) olib bormaydi. Payk (qosid, ku`yer, xat-xabar yetkazuvchi) olib boradi. Noshir “ payk “ degan so‘z lug‘atda borligini bilmagan. Noshirni oqlashga urinib ko‘raylik: “ payk” va “ bek “ shaklan bir xil ma‘nolari har xil so‘zdir. Ular ostki nuqtalarni oz-u ko‘pligi bilan farqlanadi xolos. Ma‘nolar har xil bo‘lgani uchun olimni oqlayolmaymiz. Ayniqsa, bir so‘z “ Shahriyora” (podshohga) so‘zini ikkiga bo‘lib, misra mazmunini umuman tushuna olmagan uchun ham oqlash imkoni yo‘q.

Muqimiy asliyatida misra quyidagicha edi:

Ey payk, banda arzlarin ul shahriyora de

Ey xat-xabar eltuvchi, Men quyl arzlarini podshohimga borib ayt

Uchinchi misra mazmuni quyidagichadir:

Shafqatsizlikda uning ko‘nglini toshchaynar de (hisobla)

Nashrga tayyorlovchi sangi xora (o‘ta qattiq tosh) so‘z birikmasini ikki so‘zni izofa qo‘yolmasdan “ sangxora” (tosh yeyuvchi) deb ko‘chirgan. Muqimiy qo‘lyozmasida misra tubandagicha edi:

Berahmliq‘da ko‘ngli oni sangi xora de

(Shafqatsizlikda uning yuragini metin tosh degin yoki uni bag‘ritosh degin)

Ushbu muxammasdagi mazkur misra mantiqsizdir:

Ul mahliqo sipehr kibi sabzapo‘shdir (264-bet)

(U oy yuzli osmon kabi sabzaga ko‘milgandir)

Osmon sabzaga ko‘rilmaydi, yer sabzaga ko‘riladi. Nega mantiqsizlik sodir bo‘ldi? Chunki noshir “ Sabzpo‘sh” (ko‘k kiygan, yashil kiyingan) so‘zini “Sabzapo‘sh” deb o‘qib misra mazmuni tizginini qo‘ldan chiqarib yuborgan.

Navbatdagi banddan yana bir misra ko‘chiramiz:

Ey girdibod, ko‘rsang ushal g‘amgusora de (264-bet)

Bunda ham lug‘at bilmaslik noshirga pand bergan . “ Girdibod” degan so‘z yo‘q va bo‘lishi mumkin emas. Bu so‘z “ Girdbod “ edi. “ Navoiy asarlari lug‘ati “ (1972) da bu so‘z berilgan: Girdbod- uyurma, qyun. (160-bet)

“ G‘azali bek “ sarlavhali g‘azalning maq‘tasini keltiramiz va birinchi misra mazmunini mulohazalashamiz:

Iltimos ettim Muqimiy baytu qildi menga ham,

Garchikim panj jonman-u bedavo devonaman. (401-bet).

Birinchi misradan mazmun chiqmagani boisi shundaki, nashrga tayyorlovchi soʻzlar chegaralarini toʻgʻri belgilay olmagan.

Asliyatta bu misra mana bunday edi:

Iltimos ettim Muqimiy bayt qildi menga ham,

Garchikim panjonman-u bedavo devonaman.

Muqimiyning Furqatga javob maktubidan :

Ruqʻai Abdulazizxonda yurarsan necha yil,

Debtillar tegmaydilar borgan bilan bekor man (443-bet)

Baytning birinchi misrasining mazmuni :

Abdulazizxon maktubida bir necha yil yurarsan..

Holbuki, bu mantiqsiz gap. Muqimiyda birinchi soʻz “buqʻa“ edi, ruqʻa (maktub) emas:

Buqʻa – makon, joy, hovli, bino demakdir. Shunga koʻra muallif versiyasida bu misra quyidagicha edi:

Buqʻai Abdulazizxonda yurarsan necha yil....

Bu holatda ham nashrga tayyorlovchining lugʻat bilmasligi misra mazmunini yoʻqqa chiqargan.

Shoirona zakoning yetishmasligi, arab yozuvi sirlarini yaxshi bilmaslik har qadamda misralar mazmuniga shikast yetkazaveradi:

Bu bahor bir dam, darigʻo, toleim yor oʻlmadi,

Ushlashib qoʻl sayri bogʻ-u boʻston aylay desam.

Furqat asarlari nashrida – fan doktori Xolid Rasul ham xuddi shu soʻzda nuqson sodir etgan:

Bu bahor ayyomi boʻldi, keling, ey ahboblar

Bogʻ aro noʻsh aylayik biz ham sharobi noblar.

(Furqat sheʼriyatidan, 1980, 62-bet)

Mashhur “ Navbahor “ gʻazalining matlasida ham nuqson borligini koʻpchilik bilmagani rost. Nega? Chunki barcha keyingi noshirlar Gʻ. Karimovning nuqsonli versiyasini olaverganlar:

Navbahor, ochildi gullar, sabza boʻldi bogʻlar,

Suhbat aylaylik, kelinglar joʻralar, oʻrtoqlar (1974)

Holbuki, qoʻlyozmada joʻrayu “ Oʻrtogʻlar “ deb yozilgandir.

Demak, bunda ikki nuqson sodir etilgan ekan...

Furqatning “ Kashmirga” gʻazaliga Muqimiy bogʻlagan muxammasidan bir misrani mulohaza qilaylik:

Husn taxtida tajammul peshayu oliyjanob (1974, 240-bet)

Bu misrada ham ikki nuqson bor. Sabr-toqat va goʻzallarning oliy fazilatlarini emas. Asl nusxada “ Tahammul” (Sabr-toqat) emas, balki “ Tajammul” (dabdaba, shukuh, hashamat) edi. Oliyjanob soʻzi esa bir emas, ikki soʻz edi : Oliy janob – dargohi oliy muallif fikri sahih yuzaga chiqadi :

Husn taxtida tajammul peshayu oliyjanob.

Soʻzni tushunmaslik, soʻzlar aro munosabatni payqamaslik, koʻplab soʻz va birikma farqiga bormaslik, geografik tushunchalarni bilolmaslik holatlarining nashrda tez-tez uchrab turishi yomondir.

Chunonchi ostonalarga bosh “ urish” dan bosh “ uzish” ni farqlay olmaslikchi?

Ochilur botin ko‘zi gumroh men boshim uzub,

Qaysi xoki poyi yorab to‘tiyog‘a yig‘lasam.

(1952, 14-bet; 1974, 126-bet)

“ Urub” ni “ Uzub” tarzida o‘qish, “ Yo Rab “ undalmasini “ Yorab” holatida ko‘chirishlar Muqimiy ijodini soxtalashtirmaydimi ?

Tubandagi baytdan kitobxon “Olo Mahram qayerda ekan?”- deya lol qoladi. Tojikistonning Konibodom shahriga yaqin qishloqlaridan biri edi bu: Mahram

“Olo” esa “baralo” (baralla) so‘zining ikkinchi qismi bo‘lgan. Muqimiy asliyat:

Jag‘larim Shaydonni dashtidek giyoh yo‘q, yap-yalang,

Engakimdin baralo Mahram namoyon ko‘samem.

(1952, 66-bet; 1974, 397-bet)

Nashrga tayyorlovchining izohini o‘qiymiz: “ Shaydon, Ola Mahram Farg‘ona vodiysidagi qishloqlarning nomi “

(1974, 466-bet)

Noshirimiz baqar (sariq chaqa) ni “ Paqir” (chelak) deb o‘ylaganini bilsa, Muqimiy yana bir yumor yozarmidi...

Bir faqirdin bir paqirni, do‘stlar, tutmang , darig‘,

Bir duogo‘yi Muqimiy men qadrdon ko‘samem.

Nashrlardan esa ikkinchi misra quyidagicha ketgan:

Enda kimdin bir Olo Mahram namoyon ko‘samem.

(1952, 67-bet; 1974, 397-bet)

Muqimiy qo‘lyozmasida baytning birinchi misrasi tubandagicha edi:

Bir faqirdin bir baqarni, do‘stlar, tutmang darig‘.

Bu misralarni matnshuoslik tahlillari, sabab va oqibatlarini yozsak butun bir kitob yuzaga chiqadi.

Endi professor G‘.Karimovga ham rahm qilaylik. Matnga matnshunoslikning ochiq jiddiy ko‘z bilan boqsak, Hamid Sulaymonning “ Xazoyin ul-maoniy” nashrini to‘rt kitobida ham, Porso Shamsiyevning 1959- 1960- yilgi “ Xamsa” sida ham ayni shunday holat-ku deya o‘zimizga ham tasalli bera qolaylik. Va ustozlarning qo‘shiqlariga jo‘r ovoz bo‘laylik:

Xotin jafosiz bo‘lmas,

Kitob xatosiz bo‘lmas...

MUMTOZ MATNLARNI TADQIQ ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Botir JAFAROV

NamDU dosenti, f.f.d. (PhD)

(O‘zbekiston)

Bugungi kunda Florensiya shahridagi Lorenzo di Pyero de Medichi nomidagi milliy kutubxonada Ashburnxem 1584 (Medicea Laurenziana Library, Ashburnham 1584) katalog raqami bilan saqlanayotgan “Lotincha-forscha va qumancha lug‘at” (**Cod 1584: Vocabulaire Latin Persan et Coman. Arrive a**

Paris Le 5 november 1824) Venesiyaning Marchana milliy kutubxonasida DXLIX (№549)/1597 katalog raqami bilan saqlanayotgan “Alifbo tarzidagi forscha va qumancha kitob” (**In hoc libra continentur Persicum et Comanicum per alfabetum**) qo‘lyozmasining 1824-yilda noma‘lum xattot tomonidan ko‘chirilgan nusxasidir. Ushbu nusxa Klaprot iltimosiga ko‘ra, 1824-yilda Venesiyadagi Marchana milliy kutubxonasida ishlagan Salvi tomonidan Fransiyaga yuborilgan va undan nusxa ko‘chirilgan. Shu tariqa qo‘lyozma asl nusxasining birinchi va oxirgi sahifalarida Fransiya milliy kutubxonasining muhri paydo bo‘lgan.

Ammo Klaprot qo‘lyozma nusxasi kim tomonidan ko‘chirilganligini bilmaydi. O‘z tadqiqotida u, jumladan, shunday deb yozadi: «Afsuski, men u olimning ismini bilmayman, uning buyuk xizmatlari tufayli juda ham aniqlik bilan ko‘chirilgan mazkur qo‘lyozma nusxasini 1824-yil noyabrda olishga muvaffaq bo‘ldim. Lotincha lug‘atning ko‘chirilgan nusxasi uncha katta bo‘lmagan, qog‘oz bichimi 4^o hajmda, 118 sahifadan iborat, uch ustun shaklida tuzilgan lug‘at bo‘lib, birinchi ustunda lotincha, ikkinchisida forscha hamda uchinchi ustunda qumancha so‘zlar berilgan. Ushbu manbaning ellik sakkiz sahifasi lotin alifbosi bo‘yicha tartiblangan ot va fe‘llardan, qolgan sahifalar esa, olmoshlar, sifatdoshlar hamda savdo-sotiqqa aloqador bo‘lgan boshqa so‘zlardan tarkib topgan. U 2500 ga yaqin so‘zdan iborat» [74; 120-b.].

Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, qo‘lyozma Klaprot iltimosiga ko‘ra, kutubxona xodimi janob Salvi tomonidan Fransiyaga nusxa olish uchun yuborilgan va uzog‘i bilan 25 kun muddatda yana Venesiyaga qaytarilgan. Chunki mazkur qo‘lyozmaning ko‘chirilgan nusxasi muqovasida uning 1824-yil 5-noyabr sanasida Parijda ko‘chirilganligi to‘g‘risida qayd mavjud. Demak, Klaprot qo‘lyozma nusxasini 1824-yil noyabr oyida olganligini inobatga oladigan bo‘lsak, qo‘lyozma juda qisqa muddatda, biz yuqorida aytganimizdek, 25 kun muddatda ko‘chirilgan.

Biz Piza universiteti professori Piyer Jiorjio Borbonaning yordami bilan 2016- yil 10- noyabrda Florensiya kutubxonasiga borib, mazkur qo‘lyozma ustida tadqiqot olib borishga va undan faksimil nusxa olishga muvaffaq bo‘ldik. Kutubxona qaydiga ko‘ra, mazkur qo‘lyozma tadqiqi bilan bir necha olimlar shug‘ullanishgan. Jumladan, 1914-yil 9-martda nemis olimi Mixayl Bxil, 1963-yil 3-oktyabrda polyak olimi Ananiy Axiyezerovich Zayonchkovskiy, 1978-yil 21-sentyabrda Sapiyensa univertiteti professori Piyemonteze, 1998-yil 18-dekabrda Piza universiteti professori Fabrisio Chignilar Florensiyaga tashrif buyurishgan bo‘lsa, 1989-yil 17-iyulda Neapol sharqshunoslik universiteti olimi Djulio D’Erme kutubxonaga tashrif buyurmasdan qo‘lyomadani elektron nusxa olgan.

Qo‘lyozmaning asliyatidan yana bir nusxa olinganligi to‘g‘risida Klaprot o‘z tadqiqotida ma‘lumot bergan bo‘lsa-da, mazkur nusxa bugungi kunda

Florensiyadagi milliy kutubxonada ekanligi to'g'risida ilmiy jamoatchilikka birinchi bo'lib A.Piyemonteze tomonidan 1989-yilda ma'lum qilingan [82; 100-101-b.]. Shundan so'ng mazkur qo'lyozma nusxasi bo'yicha neapollik olim Aldo Gallotta «Aldo Gallotta, "Una 'nuova' copia del Codex Cumanicus". Annali dell'Istituto Orientale di Napoli 52, 1992. pp. 455-459» hamda «Aldo Gallotta, "Codex Cumanicus'in yani bir nūshasi". Uluslararası türk dili kongresi 1992 (26 eylül 1992-1 ekim 1992) Ankara. 1996. c. 267-271» sarlavhali bir nomdagi ikkita maqola nashr ettirgan.

“Kodeks kumanikus” qo'lyozmasining bugungi kunda Florensiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan ikkinchi nusxasi quyidagilardan tashkil topgan:

Qo'lyozma 118 sahifadan iborat 23x17,5 hajmda muqovalangan. 1, 9, 10 va 118- sahifalardan tashqari har bir sahifa 24 satrdan tashkil topgan. Faqatgina uning birinchi sahifasi 22, to'qqizinchi sahifasi 21, o'n birinchi sahifasi 22 va 118- sahifasi 11 satrdan iborat. Qo'lyozmaning oxirgi titul varag'ida F.Benedetto tomonidan yozilgan quyidagi izoh mavjud: «Hic liber scatens erroribus vel in vocabulis latinis est procul Dubio descriptus ex celeberrimo Codice Cumanico qui in Byblioth. S. Marci Venetiarum asservatur quique perveTustum illius Turcicae dialecti praebet documentum. 10.12.1962 F.Di.Benedetto» [78] (**Tarjimasi:** Ushbu kitob Venesiyaning Marchana milliy kutubxonasida saqlanayotgan turkiy lahja to'g'risida ma'lumot beruvchi mashhur “Kodeks kumanikus” tarkibidagi lotincha so'zlardagi xatolarni aniqlash imkonini beradi. 10.12.1962 F. Di. Benedetto). Shu o'rinda qo'lyozma muqovasining oxirgi sahifasiga izoh yozgan Filippi Di Benedetto haqida ikki og'iz so'z: Filippi Benedetto 1922 yil 1 martda Italiyaning Sisiliya provinsiyasi Kataniya port shahrida tavallud topgan. 1961- yilda Florensiya kutubxonasi direktori Tinazzo Giampiyetro tavsiyasiga ko'ra mazkur kutubxonadagi qo'lyozmalar bo'limining mas'ul xodimi etib tayinlangan va o'z navbatida qo'lyozma nusxalari matnlarini tiklash ishlari bilan shug'ullangan.

Qo'lyozmaning mazkur nusxasida biz bir qator e'tiborga sazovor ma'lumotlarni ko'rishga va ular asosida ayrim asosli xulosalarni chiqarishga muvaffaq bo'ldik.

Mazkur nusxa sapsar siyohli ruchkada bitilgan. Undagi ba'zi forscha va qumancha so'zlar keyinchalik arab yozuvida qizil siyohli ruchkada, ba'zi o'rinlarda esa qora rangli ruchkada yozilgan. Jumladan, 1- va 3- sahifalardagi lotincha-forscha va qumancha so'zlar sapsar rangli siyoh bilan yozilgan (bu yozuvlar qo'lyozmaning asl nusxasidan namuna olgan xattotga tegishli) hamda undagi forscha so'zlar lotin grafikasi asosida sapsar siyohli va forscha so'zlarning arabcha transkripsiyalari qizil siyohli ruchka bilan yozilgan. Beshinchi sahifaning

15, 16, 22, 24-satrlaridagi forscha soʻzlar, ellik sakkizinchi sahifaning 22-satridagi, ellik toʻqqizinchi sahifaning 17-satridagi, oltmish toʻqqizinchi sahifaning 21–23- satrlaridagi, yetmish oltinchi sahifaning 1-satridagi forscha soʻzlar hamda ikkinchi satridagi qumancha soʻz, yetmish oltinchi sahifaning 4-satridagi forscha va qumancha soʻzlar, 6-satridagi qumancha soʻzlar, yetmish yettinchi sahifaning 4-satridagi forscha, 5–6-satridagi qumancha, 7-satrdagi forscha va qumancha soʻzlar, 9, 11, 13, 15- satrlardagi qumancha soʻzlar, 16-satrdagi fors va quman, 19-satrdagi forscha soʻzlarning arab yozuvidagi transliterasiyasi qizil rang bilan yozilgan boʻlsa, 78, 84, 88, 90, 91, 92, 93, 100, 101 hamda 113-sahifadagi forscha soʻzlar xuddi yuqoridagi singari arab yozuvida, ammo qora siyohda yozilgan.

Qoʻlyozmaning sakson beshinchi sahifasidagi qizil siyoh bilan yozilgan soʻzlar qoʻlyozmaning biz yuqorida sanab oʻtgan sahifalaridagi qizil siyoh bilan arab yozuvida yozilgan soʻzlardan nafaqat siyohning ranglari, balki dastxati bilan ham farq qiladi. Bu oʻz navbatida qoʻlyozmaning mazkur nusxasidagi arabcha transliterasiyalar boshqa-boshqa shaxslar tomonidan yozilganidan dalolat beradi. Bundan tashqari qoʻlyozmaning mazkur nusxasida toʻrtinchi sahifaning 23–24-satrlaridagi forscha va qumancha tarjimalari berilmagan lotincha soʻzlar ustidan qizil ruchka bilan vertikal chiziq tortib oʻchirilgan. Bu oʻchirilgan soʻzlarning forscha va qumancha tarjimalari qoʻlyozmaning asl nusxasida ham boʻsh qoldirilgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, “Kodeks Kumanikus” ning mazkur nusxasi nemis olimi Klaprot tadqiqi uchun koʻchirilgan. Qoʻlyozma Venesiya kutubxonasidan janob Salvi saʼy-harakati bilan Fransiyaga olib kelingan va u yerda nomaʼlum xattot tomonidan 1824-yil 5-noyabrdan noyabr oyining oxirigacha boʻlgan juda qisqa muddatda nusxa olingan. Shuning uchun ham qoʻlyozmaning asl nusxasida ikkinchi kutubxonaning muhri paydo boʻlgan. Hattoki, Yu.Klaprot oʻsha davrda Fransiyada yashagan boʻlishiga qaramasdan, qoʻlyozmadan nusxa olgan xattot kim ekanligini bilmagan. Chunki, Yu.Klaprot 1815- yildan boshlab Aleksandr fon Gumboldt tavsiyasiga koʻra Parijda doimiy yashab ijod qila boshlagan va oʻsha yerda 1835-yilda vafot etgan.

Qoʻlyozmaning ikkinchi nusxasidagi qizil va qora siyoh bilan yozilgan forscha va qumancha soʻzlarning arab yozuvidagi transliterasiyalari qoʻlyozmani ilk tadqiq etgan va uni ilmiy jamoatchilikka maʼlum qilgan Yu.Klaprotga tegishli boʻlsa, uning dastxatidan farq qiladigan boshqa soʻzlarning qoʻlyozmadan oʻrin egallashiga Florensiya kutubxonasi qoʻlyozmalar boʻlimi xodimi F.Benedetto sababchi boʻlgan, degan xulosa chiqarishimiz mantiqlidir.

Qo‘lyozma Parijda ko‘chirilgan bo‘lishiga qaramasdan, uning Florensiya kutubxonasiga olib kelinganligini bilish uchun kutubxona veb-saytidagi Ashburnxem to‘plamlari tarixiga nazar solish kifoya qiladi.

Ashburnxem fondida matematika va bibliografiyaga oid 2000 ga yaqin qo‘lyozmalar mavjud bo‘lgan. 1846-yilgacha bu noyob qo‘lyozmalar Gulyelmo Libriga (1802-1869) tegishli bo‘lib, 1847-yilda Ashburnxemning to‘rtinchi grafi lord Bertram tomonidan sotib olingan. 1884-yilda graf vafotidan keyin qo‘lyozmalar Italiya hukumati tomonidan sotib olinib, Florensiya milliy kutubxonasiga olib kelingan.

Adabiyotlar:

1. Klaproth J. Vocabulaire latin, persan et coman de la bibliothèque de Francesco Petrarca // Mémoires relatifs à l'Asie, contenant des recherches historiques et philologiques sur les peuples de l'Orient. – Paris: SAINT-LOUIS, 1828. Tome troisieme. – 520 p.
2. Piemontese A.M., Catalogo dei manoscritti persiani conservati nelle biblioteche d'Italia, Roma 1989, – 100-101 p.
3. Manoscritto. Vocabulaire Latin Persan et Coman. Arrive a Paris Le 5 november 1824. Biblioteca Medicea Laurenziana. Ashburnham. cod: 1584. lf.

XO‘QAND XONLIGINING MUTASAVVIF SHAYXI VA SHOIRIDAN TUHFA

Sirdaryoxon O‘TANOVA,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy-ma‘rifiy muhitida katta rol o‘ynagan mutasavvif shoir va olim Majzub Namangoniyning o‘nga yaqin qo‘lyozmalari asosida joriy alifboga tabdil qilinib, ilk bora nashr qilingan “Oshiq manam...” kitobi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, shoir devonidan o‘rin olgan lirik asarlarning mazmun-mohiyati, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari borasida ham bahs yuritilgan. Shu bilan birga shoirning badiiy-estetik mahorati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: devon, qo‘lyozma, toshbosma, tasavvuf, irfon, g‘azal, lirik meros, Qo‘qon adabiy muhiti, Rennsans.

Аннотация

В данной статье речь идет о первой книге «Ошик манам...», которая была переведена на действующий алфавит на основе около десятка рукописей суфийского поэта и ученого Маджзуба Намангани, сыгравшего важную роль в литературно-просветительской среде. Коканда. Также обсуждались содержание, идейно-художественные особенности лирических

произведений из кабинета поэта. При этом раскрываются художественно-эстетические способности поэта.

Ключевые слова: девон, рукопись, литография, мистика, ирфон, газель, лирическое наследие, Кокандская литературная среда, Ренессанс.

Annotation

This article deals with the first book "Oshik manam ...", which was translated into the current alphabet on the basis of about a dozen manuscripts of the Sufi poet and scholar Majzub Namangani, who played an important role in the literary and educational environment Kokand. The content, ideological and artistic features of lyrical works from the poet's office were also discussed. At the same time, the artistic and aesthetic abilities of the poet are revealed.

Keywords: devon, manuscript, lithography, mysticism, irfon, gazel, lyrical heritage, Kokand literary environment, Renaissance.

O'lkamizdagi turli ilm maskanlari va fondlarda, muzey yoki shaxsiy uy arxivlarida saqlanayotgan adabiy manbalarni bir-bir ko'zdan kechirishning o'z yoq uzoq asrlik tariximizning mahobati, xalqimizning ilmiy tafakkur darajasi, qiziqishi va kundalik mashg'ulotlari qanday bo'lganini ravshan etadi-qo'yadi. Qo'lyozma va toshbosma matnlarni ilmiy muomalaga kiritish o'tgan XX asrning 40-yillaridan so'ng jadal o'sib borgani ma'lum. Boz ustiga, bu davrda matnshunoslik va manbashunoslik fanlariga ham asos solinib, jiddiy yutuqlarga erishildi. Bu ishlarning ayni vaqtda ham davom etayotgani, chunonchi, 2020-yilda manbashunos olim Ahmad Ubaydullohning so'zboshisi, lug'at va izohlari bilan chop etilgan Majzub Namangoniyning "Oshiq manam..." devoni nashri fikrimizning dalilidir.⁶⁷ Ma'lum bo'lishicha, tasavvuf adabiyotining yirik namoyondasi Majzub Namangoni qalamiga mansub g'azallar, murabba', musaddas, soqiynoma, qasida va boshqa janrlarga oid asarlaridan tarkib topgan devon qo'lyozmasi hanuzgacha joriy alifboga tabdil qilinmagan edi. Kitob nashrga tayyorlovchining "Abdulaziz Majzub Namangoni" nomli salmoqli so'zboshisi bilan boshlanadi. Unda Majzub Namangoniyning nisbatan to'la tarjimai holi, jumladan, ta'lim olishlari, ustozlari, tariqatga mansubligi, taxallus olishlari, shuningdek, adabiy merosi haqida bugungacha adabiyotshunoslik ilmidagi mavjud ma'lumotlar boyitilgan.

Turkiston zaminida etishib chiqqan, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tasavvuf (so'fiylik) tariqati bilan bog'langan Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Huvaydo, Haziniylar qatorida Abdulaliz Hasanxoja Majzub Namangoni ham naqshbandiya-mujaddidiya sulukining piri komili, Qo'qon xonligining mashhur mutasavvif shayxi, mudarris, olim va, nihoyat, shoir o'laroq ham nom qozondi. Zotan, devon basmala va:

*Xudoyi taborok, Xudoyi taolo,
O'zung Hodiy, yo'l ochg'il Haq taolo,
Tufayli Muhammad alayhissalom,*

⁶⁷Мажзуб Намангоний. Ошиқ манам... Девон. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, луғат ва изоҳлар муаллифи Аҳмад Убайдуллоҳ. Мас. Муҳаррир: Аҳмад Муҳаммад. – Тошкент: "Hilol-nashr", 2020. 344 б.

*Aning oli, ashobig‘a ham salom,-
...Salavotu salom Mustafog‘a,
Ham olu va sahbi mujtabog‘a,*

tarzidagi misralar bilan boshlanadi.

Majzub devonidan o‘rin olgan shu yo‘sindagi bir necha o‘nlab g‘azallar Allohning hamd, munojot va Muhammad Rasulullohga na‘tlar bo‘lib, qolgan aksariyat lirik misralarda ham diniy-tasavvufiy mazmun etakchilik qiladi. Shoirga asrdosh ijodkorlarning adabiy merosi ustida uzoq yillar izlanishlar olib borayotgan iste‘dodli matnshunos O.Jo‘raboyevning mulohazalari asosli: “*O‘sha davr adabiyoti uchun irfoniy mohiyatdagi bu taxlit devonlar tuzishni o‘ziga xos nodir hodisa, deya baholanmog‘i to‘g‘ri bo‘ladi. Ya‘ni, ularning sohibi sof tasavvuf-irfoniy adabiyotning namoyandasi o‘laroq ko‘zga tashlanadilar. Nizomiy, Jaloliy va Azimiy safiga yana Qo‘qon adabiy muhitiga mansub Majzub, Zokiriy, Eshqul xalifa (Dastagul), Solih xalifa, Maxmur II, Akmal II va Mahjur taxallusli ijodkorlarni ham kiritish mumkin*”⁶⁸.

Shuning uchun ham Naqshbandiya tariqatining piri murshidi sifatida ehtiromga sazovor bo‘lgan Majzub she‘rlari so‘fiylarning zikr majlislarida maxsus ohanglarda o‘qilgan va muridul zokirlarning qalbiga ta‘sir qilib, ilohiy ishq zavqini uyg‘otgan:

*Hama dardmandu ming jahon mustamand,
Ki arz Sango va Sango va Sango...
Bodai vahdatg‘a qilib bizni g‘arq,
Soqiy etib bazmida ko‘b benavo.*

Ko‘rinadiki, solik-shoir qalbidagi jazbaning badiiy ifodalari ruhan tozartiradi, shu holda yuksaltiradi. Uning bitganlarida ko‘plab badiiy san‘atlarning xalqona namunalari ham uchraydiki, bu ham Majzub she‘rlari eldan elga, qo‘ldan qo‘lga o‘tib, juda tez tarqalgan ham sevib o‘qilgan.

*Sun, en sung‘uchi, shahddin bir **ichim**,
Ani no‘sh etib, toza bo‘lsun **ichim**.*

Po‘latjon domlaning qayd etishicha, Majzub devonidan bir ayrim soqiynoma o‘rin olgan bo‘lib, har bandi oxirida

*Qaboti itingda ichay mudi qo‘y,
O‘shal shahdni chayqoqidin yundi quy,*

bayti takrorlanadi.⁶⁹ Darhaqiqat, Majzubning Po‘latjon domla tilga olgan “Soqiynoma”sini nasriy bayon va sharhlar bilan f.f.nomzodi Sayfiddin Sayfulloh va Habibulloh Akmalxonlar nashr ettirgan⁷⁰ kitobda ushbu bayt quyidagicha sharhlangan: “Menga ham itlaring qatori ityaloq qo‘ysang, o‘shal asaldek shirin chayqandi yuvindidan (ishq sharobi quyqasidan) meni ham nasibador et. Chunki u ityaloqqa murshid va muridlarning nazari tushgan...

⁶⁸ Жўрабоев О. Матннинг матношти сирлари (Мумтоз битиклар ва Абдулла Қаҳҳор асарлари таҳлили асосида). Монография. – Тошкент: “Тамаддун”, 2017. – 200 б.

⁶⁹ Пўлотжон Домулла Қайюмов. “Тазкирани Қайюмий”. Масъул муҳаррир: Лазиз Қаюмов. 1-китоб. – Тошкент, 1998. - Б. 180.

⁷⁰ Абдулазиз Мажзуб Намангоний. Соқийнома. Матн. Насрий баён ва шарҳлар муаллифлари Сайфиддин Сайфуллоҳ ва Ҳабибуллоҳ Акмалхон. – Тошкент: “Муסיқа”, 2020. 100 б.

Mazkur baytda it, ityaloq, yuvindi soʻzlari majoziy timsollar boʻlib, solik murshidning eng past ixlosmandlari qatoridan boʻlishga, shayxidan etajak ozgina marhamatni yuksak mukofot sifatida qadrlaydi.

Oʻsha kitob soʻzboshisida Majzubning “Dar tavzeh” nomli tasavvufga oid boshqa asari ham mavjudligi, shuningdek, shoirning zamondoshi Nodim Namangoniy ham uning soqiynomasidan taʼsirlanib, oʻzining “Soqiynoma”sini yozgani haqida aytib oʻtilgan.


Alohida qayd qilish lozimki, Majzub Namangoniy ham boshqa salafлари va koʻplab zamondoshlari singari zullisonayn qalamkash boʻlib, fors tilida ham tashbeh-u talmehlarga boy, tasavvufiy mazmunda va oʻziga xos uslubda manzumalar yaratgan:

*Sharobiki Majnun ichib ani mast,
Chu miyno yutib Koʻhkanḡa shikast.
Ki Mansurni sargardon aylagon,
Oʻshal sharbati sof xummi alast.
Aning kayfidin Shibliy raqqos urub,
Quyunsoki Mulloyi Rum etii gasht.
Ichib Shamsi Tabriz qizib ettir raqs,
Muningdek muʼniddini mulki hasht.*

Yaratganga nisbatan yoniq ishq, azaliy muhabbat, Mansur Xalloy, Majnun singari oshiqlik tariqida mashhur boʻlgan obrazlar tasviri anʼanaviy klassik ifodalarni yodga solsa-da, Mulloyi Rum – Jaloliddin Rumiy va uning yetuk ustozlari Shayx Shamsiddin Tabriziylardan bahs yuritish orqali ilohiy ishqning darajalarini koʻrsatishga urinish Majzub sheʼriyatigagina xos belgilardandir.

Ahmad Ubaydullohning xabar berishicha, Majzub devonlari arab, fors-tojik, usmonli turk va eski oʻzbek tillarida qorishtirib yozilgan boʻlib, diqqatga molik jihati, oʻnlab devonlarning ana shunday qoʻlyozmalari solishtirilgan va mukammal matn tayyorlashga erishilgan.

Nashrning yana bir qimmatlari shundaki, kitobga shoir devonining asl koʻrinishi, yaʼni qoʻlyozmasi ham ilova qilingan boʻlib, bu manbashunos, matnshunoslar uchun tadqiqot manbai boʻlish bilan birga yosh avlodni oʻtmish merosimiz bilan yaqindan tanishishlariga, tasavvurlari kengayishiga, tabdil jarayonida yoʻl qoʻyilgan ayrim nuqsonlarning keyingi nashrlarda bartaraf etilishiga koʻmakchi boʻlishi shubhasiz.



Zotan, XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti tarix sahnasida alohida pog‘onani tashkil qilgan va f.f.doktori Zebo Qobilova asosli ta‘kidlaganidek, “...Umarxon madaniyatimiz tarixida Husayn Boyqaro, Bobur, Ubaydulloxon, Feruz kabi ma‘rifatparvarlar silsilasida munosib o‘rin egalladi.”⁷¹. Ayni sababdan ham bu ijodiy iqlimda bemisl badiiy xazina qad ko‘tardi. Bugun uning mahobati Renessans hodisasiga qiyosan olinib, yanada teran o‘rganilmoqda. Demak, uchinchi Renessans sari qadam qo‘yar ekanmiz, bebaho adabiy merosimizni o‘rganish, tabdil qilish, xalqqa etkazish, yangidan yangi nashrlarini amalga oshirish ishlarini muntazam yo‘lga qo‘yish, ta‘lim turli bosqichlarida targ‘ib eta borish jahon tamaddunida mustahkam mavqe egallashimizning kafolati bo‘la oladi.

“MAJMUAI SHOIRON”NING MUQADDIMASI ZIKRIDA

Tojixon TOSHBOLTAYEVA,
QDPI, f.f.b.f.d. (PhD),
Xilola AMINOVA, talaba.
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada iste‘dodli shoir va tazkiranavis Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasida muqaddimasida Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan shoirlar va ularning ijodiy faoliyati haqida berilgan ma‘lumotlar tadqiq qilingan. Fazliyning tazkiranavis sifatidagi mahorati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Majmuai shoiron”, masnaviy, hamd, na‘t, qasida, darj, fazl.

Аннотация:

В этой статье информация, представленная о поэтах и их творческой деятельности в кокандской литературной среде, была исследована талантливым поэтом и tazkiranavisом Фазли Намангани на основе

⁷¹Qobilova Z. Badiiy ijodda ta‘sir va izdoshlik. Monografiya. – Toshkent, 2021.- B. 31.

антологии “Мажмуаи шоирон”. Было проанализировано мастерство Фазли в качестве тазкиранависа.

Ключевые слова: "Мажмуаи шоирон", маснави, хамд, наът, дарж, фазл, касиде.

Annotation:

In this article, the information presented about poets and their creative activities in the Kokand literary environment was researched by the talented poet and tazkiranavis Fazli Namangani on the basis of the "Majmuai shoiron". Fazli's skill as a was analyzed.

Keywords: "Majmuai shoiron", masnavi, praise, na't, revenge, publication, grace.

Fazliyning o‘zigacha yaratilgan shunga o‘xshash manbalardan, xossatan tazkiralardan farqli ravishda shuaro va ahli fozillar haqidagi ma’lumotlarni masnaviy (she’riy) usulda taqdim etganining o‘zi katta yutuq hisoblanadi. Bu holat ayniqsa, “Majmuai shoiron”ning muqaddimasida aniqroq ko‘rinadi. Shuningdek, majmuaning asosiy qismida berilgan she’riy janr namunalaridan oldin shu she’r muallifi haqida fazllar havola qilinadi.

M.Shoniyozov “Majmuai shoiron” tazkirasini tayyorlash prinsiplari va matniy tadqiqi” nomli nomzodlik dissertasiyasida tazkirada ahli suxanlar haqidagi ma’lumotlarni ma’lum tizimga solib chiqishni taklif qilgan. Bizningcha ham, “Majmuai shoiron”da havola etilgan ma’lumotlar quyidagicha guruhlarga ajratilishi darkor:

1. Nasabi bo‘yicha: Buxoro amirzodasi Husaynbek (taxallusi – Mir, Miriy); (Sultonxonto‘ra Ahroriy (taxallusi – Ado);

3. Manzil-maskani bo‘yicha (Koshg‘ariy, Buxoriy, Namangoni, Kosoni);

4. Shoirlikdan tashqari kasb-kori bo‘yicha (Munshiy – xattot, naqqosh, me‘mor, najjor);

5. Devon tartib bergan shoirlar (G‘oziy, Hoziq kabilar).

Yuqorida ta’kidlanganidek, majmua muqaddimasida Fazliy nomlari zikr etilajak va she’rlaridan namuna berilajak ijodkorlar haqida ba’zan ikki, ba’zan bir necha bayt doirasida ta’rif va tavsiflar keltiradi. Masalan, Shayxulislom haqida quyidagi ma’lumotlarni o‘qiymiz: .(Maqolada keltirilgan she’riy namunalar asarning toshbosma nusxasidan olindi.”Majmuai shoiron”.Toshbosma. 1900 yil)

Hama fard dar olam ma’navū,

Ki chun Shayxulislom chun ma’navū. [1, 5]

Mazmuni: Ma’naviy olamning hamma shoirlari bir tomon bo‘lsa, Shayxulislomni o‘zi bir tomondir. Keyingi o‘rinlarda boshqalar haqida ma’lumot quyidagi tarzda berib boriladi:

Zi avlodi Ahror boshad Ado,

Ba bog‘i suxani bulbul xushnavo. [1, 5]

Mazmuni: Shayx Xoja Ahror Valiy avlodidan bo‘lgan Ado so‘z bog‘ining xushnavo bulbulidir.

Ado taxallusi bilan ijod qilgan bu zot haqida Fazliy tomonidan berilgan darjlar sho‘ro tuzumi davrida bir qadar buzib talqin etilgani ma’lum. Majmuada Ado haqida so‘z borganida mana bu satrlar ham e’tiborni tortadi:

*Gar Navoiydin Ado she'rini o'tkazsa ne tong,
Shoh Umar afzalmi yo Sulton Husayn Boyqaro. [1, 165]*

Bundan ko'rinib turibdiki, Umarxon boshliq adabiy muhit vakillari o'z davrini Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy Hirot adabiy muhitiga qiyos qilib, bundan g'ururlanmoqdalar. Chunki Sultonxonto'ra Ado keltirgan mazkur g'azalida o'zini Navoiyga, Amir Umarxonni Sulton Husayn Boyqaroga tenglashtiryapti.

Muqaddimaning keyingi o'rinlarida turli hudud va Qo'qonning o'zidan chiqqan shoirlar haqida birma-bir darj va fazllar berib boriladi. Bu tavsif va ta'riflar goh muqaddima mualliflari, goh nomi zikr qilingan shoirlar tilidan bayon qilinadi. Xususan, shoir Nola haqida ushbu ma'lumot mavjud:

*Digar Nola on sayūd pokzod,
Buvad faxri saodati olūnaçot.*

Mazmuni: Yana Nola pokzot sayyidlardan bo'lib, eng oliy, eng baxtli najotning faxri bo'ldi. Keyingi bayt:

*Ki buzrukvori u solik ast,
Ba amloki faqiru g'ani molik ast. [1, 11]*

Mazmuni: U (Nola) so'fiylarning ulug'laridan bo'lib, boy-u kambag'allarning mulkiga molik edi, ya'ni boyni ham, kambag'alni ham bir ko'rardi. Ularni ajratib, birini ulug'lab, birini kamsitmas edi. Bundan keyin esa, shoir Nolaning tasavvufga aloqasi haqida so'z boradi:

*Buvad on soliki on murshidi nomdor,
Karomati u dar jahon oshkor.
Buvad nasli u Quddusi avliyo,
Zi mahdumi Xorazmūi porso. [1, 7]*

Mazmuni: U eng nomdor piri murshidga murid bo'lgan. Uning karomatlari jahon sirlarini oshkor qilgan. U xorazmlik pok zotli, avliyoyi quddus Mahdumning naslidan bo'lgan.

Keyingi o'rinda Mir Asad (Ma'yus) haqida ma'lumot keltiriladi:

*Digar zubbai dahri Mir Asad,
Ba sodoti dil nisbatash merasad.
Buvad az buzurgon olūqanob,
Ki dar she'r Ma'yus dorad xitob.
Zarifast va hushyor ravshan zamir,
Buvad masnadash poytaxti Amir. [1, 5]*

Mazmuni: Yana biri dunyoning qaymog'i bo'lgan Mir Asad bo'lib, kelib chiqishi ko'ngil sayyidlariga bog'lanadi. Mir Asad oliyjanob zotlarning ulug'laridan bo'lib, she'r bahsida ma'yus xitoblarga ega bo'lgan. Uning tubida zarofat va hushyorlik ravshan bo'lib, Amir poytaxtiga keldi va unga maslakdosh bo'ldi.

Agar shu tariqa shoirlarning darj va fazllari berib borilgani kuzatilsa, har bir ijodkor haqida Fazliy ularning hayot yo'liga to'la muvofiq keluvchi tavsiflarni havola etganligiga ishonch hosil qilinadi.

Xo'jandlik shoir Xotif haqida ma'lumot keltirar ekan, uning ta'bi ravon shoir bo'lganligi, Amir Umarxonni madh etuvchi shoir sifatida nom chiqargani,

uning soʻzlari nihoyatda shirin va magʻizli boʻlgani, mufti va qozilik muhri unga tegishliligi qayd etiladi:

*Xʻyʻandist Xotif zi taʻbi ravon,
Ba sultoni davron shudi madhi xon.
Kalomash zi mustagʻbal va mozist,
Dar on moʻhr mufti va qozist. [1, 11-12]*

Kezi kelganda, taʻkidlash joizki, Amiriy rahnamo boʻlgan va Fazliy darj qilgan Qoʻqon adabiy muhiti shoirlarining bir nechtasi qadim Xoʻjand ahlidan boʻlgan. Bular Xotif, Zinnat, Koshif, Ravnaq, Mutrib, Maʼyus, Roseh, Nuzhat, Shoʻxilardir. Adabiyotshunos E.Shodiyev oʻzining “Fazliy Namangoniy va Xoʻjand shoirlari” risolasida zikr etilgan shoirlar va ularning ijodi haqida anchagina maʼlumotlarni keltiradi va tazkiradan oʻrin olgan sheʼrlaridan namunalar havola etadi. Chunonchi, Xotif Xoʻjandiy haqida soʻz yuritar ekan, tazkirada va boshqa manbalarda Xotif Xoʻjandiy haqida berilgan maʼlumotlarni keltirib oʻtadi. Ammo tazkirada Xotifga tegishli fazllar va darjlar anchagina boʻlib, bular muqaddima-masnaviyda ham (yuqorida keltirildi), Xotifga tegishli sheʼr namunalarining har birini keltirishda ham fazllar berilgan. Aniqrogʻi, birgina Xotif haqida 26 oʻrinda darj⁷² va fazl⁷³ beriladi.

Xotifning “ustina” radifli sheʼrini keltirishdan oldin quyidagi fazl berilgan:

*Man Xotif fazlidin na deyin suxan,
Erur har sheʼri misli durri Yaman.
Xayoli daqiqu barjasta erur,
Koʻrgil bu gʻazalni nechuk xush boʻlur. [1, 385]*

Keyingi darj va fazllar Xotif Xoʻjandiyning tojikcha sheʼrlariga berilgan. Xotif zullisonayn shoir boʻlgani maʼlum. Fazliy Namangoniy oʻz tazkirasida Xotif Xoʻjandiyning “ustina” radifli payrov gʻazalini keltirgan. Gʻazal oʻzbekcha boʻlib unda shoirning poetik mahorati qirralari namoyon boʻlgan. Gʻazaldagi baytlarda shoirona topilmalar, tesha tegmagan oʻxshatishlar eʼtiborni tortadi:

*Belu ogʻzu qaddidin umrlardurkim oʻtar,
Xurdadonlar ichra qilu qol bir moʻustina.
Na Skandar koʻrdi koʻzgusinda, na jomida Jam,
Man koʻron soʻz jilvasin mirʻoti zonu ustina.
Nish uza laʻli mayidur, yokim latofat yoriga,
Chin eli manzum edib yoqutu inju ustina. [1, 389]*

Xotifning bu sheʼrining asosiy mavzusi oshiqning maʼshuqaga boʻlgan cheksiz muhabbati bayonidir. Gʻazal majoziy ishq talqiniga bagʻishlangan. Shu ishq bayonida maʼshuqaning eng goʻzal sifatlari lirik qahramon tilidan vasf etilib,

⁷² Tarjima lugʻatlarida «дарж» сўзи (арабча) маълумот, рўйхат, қайд, қатнашиш, талқин, ёзиш, рўйхатдан ўтказиш маъноларини ифодалаши кўрсатилган. Тазкирада шоирлар ҳақидаги маълумотлар «дарж» сўзи билан ифодаланган.

⁷³ «Фазл» сўзи эса «акл», «донолик», «камолотга эришиш» маъноларини билдиради. Тазкирада эса бу сўз «мақтов», «қайд» маъносида ишлатилган. Масалан: «фазли Қози Худоёр» сарлавҳаси остида Қози Худоёрнинг Амирийга таъриф ва тавсифи, хусусан, Жомеъ масжидининг қурилиши ҳақида маълумот берилади. Яна тазкиранинг қасида қисмида шу рўйхат «фазли Мирзо Шариф, фазли Мулло Гулханий, фазли Мирзо Қаландар Мушриф... тарзида давом эттирилган. Шу боис қайд ва маълумотларни «дарж» ва «фазллар» деб юритишни маъкул кўрдик.

ma'shuqani go'zallar ichida yakto bo'lib qolishini ko'rsatmoqda. Shu sababdan mazkur g'azaldagi badiiy tasvir vositalari - tamsil, talmeh, o'xshatish - shoir badiiy niyatini ro'yobga chiqarishga to'la safarbar qilingan.

*Xayoliki, Xotif raqam mekunad,
Ba ummidi lutfu karam mekunad,
Zi fazli adab yofta ehtirom,
Ba darbori olu girifta maqom... [1, 218]*

Mazmuni: Xotif she'r bitish xayoliga borar ekan, lutfu karamlar umid qiladi. Adab fazilati bilan ehtirom topib, oliy maskanda maqom sohibi bo'ladi.

Shunday qilib, xo'jandlik iqtidorli zullisonayn shoir haqida bunday ijobiy fikrlar Xotif Xo'jandiy qalami qudratiga zamondoshlari juda yuksak baho berganini ko'rsatib turadi. Xotifning har ikki tilda yaratgan asarlari yetuk va barkamol bo'lganini to'la tasdiqlaydi". Tazkiraning muqaddima qismida Qo'qon adabiy muhitining 75 nafar shoiri haqida ana shunday qimmatli va xolisona ma'lumotlar keltiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulkarim Fazliy Namangoniy. Majmuai shoiron / Tuzuvchi Mahmud Hasan.-Toshkent: Fan, 2018.-338 b.
- 2.Fazliy. Majmuai shoiron.- O'zR FA ShI, inv. №7510 qo'lyozma.
- 3.Fazliy. Majmuai shoiron.- O'zR FA ShI, inv. №9139 toshbosma
- 4.Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani: Ilmiy tadqiqot / Mas'ul muharrir: Habib Sa'dulla.-Namangan: Namangan nashriyoti,2007-467 b.

XILVATIY ADABIY MEROSINING O'RGANILISHI: AN'ANA VA BADIY IJOD

**Ozoda BOLTABOYEVA,
NamDU, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarida yashab ijod etgan Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiy hayoti va ijodi ilm ahllari tomonidan qay darajada o'rganilgani bayon etilgan. Shoir asarlarni o'rganish bo'yicha mavjud manbalar tadqiqi Qo'qon adabiy muhiti vakillari ijodiga qiyosan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, devon, nashriy manba, she'riyat, mahorat, janr, manzuma, axloqiy-ta'limiy mazmun, zullisonayn.

Аннотация

В данной статье описывается, насколько жизнь и творчество муллы Юлдаша Турабая оглы Хилвати, жившего и творившего в начале XX века, изучены учеными. Изучение доступных источников для изучения творчества поэта представляет собой сравнительный анализ творчества представителей кокандской литературной среды.

Ключевые слова: рукопись, деван, издательский источник, поэзия, мастерство, жанр, эпос, нравственно-воспитательное содержание, двуязычие.

Annotation

This article describes the extent to which the life and work of Mulla Yuldash Turaboy o'g'li Khilvati, who lived and worked in the early twentieth century, have been studied by scholars. The study of available sources for the study of the poet's works is a comparative analysis of the works of representatives of the Kokand literary environment.

Keywords: manuscript, devan, publishing source, poetry, skill, genre, epic, moral and educational content, bilingual.

Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiy 1858-yil Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa qishlog'ida tavallud topgan. Uning she'riyati ikki qo'lyozma manbaga jamlangan. Ulardan birinchisi – O'zR FA SHI Hamid Sulaymonov fondidagi 1870 ashyo raqamli qo'lyozma. Ushbu manba avtograf nusxa ekani jihatidan alohida qimmatga ega. Shoir devonining ikkinchi qo'lyozmasi – ayni kezda nabirasi Akmalov Ma'rufjon shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma ham shoirning o'z dastxati asosida 1878-1910-yillarda kitobat qilingan.

I. Abdullayevning yozishicha: “Xilvatiy ijodining nashriy manbalari hayotlik vaqtida chop etilgan ayrim tazkira va bayozlarda ham mavjud. Masalan, hijriy 1328 (milodiy 1910) yili Toshkentda G'ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan “Bayozi Haziniy”ning 89-91 sahifalarida Xilvatiyning “Xotun” nomli hajviyasi berilgan. Hijriy 1329 (milodiy 1911) yili Toshkentda G.A. Yakoblev bosmaxonasida bosilgan “Bayozi yangi” to'plamining 122-124-sahifalarida Xilvatiyning ikki muxammasi chop etilgan. G'ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan (yili ko'rsatilmagan – I.A) “Bayozi Muhallo” to'plamining 135-136-sahifalarida “Qilding” radifli g'azali bosilgan. Hijriy 1329 (milodiy 1911) yili chop etilgan “Bayozi Murtazo” to'plamida Xilvatiyning bir g'azal va muxammasi berilgan” [5, 2].

Xilvatiy ijodiga oid nashriy manbalar, xususan, shoirning “Qasidai ilm”, “Charog'i maktab”, “Sayrul jibol” va “Mavludi sharif” asarlari XX asr boshlarida Toshkentda chop etilgan. Uning 1903-yilda yozgan forscha “Qasidai ilm” asari “Sayrul jibol”ning toshbosma nusxasi bilan birga 1910-yil nashrdan chiqqan. Ilm va olimlik fazilatiga bag'ishlangan 96 baytli bu qasidaning kirish qismida shoir fors tilida: “In qasida dar bayoni madhi ilm va donish va xasoil va manoqibi ulamo...”, ya'ni “Bu asar ilmu donish madhida va olimlarning xislat va manoqiblari haqida”, – deya ta'kidlaydi [6, 4]. “Qasidai ilm”ning qo'lyozma nusxasi Xilvatiy devonida ham mavjud.

Xilvatiyning “Mavludi sharif” asari xalq orasida “Mavludi sharifi turkiy” nomi bilan mashhur bo'lgan va ko'pchilikning talabiga ko'ra, 1899-, 1908-, 1911-, 1913-, 1916-yillarda qayta-qayta chop etilgan. Ushbu asarni nashr etishga talab ko'pligining bir sababi shuki, xalqimiz mavlud marosimida o'qiladigan arabcha kitoblar mazmun-mohiyatini tushunishga qiynalgan. Xuddi shu mazmundagi asarlarni faqat arab tilini yaxshi bilgan olimlar, ulamolargina o'qigan. Xilvatiyning ushbu asari esa turkiy tilda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom mavludlari haqida yozilgan birinchi she'riy asar hisoblanadi. Asarning hijriy 1331 (milodiy

1913) yilda xattot Abduqodir Shoshiy tomonidan ko‘chirilgan toshbosma nusxasi shaxsiy kutubxonamizda saqlanadi.

Xilvatiyning “Charog‘i maktab” asari hijriy 1325 (milodiy 1907) yilda Toshkentdagi O.A.Porsev bosmaxonasida chop etilgan. Kitobning “Charog‘i maktab” deb yozilgan dastlabki sahifasidagi xalqa ichida: “Bu risola aqoidi manzumdur. Muallimlarg‘a lozimdurki, atfollarg‘a o‘qutub yod oldurg‘aylar” degan tavsiya bor [8,147]. Ushbu risolani xattot Mullo Yusufjon binni Mullo Zokirjon tomonidan ko‘chirilgan toshbosma nusxasi shaxsiy kutubxonamizda saqlanadi. “Charog‘i maktab” eski o‘zbek yozuvidan kirill yozuviga o‘girildi va 2014-yilda nashrdan chiqdi.

1910-yilning yoz mavsumida Nodim va uning o‘g‘li Musallamxon hamda Namanganning taniqli shoirlari Xilvatiy, Fuzayluddin, Abdulmusavvarxon, to‘raqo‘rg‘onlik Sayfuddin Mahdum, Mirzo Olim qorilar “Pochcha ota”, ya‘ni karomatgo‘y Nurulloh mozorini ziyorat qilish maqsadida tog‘ bag‘riga sayohatga chiqishadi. Xilvatiy ana shu sayohat taassurotlarini “Sayrul jibol” (Tog‘ sayri) asarida bayon etgan. Ushbu sayohatnoma hijriy 1328 (milodiy 1910) yil Toshkentdagi G‘ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida chop etilgan. Asarni eski o‘zbek yozuvidan kirill yozuviga o‘girib, qo‘lyozmalarga qiyoslab, chop etish va tahlil qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biri edi. Ilmiy izlanishlar natijasida ushbu asar 2009-yil kirill yozuvida, 2012-yilda esa lotin yozuvida nashr qilindi.

Xilvatiyning ikki qo‘lyozma she‘rlar to‘plami hamda boshqa bayozlardagi o‘zbekcha she‘rlarini eski o‘zbek yozuvidan kirill yozuviga o‘girib, nashrga tayyorlash ishlari shoirning o‘g‘li Akmalxon va jiyani A.Yo‘ldoshevlar tashabbusi bilan 1987-yilda boshlangan. Ushbu xayrli ish Ismatulloh Abdulloh va Hoshimxo‘ja Yo‘ldoshxo‘ja o‘g‘li yordami bilan 2001-yilda nihoyasiga yetkazildi. Xilvatiyning ushbu nashriy devoni tadqiqot manbai sifatida o‘ziga xos qimmatga ega.

Xilvatiy ijodini ilk bor tadqiq etgan olim M.Murodov “Ijod durdonalarini izlab” kitobida shoirning hayoti va ijodi haqida qisqa ma‘lumot beradi va uning “Aylansun quling”, “Yig‘ladim, kuldi”, “Necha kun bo‘ldi”, “Qachon kelur” hamda “No‘noq shoir” kabi hajviy g‘azallarini e‘lon qiladi [4, 48-55]. Ammo ushbu manbada M.Murodov Xilvatiy tavalludi 1838, vafoti 1916-yil deb, noto‘g‘ri ma‘lumot beradi [4, 48].

“Tazkirai Qayyumiy”da Xilvatiy Namangan shahridagi madrasalardan birida o‘qib, imom bo‘lgani, arab tilini yaxshi bilishi hamda u mulla Obidning ustozi ekani, shuningdek, Muhammad alayhissalom mavludlari haqida asar yozib, shuhrat topgani haqida aytib o‘tilgan. Kitobda shoirning “Bu barno nozaninni bilmadim qaysi vatandandur” deb boshlanuvchi g‘azali matni berilgan va ushbu g‘azalga qo‘qonlik Zoriy va namanganlik Zululiy muxammas bog‘lashgani qayd etilgan. Xilvatiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq ayrim chalkashliklar “Tazkirai Qayyumiy”da ham uchraydi. Unda P.Qayyumov Xilvatiyning vafoti sanasini 1922-yil deb, xato ko‘rsatadi [9, 83]. P.Qayyumov ushbu manbada shoirning “Mavludi sharif” asarini Barzanjiyning xuddi shu mazmundagi asari tarjimasini, degan ma‘lumotni beradi. Ammo u tarjima asar emas, chunki “Mavludi sharif” Muhammad alayhissalom

mavludlari haqida turkiy tilda bitilgan mustaqil she'riy asar. Kitobxonlar orasida Xilvatiyning turkiy til nazmida bitgan ushbu asariga ehtiyoj ko'p bo'lgan. Xilvatiyning ushbu asari kompozision qurilish va rivoyatlarni hikoya qilish usuli jihatidan ham Barzanjiyning nasriy asaridan farq qiladi.

Xilvatiy ijodi 1987-yilga qadar ma'lum sabablarga ko'ra o'rganilmadi. 1987-yil Toshkentda shoirning jiyani A.Yo'ldoshev professor I.Abdullayev bilan uchrashib, M.Murodovdan Xilvatiyning ikki qo'lyozmasini olib berishini iltimos qiladi. I.Abdullayev M.Murodov bilan uchrashib, O'zR FA SHI qo'lyozmalar fondida 1870 ashyo raqami bilan saqlanayotgan birinchi qo'lyozmaning fotonusxasi va ikkinchi qo'lyozmaning asl nusxasini olib, Namanganga qaytadi. Shoirning birinchi qo'lyozmasi fotonusxasi hozir ham shoirning jiyani A.Yo'ldoshev xonadonida saqlanadi. U shoirning Gulbu singlisining o'g'li bo'lib, til va adabiyot bo'yicha yyetuk mutaxassis edi. Arab, fors tilini mukammal bilgan I.Abdullayev, A.Yo'ldoshev va Xilvatiyning o'g'li Akmalxon qo'lyozmadagi g'azallarni o'qib, ularni kirill yozuvida nashrga tayyorlashadi. Bu jarayonlarda Xilvatiy haqidagi maqolalar matbuotda muntazam chop etib borilgan. Jumladan, "Qadri uning yuksaklarga munosib", "Xilvatiy: o'limdan ilgari zikri xudo denglar", "Mulla Yo'ldosh Xilvatiy", "Hamisha maqsadi xilvat...", "Xilvatiy hajviyoti haqida" kabi maqolalar shoir hayoti va ijodini keng jamoatchilikka tanitgan.

Xilvatiy devonini nashrga tayyorlagan I.Abdullayev va A.Yo'ldoshevlar ushbu qo'lyozmani "Devon I" deb nomlashgan. Ularning hisobiga ko'ra, ushbu qo'lyozmaga 6886 bayt (13772 misra) o'zbekcha va 770 bayt (1540 misra) forscha she'rlar kiritilgan. Unda shoirning g'azal, muxammas, qasida va sayohatnoma janridagi she'rlari bilan birga tarix va muvashshahlari ham mavjud. Uning katta qismini shoirning "Chiqib" radifli sarguzasht she'ri va "Sayrul jibol" (Tog' sayri) sayohatnomasi egallagan. Qo'lyozmada turli tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar haqida o'zbek va fors tilidagi ma'lumotlar uchraydi. Ushbu qo'lyozmani sinchiklab o'rganish va undagi she'rlarni to'la nashr etish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Chunki Xilvatiy tarjimai holini, o'sha davr adabiy-tarixiy muhitini o'rganishda bu manbalar muhim ahamiyatga ega.

She'rlarida fors va arabcha iboralar, Qur'on oyatlari va hadislardan iqtiboslar qo'llagan Xilvatiyning fors tilidagi merosi hali to'la nashr etilmagan. Ilm va olimlik fazilati bayon qilingan 96 baytli forscha "Qasidai ilm" asari 2009-yilda shoirning "Sayrul jibol" asari bilan birga "Fan" nashriyotida chop etilgan. Bu manba o'zbek va fors tilida sermahsul ijod qilgan shoir Xilvatiyning zullisonaynlik an'anasi davomchilaridan biri bo'lganini anglatadi. Ushbu nashrda qasidaning S.Sayfulloh tomonidan tayyorlangan o'zbekcha nasriy bayoni ham mavjud. Hozirgi vaqtda esa Xilvatiyning har ikki qo'lyozmasida mavjud 3000 misraga yaqin forscha lirik merosi nashr etishga mushtaq.

Xilvatiyning sayohat taassurotlari aks etgan "Sayrul jibol" asari adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilmagan. Shoirning ushbu asari XX asr boshlarida yaratilgan Muqimiy, Zavqiy va boshqa shoirlarning xuddi shu janrdagi asarlaridan o'ziga xos kompozision qurilish va poetik jihati bilan farq qiladi. Asar

safar xotiralari aniq voqelikka asoslangani va yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgani jihatidan ham ahamiyatlidir.

XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Maxmurning ham sayohatnoma yozganligi ma'lum. O'zbek adabiyotida alohida poetik shaklda tartib topgan, keyinchalik adabiy an'ana tusiga kirgan bu janrning asoschisi Muqimiyydir. Muqimiyydan keyin, xuddi shu uslubda Zavqiy, Furqat, Tajalliy va shoirga zamondosh boshqa ijodkorlarning "Sayohatnoma"lari yaratildi. Xilvatiy "Sayrul jibol" asarini o'zidan oldingi shoirlar an'analari ijodiy davom ettirgan holda yaratdi. Asar quyidagi ichki tuzilishga ega: Kirish (sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari nasriy usulda bayon etilgan); yo'l xotiralari bayoni (yo'l xotiralari batafsil bayon etilgan); xotima (sayohatdan muayyan xulosalar chiqarilgan). Ammo ushbu asar Muqimiyyning "Sayohatnoma"sidan o'ziga xos kompozision qurilishi jihatidan farq qiladi. Asar 16 bob bo'lib, har qaysi bobga forscha sarlavhalar qo'yilgan. U 557 bayt (1114 misra)dan iborat. Asar kompozision tuzilishiga ko'ra kirish, 3 asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Asarda nasriy usulda yozilgan kirish mavjud. Asarning 1-qismida masnaviy usulida yozilgan hamd va na't, 18 baytli muqaddima hamda 2-qismida sayohat taassurotlari, 3-qismida esa Xilvatiyning Sayyid Burhonxo'ja eshon ibni Aminxo'ja eshon bilan uchrashgani va shoirning ushbu asarni Mavlaviyxon eshon huzurida o'qib berishi voqealari bayon etilgan. Asar so'ngida fors tilida nasriy xotima ham yozilgan. Xilvatiy "Sayrul jibol" asarida Sharq adabiyotidagi mavjud an'analarga rioya qilgan, ya'ni asar masnaviy usulida, aruzning ramali musaddasi mahzuf (foilotun, foilotun, foilun) vaznida bitilgan. Asar til, uslub, ohang va tasviriy vositalar qo'llash jihatidan o'ziga xosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Asar Allohga hamdu sanolar aytish, Uning Zotini ulug'lash, yuzlab sifatlarini badiiy bo'yoqlarda tasvirlashi bilan ham boshqa "Sayohatnoma"lardan ajralib turadi. Shoir "Sayrul jibol" asarida olam va odamni yaratgan Alohning buyukligini quyidagi baytlarda izhor etgan:

*Hamd angakim, bog'u rog'u Ko'hsor,
Qudrati volosin aylar oshkor.*

*Tog'lar uzra nabototu giyoh,
Zoti behamtosig'adurlar guvoh.*

*Farshdin to arsh oyoti erur,
Mazhari sun'i kamoloti erur.*

*Har qayu shayda erur absorlar,
Fahm qilg'aylar base asrorlar [6, 3].*

Allohning qudrati oldida lol qolgan shoir so'fiyona qarashlar, tajalli nazariyasiga asoslanib fikr yuritayotgan chog' har bir narsa zamirida: gulu maysada, budu nobudda Haq jilvasini, go'zalligini ko'rib tahsin o'qimoqda. Qur'oni Karimning "Fotiha" surasidagi "Hamdu sano butun olamlar xojasi, mehribon va rahmli, jazo kunining egasi – podshohi bo'lmish Olloh uchundir",

degan oyatni eslasak, shoir hamdlarida aytilgan fikrlarning nechogʻli oʻrinli ekanini anglaymiz.

Shoir ijodidagi hamd gʻazallar, “Qasidai ilm”, “Sayrul jibol”, “Charogʻi maktab”, “Mavludi Sharif” risolalari insoniyat qalbida ilm-maʼrifatli boʻlish, Haqni tanish, ilohiy muhabbat sari intilishga yoʻl ochib beradi. Zero, komil inson boʻlish, olamni anglash har bir insonning orzusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. АбдуллаевИ., ЙўлдошеваА. Хилватий: ўлимданилгаризикрихудоденглар / Ирфон. – Наманган, 1992. – № 12.
2. АбдуллаевИ., ЙўлдошеваА. МуллаЙўлдошХилватий / Ўзбекистонадабиётивасанъати. – Тошкент, 1995, 3 ноябрь.
3. БолтабоеваО.Ю. ХХасрбошларидаНамангандаадабийҳаракатчилик: номояндалари, анъаналари, янгилашиши: филологияфанларибўйичафалсафадоктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 148 б.
4. Муродов М. Ижод дурдоналарини излаб. – Тошкент, 1967. – Б.48-55.
5. Хилватий. Девон. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 21-22.
6. Хилватий. Сайрул жибол. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 65-78.
7. Хилватий. Мавлуди шариф. – Наманган, 2000. – 76 б.
8. Хилватий. Чароғи мактаб / Соғлом эътиқод – мўминга нажот – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б. 147-178.
9. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий. уч жилдлик. жилд II. – Тошкент: Ўзр ФАШИ, қўлёзмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 383-384.

– QO‘QON ADABIY MUHITI TADQIQOTCHISI

**bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Aziz Qayumovning XVIII-XIX asrlardagi Qo‘qon adabiy muhiti taraqqiyotiga doir ilmiy izlanishlari, shuningdek, olimning mustaqillik yillarida nashr etilgan “Qo‘qon adabiy muhiti” monografiyasi tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: adabiy-estetik tamoyil, ijodkorlar biografiyasi, ilmiy tahrir, devon, tazkira, bayoz va majmualar, tarixiy-badiiy asarlar, davriy matbuot nashrlari.

Аннотация

В данной статье анализируются научные исследования Азиза Каюмова о развитии литературной среды Коканда в XVIII-XIX вв., а также монография ученого «Литературная среда Коканда», изданная в годы независимости.

Ключевые слова: литературно-эстетическое начало, биографии художников, научное редактирование, девон, tazkira, байозы и комплексы, историко-художественные произведения, периодика.

Annotation

This article analyzes Aziz Kayumov's scientific research on the development of the Kokand literary environment in the XVIII-XIX centuries, as well as the scholar's monograph "Kokand literary environment" published during the years of independence.

Keywords: literary-aesthetic principle, biography of artists, scientific editing, devon, tazkira, bayoz and complexes, historical-artistic works, periodicals.

Qo‘qon adabiy muhiti adabiyotshunoslikda ancha izchil o‘rganilgan. Bu mavzuda maxsus monografiyalar yaratilgan, dissertasiyalar himoya qilingan, ko‘plab ilmiy maqolalar chop etilgan. Akademik Aziz Qayumov Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha doktorlik dissertasiyasini himoya qilgan [2, 563]. Dissertasiya dastlab 1961-yili monografiya sifatida bosilib chiqqan. Adabiyotshunos Zebo Qobilova Amir Umarxon davri Qo‘qon adabiy muhitining o‘rganilishi haqida so‘z yuritar ekan quyidagicha ta‘kidlaydi: “Bu davr adabiyoti bo‘yicha fundamental tadqiqot akademik Aziz Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti” nomli ishidir. Unda bu davr adabiyoti namoyandalari ijodi chuqur va har tomonlama tekshirilganligi bois u hozirgacha asosiy ilmiy manbalardan biridir” [6, 5].

Mustaqillik yillarida Aziz Qayumov Qo‘qon adabiy muhitiga doir mazkur monografiyasi matnini tahrirdan o‘tkazib, yangi ma‘lumotlar bilan boyitib, 2010-yili “Asarlar” to‘plamining yettinchi jildi birinchi kitobida qayta nashr ettirdi. Olim monografiyaning mazkur yangi nashriga yozgan kichik kirish so‘zida quyidagi fikrlarni bitgan edi: “Mening “Qo‘qon adabiy muhiti” nomli kitobim 1961-yili Toshkentda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan nashr etilgan edi. Oradan deyarli yarim asr vaqt o‘tdi. Bu kitobdagi ilmiy ma‘lumot va xulosalar shuncha fursat davomida o‘z vazifasini ado etdi, deb hisoblasa bo‘lar. Shuning uchun ushbu nashrni o‘sha kitobning aynan qayta nashri, deb qarash to‘g‘ri bo‘lmas. Ushbu asarlar to‘plamidagi 7-jildning 1-kitobi asosan XVIII asr Qo‘qon adabiy muhitiga oid yangi materiallar bilan to‘latilgan. Yana XIX asr adabiy hayotiga oid mulohazalar ham bir oz tahrirdan o‘tkazilgan. Imkon boricha, XIX asr Qo‘qondagi adabiy harakatchilikka doir ayrim yangi adabiy materiallar ham shu nashrda ilmiy istifodaga kiritilmoqda” [5, 3].

Bu hol, o‘z navbatida, Aziz Qayumov ilmiy laboratoriyasining muhim bir xususiyati – olimning o‘z ustida muntazam ishlaganidan, ilmiy asarlarini ularda tahlil etilgan masalalar yuzasidan aniqlangan yangi ma‘lumotlar bilan muttasil boyitib, tahrir qilib, mukammallashtirib borganidan dalolat beradi. Endi monografiyaning qayta nashriga qaysi yangi ma‘lumotlar kiritilgani, qanday o‘rinlar tahrirdan o‘tkazilgani masalasiga oydinlik kiritsak. Monografiyaning ikki nashridagi tafovutlarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) yangi adabiy nomlar; 2) ijodkorlar biografiyasi, asarlari tahliliga doir avvalgi nashrdagi ma‘lumotlarning boyitilishi; 3) ilmiy tahrir.

Yangi adabiy nomlar. “Qo‘qon adabiy muhiti” monografiyasining yangi nashrida bir qancha mazkur muhitda yetishib chiqqan bir qancha shoir-u adiblar adabiy merosiga doir ma‘lumotlar ilmiy muomalaga olib kirilgan. Jumladan, Nizomiy Xo‘qandiy, Jaloliy, Azimiy, Utojiy, Ravnaq, Sadoiy, Sho‘xiy, Amiriy,

Vazir, Nozik, Ma'dan, Xon singari ijodkorlar tarjimai holi, asarlari haqidagi tahliliy fikrlar yangi nashrning ilmiy qimmatini oshirgan, deyish mumkin.

Yangi adabiy nomlarni ilmiy muomalaga olib kirar ekan, olim Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron", Po'latjon Qayyumovning "Tazkirai Qayyumiy", Muhammad Aminning "Tuhfat ut-tavorix", Ibrohim Davronning "Ash'ori nisvon" singari yodnomalariga tayanadi. Jumladan, Jaloliy tarjimai holi va adabiy merosiga doir ma'lumotlarni "Majmuai shoiron"dan, Nozik ijodiga oid materiallarni "Ash'ori nisvon"dan, Akmal biografyasi va ijodidan namunalar "Tuhfat ut-tavorix"dan, aksar ijodkorlar haqidagi faktlar "Tazkirai Qayyumiy"dan olingan.

"Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasining to'ldirilgan nashrida hayoti va adabiy merosi ilk bor yoritilgan ijodkorlardan biri Azimxo'ja Azimiydir. Buxoro madrasasida Jaloliy bilan birga tahsil olgan bu shoir ham masjidida imomlik qilgan. Qo'qonning g'arb tomonidagi Kal Dushan degan qishloqda yashagan. Hayotining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qolgan. 1845-yili Jaloliy vafot etganda, unga atab marsiya yozgan. Ko'p o'tmay, 1846-yili uning o'zi ham dunyodan o'tgan. "Tazkirai Qayyumiy" da yozilishicha, Azimiy "Nihoyat otashzabon, kuchli shoir bo'lsa ham, ash'ori nash'ali bo'lub, tasavvuf ruhidatur. Ayrim devoni bordur. Xoja Ahmad Yassaviyga ergashib yozgan "Hikmati Azimxo'ja" kitobi ham bordur. Devonida tojik tilida ham she'rlar uchraydi. Chunonchi:

*Bar go ' yak du se abyoti dardnok Azim,
Shoyadki ba 'd mor namoyad nishoni mo.*

Tarjimasi:

*Bir, ikki, uch dardnok baytlar aytib o 't, ey Azim,
Shoyadki, o 'lumingdan keyin nishona bo 'lub shul qoladur.*

O'z nomini taxallus ixtiyor etmishdir[4, 184].

"Tazkirai Qayyumiy" da ko'rsatilishicha, XIX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan Jaloliy va Azimiy ikkalasi ham Nizomiy Xo'qandiyning nabiralari. Jaloliyning otasi Kamoliddin xo'ja Eshon bog'dor Nizomiddinxo'janing (Nizomiy Xo'qandiyning – A.Q) o'g'lidir. Azimiyning esa onasi Nizomiy Xo'qandiyning qizi. Demak, shoirning har ikkala nabirasi bobosining ijodiy faoliyatini munosib davom ettirgan. Azimiyning oromgohi Qo'qondagi Sarmozor qabristonida bobosi Nizomiy Xo'qandiyning mozori yonidadir.

Olim "Tazkirai Qayyumiy" asosida shoirning quyidagi matla' bilan boshlangan g'azalini keltiradi:

*Kun o 'lsa o 'zimni kanora aylarman,
Tun o 'lsa, zamzamai oshiqona aylarman.*

G'azal maqta'ida shoir dunyoqarashi, tasavvuf hayotiga moyilligi o'z ifodasini topgan:

*Qalandarona o 'tay deb, Azim, bu olamdin,
Hilofi odati ahli zamona aylarman.*

Aziz Qayyumov shoirning bobosi Nizomiy Xo'qandiy ijodiy an'alarini munosib davom ettirishini Husayn Voiz Koshifiyning ishlarini o'g'li-Safiy, Navoiyning do'sti Sohib Doro ishlarini uning jiyani Vosifiy, muarrix Mirxondning

ishlarini nevarasi Xondamir davom ettirgani bilan qiyoslaydi. Ijodiy avlodlar izdoshligi masalasini alohida o'rganish zaruratini ta'kidlaydi.

XVIII asr o'zbek adabiyotiga doir biror mavjud tadqiqotlarda nomi mutlaqo tilga olinmagan shoir Utojiy haqidagi ma'lumotlarning "Tazkirayi Qayumiy" asosida ilmiy muomalaga olib kirilishi ham "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasining yutug'idir.

Ijodkorlar biografiyasi, asarlari tahliliga doir avvalgi nashrdagi ma'lumotlarning boyitilishi. Amiriyning shoir sifatidagi salohiyati, aslida, barcha zamonlarda ham ma'lum bo'lgan. Lekin xon ekani sababli sho'rolar zamonida uning adabiy merosini o'rganish imkoniyati cheklangan. Ijodiy faoliyatiga munosabat bildirilgan kamdan-kam holatlarda esa feodal-klerikal adabiyot namoyandasi sifatida salbiy baho berilgan. Jumladan, "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasining dastlabki nashrida ham ayni ruhdagi talqin kuzatiladi. Amir Umarxon "...podshoh, feodal, hukmron sifatida ekspluatator sinfining birinchi va eng yirik namoyandasi edi. U o'zining butun faoliyatini o'z sinfi hokimligini mustahkamlashga qaratdi. Badiiy adabiyotni ham ana shu sinf manfaatlariga xizmat qildirishga zo'r berdi" [3, 56], tarzidagi talqinlar buning isbotidir. Biroq biz Amiriyning ijtimoiy va ijodiy faoliyatiga bunday yondashuvni olimning xatosi yoki kamchiligi sifatida baholash fikridan yiroqmiz. Bu qolip kompartiyaning yakkahukmron mafkurasining talabi bo'lgani, o'sha kezlari buni hisobga olmaslik tadqiqotchining boshiga kutilmagan musibatlarni solishi mumkinligi ortiqcha isbot talab qilmaydi. Shuning uchun biz masalaning boshqa jihatiga urg'u bermoqchimiz. O'z ixtiyoridan, ilmiy mantiqdan yiroq ana shu kabi fikrlarni akademik Aziz Qayumov birinchi imkoniyat tug'ilishi bilanoq isloh qildi. "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasini qayta ishlab, yangi adabiy materiallar bilan boyitib nashr ettirar ekan, Amiriyni faoliyatini qo'lyozma manbalardan kelib chiqib, xolis baholadi. Tadqiqot obyektiga bunday yondashuv mezoni olim ilmiy laboratoriyasining o'ziga xos xususiyati ekanini alohida ta'kidlash kerak.

Amiriyni adabiy merosi va ijodiy qobiliyatiga xolis baho bergan Aziz Qayumov buning uchun "Tazkirai Qayyumiy"dagi ma'lumotlarga tayanadi. Natijada Amiriyning ustoz Muhammad Ya'qubdan ilmu irfon tahsil qilgani, ijodda Navoiyga ergashgani, badiiy tomondan raso shoir ekani ash'ori obdoridan ma'lumligi haqida so'z yuritiladi. Monografiyadagi tahlillardan tazkiradagi "Bu kishining xonlig'idin qat'i nazar, xo'qandli buyuk shoir sifatida hurmat etamiz", degan baho Aziz Qayumovning shoirga bo'lgan munosabatiga uyg'un ekani yaqqol seziladi. Aynan Amiriyni hukmronligi davrida Xo'qandga atrofdan adabiyot ahllari kelib, hurmat ko'rgani, ma'rifat ahllari ziyodalashgani, uning amri bilan o'sha davrning Mushrif, Mirzo Qalandar va Mulla Abdulkarim Fazliylar tomonidan yaratilgan "Majmuat ush-shuaro" kitobining zamonamizgacha yetib kelishi bir muncha klassik shoirlarimizni o'rganish uchun asos bo'lgani to'g'risidagi qarashlar Amiriyni faoliyatiga berilgan haqqoniy baho sifatida qimmatlidir.

Tazkiradagi ma'lumotlarning yana bir qimmatli jihati, Muqimiy, Furqat va ularga davradosh bo'lgan ijodkorlar aynan Amiriyni asos solgan adabiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan ijod daryosiga kelib qo'shilgani bilan bog'liq qarash ilgari

surilganidir. Bu baho Qo‘qon adabiy muhitini yaxlit bir ijod maktabi sifatida tasavvur etish imkonini berishiga ko‘ra qimmatlidir.

Ilmiy tahrir. Monografiyaning dastlabki nashrida Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari sinfiy qarash asosida: 1) feodal-klerikal adabiyot va uning vakillari; 2) demokratik yo‘nalishdagi adabiyot tarzida ikki guruhga bo‘lib tadqiq qilingan. Bir muhit namoyandalarini sun‘iy ravishda bunday guruhlashtirish tadqiqot ishi uchun muvofiq emasligini his etgan olim monografiyani ilmiy talablar asosida tahrir qildi. Yangi nashrda sinfiy yondashuv o‘rnini adabiy-estetik tamoyillardan kelib chiqqan xolis ilmiy talqinlar egalladi.

Bundan tashqari, “Qo‘qon adabiy muhiti” monografiyasining sho‘rolar davridagi nashrida XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligidagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot to‘g‘risida batafsil to‘xtalangan, kitobning bu bobida kommunistik mafkura talablari asosidagi yondashuv etakchilik qilgan edi. Yangi nashrda ushbu bob jiddiy ilmiy tahrirdan o‘tgan. Tarixiy sharoit to‘g‘risidagi fikrlar muxtasar holga keltirilib, asosiy urg‘u adabiy muhit shakllanishi masalalariga qaratilgan. Jumladan, tarixiy sharoit sharhiga dastlabki nashrda yigirma sahifa ajratilgan bo‘lsa, keyingi nashrda mazkur davrning etakchi tendensiyalari olti sahifada bayon etilgan.

Bu hol, o‘z navbatida, Aziz Qayumov ilmiy laboratoriyasining muhim xususiyati – olimning o‘z asarlarini qayta ishlash, ilmiy tahrirdan o‘tkazish, mavjud tarixiy-adabiy ma‘lumotlarni, tahlillarni chuqurlashtirish va boyitish ustida muntazam ishlaganidan dalolat beradi.

Aziz Qayumov tomonidan alohida monografiya yozilgan, olim ilmiy maktabining davomchilari tomonidan alohida shoir-u adiblar adabiy merosi yuzasidan jiddiy tadqiqotlar yaratilgan bo‘lishiga qaramay, Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha o‘rganilishi kun tartibida turgan ilmiy muammolar mavjud ekanini ta’kidlash kerak. Bu ilmiy muammolar, bizningcha, quyidagilardir:

– mazkur adabiy muhitga oid manbalarning ilmiy-monografik va qiyosiy tahlili;

– Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalari asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish;

– ilmiy-tanqidiy matnlarga asoslangan nashrlarni amalga oshirish.

Ma‘lumki, Qo‘qon adabiy muhiti namoyandalarining asarlari bizga turli manbalar orqali yetib kelgan. Aziz Qayumov monografiyasi tadqiqi asosida manbalarni quyidagi tarzda ilmiy tasnif etish mumkin: devonlar; tazkiralar; bayoz va majmualar; tarixiy-badiiy asarlar; davriy matbuot nashrlari.

Bu adabiy muhit vakillarining aksari sohibi devon shoirlar bo‘lgan. Jumladan, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Hoziq, G‘oziy singari shoirlarning devonlari bizgacha yetib kelgan. Shulardan G‘oziy she‘riyati birinchi marta Aziz Qayumov tomonidan tadqiq qilingan. Zebo Qobilova bu boradagi ilmiy izlanishlarini davom ettirib, Amiriy devonini ikki jild holda nashr ettirishda faol qatnashdi [1, 234]. Amiriy, Nodira va Uvaysiy devonlaridan tanlangan asarlari chop etilgan. Biroq ularning turli qo‘lyozmalarida va nashr nusxalarida anchagina matniy tafovutlar uchraydi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish masalasini kun tartibiga qo‘yadi.

Bundan tashqari, ayrim shoirlarning devon tuzgani ma'lum bo'lsa-da, ular hanuzgacha topilmagan. Mahzuna, Furqat devonlari haqida shunday fikrlarni aytish mumkin.

Umuman, "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasining qayta ishlangan, to'ldirilgan nashrida mavjud ma'lumotlar yangilangan, materiallar boyitilgan, yangicha talqinlar ilgari surilgan. Bu hol, o'z navbatida, ushbu adabiy muhit doirasining shu paytgacha talqin etib kelinganidan ko'ra kengroq ekani ilmiy dalillangan. Bu hol, o'z navbatida, olim ilmiy laboratoriyasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berishi jihatidan ham qimmatlidir. Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Qo'qon adabiy muhitiga oid manbalarni adabiyotshunoslik, shuningdek, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik oldiga zamon qo'yayotgan bugungi talablardan kelib chiqib yanada chuqur tadqiq qilish, ayrim ijodkorlar asarlarini qayta baholash ilmiy ehtiyojdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amiriy Devon I-II. (Nashrga tayyorlovchilar: Ahmadjon Madaminov, Ergash Ochilov, Zebo Qobilova, Olimjon Davlatov). – Toshkent: Tamaddun, 2017. – 234 b.
2. Qayumov A. Quqon adabiy muhiti (XUSH-XIX): Filol. fan d-ri... diss. – Toshkent, 1961. – B.563.
3. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti (XVIII-XIX asrlar). – Toshkent: O'zfanakadnashr, 1961. – B. 56.
4. Qayyumiy Po'latjon domullo. Tazkirai Qayyumiy. – Uch jildlik. I jild. – Toshkent, 1998. – B.184.
5. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. Asarlar. VII jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – B. 3.
6. Qobilova Z. Muhabbat mamlakatining amiri / Amiriy Devon. I – Toshkent: Tamaddun, 2017. – B. 5.

QO'QON ADABIY MUHITI TADQIQI: YUTUQLAR VA VAZIFALAR

Ibrohim SAYDULLAYEV,
adabiyotshunos
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo'qon adabiy muhiti yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, ularning yutuq tomonlari hamda kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan amaliy ishlar haqida so'zlanadi. Qolaversa, Amiriy va Nodira ijodidan namunalar keltirilib, tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon adabiy muhiti, Hamza, o'zbek adabiyoti, Zebo Qobilova, Olimjon Davlatov, Amiriy, Nodira.

Аннотация:

В данной статье описывается работа, проделанная над литературной средой Коканда, их достижения и практическая работа, которую предстоит проделать в будущем. Кроме того, приводились и анализировались образцы из работ Амира и Нодир.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, Хамза, узбекская литература, Зебо Кобилова, Олимжон Давлатов, Амир, Нодира.

Annotation:

This article describes the work done on the literary environment of Kokand, their achievements and practical work to be done in the future. In addition, samples from the works of Amir and Nodira were cited and analyzed.

Keywords: Kokand literary environment, Hamza, Uzbek literature, Zebo Kobilova, Olimjon Davlatov, Amiriyy, Nodira.

2019-yilda olimia Zeboxon Qobilova tomonidan “Hamza va XX asr o‘zbek adabiyoti” nomli kitob nashrdan chiqdi. Bu kitobda adabiyotshunos olimlarni Hamza haqidagi fikrlari jamlangan. Bu kitob olimia singlimiz Zeboxon Qobilovanning shoir va dramaturg va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziyga bo‘lgan ehtiromining xulosasidir. Buning uchun olimia Zeboxondan minnatdormiz.

Hamza Hakimzoda haqidagi ko‘p yillik ma‘lumotlardan shu xulosaga keldikki, Hamza ma‘rifat jonkuyari bo‘lgan ekan. Xalqimizni taraqqiyotdan ortda qolib ketganini anglab, birinchi bo‘lib jadid maktablarini ochishda jasorat ko‘rsatgan zotdir. Musulmonlar keying asrlarda madrasalardan barcha dunyoviy fanlarni olib tashlab, faqat diniy ta‘limni qoldirib, katta xatoga yo‘l qo‘yganlarini, shu tufayli taraqqiyotda ortda qolib ketilib, mustamlakaga aylanganimizni birinchilardan bo‘lib anglab, jadid maktablarini ochgan ekan. Ming afsuski, u fojiali davrning ilk qurbonlaridan bo‘ldi.

O‘limidan so‘ng uning asarlari sho‘rolar mafkurasiga moslab o‘zgartirilganligi va dahriy shoir deb e‘lon etilishi tufayli xalqni Hamzaga bo‘lgan tafakkurida salbiy munosabat paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Lekin Hamzaning “Devoni Nihoniy”sini va bolalar uchun yozgan “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi”, “Yengil adabiyot” kitoblarini o‘qilganda Hamzaning dahriy emas, yetuk islom ulamosi ekanligi ayon bo‘ladi. Misol uchun “Yengil adabiyot”ning birinchi sahifasida toza islomiy sun‘iy aqida bayon etiladi:

*Xudo birdur besharik,
O‘lmas hech doim tirik.
Bizdek badan joni yo‘q,
Bir sifat birla tirik.*

Xullas, Qur‘ondagi “Ixlos” surasining mazmuni she‘riy bayon qilingan. Undan keyin esa payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga na‘t bayon etiladi. “Devoni Nihoniy”da ham birinchi g‘azal Ollohga hamd, so‘ngra payg‘ambarimizga na‘t va qolgan g‘azallarning aksarida ishqi ilohiy tarannum etiladi.

Uning dramalaridagi ba‘zi obrazlarda o‘zining dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. 23 yoshda Haj arkonini bajarib kelganini ham e‘tiborga olsak, Hamza to‘laqonli Islom ulamosi ekanligi namoyon bo‘ladi.

Keying yillarda barcha joylarda Hamza nomi olib tashlanganligi unga nisbatan nohaqlik deb bilamiz. Hech bo‘lmasa, uning tug‘ilgan ona shahrida nomini tiklash kerak deb o‘ylaymiz. Bu faqat mening fikrim emas, ko‘pchilik Hamza ixlosmandlarining fikridir.

“Nihoniy” devonidan bir g‘azalni keltiramiz.

*Olti kunlik umr uchun behuda kirdoring g‘alat,
Shodiga hush hasratiga, oh ila oring g‘alat.*

*Barchaning tangrisi bir deb, e‘tiqod aylab yana,
Mo‘rchani ilmay nazarga aylagan koring g‘alat.*

*Davlata mag‘rur o‘lub, kibr-u havo aylab baland,
Bekas-u bechoralarg‘a bergan ozoring g‘alat.*

*Qalb emasmi Haq nazargohi, ayo sayyodi nafs,
El ko‘ziga dom qurgan joma dastoring g‘alat.*

*Hayr-u, ehson-u, zakot-u, amri haq barpo emas,
Misli qorun jam qilgan mol-u murdoring g‘alat.*

*Yo‘q o‘zingda zarraye fazl-u kamolot ey Nihon,
Elga sen nosih o‘lma sahibi guftoring g‘alat.*

Xullas, olimlarimizdan Hamza ijodiga doir asarlarni tadqiq qilishda yangiliklar kutib qolamiz.

So‘nggi yillarda Qo‘qon adabiy muhitini yaratishda Amiriyning turkiy va forsiy devonini chop etish salmoqli ish bo‘ldi. Bu kitoblarni nashrga tayyorlagan Zeboxon Qobilova va Olimjon Davlatovlarga tasannolar bo‘lsin. Devonga yozilgan so‘z boshining o‘zi ajoyib mo‘jaz asar. Kitob sifatli qog‘ozda va go‘zal muqovada chop etilgan. Bunday ishlar hozirgi kunda nihoyatda zarur. Yoshlarni mumtoz adabiyotimiz bilan tanishtirish, hozirgi kunning dolzarb masalasi. Yosh avlod qalbiga tariximiz va mumtoz adabiyotimizga ehtirom uyg‘otish muhim ishlardan bo‘lib, yoshlarni yurtimizga kirib kelayotgan yot g‘oyalardan saqalash birinchi o‘rinda turadi. Shu ezgu yo‘lda olimimiz Zeboxon Qobilovaga cheksiz muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Hozirgi Qo‘qon adabiy muhitida ba‘zi yozuvchilar tarixiy romanlar yozishmolda. Lekin tarixni buzib ko‘rsatish holatlari bor. Shuning uchun Qo‘qon adabiy muhitida chop etilayotgan kitoblar nashrdan oldin olimlar muhokamasiga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lard. Lekin bunday xatolardan tarixchi olim Yahyoxon Dadaboyevning kitoblari mustasno. Endi Qo‘qon adabiy muhitining faxri bo‘lmish Amir Umarxon va Nodira g‘azallarining sharhiga o‘tamiz.

*Erlik ermas, jur‘at aylab, fathi Haybar aylamak,
Er o‘shaldurkim, taalluq ilgidin tortar etak.*

Jur‘at bilan Haybar dovonini fath etmak erlikdan emas, balki dunyo xo-yu xavaslaridan etak silkitmoqlik erlikdandir.

*Mavji daryoyi fanodur naqshi bunyodi jahon,
Olami xokiy erur suv ichra tushgon bir kesak.*

Bu dunyo foniylilik daryosini bir to‘lqini bilan yo‘q bo‘lib ketadigan bir kesakdir.

*Oqil uldirkim, jahon asbobig‘a bermas ko‘ngul,
Kimsa andin ko‘rmadi ranju mashaqqatdin bo‘lak.*

Oqil kishi dunyo ashyolariga ko'ngil bermaydi, chunki undan hech kim ranju mashaqqatdan bo'lak narsa ko'rmagan.

*Ey xush ul devonakim, gulxan bo'libdur maskani,
Ne g'ami olam erur anda, na parvoyi falak.*

Devona bo'lish qanday yaxshiki, uning maskani gulxan oldida, dunyo g'amidan yiroq, parvoyi falak (bu bayt dunyoga to'q nazar bilan qaraydigan tasavvuf ahllari haqida).

*Tarbiyat qilg'on bila noasl bo'lmas odamiy,
Ipni yuz alvon bila rang etsa bo'lmasdur ipak.*

Badasl, ko'ngli qora odamni har qancha tarbiyat qilgan bilan odam bo'lmaydi, oddiy ipni yuz xil alvon rangga bo'yaganing bilan ipak bo'lib qolmaydi.

*Basdurur xoling savodi surmayi binish manga,
Gar qazo ikki ko'zimning nuqtasini qilsa chok.*

Sen haqingda yozilgan ta'rifni qora siyohi mening ko'zimni ravshan qiluvchi surma bo'lsin, magaram taqdir ikki ko'zimni qorasini tilib yuborsa ham.

*Bo'lmag'il g'ofil savodi nuqtai dildin Amir,
Kim bu markaz tegrasidin aylanur davri falak.*

Ko'ngil markazidagi qorachiqdan (ko'ngil ko'zidan) g'ofil qolma, chunki, falak shu markaz tegrasidan aylanadi. Ya'ni: dunyoga ko'ngil ko'zi bilan boqishni unutma, chunki mo'minni ko'ngli olami kubrodir hamda Ollohning nazargohidir.

Hadisi Qudsiy: "Men butun olamga sig'mayman, lekin mo'min bandamni qalbiga sig'aman".

*Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,
Jahondin kech hayoli vasli yor et.*

Bu baytda Ollohning yaratilari bo'lmish go'zalliklardan bahra olmay, uni yaratganning visolini orzu qilgin.

*Muhabbatsiz kishi aslo odam emasdur,
Gar odamsen muhabbat ixtiyor et.*

Bu yerdagi muhabbatdan murod Ishqi ilohiydir. Hazrat Navoiy ayganlaridek,

*Bo'lmasa ishq, ikki jahon bo'lmasin,
Ikki jahon demaki, jon bo'lmasin.*

Bu tasavvuf falsafasidir.

*Uzor-u, qaddu raftoringni ko'rsam,
Chaman sarvu gulini sharmsor et.*

Jamolingni, qaddu qomatingni namoyon qilib, chaman sarvi gullarini sharmsor etgin. Ya'ni: Ollohu Taolo yer yuzidagi barcha go'zalliklarda tajalli qiladi. Barcha go'zalliklar Ollohning tajallisidir. Bu insonda ham zuhur qiladi.

*Labi mahmuridurmen, jomi may tut,
Karam qil, soqiyo, daf'i xummor et.*

Ma'shuqani labini xummoriman. Ey soqiy, karam qilib may tutginki, toki xumor daf bo'lsin. Bu baytda maydan murod, ishq ilohiy, soqiydan murod piri murshid.

*Analhaq mojarosin aylading fosh,
Kel, ey Mansur, istiqboli dor et.*

Ey Mansuri Xalloy, “Analhaq” mojarosini oshkor qilding, endi dor ostiga kelaver. Mansuri Xalloy “Analhaq” – men Xudoman – degani uchun dorga osiladi. Tasavvuf ulamolari buni Mansur aytgan emas, Olloh Mansurni tili bilan aytdi – deganlar. Bu holat ishqiy jazba tufayli sodir bo‘lgan.

*Durri ashk-u, aqiqi xuni dilni,
Kelur yoring oyog‘ig‘a nisor et.*

Ko‘z yoshi durlarining, yurak qizil qonini kelayotgan yorni oyog‘i ostiga nisor et.

*Kuyib ey Nodira, olam eliga
Muhabbat shevasin oshkor et.*

Ey Nodira, kuyib pishib olam eliga muhabbat qoidasini oshkor et. Bu g‘azaldan ma‘lum bo‘ladiki, Nodira ham tariqat ahlidan bo‘lib, tasavvuf yo‘lida ijod qilgan.

*Dono ba har diyora azizu mukarram ast,
La‘nat bar on diyorki, nodon buvad ast.*

Donolar har diyorda aziz-u mukarramdurlar, la‘nat bo‘lsin shunday diyorgaki, nodon aziz bo‘lsa.

*Bahri davlatdin bashorat sizga, ey ahli jahon,
Bir Humoyun tiyl Bobur naslidin bo‘ldi ayon.
Navniholi bo‘stoni Temuri Sohibqiron,
Umridin bar topgay ul shahzodam oliy nishon.*

Bu muxammas Nodiraning farzandi Muhammad Alixonga bag‘ishlangan bo‘lib, u zot Amir Temur va Boburshoh naslidan ekanligi bayon qilinmoqda.

FUZULIY SHE‘RIYATINING MUHSINIY IJODIGA TA’SIRI

**Furqat TO‘XTAMURATOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Fuzuliy ijodining Muhsiniy ijodiga ta’siri, mazkur ta’sir natijasida yozilgan nazira va tatabbular yuzasidan tahlillar berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: adabiy ta’sir, badiiy ijod, tatabbu, nazira, uslub, rangin mazmun, ohang

Аннотация

В данной статье анализируется влияние творчества Физули на творчество Мухсина, назире и татабы, написанные в результате этого влияния.

Ключевые слова и фразы: литературное влияние, художественное творчество, татабу, назира, стиль, цветовое содержание, тон.

Annotation

This article analyzes the influence of Fuzuli's work on Muhsin's work, the nazira and tatabs written as a result of this influence.

Keywords and phrases: literary influence, artistic creation, tatabbu, nazira, style, color content, tone

Sharq adabiyoti uzoq asrlar davomida an'ana va adabiy ta'sir natijasida rivojlanib kelgan. Boy ijodiy tajribadan oziqlanish va mavjud an'anaga yangicha tus berish har bir davrda o'zgacha ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Turkiy adabiyotning sultoni Alisher Navoiy o'z davri va o'zidan keyingi davr adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Shuningdek, turkiy tilli xalqlar adabiyotida o'zining boy, o'ynoqi, sho'xchan ohangdagi ash'orlari bilan tanilgan ozarbayjon shoiri Fuzuliy ijodining o'rni va ta'siri beqiyos bo'lgan. Xos va avom o'rtasida keng shuhrat qozongan Fuzuliy she'riyati purhikmat mazmunga boyligi bilan kitobxon qalbini o'ziga tortadi. Shu sabab bo'lsa kerak Movarounnahr hududi shoirlari Fuzuliy she'riyatini sevib mutolaa qilganlar. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida Fuzuliy dostonlari, she'rlarining adabiy ta'siri katta bo'lgan. Bu adabiy muhitda XIX-XX asrda ijod qilgan shoirlar devonlarida Fuzuliy g'azallariga ko'plab bog'langan taxmis va naziralar kiritilgan.

Adabiyotshunos olim N.Jumaxo'ja "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida shoir ijodining Qo'qon adabiyoti muhiti vakillari ijodiga ta'siri haqida shunday yozadi: "1836-1837 yillarda Amiriy va Nodiraning o'g'li Muhammadalixon buyrug'iga binoan xattot Dabir tomonidan Fuzuliy devoni ko'chirilgan. XIX asr Qo'qon adabiy muhitida yashagan adiblarning ijodida Fuzuliyning adabiy ta'siri kuchli bo'lgan. Shoir asarlaridagi so'zlar xazinasidan foydalanishgan. Uning asarlariga naziralar, muxammaslar bog'lashgan" [5. 239 b].

Ma'lumki, Mashrab, Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Muhayyir, Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlar Fuzuliy she'riyatidagi turlanib keluvchi uslub, rangin mazmun va ohangdan ijodiy ta'sirlangan. Fuzuliy uslubiga ergashib, diltortar g'azallar ijod qilganlarki, bu davr adabiyotidagi she'riyat rivoji va aynan xalq qalbiga kirib borishida ham ta'sirining o'rni katta deyish mumkin.

Qo'qonlik iste'dodli shoir Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy ijodida ham Fuzuliy she'riyati ta'siri boriligi seziladi. Muhsiniy salafлари an'alarini munosib davom ettirish barobarida o'zi ham ularga ergashib, badiiy barkamol she'rlar yozib qoldirdi. Shoir ijodida Fuzuliydan adabiy ta'sirlanish bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Biz ularni shartli ravishda quyidagicha guruhladik:

1. Muhsiniy xattot sifatida Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonini ko'chirgan;
2. Shoir g'azallariga naziralar bog'lagan;
3. Fuzuliy g'azallariga taxmislar bog'lagan;
4. Shoir g'azallari mazmuni va ohangiga o'xshash she'rlar bitgan.

Husaynquli Muhsiniy mohir xattot bo'lib "Barhayot gulshan" devonining 3ta qo'lyozma nusxasini kitobat qilgan. Shuningdek, xattot sifatida Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonini ham ko'chirgan. Shoirning "Barhayot gulshan" nomli devonida dostonning ko'chirilishi haqida besh baytli tarix-g'azal bor. Adib devonining mavjud 4 ta qo'lyozma nusxasida ushbu tarix bir necha variantda bitilgan. O'zRFASHI qo'lyozmalar fondida 7392 inventar raqamli qo'lyozma devonda ushbu tarix shoir tahriri natijasida mukammal bir ko'rinishga kelgan. Ushbu tarix baytlari quyidagicha:

*Qolsa xayron ahli funun,
Hosidu buxullarim xoru zabun.
Qildi guldek yuzumi zard xati,
Naqshu tasviri jigar-bag'rimi xun.
Aydi: -Kilki raqami Muhsiniydin
Keldi itmoma bu "Layli Majnun"[4.143-144b].*

Tarix-g'azal baytlaridan anglanishicha: shoir asarni ko'chirguncha ko'p zahmat va azob tortgan bo'lsada, nodon insonlar uning mehnati qadriga etmaganidan afsuslanadi. Bu g'azalda *کلک رقم محسنی دین کیلدی اتمامه بو* "kilki raqami Muhsiniydin keldi itmoma bu" jumlasini tarix moddasidir. Bu so'zlardan abjad hisobi bo'yicha 1311/1893-yil hosil bo'ladi. Demak, "Layli va Majnun" dostoni Muhsiniy tomonidan 1893-yil ko'chirilgan. Fikrimizcha, dostonni ko'chirish asnosida Muhsiniy Fuzuliy ijodiga chuqurroq kirgan, she'riyati zamiridagi ma'no ko'lamidan zavqlangan. Tabiiyki, bu intilish, muhabbat fuzuliyona ohangda g'azallar yozishga turtki bo'lgan. Muhsiniyning 1897-1898-yillarda tartib berilgan "Barhayot gulshan" devoniga yuqorida keltirilgan tarix va bir nechta fuzuliy she'rlariga hamohang g'azallar kiritilgani ham fikrimizni dalillaydi.

Adabiy ta'sir natijasida yozilgan g'azallar nazariy kitoblarda tatabbu', nazira, o'xshatma kabi nomlari bilan ataladi. Adabiyotshunoslik lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: "nazira (ar. نظيره—o'xshash, o'xshash narsa, namuna)-o'zga shoir she'riga ergashish yo'li bilan, unga o'xshatma tarzida yoki javob sifatida yaratiluvchi she'r. Sharq adabiyotida nazira bitish ancha keng tarqalgan, zamondosh shoirlar yoki salafilar bilan o'ziga xos ijodiy musobaqa tusini olgan an'anadir" [6.201,b].

Muhsiniyning nashr qilingan "Barhayot gulshan" devoniga kiritilgan bir qancha g'azallar ifoda uslubi va ohangiga ko'ra Fuzuliy she'rlariga nazira tarzida bitilgan. Masalan, "vor" radifli to'qqiz baytli ishqiy mavzudagi g'azal matla'si quyidagicha:

*Ochmasun ko'ngle parishonlig', sochingni tobi vor,
Yig'lasun ko'z, gulshani husnun guli serobi vor. [4.32,b].*

Ushbu sho'x, o'ynoqi g'azal Fuzuliy devonidagi quyidagi baytga hamohangdir:

*Sayr qil, ko'rkam, gulistonning na obu tobi vor,
Har taraf ming sarvi sarsabzu guli serobi vor. [1. 114b]*

Fuzuliy va Muhsiniy g'azallari matnini qiyoslaganimizda shakl va mazmun jihatdan o'xshash ekanligi ma'lum bo'ldi. Har ikki g'azalda bir xil "vor" so'zi radif bo'lib kelgan bo'lsa, "tobi", "serobi" so'zlari qofiyada qo'llangan. Shuningdek, har ikki g'azalda ifodalangan tuyg'u va fikrda ham ijodiy mushtaraklik mavjud. Fuzuliy g'azalida *obu tobi, serobi, tobi, xobi, jullobi, asbobi, qullobi, nobi* so'zlarini qofiyada keltiradi. Muhsiniy esa nazira g'azalida *tobi, serobi, xobi, asbobi, qullobi, obu tobu* kabi qofiyadosh so'zlarni aynan keltirish barobarida, *mahtobi, xallobi, bobi* kabi yangi so'zlarni qofiyada qo'llaydi. Fuzuliy g'azali etti baytli bo'lsa, nazira g'azal hajman biroz ko'p to'qqiz baytdan iborat. Fuzuliy g'azali va nazira g'azal ham bir xil ramali musammani mahzuf

vaznida bitilgan. Vaznning taqtiyi: foilotun, foilotun, foilotun, foilon -V-- / -V-- / -V-- / -V ~ shaklidir.

Har ikkala gʻazal mazmun-mohiyati, ohangiga koʻra oʻxshash boʻlsada, nazira gʻazalda kelgan ushbu baytda ijodiy yangilikka intilish seziladi.

*Oʻrganing, Farhodu Majnun, sizki mendan rohi ishq,
Telbaligʻ rasmin bino etgan junun arbobi vor [4.33b].*

Maʼlumki, Farhod va Majnun mumtoz adabiyotimizda ishq-muhabbat timsoli sifatida qoʻllaniladi. Yuqorida kelgan baytda shoir lirik qahramoni nazarida Farhod va Majnun ishq yoʻlini undan oʻrganishi kerak. Chunki ishqdagi telbalik odatini bino etgan arbob men, deya oʻz holatini mubolagʻali tasvirlaydi. Muhsiniy gʻazalida Fuzuliydan farqli tarzda bir misrada Farhod va Majnun obrazlarini keltirib, talmeh sanʼatining goʻzal namunasi yaratib, ijodiy yangilikka intilgan.

Husaynquli Muhsiniy devonida “oʻldigʻin bilmaz” radifli ishqiy gʻazali ham bevosita Fuzuliy sheʼriga nazira tarzida yozilgan. Gʻazal matlaʼsi quyidagicha:

*Figʻonkim, dardu gʻam-la koʻnglumi qon oʻldugʻin bilmaz,
Toʻkub qonli yoshimni, chashmi giryon oʻldugʻin bilmaz [4.37, b].*

Gʻazal aruzning hazaji musammani solim vaznida boʻlib, uning taqtiyi: mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, V- - - / V- - - / V- --/ V- - - shaklidir.

Matlaʼda radif sifatida kelgan “oʻldugʻin bilmaz” birikmasi oʻgʻuz lahjasiga xos boʻlib, hozirgi adabiy tilimizda “boʻlganin bilmas” maʼnosini anglatadi. Bayt mazmunidan quyidagi maʼno anglashiladi: “figʻon chekaman, yorim beparvo koʻnglim dardu gʻamdan qon boʻlganini bilmas, yigʻidan koʻzimdan qonli yoshlar toʻkilganini ham bilmas”. Shoir ishqdan ezilgan oshiq ruhiy holatini mubolagʻa sanʼati orqali tasvirlagan. Ushbu baytda *figʻon, dard, gʻam, koʻngil, qon, chashm* soʻzlari tanosib saʼnatini hosil qilgan boʻlsa, *koʻzdan yosh oʻrnida qonlar oqishi* mubolagʻali fikrni paydo qilgan.

Fuzuliy gʻazali maʼnosiga koʻra ishqiy, hajmi etti bayt, “oʻldigʻin bilmaz” birikmasi radif boʻlib kelgan. Gʻazalning birinchi bayti quyidagicha:

*Figʻonkim, bagʻriming ul lolarux qon oʻldigʻin bilmaz,
Jigar pargolasinda dogʻ pinhon oʻldigʻin bilmaz [1.133 b].*

Fuzuliy gʻazalida *qon, pinhon, parishon, oson, hijron, vayron, hayron, boʻhton* soʻzlari qofiya vazifasini bajargan. Gʻazal aruzning hazaji musammani solim vaznida boʻlib, uning taqtiyi: mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, V- - - / V- - - / V- --/ V- - - shaklidir. Har ikki gʻazal ham bir xil vaznda yozilgan.

Muhsiniy gʻazali ham hajman yetti bayt boʻlib, oshiqona mazmunda va “oʻldigʻin bilmaz” birikmasi radif boʻlib kelgan. Shoir qoʻllagan *qon, parishon, hayron* qofiyadosh soʻzlari Fuzuliy gʻazalida ham mavjud boʻlsa, *giryon, bayt ul-ehzon, nolon, soʻzon, yalgʻon* kabi yangi soʻzlarni qofiyada keltiradi. Nazira gʻazal mazmuni hamda ifoda shakliga koʻra Fuzuliy gʻazali ohangida yozilgan. Bu shakliy va mazmuniy mutanosiblik Muhsiniyning nazira gʻazal talablariga toʻliq amal qilganini koʻrsatadi.

Muhsiniy lirik sheʼrlari jamlanib, “Barhayot gulshan” nomi bilan nashr qilgan devoniga kirmagan bir qancha gʻazallar 7392 raqamli qoʻlyozma tarkibida

mavjud. Jumladan, “*aylaram*” radifli g‘azal ham Fuzuliy she’riga naziradir. Ushbu g‘azal matla’si quyidagi bayt bilan boshlanadi:

*Qaysi kun sen birla g‘amgin xotirim shod aylaram,
Mehnati hajringdin o‘z jonimni ozod aylaram*[2.61^b,b].

Fuzuliy lirik she’rlari jamlangan majmuada ham yuqoridagi radifli g‘azal shunday kelgan:

*Nay kabi har damki, bazmi vaslingni yod aylaram,
To nafas vordur quru jismida, faryod aylaram*[1.206,b].

Bu hol shoirning qo‘lyozma manbalaridagi lirik asarlari tarkibida yangi o‘xshash va nazira g‘azallar ham borligini anglatadi.

Shuningdek, Muhsiniy dastxati bilan ko‘chirilgan Qo‘qon adabiyot muzeyida saqlanayotgan 178 inventar raqamli qo‘lyozma bayozda Navoiy, Bedil, Amiriy g‘azalari qatorida Fuzuliyning “*Azal kotiblari ushshoq baxtin qora yozmishlar, Bu mazmun ila xat ul safhai ruxsora yozmishlar*” va “*Vafo har kimsadinkim istadim andin jafu ko‘rdim, Kimi kim bu fano dunyoda ko‘rdim bevafo ko‘rdim*”, baytlari bilan boshlanuvchi mashhur ikkita g‘azali ham kitobat qilingan. Ushbu bayozni shoirning o‘z ko‘chirganini inobatga olsak, adib Fuzuliy she’riyatini qanchalik sevib mutolaa qilgani ayon bo‘ladi.

Muhsiniy devonining O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondidagi 7392 raqamli qo‘lyozmada Fuzuliy g‘azaliga bog‘langan besh bandli taxmis muxammas bitilgan. Mazkur muxammasning e’tiborli tomoni shundaki, har bandning so‘nggi misrasi arabcha so‘zlar bilan yakunlangan. Taxmisning so‘nggi bandini keltiramiz:

*Yozgay duoyi bisyor bu Muhsuniyga ul yor,
O‘tti chu jon tandin ko‘b zulmi, javri ozor,
Yo man habibi muxtor, ji‘noka laysa fid-dor,
Ishqin Fuzuliy magar tark etmak o‘ldi dushvor,
Yo orifo bimasora lo tuksir un-nasoyih* [3.159^a,b].

Xulosa qilib aytganda, Husaynquli Muhsiniy ijodida Fuzuliy she’riyati ta’siri bir necha shaklda namoyon bo‘lgan. Kotib sifatida Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonini va eng sara g‘azallarini bayozga ko‘chirib, kitobat qiladi. G‘azallariga naziralar, taxmislar bog‘lab, ijodiy musobaqaga kirishishga harakat qiladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qo‘qon adabiy muhiti vakillari orasida Fuzuliy ijodi ta’sirida sermahsul ijod qilgan shoirlardan biri Husaynquli Muhsiniydir. Shoir ijodidagi an’ana va adabiy ta’sir, an’anaga izdoshlik, badiiy mahorat masalalarini qiyosiy o‘rganish zarur masalalardan biridir. Qiyosiy tahlillar Fuzuliy va Muhsiniy she’riyatidagi xosliklar, ijodiy o‘zlashmalarni, umumiy an’anadan oziqlangan har ikki xalq adabiyotini yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фузулий. Қалб гавҳари –Т.: “Hilol-nashr” 2014.
2. Ўз ФАШИ 7392 рақамли қўлэзма девон.
3. Қўқон адабиёт музейида сақланаётган 178 рақамли қўлэзма баёз.
4. Муҳсиний девон. Барҳаёт гулшан. Фарғона. 2008.
5. N.Jumaxo‘ja, I. Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarimi) – T.: Noshir, 2019.
6. Quronov D. va b. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr, 2014.

FIROQIY DEVONI: TUZILISHI VA TARKIBI

Go‘zal JO‘RAYEVA,
Qo‘qon DPI erkin tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)

XX asr Qo‘qon adabiy muhitining iste‘dodli vakillaridan biri Do‘stmuhammad Firoqiydir. Undan bizgacha bir qo‘lyozma devon saqlanib qolgan. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Mayda, xushxat, chiroyli nasta‘liq xati bilan ko‘chirilgan. Yozuvlar, asosan, to‘q qora rangda bo‘lib, ba‘zi o‘rinlarda ko‘k va qizil siyoh ishlatilgan. She‘rlar muallif tomonidan 1961-yildan so‘ng ko‘chirib chiqilgan. Chunki, daftar boshiga uning narxini yozishda 1961-yil 1-yanvar yangi narxi bilan 1 rubl 50 kopek deb yozilgan. Unga muallifning butun umri davomida yig‘gan she‘rlari kiritilgan. Daftarning birinchi tomoni och sariq rangda bo‘lib, hech qanday chiziqsiz. Ikkinchi tomoni katak chiziq ko‘rinishida. Varaq hajmi: 20x25.

Qo‘lyozmada muqaddima mavjud bo‘lib, unda shunday deyilgan:

*“Bilmoqg‘a bo‘lsa kimning ko‘nglida ishtiyoq,
Ko‘rsun o‘qub sarosar devonidur Firoqiy.
Qoldurmayin, tinmayin daftarni to‘ldirurmen,
Maqsadni qilsa hosil, gar bo‘lsa umr boqiy”.*

Buni muallifning kirish so‘zi deb atash mumkin. Shundan keying betga devonning nomi – “Devoni Firoqiy. G‘azal va muxammaslari” sarlavhasi qo‘yilgan.

Shoir daftarni birinchi she‘ri boshlangan joydan raqamlagan. “Bismillahir rohmansir rohiym” bilan an‘anaviy hamd g‘azal kelgan. Devonning birinchi bayti:

*“Bismillahir rohmansir rohiym hamding etay insho,
Karamlik podshohimsen, zabonim aylagil go‘yo”.*

1. Hamd 1-2-betlarni o‘z ichiga olib, 16 baytdan iborat.
2. 3-betda 4 bandlik “Amir G‘ozixon so‘ziga muxammasi Firoqiy” keltirilgan. Bu ham hamd ko‘rinishida.
3. 4-betda “Nabiy sollallohu a‘layhi vasallamga na‘t. Muxammasi Firoqiy bir g‘azali Amiriy” berilgan bo‘lib, 4 bandni tashkil qiladi. Muxammasdan ta’sirlangan shoir varaq chetiga 5 misradan iborat munojot yozgan, muxammasga aralashib ketmasligi uchun chiziq tortib ajratib qo‘ygan.
4. “Muxammasi Firoqiy bir g‘azali Amiriy”, 7 band. 1958-yil 15-fevralda yozilgan (5-6-betlar).
5. “G‘ozixon g‘azaliga muxammasi Firoqiy”, 7 band (6-bet).
6. “G‘ozixon shoirlaridan Fazliyning she‘riga muxammasi Firoqiy”, 7 band. 1955-yil 10-mayda yozilgan (7-8-betlar).
7. “Mavlono Muqimiyga muxammasi Firoqiy”, 6 band. 1956-yil 15-iyulda yozilgan (8-9-betlar).
8. “Firoqiy g‘azali”, 7 bayt (10-bet).

9. "Firoqiy g'azali", 8 bayt. 1925-yil 20-avgustda yozilgan (10-bet, ko'k siyohda).
10. "Firoqiy g'azali", 9 bayt. 1950-yil 5-mayda yozilgan (11-bet).
11. "G'azali Firoqiy", 9 bayt. 1936-yil 4-mayda yozilgan (12-bet).
12. "Firoqiy Fazliyga nazira", 8bayt. 1948-yil 18-iyunda yozilgan (12-bet).
13. "G'azali Firoqiy", 6 bayt (13-bet).
14. "izlab" (radifli g'azal) Firoqiy, 7 bayt. 1952-yil 9-oktyabrda yozilgan (13-14-betlar).
15. Furqat she'riga nazira "Chiroylik", 8 bayt. 1948-yil 12-iyulda yozilgan (14-bet).
16. G'azali Firoqiy "Vafo qilur", 7 bayt (14-bet).
17. "Firoqiy" g'azal, 7 bayt. 1952-yil, 11-oktyabr (15-bet).
18. Firoqiy. "O'ylab g'am yuzim...", 9 bayt. 1946-yil, 20-iyul (15-16-betlar, 6-9-baytlar ko'k siyohda)
19. Firoqiy. "Aylading", 8 bayt. 1946-yil, 25-may (16-bet).
20. "Jamolingni..." Firoqiydan. 7 bayt (16-17-betlar).
21. "Muqimiya nazira Firoqiy", 8 bayt (17-18-betlar).
22. "Gapurmasman..." Firoqiy, 7 bayt (18-bet).
23. Firoqiy, 8 bayt (19-bet).
24. Firoqiy. "Kuydurma" 7 bayt (19-20-betlar).
25. Firoqiy. "Ho'qandda Lolaga" 9 bayt (20-21-betlar).
26. Firoqiy. "Bahorgi", 10 bayt (20-21-betlar).
27. "Chiroylik Firoqiy", 8 bayt (22-bet).
28. "Qilingchi?" Firoqiy, 11 bayt (22-23-betlar).
29. "Kelmadi" Firoqiy (Navoiyga nazira), 6 bayt (23-bet).
30. "Qani?" Firoqiy, 10 bayt (24-bet).
31. Firoqiy. 6 bayt. (24-25)
32. 13 bayt g'azal (25-26).
33. Firoqiy. 9 bayt g'azal (26-b).
34. Firoqiy. "Istar...", 9 bayt (27-b). Shundan so'ng, Fuzuliyning quyidagi misralari keltirilgan:

Xiradmandiga doim olam ichra sir aylar
Asolib funun she'rdon albatta g'ofildur
Mundoq she'r ham bir o'zga olamdur haqiqatda
Ikki olamkim muyassar aylamoq g'oyatda mushkuldir (27-bet)
35. "Bahorgi" Firoqiy, 6 band muxammas. 1938-yil 21-iyul (28-b).
36. Firoqiy, 8 bayt. 1943-yil 20-oktyabr (29-b).
37. 1994-yil 3-afrelda Ho'qand royun Qizilbog' kolxo'zida, mazkur kolxo'zda kassir bo'lib ishlab turgan vaqtda bo'lgan voqe'aband, 15 bayt (35-b).
38. Firoqiy, "Fuzuliy tilida". 5 band muxammas (30-31-b).
39. Firoqiy, 7 bayt. 1955-yil 13-iyul (31-b).
40. Firoqiy, "O'zbekiston". 9 bayt, 1950-yil 12-dekabr (31-32-b).
41. Firoqiydan. 7 bayt g'azal, 1944-yil 10-may (32-b).
42. Firoqiy, "Chustiycha sanoye..." 9 bayt. 1937-yil 10-iyul (32-b).
43. Firoqiy. "Tojikistonda birodaringa" 9 bayt, 1947-yil 21-mart (33-b).

44. "O'shdagi Shafolatjonga", Firoqiy. 15 bayt. 1956-yil 5-may (33-34-b).
45. Firoqiy, forsiy she'rlar. 7 bayt, 1949-yil 15-aprel (34-b).
46. Firoqiy, "Ishq-muhabbatga xitob". 6 band muxammas, 1949-yil 3-may (34-35-b).
47. Firoqiy. "Bozor qo'mitasida dujurlik kechasidagi voqe'a band" 36 bayt masnaviy. 1952-yil 20-aprel (35-36-b).
48. Firoqiy. "Marg'ilonda Hoshimjon mingboshiga" 23 bayt masnaviy (37-b)
49. Firoqiy, 13 bayt g'azal (48-b).
50. Firoqiy. "Bir kishiga aytmas tariqasida yozilgan", 9 band muxammas. 1944-yil 15-avgust. Gloss tariqasida muxammasda nazardan tutilayotgan oshna – Charxiy domla ekanligi aytilgan (39-40-b).
51. Firoqiy, "Vatan haqida" 5 band muxammas. 1948-yil 15-may (40-41-b).
52. "Keldim", Firoqiy. 4 band muxammas, 1946-yil 6-avgust (41-42-b).
53. "Armiyachilarga..." 3 band muxammas, 1958-yil 9-mart (42-b).
54. Uch baytli forscha she'r, 42-bet.
55. "Hakimzodaga" 18 bayt. 1956-yil 10-avgust. 43-bet.
56. "Hakimzoda g'azaliga muxammasi Firoqiy" 5 band. 1945-yil 2- mart. 44-bet.
57. "Marhum Hakimzodaga, 70 yoshiga" 8 bayt. 44-45-betlar.
58. Firoqiy, "Keldim". 7 bayt. 1961-yil 15-iyul. 45-bet.
59. "Birodari aziz Vohid Alijong'a" 14 bayt. 46-bet.
60. "G'olib kelsam" 18 bayt. 1936-yil 20-may. 46-47-betlar. 15-16-baytlar orasida gloss qo'llanilgan: "*Abduqodirga. Birodarim sizga yozdim ushbu noma*".
61. "Sunbul soching", Firoqiy. 5 band muxammas. 1943-yil 10-avgust. 47-48-betlar.
62. "O'zbekistonim", Firoqiy. 15 bayt. 1950-yil 15-may. 48-49-betlar.
63. "Ho'qand ta'rifi", Firoqiy. 18 bayt 1940-yil 20-may. 50-bet.
64. "Ustodimiz Navoiy boralarida Charxiy hamda Firoqiydan". 6 band muxammas. 51-52-betlar.
65. "Andijon-Qo'qon qishloqlik Hajur g'azaliga" 4 band muxammas. 52-b.
66. "Charxiy g'azaliga muxammasi Firoqiy", 6 band muxammas. 1944-yil 10-yanvar. 54-bet.
67. "Ho'qand shahar. Jur'at she'riga muxammasi Firoqiy", 6 band. 1949-yil 19-may. 55-bet.
68. "Firoqiy. Ho'qandda Mavzunga muxammas". 5 band. 1949-yil 12-iyun. 56-57-betlar.
69. "Amirxon davridagi Komil g'azaliga muxammasi Firoqiy". 5 band. 1952-yilda. 57-bet.
70. "Marhum Furqat she'riga muxammasi Firoqiy". 5 band. 58-bet.
71. Charxiy g'azaliga muxammasi Firoqiy. 11 band muxammas. 1957-yil 27-dekabr. 59-60-betlar.
72. Firoqiy. "Sobir Abdusamadga..." 4 band muxammas. 61-bet.
73. "Xusravga muxammasi Firoqiy" forscha 6 band. 62-bet.
74. "Ustodimiz Navoiy g'azaliga muxammasi Firoqiy" 7 band. 63-bet.

75. Firoqiy. "Do'xtur Mo'minjonga" 11 bayt. 64-bet.
76. Firoqiy. "Hazrat Shohimardonga". 5 band. 65-bet.
77. Chiston forscha 65-bet.
78. Firoqiy forscha she'r 66-bet.
79. Firoqiy. "Bahor ayyomiga". 6 band. 1949-yil 3-fevral. 67-bet.
80. Firoqiy. "Uch nafar birodarlar". 14 bayt. 68-bet.
81. "Shohiyga muxammasi Firoqiy" 5 band forscha muxammas. 69-bet.
82. "Salmon Sovarjiyga muxammasi Firoqiy" 6 band forscha muxammas. 69-70-betlar.
83. "...Shohiyga muxammasi Firoqiy". 5 band forscha muxammas. 70-71-betlar.
84. "Ho'qandlik Javdat she'riga muxammasi Firoqiy". 6 band muxammas. 71-72-betlar.
85. "Umarxonga muxammasi Firoqiy" 9 band forscha. 73-bet.
86. "Umarxonga muxammasi Firoqiy" 15 band forscha. 74-75-betlar.
87. "Shaydoga muxammasi Firoqiy". 7 band forscha. 75-bet.
88. "Afg'on she'riga muxammasi Firoqiy" 6 band forscha muxammas. 1959-yil 2-dekabr. 76-bet.
89. "Shahrisabzlik Xotir she'riga muxammasi Firoqiy" 5 band forscha muxammas. 1959-yil 25-may. 77-bet.
90. "Buxorolik Yusufga muxammasi Firoqiy tarki tojik" 7 band. 1959-yil 2-avgust. 78-bet.
91. Firoqiy. 9 bayt forscha g'azal. 1936-yil 5-may. 79-bet.
92. Firoqiy. 9 bayt g'azal. 69-70-betlar.
93. Firoqiy. 11 bayt forscha g'azal. 80-bet.
94. Firoqiy. "Toshkanddagi bojam Rahmonjonga" 10 bayt g'azal. 81-bet.
95. Firoqiy. "Sobir Abdusamadga muxammas" 8 band. 1955-yil 12-yanvar. 82-83-betlar.
96. Firoqiy. 9 bayt g'azal. 1955-yil 1-yanvar. 83-bet.
97. Fard. 83-bet.
98. Firoqiy. "...Sozandalarga" 10 bayt. 84-bet.
- Shundan so'ng nasrda "O'ratefalik shoir Partav hikoyasi" berilgan (85-87-betlar).*
99. "Partavga" Firoqiy. 11 bayt g'azal. 88-bet.
100. "Nodirxonga muxammasi Firoqiy". 9 band forscha. 89-bet.
101. Forscha ta'rix. 12 bayt. 90-bet.
102. Forscha ta'rix. 17 bayt. 1961-yil 9-mart/ 1380-hijriy yil ramazon oyining 20-sanasi. 91-bet.
103. Firoqiy. "Bir bog'". 15 bayt. 92-bet.
- 1958-yilda O'zbekistondan Hurrami Sha'rifg'a borgan joylar qatorida chustlik Abdusamadjon maxdum safari muborakda yozgan ash'orlari tergoni daftarga darj qilindi. 12 band muxammas. 93-95-betlar.*
104. Firoqiy. "Qalamim". 10 bayt. 95-bet.
105. "Bir yalg'onchi kazzobni hajvi" (Hajv muxammas ko'rinishida) 5band. 96-bet.

106. 7 bayt gʻazal. 1928-yil 20-dekabr. 97-bet.
107. Hikmatli soʻzlar. 17 misra. 97-bet.
108. 7 bayt forscha sheʼr. 98-bet.
109. “Bir birodarimiz vafotigʻa” (marsiya). 22 bayt. 99-bet.
110. Firoqiy. “...Mullo Rahmat Asad Oxundga hikoya” 6 band muxammas. 1947-yil 15-yanvar.
111. 5 band muxammas. 1947-yil 18-fevral. 101-102-betlar.
112. “Sodiqjon oilasiga” 11 bayt gʻazal. 1949-yil 19-fevral. 102-103-betlar.
113. 5 band muxammas. 1948-yil 20-iyul. 105-bet.
114. *“Olimotada oilamga”. 9 bayt gʻazal. 1947-yil 12-iyul. 104-105-betlar. Shundan soʻng, “Tabarrukona Yoriy domla gʻazallari” berilgan. 7 bayt gʻazal. 106-bet.*
115. Firoqiy. “Yuqoridagi ikki satr qaysi(dir) bir shoironikiga ilova”. 9 bayt gʻazal. 1934-yil 3-avgust. 106-107-betlar.
116. Firoqiy. 9 band muxammas. 108-bet.
117. Firoqiy. 8 bayt gʻazal. 1932-yil 25-may. 109-bet.
118. 7 band muxammas. 1936-yil 24-oktyabr. 110-111-betlar.
119. Firoqiy. 9 bayt Gʻazal. 111-bet.
120. Firoqiy. 10 bayt gʻazal. 1936-yil 10-may. 112-bet.
121. Chustiy – Firoqiy mushoirasi. 9 bayt gʻazal. 113-bet.
122. Firoqiy. 9 bayt gʻazal. 1936-yil 8-avgust. 113-bet.
123. Firoqiy. “Mahbubga noma”. 9 bayt. 1932-yil 1-may. 114-bet.
124. 4 band muxammas. 1929-yil 20-iyun. 114-115-betlar.
125. Charxiy va Firoqiy mushoirasi. 9 bayt. 1939-yil 2-noyabr. 115-116-betlar.
126. Firoqiy. 7 bayt gʻazal. 116-bet.
127. Charxiy – Firoqiy mushoirasi. 10 bayt. 1937-yil 10-yanvar. 117-bet.
128. Chustiy – Firoqiy mushoirasi. 7 bayt. 1937-yil 17-dekabr. 117-bet.
129. Muxammasi Firoqiy. 4 band. 118-bet.
130. “Charxiy – Firoqiy oʻrtasida doʻstona gʻazal”. 16 bayt. 1935-yil 8-avgust. 1, 3,5,7,8,10,12,14,16-baytlar Charxiyniki. 2,4,6,8,9,11,13,15-baytlar Firoqiyniki. 119-bet.
131. “Yalangʻochda rishtonlik Bokiy domla haqida Charxiy – Firoqiydan doʻstona mushoira”. 11 bayt. Firoqiy boshlab Firoqiy tugatgan. 1939-yil 24-iyul. 120 bet.
132. Firoqiy. 8 bayt gʻazal. 121-bet.
133. Charxiy va Firoqiy mushoirasi (mushoira muxammas koʻrinishida). 5 band muxammas. 121-122-betlar.
134. Firoqiy. 7 bayt gʻazal. 1940-yil 5-mart. 122-123-betlar.
135. Firoqiy. 7 bayt gʻazal. 123-bet.
136. Chustiy – Firoqiy mushoirasi. 10 bayt. Charxiy boshlab, Firoqiy tugatgan. 124-bet.
137. Firoqiy. 4 band muxammas. 125-bet.
138. Munojot Firoqiy. 19 bayt. 126-bet.
139. “Palov haqida Firoqiy”. 4 band muxammas. 127-bet.

140. "Moy (may) bayromi haqida". 7 bayt g'azal. 128-bet.
141. "Chustiy Toshkanddan kelganda egachisi bo'lmish Yaxshixonnikiga taklif qilganda". 12 bayt g'azal. 1960-yil 2-iyul. 129-bet.
142. "Muxammas mavlono Mahjurning g'azallariga". 5 band. 130-bet.
143. "*Shundan so'ng andijonlik shoir Mahjurning Firoqiy g'azaliga muxammasi berilgan*" (g'azal Firoqiyniki bo'lgani uchun raqam berildi). 7 band. 131-bet.
144. Mahjur g'azaliga muxammasi Firoqiy. 7 band. 1962-yil 1-may. 132-133-betlar.
145. Fuzuliy g'azaliga muxammasi Firoqiy. 5 band. 133-134-betlar.
146. 1934-yil 15-avgustda ho'qandlik shoir Mirzoyi Ho'qandiy bilan shoir Charxiyni Ho'qand royun chek Chavloqqa qovun sayliga taklif qilib, shularni qovmiga yozilgan muxammasi Firoqiy. 5 band. 134-135-betlar.
147. 20 baytlik forscha bag'ishlov she'r. 136-137-betlar.
148. "Ho'qandlik Huzuriyning g'azaliga muxammasi Firoqiy". 7 band. 1963-yil. 25-fevral. 138-139-betlar.
149. Forscha taxmis. 7 band. 1963-yil 9-mart. 139-140-betlar.
150. Firoqiy. 7 bayt. 1963-yil 20-sentyabr. 140-bet.
- 141-142-betlar qirqib olingan.*
151. "1963-yil 10-sentabrda mani o'g'lum Qodirjon Do'stmatuf sayohat bilan O'shga borib, O'shni xatib-imomi Mahjur Muhammadjon maxdumni ziyoratlarig'a kirib borishi bilan ul kishi qoshig'a turgan vaqtida, firoq o'lkasidin salom olib keldim, degach tanib qaytadan ko'rushub og'ulchani so'zidan "assalom" olib, tubandagi g'azalni yozib menga 1-oktabrda Xo'qandga yubordilar. Kamina qo'liga tekkach, bir soat chamasida muxammas bog'lab, yana O'shga yuborildi. Shundan iborat. Muxammas orqasida". Shundan so'ng, 143-betda 7 baytlik Mahjur g'azali berilgan. 144-145-betlarda "Mavlono Mahjuriyg'a muxammasi Firoqiy" sarlahvhasi ostida 7 band muxammas berilgan. 1963-yil 4-oktyabr.
152. "O'xshaydiku" 7 bayt. 145-bet.
153. "Chustiy Toshkanddan kelganda bir joyg'a Charxiy bilan taklif oldi vaqtida chikmay qolgani uchun Firoqiydan xitob". 14 bayt. 1960-yil 2-iyul. 146-147-betlar.
154. 6 band forscha muxammas. 147-148-betlar.
155. "Nodirag'a tazmin Firoqiy. Maqsad ne edi jahona kelding kayfiyatini bayon etib ket". 13 bayt. 148-149-betlar.
156. "Maqsad ne ediga Mahjurdan tazmin". 17 bayt. 1964-yil 17-mart. 149-150-betlar.
157. Charxiy g'azaliga muxammasi Firoqiy. 8 band. 1964-yil 28-sentyabr. 151-bet.
158. "O'zbekiston qirqlikka". 9 bayt. 1964-yil 15-noyabr. 152-bet.
- Shundan so'ng, "Ho'qandlik To'raxon maktubig'a Mahjurdan javob" berilgan. 7 bayt. 153-bet.*
159. "Do'stdan do'stig'a do'stona mutoyiba". Hajviya 10 band muxammas. 1964-yil 30-noyabr. 154-155-betlar.

160. "Mahjur domlaga yozilgan". 8 bayt. 1964-yil 12-noyabr. She'r 155-bet pastidan boshlanib, 154-betga o'tkazib tugallangan (sig'may qolgani uchun o'tkazib yuborgan).

161. 11 baytlik forsha she'r berilgan. 156-bet.

157-bet ochiq qoldirilgan.

162. "Tiriklik shevasi". 8 bayt. 158-bet.

159-160-betlar qirqib olingan.

163. "Firoqiy g'azaliga Mahjur muxammasi" (*g'azal Firoqiyniki bo'lgani uchun raqam berildi*). 5 band. 1963-yil 5-oktyabr. 161-bet.

164. Firoqiyning ikki bayt g'azali berilgan. *G'azal tugallanmagan*. 161-bet.

162-176-betlar ochiq qoldirilgan. 177-bet qirqib olingan. 178-196-betlar ochiq qoldirilgan.

165. 5 bayt forsha she'r keltirilgan. 197-bet.

198-bet ochiq qoldirilgan. 199-200-betlar mundarija vazifasini o'tagan. Mundarija to'liq va mukammal emas, betartib holatda.

Galdagi vazifamiz shoir devonini joriy alifboda nashr etish.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Firoqiy. Devon. Qo'lyozma. – Qo'qon, 1964-yil (qo'lyozma hozirgi kunda shoirning Qo'qondagi avlodlari qo'lida saqlanmoqda).

XON VA ADABIY TA'SIR MASALASI

Nuriddin RAHMONOV.

Qo'qon DPI, magistrant

(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Xon qalamiga mansub "Ajab yorlardur, ajab yorlar" nomi bilan mashhur bo'lgan muxammasning to'liq variant e'lon qilinmoqda. Qolaversa, ushbu muxammasning yozilish tarixi, g'oyaviy-badiiy tahlili hamda ushbu muxammasga nazira tarzida yozilgan she'rlar haqidagi ma'lumotlar ham joy olgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon adabiy muhiti, adabiyot, tarix, tazkira, g'oyaviy-badiiy tahlil, she'riyat, antologiya.

Аннотация:

В этой статье публикуется полная версия мухаммеда, известного как «Аджаб йорлардур, аджаб йорлар» Хана. Имеются также сведения об истории написания этого мухаммаса, идейно-художественном анализе, а также стихи, написанные в форме назира к этому мухаммасу.

Ключевые слова: Кокандская литературная среда, литература, история, tazkira, идейно-художественный анализ, поэзия, антология.

Annotation:

This article publishes the full version of the muhammad, known as "Ajab yorlardur, ajab yorlar" by Khan. There is also information about the history of the writing of this muhammas, ideological and artistic analysis, as well as poems written in the form of nazira to this muhammas.

Keywords: Kokand literary environment, literature, history, tazkira, ideological and artistic analysis, poetry, anthology.

Olimlar tomonidan “Oltin beshik davri adabiyoti” deya tan olingan, Alisher Navoiy davridagi Hirota dabiy muhitidan keyin qayta tirilgan adabiy muhit – Qo‘qon adabiy muhiti asoschisi Amir Umarxon va Nodirabegimning farzandi shoh va shoir Muboriziddin Muhammad Alixon, xonlik taxtiga o‘tirgandan so‘ng Abulmuzaffar val Mansur Sayyid Muhammad Alig‘oziy Bahodurxon binni Sayyid Muhammad Umarxon val na‘mi tarzida yozib kelingan. [1.29] Xalq orasida Ma‘dalixon nomi bilan mashhur [2.292] Muhammad Alixon mumtoz adabiyot tarixida alohida o‘rin egallagan shoir bo‘lgan.

Muhammad Alixon haqida olimlarning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayumiy” asarida Xonni 57-o‘rinda keltiriladi va “...Shoir ko‘pincha she‘rida Ozarbayjon shoiri Fuzuliyga ergashadi...”-deydi. [3.170] Akademik Aziz Qayumovning “Asarlar” 10 jildlik kitobida Xonning adabiyotdagi tutgan o‘rni haqida fikr yuritish ekan shunday deydi: “...Nazmda uning taxallusi Xon edi. Xon Fuzuliy ta‘siriga berilgan shoir bo‘lgan. Uning she‘rlarida Fuzuliyvor ruh, hayajon badiiy ifodalar aniq sezilib turadi.[4.232]Xonning g‘azal va muxammaslari go‘zal va purma‘nodir. Olim shoir devonidagi she‘rlardan parchalar keltirib, “...shoirning biror mavzuni takrorlashini emas, bu takrorning qanday amalga oshirgani muhim”ligini ta‘kidlaydi. [5.170] Akademik Aziz Qayumov shoirning mumtoz adabiyotdagi o‘ziga xos topilmalarini ham keltirib o‘tadi.

Quyidagi misralarda yorning yuzini quyoshga o‘xshatgan:

Munavvar orazing tobina betob o‘ldig‘im andin,

Ki, qilmas zarracha orom xurshidi jahon ko‘rgach.

Ammo o‘sha nomehribon agarda sevguchi yigitning ahvolini so‘ragudek bo‘lsa, bu so‘z Xon uchun saltanat havosidan ham balandroq va qimmatliroq bo‘lar edi”[6.233] Xullas sohibdevon shoh va shoir Muhammad Alixon haqida fikr bildirgan Mazkur olimlarning ilmiy izlanishlarida Xonning devon tartib bergani aytiladi. Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” material va xotiralar kitobida: “Fuzuliyning “Laylo-vu Majnun” dostoniga o‘xshatib bir poema yozgan bo‘lsa ham tamom bo‘lmay qolgan”i [7.139] haqida fikrlar, (bizgacha yetib kelmagan) bayozlarda she‘rlari keltirilgani, ijod namunalari bir qancha muzeylarda saqlanayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud. Bizning obyektimiz “Ajab yorlardur ajab yorlar” muxammasi ham bayozlar, qo‘lyozma va toshbosma manbalarda saqlanmoqda.

Matnshunos olim Otabek Jo‘raboyevning “Xon adabiy merosiga doir” maqolasida G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondi, 256-raqamli qo‘lyozma. XIX asrga mansub ushbu bayozning 173-174-varaqlarida “Muxammasi Muhammad Alixon marhum” sarlavhasi bilan “Ajab yorlardur, ajab yorlar” mashhur she‘rining to‘liq (10 band) nusxasi bor [8.125] ekanligi aytiladi. “Devoni Xon” deb nomlangan O‘zR FA ShI fondi, 1808 raqamli qo‘lyozmada 48 ta ga‘zal va bir dona muxammas berilgan bo‘lib, shu bir dona muxammas “Ajab yorlardur, ajab yorlar”(noto‘liq – N.R.) muxammasidir.

Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayumiy” asarida esa bu she‘r 8 banddan iborat. Matnshunos olim Otabek Jo‘raboyevning “Xon adabiy merosiga

doir” maqolasida 1907-yil Toshkent tipo-litografiyasida chop etilgan “Bayozi ma gulshani ash’or” to‘plamining 143-144-sahifalarida ham yuqoridagi muxammas o‘rin olgan. Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” antologiyasining 140-141-sahifasida shu she‘r keltirilgan. Lekin unda va yana boshqa manbalarda bu she‘r noto‘liqdir. (8 band) [9.125]

Ko‘rinadiki, Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayumiy” asari va boshqa manbalarda bu she‘r G‘afur G‘ulom nomidagi Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan she‘rdan tabdil qilinmagan. Akademik Aziz Qayumov ham “Bu muxammas sakkiz banddan iborat”⁷⁴ [10.170] deydi va fikrimizni isbotlaydi. Lekin Akademik Aziz Qayumov hamda Po‘latjon Domulla Qayyumovning asarlarida muxammasning yozilishi tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud. “Bu ash’orni Xon O‘ra tefaga safarida xotuni bilan bo‘lgan nozli majaro tufayli so‘ngi bandini ayonlarga demishdur. Keyin takmil etmish. Bu voqea tarix bo‘lumimizda bor.” [11.170] Po‘latjon Domulla Qayyumovning “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” antologiyasining 140-141-sahifasida shu she‘r keltirilgan, biroq she‘r tarixi haqida ma‘lumot mavjud emas. [12.139] (qo‘lyozmaga qarash zarur – N.R.)

Akademik Aziz Qayumov “Asarlari” da muxammasdan uch band misol keltirsa, Po‘lotjon Domulla Qayumov sakkiz band keltiradi. [13.233]

*Taajjubki bu bir necha dilrabo,
Demaslarki bu shoh erur, yo gado,
Agarchand xoni zamonam, bango,
Hama eldin ortiq qilurlar jafu,
Ajab yorlardur, ajab yorlar.*

She‘rning oxirgi bandi shohband desak yanglishmaymiz. Muhammad Alixon xotini bilan bo‘lgan nozli majorodan ajablanarkan ko‘nglini ovlagan qoshlari yo, ko‘zlari shahlo, sochlari qaro jununga eltuvchi dilrabo, yor- lirik qahramonni – zamona xonini shoh va gado demasdan qalbga ko‘p bora ozor berganligidan yozg‘iradi? O‘zga ellarga qilgan hujumlarda ko‘rmagan jafolarni tortganidan shikoyat qiladi. Jafokorlar, dilozorlar, sitamkorlar, bu xunxorlar, bu makkorlar, nigunsorlar, bu ayyorlar, guli norlar, bu dushvorlar, ajab yorlar singari qofiyalangan mazkur she‘rda oshiq yordan bandma band ozor ko‘rayotgan tadrijini kuzatamiz.

Hayotiy voqeaga asoslangan mazkur muxammas, tab‘i xud (mustaqil) muxammas ekanligidan dalolatdir. Muxammasning ikki turi bor: tab‘i xud (mustaqil) va tazmin (taxmis). Birinchisida barcha beshlik misralar bir muallifniki, (Xon. Ajab yorlardur, Ajab yorlar) ikkinchisi (taxmis) (Bayoniy. Ajab yorlardur, ajab yorlar) (Aziz Qayumov. “Xush ilhomlardur, xush ilhomlar)da ijodkor birorta ustoz, zamondosh shoir yoxud o‘z g‘azallari baytlarining har birini beshlik bandlarga aylantiradi. Ikki shoir misralari payvandidan iborat she‘r paydo qilinadi. G‘azalning har bir bayti oldidan o‘zining uch misrasini qo‘shadi. Muxammas shoir uchun fikr-kechinmalarini chuqurroq ifodalash, bo-shqa shoirlar bilan

⁷⁴Po‘lotjon Domulla Qayumiy “Tazkirai Qayumiy” I tom T.: 1998 [170]

musobaqalashish, kuch sinash, bahslashuv vositasi bo'lgan. [14] Akademik Aziz Qayumov ham buni ta'kidlaydi. "Bu she'r voqei hikoya kabi". [15.233]

O'zbek shoiri, tarixchi, musiqashunos, xattot va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoniy she'rlari ichida ham mazkur nomdagi muxammas mavjud bo'lib, 11 banddan iborat muxammasning tugallanishi ham Muhammad Alixon she'ri kabi "Ajab yorlardur, ajab yorlar" misralari bilan yakunlangan. 3- misrasida shoir o'z taxallusini keltirib o'tadi.

*Erur do'stlar bok aro sar baland,
Bo'lub aysh-u ishrat bila bahramand,
Bayoniyni g'am mahbasi ichra band,
Qilib aylamishlar base mustamand,
Ajab yorlardur, ajab yorlar.* [16]

Bayoniy va Aziz Qayumovning mazkur taxmisini tatabbu'ning bir doirasi tavr deb aytishimiz mumkin. Tatabbudan tashqari adabiyotshunoslik ilmida mazkur mazmunlarni ifoda etadigan yana bir nechta termin (atama) mavjud. Ularning to'rtinchi doira tavr deb ataladi. Tavr, avvalambor, hol-ahvol, qiyofa va suvratni anglatadi. Adabiy atama sifatida uning tarzida, tavrida, unga muvofiq aytishni anglatadi. [17]

Hazrat Alisher Navoiyning "Devoni Foniyy"ga muallif tomonidan qo'yilgan sarlavhalarni sanab o'tishning o'zi ham mumtoz adabiyotda qo'llangan shu san'at ga yorqin dalil bo'la oladi: tatabbu, Tatabbui Mir dar tavri Xoja (Xoja Hofiz tarzida Maxmud Jomiyga izdoshlik), tatabbui Amir Xusrav dar tavri Hofiz (Hofuz tarzida Amir Xusravga izdoshlik), Tatabbui shayx dar tavri Maxmud (Jomiy tarzida Shayx Sa'diyga izdoshlik), Dar hamon tavr (o'sha tarzda), [18]

Xon ijodidagi mavzu yordan yozg'irish bo'lsa, Bayoniyda bahor ayyomida gullarning raqsi va shoirning hayrati aks etgan. Demak mavzu boshqa lekin qofiya bir xil, vazn bir xil, "Shohnoma" vaznida mutaqoribi musammani maxzuf, Bayoniy bandlar sonini bittaga oshirgan bo'lsa ham mumtoz badiiy jihatdan Muhammad Alixondan o'tkaza olmagan.

Akademik Aziz Qayumovning "Asarlar" 10 jildlik kitobida mazkur muxammas to'g'risida to'xtalib shunday deydi: "Xon qalamiga mansub yana bir muxammas she'r muxlislari o'rtasida keng shuhrat topgan edi". [19.171] Ko'rinadiki, Bayoniy ham mazkur muxammasning muxlisi bo'lgan. Hatto Akademik Aziz Qayumov ham mazkur muxammasga o'xshatma yozganini aytib o'tadi. "Xonning bu she'riga 1940- yil kamina ham ko'ngil bergan va unga o'xshatma qilib zamonaviy mavzuda vatanparvarlikni kuylab bir muxammas yozgan edim. Uni ustoz Charxiy domulla taxrirdan o'tkazganlar. So'ngra bu she'r Qo'qondagi "Yangi Farg'ona" va "Kommuna" gazetalarida 1940-yil bosilib chiqqan. Shundan bir band keltiraman:" [20.233]

*Dilim mag'rur o'lkamning obodidin,
Yorug'dur yo'lim baxt bunyodidin
Terib g'uncha gullar ko'ngil shodidin
Ochildi bu tab'im Vatan yodidin
Xush ilhomlardir,
Xush ilhomlar...(A.Q)*

G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyi fondi, 256- raqamli qo'lyozma. XIX asrga mansub ushbu bayozning 173-174-varaqlarida "Muxammasi Muhammad Alixon marhum" sarlavhasi bilan "Ajab yorlardur, ajab yorlar" muxammasiga taxmis bog'lagan keyingi shoirlarning she'rlarini tatabbuning to'rtinchi doirasi tavr – qiyofa va suvratni saqlagan taxmis deyish mumkin.

Mazkur she'rining to'liq (10 band) nusxasi va tabdilini birinchi marta keng kitobxonlar uchun e'lon qilmoqdamiz. (Ta'kid o'zimizniki – N.R.)


*Parichehralar ko'p jafo qildilar,
G'am-u dard bilan muftalo qildilar,
Muhabbat bila oshno qildilar,
Meni ro'zgorim qaro qildilar,
Jafokorlardur, jafokorlar.*

*Alar ishqida xasta-yu zormen,
Qaro ko'zlari bir-la bemormen,
Jafo tig'idin bag'ri afgormen,
Na zulm etsalar jonima, yormen,
Dilozorlardur, dilozorlar.*

*Shahi mulki Homun qilurlar meni,
Bu dasht ichra Majnun qilurlar meni,
Sirishkimni Jayhun qilurlar meni,
Ko'zim yoshi gulgun qilurlar meni,
Sitamkorlardur, sitamkorlar.*

*Chu men qoshi yolarni qurboniyam,
Giriftori zindoni hijroniyam,
Bu qotillari asru hayroniyam,
Alar kushtai tig'i parroniyam,
Bu xunxorlardur, bu xunxorlar.
Mani holim xarob aylagan,
Ko'nglim hajr o'tida kabob aylagan,
Bo'za ichmayin niqob aylagan,
Qora kokilin pech-tob aylagan,
Bu makkorlardur, bu
makkorlar.[21.173](256)*

*Qadim hamligi qoshlari yosidin,
Xarob o'lmag'im chashmi shahlosidin,
Ko'zim qoni la'li tamoshosidin,
Jununim o'shal zulf savdosidin,
Nigunsorlardir, nigunsorlar.*



*Ko'zingdur menga fitna barpo qilan,
Boshim uzra yuz sho'r-u g'avg'o qilan,
Meni olam ahlig'a rasvo qilan,
Ko'ngul maxzani ichra yag'mo qilan,
Bu ayyorlardur, bu ayyorlar.*

*Chamanda xirom aylamish ul pari,
Qilib jilva andoqki kabki dari,
Yuz ustida gul bargidin chodari,
Boshi uzra solmish qizil me'jari,
Guli norlardur, guli norlar.*

*Tun-u kun visolin hayol ayladim,
Bu hayol ila qadim dol ayladim,
Tamannoyi vaslin malol ayladim,
Ko'nglim ko'zgusin misol ayladim,
Bu dushvorlardur, bu dushvorlar. (256)[22.173]*

*Ajoyib ki bu bir necha dilrabo,
Demaslarki bu shoh erur, yo gado,
Agarchand Xoni zamonam, bango,
Hama eldin ortiq qilurlar jafu,
Ajab yorlardur, ajab yorlar. (18-08) [23.25]*

Mazkur she'ning 3-bandida mumtoz she'riyatda qo'llanadigan ma'naviy san'at – talmehning yuksak namunasi ko'ramiz. Shoir parichehralardan tortgan sitamlarini ta'rif-tavsif etar ekan, lirik qahramon birinchi misrada mulk sohibi shoh Homun bo'lgan bo'lsa, ikkinchi misrada ishq dashtida kezib yurgan Majnunga o'xshaydi. Uchinchi misrada yurt podshohi yashirin yig'lar ekan, yashirin ko'z yoshi Amudaryo kabi oqadi. Nafaqat daryo bo'lib, (to'rtinchi misra)balki qon bo'lib oqadi. Misradan misraga sitamning darajasi kuchayib borar ekan. Mazkur bandning o'zida mumtoz poetikaga doir bir qancha badiiy san'atlarni ko'ramiz. Tazod – (Homun va Majnun) Homun podshoh bo'lsa, Majnun dashtda kezib yurgan jununvash inson. Tashbeh – hayotiy mulk sohibi ekanligidan Homunga o'xshatilsa, ishq bobida omadi kulmagan yor sifatida Majnunga qiyoslanib, dili ozorlangan shoirning ko'z yoshi Jayhunga qiyoslanadi.

*Shahi mulki Homun qilurlar meni,
Bu dasht ichra Majnun qilurlar meni,
Sirishkimni Jayhun qilurlar meni,
Ko'zim yoshi gulgun qilurlar meni,
Sitamkorlardur, sitamkorlar.*

Jafokorlar, dilozorlar, sitamkorlar, bu xunxorlar, bu makkorlar, nigunsorlar, bu ayyorlar, guli norlar, bu dushvorlar, ajab yorlar so'zlari va shu so'zlarni muayyan maqsad uchun takrorlash natijasida takrir badiiy san'atini borligi namoyon bo'ladi. "Biror so'zni she'riy misra yoki nasriy matnda muayyan maqsad uchun takrorlash natijasida mazkur san'at yuzaga keladi." [24.197] demak ushbu

san'at uslub bilan bog'liq unsur sifatida she'r qarida yotgan asosiy g'oya-muddao (yordan yozg'irish) ni alohida ta'kidlash va umumiy ko'rinishning hissiy ta'sirini kuchaytirgan. Til nuqtai nazatdan qurboniyam, qilan, o'lmag'im, -bango so'zlari bilan Muhammad Alixon she'rlarida Fuzuliyga ergashgan bo'lsa, Xorazm adabiy muhiti vakili Muhammad Yusuf Bayoniy qofiya, vazn va shakldan ta'sirlangan, akademik Aziz Qayumov esa Muhammad Alixon yozgan mazkur o'ynoqi vazniga oshufta bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Ma'lumki, Sharq so'z san'ati yuksak darajadagi an'anaviyligi bilan ajralib turadi. Ko'plab qalam ahllarining bu mustahkam qolipni yorib chiqolmay, an'ana qobig'ida qolib ketganliklari ham shundan. Faqat katta iste'dod egalarigina bu an'analar doirasida o'ziga xoslikka erishganlar, yangilik yaratganlar.

An'anani faqat an'ana bo'lganligi uchungina bir chekkaga surib qo'yish noto'g'ri. Uning bag'ridan ko'plab hayotbaxsh chashmalar oqib yotibdiki, har qanday buyuk inqilobiy yangilanishlar davrida ham ular o'z adabiy qimmatini yo'qotmaydi, balki barcha zamonlarda ham mumtoz adabiyot muxlislari ehtiyojini qondiraveradi.

“An'ana – she'riyatdagi uzviy silsilaviy hodisa va ma'lum bir tarixiy davrni o'tagan amaliy tajribalar natijasi. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari orasida bu bosqichni o'tamagan, salaflari boy merosidan uzilib qolgan biror-bir ijodkorni uchrata olmaymiz. Ammo ijodiy ta'sirdan yuzaga kelgan har qanday o'xshash obraz, tasvir, g'oyada o'ziga xos yangilik singdirilgan bo'ladi. Ya'ni, novatorlik an'ananing tadrijiy takomilidir” [25.8]. Xon ijodiga ham xuddi shu nuqtai nazardan yondashsak, an'ana doirasida ijod qilgan bo'lishiga qaramay, uning ham o'ziga xos iste'dodli shoir bo'lganligi, o'zbek mumtoz she'riyatining ko'plab badiiy barkamol namunalarini yaratganligiga ishonch hosil qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov.R.X. Qo'qon xonligi tarixi, O'quv-uslubiy ko'rsatma.Farg'ona 2015-y.B.29.
2. Ibrat “Tarixi Farg'ona”, T.: “Kamalak” nashriyoti 1991. [292]
3. Po'latjon Domulla Qayyumiy “Tazkirai Qayyumiy” I tom T.: 1998 [170]
4. Qayumov A. «Qo'qon adabiy muhiti (XVII – XIX asrlar)», T.: «Mumtoz so'z» nashriyoti, 2010. [232]
5. Hamroeva D.Yu. Boborahim Mashrab g'azallari poetikasi (ma'no, obraz va istiloh misolida): Filol. fan. nomz...diss. avt. - Toshkent, 2004. [8]
6. Исҳоқов. Ё. Сўз санъати сўзлиги. тўлдирилган иккинчи нашр – Т.: Ўзбекистон, 2014. Б.197

Nodir qo'lyozma manbalar:

1. Bayoz.G'afur G'ulom nomidagi Qo'qon adabiyot muzeyi fondi, 256-raqamli qo'lyozma.[173]
2. “Devoni xon Muhammad Alixon” O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi,1808-raqamli qo'lyozma.[25]

“TAZKIRAI QAYYUMIY”NING ADABIY MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI

**Lochinbek AHMADALIYEV,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

“Tazkirai Qayyumiy” Po‘latjon Qayyumiyning uzoq yillik ilmiy izlanishlari natijasi bo‘lib, o‘zbek adabiyoti tarixini yangi mavzular bilan boyitishda qimmatli manbalardan biridir. Maqolada shu xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, o‘lkashunoslik.

Аннотация:

“Тазкирай Кайюми” является результатом многолетних научных изысканий Полатжана Кайюми и является одним из ценных источников в обогащении истории узбекской литературы новыми темами. Об этом статья.

Ключевые слова: антология, tazkira, devon, источник, ономастика, этнография, история, литература, краеведение.

Annotation:

“Tazkirai Qayyumiy” is the result of many years of scientific research of Polatjon Qayyumiy and is one of the valuable sources in enriching the history of Uzbek literature with new topics. This is what the article is about.

Keywords: anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.

Tazkiranavislik o‘zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. Ayni paytda Sharq adabiyotida tazkiranavislik uzoq an‘anaga ega. Sharq adabiyotshunosligida bizgacha yetib kelgan dastlabki tazkira Abu Mansur as-Saolibiyning “Yatimat ad-dahr fi mahosili ahdi asr” (“Zamona ahdining fazilatlarini haqida yagona durdona”) tazkirasidir. Lekin, ungacha ham arab adabiyotida tazkiralari yozilgan. Biroq, shunday bo‘lsa-da, ular bizgacha saqlanib qolmagan yoki saqlanib qolganlari ham to‘la tazkira ko‘rinishida bo‘lmay tazkira taxlit asarlardir.

Mana shunday ilk tazkiralari arab tilida yozilgani va ularning mualliflari sifatida Muhammad ibn Sallom Jumahiy (758-846), Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba Dinovariy (828-889) va Abu Abbos Abdulloh ibn Muhammad ibn Mu‘tazz (861-908) tabaqotlari ekani manbalardan bizgacha ma‘lum. [1, 20] [2, 4]

Fors tilida bitilgan tazkiralardan Avfiy Buxoriyning “Lubob ul-albob”i (XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush-shuaro”si (XV asr), Hasan Xoja Nisoriyning “Muzakkirul-ahbob”i (XVI asr) bu borada yozilgan e‘tiborli asarlardandir.

O‘zbek tilida bitilgan ilk tazkira Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridir. Ulug‘ mutafakkirning ushbu asarini til, hajm, materiallarning boyligi jihatidan davom

ettirgan, tazkiranavislikning XX asrning o'rtalariga qadaryetib kelishiga hissa qo'shgan ushbu janr namunalaridan biri, shubhasiz, Po'latjon domulla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asaridir.

Po'latjon domullo biron shoir xususida so'z yuritar ekan, ilmiylik tamoyilini bosh mezon qilib oladi. Shuning uchun "Tazkirai Qayyumiy" – ham ilmiy tahlil, ham shoir ijodidan she'r tanlash borasida namuna bo'ladigan asardir.

Tazkiraning muhim vazifalaridan biri – har bir dalilga ilmiy aniqlik bilan yondashuvdir. Yangi ma'lum bo'lgan shoir shaxsining adabiyot tarixida tutgan o'rnini belgilash ham tazkiralarning muhim vazifalaridan biridir. "Tazkirai Qayyumiy" bu vazifani ham sharaf bilan bajaradi. [3, 5-6]

"Tazkirai Qayyumiy" tarixiy-zamonaviy tazkira bo'lib, unda turli davr shoirlari jamlangan. Shu jihatdan tazkirani ikki qismga ajratishimiz mumkin:

I. Tazkiraning tarixiy qismini tashkil etgan shoirlar. Bu davr tazkiraning asosiy qismini (304 nafar shoirni) tashkil etadi va 1) turkiy yozma adabiyot shakllanganidan to mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrda yashab ijod etgan shoirlar; 2) Oltin O'rda (Saroy) adabiy muhitiga aloqador shoirlar; 3) Temuriylar davri adabiy muhiti vakillari; 4) Buxoro adabiy muhiti namoyandalari; 5) Xorazm adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar; 6) Qo'qon adabiy muhiti vakillari; 7) Kattaqo'rg'ondan yetishib chiqqan shoirlar; 8) Toshkentda kamol topgan ijodkorlar; 9) Turkiston zaminining turli hududlarida faoliyat olib borgan shoirlar kabi guruhlarga bo'linadi.

II. Tazkiraning zamonaviy qismini tashkil etgan, ya'ni XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda ijod etgan hamda tazkira muallifi bilan zamondosh, tazkira yozilayotgan paytda barhayot shoirlar. Ushbu qism 20 nafar shoirni: Sobir Abdulla, Mahjur Andijoniy, Zarra, Charxiy, Bokiy, Firoqiy, Javdat, Parvona Xo'qandiy, Mufazzal, Habibiy, Davron, Vasfiy Buxoriy, Davron III, Aziziy, Mavzun, Xushyor, Shukriy, Kamol, Kiromiy III, Kamiy II larni o'z ichiga oladi.

Muallifning qo'lida talay materiallar bo'lsa-da, ushbu qism nihoyasiga yetmagan va tazkiraning juda oz qismini tashkil etadi. Bunga Po'latjon Qayyumiyning keksayib qolganligi hamda buning orqasidan kelgan qarilik kasalliklari va nihoyat, olimning vafoti yo'l qo'ymagan bo'lsa kerak: "I jild. "Tazkirai Qayyumiy". 324 nafar shoirni o'z ichiga olgan bo'lub, 20 nafar shoir zamondoshimiz, hayot shoirlardur. 631 betni tashkil etdi. II jildga yana materiallarimiz bordur. Qayyumov Po'lod. 1960/IV". [3, 679]

Biroq, shuni e'tibordan qochirmaslik lozimki, birinchi qismda berilgan 304 nafar shoirdan 103 nafari (Irfon, Qoriy, Zoriy, Yoriy, Rojiy Marg'iloniy, Muntazir, Toib, Kamina, Noqis, Sadoiy, Mahdiy, Xisrav, Devona, Hazin, Xijlat Xo'qandiy, G'urbatiy, Rog'ib, Tolib, Yusuf Saryomiy, Mahzun Xo'qandiy, Mirzo, Muhsiniy, Hilvatiy, Avaz, Kamiy, Shavkat, Hayratiy Marg'iloniy, Qoriy, Omoniy, Begiy, Is'hoqxon Ibrat, Vasfiy, Fikriy, Vajhiy, Qurbiy, Safiy, Asiriy, Zore', Xislat, Ahqar, Tolib, Ramziy Buxoriy, Oshiq O'shiy, Miskin, Nayiriy, Rojiy Xo'qandiy, So'fizoda, Mir A'zam Davron, Zavqiy, G'urbat, Majruh, Fitrat, Mirzo Yusuf, Shuhrat, Devona, Partaviy, Pirimqori, Taslim, Mirzo Muhammadrasul, Pisandiy, Kuhiy, Mu'tasim, Xodimiy, Valiy, Muhayyir, Rahmatillo Mahzun, Muhiy, Azizlar, Haziniy, Soqiy, Nasimiy, Zululiy, Muazzam, Nozima, Xoniy, Kotib II,

Zamiriy, Hijron, Mustag'far, Partaviy II, Subhiy, Hayratiy, Oraziy, Devoniy, Faqiriy Xorazmiy, Mutrib, Bayoniy, Chokar, Hijrat II, Bobo Rojiy, Tavallo, Xayoliy, Axtariy, G'ofil, Lutfiy II, Layli, Mashqiy, Amin Umariy, Nihoniy, Faqiriy III, Ravnaqiy, G'aribiy, Ravshan) muallif ilm-fan sohasiga kirib kelgan, jadidlik faoliyati, xalq maorifida o'qituvchilik, adabiyot yo'nalishida olimlik faoliyatini olib borayotgan kezlarda hali tirik bo'lgan. Po'latjon domulla ular haqida bevosita aniq va ishonchli ma'lumotlarni to'plash imkoniyati bo'lgan. Olim bu imkoniyatdan samarali foydalangan.

Ushbu 103 nafar shoirdan faqat bir nafari (Hayratiy) tazkira yozilayotgan vaqtda ham hayot edi.

Qayyumiy domulla ilmni hurmat qiladigan, har bir insonning mehnatini qadrlaydigan chin olim edilar. Buni tazkirani yozishda qaysi manbadan foydalanilgan bo'lsa, shu fiqraning o'zida ushbu ma'lumotlar asosini hurmat bilan tilga olishi ham tasdiqlaydi.

Tazkirada muallif tilidan turli o'rinlarda 43 manba nomi aynan tilga olingan. Bundan tashqari, turli qo'lyozma va adabiy nashrlarga murojaat qilingan. Ushbu o'rinlarni "bir qo'lyozmada uchratishimizcha", "bir bayozdan ko'chirib oldim" jumalari bilan ifodalaydi.

Abdulkarim Fazliyning "Majmuai shoiron" tazkirasidan 31 fiqrani tuzishda (Shayx Mansur Piskandiy, Mahviy, Ma'dan, Ravnaq, Akmal, Sharifiy, Mahfiy Qoriy Qunduziy, Mahzuna, Muznib, Mahzun, Munshiy, Muzmar, Fayziy, Xotif, Komil Xo'qandiy, Vafoiy, Foni, Ramziy, Kasrat, Izlat, Zohid, Hijrat, Manzur, Dabir, Gulshaniy, Xislat, Behjat, Nusrat, Mir Umid, Maxmur, Zokir); *Qori Rahmatulloh Vozehnig "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" tazkirasidan* 9 nafar ijodkor faoliyatini yoritishda (Shayx Mansur Piskandiy, Nozikbibi, Ado, Zohid, Hoziq, Ramziy Buxoriy, Xumuliy (99-bet), Murassa' (358-bet), Mirzo Yusuf); *"Arg'umoni Xislat"* dan 6 nafar shoir adabiy faoliyatini berishda (Devona, Roiq, Xoib, Hoji, Munis II, Zululiy); *"Bayozi Mahalliy"* dan 6 nafar ijodkorning hayoti va ijodiy qirralarini ochib berishda (Shavkat, Fanoyi, Asiriy (104-bet), Salohiy, Ahqar, Rashidiy); *"Bayozi Mahdiy"* dan 6 nafar qalam ahli xususida (Mahdiy, Xoib, Vola Kattaqo'rg'oniy, Taslim, Faqiriy, Kuhiy); *Muhammad Obidning "Tuhfat ul-obidiyn"* asaridan 5 nafar soha vakili haqida fikr bildirishda (Shavqiy Namangoniy (42-bet), Nodim, Obid Namangoniy, Xodimiy, Muxlis); *Sadriddin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasidan* 4 nafar qalam ahli xususida (Boborahim Mashrab (Ayniy ushbu fiqrani "Majmuai Abdulmatlab" tazkirasidan olgan), Nozikbibi (Ayniy "Tuhfat ul-ahbob" dan olgan), Ado (Ayniy "Tuhfat ul-ahbob" dan olgan), Fayyoz); *Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasidan* 3 nafar shoir ijodini yoritishda (Lutfiy, Atoiy (Otoy), Gadoiy); *Pirmast Afzaliyning "Tazkirai Afzaliy"* asaridan 3 nafar shoirga to'xtalishda (Shams Buxoriy, Rojiy, Yusuf Xo'qandiy); *Miyon Buzurgning "O'zbek adabiyoti tarixiga umumiy bir qarash"* asaridan 2 nafar shoir maqolalarini tuzishda (Sayfi Saroyi (36-bet), Yusuf Amiriy (15-bet)); *Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob" tazkirasidan* 2 nafar shoir adabiy faoliyatini berishda (Majlisiy, Shayboniy); *Hakimxonto'raning "Muntaxab ut-tavorix"* asaridan 1 nafar shoirada (Nodirabegim); Amiriy devonidan Vazirga to'xtalishda; Muqimiy devonidan

Amiriy faoliyatiga baho berishda; *“Devoni Vasliy”*dan Vajhiy fiqrasida; *Muhiyning xotira daftaridan Xisrav* (Fansurullobek) borasida; *“Tazkirai Salimiy”*dan Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy haqida; *“Bayozi Imoniyi Marg‘iloniy”*dan Nasimiy Marg‘iloniy to‘g‘risida; *“Devoni Xijlat”*dan Mahzun Xo‘qandiy bo‘yicha; *“Bayozi Oniy”*dan Hazin masalasida; *“Devoni ma‘a bayoz”*dan Zore‘ borasida; *Mulla Qurbonali hoji Xolidning “Tavorixi xamsai sharqiy”* asaridan Pirimqori to‘g‘risida; *“Savg‘oti Xislat”*dan Iffat xususida; *turli qo‘lyozma bayozlardan* 14 nafar ijodkor haqida (Nola, Ma‘yus, Visoliy, Xomush, Zarra, Faloniy, Nozil, Begiy, Nodir Toshkandiy, Arshiy, G‘aribiy, Omil, Pirimqori, Shaydo) fikr bildirishda unumli foydalangan. Olim ushbu fiqralarni tuzishda ushbu manbalardan aynan ko‘chirmagan, balki ularni qayta ishlab, yangi-yangi ma‘lumotlar bilan boyitgan.

Po‘latjon Qayyumiy o‘z tazkirasini tuzishda faqat qo‘lyozmalarga murojaat etibgina qolmay, adabiy nashrlarni ham birma-bir ko‘zdan kechirgan va ulardan joy olgan shoirlar borasidagi adabiy fikrlardan o‘z asari uchun “xamirturush” sifatida foydalangan. Bir so‘z bilan aytganda, olim ilmning qora mehnatini o‘z yelkalariga olganlar.

“Inqilob quyoshi” gazetasidan 3 nafar shoir fiqrasida (Partaviy Xorazmiy, Mutrib); *“Sadoi Turkiston”* gazetasidan 3 nafar ijodkor faoliyatida (Tavallo (1914-yil), Axtariy, Lutfiy II); *“Sadoi Turkiston” qoshida chiqarilgan “She‘rlar to‘plami” bayozi 44-betidan* G‘ofil ijodiga to‘xtalishda; *“Oyna” jurnalidan* 2 nafar ma‘rifatparvar borasida (Hilmiy, So‘fizoda); *“Sadoi Farg‘ona” gazetasidan* 2 nafar ijodkorga (Xayoliy, Layli); *“O‘zbekiston xotin-qizlari” jurnalining 1958-yil 4-sonidan* Muazzam, *1957-yil 2-son, M.Zokirov maqolasidan* Nozimalarga to‘xtalishda; *“Yangi Farg‘ona” gazetasining 1927-yil sonidan* Nihoniy, *1959-yil 3-mart sonidan* Xushyor to‘g‘risida; *Qo‘qon shahar gazetasining 1957-yil 2-noyabr sonidan* Charxiy, *1957-yil sonidan* Javdat haqida; *“Sharq yulduzi” jurnalining 1956-yil 1-soni, f.f.n. H.Homidovning maqolasidan* Qutb Xorazmiy haqida; *“Mash‘ala” jurnalining 1935-yil 1-soni, “Nozil Xo‘jandiy maqolasi”dan* Nozil xususida; *“Sho‘ro”, “Mushtum” jurnallari va “Farg‘ona” gazetasidan* Muhammadsharif So‘fizoda to‘g‘risida; *“Turkiston viloyatining gazetasi” va “Pravda” gazetasidan* Mir A‘zam Davron borasida; *“Guliston” jurnalidan* Nasimiy haqida; *“O‘zbekiston madaniyati” gazetasining 1957-yil, 47-sonidan* Oraziy faoliyatiga ma‘lumot berishda; *“Sharq yulduzi” jurnalidan* Faqiriy Xorazmiy masalasida; *“Nashidai dilpazirlari” gazetasidan* Mutrib xususida; *“Bayoz”dan* (Xo‘qandda bosilgan) Mashqiy haqida; muallif tili bilan aytganda *“Moskvada chiqqan bir gazetadan”* Sulaymon to‘g‘risida ma‘lumotlar olgan.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, tazkirada Sayyid Ahmadning *“Taashshuqnoma”*, Rabg‘uziyning *“Qisasi Rabg‘uziy”*, Xorazmiyning *“Muhabbatnoma”*, Ahmad Yugnakiyning *“Hibbat ul-haqoyiq”* (muallif asar nomini *“Aybat ul-haqoyiq”* deb bergan), Ahmad Yassaviyning *“Hikmat”*, Mahmud Koshg‘ariyning *“Devoni lug‘otit-turk”*, Durbekning *“Yusuf va Zulayho”*, Majlisiyning *“Qissai Sayf ul-muluk”*, Qutb Xorazmiy tomonidan amalga oshirilgan Nizomiy Ganjaviyning *“Panj ganj”*iga kirgan *“Xisrav va Shirin”*,

Muhammadsolihning “Shayboniynoma”, Muhammadniyoz “Tarixi Shohruhiy”, Uvaysiyning “Voqeoti Muhammadalixon” asaridan parchalar berilgan.

Qolaversa, muallif o‘z shajarasini bayon etishda Mirza Olimning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asaridan foydalangan.

“Tazkirai Qayyumiy”da 11 nafar shoir (Yusuf Amiriy, Aziziy (Abdulazizxon), Gadoiy, Mahfiy Qoriyi Qunduziy, Cho‘bin, Toib II, Is‘hoqxon Ibrat, Fitrat, Asiriy, Manziliy, Bayoniy) hayoti va adabiy faoliyati haqida ma‘lumot berilgan bo‘lsa ham, she‘rlaridan namunalar keltirilmagan. Po‘latjon Qayyumiy ular xususida: “har qancha izlansakda biror she‘rini uchratishga muvaffaq bo‘lmadik”,-deganlar.

Shuningdek, tazkirada 42 nafar adabiyot vakillari (Fanoiy, Muhib, Zaliliy, Nasimiy Marg‘iloniy, Pir, Visoliy, Hazin, Xomush, Zarra, Uznab, Dilkash, Faloniy, Riyoziy, Mavlaviy Oxund, Vasfiy, Iffat, Xoib, Hoji, Fikriy, Nosir, Fanoiy, Nodir Toshkandiy, Xotiy, Rashidiy, Ramziy II, Arshiy, G‘aribiy, Qurbon, Azko, Omil, Taslim, Xokiy, Kotib, Soqiy, Asiriy, Shaydo, Shaydoyi Dakaniy, Manziliy, Jazbiy, G‘ofil, Lutfiy II, Muslimiy) hayoti va ijodi haqida aniq yoki to‘laqonli ma‘lumot berilmagan. Bunday ijodkorlar xususida “biz o‘rtaga qo‘yamiz... adabiyot ahllari to‘ldirurlar”,-deydi.

“Tazkirai Qayyumiy” she‘riyatning turli oqim va yo‘nalishlarida ijod qilgan shoirlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida jamlaganligi jihatidan ham xarakterli bo‘lib, undagi badiiy materiallar nafaqat lirik mavzudagi, balki tasavvuf va ma‘rifatparvarlik mavzuyidagi asarlar silsilasini tashkil etadi. Ahmad Yassaviy, Qul Sulaymon, Durbek, Huvaydo, Boborahim Mashrab, Mashrabi soniy, Iyqoniy, Shams I, Shavqiy Namangoniy, Oshiq Xo‘qandiy, Sadoiy, Nasimiy Marg‘iloniy, Toliy, Pir, Soleh, Mavlaviy Oxund, Vajhiy, Asiriy, Sirojiiy, Soqib, Shuhrat, Faqiriy, G‘aribiy, Haziniy kabi shoirlar tazkirada tasavvuf yo‘nalishidagi shoirlarning vakillari sifatida keltirilgan. Ateistik mafkura hukmron bo‘lgan bir jamiyatda tasavvuf, umuman, diniy-irfoniy tushunchalarni tilga olishning o‘zi insondan kuchli iroda va mustahkam matonatni talab etar edi.

Po‘latjon Qayyumiy har qanday ijod uchquniga hurmat bilan qarab, bir dona she‘ri mavjud bo‘lgan ijodkorlarni ham o‘z tazkirasiga kiritgan. Biroq, olim ko‘zboyamachilikdan, ilmni soxtalashtirishlardan, yolg‘on maqtovlardan o‘zini tiygan holda shoirlar faoliyatiga ro‘y-rost baho berishga intilgan. Zarurat o‘rinlarda ma‘lum qalam ahllarini tanqid ham qilgan. Rojiiy Xorazmiy, Havoiy, Havoyi kabi shoirlarga bag‘ishlangan fiqralarda buning yaqqol guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Tazkiraning yana bir muhim jihati shundaki, unda adabiyotimiz tarixiga oid yangi materiallar mavjuddir – Utojiy, Zaliliy, Nizomiy Xo‘qandiy, Ravnaq, Nodir, Kaltatoyi, Dilovar, Niyoziy Xo‘qandiy, Jaloliy, Azimiy, Vola Xo‘qandiy, Biymiy, Akmal Piskandiy, Komil Xo‘qandiy, Ramziy, Nisbatiy, Oshiq Xo‘qandiy, Maknun, Rindiy, Toib Xo‘qandiy, Cho‘bin, Muhib, Irfon, Qoriy, Zoriy, Yoriy, Ulfat, Muntazir, Toib, Kamina, Tajalliy, Devona Toshkandiy, Xijlat Xo‘qandiy, G‘urbatiy, Pir, Hazin, Visoliy, Soleh, Hayratiiy Marg‘iloniy, Almaiy, Nasimiy, Dilafkor, Muhsiniy, Dilkash, Faloniy, Qoriy, Omoniy, Mavlaviy Oxund, Vasfiy, Fikriy, Havoiy, Shoiq, Nosir, Hoji Samarqandiy, Mahjur, Tolib, Xotiy, Salimiy, Boqiy, Havoyi, Roiq, Tarjimon, Fayziy Xo‘qandiy, Oshiq O‘shiy, Miskin, Nasriddin, Nayiriy, Vosif, Rojiiy Xo‘qandiy, Majruh, Maxmur Isfarangiy, Berdiyoy

shum, Fitrat, Devona, Vahhoj, Partaviy, Pisandiy, Shahzoda, Mu'tasim, Valiy, Xokiy, Rahmatillo Mahzun, Azizlar, Xoniy, Ushshoq, Asiriy, Zamiriy, Mustag'far, Manziliy, Jazbiy, Hayratiy, Chokar, Hijrat II, Bobo Rojiiy, Amin Umariy, Faqiriy Xo'qandiy, Ravnaqiy, Ravshan, Mahjur Andijoniy, Zarra, Bokiy, Firoqiy, Parvona Xo'qandiy, Mufazzal, Habibiy, Davron Xo'qandiy, Vasfiy Buxoriy, Davron III, Aziziy, Mavzun, Shukriy, Kamol, Kiromiy III, Kamiy II shular jumlasidandir. Ushbu shoirlar adabiyotshunoslik sohasi uchun yangi, hali tilga olinmaganligi yoxud ular haqidagi ma'lumotlarning unikalligi bilan fanimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1993. 191 bet.
2. Boltaboyev H. Tazkiralari zikri. – T.: Mumtoz so'z, 2015. 261 bet.
3. Po'latjon domulla Qayyumov. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi Qayyumov A.). – T.: O'z RFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi, 1998. 712 bet.

ASHURALI ZOHIRIY – SERQIRRA IJODKOR

Nilufar JAVHAROVA,
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-bosqich magistranti.
(O'zbekiston)

Anotatsiya:

Ushbu maqolada milliy tilimiz, uning rivojiga hissa qo'shgan allomalarimiz, Ashurali Zohiriyning o'zbek adabiy tilini yaratishdagi xizmatlari va uning "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yildagi 3-sonida nashr etilgan "Ona tili" nomli maqolasining tabdili berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, o'zbek tili rivoji, millat tili, imloni xalqchillashtirish.

Аннотация:

В данной статье рассказывается о нашем национальном языке, ученых, внесших свой вклад в его развитие, о вкладе Ашурали Захири в создание узбекского литературного языка и его статье «Родной язык», опубликованной в 3-м номере газеты «Садои Фергана». в 1914 году.

Ключевые слова: родной язык, развитие узбекского языка, национальный язык, популяризация правописания.

Annotation:

This article describes our national language, the scholars who contributed to its development, the contribution of Ashurali Zahiri in the creation of the Uzbek literary language and his article "Mother tongue", published in the 3rd issue of the newspaper "Sadoyi Fergana" in 1914.

Keywords: native language, development of Uzbek language, national language, popularization of spelling.

Inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida

onaning o'rnini beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvda tilning o'rnini ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab, "ona tili" deb ataydilar.

Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab berdi. O'zining "Hamsa" nomli shoh asarini turkiy tilda yaratdi.

O'zining ilmiy-ma'rifiy, pedagogik, adabiy-publitsistik faoliyati bilan o'zbek xalqi madaniyati tarixida munosib o'rin tutgan insonlardan biri Ashurali Zohiriydir. O'zbek adabiy tilini yaratishda ham Ashurali Zohiriyning xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim. U o'zbek tilida birinchi bo'lib, boshlang'ich sinflar uchun "Imlo" darsligini yaratgan. 1916-yil Qozonda nashr etilgan. Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" va "Vaqfiya" asarlari ustida matnshunoslik tadqiqotlari olib borgan. "Muhokamat ul-lug'atayn"ni husnixatda ko'chirib, Qo'qonda Vayner kutubxonasida chop ettirgan. Abdurahmon Sa'diy o'zbek adabiy tilining maydonga kelishi, avvalo, ma'rifatparvar avlodning o'z ona tillarida kitoblar bostirishi va matbuotni yo'lga qo'yishiorqali bo'lganligini ko'rsatib shunday yozgan edi: "Uyg'onish davrida nashrda shuni (adabiy tilni) Behbudiy turg'uzib, Xoji Muinlar, Ashuralilar uni ishlaguchi bo'ldilar". Ma'rifatparvar olim o'z maqola va risolalari, qo'llanma va lug'atlari bilan o'zbek tili ilmiy terminologiyasining tarkib topishi va rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Xususan, Ashurali Zohiriyning "Til va imlo masalasi" maqolasida adabiy til haqida ilgari surgan qarashlari ko'p jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tili misolidao'z ifodasini topgan [1].

Ashurali Zohiriy "Til va imlo masalasi" maqolasida adabiy til, imlo, atama, singarmonizm va o'zbek tilining boshqa masalalaridan bahs yuritilgan. Mazkur maqolada olim unililar masalasiga ham alohida to'xtaladi. Bu haqda olim AbdulhamidNurmonov shunday yozadi: "Ashurali Zohiriy o'zbek adabiy tilida oltitamas, to'qqizta unli mavjudligini, lotin alifbosidan ana shu 9ta unli harflar uchun grafik belgilar olish zarurligini bildiradi. Garchi muallif bu fikrini dalillar asosida isbotlamasa ham, Farg'ona (Andijon, Marg'ilon, Qo'qon kabi) shevalarida ma'no farqlash uchun xizmat qiladigan to'qqizta fonema borligini his qiladi. Darhaqiqat, unlilarning palatal belgisi Farg'ona vodiysining bir qator hududlari shevalarida bugungi kunda hamfarqlovchibelgi sifatida xizmat qiladi. Mana shu jihati bilan fonologik qimmatga ega. Shu bilan birga, Ashurali Zohiriy ayrim mualliflarning to'qqiztadan ortiq unli fonemalarga egaligi haqidagi fikrlarining yetarli isbotlanmaganini tanqid qiladi" [2].

Imloni xalqchillashtirish – milliy til tabiatiga muvofiqlashtirish Ashurali Zohiriyning asosiy g'oyasi bo'lgan. Ashurali Zohiriy tilshunoslik merosi orasida eng salmoqli o'rin tutadigani, shubhasiz, uning 1927-1928 yillarda nashr etilgan "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at"idir. Lug'at ikki jildidan iborat bo'lib, 34 ming so'zni o'z ichiga olgan. Bu lug'at milliy tilning leksik me'yorlarini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek grammatikasining ayrim nazariy

masalalari uning 1920-yillardagi maqolalarida tahlil qilingan. Lugʻatda esa soʻzlarning tayyor shakllari ularning aniq mazmuni va qoʻllanishi bilan berilgan. Shu oʻrinda Ashurali Zohiriyning ilmiy terminologiyani amaliy ishlab chiqishdagi xizmatlarini qayd etish lozim. Lugʻatda grammatik kategoriyaga oid koʻplab misollarni topamizki, ularga tayanib, A. Zohiriyning grammatik kategoriyalar haqidagi qarashlarini kuzatish mumkin. Albatta, ushbu lugʻatning talay kamchiliklari bor. Unda soʻzlarning koʻpmaʼnoliligi ajratilmagan. Tarjimalarda ham baʼzi noaniqlik va xatolar mavjud. Shunday boʻlsa-da, Ashurali Zohiriyning ushbu ishi oʻzbek tilida birinchi mukammal tarjima lugʻat sifatida oʻz davrining amaliy hamda ilmiy talablariga javob bera olgan.

Quyida Ashurali Zohiriyning Qoʻqon adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan “Sadoyi Fargʻona” gazetasining 1914-yil 3-sonida nashr etilgan “Ona tili” maqolasining tabdilini keltirdik:

ONA TILI

Bir millatning oʻz tilidagi kitob, risola, gʻazeta, jurnal va boshqalarigʻa bir soʻz bilan uning adabiyot (literatur) deyilur. Shuning uchun arabcha kitob va risolalargʻa “adabiyoti arabiya”, turk, tatarcha, boʻlgʻonlarigʻa “turk adabiyoti”, “tatar adabiyoti” deyishadur.

Dunyoda yashab turgʻuvchi har bir millatning ilmda, fikrda (?) va boshqa toʻgʻrilarda qanday darajada ekanligi adabiyoti bilan oʻlchanib, adabiyoti boy boʻlgʻon har vajhdan oldinda va yuqorida eʼtibor qilinur. Bilʼaks, adabiyoti boʻlmagʻon boʻlsa ham borlik yoʻqlik (yogʻi sop boʻlgʻon chirogʻdek) oʻchar-oʻchmas boʻlsa, ul qavmning boshqalar oldida hurmat va eʼtibori boʻlmas va har navʼ hayoti ijtimoiya va madaniyatdan bahra olomas.

Bas, endi bizda ham ul “adabiyot” degan narsa bormu? Yo yoʻq?! – yoʻq desa xato boʻlmaydurgʻonlar darajada erurki, ul misol nima qilishni bilmaydurgʻon kishining qoʻligʻa tushgan xom tilladek borgan sari ani qorayturilur, chiritilur. Oxiri... boshqa narsaga olishtirilur.

Mana shul ham xoh ulamo va mudarrislarimiz va hox oʻsmurlarimiz boʻlsunlar, bul muqaddas ona tilimizni tirilturmoqlari anda tursun, yoki yoʻqotmoqlikka sabab boʻlurlar va ham boʻlubdurlar.

Nechunki, ulamolarimizdan biri biror yergʻa xat yozsa, yoki birovgʻa bergan narsasini xotira daftarigʻa yozsa, oʻz ona tilini qoʻyub, porsiy tilda yozadurlar. Hammasidan ham zaraligi buldurki: yangi dars oʻqumoqqa boshlagʻon, oʻz ona tilini ham durustlab bilmaydurgʻon bir shogirdgʻa dars berishlarida porsiycha tarjima bilan oʻrgatadurlar. (Aqalli turkiy sarf, turkiy nahv anda qoʻying) hech boʻlmaganda, oʻshal arabcha sarf, nahvni turkiy tiligʻa tatbiq qilib, yaʼni aning kerakli oʻrunlarigʻa tildan misollar koʻrsatib aytib bersalar, arabchaga ham zehni kirishub, buning barobarinda oʻz ona tilini ham bir narsagʻa yaraydurgʻon til ekanligini bilib, ona tiligʻa muhabbati bir darajada ortib, tartibga solib qolur edi. Holo ul qayda?

Yosh oʻsmirlarimiz boʻlsalar, birliklaridan birini ziyofatgʻa chaqirub chiqa bersalar ham usmonlicha yoki tatarcha yozadurlar. Vallohki, ona tiligʻa muhabbat va islohi alardan qutulur erdi. Bularning sababi ham ravshandurki, barchalari

o‘zlarining eroniy adabiyoti ta’siri bilan turlangan bo‘lsalar, ikkinchilar: tatar va usmonli adabiyoti vositasi bilan fikrlarini ochgandurlar. Shuning uchun har ikki sinf ham o‘zlari nur olg‘on taraflarig‘a qarab tortadurlar va o‘z ona tillarig‘a haqorat nazari bilan boqub, kundan-kun andan chiqarmoqqa boshlaydurlar.

Durust, porsiycha, arabcha, o‘ruscha va boshqalarni ham bilaylik, bilaylikgina emas, juda yaxshi bilaylik lekin o‘z ona tilimizni hammasidan ortiq va ziyodaroq bilaylik, sarf, nahvlari bilan bilaylik. Va ham shundog‘ bo‘lg‘onda arabcha, porsiycha va boshqalarig‘a tushursiz. Qachonki o‘z tilimizni yaxshilab bilmasmiz, boshqa tilni albatta durust bilmaymiz.

Shuning birla na ani bilurmiz va buni: hijriy 900 nchi va bu yilda va bu yildan ilgariroq ham mavlono Lutfiy va amir Navoiydek zotlar vujudg‘a kelub, qirqg‘a yaqin asarlari birlan ona tilimizning boshqa tillarg‘a nazaran boy ekanligini she’rda berilg‘on tartibini musiqa (muzika)da bo‘lg‘on latofatli “Mezon ul-avzon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”lari bilan bildurg‘on edilar.

Turkiyani do‘st tutqon kishi jug‘rofiyani o‘qub ko‘rub, Turkiyaning shuncha yerlari qo‘lidan chiqub ketganig‘a yuragi yonib, joni siqilganidek, ona tilig‘a muhabbati bir kishi ham amir Navoiy asarlarini o‘qub ko‘rganda, tilimiz avvalda shuncha boy va mukammal ekan, nima qildikki, ul latofat, ul nazokatlarini yo‘qotub, kishi tanimaydurg‘on bir holga kelturub qo‘ydik, deb “oh”lar tortur.

Nechukki, har bir insonning jondan aziz narsasi dil va millatdur. Ul din va millatni saqlamoqi ham har afrod insong‘a vojibdur. Ani muhofazali ona tili muhofazati bilan bo‘lur. Qachonki bir millat tilini yo‘qotsa, ul vaqt dinini va millatini ham yo‘qotur. Tatar qarindoshlarimizning hozirdag‘i til va adabiyotlarini bundan o‘n-o‘n besh yil ilgari chiqqani qabul qilinsa, qiyos qabul qilmaslik darajada tafovutlar bordurkim, bul darajada alarning tillarini kengaymog‘i milliy va ona tilidagi g‘azetalari bilan bo‘ldi, demoq g‘azeta va jurnallarning dunyo ahvolidan va boshqa to‘g‘rilaridan xalqg‘a xabar berib turmog‘idan boshqa ulug‘va ko‘zga ko‘runmaydurg‘on foydasi bo‘lurki, ul ona tilining kengaymog‘iva mukammallash-mog‘idur.



Buning birlan millat o'zini dunyoda borlig'ini bildurub, ona tilida o'qumoq va ta'lim bermoq masalalari chiqqanda o'zig'a oyrum tili borlar qatoridan joylanub, tili yo'qlar qatorig'a kirib qolmas.

Turkistonda chiqqan g'azeta va jurnallar til to'g'risida hech bir iltifot qilmadilar va avval ham e'tibor etmaslar. Takror aytaman, g'azeta ona tilig'a xizmat etsun! Va tili kengaytmakda millatni tili yo'qlar qatorida qoldurmasun! [3]

Ushbu maqolani o'qir ekansiz, Zohiriyning haqiqiy millatparvar shaxs ekanligiga, ona tilimizning rivoji uchun zahmat chekkanligiga guvoh bo'lasiz.

Xulosa qilib aytganda, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz mustahkam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "Qizil O'zbekiston" gazetasining 1929-yil 29, 3-mart sonlari.
2. Нурмонов 2012, 350-351.
3. "Sadoyi Farg'ona" gazetasi, 1914-yil 3-soni. Qo'qon adabiyot muzeyi fondi.

TA'LIM TIZIMIDA QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARI ADABIY MEROSINI O'QITISH MUAMMOLARI

QO'QON ADABIY MUHITIDA NODIRANING O'RNI VA O'QITISH MUAMMOLARI

Maqsuda SARIBOYEVA,
GulDU O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrası dotsenti
Shahnozaxon XOJIMURODOVA,
O'zDJTU 4-kurs talabasi
(O'zbekiston)

Аннотация

Maqolada Mohlaroyim - Nodira ijodi va yaratgan asarlari adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, yuksak tuyg'ularni shakllantirishga, ularning estetik didini o'stirishga xizmat qilishi, shoira ijodini o'rganish, xususan lirikasini elektron ko'rgazmali qurollardan maqsadli foydalanish adabiy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, lirika, adabiy kecha, ta'lim va tarbiya, elektron ko'rgazmali qurollar, "Muammoli vaziyat", Nazm darsi.

Аннотация

В статье рассматривается творчество и созданные произведения Мохларойим-Нодир, как редкое событие в истории нашей литературы, которое служит для обогащения духовности учащихся, формирования высоких чувств, развития их эстетического вкуса. В частности, научно проанализировано, что целевое использование электронных наглядных пособий в лирике является важным фактором повышения эффективности литературного образования.

Ключевые слова: духовность, лирика, литературный вечер, обучение и воспитание, электронные наглядные пособия, «Проблемная ситуация», Урок поэзии.

Annotation

The article considers the creativity and created works of Mohlaroyim-Nodira as a rare event in the history of our literature, which serves to enrich the spirituality of students, the formation of high feelings, the development of their aesthetic taste. In particular, it is scientifically analyzed that the targeted use of electronic visual aids in lyrics is an important factor in increasing the effectiveness of literary education.

Key words: spirituality, lyrics, literary evening, education and upbringing, electronic visual aids, "Problem situation", Poetry lesson.

Hassos shoir va davlat arbobi amir Umarxon, uning umr yo'ldoshi, asli andijonlik mashhur shoira Nodirabegimlarning o'zlari ijodkor bo'lganliklari tufayli, Qo'qon adabiy muhiti vujudga kelgan. Shuni ta'kidlash lozimki, taqdir

Nodiraga Umarxondek ham shoh, ham shoiri davron bilan umr kechirishni nasib etib bir bora siylagan bo'lsa, uni Qo'qon adabiy muhitidan nafas olish baxtiga musharraf etib ikkinchi bor siyladi.

Mohlaroyim - Nodira ijodini ta'lim tizimida o'rgatish orqali o'quvchilarda yuksak tuyg'ularni tarkib toptirish mumkin.

Zero, ezgu orzu-niyatlarimizni amalga oshirish ko'p jihatdan bugun unib-o'sib kelayotgan, bizning davomchimiz, suyanchimiz va tayanchimiz bo'lgan yosh avlodning zimmasi va mas'uliyatiga tushadi. Shu bois barchamiz o'zimizning muqaddas ota-onalik burchimizni jondan aziz farzandlarimizni nafaqat jismonan, ma'nan sog'lom qilib o'stirish, shu bilan birga ularning har tomonlama barkamol avlod bo'lib, eng zamonaviy biz yashayotgan XXI asr talab qilayotgan intellektual bilim va boylikka ega bo'lgan insonlar bo'lib hayotga kirib borishni ta'minlashda ko'rishimiz ham qarz, ham farzdir [1, 280].

Demak, umumta'lim maktablarida adabiyot fanidan dars beruvchi o'qituvchi ta'lim va tarbiya uyg'unligini hayotga tatbiq etuvchi, o'quvchida haqiqiy ma'noda komil inson talabiga javob beradigan shaxsni tayyorlaydigan bog'bon – ustoz bo'lishi lozim. Shunda bolada milliy iftixor tuyg'usi va o'zligini anglash uchun ilmni egallash istagi uyg'onadi.

Nodira baxt va baxtsizlikning mujassam timsolidir. O'quvchilarning ma'naviy kamolotini shakllantirishda shoirarning *“Ishq-muhabbat”*, *“Do'stlik”*, *“Ilm-ma'rifat”*, *“Obodonlik va maishiy farovonlik”*, *“Vatandan g'ururlanishga”* bag'ishlangan sara lirik asarlarini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Shu bois ta'lim bosqichlarida el hurmatiga, xalqimiz mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan ijodkorlar yaratgan asarlarni o'rganish didaktik zarurat hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfida o'quvchilar diqqati Nodira hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarga va ijod namunalari tahliliga qaratiladi.

Ta'lim berish jarayoni murakkab, ziddiyatli kechim bo'lib, o'qituvchidan kuchli bilim, mahorat, tashkilotchilik qobiliyatni talab etadi. Har bir o'qituvchining o'z oldiga qo'ygan didaktik maqsadiga erisha olishi uning kasbiy mahoratiga, samara beradigan ta'lim shaklini tanlay olishiga, ta'lim vositalaridan unumli foydalanishiga, eng muhimi, o'qitish usullarini o'rinli qo'llay olishiga bog'liqdir.

Nodirabegim ijodini o'rganishda o'qituvchi *“Mohlaroyim Nodira hayotidagi muhim sanalar”* deb nomlangan ko'rgazmani namoyish etish bilan boshlasa, o'quvchilar shoirarning adabiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi mavqei, o'z davrida ilg'or fikrlar targ'ibotchisi bo'lganligi, uning dunyoqarashi haqida ma'lum tasavvurga ega bo'ladilar. Bunda sinfda shakllantirilgan guruhlariga muhim sanalar aytiladi. O'quvchilar bu sanada qanday voqea sodir bo'lganini aytishlari kerak. Bu jarayon qisqa vaqt davom etishi lozim, aks holda shoira ijodiga ajratilgan vaqt yetmay qolishi mumkin.

Shoira ijodini o'rganishga kirishishdan oldin adabiyot o'qituvchisi 8-sinfda shoir ijodi haqida ma'ruza qilishdan oldin o'quvchilarga uning g'azallarida hijron va ayriliq ohanglari, ularning badiiy yyetukligi Nodira lirikasida ayol tuyg'ularining ifodalanishi haqida ma'lumot beradi.

Doda keldim, ey salotin sarvari dodim eshit,

Sen shah-u men benavo, lutf ayla faryodim eshit.

kabi misralari Nodiraning bevosita arz-dodi, o'z hiz-tuyg'ulari ifodasiday ko'rinsa-da, aslida xonni salotin sarvari ("podshohlar boshlig'i"), ma'shuqini "shax" deyishi, o'zini "benavo" hisoblashi mumkin, bu tariflar, Xudoga qaratilgan, deb hisoblansa ham, bo'laveradi. G'azal davomidagi "sarvi ozodim", "sarvinozim", "parizodim" undalmalari ham xuddi shunday tarzda bir yo'la obyektga qaratilgan holda qo'llangan [2, 89].

So'ng o'quvchilar bilan shoira lirikasi tahliliga kirishiladi. Darslikda berilgan g'azallarni tahlil qilishda qo'llanilgan usullar o'quvchilarning yakka va o'zaro birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshirilishi lozim. Ulug' olmon pedagogi A.Distervegning: "***Yomon o'qituvchi haqiqatni yetkazib beradi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni o'quvchilar bilan birga kashf etadi***", - degan gapi naqadar haq ekani ma'lum bo'ladi. Chindan ham o'quvchilarga ilmiy haqiqatlarni kashf etish imkonini bergan o'qituvchining faoliyatigina samaralidir.

So'nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audiomagnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi. Ayni o'rinda elektron ko'rgazmali qurollarning adabiy ta'lim samaradorligini oshirishdagi rolini ham alohida qayd etib o'tmoqchimiz. Muayyan mavzularni o'rganish maqsadida tayyorlanayotgan elektron ko'rgazmali qurollar ma'lum talablarga muvofiq yaratilishi zarur. Xususan:

1. Elektron ko'rgazmali qurol (yoki darslik)lar o'quvchilarning yoshi va qiziqishlariga mos holda yaratilishi zarur.

2. O'quvchilar tomonidan qiziqish bildirilayotgan asar voqealarini ifodalovchi surat, tasvir yoki shakllarning ilova qilinishi mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

3. O'rganilayotgan mavzuga mos keluvchi yordamchi materiallar (tasvir, surat, shakl, jadval va hokozolar), badiiy bezaklar o'quvchilar e'tiborini asosiy maqsaddan chalg'itmasligi, aksincha, ularning faoliyat yo'nalishini aniq belgilab berishga yo'naltirilishi zarur.

4. Elektron ko'rgazmali materiallar o'quvchilar tomonidan kompyuterni oson boshqarish asosida o'zlashtirilishi, zarur o'rinlarda kuy, qo'shiq, animatsiyalar bilan boyitilishi lozim.

Ta'lim jarayonida elektron ko'rgazmali materiallardan foydalanish o'zining ijobiy natijasini beradi. Jumladan, Nodiraning 8- sinfdan o'rganilishi mo'ljallangan Nodira g'azallarini o'tish jarayonida kompyuterda quyidagi fayllar ochiladi: "*G'azal matni*", "*Savol-topshiriqlar*" va "*Muammoli vaziyat*".

"G'azal matni" fayliga **Nodira she'riyati** asosiy mazmunining qisqacha matni kiritiladi. Dastlab o'quvchilarga ushbu fayl bilan tanishib chiqish vazifasi yuklanadi. O'quvchilar tomonidan ushbu vazifa bajarilgandan so'ng, ularga "Savol-topshiriqlar" fayliga kirish va unda o'z ifodasini topgan savol-topshiriqlarni bajarish aytiladi. Mazkur faylda asosan, shoira she'riyatining mohiyatini ochib

beruvchi savol va topshiriqlar kiritilgan bo'lib, ularni bajarishda barcha o'quvchilarning imkoniyatlari inobatga olinadi.

O'quvchilar tomonidan savol-topshiriqlar bajarilgandan so'ng ulardan "Muammoli vaziyat" fayliga kirish so'raladi. Ushbu fayl orqali o'quvchilar e'tiboriga shoira she'riyati yuzasidan muammoli vaziyatlar kiritiladi hamda o'quvchilarning mazkur vaziyatlarning yechimini topishga qaratilgan faoliyatlari nazorat qilib boriladi. Eng yaxshi yechim aniqlanadi hamda mashg'ulot so'ngida yakuniy xulosalar chiqariladi.

Nodira lirikasiini o'rganishda konferensiya, nazmiy musobaqa, mushoira, sayohat, intervyu, sinov, xotira, dialog kabi darslarning turlaridan foydalanish o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchi munosabatlarini faollashtirish, jarayonda o'zaro yordam, hamkorlikning ustuvorligi dars ko'zlagan maqsadga erishishda keng imkoniyat yaratadi. Masalan: konferensiya darsidan biror bir mavzu, bob tugallanganda yoki o'quv choraklari yakunida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Nazm darsi o'z ko'zlagan maqsadi va tashkil etilish shakliga ko'ra adabiy ta'limning qiziqarli va o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari hamda mas'uliyatini oshirishga yo'naltirilgan bir ko'rinishidir. Bunda o'quvchilarning she'r, dostonidan parchalarni yod olishga havasi shakllantiriladi. Nazm ham dars, ham sinfdan tashqari o'qish, to'garak mashg'ulotlari shaklida o'tkazilishi mumkin. Ushbu ish turi ijodkor, badiiy iqtidorga, she'r yozish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni aniqlashga va ulardagi bor imkoniyatni kelajakda kasb tanlash darajasida rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Nodira lirikasini o'rgatishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan shu kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning yakka va o'zaro birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshirildi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, shoira yashagan zamonda Qo'qon adabiy muhiti gullab-yashnagan edi. Nodirabegim asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyon bo'ladi. Shoira ijodi va yaratgan asarlari adabiyotimiz tarixidagi nodir hodisa sifatida o'quvchilar ma'naviyatini boyitishga, ularning estetik didini o'stirishga xizmat qilishi sababli ta'lim-tarbiya amaliyotida ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Nodira ijodini o'rganishda uning g'oyasi, yo'nalishi, mohiyati, shuningdek, murakkablik darajasini inobatga olgan holda an'anaviy yoki interfaol shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishi, elektron ko'rgazmali qurollardan maqsadli foydalanish adabiy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –592 b.
2. Adabiyot 8: darslik (S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2019. –352 b.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018 – 352 b.

4. Сафин Д., Мусина Р. Интерактивные методы преподавания и учения. Модуль 2. –Т.: 2007. С. 56.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA ADABIYOT O‘QITISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Mirhojiddin JAMOLIDDINOV,
QDPI dotsenti.
Gulbahor Mo‘ydinova,
o‘zbek tili va adabiyoti fanio‘qituvchisi

Annonatsiya

Maqolada maktabda adabiyot darslarini o‘qitishdagi muammo va uni yechimlarini hal qilishdagi ilmiy-metodik fikrlar yoritib berilgan.

Tayanchso‘z va iboralar: Filologik, didaktik tahlil, tamoyillar, DTS, dastur, vatanparvarlik, sayohatnoma.

Аннотация

В статье описывается проблема преподавания литературы в школе и научно-методические идеи по ее решению.

Ключевые слова и фразы: Филологический, дидактический анализ, принципы, ДТС, программа, патриотизм, путеводитель.

Annotation

The article describes the problem of teaching literature in schools and scientific and methodological ideas for solving it.

Keywords and phrases: Philological, didactic analysis, principles, DTS, program, patriotism, travelogue.

Jadidchilik adabiyotining rahnamosi Behbudiy 1915-yil 28-fevralda “Oyina” jurnalida bosilgan “Tahsil va safar zamoni va taom” maqolasida ta’limdagi o‘qitish jarayoni haqida shunday yozadi: “Har zamoni ilmi, hikmati va parvarishi boshqadur. Modomiki, har bir bola, ya’ni har kimni zamoni, otasi zamonidan boshqa bo‘lsa va har otag‘a o‘z farzandini kelar zamon uchun va kelar zamong‘a muvofiq suvratda tarbiya va ta’lim etmog‘i lozim bo‘lsa, biz na uchun kelar zamon emas, balki hozirgi va bu kungi zamon va soatimizdagi ilm va fanlarni bolalarimizg‘a o‘rgatmaymiz “...

Shunday ekan, bugun ta’limda o‘qitish jarayonlari o‘zgardi. Davlat siyosatining ta’lim sohasidagi prinsiplarida yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda “ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik hamda ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi” kabi tushunchalar kiritildi. Bu dolzarb masalalar maktabda o‘quvchida shakllanishi uchun adabiyot o‘qitish orqali darsliklarga kiritilgan lirik, epik, dramatik asarlarni o‘rgatish orqali amalga oshadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi oliy ta’limda har bir fanning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha qonuniyatlarini chuqur bilishi va uni pedagogika fani yutuqlariga suyangan holda o‘quvchiga mavzuni yetkazish metodikasini chuqur o‘zlashtirishi lozim.

Jumladan, adabiyot o'qituvchisi Adabiyot nazariyasi, Adabiyot tarixi, O'zbek tili, Pedagogika, Psixologiya va boshqa fanlarni chuqur o'zlashtirishi, darslar jarayonida mavzuni tushuntirishda fanlararo integrasiyadan samarali foydalanishi darslarni qiziqarli bo'lishiga zamin yaratadi. Maktabda o'qituvchi badiiy asarni tahlil qilishda, tahlilning filologik (ilmiy) va didaktik (o'quv) tahlillari to'g'risida to'liq nazariy ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Buning uchun metodist olimlar Q.Ahmedov, A.Zunnunov, Safo Matjon, Qozoqboy Yo'ldoshev va Marg'uba Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarni adabiyot o'qitishga oid ilmiy-metodik asarlarini o'rganishi, O'zbek tili va adabiyoti (ilmiy) ona tili va adabiyoti (metodik) jurnallaridagi maqolalarni o'qib borishi muntazam shart. Adabiy ta'limning individualligi, yaxlitligi, ustivorligi, o'quvchilarning jins xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari badiiy adabiyotning o'rganishdagi o'ziga xoslikdir. Bugun ilmiy kuzatishlar va maktab amaliyotidagi darslar jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatyaptiki, umumta'lim maktablariga dars berayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi maktab DTS talablari asosida yaratilgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan dastur, darsliklarga kiritilgan minimal talablarga javob bermaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlarda hamda XTV ning ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda 56 foiz o'qituvchining o'z ustida ishlamasliklari haqida ma'lumot berdi. Bu sosiologik ma'lumotlar adabiyot o'qituvchisiga ham taalluqlidir.

To'g'ri, bugun umumta'lim maktablarining ahvoli davomat masalasi bo'yicha og'ir. Tayanch o'rta ta'limni 5, 6, 7, 8 sinflarida o'quvchilar darslarda muntazam qatnashyapdi (Qo'qon shahri va atrof tumanlar misolida). Ammo, 9- va o'rta ta'limning 10, 11-sinflarida o'quvchilarni darsga qatnashishi qoniqarsiz ahvolda. Bu esa o'qituvchini dars o'tish jarayoniga ta'sir qiladi. Biroq, 5-, 6-, 7-sinflardagi adabiyot darslaridagi ayrim o'qituvchilarni darslarini zamonaviy darslar deya olmaymiz. DTS talablari asosida 5-sinf o'quvchisi maqol, topishmok, hadis, rivoyat, xalk ertaklari, adabiy ertak kabi janrlar haqida bilimga, turli janrlardagi matn mazmunini hiqoya qila olish, ifodali o'qish ko'nikmasi va asarlarda vatan, ezgulik, go'zallik kabi tuyg'ularni egallashi, ovoz chiqarib 105-110 so'z, ovoz chiqarmay 150-170 so'z tezligida o'qishi, tavsiya etilgan 6,7 she'rni yod aytib berish malakasiga ega bo'lishi kerak.

5-sinf adabiyot darsligida Muqimiyning "Sayohatnoma" asarini o'rgatish uchun dasturda 3 soat vaqt ajratilgan. Bunda o'quvchilar shoirning hayoti va ijodi, Muqimiy "Sayohatnoma" janrining asoschisi, asarning o'z davridagi shuhrati, adabiyotdagi o'rni o'rgatiladi. Hamda Farg'ona vodiysi aholisi hayoti va ruhiyat manzaralarining tasviri, odamlarga xos illatlarning hajviy yo'sinda ifoda etilishi. Asarning hajviy yo'nalishi, obrazlar tasviridagi jonlilik, tili, "Qo'qondan Isfaraga" qismida shoirning dunyo mohiyati haqidagi kuzatishlarini belgisi. Unda Rafqon, Yakkatut singari manzillarda olingan taassurotlarini o'quvchi qalbiga yetkazishi kerak. Ko'rinib turibdiki, asarni o'quvchilarga yetkazish o'qituvchidan chuqur bilim, pedagogik mahorat talab qiladi. O'qituvchi yangi mavzuni o'tishdan oldin darsga bog'liq kirish mashg'ulotlarini o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishi lozim. Jumladan, o'quvchilar Qo'qon shahrida yashayotganimizdan, o'qiyotganimizdan faxrlanishimiz kerak. Chunki, Qo'qon

xonliklarning poytaxti bo'lgan. Bu yerda 300 dan ortiq shoir, yozuvchilar yashab ijod etgan. Umarxon, Nodira, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin, Muqimiy, Zavqiy, Sobir Abdulla, Abdulla Qahhor va boshqalar. Muqimiyning "Sayohatnoma" asari Qo'qondan Shohimardonga, Qo'qondan Farg'onaga, Qo'qondan Isfaraga qilgan sayohatlari taassuroti asosida yozilgan. O'qituvchi she'rni 3 bandini ifodali o'qib, lug'at ustida ishlashi va sharhlab berishi maqsadga muvofiq:

Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak –bag'rimni xun.
Ko'rdiki, bir ahli funun
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim.
Hohi yayov ,bo'lsin otim.
Goh sayr ham darkor ekan...

Aflok kajraftor uchun,
Har dam ko'ngil afgor uchun,
Ho'qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.

So'ngra o'qituvchi she'rni rollarga bo'lib o'qitishi va o'quvchilarning o'zi sharhlab berishi kerak.

Darsning 3-soatida "Sayohatnoma" haqida nazariy tushuncha beriladi. Jumladan, o'zida sayohat xotiralari va ular bilan bog'liq tafsilotlarni aks ettirgan nasriy va she'riy asarni sayohatnoma deb ataymiz. Bu janrning asoschisi Muqimiydir. Keyinchalik shu uslubda Zavqiy, Furqat, Tajalliy va boshqa shoirga zamondosh bo'lgan ijodkorlar ham "Sayohatnomalar" yaratdi. Uning ichki tuzilishi quyidagicha:

1. Kirish, ya'ni sayohatga chiqish ehtiyoji, sabablari aytiladi.
2. Yo'l xotiralari batafsil bayon etiladi.
3. Sayohatlardan muayyan xulosalar chiqariladi.

Hozirgi davrimizda zamonaviy sayohatnomalar ham yaratilyapti. Ular ko'proq adib, shoirlarimiz, jurnalistlarimizning turli mamlakatlarga, shuningdek, yurtimizdagi shahar va qishloqlarga qilgan safarlari asosida she'riy va nasriy uslubda yozilyapti.

Uyga topshiriq "Sayohatnoma asarini 4 bandini yod olish va mustaqil ifodali o'qib kelish.

Xullas, bugun adabiyot darslarini estetik asoslarning ustivorligini hisobga olgan holda pedagogik innovasion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish ta'lim siyosatining asosiy talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" 2020-yil 23-sentyabr, "Xalq so'zi" gazetasi 2020-yil 24-sentyabr.

2. O.Husanboyeva,R.Niyozmetova Adabiyot o‘qitish metodikasi T.”Innovatsiya-ziyo” 2020. 165-b.
3. X.Ibragimov Pedagogika-psixologiya T.”O‘zbekiston”, 2007 y.
4. M.Behbudiy Tanlangan asarlar. J.2. T.Akadem nashr , 2021 y.
5. Муқимий.Асарлар.-Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1974.
6. С.Ахмедова ва бошқалар 5-синф адабиёт дарслик 2 -қисм Т.:”Шарқ,”2015.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ВЗАИМОСВЯЗАННОМУ ИЗУЧЕНИЮ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИИ КОКАНДА)

**Сайёра АЛИМСАИДОВА, д.п.н (DSc),
межфакультетская кафедра узбекского
и русского языков Кокандского ГПИ**

Духовно-культурная составляющая восприятия окружающей действительности – это продукт духовно-культурного освоения мира носителями данного языка (М.М. Маковский, В.И. Постовалова, О.А. Радченко и др.). И этот продукт транслируется, прежде всего, через язык. Являясь неотъемлемой частью культуры, развиваясь и функционируя как форма многих видов искусств, язык способствует обогащению национальных культур. Вот почему язык и культура неразрывно и многосторонне связаны друг с другом. Взаимосвязанное изучение языка и культуры способствует более эффективному овладению языком, поскольку лексика (и не только) начинает соотноситься с культурным и личностно значимым контекстом, который одновременно облегчает её усвоение, закрепление и повторное использование в новых нестандартных ситуациях. Знание культуры также расширяет кругозор обучаемых, обостряет их любознательность и соответственно углубляет интерес к изучаемому и родному языкам. Поэтому взаимосвязанное изучение языка и культуры мы рассматриваем как необходимый фактор гармоничного воспитания личности, интеллектуального развития «человека культуры», повышения общей гуманитарной подготовки и усиления мотивации в процессе изучения языков.

Знание любого неродного языка расширяет сферу деятельности личности, помогает ей более глубоко понять родной язык, который остаётся незыблемым фундаментом овладения любым другим языком. Личность, не владеющая, кроме родного (узбекского), другим языком, остаётся замкнутой исключительно в одной культуре. Овладение русским языком учащимися (тюркоязычными) опирается на методологические принципы, учитывающие концепцию непрерывного образования в республике, в основе которой лежит демократизация, гуманизация, дифференциация и индивидуализация процесса обучения и опора на национально-культурные традиции и общечеловеческие ценности.

Важным является и то, что культура современного языка в любом государстве – это зеркало его социальной и духовной жизни. Язык – это ещё и ключ к будущему государства. В языке рождаются новые слова для открытий, рождаются новые понятия в исследованиях, на нём возникают новые литературные формы и произведения.

Образец взаимосвязанного изучения языка и культуры был сформулирован в известной работе Е.М.Верещагина и В.Г.Костомарова как лингвострановедческий аспект методики преподавания русского языка как иностранного [1].

Мы рассмотрим наиболее известные модели взаимосвязанного изучения языка и культуры, предложенные российскими и иностранными учёными. В Узбекистане специальные исследования в данном направлении не проводились. Мы *впервые предлагаем* модель взаимосвязанного изучения языка и культуры.

Далее, к каждой представленной ниже модели мы предлагаем разработанные нами задания.

Этнографическая модель взаимосвязанного изучения языка и культуры Д. Хаймса (Hymes D.) заключается в погружении обучаемых в культуру изучаемого языка и выявлению социокультурных реалий (иммерсионный метод обучения). Здесь можно проводить занятия и за пределами учебного класса – чтение, прослушивание, просмотр видео, экскурсии и т. д. Затем обучающихся могут представить устный доклад о том, что они узнали о культуре из своих интервью / исследований. В качестве примера мы можем привести следующую ситуацию:

Задание. Составьте небольшой диалог, используя изучаемые конструкции русского языка: *Вы исследуете историю родного края. Узнайте, почему изделия народных ремесленников считаются ценными? (Керамика Коканда)*

Модель взаимосвязанного изучения языка и культуры Г.Нойнера (NeunerG.) [3] принимает во внимание социальный и культурный фон родной страны, выраженный влиянием социально-политических, социализирующих и индивидуальных факторов [3]. Значимые направления данной модели совпадают с первичными представлениями учащихся о стране изучаемого языка. Мы предлагаем учащимся следующее задание:

Задание. Проведите заочную экскурсию по музеям вашего города. Составьте 5-6 связанных по смыслу предложений, используя изучаемые конструкции, на тему: *«Достопримечательности моего города Коканда»*. Сравните с достопримечательностями других больших городов.

Такие задания минимизируют негативные факторы влияющие на процесс изучения неродного (русского) языка.

Модель взаимосвязанного изучения языка и культуры В.В. Воробьёва. Основным отличительным качеством данной модели обучения является наличие артефактов, системное описание культуры и современные данные о стране обучения (лингвострановедение). Ценность для воспитания обучающихся по данной модели составляет тематическое наполнение

социокультурной лексики, ориентированной на данную культуру. При этом тематическая системность обеспечивается посредством единственной сквозной культурологической темы [2].

В.В. Воробьёв главную цель обучения неродному языку видит в овладении обучающимися культурой изучаемого языка. Предложенная В.В. Воробьёвым модель послужила основой лингвокультурологического обучения неродному (русскому) языку. К данной модели обучения мы предлагаем разработанное нами задание:

Задание. По данной теме *«Русские и узбекские праздники, история, традиции»* проведите сопоставление. Опишите понравившийся вам праздник узбекского и русского народа. В чём эти праздники похожи и в чём их отличие. В тексте используйте специальную страноведческую лексику и грамматические средства выражения пространства и времени при сопоставлении в русском и узбекском языках.

Культуроведческая модель взаимосвязанного изучения языка и культуры В.П. Фурмановой Учёный в своей образовательной модели уделяет большое внимание тому, что без параллельного изучения родной и иноязычной культур, не будет правильного понимания и осознания обучающимися себя в качестве культурно-исторических субъектов [5].

Необходимо отметить, что, В.П. Фурманова в своей модели попыталась объединить социологическое и филологическое направления языка и культуры. Учёный отметила, что социологическое направление базируется на различных сценариях «межкультурного общения в зависимости от социального и культурного контекста коммуникации» [5: с.32-33], а филологическое направление опирается на маркированную лексику. К данной модели обучения мы рекомендуем наши задания следующего типа:

Задание. *К вам приехал друг из России. Он просит вас показать ему город, в котором вы живёте. Какие достопримечательности вы захотите показать ему в первую очередь?* Составьте диалог по ролям: *вы и ваш друг*. Используйте изученные речевые конструкции, примените социально-маркированную лексику.

Модель поликультурного взаимосвязанного изучения языка и культуры В.П. Сыроева.

В своём исследовании В.П. Сыроев особо отмечает, что «культурная вариативность представляется ключевым стержнем процесса обучения ИЯ на любом этапе и поэтому присутствует на стадиях культурного самоопределения и диалога культур» [4: с.28]. Итоговая цель предложенной модели учёного - формирование личности субъекта диалога культур.

В данной модели обучения не отрицается применение родного языка на уроках неродного (иностранного), так как это, по мнению учёного, положительно влияет на «формирование личности субъекта диалога культур средствами изучаемого языка» [4: с.28].

Мы считаем, что разумное использование родного (узбекского) и неродного (русского) языков приведёт к большей результативности в формировании социолингвистической компетенции.

Опираясь на модель поликультурного взаимосвязанного изучения языка и культуры В.П.Сысоева мы рекомендуем учащимся наши задания, (желательно при проведении уроков интегрированного типа):

Задание 1. *Подготовьте материалы (историко-литературные тексты) об изобразительном искусстве (истории, литературе, музыке, театре) Узбекистана и России.*

Задание 2. *Ситуация: Если вы находитесь в России. Ответьте на следующие вопросы:*

1. *Кто я в данной ситуации и как должен себя вести? (при общении со сверстниками, при общении со старшими, в общественном транспорте, в кафе, в парке)*

2. *Какие нормы поведения являются нормальными / ненормальными для моего возраста и менталитета?*

Зарубежные и российские авторы в своих образовательных моделях отразили некоторые вопросы, широко обсуждаемые в научной и научно-методической литературе: применение материалов родной (узбекистанской) культуры при изучении неродной (русской) культуры на уроках неродного (русского) языка.

Таким образом, рассмотренные нами **основные теоретические подходы к взаимосвязанному изучению языка и культуры** являются **структурой лингвистического компонента** и позволяют сделать вывод о том, что при обучении неродному (русскому) языку на этапе школьного образования, необходимо уделять особое внимание пониманию и учету различий окружающей действительности между представителями разных лингвокультур, так как диалог культур является одним из основных принципов взаимосвязанного изучения языка и культуре, направленное на формирование и развитие поликультурной языковой личности школьника. По нашему мнению, взаимосвязанное изучение языка и культуры - это сложное явление, **отражающее взаимодействие языка, культуры и личности.**

Использованная литература:

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Русский язык (Библиотека русского языка как иностранного), 1990. – 246 с.
2. Воробьев В.В. Лингвокультурологические принципы презентации учебного материала (проблема концентризма). Москва: ИРЯ им. Пушкина, 1993. 107 с.
3. Нойнер Г. Роль социокультурной компетентности в преподавании и изучении иностранного языка. - Страсбург: Совет Европы / Совет по культурному сотрудничеству (Комитет по образованию), CC-LANG (94) 2, 1994
4. **Сысоев П.В.** Концепция языкового поликультурного образования (на материале культуроведения США): Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук – Москва, 2004. – 48 с.

5. Фурманова, В. П. Межкультурная коммуникация и культурно-языковая прагматика в теории и практике преподавания иностранных языков: яз. вуз: Дисс. доктора педагогических наук: 13.00.02. - Москва, 1994. - 475 с.
6. Хаймс, Д. (1974). Основы социолингвистики: этнографический подход. Филадельфия: Университет Пенсильвании Press.

O‘QUVCHILARNI G‘AZAL MATNI USTIDA ISHLASHGA O‘RGATISH

**Barno ABDURAHMONOVA,
QDPI dotsenti, p.f.n.
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqola adabiy ta’limda Muqimiy g‘azallari matni ustida ishlash muammosiga bag‘ishlangan. Ma’lumki, adabiyot darsliklaridan Muqimiyning g‘azallari ham o‘rin olgan, biroq shoir asarlarini o‘qib o‘rganish uchun ajratilgan soatlar ko‘lami yetarli emas. Shu sabab mazkur maqolada Muqimiy asarlarini o‘qib o‘rganishda, uning g‘azallarini tahlil qilishda adabiy ta’limdagi uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga jiddiy e’tibor qaratilsa maqsadga erishish oson va samarali bo‘lishi borasida so‘z yuritilgan.

Kalit soz: Muqimiy, bilim, ko‘nikma, g‘azal, tahlil, matn, usul.

Аннотация:

В данной статье рассматривается проблема работы над текстом газелей Мукими в литературном образовании. Известно, что стихи Мукими также входят в учебники литературы, но количества часов, отведенных на чтение и изучение произведений поэта, недостаточно. По этой причине в данной статье утверждается, что цель будет легче и эффективнее, если принципы преемственности и преемственности в литературном образовании будут серьезно восприниматься при изучении произведений Мукими и при анализе его стихов.

Ключевые слова: Мукими, знание, умение, газель, анализ, текст, метод.

Annotation:

This article deals with the problem of working on the text of Muqimi's ghazals in literary education. It is known that Muqimi's poems are also included in the literature textbooks, but the number of hours allocated for reading and studying the works of the poet is not enough. For this reason, this article argues that the goal can be easily and effectively achieved if the principles of continuity and continuity in literary education are taken seriously in the study of Muqimi's works and in the analysis of his poems.

Keywords: Muqimi, knowledge, skill, ghazal, analysis, text, method.

Adabiyot darslarida mumtoz asarlarni, xususan, g‘azallarni tahlil qilish o‘quvchilarning shu sohada olgan bilim, ko‘nikma va malakalariga tayanmasdan turib amalga oshirib bo‘ladigan ish emas. Tahlilga o‘quvchilarni

mumtoz adabiyotning kichik janrlarini o'rganishni boshlagan davridanoq o'rgatib borish zarur. Bunda ularning faqat adabiyot tarixiga oid emas, balki adabiyot nazariyasi, xususan, poetikaga oid bilimlari ham mustahkamlanib boradi.

Adabiyotshunos olim B.To'xliyev g'azal matni ustida ishlashning usullaridan biri matni ifodali o'qish hamda o'quvchiga o'qitish va jadvallar bilan ishlash deb ko'rsatadi. Jadval bilan ishlanganda,- deydi olim: "...o'quvchilarda she'rni faqat bir tomondan emas, balki turli tomondan o'rganish imkoniyati ortadi"[4 50b.] Olimning bu fikrlarini Muqimiy g'azallarini tahlil qilishda ham tadbiq etishni joiz deb bilamiz va darsning birinchi soatidayoq shor g'azallarini o'qish, matn ustida ishlashga o'quvchilar jalb qilinsa ko'zlangan maqsadga erishish oson kechadi.

O'qituvchi bugungi darsda Muqimiy lirikasiga mansub g'azallar tahlil qilinshini, mashg'ulot guruhlarida hamda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlash shaklida tashkillanishi eslatib o'tadi.

Bunda jadval usulini qo'llash yaxshi samara beradi. Bu usul orqali vaqtdan unumli va samarali foydalanilinishga erishiladi. Chunki dasturda shoir asarlarini o'rganish uchun ajratilgan vaqt miqdoriga o'qituvchi diqqatini qaratishi shart. Darslikda berilgan "Arzimni aytay..." g'azali muallim tomonidan ifodali o'qib beriladi. Keyin esa shoir g'azallari yozilgan jadval ko'rinishidagi topshiriqni guruhlardan bir hafar o'quvchi chiqib tanlaydi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini proektorga qaratadi. Unda topshiriq sharti yozilgan bo'ladi. O'qituvchi vazifani bajarish sharti bilan o'quvchilarni tanishtiradi:

1. G'azalni ifodali o'qish.
2. Gazalning mazmunini so'zlash uchun nasriy bayonini amalga oshirish.
3. G'azaldagi foydalanilgan badiiy san'atlarni aniqlash.
4. G'azalning vazn xususiyatini ko'rsatish.

O'quvchilardan birinchi shartni bajarishda, albatta, shoir g'azallarini aruz vazni talablariga rioya qilgan holda ifodali o'qishlari talab qilinadi. Ikkinchi topshiriq shartga ko'ra g'azal mazmunini so'zlab berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar she'riy matni nasriy matnga aylantiradilar, anglaganlarini o'z so'zlari bilan so'zlab beradilar. O'quvchilar topshiriqni quyidagicha bajarishlari mumkin. 1-topshiriq shartiga ko'ra g'azal o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. So'ngra sinfdagi nutqi ravon o'quvchilardan biriga yoki bir nechasiga aruz vazni talablariga rioya qilgan holda qayta o'qitiladi:

Arzimni aytay bodi sabog'a,
Shoyad gapurgay ul gulqabog'a.

Albatta kelsun, holimni so'rsun,
Andisha qilsun, ro'zi jazog'a.

Necha zamondur, ko'zga nihondur,
Har kim yomondur, soldim xudog'a.

Ohim eshitmay, dodimga yetmay,
Bir ta'sir etmay, ketti havog'a.

Mandin chu ohu, ram qildi badxo‘,
Bulkim g‘arazgo‘ tushti arog‘a.

Bo‘ldim fasona, subhi shabona,
Ko‘ksim nishona tiyri jafog‘a.

O‘ zi uyonsun, hajrida qonsun,
Dardig‘a borsun qayda davog‘a.

Bo‘lgay xiromon, boqmay shitobon,
Qilmasin ehson sulton gadog‘a.
Yo‘q zarr-u siymi, lekin samimiy,
Oshiq Muqimiy kelsa duog‘a.

“Arzimni aytay...” g‘azali mavzusiga ko‘ra ishqiy mavzudagi g‘azallaridan biri hisoblanadi. Mazkur g‘azal tuzilishuga ko‘ra yakpora g‘azallar sirasiga kiradi. Shoir gazalda ichki qofiyadan ham mohirlik bilan foydalangan. Bunday g‘azallarga nisbatan g‘azali musajja’ yani mumtoz adabiyotdagi qofiya bilan bog‘liq she’riy san’at asosida yozilgan g‘azal iborasi qo‘llaniladi. “G‘azali musajja’ san’ati asosida yozilgan she’rlarning baytlari hajman teng bo‘lgan to‘rt bo‘lakka bo‘linib, birinchi, ikkinchi, uchinchi bo‘laklar o‘zaro qofiyadosh, to‘rtinchi bo‘lak esa asosiy qofiya bilan ohangdosh bo‘lib, baytga o‘ziga xos ohang, musiqiylik baxsh etadi. G‘azalda quyidagi so‘zlar ichki qofiyani hosil qilgan. Ular chap tomondagi ustunda ko‘rsatilgan.

Misralar ichidagi ohangdosh so‘zlar (Ichki qofiya)	Misralar oxiridagi ohangdosh so‘zlar (Asosiy qofiya)
aytay - gapurgay kelsun-so‘rsin -qilsun nihondur- zamondur- -yomondur ohu- badxo‘- g‘arazgo‘ yonsun- qonsun-borsun fasona-nishona- shabona xiromon- shitobon-ehson zarri siymi-samimiy-Muqimiy	bodi sabog‘a gulqabog‘a ro‘zi jazog‘a soldim xudoga ketti havog‘a tushti arog‘a. tiyri jafog‘a qayda da’vog‘a sulton gadog‘a kelsa duog‘a.

G‘azal oshiqning tongda esgan shamolga arzini aytishi tasviri bilan boshlanadi.

G‘azalning **birinchi baytida** oshiq arzlarini aytish uchun tong shamoli bilan suhbatlashadi. Oshiq shamolga o‘z ahvolini tushuntiradi. Yorini bir kelib xabar olib ketishini aytib qo‘yishini undan iltimos qiladi, hech bo‘lmaganda oshiq bilan gaplashmayotgan ma’shuqasining tong shamoliga yoyinki, gulqaboga (gulli , uzun ko‘ylak) o‘z dardini aytib qolishidan umidvor bo‘ladi.

Ikkinchi baytda Muqimiy, albatta, kelib holimni ko'rsin, meni turmushimdan, yashash tarzidan ya'ni kunimni shu tarzda o'tkazayotganligimdan xabardor bo'lsin. Nasibamda nimaga yozilgan bo'lsa o'shani ko'raman. Xabarchi (tong shamoli) yorimga ro'zi jazoga tortiladigan kun (qiyomat kuni) kelganda nima deb javob berishini yodidan chiqarmasa bo'lganini etkazib qoy. O'sha kundan qo'rqsin.

Uchinchi - to'rtinchi bayt: necha zamonlardan beri ko'zga korinmay, yashirinib yuribdi. Kim yomon bo'lsa, uni xudoga soldim. Oh va dodlarimga quloq ham solmaydi. Qilgan oh va dodlarim havoga uchdi- ketdi, deya xulosa beradi.

Beshinchi va oltinchi baytda oshiq bunday holatning sababini o'zidan axtaradi. Mendan biror ayb ish o'tdimikan-ki, mendan qochib, yashirinib yuradi. Yoki biror yolg'onchi, g'arazgo'y kimsa oramizni buzmoqchi bo'ldimi? Nima bo'lganda ham mening bag'rim tongdan tungacha jafo tig'lariga nishona bo'ldi. Hammaga gap-so'z ya'ni, afsona boldim,-deydi. Shoit tong va tun (subh-shabona) so'zlaridagi ma'no zidligidan foydalanib, tazod badiiy tasvir vositasini ishlatgan.

Yettinchi va sakkizinchi baytlarda shoir oshiqning ruhiy holatini tasvirlab, mayli, meni hijron va ayriliqda qoldirib ko'ngli to'lsin. Qilgan ishlarini o'zi bilarmikan, g'aflat uyqusidan uyg'onsin. So'ngra ahvolini tushunsin. Mayli, o'zini har tomonga olib qochaversin. Bizga qaramasdan yurish o'ziga ma'qul bo'lsa yuraversin. Axir, qachon sulton gadoning ahvolidan xabardor bo'lgan, uning holiga boqqan,-deb o'zini gadoga, yorini sultonga o'xshatish orqali sulton va gado jumllarini bir-biriga zid qo'yish bilan tazodni hosil qiladi.

To'qqizinchi baytda Muqimiy shaxsiyati ochib berilgan. Hayotiy xulosalari berilgan. Shoir yori insofga kelib, agarda, uning oldiga kelsa, oltin-u kumushi yo'qligidan yorini ogohlantirad, biroq samimiy muhabbati hamda yaxshi tilaklari-y va uzundan uzun duolari borligini ta'kidlaydi.

Navbatdagi topshiriq o'quvchilarga eslatiladi. Har uchchala guruh ham "Arzimni aytay..." g'azali matni ustida ishlaydi. Uchinchi topshiriq shartiga ko'ra, o'quvchilar g'azalda qo'llanilgan badiiy san'atlarini aniqlaydilar va izohlaydilar. Bunda qiyosiy metodidan foydalanadilar. Qiyosiy metod –ikki yoki undan ortiq narsa-hodisalarni o'zaro qiyoslab, ularning o'xshash hamda farqlari tomonlari, bularni keltirib chiqargan omillarni aniqlash orqali muayyan ilmiy xulosa va umumlashmalar chiqarishdan iboratdir. Bunda asar bilan boshqa bir asar, bir janrda yaratilgan asarlar ham o'zaro qiyoslanadi. Muqimiyning mazkur g'azalini Huvaydoning hamda Mashrabning aynan shu mavzuda yozilgan g'azallari bilan qiyoslash o'quvchilarni tanqidiy tafakkurlashga o'rgatadi.

1-o'quvchi javobi: Muqimiy ushbu g'azalida mumtoz dabiyotimizdagi an'anaviy obrazlardan bo'lgan shamol obrazidan mohirlik bilan foydalangan, Har ikki shoir ham tong shamoliga dardini to'kib soladi:

Arzimni aytay bodi sabog'a,

Shoyad gapurgay ul gulqabog'a,-

Muqimiy dil izhorlarini, dardini shamol orqali aytishni ma'qul ko'radi. Shamolni gapirtirish orqali tashxis badiiy tasvir vositasini qo'llaydi.

Huvaydo ham o‘z g‘azalining birinchi baytida shamol obrazini qo‘llaydi U o‘z dardlarini shamolga aytib bo‘ldi. Ahvolini borib o‘sha dilrabo yoriga yetkazib qo‘yish qolgan, xolos:

Arzimni aydim bodi sabog‘a,
Yetkursa holim ul dilrabog‘a,-

2-o‘quvchi javobi:Bo‘lgay xiromon, boqmay shitobon,
Qilmasin ehson sulton gadog‘a.

Mazkur misralarda shoir insonning qadr-qimmatini yo‘qligidan, muhabbatning qadrsiz ekanligidan zorlanadi. Baytda bir-birifa qarama-qarshi ishlatiladigan sulton va gado so‘zlarini qo‘llash bilan tazod san‘niga murojaat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

3-o‘quvchi javobi: g‘azal maqtasidagi fikrlar oshiq ahvolining (lirik qahramon) nochorligini, g‘aribligini ifoda etishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Yo‘q zarr-u siymi, lekin samimiy,
Oshiq Muqimiy kelsa duog‘a.

Shoir oltin, kumush-boylikni bir misrada keltirib tanosub hamda ularni samimiylikka qarshi qo‘yib tazod san‘atini qo‘llagan. Mumtoz adabiyotni o‘rganish she‘r san‘atlari bilan chambarchas bog‘liq holda olib borilishi kerak. Mumtoz adabiyotimiz uchun she‘r san‘atlari favqulodda katta ahamiyat kasb etadi. Ayrim she‘r san‘atlari matnning butun va mukammalligini ham ta‘min etib turadi. O‘quvchilar g‘azal matnidagi badiiy san‘atlarni quyidagicha yozib chiqadilar.

Tashbeh:

Tazod:

Tashxis:

Mazkur badiiy san‘atlar g‘azalning nechanchi baytida qo‘llanilgan? Mazkur badiiy tasvir vositasining bayt mazmunini to‘la va mukammal tushunishdagi ahamiyatini aniq misollar yordamida tushuntirib bering kabi savollar beriladi. O‘quvchilarning javoblari o‘qituvchi tomonidan xulosalanadi, kerakli o‘rinlar to‘ldiriladi.

4-o‘quvchi javobi g‘azal vaznini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, quyidagilarni aytib o‘tadi. Muqimiyning mazkur g‘azali aruzning mutaqoribi musammani aslam bahrida yozilgan. Rukni: fa‘lun, fauvlun, fa‘lun, fauvlun bo‘lib taqte‘si quyidagicha:

- - | V - - | - - | V - -

Shunga asoslanib, o‘quvchi g‘azal baytlaridan birining vaznini topadi:

Yo‘q zar- |ru siy-mi,| le-kin | sa-mi-miy,

- - |V - - | - - | V - -

Fa’ lun |fa-uv-lun | fa’-lun | fa-uv-lun

O-shiq |Mu-qi-miy | kel- sa |du- o- g‘a.

- - | V - - | - - | V - -

Fa’-lun| fa-uv-lun | fa’-lun| fa-uv-lun

Bo‘l-dim| fa-so-na |, sub-hi| sha-bo-na,

- - | V - - | - - | V - -

Fa’-lun | fa-uv-lun| fa’-lun, | fa-uv-lun

Ko‘k-sim| ni-sho-na| tiy-ri | ja-fo-g‘a.

- - | V - - | - - | V - -

Fa’-lun | fa-uv-lun| fa’-lun| fa-uv-lun

Uyga vazifa qilib, g‘azalning bir baytini tanlab olib, paradigmasini chizish vazifasi topshiriladi. Bunda jadval usulidan foydalanishlari eslatib o‘tiladi.

Fa’	lun	Fa	uv	lun	Fa’	lun	Fa	uv	lun
–	–	V	–	–	–	–	V	–	–
Fa’	lun	Fa	uv	lun	Fa’	lun	Fa	uv	lun
–	–	V	–	–	–	–	V	–	–

Ayrim o‘quvchilar misradagi so‘zlarning hijolari o cho‘ziq unlisi bilan yoki a unlisi bilan tugaganligi sababli bu hijolarni qisqa ba‘zan cho‘ziq hijo sifatida kelishini bilmasliklari mumkin. Albatta, bunda B.To‘xliyev aytganidek; “...o‘qituvchining ko‘magi bolalarga kerak bo‘ladi. O‘qituvchi shu holatning sababini tushuntirib bersa, o‘quvchi keyingi jarayonlardagi mashqlarni qiynalmay bajaradigan bo‘ladi” [4, 59].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati.T.: Akademnashr. 2010.
2. Ro‘ziyeva D. Interfaol metodlar:mohiyati va qo‘llanishi. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2013.
3. To‘xliyev B, Mirsamiqova R, Ametova O. Adabiyot (majmua) II kitob.T.: BAYOZ MChJ.-2018.
4. To‘xliyev B., Ashurova G.Ta‘lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish.T.:BAYOZ MChJ.-2017.
5. To‘xliyev B. Mutaxassislik fanlari o‘qitish metodikasi.T.: -2010.
6. Zohidova D. Aruz saboqlari.T.:Mumtoz so‘z.-2016.

MUHAMMADSHARIF GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDA MAQOL VA BADIY TAFAKKUR MASALASI

Yo‘ldosh RAHMATOV,
filologiya fanlari nomzodi,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitining taniqli vakili Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida bahs yuritiladi. Maqolada shoirning badiiy tafakkuri va xalq maqollariga munosabati o‘rganiladi. “Zarbulmasal”da keltirilgan xalq

maqollaridagi kinoyalar yordamida XVII-XVIII asrlarda Qo‘qon xonligining ijtimoiy hayoti va mavjud feodal tuzumining kamchiliklari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, ijtimoiy tuzum, feodal, gap, badiiy tafakkur, tashbeh, tazkira, zullisonayn, mahorat, talqin.

Аннотация

В данной статье рассматривается «Зарбулмасал» Гюльхани известного представителя кокандской литературной общности. В статье исследуется художественное мышление поэта и его отношение к народным пословицам. Сарказм народных пословиц в «Зарбулмасале» раскрывает общественную жизнь Кокандского ханства в XVII-XVIII веках и недостатки существовавшего феодального строя.

Ключевые слова: Кокандское ханство, общественный строй, феодализм, речь, художественное мышление, метафора, tazkira, зуллисонайн, мастерство, интерпретация.

Annotation

This article discusses "Zarbulmasal" by Gulkhani, a well-known representative of the Kokand literary community. The article explores the artistic thinking of the poet and his attitude to folk proverbs. The sarcasm of folk proverbs in Zarbulmasal reveals the social life of the Kokand Khanate in the 17th-18th centuries and the shortcomings of the existing feudal system.

Key words: Kokand Khanate, social system, feudalism, speech, artistic thinking, metaphor, tazkira, zullisonayn, skill, interpretation.

Bugungi kun ilmida olamni idrok etish va tasvirlashda milliy tafakkurning o‘rni asosiy mezon qilinayotgani sir emas. Ayni damda bu, olamni bilishning eng to‘g‘ri usli va mezoni sanaladi. Chunki inson aqli va dunyoqarashi uni o‘rab turgan olami, u yashayotgan makon-zamoni, fauna va florasi o‘laroq shakllanadi. Bu haqda tilshunos D.Xudoyberganova shunday deydi: “Til vositasida olamni idrok etish va tasvirlashda o‘zbek milliy tafakkurining o‘rnini aniqlash asosiy mezon bo‘lmog‘i lozim. Bu esa tilimizning ichki – o‘zbek tili sohiblarining milliy idrok tarzi, ruhiyati, dunyoqarashi kabi omillar bilan daxldor jihatlarni tadqiq etishni taqozo qiladi” [6.7]. Darhaqiqat, o‘zbeklarga xos milliy idrok, ruhiyat va dunyoqarashga teran yondashish o‘zbek fenomeniga xos aqliy va ruhiy tafakkurini yorqinroq ochib berishga xizmat qiladi. Millat tafakkurning ko‘rinishlari uning og‘zaki va yozma adabiyotida, amaliy va ijodiy san’atida o‘z aksini topgan. Milliy tafakkur tadrijini uning og‘zaki va yozma adabiyotida yaratilgan asarlardagi ijtimoiy tuzum, jamiyat va madaniyatga munosabatdan aniqlash mumkin. Tarixiy-ijtimoiy hayot tarzi hamisha bir tekis kechmagan. Xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti birda gullab yashnagan bo‘lsa, birda turg‘un qoloq holatga tushib qolgan. Buning asosiy sababi milliy tafakkur va milliy g‘ururning pasayishi, jamiyat va xalqning o‘zaro bo‘linishi, kishilarning nisbatan tabaqalarga ajralishidir. Bunday paytlarda xalq orasidan etishib chiqqan iste’dodlar isyon ko‘taradi, xalqni, millatni jaholat botqog‘idan olib chiqishga harakat qiladilar. Xuddi shunday xalqning fidokor shoirlaridan biri XIX asr Qo‘qon adabiy muhitining yorqin namoyandasi Muhammadsharif Gulxaniydir. U XIX asr Qo‘qon xonligi ijtimoiy-siyosiy

hayotiga munosabati o‘laroq adabiy-allegorik “Zarbulmasal” asarini yaratgan. Shoir ijtimoiy nosozlikni fosh qilish va mavjud tuzumning kamchiliklarini ko‘rsatish maqsadida. Xalqning o‘z tili bilan o‘z hayoti va turmush tarzini badiiy ifoda etishga harakat qilgan. Uning bosh maqsadi feodal tuzmdan ezilgan xalqning nochor ahvolini o‘ziga oyina qilib ko‘rsatish va ijtimoiy hayotdagi muammolarga echim topish edi. Shoir muammolarning echimini topishda xalqning asrlar davomida yaratilgan va donolikning mag‘zi sanalgan maqol va masallarga tayangan. Maqol va masallarning kinoyaviy-kesatiq mazmunidan foydalanib dabdabaga berilgan xonlik jamiyati va xalqning real og‘ir hayotini ko‘rsatishga uringan.

“Zarbulmasal”da eng ko‘p qo‘llangan og‘zaki ijod namunasi maqol bo‘lib, u asar syujeti jarayonida, personajlar nutqida o‘zaro suhbat asnosida qo‘llanadi. Adib asar tarkibida maqol va masallarni qo‘llashdan ikki maqsadni ko‘zlaydi:

1. Maqollar va masallardagi majoziy ma‘no ifodasi orqali sinfiy tuzumga shaxsiy va omma munosabatini ifodalash, ya‘ni Amir Umarxon saltanati davrida xalq hayoti va xalqning turmush tarziga tanqidiy nazar tashlash va ijtimoiy hayot va feodal tuzumni baholash.

2. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanib, original badiiy asar yaratish barobarida o‘sha davr xalq ijodida mavjud maqol va masallarni jamlash, ularni keyingi avlodlarga beshkast etkazish.

Gulhaniy ko‘zlagan har ikki maqsadini ham to‘laqonli bajara olgan. Aslida “Zarbulmasal”dagi majoziy obrazlar: Malikshohin, Yapaloqqush, Ko‘rqush, Boyo‘g‘li, Hudhud, Kordon, Kuykunak, Sho‘ranul, Turumtoy, Kulonkir va Gunashbonular XVIII-XIX asrda yashagan ijtimoiy jamiyat vakillarining qiyofadoshi bo‘lib ular Qo‘qon xonligining yuqori tabaqa kishilari sanaladi.

Olimxon davrida ancha izdan chiqqan Qo‘qon xonligining ijtimoiy tuzumi Amir Umarxon davrida ancha o‘nglandi. Umarxon dastlab mamlakatda osoyishtalik va farovonlikni tashkil qilish maqsadida islohotlar o‘tkazadi. Atrofiga ziyoli va ijodkor kishilarni jalb qiladi. “Umarxon farmoyishiga ko‘ra, diniy hayotda ham qator islohotlar qilindi. U Olimxon zulmidan qochib, qo‘shni mamlakatlarga ketib qolgan bir qancha ulamo va fuzalo hamda taniqli ziyolilarni Qo‘qonga qaytardi”[5.11]. Ko‘rinadiki, Gulxaniy kabi miskin shoirlar ijodiga ham shu davrda e‘tibor qaratiladi va uning “Zarbulmasal” asarining yuzaga kelishida imkon tug‘iladi. “Gulxaniy saroy aristokratiyasi bilan kelisha olmadi. Mehnat ahlining og‘ir, mashaqqatli hayoti uning ko‘zini ochdi. Lekin shoir hukmron doiralardan noroziligini ochiq ifodalay olmas edi. Shuning chun u allegorik asar yozishga jazm qildi”[1.24]. Asar, avvalo, majoziy-alegorik xarakterga ega bo‘lib, undagi timsollarning hammasi real hayotdagi aniq kishilar prototipidir.

Shoir mazkur hayotiy allegorik timsollarning xarakterini yaratishda, ularning dunyoqarashi va jamiyatdagi mavqeyiga qarab, asardagi nutqida maqol qo‘llaydi. Obrazlar nutqida qo‘llanayotgan maqol bejiz emas, maqol mazmuni va mohiyatiga qaralsa, shoirning asl maqsadi ochila boradi.

Asardagi daslabki maqollar Gunashbonu va uning onasi orasidagi suhbatda qo‘llanadi: “To bahaddeki alomati bulug‘ zohir bo‘lub, tishi chiqib, ko‘zi suzilib, onasining to‘g‘ri so‘zlaganiga egri so‘zlay boshladi. Onasi qabzlanib aytikim:

– Ey bolam, ko‘nglingiz er tilar o‘xshar, oshuqmang. “Oshuqg‘on qiz erga borsa, yorchimas va teshuk munchoq yerda qolmas”, -der erdi”[3.4].

Ko‘rinadiki, zamon nosoz, mamlakatning ertasi bo‘lgan yoshlar axloqi izdan chiqqan, bu adibning xavotirga soladi. Yaxshi tarbiya ko‘rmagan, hokimiyat sari shoshilgan yoshlarning qo‘lida qolgan mamlakat ahvoli ne kechishi, albatta, shoirni iztirobga solishi tabiiy hol. Gunashbonu nutqida qo‘llangan “Po‘lat pichoq qinsiz qolmas”, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topilar” maqollari yoshlarning o‘zi bo‘larchilikka yo‘l qo‘yishi va masuliyatsizligini ko‘rsatadi. Yoki mazkur maqollar orqali Gulxaniy zamonasidagi “haybarakallachi” shaxslarni fosh qilmoqchi bo‘ladi.

Navbatdagi maqol Yapaloqqush va Ko‘rqush suhbatidagi “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur” maqoli sanaladi. Bu maqol asarda Ko‘rqushning Yapaloqqush va Boyqushning o‘zaro mavqe jihatdan teng emasligi aytish uchun qo‘llanadi. Biroq, maqolning tagma‘nosida Olimxon hukimronlik qilayotgan Qo‘qon xonligining siyosiy-iqtisodiy ahvoli fosh qilinadi. Ya‘niki, “o‘zini xon atab, aholiga zulm qilgan va xalq nafratiga sazavor hukmdorning, xalq turmushini nochor ahvolga keltirib, yurtni xarobazorga aylantirgan podshoh nimasi bilan maqtanadi, demak, maqtanishiga arzigulik narsasi yo‘qmi, chopilishga mahkum. Maqol zamiridagi “chopilish” so‘zida Olimxonga qilingan suyuqasdgga ishora bor.

Yozuvchi A.Qahhor ta‘kidlaganidek: “Adabiyot atomdan kuchli, uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”, hamma zamonlarda ham ijodkorlar badiiy so‘z vositasida davr, ijtimoiy tuzum imkoniyat bermagan haqiqatlarni aytishga, xalq dardini ifodalashga harakat qilishgan. Buning uchun ular so‘zning badiiy funksiyasidan mahorat bilan foydalanishlari va “kosa tagida nimkosa” usulidan foydalanishlarini ham yaxshi bilamiz. Ijodkordagi bunday ijtimoiy norozilik kayfiyati turli xil ramz, majoz, simvollar orqali voqelanadi. Ko‘p hollarda badiiy asar tarkibida maqollar ayni shu maqsad uchun xizmat qiladi. Gulhaniyning “Zarbulmasali”da maqsadli tarzda qo‘llangan maqollar fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Shu o‘rinda Ko‘rqush keltirgan maqollarning keyingilariga e‘tibor qaratamiz: “Boyo‘g‘lining og‘zuning burchidin chiqor: “Ming chordevor qizimning qalini”, deb. Holo... podshohimiz... Umarxon... zamonlarida... bir bo‘sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim, aytmishlar: “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdin qattig‘”. Yana aytmishlar: “Ermon yog‘ochning egilgani - singani, er yigitning uyalgani - o‘lgani”...”[3.5]. Bu o‘rinda o‘zaro ma‘nosi bir biriga yaqin bo‘lgan uch maqol qator keltiriladi. Xo‘sh nega?! Shoir maqsadini bilish va maqol vazifasini aniqlashga harakat qilib ko‘ramiz.

Dastlabki “Yolg‘on masal turmas” maqoli to‘liq kinoya va ironiyaga asoslanadi. Bizningcha, Olimxon davrida nochor ahvolda bo‘lgan Qo‘qon qisqa bir muddatda Umarxon davrida kelib “jannatmakonga” aylanishi shubhali, qolaversa, Po‘latjon domla Qayyumovning “Tazkirayi Qayumiy” asariga e‘tibor qaratilsa, Gulxaniy hayoti Amir Umarxon davrida ham o‘nglanmagani ma‘lum bo‘ladi. “Adabiy mashg‘ulot Muhammad Sharifda g‘olib ekani ko‘rinadir. G‘azal, muxammaslarigina emas, uning yozgan “Zarbulmasal” nomli kitobi o‘lmas bir asar bo‘lib qoladi. Juda ustalik ila feodalizim davrining adolatsizligi to‘g‘risida

qissaning qushlar tilida maroqli latifalar ila bayon etadi. Saroydagi Afsus, Ma'yus, Ado kabi aristokrat to'ralar Ma'dan, G'oziyarga o'rin bermay, xon atrofini o'raganlar, albatta, oddiy yuzboshilik mansabiga ham bora olmagan kishining o'z atroflarida ko'rarmidilar"[4.138]. Demak, adib bu maqol orqali Amir Umarxon davrida har qancha adolatli ishlar qilingani bilan, o'zining, qolaversa, xalqning ahvoli o'nnglanib qolmaganiga ishora qiladi va maqtovlarning yolg'on ekanligini fosh etadi. Holbuki, bu fikrimizning to'g'riligini keyingi "Uyat o'limdan qattig'" maqoli tasdiqlaydi. Bu maqolda ham aks ma'no qo'llanadi, ya'ni bir avloddan bo'lgan xonlarning qisqa muddatda mamlakatni "gulistonga" aylantirilishi mubolag'adan o'zga narsa emas, bunday demoqqa avvalo uyalmog' zarur edi. Biroq amir atrofini o'ragan maddoh arkoni davlat uni shu sohta shuhratga ishon tirganlar. Zero adib "Ermon yog'ochning egilgani - singani, er yigitning uyalgani - o'lgani" maqolini ham bejiz qo'llamaydi. Keyingi maqollar ham ijtimoiy-siyosiy hayotga xos kamchilik va sohtaliklarni fosh qila boradi. Jumladan, "Anda Yapaloqqush aytdi: "Men sizni bilimlik va ma'ndin boxabar kishi fahmlab erdim, "Karnay misdin, balg'am isdin" bo'lurini bilmas ekansiz" jumlasida qo'llangan nihoyatda nozik muammoga ishora qilinadi. "Ashtarxoniylar hukumronligi yillarining so'ngi bosqichida markaziy hokimiyat zaiflashib, viloyatlardagi boshboshdoqlik kuchayib ketdi. Qo'qon xonligi deb bilgan siyosiy birlik aslida xuddi shu omil - markazning kuchsizlanishi, joylardagi vaziyatni o'z izmida tuta olmaganligi natijasida yuzaga kelgan... Qo'qon xonligining mavqeyi ayniqsa Olimxon (1798-1810) zamonida yuksaldi. Avvalo mazkur hukmdor xonlik maqomini qabul qilgani bilan mashhurdir"[2.290]. Ming urug'idan bo'lgan hukmdorlar Farg'onani qo'lga kiritgach, Olimxon davrida bu tuzumga soxta xonlik rutbasi beriladi. Holbuki, xonlik rutbasining o'ziga xos qonuniyatlari mavjud bo'lib, vaqtida ching'izxonlarni mag'lub qilgan Amir Temur ham jur'at etolmagan maqomga, Olimxonning o'zini "xon" atashi xalq g'ashiga tegadi. Bu soxta "xon"ni xalq hech qachon tan olmaydi. Maqolda aynan mana shu sohtakashlikka ishora mavjuddek ko'rinadi. Ya'ni "Karnay misdin, balg'am isdin", karnay har qancha ko'kka qarab o'rlagani bilan, oddiy qiymatsiz mato, misdan ekanligiga kinoya qilinadi. Yana Yapaloqqush ham Ko'rqushga dakki berib, "Ko'r tutganin qo'ymas, kar eshitganini qo'ymas", deyish orqali uning nomi Boyo'g'li bo'lgani bilan asli tashlandiq xarobazor egasi ekanligi uqtiriladi. Bu ham yuqoridagi fikrimiz uchun asos bo'ladi. Keyingi keltirilgan maqollarda ham Qo'qon xonligidagi davlat tuzimining sun'iy ravishda buzulishlari, hukmdor bo'la turib o'z vazifalarini chuqur bilmasliklari ortida mamlakatning kun sayin tanazzulga yuz tutib borishi xalqona usulda ochib boriladi. "Dala-tuzni suv olsa, qo'ngir g'ozning to'shidin, quloqsizga so'z aytsang, qulog'ining toshidin", "Teng-tengi bilan tezak qopi bilan", "Borlikdin maqtanma", "Maqtangan qiz to'yda uyalar", "O'zini maqtog'on, o'limning qorovuli", "Oyni etak birla yashursa bo'lurmu?", "Chumchuq semursa, botmon bo'lurmu?", "Ola ko'zanak ola bo'lsa ham, arslon bo'lmas, ola to'g'anoq olg'ur bo'lsa ham ahvoli ma'lum"[3.6], maqollari ham "xonlik" maqomining Olimxon tomonidan buzilishiga kinoya qiladi. Olimxonning fitna qurboni bo'lishiga ham mana shu maqomning buzganligi bo'lishi ehtimoldan xoli emas, holbuki, uning o'rnida taxtga chiqqan ukasi Umarxon o'zini "xon"

emas, balki “amir” deb atashi bejiz emas edi. Gulxaniy voqealar tizmasida keltiradigan “Echkining oti Abdukarim”, “Ebi bilan so‘zlaganning qurboni bo‘l”, “Qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, og‘a bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur”, “Chuchvarani xom sanabsan”, “Otasi urmas qo‘ng‘izni, bolasi urar to‘ng‘izni”, “Holva degan bilan og‘iz chuchimas”[3.6] maqollarida ham ayni shu buzilgan haqiqatga qarshi xalq isyoni yashirinadi.

Gulhaniyning fikricha, har ishda sabr yaxshi, biroq zulmga, jabr va sitimga sabr qilish xo‘rlik hisobladi. Oddiy xalqqa hamisha diniy ulamolar ham, boy-zodagonlar ham har qanday ishga sabr qilish va sabr bilan kutishni uqtiradi. Hatto “Qur‘oni karim”da ham ko‘p bor sabrli bo‘lishga undaliniladi. Jumladan, “Qur‘oni karim”ning “Hud” surasi 11-oyatida shunday bitilgan: “Magar sabr qilganlar va yaxshi amallar qilganlar, ana o‘shalarga mag‘firat va katta ajr bor”, ko‘rinadiki sabr inson uchun eng go‘zal fazilatlardan, biroq nohaqlikka, adolatsizlik va razolatga sabr qilishni Olloh ham qo‘llamaydi. Shu o‘rinda Ko‘rqush va Yapaloqqushning sabr haqidagi suhbatga e‘tibor qaratamiz. “Anda Yapaloqqush aytdikim: “Ori, balog‘a sabr, qazog‘a rozi bo‘lmoqdin o‘zga choram yo‘q. Lekin sabrning joyi bilan huzn va anduhdin bo‘lak nimarsasi yo‘q. Sabr qilib, yaxshi ish qo‘ldin ketsa, o‘xshamas...”[3.6] To‘g‘ri, Ollohning balosi va qazosiga bandasining sabrdan o‘zga chorasini yo‘q, biroq shoir kishining nohaqlik va adolatsizlik qilinayotgan joyda sabrli bo‘lishi ham uning xo‘rlanishiga olib keladi degan xulosaga keladi. Shuning uchun ham xalq orasidagi “Sabr qilib, yaxshi ish qo‘ldin ketsa, o‘xshamas” maqolini keltiradi.

Xullas, Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari XIX asrning ijtimoiy-siyosiy hayoti va o‘zbek xalqining maishiy hayotini o‘rganish uchun nihoyatda muhim manbalardan biridir.

Asar allegorik xarakterga ega bo‘lib, XIX asrda yashagan va bevosita Qo‘qon xonligini idora etgan hukmron doira vakllarining prototipi sifatida yaratilgan ularning xalqqa qilgan zulm va adolatsizligi fosh etilgan.

Asarda XIX asrda qo‘llangan xalq orasida faol ishlatilgan to‘rt yuzga yaqin maqol va masallardan foydalanilgan bo‘lib, shoirning ijtimoiy hayotga o‘zi va xalq ommasining munosabatini bildirishga xizmat qilgan.

Shoir xalq maqollaridagi tagma‘nodan foydalanib, Qo‘qon xonligida sodir bo‘layotgan adolatsizlik, erksizlik va xalqning nochor axvolidan shikoyat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. - Т.: “Ўқитувчи”, 1980.
2. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. - Т.: “Шарк”, 2001.
3. Гулханий. Зарбулмасал. “Ўқитувчи”. Т. 1972.
4. Қаюмов П.Д. Тазкирайи қаюмий. Уч томлик. 1-китоб. - Т.: “ЎзРФА Қўлёзмалар тахририй нашриёт бўлими”, 1999.
5. Худойберганова Д. Тил, тафаккур, маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020.
6. Қобилова З. Муҳаббат мамлакатининг амири./ Амирий. Девон. - Т.: “Тамаддун”, 2017.
7. Ўзбек халқ мақоллари. II томлик – Тошкент: Фан, 1987-88.

HAMZA MAKTUBLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

**Azimjon DAVRONOV,
Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU
Amaliy filologiya kafedrası katta o'qituvchisi
(O'zbekiston)**

Annotatsiya

Ushbu maqola 1908-yilda Namangan madrasalaridan birida o'qigan Hamza Hakimzoda Niyoziyning otasi Ibn Yaminga yozgan maktublarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga bag'ishlangan. Hamzaning ushbu maktublari yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Аннотация

Данная статья посвящена воспитательному значению и содержанию писем к своему отцу Ибн Ямину Хамзы Хакимзаде Ниязи, обучавшегося в одном из медресе Намангана в 1908 году. Эти письма Хамзы имеют особое значение в воспитании молодежи в духе просвещения.

Annotation

This article is devoted to the educational value and content of the letter to his father Ibn Yamin Khamza Khakimzade Niyazi, who studied in one of the madrasas of Namangan in 1908. These letters of Khamza are of particular importance in the education of youth in the spirit of enlightenment.

“...Boqiy kaminaning arzi shulkim, janobi domla xizmatlarida muqimu mustaqimdurman. Bir dars “Shamsiya” dan va bir dars “Sharhi mullo” dan o'qib turibman. Umid qilamanki, janobi mavloyimning duolari sharofatila ajab emaski, xudoi taborak va taqaddas bu kaminaga ham andak fahm ato qilg'ay. Inshoolo, umid qilamanki, bir xat menga ravona qilsalar, toki xotirjam bo'lib harakat qilsam, albatta. So'ngra akam ba'zi bir kitoblarni “Kalomullo”, “Muharram afandi”, “Sharhi mullo”, “Muxtasari viqoya”, “Sharhi Abdullo”, “Qofiya”, “Sharhi harakat” daftarcha va bir karta lozim. Shularni yuborsalar, deb iltimos qildim... Nuri chashmingiz mullo Hamza”⁷⁵

Mazkur maktub Hamza Hakimzoda Niyoziyning otasiga yo'llagan maktublardan biri bo'lib, yozgan xatlarining deyarli har birida u o'zini bebaxt, bechora, befahm, iqbolsiz, gumroh, noqobil deb tasvirlaydi. Otasidan har besh vaqt namozida uni duo qilishini, padari buzrukvori duolari ta'sirida baxtu-iqbolli, fahm-farosatli bo'la olishini aytishni kanda qilmaydi.

Ko'rinmoqdaki, o'quv darsliklari va ilmiy manbalarda asosan o'zbek dramaturgiyasining asoschisi, ulug' shoir sifatida qayd etib kelinadigan Hamza Hakimzoda Niyoziy dastlab shoir yoki yozuvchi, dramaturg yoki kompozitor bo'lishni hayoliga ham keltirmagan. 1905-1906-yillarga kelib Sharq mumtoz adabiyotlaridan ilhomlanib, sevgi-muhabbat mavzusida she'rlar yozgan. Uning bu turkumdagi she'rlari “Devoni Nihoniy” asariga ham kiritilgan

⁷⁵ X.X.Niёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил, 328-бет.

bo‘lib, shoirning ijodan bo‘lak hayotidagi asosiy maqsad va intilishlari esa oliy darajadagi diniy ma‘lumotga ega bo‘lishga qaratilgan edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1908-1909-yillarda bu niyatni amalga oshirish, ya‘ni diniy ilmni mukammal egallash maqsadida Namangan madrasalarida tahsil olgan. Pochta, telefon, telegraf kabi aloqa vositalari bo‘lmaganligi sababli Namangandan otasiga tez-tez maktublar yozib turgan. Maktublar, Namangan va Qo‘qon shaharlari o‘rtasida savdo-sotiq ishlari bilan qatnab yuruvchi aravakashlar orqali yuborilgan.

Bo‘lg‘usi shoir otasiga yuborgan maktublaridan birida shunday yozadi: “...Nuri chashmingiz Namangan baldasida istiqomat qilib, ilm talabida janoblarining duosi bilan mashg‘ul bo‘lib yuribman. Umid qilamanki, janoblari ham besh vaqt namoz vaqtida duo bilan eslasinlar. Zora janoblarining duolari sharofati bilan yaratuvchi o‘zining lutfu karami bila bu bechoralarni ham o‘z maqsadlariga yetkazsa, ajab emas, omin...”⁷⁶.

Ushbu maktub mazmunidan ko‘rinadiki, Hamza 19-20-yoshlarida doimiy ravishda ibodatda yurgan. Har o‘qigan namozida ota-onasi haqiga duo qilgan va o‘z navbatida otasidan ham duo qilib turishini so‘ragan. Shu bilan birga barcha maktublarida otasiga nisbatan yuksak hurmat va ehtiromini ifodalab kelgan. Bu esa Hamzaning ota-ona tarbiyasiga e‘tibori, ehtiromidan dalolat berish bilan birga uning mustahkam diniy e‘tiqodli mo‘min-musulmon bo‘lganini bildiradi.

Yuqoridagi maktub davomida yana shunday satrlar bor: “Tabarruk maktubingizni mutolaa qilib shuni bildimki, bundan oldingi xatim sizga yetib bormapti, qaytib keldi. Sababi shuki, Obidillo maxsum muharram oyining to‘rtinchisida akamullo eshonqoriga bir xat yuborgan ekanlar hamda 3 so‘m pul, kitobxonadan 3-4 ta kitob yuborsin degan ekanlar. Akamiz bir “Shifohiya” nom kitob, avvalgi juz‘i, keyingi juz‘i, yana 3 ta “Qavonayn” olib, xaritani ichiga solib yuborgan edilar, kelib tegdi. Xaritani ichidan omonatni olib berdim, ochib ko‘rib: “Ichida xati ham bormi?”,-deb so‘radilar. Harchand qidirdik – xat yo‘q ekan. Soniyan, (ikkinchidan yoki so‘ng) pulini hisoblab aytdilarki, “Puli 3 tanga bir miri ko‘p bo‘libti. Isroil qorining xat yozmaganining sababi nimada ekan?”-deb, chiqib ketdilar. Uch kundan keyin yana kelib aytdilarki, “Isroil qoridan xat keldi”,-deb qo‘linga bir xat berdilar, ochdim, ko‘rsamki, akamning xati. Mazmuni buki, “Obidillo maxsum ma‘lumingiz o‘lsunki, mazkur kitoblardan 3 tanga, bir miri qolgan, bir dona xat bilan mulla Hamzaxonni xaritasi (posilka-jo‘natma)ni ichiga solib yuborib erdim, yo‘qlab oling, ikkinchi shulki, man savdogarchilik ko‘chasidan bexabarroqdurman, sohib ixtiyor o‘zingiz. Xullas, Obidillo maxsum: “Isroil qori yuborgan pul ila xat qani”,-deb so‘radilar, hayron bo‘ldim. Shunchalik o‘sal bo‘ldimki, maxsumning oldida bunday hayotdan o‘lim afzal bo‘lib qoldi. Bu nima gap?! Xaritaning ichida na pul va na xat bor. Yubormagan narsalarini “maxsum yubordim”,-deb xat yozib, musofirlikda dilimni qop-qora qildilar. Men Eshonqori haqqiga nima

⁷⁶ X.Х.Ниёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил, 325-бет.

yomonlik qilgan edimki, bu bemazaliklarni mening haqqimga ravo ko‘radilar. Shu sababdan hayron bo‘lib maxsumga aytdim menga na xat va na pul keldi, deb. Bu hafta xat yozib, qiblagohdan so‘rayman, deb zo‘rg‘a uzr so‘radim. Menga hech narsa kelgan emas. Haqiqatni so‘rang, bir xat yozib, haqiqatini yozsinlar, (nega yolg‘on yozganini tushuntirsinlar,-demoqchi. – D.A) toki men xijolatlikdan chiqayin. Jon qiblagohim”. Duogo‘yingiz mulla Hamza⁷⁷.

Maktubning davomidan anglash mumkinki, Hamza musofirlikda kambag‘allikda kun ko‘rgan. Arzimagan 3 tanga bir miri pul uni katta tashvishga solgan. Haqiqat, adolat, rostgo‘ylik, or-nomus masalalarining ustuvorligi Hamza shaxsiyatiga xos bo‘lgan xususiyatlardandir. Bu xususiyatlar uning qay darajada tarbiya topganini xarakterlaydi.

Mazkur xatlarning har birida otasiga quyidagi so‘zlar takror-takror aytiladi: “Olloh mangu. Janobi qiblagohimni Ollohu taollo ikki dunyoda salomat qilib, umringizni va iqbolingizni qiyomat kuniga qadar ziyoda qilsin. Bu xizmatdan uzoq mahjurdankim, har doim marhamatpanoh va shafqatdastgoh, qiblai haqiqiy va ka‘bai tahqiq xizmatidadur, arzi yetsun. Xotir oyinasi ko‘p xosiyatli suhbatning sharafi uchun farmonbar va rizo gustardir. Ilohi, bu bechoralarning iqboliga subhu shom, balki uzoq muddatga sog‘ va salomatlik martabasida bo‘lsinlar...”⁷⁸.

Hamzaning otasiga yo‘llagan maktublarining har biri kirish qismida takrorlanuvchi mazkur jumlar, uning surati va siyratiga singigan tarbiya ko‘rinishidir.

Namangan madrasalarining birida hujrada yashab kun ko‘rayotgan talaba Hamza navbatdagi maktubida otasiga shunday yozadi: “... Uyda mening bir kaloshim bor, yuborsalar, maxsini bo‘yatib kiyar edim. Kafshim ko‘p nobud bo‘layapti. Bir bedona kafsh sotib olgan edim, ramazon kelib qoldi, yana sotib yubordim. Iftorlik va saharlikka xarjladim. Bu ham qariyb tamom bo‘lib qoldi...”⁷⁹

Qo‘lida puli bo‘lmay, kavushini sotib iftorlik va saharlik uchun yegulik sotib olgan, yonida issiq ovqat tayyorlab beruvchi na onasi va na ayoli bo‘lmagan 19 yoshli yigitning sharoiti og‘irligiga qaramay ro‘za tutishiga nima majbur qilgan? Hamzaning o‘sha vaqtdagi ijtimoiy ahvolidan xabar beruvchi ushbu maktublar, uning o‘ta sabrli va mustahkam irodali bo‘lganini, ilm olish yo‘lida har qanday qiyinchilikka chidaganini ko‘rsatadi. Hamza ishlab, pul topib, yaxshiroq yashashga urinsa ham bo‘lar edi. Lyekin ishlasa to‘liq tahsil olish imkoni yo‘qligi uchun shunday og‘ir sharoitda kun ko‘rishga majbur edi.

Hamza otasiga yo‘llagan yana bir xatida yozadi: “...Agar iloji bo‘lsa, biror ko‘rpa yoki ko‘rpacha yuborsalar, ayni iltifot bo‘lar edi, chunki hujrada ikki kishi istiqomat qilamiz. Zohidillo maxdumning ikkita ko‘rpalari bor edi, bittasini hujraga, bittasini tanchaning ustiga soldik, xobgohga qolmadi. Arzim shuki, avf etgaysiz va qabul etgaysiz ...”⁸⁰.

⁷⁷ X.X.Ниёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил, 325-бет.

⁷⁸ X.X.Ниёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил,331-бет

⁷⁹ X.X.Ниёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил,334-бет

⁸⁰ X.X.Ниёзий, ТАТ, 5 жилдлик, 5-жилд, Т., 1989 йил,340-бет

Maktubdagi ushbu tasvir o'quvchi ko'z o'ngida sovuq qish faslini gavdalantiradi. U paytlar gaz, pechka kabi uyni isitish vositalari bo'lmagan, asosan tanchaga cho'g' solingan. Cho'g' issig'ini saqlab qolish uchun esa tancha ko'rpa bilan o'ralgan. Ikki donagina bo'lgan ko'rpaning biri tanchaga o'ralganligi uchun uxlashga to'shak qolmagan. Shu sababli otasidan ko'rpa yoki ko'rpacha yuborishini so'rab yozilgan mazkur maktub bo'lg'usi mashhur ijodkorning naqadar og'ir va qiyin sharoitda yashab, bilim olishga harakat qilganidan ma'lumot berish bilan birga Hamza shaxsiyati, ruhiyati va adabiy siymosi to'g'risida to'g'ri va mukammal xulosa chiqarishga ko'maklashadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maktub va yozishmalari juda ko'p. Biz ularning atiga bir nechtasidangina keltirilgan lavhalarni tahlil etdik, xolos. Ammo shu keltirilgan dalillarning o'ziyoq Hamza Hakimzoda Niyoziyning qanday tarbiya ta'sirida ulg'aygani haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. O'ylaymizki, Hamzaning otasiga bo'lgan hurmat-ehtiromi, kamtarligi, or-nomusliligi, haqiqatparvar va adolatparvarligi, ilmga chanqoqligini bugungi davr yoshlariga ham ibrat namunasi sifatida ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Chunki o'zining qator bebaho ijod namunalari bilan o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan Hamza Hakimzoda Niyoziy bir umr yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga ham alohida ahamiyat bergan. Bunday tarbiya asosini esa u yoshlarning o'z yaqinlari, ayniqsa, ota-onasiga nisbatan muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishdan boshlash kerakligini ta'kidlagan. Shoir o'quv darsliklarida ham ota-onani hurmat qilish eng yuksak insoniy fazilatlardan biri ekanligini uqtirarkan, otaning lirik obrazini chizishda uning amri halq amridan ham kuchli ekanligini ta'riflaydi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. H.H.Niyoziy, TAT, 5 jildlik, 5-jild, T., 1989.

QO'QON XONLIGI DAVRIDA MADRASALAR VA MACHITLAR NOMLARI

**Sofiya USMONOVA,
Qo'qon DPI, o'zbek tili
kafedrasi katta o'qituvchisi**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'qon xonligi davrida yaratilgan, ya'ni uchinchi Renessans asoslaridan biri bo'lmish madrasalar, masjidlar nomlari, uning qurilishi va nomlanish asoslari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hakim to'ra, Mohlaroyim, Muhammadalixon, Norbo'tabek, Jome, Madrasai Oliy, Sulton Murodbek, Xo'ja dodxoh, Mingoyim madarasalari, xon madrasalari, eshon madrasalari, xos madrasalar, Jome masjidi, "Yangishahar jome masjidi", G'ishtli masjid.

O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Qo'qon shahri O'rta asr shaharsozligining barcha an'alarini o'zida mujassamlashtirgan edi. Bu jihatdan Qo'qon, Samarqand, Xiva va Buxorodan keyin turadi. "XVIII asrning

oxirlariga kelib, Qo‘qon xonligining tashkil topishi shaharda madrasa va masjidning ko‘payishiga sabab bo‘ldi, chunki bu davrda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida diniy mafkura hukmron edi”. [2. 255] Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin birinchi davrlarda bu yerga kelgan ruslar o‘lka odamlarining savodxonligidan hayratga tushganlar. 1878-yilda Farg‘ona vodiysiga kelgan A.Middendorf “Bu o‘lkaning savodlilik darajasini Rossiyaning xalq ta‘limi bilan shug‘ullanuvchi namoyondalariga namuna qilib ko‘rsatish kerak,”[4. 362] - deb yozgan edi. O‘sha davr ta‘biri bilan aytganda, aholi yoppasiga savodsiz bo‘lmagan, bunga o‘sha davrlarda o‘g‘il bolalar uchun madrasa, qizlar uchun uy ta‘limlarining yuqori darajada rivojlanganligi darak beradi.

Ilmiy adabiyotlarda, lug‘atlarda madrasa nomi – diniy oliy o‘quv yurtining atoqli oti [1. 44] sifatida beriladi. “Madrasa” arab tilidan olingan bo‘lib, o‘zak qismi “darasa” – o‘rganmoq, o‘qimoq, dars olmoq degan ma‘nolarni bildiradi. Madrasalar musulmonlarning o‘rta va oliy o‘quv yurti hisoblangan. Xonligikda 350 ta, Xo‘qand shahrining o‘zida 60 yaqin madrasalar bo‘lgan.

1842-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, me‘morchiliklik san‘ati markazi bo‘lgan Qo‘qon shahrida ko‘plab madrasa mavjud bo‘lib, eng ko‘zga ko‘ringanlari Hakim to‘ra, Mohlaroyim, Muhammadalixon, Norbo‘tabek, Jome, Madrasai Oliy, Sulton Murodbek, Xo‘ja dodxoh, Ming oyim madarasalari hisoblangan. Shahar markazi Chorsuda to‘rtta yirik madrasa qad ko‘targan. Ushbu madrasalarning 38 tadan 108 tagacha hujrasi bo‘lgan. Keyinchalik Muhammadalixon farmoni bilan shahar registonida madrasa barpo etilgan va unga Mir Inoyatulloh bosh mudarris etib tayinlangan. Isoxo‘ja madrasasi, Charxchinko‘cha madrasasi, Mahmud dasturxonchi madrasalari ham shu davrda bunyod etilgan.

Xonlik davrda Toshkent shahrida ham bir qancha madrasalar barpo etilgan. Jumladan, Umarxon davrida Shukurxon madrasasi, Ko‘kcha dahasida Eshon Bo‘rixo‘ja Sanchiqmoni madrasasi qurilgan. Marg‘ilonda Saidahmadxo‘ja madrasasi, Andijon shahri atrofida Otaqo‘zi madrasasi, Mirzaquli Bo‘lish madrasasi kabilar qurilgan. Umuman olganda, xonlikning Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Xo‘jand, O‘ratepa, Marg‘ilon, Turkiston kabi shaharlarida 200 dan ortiq madrasalar barpo etilgan.

Madrasalar muassisning ijtimoiy holati, yo‘nalishi va boshqa xususiyatlariga qarab: 1) Xon madrasalari (hukmdorlar tomonidan o‘zlarining xos mulklari tomonidan qurdirilgan); 2) Eshon madrasalari (yirik tasavvuf namoyandalari – eshonlar, shayxlar tomonidan barpo etilgan); 3) Xos madrasalar (hukmdor ruxsati bilan yirik mansabdorlar, lashkarboshilar, boylar tomonidan qurilgan) ga bo‘lingan [5. 53].

Qo‘qon madrasalari ro‘yxati 1914-yilda Farg‘ona oblast Maorif bo‘limi xodimi Yegorov va “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi xodimlari tomonidan tayyorlangan bo‘lib, unda 39 ta madrasa nomi ko‘rsatiladi. Lekin, Qo‘qono‘lkani o‘rganish muzeyi ilmiy xodimi Y.Dadaboyev muzey fondidagi materiallarga asoslanib, bu yerda 60 ga yaqin madrasa bo‘lganligi haqida ma‘lumot beradi.

1) Xon madrasalari turkumiga: Norbo‘tabiy madrasasi, Madrasai Hokimoyim, Madrasai G‘ishtin – madrasai Xurjin, Madrasai Qalmoq, Madalixon madrasasi, Madrasai Mingoyim, Madrasai Jome‘, Madrasai Oftob

oyim, Madrasai Mohlaroyim, Madrasai Chalpak, Madrasai Xomtama, Madrasai Sulton Murodbek va boshqalar.

2) Eshon madrasalari turkumiga: Madrasai Hakimtura, Madrasai Xon xoja, Madrasai Buzruk xoja eshon, Madrasai Sohibzoda hazrat, Madrasai Xalifa Safoxon to‘ra, Madrasai Valixon to‘ra kabilar.

3) Xos madrasalar turkumiga: Madrasai Tunqator, Madrasai Kamol qozi, Madrasai Idrisqulibek, Madrasai oxund Devonbegi, Madrasai Hojibek, Madrasai Dasturxonchi, Madrasai Mirzo Yodgor, Madrasai Xaqqulibek, Madrasai Zinbardor, Madrasai Aminjon boy, Madrasai Harifona, Madrasai Olimjon hoji, Madrasai Xoja Dodxoh va hokazo.

Madrasai Chalpak - xon madrasalari turkumiga kiradi. 1844-yilda Sheralixonning xotini, Xudoyorxonning onasi Yorqinoyim To‘xtanazarbiy do‘non qizi tomonidan Dahmai shohon yaqiniga qurdirilgan. Katta qabristonning Nonvoylik guzar mahallasi bilan tutash qismida joylashgan. Madrasaning “Chalpak” deb nomlanishiga sabab shuki, bu yerda dastlab Hokimoyim, u kishining vafotidan so‘ng shahar boylari tomonidan ko‘p miqdorda chalpak pishirtirilib, muhtojlarga ulashib turilgan. Hozir bu yerda bir guruh azayimxon, qasidaxon, uqalovchi-qoquvchilar makon tutganlar [5.76].

“Madrasai Xomtama xon madrasalari turkumiga kiradi. Asl nomi hujjatlarda “Madrasai Xomtamoq” bo‘lib, tolibi ilmlarga vaqf mulklaridan kelgan daromad hisobidan nafaqadan tashqari, xom emish, ya‘ni xom oshlik ham berib turilgan. Eski o‘zbek tilida xom oshlik “xomtamoq” deb ham aytilgan. Talaffuzda “xomtamoq” “xomtama” shakliga kelib qolgan. Madrasa 1858-yilda Sayyid Muhammad Xudoyorxon tomonidan Yangi Chorsu mavzeida qurilgan [5. 78-79].

Madrasai Sohibzoda hazrat – II. 1861-yilda Miyon Fazl Ahad – Sohibzoda hazrat tomonidan peshovardan olingan meros mablag‘ hisobiga qurdirilgan. Madrasai Sohibzoda hazrat – I binosiga tutashtirib solingan. Madrasa eshon madrasa turkumiga kiradi. Hozir bu yerda Muqimiy hujra-muzeyi joylashgan [5. 74, 79].

Tunqator madrasasi –1826-yilda davlat arbobi, sarkarda Muhammad Qodirbek Tunqotar Muhammad Yusuf mingboshi o‘g‘li tomonidan qurilgan. Xos madrasa turkumiga kiradi[5.70]. Tunqator - tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor. Qo‘qon xonligidagi unvon, mansablar va amallarga mahalliy mualliflardan “turkiston viloyatining gazetisi” muharriri mullo Olim Mahdum Xo‘ja “Tarixi Turkiston” nomli asarida to‘xtalib o‘tgan. U xonlikdagi amaldorlarni 24 darajaga bo‘lgan, shundan oliy darajali unvon va mansablar qatorida oltinchi o‘rinda sanalgan tunqator mansabidagilar faoliyati⁸¹ haqida: “Oltinchi Tunqator. Bu mansabdagi odam xonning maxsus yotadurgon joyiga posbondek, kechasi doimo uxlamay, xonning amriga muntazir bo‘lib turadur” [6. 164]. Tunqator aslida “tunqotar” tunda uxlamay, xushyor

turilishga nisbatan olingan soʻz boʻlib, talaffuzda *tunqotar* < *tunqator o-a* fonetik oʻzgarishga uchrab, yozuvda ham notoʻgʻri talaffuz saqlangan.

Madrasai Dasturxonchi – 1833-yilda davlat arbobi Mahmud dasturxonchi Muhammad Janoqi oʻgʻli tomonidan qurilgan. Xos madrasa turkumiga kiradi. Dasturxonchi - xon saroyidagi oliy darajali unvon va mansablar qatorida oʻn ikkinchi darajali (Mullo Olim) mansablardan boʻlib, saroyda oʻtkaziladigan ziyofatlar, qabul marosimlarini boshqaruvchi mansab-amalining nomidir.

Madrasai Zinbardor - forscha “zin” -egar-jabduq “bardor”- keltiruvchi, olib yuruvchi maʼnosini anglatib, xon saroyi va qoʻshinini egar-jabduq bilan taʼminlovchi amaldor nomi. Madrasa Xoʻqand xonligi davlat arbobi, sarkarda Muhammad Yusuf miton tomonidan otalari – Karimquli zinbardor sharafiga 1827-yil Isfara guzari markazida qurilgan. Hozir bu binoda rasmiy roʻyxatdan oʻtgan “Zinbardor” jome masjidi faoliyat koʻrsatmoqda.

Madrasalarning qurilish uslubi va vazifasidan kelib chiqib ham nomlangan: Madrasai Xishtin, Madrasai Jomeʼ, Madrasai Xurjun, Madrasai Chalpak, Madrasai Hammom, Xarifona madrasasi va shu kabilar.

Xishtin madrasasi - gʻishtdan qurilgan madrasa, Madrasai Xurjun - qurish uchun joy kichik boʻlganligidan yoʻlning ikki chetiga qurilgan, Chalpak madrasasi - bu erda ochlarga, gʻariblarga chalpak pishirib ulashilganligi sababli xalq bu madrasaga shu nomni bergan.

Madrasalar xonlarning ayollari nomiga berilgan tituldan kelib chiqib ham nomlangan: Madrasai Mingoyim, Madrasai Hokim Oyim, Madrasai Mohlaroyim, Madrasai Oftoboyim va shu kabilar.

Madrasalar egalik xususiyatiga koʻra ham nomlangan: Soʻfiyon madrasasi, Arki Oliy madrasasi, Madrasai Oliy va boshqalar.

Soʻfiyon - dastlab bu yerda soʻfiylar xonaqohi boʻlib, keyinchalik madrasaga aylantirilgan. Arki Oliy - Oliy Ark xonlarga tegishlilik maʼnosini beruvchi sifat. Xonzodalar va yuqori amaldorlarning farzandlari uchun maxsus qurilgan madrasa. Madrasai Oliy - Oliy madrasa hisoblanib, hozirgi aspirantura vazifasini bajargan. Madrasani bitirgan mullavachchalar oʻqishni davom ettirishni istashsa, shu yerda davom ettirganlar. Bu yerni tugallagan mullavachchalar muftiy, aʼlam, qozi, rais va boshqa amallarni soʻzsiz egallaganlar.

Ayrim madrasalar ikki nom bilan yuritilgan, chunonchi Madrasai Norboʻtabiy - Madrasai Mir; Madrasai Madalixon - Madrasai Xon, Madrasai Hammom – Madrasai Parvonachi, Madrasai Muhammad Amin – Madrasai Kamol qozi, Madrasai Mallaxon – Madrasai Rais, Madrasai Muhammad Olimboy – madrasai olimjon hoji, Madrasai Sultonmurodbek – Madrasai Bek, Madrasai Oqtoʻnli Azizlar – Madrasai Vaqf Chorsu kabilar.

Madrasa, masjid, mozorlar oʻzining vaqf mulklariga ega boʻlib, shu vaqf daromadidan xizmatchilariga haq berilgan. Vaqf mulklariga mutavali mutasaddiy - boshliq boʻlib, mansabga vaqf qiluvchi zot oʻz nomzodini koʻrsatishi yoki oʻzi mutavallilik qilishi mumkin boʻlgan. Vaqflar oq vaqf va qora vaqflarga boʻlinib, oq vaqf xiroj va soliqlardan ozod qilingan, qora vaqf xazinaga xiroj va boshqa joriy soliqlarni toʻlagan.

Masjid nomi – musulmonlar jam bo‘lib namoz o‘qiydigan ibodatxonaning atoqli oti sifatida “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati” [1. 45] da keltiriladi. “Masjid” atamasi arabcha, sajda qilinadigan joy demakdir.

Xo‘qandda hukmdorlar, davlat arboblari, sarkardalar, yirik tasavvuf namoyondalari, boylar, savdogarlar tomonidan ko‘plab masjidlar barpo etilgan. Manbalarda masjidlar soni borasida 240, 360, 400, 420 kabi juda katta tafovutlar bilan raqamlar keltiriladi. Mutaxassislar ayrim manbalarda madrasalar, xonaqohlar, masjidlar va qorixonalarining adadi chalkashtirib yuborilganligini ta’kidlaydilar. O‘zbekiston Davlat Tarix arxivida Xo‘qanddagi 65 masjidning vaqf mulklariga oid hujjatlari borligi aniqlangan.

Qo‘qon shahrida bo‘lgan V.I.Masalskiyning ma’lumotiga qaraganda, XIX asrda shaharda 348 ta masjid bo‘lib, ulardan 18 tasi Jome masjidlari bo‘lgan [3]. Tarjimon sifatida bu yerda bo‘lgan F.Nazarov shaharda juda yaxshi jabhaga ega bo‘lgan 100 ga yaqin masjid mavjud bo‘lib, ularning aksariyati loydan emas, balki g‘ishtdan qurilganligini ta’kidlab ko‘rsatgan [10].

Masjidlar katta-kichikligi, qurilishi va bezaklari bilan bir-birlaridan farq qilib turgan. Ko‘pchiligi tashqi ko‘rinishidan oddiy, bir-biriga o‘xshash bo‘lsa, ayrimlari kattaligi va me’moriy tuzilishi, koshinlari bilan haqiqiy tarixiy, me’moriy va san’at yodgorliklari darajasigacha ko‘tarilgan. Afsuski, ma’lum sabablarga ko‘ra bularning aksariyat qismi saqlanib qolmagan. Masjidlarga, odatda, rasmiy nom qo‘yilmagan. Ba’zi masjidlar o‘zi joylashgan mahalla nomi bilan, kamdan-kam hollarda qurdirgan kishi nomi bilan, ayrimlari turli nomlar bilan nomlangan. Hozirda G‘ishtli masjid, Saidahmadboy, Hadyatullo hoji va shayxon masjidlari binolaridan masjid sifatida foydalanib kelinmoqda.

Jome masjidining qurilishi Qo‘qon xonligi tarixiga bag‘ishlangan 40 dan ortiq tarixiy qo‘lyozma asarlarning deyarli barchasida qalamga olingan. Jome [a. **جامه** - bir joyga yig‘uvchi, to‘plovchi] Ko‘pchilik bo‘lib namoz o‘qiladigan maxsus joy [9. 5. 102], “jam” so‘zidan olingan. Jome masjidlarida kundalik besh vaqt namozdan tashqari, juma va iyd namozlari o‘qilgan. Jome’ masjidining qurilish yili ta’rixi 1817-yil melodiy, 1232-yil xijriy (ta’rix moddasi **العظيمجامعمسجد**) beriladiki, bular asosida Umarxon davridagi siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar anglashiladi [7.93].

Hozirgi kunda Jome me’moriy majmuasi Qo‘qon shahar o‘lkashunoslik muzeyi tarkibiga qo‘shib berilgan, bu joy shaharning ma’naviy markaziga aylantirilgan.

“Yangi shahar jome masjidi” deb nomlanishi qaramay bu masjid “G‘ishtli masjid” degan nom olgan. XIX asrda shaharda o‘nlab masjidlar g‘ishtdan qurilgan. Ma’lumki, g‘ishtdan qurilgan masjidlarning barchasi shaharning Eskishahar qismida barpo etilgan. Eskishahar Qo‘qonning xonlik davriga oid bo‘lgan qismi, Yangishahar qismi ruslar bosqinidan keyin qurilgan turli binolar, keng ko‘chalar bilan o‘zgartirilgan qismi. Hozir shahar hokimligi, bank, telegraf, texnikum, institutning administrasiyasi joylashgan qismi, temir yo‘l vokzali shu hududda joylashgan. “G‘ishtli msjid” ham shu deparada qurilgan. G‘ishtdan hashamatli qilib qurilgan masjid binosi bu atrofda yashovchi aholi uchun yangilik bo‘lgan. Qolaversa, uning yangicha g‘isht (rus-ovro‘po g‘ishti) dan qurilganligi “G‘ishtli

masjid” nomini olishiga sabab bo‘lgan. Usta Safar bu masjid qurilishida evropa uslubini ham qo‘llagan.

“G‘ishtli masjid” nafaqat ibodatxona, balki Qo‘qonning Yangishahar qismidagi ma’naviyat markazlaridan hisoblanadi.

Qo‘qon shahrida bugungi kunda tarixiy obida sifatida saqlanib kelinayotgan “Avrod” masjidi (avrod – arabcha bomdod, tong namozidan so‘ng o‘qiladigan duo yoki oyat, zikrlar, duolar [8. 60] demakdir, aynan shu masjidda 5 vaqt namozda shu duo qo‘shib o‘qilganligi sabab shunday nomlangan) ilmiy kishilarning takror-takror ta’kidlashlariga qaramay bu masjid nomi “Avrat” deb noto‘g‘ri yozilganicha qolmoqda. Tilimiz tilsimlarga, sir-sinoatlar, o‘ziga xos ma’no qirralariga boy. Ammo bu tilsimlarni o‘z tarixi va yuqorida ustozlarimiz ta’biri bilan aytganda, o‘zining asl “bo‘y-basti” bilan avlodlarga etkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E, Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006. 44-bet.
2. Dadaboev Y.va boshqalar. Xo‘qandi latif madrasalari. ¹«Qo‘qon asrlar silsilasida» Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Qo‘qon- 2004 y. 255 - bet
3. Масальский В. И. Туркестанский край. СПб., 1913. С. 700.
4. Миддендорф А. “Очерки Ферганской долины”. СПб, 1882, С. 362.
5. Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy. Xo‘qandi latif manqibibi. Toshkent. 2018, 53-bet.
6. Mullo Olim Mahdum Xo‘ja. Tarixi Turkisto. Toshkent, 1915 y., 164-bet.
7. Mo‘minov S., Siddiqova F. Alisher Navoiy va Qo‘qon adabiy muhiti. Xalqaro anjuman. Qo‘qon 2021. 93-bet.
8. Navoiy A. Mahbubul-qulub. 60-bet.
9. O‘TIL. 5 jildli, ikkinchi jild, Toshkent: - 2006, 102-bet.
10. http://az.lib.ru/n/nazarow_f_m/text_1821_zapiski.shtml. (Nazarov F. Zapiski o nekotoryx narodax i zemlyax sredney chasti Azii. M., Glavnaya redaksiya vostochnoy literatury izd. Nauka, 1968)

UMUMTA’LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA MUQIMIY IJODINING O‘RGANILISHI

**Surayyo ERGASHEVA,
Gulnoza ABDUSALOMOVA,
Bag‘dod tumani oliy toifali o‘qituvchilari**

Bizga ma’lumki, umumta’lim maktablari adabiyot darsliklarida Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ijodidan na’munalar berib boriladi. Xususan, 5-sinf adabiyot darsligida amaldagi o‘quv rejasiga ko‘ra jami 3 soat ajratilgan bo‘lib, shundan 1 soati Muqimiy hayotiga, 1 soati “Sayohatnoma” asari tahlili uchun, 1 soati esa nazariy ma’lumot uchun ajratilgan. 6-sinf adabiyot darsligida esa jami 2 soat ajratilgan bo‘lib, 1 soat shoir hayotini o‘rganishga, 1 soati “Tanobchilar” asarni tahlil qilish rejalashtirilgan.

Muqimiy ijodini o'rganishda avvalo o'quvchilar o'sha davr ijtimoiy muhit, davr sharoiti yuzasidan ham bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunigdek o'quvchilarga Muqimiy asarlarini o'rgatish orqali ona yurtga muhabbat va sayohatning qiziqarli tomonlari haqida ham tushunchalar berib borish mumkin. Asarni o'qish asnosida, o'quvchilar bilan olib boradigan amaliy ishlar yuzasidan qator tavsiyalar ishlab chiqdik. Quyida ushbu tavsiyalar bilan tanishib chiqsak.

1. "Sayohatnoma" izidan sayohat ruknidagi amaliyot yozgi darslar haftaligini tashkil etish:

- Muqimiy uy muzeyi bilan tanishish;
- Xudayorxon o'rdasi bilan tanishish;
- Xaziniy uy muzeyi bilan tanishish;
- Ijodkorlikka qiziqishini uyg'otish;
- Ichki turizmni rivojlantirish;
- O'quvchilar tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

2. "Sayohatnoma"da tilga olingan joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan toponimik rivoyatlarni aniqlash orqali:

- vatanparvarlik hissi ortadi;
- tarixni o'rganishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi ortadi;
- rivoyat haqidagi nazariy bilimlari kengayadi va toponimik rivoyatlarni o'rganadi.

3. Har bir o'quvchiga o'zi yashayotgan qishloq tarixi va u bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlarni o'rganib kelish:

- o'z qishlog'i tarixini o'rganadi;
- mustaqil kichik izlanishlar olib boradi;
- tarix va adabiyot fanlarini uyg'unlashtirgan holda o'rganish.

4. "Agarda men sayohatchi bo'lsam..." mavzusida ijodiy yozma matn tayyorlash:

- bolada ijodkorlik uyg'onadi;
- savodxonligiga e'tibor qaratadi;
- matnda so'zlarni to'g'ri qo'llash malakasi rivojlanadi;
- o'qituvchi o'quvchining dunyoqarashi va qiziqishlarini aniqlay oladi.

5. Sizningcha zamonamiz (qishloq yoki shahrimiz) qahramonlari kimlar? "Sayohatnoma" asarida tilga olingan qahramonlar bilan qanday o'xshashliklari yoki farqlari borligini aniqlash:

- "Sayohatnoma"dagi qahramonlarga Muqimiy asarda bergan ta'riflarga e'tibor qaratadi va tahliliy yondashadi;
- o'quvchi o'z zamonasi (qishlog'i, shahri) qahramonlari bo'lgan insonlar haqida ma'lumotlar to'playdi;
- "Sayohatnoma"dagi asar qahramonlari bilan o'z zamonasi (qishlog'i, shahri) dagi qahramonlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlarini qiyosiy o'rganadi.

6. "Sayohatnoma" asarida qo'llanilgan eskirgan so'zlar ma'nolarini oila-a'zolari davrasida sharhlash:

- Asar oilaviy o'rganiladi.

-O'quvchi eskirgan so'zlarni sharhlash jarayonida oila –a'zolari bilan hamkorlikda ishlaydi.

-Lug'atlar bilan ishlash malakasi kengayadi.

-ota-onalarning ta'lim jarayonidagi mas'uliyati va ishtiroki ortadi.

7. Amaldagi 6-sinf adabiyot darsligida Muqimiyning "Tanobchilar" satirasi berilgan. Bizga ma'lumki Muqimiy ijodida satirik asarlar muhim o'rin tutadi "Moskovchiboy ta'rifida" "To'y" "Hajvi Viktor boy" "Saylov" "Axtaring" kabi satirik yo'nalishdagi asarlari Muqimiyning o'z davri muammolariga befarq bo'lmaganini bildiradi. Bu asarlar esa bevosita bugunning extiyoji muammolariga tanqidiy yondashishimizga turtki bo'ladi. Muqimiy qalamga olgan tanqidiy yondashgan illatlarni bugungi kun nuqtai nazaridan taxliliy o'rganish va o'rgatish o'qituvchilardan o'ziga xos maxorat talab qiladi. Bu borada 6-sinf adabiyot darsligida berilgan "Tanobchilar" satirasini o'rgatish jarayonida o'qituvchi nimalarga e'tibor qaratishi kerak?

Asarda tanqid qilingan illatlarga qarshi kurashish hissini o'quvchilarda shakllantirish uchun adabiyot fani ustozlari nimalarga e'tibor qaratishi zarur?

5. Eng avvalo "Tanobchilar" satirasining o'zigagina xos bo'lgan jihatlarini o'quvchiga tushuntirib o'tish zarur. Asar masnaviy usulida yozilgan bo'lib zulm ko'rgan oddiy bir dehqonning tilidan xikoya qilinadi:

Bo'ldi taajub qiziq xangomalar,

Arz etayin enfi yozib nomalar.

Adl qulog'i ila eshit xolimi,

Zulm qilur, baski, menga zolimi.

Asarda shoir tanobchilar yani Sulton Alixo'ja va Xakimjonlarning qishloqqa kirib kelishi pora undirishi, shundan keyin ham ularning yerini oshirib o'lchashi bayon qilingan. Bu o'rinlarda o'qituvchi shoirning ijodiy maxoratiga alohida urg'u qaratishi badiiy maxoratini etirof etib o'tishi maqsadga muvofiqdir.

Sulton Alixo'ja, Xakimjon ikkov,

Biri xotun, birisi bo'ldi kuyov.

Ikkalasi bo'ldi chunon ittifoq,

Go'yo hayol aylanib qilmay nifoq,

Osh yesalar o'rtada sarsonilik

Xo'ja-chiroq yog'i, Xakimjon pilik.

Bunday sifatlanishlar o'xshatishlar orqali shoir amaldorlarning surati va siyrati boshqa - boshqa insonlar ekanligiga ishora qiladi.

5. Xo'sh o'qituvchi asarning badiiy qiymatini o'quvchi xis qilishi uchun qanday topshiriqlarni berishi mumkin?

Amaliy tajribadan kelib chiqqan holda quyidagi tasvirlarni tatbiqiy qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Asarda ko'chma ma'noda kelgan so'zlarni daftaringizga qayd qiling. Ularning "Tanobchilar" asardagi matnidan manolarini sharxlang.

-O'quvchi qaysi so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanganink aniqlaydi.

-O'zbek tilining izohli lug'ati bilan ishlaydi.

-So'zlarning matindagi ma'no imkoniyatlari haqida tasavvur kengaytiradi.

2."Tanobchilar" asarida tilga olingan mashxur shaxslar Sulton Aminxo'ja, Nur Ato Bibioysha kabi mashxur shaxshlar haqida fikrlarini kengaytiradilar.

-Tarix va Adabiyot fanlarini uyg'unlashgan holda o'rganadilar.

-Maahxur shaxslarning tarixda qoldirgan xizmatlari xadyalari haqida tasavvur kengayadi.

3.Asarda qoralangan illatlar: poraxo'rlik, ta'magirlik, tovlamachilik singarilar nima uchun qoralangan?

-Poraxo'rlik, ta'magirlik jamiyatning tayanch nuqtasiga kishan soluvchi illatlar ekanligini angelaydilar.

-Bu illatlari tufayli insonlar odamlar orasida obro'yi, mavqeyi tushib ketishini angelaydilar.

4."Tanobchilar" asarida qoralangan Sulton Alixo'ja Xakimjon singari amaldorlarning qaysi jixatlari bugungi zamonimizda xam duch kelishi mumkin?

-Poraxo'rlik, ta'magirlik, tovlamachilik singari illatlarga hamma davrda ham duch kelishimiz mumkinligini angelaydilar.

-Muqimiy xamisha davr uchun dolzarb mavzuni yoritganini xis qiladilar.

5."Tanobchilar" satirasida tanqid ostiga olingan illatlarni bugungi kunda jamiyatdan butunlay yo'qotish uchun sizlar nimalar qilgan bo'lar edingiz?

-Poraxo'rlik, ta'magirlik, tovlamachilik o'z moddiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yish singari illatlarga qarshi kurashish xissi uyg'onadi.

-Illatlar taraqqiyot kushandasi ekanligini angelaydilar.

-Manfaatlar ustiga qurilgan do'stlik haqiqiy do'stlik emasligini angelaydilar.

-Yurtimiz ravnaqi, kelajagi uchun jonkuyarlik masuliyatlilik xissi kuchayadi.

-Vatanparvarlik ortadi.

Muqimiy asarlari yuzasidan sinfda olib boriladigan ishlar bilan qo'shimcha qilinadigan yuqoridagi ishlar o'quvchilarda ko'rib o'tgan qator jihatlarni oshiradi. Adabiyot darslari davomida olgan bilimlarini yanada kuchaytiradi. Oila a'zolarining hamkorlikda ishlashi o'quvchiga katta ishtiyoq bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi oshadi.

ADABIYOT DARSLIKLARIDA QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARINING O'RNI

Dildora ERKABOYEVA,
Toshkent viloyati Zangiota tumani o'qituvchisi.
Gulnoza ALIYEVA,
Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani o'qituvchisi.
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada maktab darsliklaridan Qo'qon adabiy muhiti vakillari hayoti va adabiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar, xususan ularning ijodidan namunalar hamda ularning sharhlari qay darajada o'rin olganligi, ularning tarbiyaviy ahamiyati, dars jarayonida ushbu mavzular yuzasidan o'quvchilarga

bilim berishda qanday metodlardan foydalanish samarali natijalar berishi kabi masalalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Qoʻqon adabiy muhiti, darslik, sharh, tarbiyaviy maqsad, metod, adabiyot, sheʼriyat.

Аннотация:

В данной статье приведены сведения из школьных учебников о жизни и литературной деятельности кокандского литературного сообщества, в частности, примеры их творчества и в какой мере их комментарии, их воспитательная ценность, в воспитании учащихся по этим темам на уроках такие вопросы, как как какие методы использовать для получения эффективных результатов.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, учебник, комментарий, воспитательная цель, метод, литература, поэзия.

Annotation:

This article provides information from school textbooks about the life and literary activities of the Kokand literary community, in particular, examples of their work and the extent to which their comments, their educational value, in educating students on these topics in the classroom. issues such as what methods to use to give effective results.

Keywords: Kokand literary environment, textbook, commentary, educational purpose, method, literature, poetry.

Maktab adabiyot darsliklarida Qoʻqon adabiy muhiti vakillari salmoqli oʻrin tutadi. Deyarli har bir sinf darsligida bu muhit vakillariga duch kelamiz. Darsliklarni koʻzdan kechirib, quyidagi jadvalda ularning tasnifini beramiz:

Sinfi	Ijodkor nomi	Ijod namunasi
5-sinf	Muhammad Aminxoʻja Muqimiy	“Sayohatnoma” asaridan parcha
6-sinf	Muhammad Aminxoʻja Muqimiy	“Tanobchilar” satirik hikoyasi
6-sinf	Muhammadsharif Gulxaniy	“Zarbulmasal” asaridan parcha
7-sinf	Jahon Otin Uvaysiy	“Uvaysiyman”, “Sogʻindim” gʻazallari, chistonlari
7-sinf	Zavqiy	“Ajab ermas” muxammasi, “Hajvi ahli rasta” hajviyasi
8-sinf	Nodira	“Eshit”, “Oqibat”, “Etib ket” radifli gʻazallari
9-sinf	Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat	“Fasli navbahor oʻldi...”, “Surmadin koʻzlar qaro...” “Kashmirda” gʻazallari, musaddasi
11-sinf	Anbar Otin	“Risolayi falsafayi siyohon” asaridan parcha

Bizga ma'lumki, o'quvchining badiiy salohiyati, ilmi, albatta, uning yosh xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida ko'rganimizdek, har bir sinfda Qo'qon adabiy muhitining vakillari ijod namunalari badiiyati, til qurilishi, asarni "hazm qila olishlik" darajasi o'quvchi yoshiga mos tarzda tanlangan. Bundan ko'rinadiki, bu muhit vakillari ijodidan (garchand adabiyot tarixi vakillari bo'lishsa ham) o'quvchining yoshiga mos asarlarni topish mumkin. 5-sinf darsligida Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning "Sayohatnoma" asaridan berilgan parcha til qurilishi, asar badiiy tuzilish jihatidan 12-13 yoshdagi bola qiynalmay tushunadigan (lug'atsiz ham anglashi mumkin bo'lgan) asardir. Quyidagi satrlarning o'zi fikrimizni isbotlaydi:

Qolmay shaharda toqatim,

Qishloq chiqardim odatim.

Xohi yayov, bo'lsun otim,

Goh sayr ham darkor ekan. [1, 175]

6-sinf darsligida berilgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy "Tanobchilar" satirik hikoyasi, Muhammadsharif Gulxaniy "Zarbulmasal" asaridan parcha ham o'quvchining badiiy didini o'stirishda xizmat qiluvchi, lug'at bilan tushunish mumkin bo'lgan asarlardir. Bu asarlarning syujet asosiga qurilganligi o'quvchini adabiyot tarixi bilan yuzlashib, uni anglashga bo'lgan harakatlarini birmuncha osonlashtiradi.

Qo'qon adabiy muhitining yana bir afzallik tomoni shundaki, bu muhit adabiyot tarixiga shoiralarni, ijodkor ayollarni yetishtirib berdi. Bular sirasiga maktab darsligida ham berilgan Nodira, Uvaysiy, Anbar Otinlarni kiritish mumkin. Adabiyot darslarida, aynan Qo'qon adabiy muhitining vakillari bo'lgan shoirlar hayot va ijodi haqida so'z ketganda men o'quvchilarimga "Nodira-yu Uvaysiylargacha bo'lgan davrda ijod qilgan shoiralarni bilasizmi?", "Sizningcha adabiyot tarixida shoirlar bo'lganmi?" kabi savollar bilan yuzlanaman. Ular ham o'z fikrlarini bayon qiladilar. Bir adabiyot o'qituvchisi sifatida bizning fikrimiz esa o'zbek adabiyoti tarixida ayol ijodkorlar ham bo'lgan. Lekin ijtimoiy vaziyat, ayollarga parda ortidan qarash ulardagi she'riyatga bo'lgan iste'dodning rivojlanishiga, tarix sahifalarida qolishiga imkon bermagan. Qanchalab iste'dodlar to'rt devor orasiga ko'milgan. Agar tarixda shoirlar bo'lmaganda (biologiyada gen tushunchasini inobatga oladigan bo'lsak) adabiyot bizga Nodira-yu Uvaysiylarni yetishtirib bermagan bo'lar edi. Ayol ijodkorlar haqida so'z ketganda 11-sinf darsligida Anbar Otinning "Risolayi falsafayi siyohon" asaridan berilgan parchaga bir nazar solsak. Bu risolada shoira qarolikning yaxshi tomonlarini ko'rsatishga e'tibor qaratib, o'z fikrlarini falsafiy yondashuv bilan ifoda etadi. Avvalgi faslda oftob tig'ida mehnat qilib tani qoraygan insonlarni qozonga o'xshatadi. Ya'niki inson ham boshqalarga ne'mat yetkazish uchun oftob tig'ida qoraygani, o'z bag'rini olovga tutib, insonlarga taom bergan qozonga monanddir. Tani qora bo'lsada, ko'ngli oq, ilm-ma'rifatga boy bo'lgan insonlar esa, bag'ri qora moyga giriftor bo'lsada atrofni yorituvchi qora chirog'ga qiyoslanadi. Ikkinchi faslda qaro farq, ya'ni ayollar sochidagi farq haqida so'z boradi. Quyidagi bayt shu fasl mohiyatini yoritadi:

Qaro sochida har tori tilar sanga mudom oq yo'l,

Qaro niyat ila hech zo'rlama farqi qarolarni. [2, 88]

Ya'ni qora soch orasidan tushgan tekis yo'l, qaro farq ham sen uchun oq yo'l tilar, shunday ekan ularga nisbatan hech qachon qora niyatda bo'lma. Bu bilan shoira bizga bor mehrini bergan onalarimiz sochlari, qarolik zamiridagi farq ham biz uchun oq yo'l tilashini uqtiradi. Bundan tashqari qora soch, qora qosh, qora xol go'zallik belgisi ekanligi asarda alohida ta'kidlanadi. Biz qora deb salbiy xulosada bo'ladigan tushunchalardan shoira falsafiy jihatdan ezguliklarni izlaydi. Ushbu xulosalar o'quvchilarning Anbar Otinning ijodiga, balki mumtoz adabiyotga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

“Qo‘qon adabiy muhiti o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixining alohida bir bosqichini tashkil etadi. Uning vujudga kelishi, rivojlanishi va yaxlit bir adabiy muhitga aylanishi Qo‘qon xoni Amir Umarxon nomi bilan bog‘liq”. [3, 10] Qo‘qon adabiy muhiti vakillarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlagan, ularga ijod maydonini yaratib bergan, albatta, Amir Umarxondir. Adabiyot tarixida ayol ijodkorlarning Zulfiyaxonimgacha uzilib qolishining o‘zi ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi bo‘lgan, adabiyotga shoiralarni yetkazib bergan, o‘zi ham ustoz shoirlar izidan borib qalam tebratgan ijodkor Amiriy ijodi nima uchun maktab darslarida o‘rganilmaydi? Maktab adabiyot darsliklarida Qo‘qon adabiy muhitining vakillari salmoqli o‘rin tutar ekan-u, nima uchun o‘quvchi shu muhit asoschisini tanimaydi? Bizningcha, bugungi kun o‘quvchisi Amiriy ijodini o‘rganishga haqli.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedov S, Qosimov B, Qo‘chqorov R, Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2020.
2. Anbar Otin. She‘rlar risola. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1970
3. Zebo Qobilova. Amiriy she‘riyati. – Toshkent: FAN, 2010.

AMIRIY ASARLARI TARJIMASIDA MILLIY-MADANIY FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING ADEKVATLIK MASALALARI (ingliz tiliga tarjimasi misolida)

**Muqaddas OQMAMATOVA,
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakillaridan biri Amiriy g‘azallari misolida milliy-madaniy frazeologik birliklarni ingliz tiliga tarjima qilish borasidagi adekvatlik masalalari tahlili xususida fikrlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: adekvat, ekvivalentlik, muqobillik, asliyat, badiiyat, tasvir vositalari, maqta’, taxallus, frazeologik birliklar, sinonimlar.

Аннотация:

В статье анализируются вопросы адекватности при переводе национально-культурных фразеологизмов на английский язык на примере

стихотворений Амира, одного из крупнейших представителей узбекской классической литературы.

Ключевые слова: адекватность, эквивалентность, альтернатива, оригинальность, искусство, средство изображения, фразеологизмы, синонимы.

Annotation:

In this article, the analysis of the issues of adequacy are discussed in the translation of national-cultural phraseological units into English on the example of poems of Amir, one of the largest representatives of Uzbek classical literature.

Key words: adequacy, equivalence, alternative, originality, art, means of image, praise, nickname, phraseological units, synonyms.

Til – har qanday millatning, xalqning ma’naviyati, turmush tarzini, borligini ko’rsatuvchi eng muhim bosh omildir. Bu ne’mat insonning insoniy tafakkurini namoyon etuvchi mo’jizadir. “Odam bolasi dunyoni o’z tiliga uyg’un tarzda ko’radi, o’z tilining qat’iy ohanglari o’zanlaridan chiqib ketmagan holda eshitadi, o’z tilining azaliy va muntazam intizomiga muvofiq idrok qiladi. Shuning uchun til bemisl tilsimdir”. [1,98]

Darhaqiqat, ana shu tilsimning sir-asrorlari, bor mahobati, shaksiz, badiiy asarlarda o’zi bor bo’yi bilan ko’rinadi. Ijodkor qanchalik iste’dodli bo’lsa, uning yozgan asarlari ham shunchalik betakror bo’ladi. Ijodkor o’z ona tilini qanchalik mukammal bilsa, bu jihat uning asarlarida jilolanib boraveradi, tilsimlarini ochaveradi.

Qo’qon adabiy muhitining o’zbek adabiyoti xazinasidagi o’rni juda katta. Bu adabiy muhitda kamol topgan ko’plab ma’rifatparvar ijodkorlarni bilamiz. Ulardan: Furqat, Muqumiy, Zavqiy, Uvaysiy, Gulxaniy, Maxmur, “Rojiy Ho’qandiy, Furbat, Yusufqori Muntazir, Sadoyi...” [2, 67]. Bu nomlarni hali uzoq davom ettirish mumkin. Qo’qon ana shunday iste’dod sohiblarini yetishtirgan ulkan tarixiy shahar.

Ana shu muhitda kamol topgan, hatto hukmronlik qilgan, Qo’qon adabiy muhitining eng nozikta’b, iqtidorli vakili, shoh va shoir Amir Umarxon, ya’ni Amiriy ijodi misolida shoir she’rlarini ingliz tilida tarjimasida borasida milliy-madaniy frazeologik birliklar misolida asarlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Chunki oldimizda mumtoz adabiyotimizning yuksak namunalari dunyo adabiyoti yuzini ko’rishi uchun, eng avvalo, ularning asarlarini dunyo tillariga tarjima qilishdek mas’uliyatli vazifa turibdi. Adekvatlik tushunchasi borasida fikrlashar ekanmiz, bu termin lotin tilidan olingan bo’lib, “o’xshash”, “to’la mos”, “bir xil” kabi ma’nolarni anglatadi. Tarjima borasida adekvat so’zni topish tarjimaning asliyatga mos kelishida yordam beradi. Adekvat tarjima masalalarida tadqiqotlar olib borgan olimlardan A.N.Feorov, Y.L.Reskerlarning ta’kidlashicha, “eng muqobil va asliyatga xos tarjima hisoblanar ekan”.

Tarjima nazariyasining bilimdon olimlari A.Shveytser, L.Barxudarov hamda V.Komissarovning aytishlaricha esa: “Adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo’lib hisoblanar ekan.”[3, 47]

Amiriy ijodini kuzatar ekanmiz, shoirning o'ziga xos obraz yaratish mahorati beixtiyor e'tiborimizni tortib, hayratimizni oshiradi. Shoir yaratgan tasviriy vositalar, badiiyat zahirida ona tilimizning eng nozik jihatlari jilvalanadi.

Qoshlaringni vo'smadin rangin ko'rub aydi Amir:

Obro' topdi, yoshil to'n kiydi ehsoningda qosh. [5, 79]

G'azalning maqta'sidan olingan ushbu baytda shoir Amir taxallusini qo'llash barobarida qoshga o'smaning qo'yilishi orqali yor qoshiga qilgan ehsoni o'sma bilan unga yashil to'n kiydirib, qoshining obro'sini ko'tardi, deydi.

Yashil rang islom dinida ham farishtalar kiyguvchi kifat rangi deb qaraladi. O'smaning ham rangi yashil bo'lib, yor qoshida o'sma qolishi uning, ya'ni qoshning obro'yini yanada ko'tardi.

Bunday mumtoz g'azallar tarjimasida milliylikni ifodalovchi o'sma o'simligi haqida boshqa til vakillari qanchalik tasavvurga egaligini hisobga olgan holda, mazkur rangning qiymati, ya'ni obro' keltirishini qanday tushuntirish lozim. Shuningdek, she'rdagi qofiya masalalarini hisobga olish kerak.

Xuddi shu bir bayt tarjimasini ingliz tilida berishga harakat qilamiz:

Amir saw the colour of your eyebrow liner and he said:

With your charity, your eyebrows turned green and beatified.

“Obro' topmoq” frazeologik birligi milliy xarakter kasb etishi barobarida Sh.Rahmatullayevning “O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati” kitoblarida quyidagicha izohlanadi:

“Obro' topmoq” kim nufuzga molik bo'lmoq. Antonimi: obro'sini yo'qotmoq, obro' tushdi. “Obro' orttirmoq (ayn. obro' ko'rmoq. Obro'yi bir (yoki uch) pul bo'ldi ayn. obro'yi ketdi” kabi ta'riflar bilan keltiriladi. [4, 75] Ingliz tilida mazkur frazeologik birlikning bir nechta adekvatlarini keltirish mumkin:

1. “to gain prestige” iborasi ingliz tilida “respect and admiration given to someone or something, usually because of a reputation for high quality, success or social influence” ya'ni izohni o'zbek tiliga tarjima qiladigan bo'lsak, “kimgadir yoki biror narsaga hurmat va hayrat, odatda yuqori sifat, muvaffaqiyat yoki ijtimoiy ta'sir obro'si tufayli” biror maqomga ega bo'lish degan ma'noni anglatadi.

2. “enjoy prestige” iborasi ham yuqoridagi ibora bilan ma'no jihatdan bir xil hisoblanadi.

Yomon ko'z tegmasin husnungga, ey mahublar shohi,

Amir ash'oridin bu ruq'ani bo'ynungga tummor et. [5, 79]

Bayt mazmuni: sevimlilar shohisanki, husningga yomon ko'z tegishi mumkin. Shuning uchun Amiriyning (ya'ni oshiqning) she'ridan xat yoki nomani bo'yingga tumor qilib osib olgin, toki hatto oshiqning ham ko'zi unga tegmasin.

Biz tahlil uchun tanlagan baytlar, asosan, maqta'lardan olingan bo'lib, unda lirik qahramonning holati eng kulminatsion nuqtaga chiqqan holatda tasvirlanadi.

Avvalo, “ko'z tegmoq” frazeologik birligining milliylik xarakteridan kelib chiqib o'z ona tilimizdagi izohlariga e'tibor qarataylik: “ko'z tegdi kimga yoki nimaga ko'zikmoq. Varianti: ko'z(i) tegdi kimning kimga yoki nimaga. Ko'z tegmoq. Xurofiy tushunchaga ko'ra, birovning nazari tushishi sababli og'rимоq, ziyon yetmoq”. [4, 75] Ingliz tilida bu frazeologik birlikni aynan tarjimasini yo'q. Chunki ingliz millatida birovning nazari tushishi oddiy hol hisoblanib, ularda

og‘rib qolish degan tushuncha mavjud emas. Lekin biror narsa yoki odamga “ko‘z-quloq bo‘lib turmoq” iborasi ingliz tilida mavjud bo‘lib, “to keep an eye on somebody or something” deya aynan tarjimada izohlangan. Bundan ko‘rinadiki, ba‘zi iboralar boshqa bir tilda o‘z tarjimasiga ega emas.

Amiriyning badiiy mahorati, ona tilimizning eng nozik jihatlarini ham yaxshi bilishi uning asarlarida chiroyli tarzda o‘z aksini topgan.

Ey sarvqadlar sarvari, istar Amir iqbolingiz,

Boshimg‘a savdo soldingiz, bo‘lsun salomat boshingiz. [6, 138.]

Yuqoridagi baytda “boshingga savdo solmoq” frazeologik birligi izohli lug‘atlarda quyidagicha izohlanadi: “boshga solmoq” og‘ir qiyinchilikka, azobga duchor qilmoq”. [7, 332]

Demak, “boshga savdo solmoq” frazeologik birligi azobga duchor etmoq ma‘nosini anglatar ekan, lirik qahramon unga azobni ravo ko‘rgan mashuqasiga omonlik tilaydi, ya‘ni boshing omon bo‘lsin, deydi.

Amiriy g‘azallari o‘ziga xos obrazlar silsilasiga ega. U g‘azallarida frazeologik birliklardan o‘z o‘rnida, unumli foydalanadi. Filologiya fanlari doktori Zebo Qobilovning “Oltin beshikda ulg‘aygan siymo” maqolasi [5, 90-97]da shoir shaxsiyati va ijodi borasidagi bir qancha munozarali jihatlar yoritilsa-da, ammo biz ushbu shoirning shoirlik mahorati borasida, uning milliy-madaniy frazeologik birliklarni qay tarzda qo‘llaganligiga ko‘proq urg‘u berdik va bevosita bu til birliklarining ingliz tilidagi adekvatlari, ekvivalentini tanlash borasida mulohazalarimizni berdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N. Bemisl tilsim. – T.: Tafakkur. 2021, 3-son.
2. Asrlar sadosi. – Toshkent:1982.
3. Komissarov V.N. Tarjima nazariyasi. M:Oliy shk. 1990
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – T.:1978.
5. Qobilova Z. Oltin beshikda ulg‘aygan siymo. – T.:Tafakkur, 2020. 3-son.
6. Amiriy. Qoshingga tekkizmagil qalamni. Toshkent: 2008.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom.

PO‘LOTJON DOMULLA QAYYUMOVNING “TAZKIRAI QAYYUMIY” DAGI AYRIM OYKONIMLAR XUSUSIDA

Sofiya USMONOVA,
Qo‘qon DPI, o‘zbek tili kafedrası
katta o‘qituvchisi,
Gulira‘no MURODOVA,
Dang‘ara tumani 23-IDUMI o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqola Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” asarida keltirilgan ayrim oykonimlar va ularning yorilishi haqida bahs yuritadi.

Kalit so‘zlar: tazkira, Qatag‘on dahasi, Marg‘ilon dahasi, Sarmozor dahasi, Xo‘jand dahasi.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются некоторые из ойконимов, упомянутых в «Тазкирай Кайюмий» Полотжона домуллы Кайюмова, и их взлом.

Ключевые слова: тазкира, Катаганский район, Маргиланский район, Сармозорский район, Ходжентский район.

Annotation:

This article discusses some of the oykonims mentioned in Polotjon domulla Qayyumov's Tazkirai Qayyumiy and their cracking.

Keywords: tazkira, Qatagan district, Margilan district, Sarmozor district, Khojand district.

Abdulla Qahhorga “Istiqbol” maktab-internatida “hisob, jo‘g‘rofiyadan” dars bergan Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” asari nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslikning onomastika sohasi uchun ham muhim manbalardan biri sanaladi. Unda Qo‘qon shahri va atrof tumanlari joy nomlari, ularning etimologiyasi haqida ham juda ko‘p ma‘lumotlar uchraydi. Tazkira arabcha –zikr ma‘nosini bildiradi. Kitobda qaysi ijodkor nomi zikr qilinsa, albatta uning yashash joyi, o‘qigan madrasasi, kasb-kori, nasabi, ijodiga ham alohida to‘xtalangan.

“Tazkirai Qayyumiy”da 324 nafar shoirlar haqida ma‘lumotlar va ularning asarlaridan namunalar keltirilgan. Unda nomlari zikr etilgan ijodkorlarning yashash manzili, ma‘lumoti, kasb-hunariga oid ma‘lumotlarning batafsil berishishi onomastika sohasida eng ishonchli manbalaridan biri deyishimizga asos bo‘ladi.

Adabiyotshunos olim O.Jo‘raboyev Po‘lotjon domulla haqida: “...XX asrning orifu fozil insonlaridan biri edi. Bir qaraganda bu inson o‘tmish bilan kelajak oralig‘ida nafaqat yashagan va balki XXI asr avlodiga o‘z davridan munosib merosni taqdim eta olgan,” [4.3] ligini to‘g‘ri ta‘kidlagan.

Qo‘qon xonligi davrida shahar 12 ma‘muriy birlik – aminlikka bo‘lingan bo‘lib, har birining tarkibida o‘rta hisobda to‘rtadan sakkiztagacha mahalla mavjud bo‘lgan. Aminlikka amin, mahallaga ellikboshi (oqsoqol) boshchilik qilgan.

A. Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida mansab-amal nomlari keltirilgan quyidagi parchani ko‘rishimiz mumkin: *Qobil boboning qo‘shnisi - burunsiz ellikboshi kirdi. Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma, ho‘kizing” deganday bo‘lib ketdi*[8].

Mustamlaka davrida aminlik tugatilib, shahar to‘rt daha (Sarmozor, Xo‘jand, Qatag‘on, Marg‘ilon) ga bo‘lingan.

Sobir Abdulla “Mavlono Muqimiy” asarida “Qo‘qon shahrining sathi 20 kv/km dan iborat, xonlar zamonida qo‘rg‘on bilan ixotalangan bo‘lib, shaharga 12 darvozadan kirilardi. Shahar Qatag‘on, Marg‘ilon, Sarmozor, Xo‘jand nomi bilan 4 dahaga bo‘linardi”[3.4]. Keltirilgan ushbu ma‘lumotdagi shaharning to‘rt dahaga bo‘linganligi haqidagi ma‘lumotga aminlik tugatilgandan keyingi davr ma‘lumoti sifatida qarash kerak bo‘ladi.

Daha I [f.<sug‘d.۰۲ - qishloq] tar. O‘rta Osiyo xonliklarida: qishloq joylarida bir necha qishloqdan, yirik shaharlarda esa bir qancha mahalla, mavzedan iborat bo‘lgan ma‘muriy-hududiy birlik. *Mirzakarimboyni Toshkentning to‘rt dahasi biladi.Oybek, Tanlangan asarlar*[7. 581].

Ularga “Tazkirai Qayumiy” da keltirilgan ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

1. Sarmozor daha. “Qoriy – Sarmozor daha Panjarasoz mahallasida tug‘ilgan. Madrasai Norbo‘taxonda o‘qib, Xo‘jand dahasining G‘ozi yog‘liq mahallasi masjidida bir necha yil imomlik qilgan”. [5. 313]

Sarmozor Qo‘qondagi eng qadimgi qabriston nomidir. Bu mozor shayboniylar davrida ham mavjud bo‘lib, forschada “sar”- katta, bosh, asosiy ma’nolarini anglatadi. Qabriston nafaqat mahallaga, balki shaharning 12 darvozasidan biri va dahaga nom bergan.

2. Xo‘jand daha. “G‘aribiy – Bu kishi Xo‘qand shahrida Xo‘jand dahasiga tobe’ Bekbachcha II mahallasida hozirgi Muqimiy nomli ko‘chada 1885 yilda kosib oilasida dunyoga kelmish”[6. 626].

O‘tmishda Xo‘jand darvozasi qurilmasdan ancha avval “Bobokarvon mavzei” deb atalgan. Shayboniylar sulolasining vakili Abdullaxon Buxorodan Qoshg‘argacha bo‘lgan karvon yo‘lini, ya’ni Buyuk Ipak yo‘lini kattagina qismini obod qildirgan. Abdullaxon bu ishni Xo‘qandlik mashhur karvonboshi Muhammad Yunus Sarkorga topshirgan. Sarkor Buxorodan Qoshg‘argacha bo‘lgan yo‘lni, karvonning bir kunda o‘rta hisobda bosib o‘tadigan masofasini hisoblab chiqib, har bir kunlik yo‘l oxiriga bittidan manzil qurgan. Buxorodan Qoshg‘argacha 54 manzil qurilgan. Har bir manzil majmuasi rabot (karvonsaroy), toza suv bilan to‘ldirilgan sarhovuz yoki quduq, bozorcha, karvon uchun zaruriy ustaxonalar, novvoyxona, oshxona, tuyaxona, sarroflik do‘koni va boshqa xizmat o‘rinlaridan iborat edi. Yo‘l holatidan mamnun bo‘lgan Abdullaxon Muhammad Yunus Sarkorni shu karvon yo‘liga oqsoqol (boshliq) etib tayinlaydi va unga “Bobokarvon” degan unvon beradi. Sarkor manzillardan birini o‘zi istiqomat qiladigan joy, ya’ni hozirgi Xo‘jand dahasi mahallasi hududiga qurdirgan edi. U yo‘l oqsoqoli vazifasida turar ekan, shu manzildagi karvonsaroydan bir necha hujrani olib, o‘z idorasiga aylantiradi. Bu karvonsaroy “Bobokarvon karvonsaroyi” deb nom oladi. P.N.Nebolsin “Qo‘qon xonligi va Qoshg‘ar o‘rtasidagi savdo-sotiq yiliga 30-40 ming tilloga teng bo‘lgan. Qo‘qon-Qoshg‘ar savdo aloqalari yo‘l qiyinchiliklariga qaramay karvon yo‘llarining xavfsizligi va osoyishtaligi har hafta karvonlarning yo‘lga chiqishiga asosiy omil bo‘lgan” [2. 6] ligini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Ko‘rinadiki, Qo‘qon xonligi davrida karvon yo‘llari xavfsizligi yaxshi ta‘minlangan. 1740-1750 yillarda shahar birinchi marta devor bilan o‘rab olinganida, shu mavzeda ochilgan darvoza Xo‘jand darvozasi deb nom oladi. Shundan so‘ng odamlar mavzening asl nomini unutib, bu joylarni “Xo‘jand darvozasi mavzesi” deb ataydigan bo‘ldilar [1. 141-142]. Keyinchalik bu hudud “Xo‘jand dahasi” deb yuritilib ketgan.

3. Marg‘ilon daha. “Valiy – Bu kishi Xo‘qand shahridan bo‘lub, Marg‘ilon daha Haloki jon mahallasidan bir temirchi kosibdir” [6. 546].

Xo‘qand hukmdori Abdulkarimbiy qalmoq qabilalarining bosqinidan so‘ng, 1740 yillarda shahar atrofiga qo‘rg‘on va darvozalar qurishni boshlagan, biroq bu ish yakuniga yetmay qolgan. 1842 yilda Sheralixon shaharni to‘liq o‘rashga erishgan. Qurilish asosi Marg‘ilon yo‘li ustiga qurilgan darvoza “Marg‘ilon darvozasi” deb atalgan. Bu darvoza, darvoza yonidagi mahallaga, aminlikka, keyinchalik katta bir dahaga nom bergan.

4. Qatag'on daha. "Zavqiy – Bu kishi Xo'qand shahridan bo'lub nomi Mulla Ubaydulla bo'lib Muhammad Soleh o'g'lidir. Qatag'on dahasida Shayxon mahallasida kosib oilasida dunyoga kelmishdir" [6. 491].

Ittifoq davrida mahallaning boshqaruv tizimidagi nufuzi pasaytirib yuborildi. Mustaqillik tufayli mahallaning qadimiy obro'si zamon ruhiga mos holda asliga qaytdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev M.Ya. Xo'qandi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanish tarixi. Farg'ona.: - 2007, 141-142 betlar
2. Nebolsin P.N. Ocherki torgovli Rossii so stranami Sredney Azii. Xivoy, Buxoroy i Kokandom. SPb. 1856, 6-bet.
3. Sobir Abdulla. Mavlono Muqimiy. – T,19., 300-bet.
4. Po'latjon Qayyumov. Xo'qand tarixi va uning adabiyoti. T: – Tamaddun, 2011. 3-bet.
5. Qayyumov P. Tazkirai Qayumiy. II kitob. 313-bet.
6. Qayyumov P. Tazkirai Qayumiy. III kitob. 546-, 626-, 491-betlar.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tomlik. I tom. 581-bet.
8. <https://ziyouz.uz/uzbek-nasri/abdulla-qahhor/abdulla-qahhor-ogri-hikoya>.

HAYOT HAQIQATINING BADIY AKSI

Zumrad TESHABOYEVA,
O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti
(O'zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada badiiy adabiyot hayotning in'ikosi ekanligi, bu yo'lda shoir ijodkor mahoratining nechog'lik ahamiyatligi, badiiyatda realizm va idealizm tamoyillarining parallel harakati, ularning o'zaro kesishuvchanligi kabi masalalarga to'xtalangan.

Kalit so'zlar: badiiyat, ijodkor mahorati, realizm, idealizm, zamon-makon munosabati.

Аннотация:

В данной статье акцентируется внимание на том, что художественная литература является отражением жизни, на значении творческих способностей поэта в этом плане, на параллельном движении принципов реализма и идеализма в искусстве, на их пересечении.

Ключевые слова: искусство, творчество, реализм, идеализм, пространственно-временные отношения.

Annotation:

This article focuses on the fact that fiction is a reflection of life, the importance of the poet's creative skills in this way, the parallel movement of the principles of realism and idealism in art, their intersection.

Keywords: art, creativity, realism, idealism, time-space relationship.

„Vaqt ta'sirini o'tkazmaydigan narsaning o'zi qolmapti. Hatto asl mol ham uning qoshida ojiz ekan“. „Puankare“ asari qahramoni o'z hikoyasini aynan shunday boshlaydi. Qahramon ushbu fikrni bir paytlar odamlarning malomatiga qaramay, juda katta pulga Moskvadan sotib olgan portfeli haqida aytgan. Uni sotgan sotuvchi o'z mahsulotining bir asr xizmat qilishini aytgan edi. Lekin ko'rinib turganidek portfel yillar o'tishi bilan o'zining qimmatini yo'qotib, ancha eskrib qolgan. Hikoya qahramoni ham yoshligida favqulodda iqtidorli matematik, o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ygan orzumand yigit edi. Yillar o'tishi unga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. U oldinda o'zini nimalar kutayotganini bilmasdi. Hikoya qahramoni hayot yo'lida bir qancha to'g'rilab bo'lmas xatolarga yo'l qo'ydi. Uning eng katta xatolaridan biri o'z mustaqil fikriga ega bo'lsa ham, uni aytishga judayam qo'rqardi. Buni bir necha o'rinlarda ko'rishimiz mumkin:

1. O'zi ko'ngil qo'ygan Munisaning unga befarq emasligini bila turib, hayotini boshqalar hal qilishiga ko'nib qo'ya qoldi. To'g'ri, ota-onaning fikri juda muhim hisoblanadi, lekin bu degani bila turib o'z hayotini qurbon qilish kerak degani emas.

2. Juda katta mashaqqatlar bilan uy olish uchun yig'gan 4000 rubl pulini „do'st“ining quruq vadasiga ishonib, unga shunchaki topshirib qo'ygani. Aqlli odam kimgadir (u ming yaqin qadrdoni bo'lsa ham) ko'r-ko'rona ishonmasligi kerak.

3. Xotini va qaynanasini uning ustidan hukmron bo'lishiga yo'l qo'yib berdi. Agar oilaviy hayotining boshidan o'z fikrini aniq ayta olganida va shu fikrda mustaqil tura olganida, oilada mustahkam o'rniga ega bo'lishga harakat qilganida, balki, ko'p ko'ngilsizlik sodir bo'lmasdi va o'zining orzusi bo'lgan gipotezani ham aynan U birinchi bo'lib isbotlab bergan bo'lardi. Chunki uni isbotdan atigi 0.001 foizgina ajratib turgandi. Hayot davomida umr yo'ldosh naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi shu o'rinda yaqqol namoyon bo'lgan.

Endi hikoya qahramoni hayotida yo'l qo'ygan boshqa bir xato haqida to'xtalsak. Qahramon o'z umri davomida juda ko'p o'rinlarda „ikkita kemada suzish“ga harakat qildi. Odamzod mexanizm emas, u jismoniy va aqliy yuklamani ko'tara olmasligi mumkin, lekin hikoya qahramoni o'zi uchun juda katta yukni oldi. Natijada esa deyarli hamma ishlari yarim yo'lda chala qolishga majbur bo'ldi. Amallar niyatlarga bog'liqdir, hikoya qahramoni buni esdan chiqardi. Ilmiy rahbari unga „tishining kavagida asrab“ bergan mavzuning qiziqarli ekanligini bilsa ham, unga unchalik qiziqmadi, „majburan“ ishni bajardi. Bo'ynida bog'langan it ovga yaramas deganlariday, bu ishi unga baribir pand berib qo'ydi. Yana bir yomon niyat bilan boshlangan voqea bu uning to'yi. To'y oldindan to'yboshilar hali quda bo'lmasdan turib bir-biriga tish qayrashga o'tib ketgan, ikkala tomon ham bir-birini „dushman taraf“ deb atay boshlagan edi. Hatto kuyovning oilasidagilar: „hali kelinni olib kelay, nima qilishni o'zim bilaman“, -dedi. Bu niyatlar, albatta, kelajakka ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Yana ilmiy ishiga qaytadigan bo'lsak, agar hikoya qahramoni, dastavval, ilmiy ishini yoqlab, keyin o'z orzusi bo'lgan gipotezani isbotlashga kirishganda, balki orzusi amalga oshgan bo'lardi. Hatto hikoya qahramoni bir o'rinda o'zining „ikki kemada suzayotgan“ini aytib o'tgan. Ilmiy yo'lida ikki kemada suzgan qahramonning, afsuski, shaxsiy hayotda ham

omadi kelmadi. Bunga o‘zi yo‘l qo‘ygan xato bevosita sabab bo‘ldi. „Uchrashuvga ham chiqmasdan“ uylangan qizi uni umri davomida juda qiyin ahvollarda qolishiga sababchi bo‘ldi.

Hikoyada muallif „Puankare“ gipotezasiga bergan ta'rifdan bildikki, ushbu gipotezada jismlar oddiy emas, balki siqilganda, buralganda, cho‘zilganda o‘zgarmaydigan jismlardir. Qahramon ham aslida o‘ta iste’dodli matematik bo‘lsa ham, hayoti davomidagi „siqilish, cho‘zilish va buralish“larda o‘zgarishga uchradi. O‘zi uchun tanlagan yo‘lidan bir necha bor og‘ishib ketdi. To‘g‘ri, aytishimiz mumkinki, uning hayolida orzusi har doim turgan edi deb, lekin ana shu orzusiga millimetrlar qolganda yetolmay qolishiga uning o‘tmishida yo‘l qo‘ygan yuqorida sanab o‘tilgan xatolari sabab bo‘ldi. Hikoyadagi boshqa bir necha qahramonlar esa, hayotdagi „siqilish, buralish va cho‘zilish“larda bu darajada o‘zgarmadilar. Munisa, Tirkash kabilar yaxshi bo‘ladimi, yomon bo‘ladimi o‘z maqsadiga erisha oldilar, hayotda o‘z o‘rinlariga ega bo‘ldilar. Munisa fan doktori, Tirkash kimsan „tog‘obegi“ bo‘ldi. Bunga esa o‘z mustaqil fikrlarini ayta olganlari va unda sobitqadam bo‘lolganlari bilan erishdilar.

Endi qahramon va uning shogirdi bilan bog‘liq sahnaga e’tibor qaratsak. Hikoya qahramoni tayyor kashfiyotiga kimnidir sherik qilishni xohlamaydi. Buni unutmazlik kerak, u shogird qidirishiga sabab unda yoshlikdagi shijoati qolmagandi buni esa u yaxshi anglab turardi. Shu sababli unga yosh va iqtidorli shogird kerak edi. Hatto hikoya qahramoni gipotezani Parelman isbotlab berganda o‘zining bu masalada hudbin odam ekanligini aytib ham o‘tdi. Taqdirni qarangki, u topgan favqulodda iqtidorli shogird ham uning o‘tmishda yo‘l qo‘ygan xatolarini takrorlashga kirishib ketdi, lekin shogir "ikki kemada suzish"ni xohlamadi. Buni shifoxonadan chiqib ketishda yangi gipoteza yechimining dastlabki bosqichi yozilgan varoqni olmagan o‘rnida ko‘rish mumkin.

Hikoyada qahramon yo‘l qo‘gan xatolarda, albatta, tashqi olamning ta'siri katta bo‘ldi. Ro‘zg‘or, ota-ona orzusi, bola-chaqa tashvishi uni ko‘p o‘rinlarda yaxshigina qiyin ahvollarga solib qo‘ydi. U hayotdagi muvozanatini yo‘qotdi. Bunday qahramonni „Muvozanat“, „Isyon va itoat“ romanlaridagi boshqa obrazlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Hikoya qahramoni ming yillikning eng qiyin masalalaridan biriga javob topa olgan holda, undan-da murakkabroq bo‘lgan „HAYOT“ masalasiga yechim topishda adashdi. Bir qancha xatolarga yo‘l qo‘ydi. Sharqona urf-odatlar va o‘z orzusi o‘orasidagi „OLTIN O‘RTALIK“ni topa olmadi. Shu o‘rinda asar oxirida hikoya qahramoni tomonidan yechimini topishga kirishilgan yangi gipotezaning nomi ham juda o‘rinli tanlanganini aytmogchiman. Bu gipoteza – „SHARQ“. Hikoya qahramoni butun umri davomida sharqona urf-odatlarining qaysidir ma'noda qurboni bo‘ldi. Bu bilan uning hayotidagi ko‘ngilsizliklarga urf-odatlar sabab bo‘lgan demoqchi emasman. U ana shu urf-odatlariga to‘g‘ri yondasha olmadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare. – T.: Akademnashr, 2014.

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЙ МЕТОД ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА

Элнура ТУРДИАЛИЕВА,
преподаватель русского языка и литературы
Педагогический Институт
Андижанского государственного
университета

Annotatsiya:

Tarjima ilmi, tarjimashunoslik ilmining faqatgina bir qismi hisoblanib, u o'z navbatida bixevioristik ilmining bir turi sifatida ifodalanadi, ya'ni uning maqsadi til yordamida insonni muloqotda fe'l-atvorini tasvirlab berish va uning o'z o'rnini ko'rsatib berishini anglatadi. Tarjima ilmini qiyosiy tilshunoslik bilan ko'p o'xshash taraflari borligini ko'rish mumkin. Tarjimada asosiy tayanch uning tuzilishiga qaratiladi, shundan kelib chiqib unda semantik omillar yetakchi hisoblanadi. Mazkur maqola tarjimada badiiy matnning transformatsiya metodi orqali ifodalanishini o'rganadi.

Kalit so'zlar: transformatsiya metodi, tarjimashunoslik, badiiy matn, badiiy tarjima.

Аннотация:

Лингвистический принцип перевода, прежде всего, предполагает воссоздание формальной структуры подлинника. В синтаксисе приемы трансформации чаще всего используется в обучении иностранному языку. Трансформационный метод использует лингвистический эксперимент как основной инструмент исследования. В статье анализируется трансформационный метод при переводе художественного текста на материале русского и узбекского переводов.

Ключевые слова: метод трансформации, переводоведение, художественная литература, художественный перевод.

Annotation:

The linguistic principle of translation, first of all, involves the reconstruction of the formal structure of the original. In syntax, transformation techniques are most often used in teaching a foreign language. The transformational method uses the linguistic experiment as the main research tool. The article analyzes the transformational method in the translation of a literary text on the basis of Russian and Uzbek translations.

Key words: transformation method, translation studies, fiction, literary translation.

Интерес к проблеме переводческих трансформаций со стороны лингвистов и их всестороннее изучение являются в курсе теории и практики перевода уже традиционными. Такие широкоизвестные лингвисты, как А.Д.Швейцер [1], Я.И.Рекцер [2], Л.С.Бардухаров [3], В.Н.Комиссаров [4], А.В.Федоров [5], К.Мусаев [6], У.К.Юсупов [7], М.Н.Холбеков [8] и многое

другие посвятили исследованию переводческих трансформации свои многочисленные статьи и монографии.

Трансформационный метод использует лингвистический эксперимент как основной инструмент исследования. Трансформационный метод обосновали американские исследователи З.Харрис, Н.Хомский и др. Они хотели преодолеть недочеты дистрибутивного описания. Дело в том, что некоторые элементы содержания «скрыты» от непосредственного наблюдения и требуют выявления «глубинной структуры» при помощи специальных приемов.

В синтаксисе приемы трансформации чаще всего используется в обучении иностранному языку. Например, при объяснении конструкций активного и пассивного залога сопоставляют трансформации в родном и изучаемом языке.

Согласно данному Комиссаровом В.Н. определению, художественным переводом именуется вид переводческой деятельности, основная задача которого заключается в порождении на переводящий язык речевого произведения, способного оказывать художественного-эстетического воздействие на переводящий язык[4,95].

В связи с этим некоторые литературные критики настаивают на том, что художественный перевод- это искусство, которое под силу только художникам слова, опирающимся при переводе главным образом на эстетические критерии.

Из всего вышеизложенного ясно, что художественный перевод в равной степени факт и языковой, литературный; для него (такого перевода) типичны отклонения от максимально возможной смысловой точности с целью обеспечения большей художественности текста перевода.

Проблема заключается в том, что в большинстве случаев исходный язык и переводящий язык оказываются значительно различными по внутренней структуре. Несовпадения в строе двух языков неизменно вызывают необходимость в грамматических трансформациях. Эти несовпадения бывают либо полными, либо частичными. Полное несовпадение наблюдается в тех случаях, когда в узбекском языке отсутствует грамматическая форма, которая есть в русском языке. В некоторых случаях грамматическая категория одного языка является более широкой, чем грамматическая категория другого. Следует выделить также случаи частичного совпадения, когда данная грамматическая существует в обоих языках, но совпадает не во всех своих формах.

Достижение переводческой эквивалентности (“адекватности перевода”) , вопреки расхождениям в формальных семантических системах двух языков, требует от переводчика, прежде всего, умения произвести многочисленные и качественно разнообразные межъязыковые преобразования – так называемые переводческие трансформации – с тем, чтобы текст перевода с максимально возможной полнотой передавал всю информацию, заключённую в исходном тексте, при строгом соблюдении норм переводящий язык.

Однако термин “преобразование” нельзя понимать буквально – сам исходный текст или текст оригинал не преобразуется, в том смысле, что он не изменяется сам по себе. Этот текст, конечно, сам остаётся неизменным, по наряду с ним и на основе его создаётся другой текст на ином языке, который мы называем “переводом”. Таким образом, перевод можно считать определённым видом преобразования, а именно, межъязыковой трансформацией [3,6]

- синтаксические трансформации
- морфологические трансформации
- словообразовательные трансформации

В целях удобства описания все виды преобразований или трансформаций осуществляемых в процессе перевода можно свести к четырем элементарным типам, а именно:

1. Перестановки – это изменение расположения языковых элементов в тексте перевода по сравнению с текстом подлинника. Элементами, могущими подвергаться перестановке, являются обычно слова, словосочетания, части сложного предложения и самостоятельные предложения в строе текста.
2. Замены – наиболее распространённый и многообразный вид переводческой трансформации. В процессе перевода замене могут подвергаться как грамматические единицы, так и лексические, в связи с чем можно говорить о грамматических и лексических заменах. К грамматическим же относятся следующие типы:
 - а) замена форм слова;
 - б) замена частей речи;
 - в) замена членов предложения (перестройка синтаксической структуры предложения);
 - г) синтаксические замены в сложном предложении:
 - замена простого предложения сложным
 - замена сложного предложения простым
 - замена придаточного предложения главным
 - замена главного предложения придаточным
 - замена подчинения сочинением
 - замена сочинения подчинением
 - замена союзного типа связи бессоюзным
 - замена бессоюзного типа связи союзным
3. Добаления. Этот тип переводческой трансформации основан на восстановлении при переводе опущенных в исходный язык “уместных слов”
4. Опускание – явление, прямо противоположное добавлению. При переводе опущению подвергаются чаще всего слова, являющиеся семантически избыточными, то есть выражающие значения, которые могут быть извлечены из текста и без из помощи. Как система языка в целом, так и конкретные речевые произведения обладают, как известно,

весьма большой степенью избыточности, что дает возможность производить те или иные опущения в процессе перевода.

Морфологические трансформации.

В результате расхождения морфологического строя русского и узбекского языков перед переводчиком возникают объективные трудности, преодоление которых порой осуществляется путем морфологических трансформаций. Морфологические трансформации включают в себя замену частей речи, особенности передачи при переводе предлога, видовременных категорий, морфологических категорий числа и рода и др. На некоторых видах морфологических трансформаций мы остановимся подробнее.

Предлог.

В русском языке предлоги по структуре делятся на три основные группы:

1. Непроизводные предлоги [1]: в, на, за, по, над, до, для, из, к, без, между, о, от, под, перед, при, пред, через, про, с, ради, у, близ, вместо, вне, вопреки, кроме, среди, сквозь, из-под, из-за.

2. Производные предлоги бывают наречные, отыменные и деепричастные.

а) наречные предлоги, которые сформировались на базе наречий и не утратили с ними живых смысловых связей: вблизи, вдали, сверху, сбоку, сзади, снизу, посередине, около, подобно, относительно, соответственно, подобно и др.

б) отыменные предлоги: ввиду, в виде, в деле, во время, в ходе, в начале, в целях, в меру, в течение, вследствие, по пути, по поводу, по причине, со стороны, с помощью, в центре, во имя и др.

в) деепричастные предлоги: начиная, кончая, включая, исключая, благодаря, спустя и др.

3. Сложные предложные сочетания: исходя из, начиная от, несмотря на, смотря по, судя по, следом за, в отличие от, в связи с, в зависимости от, независимо от, наравне с, вместе с, по вопросу, не говоря о, глядя по, в ответ на и др.

Послелог -служебная часть речи, выражающая синтаксические отношения между именем и глаголом, между именем и именем. Послелог в узбекском языке вступают в синонимические отношения с падежами, а также уточняют и дополняют значения падежей, обозначают синтаксические отношения, не выражаемые падежами.

По морфологическому строению послелог делятся на следующие группы [2]:

Собственно послелог, которые в современном языке проявляются только в сочетании с другими именами или глаголами: билан, учун, каби, сингари, узра, сари, сайин, кадар и др.

Отыменные послелог -слова, которые наряду с функциями послелогов сохраняют самостоятельное значение: бурун, томон, илгари, кейин, бошка, ташкари. Отглагольные послелог являются по своему образованию деепричастными формами: кура, яраша, тортиб, бошлаб.

В современном русском языке предлоги тоже служат для связи слов в предложении и являются служебными частями речи, а в узбекском языке нет предлогов, но их заменяют падежные окончания или союзные слова. У каждого языка свои собственные свойства употребления служебных частей речи.

Вот, приведём несколько примеров с переводом на узбекский язык русских предлогов: в русском языке родительный падеж является с наибольшим количеством **предлогов: у, около, возле и вокруг** — являются синонимичными. Я вас жду у магазина, (около магазина, возле магазина или же вокруг магазина) — Men sizni magazin yonida kutaman . (magazin yaqinida , magazin oldida yoki magazin atrofida) — ни один из этих вариантов не будет считаться не правильным в обоих языках.

Теперь рассмотрим **предлог у**; 1) «я вас жду у магазина» обозначает место — отвечает на вопрос где?, «Men sizni magazin yonida kutaman » joyni anglatib — qayerda ? savoliga javob beradi.

2) «я взял эту книгу у друга» — у кого?, « men bu kitobni do ' stimdan oldim » — kimdan ?, 3) «у того человека есть интересная книга» — у какого человека?, « o ' sha odamda qiziqarli kitob bor » — qaysi odamda ?. Как видно из вышеприведённых примеров имена существительные одним и тем же предлогом у приобретают разные лексические значения и на русском и узбекском языках.

Если переводчик забудет о подобном моменте , узбекское предложение будет неполным и неточным.

В языкознании принято говорить о “лексических” и “грамматических” значениях. При этом иногда создаётся впечатление, что эти два типа значений отличаются друг от друга по своей природе, по своему содержанию. На самом деле это не так, значения лексические и грамматические отличаются друг от друга прежде всего способом выражения.

Важной характерной чертой каждого языка является то, что некоторые значения отношений выражаются в нем конкретными словами как таковыми, а некоторые не словарными средствами.

Таким образом, исходя из вышеизложенного, можно сделать вывод о том, что в процессе перевода любого текста, тем более, художественного, при котором важной задачей является не только сохранение своеобразия стиля автора, но и максимально адекватная передача средствами переводящий язык художественного образа, созданного в оригинале, переводчик вынужден постоянно прибегать к переводческим, а в частности, к грамматическим трансформациям.

Из этого следует, что значения, являющееся лексическими в одном языке (т.е. выражаемые в нем через словарные единицы), в другом языке могут быть грамматическими (т.е. выразиться “ несловарными средствами”) и наоборот.

Литература:

1. Абдурахимов М. М. Узбекская языковая афористика (фразеология) как объект системы учебных двуязычных словарей (на материале узбекского и русского языков): АКД. Ташкент, 1982. -23с. Авилова Н. С. Вид глагола и семантика глагольного слова. М., 1976. С. 107-112,184 185;
2. Ахмедова, У. Э. Сходства и различия между предложениями русского языка и окончаниями узбекского языка (на примере употребления с существительными) / У. Э. Ахмедова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2021. — № 10 (352). — С. 220-222. — URL: <https://moluch.ru/archive/352/79045/> .
3. Адмони В. Г. Синтаксис современного немецкого языка. JL, 1973 — С. 7. Азизов А. Сопоставительная грамматика русского и -узбекского языков. Морфология. Ташкент, 1960.
4. Азизов А., Сафиев А. Узбек ва рус тилларининг к;иёсий грамматикаси. -Ташкент, 1963.
5. Азизов А., Тилларни к;иёслаб урганиш масаласига доир // Туркий тиллар тараққийети муаммолари. Ташкент, 1995.
6. Апресян Ю. Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. -М.: Наука, 1974.-С. 69.
7. Апресян Ю. Д. Экспериментальное исследование семантики русского глагола. М., 1967. — С. 122. Аракин В. Д. О сопоставительном изучении языков. ИЯШ, 1946.-№ 3. -8с.
8. Аракин В. Д. Типология языков и проблема методического прогнозирования. М., 1989.

О‘ЗБЕК ХАЛҚ АН‘АНАЛАРИ ВА МУСИҚА САН‘АТИ ТАРИХИ

Rustam HUSANOV,
QDPI Musiqa ta‘limi kafedrasi o‘qituvchisi
Annotatsiya:

Ushbu maqolada xalq an‘analari, urf-odatlarining, yosh avlodni milliy an‘analarimiz ruhida tarbiyalash Xalq donishmandligi,bo‘lgan e‘tibor, bu borada olib borilayotgan islohatlar haqida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: an‘ana,odat,marosim,qo‘shiq,odob ta‘lim, bilim san‘at, qobiliyat.

Xalq donishmandligining va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini – xalq og‘zaki ijodi, udumlari va marosimlari, diniy-axloqiy ta‘limotini o‘zida jo qilgan. Urf-odat esa an‘anadan farqli o‘laroq insonlarning ma‘lum holatda xalq tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarga qay darajada amal qilishi bilan belgilanadi. Keksa kishilarga izzat-hurmat ko‘rsatish, kattalarning so‘zini bo‘lmaslik, mehmonni el-yurt orasida qabul qilingan tartibda kutish, to‘y-marosimlarni shu hududda qabul qilingan taomillar asosida o‘tkazish kabi qator go‘zal urf-odatlarimiz xalqimizni dunyoga tanitgan.

Ma'lumki, i o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy an'analar va urf-odatlar vositasida tarbiyalash masalasi o'zbek milliy pedagogikasida o'z ifodasini topgan.

Ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning eng asosiy masalalaridan biriga aylanib borayotgan hozirgi davrda xalq an'analari, urf-odatlarining nafaqat tiklanishi, balki yosh avlodni milliy an'alarimiz ruhida tarbiyalash vositasiga aylanishi o'z yechimini topayotgan vazifalardandir.

Qadimda Navro'z bayramida musiqa asosiy ikki funksiyani bajargan: bayramning umumiy fonida ijro etiladigan musiqa va Navro'zning maxsus urflari va harakatlarini o'tkazish uchun ijro etiladigan musiqa. Bunga ataylab kasbiy musiqachilar kuylar bastalaganlar. Sosoniylardan bo'lgan Xusrov 11 Parvizning saroy musiqachisi – mashhur Barbod Navro'z mavzuiga atab bir qancha alohida kuylar yaratgan degan taxminlar bor: “Badi Navro'z”, “Sozi Navro'z”, “Nozi Navro'z” va boshqalar VI-VII asrlar musiqa madaniyatida keng tarqalgan.

Dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, hikmatlar, qayrovi so'zlar, topishmoqlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, yalinchoqlar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgilar bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar qo'shiqlari, ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduz suv aytimlari, tegishmachoqlar, “Navro'z”, “Mehrjon”, bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar xalq musiqa pedagogikasining asosini tashkil etadi. Xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lib asrlar davomida yashab kelgan musiqiy pedagogika ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida, jismoniy barkamolligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning ta'sir kuchi, ahamiyati boisi nimada?

– uning hayotiyligi, serqirra, serma'noligi;

– bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida, jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, inson muammolarini qamrab olishi, tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal etishga qaratilganligi;

– umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya-maqсадlarga qaratilgan bo'lganligidir.

Shu bois boshqa xalq musiqa pedagogikasi avlodlar tarbiyasining ajralmas qismi sifatida hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xalq qo'shiqlarini to'plash va uning xilma-xil variantlarini yozib olish bo'yicha yirik hajmdagi bir qator ishlar qilingan. Xususan, folklorshunos olimlar V.A. Uspenskiy, N. Mironov, E. Romanovskaya, I. Akbarov, Y. Rajabiy, M. Yusupov, F. Karomatov va boshqalar xalqimizning musiqiy me'rosini to'plashga salmoqli hissalarini qo'shganlar.

O'zbek xalq an'analari va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish masalalariga pedagog olimlardan S.Temurova, O.To'raeva, Z.Mirtursunov, M.Ochilov, O.Musurmonova va boshqalar ilmiy oydinlik kiritganlar.

Xalq qo'shiqlaridan tarbiya manbai sifatida foydalanish muammolari bilan A.Hasanov, H. Nurmatov, S. Habibullayeva, F. To'rayev, R. Tursunov va boshqalar shug'ullanganlar.

Qo'shiqlar musiqa merosimizda muhim o'rin tutib kelgan. Faqat to'yda va azadagina emas, balki hayotning har sohasida qo'shiq insonga ruhiy madad,

hamdard va hamroh bo‘lib kelgan. Qo‘shiqlar xalq an‘analari, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘lanib ketadi va ularga fayz kiritadi (“Yop-yor”, “O‘lan”, “Lapar”, “Lirik terma”, “Alla”, “Kelin salom”, “Bayt-g‘azal”, “Xush kelibsiz”, “Yig‘i”). Qadimiy adabiy manbalardan bo‘lib hisoblanadigan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida adabiy termin sifatida “Qoshug‘” shaklida izoh beriladi va u mazmunan she‘r, qasida deb ta‘riflanadi. Qo‘shiq ijro etuvchilarni ham janr turiga qarab har xil nom bilan atalishi ma‘lum: qo‘shiqchi, go‘yandi, ashulakash, laparchi, yallachi, o‘lanchi va h.k.

Yosh avlodga milliy ruh bag‘ishlaydigan bunday ulkan ma‘naviy me‘rosimizning salmoqli bir bo‘lagini tashkil etuvchi xalq qo‘shiqchiligining ham o‘ziga xos an‘analari bor. Ular, birinchi navbatda, kuylash uslublari va xalq qo‘shiqchiligining janr xilma-xilligi bilan belgilanadi. Mavjud qo‘shiqlarni odatda folklorshunos olimlar to‘rtta yirik guruhga ajratishadi (mehnat qo‘shiqlari, mavsum-marosim va urf-odat qo‘shiqlari, lirik qo‘shiqlar va termalar). Bu janrlarga mansub qo‘shiqlar xalq milliy ohanglari asosida milliy bezaklar (nola, qochirim, xonish, nolish, salmoq, titratma, forshlag) bilan kuylanishi milliy bo‘yoq, milliy kolorit beradi va qo‘shiqchilik an‘analariga xos milliylik birinchi navbatda

shu mezonga asoslanadi. Milliy an‘analar ruhida musiqiy tarbiyalash masalasi ham ushbu manbalar zamiridan kelib chiqadi.

Milliy an‘analar ruhida tarbiyalash – har qanday narsani idrok qilish qonun-qoidalaridan kelib chiqqan holda quyidagi to‘rt jihatini o‘zida mujassamlantiradi:

xalq qo‘shiqchiligiga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida tushunchaga va bilimga ega bo‘lish;

bu xususiyatlarni o‘z hissiyotidan o‘tkazib ko‘rish, ularni o‘z ruhiyatiga singdirib borish;

bu xususiyatlarni egallab, o‘zlashtirishga harakat qilish, undan hayot amaliyotida foydalanish;

milliy xususiyatlarni qadrlash, saqlab, avaylash, asrab qolish, uni boyitishga harakat qilish.

Odat va an‘analar bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Ayni paytda ulardan har birining o‘z xususiyati va qonuniyatlari bor.

Musiqa olamida odatlarning turlari ko‘p bo‘lib, ular-oddiy stereotip tarzida qaytariluvchi harakatlarni o‘z ichiga oladi va xatto, avtomat tarzda shakllanib, takrorlanadi. Odatga ko‘ra, qo‘shiq kuylashdan oldin ovoz apparatlarini ishchi holatga keltirish uchun ovoz sozlash mashqlari olib boriladi. Bu mashqlar ko‘p marotaba qaytarilib, kuylovchiga shu darajada yod bo‘lib ketadiki, ular o‘z-o‘zidan o‘ylanmasdan qaytariladi.

Qo‘shiqchilik malakalari ana shunday ko‘plab elementlarni odat tusiga kiritish

orqali yuzaga keladi. Shunday xususiyatlardan biri unli tovushlarni shakllantirishdan

iboratdir. Xalq qo‘shiqlarini kuylash uslubida unlilar o‘ziga xos bir oz ochiqroq tarzda kuylanadi. Yoshlarni tayyorlashda xalq qo‘shiqlarini pardali qilib, madaniylashtirib kuylashga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, “a”,

“e”, “i”, “o”, “u”, “o” harflarining talaffuzi ustida tinmay ish olib borish natijasida ularga unli harflarni to‘g‘ri, madaniyatli qilib kuylash malakalarini singdirish mumkin bo‘ladi

An‘analar, shu jumladan, xalq qo‘shiqchiligiga xos bo‘lgan ayrim urf-odat va an‘analariga to‘xtalar ekanmiz, biz ularning kelajak avlod ma‘naviyatini shakllanishidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan quyidagi xulosalar qilish imkoniga ega bo‘ldik:

milliy an‘analar ruhi inson kamolotida muhim o‘rin egallaydi va u bolalikdan boshlab singdirilishi muhimdir;

o‘zbek xalq an‘analari va musiqa san‘ati, xususan, qo‘shiqchilik bilan bevosita

bog‘liq bo‘lgan an‘analari yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi;

milliy qo‘shiqchilik an‘analari ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘zbekona yuksak insonparvarlik, do‘stlarga sadoqat, Vatanga muhabbat, mehnatga to‘g‘ri munosabat hamda o‘z oriyati, nomusi va vijdonini pokiza saqlash kabi axloqiy xususiyatlarini shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017- yil 16-yanvar, №11.

2. Nomoddiy madaniy meros bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar, – T., 2012-y, 2-modda, 1-banddan.

3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. – T.: 1-tom.1999.357.

INGLIZ TILI TA'LIMIDA FURQAT IJODI TARJIMALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARINI O'RGATISH

**Gulzoda IShBAYEVA,
Toshkent shahar Bektemir tumanidagi
290-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi.
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz tili fanini umumiy o'rta ta'limda o'qitilishida o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Furqat ijodidan tarjimalar berish barobarida o'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirish borasida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Badiiyat, adabiy meros, lisoniy imkoniyatlar, leksemallar, shohbayt, realiya, asliyat, ekvivalent, muqobil variant, badiiy ifoda, matla'.

Аннотация:

В данной статье рассматривается развитие художественного мышления учащихся при обучении английскому языку в общеобразовательной школе, а также при переводе узбекской классической литературы, в частности произведений Фурката.

Ключевые слова: Искусство, литературное наследие, языковые возможности, лексемы, реальность, оригинальность, эквивалент, альтернатива, художественное выражение.

Abstract:

This article discusses the development of students' artistic thinking in the teaching of English in general secondary education, as well as the translation of Uzbek classical literature, in particular, the works of Furkat.

Key words: Art, literary heritage, linguistic possibilities, lexemes, reality, originality, equivalent, alternative, artistic expression.

Til o'qitishning muhim shartlaridan biri - ona tili orqali shu millat madaniyatining eng mukammal jihatlarini, shu millat til boyligini ko'rsatish. Chunki har qanay tilning boyligi va jozibadorligi uning badiiy, adabiy merosida o'z aksini topadi.

Masalan, umumiy o'rta ta'limda dunyo tillari, jumladan, ingliz tili fani o'qitilar ekan, darsliklarda, asosan, ingliz adabiy jarayoni, ingliz tilida ijod qilgan ijodkorlarning asarlaridan namunalar beriladi. Bu orqali mazkur tildagi lisoniy imkoniyatlari bilan birgalikda ingliz xalqining urf-odatlarini, osori-atiqalari ham tahlil qilinadi, o'rganiladi. [1, 65]

Darsliklarda sinfdan tashqari o'qish, mustahkamlash darslari uchun o'zbek ijodkorlarning ham ijod namunalaridan parchalar tarjima (ingliz tili) orqali berib borilsa, agar tarjimalar imkon qadar mukammal qilingan bo'lsa, bu jihat o'quvchilar uchun milliy qadriyatlarimizning eng nozik jihatlarini ham ochib berishda manfaatli xizmat qilar edi.

Masalan, ma'rifatparvar shoir, Qo'qon adabiy muhitida, shu jumladan, o'zbek adabiyotida ham o'z ovozigacha ega bo'lgan iste'dodli ijodkor Zokirjon Xolmuhammad o'gli Furqat ijodi ham badiiy, ham tarbiyaviy jihatidan o'ziga xosdir.

Bu ijodkor asarlari hali yetarli darajada dunyo tillariga tarjima qilinmagan. Vaholanki, Furqat dunyo ko'rgan, tafakkuri keng shoir. U Sharq-u G'arbni sayohat qilish barobarida o'z dunyoqarashini, bilimlarini takomillashtirgan. Buning ta'siri shoirning she'rlarida ham yaqqol sezilib turadi. Ingliz tilida darslaridan shoirning eng mashhur shohbaytlari tarjima orqali darsliklarga kiritilsa, bu o'quvchilar uchun ham tarbiyaviy, ham badiiy tafakkurning kengayishi bilan katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Masalan: "Kelinchak" radifli g'azali orqali o'zbekona hayo, ibo, tashqi ko'rinish betakror tasvir orqali berilgan:

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodan lolarang,

G'ozadin yuzlarda tob-u o'smadin qoshlar tarang. [2, 177]

Birinchidan, "Surma" leksemasini ingliz tiliga tarjimasi, shuningdek, "xino" va "o'sma" leksemalarining tarjimalarini berish uchun alohida izohlar talab qilinadi. Toki bu kabi leksemalar ingliz millati uchun tushunarlimi yoki uning realiya sifatida, yangi alohida izohlar bilan berish kerakmi?

"Surma" leksemasi ko'z uchun mo'ljallangan tabiiy bo'yoqdir. Ingliz tilida uning ma'nosini berish uchun "cosmetic to darken eyebrows"dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoki "xina" va "o'sma" so'zlari ham ingliz tili uchun

alohida izoh talab qiladi. Tarjimon ana shu jihatlarini to'g'ri talqin etmas ekan, g'azalning asliyatdagi ma'nosini berish qiyin bo'ladi. Ko'p holda o'zbek tilining o'zida ham ayrim jihatlar izohlar talab qilish mumkin. Chunki bugungi yoshlarning aksariyati bu kabi tabiiy vositalardan deyarli foydalanishmaydi.

Demak, tarjimada so'zlarning, ya'ni leksemalarining ekvivalentlarini, yoki muqobil variantlarni izlash lozim. Shuningdek, Furqatdek serqirra ijodkorga xos badiiy ifodaning tasvirdagi nozik jihatlarini e'tibordan qolmasligi lozim. Yuqorida keltirilgan matla'da o'zbek millatiga xos kelinchakning tasviri o'ta nozik va jozibali ifodalangan. O'zi asli qora bo'lgan go'zalning ko'zlariga surma surtilishi oqibatida yanada go'zallashgan. Xina qo'ygani bois qo'llari ham lola rangiga kirgan. Ro'mol mahkam bog'langanining hisobiga yuz tortilib taranglashgan-u o'sma qo'yilgani bois qoshlar yanada taranglashgan. Shugina bir baytning o'zidayoq shoir o'zbek qizining bor go'zalligini rangin bo'yoqlarida chiza olgan. Ingliz tilida bu kabi birliklarni quyidagicha tarjima qilish mumkin.

Qora ko'z-black eye

Xinali qo'l-henna hand

O'smali qosh-tumor eyebrow

Bu kabi tasvirlarning tushuntirilishi uchun izohlarni ham tayyorlab qo'yish kerak. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar, an'analar va asori aqiqalar millatning ko'rki hisoblanadi. O'quvchining tili, uning grammatik qonun-qoidalarini o'rgatish barobarida o'zbekona qadriyatlarni ham unutmasliklari zarur. Shuning uchun kitoblardagi ayrim matnlarni o'zbek adabiyotidan tarjimaning misoli orqali berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, muhtaram Prezidentimiz Sh. M.Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqlarida, jumladan, shunday deydilar: "Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatli ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim". [3, 4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Til taraqqiyotining leksik va grammatik muammolari. – Samarqand, 2011.
2. To'xliyev B. Adabiyot. Majmua. II tom. Toshkent, 2014.
3. Til va adabiyot ta'limi. 2019. 5-son.

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODIDAN FOYDALANISH (GULXANIY "ZARBULMASAL" ASARI MISOLIDA)

**Dilrabo MELIYO'ZIYEVA,
QDPI ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistiranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar og'zaki nutqni o'stirishda Qo'qon adabiy muhiti vakillarining

ijodidan, xususan, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridan foydalanish haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar : nutq, nutq oʻstirish, masal, Gulxaniy, "Zarbulmasal", metod, lugʻat boyligi.

Аннотация:

В статье рассматривается использование кокандских литературных произведений, в частности «Зарбулмасал» Гюльхани, в развитии устной речи учащихся на уроках родного языка и читательской грамоты начальных классов.

Ключевые слова: речь, развитие речи, притча, Гулханы, «Зарбулмасал», прием, лексика.

Annotation:

The article discusses the use of Kokand literary works, especially Gulkhani's "Zarbulmasal", in the development of students' oral speech in primary school native language and reading literacy classes.

Keywords: speech, speech development, parable, Gulkhani, "Zarbulmasal", method, vocabulary.

Oʻzbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yoʻlidan borar ekan, oʻz fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bogʻlagan, oʻsib kelayotgan yosh avlodning barkamol boʻlib voyaga yetishiga alohida eʼtibor qaratmoqda. Hozirgi paytda boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini rivojlantirishga dunyo talablari asosida bilim berish talablari qoʻyilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Bu esa oʻz navbatida quydagi muammolarni bartaraf etish yoʻllarini izlashimiz lozimligini koʻrsatadi.

Oʻquvchi nutqining muhim koʻrsatkichlaridan biri uning soʻz boyligidir. Pedagogik adabiyotlarda berilgan ilmiy maʼlumotlarga qaraganda 2 yoshli bolalar 30dan 100 gacha, 4 yoshli bolalar 1000 dan 4000 gacha, 7 yoshli bolalar 3000 dan 7000 gacha, 10-11 yoshli bolalar 8000 dan 15000 gacha, 14-15 yoshdagilar 11000 dan 18000 gacha soʻzni bilishlari lozim. Ammo, afsuski, ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida oʻtkaziladigan mashgʻulotlarida fikrni ogʻzaki va yozma shaklda bayon qilish zaruriyati tugʻilganda oʻquvchilardagi soʻz boyligi kamligi darrov sezilib qoladi. Nutqda soʻzlarni takroriy qoʻllash, berilgan soʻzni uning maʼnodoshi, uyadoshi va qarama-qarshi maʼnoligi bilan almashtira olmaslik, maʼlum bir sohaga qarashli soʻzlar lugʻatini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, oʻquvchilarning soʻz boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.

Boshlangʻich sinf ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida olib boriladigan barcha mashgʻulotlarning yetakchi oʻrni nutq oʻstirish boʻlib, u savod oʻrgatish, chiroyli yozish koʻnikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini oʻz ichiga oladi. Bu darslarda koʻproq amaliy maqsadlarni koʻzlash, til boylıklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, oʻquvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning ogʻzaki nutqini muntazam oʻstirib borish bogʻlanishli nutq, matn tuzishlarda yordam beradi.

Bunda biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishda Qo'qon adabiy muhiti vakillarining yorqin ijodidan foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan shunday ijodkorlardan biri Muhammadsharif Gulxaniy hisoblanadi. U XIX asrning 20-yillarida yashab ijod qilgan. Bizgacha uning o'zbek va tojik tillaridagi 12 g'azali, Qo'qon xoni Amir Umarxonga bag'ishlangan 1 qasidasi va "Zarbulmasal" asari yetib kelgan. Zarbulmasal so'zi zarb va masal so'zlarining qo'shilmasidan iborat bo'lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so'zlamolikni anglatadi. Zero, undagi pandnamo hikoyatlar, xususan, majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so'zlash, "Tuya bilan bo'taloq", "Maymun bilan najjor", "Toshbaqa va chayon", "Bozanda va Navozanda" kabi bir qancha masallar hamda xalq maqollar keltirib o'tilgan. Ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o'quvchilarni mustaqil ravishda ijodiy fikrlashga undash lozim.

O'quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalay olsalar, demak, mashg'ulotlar samarali o'tgan bo'ladi. Bunga misol qilib Zarbulmasal asrida keltirilgan "Toshbaqa va chayon" masalini olaylik. Bu masalni o'qituvchi o'quvchilarga obrazli o'qib eshittiradi. So'ngra o'quvchilar masalni ro'llarga bo'lib obrazli qilib o'qiydilar, o'quvchilar xotirasida qolgan ma'lumotlarni o'z nutqidan foydalanib qayta hikoya qilib beradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni lug'at boyligini o'stirishda, mustaqil fikrini shakillantirishda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida keltirilgan masal va maqollardan unumli foydalanishni tavsiya etaman.

Bu xildagi dars o'yin turdagi mashg'ulotlar bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi, ularning mustaqil, ijodiy faoliyatini, lug'at boyligini oshirib, nutqini rivojlantirishga yordam beradi va darslarning uzviy bog'liqligini mustahkamlaydi. Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi galdagi vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim. Bu tadbirlar o'quvchilarning yil davomida olgan bilimlarini namoyish qilishga, tahlil etishga va mustahkamlashga, og'zaki nutqini o'stirishga, eslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi metodlar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Shunday qilib, hikoya mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qahramonlarni analiz qilishni talab qiladi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday ishlar asta-sekin murakkablashib boradi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoya qilishda o'quvchilarni

aynan emas mustaqil fikrlashiga katta e'tibor qaratishimiz lozim. Bunda biz hikoyani xulosalash, mazmuni shu hikoyaga yaqin yana qanday hikoyalar borligi, shu hikoyaga mos qanday maqollarni bilishi haqida ham so'rab o'tishimiz lozim. Bu o'z navbatida o'quvchilarni izlanishga va lug'at boyligidagi so'zlarni nutqi orqali harakatga keltiradi.

Forobiyning fikricha, o'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quydagi fikrlarini o'rinli deb bildim: "Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyluklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich sinf 3-sinf darsligi. – T.: O'qituvchi.
2. Boshlang'ich sinf 4-sinf darsligi. – T.: O'qituvchi.
3. Kiyikbayev F.Q. Bolalar adabiyoti o'quv qo'llanma. Andijon, 2020.
4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1985-yil.
5. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1976.

XXI ASRNING YANGI TAZKIRASI

**Lochinbek AHMADALIYEV,
O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tazkira janri va uning tadriji, namunalari, xususan, asrimizda yuzaga kelgan yangi namunasi, uning spetsifikasi, tarkibiy tuzilishi, o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida tutgan ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: antologiya, tazkira, devon, manba, onomastika, etnografiya, tarix, adabiyot, o'lkashunoslik.

Аннотация:

В данной статье рассматривается жанр тазкира и его эволюция, примеры, в частности новая модель, возникшая в нашем веке, ее специфика, структура, ее роль в развитии узбекской литературы.

Ключевые слова: антология, тазкира, девон, источник, ономастика, этнография, история, литература, краеведение.

Annotation:

This article discusses the genre of tazkira and its evolution, examples, in particular, a new model that has emerged in our century, its specifics, structure, its role in the development of Uzbek literature.

Keywords: anthology, tazkira, devon, source, onomastics, ethnography, history, literature, local lore.

Adabiyot tarixi, shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, adabiy guruhlarning shakllanish tarixi, genezisi va tadriji kabi masalalarni o'rganishda tazkiralarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Turkiy adabiyotga "Majolis un-nafois" asari bilan Alisher Navoiy tazkirachilikni olib kirdi. Asrlar davomida ushbu janr taraqqiy etdi. Mazkur janrning XX asr II yarmiga olib o'tilishida Xo'qandi latifdan yetishib chiqqan adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Po'latjon domulla Qayyumiyning xizmatlari beqiyos. Olim Qori Rahmatulloh Vozeh Buxoriyning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" asarini tarjima qilish orqali ushbu sohaga kirib keldi. Keyinroq, Sadridin Ayniyning "Namunai adabiyoti tojik" asari ta'sirida o'zida ham o'zbek shoirlari tazkirasini tuzish, Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" inidan hosil bo'lgan adabiy ilhom natijasida Qo'qon adabiy muhiti vakillari zikrni davom ettirish kabi ezgu maqsadlar paydo bo'ldi. Mana shu oliyjanob istaklar natijasida "Tazkirat ush-shuaro", "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkirai Qayyumiy" kabi asarlar yuzaga keldi.

Mustaqillik davri, xususan, XXI asr adabiy jarayonida ham o'tgan tazkirashunos salaflarning yo'lini davom ettirayotgan, ilmning "qora mehnati"ni o'z gardaniga olgan zahmatkash adabiyotshunoslar yetishib chiqmoqda. Ularning sa'y-harakatlari natijasida maydonga kelgan tazkiralar qatoriga "O'zbekiston sharqshunoslari" (1996), "Qashqadaryo badiiyati" (1998), "Farg'ona adiblari" (2005), "Namangan adiblari" (2007), "Samarqand adiblari" singari asarlarni kiritishimiz mumkin. [1, 10]

Tazkira arabcha "zibr" dan olingan bo'lib, "eslatmoq", "zibr etmoq", "tilga olmoq", "esdalik daftari", "maqsadni unutmash uchun zibr etmoq" ma'nolarini anglatadi. Musulmon sharq adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr.

Tazkira hayotning turli-tuman sohalarini qamrab olishiga ko'ra keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda tazkira tarix, tasavvuf, falsafa, san'atning turli sohalariga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo", G'ulom Muhammad Dehlaviyning "Tazkirai xushnavison", Sadri Ziyoning "Tazkirai humaqa" kabi asarlari ana shunday tazkiralardir.

Tor ma'nodagi tazkira adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi, adabiyot tarixi, ma'lum davr shoirlari hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan namunalar keltirib tuzilgan to'plam.

Tazkira – Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida adabiyotshunoslik janri bo'lib, shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot, asarlaridan namunalar keltiriladi. Shoirlar haqidagi fikrlar alohida kichik maqola – fiqradan iborat bo'ladi. Unda shoirning ismi, taxallusi, qayerdanligi, hayoti, xarakterining ba'zi xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot, ijodi, eng yirik asarlarining nomi, spetsifikasi, asarlarining qay darajada shuhrat topganligi, ijodidan, ko'pincha, bir bayt, ba'zi hollarda ikki bayt namuna (bu odatda, g'azal yo qasidaning matla'si, biror masnaviy yoki ruboiy va yoxud qit'a bo'ladi, askari hollarda butun boshli g'azal, qasida, hajviya, marsiyalarning to'liq variantda kelishi ham kuzatiladi),

shoirlar tazkira muallifining ijobiy yotanqidiy munosabati va yoki aksincha, shoirning tazkirachiga nisbatan tutgan mavqeyi (bu ma'lumot shoir bilan tazkirachi o'rtasida shaxsiy tanishlik bo'lgan taqdirdagina beriladi), shoir haqida xalq orasida tarqalgan yoxud muallif xotirasida saqlangan biror qiziq voqea yoki latifa, shoir umrining oxiri (vafot etgan bo'lsa dafn etilgan joyi) kabilar she'riy yoki nasriy tarzda bayon etiladi.

Tazkirachilik tarixida faqat shoirlar bo'yicha emas, olimlar, xattotlar va boshqa soha vakillari borasida ham tazkiralar tuzilgan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ba'zan tazkiralar adabiy janrlar bo'yicha ham amalga oshirilgan. Chunonchi, XVII asr vakili Abdunnabi Faxruzzamoniy "Tazkirai soqiynoma" sida soqiynoma yozgan mualliflarni kiritgan. XVIII asr tazkiranavislaridan G'ulom Alixon Ozod esa "Xazonai Omira" sida, asosan, qasida yozgan shoirlardan so'z yuritgan. Faqat g'azalnavis va muxammasnavis shoirlar bo'yicha bitilgan tazkiralar ham adabiyotshunoslik tarixida uchrab turadi. Bunga misol tariqasida Ahmad Tabibiyning ikki tazkirasini keltirish mumkin.

Tazkirada bir necha asrda yashagan yoki muayyan davr shoirlarining hayoti va ijodi haqida turli tarzda ma'lumot beriladi. Shoirlarni qamrab olish jihatidan tarixiy-zamonaviy va zamonaviy tazkiraga bo'linadi. Tarixiy-zamonaviy tazkirada bir necha asr davomida yashab ijod etgan shoirlar haqida, zamonaviy tazkirada esa tuzuvchining zamondoshlari bahs yuritiladi. Tarixiy-zamonaviy tazkiraga Po'latjon Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy", zamonaviy tazkiraga Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari misol bo'la oladi. Asarda shoirlar har xil uslubda – "abjad" arab alifbosi, oxiridagi harflarga qarab alifbo tartibida; sulolaviy, geografik, monografik, xronologik uslublarda; ijodiy prinsipda; tazkiranavis tomonidan shaxsan ko'rganlik, ijodiy muloqotda bo'lgan-bo'lmaganlik asosida joylashtiriladi. Ba'zan ikki tilda ma'lumot berish hollari ham uchraydi. Tazkiralar mualliflarining adabiy-estetik uslublari qaysi adabiy yo'nalishiga mansubligi jihatidan farqlanadi.

Tazkirachilik jarayoni o'z-o'zidan tarixiy davrlar mobaynida adabiyotda o'zining mazmunan turlarini biroz kengaytirgan. Ularning eng ko'p tarqalgan turlari quyidagilardir: 1. Shoirlar tazkisasi. 2. Valiylar tazkisasi. 3. Dabirlar (kotib va xattotlar) tazkisasi. 4. Adiblar yoki olimlar tazkisasi. Adabiyotshunoslar tomonidan bularning nisbatan ko'p tarqalgani shoirlar va valiylar tazkisasi deya e'tirof etiladi. Tazkiraning ushbu eng ko'p tarqalgan turiga turkiy adabiyotda Alisher Navoiy asos solgan edi. Turkiy tazkirachilikka xos bo'lgan xususiyatlar, albatta, arab, fors adabiyotining tazkirachilik an'analari ta'sirida shakllanganini ta'kidlash lozim.

Sharq tazkiralarda ma'lum bir shoirning ijodiga tegishli parchalarni keltirish asnosida, ularning hasb-u holi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni ham kiritib o'tish holatlari ko'zga tashlanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tazkira ma'lum bir zamon-makon munosabatida bo'lib o'tgan yoki muallifning o'z boshidan o'tkazgan voqea-hodisalarni hamda mashhur shaxslar haqidagi ma'lumotlarni qayd qiluvchi asardir. [2, 303-304] [3, 20] [4, 298-299] [5, 302]

No'monjon Rahimjonovning "O'zbek adabiyotshunoslari" tazkisasi mazkur janr yo'nalishida amalga oshirilgan eng yangi qadamlardandir. Olimning ushbu

asari tazkirachilik taraqqiyotini yanada yuqori pogʻonalarga olib chiqishda muhim omil boʻladi, degan umiddamiz.

Noʻmonjon Rahimjonov Karimjonovich – adabiyotshunos olim, publitsist, filologiya fanlari doktori, professor. 1944-yil 22-oktyabrda Toshkent viloyati Qibray tumani Yalangʻoch Ota qishlogʻida dunyoga kelgan. Olimning ilmiy faoliyati natijalari sifatida “Davr va oʻzbek lirikasi” (1979), “Shoir va davr (adabiy oʻylar; 1983), “Sheʼr sehri” (1983), “Oʻzbek adabiyotida poema” (janr tipologiyasi; 1986), “Falsafiy lirika” (1986), “Oʻzbek adabiyotshunosligi hozirgi bosqichda” (1986), “XX asr oʻzbek poemasi taraqqiyot jarayoni” (1991), “Oʻzbek sovet hikoyachiligining janr xususiyatlari” (1991), “Ilmiy tafakkur jilolari” (“Badianing estetik tabiati”; 1991), “Asqad Muxtor poetikasi” (2003), “Halima Xudoyberdiyeva lirikasi” (hammuallif, 2004), “Nur boqiylikdurur” (esselar, 2004), “Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi” (hammuallif, 2005), “Mustaqillik davri oʻzbek sheʼriyati” (2007), “Badiiy asar biografiyasi” (2008), “Istiqlol va bugungi adabiyot” (adabiy-estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari; 2012), “Qodiriyshunoslik qirralari” (esselar; 2015), “Jimjit jolalar” (2015), “Badiiyat – bosh mezon” (adabiy suhbatlar; 2016), “Jimjit jolalar. Qissa, esselar, zamonaviy ertaklar, dilbitiklar” (2016), “Kulgi va hajviyalar ijodkori” (2017), “Adib estetikasi” (2017), “Badiiy soʻz estetikasi” (2017), “Qalbning toʻrt fasli” (2019), “Adabiyot – millat vijdoni. Badiialar” (2021), “Oʻzbekiston adabiyotshunoslari (XIX asr oxiri – XXI asr boshlari adabiy-estetik tafakkur tarixidan). Tazkira” (2021) kabi asarlarini olishimiz mumkin. [1, 461-465] Olim 2022-yilda vafot etdi.

“Oʻzbekiston adabiyotshunoslari” asari uning eng soʻnggi asarlaridan biri boʻlib qoldi. Tazkira 2021-yilda nashr etilgan boʻlsa-da, unga kiritilgan materiallar muallifning butun umrlik saʼy-harakatlari mahsulidir. Mazkur kitob mavzusiga koʻra adabiyotshunos olimlar tazkirasi, tuzilishiga koʻra zamonaviy tazkira, joylashish tarkibiga koʻra esa xronologik tartibdadir. Tazkiraga kiritilgan adabiyotshunoslar muallif bilan zamondosh boʻlganligi ahamiyatli sanaladi. Bu omil yozuvchiga ular haqida aniq va ishonchli maʼlumotlar berish imkoniyatini yuzaga keltirgan. Tazkirada 319 nafar olimga toʻxtalangan boʻlib, asarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga boʻlishimiz mumkin:

1. Muallif dunyoga kelishidan avval olamdan oʻtgan, noshir ular haqida avlodlari, yaqinlari, hamkasblari, shogirdlari hamda oʻz asarlaridan maʼlumot toʻplagan olimlar boʻlib, 20 nafar: Mahmudxoʻja Behbudiy (1874-1919), Abdulla Avloniy (1878-1934), Radlov Vasiliy Valiyevich (1837-1918), Samoylovich Aleksandr Nikolayevich (1880-1938), Hoji Muin Shukrullo oʻgʻli (1883-1942), Mirmulla Shermuhammedov (1885-1923), Fitrat Abdurauf Adurahimboy oʻgʻli (1886-1938), Gʻozi Yunus (1887-1942), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Miyon Buzruk Solihov (1891-1938), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Mirmuhsin Shermuhammedov (1895-1929), Choʻlpon (1898-1938), Abdulhamid Majidiy (1902-1938), Sanjar Siddiq (1902-1938), Olim Sharafiddinov Ayn (1903-943), Otajon Hoshimov (1905-1938), Saidgʻani Valiyev (1905-1942), Sotti Husayn (1906-1942), Hamid Olimjon (1909-1944).

2. Muallif ular bilan umr zamonalarining soʻnggi qismida zamondosh boʻlsa-da, maʼlumotlarni oʻzlaridan emas, balki avlodlari, yaqinlari, hamkasblari,

shogirdlari hamda o'z asarlaridan ma'lumot to'plagan bo'lib, 14 nafar qalam ahllaridir: Sadridin Ayniy Saidmurodov (1878-1954), Malov Sergey Yefimovich (1880-1957), Krachkovskiy Ignatiy Yulianovich (1883-1951), Sodiq Mirzayev (1885-1961), Mirzo Abdulla Nasriddinov Bokiy (1882-1967), Mo'minjon Muhammadjonov Toshqin (1884-1965), Abdurahmon Sa'diy (1889-1956), G'afur G'ulom (1903-1966), Oybek (1905-1968), Solih Mutallibov (1900-1968), Abdulla Qahhor (1907-1968), Maqsud Shayxzoda (1908-1967), Bertels Yevgeniy Eduardovich (1890-1957), Buyuk Karimiy (1906-1945).

3. Muallif bilan zamondosh bo'lgan, biroq tazkira yozilayotgan paytda hayotdan ko'z yumgan olimlar 171 nafarni tashkil etib, tazkiraning eng katta qismi mana shu qismdan iborat: Jirmunskiy Viktor Maksimovich (1891-1971), Porso Shamsiyev (1897-1972), Vadud Mahmud (1898-1976), Bois Qoriyev Oltoy (1903-1977), Hodi Zarif (1905-1972), Uyg'un (1905-1990), Rahmat Majidiy (1906-1983), Homil Yoqubov (1907-1998), Subutoy Dolimov (1907-1991), Muzayyana Alaviya (1909-1988), To'xtasin Jalolov (1909-1984), G'ulom Karimov (1909-1991), Komil Yashin (1909-1997), Mansur Afzalov (1910-1973), Akram Ibrohimov (1910-1982), Mirtemir Tursunov (1910-1978), Izzat Sulton (1910-2001), Hamid Sulaymonov (1910-1979), Xolid Rasulov (1911-1991), Yusuf Sultonov (1911-1991), Jumaniyoz Sharipov (1911-2008), Vohid Abdullayev (1912-1985), Vohid Zohidov (1914-1983), Vladimirov Georgiy Petrovich (1914-1996), Mamajon Rahmonov (1914-2010), Zulfiya Isroilova (1915-1996), O'tkir Rashid (1915-1990), Nabijon Qobilov (1915-1988), Nabi Rahimov (1916-2000), Hoshimjon Razzoqov (1916-1982), Zubayda Husainova (1908-2002), Shuhrat (1918-1993), Matyoqub Qo'shjonov (1918-2003), Mahmudali Yunusov (1918-1986), Fozila Sulaymonova (1919-2011), Jumaniyoz Qobulniyozov (1919-1974), Mahbuba Qodirova (1919-2007), Saidjon Aliyev (1920-2004), Qodir Mirmuhammedov (1920-2012), G'olima Musina (1920-2004), Asqad Muxtor (1920-1997), Oxunjon Sobirov (1920-1982), Solih Qosimov (1920-1989), Ramz Bobojon (1921-2008), Axbor Abrorov (1922-1989), Shoislom Shomuhammedov (1921-2007), Muhsin Zokirov (1922-1998), Berdiali Imomov (1922-1996), Natan Mallayev (1922-1996), Rahim Muqimov (1922-2000), A'lo Ashrafov (1923-1994), Sarvar Azimov (1923-1994), Ibrohim Mirzayev (1923-2004), Tursun Sobirov (1924-1976), Tojiboy G'oziboyev (1924-1993), Ochil Tog'ayev (1924-1991), Jo'ra Hojimatov (1924-2002), Hafiz Abdusamatov (1925-2016), Fathiddin Nasriddinov (1925-2005), Ma'sud Rasuliy (1925-1996), Tursunoy Hamidova (1925-2000), Ergash Rustamov (1925-1980), Ro'zi Qodiriy (1925-2001), Orifjon Ikromov (1926-1971), Ahmadjon Madaminov (1926-2008), Azizxon Qayumov (1926-2018), Abduqodir Hayitmetov (1926-2005), Tartakovskiy Pyotr Iosifovich (1926-2005), Ummat To'ychiyev (1926-2018), Xudoyberdi Doniyorov (1927-1991), Orif Saidov (1927-2001), Sharofiddin Eshonxo'jayev (1927-2005), Ninel Vladimirova (1928-2009), Mashhura Sultonova (1928-2004), Pirimqul Qodirov (1928-2010), Sharif Yusupov (1928-2005), Yoqubjon Jo'rayev (1929-1988), E'tiborxon Ibrohimova (1929-2007), Muhammadnodir Saidov (1929-2002), Ozod Sharafiddinov (1929-2005), To'xtamurod Boboyev (1930-2002), Lutfulla Zohidov (1930-2015), Komiljon Imomov (1930-2013), Sobir Mirvaliyev (1930-2019),

Saydulla Mirzayev (1930-2012), Marat Nurmammedov (1930-1986), Laziz Qayumov (1930-2004), Nuriddin Shukurov (1930-1994), Sodir Erkinov (1930-2009), Abdurashid Abdug'afurov (1931-2005), Adham Akbarov (1931-1998), Salohiddin Mamajonov (1931-2001), G'affor Mo'minov (1931-2008), Rahmonqul Orzibekov (1931-2011), Alibek Rustamov (1931-2013), Anvar Hojiahmedov (1931-2018), Botirxon Valixo'jayev (1932-2005), Erik Karimov (1932-1997), Qayum Karimov (1932-2003), Toshpo'lat Tursunov (1932-2012), G'aybulla Salomov (1932-2000), Suyima G'aniyeva (1932-2018), Ergashali Shodiyev (1932-2006), Shavkat Shukurov (1932-2009), Nurmammed Qobulov (1932-2004), Malik Murodov (1933-2002), Isomiddin Salohiy (1933-1997), Sherali Turdiyev (1933-2011), Fathulla G'anixo'jayev (1933-2006), Malohat Abdurahmonova (1934-1998), Azimjon Rahimov (1935-1997), Muhammadjon Hakimov (1935-2001), Anvarbek Abdurahmonov (1936-2017), Erkin Vohidov (1936-2016), To'xtamurod Zufarov (1936-2020), Rahmatilla Inog'omov (1936-2004), Tilab Mahmudov (1936-2016), Ra'no Sabirova (1936-1987), Qobiljon Tohirov (1936-2008), Farog'atxon Musammedova (1936-1996), Dilbar Rahmatova (1936-1997), Murotbek Hamroyev (1936-1983), Yusuf Shomansur (1936-1978), Barot Boyqobilov (1937-2006), Najmiddin Komilov (1937-2012), Abdug'afur Rasulov (1937-2014), Toji Qorayev (1937-2000), Safar Barnoyev (1938-2000), Isroil Mirzayev (1938-2005), Norboy Xudoyberganov (1938-2013), Tursunboy Adashboyev (1939-2017), Olimjon Jo'rayev (1939-2017), Murod Ibrohimov (1939-2007), Yoqubbek Yakvalxo'jayev (1939-1993), Pirmat Shermammedov (1939-2009), Botirbek Hasanov (1940-2002), Oxunjon Safarov (1940-2014), Shukur Xolmirzayev (1940-2005), Matluba Azimova (1941-2013), Toshpo'lat Abduqulov (1941-1998), Abdulla Oripov (1941-2016), Omon Muxtor (1941-2013), Qodir Pirmatov (1941-2008), O'tkir Hoshimov (1941-2013), Rahim Vohidov (1942-2012), Begali Qosimov (1942-2004), Rauf Parfi (1943-2005), Matnazar Pirmatov (1943-2005), Yanglish Egamova (1943-2017), Akram Kattabekov (1944-1998), Bahodir Sarimsoqov (1944-2007), Tursunoy Sodiqova (1944-2017), Xudoybergan Egamov (1944-1999), Munavvara Abdurahmonova (1945-2012), Quadrat Jo'rayev (1945-2016), Hojiakbar Shayxov (1945-2002), Sadridin Salim Buxoriy (1946-2010), Tilavoldi Jo'rayev (1946-2011), Abdurashid Abdurahmonov (1947-2014), Bekmurod Yo'ldoshev (1947-2016), Ismoil To'lak (1947-2003), Jumaboy Yusupov (1947-2009), Halima Xudoyberdiyeva (1947-2018), Matnazar Abdulhakim (1948-2010), Mahmud Sattorov (1948-2014), Nurulla Ahmedov (1949-2006), Mirpo'lat Mirzo (1949-2018), Sharofiddin Sharipov (1950-1996), Abiyr Musaqulov (1951-2011), Muhabbat Sharafiddinova (1951-2013), Rustamjon Tojiboyev (1958-2014).

4. Tazkira yozilayotgan paytda barhayot bo'lgan adabiyotshunoslar. Bu qism o'z ichida ikki guruhdan iborat:

a) tazkira nashri arafasida hayot bo'lgan, hozirda vafot etgan ilm ahllari – 9 nafar: Asil Rashidov (1930-2020), To'ra Mirzayev (1936-2020), Saydi Umirov (1938-2020), Shavkat Karimov (1940-2019), Omonulla Madayev (1942-2019), Saidbek Hasanov (1945-2019), Tohir Malik Hobilov (1946-2019), Muhammadjon Xolbekov (1950-2020), No'monjon Rahimjonov (muallifning o'zi, 1944-2022);

b) hozirgi kunda ilmiy faoliyatini davom ettirayotgan fanimiz fidoyilaridan 105 nafari: Umarali Normatov (1931), Naim Karimov (1932), Yoqubjon Is'hoqov (1934), Erkin Xudoyberdiyev (1934), Zuhra Umarbekova (1935), Gulnora G'afurova (1935), Hamidjon Homidiy (1935), Ahmad Abdullayev (1936), Pariza Mirzaahmedova (1936), Nazira G'anixo'jayeva (1936), Muxtor Xudoyqulov (1936), Ibrohim G'afurov (1937), Jamol Kamol (1938), Tatyana Lobanova (1938), Anqaboy Quljonov (1938), Mamlakat Hoshimova (1938), Hamdam Abdullayev (1939), Ulug'bek Dolimov (1939), Abdurahim Soliyev (1939), Hanifa Solihova (1939), Mahkam Mahmud (1940), Vahob Rahmonov (1940), Sanjar Sodiq (1940), Yo'ldosh Solijonov (1940), To'lqin Yo'ldoshev (1941), Hasan Qudratillayev (1941), Muhammad Ali (1942), Hotam Umurov (1942), Safarboy Ro'zimboyev (1942), Ismat Sanayev (1942), Umurzoq O'ljaboyev (1942), Oydin Hojiyeva (1942), Karimboy Quramboyev (1942), Ortiqboy Abdullayev (1943), Hakimjon Karimov (1943), Abdulla Sher (1943), Sirojiddin Ahmad (1944), Norqul Bekmirzayev (1944), Bahtiyor Qurbonboyev (1944), Hayitboy Mirhaydarov (1945), Muslihiddin Muhiddinov (1945), Bahtiyor Nazarov (1945), Boynazar Yo'ldoshev (1946), Abdulhay Nosir (1946), Shodmon Otabek (1946), Damir To'rayev (1946), Roviyajon Abdullayeva (1947), Najmiddin Nizomiddinov (1947), Ne'matilla Otajonov (1947), Alimulla Habibullayev (1947), Jumagul Jumaboyeva (1948), Ra'no Ibrohimova (1948), Muhammadali Qo'shmoqov (1948), Usmonjon Qosimov (1948), Abdusalom Abduqodirov (1949), Otavli (1949), Ibrohim Haqqulov (1949), Erkin A'zam (1950), Xurshid Do'stmuhammad (1951), Suvon Meli (1951), Hamidulla Karomatov (1953), Zuhridin Isomiddinov (1953), Tohir Qahhor (1953), Zamira Ibrohimova (1953), Adhambek Alimbekov (1954), Hamidulla Boltaboyev (1954), Sultonmurod Olim (1954), Qosimjon Sodiqov (1954), Boqijon To'xliyev (1954), Qurdosh Qahramonov (1954), Ravshanbek Mahmudov (1955), Mamatqul Jo'rayev (1956), Ulug'bek Saidov (1957), Shomirza Turdimov (1957), Shuhrat Rizayev (1958), Akbarali Sabirdinov (1958), Kavsar Turdiyeva (1958), Salima Mirzayeva (1959), Dilorom Salohiy Isomiddin qizi (1959), Zulfiya Pardayeva (1959), Shoira Ahmedova (1960), Marg'uba Mirqosimova (1960), Abdulla Ulug'ov (1960), Dilmurod Quronov (1960), Shuhrat Sirojiddinov (1961), Islomjon Yoqubov (1961), Nazar Eshonqul (1962), Vafo Fayzulloh (1963), Aftondil Erkinov (1964), Ergash Ochilov (1965), Karomat Mullaxo'jayeva (1965), Nurboy Jabborov (1966), Bahodir Karim (1966), Jabbor Eshonqul (1966), Uzoq Jo'raqulov (1967), Shavkat Hasanov (1967), Abdug'ofir Qosimov (1967), Darmonoy O'rayeva (1967), Ulug'bek Hamdam (1968), Dilrabo Quvvatova (1968), Gulbahor Saidg'ani (1969), Tozagul Matyoqubova (1971), Otabek Jo'raboyev (1973), Shodmon Sulaymon (1975), Marhabo Qo'chqorova (1976).

Tazkirada nomlari zikr etilgan adabiyotshunoslardan 94 nafari – M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Ayniy, Bokiy, H.Muin, Toshqin, M.Shermuhammedov, A.Fitrat, G'.Yunus, H.H.Niyoziy, A.Qodiriy, Muhsiniy, A.Cho'lpon, V.Mahmud, A.Majidiy, Oltoy, G'.G'ulom, Ayn, Oybek, Uyg'un, S.Husayn, A.Qahhor, M.Shayxzoda, M.Alaviya, H.Olimjon, K.Yashin, Mirtemir, I.Sulton, X.Rasul, Shuhrat, J.Sharipov, Zulfiya, O'.Rashid, H.Razzoqov, S.Azimov,

Q.Mirmuhammedov, A.Muxtor, R.Bobojon, Sh.Shomuhammedov, O.Muxtor, T.Sobirov, F.Nasriddinov, R.Qodiriy, O.Ikromov, A.Qayumov, P.Qodirov, E.Vohidov, T.Mahmudov, S.Barnoyev, M.Xudoyqulov, Y.Shomansur, B.Boyqobilov, I.G'afurov, J.Kamol, T.Adashboyev, A.Soliyev, H.Solihova, Y.Yakvalxo'jayev, P.Shermuhammedov, Sh.Karimov, M.Mahmud, Sh.Xolmirzayev, A.Oripov, O'.Hoshimov, M.Ali, O.Hojiyeva, R.Parfi, A.Sher, N.Rahimjonov, T.Sodiqova, S.Buxoriy, T.Jo'rayev, T.Malik, A.Nosir, Sh.Otabek, I.To'lak, H.Xudoyberdiyeva, M.Abdulhakim, M.Mirzo, Otauli, E.A'zam, X.Do'stmuhammad, T.Qahhor, Sh.Turdimov, Sh.Rizayev, R.Tojiboyev, K.Turdiyeva, N.Eshonqul, V.Fayzulloh, N.Abdulhakim, U.Hamdani, G.Saidg'ani, O.Jo'raboyev, Sh.Sulaymonlar olimlik mashaqqati bilan birgalikda badiiy ijodda ham shuhrat qozonganlar. Tazkirada ularning ijodidan namunalar va ularning sharhi ko'zga tashlanmasa-da, shoir, adib hamda dramaturg sifatida amalga oshirgan ishlariga batafsil to'xtalangan.

Tazkira "O'zbekiston adabiyotshunoslari" deb nomlansa-da, xorijlik adabiyotshunoslardan 9 nafari – V.V.Radlov, S.Y.Malov, A.N.Samoylovich, I.Y.Krachkovskiy, Y.E.Bertels, V.M.Jirmunskiy, V.G.Petrovich, P.I.Tartakovskiy, T.Lobanovlar keltirilgan. Mazkur olimlar O'zbekiston diyorida yashamagan bo'lsalar-da, turkiy adabiyotimiz ravnaqi yo'lida samarali mehnat qilganlar.

Garchi tazkira 320 nafar olinga mo'ljallab yozilgan bo'lsa-da, aslida 319 nafar olim mavjud. Bir nafar olim – Ahmadjon Madaminov (1926-2008)ga ikkita fiqra ajratilgan (№99, 243-244; №160, 351-352-betlar (Fiqra raqamlari shartli – A.L.). Ikkinchi fiqrada olim 1926-yilda emas, 1936-yilda tug'ilgan deb berilgan. Qolgan barcha ma'lumotlar bir xil).

Bundan tashqari, olimlarning shogirdlari soni berilishida ancha yillar ilgari shakllangan statistikalarga, eski ma'lumotlarga tayanilgan.

Bir so'z bilan aytganda, tazkira olimning mashaqqatli mehnatlari evaziga paydo bo'lgan. Asar adabiyotshunoslikning barcha sohalari uchun muhim manba vazifasini o'tay oladi. Adabiyotshunos olim No'monjon Rahimjonovning ushbu xayrli ishlarini, XXI asr o'zbek adabiyotshunoslari faoliyatini o'rganishni davom ettirish soha vakillari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimjonov N.K., O'zbekiston adabiyotshunoslari. – T.: Yosh avlod matbaa, 2021. 608 bet.

2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akadernashr, 2013. 406 bet.

3. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1993. 191 bet.

4. Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. – T.: Davr press, 2013.

5. Maqsud Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik 4-tom. G'azal mulkingning sulmoni (Alisher Navoiy haqidagi tadqiqot va maqolalar majmuasi) (nashrga tayyorlovchi Mallayev N.). – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 295-346-betlar.

AMIRIY “DEVON”IDAGI ARABIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Sadoqat ShAMSIDDINOVA,
Qo‘qon DPI talabasi
(O‘zbekiston)

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Amiriy she‘riyatining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni, shoirning so‘z qo‘llash mahorati, she‘rlarida arabcha so‘zlarning badiiy tasviriy ifoda vositasi sifatida tutgan ahamiyati kabi jihatlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: devon, arabcha so‘zlar, badiiyat, uslub, she‘riyat, badiiy mahorat, tasviriy ifoda.

Аннотация:

В данной статье рассматривается роль поэзии Амира в узбекской литературе, орфографическое мастерство поэта, значение арабских слов в его стихах как средства художественной выразительности.

Ключевые слова: девон, арабские слова, искусство, стиль, поэзия, художественное мастерство, образное выражение.

Annotation:

This article discusses the role of Amir's poetry in Uzbek literature, the poet's wording skills, and the importance of Arabic words in his poems as a means of artistic expression.

Keywords: devon, Arabic words, art, style, poetry, artistic skill, figurative expression.

So‘z ilohiy kuchga ega. So‘z badiiy asarda, ayniqsa, she‘riyatda poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi. U qaysi tilda bo‘lishligidan qat‘iy nazar, she‘riyatning asosiy g‘oyasi, fikrlarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Badiiy obraz so‘z orqali namoyon bo‘lar ekan, adabiyotning o‘ziga xos kategoriyasi sifatida maydonga chiqadi. Ijodkor biror voqelik yoki narsa –hodisani mushohada etar ekan, ularni hissiy–emotsional tarzda ifodalashga intiladi. Adabiyotshunoslik kitoblarida badiiy obrazga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Borliqning ijodkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosda ijodiy qayta ishlab, hissiy idrok etish mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksi”. [1, 90]

Obraz va obrazlilik har bir badiiy asarning, xususan, she‘riyatning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid tadqiqotlarda obrazli nutq, obrazli ifoda, obrazlilik, badiiy obraz, obrazli tasvir kabi masalalarning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Shu jihatdan Qo‘qon adabiy muhiti asoschisi Umarxon Amiriyning lirik merosi poetik jihatdan tahlil qilib chiqilsa, arabiy so‘zlar ham ijodkorning poetik mahoratini yuzaga chiqarishda muhim vosita bo‘lganligini kuzatish mumkin. Shoir g‘azallarida an‘anaviy timsol va badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda yangi timsollar hamda badiiy tasvir vositalari maydoniga kelgan. Shoir mahorati tufayli yangicha timsollarga yangicha ma‘nolar yuklatilgan. Amiriy g‘azalnavis ustozlari yo‘lidan borib, ularning an‘analarini davom ettirdi, lekin an‘anaviylik doirasida qolib ketmay, o‘ziga xos

ma'no va poetik jilolarga ega bo'lgan dilbar g'azallar yaratdi, o'z navbatida, o'zbek adabiy tilining keng imkoniyatlaridan samarali foydalandi. [2, 18]

Amiriy g'azallarida qator obrazlar arab, fors-tojik, turkiy tilda aks etadi. Jumladan, Qur'oni Karim, diniy manbalar, xalq ijodiyotiga xos poetik unsurlar, samoviy jismlar, ma'danlar, tabiat bilan bog'liq qator timsollar bunga dalil bo'ladi.

Amiriyning "Devon"idagi arabiy alif harfiga bitilgan birinchi ga'zal baytlaridagi so'z va ifodalar arab, fors va turkiy so'zlar—lug'aviy birliklarning ma'lum bir mantiq bo'yicha uyushuvidan tashkil topgan. G'azal 21 baytli bo'lib, unda 29 ta arabiy (*zul jud, val ato–saxovat va ato sohibi, xoki tiyra–qora tuproq, xoma–qalam, rafi' ul–makon—yuksak maqom sohibi, "Lavloka"—hadisdan iqtibos, "Laumrika"—hadisdan, "Hal ato"—hadisdan, "Lo fato", nabiy–payg'ambar, ashob–sahoba, hubb–muhabbat*) va turkiy va forsiy so'zlardan tarkib topgan. Matnda arabiy kalimalarning yuqoriligi turkiy tilda shakllanishiga monelik qilmagan. Ga'zal Allohga hamd yo'nalishida yozilganligi uchun ham asosan, hadislardan iqtiboslar berilgan va she'rning badiiy barkamolligini ta'minlagan. G'azalda arab tilidagi so'zlar orqali talmeh, iqtibos, akd, tashbeh singari badiiy san'atlardan foydalanilganki, an'anaviy timsollarga mumkin qadar yangicha ma'no yuklatilgan.

*Shoyista erdi qaddig'a "Lavloka" xil'ati,
Toji sari "Laumrika", manshuri "Hal ato".* [2, 31]

Mazkur baytda "Lavloka", "Laumrika", "Hal ato" arabiy kalimalari orqali iqtibos san'atidan unumli foydalangan.

"Iqtibosnasryokinazmdabayonningyorqinvago'zalifodasiuchunoyatvahadislar keltirishusuli. Iqtibos ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: 1. Oyat yoki hadis aynan keltirilgan iqtibos darj deyiladi. 2. Agar oyat va hadisning tarjimasi yoki mazmuni keltirilsa, hall usuli deb ataladi." [3.57,58]

Ushbu bayt iqtibosning darj turiga mansub bo'lib, "Lavloka"—"Ey Muhammad, agar sen bo'lmaganingda edi bu olamlarni yaratmas edim" mazmunidagi qudsiy hadisdan iqtibos. "Laumrika"—"Ey Muhammad, sening hayoting bilan qasam" mazmunidagi qudsiy hadisdan iqtibos. "Hal ato"—Qur'oni Karimning "Inson" surasining birinchi oyatidan "Hal ato" kalimasidir. Tafsir kitoblarida bu oyat haqida turli qarashlar bor. Biz Shayx Alovuddin Mansurning tafsiriga tayanamiz. Unda shunday aytiladi: "Odamzod ona qornida paydo bo'lganidan tortib, to inson shakliga kirib, unga jon etgunicha o'tadigan muddatda uni avval nutfa, so'ng laxta qon, keyin bir tishlam go'sht deb nomlanadi—yu, ammo uni hali inson deyilmaydi. Aniqki, har bir inson to onadan tavallud topgunicha mana shu savdolarni o'z boshidan o'tkazgandir." [4.899]

*Tufon suyidin ayladi Nuh ahlini xalos,
Qildi halok qavmini g'arqobayi balo.* [2. 30]

Mazkur baytda Nuh (a.s) tilga olinib va u bilan bog'liq voqeaga ishora qilingan. Badiiy san'atlardan talmeh san'ati qo'llanilgan. Arabiy so'z Nuh.

*Mahi ruhsoring uzra ul iki geso'yi anbarso,
Savodi laylatul qadr–u, shu'oyi muhri isti'lo.* [2, 39]

Oydek yuzing uzra ikki sochingdan xushboy is taraladi. Go'yoki, qora tunni laylatul qadr yorug' qilib ulug'lagan kabi. Mazkur baytda ma'shuqaning sochi va yuzi ta'riflangan. Savod (qora), shu'o (yorug'lik) arabizmlari tazod san'atini yuzaga chiqargan. bundan tashqari baytda anbarso, isti'lo arabizmlari ham ijodkorning g'oyaviy niyatini ochishga xizmat qilgan.

Vasl ummidi mani mahzunga imkon yo'qki bor,

San—g'aniy, man—benavo, san—podshosan, man—gado. [2, 40] tazod

Mazkur baytdagi vasl, g'aniy, navo arabiy leksemalar bo'lib, podsho, gado, be— old qo'shimchasi forsiy leksemdir. Shoir turkiy, arabiy, forsiy so'zlarni uyg'unlashtirib, ayriliqdagi holatini bayon qilgan. G'aniy va benavo leksemalari tazod san'atini yuzaga chiqargan. "Be— old ko'makchisini "ovoz", "tovush" ma'nosini anglatgan arabcha navo otiga qo'shib, asli gapirish huquqiga ega bo'lmagan ma'nosini anglatgan. Keyinchalik hayot lazzatidan bebahra ma'nosini anglatish uchun ishlatilgan". [5, 102] "G'aniy so'zi hech narsaga muhtoj bo'lmagan, barchaga boylig'u, saltanat tarqatuvchi zot". [6, 652]

Ko'rinadiki, Amiriy turkiy, arabiy, forsiy kalimalarning ma'noviy jihatdan bir—biri bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos va mos obraz va obrazlilikni yuzaga chiqishiga olib kelgan. Bunday ijodiy yondashuv shoirning poetic mahoratidan dalolat beradi.

Yer yuzida qatra—qatra ko'z yoshimindur nujum,

Charx uzra barqki ohimdin Surayyo bo'ldi kul. [2, 214]

Baytdagi nujum, barq arabizmlari lirik qahramonning ruhiy holatini kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan. Nujum (yulduzlar) ko'z yoshiga tashbeh qilingan.

Qismatim dog'i firoq o'ldi aning ko'yi aro,

Vasl ummidi bila bordim—u, hijron toptim. [2, 227]

Mazkur baytda vasl, hijron kalimalari an'anaviy tazod sanaladi. Baytda ham shunga amal qilingan.

Dog'i aydi: "Oftob uzra bo'lurmi yangi oy?"

Man dedim: "Ruxsor uza mushkin hilolingdur o'shal". [2, 216]

Hilol arabizmi iste'ora san'atini yuzaga chiqargan, ya'ni g'azal savol—javob usulida bo'lib, ma'shuqa "Oftob uzra yangi oy bo'ladimi", deb hayratlanadi. Oshiq esa yorga "Yuzing uzra qora qoshingdir", deb javob beradi. Shoir qoshingdir leksemasining o'rniga hilol arabiy leksemasini qo'llab, she'rning ta'sirdorligini kuchaytiradi.

Amiriy "Devon" idagi arabizmlar xuddi ona tilimizning mulkidek, asar markazida turgan mazmunni ochishga, shoir badiiy niyatining ro'yobga chiqishini ta'minlagan. Turkiy leksemalar vositasida badiiy jilolanishni yuzaga keltirgan bo'lsa, arabizmlar yordamida ham shunday badiiy san'atlar yaratilgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslik asoslari. — T.: Navoiy universiteti, 2018
2. Amiriy. Devon (nashrga tayyorlovchilar: Z.Qobilova, O.Davlatov. A.Madaminov, E.Ochilov) —Toshkent: Tamaddun, 2017.
3. Y.Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi. — T.: O'zbekiston, 2014.

4. A.Mansur. Qur'oni Azim muxtasar tafsiri. –T.: Movaraunnahr.2019.
5. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, III jild.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –M.: Rus tili nashriyoti, 1981.

“ZARBULMASAL” ASARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARI HAQIDA

**Oyzoda YAHYOXONOVA,
Qo‘qon DPI talabasi.
(O‘zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillaridan biri – Gulxaniy va uning xalq og‘zaki ijodi namunalariga asoslangan holda yozgan “Zarbulmasal” asarini ta’lim jarayonida o‘quvchilar ongiga singdirishda zarur bo‘lgan zamonaviy pedagogik usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, xalq og‘zaki ijodi zamonaviy pedagogik usullar, ko‘nikma, malaka.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются современные педагогические методы, необходимые для привития учащимся произведения «Зарбулмасал», написанного Гульхани, одним из представителей кокандского литературного сообщества, на примерах фольклора.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, фольклор, современные педагогические методы, умения, квалификация.

Annotation:

This article discusses the modern pedagogical methods needed to inculcate in the minds of students the work "Zarbulmasal", written by one of the representatives of the Kokand literary community - Gulkhani and his folklore.

Keywords: Kokand literary environment, folklore, modern pedagogical methods, skills, qualifications.

Muhammadsharif Gulxaniy XIX asr 1-yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal-tamsil janrida go‘zal va original asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan adibdir. Gulxaniy tabiatan hazil-mutoyibaga usta, xalq urf-odatlarini, til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarini, hajv va yumorni chuqur bilgan shaxs bo‘lgan. ^[1, 43] Maktab darsliklarining 6-sinfida Gulxaniy hayoti va ijodi, shuningdek, “Zarbulmasal” asari bilan tanishish uchun 2 soat vaqt ajratilgan. Bizgacha yetib kelgan bu asar Gulxaniy yashagan davr adabiyotining nodir namunasi hisoblanadi. Asarning kompozitsiyasi, syujeti va tili murakkab bo‘lsa-da, tushunilishi sodda va maroqlidir. 6-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, darslarni samarali tashkil etish, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.

Darsning 2-soatida kirish qismini “Ikkinchisi ortiqcha” o‘yini orqali boshlaymiz. Chunki bolalar oldingi darsda Gulxaniyning hayot yo‘li, ijodi bilan tanishgan va bu o‘yin orqali o‘tilgan mavzu yuzasidan o‘z bilimlarini tekshirib oladi. Bunda o‘quvchilar berilgan ikki ma’lumotdan noto‘g‘risini chiqarib yuborishi kerak bo‘ladi:

1.
 - A. Muhhammadsharif Gulxaniy
 - B. Muhammadrizo Gulxaniy
2.
 - A. Qo‘qon xonligida yashagan
 - B. Buxoro amirligida yashagan
3.
 - A. G‘azallari, ruboiylari va masallari yetib kelgan
 - B. 12 ta g‘azal, 1 ta qasida, “Zarbulmasal” asari yetib kelgan
4.
 - A. Didaktik asarlar yaratgan
 - B. Hajviy asarlar yaratgan
5.
 - A. Qasidasi Amir Olimxonga bag‘ishlangan
 - B. Qasidasi Amir Umarxonga bag‘ishlangan.

To‘g‘ri topgan o‘quvchilarning javoblari quyidagicha bo‘ladi:

1. Muhammadsharif Gulxaniy.
2. Qo‘qon xonligida yashagan.
3. 12 ta g‘azal, 1 ta qasida, “Zarbulmasal” asari yetib kelgan.
4. Didaktik asarlar yetib kelgan.
5. Qasidasi Amir Umarxonga bag‘ishlangan.

Bu o‘yinni dars boshlanishida qo‘llash o‘quvchilarni faollikka, topqirlik va ziyraklikka undaydi. Shuningdek, oldingi mavzu bo‘yicha olgan bilimlarini bir qadar yodga olishda yordam beradi. Darslikda keltirilgan asardagi parchalarni tushunishga yordam berish maqsadida ayrim so‘zlarning maxsus lug‘atlari berib boriladi. Shu nuqtai nazardan asarni hayotiy misollar bilan bog‘lab, o‘quvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qituvchi tomonidan ertak yo‘sinida aytib berilishi ham samarali usullardandir. Odatda, maktab o‘qituvchilari doim o‘quvchilarga asarning syujetini gapirib ber, deyishadi. Ammo syujet gapirilmaydi, asar fabulasi gapiriladi. Shu nuqtai nazardan “syujet” va “fabula” terminiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

“Sujet” istilohi bir-biriga uzviy bo‘g‘liq holda kechadigan, personajlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi yoki konkret holat, bitta voqeaning ichki rivoji sifatida tushunilishi tog‘riroq bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda “syujet” bilan bir qatorda “fabula” atamasi ham ishlatiladi. Rus formal maktabi vakillari "fabula" deganda, asarda tasvirlangan voqealarning hayotda yuz berish tartibini, “syujet” deganda esa, ularning asarda joylashtirilish tartibini tushunadilar. Aytilganlardan ayon bo‘ladiki, fabula voqealarning tabiiy oqimi bo‘lsa, sujet ularning muayyan maqsadga muvofiq qayta tartiblangan, ya’ni badiiy qayta ishlangan shaklidir. [2, 165-169]

O‘qituvchi berilgan masallarni o‘quvchilarga ertak yo‘li bilan quyidagicha aytib berishi mumkin.

1. “Toshbaqa bilan Chayon”

“Toshbaqa Iroqdan Hijozga safarga chiqarkan, chayon unga yo‘ldosh bo‘libdi. Toshbaqa farosatli, aqlli, safarlarda ko‘p yurgan, tajribali ekan. Nogoh

yoʻlda anhorga duch kelishibdi. Chayon suvdan oʻta olmasligini bilib, hayron boʻlib turganida Toshbaqa doʻstlik muruvvatini qilib, uni orqasiga mindirib suvga tushibdi. Suzib borayotganida Chayon oʻzining nishini Toshbaqaga sanchib koʻrishga urinarkan, odati xoh doʻst orqasiga, xoh dushman siynasiga boʻlsin, nish urishdan iboratligini aytibdi. Shunda Toshbaqa donishmandlarning yomonga yaxshilik qilma, deb bekorga aytmaganligini aytib, suvga shoʻngʻibdi. Chayon esa suvga tushib, halok boʻlibdi”.

2. “Maymun bilan Najjor”

“Bu masalda aytilishicha, Hindistonning Kashmir viloyati atrofidagi togʻda bir maymun umrguzaronlik qilar ekan. Nogoh bu togʻga bir duradgor yogʻoch kesish uchun kelibdi va bir daraxtni kesib, ikkinchisiga oʻtarkan u joyda teshasini unutilib qoldiribdi. Najjorni kuzatib turgan maymunga uning hunari oddiy bir ishdek tuyuladi-da, bu ishni oʻzi qoyillatib, kelgusi avlodga ham osongina oʻrgatib qoʻymoqchi boʻibdi. Duradgorning ishini davom ettirarkan, daraxt tanasi orasiga qistirilgan pona chiqib ketib maymunning dumini qisib qolibdi. Jon holatda bu ahvoldan qutulishni istagan maymun dumining bir qismi daraxt orasida qolib ketibdi”.

3. ”Tuya bilan boʻtaloq”.

“Bu masalda hikoya qilishlaricha, Fargʻonada bir sarbon tuyachi boʻlib, uning bisotida bor-yoʻgʻi bitta tuyasi bor ekan va bola-chaqalari anchagina ekan. Kunlarning birida sarbon odatdagidek, tuyaga ancha yukni ortib yoʻlga tushibdi. Tuyaning orqasidan emadigan boʻtalogʻi ham ergasharkan, onasini emolmay zorlanib ketaveribdi. Ona tuya boʻlsa boʻtalogʻining oh-zoriga qaramay, tuyakash sarbonning qistovi bilan tez yurishga majbur edi. U boʻtalogʻiga ixtiyori oʻzida emasligini tushuntiradi”.

4. “Kabutar bilan Zogʻ”.

“Bir bilimdon tabib bogʻda yurar ekan, koʻrdiki bir shoxda kabutar bilan zogʻ nasihat qilib turishardi va ularning doʻstligi bir-biriga mos emasdi. Shu yerda bir ariq boʻlib, ikkisi suv ichmoqqa qasd qildi. Bu orada bir nodon mehmonxonada oʻqini sozlab turar edi. Zogʻ daraxtdan parvoz qilgach, unga oʻq otishdi va u qushga yem boʻldi. Kabutar esa sogʻ-salamat yana uchib ketdi. Agar zogʻ oʻz jinsi birla sahroda, joʻxoripoyada va yo xirmonlarda yurganida qushlarga yem boʻlmas edi”.

5. “Yodgor poʻstindoʻz”

“Odamlar orasida bir Yodgor ismli odam bor ekan. U oʻzini donishmand sanab, odamlarga:

10 yoshida Nuh paygʻambar toʻfonda qolganida kemasini itarib birga boʻlganligi, 15 yoshida Ibrohim alayhissalomni kofirlar palaxmonga solib oʻtga otganlarida oʻsha yerda boʻlganligi, 25 yoshida esa Ahmad Yassaviy xonaqohini obod qilishda loy tepib, gʻisht berib turganligini gapirib yurar ekan. Buni eshitgan joʻralari rost naql qiling deganida, qul Muhammad Bahodirdan boʻlagini bilsam, Xudo ursin, deb javob berarkan. Uning tikkan kiyimlarini koʻrsangiz, chokidan barmoq oʻtar, xaridorlar bu qanday tikish deb soʻrasalar, musht oʻtmasa zoʻr tikish deb aytar ekan”.

Yuqoridagi masallar bilan bir qatorda naqlar ham beriladi. Ularni ham o'qituvchi sodda qilib, hikoya tarzida aytib beriladi. Bunday usullar bilan o'quvchini asar mohiyatiga olib kirish, badiiy so'z bilan unga ta'sir ko'rsatish orqali ma'naviy qiyofasini shakllantirish mumkin. Shuningdek, o'qituvchi hikoya qilish mobaynida o'quvchi ongida o'rganilayotgan majoziy asar qahramonlarini jonli odamlar sifatida tushunishlari, tuyushlari va ulardan ibrat olishlariga yo'naltiradi.

Masal janrini texnologiyalar bilan o'qitish o'quvchilarning badiiy didini shakllantiradi, uni yuqori bosqichga olib chiqadi, ulardagi adabiy-ijodiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi hamda rivojlantirilishi uchun ham juda qulay pedagogik asos vazifasini ado etadi.

"Zarbulmasal" asarini esa keng tahlil qilish mobaynida integratsiya usulidan foydalanish ham o'rinlidir. Zoologiya fani bilan bog'liq holda asarda uchraydigan qushlarning suratlaridan foydalanilsa, o'quvchilarga asardagi majoziy qahramonlarni ko'z oldida tasavvur va idrok qilishga ko'maklashadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni keltirilgan hikoyalar bilan tanishtirish chog'ida qo'llashi mumkin.

Adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri "6x6x6x" metodidir. O'quvchilar masallarning qisqacha syujeti bilan tanishib chiqqach, endi o'qituvchi bolalarni asarning asosiy g'oyasi haqida fikr yuritishga yo'naltiradi. Keling, shu o'rinda "G'oya" istilohiga to'xtalib o'tamiz. Badiiy g'oya o'zi nima?

G'oya yozuvchining o'quvchisiga aytmoqchi bo'lgani. Asarda qo'yilgan muammoning qalamga olingan hayot materiali asosida idrok etilishi va baholanishidan badiiy g'oya o'sib chiqadi.[3, 108]

Yuqorida keltirib o'tilgan metodni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu metodda sinfdagi o'quvchilar oltita-oltitadan olti guruhga bo'linadi. Jami 36ta o'quvchi ishtirok etadi. O'qituvchi istasa guruhlarga muayyan nomlar berishi ham mumkin. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi.

Bunda besh nafar kichik guruhlarga asardagi "Kabutar bilan Zog", "Maymun bilan Najjor", "Tuya bilan Bo'taloq", "Toshbaqa bilan Chayon" va "Yodgor po'stindo'z" hikoyalari taqsimlab beriladi. Har bir guruh o'ziga berilgan hikoya ustida bahslashadi, o'z munosabatlarini bildiradi. Belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlar a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Har bir guruh o'z hikoyalarini tahlil etib borarkan, o'qituvchi bolalarga masallarda ilgari surilgan g'oyalarni topish topshirig'ini yuklaydi. O'quvchilar jamoa bo'lib muhokama qilgan holda quyidagicha xulosa chiqarishlari mumkin.

1. "Toshbaqa bilan Chayon" masalida Toshbaqa – sodiq va qadrdon do'st timsoli. Chayon esa umr bo'yi birovga yomonlik qilgan, zarar-ziyon yetkazgan insonning majoziy tarzda talqin qilingan timsolidir. Yozuvchi toshbaqaning harakati orqali bir-biriga yordam, do'stlik, hamkorlik, mehr-shafqat singari insoniy

tuyg‘u va fazilatlarini ma‘qullasa, Chayonning nojo‘ya qilmishida insoniy qiyofasini yo‘qotgan, kishilik jamiyati uchun tamomila zararli bo‘lgan yaramas fe‘l-atvorni fosh etgan. Gulxaniy bunday kishilardan nafratlanib, do‘st bilan dushmani ajrata bilish, dushmanga o‘z vaqtida qaqshatqich zarba berishga chaqiradi.

2. “Maymun bilan Najjor” masalida hunar va hunar ahli ulug‘lanadi. Qo‘lingdan kelmagan ishga aslo urunib kulgu bo‘lma, birovga ko‘r-ko‘rona taqlid qilib falokatga yo‘liqma, degan fikrni maymunning qismati orqali ko‘rsatadi.

3. “Tuya bilan Bo‘taloq” masalida Tuya hayotda ezilgan, tutqun, erk-ixtiyorsiz, og‘ir mehnat bandisi hamda qul qismatiga mahkum etilgan mehnatkashlarning majoziy obrazidir. Biz masalni o‘qir ekaniz, tuyaning ilojsizligini, og‘ir mehnat ostida qolganini tushunamiz va ma‘lum ma‘noda unga xayrixohlik bildiramiz. Bo‘taloq esa ona sutiga to‘ya olmay, og‘ir mashaqqatli hayot kechirgan, och-yalong‘ochlikda, muhtojlikda yashagan erksiz mehnatkash bolalarning timsolidir.

4. “Kabutar bilan Zog‘” masalida esa har kim o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, o‘z jinsiga munosib yo‘l topishi kerakligi aytiladi. Zog‘ o‘z jinsiga munosib joyda yurmaganligi uchun qushlarga yem bo‘ladi.

5. “Yodgor po‘stindo‘z” masali qo‘lidan kelmaydigan ishlarga lof urib, insonlarni ishontirmoqchi bo‘lgan, gapirgan gapi bilan qilgan amali to‘g‘ri kelmaydigan insonlar haqida.

O‘quvchilar guruh bo‘lib, masallarning g‘oyaviy tomonini ham o‘qituvchi yordamida muhokama qilishganidan so‘ng, bu hikoyalarni birlashtirib, umumiy xulosalar chiqariladi.

Shu qisqa vaqt oralig‘ida o‘quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o‘zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. [4, 128]

Shu jihatdan bu metod samaralidir.

Bugungi kunda o‘quvchilarni faqatgina insoniyat tomonidan to‘plangan bilimlar va tajribalarni o‘zlashtirishlari bilan cheklanmaslik, o‘quvchida doimiy mustaqil ta‘lim olish ehtiyojini tarbiyalash, mustaqillik, faollik, subyektivlik kabi shaxs sifatlarini shakllantirishga imkon beradigan o‘qitishning yangi shakllari va metodlarini ta‘lim jarayoniga tadbiq etish zarur. [5, 76]

Hozirgi kunga kelib, darslarni tashkil qilish, uni to‘g‘ri taqsimlash o‘qituvchi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, albatta, o‘qituvchidan jiddiy mas‘uliyatni, pedagogik mahoratni talab qiladi. Biz bugungi zamonaviy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda nazariy ma‘lumotlarni shakllantirish bilan birga turli xil metodlarni, shuningdek, o‘yin texnologiyalarni ham ta‘lim tizimiga jalb etishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sobitova T. “Muhammadsharif Gulxaniyning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni”.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -Toshkent: Akademnashr, 2018.

3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi [Matn]. O'quv qo'llanma. –T.: "Barkamol fayz media", 2018.
4. Karimov I. Barkamol avlod orzusi.-T.:Sharq nashriyoti, 2010.
5. Abdullayeva B. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari(5111700-Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishlari ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun darslik). –Toshkent, 2020.

QO'QON ADABIY MUHITI MAVZUSI BIBLIOGRAFIYASINI TUZISHDA ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI MANBALARIDAN FOYDALANISH

**Maftuna AZIMOVA,
Namangan davlat universiteti 1-bosqich magistranti
(O'zbekiston)**

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasidagi Qo'qon adabiy muhiti mavzusini yoritishda muhim manba bo'luvchi ba'zi adabiyotlarning taxlili to'g'risida aytiladi. Shuningdek maqolada ushbu adabiyotlarning Qo'qon tarixini yoritishda ham alohida o'rni borligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: adabiyot, kutubxona, manba, risola, shoir, ijodkor, adabiy muhit, xonlik, saroy.

Аннотация:

В данной статье проводится анализ некоторой литературы Национальной библиотеки Узбекистана имени Алишера Навои, которая является важным источником освещения литературной среды Коканда. В статье также отмечается, что эти публикации занимают особое место в освещении истории Коканда.

Ключевые слова: литература, библиотека, источник, памфлет, поэт, творец, литературная среда, ханство, дворец.

Annotation:

This article provides an analysis of some of the literature in the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, which is an important source of coverage of the literary environment in Kokand. The article also notes that these publications have a special place in the coverage of the history of Kokand

Key words: literature, library, source, pamphlet, poet, creator, literary environment, khanate, palace.

Dunyo adabiyotshunosligi ilmida badiiy ijodda bahramandlik va ta'sir ko'rsatish masalasi tadqiq etilishi zarur bo'lgan asosiy ilmiy muammolardandir. Ayniqsa, an'anaviylik qobig'ida rivojlangan Sharq mumtoz adabiyotida ijodkorlarning o'ziga xos jihatlarini namoyon etish, badiiy matn qonuniyatlarining takomil bosqichlari, an'anaviylik va originallik mezonlarini belgilash masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada Yevropadagi ayrim sharqshunolar Sharq mumtoz adabiyotidagi qonuniyatlar va talablarni o'rganmasdan, ko'p ijodkorlarni adabiy epigonchilik va taqlidchilikda ayblaganlar. Jumladan, G'arb

olimlari Alisher Navoiyni fors-tojik adiblarining taqlidchisi sifatida noto‘g‘ri baholaganlar. Bunday noto‘g‘ri yondashuv o‘zbek adabiyotining boshqa namoyandalari, jumladan, Amiriy ijodiga nisbatan ham mavjudligi masalani ilmiy va xolis o‘rganishni taqozo qiladi.

Istiqlol davrida o‘zbek adabiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etgan Qo‘qon adabiy muhit namoyandalarining hayoti va faoliyati, ilmiy va adabiy merosini o‘rganish borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, biroq bu davr adabiyoti bo‘yicha qilingan ishlardan ko‘ra hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarning ko‘proq ekanligi ham ayni haqiqatdir. Bu orqali “Avvalo, xalqimizning yaratuvchanlik salohiyati bilan bunyod etilgan noyob merosini har tomonlama chuqur o‘rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko‘zda tutilgan” [1, 3].

Noyob merosini har tomonlama o‘rganishga loyiq bo‘lgan ana shunday ijodkorlardan biri – Qo‘qon adabiy muhitining asoschisi, adolatli shoh va dilbar shoir Umarxon Amiriyning hayoti va ijodiy merosi sovet ittifoqi davrida “reaktsion adabiyot vakili”, “saroy adabiyoti namoyandasi” tamg‘asi ostida xolis va to‘laqonli tadqiq etilmaganidek, mustaqillik davrida ham monografik tarzda qayta o‘rganilgan emas. Qo‘qon adabiy muhiti asoschisi va uning yorqin namoyandasi Amiriy ijodi adabiy ta‘sir va izdoshlik masalalarini har tomonlama keng va chuqur o‘rganish uchun salmoqli material beradi. Chunki u o‘zigacha bo‘lgan turkiy va forsiy adabiyotning ilg‘or an‘analari va muhim yutuqlarini o‘z ijodida birlashtirgan, Sharq mumtoz so‘z san‘atining Hofiz Sheroziy, Kamol Xo‘jandiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mushfiqiy, Mashrab, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil kabi zabardast namoyandalarining ijod maktabida tahsil olgan va ulardan mahorat sabog‘ini o‘zlashtirgan, ayni paytda, o‘zi mansub Qo‘qon adabiy muhiti vakillari va o‘zidan keyingi o‘zbek adabiyoti, xususan, Xiva adabiy muhiti shoirlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan, badiiy salohiyati baland so‘z ustasi hisoblanadi. Bu ilhombaxsh ta‘sirning yorqin izlari va rang-barang qirralarini biz Nodira, Uvaysiy, Fazliy Namangoniy, Gulxaniy, G‘oziy, Qoriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi Qo‘qon adabiy muhiti, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Rojii, Avaz, Bayoniy, Niyoziy kabi Xiva adabiy muhiti namoyandalari hamda Miriy, Yusuf Saryomiy, Noqis, Nojiy singari boshqa shoirlar ijodida yaqqol ko‘ramiz. Binobarin, Amiriy ijodini adabiy an‘ana, o‘zaro ta‘sir va ijodiy izdoshlik jihatidan o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi uchun mazkur masala bo‘yicha muhim ilmiy xulosalarni taqdim etishi shubhasiz. Mavzuning muhimligi va dolzarbligi ham ayni shu jihat bilan belgilanadi [2, 4].

Qo‘qon shahri faqat xonlik poytaxtigina emas, balki madaniy markaz ham hisoblanib, o‘ziga xos adabiy muhit yaratgan shahar hisoblanadi. Qo‘qonda turli dunyoqarashli, istedadli va malakali yozuvchi, shoir va shoirlar kelgan. Ularning aksariyati asli qo‘qonliklar edi. Bular o‘zlariga xos muhit yaratib, asosan ikki oqimga bo‘lingan edilar. Birinchisi saroy shoirlari bo‘lib, ular xon va boylarni maqtab, turmush sharoitini ko‘kka ko‘tarib asarlar yaratganlar. Ikkinchi oqimga mansublar esa progressiv fikrda bo‘lib, barchani xalqparvarlikga chaqirib, turmush

og'irligini, o'zaro urushlarni, xudbinlikni, yolg'on va yomonlikni qoralab asarlar yozgan.

Shu sababdan Qo'qon xonligida adabiy muhitni o'rganish barcha ilm-ahli uchun qiziqarli bo'lgan. Qo'qon adabiy muhiti to'g'risida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, ular xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga tegishli bo'lgan barcha masalalarga alohida e'tibor bergan. Ma'lumki tadqiqotchi tomonidan mavzuni yoritishdagi eng birinchi vazifa bu mazvuga tegishli adabiyotlarni jamlash ya'ni bibliografiyasini tuzish hisoblanadi. Bu borada kutubxona fondi juda boy. Qo'qon adabiy muhiti mavzusiga tegishli adabiyotlar ham talaygina bo'lib, tadqiqotchi tomonidan mavzu uchun kerakli adabiyotlarni olish uchun qulayliklar mavjud.

Jumladan, bu davr adabiyoti bo'yicha O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan o'qituvchi Po'latjon domla Qayumovning qalamiga mansub "Xo'qan tarixi va adabiyoti" nomli asar hisoblanadi [3, 35]. Mazkur asarda Qo'qon tarixi hamda unda ijod etgan ko'plab ijodkorlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi. Asarda o'tkan asrlarda Qo'qon shahri va butun Farg'ona vodiysida yashab ijod etgan ayrim o'zbek shoiralari, shuningdek, Buxoro, Toshkent, Qarshi shaxarlarida yashagan ayrim shoirlar to'g'risidagi materiallar ham uchraydi. Shu bilan bir qatorda bu asarda o'tgan davr forsiyzabon adabiyotning bir necha mumtoz namoyondalari hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar ham bor. Shu jihatdan bu asar mazmun va shakl jihatdan adabiyot qomusining bir parchasiga o'xshab ketyadi. Asarning asosiy qismi Qo'qon shahrining XVII-XIX asrlardagi holati, aholisi to'g'risidadir. Shuningdek, o'sha davrlarda Qo'qon xonligida yuz bergan voqealar ham bu asarda o'z aksini topgan. Asarning tarixga oid bo'limida o'zbeklarning kelib chiqishi, o'zbek urug'lari to'g'risidagi dalillar ham keltirilgan.

Bundan tashqari Ibratning "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon ul-zamon" asarlari tarixiy, ilmiy manba sifatida muxim ahamiyat kasb etadi. Ibratning "Tarixi madaniyat" asari taxlilini berishda Sharqning buyuk muttafakkiri Farobiyning "Fozil odamlar shahri" davlat boshqaruvi tizimi, davlat arboblari, ularning fel-atvorlari, ijtimoiy xayot, amiyat, ilm-ma'rifat kabilar haqidagi qimmatli fikrlarning bayoni beriladi. Ibrat ham ushbu asarida madaniyatga erishgan davlat moddiy va ma'naviy zamini nimalardan iborat bo'lishi kerakligi haqida qimmatli fikrlarning bayoni beriladi. Shuningdek Qo'qon adabiy muhiti, saroy va mahalliy ijodkorlar va ularning ilmiy merosi to'g'risida aytiladi [4, 112].

M.Qodirovaning "Davr Nodirasi" nomli risolasi XIX asrning birinchi yarmida uyashab ijod etgan iste'dodli o'zbek shoirasi Mohlar oyim – Nodira (1792-11842) ga bag'ishlangan. O'zbek adabiyoti tarixida Nodira, Komila, Maknuna, taxalluslari bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar ijod etgan hamda Qo'qon adabiy muhitiga asos solgan ayol deb atash mumkin. Shuningdek risolada Nodiraning nafaqat hayoti va ijodi balki uning atrofidagi ijodkorlar –shoir va shoiralar to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar beriladi [5, 112].

Mazkur kutubxonadan Qo'qon adabiy muhitini yoritishga doir A.Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti"[6], I.Mo'minovning "O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan (XIX asrning oxirlari va XX asr boshlari)" [7] O.Sharafiddinovning "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi XV–

XIX asrlar” [8], M.Buzrukning, “O’rta Osiyo va o’zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash”[9] asarlari ham o’rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi / Xalq so‘zi.–Toshkent, 2017, 4-avgust.
2. Qobilova Z. Badiiy ijodda ta’sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she’riyati misolida). f.f.d. dis. avt. Farg‘ona -2021. B -4
3. Qayumov.P . Xo‘qan tarixi va adabiyoti. T - “Tamaddun” – 2011.B – 35.
4. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam. T –1999. “Sharq” . B -112
5. Qodirova M. Davr Nodirasi. T – 1991. “Fan”. B -106
6. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. – T.: Fan, 1961; Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
7. Mo‘minov I. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan (XIX asrning oxirlari va XX asr boshlari). -T.: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, 1960. – B. 67–69; Zohidov V. O‘zbek adabiyoti tarixidan.-T.,1961.
8. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. XV–XIX asrlar. Oliy pedagogika o‘quv yurtlari uchun. Tuzuvchi O.Sharafiddinov. -T., 1945. – B. 179–190.
9. Miyon Buzruk. O’rta Osiyo va o’zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash. 1-qism.-T.:O‘z.nashr, 1930.-B. 74-86.

ADABIY MEROS - UCHINCHI RENESSANSNING ASOSIY USTUNLARIDAN BIRI SIFATIDA

Xayrullo Bozorov. Tuprog'ida fozillar yetishtirgan yurt	3
Ma'rufjon Usmonov. Uchinchi renessansning mustahkam poydevori	4
Dilnoza Xodjayeva. Xo'qandi latif – ilm-fan tamadduni beshiklaridan biri	6
Jabbor Eshonqulov. Epik matnning qiyosiy tadqiqi masalalari	7
Bahodurjon Ashrapov. Principles towards interethnic tolerance formation among students of higher educational establishments.....	11
Шахноза Буранова. Сотрудничество семьи, махалли и дошкольной образовательной организации в воспитании детей третьего ренессанса	16
Manzura Norqo'ziyeva. Yoshlar ma'naviyatini oshrish - Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asosidir	20

QO'QON ADABIY MUHITI VAKILLARI IJODINI O'RGANISH MUAMMOLARI

Ibrohim Haqqul. She'r – dard va dardkashlikdir.....	24
Maqsud Asadov. “Tazkirai Qayyumiy”ga doir ayrim mulohazalar	26
Ergash Ochilov. “Ustina” radifli g'azallarning qiyosiy tahlili	29
Dilshod G'ayipov. “Sallamno” g'azali: an'ana va o'ziga xoslik	41
Zeboxon Qobilova, Sug'diyona Ergasheva. Amiriy va Fazliy	44
Zeboxon Qobilova, Dilzoda Abdullayeva. Furqatning bir tatabbusi xususida ...	49
Zilola Amonova. Haziniy ijodida Nasimiy ohanglari	52
Dildora Abdullayeva. “Tazkirai Qayyumiy” asarida Andijon shoirlari haqida ...	55
Salomat Matkarimova. Tabibiyning “Majmuai si shuaro'i payravi Feruzshohiy”, Fazliyning “Majmuai shoiron” tazkiralari: ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik ..	62
Mo'minjon Siddiqov. Amiriyning hamd g'azali sharhi	71
Nasiba Bozorova. G'afur G'ulomning Muqimiy ijodini o'rganishga qo'shgan hissasi	76
Zulayho Rahmonova. Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida tariqat va tariqatchilik masalasi	82
Sherxon Qorayev. Qo'qon xonligida adabiy kechalar (Umarxon Amiriy she'riy majlislari misolida)	86
Zohid Madrahimov, Fazliddin Mamasiddiqov. Qo'qon tarixnavislik maktabi..	93
Gulchehra Xo'janova, Fazilat Qosimova. Dilshodi Barno she'riyatining axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati	99
Zokir Rahimov. Badiiy adabiyotda xarakter yaratish va ijodkor mahorati	102
Munis Hakimov. Badiiy asarda davr nafasi	106
Nodira Matmusayeva. Muhyi she'riyatining o'ziga xosligi	111
Dilfuza Rahmatova. Vohid Abdullayev va Qo'qon adabiy muhiti	115
Nasiba Jo'raqulova. Anbar Otin ijodida ma'naviy - axloqiy hurlik masalasi ...	121
Saodat Rahmatullayeva. Usuli jadid kutubxonalarining tashkil etilishida Qo'qon adabiy muhitining ta'siri	126
Musharrafxon Imomaliyeva. Amiriy ijodida oyina timsoli	128

Dilmurod Asqarov. Amiriy muxammaslarida talmeh san'ati	133
Lochinbek Ahmadaliyev. Po'latjon Qayyumiy asarlarida Qo'qon shoirlari	137
Lochinbek Ahmadaliyev. Xo'qandi latif – “shoirlar shahri”	148
Gulbahor Bektasheva. Begali Qosimovning Qo'qon adabiy muhitiga munosabati masalasi	153
Dilnoza Mamanova. Badiylashtirilgan “Qo'qon xonligi”	157
Dilshunos Inomova. Amiriy “Devon”i debochasida ruboiyning o'rni	161
Nafisa Boboxo'jayeva. Qo'qon adabiy muhitining kitob bosish va kitobat san'ati rivojiga ta'siri	165
Muzayyana Sobirova. Amiriyning bir oshiqona g'azali xususida	168
Ahror Raimjonov. Ijodkor ma'naviy qiyofasining badiiy aksi. (“Amir” radifli g'azal misolida)	173
Mohigul Danabayeva. Nodiraning “bo'lmasun” va “aylar orzu” radifli tazmin g'azallari tahlili	179
Muxtasar Musayeva. Amiriy ijodida talmeh san'ati	184
Buvixon Toshpo'latova. Qo'qon adabiy muhitida hukmdor shoirlarning o'rni..	192
Azimjon Rahmonov. Qo'qon adabiy muhiti vakillaridan biri – Huvaydo she'riyatida ishq masalalari	198
Dilzoda Abdullayeva. Amiriyning badiiy mahorati	203

QO'QON ADABIY MUHITI VA MILLIY UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI

Boqijon To'xliyev. Qadimgi turkiy obidalar va Qo'qon adabiy muhiti namunalarining qiyosiy-tipologik tahlillari muammolariga doir (Yusuf Xos Hojib, Mavlono Muqimiy hamda Zokirjon Furqat ijodlari misolida)	209
Nurboy Jabborov. Qo'qon adabiy muhitining jahoniy e'tirofi.....	213
Dilmurod Qur'onov, Akram Xudayberdiyev. Hamza ijodida “Vatan” va “millat” badiiy konseptlari.....	226
Abduhamid Xolmurodov. Furqat ijodining hozirgi adabiy jarayondagi o'rni va ahamiyati.....	231
Shoira Axmedova. Hamzaning ilk romani va so'zboshisi xususida.....	241
Muqaddas Tojiboyeva. Muqimiyning xalqona ruhdagi she'riyati xususida	238
Laylo Sharipova. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga xosliklar.....	243
Quldosh Pardayev. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti va Muqimiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari.....	245
Akbarali Sabirdinov, Gulhayo Haydarova. Charxiy ijodida muxammasnavislik an'analari.....	253
Gulnoz Sattorova, Abdurasul Eshonboboyev. Muqimiyshunoslikda yangi sahifa.....	259
Shahlo Hojiyeva. Qo'qon adabiy muhiti an'alarining Cho'lpon ijodida yangilanishi.....	261
Shermuhammad Amonov. Ahmad Tabibiyning Qo'qon adabiy muhiti vakillari g'azallariga yozgan muxammaslari	266
Ahadjon Muhammadiyev. Muhyi va Qo'qon adabiy muhiti.....	271

Sofiya Jumayeva. Mohiyat va tasvir.....	279
Durdona Zohidova. Furqat v G‘aribiy.....	282
Iqbol Mirzo. “O‘sha shonman...”.....	287
Gulbahor Saidg‘aniyeva. G‘ulom G‘ofur – hajviy hikoyalar ustasi (XX asrning 30-40-yillari Qo‘qon adabiy muhiti).....	289
Bahrom Irzayev. Sho‘ro qatag‘oni yohud opa-singil Dadamammedovalarning achchiq qismati.....	293
Obidaxon Fayzullayeva. Furqat lirikasida ijtimoiy mavzular ifodasi.....	295
Gulchehra Qo‘yliyeva. Mavlono Muqimiy an‘alarining XX asr adabiyotida davom ettirilishi.....	298
Nodira Xolikova. Epik obraz va ramz mushtarakligi (Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Uchrashuv” romani misolida).....	303
Sanobar Romanova. Hamza Hakimzoda Niyoziy – Ijodkor va mahoratli o‘zbek pedagogi	307
Muqaddas Saidakbarova, Husnida Mamajonova. Yangi usul maktablarida bola tarbiyasi haqida.....	310
Feruz Mamatqulova, Marhabo Meliboyeva. Furqat ijodida Navoiy an‘analari.....	313
Latofat Tajibayeva. Yangi o‘zbek she‘riyati shakllanishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni.....	317
E‘zoz Qobilova. Jadidchilik harakati ulug‘ namoyandalarining ijodiy faoliyati..	320
Halima Yuldasheva. Milliy ruh ifodasida mumtoz poetik uslubning o‘rni.....	324
Arofatoy Muydinova. Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida muvashshahchilik an‘anasi.....	330
Naima Aliqulova. Majzubiylik va Qo‘qon adabiy muhiti.....	333
Namuna Tursunova. Muqimiyning radif qo‘llash mahorati.....	339
Dilnoza Ahmedova. Yoshlar ma‘naviyatini shakllantirishda ma‘rifatparvar shoirlar ijodining ahamiyati (Furqat, Muqimiy, Gulxaniy asarlari misolida)..	345
Mo‘minaxon Solijonova. Maktublarda aks etgan do‘stlik (Muqimiy va Furqat maktublari asosida).....	347
Mohinur Abdurahmonova. 30-50-yillarda Qo‘qon adabiy muhitida mushoira janri an‘analari.....	349
Shahnoza Rayimova. Muqimiy va zamondosh shoirlar ijodida hayot nafasi.....	353
Akbar Karomatov. Muqimiy va Zavqiy hajviyotidagi mavzuviy o‘xshashliklar.....	357
Gulnavoz Mamadaliyeva. Muqimiy, Hamza va So‘fizoda ijodida adabiy-estetik qarashlar uyg‘unligi.....	361
Fazilat Mamadaliyeva. Hamza ijodida ma‘rifatparvarlik g‘oyalari talqini.....	364
Abdulaziz Qodirov. Hamzashunoslikka muhim bir ulush.....	368

ADABIY TA‘SIR, TALQIN VA TADQIQ MASALASI (XORIJDAGI MANBALAR VA TARJIMALAR)

Almaz ÜLVİ. Nadirə.....	371
--------------------------------	-----

Матлуба Мирзоюнус. Социально-философские и просветительские взгляды Дильшод Барно.....	378
Vaxtiyor Fayzulloev. Qo‘qon adabiy muhitida tatabbunavislik	384
Мавчуда Ўрунова. Як хусусияти бадеии достони “Юсуф ва Зулайхо”-И Чунайдуллои Ҳозик.....	392
Нурихон Охунджанова. Особенности темы и содержания стихов Амира Умархана.....	398
Рухсора Давлатзода. Изучения Кокандского литературного круга в таджикской литературе.....	402
М.З.Шарипова. Источники и принципы создания «табакот ус-суфия»ю..	405
Феруза Қаюмова. Адабиётшунос Эргашали Шодиев асарларида Қўкон адабий муҳити вакиллари ижодини ўрганиш	410
Нумонджон Нигматов. Редкий источник в Кокандоведении.....	415
Замира Қаюмова. Роль гуманистических взглядов Абдуррахмана Джами в формировании мировоззрения молодежи.....	420
Мархабо Касимова. Экскурс по истории таджикской антологии конца XIX-середины XX.....	426
Konul Hajiyeva. Nodirabegimin və Xurşidbanu natəvanın şeirlərində giley motivi.....	428
Vəxtiyar Məmmədov. Zəhirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığında eşqin tərənnümü.....	434
Мавлонберди Суюнов. Матлаъ ва унинг ғазалдаги вазифаси.....	438
Гулноз Халлиева, Европадаги миллий мумтоз дурдоналаримиз.....	442
Hilola Raimova. Qo‘qon adabiy muhitining g‘oyaviy rahnamosi haqidagi asar.....	447

MANBALARNI MATNIY TADQIQ ETISH MUAMMOLARI

Abdullatif Turdialiyev. Muhyi Ho‘qandiyning bir qo‘lyozma bayozi xususida.....	451
Nodirxon Hasan. Qo‘qonda saqlanayotgan «Devoni hikmat»ning ayrim nusxalari haqida.....	453
Otabek Jo‘raboyev. Muhammad Alixon adabiy merosiga doir bir nodir manba xususida	459
Vahob Rahmon. Muqimiy asarlari matniy muammolari.....	461
Botir Jafarov. “Kodeks kumanikus” qo‘lyozmasining tanqidiy matni xususida..	465
Sirdaryoxon O‘tanova. Xo‘qand xonligining mutasavvif shayxi va shoiridan tuhfa.....	469
Tojixon Toshboltayeva, Hilola Aminova. “Majmuai shoiron”ning muqaddimasi zikrida	473
Ozoda Boltaboyeva. Xilvatiy adabiy merosining o‘rganilishi: an‘ana va badiiy ijod.....	477
Roziya Xaboxunova. Aziz Qayumov – Qo‘qon adabiy muhiti tadqiqotchisi....	482
Ibrohim Saydullayev. Qo‘qon adabiy muhiti tadqiqi: yutuqlar va vazifalar.....	487
Furqat To‘xtamuratov. Fuzuliy she‘riyatining Muhsiniy ijodiga ta’siri.....	491

Go‘zal Jo‘rayeva. Firoqiy devoni: tuzilishi va tarkibi.....	496
Nuriddin Rahmonov. Xon va adabiy ta’sir masalasi.....	502
Lochinbek Ahmadaliyev. “Tazkirai Qayyumiy”ning adabiy manba sifatidagi ahamiyati.....	509
Nilufar Javharova. Ashurali Zohiriy – serqirra ijodkor.....	514

TA’LIM TIZIMIDA QO‘QON ADABIY MUHITI VAKILLARI ADABIY MEROSINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Maqsuda Sariboyeva, Shahnozaxon Xojimurodova. Qo‘qon adabiy muhitida Nodiraning o‘rni va o‘qitish muammolari.....	519
Mirhojiddin Jamoliddinov, Gulbahor Mo‘ydinova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishdagi muammo va yechimlar.....	523
Сайёра Алимсаидова. Теоретические подходы к взаимосвязанному изучению языка и культуры (на примере истории Коканда).....	526
Barno Abdurahmonova. O‘quvchilarni g‘azal matni ustida ishlashga o‘rgatish.....	530
Yo‘ldosh Rahmatov. Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida maqol va badiiy tafakkur masalasi.....	535
Azimjon Davronov. Hamza maktublarining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati...541	
Sofiya Usmonova. Qo‘qon xonligi davrida madrasalar va machitlar nomlari...544	
Surayyo Ergasheva, Gulnoza Abdusalomova. Umumiy o‘rta ta’lim adabiyot darslarida Muqimiy ijodini o‘rganish.....	549
Dildora Erkaboyeva, Gulnoza Aliyeva. Adabiyot darsliklarida Qo‘qon adabiy muhiti vakillarining o‘rni.....	552
Muqaddas Oqmatova. Amiriy asarlari tarjimasida milliy-madaniy frazeologik birliklarning adekvatlik masalalari (ingliz tiliga tarjimasida misolida).....	555
Sofiya Usmonova, Gulira’no Murodova. Po‘lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirai Qayyumiy” dagi ayrim oykonimlar xususida.....	558
Zumrad Teshaboyeva. Hayot haqiqatining badiiy aksi.....	561
Элнур Турдалиева. Трансформационный метод при переводе художественного текста.....	564
Rustam Husanov. O‘zbek xalq an’analari va musiqa san’ati tarixi.....	569
Gulzoda Ishbayeva. Ingliz tili ta’limida Furqat ijodi tarjimalarining o‘ziga xos jihatlarni o‘rgatish.....	572
Dilrabo Meliqo‘ziyeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodidan foydalanish (Gulxaniy “Zarbulmasal” asari misolida).....	574
Lochinbek Ahmadaliyev. XXI asrning yangi tazkisasi.....	577
Sadoqat Shamsiddinova. Amiriy “Devon”idagi arabizmlarning leksik-semantik xususiyatlari.....	585
Oyzoda Yahyoxonova. “Zarbulmasal” asarini o‘qitishning zamonaviy pedagogik usullari haqida.....	588

Maftuna Azimova. Qo‘qon adabiy muhiti mavzusi bibliografiyasini tuzishda Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi manbalaridan foydalanish.....593